O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



RESPUBLIKA JANUBIDA YUK VA YO‘LOVCHI TASHISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMAN MATERIALLAR TO‘PLAMI

TERMIZ 2024–YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“RESPUBLIKA JANUBIDA YUK VA YO‘LOVCHI TASHISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI”

RESPUBLIKA ILMIY VA ILMIY-TEXNIK ANJUMAN MATERIALLAR TO‘PLAMI

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО И НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ГРУЗОПАССАЖИРСКИХ ПЕРЕВОЗОК НА ЮГЕ РЕСПУБЛИКИ

25-26 Oktabr 2024-yil

TERMIZ 2024 - yil

Mas’ul muharrir **Sh.A.Abdiqadirov.**

Taqrizchilar: **B.Sh.Primkulov;**
A.U.Kuziyev;
F.X.Baxramov.

“RESPUBLIKA JANUBIDA YUK VA YO‘LOVCHI TASHISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI”

Respublika miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik anjuman

“Respublika janubida yuk va yo‘lovchi tashishning muammo va yechimlari” mavzusidagi anjuman materiallariga Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Farg‘ona politexnika instituti, Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Jizzax politexnika instituti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat transport universiteti hamda respublikamizning boshqa oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodim izlanuvchilar, doktarantlar, magistr va talabalar hamda viloyat tashkilotlarining malakali kadrlarning tezislari kiritilgan.

Mazkur to‘plamda “Respublika janubida yuk va yo‘lovchi tashishning muammo va yechimlari”, transportda yuk va yo‘lovchilarni tashishda mavjud muammolar hamda ularning yechimlari, transport, avtomobilsozlik, mashinasozlik va qishloq xo‘jaligi texnikalarida metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirishning o‘rni, texnika fanlari ta’limida innovatsion yondashuvlar, muammolar va yechimlariga bag‘ishlangan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar o‘z aksini topgan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza va tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar hamda me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga, tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

1. SHO‘BA. TRANSPORTDA YUK VA YO‘LOVCHILARNI TASHISHDA MAVJUD MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI

ШАҲАР АВТОБУСЛАРИНИ ЙЎНАЛИШЛАРИНИ ТАҚСИМЛАШ УСЛУБИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРИ

Саматов Ғаффор Аллақулович, и.ф.д.проф (ТДТУ)
А.Р.Кунназарова (ҚДУ)

Ўзбекистон Республикасининг транспорт тизимини модернизациялаш, аҳолининг меҳнат сафарбарлиги, йўловчиларнинг жамоат транспортида автобуслар қатновларининг самарали таъминланиши бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 декабрь куни «Тошшаҳартрансхизмат» фаолиятидаги мавжуд муаммоларни ўрганиш мақсадида 18-автобус саройини кўздан кечираётган вақтида тўхталиб ўтилган камчиликлар, яъни автобусларнинг режага нисбатан кам чиқаётганлиги, кўчаларда жамоат транспорти устуворлиги йўлга қўйилмаганлиги, буларнинг оқибатида йўловчилар автобусларни 20-30 дақиқагача кутишига тўғри келмаётганлиги бўйича келтирилган танқидлари бўйича мавжуд муаммоларни ва соҳага оид бошқа мейёрий ҳужжатларнинг ижросини муайян даражада амалга оширишга борасида тадқиқотлар олиб боришни талаб этади.

Автобусларни маршрутларга тақсимлашда, аввало, маршрутларини шундай тақсимлаш талаб қилинадики, бунда йўловчиларнинг автобусни кутиш, ҳаракатланиш ва алмашиб ўтиришга сарфлайдиган вақтларининг йиғиндиси минимал бўлиш талаби қўйилади. Бунда, қуйидаги чегаравий шартларни инобатга олиш керак бўлади: автобусларнинг сиғдирувчанлигидан фойдаланиш коэффициентидан самарали фойдаланиш; автобусларнинг орасидаги интервал берилган катталикдан ошиб кетмаслиги, бу катталиклар ҳар хил йўналишлар учун турлича бўлади; маршрутнинг узунлиги норматив узунликдан кам бўлмаслиги ва максимал узунликдан ошиқ бўлмаслиги; маршрутларнинг охирги пунктларини ташкил қилиш учун фойдаланиб бўлмайдиган узеллардан бошланмаслик ва тугамаслиги ва ҳар бир аниқ шаҳарнинг географик жойлашувидан келиб чиқадиган бошқа чегаравий шартлар белгиланади[2,3].

Автобус маршрутларини йўналишларга тақсимлаш схемасини ишлаб чиқиш бир нечта босқичдан ташкил топади[1].

1-босқич. Пунктлар (ҳудудлар) ўртасидаги энг қисқа йўлларни (вақт бўйича) аниқлаш. Энг қисқа йўл тўғрисидаги масалани ечишнинг кўплаб

алгоритмлари орасида қуйидаги алгоритм кўпроқ кўргазмали бўлиб ҳисобланади, у иккита қадамдан ташкил топади.

2-босқич. Бошланғич маршрут схемасини аниқлаш. Бошланғич маршрут схемаси сифатида алмашиб ўтиришларсиз “ягоналик” машрутларни қўйиш, шунингдек бирортаям “ягоналик” маршрут билан мос тушмайдиган участка маршрутларини қўйиш шартини қаноатлантирадиган схема қабул қилинади. “Ягоналик” маршрути деганда, йўналишга кетадиган вақт сарфларидан келиб чиқиб, энг қисқа йўл билан учта ёки ундан кўп ҳудудларнинг марказларини туташтирадиган маршрут тушунилади. “Ягоналик” маршрутни қўйиш учун етарли шарт шундай табиий шартни қаноатлантириши лозим бўлган маршрут бўладики, бунда маршрутнинг бошланғич пунктида йўловчининг автобусни кутишга сарфлайдиган вақти у алмашиб ўтириш пунктида сарфлайдиган вақтдан кичик ёки унга тенг бўлиши лозим, агар бундай маршрут бўлмаса, у ҳолда қуйидаги муносабатга амал қилинади:

$$c \cdot q \cdot T_p \le t_{n_l} \cdot \mathrm{p} \cdot P_{ij} \qquad (1)$$

Бу ерда, *c* – йўловчиларнинг бекатга келишининг нотекислик коэффициенти;

q - автобуснинг фойдаланиладиган сиғдирувчанлиги;

T_p - сутканинг ҳисобий давринининг давомийлиги, мин;

p – йўловчи оқимининг бир соат ичидаги нотекислик коэффициенти;

P_{ij} - қўйиладиган маршрутнинг охирги пунктлари ўртасида максимал йўловчи оқими йўналишида қатнайдиган йўловчилар сони;

t_{n_l} - қўйиладиган маршрутнинг *i* бошланғич ва *j* охирги пунктлари ўртасида олинган йўлда максимал йўловчи оқими йўналишидаги бошқа оралиқ пунктларга нисбатан минимал алмашиб ўтириш давомийлигига эга бўлган *l* пунктда битта йўловчининг алмашиб ўтиришга сарфлайдиган вақти.

3-босқич. Участка маршрутларининг берилган ҳаракат интервалига мувофиқлигини текшириш. Текширишга фақатгина “ягоналик” маршрутлар билан мос тушмайдиган ва уларнинг ўртасида бошқа маршрутлар бўйича автобусда юриш имконияти мавжуд бўлган пунктлар орқали (яъни қандайдир бир оралиқ пунктлар орқали) ўтадиган участка маршрутлари топилади.

Маршрут бўйича автобусларнинг ҳаракат интервалини ҳисоблаш учун P_{ij}^{max} энг катта йўловчи оқимига эга бўлган йўналиш қабул қилинади.

Ҳаракат интервали қуйидаги формула бўйича аниқланади:

$$l_{ij} = \frac{qTp}{Plj} \quad (2)$$

4-босқич. Қўшимча “ягоналик” *маршрутларни қўйишнинг мақсадга мувофиқлигини текшириш.* Бошланғич вариантга тушган маршрутлардан ташқари бошқа “ягоналик” маршрутларни ҳам қўшиш мумкин.

Шу сабабли ҳисоблашларда фақат шу маршрутларгина кўриб чиқилади. Бунда кўрсатилган маршрутларни ҳаракатга киритишнинг барча мумкин бўлган комбинацияларидан энг яхшисини танлаш талаб қилинади. Бундай комбинацияларнинг сони $2^m - 1$ га тенг, бу ерда m – маршрутларнинг сони.

Маршрутлар сони кўп бўлганда барча комбинацияларни ҳисоблашнинг мураккаблиги сабабли йўналтирилган танлаб олиш услубидан фойдаланилади. Бунда дастлаб бошланғич вариантда танлаб олинган ҳамма маршрутлар амал қилади деб ҳисобланади.

Автобус маршрутлари схемасининг бошланғич варианти учун барча йўловчилар томонидан бориш ва алмашиб ўтиришга сарфланадиган вақт ҳисобланади. Бунда ҳар бир йўловчилар оқими учун қўйилган маршрутларни ҳисобга олиш билан бориш ҳамда алмашиб ўтиришлар вақти бўйича энг қисқа қатнаш йўли танланади.

Битта маршрутда йўналишида максимал йўловчилар оқими борадиган битта йўналишда барча йўловчиларнинг кутиш вақти $T_{\text{кутиш}} = cqT_p$ га тенг бўлади ва шу йўналишда борадиган йўловчилар сонига боғлиқ бўлмайди. Агар йўловчиларнинг сони катта бўлса, автобусларнинг интервалли кичик қилиб белгиланади ва йўловчи умуман олганда автобусни камроқ вақт кутади. Агар йўловчилар оқими катта бўлмаса, у ҳолда автобусларнинг жўнаш интервали нисбатан катта қилиб белгиланади ва бунда ҳар бир йўловчининг вақт сарфи ортади. Максимал йўловчилар оқимига эга бўлган маршрутнинг битта йўналишида барча йўловчиларнинг йиғинди кутиш вақти бир хил бўлади.

Битта маршрутда асосий ва тескари йўналишларда қатнашларда йўловчиларнинг кутиш вақтлари турлича бўлади, чунки автобусларнинг жўнаш интерваллари максимал йўловчилар оқимини, яъни асосий йўналишдаги йўловчилар оқимини ҳисобга олиш билан белгиланади. Тескари йўналишда борадиган йўловчилар автобуснинг сиғдирувчанлигидан тўлиқ фойдаланмасдан ва шу тариқа нисбатан кичикроқ жўнаш интервали билан ташилади. Шу сабабли жўнашни кутишга вақт сарфларининг йиғиндисини ҳар бир қўйилган маршрут бўйича φ ($\varphi = P_{ij}^{min} : P_{ij}^{max}$) нисбатни ҳисобга олиш билан аниқлаш зарур бўлади. φ коэффициентни барча қўйилган маршрутлар учун ўртача катталик сифатида қабул қилинади.

4-босқич. Олинган автобус маршрутлари йўналишини берилган автобусларнинг сиғдирувчанлигидан фойдаланиш коэффициентига мувофиқлигини текшириш. Олинган автобус маршрутлари йўналиши берилган автобусларнинг сиғдирувчанлигидан фойдаланиш коэффициентига мувофиқлигини текшириш учун йўловчилар оқимлари ўзгаришига қараб тузилади ва йўловчилар оқими энг қисқа йўл бўйича борадиган оралиқ бориш

пунктлари қўйилади.Сўнгра тармоқнинг ҳар бир участкаси бўйича тўғри ва тескари йўналишларда йиғинди йўловчилар оқими ҳисобланади.

Адабиётлар

1. Геронимус Б.Л. Джумаев Д.Д. Математико-статистический метод выборочного обследования пассажиропотоков. – Автомобильный транспорт, 1966, №4. 43-44 бетлар.
2. K. Kutlimuratov, A. M.-I. C. S. Earth, 2020, “Impact of stops for bus delays on routes,” *iopscience.iop.org*, doi: 10.1088/1755-1315/614/1/012084.
3. X. Chen, L. Yu, Y. Zhang, and J. Guo, “Analyzing urban bus service reliability at the stop, route, and network levels,” *Transp. Res. Part A Policy Pract.*, 2009, doi: 10.1016/j.tra.2009.07.006.

ЮК ВА ЙЎЛОВЧИ ТАШИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Турғунбаев Баҳромжон Бахтиёрович, Подполковник
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти Касбий тайёргарлик факультети Махсус фанлар цикли ўқитувчиси

Аннотация: Транспорт хизмати кўрсатишни ташкил этиш тизимини янада такомиллаштириш, мулкчиликнинг барча шаклларидаги ташувчилар учун рақобат муҳитини ҳамда қулай шарт-шароитларни яратишдан иборат.

Таянч сўзлар: Йўл ҳаракати хавфсизлиги, Транспорт, Юк, Йўловчи, Маъмурий амалиёт, Ишора белгилари, Радар.

Транспорт хизмати кўрсатишни ташкил этиш тизимини янада такомиллаштириш, мулкчиликнинг барча шаклларидаги ташувчилар учун рақобат муҳитини ҳамда қулай шарт-шароитларни яратиш, шунингдек, республиканинг транспорт-транзит салоҳиятини ошириш мақсадида: 06.03.2019 йилда “Юк ва йўловчи ташиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори” қабул қилинган. Қарорнинг 5,б) бандида: автомобиль транспортида юк ва йўловчиларни ташиш хизматлари кўрсатиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликни кучайтириш бўйича таклифлар киритилиши белгиланган.

Вазирлар Маҳкамасининг «Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасига хусусий секторни жалб этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2021 йил 21 апрелдаги 232-сон қарорига мувофиқ қуйидагиларни назарда тутувчи ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиши белгиланган: дастурий-техник воситалар орқали қайд этилган йўл ҳаракати қоидабузарлик

ҳолатлари бўйича «Маъмурий амалиёт» комплекс автоматлаштирилган ахборот тизимига юборилган маълумотлардаги хатоликларнинг умумий сони беш ва ундан ортиқ фоизни ташкил этган тақдирда, тадбиркорлик субъектининг объектга нисбатан бўлган мулк ҳуқуқини суд тартибида бекор қилиш.

Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 14 августдаги 375-сон қарорига иловасида: Тадбиркорлик субъектлари томонидан автомобиль йўлларида йўл ҳаракати қоидалари бузилганлигини махсус автоматлаштирилган фото ва видео қайд этиш дастурий-техник воситаларини ўрнатиш ва эксплуатация қилиш тартиби тўғрисидаги низомда (қарорга1-илова):а)2-банднинг учинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин: «тизим қурилмалари — тадбиркорлик субъектлари томонидан тизимни шакллантириш учун фойдаланиладиган ҳамда транспорт воситалари томонидан содир этиладиган маъмурий ҳуқуқбузарликларни фото ва видео қайд этиш ускунаси, «I», «Г», «Т» ёки «П» шаклдаги металл устун, қайд этилган қоидабузарлик ва транспорт воситалари тўғрисидаги маълумотларни ўзида сақловчи қурилма, коммутатор, маршрутизатор ва бошқалардан иборат бўлган тармоқ қурилмалари ҳамда электр қуввати билан таъминловчи қурилмалар».

Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 декабрдаги 975-сонли “Йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракати қатнашчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда махсус мосламалардан фойдаланиши тартиби тўғрисида”ги Низомнинг 27-бандига кўра, транспорт воситаларининг оқими ва йўл шароитини ҳисобга олган ҳолда, кўчма фоторадар ва мобиль комплекслар бириктирилган ЙПХ ходимлари томонидан уларнинг кунлик дислокацияси белгиланган ва махсус мосламалардан тегишли тартибда фойдаланиш чоралари кўрилган бўлиши лозимлиги белгиланган.

Ушбу Низомнинг 29-бандига биноан, кўчма фоторадар ва мобиль комплекслардан фойдаланганда ЙПХ ходими мосламанинг кўрсаткичлари билан ҳаракат тезлигини ошириб, қоидаларни бузган ҳайдовчини таништириши, унинг талаби билан мосламанинг сертификати (нусхаси)ни кўрсатиши лозим.

Шунингдек, Низомнинг 30-бандига асосан, ЙПХ ходимларининг патруль автомобилларида фойдаланиш белгилаб қўйилган тезликни ўлчаш мосламаларини ўзбошимчалик билан ечиб олиши ва хизматга алоқаси бўлмаган бошқа (жисмоний ва юридик) шахсларнинг транспорт воситаларига ўрнатиши ҳамда хизматни ўташга алоқадор бўлмаган фуқароларни жалб қилиши қатъиян тақиқланиши белгилаб берилган бўлиб, мазкур талабга риоя этилмаган ҳолда расмийлаштирилган баённомалар юридик кучга эга бўлмайди ва ҳуқуқий оқибатлар келтириб чиқармайди.

Бундан ташқари, Низомнинг 32-бандига биноан, кўчма фоторадар ва мобиль комплексларни қўллаш жойи ва вақти ДЙҲХХ саф бўлими (бўлинмаси) бошлиғи томонидан тасдиқланган дислокацияга мувофиқ белгиланади.

Низомнинг 41-бандига кўра, ЙПХ ходими ўз хизмат вазифаларини махсус аудио ва видео қайд этиш қурилмалари билан жиҳозланган транспорт воситаларидан фойдаланган ҳолда, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги томонидан белгиланган экипировкада ошкора усулда амалга оширади. Йўлларда хизматни яширин олиб бориш тақиқланиши назарда тутилган.

Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 24 декабрдаги 370-сон қарорига 1-ИЛОВА "Йўл ҳаракати ыоидалари" 5.43. «Радар». Йўлларда автомобил ҳайдовчилари белгиланган тезликка риоя этиши радарлар ёрдамида назорат қилинаётганлигини билдирувчи йўл белгиси. Ушбу йўл белгиси белгиланган ҳаракатланиш тезлиги назоратга олинган барча жойларга ўрнатилиши шарт.

Стационар махсус техника воситаларидан фойдаланиладиган жойларда доимий йўл белгиларини, кўчма махсус техника воситаларидан фойдаланиладиган жойларда эса кўчма устунга вақтинчалик йўл белгиларини ўрнатиш кўзда тутилади.

Ушбу Низом 7.19. «Фото- ва видео қайд этиш». Йўл ҳаракати қатнашчиларининг ҳаракатлари махсус автоматлаштирилган фото ва видео қайд этиш техника воситалари орқали қайд этилаётганлигини билдиради. Огоҳлантирувчи, имтиёз, тақиқловчи, буюрувчи ва ахборот ишора белгилари билан биргаликда қўлланилади.

Радарларни шартли равишда муайян гуруҳларга бўлиб оламиз. Сабаби ҳамма радарлар ҳам бир хил тартибда қоидабузарликни қайд этмайди.

Махсус автоматлаштирилган фото ва видео қайд этиш техника воситаси – асосан чорраҳаларда, йўл бўйида металл устунларга ўрнатилиб, автомобилларнинг давлат рақами белгиларини аниқлайди, 1-расм.



1-расм. Махсус автоматлаштирилган фото ва видео қайд этиш техника воситаси.

Мультирадарлар мобил комплекс ҳисобланади, 2-расм.



2-расм. Мултирадарни автомобилга ўрнатилиши

«Кўчма фоторадар ва мобил комплекслардан фойдаланганда, ЙПХ ходими мосламанинг кўрсаткичлари билан ҳаракат тезлигини ошириб, қоидаларни бузган ҳайдовчини таништириши, унинг талаби билан мосламанинг сертификати (нусхаси)ни кўрсатиши лозим». Яъни «уч оёқ» ёки мультирадарлар орқали ҳуқуқбузарлик аниқланди, 3-расм.



3-расм. Кўчма фоторадар.

Бундай вазиятда ЙПХ ходими ҳайдовчига қоидабузарлик содир этгани ҳақида ўша жойнинг ўзида маълумот бериб, унинг иштирокида баённома расмийлаштиради. Масалан, 60 км/соат тезликда ҳаракатланиш керак бўлган жойда ҳайдовчи 90 км/соатда ҳаракатланиб, қоидани бузди. Қоидабузарлик мультирадарда қайд қилинди. Энди ЙПХ ходими ушбу ҳайдовчига қанча тезликда ҳаракатланиб қоидани бузганлиги ҳақида маълум қилиши шарт. Бу тартибга амал қилинмасдан чиқарилган жарима ноқонуний ҳисобланади.

«Уч оёқ» ва мультирадарлар воситасида маъмурий ҳуқуқбузарлик қайд этилган тақдирдагина ҳайдовчи ўша жойнинг ўзида бу ҳақда хабардор қилинади. Ушбу тартиб махсус автоматлаштирилган техника воситалари билан қоидабузарлик қайд этилишига нисбатан татбиқ этилмайди. Бунда ҳайдовчининг иштирокисиз жарима солиш тўғрисида қарор чиқарилади. Баённома ҳам расмийлаштирилмайди.

Тадбиркорлар томонидан радар ўрнатилиши мумкин бўлган жойлар «e-auksion» платформасида танловга қўйилади. Онлайн аукционда ғолиб бўлган тадбиркорлик субъекти радарни ўрнатиш ҳуқуқига эга бўлади. Шундан сўнг

тадбиркор низомда белгилаган идоралар билан келишиши, ҳужжатлалаштириш ишларини амалга оширади.

Вазирлар Маҳкамасининг **2018 йил 1 декабрдаги 975-сон қарори билан тасдиқланган "Йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракати қатнашчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда махсус мосламалардан** Транспорт воситаларининг оқими ва йўл шароитини ҳисобга олган ҳолда, кўчма фоторадар ва мобил комплекслар бириктирилган ЙПХ ходимлари томонидан уларнинг кунлик дислокацияси белгиланган ва махсус мосламалардан тегишли тартибда фойдаланиш чоралари кўрилган бўлиши лозим.

Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 декабрдаги 975-сон қарори билан тасдиқланган "Йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракати қатнашчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда махсус мосламалардан фойдаланиши тартиби тўғрисида" Низом қабул қилинган: Транспорт воситаларининг оқими ва йўл шароитини ҳисобга олган ҳолда, кўчма фоторадар ва мобил комплекслар бириктирилган ЙПХ ходимлари томонидан уларнинг кунлик дислокацияси белгиланган ва махсус мосламалардан тегишли тартибда фойдаланиш чоралари кўрилган бўлиши лозим. Кўчма фоторадар ва мобиль комплекслардан фойдаланилганда, йўл ҳаракати қоидаларининг бузилганлигини қайд этиш Низомни 37-бандида кўрсатилган тартибда амалга оширилади. ЙПХ ходимларининг патруль автомобилларида фойдаланиш белгилаб қўйилган тезликни ўлчаш мосламаларини ўзбошимчалик билан ечиб олиши ва хизматга алоқаси бўлмаган бошқа шахсларнинг (жисмоний ёки юридик) транспорт воситаларига ўрнатиши ҳамда хизматни ўташга алоқадор бўлмаган фуқароларни жалб қилиши қатъиян тақиқланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 декабрдаги Йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракати қатнашчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда махсус мосламалардан фойдаланиши тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақидаги 975-сонли қарори.

2. Вазирлар Маҳкамасининг «Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасига хусусий секторни жалб этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2021 йил 21 апрелдаги 232-сон қарори.

3. Вазирлар Маҳкамасининг «Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасига хусусий секторни жалб этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида 2021 йил 21 апрелдаги 232-сон қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида» 2023 йил 14 августдаги қарори.

HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISHDA GPS TIZIMI BILAN JIHOZLANGAN JAMOAT TRANSPORTLARINING ISHLASH SAMARADORLIGINI ASOSLASH

Primkulov Bekzod Sheraliyevich, dotsent, (PhD), (TDMAU)
Qurbonazarov Shavkat Abduraximovich, assistent, (TDMAU)
Choriyev Bekzod Urazovich, magistrant, (TDMAU)

Annotatsiya. Mazkur maqolada harakat xavfsizligini tashkil etishda GPS tizimi bilan jihozlangan jamoat transportlarining ishlash samaradorligi texnik-iqtisodiy asoslangan. Shu bilan bir qatorda GPS tizimi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: GPS/GLONASS, navigatsiya, jamoat transporti, monitoringi tizimi.

KIRISH Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagi 2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-316-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq quyidagi vazifalar amalga oshirilishi belgilangan:

- avtomobil yo‘llari infratuzilmasini kompleks takomillashtirilishi;
- avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish tizimini raqamlashtirilishi;
- jamoat transportini rivojlantirish va raqamlashtirilishi;
- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, bolalarga yo‘l harakati qoidalarini amaliy o‘rgatishni yo‘lga qo‘yilishi;
- haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni kuchaytirilishi kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan[1].

Mazkur dasturga muvofiq hududlar kesimida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida jamoat transportini rivojlantirish va raqamlashtirish bo‘yicha 2022-2026-yillarda bajarilishi lozim bo‘lgan amaliy ishlar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

T/r	Tadbir nomi	O‘lchov birligi	Jami	Shu jumladan, yillar bo‘yicha					Mas’ullar
				2022y	2023y	2024y	2025y	2026y	

1	Shahar yo‘lovchi transporti bekatlarini yo‘lovchilarga zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni real vaqt rejimida elektron taqdim etuvchi monitorlar bilan jihozlash	dona	45	9	9	9	9	9	Surxondaryo viloyati hokimligi, Transport vazirligi
2	Avtobus oraliq bekatlarini qurish va rekanstruksiya qilish	dona	250	65	40	45	45	55	Surxondaryo viloyati hokimligi, Transport vazirligi
3	Avtovokzal va avtrostansiyalar qurish va rekanstruksiya qilish	dona	4	1	2	1	0	0	Surxondaryo viloyati hokimligi, Transport vazirligi
4	Jamoat transporti yo‘nalishlarini avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmatiga o‘tkazish	dona	144	28	28	32	28	28	Surxondaryo viloyati hokimligi, Transport vazirligi
5	Yangi jamoat transporti yo‘nalishlarini tashkil qilish	dona	23	6	5	5	4	3	Surxondaryo viloyati hokimligi, Transport vazirligi
6	Muntazam yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashishni amalga oshiruvchi avtotransport vositalarini quyida keltirilgan muddatdan boshlab navigatsiya qurilmalari (GPS/GLONASS treker) bilan jihozlash	dona	2 115	423	423	423	423	423	Surxondaryo viloyati hokimligi, Transport vazirligi

7	Jamoat transportida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini joriy qilish	dona	2 115	423	423	423	423	423	Surxondaryo viloyati hokimligi, Transport vazirligi
8	Tashkiliy-huquqiy shaklidan qatiy nazar jamoat transporti va yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar avtotransport vositalariga videoregistratorlar o‘rnatish	dona	5 006	1001	1001	1002	1001	1001	Surxondaryo viloyati hokimligi, Transport vazirligi

TADQIQOT METODOLOGIYASI Jamoat transportlarining harakat xavfsizligini ta’minlashda global joylashishni aniqlash tizimi (GPS) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu timiz yerning orbitasida bir guruh sun’iy yo‘ldoshlar tomonidan amalga oshiriladigan texnik jarayondir. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, tizim XX-asrning 70-yillarida AQSH mudofaa vazirligining topshirig‘i bo‘yicha harbiy maqsadlar uchun ishlab chiqarilgan, ammo 1983-yildan boshlab boshqa sohalarda ham ishlatilishiga ruxsat berilgan[2].

2022 yil holatiga ko‘ra global joylashuvni aniqlash tizimi Yer atrofida aylanib yuradigan 31 ta sun’iy yo‘ldoshdan iborat bo‘lib, ushbu sun’iy yo‘ldoshlar yerdagi qabul qiluvchilar bilan bog‘lanadi va qabul qiluvchilarning aniq joylashishini aniqlay oladi. Ular 6 ta turli orbitalarga, bir-biriga nisbatan 60 gradus burchakda joylashtirilgan. Har bir yo‘ldoshning yer sharini bir aylanib chiqishi 12 soatni tashkil etadi. Har bir yo‘ldoshning og‘irligi 800 kgni, uzunligi esa 5 metrdan koproq masofani tashkil etadi (quyosh batareyalarini qo‘shib hisoblaganda). Jumladan, zamonaviy avtomobillarda qo‘llanilayotgan global kosmik navigatsiya tizimlari (GPS – Global Positioning System, (GLONASS – Globalnaya Navigatsionnaya Sputnikovaya Sistema) – bu kunning istalgan paytida, istalgan nuqtasida harakatlanayotgan obyektlarning geografik o‘rnini, yo‘nalishini va harakat tezligini aniqlashga imkon beradigan tizimlardir. Bulardan tashqari ushbu tizim orqali aniq vaqtni 1 nanosekund (0,000000001 sek) aniqligida aniqlash mumkin[3]. GPS dan foydalanish usullari 3 turga bo‘linadi. Joylashuvni aniqlash, navigatsiya hamda geodeziya va kartografiya(1-rasm).

Haqiqiy vaqt rejimidagi monitoring – bu avtopark samaradorligini oshirishning zamonaviy usullaridan biri hisoblanadi. O‘z ixtiyorida transport aktivlariga ega bo‘lgan, ammo monitoring tizimidan foydalanmaydigan kompaniya rahbarlarining aksariyati, qoida tariqasida, transport vositalaridan oqilona foydalanish, yoqilg‘ini o‘g‘irlash va xodimlarning mehnat majburiyatlarini vijdonsiz bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. GPS bilan transport va mobil xodimlarni onlayn GPS monitoringi nafaqat xarajatlaringizni optimallashtiradi, balki haydovchilar intizomini ham oshiradi.



1-rasm. GPS STANDARD

GPS / GLONASS monitoring tizimi bilan haqiqiy vaqt rejimidagi monitoring quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ob’ektlarning joylashishini va ularning xaritadagi harakatlarini kuzatish;
- harakat tezligi, yoqilg‘i darajasi, harorat va boshqalar kabi ob’ektlarning ma’lum parametrlaridagi o‘zgarishlarni kuzatish;
- ob’ektlarni boshqarish (buyruqlarni bajarish, vazifalarni avtomatik bajarish) va haydovchilar (SMS, qo‘ng‘iroqlar, uchrashuvlar);
- ob’ekt faoliyati to‘g‘risida bildirishnomalarni olish;
- berilgan yo‘nalish bo‘yicha ob’ektning harakatini kuzatish;
- ob’ektdan olingan ma’lumotlarni turli xil hisobotlarda (jadvallar, grafiklar) talqin qilish va boshqalar[4].

Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu tizim nafaqat jamoat transportlarini balki barcha transport vositalarini ishlash samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI Mazkur tadqiqod ishini amalga oshirish uchun Termiz shahrida amalda mavjud bo‘lgan jamoat transportlari o‘rganib chiqildi. Viloyat Transport boshqarmasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagi 2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-316-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, aholiga qulayliklar yaratish, jamoat transportlarining xizmat sifatini yaxshilash muntazam yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarida harakatlanayotgan avtobuslarni navigatsiya qurilmasi (GPS/GLONASS) bilan jihozlash borasida Termiz shahri va tumanlarda yo‘lovchi tashuvchi korxonalar tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.



Bugungi kunda viloyatimiz bo‘yicha Termiz shahrida “Toshshahartransxizmat” AJning “Termiztransxizmat” filialiga tegishli 95 ta avtobusga naviagtsiya qurilmasi (GPS/GLONASS) bilan jihozlangan bo‘lib, Termiz shahrining 6 ta yo‘nalishi bo‘yicha yo‘lovchi tashish xizmati ko‘rsatilmoqda. Bundan tashqari, Denov tumanidagi “Yusuf Trans Denov”, “Hushvaqt Savdo Trans”, Qumqo‘rg‘on tumanidagi “Qumqo‘rg‘on Istiqloli boshbekati” va Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Jarqo‘g‘on Asl Texnikasi” MCHJlarga tegishli Isuzu rusumli avtobuslar navigatsiya qurilmasi (GPS/GLONASS) bilan jihozlangan.

Jamoat transportining navigatsiya qurilmasi (GPS/GLONASS) bilan jihozlanishining asosiy muhim afzalliklari har bir yo‘nalishda avtobuslarning harakat jadvaliga va oraliq interval vaqtlariga amal qilinishi hamda avtobus haydovchilarining yo‘nalishdagi harakati nazoratga olinib bir maromda ishlashi ta’minlanadi. Ayniqsa, jamoat transportlarining ishlash samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamoat transporti sohasida navigatsiya qurilmalaridan (GPS/GLONASS) foydalanish ushbu soha ishining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, harakat havfsizligi va avtobus haydovchilarining faoliyati nazorat ostida bo‘ladi. Bundan tashqari, yo‘lovchilar avtobuslarning bekatlarga yetib kelish vaqtlari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bu tizim jamoat transporti sohasini yanada rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.07.2022 yildagi PQ-316-son
2. https://ares.uz/storage/app/media/2022/Vol_3_No_2/298-303.pdf
3. Akmal, A. (2021). Analysis of technical parameters that determine the efficiency of vehicle steering. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 48-55.
4. GPSNING INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARIDA Q‘LLANILISH AMALIY AHAMIYATI Xakimov Sh.K. (TDTU, dotsent) Odilov D.V. (TDTU, PhD student)
5. Sheraliyevich P. B., Urazovich C. B. Shahar Aholisini Jamoat Transportida Tashishda Harakat Muntazamligini Oshirish Yo ‘Llari (Termiz Shahar 15-Yo ‘Nalishli Avtobus Misolida) //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 35-38.
6. Abduraximovich Q. S., Urazovich C. B., Djurayevna S. N. TERMIZ SHAHRIDA MAVJUD BO ‘LGAN AVTOBUS BEKATLARINING TAHLILI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 13-18.

BOYSUN DISTRICT ROAD-TRANSPORT INFRASTRUCTURE AND ROLE IN THE DEVELOPMENT OF ECONOMY AND ECO TOURISM

Kuziyev Abdimurat Urokovich, doctor of technical sciences, dotcent (TerSU)
Suyunov Oltibek Dostmurodovich, teacher, (TSUEA)

Keywords: *railway network, transport corridor, ecotourism*

The launch of the Tashguzar-Boysun-Kumkurgan railway with a total length of 223 km, which is important for the Central Asian region, has a historical place in the development of our country. As a result of the implementation of this huge and complex project, the volume of cargo transportation increased by 1.8 times compared to 2007, more than 90 new enterprises were launched and existing ones were modernized as a result of the processing of local raw materials. As a result, 55,000 residents were provided with permanent employment and had a stable source of income.

The commissioning of the Tashguzar-Boysun-Kumkurgan railway line was of great importance for the development of the production forces of the southern region of our Republic:

First of all, this road made it possible to establish a single and integrated railway transport communication system throughout the country, a tool that connects the southern region of our republic - Kashkadarya and Surkhandarya oases with other regions.

Secondly, this project, which has been implemented, crosses between the mountains that have been lying dormant for many centuries, and the rich underground mineral resources of Kashkadarya and Surkhandarya regions, which have been left out, oil and gas, non-ferrous metal, coal and potash salt, construction materials and other high-quality, valuable minerals open up great opportunities.

Thirdly, the opening of railway traffic here, first of all, is a sign of economic development, the development of construction and industry, transport and communication services, health care, education, in general, the opening of new cultural centers. without a doubt, it creates a solid foundation for revitalizing life, accelerating its pace.

Fourthly, it should be clear to all of us that the implementation of such huge projects and plans is of great importance in providing employment to the population living in this region and meeting their practical needs.

Today's calculations show that the launch of the railway network will take at least 2-2 for the organization of freight and passenger traffic, the maintenance of railways and the provision of road safety, It requires 5 thousand workers. In addition,

3-4 thousand people will find their jobs in the new enterprises and service centers that are planned to be built, especially in the fields of small business and private entrepreneurship.

Fifth, there is no doubt that this road will connect Uzbekistan to foreign countries, first of all, through the Trans-Afghan railway corridor, directly to the ports of the Indian Ocean, South and Southeast Asian countries in the near future. the possibility of exit and export, at the same time, it will dramatically increase our potential to expand the transit role of our country."

Table 1 shows the availability of railway and road transport of the districts of Surkhandarya region.

table 1

The length of the railway transport network of districts in the region

№	Districts	The length of the railway transport network, km	Road transport network length, km
1	Termiz	122	228
2	Angor	18	113
3	**Boysun**	**90**	**324**
4	Denov	38.5	219
5	Jarkurgan	42.6	108
6	Kumkurgan	51.1	198
7	Muzrobad	47	168
8	Oltinsoy	-	195
9	Uzun	13.4	185
10	Sherabad	-	351
11	Shurchi	28.5	158
12	Kizirik	-	217
13	Sariosiyo	-	230
	By province	451.1	2694

One of the issues of the national transport framework of our country is to monitor and continue the segment of the transport corridor in the Europe-Central-East direction based on the independent provision of railway and highway lines in the republic and the improvement of the road configuration. In this regard, the Tashguzar-Boysun-Kumkurgan railway line, launched in this regard, is of great importance and creates favorable conditions for social and economic development of Kashkadarya and Surkhandarya regions, development of natural underground deposits. and also connected the northern districts of Surkhandarya region with a railway, and the level of transport provision of the region became high.

Mineral and raw material resources of the region include natural gas reserves, gas condensate and oil, coal, rare earth molybdenum, tungsten, vanadium, silver, cobalt, helium and germanium. In addition, the region is rich in the production of construction materials, expanded clay raw materials, glass materials, etc. [2].

With the launch of the new railway line, production in all sectors of industry based on the region's resources has increased several times.

The implementation of the railway line in the economic zone, the construction of new highways and the reconstruction of the existing ones have increased the transport provision of the southern region to a high level. This is an important factor in the economic, technical and technological growth of the region.

Currently, tourism is one of the rapidly developing tourist industries in the world. The development of ecotourism makes a great contribution to solving the problems of nature protection, attraction of tourists to our mother nature, preservation and reproduction of rare plants and animals.

Boysun has unique beautiful nature, landscapes, various unique flora and fauna, and natural monuments related to ecotourism.

In order to attract tourists, first of all, it is necessary to create service conditions, provide them with convenient transport and, of course, promote the tourism potential of Uzbekistan abroad. Tourism can boost local economies, especially in mountainous and hard-to-reach areas. For this, it is necessary to involve local communities in tourism processes and create the necessary conditions, including appropriate infrastructure.

In the southern region, in particular, in Boysun district, extensive measures are being taken to develop household infrastructure, especially in rural areas.

In conclusion, it should be noted that it is appropriate to implement a large program for the development of ecotourism in the region. Also, the foreign economic sector will play a necessary role in the economy of the region in the future. Therefore, it is necessary to expand the export potential of this region.

References:

1. Uldjaboev K.U. Ekonomicheskaya reforma na jeleznodorojnom transporte.-Tashkent, Mexnat, 1999. – 262 s.

2. Қўзиев А. Ў., Муратов А. Х. ЮК ЖЎНАТУВЧИЛАРГА ТРАНСПОРТ ХИЗМАТИ КЎРСАТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 846-855.

3. Кузиев, А. У., & Шермухаммедов, А. А. (2022). Ҳудуд автомобил йўл тармоғини ривожлантириш методикаси. *Инновацион технологиялар*, *3*(3 (47)), 59-65.

4. Kuziev A. U., Suyunov O. D. THE PROBLEM OF DELIVERY OF COTTON RAW FLOWS THROUGH MINIMUM COST TRANSPORTATION

//International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 328-332.

TERMIZ SHAHAR YO‘LOVCHI TRANSPORTINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Kuziev Abdimurot Urokovich, **texnika fanlari doktori, dotsent** ***(TerDU)***
Suyunov Oltibek Do‘stmurodovich, o ‘qituvchi (TDMAU)
Bobomurotov Bekzod Tursunpo‘lat o‘g‘li, **magistrant (TerDU)**

Kalit so‘zlar: *jamoat transporti, qatnovlar soni, yo‘lovchilar aylanmasi, bir kunda aylanishlar soni, yo‘lovchi tashish sifati.*

Bugungi kunda jamoat transporti xizmatlari mamlakat aholisining eng qulay transport turiga aylangan. Yo‘lovchilar tashishda avtomobil transporti yetakchi o‘rinni egallaydi. Shuning uchun so‘nggi yillarda Respublikamiz aholisiga avtotransport xizmati ko‘rsatishni yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda shahar yo‘nalishli avtobus transporti oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri – yo‘lovchilarni manzillariga o‘z vaqtida etkazish bo‘lib, bu nafaqat ko‘cha–yo‘l tarmog‘idagi mavjud tirbandliklar yo‘lovchilar xafsizligini oshirish va shahar jamoat transportining ta’minlanganlik darajasining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Ma’lumki, viloyatimiz aholisiga transport xizmati ko‘rsatish sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan ilmiy–tadqiqot ishlarining ustuvor xususiyati shahar jamoat transporti ishini kompleks yondashuvlarga asoslangan holda takomillashtirish masalalaridir. Aholiga transport xizmati ko‘rsatish masalalari juda ko‘plab omillarga bog‘liq va bugungi kunda Termiz shahrida uchraydigan quyidagi muommolar mavjud: avtobusning yo‘nalishli taksi ko‘rinishida ishlashi; avtobus salonidagi tiqililinch holatlar va avtobusning harakat intervaliga amal qilmaslik va harakat vaqtining oshib ketishi; maskur holatlar yo‘lovchilarning haqli etiroziga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida keltirilgan muammolarning har biriga alohida yondashishni va masalani kompleks hal etishni taqozo etadi.

Oqilona tashkil etilgan jamoat transporti tizimi yengil va ishlatish uchun qulay, tez, xavfsiz va arzon hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan kichik transport operatorlari yo‘lovchilarni past sifatli, xavfli haydash amaliyoti va transport vositalariga yaqin masofalar bilan tashiydi, shahar jamoat transporti esa yuqori darajadagi xizmatni taklif qiladi. Tarmoq yo‘nalishlarini rejalashtiradigan va xizmat ko‘rsatish sifatini belgilaydigan yagona munitsipal tashkilotning mavjudligi jamoat

transporti xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni ularning taklifi bilan muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Ushbu maqolada tahliliy kuzatuv, talon usuli, so‘rov usuli va Geo Tracker mobil ilovasidan foydalanildi. Shuningdek tashish jarayonining logistik operatsiyalari elementlarini statistik kuzatish va tahlil etish lozim.

Shahar jamoat transportida yo‘lovchilarning tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlashda shuningdek ularga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun transport vositalari axborotligi, harakatning qulayligi, harakat tezligining yuqorligi, marshrut vaqtiga amal qilishligi, xavfsizligi, muntazamligi, kuz-qish mavsumida etarlicha isitish va hakazo xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur [2, 4].

Avtobuslarda xizmat ko‘rsatish sifatini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkich-bu avtobusning harakat vaqti meyorlashtirilgan bo‘lib yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifati integrallarining baholash mezoni keltirilgan [3].

Logistika faoliyati jarayonini takomillashtirish maqsadida keyingi tahlillar uchun zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda yo‘lovchi tashishni tashkil etish va boshqarish tizimlari Termiz shahar yo‘nalishlari o‘rganilgan. O‘rganish jarayonida to‘xtash bekatlarining aniqlashtirilmaganligi, transport tizimining notekis hududiy rivojlanishi, avtobus transportining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining barqaror pasayishi, yo‘lovchi avtotransport korxonalarining transport vositalari parkining eskirishi, avtomobil yo‘llari tarmog‘ining o‘tkazuvchanligini pasayishi, yo‘llarda piyodalarning tartibsiz harakatining avtobuslar harakatiga xalaqit berishligi yuqori darajasi kabi muammolar yo‘lovchilar transportining samarasiz ishlashiga olib keladi va yo‘lovchilarga transport xizmati ko‘rsatish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shahar jamoat transportida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi: yuqori harakat tezligi; avtobus saloniga kirish va chiqishda qulaylik; harakatlanish jarayonidagi qulaylik; bagajni tashish imkoniyati; salonni yetarli darajada isitish va ventilyatsiya qilish; hududning yaxshi ko‘rinishi; shovqin va havo tutunining yo‘qligi; transport vositasining tashqi ko‘rinishi, uning rangi; axborot uskunalari [5].

Tahlildan ma’lumki, 3-avtobus yo‘nalishidagi joriy holatda avtobuslar to‘xtashi juda ko‘p kuzatildi (1-rasm).

Natijada avtobusning yo‘nalishda harakatlanishiga ko‘proq vaqt sarflandi, bu o‘z navbatida harakat tezligining pasayishiga olib keldi. Yo‘nalishda yo‘lovchilarni avtobusga chiqarish va tushirishlari uchun bir qatnov davomida (bir tomonga) oraliq bekatlarida 41 marta to‘xtadi. Bu harakatdagi vaqtning oshishiga, aloqa tezligining kamayishiga olib keldi. Natijada yo‘lovchilarga noqulayliklar keltirib chiqaradi va transport vositalarining texnik holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yo‘nalishdagi avtobuslar texnik-ekspluatatsion ko‘rsatkichlari hisob natijalari Geo tracker mobil ilovasida olingan.



1-rasm. 3-avtobus yo‘nalishining Geo Tracker mobil ilovasida o‘rganishlar natijasi

Hozirgi kunda shahar jamoat transportida ko‘proq kuzatiladigan umumiy muammolar ham mavjud bo‘lib, Termiz shahri jamoat transporti ish sharoitida ham kuzatiladi. Masalan, harakat intervaliga amal qilmasligi, oraliq to‘xtash bekatlari belgilanmaganligi, jamoat transportidagi tiqilinch holatlar (yo‘lovchilarni, ayniqsa tig‘iz paytlarda, me’yordan ortiq mindirilishi), va shu kabi muammolar yaqqol namoyon bo‘ladi [5].

Tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi; boshlang‘ich bekatdan so‘nggi bekatgacha avtobus 41 ta marta to‘xtashni amalga oshirdi va bir qatnov mobaynida 48 minut vaqt sarfladi harakati davomida 74 ta yo‘lovchilarni o‘z manzillariga yetkazdi. Kun mobaynida 10 marotaba aylanma qatnovni amalga oshirdi (2-jadval).

Geo tracker mobil ilovasi yordamida avtobuslarning to‘xtash bekatlari optimallashtirilgandan keyingi holatda parametrlari quyidagicha o‘zgaradi: avtobusning to‘xtashlar soni 41 ta bekatsiz to‘xtashni 16 bekatlarga to‘xtaydigan va harakat intervalining kamayishi, yo‘lovchilarni manziliga yetkazish vaqti qisqarishi natijasida avtobus 14,15 km masofani 26 daqiqada bosib o‘tgani aniqlandi.

Natijada avtobusning sifat parametrlarida sezilarni o‘zgarishlar kuzatildi, bir avtobusning bir kunda o‘rtacha 740 nafar yo‘lovchi tashilgan bo‘lsa, taklif etilyotgan holatda 1188 nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatgani kuzatildi.

So‘nggi tahlil natijasiga ko‘ra korxonaga birta avtobusdan keladigan oylik daromadi 71 280 000 so‘mga oshadi.

2-jadval

Avtotransport korxonasiga tegishli avtobuslarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlari nomi	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Avtobuslarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari	
				joriy holat	taklif etilgan
1	Avtobusning to‘xtash soni	n	dona	41	16
2	Avtobusning qatnov vaqti	t_q	soat	0,8	0,43
3	Marshrutdagi bir kunlik qatnovlar soni	Z_q	dona	20	22
4	Mashrut harakatining oraliq intervali vaqti	I	minut	11-13	6
5	Yo‘nalishda harakatlanadigan avtobuslar soni	A_e	dona	10	10
6	Marshrutdagi bir kunlik aylanishlar soni,	Z_{ayl}	dona	10	11
7	Bitta avtobusning bir kunlik bosib o‘tilgan masofasi,	L_{kun}	km	141,5	155,65
8	Avtobusning bir qatnovidagi tashilgan yo‘lovchilar soni,	Q_1	yo‘lovchi	74	108
9	Bir avtobusning bir oylik ish unumdorligi (yo‘lovchi soni)	Q_{oy}	yo‘lovchi	22 200	35 640
10	Bir avtobusning bir oylik ish unumdorligi (yo‘li km)	P	km	4245	4669
11	Tashishdan olinadigan daromad	S	so‘m	44 400 000	71 280 000

Xulosa va takliflar. Yo‘lovchi transportida tashish jarayonlarini samarali tashkil etish – yo‘nalishdagi transport vositalari to‘xtash bekatlarini ratsional belgilash va ularning harakatini tartibga solish asosida yo‘lovchi oqimlarini jo‘natuvchi manzildan etib borish manziligacha qisqa vaqtda yetkazish ta’minlanadi.

Avtobuslarning to‘xtash bekatlari optimallashtirilgandan keying holatda parametrlari, ya’ni avtobusning to‘xtashlar soni 41 ta bekatsiz to‘xtashni 16 bekatlarga to‘xtaydigan va harakat intervalining oshishi yo‘lovchilar manziliga yetkazish vaqti qisqarishi natijasida yo‘nalishdagi avtobus yo‘nalishda dastlab 39,9 daqiqada bosib o‘tdi, tadqiqot o‘tkazilgandan keyin shu masofani 26 daqiqada bosib o‘tgani aniqlandi.

Demak shahar jamoat transporti harakatini qat’iy belgilangan bekatlarda to‘xtashini tashkil etish, yo‘lovchilar oqimini tahlil qilish, harakat jadvallarini optimallashtirish kabi logistika operatsiyalarni amalga oshirish lozim.

Adabiyotlar:

1. И.В. Спирин, (2006) Перевозки пассажиров городским транспортом: Справочное пособие для специалистов / И.В. Спирин. – М.: ИКЦ «Академкнига», 413 с

2. Kuziyev A.U., Suyunov O.D., Xurramov K.B., Improving the quality of passenger service in city public transport. International bulletin of engineering and technology, Volume 2, Issue 12, 157-161.

3. Мещерякова О.М., Бабжанова А.О. Организация городских пассажирских перевозок на основе принципов логистики. Экономические и юридические науки. Экономика и управление, №6, 57-66 с.

4. Amonovich, U. I., Kuziyev, A. U., & Shamsutdin o‘g‘li, M. A. (2023). YO ‘LOVCHILARNI SHAHARLARARO TASHISHNI TASHKIL ETISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *24*(2), 109-113.

5. Djiyanbaev S. V., Suyunov O. D. SHAHAR JAMOAT TRANSPORTINING YO ‘LOVCHILAR OQIMINI TALON USULI VA GEO TRACKER DASTURI ORQALI O ‘RGANISH //INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 51-56.

AVTOMOBILLARDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

Sh.A. Abdiqadirov, dotsent, (TerDMAU)
M.R. Karimov dotsent, (TerDMAU)

Avtomobil transporti kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Biroq, yo‘llardagi xavfsizlik masalalari ko‘plab mamlakatlarda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Har yili millionlab insonlar yo‘l-transport hodisalari natijasida jarohatlanadi yoki hayotdan ko‘z yumadi. Shu sababli, avtomobillarda harakat xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Avtomobil sanoati yildan-yilga rivojlanib, yangi texnologiyalar orqali yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga katta e’tibor qaratmoqda. Texnik xavfsizlik choralarining asosiy maqsadi yo‘llarda haydovchilar, yo‘lovchilar va boshqa ishtirokchilar uchun xavfsizlikni ta’minlashdan iborat. Ushbu choralar avtomobilni boshqarish paytida xavfli vaziyatlarning oldini olish va avariya sodir bo‘lganda insonlarning jiddiy jarohat olish xavfini kamaytirishga qaratilgan.

Avtomobillarda harakat xavfsizligini ta’minlash bir qator muhim texnik, huquqiy va insoniy omillarni o‘z ichiga oladi. Bu omillar quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin. Avtomobillarni xavfsizlik kamarlari, havo yostiqlari (airbags), antiblokirovka tizimi (ABS), tormoz kuchini taqsimlash tizimi (EBD), barqarorlikni saqlash tizimi (ESP), adaptiv kruiz nazorati, avtonom boshqaruv kabi tizimlar bilan jihozlash muhimdir [1-4].

Havo yostiqlari (airbags) - bu zamonaviy avtomobillarning asosiy xavfsizlik tizimlaridan biri bo‘lib, yo‘l-transport hodisalari paytida haydovchilar va yo‘lovchilarning jiddiy jarohat olishlarini kamaytirish uchun mo‘ljallangan. Ushbu texnologiya avtomobillar xavfsizligini oshirish va yo‘lovchilarni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Avtohalokat yuz berganida havo yostiqlari inson tanasi va avtomobilning qattiq qismlari o‘rtasidagi zarbani yumshatish orqali og‘ir jarohatlar oldini olishga yordam beradi. Havo yostiqlari avtomobildagi datchiklar orqali sodir bo‘lgan zarbani aniqlagan zahoti juda qisqa vaqt ichida (10-30 millisekund ichida) faollashadi. Datchiklar avtomobilning to‘qnashuv darajasini va zarbani his qilganda, havo yostig‘i o‘qday tezlikda shishirilib, himoya yuzasi hosil qiladi. Bu yuzaga avtomobilning qattiq qismlariga urilishdan oldin haydovchi yoki yo‘lovchilarni zarbadan saqlaydi.

Antiblokirovka tizimi (ABS) - haydovchiga tormoz paytida g‘ildiraklarning blokirovka qilinishiga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi. Bu tizim tormoz vaqtida avtomobilni boshqarishda davom etishga imkon beradi. Blokirovka qilinmagan g‘ildiraklar tormozlash vaqtida ham harakatda bo‘lib, haydovchiga boshqaruvni saqlab qolishga yordam beradi, ayniqsa, to‘siq yoki burilishlarni chetlab o‘tish zarur bo‘lganda. ABS tizimi yo‘lning ho‘l yoki sirpanchiq bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoitlarda ayniqsa foydali bo‘lib, g‘ildiraklarning to‘liq tormozlanishini oldini olish orqali avtomobilni boshqarishni ancha osonlashtiradi.

Elektron tormoz kuchini taqsimlash tizimi (EBD) - avtomobil tormozlayotgan paytda har bir g‘ildirakka tormoz kuchini to‘g‘ri taqsimlashga yordam beradi. Bu tizim oldingi va orqa g‘ildiraklarga qaysi kuch bilan tormoz berishni avtomatik ravishda boshqaradi. Bunda yuklanishning avtomobilning turli qismlariga bo‘linishi hisobga olinadi, bu esa xavfsiz tormozlashni ta’minlaydi. EBD tizimi tormozlash masofasini qisqartiradi va haydovchiga avtohalokatning oldini olish uchun yetarli vaqt va boshqaruv imkonini beradi.

Barqarorlikni boshqarish tizimi (ESP) - bu avtomobilning sirpanishi yoki aylanib ketishini oldini olishga yordam beruvchi texnologiya. Bu tizim haydovchining boshqaruv harakatlariga qo‘shimcha yordam sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, haydovchi tezlikni noto‘g‘ri tanlaganda yoki avtomobil yo‘lda barqarorlikni yo‘qotganda unga yordam beradi. ESP tizimi avtomobilning sirpanayotganini aniqlagach, avtomatik tarzda tormoz tizimini faollashtirib, haydovchiga barqarorlikni tiklash imkoniyatini beradi. Bu texnologiya ayniqsa, burilishlarda yoki yomon yo‘l sharoitlarida (masalan, qor yoki muzda) avtomobilning boshqaruvini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Adaptiv kruiz nazorati - avtomatik tormozlash tizimi**,** va avtonom boshqaruv singari yangi texnologiyalar haydovchi xatolarini kamaytiradi va xavfsizlik darajasini oshiradi. Masalan, avtomatik tormozlash tizimi yo‘l-transport hodisasining oldini olish uchun haydovchidan tezroq reaktsiya ko‘rsatishi mumkin. Zamonaviy vositalardan adaptiv kruiz nazorati yana bir afzalligi avtomatik tormozlash tizimlari yo‘l sharoitlaridan kelib chiqib xavfsiz tezlikni ushlab turishga yordam beradigan qurilmalar.

Avtonom boshqaruv tizimlari - texnologik taraqqiyotning eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Bu tizimlar haydovchisiz avtomobil boshqarish imkonini beradi. Sun’iy intellekt va turli datchiklar yordamida yo‘l sharoitlari, to‘siqlar va boshqa transport vositalari haqida ma’lumotlar yig‘iladi va tahlil qilinadi. Shu orqali avtomobil o‘zini xavfsiz boshqaradi. Avtonom boshqaruv tizimlari hali ham rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, ular kelajakda inson omili sababli yuzaga keladigan yo‘l-transport hodisalarini sezilarli darajada kamaytirishi kutilmoqda.

Avtomobillarning yon atrofidagi to‘siqlarni aniqlovchi va ogohlantiruvchi tizimlar (orqa ko‘rish kamerasi, parktronic) avtohalokat xavfini kamaytiradi. Haydovchi va yo‘lovchilar uchun xavfsizlik choralarini ta’minlashda xavfsizlik kamaridan foydalanish. Har bir yo‘lovchi va haydovchi xavfsizlik kamarini taqishi shart, bu og‘ir jarohatlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Bolalar uchun maxsus o‘rindiqlar. Bolalar uchun o‘rindiqlar ularning yoshiga va vazniga mos holda o‘rnatilishi kerak. Bu bolalar xavfsizligini ta’minlaydi. Xar qanday transport vositasida harakatlanishdan oldin to‘g‘ri joylashish. Yo‘lovchilar avtomobil ichida to‘g‘ri joylashib, xavfsizlik kamarlari va o‘rindiqlardan to‘g‘ri foydalanishlari kerak.

Transport vositalarida inson omili va madaniyat, tajriba va ko‘nikmalar ham muhim hisoblanadi. Haydovchilar o‘z ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishlari kerak. Bu yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda yordam beradi. Haydovchilar har doim yo‘lga e’tiborli bo‘lishi, telefon yoki boshqa chalg‘ituvchi narsalardan foydalanmasligi kerak. Mast holda yoki narkotik moddalar ta’sirida transport vositasini boshqarish qat’iyan taqiqlangan.

Harakat boshlangan so‘ng haydovchi yo‘l infratuzilmasi va qonunchilik rioya qilishlari talab etiladi. Yo‘l belgilari va svetoforlarga qat’iyan amal qilishlari kerak. Yo‘l infratuzilmasi - Yaxshi yoritilgan va sifatli yo‘llar, xavfsizlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yotiq yo‘l chiziqlar va belgilar mavjud bo‘lishi muhim.

Xulosa qilib aytganda, avtomobillarda harakatlanish davomida texnik xavfsizlik choralari va harakat xavfsizligini ta’minlash ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, texnologik rivojlanish, haydovchi madaniyatiga bog‘liq. Harakat xavfsizligini oshirish uchun har bir haydovchi va yo‘lovchi o‘z mas’uliyatini his qilishi, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishi, yo‘l harakati hodisalarining oldini olishga, balki avariya sodir bo‘lganda jiddiy jarohatlar va noxush holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Texnologik taraqqiyot davom etar ekan, avtomobillar yanada xavfsiz bo‘lishi va harakat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Peden, M. *World Report on Road Traffic Injury Prevention.* World Health Organization. et al. -2004.
2. Schneidereit T., Kim H. *Vehicle Safety Systems and Driver Assistance Technologies.* Springer. -2015.
3. Fildes B., Lee J. D. *The Evolution of Car Safety: From Seat Belts to Autonomous Vehicles. Journal of Road Safet.* - 2008. 32(1), p-25-40.
4. Sivak M., Schoettle B. Road Safety and Intelligent Vehicles: A Global Perspective. Transportation Research Part F: Traffic Psychology and Behaviour. -2015. 37, p-135-150.

ТАРИХИЙ ШАҲАРЛАРДА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Умедуллоев М.М, (ТДМАУ)

Ушбу мақолада тарихий шаҳарларнинг қайта қурилишида кўчалар тармоғида юзага келадиган муаммолар кўриб чиқилган. Шунингдек транспорт тизимидаги тирбандликларнинг олдини олиш юзасидан таклифлар берилган.

Калит сўзлар: *шаҳар, транспорт инфратузилмаси, кўча, майдон, ҳиёбон, магистрал кўча, марказ, кўчаларнинг ўтказувчанлик қобилияти, пиёдалар ҳаракати.*

Шаҳарлар доимо ривожланишда бўлиб, статик эмас динамикдир. Шундай экан замонавий шаҳарларда транспорт тизими тармоқлари шаҳарларни шакллантиришнинг энг муҳим омилларидан бири бўлиб қолмоқда. Тарихий

жойларнинг ҳар хил ўлчамга эга бўлган турли ҳажмий унсурларини бирлаштирувчи кўчалар тармоғи унинг ўзагини ташкил этади. Одатда тарихий жой қанчалик катта бўлса, унинг ўзаги шунчалик сертармоқлидир. Шаҳар ўзагини нафақат кўча ва майдонлар (фазовий унсурлар) ташкил этади, балки унга функционал жиҳатдан аҳоли кўп фойдаланадиган бино ва бошқа қурилмалар (ҳажмий унсурлар) ҳам киради.

Қайта қуриш жараёнида биринчи навбатда инобатга олиш учун ўзакнинг энг кўп фойдаланиладиган қисмлари алоҳида ажратилиб кўриб чиқилади. Ўзакнинг камроқ фойдаланиладиган қисмлари лойиҳа ишларида иккинчи навбатда инобатга олинади. Тарихий шаҳарсозликдаги чизиқли тизимлар тадқиқоти шаҳарни қайта қуриш лойиҳасини тузишдаги таянч омиллардан деб ҳисобланади [1, 18-б].

Шаҳар кўчалари ичида шаҳарларни вужудга келишига туртки бўлган карвон йўллари ва шаҳарнинг бош кўчалари бошқа турдаги кўчаларга қараганда шаҳар ривожланишида етакчилик қилган бўлади. Шаҳар кўчалари ичидан аксарият ҳолларда диаметр тариқасида ўтган кўча энг асосийси ҳисобланган. Бундай диаметр кўп ҳолларда қарама-қарши шаҳар дарвозаларини бирлаштирган ва шаҳарнинг геометрик марказидан ўтган. Қадимда Тошкентда Ўрдани Чорсу билан бирлаштирувчи йўл Муҳаммад Солиҳ Тошкандий бўйича Катта кўча деб номланган. Аҳамияти жиҳатидан энг пастда турувчи кўча (йўл)лар бир неча турар жой - ҳовлилар, ҳатто биргина хонадон учун хизмат қилган. Бундай кўчалар “хос йўл” ёки “хақраха” номлари билан аталган. Ҳалқа шаклидаги кўчаларнинг шаклланишига шаҳарларнинг қўрғон деворлари сабабчи бўлган. Шаҳар деворидан ташқаридаги “узун деворлар” ҳам ҳозирги пайтдаги шаҳар теварагидаги йўлларнинг йўналишларини қайд этган. Тошкент, Бухоро воҳаларини ҳимоялаган “Кампирак девор”, Самарқанд воҳасини ҳимоя этган “Девори қиёмат” ва бошқалар шулар жумласидандир [1, 19-б].

Ҳозирги вақтдаги шаҳарларда транспортнинг аҳамияти катта. У мураккаб тизим (инфраструктура)ни ташкил этади. Транспорт қатор қулайликлар яратиш билан биргаликда чигал муаммоларни ҳам келтириб чиқаради. Бу муаммоларнинг айримлари қайта қуриш жараёнида ҳал этилади. Транспорт инфратузилмасини қайта қуриш заруриятини бирқанча сабаблар юзага келтиради. Жумладан, қуйидагиларни таъкидлаш жоиз: шаҳарларда улов ва пиёда ҳаракатлари тобора кўпайиб бориши боис шаклланиб бўлган кўчалар тармоғи ҳаракат ҳажмини катта ноқулайликлар билан амалга оширади. Кўча ва йўллар эса шахсий, жамоат ва юк транспорти ҳаракат турларига ҳамда оптимал тезликка мос келмай қолади. Улов ва пиёда ҳаракатланадиган кўча ва

йўлларнинг кўпчилиги бир сатҳда кесишган бўлиши ҳавфли вазиятларга олиб келиши мумкин [1, 42-б].

XX асрнинг ўрталарида Америка шаҳарлари шаҳарсозлик анъаналарига мос ҳолда қайта қурилади. Унинг асосий ғояларидан бири марказий қисмда қурилмаларни тиғизлаштириш ва марказни жуда кўплаб автомашиналар тирбандлигидан озод этиш ҳисобланган. Шу тариқа марказни айланиб ўтувчи транзит йўллар лойиҳаланган. Филадельфия шаҳри 1682 йилда Вильям Пенн томонидан режаланган. Ушбу шаҳар АҚШда ҳудудининг катталиги ва аҳоли сони бўйича тўртинчи ўринда турган. Шаҳар реконструкцияси 1960 йилда тасдиқланади. Шаҳарда биринчи навбатда тезюрар транзит ва маҳаллий йўллар ажратилади. Икки қаватли транзит йўллар лойиҳаланади. Тарихий шаҳар қисми ўлчами шарқ-ғарб йўналишида 3,5 км, шимол-жануб йўналишида эса 1,7 км масофага эга бўлган. 1960-1980 йиллар оралиғидаги қайта қуриш ишларида шарқ-ғарб йўналишида 3,5 км узунликдаги пиёда юриладиган ҳиёбон ташкиллаштирилган эди [2].

Замонавий шаҳарсозликда транспорт муаммоси асосий ўринни эгаллайди. Инсонларнинг турар жойидан ишга бориш вақтининг кўрсатгичи шаҳарнинг умумий структуравий режасини баҳолаш имконини беради. Шаҳар ҳудудларининг ривожланиши шароитида масофанинг ошиб боришини, фақатгина транспорт тезлигини ошириш орқалигина ўрнини ёпиш мумкин. Ҳаракатланиш вақти йирик шаҳарларда яшовчилар учун яшаш жойини, ишини ва дам олиш ҳудудини танлашдаги энг муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Аҳолининг ҳаёт фаолиятининг фаоллиги шаҳарлар шароитида транспортга бевосита боғлиқдир.

Транспорт юкининг ўсиши йирик шаҳарлар бюджетидан транспорт қурилишига бўладиган сарф-харажатнинг ошишига олиб келиши мумкин. Шунингдек, бир қанча “транспорт муаммолари” пайдо бўлади: жамоат транспорти, автотураргоҳ, кўчалар тизими ва шахсий транспорт воситалари тизимларини такомиллаштириш ва бошқалар каби [3, 44-б]. Барча ушбу муаммолар шаҳарларнинг ривожланиш шароитларини бир мунча мураккаблаштиради.

Шаҳарларда транспорт ҳаракати кўп жиҳатдан унинг режавий структурасига, кўчаларнинг тиғизлигига, чорраҳалар орасидаги масофаларга, транспорт тугунларининг мураккаблигига бевосита боғлиқдир. Шаҳар режаси транспорт ҳаракатининг тезлигини, уларнинг ўтказувчанлик қобилиятини, ҳаракат хавфсизлиги даражасини ва бошқа муҳим кўрсатгичларни аниқлаб беради.

Барчага маълумки, замонавий шаҳарлар ҳудудининг тарихий-режавий ечими, биринчи навбатда, XVIII асргача шаклланган тарихий шаҳарлар

кўчалари кенглиги ва уларнинг транспортларни ўтказувчанлик қобилияти замонавий шаҳарлар ривожи ва транспорт турлари талабларига жавоб бермай қолди [3, 45-б].

Кўчаларни кенгайтириш, янги йўналишларни ўтказиш каби реконструкция қилиш ишлари жуда катта маблағни талаб этади, шунинг учун бундай ишлар нисбатан кам амалга оширилади. Транспорт ҳаракати схемасини реконструкция қилиш усуллари қуйидагича бўлиши мумкин [4, 51-б]:

- ҳаракатланиш қисмини жойида кенгайтириш;
- ҳаракатланиш полосаларини бирин-кетин алмаштириш;
- дублёр кўчалар ташкиллаштириш;
- бир томонлама ҳаракатланувчи кўчаларни ташкил этиш.

Эски шаҳар силуэтини эркин тарзда енгил тасаввур қилиш мақсадида айрим кўчаларни интенсив ҳаракатдан ҳоли қилиб, пиёдалар ҳиёбонларига айлантириш ҳам яхши самара бериши мумкин [3, 46-б].

Кўпчилик тарихий шаҳарлар режасида ҳозирги кунда шаҳарнинг камчилигига айланган бир нечта жиҳатлар мавжуд [4, 47-48 бетлар]:

1. Тарихий шаҳарлар схемасида барча транспорт турлари марказ орқали ҳаракатланади. Бу ушбу ҳудудда тирбандликларни келтириб чиқаради.

2. Шаҳарларда кўчалар тизимининг аниқ дифференцияси, яъни даражаланиши мавжуд эмас. Транспортлар учун автотураргоҳларнинг йўқлиги.

3. Интенсив ҳаракатдаги кўчаларнинг турли хил сатҳлар орқали кесишуви етарли даражада эмас. Транспорт оқими тўла пиёдалардан ҳоли эмас.

4. Магистрал кўчалар ёнидаги уйлар тўлалигича шовқиндан, газдан ва чангдан ҳимояланмаган.

Пиёда ва транспорт кесишмасини мумкин қадар алоҳида, яъни турли сатҳларда амалга ошириш мақсадга мувофиқдир. Шаҳарларда кўпинча ер сатҳидан баландда ёки пастда бўлган пиёда йўлкаларидан фойдаланилади. Бунда пиёдаларга бир қанча ноқулайликлар пайдо бўлади. Масалан, ер ости йўлига тушиш ва чиқиш, ёки ер усти йўлига (h=4-4,5 м) чиқиш ва тушиш инсонлар энергиясининг сарф бўлишига олиб келади. Шунинг учун пиёдалар ўтиш йўлаги ер сатҳида бўлиб, транспортларни имкони борича тоннел орқали ва эстакадалар орқали ўтказиш мақсадга мувофиқдир [4, 54-б].

Тарихий Тошкент шаҳри радиал-ҳалқасимон схемада шаклланган бўлиб, марказий қисми Чорсу савдо маркази ҳудудидир. Эски шаҳар марказини Ўрда ҳудуди билан боғлаб турувчи Алишер Навоий кўчаси XIX асрнинг 2-ярмида Тош (Шайхонтоҳур) кўчаси деб номланган. Ушбу кўча шаҳар марказий қисмидан тарқалувчи кўчалардан бири бўлиб, унинг эни 6-8 метр кенгликга

эга бўлган. Эски ва янги шаҳар марказини бир-бири билан боғлаб турувчи 3 км узунликга ва 66 метр кенгликга эга бўлган ушбу кўчанинг қайта қуриш лойиҳасини 1943-54 йилларда архитекторлар М.Булатов ва В.Смирновлар амалга оширган. 1949-1950 йилларда М.Булатов ва Л.Карашлар лойиҳаси асосида кўча бўйида 3-қаватли ғиштин уйлар барпо этилади. Ушбу биноларнинг биринчи қавати савдо мақсади учун мўлжалланган.

Бугунги кунда ушбу кўча шаҳарнинг марказидан ўтувчи, унинг турли томонларини бир-бири билан боғловчи асосий кўча ҳисобланади. Шунинг учун А.Навоий кўчасида тирбандликлар ва пиёдалар ҳаракати учун ноқулайликлар кузатилмоқда. Шаҳар марказий кўчасидаги тирбандлик ва пала-партиш қурилган биноларни камайтириш ишлари анча олдин бошланган эди. Жумладан, А.Навоий кўчасида жойлашган, тартибсиз қурилган савдо расталари ўрнига 7 қаватли 8 та турар жой бунёд этилди. Уларнинг 1-2-қаватлари аҳолига маиший хизмат кўрсатиш учун мўлжалланган. Трамвай йўли 2011 йилда олиб ташланган.

Оддий кўчалар битта полосасининг бир соатда автомашиналарни ўтказиш қобилияти 600 тани ташкил этади, автомагистраллар эса 1500 тагача (максимум 1800-2000 тагача) автомашинани ўтказиш қобилиятига эга [5, 219-220 бетлар].

Алишер Навоий кўчаси бир йўналишда бешта, жами икки йўналишда эса ўнта полосали йўлга эга. 2017 йилнинг 12 июлида кундуз куни олиб борилган кузатувларда ушбу кўчадан ҳар қайси тарафга бир соатда қарийб 3000 та автомашина ўтиши аниқланди.

Алишер Навоий кўчасининг Хадра майдонидан Ўрда ҳудудигача бўлган қисмининг 6 та жойига светофорлар ўрнатилган. Бу қисм узунлиги бор йўғи 2 км лигини ҳисобга олсак, уларнинг сони жуда ҳам кўпдир. Ушбу светофорлар ҳам автомашиналарнинг марказда туриб қолишига ва тирбандликнинг ошишига сабаб бўлмоқда. Кўчанинг ушбу қисмида 8 та (икки йўналишда тўрттадан) автобус бекатлари жойлаштирилган. Навоий кўчасининг Абай кўчаси билан бир сатҳда кесишиши ушбу ҳудудда ноқулайликларни келтириб чиқармоқда.

Хулоса қилиб айтганда, шаҳар марказидан ўтувчи кўчаларни фақатгина автомашиналарни ўтказувчи кўчалар мақомидан озод қилиш керак. Масалан: А.Навоий кўчасининг Хадра майдонидан то Ўрда ҳудудигача бўлган қисмини пиёдалар юрувчи ва одамлар дам олувчи ҳиёбонга айлантириш мақсадга мувофиқдир. Чунки Мустақиллик майдони асосий қисмининг кўпроқ маъмурий аҳамиятга эгалиги аҳолига тўлақонли дам олиш имконини бермайди. Навоий кўчасидаги бошқа биноларга кириш учун кичик берк кўчалар ташкиллаштириш лозим. Агар бу иш амалга оширилса, ушбу

ҳудуддаги маданий бинолар: Ўзбекистон Миллий Академик драма театри, А.Навоий санъат ва адабиёт музейи, Панорама кинотеатри, Пахтакор стадиони, Шайхонтоҳур мажмуаси, XX асрнинг ўрталарида қурилган турар уйлар атрофида инсонлар учун қулай бўлган дам олиш зоналари яратилар эди. Шаҳарнинг туризм имконияти янада ошган, шунингдек экология ва шовқин нуқтаи назаридан ҳам ижобий натижаларга олиб келган бўлар эди. Бундай тадқиқотларни тарихий шаҳарларда комплекс тарзда олиб бориш бугуннинг долзарб вазифаларидандир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Пўлатов Х., Маматмусаев Т. Шаҳарсозлик ёдгорликларини қайта қуриш. Монография. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2017.

2. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. Том II – Градостроительство XX века в странах капиталистического мира. – М.: “Стройиздат”, 1971.

3. Реконструкция и обновление сложившейся застройки города. Учебное пособие для ВУЗов. / Под общей ред. П.Г.Грабового и В.А.Харитонова. – М.: “АСВ” и “Реалпроект”, 2006.

4. Миловидов Н.Н., Осин В.А., Шумилов М.С. Реконструкция жилой застройки. –М.: 1980.

5. Стрементов А.Е., Бутягин В.А. Планировка и благоустройство городов. – М.: 1962.

TRANSPORTDA YUK VA YO‘LOVCHILARNI TASHISHNING O‘ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

Otayev O‘tkirbek Matyoqubovich, podpolkovnik
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi,

Annotasiya: Mazkur maqolada transportda yuk va yo‘lovchilarni tashishning o‘ziga hos hususiyatlari nazariy va amaliy jixatlariga ilmiy asoslangan tavsiflar berilgan.

Tayanch so‘zlar: O‘zbekiston, Transport, Yuk, Yo‘lovchi, Logistika, Temir yo‘l, Elektron yo‘l varaqa.

Ma’lumki, O‘zbekiston qadim zamonlardan G‘arb va SHarqni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lida joylashgan davlat sifatida mashhur bo‘lgan. Endilikda ana shu qadimiy yo‘l yangicha sayqal topib, ellarni-ellarga bog‘lab kelmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat

jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish transport va kommunikasiya tizimini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq. Qadimda eng uzun savdo yo‘nalishi hisoblangan Buyuk Ipak yo‘li bugun transportchilar sa’yi – harakatlari bilan qayta tiklanmoqda. Osiyo bilan Evropani birlashtiruvchi bu yo‘l mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashda tobora keng o‘rin egallamoqda. Bu O‘zbekistonning transport va tranzit salohiyati yuksalishiga ham xizmat qiladi

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O‘zbekistonning transport va kommunikasiya tizimini takomillashtirishda eski mustabid tuzumdan qolgan muammolarni hal etish talab qilinardi. Bu muammolar respublikamizning Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga olib boradigan temir yo‘llarning qo‘shni Turkmaniston hududi orqali o‘tishiga barham berish, respublikada yangi dunyo talabiga javob beradigan avtomobil yo‘llarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, aviasiya infratuzilmasini takomillashtirishdan iborat edi. Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarni hal e’tish uchun transport tizimini isloh qilishning strategik yo‘nalishlari belgilab olindi va respublikada yagona milliy transport tizimini yaratish ishlari boshlab yuborildi. Sohaning barcha tarmoqlari temir yo‘l, avtomobil, aviasiya transportining rivojlanishiga asos solindi. O‘zbekistondagi avtomobil va temir yo‘llarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilandi[1].

Transport har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. O‘zbekiston dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqa olmasa-da, respublika jahon savdosida faol ishtirok etishga harakat qilmoqda. Shu bilan birgan yangi imkoniyatlar va muammolar paydo bo‘lmoqda. O‘zbekiston tranzit oqimlar nuqtai nazaridan a'lo joylashuvga ega, Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropani birlashtiradigan tarixiy Ipak yo‘li u orqali o‘tadi. Hozirda Markaziy Osiyodagi qator davlatlar o‘zlarini tranzit mamlakat sifatida ko‘rmoqda, ammo ular bir-birlari bilan kooperatsiyalashishi va sa'y-harakatlarini birlashtirishi lozim. Bu mablag‘ kiritiladigan yo‘laklarni puxtalik bilan tanlash kerakligini anglatadi. Bundan tashqari, bu davlatlar nafaqat xalqaro yo‘laklar, balki mahalliy transport bog‘lamasi, ya'ni alohida shaharlar, korxonalar hamda mintaqadagi davlatlar o‘rtasidagi bog‘lamalarga ham e'tibor qaratishlari kerak.

O‘zbekiston yaxshi temir yo‘l tizimiga ega, ammo hamisha uni takomillashtirish imkoniyati bor. Mehnat samaradorligini Qozog‘iston kabi qo‘shnilar darajasigacha yoki undan ham yuqoriroq darajada yaxshilanishi mumkin. Bundan tashqari, samaradorlikni oshirish uchun O‘zbekiston kelajakda faoliyatning

[1] https://railway.uz/uz/gazhk/transport/

ayrim turlarini autsorsing qilishni koʻrib chiqishi hamda temir yoʻl tashuvlari bozorini muntazam ochib borishi lozim.

Oʻzbekiston kishi boshiga meva yetishtirish boʻyicha yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi, ammo eksportni yoʻlga qoʻyish muammo boʻlib qolmoqda. Qimmat yuk tashish sohasida nimalarni yaxshilashimiz mumkin? Transport qanday qilib mehnat samaradorligiga ta'sir koʻrsatishi mumkin? Oʻzbekiston dengizga chiqish uchun kamida ikkita davlat hududidan oʻtishi kerak va bu jahon bozoriga chiqishda salbiy ta'sirga ega. Mamlakat oʻz geografik joylashuvini oʻzgartira olmaydi, ammo hukumat buni transport xarajatlarini pasaytirish, tashuvlar tezligini oshirishga qaratilgan samarali transport siyosati oʻtkazish orqali hal qilishi mumkin. Bugungi kunda oʻzbekistonlik ishlab chiqaruvchi uchun jahon bozoriga chiqish Germaniyadagi ishlab chiqaruvchiga nisbatan 4 baravar qimmatga tushadi. Hozirda avtomobil va temir yoʻl tarmoqlari uzoq yillar davomida moliyalashtirish yetarlicha boʻlmagan davrdan soʻng tiklanib bormoqda. Moliyalashtirishning yetarlicha boʻlmagani tezlikning pasayishi va transport vositalarini ta'mirlash uchun qoʻshimcha xarajatlar keltirib chiqargani sababli foydalanuvchilar uchun qimmat narxni keltirib chiqargan. Oʻzbekiston Toshkent va Samarqand oʻrtasidagi shosse kabi jahon darajasidagi avtoyoʻllarni qurgan, ammo ayrim muhim avtoyoʻllarning sifati jahon standartlaridan past boʻlib, bu tezlikning pasayishi va transport vositalarining tez ishdan chiqishiga olib keladi. Yoʻl qurilishi va ta'mirlash boʻyicha fond tashkil etilishi hamda barcha sohalarda samaradorlikning oshirib borilishi bu Markaziy Osiyo davlatlari amalga oshirishi va mintaqaga iqtisodiy manfaat olib kelishi mumkin boʻlgan narsadir[2].

Bugun mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli sub'yekti sifatida koʻplab davlatlar bilan oʻzaro manfaatli aloqalar oʻrnatgan. Shu yoʻlda qator xalqaro tashkilot ittifoq va uyushmalar azosi sifatida oʻzini namoyon etmoqda. Oʻzavtosanoat assotsatsiyasi 30 dan ortiq katta va oʻrta hajmdagi korxonalarni oʻz ichiga olgan boʻlib, ushbu korxonalarda Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya, Gollandiya, AQSh va MDH mamlakatlarining sarmoyalari va texnologiyalari asosida ish olib borilmoqda.

Dunyo savdosining jadal oʻsishida logistika rolining kuchayishi xalqaro masshtabda amalga oshiriladigan operatsiyalarning integrallashuvi gʻoyasini amalga oshirishga moʻljallangan global logistikaga alohida e'tibor berishga olib keldi. Oʻzbekistonda tashqi iqtisodiy va boshqa xalqaro aloqalar, shu jumladan yuklar (yoʻlovchilar)ni xalqaro tashishlar yuqori suratlar bilan rivojlanmoqda. Global logistikada transport-logistika tizimini boshqarishni modernizatsiyalash milliy iqtisodiyotni internasionallashtirishning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib

[2] https://m.kun.uz/news/2019 transport-va-logistika-muammolari-

hisoblanadi. O‘zbekistonda avtomobillarda tashishlarni rivojlantirish avtomobil magistrallari va yo‘l infratuzilmasining sifat darajasini pasayishi, xalqaro tashishlarda qatnashuvchi mamlakatlar o‘rtasida tansport va bojxona tartib qoidalari sohasida huquqiy me’yorlar bo‘yicha kelishmovchiliklar hamda xalqaro avtomobil yo‘llarini rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf qilish bo‘yicha yetarli darajada bo‘lmagan muvofiqlashtirish harakatlariga yo‘l qo‘ymaydi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 93-maqsadida: “Mamlakatning xalqaro hamjamiyatda teng huquqli sub’yekt sifatidagi rolini oshirish, hamkor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli tarzda muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish, yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni kelishish” belgilangan[3]. Hozirgi vaqtda amaliy holda xalq xo‘jaligida kuchli va samaradorligi yuqori darajada bo‘lgan infrastruktura rivojlanmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, uning baqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minash va yangi ichki mahsulotning oqilona tarkibini shakllantirish, xo‘jalik sub’yektlarining faolligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalar va logistik xizmatlar bozoridan keng ko‘lamda samarali foydalanish taqazo etiladi. Eng oddiy bosqichda saqlash va tashish jarayonlarining bog‘lanishi, qoida tariqasida, tayyor mahsulotni sotish sohasida amalga oshiriladi.

Transport bir joyda turmasligi kerak. U iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan bir qatorda doimo rivojlanishi va hatto ulardan o‘zib ketishi kerak, chunki bu ko‘p narsaga bog‘liq. Transportni rivojlantirish yo‘llaridan biri - transportni yuqori malakali ishchi kadrlar bilan jihozlashdir. Transport majmuasi yuqori malakali kadrlarga muhtoj va nafaqat malakali haydovchilar, avtomexaniklar va boshqalar, balki iqtisodiy rejalashtirish, taqsimlash, ta'minlash bilan bog‘liq xodimlar logistlar kerak. Hozirgi vaqtda logistika sohasida kadrlar tayyorlash masalasi allaqachon jiddiy ko‘tarilgan. Logistika fanning yangi tarmog‘i bo‘lib, u tovarning ishlab chiqaruvchidan oluvchiga o‘tishi va unda transport tizimlarining ishtirokini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuning uchun barcha transport tizimlari logistikadir. Tovarlar harakati bilan birga keladigan barcha jarayonlar: ombor, moliyaviy, mehnat va boshqalar orasida logistika ham bor. Yuk va yo‘lovchilarni tashishda avtotransport vositalariga yo‘l varaqalarini elektron shaklda rasmiylashtirish va yuritish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Hukumat qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, 2024-yil 1-apreldan 2024-yil 1 oktyabrgacha Yuk va yo‘lovchilarni tashishda

[3] Mirziyoyev Sh. (2022). 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 93-maqsadida

avtotransportlarga yo‘l varaqalarini elektron rasmiylashtirish va yuritish tizimini joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshiriladi.

Bu davrda:

elektron yo‘l varaqalari Transport vazirligining “Uztrans” yagona interaktiv axborot tizimining “Elektron yo‘l varaqa” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi va yuritiladi;

elektron yo‘l varaqalari avtomobilda yuk va yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan mustaqil rasmiylashtiriladi;

yo‘l varaqalarining qog‘oz shaklidan foydalanishni cheklamagan holda uning elektron ko‘rinishiga bosqichma-bosqich o‘tiladi;

elektron yo‘l varaqalari tizimi shaxsiy engil avtomobilida yo‘nalishsiz taksi sifatida yo‘lovchilarni tashish bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun amal qilmaydi;

mazkur tizim platformasini yaratish, joriy etish va unga xizmat ko‘rsatish uchun manfaatdor tashkilotlar (milliy operatorlar) tanlov asosida jalb etilishi mumkin;

tizimdan foydalanganlik uchun yig‘im undirilmaydi[4].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda transport va yuk tizimini isloh qilish ishlari mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy og‘ir ahvolga, moliyaviy qiyinchiliklarga qaramasdan katta mablag‘lar ajratilib amalga oshirildi. Umuman olganda, istiqlol yillarida O‘zbekistonning transport va kommunikasiya tizimini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ulkan ishlar bajarildi. Respublikada transport mustaqilligi ta’minlandi va mamlakatning barcha hududlarini o‘zaro bog‘laydigan milliy transport yaxlit tizimi vujudga keldi. Vatanimizda yaratilgan samarali transport tizimi dunyo mamlakatlari bilan integrasiyalashuv va tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fodalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh. “Avtomobil transportda yuklarni xalqaro tashishlarni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 7 iyundagi PQ-4353-son qarori

2. S.Qosimov Xalqaro yo‘nalishlarda yuklarni tashishni tashkil etishning tarnsport-terminal tizimini shakllantirish va uning samaradorligini oshirish“Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

3. J.Nosirova O‘zbekistonda logistikaning xizmatining rivojlanishi va istiqbollari. (2016) “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. TDIU. № 4, 2016 yil. www.iqtisodiyot.uz.

[4] https://huquqiyportal.uz/document/3173?id=73

4. E.Karimov. B.Niyazov “Korxona va aholiga transport- ekspeditsiya xizmati ko‘rsatish” Toshkent 2007 yil.

5. J.R.Qulmuhamedov. E.Karimov H.H .Muxamedov ,A.A.Oxunov ,T.A. Doshekenov “Avtomobillardan foydalanish va avtotransportda mehnat muhofazasi” Toshkent 2003 yil.

EKIN MAYDONLARIDAN BUG‘DOY DONINI TASHISHDA KOMBAYNLAR VA AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH

M.N.Jurayev, PhD., dots., (TDTU)
I.A. Madraximova, magistrant, (TDTU)

Avtomobil transporti vositalari bilan yuk tashish jarayonlari, ularni marshrutlardagi optimal sonini aniqlash va yo‘nalishlarga samarali taqsimlash hamda rivojlantirish masalalari doimo olimlar va mutaxassislar diqqat markazida bo‘lgan[1,3,5].

Bug‘doy biologik jixatdan to‘liq tayyor bo‘lgach vaqt o‘tishi bilan o‘z-o‘zidan to‘kila boshlaydi. Don to‘liq pishgan maydonlarda o‘rim 5 kunga kechiksa 4%, 10 kunga kechiksa 12% foiz, 20 kunga kechiksa 28% foiz don boshoqlaridan o‘zidan-o‘zi yerga to‘kilib ketadi. Don yig‘im-terimida nobudgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik uchun don biologik jixatdan yetilgach, uni yig‘ishtirish texnologiyasidan qat’iy nazar yig‘im-terim va tashish ishlarini o‘z muddatlarida tashkil qilish uchun, tashishda foydalanilayotgan avtomobil transporti vositalari yuqori aniqlikda tayyorlangan tashish rejalari orqali amalga oshirish lozim[2].

Bug‘doy donli ekinini yig‘ib olishda foydalaniladigan avtomobil transporti vositalarining asosiy vazifalari quyidagilar bo‘lib hisoblanadi: donli ekinlarni texnologik mashinalardan don omboriga o‘z vaqtida va isrof qilmasdan tashish; o‘rim-yig‘im texnikasidan samarali foydalanish uchun zarur bo‘ladigan shart-sharoitlarni yaratish, avtomobil transporti vositalarini ortish va tushirish jarayonida turib qolishlarni kamaytirish; o‘rim-yig‘im-transport jarayonida ishlarni tashkil qilishning ilg‘or uslublarini joriy qilish uchun zarur bo‘ladigan shart-sharoitlarni yaratish va shu asosda mehnat va material sarflarini kamaytirish.

Bug‘doy o‘rim-yig‘im jarayoniga tashish xizmatlarini ko‘rsatish uchun turli markadagi avtomobil transporti vositalaridan foydalaniladi. Avtomobil transporti vositalari va kombaynlar soni nisbati bilan transport-tashish jarayonlarini kompleks samarali ishlashini tashkil etish lozim. O‘rganishlar jarayonlarida ayon bo‘ldiki, avtomobil transporti vositalari va kombaynlarning muvofiqlashtirilgan holatda ishlashi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘ladi. Kombaynning unumdorligiga, don

ekinlarining hosildorligi, don va somonning namligi, texnik-texnologik sabablarga koʻra toʻxtab qolishi va boshqalar ta’sir koʻrsatadi. Shuningdek, avtomobil transporti vositalarining ishlashi ularning texnik holati, haydovchilarning malakasi, oʻrtacha tezligi, yoʻl sharoitlari va boshqa omillarga bogʻliq boʻladi. Ma’lumotlariga koʻra, kombaynning ishlamay qolgan soatiga pul yuqotishi avtomobil transporti vositalaridan 3...4 baravar koʻpligi ma’lum. Bunda, avtomobil transporti vositalarini kutayotgan kombaynlarning toʻxtab qolishini bartaraf etish yoki qisqartirish uchun ularning sonini cheklangan qiymatda koʻpaytirish kerak boʻladi.

Donli ekinlarni oʻrib-yigʻib olishda toʻplaydigan bunkerli kombaynlar oldiga ritmik tarzda transport vositalari kelishi zarurligini koʻrsatadi, ularning kuzovlari bir nechta bunkerlarning sigʻdiruvchanligiga teng boʻlgan donni sigʻdirishi sababli ular shuningdek yigʻish-toʻplash funksiyasini ham bajaradi.

Transporti vositasining ekin maydonidan don qabul qilish punktigacha va orqaga bajariladigan qatnovning aylanma vaqtini aniqlash ma’lum ketma-ketlikda bajariladi va “avtomobil-haydovchi” mos ravishda bir holatdan ikkinchi holatga oʻtadi. Yuk tashishda ma’lum bir *j* qatnovda harakatlanayotgan *i* turdagi transporti vositasi faoliyati doimiy va tasodifiy xarakterdagi koʻrsatkichlar ta’sirida shakllanadi. Har bir jarayon va uni natijasini xarakterlovchi koʻrsatkich ma’lum bir tashqi sharoit (yoʻl sharoiti, yoʻl harakatini tashkil etish, kombaynning ish koʻrsatkichlari va hokazo) ta’sirida kechayotgan texnik-texnologik, tashkiliy va boshqaruv jarayonlari natijasida amalga oshadi.

Kombayn va avtomobil transporti vositasining faoliyat muvofiqligini aniqlashda, oʻrim-yigʻim-transport jarayonining quyidagicha ikkita holatini koʻrishimiz mumkin[2,4]:

Birinchi holatda, $t_{ayl}^{q} < t_{kn}^{sikl}$ boʻladi, yahni, har bir kombaynga kuzovning mos keluvchi hajmiga va yuk koʻtaruvchanlikka ega boʻlgan bitta transport vositasi toʻgʻri keladi.

$$V_n^a = \frac{q_n^a}{\gamma}, \text{ m}^3 \ ; \tag{1}$$

bu yerda, V_n^a – avtomobil transporti vositasining kuzovining hajmi, m^3;
q_n^a - tegishli avtomobil transporti vositasining yuk koʻtaruvchanligi, t;
γ – bugʻdoyning zichligi, t/m3.

Ikkinchi holatda, $t_{ayl}^{q} > t_{kn}^{sikl}$ boʻladi, ya’ni, transporti vositasining zaruriy soni avtomobilning aylanma qatnov vaqti va yanchilgan bugʻdoyning hajmini hisoblashdan qabul qilinadi.

Kombayn tomonidan yanchilgan don massasining hajmi quyidagi formula boʻyicha hisoblanadi:

$$V_n = \frac{t_{ayl}^{q} \cdot 3{,}6 \cdot p_{o\prime t} \cdot k_q}{\gamma \cdot \eta_b \cdot (1+d)} \ ; \tag{2}$$

bu yerda, $p_{o'z}$ - kombaynning o‘tkazish qobiliyati, kg/s.

Ish kuni davomida kombaynlarning ishlamay qolishi(bo‘sh turish)dan va avtomobil transporti vositalarining kunlik ish vaqtidan samarali foydalanmaslik natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy zarar miqdori (F) Bunda, maqsad funksiya [1] bilan ifodalash mumkin.

$$F= c_k \cdot \lambda \cdot t_k + (c_{a1} + c_{a2}) \cdot n_{ai} \rightarrow min \quad (3)$$

Bunda, c_k – ish kuni davomida ekin maydonida bo‘sh turgan kombaynlarning zarari, so‘m;

λ – ish kuni davomida to‘ldirilgan bunkirlarni o‘rtacha soni;

t_k – har bir buyurmalar uchun o‘rtacha kutish vaqtlari yig‘indisi, soat;

c_{a1} – Ish kuni davomida avtomobil transporti vositacining kombaynni kutib qolishda yo‘qotiladigan iqtisodiy zarar qiymati, so‘m/kun;

s_{a2}– Ish kuni davomida avtomobil transporti vositacining kunlik ish vaqtidan samarali foydalanmaslik natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy zarar qiymati, so‘m/kun;

n_a – transport-tashish jarayonidagi avtomobil transporti vositalari soni.

Tashishda foydalanilayotgan har bir avtomobil transporti vositasiga to‘g‘ri keladigan kombayn bunkrlarini soni:

$$n_b = \frac{q}{\gamma \cdot Q} \quad (4)$$

Bunda, q –avtomobil transporti vositasini nominal yuk ko‘tarish qobiliyati, t;
γ-bug‘doyni zichligi, t/m3;
Q – kombayn bunkirining hajmi, m3.

Kombayn bunkerini to‘ldirish uchun sarflangan vaqt, min;

$$T_b = \frac{600 \cdot Q \cdot \gamma}{L_k \cdot V_k \cdot g_d}; \quad (5)$$

Bunda, V_k- kombaynning ishchi tezligi, km/soat;
L_k– kombayn jitkasini ish kengligi, m;
g_d– bug‘doy donini hosildorligi, t/ga.
Avtomobil transporti vositasining bir aylanishga sarflangan vaqti (tayl), soat;

$$t_{ayl}= t_d + t_o + t_{yuk} + t_{huj} + t_{bt} + t_{yuks}\ ; \quad (6)$$

bunda, t_d – avtomobil transporti vositasini dala maydonida harakatlanishga sarflagan vaqti, soat;
t_o – yuklashga sarflangan vaqt, soat;
t_{yuk}- yuk bilan harakatlanishga sarflangan vaqti, soat;
t_{huj} – hujjatlashtirishga ketgan vaqt, soat;
t_{bt} – donni kombayn bunkiridan tushirishga sarflangan vaqt, soat;
t_{yuks}- yuksiz harakatlanish vaqti, soat.

i-hududda xizmat ko‘rsatayotgan kombaynlar uchun tashish xizmatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan avtomobil transporti vositalari soni(N_{Ai})quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{Ai} = \frac{n_{ki} \cdot W_s \cdot g_d \cdot t_{ayl}}{q \cdot \gamma_{st} \cdot \alpha_t}; \quad (7)$$

Bunda, n_{ki} - i-hududda ishlayotgan kombaynlar soni;

W_s– kombaynning soatlik unumdorligi, ga/soat;

g_d– bug‘doy donini hosildorligi, t/ga.

t_{ayl} -avtomobil transporti vositasining bir aylanishga sarflangan vaqti, soat;

q –avtomobil transporti vositasini nominal yuk ko‘tarish qobiliyati, t;

γ_{st}- avtomobil transporti vositasining yuk ko‘tarish qobiliyatidan foydalanish koeffitsenti;

α_t - texnik tayyorgarlik koeffitsenti;

Bug‘doy tashishda kombaynlarga xizmat ko‘rsatadigan avtomobil transporti vositalarining soni aylanma qatnovni sikl vaqti bilan uzviy bog‘lanishda bo‘ladi. Avtomobil transporti vositasi bug‘doy donni ekin maydonidan qabul qilish maskaniga tashish bo‘yicha transport ishini qanchalik tez bajarsa va qanchalik tez ekin maydoniga qaytib kelsa, kombaynlarga xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘ladigan avtomobil transporti vositalarining soni shunchalik kichik bo‘ladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari bo‘yicha, donli ekinlarni ekin maydonlaridan don omborlariga tashishda avtomobil transporti vositalarining ratsional asoslangan zaruriy sonini aniqlash imkonini beradi. Bu esa, klasterlar va fermer xo‘jaliklarining va o‘rim-yig‘im davri uchun chetdan jalb qilingan transport vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bunda, avtomobil transporti vositasining butun harakatlanuvchi tarkib bo‘yicha emas, balki har bir avtomobil trasporti vositasining yuk ko‘tarish qobiliyati, tashish masofasi va bug‘doy donini o‘rib-yig‘ib olish uchun jalb qilingan kombaynlarning soni hamda har bir kombaynning texnik tavsiflari hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Butaev Sh.A. va boshqalar. Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish. Toshkent. O‘zR FA “Fan” nashriyoti, 2009. – 268 b.
2. A.K. Igamberdiev/ Qishloq va suv xo‘jaligida transport /O‘quv qo‘llanma.-T.: TIQXMMI, 2020-200 bet.
3. Вельможин А.В., Гудков В.А., Миротин Л.Б. (2001) Теория организация и управление автомобильными перевозками: логистический аспект фомаршрутирования перевозочных процессов. -Волгоград: РПК «Политехник», – 179 с.
4. Левкин Г.Г. Транспортная инфраструктура рынка зерна в России и за рубежом / Г.Г. Левкин, Т. Ефременко // The Caucasus. economic and social

analysis journal of southern Caucasus, 2019. – Том 7. – № 34. – С. 29-36
5. Congli Hao, Yixiang Yue. Optimization on Combination of Transport Routes and Modes on Dynamic Programming for a Container Multimodal Transport// System Procedia Engineering - 2016. Pp. 382 – 390.

MAMLAKATIMIZDA TRANSPORT SOHASIDA YUK VA YO‘LOVCHI TASHISH OQIMIDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI

Muxammadjonov Alijon Olimonovich, tayanch doktorant (NamDU)
Mahmudov Sanjar Toxirjon o‘g‘li, stajyor-o‘qituvchi (NamMQI)

Annotatsiya: *mazkur maqolada mamlakatimiz va Markaziy Osiyo davlatlarini bir biri bilan o‘zaro bog‘lab turuvchi transport vositalarida yuk va yo‘lovchi tashish tizimlari haqida ma’lumotlar bayon qilingan bo‘lib, bugun bu sohada yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar haqida yoritilgan va ularni bartaraf etish uchun ishlab chiqilayotgan loyihalar haqida ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yuk tranziti, yo‘l infratuzilmasi, texnik holat, shahar transporti, transport xavfsizligi, tariflar va narxlar.*

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o‘sib borishida bugun transport tizimlari alohida mavqega ega. Chunki bu tizim iqtisodiyotimizning arteriyasi hisoblanmish avtomobil yo‘llar sohasini ham o‘z ichiga oladi. Har bir mamlakatda asosiy yuk aylanmasining asosiy ulushi transport va transport yo‘llari hissasiga to‘g‘ri keladi. Sababi ular mamlakatning istalgan eng kichik hududlariga ham kirib bora oladi.

Bugun yuk tranziti tushunchasi keng yoyilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlarini o‘zaro trnasport yuk aylanma xajmi yildan yilga o‘z salmog‘ini oshirib bormoqda. Ayniqsa mamlakatimiz kabi ikki karra dengizga chiqish imkoniyati cheklangan davlatlar uchun tranzit harakati juda muhim sanaladi. Bundan tashqari mamlakatning ichki qismidagi yuk va yo‘lovchi tashishda ham bu transport turi yetakchilik qiladi.

Joriy kunda bu soha yuk va yo‘lovchilarni bir joydan boshqa joyga tashishni o‘z ichiga olib, mamlakatning ichki va tashqi savdosini ta’minlash, aholini harakatlanishini osonlashtirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Biroq, transport sohasida yuzaga kelayotgan qator muammolar bu tizimning samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Quyida shu muammolar bayon qilinadi:

1. **Infratuzilma va transport yo‘llarining eskirishi:** ko‘pgina mamlakatlarda transport yo‘llari, temir yo‘llar, portlar va aeroportlar kabi infratuzilmalar vaqt o‘tishi bilan eskirib bormoqda. Bu holat yuk va yo‘lovchilarni tashish

jarayonida turli xil uzilishlar va kechikishlarga olib keladi. Bundan tashqari yo‘l harakati xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan holatlar ko‘p uchraydi;

2. **Transport vositalarining texnik holati:** ko‘pgina transport vositalari, ayniqsa, yuk tashishda foydalaniladigan texnikalar eski va texnik xizmat ko‘rsatish darajasi past. Bu nafaqat yo‘llarda avariya xavfini oshiradi, balki yuk yetkazib berishda ham kechikishlarga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, transport vositalarining energiya samaradorligi past bo‘lib, ularning foydalanish xarajatlari yuqori bo‘ladi;
3. **Transport tizimidagi muvofiqlik va koordinatsiya yetishmasligi:** transportda yuk va yo‘lovchilarni tashishda turli transport turlari o‘rtasidagi muvofiqlik yetishmasligi ham muhim muammolardan biridir. Bu, ayniqsa, multimodal transportda, ya’ni bir nechta turli transport vositalaridan foydalanishda ko‘zga tashlanadi. Turli transport operatorlari o‘rtasidagi koordinatsiyaning pastligi yuklarning yo‘qolishi, kechikishlar va samaradorlikning pasayishiga olib keladi.
4. **Shahar transportida yo‘lovchilar sonining haddan tashqari ortishi:** katta shaharlarda yo‘lovchilar oqimi katta bo‘lib, transport tizimining to‘liq ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, avtobuslar, yo‘nalishli taksilar va metro kabi jamoat transportida haddan tashqari odam yig‘ilishi transport tizimining samaradorligini pasaytiradi va yo‘lovchilarning noqulay harakatlanishiga sabab bo‘ladi.
5. **Ekologik muammolar va transportning atrof-muhitga ta’siri:** transport sohasidagi yana bir jiddiy muammo bu atrof-muhitning ifloslanishidir. Ayniqsa, yuk tashishda ishlatiladigan yirik transport vositalari va shahar transportida harakatlanadigan avtomobillar havoni ifloslantiradi va global iqlim o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Transportdan chiqayotgan zararli gazlar sog‘liq uchun xavf tug‘diradi.
6. **Transport xavfsizligi:** transport sohasidagi xavfsizlik muammosi nafaqat yo‘llarda harakatlanish xavfsizligiga, balki yuklarni himoya qilish va yo‘lovchilarni xavfsiz tashishga ham taalluqlidir. Ko‘pgina mamlakatlarda transport vositalari va infratuzilmalari xavfsizlik standartlariga to‘liq javob bermaydi. Bu esa avariyalar sonining ko‘payishiga, yuklarning yo‘qolishiga yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
7. **Tariflar va narxlarning nomuvofiqligi:** transportda yuk va yo‘lovchilar tashish xizmatlarining tariflari ko‘pincha nomuvofiq bo‘lib, bozorda raqobatni cheklaydi va iste’molchilar uchun qimmatga tushadi. Bu, ayniqsa, xalqaro transportda yoki uzoq masofalarda xizmat ko‘rsatishda seziladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan bir qator muammolar bugungi kunda transport infratuzilmaisning yanada keng yoyilishida birmuncha murakkabliklar tug‘dirmoqda.

Bu muammolarni bartaraf etish ustida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish transport sohasida samaradorlikni oshirishning asosiy yechimlaridan biridir. Bu borada hukumat va xususiy sektor hamkorlikda ishlashi lozim. Davlat byudjetidan transport infratuzilmasini yangilashga mablag‘ ajratish va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali muammoni bartaraf etish mumkin;
2. Transport vositalarining texnik holatini yaxshilash uchun muntazam texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va eskirgan texnikalarni zamonaviy texnologiyalar bilan yangilash lozim. Shuningdek, ekologik toza va energiya tejamkor transport vositalariga o‘tish ham transport tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi;
3. Transport turlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash va tizimni yaxshilash uchun yagona axborot texnologiyalari tizimlarini joriy etish lozim. Bu tizimlar transport operatorlari o‘rtasida tezkor ma’lumot almashinishini ta’minlaydi va butun tashish jarayonining samaradorligini oshiradi. Xalqaro standartlarni joriy etish va yagona tartiblarni qo‘llash ham bu borada katta ahamiyatga ega;
4. Shahar transportini takomillashtirish va yo‘lovchilar oqimini boshqarish uchun transport vositalari sonini oshirish, yangi yo‘nalishlarni ochish va transport tarmoqlarini kengaytirish lozim. Shuningdek, yo‘lovchilar uchun qulay bo‘lgan transport integratsiyasini joriy etish, masalan, bir nechta turdagi transportga birgina chiptani qo‘llash tizimini kengaytirish ham muhimdir;
5. Ekologik toza transport turlariga o‘tish muhim ahamiyatga ega. Elektr transport vositalari, gibrid texnologiyalar, bioyoqilg‘i va vodorod texnologiyalari transportning ekologik ta’sirini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, jamoat transportidan keng foydalanishni targ‘ib qilish va avtomobil yo‘lovchilari sonini kamaytirish orqali ham transport sohasining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish mumkin;
6. Transport xavfsizligini oshirish uchun qattiq xavfsizlik qoidalarini joriy etish, haydovchilar va transport operatorlari uchun muntazam ravishda xavfsizlik bo‘yicha treninglar o‘tkazish kerak. Shuningdek, zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini, masalan, videokuzatuv tizimlarini, xavfsizlik kamarlarini majburiy qilish ham transport xavfsizligini oshirishga yordam beradi;
7. Adolatli tarif siyosatini joriy etish va transport sohasida raqobatni oshirish kerak. Bozor mexanizmlarini yanada rivojlantirish va tariflarning

shaffofligini ta’minlash orqali transport xizmatlarining narxlarini optimallashtirish mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan nazorat mexanizmlarini joriy etish ham xizmatlar narxlarining haddan tashqari oshishiga yo‘l qo‘ymaydi;

Xulosa. Yuk va yo‘lovchilarni tashish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni samarali hal etish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu sohada infratuzilmani rivojlantirish, transport vositalarini modernizatsiya qilish, xavfsizlik va ekologik masalalarni hal qilish orqali transport xizmatlarining sifatini oshirish mumkin. Transport tizimining rivojlanishi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham integratsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamajonov Murodjon, Makhmudov Sanjarbek, Axmedov Rahmonjon. Credo kompleks dasturida avtomobil yo‘llarini avtomatlashgan loyihalash. uzacademia scientific-methodical journal republican number 3 on the subject Increasing the innovative activity of youth, improving the spirituality and achievements in science‖ collection of materials august 31, 2020 part 12 pages 39-41 //ISSN (E)–2181–1334.–2020.
2. Mahmudov S. T. REDUCTION OF CROPS ARE INCREASED BY INCREASING THE CONSTRUCTION OF ROADS //Экономика и социум.–2022.–№. 3-1 (94).–С. 68-73.
3. Mahmudov Sanjarbek Toxirjon o‘g‘li AVTOMOBIL YO‘LLARINI QURISHDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASH //Mehanika va tehnologiya. 2021-yil.
4. Abdullayeva, O. S., & Muhammadjonov, A. O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In 2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET) (pp. 588-591). IEEE.
5. Mahmudov S. AVTOMOBIL YO‘LLARI CHORRAHALARIDA XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISH: AVTOMOBIL YO ‘LLARI CHORRAHALARIDA XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISH. – 2023.
6. Мухаммаджонов А., Махмудов С. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭЛАСТИЧНОСТИ И ТЕМПЕРАТУРЫ РАЗМЯГЧЕНИЯ МАСТИКИ, ПРИМЕНЯЕМОЙ НА АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГАХ //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-1 (102). – С. 776-780.
7. Mahmudov Sanjarbek Toxirjon, and O‘G. A’Zamov Rahmatali Rohatali. "SHAHARLAR KO‘CHA VA YO‘LLARIDA YUZAGA KELAYOTGAN TIRBANDLIKLARNING SABABLARI VA ULARNI BARTARAF

ETISHNING SAMARALI USULLARI." *Строительство и образование* 4.5-6 (2023): 321-325.
8. Abdullaeva O. S. Pedagogical competence of a professional teacher (on the example of 5330200-Informatics and information technology) //Study guide. Publisher: LAP Lambert Academic publishing & Co. KG, Saarbrucken, Germany. – 2018. – С. 105.
9. Махмудов, Санжарбек Тохирджон Угли, Эргашев Мухаммадюсуф, and Мухаммадолим Угли. "ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ-ДОРОЖНИКОВ." *Механика и технология* 1.6 (2022): 187-194.

ВЛИЯНИЕ КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ НА ИЗНОСОСТОЙКОСТЬ ДОРОЖНЫХ ПОКРЫТИЙ

Аманов Зокир Чориевич, Преподаватель, (ТГИАУ) ,
Аликулов Абдурахмон Худойкул угли, Студент, (ТГИАУ)

Аннотация: Рассматривается вопрос о возможном запуске в Ташкенте предприятие по производству оборудования и красок для разметки проезжей части дорог.

Ключевые слова: СоюздорНИИ, коэффициенты, дорога, материал, технология, механизм, сфере, ГИС.

Введение. Лакокрасочные материалы и пластики для разметки дорог испытывались на кольцевом стенде СоюздорНИИ и автодорогах в разных климатических условиях и в разные времена года. Испытания показали, что износостойкость этих материалов резко уменьшается при эксплуатации в условиях зимнего периода, причем особенно сильное понижение происходит при колебаниях от положительных температур к отрицательным и наоборот.

Износостойкость летом выше (у красок — в 2-18 раз, у пластиков — в 10-25 раз), чем в осенне-зимний период, хотя условия испытаний (использование влажного абразива и нагрузка) были одинаковыми. Следовательно, снижение износостойкости разметки зимой обусловлено главным образом низкими температурами, а также резкими переходами от положительных к отрицательным температурам и наоборот.

Износостойкость обуславливается рядом факторов:

1. Структурно-реологическими и деформативными свойствами разметочного материала;
2. Деформативными свойствами асфальтобетонного покрытия;

3. Взаимодействием разметочного материала с материалом покрытия автодороги (адгезией к покрытию);

4. Влиянием климатических условий, особенно воздействием переменных температур (от положительных к отрицательным и наоборот);

5. Присутствием замерзающей и оттаивающей в порах материалов воды;

6. Величиной эксплуатационной нагрузки.

Кроме того, искусственный интеллект (AI) используется в автоматизации рутинных процессов, таких как планирование маршрутов и прогнозирование спроса на перевозки, что значительно ускоряет обработку грузов.

Рынок цифровых решений для логистики развивается быстрыми темпами, особенно с ростом электронной коммерции и цифровизации бизнеса. Логистические компании страны инвестируют в технологии, которые могут повысить их конкурентоспособность. В первую очередь речь идет о системах управления транспортом (TMS), системах управления складом (WMS) и программном обеспечении для отслеживания грузов.



Помимо этого, в наших компаниях, например, внедрена система, позволяющая оценивать стили вождения водителей. На основе полученных данных разрабатываются мероприятия, которые позволяют снижать количество ДТП с участием наших транспортных средств и перерасход топлива.

Также сейчас активно внедряются электронные транспортные накладные. Участники рынка отмечают большой интерес к использованию данного инструмента, особенно у крупных грузоотправителей.

На рынке присутствуют как отечественные разработки, так и решения из дружественных стран, таких как Китай. Многие зарубежные компании уже внедряют платформы для управления цепями поставок и трекинга грузов.

После введения санкций актуальным стал вопрос импортозамещения в IT-секторе. Чтобы снизить зависимость от иностранных технологий,

зарубежные компании развивают собственные программные продукты, инвестируют в автоматизацию складских операций, в инновации в области программного обеспечения для аналитики больших данных, системы управления транспортом и IoT-решения.

В то же время при внедрении и использовании отечественных разработок транспортные компании сталкиваются с определенными проблемами, такими как «сырость» цифровых решений, сложности с выбором надежных разработчиков, а также сопротивление сотрудников.

Часть отечественного ПО пока недотягивает до зарубежных аналогов по функционалу, что сказывается на эффективности и стабильности бизнес-процессов. При этом разработчики отечественных программных продуктов — это нередко небольшие частные компании, которые могут уйти с рынка в любой момент из-за банкротства либо в связи с выкупом одним из лидеров рынка. Это всегда риск, и крупные транспортные компании стараются не использовать подобные решения для ключевых бизнес-процессов.

На государственном уровне цифровизация логистики поддерживается различными мерами, включая субсидии и гранты для разработки новых решений. Это помогает в разработке инноваций, но для массового перехода на цифровые решения необходимы дополнительные стимулы, особенно для компаний, которые не могут позволить себе крупные инвестиции в IT.

Важнейший аспект — это цифровизация таможни. Уже сейчас это помогает сократить время обработки грузов благодаря электронному документообороту и автоматизации процессов.

Особое внимание уделяется вопросам цифровизации международных перевозок, особенно в контексте развития таких стратегических направлений.

Однако остаются сложности с интеграцией различных систем на международном уровне и стандартизацией подходов к обеспечению безопасности.

Цифровизация грузоперевозок и логистики — это не просто тренд, а необходимость для компаний, стремящихся оставаться конкурентоспособными. Однако для успешного перехода на новые технологии требуются не только инвестиции в IT-решения, но и активное взаимодействие с государственными органами для получения поддержки и внедрения стандартов.

Для успешного внедрения цифровых решений в логистике важно организовать работу по следующим направлениям:

- Подготовка кадров: обучение сотрудников работе с новыми системами и платформами.

- Интеграция решений: обеспечение совместимости различных систем, особенно на международных маршрутах.
- Развитие собственного программного обеспечения для снижения зависимости от зарубежных технологий.

Литературы

1. И.Д.Афанасенко, В.В.Борисова Цифровая логистика. Учебник для вузов. — СПб.: Питер, 2019, 272 с.:

TRANSPORT-LOGISTIKA MARKAZLARINING TRANSPORT JARAYONLARIDA TUTGAN O‘RNI VA ULARNI TASHKIL QILISHDA JOYLASHUV JOYINING AHAMIYATI

I.X.Absattorov, **tayanch doktarant (TDTU)**

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va elektron sovdoning rivojlanishi ortidan transport logistika xizmatlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bugungi globallashuv davridadunyoning ko‘plab davlatlarida transport xizmatlariga nisbatan shakllangan talablarni bajarish hamda, ta’minot zanjirlarining samaradorligi va global bozordagi kelajakdagi o‘zgarishlar va muammolarga javob beradigan transport -ogistika markazlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Mintaqa hududlarida transport-logistika markazlarining paydo bo‘lishi biznes jarayonlarining globallashuvi, biznesning yangi yechimlari va o‘zaro hamkorlik imkoniyatlarini izlash bilan rag‘batlantirildi [1]. Transport-logistika markazlari bilan bog‘liq tushunchalarning xilma-xilligi mavjud bo‘lib, ular jug‘rofiy qamrov, bozor sharoiti, faoliyat va xizmatlar doirasi, boshqaruv tuzilmalari va boshqa atributlarga ko‘ra farqlanadi.

Mamlakat hududida transport-logistika markazlarini tashkil etilish orqali quyidagi potentsial foydalarga erishish mumkin:

- transport turlari o‘rtasida kombinatsiyalangan tashuvlarni rag‘batlantirish va undan foydalanishni ko‘paytirish
- konteynerli tashuvlarni amalga oshirishni ta’minlash hamda ularni yuklash va tushirish faoliyatini takomillashtirish
- yuklarni tashishda bir nechta transport turidan foydalanish orqali yuklarni yetkazib berish narxini kamaytirish
- markazlashtirilgan xizmatlarni tashkil etish orqali transport-logistika markazidan foydalanadigan kompaniyalarga o‘z iste’molchilarining ehtiyojlariga tezroq javob berishga imkon berish

- mamlakat transport infratuzulmasi jozibadorligini oshirishda transport-logistika markazlari muhim rol o‘ynaydi
- transport-logistika markazini tashkil etish orqali atrof-muhitga transport vositalari keltirib chiqaradigan ekologik zararlarni kamaytirishga erishish,
- qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish muhitini yaratish orqali yuklarning sifatli yetib borishini ta’minlash,
- mahalliy tarqatish markazlari va omborxona tarmoqlari bilan mumtazam aloqalarni o‘rnatish orqali yuklarni oxirgi istemolchiga yetkazib berishda tezkorlikni ta’minlash
- kompaniyalar uchun ta'minot zanjiri operatsiyalarining moslashuvchanligini ta’minlash.

Transport-logistika markazlarini tasniflash xususiyatlariga ko‘ra bir nechta faoliyat turlariga ajratish mumkun (1-jadval).

1-jadval

Tasniflash xususiyatlariga ko‘ra transport-logistika markazlarining faoliyat turlari [2]

Tasniflash xususiyati	**Logistika markazlarining faoliyat turlari**
Xizmat ko‘rsatilayotgan hududning miqyosi va ma’muriy darajasi bo‘yicha	Xalqaro Mintaqaviy Respublika Shahar va mahalliy
Mulk turi bo‘yicha	Shaxsiy Davlat-xususiy sheriklik Davlat Tijorat tuzilmalari uyushmalari
Ishtirokchi transport turlari bo‘yicha	Temir yo‘l – suv transporti Temir yo‘l - avtomobil Temir yo‘l -suv transporti Temir yo‘l - avtomobil- suv transporti -havo transporti Avtomobil-suv transporti Havo transporti va boshqalar
Egallagan hududning kattaligi va bajarilgan funktsiyalari bo‘yicha	Kichik 5 gektardan kam O‘rta 30 gektardan kam Katta 30 gektardan ortiq
Qayta ishlangan yuk turi bo‘yicha	Universal konteynerli Paketlangan yuk

	Suyuq yuk Maxsus saqlash va tashish usullari bilan Sanoat bo‘yicha ixtisoslashgan (don, ko‘mir, neft, o‘rmon xo‘jaligi, avtomobil qismlari va boshqalar)
Joylashuv o‘rni bo‘yicha	Tashqi (chegara) Hududiy

Transport-logistika markazlarining rivojlanish tendensiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak quyida 1-rasmda tasvirlangani kabi bosqichlar namoyon bo‘ladi.



1-rasm Transport logistika ob’ektlarining funktsional ierarxiyasi

Transport logistika ob’ektlarining eng quyi darajasi *ombor* hisoblanadi va bu daraja saqlash va inventarizatsiyaga ixtisoslashgan barcha joylarni o‘z ichiga oladi. Ierarxiyaning ikkinchi darajasi, asosan, kattaroq turdagi omborlar yoki aglomeratsiyalangan omborlar yerlarini nazarda tutadi va bu *tarqatish markazlari* deb ataladi. Bundan tashqari, faqat shahar hududiga xizmat ko‘rsatadigan tarqatish markazlarining o‘ziga xos toifasi mavjud va ular shahar markazida yuk avtomobillari harakatlanishini minimallashtirishga yordam beradi.

Yuk terminallari har xil transport turlari o‘rtasida yuklarni tashish, qayta yuklash, vaqtincha saqlash, transport turlari o‘rtasida kombinatsiyalangan tashuvlarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish maqsadida tashkil etiladi va tashish bilan bog;liq xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

*Transport-logistika markazi t*ransport, logistika va tovarlarni taqsimlash bilan bog‘liq barcha jarayonlarda ta’minot zanjirining turli operatorlari va sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan barcha xizmatlarni o‘zida jamlagan va qo‘shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlarni taklif etuvchi ob’ekt hisoblanadi.

Quruqlik porti asosan geografik jihatdan quruqlikda joylashgan davlatlarda yirik transport-logistika markazlari tarmog‘ini shakllantirish orqali ushbu davlatning

boshqa qo‘shni va mintaqaviy davlatlar quruqlik portlariga ulanish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu ierarxiyaning yakuniy va yuqori darajasi *dengiz portlari* hisoblanadi. Suv yo‘llari orqali yuklarni tashish enga arzon usul bo‘lganligi sababli dengiz portlari murakkab infratuzulmaga ega ob’ekt hisoblanadi[3].

Transport logistika markazini tashkil qilishda joylashuv joyini tanlash muhum omillardan biri hisoblanadi. Transport-logistika markazlarini tashkil qilish loyihalarini ishlab chiqishda turli metodlardan foydalaniladi. Ushbu metodlardan biri va keng qo‘llaniladigani Delphi usuli hisoblanadi. Loyihani ishlab chiqishda Delphi so‘rovi texnikasidan foydalangan holda ekspert xulosalarini olish yo‘li bilan faoliyat yuritayotgan yoki taklif qilinayotgan transport-logistika markazlarini baholash usuli yaratildi. Ushbu usul doirasida transport-logistika markazi uchta asosiy mezon bilan baholanadi; (1) geostrategik, (2) yerning yaroqliligi va (3) rejalashtirish xavfsizligi. Ushbu uchta mezon, o‘z o‘rnida bir nechta kichik mezonlarga bo‘linadi.

Loyihani ishlab chiqishda ushbu mezonlar ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra quyidagicha ulushlarga ajratiladi: Geostrategik (60%) bu o‘z o‘rnida joylashuv joyini tanlash (40%) va transport ulanish tarmoqlari (20%)ni tashkil etadi. Yerning yaroqliligi (25%) va rejalashtirish xavfsizligi (15%)

Transport-logistika markazini tashkil qilishda joylashuvni to‘g‘ri tanlash uning kelgusida faoliyat ko‘rsatishida asosiy rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Evropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatdiki, transport-logistika markazlaridan foydalanish materiallar va tayyor mahsulotlarni yuklash, tushirish va saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni 15-30% ga, transport xarajatlarini 7-20% ga, umumiy logistika xarajatlarini esa 7-20% ga kamaytirishga yordam beradi [4].

Transport-logistika markazlarini shakllantirish va rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikdan foydalanish usulini keng joriy qilish lozim. Sohaga davlat ishtirokining aralashuvini taminlash orqali transport-logistika markazlarininig rivojlanish tendensiyasini mamlakat hududlarida birdek amalga oshirishga erishishni taminlash mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Meidute, I. (2005) Comparative Analysis of the Definition of Logistics Centres, Transport Vol XX, No 3, pp
2. G.A. Samatov, I.X. Absattorov, D.Q.Xakimov, K.Sh, Matrasulov. Transport jarayonida logistika markazlarining tutgan o‘rni, ularning terminologik rivojlanishi va joylashuv joyini tanlash shartlari. Scientific Journal Of Mechanics And Technology ISSN 2181-158X, Volume 5, Issue 1, Special Issue 2024 81-90b.

3. Логистические/интермодальные терминалы/центры в Турции Европейская экономическая комиссия Комитет по внутреннему транспорту. Рабочая группа по интермодальнымперевозкам и логистике. Шестидесятая сессия. Женева, 23–24 ноября 2017 года. Пункт 9 предварительной повестки дня Интермодальные транспортные терминалы.
4. В. А. Тодуа, Д. С. Бельницкий. Особенности формирования логистических центровв Германии и Италии Рубрика 4. ЭКОНОМИКА ТРАНСПОРТА. Российский университет транспорта РУТ (МИИТ)(Москва, Россия)

SHAHAR YO‘NALISHLI AVTOBUSLARINI HARAKAT MUNTAZAMLIGINI TA’MINLASHNING MATEMATIK MADELLARINI TAKOMILLASHTIRISH (TERMIZ SHAHAR MISOLIDA)

M. Jo‘rayev, dots. (TDTU)
M. Ikromov, tayanch doktarant (TDTU)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Termiz shahrida shahar avtobuslarining muntazam harakatlanishini ta'minlash muammolari muhokama qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi aholining ishonchli va o‘z vaqtida transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi bilan bog‘liq. Ishning maqsadi avtobus jadvallarini tahlil qilish va optimallashtirish uchun foydalaniladigan matematik modellarni takomillashtirishdan iborat. Maqolada avtobuslar harakatining hozirgi holati tahlil qilinib, uning muntazamligiga ta’sir etuvchi asosiy muammolar, xususan, aholining haddan tashqari ko‘pligi, kechikishlar va xizmat ko‘rsatish chastotasining yetarli emasligi aniqlangan.

Ob-havo sharoiti va tirbandlik kabi stokastik omillarni hisobga oladigan yangi matematik modellar taklif qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

Mavjud marshrutlar va ularning muntazamligini tahlil qilish.

Vaqt xarajatlarini baholash uchun matematik modellarni ishlab chiqish va o‘zgartirish.

Yo‘lovchi tashish va tashqi sharoitlarni hisobga olgan holda jadvalni optimallashtirish.

Jadvalni modellashtirish va optimallashtirish natijasida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan bir qancha stsenariylar taklif etildi. Aniqlanishicha, taklif etilayotgan o‘zgartirishlarning amalga oshirilishi Termiz shahrida harakatlanish muntazamligini sezilarli darajada oshirish, yo‘lovchilarning kutish vaqtini qisqartirish va umumiy transport xizmati sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ushbu xulosalar fuqarolarning turmush darajasini oshirish va shahar

hududlarini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar jamoat transporti tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: harakat muntazamligi, shahar avtobuslari, matematik model, ish jadvalini optimallashtirish, transport xizmatlari, Termiz.

Kirish

Shahar avtobuslarining muntazam harakatlanishini ta'minlash shahar jamoat transporti faoliyatining muhim yo‘nalishi bo‘lib, bu fuqarolarning hayot sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Boshqa shaharlarda bo‘lgani kabi Termiz shahrida ham avtobuslarning tez-tez kechikishi, reyslarning yetarlicha chastotasi va yo‘lovchilar oqimining ko‘pligi, ayniqsa, gavjum soatlarda muammolar mavjud. Ushbu muammolar ularni hal qilishda kompleks yondashuvni, shu jumladan tizimni tahlil qilish va optimallashtirish uchun matematik modellardan foydalanishni talab qiladi.

Metodologiya

Matematik model

Avtobus transportining muntazamligini ta'minlash uchun asosiy o‘zgaruvchilar va cheklovlarni hisobga olgan holda matematik model ishlab chiqilgan:

O‘zgaruvchilar:

x_i — *yo‘nalish bo‘yicha avtobusning jo‘nash vaqti* i

d_i — marshrutdagi sayohat vaqti i

p_j — to‘xtash joyidagi yo‘lovchilar soni j

t_{wait} to‘xtash joyida yo‘lovchilarning o‘rtacha kutish vaqti.

Cheklovlar:

Marshrutning umumiy ish vaqti ish vaqtidan oshmasligi kerak:

$$\sum_{i=1}^{n}(d_i + t_{wait}) \leq T$$

Avtobuslar soni yo‘lovchi tashishga xizmat ko‘rsatish uchun yetarli bo‘lishi kerak:

$$N \geq \frac{p_i}{F} \quad \forall j$$

Yechim usullari

Optimallashtirish muammosini hal qilish uchun turli usullar qo‘llaniladi:

1. Chiziqli dasturlash (LP) - jadvalni optimallashtirish va kutish vaqtini minimallashtirish.
2. Butun sonli dasturlash - avtobuslar soni kabi butun son o‘zgaruvchilarni hisobga olish uchun.
3. Genetik algoritmlar - murakkab masalalarda global optimalni topish uchun.

4. Simulyatsiya modellashtirish - avtobuslar harakatiga ta'sir qiluvchi stokastik omillarni hisobga olish.

Natijalar

Hozirgi holat tahlili

Termiz shahridagi mavjud avtobus tizimi tahlili shuni koʻrsatdiki, avtobuslarning 60 foizi jadvalga nisbatan 10 daqiqadan koʻproq kechikmoqda. Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- Eng yuqori soatlarda avtobuslarning haddan tashqari koʻpligi.
- Yoʻl tirbandligi tufayli oldindan aytib boʻlmaydigan kechikishlar.
- Mashhur yoʻnalishlarda parvozlar chastotasi etarli emas.

Jadvalni optimallashtirish

Ishlab chiqilgan matematik modellardan foydalanib, quyidagi stsenariylar taklif qilindi:

- Eng yuqori soatlarda parvozlar sonini koʻpaytirish.
- Yoʻlning eng gavjum qismlaridan qochish uchun marshrutlarni oʻzgartirish.
- Yoʻlovchilar oqimiga qarab dinamik jadvalni boshqarish tizimini joriy etish.

Modellashtirish natijalari shuni koʻrsatdiki, taklif qilingan oʻzgarishlar yoʻlovchilarning oʻrtacha kutish vaqtini 25 foizga qisqartirishi va harakat muntazamligini 30 foizga oshirishi mumkin.

Muhokama

Olingan natijalar jadvallarni optimallashtirish va avtobuslarning muntazamligini yaxshilash uchun matematik modellardan samarali foydalanish mumkinligini koʻrsatdi. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun Termiz shahridagi shahar transportining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish va moslashtirilgan yondashuvlarni qoʻllash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning cheklovlari

Tadqiqot bir qator cheklovlarga ega, jumladan:

- Yoʻlovchilar oqimi ma'lumotlarining mavjudligi va sifati.
- Ob-havo sharoiti kabi tashqi omillarning oldindan aytib boʻlmaydiganligi.

Xulosa. Termiz shahrida shahar avtobuslari qatnovi muntazamligini ta’minlashning matematik modellarini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab qiluvchi muhim vazifadir. Ishlab chiqilgan modellar va taklif etilayotgan yechimlar shahar jamoat transporti tizimini takomillashtirish boʻyicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda mahalliy hukumatlar va transport kompaniyalari uchun foydali boʻlishi mumkin.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Abdullaev, I. A. va Toʻraev, N. N. (2021). Termiz shahar transport tizimi: muammolar va yechimlar. Transport tadqiqotlari jurnali, 12(4), 56-65.

2. Yoqubov, M. T. (2020). Shahar jamoat transportida matematik modellar va optimallashtirish usullari. Ilmiy axborotnoma, 8(3), 112-119.

3. Ismoilov, A. B. va Rahmatov, S. K. (2019). Shahar transporti jadvallarini optimallashtirish uchun chiziqli dasturlashdan foydalanish. Transport va logistika muammolari, 15(1), 34-42.

4. Normatov, E. R. (2022). Shahar jamoat transportida yo‘lovchilar oqimini tahlil qilish. Transport va xavfsizlik, 10(2), 78-85.

5. Sultonov, R. X. (2023). Transport oqimlarini statistik tahlil qilish va modellashtirish. Menejment va iqtisod, 14(1), 45-52.

НЕФТ МАХСУЛОТЛАРИНИ ТОҒ ШАРОИТИДА ТАШИЙДИГАН АВТОПОЕЗД ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ УЧУН, ЭКСПЛУАТАЦИОН ИШОНЧЛИЛИКНИ ОШИРИШ УСЛУБИ

А.А. Убайдуллаев, (ТДМАУ)

Автомобиль транспорти мамлакатимиз иқтисодиётида муҳим рол ўйнайди. Қўйилган муаммога бағишланган илмий ишларни таҳлил этишдан кўринадики, автомобиль транспортидан фойдаланиш самарадорлиги унинг хусусиятларига боғлиқ. Хусусиятлар эса эксплуатация жараёнида юзага чиқади ва транспорт воситаси берилган шароитларда эксплуатацион ишончлилигини белгилаб беради [1,2,3,4].

Ўзбекистон ҳудудлари бир қанча иқлимий зонага бўлинган. Автомобилларнинг эксплуатация хусусиятларига табиий – иқлим шароитлари таъсир ўтказади.

Эксплуатация шароитларини шартли равишда карьерлар, тоғлар, текисликларга ажратиш мумкин.

Автомобиль “Автомобиль – ҳайдовчи - йўл – муҳит” тизимининг бир қисми бўлиб, унинг хусусиятлари шу тизимнинг бошқа элементлари билан таъсири асосида юзага чиқади. Шунинг учун муайян эксплуатация хусусиятининг аҳамияти эксплуатация жараёнида, яъни автомобилдан фойдаланиш сифати ва самарадорлигида билинади.



1.Расм. Нефт ташувчи автомбил

Тоғ йўлларида автомобиллар ҳаракатланиш жараёнини тадқиқ этган илмий ишларни таҳлил қилишда қуйидаги хулосалар ишлаб чиқилди:

Тоғ йўлларидаги ташқи омилларнинг барчаси йўл шароитларининг таркибий қисми бўлиб, ҳаракатланиш режими ва хавфсизлигига ҳар томонлама ва кенг кўламда таъсир қилади.

Суюқлик ташийдиган автомобиллар ва автопоездларнинг ҳаракатланиш жараёнларини тадқиқ этган ишлар таҳлилидан маълум бўладики, улар турли эксплуатация шароитларида ишлайди ва суюқ юклар ҳаракатланиш режимига таъсир этади. Кўрилган ишларда суюқ юк ва эксплуатация шароитларининг автопоезднинг ҳаракат режимига бирваракайига (комплекс) таъсири ўрганилмаган. Бундай таъсирни ҳисобга олиш ҳаракатланиш хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим шарти бўлади.

Ғилдиракларнинг йўл юзаси билан ўзаро таъсири ёмонлашувига асосий сабаб – орада учинчи бир элемент (сув, лой, қор, муз) борлигидир. Натижада, илашиш коэффициенти пасайиб, тортиш кучи ҳам камайиб кетади.

Тоғ йўлларида денгиз сатхидан юқорига чиққан сари ёғин – сочин кўпаяди, ҳаво ҳарорати ва атмосфера босими пасаяди, қуёш реакцияси кучаяди, туман қуюқлашади, ҳавонинг нисбий намлиги ортади [3].

Тоғ йўлларида баландлашган сари ҳаракатланиш шароитларининг ўзгариши автомобилларнинг ҳаракат режимларини ўзгартиришни талаб этади ва бу хавфсизликни таъминланишига салбий таъсир этиши мумкин.

Муайян йўл шароитлари учун ҳаракатланиш режимларини махсус синов маршрутлари ёрдамида моделлаштириш мумкин. Ҳаракатланиш режимларини моделлаштириш масалалари эса, хавфсизликни таъминлашнинг назарий асослари ҳисобланади.

Тажрибалардан олинган маълумотларга қараганда мамлакатимизда ишлаб чиқарилган автомобиллар ва автопоездлар учун магистрал, тоғ ва шаҳар шароитларидаги тезликларнинг ва бўйлама профил қияликларининг тақсимланиши нормал қонунга мос келади.

Техник хизмат кўрсатиш машиналардан фойдаланиш ва уларни сақлаш чоғида уларни соз холатда тутиб туриш учун бажариладиган ишлар мажмуидир. Бу ишлар олдини олиш характерига эга булиб, машинадан фойдаланиш бутун даври мобайнида даврий равишда амалга оширилади.

Техник хизмат кўрсатиш ювиш, тозалаш, назорат қилиш, диагностика, ростлаш, мойлаш, суюқлик билан тўлдириш, махкамлаш, монтаж-демонтаж қилиш, сақлаш ишларини ўз ичига олади.

Эксплуатация хусусиятларини баҳоловчи кўрсаткичлари база сифатида қабул қилинган қийматлар билан таққосланади. Кўрсаткичларнинг бир қисми

ОСТлар ва ГОСТлар билан ларга эга, қолганлари учун тажриба ёки ҳисоблар орқали аниқланган ўртача статистик қийматлар ёки ўхшаш автомобилларнинг кўрсаткичларига тегишли экстремал қийматлар аниқланади[3].

Эксплуатация хусусиятларини баҳоловчи кўрсаткичларнинг белгиланган меъёрий қийматлари хавфсизлигини таъминлашнинг асосий мезони ҳисобланади. Автомобилларнинг бузилмасдан ишлаш кўрсаткичларини яхшилаш ушбу баҳолаш кўрсаткичларнинг белгиланган меъёрий қийматлари таъминлашнинг зарурий шарти ҳисобланади.

Шундай экан, транспорт воситаларининг хавфсизлигини таъминлашда уларнинг эксплуатацион ишончлилигини ошириш масалалари жуда мухим бўлиб, берилган шароитлар учун хизмат кўрсатиш ҳамда диагностика ишларини мақбул режимда ва етарли даражада олиб борилса мақсадга мувофиқ бўлади.

Адабиётлар

1. A.Muxitdinov va boshqalar. Transport vositalarining tuzilishi. O.Salimov tahriri ostida. “Ta’lim nashriyoti” Toshkent-2014, 160b.
2. A.Muxitdinov va boshqalar. Avtomobillar konstruksiya asoslari. “Istiqlol nuri” Toshkent-2015, 332b.
3. Бабков В. Ф. «Дорожные условия и безопасность движения». – М.: Т. 1993, – 271 с.
4. O‘z DSt 1057: 2004. – Средства автотранспортные. Требования безопасности к техническому состоянию.

AVTOMOBIL TRANSPORTIDADA YUK TASHISHNI TASHKIL ETISHDA DISPETCHERLIK TIZIMINI TEXNIK TA'MINLASH KOMPLEKSINING TAVSIFI

Isroilov Fozil Ismoilovich, dotsent v/b (JizPI)

Transportni boshqarish muammolarini hal qilishda transport xizmatlarini ko‘rsatish sifatining rejalashtirilgan darajasining ishonchliligi va oldindan tuzilgan jadvallarning bajarilishining aniqligini ta'minlash masalalari katta ahamiyatga ega. Bugungi kunga kelib, avtomobil transportini avtomatlashtirilgan boshqaruv, transportni yo‘naltirish va rejalashtirishoshirish sohasidagi bir qator nazariy va amaliy vazifalar hal qilindi. Dispetcherlik boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish orqali ta'minlanishi mumkin bo‘lgan oqilona va samarali dispetcherlik nazorati va muntazam yuk tashish harakatini boshqarish masalasi alohida o‘rin tutadi. Biroq zamonaviy avtomatlashtirilgan dispetcherlik boshqaruv tizimlarida asosiy texnologik operatsiyalarni bajarishda dispetcherning yuqorisamaradorligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, bu ayniqsa dispetcherlik

xodimlariga yukning keskin oshishi bilan namoyon boʻladi. Ushbu holat muntazam shaharlararo yoʻnalishlar boʻyicha yuklarni dispetcherlik boshqaruvini takominlashtirish yoʻnalishini ilmiy asoslash nuqtai nazaridan tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dispetcherlik texnologik jarayonlarni boshqarish va boshqarishni, moddiy va energiya manbalarini, transport ishlarini boshqarish va tezkor taqsimlashni, mashinalar va mexanizmlarning ishlashini hisobga olishni, transport harakati xavfsizligi va aniqligini oshirishni oʻz ichiga oladi. Uskunalarning ishlamay qolishi va ish vaqtining yoʻqolishi va buyurtmalarni oʻz vaqtida bajarilishining oldini olishga yordam beradigan dispetcherlik mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi.

Avtomobil, havo, suv va temir yoʻl transportlarida dispetcherlik xizmatining tuzilishi va tashkil etilishi transportning ayrim turlarining oʻziga xos xususiyatlari va texnikj ihozlaridagi farqlar tufayli sanoat korxonasidagi dispetcherlik xizmatidan sezilarli darajada farq qiladi. Transportning barcha turlari uchun umumiy maqsad mavjud boʻlib, bu yoʻlovchilar va yuklarni tashishning ishonchliligi va uzluksizligini ta'minlashdan iborat.

Transportda dispetcherlik qilishning oʻziga xos xususiyati-bu liniyalarda, boshlangʻich va oxirgi nuqtalarda vaziyatning doimiy oʻzgarishi, transport jadvallarining sezilarli darajada oʻzgarishi va transport harakatning kun, oy, yil davomida tirbandligi, bu alohida sohalar ishidagi mavsumiylik, ish kunining jarayoni, ta'til davri, yozgi mavsum, dam olish kunidagi shahar atrofidagi sayohatlar, yoʻldagi ob-havo va boshqalar. Transportda dispetcherlikning asosiy vazifalari harakatlanuvchi tarkibning holatini, uning texnik tayyorgarligini, yuklash va boshqaruv jadvali holati va transport jadvaliga rioya qilishlarini doimiy ravishda nazorat qilish; yoʻlovchilarni chiptalar va zarur sayohat ma'lumotlari bilan ta'minlash.

Katta temir yoʻl markazlarida, aeroportlarda, daryo va dengiz portlarida dispetcherlik bir nechta dispetcherlik punktlarini yaratishni oʻz ichiga oladi, ularning ishi zamonaviy radio va telefon aloqasi, avtomatlashtirish, telemexanika va kompyuter texnologiyalari bilan jihozlangan Markaziy punktdan bosh dispetcher tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Alohida dispetcherlik punktlari, qoida tariqasida, yuk ortish va tushirish punktlarida, chiptalar kassalarida, garajlarda, avtobus to‘xtash bekatlarida, aloqa punktlarida saqlashda va boshqa joylarda tashkil etiladi.



1-rasm Transport jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarining asosiy belgilari

Lokal yechimlar - uzluksiz yuklash jarayoni (avtomobilni yuklashni optimallashtirish, marshrutni qo‘llash, dispetcherlik qilish, tashish ta'riflarini oshirish) individual qurilmalarni avtomatlashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish.

Ushbu toifadagi dasturiy mahsulotlar transport marshrut va dispetcherlik tizimlarini (RDS - Routing And Dispching Sistems) - texnik to‘plamini (navigatsiya va aloqaasboblari, sensorli), ma'lumotlar amalga oshirish kanallari va haqida ishlash ko‘rsatuvlarini monitoring qilish va avtomashinani ekspluatatsiya qilish uchun ta'minotni o‘z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm Avtotransport boshqaruvini boshqarish tizimi

Bunday tizimlar orqali tezlikni, marshrutni, harakat jadvalini, masofani va yoqilg‘i sarfini onlayn va oflayn nazorat qilish, avtomobilning ishlash rejimlarini (bo‘sh vaqt, dvigatelning yukor tezligida va tormoz pedallarining holati), asosiy parametrlarni boshqarishni nazorat qilish. avtomobil tizimlari (dvigatel harorat, yonilg‘i haqida, bortdagi tarmoq yuki, nosozlik ko‘rinishdagi lampalari, dvigatel

suvi harorati, issiqlikning harorati,dvigatel moyi yuk, dvigatel momenti, avtomobil o‘qiga yuk), yuk haroratini nazorat qilish, transportning joylashishni kuzatish, transport vositalarining yordami, yuklar, haydovchilar, xavfsizlik tekshiruvi signali bilan marshrut topshiriqlarining barchasini nazorat qilish mumkin [10].

Transport vositalarini marshrutlash va transport vositalari operatsion darajada boshqarishning to‘liq siklini amalga oshirishga imkon beradi:

- Belgilangan ish jadvaliga mos marshrut vositalarini qo‘lda yoki avtomatik ravishda tayinlash
- Marshrut vazifasining bajarilishini kuzat (joylashuvni, harakat yo‘nalishini, “nazorat” punktlarining o‘tishini – foydalanishni amalga oshirishni - yukni yuklash/tushirish vaqti va joyini aniqlash)
- Sensor ko‘rsatkichlari asosidagi avtomobilning holatini, maxsus jihozlar va jihozlarning ishlashini aniqlash
- Bajarilish jarayonida marshrut harakatini zudlik bilan o‘zgartirish
- Avtotransport vositalari harakati, ish vaqtidan foydalanish bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish, keyingi tahlil qilish va tashish jarayonlarini optimallashtirish uchun statistic bazani shakllantirish.

Transportni boshqarish muammolarini hal qilishda, transport xizmatlarini ko‘rsatishda rejalashtirilgan sifat darajasini aniqlashning ishonchliligini va oldindan buyurtmalarni saqlashning to‘g‘riligini ta'minlash masalalari katta ahamiyatga ega. Bugungi kunga qadar avtomobil transportida transportni avtomatlashtirilgan boshqarish samaradorligini oshirish, transport marshrutini belgilash, grafiklarni tuzish nazariyasi sohasida bir qator nazariy va amali masalalar hal qilingan.

Avtomatlashtirilgan dispetcherlik boshqaruv tizimlarini qo‘llash orqali ta'minlanishi mumkin bo‘lgan muntazam transport yo‘nalishlari bo‘ylab yo‘lovchi transport vositalarining harakatini oqilona va samarali dispetcherlik nazorati va boshqarish masalasi alohida o‘rin tutadi.

Biroq, zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarda dispetcherlik nazorati asosiy texnologik operatsiyalarni bajarishda dispetcherning past darajadagi samaradorligi muammo bo‘lib qolmoqda, bu ayniqsa dispetcherlik xodimlariga yukning keskin oshishi bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu holat uchun shaharlararo yo‘nalishlarda yuklarni tashishni dispetcherlik boshqaruvini takomillashtirish yo‘nalishini ilmiy asoslash nuqtai nazaridan tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1.. Бочкарев, А. А. Логистика городских транспортных систем : учебное пособие для среднего профессионального образования / А. А. Бочкарев, П. А. Бочкарев. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2022. – 150 с.

2. Воропаев А. Комплексное решение задач транспортной логистики//Автотрансинфо - 24 января 2011 №1 (239), с. 17-24

3. Гаспарян В. Об оптимальном уровне автоматизации процессов, связанных с планированием работы транспорта// Логистика сегодня - № 02(44)2011, с. 110 4. Герами, В. Д. Городская логистика. Грузовые перевозки : учебник для вузов В. Д. Герами, А. В. Колик. – Москва : Издательство Юрайт, 2022. – 343 с.

O‘ZBEKISTANDA YO‘LOVCHI TRANSPORTI VA UNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

J.A.Axunov, katta o‘qituvchi (FarPI),

Qadim zamonlardayoq insonlar o‘z mehnatini yengillashtirish uchun har xil moslamalardan foydalanganlar. Odamlar og‘ir yuklarni biron-bir manzilga olib borish uchun hayvonlardan foydalanar ekanlar. Unga har xil tirkamalarni qo‘shish yanada yaxshi samara berishini kuzatganlar. Bu esa o‘z navbatida odamlarni tashishga moslashgan aravalarni ixtiro qilishga olib kelgan, deb taxmin qilish mumkin. Tarixga murojaat qiladigan bo‘lsak, hozirgi zamon avtomobillari eng birinchi avtomobillardan juda katta farqqilishini ko‘rish mumkin. Avtomobil ikki grekcha "avto" va lotincha "mobillus" so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, "o‘zim harakatlanaman" yoki "o‘zi harakatlanadi" ma’nosini anglatadi.

Birinchi avtomobillarda yurgizgich (dvigatel) sifatida bug‘ qozonidan foydalanganlar. Bug‘ mashinasini yurgizish uchun bug‘ qozoni yaxshi kizdirilib olinishi kerak edi. Fransuz injener kushinining kapitani Nikolya Jozefe Kyunyo 1769 yilda yasagan bug‘ avtomobili uch g‘ildirkali bo‘lib, 4,5 km/soat tezlik bilan 12 minut yura olar edi.

Bir yil o‘tgach bug‘ kozoniga maxsus o‘choq o‘rnatildi. O‘choqda har 12 minutda maxsus shofer ("shofer"-fransuzcha so‘z bo‘lib, "go‘loh,", ya’ni "o‘t yoquvchi" ma’nosini anglatadi) o‘t yoqib qizdirishi kerak edi. 1791 yilda rus mexanigi Ivan Kulibin yasagan "samokat" Ivan Polzunov 1763-66 yillarda yasagan ikki silindr.™ bug‘ avtomobili, nemis injeneri Daymler tomonidan 1885 yilda yasalgan benzin dvigatelli hamda rus injeneri I.V.Romanov 1899 yilda yaratgan elektromobil kabi avtomobillarga 200 yildan ortib ketdi. Bugungi kunda avtomobil transporti yo‘lovchilarni va yuklarni tashishda eng ommaviy transportga aylandi.

Birinchi avtobuslar Toshkentda 1909 yil dekabr oyida paydo bo‘ldi. Nemis va Fransuz sanoatiga tegishli 10 dona 8 o‘rinli avtobuslar {Quylik-Nikolsk poselkasi, Nikolsk-Sobornaya maydoni (hozirgi Mustakillik maydoni), Vokzal-Yakshanba

bozori (hozirgi shimoliy vokzal - A. Navoiy maydoni yaqini) yo‘nalishlarida qatnay boshladi.

1924 yilni O‘zbekistonda avtobuslarda yo‘lovchilar tashishning boshlanish davri deb hisoblash mumkin. 1924 yili Toshkent shahrida birinchi marta 1-sonli avtobaza tashkil etildi. Bu avtokorxonaga YE.V.Drajevskiy, keyinchalik esa I.A.Vetrovskiy, A.M.Rushnovskiy, P.I.Sheyakin. V.S.Radja-bov, V.S.Vartyanyan, I.Mednik, M.Gafurov, A.F.Sobirov, A.T.Podkovirin, A.Isroilov kabi O‘zbekiston avtomobil transportining asoschilari raxbarlik kildilar.

1-avtokorxona Reno, Ford, Mersedes, Oppel, Studbekker va shunga o‘xshash har xil rusumdagi avtomobillardan tashkil topgan edi. 1927 yilda O‘zbekistonda 183 dona yengil avtomobil va 80 dona avtobus mavjud edi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin aholi-ning yo‘lovchi tashuvchi transport xizmatiga bo‘lgan ehtiyoji yanada oshib ketdi. Bu esa, o‘z navbatida, transport sohasida yangi muammolarni keltirib chiqardi. Bulardan eng asosiylariga jismonan va ma’naviy eskirgantransport vositalarini zamonaviy talablarga javob bera oladigan yangilari bilan almashtirish, tashish jarayonini tashkil etish va boshqarishda eski, shu davrgacha qo‘llanib kelingan usullardan tubdan farq qiluvchi va bozor iqtnsodiyoti talablariga javob beruvchi usullarni yaratish edi. Xususan, avtotransport sohasida yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir qancha ishlarni amalga oshirdi va oshirib kelayapti.

Bunday ishlarga, birinchi galda, Respublikamizda avtomobilsozlik sanoatini yaratish borasida amalga oshirilgan ishlarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati avtomobilsozlikni rivojlantirish bilan bir paytda avtomobil yo‘llari va transporti, shahar transporti, yo‘l harakati xavfsizligi, shahar transportidan bepul foydalanish to‘g‘risidagi Qonunlar, bir qancha qarorlar qabul qildi va ular asosida shahar yo‘lovchi transportini rivojlantirish konsepsiyalari va bir qancha nizomlar ishlab chiqildi. 1992 yil 9 iyulda qabul kilingan «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi Qonunni O‘zbekiston Respublikasida avtomobil yo‘llarini rivojlantirish va ulardan foydalanish hamda harakat xavfsizligini ta’minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab bergan birinchi Qonun deb hisoblash mumkin. Ushbu qonunda yo‘l tarmog‘ini rivojlantirish, loyihalash va qayta qurish, avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning huquqlari va burchlari kabi masalalarga alohida o‘rin ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to‘g‘risida» gi qonuni 1998 yil 29 avgustda qabul qilinib, u 31 moddadan tashkil topgan. Qonunda avtomobil transporti to‘g‘risidagi tushuncha va qonun hujjatlari, mulk shakllari,

avtotransport vositalarini tasniflash, tashish turlari, tashuvchilar va mijozlarning xukuklari va majburiyatlari, xavfsizlikni ta’minlash kabi meyorlar bayon etilgan.

«Avtomobil transporti to‘g‘risida» gi qonundan avvalroq «Shahar yo‘lovchi transporti to‘g‘risida»gi 1997 yil 25 aprelda O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan bo‘lib, jami 27 moddadan tashkil topgan. Bu qonunda shahar yo‘lovchi transporti turlari, shahar yo‘lovchi transportiga egalik shakllari, yo‘nalishlarni belgilash va harakat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida aniq ko‘rsatmalar berilgan. Aholiga transport xizmatini ko‘rsatish sifatini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri sanalgan yo‘l harakati xavfsizligi ko‘rsatkichi va u bilan bog‘lik meyoriy hujjatlar O‘zbekistan Respublikasining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan «Yo‘lharakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonunda o‘z aksini topgan.

Avtomobil transporta sohasida monopoliyadan chikarish jarayonlarini chuqurlashtirish, bozor munosabatlarini shakllantirish va transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish ishlari O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining shu nom bilan ataluvchi, 2001 yil 4 iyundagi 2871-sonli Farmoni asosida amalga oshirilayapti.

Farmonda eng asosiy masalalardan biri qilib avtotransportda yo‘lovchilar va yuk gashish sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitini yanada rivojlantirish, avtomobil transporti tashkilotlarini va korxonalarini keng xususiylashtirish, xususiy avtomobil tashuvchilar faoliyati sohasini kengaytirish, transport xizmatlari bozorida mulkchilikning barcha shakllaridagi avtomobillarda tashuvchilar uchun tent sharoitlarni yaratish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Buning uchun esa avtomobil transportida boshqaruvning ortiqcha bo‘g‘inlarini tugatish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat qo‘mitasinig "O‘zbekiston avtomobil transporti davlat aksionerlik korporatsiyasini" tugatish taklifi qabul qilindi. Bugungi kunda tugatilgan "Uzavtotrans" davlat aksionerlik korporatsiyasi tarkibiga kirib kelgan konsernlar avtomobillarda tashuvchilarning hududiy uyushmalariga aylantirilgan holda ular Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ixtiyorida faoliyat ko‘rsatmokdalar.

Avtomobil transportini rivojlantirishning kompleks mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, iqtisodiyotga va mintaqa aholisiga barqaror avtotransport xizmatini ko‘rsatish uchun shart-sharoitlarni yaratish, raqobat muhitini shakllantirish, mulkchilikning barcha shakllaridagi avtomobilda tashuvchilar uchun faoliyat ko‘rsatishning teng sharoitlarini yaratish, tarif siyosatini amalga oshirishni nazorat qilish va boshqalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining asosiy vazifalari qilib belgilandi.

Farmonda avtomobil transportining hududiy uyushmalariga ham ma’lum bir masalalar yuklatilgan: avtomobil transporti soxasida bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, avtotransport korxonalarini xususiylashtirish va aksiyalashtirish

jarayonlarini rivojlantirish, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish madaniyatini va sifatini oshirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, ta’mirlash bazasini rivojlantirish, zamonaviylashtirish va boshqalar.

Avtomobil va daryo transportida yo‘lovchilar va yuk tashish xavfsiz-ligini tashkil etish va ta’minlashga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, boshqaruv organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish, yo‘lovchilar va yuk tashish yo‘nalishlarni tender asosida realizatsiya qilish mexanizmini joriy etish, raqobatda teng shart-sharoitlarni yaratish, avtomobil transportida tashuvchilar faoliyatini litsenziyalashni tashkil etish, litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish "O‘zbekiston avtomobil transporti davlat aksionerlik korporatsiyasini" tugatilishi munosabati bilan O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligiga yuklatildi. 2010 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, Respublika bo‘yicha 3335 ta yo‘lovchiyo‘nalishlari faoliyat ko‘rsatmokda. Ulardan 1035 tasi shahar, 1728 tasishahar atrofi, 329 tasi shaharlararo-viloyat ichi va 243 tasi shaharlararo-viloyatlararo yo‘nalishlardir. Bu yo‘nalishlari ing barchasida yo‘lovchilarni tashish uchun litsenziyaga eta bo‘lgan korxonalar faoliyat ko‘rsatayaptilar.

Yo‘nalishlar tarmoqlarining umumiy uzunligi 149958,5 km ni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi "O‘zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo‘lgan davrda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 640-sonli qarori qabul qilinib, unda yo‘lovchilar tashish yo‘nalishlari tizimini rivojlantirish belgilab berilagan. Unga asosan, yo‘nalishlar soni 2009 yil yakuniga kura 3555 taga yetkaziladigan bo‘lsa-da, 2010 yilda ularni 3600 taga va 2011 yilda 3710 taga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Xulosa. Shaharlarda tashilayotgan yo‘lovchilarning 60% dan ko‘prog‘i "Tosh-shahartransxizmat" uyushmasi korxonalari tomonidan tashilayapti. 2011 yil 1 apreliga ko‘ra, Toshkent shahrida mavjud yo‘nalishlar soni 292 ta bo‘lib, ulardagi jadvallar soni 2482 tani tashkil etadi. Shulardan yo‘nalishli taksilar 148 ta yo‘nalishda 1257 ta jadval bo‘yicha, avtobuslar 140 ta yo‘nalishda 1 163 ta, tramvaylar 4 ta yo‘nalishda 64 ta javdal asosida yo‘lovchilarni tashish bilan shug‘ullanayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.A.Xo‘jayev. «Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari». T.: «O‘zbekiston», 2002.
2. А.Э.Горев. Грузовые автомобильные перевозки . М.:. Академия, 2004.
3. N.Arifjanova, M.Yoqubov «Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari». T.: «Fan», 2007.

TABIIY TOSH MATERIAL VA BUYUMLARNI TASHISH, SAQLASH VA ULARNI YEMIRILISHDAN HIMOYALASH

Jalolov Zafar Muhammadi o‘g‘li, o‘qituvchi (TDMAU)
Narzullayev Xurshidbek Saydullayevich, o‘qituvchi (TDMAU)

Annotasiya: Ushbu maqolada tabiiy tosh materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarni tashish hamda saqlash vaqtida ularning mexanik shikastlanishi, ifloslanishi yoki namlanishini oldini olish uchun yuklash usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy tosh materiallar, nurash, chidamligini oshirish, ishlov berish, to‘siqlar.

Kirish. Tabiiy tosh materiallar va buyumlarni tashish hamda saqlash vaqtida mexanik shikastlanishi, ifloslanishi va namlanishini istisno qiladigan chora-tadbirlarga rioya qilish zaurur. Qoplama plitalar va boshqa buyumlarni tashish va transport vositalaridan tushirishda uloqtirishga ruxsat etilmaydi.

Tashish va saqlashda arralangan va yo‘nilgan qoplama plitalar qistirmalar bilan qirrasiga o‘rnatiladi, jilolanuvchanlari esa maxsus yuk qutilarda (konteyner) o‘ng tomoni ichkariga qaratib yotqiziladi, bunda ular orasiga qog‘oz qo‘yiladi. Me’morchilik detallari va deraza tokchalar panjarali moslamada tashiladi.

Tabiiy toshdan tayyorlangan qoplama buyumlar yopiq omborlar yoki bostirma ostida turlari bo‘yicha xillarga ajratib, arralanadigan bloklar va devor toshlarni esa tekislangan ochiq maydonlarda yog‘och tagliklarga yotqizish saqlash tavsiya qilinadi. Omborlar suv oqib ketishi ta’minlanishi lozim.

Foydalanish jarayonida bino va inshootlardagi tabiiy tosh materiallar asta-sekin yemirilishi mumkin. Bu jarayon tog‘ jinslarining yer yuzasida yemirilishiga o‘xshashligi asosida “*nurash”*deb ataladi.

Tabiiy tosh materiallar atrofdagi muhit bilan o‘zaro ta’sirlanishi, fizik-kimyoviy jarayonlar, shuningdek, turli o‘simlik organizmlarining ta’siri natijasida yemirilishi mumkin. Toshning yemirilishiga asosiy sabab-suv ta’siridir, chunki u toshning darz ketgan joylari va g‘ovaklariga kiradi, so‘ngra muzlashi natijasida hajmi kengayib toshni yemiradi. Bundan tashqari, haroratning keskin o‘zgarishi natijasida tosh yuzasida mikro- darzlar paydo bo‘ladi va ular yemirilish manbai bo‘lib qoladi. Turli mikroorganizmlar va o‘simliklar darz ketgan joylarda joylashib olib organik kislotalar ajratib chiqaradi, ular o‘z navbatida toshni yemiradi. Havo tarkibidagi turli gazlar masalan, karbonat angidrid gazi ohaktosh va marmarlarning yuzasini tinimsiz yemiradi. Tabiiy tosh materiallarning yemirilish tezligi toshning tuzilishi, zichligi, yuzasining sifati, jins hosil qiluvchi mineralllarning kimyoviy

tarkibi va boshqa tavsiflariga, shuningdek, toshga tashqi ta’sirlarning tinimsizligiga bog‘liq bo‘ladi.

Tabiiy tosh materiallarning chidamligini ta’minlash uchun bino va inshootlarning konstruksiyalariga, shuningdek, yo‘l qoplamalariga yemirilishga qarshi ma’lum konstruktiv va kimyoviy chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim. Konstruktiv chora-tadbirlarga suv tosh sirtidan to‘g‘ri va tez oqib ketishini ta’minlash, shuningdek, jilvirlash hamda jilolash hisobiga zich va silliq yuza hosil qilishdan iborat.

Kimyoviy chora-tadbirlar g‘ovak tosh yuzasiga maxsus tarkiblar shimdi-rilishi nazarda tutiladi. Bunday tarkiblar yuzani zichlaydi va uni nam kirishidan saqlaydi. Tosh materiallarni kimyoviy himoyalashning mavjud usullari ichida eng samaralisi flyuatirlash ya’ni, g‘ovakli ohaktoshning sirtqi qatlamiga flyuatlarni (kremniy ftorvodorod kislotasi tuzlarining eritmalari) shimdirishdir. Flyuatlar kalsit bilan reaksiyaga kirishib, tosh yuzasida erimaydigan birikmalarni hosil qiladi va ular sirtqi qatlamdagi barcha g‘ovaklarni to‘ldirib, namning materialga shimilishiga to‘sqinlik qiladi va shu bilan birga uning tashqi muhit ta’siriga chidamligini oshiradi.

Tabiiy tosh materiallaridan qilingan yo‘l qoplamalarning chidamligini oshirish maqsadida ularga gidrofoblovchi (suv yuqmaydigan) tarkiblar, masalan, GKJ-94 yoki GKJ-10 markali eritma qoplash va singdirish, shuningdek, tosh qoplamaning g‘ovaklariga nam kirishiga to‘sqinlik qiladigan parda hosil qiluvchi polimer materiallaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Tosh materiallarini qazib olish va ularga ishlov berishda mehnat xavfsizligini ta’minlash va atrof muhitni muhofaza qilish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Tog‘ jinslarini portlatish, qazib olish, ularga ishlov berish, turli qurilish materiallari va buyumlarini tayyorlash, qurilish-montaj ishlarini bajarish va avtomobil yo‘llaridan foydalanishda turli hil mexanizmlar, texnologik uskunalardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu jarayonlarning bajarilishida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish lozim.

Shu sababli yuqorida qayd qilingan masalalar bo‘yicha me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda texnika xavfsizligi va atrof muhit muhofazasi bo‘yicha kerakli yo‘riqnomalar berilgan. Bunday qurilish ishlarida asosiy e’tibor shovqin va changni kamaytirishga qaratilishi lozim.

Toshlarni maydalash va ularga ishlov berishda ko‘p miqdorda kremnozem changi chiqadi. Bu esa inson tanasida silikazom kasalligining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Masalan, granit toshlar qayta ishlanganda (qazib olish, maydalash, tuyish, silliqlash, saralash va h. k) kremnezem changlari 69...75 % ni, qumtoshda esa 90...95 % ni tashkil etadi.

Ishchilar ishlayotgan atrof-muhitni toza saqlash nafaqat ishlab chiqarish, shuningdek, qurilishning iqtisodiy samaradorligini ham oshiradi.

Chang hosil bo‘ladigan sexlar havo almashtiruvchi moslamalar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Chang hosil bo‘ladigan jarayonlarda ishlovchi ishchilar changni tutib qoluvchi maxsus filtrlovchi niqoblardan foydalanishi kerak. Shuningdek, alohida chang yutkichlar, germetik ko‘zoynak va maxsus kiyim-boshlar ishlatiladi.

Shovqinni kamaytirish uchun uning yo‘liga yog‘och yoki tovush o‘tkazmaydigan shitlardan to‘siqlar qurish kerak. Materiallarni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish, shuningdek, shovqinli texnologiyalarning o‘rniga zamonaviy masofadan boshqariluvchi tizimlarini joriy etish zarur.

Tosh maydalagichlarning ish maydonlari atrofi toza bo‘lishi, ish jarayonlarining bajarilishiga xalaqit beruvchi to‘siqlar bo‘lmasligi kerak. Shuningdek, ishlovchi dastgoh va mexanizmlar atrofi yoritilgan bo‘lishi lozim. Materiallarni uzatuvchi tasmasimon konveyerlar, ko‘taruvchi moslamalar va boshqa uskunalar atrofi eng kamida 1 m masofada to‘siqlar bilan himoyalangan bo‘lishi, elektr dvigatellarining korpusi esa yerga ulangan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ablakulov A., Jamolov S. IMPROVING THE QUALITY OF BITUMEN USED ONROADS. LITERATURE REWIEV. Издательский центр "ИУСЭР" Экономика и социум, ISSN 2225-1545. №5(108) май 2023
2. Стрижевский А.М. Напряженно-деформированное состояние нежесткой дорожной одежды при воздействии кратковременных нагрузок. Труди ГипродорИ. – М., 2002. – С. 71 – 78.
3. Малофеев А.Г. Исследование динамического воздействия автомобиля на нежесткие дорожные одежды в процессе эксплуатасии дорог дис.д.тех.наук– Омск, 2008. – 251 с
4. Ablakulov A., Jamolov S., Ablullaev X. ‘‘Improve asphalt concrete’s physical and mechanical characteristics’’, Scientific article, « IInd International Scientific Scopus Conference "Modern Materials Science: Topical Issues, Achievements and Innovations" (ISCMMSTIAI-2023) » March 15-16, 2023, Tashkent, Uzbekistan

SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI HAYDOVCHILARI TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN YHQ VA YTH LARNI KAMAYTIRISH BO‘YICHA CHORA TADBIRLAR

R.M.Xamraqulov, katta o‘qituvchi, (TDTrU)
Sh.S.Abdimurodov, assistant, (TDTrU)

Jamoat transporti tizimi nafaqat yo‘llardagi tirbandlikni oldini olishda, balki yo‘lovchilarni xavfsiz va tezkor harakatlanishida, hamda ekologiyaga bo‘lgan yukni

kamaytirishda asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birgalikda, Toshkent shahri aholisi va poytaxtimiz mehmonlari tomonidan jamoat transportidan keng foydalanilib kelinishi mazkur sohani rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni aktuallashtirdi.

Bugungi kunda Toshkent shahrida 5 mln nafar aholi mavjud bo‘lib (doimiy istiqomat qiluvchi – 3 mln, kunlik shaharga kelib-ketuvchi – 1,5 mln, vaqtinchalik yashovchi – 0,5 mln), shundan mobil (xaraktdagi) aholi soni o‘rtacha 3,5 mln kishini (shundan 1,8 mln ish bilan band aholi, 0,4 mln talabalar, 0,5 mln o‘quvchilar va boshqalar) tashkil qiladi. Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qarorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 2 fevralida PQ-111-sonli Toshkent shahar jamoat transporti tizimini kompleks rivojlantirish, yo‘lovchilarga sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko‘rsatish, transport infratuzilmasini yaxshilash, harakat tarkibini barcha qulayliklarga ega bo‘lgan zamonaviy avtobuslar bilan yangilash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda piyodalarga qulay harakatlanish muhitini yaratish iborat.[1]

Shahar jamoat transportida harakati xavfsizligi jarayonida undagi yo‘lovchilarning hayoti xavfsizligining ta’minlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Biroq shuni ham aytish kerakki, bu yerda yo‘l harakati bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘lovchilarning hayoti xavfsizligini tushunish lozim. Yo‘l harakati bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘lovchilarning hayoti xavfsizligini yo‘l harakati qoida (YHQ)larini buzmasdan, YTH sodir etmaslik orqali ta’minlash mumkin. Toshkent shahrida yo‘nalishli avtobuslarda yo‘l harakati bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘lovchilar hayoti xavfsizligi qanchalik ta’minlanganligini tahlil qilamiz.



1-rasm. Toshshaxartransxizmat AJ Avtobus filiallari haydovchilari tomonidan 2022-2023 yillarda sodir etilgan YHQ buzilish holatlari tahlili



2-rasm. Toshshaxartransxizmat AJ Avtobus filiallari haydovchilari tomonidan 2022-2023 yillarda sodir etilgan YHQ buzilish ulush holatlari tahlili

Tahlilar shuni ko‘rsatadiki 2022 yilda Toshshaxartransxizmat AJ Avtobus filiallari tomonidan jami 1021 ta avtobus yo‘nalishga chiqqan bo‘lib shundan 231 ta yo‘l harakati qoida buzarlik qayd qilingan, 2023 yilda esa jami 1653 ta avtobus yo‘nalishga chiqqan, 327 ta yo‘l harakati qoida buzilish holati kuzatilgan. 2022 yilga nisbatan 2023 yilda 630 ta ko‘p avtobus yo‘nalishga chiqqan bo‘lib yo‘l harakati qoida buzilish holati 7,1 % ga oshgan.



3-rasm.Toshshaxartransxizmat AJ 2023 yilda sodir etilgan yo‘l transport hodisalarini oylar kesimida tahlili

Hozirda kunda “Toshshahartransxizmat” AJ tasarrufidagi mavjud avtobus saroyi filiallari tomonidan kuniga 1053 qatnov bajarib, yiliga qariyb 240 mingdan ortiq yo‘lovchi tashimoqda. Bu esa, o‘z navbatida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Avtobuslarning sig‘imi kattaligi va ko‘plab hajmda yo‘lovchilar tashishini hisobga olinsa, yo‘l-transport hodisa(YTH)lari sodir etilishidan keladigan ijtimoiy-iqtisodiy

zararlar miqdori ham yengil yoki yuk avtomobillariga nisbatan bir necha barobar yuqori deb hisoblash mumkin. Eng asosiysi har bir avtobusda yuzlab, uning har bir qatnovida minglab, har ish kunida o‘n minglab yo‘lovchilar tashiladi. Shu sababli, yo‘nalishlarda avtobuslar ishtirokida sodir etilganYTHlarini chuqur tahlil qilish, tahlil natijalari asosida ularni sodir etilishini, og‘irlik darajasini hamda olinadigan iqtisodiy zararlarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

YTH va qoidabuzarliklar sonini kamaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

Haydovchilar bilan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik va tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish:

-yo‘nalishlarda haydovchilarning ishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha Toshkent shahar IIBB YHXB, hamda Toshshahartransxizmat A.J. HXB xodimlari bilan hamkorlikdagi reyd tadbirlarini o‘tkazish va matbuot xizmati bilan birgalikda haydovchilarni ogoxlikka chaqiruvchi tanqidiy maqolalar tayyorlash;

-haydovchilar bilan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘riqnomalarni o‘tkazib borish;

-qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ygan va faoliyati davomida ko‘plab fuqarolar tomonidan tanqid ostiga olingan haydovchilarga nisbatan o‘rnatilgan tartibda intizomiy jazo choralari ko‘rilishini ta’minlash;

-YTHlar va qoidabuzarliklarning sodir etilish sabablarini yo‘nalishlar kesimida har chorakda tahlil qilib borish va Toshkent shahar IIBB YHXB xodimlarini taklif qilgan holda haydovchilar ishtirokidagi yig‘ilishlarda sodir bo‘lgan YTHlarni muhokama qilish;

- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnak ko‘rsatib kelayotgan haydovchilarni Mohir haydovchi ko‘krak nishoni bilan taqdirlash va rag‘batlantirish hamda bu bo‘yicha matbuot xizmati bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida yoritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 2 fevralida PQ-111-sonli qarori.
2. Butayev Sh.A. va b. Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish. T., “Fan”, 2009.-294b.
3. Butayev Sh.A., Sidiqnazarov Q.M., Murodov A.S., Qo‘ziyev A.U.. “Logistika: yetkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish” “Extrimum-Press”, 2012- 580 b.

SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI HAYDOVCHILARI TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN YTHLARNING KELIB CHIQISH SABABI TAHLILI

S.K.Turdibekov, katta o‘qituvchi, (TDTrU)
E.X.Abdusamatov, assistenti, (TDTrU)

Toshkent shahrida 5 mln aholi bo‘lib, (doimiy yashovchi 2,9 mln, kunlik shaharga kelib ketuvchi 1,5 mln, vaqtinchalik istiqomat qiluvchi aholi 0,5 mln), aholining soni yiliga o‘rtacha 100 mingtaga oshmoqda. Toshkent shahrida ro‘yxatdan o‘tgan 760 ming avtotransport mavjud bo‘lib, (yiliga 76 mingtaga ortib bormoqda), transport vositalari doimiy harakatlanadigan asosiy yo‘l, ko‘cha tarmoqlari uzunligi 470 km bo‘lib 380-400 ming avtotransport harakatlanishiga mo‘ljallangan.

Budungi kunda aholini shaharda harakatlanishga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq, sifatli va xavfsiz jamoat transporti bilan ta’minlash ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, shu muammolarni yechimlari bo‘yicha 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-111 sonli, 2023-yilda esa PQ-59 sonli qarorlari bilan tizim islohotlari, maqsadli ko‘rsatkichlar hamda islohotlarni amalga oshirish mexanizmlari tasdiqlab berildi.

Hozirda “Toshshahartransxizmat” AJ tasarrufidagi mavjud avtobus saroylari kuniga 1053 qatnov bajarib, yiliga qariyb 240 ming yo‘lovchi tashimoqda. Bu esa, o‘z navbatida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Avtobuslarning sig‘imi kattaligi va ko‘plab hajmda yo‘lovchilar tashishini hisobga olinsa, yo‘l-transport hodisa(YTH)lari sodir etilishidan keladigan ijtimoiy-iqtisodiy zararlar miqdori ham yengil yoki yuk avtomobillariga nisbatan bir necha barobar yuqori deb hisoblash mumkin. Eng asosiysi har bir avtobusda yuzlab, uning har bir qatnovida minglab, har ish kunida o‘n minglab yo‘lovchilar tashiladi. Shu sababli, yo‘nalishlarda avtobuslar ishtirokida sodir etilgan YTHlarini chuqur tahlil qilish, tahlil natijalari asosida ularni sodir etilishini, og‘irlik darajasini hamda olinadigan iqtisodiy zararlarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Toshkent shahridagi avtobus yo‘nalishlari ishtirokida so‘nggi 5 yilda sodir etilgan YTHlari ma’lumotlari tahlil qilinganda eng ko‘p YTHlari mart va dekabr oylarida, umumiy YTHdan – 12,2 %ni, eng past ko‘rsatkich iyun oyida, umumiy YTHdan – 3,1 %ni tashkil etishi aniqlandi (1-rasm). Buning asosiy sababi, qish faslida yo‘l sharoitlari yomonlashadi, aholi o‘z shaxsiy avtomobillaridan ko‘ra, jamoat transportidan ko‘proq foydalanadi, bu esa, jamoat transporti ishtirokida YTHlari sonining ortishiga olib keladi. Tahlillar natijasiga ko‘ra, qish faslida

YTHlari sodir etilishi umumiy hajmdan – 32 %ni tashkil etmoqda. Yoz faslida yo‘l sharoiti yaxshilanadi, aholining ko‘pchiligi havo isiganligi sababli, shahardan tashqariga dam olish uchun chiqib ketishadi, o‘z navbatida jamoat transportidan foydalanish darajasi, yo‘llarda harakat jadalligi ham bir muncha kamayadi. Natijada, jamoat transporti ishtirokida YTHlari sodir etilishi ham kamayadi. Tahlil natijalari, yoz faslida YTHlari sodir etilishi eng past ko‘rsatkichga erishganligini, umumiy YTHdan – 17,6 %ni tashkil etmoqda.



1-rasm. Toshkent shahrida so‘nggi 5 yilda yo‘nalishli avtobuslar ishtirokida sodir etilgan YTHlarining yilning oylari bo‘yicha tahlili

Yo‘nalishlarda avtobuslar ishtirokida sodir etiladigan YTHlariga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

1. Haydovchi vaziyatni noto‘g‘ri baholashi evaziga;
2. Transport vositasining texnik nosozligi sababli YTH sodir etilishi;
3. Yo‘lning nosozligi sababli YTH sodir etilishi;
4. Piyodalarning yo‘l harakati qoidalarini buzishlari natijasida YTH sodir etilishi;
5. Yo‘lovchining noto‘g‘ri hatti-harakati hisobiga YTH sodir etilishi;
6. Muhitning, ya’ni, ob-havo, tabiiy landshaft, mexanik ko‘rinishlardagi noqulaylik sababli YTH sodir etilishi.



2-rasm. YTH kelib chiqishining sababchilari

Ko‘p hollarda YTH sodir etilganda bir tomonlama yondashuv asosida haydovchi yoki piyoda aybdor deb topiladi, ya’ni bitta sababchi ko‘rsatiladi. Aslida, ko‘p hollarda YTH bir necha aybdorlarning aybi bilan kelib chiqishi mumkin. YA’ni, bir paytning o‘zida ham haydovchi, ham yo‘lovchi yo‘l harakati qoidasini buzishi natijasida YTH kelib chiqishi mumkin. Faqat YTH kelib chiqishida ularning roli (o‘rni) turlicha bo‘ladi (2-rasm).

YTH sodir etilishida sababchilarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga haydovchi, piyoda va yo‘lovchilarni, ikkinchi guruhga esa, avtotransport vositasi, yo‘l, muhitni kiritish lozim. YTHning oldini olishda birinchi guruhda ikoniyatlar ko‘proq bo‘ladi. Yo‘l harakati jarayonida haydovchi, yo‘lovchi va piyodaning yo‘l harakati qoidalarini bilishi, unga amal qilishi, harakat jarayonida hushyorligi, turli vaziyatlarni to‘g‘ri baholab qaror qilishi ko‘plab YTHlarining oldini olishga xizmat qiladi. Shu sababdan, ko‘p YTHlarining sodir etilishi yoki uning oldi olinishi inson omili bilan bog‘liq.

Ikkinchi guruh omillaridan avtotransport vositasi va yo‘lni texnik jihatdan soz holati YTHlarining oldini olishga xizmat qiladi. Muhit esa, ob-havo, tabiiy landshaft, mexanik omillardan tashkil topganligi sababli, yo‘l harakatiga ta’sirini boshqarish masalasi murakkab hisoblanadi. Haydovchi, piyoda, yo‘lovchi, avtotransport vositasi va yo‘l muhitga moslashishi lozim.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta'minlash yo‘l-transport hodisalari (YTH) sonini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi orqali erishiladi. Bu choralarga quyidagilar kiradi:

- harakatlanuvchi tarkib konstruksiyasini takomillashtirish;
- transport sharoitlarini yaxshilash;
- harakatlanuvchi tarkibning oqilona ishlashi;
- haydovchi kadrlarni to‘g‘ri tanlash, o‘qitish va ulardan foydalanish.

Yo‘l harakati sharoitlarini yaxshilash quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- ko‘cha kengliklarining transport oqimlariga muvofiqligi;
- turli darajadagi transport kesishmalarini qurish;
- yo‘l qoplamalarini to‘g‘ri holatda saqlash (sirtlarni ta'mirlash va o‘z vaqtida tozalash);
- harakatni boshqarish vositalarini takomillashtirish (svetofor joriy etish, yo‘l belgilari bilan transport marshrutlarini tartibga solish, yo‘l chiziqlarini chizish va boshqalar);
- shahar transporti uchun maxsus yo‘laklarni ajratish;
- jamoat transporti harakati tashkil etilgan ko‘chalarda yengil va yuk avtomobillarining harakatlanishini cheklash;
- avtobuslarni to‘xtash joylariga joylashtirish uchun maxsus cho‘ntaklarni tashkil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbegiston Respublikasi Prizidentining 2023-yilning 16- fevraldagi PQ-59 qarori.
2. Горев А.Э. Основы теории транспортных систем: учеб. Пособие. А.Э.Горев; СПбГАСУ. – СПб., 2010. – 214 с.
3. Дрю Д. Теория транспортных потоков и управлении ими. Транспорт, 1972. – 424 с.
4. Иносэ Х., Хамада Т. Управление дорожным движением//Блинкина М.Я.: Пер.с англ. М.: Транспорт, 1983.-243 с.

SHAHAR YO‘LOVCHILAR TRANSPORTINI TARTIBGA SOLISH VA BOSHQARISH TIZIMINING XORIJIY TAJRIBASI

J.A.Axunov, katta o‘qituvchi, (FarPI)
D.M.Tursunov, katta o‘qituvchi, (FarPI)

Shahar yo‘lovchilar transportini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi. Shahar yo‘lovchilar transporti (ShYT) - murakkab tizim bo‘lib, unda shahar va yo‘llarning rivojlanishi, harakatlanish va jamoat transportini boshqarish mushtarakdir. Shu bois shahar uchun zarur muhim strategik qarorlar qabul qilishga qodir maxsus bo‘linma tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu masalalar bilan bir necha turdosh tuzilmalar shuQullanadigan katta shaharlarda mahalliy hokimiyat organlari tarkibida transport kompleksining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadigan ixtisoslashgan bo‘linma tashkil etish zarurati tuQilishi mumkin. Bundan tashqari, shahar yo‘nalishlar tarmoqiga qo‘yish bo‘yicha tanlovlar tashkil etish alohida mustaqil vazifa hisoblanadi.

Transport ma’muriyati munitsipal tuzilmaning ijro etuvchi hokimiyat organi tarkibiga kiradi. Transport ma’muriyatini tashkil etishdan maqsad ushbu organda transport kompleksini rivojlantirishning turli jihatlari bilan boQliq barcha vazifalarni jamlash orqali aholiga transport xizmatlari ko‘rsatishni yaxshilashdan iborat.

Transport ma’muriyati ideal holatda quyidagi asosiy vazifalarni bajarishi lozim:

ShYTning rivojlanish strategiyasini aniqlash;

transportning barcha turlarini birlashtirish asosida ShYTning rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;

ShYTni budjetdan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish;

ShYT xizmatlariga doir xaridlar strategiyasini aniqlash.

Transport ma’muriyatining tashkiliy tuzilmasi mahalliy hokimiyat organlarining tarkibi bilan belgilanadi. Katta shahar doirasida faqat bir munitsipal tuzilma ish olib borgan holda, transport ma’muriyatining barcha vazifalarini shahar ma’muriyati tarkibiga kiruvchi Transport qo‘mitasi bajarishi mumkin. Transport ma’muriyati aniq ta’riflangan nazorat vakolatlariga, shu jumladan foydalanish va moliyaviy faoliyat haqida axborot olish huquqiga ega bo‘lishi lozim. Shartnomalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun jarima sanksiyalarini qo‘llash bilan boQliq hokimiyat vakolatlari qonun yo‘li bilan belgilab qo‘yilishi kerak.

Rossiyada ShYT shahar ma’muriyatining bo‘linmalaridan biri tomonidan, yoki mustaqil yuridik shaxs shaklida tashkil etilgan transport boshqarmasi (qo‘mitasi) tomonidan boshqariladi. ShYT sohasida hal qilinuvchi vazifalar qancha murakkab va rang-barang bo‘lsa, shahar ma’muriyatining o‘z tarkibidan mustaqil transport ma’muriyatini chiqarishga tayyorlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Buyuk Britaniya poytaxti Londonda «London transporti» kompaniyasi shahar Meriga hisobdor yuridik shaxs maqomiga ega. U London shahrida transport strategiyasini amalga oshirishga javob beradi. Lekin bu sohadagi asosiy strategik vakolatlar Merga berilgan. «London transporti» kompaniyasi avtobuslar operatorlarining foydalanish faoliyati uchun javob beradi, lekin yo‘lovchilar tashishni o‘zi bevosita amalga oshirmaydi. Bundan tashqari, kompaniya metro ishini tashkil etadi, strategik yo‘llar tarmoqini boshqaradi, Londonda yo‘l harakatini boshqarish uchun javob beradi, shuningdek yengil taksomotorlar operatorlarining faoliyatini tartibga soladi. Mer vakolatiga avtobus, metro va taksida yo‘lovchilar tashish tariflarini belgilash kiradi. U o‘tkazilgan tanlovlar natijalari bo‘yicha operatorlar bilan kontraktlar tuzish uchun moliyaviy mablag‘lar hajmini aniqlaydi. Bu mablag‘lar markaziy hukumat subsidiyalari, soliq tushumlari hamda yaqinda joriy etilgan yo‘l soliqidan tarkib topadi.

Germaniyaning ko‘pgina yirik shaharlarida «Yo‘l transporti uyushmasi»ning vakolatxonalari joylashgan. Ular munitsipalitetlar, yerlar va federal davlatning birgalikda foydalanishdagi mulki hisoblanadi. Ularning hammasi ShYTni moliyalashtirish va boshqarishda u yoki bu darajada ishtirok etadi. «Yo‘l transporti uyushmasi» transport xizmatlarini rejalashtiradi, tariflar belgilaydi va harakat jadvallarini tuzadi, xususiy sektor operatorlari tomonidan avtobus xizmatlari ko‘rsatilishini ta’minlaydi. Transport harakatini boshqarish va yo‘llarning holati uchun Germaniyada ham mahalliy hokimiyat organlari javob beradi.

Kopengagenda (Daniya) jamoat transporti ishini tashkil etish uchun javobgarlik yaqinda mustaqil yuridik shaxs (Kopengagen transporti)dan Katta Kopengagen munitsipalitetining Transport bo‘limiga o‘tkazildi. Ushbu bo‘lim tariflarni belgilaydi, harakat grafiklarini tuzadi, shuningdek transport xizmatlari

koʻrsatishning sifat standartlarini va transport vositalarining tashqi bezagiga qoʻyiladigan talablarni belgilaydi. Jamoat transporti bu yerda yalpi qiymat boʻyicha shartnomalardan foydalaniladigan tartibga solinuvchi bozor sharoitida ish olib boradi.

Xulosa. Ayrim mamlakatlarda jamoat transportiga tijorat prinsiplarining kirib kelishi va raqobatning kuchayishi harakatlanuvchi tarkib saroyining tez eskirishi bilan bogʻliq salbiy tendensiyalarga sabab boʻldi. Shu sababli transport xizmatlarining tartibga solinadigan bozori shakllangan shaharlarda transport maʼmuriyatlari harakatlanuvchi tarkib saroyiga qattiq talablar qoʻyish yoʻli bilan unga investitsiyalarni raqbatlantirishga harakat qilmoqda. Xususiy operator tarmoqqa chiqarishi mumkin boʻlgan transport vositalari yoshining yuqori chegarasini cheklash harakatlanuvchi tarkib saroyiga investitsiyalarni raqbatlantirishning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi (Anqara, Pusan - 7 yosh, Stokgolm - 8 yosh va h.k.). Deyarli barcha shaharlarda transport vositalarining texnik koʻrsatkichlariga harakatlanuvchi tarkib saroyini yangilashga raqbatlantiruvchi qattiq talablar qoʻyiladi (masalan, faqat «Yevro-2» dvigatelli avtobuslardan foydalanish, past polli transport vositalaridan foydalanish va sh.k.). Ayrim shaharlarda (Bogota) saroyni yangilash jarayoni eskirgan mashinalar uchun majburiy texnik koʻriklar davriyligini qisqartirish hisobiga raqbatlantiriladi. Santyagoda shu maqsadda eskirgan avtobuslarni ularning egalaridan sotib olish dasturi amalga oshirildiki, bu 10 yil ichida tanlov yoʻnalishlaridagi avtobuslar saroyining yoshini 14 yoshdan 4 yoshga pasaytirish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.A.Xoʻjayev. «Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari». T.: «Oʻzbekiston», 2002.
2. А.Э.Горев. Грузовые автомобильные перевозки . М.:. Академия, 2004.

TRANSPORT LOGISTIK TIZIMIDA TRANSPORT HUQUQINI BOSHQA TARMOQ HUQUQLARI BILAN BOGʻLIQLIGI MUAMMOLARI

Ergasheva Kamola, assistenti (JizPI)

Annotasiya. Ushbu maqolada transport logistik tizimida transport huquqini boshqa tarmoq huquqlari bilan bogʻliqligi muammolari keltirilib oʻtilgan. Transport huquqi mulkiy xarakterda boʻlgan munosabatlar va u bilan oʻzaro bogʻliq boʻlgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yigʻindisini ifodalar ekanligi yoritilgan

Kalit soʻzlari. Transport logistik tizimi, transport huquqi, boshqa tarmoq, huquqlari, bogʻliqligi, muammolari.

Transport huquqi va transport qonunchiligi – birbiri bilan chambarchas bog‘liq, biroq aynan bir xil bo‘lmagan tushunchalar; agar transport huquqi huquq normalari yig‘indisidan iborat bo‘lsa, keyingisi – normativ hujjatlar yig‘indisidir. Transport munosabatlarini tartibga soluvchi normalarni o‘z ichiga oluvchi normativ hujjatlar tizimi *transport qonunchiligi* deyiladi.

Har qanday mamlakatning transport qonunchiligi yuk, bagaj, yo‘lovchi tashish shartnomasini belgilash, transport xizmati ko‘rsatmaganlik, yuk yoki bagajning yo‘qolishi, ularga ziyon etishi, buzilganligi uchun javobgarlik bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalar, to‘g‘ri va aralash aloqa yo‘llari bo‘ylab yuk tashishdagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat va h.k.

Transport huquqi mulkiy xarakterda bo‘lgan munosabatlar va u bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisini ifodalar ekan, xo‘sh, transport huquqi asosini tashkil etgan ushbu munosabatlarning o‘zi nimani ifodalaydi va uning mazmun, mohiyati nimadan iborat degan savol tug‘ilishi tabiiy. SHuni e’tiborga olgan holda biz quyida mulkiy xarakterda bo‘lgan munosabatlar va shuningdek, mulk bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlar to‘g‘risida biroz bo‘lsa-da, to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Transport huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasida quyidagicha ifodalab qo‘yilgan. Unga asosan, transport qonun hujjatlari transport munosabatlari ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o‘zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Transport huquqining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘zida ma’muriy huquq va fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning o‘zaro birikmasini mujamsamlashtiradi. Transport faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy munosabatlar birinchi galda fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadi, transport faoliyatida o‘zak bo‘lib hisoblanguvchi tashish shartnomasi esa fuqarolik huquqining institutidir. Transport huquqi ma’muriy huquq va fuqarolik huquqi hamda mehnat huquqining transport faoliyatiga doir tarqoq holda bo‘lgan huquqiy normalarini yagona tizimga birlashtiradi. Uning maqsadi ham ana shundan iborat, ya’ni transportga doir mavjud barcha huquqiy normalarni yagona tizimga keltirishdir. Transport huquqining maxsus qismlari mavjud: temir yo‘l, ichki suv, havo, dengiz va avtomobil huquqi. Bularning har biri transportning alohida turidagi mavjud munosabatlarni o‘rganadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – transport huquqining asosiy manbasidir, chunki O‘zbekiston Respublikasida respublika Konstitutsiyasining ustivorligi so‘zsiz tan olinadi va hech bir qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat unga zid bo‘lishi mumkin emas, xususan transport sohasiga doir chiqariladigan barcha normativ-huquqiy hujjatlar ham Konstitutsiyaga muvofiq va uning asosida bo‘lishi lozim. SHuning uchun ham Konstitutsiya asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi ham eng asosiy manbalardan biridir. Yo‘lovchi, bagaj va yuk tashishning umumiy shartlari transport ustavlari va kodekslari, boshqa qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan qoidalar bilan bir qatorda Fuqarolik kodeksi bilan ham belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismida «Transport vositalari ijarasi» (34-bob, 3-§), «Yo‘lovchi, bagaj va yuk tashish» (39-bob), «Transport ekspeditsiyasi» (40-bob) kabi maxsus boblar mavjud.

1993 yilning 7 mayida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Havo kodeksi davlat manfaatlarini himoya qilish, havo kemalari parvozi xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi halq xo‘jaligi va fuqarolari ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida aviatsiya faoliyatini hamda samoviy hududdan foydalanish bilan bog‘liq boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Temir yo‘l transportida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish maqsadida 1999 yilning 15 aprelida O‘zbekiston Respublikasining «Temir yo‘l transporti to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Temir yo‘l sohasidagi munosabatlar mazkur qonundan tashqari tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

1998 yilning 29 avgustida O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transporti faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirishni maqsad qilib qo‘yuvchi O‘zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to‘g‘risida»gi Qonuni, 1992 yilning 3 iyulida O‘zbekiston Respublikasida avtomobil yo‘llarini rivojlantirish va ulardan foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi O‘zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Transport huquqining negizi majmua xususiyatga ega. Bu negiz shuning uchun majmuaki, unga kiruvchi normalar asosiy tarmoqlarda aks ettirilgan (transport huquqi normalarini ma’muriy huquq, fuqarolik huquqi, er huquqi, protsessual huquq kabi tayanch tarmoqlarga bo‘lib yuborish mumkin). SHu bilan birga, O‘zbekiston transport huquqi- huquqiy normalarning katta bo‘limini uz ichiga oluvchi butkul mustaqil fan hisoblanadi.

Xalqaro transportni huquqiy tartibga solishni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Xalqaro transportni huquqiy tartibga solishni rivojlantirish xalqaro

tashkilotlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Bu tashkilotlar XIX asr oxirida paydo bo‘lib, XX asr urtalariga kelib xalqaro transportning turli jihatlarini urganadigan va uning faoliyatining hamma tomonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ixtisoslashgan organlar tizimiga usib utdi.

Xulosa qilib aytganda xalqaro transport tashkilotlarining huquqiy sohadagi faoliyati juda rangbarang. Bunga xalqaro shartnomalar loyihalarini tayyorlash, xarakteriga ko‘ra xilmaxil transport va texnik tartiblarni, yuk va yo‘lovchi tashish qoidalarini, transport hujjatlari proformalarini, tavsiya va xulosa berishni ishlab chiqish, amaldagi bitimlarni talkin qilish, vositachilik va xakamlik yo‘li bilan nizolarni bartaraf etish, rasmiy, hakamlik va sud qarorlarini e’lon qilish kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotida xalqaro transport muammolari BMTning dengizda tashish kumitasi mavjud bo‘lgan savdo va rivojlanish konferensiyasi doirasida ancha faol ishlab chiqiladi, tarkibida ichki transport kumitasi bo‘lgan Evropa iqtisodiy komissiyasida esa asosan avtomobil va daryo transporti masalalari bilan shug‘ullaniladi.

Adabiyotlar:

1. Abdukarim Muxtorov & Kamola Ergasheva (2022). Transport vositalarining yuklanganlik masalalari tashishda yukning nomenklaturasi. Academic research in educational sciences, ISSN: 2181-1385, DOI: 10.24412/2181-1385. 2022-2-534-540
2. Эргашева Камола Илхомжон қизи **“**Транспорт логистика тизимининг бошқарув структурасини такомиллаштириш усуллари”. «Экономика и социум» 1 (декабрь, 2022). Сайт: http://www.iupr.ru 1122-1125
3. Қосимов Суннат Ҳатамович, Эргашева Камола Илхомжон қизи наманган муҳандислик-қурилиш институти механика ва технология илмий журнали № 2 (5), 2023 Махсус сон 214-219 б.
4. Raxmatullayev M, Ergasheva K Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “qishloq xo ‘jaligi va transportda innovatsion texnika va texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollar” texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollar” 2023 yil 4-5 oktyabr 66-68 b

TRANSPORT - LOGISTIKA KLASTERLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI ASOSLASH

Kamoliddinov Ziyovuddin Bahriddin o‘g‘li, assistent, (TDTrU),
Tajibaev Damir Yembergenevich, assistent, (TDTrU),

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada transport-logistika klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha tahliliy izlanishlar olib borilgan.*

Transport klasterlari infratuzilmasi va logistika tizimlarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning samaradorlikka ta’siri o‘rganilgan. Klasterlarning transport va yuk tashish jarayonlariga ijobiy ta'siri matematik modellar asosida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot transport tizimlari resurslarini optimallashtirish, yuk tashish xarajatlarini kamaytirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalarni taklif etadi.

***Kalit so‘zlar**: Transport-logistika klasterlari, iqtisodiy samaradorlik, yuk tashish modeli, infratuzilma, matematik modellar, logistika tizimi, optimallashtirish*.

Kirish. Hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda transport va logistika tizimlari har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Transport-logistika klasterlari bu tizimning samarali ishlashini ta'minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu klasterlar o‘z ichiga transport infratuzilmasi, logistik markazlar, yuk tashish kompaniyalari va axborot texnologiyalari tizimlarini oladi. Transport klasterlarining samaradorligi nafaqat yuk tashish jarayonlarining tezligini oshiradi, balki ularning iqtisodiy samaradorligi ham oshadi.

Transport-logistika klasterlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda ularni optimallashtirish dolzarb masalalardan biridir. Klasterlar samaradorligini tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish, yuk tashish vaqtini va xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Asosiy qism. Transport-logistika klasterlari o‘zaro bog‘liq korxonalar va infratuzilmalar majmuasi bo‘lib, ular transport va logistika jarayonlarini samarali boshqarish uchun ishlatiladi. Transport-logistika klasterlari bo‘yicha bir qator adabiyotlar o‘rganilgan. Ballou (2004) logistik tizimlar va yuk tashish samaradorligini oshirish bo‘yicha yondashuvlarni taklif qiladi. Christopher (2016) esa ta’minot zanjiri boshqaruvi va logistika strategiyalarining samaradorligini oshirish masalalarini batafsil yoritadi. Rushton (2014) transport va logistika jarayonlarini rejalashtirishda infratuzilmaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu adabiyotlar asosida transport-logistika klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari tahlil qilingan.

Ushbu klasterlar iqtisodiyotga quyidagi jihatlarda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- **Yuk tashish jarayonlarini tezlashtiradi**: Klasterlar yordamida yuk tashish uchun zarur bo‘lgan vaqt qisqaradi.
- **Transport xarajatlarini kamaytiradi**: Samarali boshqaruv natijasida yoqilg‘i va texnik xizmat xarajatlari kamayadi.
- **Raqobatbardoshlikni oshiradi**: Klasterlar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali raqobatbardoshlikni oshiradi.

Transport-logistika klasterlari infratuzilmasining asosiy elementlari quyidagilar:

- **Yo‘llar va transport yo‘laklari**: Transport vositalarining o‘tishi uchun zarur bo‘lgan yo‘llar tarmog‘i.
- **Logistika markazlari**: Yuklarning yetkazilishi, qayta ishlanishi va saqlanishi uchun xizmat qiladi.
- **Axborot texnologiyalari**: Yuk tashish jarayonini avtomatlashtirish va kuzatish uchun qo‘llaniladi.

Transport-logistika klasterlarining iqtisodiy samaradorligini matematik modellar orqali baholash mumkin. Samaradorlikni baholash uchun quyidagi tenglama qo‘llaniladi:

$$E_y = \frac{Q_y * D_y}{C_y * T_y}$$

Bu yerda:

E_y – yuk tashish samaradorligi;

Q_y – yuk hajmi (tonna yoki kub metr);

D_y – yuk tashish masofasi (km);

C_y – tashish xarajatlari (valyuta birligi, masalan, so‘m);

T_y – yuk tashish vaqti (soat yoki kun).

Mazkur model orqali transport yuk tashish jarayonining samaradorligini baholash, xarajatlarni kamaytirish va yuk tashish jarayonlarining optimallik darajasini aniqlash mumkin.

1-jadval

Iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar

Omillar	**Tavsif**	**Iqtisodiy Samaradorlikka Ta’siri**
Transport Infratuzilmasi	Mahsulot va xomashyolarni bir joydan ikkinchi joyga yetkazish uchun asosiy yo‘llar.	Tezroq yetkazib berish, transport xarajatlarini kamaytirish.
Logistika Markazlari	Yuklarni qayta ishlash, saqlash va taqsimlash uchun markazlar.	Yuk tashish vaqtini qisqartirish.
Texnologiya Qo‘llanilishi	Yuk oqimlarini boshqarish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar.	Operatsion samaradorlikni oshirish.
Operatsion Xarajatlar	Yuk tashish va logistika xarajatlari.	Xarajatlarni optimallashtirish.
Yoqilg‘i Tejamkorligi	Yoqilg‘idan foydalanishni samarali boshqarish.	Yoqilg‘i sarfini kamaytirish.

Yuk Tashish Vaqti	Mahsulotlarning vaqtida yetkazib berilishi.	Mijozlarga xizmat koʻrsatishni yaxshilash, vaqtni tejash.

Xulosa. Transport-logistika klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mamlakat transport tizimining samarali ishlashi va iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Matematik modellar yordamida klasterlarning samaradorligini baholash va optimallashtirish imkoniyatlari mavjud. Transport infratuzilmasi, logistika markazlari va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish orqali yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Christopher, M. (2016). *Logistics and Supply Chain Management*. Pearson Education.
2. Ballou, R. H. (2004). *Business Logistics/Supply Chain Management*. Prentice Hall.
3. Rushton, A., Croucher, P., & Baker, P. (2014). *The Handbook of Logistics and Distribution Management*. Kogan Page.
4. Bowersox, D. J., Closs, D. J., & Cooper, M. B. (2012). *Supply Chain Logistics Management*. McGraw-Hill.
5. Mentzer, J. T. (2001). *Supply Chain Management*. Sage Publications.
6. Prajogo, D., & Olhager, J. (2012). *Supply Chain Integration and Performance: The Effects of Long-term Relationships, Information Technology and Sharing, and Logistics Integration*. International Journal of Production Economics, 135(2), 514-522.

YOʻLOVCHILARNI TASHISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Koʻchimova Dilnoza Ibragim qizi, assistenti (JizPI)

Annotatsiya. *Yoʻlovchilarni tashishda zamonaviy texnologiyalar yoʻlovchilarni tashishda ekologiya, transport tirbandligi, zamonaviy texnologiyalar, xizmat koʻrsatish sifati masalalari asoslangan boʻlishi haqidagi masalalar yoritib berilgan.*

Kalit soʻzlar. *Tirbandlik, shahar, avtobus, jamoat transporti, tez yurar avtobus*

Ma’lumki, fanda transportning yangi turlari, an’anaviy va noan’anaviy turlari kabi tushunchalar mavjud. Koʻp ishlatiladigan “transportning yangi turlari” tushunchasi nisbiy boʻlib hisoblanadi, chunki yangi gʻoyalarni amalga oshirish

muddatlari katta bo‘lishi mumkin, shu sababli xorijda “transportning noan’anaviy turlari” atamasi qabul qilingan.

Transportning noan’anaviy turlarining paydo bo‘lishi ikkita asosiy sabab bilan shartlanadi: birinchidan, ko‘pgina mamlakatlarda an’anaviy transport turlarining avvalambor ekologiya, bog‘lanish tezliklarining yetishmasligi, oshirilgan transport xarajatlari, shuningdek ba’zi bir transport turlarining tashish qobiliyatining yetishmasligi bilan bog‘lanadigan inqirozli holati; ikkinchidan, ishlab chiqarish, aholi, urbanizatsiya, sayyohlikning ortishi, shuningdek, vaqtni tejashga bo‘lgan intilish va hokazolar bilan bog‘lanadigan o‘sib borayotgan transport ehtiyojlari sharoitlarida ilmiy-texnik rivojlanishning zamonaviy darajasi bilan ochilgan yangi imkoniyatlar bilan shartlanadi.

Shaharlarda aholi va transport oqimining tez suratlar bilan o‘sishi, ko‘cha-yo‘l tarmoqlarida tirbandlik miqdorining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Buning natijasida yo‘lovchilarning manzillariga o‘z vaqtida yetib bormaslik muammolari kelib chiqmoqda. Mazkur muammolarning yechimi, shuningdek, transport harakati tezligini oshirish, atrof-muhitga chiqariladigan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish, aholiga qulayliklar yaratish, tashish tannarxini kamaytirish, energiya tejash, xavfsizlik masalalari jamoat transportida tashishning yangi texnologiyalarini yaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Amalda ana shunday zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davlatlarning yirik shaharlarida qo‘llanmoqda, ba’zilari sinovdan o‘tkazilmoqda va ba’zi qiziqarli g‘oyalar ham mavjud. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, uchuvchi apparat g‘oyasini amalga oshirish muddati 500 yilni, radio – 50 yilni, telefon – 30 yilni, televideniya – 12-14 yilni, lazer nuri – 3 yilni tashkil etgan. Shu sababli, har qanday texnik loyihani amalga oshirish mumkin bo‘ladi, biroq har qanday g‘oyani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini, uning hayotiyligi iqtisodiy va ekologik bezararligi bilan bog‘liq.

Energiyani tejashga uglevodorod yoqilg‘isidan voz kechish va avtobuslarni elektr va bioyoqilg‘iga o‘tkazish orqali, yo‘l harakati xavfsizligi muammosini uchuvchisiz transport texnologiyalari yordamida hal qilish mumkin, ular allaqachon Google, Uber va Tesla kabi kompaniyalar tomonidan joriy etilmoqda. Transport tirbandligi muammosi esa turli shaharlarda turli yo‘llar bilan yechilmoqda. Masalan, ajratilgan bo‘laklarda harakatni tashkil etish, uchadigan taksilarning yangi modellarini ishlab chiqish va shu kabilar.

Jamoat transporti harakatiga imtiyozlar berish masalalari juda ko‘p yillardan buyon turli davlatlarda, turli shakllarda amalga oshirilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning Kuritiba (Braziliya), Istanbul, Manxetton (AQSh) va boshqa yirik shaharlarida “BRT” (Bus Rapid Transit) ya’ni “Tezyurar avtobus” tizimi kengqo‘llanilib kelinmoqda. Jamoat transporti uchun alohida bo‘lak “BRT” tizimini qo‘llash ularning jozibadorligini oshirish bilan birga,

samaradorligi va ishonchliligini ham oshiradi, transport tirbandligi, shovqin, atrof-muhitga chiqariladigan zaharli gazlar miqdori, yonilg‘i sarflarini kamayishiga olib keladi



1-rasm. “BRT” tizimi bo‘yicha avtobus harakatini tashkil etish

Xitoyda transport tirbandligi yuqori bo‘lgan avtomobil yo‘llarida “avtobus-tunnel’” yoki “avtobus-portal” nomli transport harakatini tashkil etish bo‘yicha 2016 yil bahorida sinovlar o‘tkazildi. Mazkur transport kelajak avtobusi deya tanishtirildi, uning kengligi 7,8 m, balandligi 4,8 m bo‘lib, 300 nafar yo‘lovchilar sig‘dira oladi. Mazkur transport maxsus rel’slarda harakatlanadi va transport oqimi uning ostidan to‘siqsiz o‘ta oladi. Shunga o‘xshash avtobus “Shenzhen Huashi Future Parking Equipment” kompaniyasi tomonidan 1400 nafar yo‘lovchilar sig‘dira oladigan “3D Express Coach” gibrid “quyosh-elektr” mexanizmini ishlab chiqdi.



2-rasm. Avtobus-tunnelning ekspluatatsiya jarayoni

Kelajakda jamoat transporti qazilma yoqilg‘idan deyarli voz kechadi va qayta tiklanadigan manbalarga o‘tadi. London ma’muriyati allaqachon shahar avtobuslarini qisman kofe quyqalaridan tayyorlanadigan bioyoqilg‘iga aylantira boshladilar. Qahva chiqindilari butun shahar bo‘ylab fabrikalardan, barlardan, qahvaxonalardan va restoranlardan yig‘ilib, keyin qayta ishlashga yuboriladi. Yangi yoqilg‘i zararli chiqindilarni 10-15 foizga kamaytiradi. Buning yetishmaslik muammosi kutilmaydi - London aholisi har yili o‘zlaridan 200 ming tonna kofe chiqindilarini qoldiradi. Aslida 2019 yildan boshlab haydovchisiz elektrobuslar ishlashi rejalashtirilgan edi, 2025 yilga kelib Norvegiya ichki yonuv dvigatelli avtomobillarni butunlay taqiqlashni rejalashtirmoqda. Haydovchisiz elektrobus 12 yo‘lovchini sig‘dira oladi va uning tezligi taxminan 20 km/soatni tashkil qiladi. Maxsus mobil ilova yordamida avtobusga qo‘ng‘iroq qilish mumkin bo‘ladi. Kutish

vaqti 10 daqiqadan oshmaydi. Kelajakdagi shahar avtobuslari nafaqat yoqilg‘i manbalari, balki tom ma’noda yashil rangga aylanadi. Jamoat transporti tomlarida tirik o‘simliklarga ega bog‘lar bo‘ladi. Bunday loyiha Madridda allaqachon paydo bo‘lgan va shaharning ekologik holatini yaxshilash va havoga zararli chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan. Har bir bog‘ maxsus sug‘orish tizimi bilan sozlanib, o‘simliklar doimiy harakatga bardosh bera oladigan xususiyatga ega bo‘ladilar. Ehtimol, yaqinda yo‘l haqi to‘lash uchun kartalar sotib olishning hojati qolmas, ma’lum bir kiyimni kiyish kifoya bo‘lar. Masalan, Berlinda barcha transport turlari uchun bir yilga yo‘lkira kartochkasi o‘rnini ham bosadigan krossovkalar ishlab chiqarildi.

Yuqoridagilardan xulosa o‘rnida aytish mumkinki, keyingi yillarda yo‘lovchilarni tashishda ekologiya, transport tirbandligi, xizmat ko‘rsatish sifati masalalari dolzarb hisoblanmoqda.

Adabiyotlar.

1. Бутаев Ш.О., Мадаминов Ю.И. Совершенствование методов управления процессами автомобильных перевозок грузов. Ташкент:Фан, 1988.-150 s.

2. Модели и методы теории логистики: Учеебное пособи. 2-е изд./Под ред. Лукинского В.С. СП: Питер. 2007. -448 С.

3. Raxmatullaev M. Qosimov S.X. Yuk oqimini logistik kuzatuvi va komplekslarini mahalliylashtirish omillari. Ilmiy-tex. jur. 23 (8) 52.

4. Aleksander Sladkowski. Intelligent transport systems-problems and perspectives. Springer.-2016. – 307 ps.

5. Qosimov, C. X., & Нишонов, А. О. У. (2021). Пути развитие логистической системы при организации перевозки грузов на международных маршрутах.

LOGISTIKA VA TAQSIMOTDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI

Abdullayev Munis Kurbonovich, PhD, dotsent,
(Xalqaro Nordik universiteti)
Abdulaxatov Muzaffarjon Mashrabjon o‘g‘li, dotsenti,
(Xalqaro Nordik universiteti)

Anotatsiya. Ushbu maqolada, logistika sohasidagi raqamli transformatsiyaning ta'siri va potensialini o‘rganamiz, bu dinamik va texnologiyaga asoslangan muhitda foydalari, qiyinchiliklari, muvaffaqiyatli amalga oshirishlari va kelajakdagi tendensiyalarni kashf etamiz. Keling, raqamli logistika dunyosiga nazar

tashlaylik va uning logistika industriyasini qanday qayta shakllantirayotganini aniqlaylik.

Tayanch iboralar: Logistika, raqamli taransformatsiya, raqamli texnologiyalar, iqtisod, innovatsiya, sanoat, transport.

Kirish. Logistika industriyasi raqamli texnologiyalar bilan tez rivojlanmoqda, bu esa samaradorlik va innovatsiyalar yangi davrini keltirib chiqarmoqda. Raqamli transformatsiya, raqamli logistika yechimlari bilan quvvatlanib, tovarlarning transporti, boshqaruvi va yetkazib berilishida muhim yutuqlarni haydamoqda.

Raqamli logistika. Logistika va taqsimotdagi raqamli transformatsiya, logistika avtomatizatsiya tizimlari kabi raqamli logistika texnologiyalarini integratsiyalashni anglatadi, bu esa sanoatning turli jihatlarini soddalashtirish va yaxshilashga xizmat qiladi. Bu operatsiyalarni raqamlilashtirish, vazifalarni avtomatlashtirish va qaror qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan fikrlashni qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 91% bizneslar logistika raqamli transformatsiyasini qabul qilib, operatsiyalariga texnologiyaga asoslangan echimlarni kiritgan. Bundan tashqari, 87% kompaniyalar raqamli birinchi biznes strategiyasini qabul qilgan, bu esa raqamli vositalar va innovatsiyalarni ishlatishning barqaror o‘sish va raqobatbardoshlik uchun muhimligini tan olishlarini ko‘rsatadi. Ushbu statistikalar logistika sohasida raqamli texnologiyalarni keng qamrovda qabul qilish va tan olishni ta'kidlaydi.

Logistikadagi raqamli transformatsiyaning foydalari. Logistika industriyasida raqamli texnologiyalarni tatbiq etish ko‘plab foydalar keltiradi, masalan, samaradorlik, shaffoflik va xarajatlarni qisqartirish.

Birinchidan, logistika avtomatizatsiya tizimlari jarayonlarni avtomatlashtirish va qo‘lda xatolarni kamaytirish orqali operatsiyalarni soddalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy logistika avtomatizatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, bizneslar o‘z ish jarayonlarini optimallashtirishi, samaradorlikni oshirishi va logistika operatsiyalarida aniq va ishonchli natijalarga erishishi mumkin. Logistika avtomatlashtirilgan echimlarini integratsiyalash nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki umumiy ish faoliyatini va mijozlarning qoniqishini yaxshilaydi.

Chakana savdoda ombor boshqaruv tizimlari avtomatlashtirilgan inventarizatsiya monitoringi, buyurtmalarni bajarish va tanlash jarayonlarini taqdim etadi, bu esa ombor xarajatlarini 7 dan 34% gacha qisqartirishga olib keladi. Shuningdek, transportda avtonom transport vositalari va dronlardan foydalanish yetkazib berish tezligini oshirish bilan birga xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini taqdim etadi.

Bundan tashqari, raqamli logistika ta'minot zanjirida yaxshilangan koʻrinish va shaffoflikni ta'minlaydi. IoT qurilmalari orqali mahsulotlarning boshidan oxirigacha haqiqiy vaqt rejimida kuzatish va izlash chakana sotuvchilarga muammosiz logistika va taqsimot xizmatini taqdim etadi, bu esa mijozlarga aniq ma'lumotlar berish imkonini beradi. Ushbu shaffoflik mijozlarning qoniqishi va sodiqligini yaxshilashga olib keladi.

Shuningdek, transport va logistika sohasidagi raqamli transformatsiyaning muhim afzalliklaridan biri xarajatlarni kamaytirishdir. Raqamli logistika yechimlarini amalga oshirish orqali kompaniyalar inventarizatsiya boshqaruvini optimallashtirishi, ombor xarajatlarini kamaytirishi, isrofni minimallashtirishi va resurslardan foydalanishni yaxshilashi mumkin. Ushbu samaradorlik ta'minot zanjiri boʻylab aniq foydalarga, jumladan, mahsulot yetkazib berishni soddalashtirish, aniq hisob-faktura tayyorlash, mahsulot joylashuvini yaxshilash va umumiy xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

Shunday qilib, Mckinsey hisobotiga koʻra, raqamli logistika echimlarini tatbiq etgan kompaniyalar xarajatlarni deyarli 90% ga qisqartirishlari mumkin. Bu ularga resurslarni yanada samarali taqsimlash va raqobatbardosh bozor sharoitida barqaror oʻsishni ta'minlash imkonini beradi.

Qiyinchiliklar va e'tiborlar Logistika industriyasidagi raqamli texnologiyalar katta foydalar keltirishi bilan birga, chakana savdo kompaniyalari hal qilishi kerak boʻlgan bir qator qiyinchiliklar va e'tiborlar mavjud. Ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik muhim masalalar hisoblanadi, chunki raqamli texnologiyalarning koʻproq qoʻllanilishi kompaniyalarni kiberxavfsizlik tahdidlariga duchor qiladi. Chakana savdoda raqamli logistika kuchli kiberxavfsizlik choralariga sarmoya kiritishi va Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga (GDPR) amal qilishi kerak.

Integratsiya va oʻzaro aloqalar raqamli transformatsiyaning chakana kompaniyalar uchun muhim qiyinchiliklarini tugʻdiradi. Hamkorlar va ta'minotchilar bilan silliq hamkorlik qilish standartlashtirilgan ma'lumot almashish protokollari va muammosiz integratsiya usullarini qabul qilishga bogʻliq. Turli raqamli tizimlar va eski infratuzilma oʻrtasida moslikni ta'minlab, chakana kompaniyalar samarali va birlashtirilgan tarmoqni yaratishi, bu esa operatsiyalarni soddalashtirish va aloqa oʻrnatishni rivojlantiradi.

Biroq, muvaffaqiyatli integratsiya faqat texnologiyaga bog‘liq emas. Ishchi kuchining moslashishi logistika sohasida samarali raqamli transformatsiya uchun muhim e'tibordir. Xodimlarga raqamli texnologiyalarni to‘liq foydalanishga imkon berish uchun ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etish zarur. O‘zgarishga qarshilikni yengib chiqish va innovatsiyalar madaniyatini rivojlantirish ham muhim jihatlardir.

Kelajakdagi tendensiyalar. Chakana savdodagi logistika avtomatizatsiyasi yo‘li davom etayotgan jarayon bo‘lib, kelajakda sanoatni yanada shakllantiradigan bir nechta tendensiyalar mavjud. Tasdiqlangan bozor tadqiqotiga ko‘ra, global raqamli logistika bozorining hajmi 2022 yilda 46,37 milliard dollar deb baholangan va 2029 yilga kelib 103,82 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 11,2% CAGR bilan o‘sishni ko‘rsatadi.

Yangi texnologiyalarni qabul qiluvchi va doimiy o‘rganishni rag‘batlantiruvchi fikr tarzini rivojlantirish orqali logistika kompaniyalari muvaffaqiyatli amalga oshirish va raqamli transformatsiyaning foydalarini optimallashtirish yo‘lini ochishi mumkin. Texnologik integratsiya va ishchi kuchining tayyorligi uyg‘unlashganda, chakana logistika samaradorlik, hamkorlik va innovatsiya bilan belgilangan kelajakka intiladi.



Rasm 1. 2022-2029 yillarda global raqamli logistika bozorining tahlili va va o‘sish kutilmalari

Shuningdek, sun'iy intellekt (AI) va mashinani oʻrganish yordamida raqamli logistika chakana operatsiyalarida muhim rol oʻynashni davom ettiradi. AI asosidagi algoritmlar murakkab ma'lumot toʻplamlarini tahlil qilish, talab naqshlarini oldindan aytish va yoʻl rejalashtirishni optimallashtirish imkonini beradi, bu esa xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga olib keladi.

Blokcheyn texnologiyasi logistika sohasini shaffoflik, xavfsizlik va izlanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali qayta shakllantirish imkoniyatiga ega. Markazsiz va oʻzgarmas reestrlar orqali blokcheyn manfaatdor tomonlar oʻrtasida muammosiz hamkorlikni ta'minlaydi, hujjatlarni kamaytiradi va firibgarlik xavfini kamaytiradi.

XULOSA. Raqamli transformatsiya chakana savdo sohasida logistika va taqsimotda innovatsiya va raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylandi. Raqamli texnologiyalar va jarayonlarni qabul qilish orqali chakana logistika koʻplab afzalliklarni, jumladan, yoʻlni optimallashtirish, tezroq buyurtma bajarish, ta'minot zanjirida hamkorlikni kuchaytirish va moslashuvchanlikni ochib berishi mumkin.

Ma'lumotlarni himoya qilish, integratsiya va ishchi kuchining moslashishi kabi qiyinchiliklarni hal qilish zarur boʻlsa-da, Amazon, Maersk va UPS kabi muvaffaqiyatli misollar raqamli transformatsiyaning logistika sohasidagi aniq foydalarini koʻrsatadi.

Logistika va taqsimot sohasidagi bizneslar raqamli transformatsiyaning ahamiyatini tanishi va uning imkoniyatlaridan foydalanishi juda muhimdir. Raqamli texnologiyalarni qabul qilib, kompaniyalar oʻz operatsiyalarini optimallashtirishi, ajoyib mijoz tajribasini taqdim etishi va doimiy ravishda oʻzgarib turuvchi logistika muhitida muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzarakhimova, Aziza, and Muzaffarjon Abdulakhatov. "Analysis of Healthcare Services in the Digital Economy." *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems*. 2023.

2. Abdulakhatov, M. M., and S. S. Avlokulova. "TECHNOLOGY OF SEARCH ORGANIZATION IN VIRTUAL E-SHOPS WITH IMAGE RECOGNITION." *Архив научных исследований* 2.1 (2022)

3. Abdulaxatov, Muzaffarjon, and Ulmas Zoirov. "The implementation process of designing a digital organization. The problem to determine." *Science and Education* 4.3 (2023): 168-173.

4. Abdulakhatov, M. M. "THE DIGITAL ECONOMY IS THE BASIS FOR ECONOMIC DEVELOPMENT." *Экономика и социум* 10-1 (101) (2022): 3-10.

5. Abdulakhatov, Muzaffar, and Madina Jaloliddinova. "THE MAIN IMPACTS OF DIGITAL TRANSFORMATION ON SMALL TO MEDIUM-SIZED BUSINESS ENTERPRISES." *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari* 2.3 (2022): 43-47.

ASFALTBETON QORISHMALARNI TASHISHDA YUK MASHINALARINING HARAKATINI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH

Yusupjonov Muxriddinjon Odiljon o‘g‘li, o‘qituvchi, (TDMAU),
Allanazarova Shaxlo Voxidjon qizi, talaba, (TDMAU),

Annotasiya: Ushbu maqolada asfaltbeton qorishmasini avtosomosval mashina-mexanizmida tashish jarayonida me’yoriy talablarga to‘g‘ri rioya qilgan holda, yengil mashinalar harakatiga ta’sirini kamaytirish.

Kalit so‘zlar: yo‘l, avtosomosval, yuk, material, uskuna, transport, muhandislik-kommunikatsiya.

Kirish. Har qanday davlat uchun yo‘llar – taraqqiyotini belgilaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Respublikamizda jadal sur’atlar bilan zamonaviy yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tashkil qilinmoqda. Bugun O‘zbekiston avtomobil yo‘llari haqida gap ketganda avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa sun’iy inshootlarning hozirgi zamon talablariga mos ravishda qurilayotganligi, Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlarini misol qilib olishimiz mumkin. Issiq asfaltbetonlar. Bu turdagi asfaltbeton, asosan, qalinligi 5-6 sm bo‘lgan bir qatlamli va qalinligi 8-10 sm bo‘lgan ikki qatlamli qoplamalar uchun ishlatiladi. Bir qatlamli qoplamalar uchun zich holdagi mayda zarrali va qumli asfaltbetonlardan foydalanish mumkin.

Issiq asfaltbetonlarni har xil qoplamalarda (magistral avtomobil yo‘llari, shaharning katta prospektlari, ko‘chalar, trotuarlar, sanoat korxonalaridagi yo‘llar va boshqalar) ishlatish mumkin, chunki ular har xil iqlim sharoitida va transport harakatining har qanday jadalligida ham ishlay oladi. Bular, shahar yo‘llarini asfaltlash hamda harorat o‘rtacha bo‘lgan sharoitda ish olib borish uchun yaxshi imkoniyat tug‘diradi.

Muhokamalar. Asfaltobeton qoplamalarni quruq, toza va muzlamagan asosga yotqiziladi. Qoplamaning asos bilan yaxshi yopishish uchun, asosni asfaltobeton qorishma yotqizishdan oldin mexanik cho‘tkalar, ko‘chma kompressordan siqilgan havo yoki boshqa uskunalar bilan iflos changlardan tozalanadi. Namlangan asos 150÷2000S gacha qizdirilgan qum hamda isitgichlar bilan quritiladi. Zarur bo‘lganda asfaltobeton qorishma yotqizishdan 3-5 soat oldin asos yoki asfaltobeton qoplamaning quyi qatlami yuzasiga bitum bilan ishlov beriladi. Asos yoki asfaltobeton qoplamaning quyi qatlami yuzasiga ishlov berish uchun joyiga qarab 0.5-0.3 va 0.2-0.3 dm^3/m^2 suyuq bog‘lovchi sarf bo‘ladi. Agar shu maqsadlar uchun 60% li bitum emulsiyasi ishlatilsa, unda sarf joyiga qarab 0.6-0.9 va 0.3-04 dm^3/m^2 bo‘ladi. Agar qoplama organik bog‘lovchilar bilan ishlov

berilgan Yangi yotqizilgan asos utsiga qurilsa, hamda Yangi yotqizilgan quyi qatlam utsiga utski qatlam yotqizilsa, yuzaga bog‘lovchilar bilan ishlov berish talab qilinmaydi. Yo‘lning bo‘ylama nishabligi 30‰ dan oshganda, asfaltobeton qoplamani yotqizish ishlari yuqori tomoniga qarab bajariladi. Eski asoslarning ko‘ndalang kesim nishabligi me’yor talablariga javob bermasa, uni to‘g‘irlash ishlarini qatlam 5 sm dan kamroq bo‘lganda qora chaqiqtosh yotqizish bilan bajariladi. Asfaltobeton qorishmani yotqizishdan oldin rejalash ishlarini bajarish zarur, bunda qoplamaning loyihaviy kengligi va ko‘ndalang nishabligini, hamda qoplama chetining bir to‘g‘ri chiziqda bo‘lishligini ta’minlash nivelir yoki vizirka yordamida amalga oshiriladi, hamda tegishli rangli belgilar bordyur toshlariga qo‘yiladi yoki boshqa usllar bilan belgilanadi. Ko‘p xollarda ikki va uch qatlamli asfaltbeton qoplamalar qurishga to‘g‘ri keladi. Bir qatlamli qoplamalarning qalinligi, odatda 4-6 sm, ikki qatlamlilarniki - 8-11 sm bo‘ladi. 4 smdan yupqa asfaltbeton qoplamalari qatlamlarini yotqizish amalda mumkin emas.

Xulosa. Avtosamosval bilan ishlaganda

-haydovchilik guvoxnomasiga ega bo‘lmagan shaxslar avtosamosvalni boshqarishlari mumkin emas;

-yuk ortilgan xolatda belgilangan tezlikda harakatlanmaslik kerak;

-avtomobil pasportida belgilangan me’yoridan ortiq yuk yuklash mumkin emas;

-avtosamosvalga yuk ortilayotganda kabinada xech kim bo‘lmasligi kerak;

-birinchi tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun “aptechka”bo‘lishi kerak.

Asfaltbeton aralashmasini yetkazib berishning texnologik sxemasini tahlil qilgandan so‘ng, biz etkazib berish jarayonida faqat asfaltbeton aralashmasiga xos bo‘lgan bosqichlar mavjudligini ko‘ramiz:

1. Asfaltbeton zavodida asfalt aralashmasini tayyorlash va uni tashishga tayyorlash. Ushbu turdagi yuklarni tashish uchun tayyorlash ABZ quvvatiga va ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining ta'mirlanadigan uchastkalari hajmiga bog‘liq bo‘ladi;

2. Aralashmani tashish uchun mashinani tayyorlash. Ushbu bosqich ikkita operatsiyani o‘z ichiga oladi: yuklashdan oldin tozalash va qayta ishlash va issiqlik izolatsiyasini tashqi ta'sirlardan himoya qilish;

3. Yuklash. Haroratni ushlash uchun tashqi ta’sirni kamaytirish uchun bir necha bosqichda amalga oshiriladi (1-rasm). Aralashmaning birinchi qismi mashinaning old qismiga yuklanishi kerak. Samosvalni oldinga siljitgandan so‘ng, aralashmaning ikkinchi qismi mashinaning oxiriga, orqa tomonning yoniga yuklanadi. Aralashmaning qolgan qismlari mashinaning o‘rtasiga yuklanadi.



A) B)

1-rasm. Samosval yuk mashinasi

a-noto‘g‘ri yuklash, B-to‘g‘ri yuklash shakl.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. QMQ 3.06.03-96 "Avtomobil yo‘llari" O‘zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilishqo‘m» T. 1997 g 122 bet.

2. MQN 29-2007. Avtomobil yo‘llari ko‘tarmalarining zichlanganlik darajasini nazorat qilishning texnologik qoidalari. Toshkent 2007.

3. К. Е. Вайс - Транспортно-эксплуататсионные качества автомобилных дорог и городских улис. Москва. 2013 г.

4. Е.С.Козин - Транспортно-эксплуататсионные качества автомобилных дорог и городских улис. Тюмен ТюмГНГУ 2015 г.

5. В.В.СИЛЯНОВ, Э.Р. ДОМКЕ - Транспортно-эксплуататсионные качества автомобилных дорог и городских улис. Москва Издателский сентр «Академия» 2008 г.

YO‘L TO‘SHAMASIGA TRANSPORT VOSITALARIDAN TUSHAYOTGAN YUKLAR TA’SIRINI O‘RGANISH

Yusupjonov Muxriddinjon Odiljon o‘g‘li, o‘qituvchi (TDMAU)
G‘ulomov Umidjon Baxodir o‘g‘li, o‘qituvchi (TDMAU)
Amanova Nozima Shavkatovna, o‘qituvchi (TDMAU)

Annotasiya: Ushbu maqolada avtomobil yo‘lida hosil bo‘ladigan bo‘ylama va ko‘ndalang norovonliklar, ularni o‘lchash usullari va ularning oldini olish chora-tadbirlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yo‘l, ravonlik, yuk, noravonlik, transport, ichki g‘ildirak izi, kondalang va bo‘ylama ravonlik.

Kirish. Avtomobil yo‘llari bu-mamlakatning turli hududlarda joylashgan va turli landshaft gidrogeologik va iqlim sharoitida qurilgan ko‘plab tuzatmalarni o‘z ichiga olgan eng muakkab muhandislik majmuasidir. Yo‘llar qurilganda, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va kommunal yerlar yo‘l mintaqasi uchun ajratib beriladi (begonalashtiriladi-отчуждение), tabiiy tuproqlar, tosh materiallar katta hajmda

ishlatiladi, ma’lum darajada bo‘ronli suvlarning yer usti oqimi, daryolar rejimi va turar joy maydonlarining me’moriy rejalashtirishi o‘zgartiriladi. Yo‘llar ishga tushirilganda (foydalanishga topshirilganda) hududlararo va mintaqalararo transport aloqalari amalga oshiriladi, bazida transportning hayvonlar migrataryasiga salbiy ta’siri, atmosfera havosining ifloslanish darajasining yo‘l qo‘yilmasligi va shovqinning haddan tashqari ko‘payishi, shuningdek, intensiv transport kommunikatsiyasining boshqa oqibatlari mavjud. Yo‘llarning samarali ishlashi odamning tehnik parametrlar hisobga olinadi, ular transportning istiqbolli intensivligi, relyef xususiyatlari, aholi punktlari, logistika markazlari va boshqa yuk va yo‘lovchilarni tashkil etuvchi tuzilmalarning nisbiy joylashishini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Yo‘llarning transport ekspluatatsion holati qarov ishlari, saqlash va ta’mirlash orqali shakllanadi. Yo‘llarni saqlash va ta’mirlashning texnik va moliyaviy vositalari ularning hajmlari jihatidan ahamiyatli va vaqt o‘tishi bilan ular doimiydir. Ulardan oqilona foydalanish katta davlat ahamiyatiga ega vazifadir. Uning bajarilishi qabul qilingan barcha qarorlarning ilmiy asoslanishini, innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo‘llashni, boshqaruv funktsiyalarini bajaruvchi muhandis-texnik xodimlarning yuqori malakasini talab qiladi. Ushbu faktsiyalardan biri avtomobil yo‘llarining diagnostikasidir, bu yo‘llarning holatini monitoring rejimida kuzatishga va ularning sifatini barcha asosiy mezonlarini tizimli ravishda aniqlashga mo‘ljallangan.

Muhokamalar. O‘zbekistonda avtomobil yo‘llarining sifatini oshirish, zamon va xalqaro talablarga javob beradigan darajaga etkazish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining umumiy uzunligi qariyb 210 ming kilometrga yetdi. Shundan 23,2 % umumiy foydalanishdagi yo‘llar, 36,6 % xo‘jaliklararo qishloq yo‘llari, 33,6 % qishloq va shahar ko‘chalari, 3 % korxonalarga, 3,6 % esa turli idoralarga qarashli yo‘llardir. Ma’lumki, avtomobil yo‘llari transport-ekspluatatsion holatining eng muhim ko‘rsatkichi bu qoplama ravonligidir. Avtomobil yo‘llarining qoplamasi ravonligi nafaqat harakat qulayligi, harakat xavfsizligi, xarakat tezligiga balki, transport xarajatlariga ya’ni yoqilg‘i sarfi, tashish tannarxi hamda yo‘llarning va transport vositalarining xizmat qilish muddatiga bog‘liq. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, xorijiy davlatlar tajribasidan ma’lumki, qurilish davrida boshlang‘ich ravonlikning yuqori ko‘rsatkichini ta’minlashga katta e’tibor qaratiladi. Chunki, avtomobil yo‘llarining boshlang‘ich ravonlik ko‘rsatkichi qanchalik yuqori darajada

bo‘lsa, yuk avtomobillari ta’siridan qoplama holatining yomonlashuvi shuncha kamayadi.



1.1-rasm. *Avtomobil yo‘lining bo‘ylama va ko‘ndalang noravonligi*

Qoplama ravonligini to‘laqonli baholash uchun, unda harakatlanadigan avtomobil tebranishini uyg‘otadigan barcha to‘lqin uzunlikdagi noravonlik diapazonini qamraydigan uslubdan foydalanish zarur.



1.2-rasm.*Qoplama ravonligini aniqlash usullari klassifikatsiyasi*

Xulosa. Yo‘lning qatnov qismidagi g‘ildirak izi chuqurligi, uzunligi 3 m bo‘lgan to‘g‘ri chiziqli, bikr chizg‘ich va tirqishlarni o‘lchaydigan shnuri bilan o‘lchanadi. Bu chizg‘ich quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Reyka o‘z og‘irligidan o‘rta nuqtasida 0,2 mm dan ortiq bukilmasligi (solqilik) kerak;
- Reyka qoplama ustiga qo‘yilganda qiyaligini ko‘rsatuvchi jihoz reykaning o‘ziga o‘rnatilishi kerak; u ± 0,01 (± 1,0%) aniqlik bilan ko‘rsatadi;
- Reykaning yon qirrasiga shkala chiziqlari tushiriladi; Chiziqlar orlig‘i 10sm, 300 gacha boradi.

Yo‘llar holatini g‘ildirak izlari orqali baholanganda reykalar qo‘yiladigan joylar oralig‘i

1.1-jadval

O‘lchov stvorini oralig‘i (m); uchastka uzunligi turlicha (m)			
100-199	200-499	500-999	≥ 1000
5	10	15	20

Izoh: uchastka uzunligi 100 m dan kichkina bo‘lgan har qanday xollarda stvorlar orlig‘i 2 m bo‘lsin.



1.3-rasm. *G‘ildirak izlarining harakatlanish polosasi chegarasida joylashuvi*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Автомобиль йўллари тўғрисида”ги қонуни, 2 октябрь 2007 й. – Тошкент, 2007, – 14 б.
2. ШНҚ 2.05-02-07 “Автомобиль йўллари”, “Давархитектқурилиш”, -Тошкент ш., 2008., 89 бет
3. ШНҚ 3.06.03-08 “Автомобиль йўллари”. Ўзбекистон Республикаси “Давархитектқурилишқўм” – Т.: ИВЦ “AQATM”, 2008, – 130 бет.
4. Леонович, И. И. Диагностика автомобильных дорог: учебно- методическое пособие для студентов специальности 1-70 03 01 «Автомобильные дороги» / И. И. Леонович, С. В. Богданович. – Минск: БНТУ, 2012. – 226 с.

O‘ZBEKISTON VA AFG‘ONISTON O‘RTASIDA YUKLAR AYLANMASI

Samatov Gaffor Allokulovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor, (TDTrU)
Maxsumov Isroiljon Axmedovich, assistant, (TDTrU),

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi yuklar aylanmasi, savdo-iqtisodiy hamkorlik va logistika tarmoqlarining rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan transport va tranzit yo‘nalishlari orqali xalqaro savdodagi o‘rni kuchayib borayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Mintaqaviy barqarorlik va rivojlanish uchun bu aloqalarning ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Yuklar aylanmasi, savdo-iqtisodiy munosabatlar, transport yo‘llari, O‘zbekiston-Afg‘oniston savdo aloqalari, logistika, tashqi savdo, yuk tashish koridorlari

Kirish. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. O‘zbekistonning geografik joylashuvi va Afg‘oniston bilan chegaradoshligi mintaqaviy transport koridorlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ikki davlat o‘rtasidagi yuklar aylanmasi, ayniqsa temir yo‘l va avtomobil transporti orqali amalga oshiriladigan yuk tashishlar, nafaqat ikkala davlat iqtisodiyotiga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqola O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi yuk tashish jarayonlari, ularning joriy holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida ma’lumot beradi.Bugungi kunda yuklarni xalqaro tashuvlarda avtomobil,temir yo‘l,daryo transportlari orqali tashuvlar amalga oshmoqda.1-jadvalda savdo aloqalari

Natija va muhokamalar. Maqolada statistik tahlil va qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Savdo-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili, yuk tashish hajmi bo‘yicha ma’lumotlar hamda logistika jarayonlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro savdo sohasidagi tendensiyalar va davlatlar o‘rtasidagi savdo bitimlari haqida ma’lumotlarga asoslanilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi yuklar aylanmasi yildan-yilga ortib bormoqda. O‘zbekiston Afg‘oniston uchun asosiy logistika va tranzit yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayniqsa, temir yo‘l va avtomobil transporti orqali yuk tashish hajmi oshmoqda. O‘zbekiston tomonidan Afg‘oniston bilan transport va savdo yo‘llarini kengaytirish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu

bilan birga, yuk tashish koridorlarining barqarorligi va xavfsizligini ta’minlash, mintaqaviy savdoni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining eksport va import mahsulotlari miqdori[5]

Hamkor davlat	**2016 y.**	**2017 y.**	**2018 y.**	**2019 y.**	**2020 y.**	**2021 y.**
Eksport						
Afg‘oniston	53703,6	55508,0	51469,6	64158,1	45446,2	21652,2
Eron Islom Respublikasi	2500,8	2361,0	915,8	1521,6	0,8	1216,1
Birlashgan Arab Amirliklari	3788,3	1842,9	668,7	277,6	77,9	728,9
Pokiston	1873,2	2007,0	12683,0	62115,1	37854,4	33601,3
Xindiston	1331,0	2155,9	548,4	112,7	336,4	1448,5
Import						
Afg‘oniston	-	3,8	389,7	698,4	169,5	518,4
Eron Islom Respublikasi	3 850,3	2 702,9	11937,4	11575,7	1 842,0	6 518,1
Birlashgan Arab Amirliklari	250,3	1724,8	540,2	1 390,9	61,7	0,0
Pokiston	589,1	4528,5	2737,6	4 893,4	2 224,0	12654,9
Xindiston	1 460,6	856,3	16124,5	3 667,1	6 002,5	2 287,3

Hamkor davlat	**2016 y.**	**2017 y.**	**2018 y.**	**2019 y.**	**2020 y.**	**2021 y.**
Afg‘oniston	-	3,8	389,7	698,4	169,5	518,4
Eron Islom Respublikasi	3 850,3	2 702,9	11 937,4	11 575,7	1 842,0	6 518,1
Birlashgan Arab Amirliklari	250,3	1 724,8	540,2	1 390,9	61,7	0,0
Pokiston	589,1	4 528,5	27 137,6	4 893,4	2 224,0	1254,9
Xindiston	1 460,6	856,3	16 124,5	3 667,1	6 002,5	2 287,3

Tashqi savdo aylanmasi	**O‘lchov birligi**	**2016**	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022***
	mln. $	270,7	374,6	589,1	562,7	416,9	442,5	372,8
	o‘sish sur'ati, % da	102,3	138,4	157,3	95,5	74,1	106,1	84,2
Eksport	mln. $	148,2	157,4	191,7	241,0	213,5	235,2	227,6
	o‘sish sur'ati, % da	69,3	106,1	121,9	125,7	88,6	110,2	96,8

[5] O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi ma’lumotlari http://surxonstat.uz/uz/

Import	mln. $	122,5	217,2	397,3	321,7	203,4	267,3	145,2
	o‘sish sur'ati, % da	240,6	177,3	182,9	81,0	63,2	101,9	70,1



1.-rasm. O‘zbekiston Respublikasining eksport va import mahsulotlari miqdori o‘zgarish dinamikasi

Xulosa. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi yuklar aylanmasi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik va savdo jarayonlarining muhim qismi hisoblanadi. Bu munosabatlar mintaqadagi transport va savdo tarmoqlarini yanada kuchaytirib, O‘zbekistonning xalqaro savdodagi rolini oshirishi mumkin. Kelajakda transport infratuzilmasining yanada rivojlanishi va xavfsizlikning ta’minlanishi hamkorlikning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Savdo Vazirligi ma’lumotlari
2. O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasi hisobotlari
3. Afg‘oniston Savdo va Sanoat Vazirligi ma’lumotlari
4. Xalqaro Valyuta Fondi (IMF) savdo ko‘rsatkichlari
5. Markaziy Osiyo logistik tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar
6. Transport va tranzit infratuzilmasi bo‘yicha xalqaro hisobotlar

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ИННОВАЦИОННОГО ЛОГИСТИЧЕСКОГО СЕРВИСА ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ

Ж.Н.Ёдгоров, ассистент, (ТГИАУ)

Преобразования на основе инновационной логистики распространяются на всю систему управления (управляющую и управляемую системы и объект управления), а также на ряд ограничений внешней среды (институционального

и нормативно-правового характера). Там, где это возможно, инновационная логистика в союзе со стратегическим маркетингом может участвовать в формулировании ряда требований к разрабатываемой линейке продуктов, и тем самым оказывать воздействие на инновационный процесс (на различных этапах проектирования продукта) и последующий логистический сервис.

Перспективным направлением развития инновационной логистики в сфере железнодорожного транспорта в нашей стране, как представляется, должна стать координация деятельности создаваемых логистических центров (ЛЦ) и Отраслевого центра внедрения новой техники и технологий (ОЦВ) на железнодорожном транспорте [1].

Отраслевой и дорожные (ДЦВ) центры внедрения сегодня обеспечивают масштабную реализацию на железнодорожном транспорте результатов научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ. Отраслевой центр внедрения, взаимодействуя с разработчиками и изготовителями отдельных комплектующих для систем, производит окончательную сборку программно-аппаратных комплексов, проводит приемо-сдаточные испытания и поставляет изделия на дороги. В то же время практическое решение поставленных перед ОЦВ и ДЦВ задач ведется в направлении реализации множества отраслевых программ:

ресурсосбережения;

безопасности;

повышения массы и длины поездов;

создания нового и продления срока службы эксплуатируемого подвижного состава и др.

Однако зачастую производитель или внедряющая организация при внедрении проектировании наукоемкого оборудования отвечают только за начальные этапы жизненного цикла изделия, его соответствие конструкторским замыслам в ходе разработки и изготовления, фактически самоустраняясь от цикла взаимоувязанных мероприятий в технологической последовательности: разработка - производство- внедрение - эксплуатация - послепродажный сервис.

В настоящее время не только координация множества участников инновационного процесса, но и финансирование договоров на гарантийный и послегарантийный сервис является проблемной частью договорной работы. Отсутствие финансирования на ряде дорог, большие задержки оплаты произведенных работ ведут к разрушению системы сервиса, накоплению неисправных блоков в депо, а, следовательно, и к увеличению финансовых потерь дорог, связанных с ограничениями эксплуатации внедрения систем, увеличением стоимости ремонта и другими негативными последствиями. При

сложившейся системе разработки и эксплуатации новой техники зачастую ущемляются интересы заказчика [2].

Это обусловливает необходимость использования логистических информационных технологий как основы для организации процесса интегрированного управления, что обеспечивает решение задач создания и управление базой данных по используемым в программах холдинга техническим средствам, автоматизации договорного и финансового учета, мониторинга процесса внедрения и эксплуатации на местах, поддержки принятия решений, электронного документооборота.

Интегрированная логистическая поддержка жизненного цикла изделия (ЖЦИ) является одной из базовых целей логистики. Она основана на концепции CALS (Continuous Acquisition and Life cycle Support), представляющая собой совокупность принципов и технологий информационной поддержки жизненного цикла продукции на всех его стадиях, базирующаяся на использовании единого информационного пространства, обеспечивающая взаимодействие всех участников этого цикла [2].

Таким образом, инновационная логистика во взаимодействии со стратегическим маркетингом должны участвовать в формировании концепции товара на стадии его замысла, формирования совокупности его потребительских качеств, обеспечивая конструктивный диалог между заказчиками и исполнителями.

По ходу разработки необходимо взаимодействие с машиностроительными и локомотиворемонтными заводами. Представители логистических сервис-центров должны во взаимодействии со службами качества предприятий контролировать основные технологические стадии производства транспортных средств, отслеживая основные этапы цепочки «создания стоимости».

Обязательное активное участие логистических сервис-центров на этапах генерирования ноу-хау, согласования требований заказчиков и исполнителей, внедрения, обслуживания технических систем в гарантийный и послегарантийный периоды обусловлено наукоемкостью внедряемых систем. Логистические требования должны учитываться уже на стадии проектирования изделий: в процессе разработки транспортных средств логисты должны предъявлять систему требований к конструкторам с позиции решаемых логистических задач, учитывающих необходимый уровень сервиса для пассажиров и эксплуатационные параметры эксплуатации транспортных средств: по скорости, вместимости, комфортности, унификации деталей, узлов и типоразмеров, ремонтопригодности, экономичности и др.

Применительно к железнодорожному транспорту актуальным является вопрос организации системы сервиса с централизованным финансированием, исключающим дублированные затраты и одновременно обеспечивающим повышение качества выполняемых работ. Актуальным представляется возложение на службы инновационной логистики, прежде всего, задач по координации многочисленных отраслевых программ инновационного развития и модернизации сети дорог.

Инновационная логистика должна стать инструментом координации различных инновационных проектов, выявляя их приоритет, обосновывая критерии и алгоритмы реализации таких программ. Управление программами и инновационными проектами включает в себя несколько направлений, соответствующие стадиям реализации.

Литература

1. Сергеев В.И. и др. Глобальные логистические системы: Учеб. пособие.- СПб.: Бизнес-пресса, 2001. - 240 с.
2. Елисеев С.Ю. Управление грузопотоками на основе информационно-управляющих и аналитических технологий. Учебное пособие. // Железнодорожный транспорт, № 3, 2005,- с.32.

ОСОБЕННОСТИ ГОРОДСКОГО ДВИЖЕНИЯ И СОЦИАЛЬНЫЙ АСПЕКТ ЛОГИСТИКИ В ПАССАЖИРСКИХ ПЕРЕВОЗКАХ

Ж.Н.Ёдгоров, ассистент, (ТГИАУ)

В современных условиях логистика является наукой о передвижениях и организации необходимого комфорта, распределении и обработке финансовых, материальных, информационных и людских потоков. Основной функцией логистики выступает оптимизация материальных и людских потоков с целью удовлетворения спроса потребителей, а также организация информации.

В логистике используется системный подход, образующий ее концептуальную основу и содержащий теорию структурирования, систематизирования и проектирования системы в целях дальнейшего применения в совокупности пространственных и временных ресурсов, обеспечение материальных и людских потоков информации и финансов.

Логистика, применительно к пассажирскому транспорту, выступает совокупностью методов и средств управления, технических и проектных решений, реализованных на определенном виде пассажирских перевозок, способствующих обеспечению наиболее оптимального уровня обслуживания пассажиров, их надежность, непрерывность и безопасность доставки при минимальных затратах в фиксированное время.

Использование логистики на пассажирском транспорте способствует также совершенствованию процесса перевозки путем логистических связей, принимающих непосредственное участие в реализации транспортных услуг, в то время как данный процесс является логистической системой объектов инфраструктуры и операторов. В процессе управления пассажирскими транспортными системами особенную роль всегда играет социальный аспект логистики пассажирского транспорта.

Во всех ситуациях необходимо учитывать современные потребности общества и на их базе планировать работу всей системы транспортной инфраструктуры. Сегодня транспортная стратегия во всех государствах с социальной политикой ориентирована на сокращение количества индивидуальных средств и одновременное увеличение применения общественного транспорта.

Попытки взятия городского пассажирского транспорта под покровительство государственных властей посредством регулирования тарифов и принятия соответствующих программ, наблюдаются ежегодно. Тем не менее, методы "вмешательства" властей соответствуют не полностью направлениям их ежедневной деятельности, а именно обеспечению комфорта жизни и благосостояния общества как в настоящем, так и в будущем. Следовательно, явно прослеживается взаимосвязь между процессами развития общества и распространения применения общественного транспорта.

Будущее общественных перевозок, в первую очередь, зависит от решения следующих приоритетных задач:

обеспечение в регионе производства и благосостояния жизни;

приоритетное транспортное обслуживание социально незащищенных слоев населения;

защита окружающей среды.

В первую очередь, социальное регулирование пассажирских перевозок представляет собой координацию отношений в соответствии с установленными социальными нормативами и нормами.

Таким образом, социальные стандарты и нормы, установленные согласно законам и нормативным документам, определяют уровень выполнения прав и гарантий, а также поддерживают социальную защиту

общества. Основные причины формирования социальных нормативов функционирования пассажирского транспорта, в первую очередь, обусловлены его тесной взаимосвязью с социальной сферой и экономикой, отраслевой особенностью, прямым воздействием сбоев в работе транспортной системы, как в целом на ситуацию в экономике, так и на потребителя, в частности.

Затраты на социальное регулирование, с позиции экономики общества, транспортного обслуживания должны быть представлены в том количестве, чтобы поддержать удобство населения, задействованного в народном хозяйстве, а также благосостояние общества. Следовательно, для достижения данной конечной цели следует обозначить требования к пассажирской логистической системе, а также обеспечить:

эффективное использование природных, энергетических, трудовых ресурсов, в том числе совместное обеспечение надежного, комфортабельного и безопасного обслуживания;

рациональное сочетание частного и общественного пассажирского транспорта при учете инфраструктурных, экологических и технических особенностей.

Следует отметить, что эффективное функционирование пассажирского транспорта должно проводиться с учетом социальных норм и ресурсов.

Анализируя такие понятия, как "социальная эффективность", "экономическая эффективность" и "социально-экономическая эффективность" можно прийти к выводу, что понятие "социальный эффект" является более широким по содержанию и разнообразным по форме. Экономическая и социальная эффективность связаны между собой. В зависимости от того что является целью эта связи может быть двух типов.

Учитывая специфику услуг городского пассажирского транспорта именно достижение высоких социальных результатов должно быть приоритетным при организации его функционирования. В свою очередь, экономический рост системы городского пассажирского транспорта должно сказываться на уровне удовлетворения потребностей пассажиров, сопровождаться ростом качества перевозок, то есть приводить к социальному развитию системы. Таким образом, для стабильной работы транспортных предприятий и удовлетворения требований пассажиров, важным является обеспечение социально-экономического развития транспортной системы города. Достижение высоких экономических показателей работы не должно сопровождаться ухудшением социальных условий жизни граждан. При разработке стратегии развития системы городского пассажирского транспорта следует учитывать как экономический, так и социальный аспекты, а также

установить компромисс между уровнем экономической и социальной эффективности.

Экономическая, социальная и экологическая эффективность взаимосвязаны между собой и составляют единое целое - интегральную эффективность функционирования системы городского пассажирского транспорта, которую можно охарактеризовать как результативность функционирования системы и которая определяется суммой экономического, социального экономического и экономического эффекта в экологической сфере. Эффективное функционирование системы городского пассажирского транспорта заключается в надлежащем уровне транспортного обеспечения населения услугами высокого качества при достижении максимального экономического эффекта в производственной, социальной и экологической сферах.

Литература

1. Быкова Т.А., Рузанова В.Д. Организация перевозок на транспорте. - Саратов: Приволжское книжное издательство, 2011. - 106 с.
2. Бродецкий Г.Л. Системный анализ в логистике: выбор при условиях неопределенности. - М.: Академия, 2011.
3. Васильев В.М. Оценка качества услуг, предоставляемых населению ГПТ. // Межвузовский научный сборник. Саратов: СПИ, 2011.- С. 74
4. Володин Е.П. Организация и планирование перевозок пассажиров автомобильным транспортом. - М.: Транспорт, 2012. - 224 с.
5. Гаджинский А.М. Логистика: учебник для высших учебных заведений по направлению подготовки "Экономика". - М.: Дашков и Ко, 2013. - 420 с.

SANOAT YUKLARINI TASHISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xoshimova Shoira Safarovna, dostent (JizPI)
Ko‘chimova Dilnoza Ibragim qizi, assistent (JizPI)
Qarshiyev Javohir Nurillo o‘g‘li, talaba (JizPI)

Annotatsiya: maqolada sanoat yuklarini tashishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ulardan amalda samarali foydalanish bo‘yicha masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yuk tashish, transport vositasi, yuklanganlik, transport oqimi.

Ma’lumki, yo‘lovchi va yuk tashish davlat iqtisodiyotining yuksalishi va rivojlanishida ulkan rol o‘ynaydi. Shu sababli, transport ehtiyojlarini eng kam

xarajat bilan maksimal darajada qondirish uchun transportning barcha turlari uchun innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bugungi kunda odamlar va tovarlar har qachongidan ham tezroq va tez-tez arzonroq harakatlanishi mumkin. Biroq shahar avtomobillari, avtobus va yuk mashinalari tirbandlikda qolib ketadi . Hozirgi kunda transport xizmatlaridan samarali foydalanmasdan xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning imkoni yo‘q. Transport ishini tashkil etish sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa turdagi sanoat sohalarini samarali ta’minlashni, shuningdek, aholining transportga bo‘lgan ehtiyojini tizimli ravishda qondira olishi kerak. Tashishni tashkil etish va rejalashtirishga kompleks yondashuv transport xizmatlarining butun tizimida va alohida elementlarida minimal xarajatlarga erishishni talab etadi. Ushbu muammoni yechishning tashishni tashkil etishning ilgari mavjud bo‘lgan texnologiyalari va usullarini zamonaviylariga almashtirmasdan imkoni yo‘q.

Sanoat yuklariga yog‘och, ruda, metall, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar, jihozlar va shunga o‘xshash yuklar kiradi. Yog‘och va yog‘och material tashish maxsus jihozlangan harakatlanuvchi qismlarda tashiladi. Yog‘och uzunligiga qarab kichik va uzun yog‘ochlarga ajratiladi. Tashilgan yog‘ochlar tonna yoki kubometrda hisobga olinadi. Taxta materiallari paket usulida tashiladi. Metall prokatlari va quvurlarni tashishda bortli avtomobil va avtopoyezdlardan foydalaniladi. Uzun prokat va quvurlarni tashishda maxsus avtopoyezdlardan foydalanadi. 5–6 metr va 10–12 metrlik metall quvurlar avtomobil tyagach va ajratiladigan tirkamali avtopoyezdlarda, uzunligi 24–48 metrlik yig‘ma metall quvur esa avtomobil tyagach va ikki tirkamali avtopoyezdlarda tashiladi. Xavfli yuklarni tashish jarayonida zarur qoida va ko‘rsatmalarga qat’iy rioya qilish kerak.

Avtomobil transportida xavfli yuklarni tashish ko‘rsatmalarda belgilangan tartibda tashkil qilinadi. Tashishlar faqat maxsus jihozlangan harakatlanuvchi tarkiblarda bajariladi. Avtomobillarni boshqarish tibbiy ko‘rik va maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan, kamida 3 yillik mehnat malakasiga ega bo‘lgan xavfli yuklarni tashishga ruxsatnomasi bo‘lgan haydovchilargagina ruxsat etiiladi. 5–8-sinflarga taalluqli xavfli yuklarni tashishda yukni kuzatib borayotgan xizmatchilar maxsus kiyim, qo‘lqop, gazga qarshi moslama va zaharlanishga qarshi yetarli miqdorda dorilar bilan ta’minlanishi shart. Xalq xo‘jaligida ballonlarda kislorod, vodorod, butan propan va tabiiy gazni tashish keng tarqalgan. Ballonlarda siqilgan va suyultirilgan gazlarni tashishda tara koeffitsienti qiymati katta bo‘lib, yuk ortish-tushirish ishlarida juda ko‘p mehnat sarflanadi. Siqilgan kislorod hajmi 40 litr bo‘lgan maxsus metall ballonlarda tashiladi. Ballonning sof og‘irligi 70 kg bo‘lib, undagi kislorod massasi 8 kg. ni tashkil qiladi. Ballonlar maxsus moslamalar yordamida bortli avtomobillarda tashiladi. Bunda ballonlar kuzovga ventillari bir tomonga yo‘naltirilib, gorizontal holatda 3–4 qator qilib joylashtiriladi. Yuklash-

tushirish ishlari qo‘lda bajariladi. Ballonlardagi butan-propan gazlarini tashishda shassisidagi maxsus kuzovli bo‘lgan ZIL va GAZ rusumli avtomobillardan foydalaniladi. Kuzovga 48 ta ballon gorizontal holatda joylashtiriladi. Ballondagi gazlarni tashishda konteynerlardan ham foydalaniladi. Konteynerlarga 4–8 dona ballon vertikal holatda joylashtiriladi. Ortish-tushirish ishlari mexanizmlar yordamida bajariladi. Konteynerda ballonlarni tashishda krani bor avtomobillardan foydalanish yaxshi samara beradi. Neft mahsulotlaridan yoqilg‘i, moy va mazutlar, tarasiz uslubda, sisterna kuzovli avtomobillarda tashiladi. Neft mahsulotlarini temir bochka, flyaga va bidonlarga quyib tashiladi. Avtomobil sisternasining ichki qismi seksiyalarga ajratilgan bo‘lib, u yerga to‘lqin so‘ndiruvchi moslamalar joylashtiriladi. Sisternaning yuqori qismida suyuqlikni quyish joyi bo‘lib, pastki qismiga suyuqlikni tushirish moslamasi o‘rnatiladi.

Neft omborxonalarida maxsus rezervuardan nasoslar yordamida sisternaga yoqilg‘i quyiladi. Ruda tashishda KrAZ va BelAZ rusumli ag‘darma avtomobillardan foydalaniladi. Bu avtomobillarning yuk ko‘taruvchanligi 12 tonnadan 150 tonnagacha. Kuzovi urilish kuchlariga qarshilik ko‘rsata oladigan qilib ishlangan, ekskavator cho‘michi shaklida. Ruda tashishda ag‘darma kuzovli avtomobillarning karyerdagi harakati qaramaqarshi, tupik va halqasimon tasvirda tashkil qilinadi. Katta massali gabaritsiz yuklarga transformatorlar, turbinalar, reaktorlar, dastgohlar, qozonlar va shunga o‘xshashlar kiradi. Bu yuklar balandligi 6–7 metr, uzunligi 40–50 metr, eni 5–7 metrga yaqin bo‘ladi. Massasi 40 tonnagacha bo‘lgan yuklarni tashish uchun avtomobil-tyagach va ortish balandligi 800–1300 mm ni tashkil qiladigan yarim tirkamali avtopoyezdlar foydalaniladi. Yuk ko‘taruvchanligi 15 tonnadan katta bo‘lgan yarim tirkamalarda ikkita o‘q bo‘lib, har bir o‘qda 8 tadan g‘ildirak bo‘ladi. Ayrim yarim tirkamalar ko‘targich, ko‘prikcha va chig‘irlar bilan jihozlanadi. Katta massali gabaritsiz yuklarni tashish uchun harakatlanuvchi qismni tanlash, yuk ortish-tushirish ishlarini tashkil qilish va shu kabi muhim ishlarni bajarish kerak.

Avtokorxonaga buyurtmachi tashkilot tashishdan 20 kun oldin yukning eskiz chizmasi va uni mahkamlash hisobiga oid ma’lumotlarini berishi kerak. Katta hajmi gabaritsiz yuklarni tashish uchun 6-sonli shaklda davlat avtomobil nazoratining ruxsatnomasi va aniqlangan harakat marshru- 237 ti bo‘lishri shart. Harakat qilish jadvali iqlim sharoitni va harakat jadvalini e’tiborga olib tayyorlanadi. Bu turdagi yuklarni qabul qilish, joylashtirish to‘g‘risida maxsus komissiya tuziladi. Yuk tashish ishlari soat 0 dan 6 gacha amalga oshirilishi lozim.

Yomon ob-havo sharoitida bunday yuklarni tashishga ruxsat berilmaydi. Harakatlanuvchi qismning oldingi va orqa qismiga qizil bayroqchalar, kechqurun esa yoritish chiroqlari o‘rnatiladi. Sanoat transporti murakkab texnik vositalardan tashkil topgan bo‘lib, o‘z ichiga temiryo‘l, avtomobil transporti, konveyer va kanat-

osma yo‘llarni oladi. Sanoat korxonalaridagi yuklarni tashishda sex, zavod ichidagi va tashqi transportlardan foydalaniladi. Sanoat yuklari markazlashgan usulda tashilsa, tashqi transport xizmatidan foydalanmaydi. Sanoatda yuk tashish ishlarida konteyner va tagliklardan keng foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рахматуллаев М. Қосимов С.Х. Современные инновации и технологии организации перевозки. Ilmiy – texnik jurnal 23 (9) 167.
2. Aleksander Sladkowski. Intelligent transport systems-problems and perspectives. Springer.-2016. – 307 ps.
3. Кучимова. Д., & Рахматуллаев. М. (2021). Современные инновации и технологии организации перевозок пассажиров. InterConf.
4. Barbara Flugge. Smart mobility – connecting everyone. 2017.
5. Косимов. С.Х., & Нишонов, А.О.У. (2021). Пути развитие логистической системы при организации перевозки грузов на международных маршрутах. Academic research in educational sciences, 2(3).
6. Косимов, С. (2021). Применение обучающих программ-тренажеров в обучении предмета «логистика транспорта». InterConf.
7. Косимов, С., & Косимов, Б. (2021). Факторы формирования и развития современных терминалов в логистической системе. Interconf.
8. Шарипова, Н., & Рахматуллаев, М. (2021). К вопросу о назначение и классификация дорожных контролеров в системе дорожное управление. InterConf.

ТЕРМИЗ ШАҲРИДА ЖАМОАТ ТРАНСПОРТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Ш.Қурбоназаров, Сурхондарё вилояти Транспорт бошқармаси “Транспортни ривожлантириш” шўъбаси бошлиғи

Бугунги кунда жамоат транспорти тизимини ислоҳ қилиш борасида бир қанча ишлар амалга оширилиб аҳолининг жамоат транспортига бўлган эҳтиёжи қондирилиб хизмат салмоғи ошиб бормоқда.

Автотранспорт паркининг эскилиги, ўз хизмат муддатини ўтаб бўлганлиги сабабли Республикамизда жумладан Термиз шаҳрида ҳам жамоат транспортида хизмат кўрсатиш сифати қониқарсиз ҳолатга келиб қолган эди.

Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг ташаббуси билан соҳани тубдан ислоҳ қилиш ва инвестиция киритиш тўғрисидаги таклифлари ҳамда соҳага янгича тизимни жорий этиш юзасидан 2023 йил 16 февралдаги “Жамоат

транспорти тизимини ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-59-сонли қарори бунинг ёрқин тимсоли бўлди.

Ушбу қарорга мувофиқ Республикамизда Тошкент шаҳри ва вилоятлар марказларида шаҳарларда йўналишлар бўйича ҳаракат таркибини хорижда ишлаб чиқарилган замонавий барча қулайликларга эга автобуслар билан таъминлаш ва йўловчи ташишда янгича услубда **“Брутто шартномаси”** асосида ташкил этиш ҳар бир худуднинг транспорт ва йўл транспорт инфратузилмасини риқожлантириш **Бош режасини** ишлаб чиқиш ҳамда жамоат транспорида хизмат кўрсатиш самарадорлигини ошириш асосий вазифа қилиб олинган.

Брутто шартномасининг афзалликлари:

Ҳар бир йўналишда ҳаракатланаётган автобусларнинг йўналиш схемаси асосида ҳаракат жадвалига риоя этган ҳолда ҳаракатланиши бўйича суъний йўлдошли ҳаракатни кузатиш (JPS) навигация қурилмалари билан жиҳозлаш ва маркалаштирилган диспетчерлик хизматига интеграция қилиниши орқали ҳар бир йўналишдаги автобусларнинг ҳаракати, ҳар бир бекатга ўз вақтида келиб-кетиши, оралиқ интервал вақтларга амал қилиши, белгиланган қатновларнинг бажарилиши, бошланғич ва охирги бекатларга ўз вақтида етиб бориши таъминланиб йўл кира хақини тўлашда йўловчиларга қулайликлар яратиш, вақтни тежаш мақсадида Автоматлаштирилган тўлов тизими (АТТО)нинг жорий этилиши ҳисобига белгиланган йўл хақидан 30% гача имтиёзлар берилиши таъминланиб жамоат транспорти жозибадорлигининг ошишига эришилади.

Брутто шартномасига риоя этмаслик ва ҳар бир талаб бузилиш ҳолатлари бўйича жарималар белгиланиши худди шунингдек шартнома шартларини тўлиқ бажарган ташувчиларга босиб ўтган йўл масофасига қараб хақ тўланиши ва зарарларни қоплаб берилиши таъминланади.

Бу эса ўз навбатида соҳада рақобат муҳитининг шаклланишига, аҳолига жамоат транспортида хизмат кўрсатиш самарадорлигининг оширилишига ҳамда корхоналар томонидан автобус паркини янгилаб борилишига имкон яратилади.

Бу борада Термиз шаҳрининг Транспорт ва йўл транспорт инфратузилмасини ривожлантириш Бош режасини ишлаб чиқиш мақсадида лойиҳа қиймати 1771 750 000 (бир миллиард етти юз етмиш бир миллион етти юз эллик минг) сўмлик ишларни бажариш юзасидан Термиз шаҳар ҳокимлиги, Тошкент давлат Транспорт университети ва Транспорт бошқармаси ҳамда Термиз давлат мухандислик ва агротехнологиялар университети ўқитувчилари, изланувчи-талабалар иштирокида Термиз шаҳрида

йўналишларнинг математик моделини ишлаб чиқилиши бўйича изланишлар олиб борилмоқда.

Ҳозирги кунда Транспорт бошқармаси томонидан Термиз шаҳрида жамоат транспортида хизмат кўрсатиш самарадорлигини ошириш борасида бевосита вилоят ҳокимлиги ташаббуси билан “Термиз транспортхизмат” МЧЖ ташкил этилиб 100 дона Хтиой Халқ Республикасида ишлаб чиқарилган паст полли Термиз шаҳрида хизмат кўрсатишга мўлжалланган 8,5-9,0 метрли “Ютонг” русумли автобуслар олиб келиниши режалаштирилган бўлиб Термиз шаҳри аҳолиси ва меҳмонларига. Талабаларга ҳамда ногиронлиги борган имтиёзга эга шахсларнинг жамоат транспорти хизматидн фойдаланиш даражасининг ошишига эришилади.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Sh.A.Bo‘tayev, Q.M.Sidiknazarov, A.S.Murodov, A.U.Kuziyev. Logistika. -Termiz, SURXON-NASHR, 2021.-693 b.

2. G‘.Samatov va Botir Abdullayev Jamoat transportida tashishni tashkil etish va boshqarish. darslik I-II qism Toshkent 2023 307 bet

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son qarori

XALQARO YUK TASHISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Turdibekov S.K., katta o‘qituvchi, (TDTrU)
Matrasulov K.Sh., assistant, (TDTrU)
Maxsumov I.A., assistent, (TDTrU)

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro yuk tashishni takomillashtirish bo‘yicha mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi. Mualliflar turli transport turlari o‘rtasidagi integratsiyani yaxshilash, transport jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari, bojxona jarayonlarining soddalashtirilishi kabi jihatlarni o‘rganadilar. Xalqaro yuk tashishda logistik xarajatlarni kamaytirish va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro yuk tashish, logistika, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, transport integratsiyasi, bojxona jarayonlari

Kirish. Xalqaro yuk tashish dunyo iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-sotiqning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda transport va logistika sohalaridagi texnologik yutuqlar global yuk tashish tizimlarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud tizimlarda hali ham ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib, ular yuklarni samarali yetkazib berishda kechikishlarga, ortiqcha xarajatlarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada xalqaro yuk tashishni takomillashtirishning dolzarb jihatlari va ushbu sohada yuzaga kelayotgan muammolar muhokama qilinadi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqotda xalqaro yuk tashish jarayonlariga ta'sir ko‘rsatadigan asosiy omillarni tahlil qilish uchun empirik ma'lumotlar va statistik uslublar qo‘llanildi. Turli transport korxonalari va yuk tashish operatorlarining ish faoliyati o‘rganildi, hamda yirik kompaniyalar tomonidan joriy etilgan avtomatlashtirish tizimlarining samaradorligi baholandi. Bojxona jarayonlarining soddalashtirilishi va transport vositalari o‘rtasidagi integratsiya darajasi tadqiq qilindi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuk tashish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish xalqaro logistika jarayonlarining samaradorligini oshirishga sezilarli darajada hissa qo‘shadi. Transport vositalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, multimodal transport xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish va bojxona jarayonlarini optimallashtirish yo‘llari yuk tashish vaqtlarini qisqartiradi va narxni kamaytirishga imkon beradi. Shuningdek, xalqaro yuk tashishda ekologik barqarorlikka erishish uchun yashil texnologiyalardan foydalanish muhimligi ta’kidlandi.

Xulosa. Xalqaro yuk tashishni takomillashtirish uchun transport jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish, transport turlarining integratsiyasi va bojxona jarayonlarini soddalashtirish muhimdir. Mazkur o‘zgarishlar nafaqat yetkazib berish vaqtlarini qisqartirishga, balki logistika xarajatlarini kamaytirishga, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Kelgusida xalqaro yuk tashishni takomillashtirish bo‘yicha yanada innovatsion yechimlar topish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Ivanov D. "Global Supply Chain and Logistics Management," Springer, 2020.

2..Novikov A. "International Freight Transportation: Theory and Practice," Elsevier, 2019.

3..World Bank. "Logistics Performance Index 2022."

4.Coyle J.J. et al. "Transportation: A Global Supply Chain Perspective," Cengage Learning, 2021

5. Kuziyev A.U. Makhsumov I.,Eurasian Journal of Engineering and Technology. -Volume 12| November, 2022, pg. 40-46, 2022-yil. ISSN: 2795-7640

6. Kuziyev A.U. Makhsumov I., Planning For The Timely Delivery Of Cargo Flows On International Routes, International Journal of Formal Education Volume: 2 Issue: | June – 2023 year Pg.234.-240. ISSN: 2720-6874

AVTOTRANSPORT VOSITALARINING YUKLASH VA TUSHIRISH PUNKTLARIGA UNUMSIZ TURISH VAQTINI KAMAYTIRISH

Muratov Abobakr Xolikberdievich, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, (TerDU)

Hoziri bozor iqtisodiyoti sharoitida yuklarni iste'molchilarga yetkazib berish samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda yuklarni iste'molchilarga yetkazib berish sifatini baholashda iste'molchilar asosan transport xarajatlariga e'tibor berishadi. Bunda yetkazib berish sifati bilan belgilanadigan boshqa xarajatlarga esa odatda ishlab chiqarish xarajatlari sifatida qaraladi. Yuklarni iste'molchilarga yetkazib berish sifat va samaradorligini oshirishdan nafaqat ishlab chiqarishning umumiy xarajatlarida balki transport xizmatiga ketayotgan xarajat qismi katta darajada bo‘lgan iste'molchilar manfaatdor bo‘ladi. Yuqoridagi qiyinchiliklarga qaramasdan transport jarayonini hudud avtotransport vositalarining tashish imkoniyatlarini yuk iste'molchilari ehtiyojlariga maksimal moslashtirib borish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida amalga oshirishga oid davlat dasturida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga ko‘paytirish, ixtisoslashtirilgan tuman (shahar)larda boshqa hududlar bilan sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘yish; yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish va boshqa qurilish xarajatlarini kamaytirish hisobiga qurilishga ketayotgan vaqtni 30 foizga kamaytirish hamda qurilish tannarxini 20 foizga arzonlashtirish vazifalari belgilangan. Dasturda hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlari tarmog‘ini tashkil etish va yuk tashish xarajatlarini 30 foizgacha kamaytirish maqsad qilib qo‘yilgan [1].

Sanoatning o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun iqtisodiy jihatdan samarali, energiya-tejamkor va ishonchli yuk tashish tizimi muhim ahamiyatga ega [2].

Yuk tashishni optimallashtirish avtomobil va temir yo‘l transportini o‘z ichiga olgan transport tarmog‘ini rivojlantirish muammosini ham hal qilish kerak [3, 4]. Qurilish yuklarni tashishni tashkil etish, yuk jo‘natuvchi va yuk oluvchi punktlar ishini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tashish samaradorligini oshirish yo‘llari [5] keltirilgan.

Avtotransport korxonasining tashish imkoniyatlari etishmaydigan paytlarda avtotransport vositalari uchun rejalashtirilgan ish vaqtidan to‘liq foydalanish kerak. Ko‘p hollarda ish vaqtidan to‘liq foydalanmaslik avtotransport vositalarining marshrutdagi aylanish vaqti (t_{ayl}) bilan belgilangan ish vaqti (T_{ish}) o‘rtasida butun son ko‘rinishidagi nisbatning mavjud emasligidan kelib chiqadi. Ma'lumki, bu nisbatan harakatlanuvchi tarkibning kunlik aylanishlar sonini beradi. Amalda yo‘nalishda bajariladigan kunlik aylanishlar soni butunlashtirib olinadi, ya'ni

$$Z_{ayl} = \frac{T_{ish}}{t_{ayl}} \approx Z'_{ayl} \qquad (1)$$

bu yerda Z_{ayl}-avtotransport vositasining kunlik aylanishlar soni; t_{ayl} - avtotransport vositasining bir aylanish vaqti, soat; T_{ish} - avtotransport vositasining kunlik ish vaqti, soat; Z'_{ayl} - butunlashtirilgan avtotransport vositasining kunlik aylanishlar soni.

Marshrutda ishlash vaqti ($T_м$) iste'molchilar ish rejimi va haydovchilarning ish vaqti fondlari asosida belgilangan bo‘lib, butunlashtirilgan avtotransport vositasining kunlik aylanishlar soni (Z'_{ayl}) qiymati hamma vaqt avtotransport vositasining kunlik aylanishlar soni (Z_{ayl}) qiymatidan kichik songa butunlashtiriladi. Buning natijasida har bir avtotransport vositasi uchun kunlik ish vaqtidan ma'lum qismi yo‘qotiladi yoki foydalanilmay qoladi. Bu yo‘qotiladigan $t_{ўқ}$ vaqtlarni bilan belgilab uning qiymatini bitta avtotransport vositasi uchun bir kunligini quydagicha aniqlashimiz mumkin, ya'ni

$$t_{ўқ} = T_{ish} - Z'_{ayl} \cdot t_{ayl} \quad soat \qquad (2)$$

Ushbu yo‘qotilgan vaqt ($t_{ўқ}$)dan foydalanish maqsadida har bir avtotransport vositasidan ma'lum kun mobaynida turli yo‘nalishlarda foydalanish imkoniyatini ham ko‘rish lozim. Avtotransport korxonasidagi marshrutda faoliyat ko‘rsatiyotgan avtotransport vositalarning bir kunlik yo‘qotiladigan vaqtlar yig‘indisi ($\sum t_{ўқ}$) quydagicha aniqlanadi:

$$\sum t_{ўқ} = t_{ўқ} \cdot A_э; \qquad soat \qquad (3)$$

bu yerda $A_э$- marshrutdagi avtomobillar soni, avt.

Boshqacha qilib aytganda avtotransport korxonasidagi har bir avtotransport vositasi ishini marshrutlararo shunday rejalashtirish keraki, bunda butun

avtotransport korxonasi uchun yo‘qotiladigan vaqtlar yig‘indKo‘p hollarda yuk iste'molchi punktlar ma'lum bir yukni bir nechta punktdan oladi yoki aksincha, bunda har bir jo‘natuvchidan kunlik tashiladigan yuk miqdorini turli hajmda belgilash mumkin. Bunda asosiy maqsad iste'molchi punkti yuk hajmiga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdan iborat. Yuk jo‘natuvchi punkt esa yuk iste'molchi manzillaridan har xil uzoqlikda joylashgan bo‘lib, bu tashish hajmini o‘rtacha yuk olib borish masofasi vositasi orqali boshqarishga imkon beradi.

Doimiy va hajmi katta bo‘lgan yuk oqimini boshqarish lozim bo‘lganda yaqin masofalarga ko‘proq avtotransport vositalari ajratiladi, aksincha nisbatan kichik hajmda yuk tashish lozim bo‘lganda esa uzoq masofalardan ko‘proq tashish belgilanadi.

Xulosa. Avtotransport korxonasining real tashish imkoniyatlariga harakatlanuvchi tarkibni yuk ortish va tushirish punktlarida me'yoridan ortiq turib qolish vaqtlari jiddiy ta'sir ko‘rsatadi hamda avtotransport vositasining bir aylanishga ketgan vaqti oshadi. Ayniqsa yuk hosil etuvchi punktlarda bu masalani oqilona hal etilishi maqsadga muvofiqdir, chunki bunday manzillar bir qancha marshrutlarda yuk tashiyotgan avtotransport vositalarning yig‘iladigan joyi bo‘lib, ular yuqori ish unumdorligini ta'minlaydigan tushirish maydonchalariga ega bo‘lmasa avtotransport vositalarini yuk tushirish yoki ortish jarayonida turib qolish vaqtlari me'yordan bir necha marta oshib ketadi. Bu esa har bir avtotransport vositalari uchun belgilangan kunlik qatnovlar (aylanishlar) sonini va ish unumdorligini etarli darajada bajaraolmaslikka olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvarda PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

2. Devendra Kumar Pathak, Ravi Shankar, Alok Choudhary. Transportation Research Part D: Transport and Environment. Volume 90, January 2021, 102663. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1361920920308488

3. Muratov Abobakr Kholikberdievich. (2023). Mathematical Model of the Process of Transportation of Construction Goods by Automobiles. *Genius Repository*, *24*, 38–41. Retrieved from https://geniusrepo.net/index.php/1/article/view/375

4. Muratov Abobakr Kholikberdievich. (2023). Efficient organization of the process of servicing automobile flows arriving at the point of shipment. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *21*, 236–240. Retrieved from http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/875

5. Kuziev A.U., Muratov A.Kh. Improving the method of delivery of construction cargo in auto transport. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Vol. 11, Issue 8, August 2021. pp. 207-216.

https://indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=8&article=038

TRANSPORT LOGISTIK TIZIMIDA TRANSPORT XIZMATIGA BO‘LGAN TALAB VA TAKLIFLARNI MODELLASHTIRISH

Bo‘ronova O‘g‘iloy, o‘qituvchi, Jizzax shahar kasb hunar maktabi

Annotatsiya. Transport logistik tizimida transport xizmatiga bo‘lgan talab va takliflarni modellashtirish optimal tariflarni aniqlash masalalari u yoki bu bu marketing siyosatini yuritish hisobiga transport korxonasining daromadini maksimallashtirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar rezident, tig‘iz payt yuk korrespondensiyalari

Transport tizimining imkoniyatlari va uning xizmatlariga bo‘lgan talabning muvofiqligi talab va transport tizimi quvvatining muvozanatlanganligi bilan belgilanadi. Muvozanatlanganlik sharti, agar t_1, t_2 davrga tegishli bo‘lgan har qanday θ uchun quyidagi shart bajarilgan taqdirda – amalga oshadi:

$$\int_{\Theta}^{t_2} p_c(t)dt \le \int_{\Theta}^{t_2} p_T(t)dt,$$

bunda $p_s(t)$ – t vaqt paytida transport xizmatlariga bo‘lgan buyurtmalarning zichligi; $p_T(t)$ – ularni qanoatlantirishni ta’minlaydigan transport tizimining salohiyati.

Keltirilgan shartga muvofiq, agar 1 rasmda ko‘rsatilganidek, egri chiziq ostidagi maydon ABCD to‘g‘ri turtburchakning maydoni bilan mos tushsa va bunda transport tizimi turib qolgan davrlar bo‘lmasa – talab va transport tizimining imkoniyatlari muvozanatlangan bo‘ladi.



1 rasm. Transportda talab va taklifning o‘zaro nisbati.

Tabiiyki, bu eng umumiy shart muvozanatning bo‘lmasligi davrlaridan qochish imkonini bermaydi. Masalan, t*–t** davrda talab transport tizimining

imkoniyatlaridan ortiq bo‘ladi, buni transport tizimining quvvatini oshirish bilan bartaraf qilish mumkin. Amaliyotda deyarli har doim kattalik va vaqt bo‘yicha muvozanatning buzilishiga yo‘l qo‘yish masalasini hal qilishga to‘g‘ri keladi, chunki tizimning quvvatini oshirish qo‘shimcha moliyaviy va ekspluatatsion xarajatlarga olib keladi.

Shu bois transport xizmatlariga bo‘lgan talabni aniq hisoblash o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Talabni aniqlash jarayonida 4 ta asosiy bosqichni ajratish mumkin:

1) yuk va yo‘lovchilarni tashish zaruratini va uning maqsadlarini aniqlash (qatnashlarni generatsiyalash);

2) yuk va yo‘lovchilarni tashishni tugallash joyini aniqlash (qatnashlarni zonalar bo‘yicha taqsimlash);

3) yuk va yo‘lovchilarni tashish usulini tanlash (tashishlar turi va tashishlar texnologiyasi);

4) harakat marshrutini tanlash (qatnashlarni tarmoq bo‘yicha taqsimlash).

Talab Q korrespondensiya massivi bilan tavsiflanadi. Q_{ij} korrespondensiyani aniqlash uchun (i, j) transport juftliklarini shakllantirish va mos keluvchi tashishlar hajmlarini va ularning tuzilishini topish zarur bo‘ladi.

Transport faoliyatini rejalashtirishda (i, j) transport juftliklarini tavsiflash uchun jo‘nash-etib kelish va qatnashlarning tug‘ilishi–tortishi tushunchalarini farqlash zarur bo‘ladi. Qatnashning boshlanishi va tugashi nuqtai-nazaridan bu identik bir xil tushunchalardir.

Qoidaga ko‘ra, jo‘nash va etib kelish punktlari sifatida ajratiladigan har bir zona rezidentlarga – yo‘lovchi korrespondensiyalari uchun istiqomat qiluvchilarga va yuk korrespondensiyalari uchun yuk manbalariga va norezidentlarga – mehnat qilish, o‘qish yoki yuklarni iste’mol qilish joylariga ega bo‘ladi.

Aholi yashash joyini ish yoki o‘qish joyiga qaraganda kam o‘zgartiradi, omborlar va zavodlar ham joylashgan joyi bo‘yicha do‘konlar va servis xizmatlariga qaraganda ko‘proq barqaror bo‘ladi. Rezidentlar bo‘yicha qatnashlar sonini bashoratlash uchun zarur bo‘ladigan statistik ma’lumotlarni olish osonroq. Buning ustiga, aynan ana shunday qatnashlar transport harakatining asosiy qismini tashkil qiladi, xususan “tig‘iz payt” ni shakllantiradi. SHuni qayd qilish zarurki, tug‘ilish-tortish atamalarida norezidentlar tomonidan turli zonalar o‘rtasida sodir qilinadigan qatnashlar, masalan, ishdan do‘konga borib-kelish hisobga olinmaydi. Bunday qatnashlarni alohida hisobga olish zarur bo‘ladi, qoidaga ko‘ra, ular barcha qatnashlarning 15-20foiz ini tashkil qiladi.

Ko‘p omilli tahlil qilish modeli qatnashlarni generatsiyalashning keng tarqalgan modeli hisoblanadi, unda qatnashlar maqsadlar bo‘yicha taqsimlanadi va

statistik tadqiqotlar asosida oilada turli omillarga bog‘liq ravishda o‘rtacha qatnashlar soni aniqlanadi.

Transport xizmatlariga bo‘lgan talabni aniqlashning oxirgi to‘rtinchi bosqichi – qatnashlarning tarmoq bo‘yicha taqsimlanishidan iborat. Bu bosqichda foydalanuvchi zonalar o‘rtasida qaysi yo‘l bilan ko‘chishi bashorat qilinadi, shu tariqa tarmoq bo‘yicha har xil transport oqimlari shakllantiriladi. Bu bosqichda masalani echishni qatnashlarga protseduraning oldingi bosqichlarida shakllangan talab bilan mos keluvchi xizmat ko‘rsatish darajasiga ega bo‘lgan bog‘lanish yo‘llarining imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanat modeli sifatida tasavvur qilish mumkin. Shunday qilib, bu bosqichda transport tarmog‘ining transport oqimlarini o‘tkazish imkoniyatini tadqiq qilish zarur bo‘ladi. Zonalarning qandaydir-bir juftligi o‘rtasida mumkin bo‘lgan yo‘llarning soni qatnashni bajarish usuliga bog‘liq bo‘ladi.

Transportni istiqbolli rivojlantirish masalalari yirik shaharlarda muhim rol o‘ynaydi. Ularning echimini shaharning rivojlanish imkoniyatlari, yangi korxonalar va yashash hududlarining qurilishi belgilaydi. Bu masalalarni hal qilishda tashishlarning zaruriy hajmi va o‘rtacha yo‘lda yurish vaqtiga bog‘liq ravishda u yoki bu transport turini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanadi. Transportning rivojlanishi foydali qazilmalarni o‘zlashtirish imkoniyatini, u yoki bu rayonning biznes va turizmni rivojlantirish uchun jalb qiluvchanligini, aholi uchun jalb qiluvchanlikni belgilaydi. Bu masalalarda me’zonlar sifatida transportni rivojlantirishning u yoki bu variantiga yig‘indi xarajatlarning minimal o‘zini oqlash muddatidan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish-transport rejalashtirishi masalalari mahsulotni ishlab chiqarish va etkazib berish umumiy xarajatlarining minimumi me’zoni bo‘yicha mahsulotni ishlab chiqarish, tayyor mahsulotni taqsimlash va omborlarga joylashtirish rejasini tuzishda, bir-birining o‘rnini bosadigan mahsulotlarni alternativ etkazib berish va ularni iste’mol qilish manbalari bo‘lganda – logistika tizimlariga taalluqli bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, optimal tariflarni aniqlash masalalari u yoki bu bu marketing siyosatini yuritish hisobiga transport korxonasining daromadini maksimallashtirish imkonini beradi. Masalan, yuk egasi yuklarning ma’lum bir nomenklaturasini taklif qilsa, ularning hajmini Q massiv bilan, bu yuklarni tashish tariflarini – T massiv bilan, yuklarning bahosini esa – S massiv bilan taqdim qilish mumkin bo‘lsa, u holda savdo kelishuvining qatnashchilari o‘zlarining takliflarini P_Q, P_T va P_C ko‘pliklar bilan ifodalash mumkin bo‘ladigan ma’lum bir chegaralarda o‘zgartirishlari mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar.

1. Бутаев Ш.О., Мадаминов Ю.И. Совершенствование методов управления процессами автомобильных перевозок грузов.Ташкент:Фан, 1988.-150 s.

2. Модели и методы теории логистики: Учеебное пособи. 2-е изд./Под ред. Лукинского В.С. СП: Питер. 2007. -448 С.
3. Raxmatullaev M. Qosimov S.X. Yuk oqimini logistik kuzatuvi va komplekslarini mahalliylashtirish omillari. Ilmiy-tex. jur. 23 (8) 52.
4. Raxmatullaev M. Qosimov S.X. Современные инновации и технологии организации перевозки. Ilmiy – texnik jurnal 23 (9) 167.
5. Aleksander Sladkowski. Intelligent transport systems-problems and perspectives. Springer.-2016. – 307 ps.
6. Barbara Flugge. Smart mobility – connecting everyone. 2017.
7. Косимов, С. Х., & Нишонов, А. О. У. (2021). Пути развитие логистической системы при организации перевозки грузов на международных маршрутах. Academic research in educational sciences, 2(3).
8. Косимов, С. (2021). ПРИМЕНЕНИЕ ОБУЧАЮЩИХ ПРОГРАММ-ТРЕНАЖЕРОВ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА «ЛОГИСТИКА ТРАНСПОРТА». InterConf.

AVTOBUS YO‘NALISHLARIDA YO‘LOVCHILAR QATNOV VAQTINI BAHOLASHNING MATEMATIK MODELI

Odilov Nurmuhammad Eshpo‘lat o‘g‘li; v.b. dotsent, (JizPI)

Shahar yo‘lovchi transporti uchun harakatlanuvchi tarkib turini barcha harakatlanuvchi tarkib parametrlarini va yo‘lovchilarni tashish jarayoniga qo‘yiladigan ko‘plab talablarni diqqat bilan taqqoslash va hisobga olish kerak. Yo‘nalish bo‘ylab harakatlanuvchi tarkibning ratsional parkini tanlash masalasini ko‘rib chiqishda tizimli yondashuvdan foydalanish kerak [1]. Buni amalga oshirish uchun turli sig‘imdagi avtobuslarni yo‘lovchilarning qatnovga sarflagan minimal umumiy vaqti mezoniga ko‘ra baholash imkonini beradigan matematik modelni ishlab chiqish kerak. Matematik model oldindan belgilangan, ma’lum parametrlar, ko‘rsatkichlar va noma’lum miqdorlarni o‘z ichiga olgan yo‘lovchi tashish jarayonining rasmiylashtirilgan tavsifini ifodalaydi, ular birgalikda matematik bog‘liqliklar va munosabatlar ko‘rinishidagi bog‘lanishlar bilan o‘zaro bog‘langan ob’ektning holatini, uning ishlashini tavsiflaydi [2].

Ko‘pgina matematik modellar yo‘nalishda harakatlanuvchi tarkibning faqat bitta markasi va modelidan foydalanishni nazarda tutadi va cheklangan miqdordagi omillarni hisobga oladi. Ushbu yondashuvning kamchiliklaridan biri shundaki, unda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rsatkichlari va xususan, qatnov vaqti aniq hisobga olinmaydi [2,5]. Muallif tomonidan taklif qilingan yangi yondashuv ma’lum bir avtobusdan tashqaridagi transport oqimi uning aloqa tezligiga ta’sir qilishi va bu

ta’sir tashishga, avtobuslarning markalari va modellariga qarab farq qilishini o‘z ichiga oladi. Yuqoridagilarni, shuningdek, boshqa bir qator omillarni hisobga olishning maqsadga muvofiqligini miqdoriy jihatdan tekshirish uchun matematik model ishlab chiqildi. Ushbu model yo‘lovchilar tomonidan ma’lum vaqt oralig‘ida, masalan tig‘iz vaqtda qatnov uchun sarflagan minimal umumiy vaqt nuqtai nazaridan sig‘imi bo‘yicha eng samarali harakatlanuvchi tarkibni, shuningdek uning sonini aniqlaydi. Yo‘nalishda bir vaqtning o‘zida turli sig‘imdagi avtobuslar harakatlanishi taklif qilinmoqda [3]. Ushbu holat GOST 18716-73 bo‘yicha avtobus tasnifiga tuzatish kiritishni talab qildi (1-jadval).

1-jadval

Nominal sig‘imi va o‘rindiqlar mavjudligiga qarab GOST 18716-73 bo‘yicha avtobuslarning tuzatilgan tasnifi (shahar sharoitlari uchun)

Sinf raqami	**Guruh**	**Sig‘imi bo‘yicha avtobus sinfi**	**Nominal sig‘im avtobuslar, yo‘lovchi.**	**O‘rindiqning mavjudligi**	**Shartli belgilash uchun hisob-kitoblar**
I	1	Juda kichik	9-15	faqat o‘tirish	A^{ma}
II-A		Kichik	16-25	faqat o‘tirish	A^{ma}
II-B	2	Kichik	26-49	o‘tirish va turish joylari	A^{avt}
III		O‘rtacha	50-79	o‘tirish va turish joylari	A^{avt}
IV		Katta	80-110	o‘tirish va turish joylari	A^{avt}
V		Juda katta	110 dan ortiq	o‘tirish va turish joylari	A^{avt}

1-jadvalni tahlil qilish barcha avtobuslarni ikki guruhga bo‘lish mumkinligini ko‘rsatadi: birinchisi - faqat o‘rindiqli harakatlanuvchi tarkib, ikkinchisi (qolgan barcha) - o‘tirish va turish joylari bo‘lgan harakatlanuvchi tarkib.

Ma’lumki birinchi guruh avtobuslari yuqori aloqa tezligini ta’minlaydi (kichik sig‘im va gabarit o‘lcham, yuqori manevrchanlik qobiliyati, tez tezlanish olish, tez tormozlanish va bekatlarda kamroq to‘xtash vaqti tufayli). Bunday avtobuslar, ayniqsa, uzoq yo‘nalishlarga va uzoq masofalarga qatnaydigan yo‘lovchilar uchun afzalroqdir, chunki ular qatnov vaqtini qisqartiradi [4].

O‘zbekistonda o‘z vaqtida “yo‘nalishli taksi” nomini olgan, ayniqsa kichik va kichik toifadagi avtobuslar qat’iy tarif va yo‘lovchilar oldidagi mas’uliyati bo‘lgan yo‘nalishlarda, oddiy jamoat transporti sifatida tasniflanishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, 1-jadvaldagi avtobus sinflari o‘rtasidagi farqlar faqat sig‘imi va o‘rindiqlarning mavjudligiga qarab belgilanadi [5].

Matematik simulyatsiya modelining mohiyati quyidagicha.

1. Quyidagi xususiyatlarga ega ma’lum qatnov yo‘nalishi: n – to‘xtash punktlari soni, shu jumladan dastlabki va yakuniy; $l_{i-(i+1)}$- to‘xtash nuqtalari orasidagi tashish uzunligi; $i = n - 1$-to‘xtash joylari orasidagi tashishlar soni;

Shunda yo‘nalishning uzunligi tashishlar uzunligi yig‘indisiga teng bo‘ladi:

$$L_m = \sum_{i=1}^{n-1} l_{i-(i+1)} \qquad (1)$$

2. Nol diagonali bo‘lgan to‘xtash joylariaro yo‘lovchi tashishlar matritsasi ma’lum:

$$\begin{matrix} 0 & x_{12} & x_{13} & \dots & x_{1i,n} & \dots & x_{1,n} \\ & 0 & x_{23} & \dots & x_{2i} & \dots & x_{2,n} \\ & & & \dots & & \dots & \\ & & & & 0 & \dots & x_{in} \\ & & & & & & 0 \end{matrix} \qquad (2)$$

bu yerda: x - indeksning birinchi raqamiga mos keladigan bekatda transportga chiqqan va indeksning ikkinchi raqamiga mos keladigan bekatda transportdan tushgan yo‘lovchilar soni. Demak, har bir qator uchun barcha yo‘lovchilar yig‘indisi tegishli to‘xtash punktida chiqadigan yo‘lovchilar soni:

$$\boldsymbol{x_i^v} = \sum_{\boldsymbol{i=i+1}}^{\boldsymbol{n}} \boldsymbol{x_{i-(i+1)}^c} \qquad (3)$$

bu yerda: $\boldsymbol{x_i^v}$ - i-to‘xtash punktida chiqqan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi;

$\boldsymbol{x_{i-(i+1)}^c}$ - *i+1* to‘xtash punktida tushgan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi.

Har bir ustundagi barcha yo‘lovchilar yig‘indisi ma’lum bir bekatda tushgan barcha yo‘lovchilar soniga teng:

$$x_i^c = \sum_{i=1}^{i=i-1} \boldsymbol{x_{(i-1)-i}^c} \qquad (4)$$

bu yerda: x_i^c - *i*-to‘xtash punktida tushgan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi;

$\boldsymbol{x_{(i-1)-i}^c}$ - har qanday *i=1* to‘xtash joyidan *i*-to‘xtash punktiga kelgan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi.

Chiqayotgan barcha yo‘lovchilar yig‘indisi barcha tushayotgan yo‘lovchilar yig‘indisiga teng va bu tashishning umumiy hajmini ifodalaydi:

$$\sum_{i=1}^{n-1} x_i^v = \sum_{i=2}^{n} x_i^c = Q \qquad (5)$$

i - chi va *(i+l)* - chi to‘xtash punktlari oralig‘ida yo‘nalish bo‘ylab tashilgan yo‘lovchilar soni.

$$x_{i-(i+1)}^n = \sum_{i=1}^{i} x_i^v - \sum_{i=2}^{i} x_i^c = x_{(i-1)-i}^n - x_i^c + x_i^v \qquad (6)$$

bu yerda: $x_{(i-1)-i}^n$ (i-1)-chi va i-chi to‘xtash punktlari orasidagi yo‘nalish bo‘ylab tashilgan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi.

3. To‘xtash nuqtalari orasidagi masofalarning ma’lum uzunliklari ular orasidagi masofalar matritsasini qurishga imkon beradi, ular tuzilishi jihatidan mos keladigan matritsaga (2) o‘xshash bo‘ladi. Ushbu matritsalarning tegishli

qiymatlarini ko‘paytirish orqali yo‘lovchi aylanmasining o‘xshash matritsasini ham olish mumkin, undan yo‘lovchining o‘rtacha qatnov masofasini hisoblash mumkin.

4. Bundan tashqari, maqsad nuqtai nazaridan harakatlanishning texnik tezligini bilish kerak, bu to‘xtash punktlari orasidagi masofaga bog‘liq. Uni matritsa - qator bilan belgilash mumkin:

$$v_{1-2}, v_{2-3}, v_{3-4}, \dots v_{i-(i+1)}, \dots v_{(n-1)-n} \qquad (7)$$

Harakatlanuvchi tarkibning texnik tezligi ko‘p jihatdan avtobus harakatlanadigan transport oqimining xususiyatlariga bog‘liq [m]. Tezlik, intensivlik va zichlik o‘rtasida transport oqimining asosiy diagrammasi bilan tavsiflangan bog‘liqlik mavjud (1-rasm).



-qator - *N=f(p);*	*N_{max} - o‘tkazish qobiliyati, avtomobil/soat*
	a - o‘rtacha oqim tezligini tavsiflovchi radial vektorning moyillik burchagi
2-qator - *v=f(p);*	*N - transport oqimining intensivligi, avtomobil/soat*
	p - transport oqimining zichligi, avto/km

1-rasm. Transport oqimining asosiy diagrammasi

Transport oqimining asosiy diagrammasi quyidagi bog‘liqliklarni taqdim etadi:

$$N=f(p),\ v=f(p), \qquad (8)$$

$$tg\alpha = \frac{N}{\rho} = v, \qquad (9)$$

bu yerda: *v* - transport vositalari oqimining tezligi, km/soat;

N - harakat intensivligi, avto/soat;

ρ - oqim zichligi, avtomobillar/km

Bunday holda, *1-qator* quyidagi bog‘liqlik bo‘yicha olinadi:

$$N = v\rho, \qquad (10)$$

Harakat intensivligi formulasi (11) asosida biz quyidagi formula yordamida transport oqimi tezligini aniqlaymiz:

$$v = N/\rho \qquad (11)$$

Transport vositalari oqimi tezligi aloqa tezligiga mos kelish uchun avtobuslarning bekatlarda turib qolish vaqtini qo‘shish kerak. Yo‘nalishdagi oqim tezligi texnik tezlikka tenglashtiriladi:

$$V=V_T, \qquad (2.12)$$

Yuqorida keltirilgan tizimda yo‘lovchilarni tashishni yo‘lovchilarning harakatga sarflagan umumiy vaqtini minimallashtiradigan tarzda tashkil qilish kerak:

$$\sum_{j=1}^{Q} T_j \to min, \qquad (13)$$

bu yerda: *j=1, Q* - joriy yo‘lovchi indeksi;

T_j- j-yo‘lovchini tashishga sarflangan vaqti, soat;

Q - tashilgan yo‘lovchilarning umumiy soni, yo‘lovchilar.

Faraz qilaylik, biz alohida shahar yo‘nalishi bo‘yicha ma’lum vaqt oralig‘ida - soatiga, kuniga va hokazolarda tashish kerak bo‘lgan yo‘lovchilar sonini bilamiz. Yo‘lovchilar turli guruhlardagi avtobuslarda harakatlanganligi sababli (1-jadval), u holda tashilgan yo‘lovchilarning umumiy soni quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$Q = Q^{avt} + Q^{ma}, \qquad (2.14)$$

Bu yerda: Q^{avt},Q^{ma} - 2 va 1-guruh avtobuslarida harakatlanadigan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi. Taxminlarga ko‘ra, yo‘lovchiga qatnov ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil imkoniyatlar taqdim etiladi, xususan, turli xil sig‘imdagi avtobuslar (avtobuslar va mikroavtobuslar) taklif etiladi. Shunda kerakli avtobuslar soni:

$$A = A^{avt} + A^{ma} \qquad (15)$$

Bu yerda: A^{avt}, A^{ma} - marshrutga xizmat ko‘rsatuvchi 2-guruh avtobuslari va 1-guruh mikroavtobuslari soni, dona (2.2-jadvalga qarang).

Belgilab olamiz j_1-1-guruh mikroavtobuslarida harakatlanuvchi yo‘lovchining joriy indeksi, j_2- 2-guruh avtobuslarida harakatlanuvchi yo‘lovchining joriy indeksi. i_1- 1-guruh mikroavtobusining joriy indeksi va i_2- 2-guruh avtobusining joriy indeksi.

(13) formula bo‘yicha barcha yo‘lovchilarning marshrutda o‘tkazgan umumiy vaqti minimal bo‘lishi kerak. Shunda:

$$\sum_{j=1}^{Q} T_j = \sum_{j_2=1}^{Q^{avt}} T_{j2}^{avt} + \sum_{j_1=1}^{Q^{ma}} T_{j1}^{ma}, \qquad (2.16)$$

Bu yerda: T_{j2}^{avt}, T_{j1}^{ma} 2 va 1-guruh avtobuslari yo‘lovchilarining umumiy qatnov vaqti, soat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qulmuhamedov J.R. va boshqalar, Avtotransport vositalarida yo‘lovchilar tashishni tashkil etish. T: «ILM ZIYO», 2016.

2. Butayev Sh.A. va boshqalar. Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish. T.: «Fan», 2009.

3. Karimov E. Avtomobillarda yo‘lovchilar tashish. T.: «Sharq» NMAK, 2002.

4. Xodjayev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari. T.: «O‘zbekiston», 2002.

5. Rahmonqulov, F. X., Almanov, F. S., & Omonnov, N. A. O. “Shahar jamoat transporti matematik modelini tuzishda bajariladigan ishlar ketma-ketligi. *Academic research in educational sciences*, *3*(TSTU Conference 1), 730-732.

6. https://www.elibrary.ru/

7. https://uz.wikipedia.org/wiki/

8. https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl

9. https://fayllar.org/

10. https://arxiv.uz/

ВОЗМОЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫХ ПОКРЫШЕК

Пулатов Гафур Эргашович, преподаватель, (ТГИАУ)
Бобомуратов Садулла Юнусович, преподаватель, (ТГИАУ)
Ибрагимов Хасан Эшпулатович, преподаватель, (ТГИАУ)

Аннотация: Актуальность внедрения инновационных технологий в дорожном строительстве и природоохранных мероприятиях на территории РФ сегодня очевидна и бесспорна.

Ключевые слова: дорога, материал, технология, механизм, сфере, ГИС.

Главный недостаток применения резиновой крошки в строительстве дорог — это большая стоимость самого процесса работы над дорожным полотном. Происходит это от того, что новый материал требует иных рабочих алгоритмов и технологий. Помимо этого, такое полотно имеет другие показатели, а значит, может не подойти под стандарты.

Для более широкого распространения резиновых дорог нужно изменять не только технологические процессы, но и стандарты. Это добавляет сложности в распространение дорог с резиновым покрытием.

Одна из сложностей использования автомобильных покрышек в России — это отсутствие отработанного механизма. В России необходимо создать отходо перерабатывающую индустрию с соответствующей инфраструктурой организованного сбора покрышек, утилизации и дальнейшего использования продуктов переработки.

Также, необходимо сформировать единую площадку, на которой будет выражено мнение бизнес-сообщества по вопросу переработки старых шин и необходимых нормативных актов в этой сфере. Одним из важных шагов для регламентирования этой сферы станет создание саморегулируемой организации, в которую должны войти представители компаний, специализирующихся на переработке шин. Бизнесмены должны коллегиально выработать политику и основные направления нормативного регулирования отрасли.

Ассоциация включает 35 предприятий, работающих в этой отрасли. Среди них сборщики шин, переработчики изношенных резинотехнических изделий, производители модификаторов для асфальтобетонов и материалов на основе резиновой крошки. Сейчас ассоциация разрабатывает геоинформационную систему (ГИС), в которой приведены данные по количеству шин, подлежащих утилизации в местах сбора и местах расположения профильных предприятий.

Создание ГИС позволяет скоординировать действия всех работающих в этой сфере копаний, подчеркнул эксперт. Система также позволяет выявить наиболее оптимальные места расположения мест сбора шин и новых заводов по переработке.

Заключениею.

Актуальность внедрения инновационных технологий в дорожном строительстве и природоохранных мероприятиях на территории РФ сегодня очевидна и бесспорна. Это и континентальный характер климата отдельных регионов с большим перепадом температур, и наличие территорий со сложными геологическими условиями, и само состояние дорог, большинство из которых было построено 40-60 лет назад и рассчитан на более низкие нагрузки и интенсивность движения. Проблема повышения сдвигоустойчивость и трещиностойкости, а, следовательно, долговечности асфальтобетонных покрытий является особенно актуальной при все возрастающей интенсивности движения и наметившейся, а именно рост осевых нагрузок на автомобильных дорогах и городских улицах.

В составе сети автомобильных дорог подавляющая часть способна пропускать лишь относительно легкие автомобили с нагрузкой на ось не более 6 тс. В то же время автомобильная промышленность развивает производство тяжелых машин с нагрузкой на ось до 10 тс. В потоке движения нередко встречаются еще более тяжелые автомобили. Выросла и интенсивность транспортного потока, достигает на некоторых участках 45-50 тыс. Автомобилей в сутки при расчетной норме 6 тыс. Единиц. В результате

несущая способность дорожной одежды многих автомобильных дорог исчерпана. Отсюда возникает необходимость в частых ремонтах.

В результате работы можно констатировать факт, что состояние дорог в России находится в критическом состоянии. Несмотря на увеличение финансирования, качество дорожного покрытия остается на низком уровне. Кроме того, стоит отметить отсутствие новых технологий и материалов.

При анализе зарубежного опыта строительства автомобильных дорог мы остановились на таких моментах как: использование инновационных технологий, внедрение платных дорог и использование государственно частного партнерства.

Можно сделать вывод, что применение большинства новых технологий при некотором повышении стоимости работ по строительству, обеспечивает относительно низкую стоимость работ по содержанию и ремонту автодорог, способствует повышению долговечности дорожных конструкций и искусственных сооружений, сокращению сроков выполнения работ. Однако при этом существенным препятствием выступает отсутствие объективной информации об условиях применения технологий и материалов, результатов научного сопровождения, мониторинга состояния участков.

В последние годы перед дорожной отраслью РФ остро стоят задачи, направленные на дальнейшее развитие сети федеральных, региональных и сельскохозяйственных дорог, которые должны привести к ускорению роста экономики страны, улучшению качества жизни населения, увеличению их мобильности, снижению транспортных издержек. Необходимо более активно внедрять лучшие мировые и отечественные инновационные решения. При этом особенно актуально использовать такие технологии, которые позволяют решить проблемы уменьшения стоимости и сокращения сроков строительства дорог при одновременном повышении их надежности и обеспечении всесезонности эксплуатации.

На сегодняшний день существует три прогрессивных технологии для возведения транспортных путей это — геотекстиль, использование автомобильных шин, использование полимерных стабилизаторов грунта.

Интенсивное развитие нашего общества и его инфраструктуры ставят задачи широкого применения современных, инновационных материалов и технологий, которые отвечали бы повышенным требованиям нового времени в различных сферах жизнедеятельности. В условиях, наступившего мирового финансового кризиса применение таких материалов становится еще более актуальным. Так, в области строительства современной инфраструктуры во многих странах мира, в том числе и в России, одной из таких технологий

является технология строительства дорог, аэродромов и различных площадок с помощью полимерных стабилизаторов грунта

Еще одним аспектом на который России необходимо обратить внимание — это использование при строительстве дорог автомобильных покрышек. По мнению многих специалистов, у резиновой крошки большое будущее из-за ее неповторимых качеств и доступности. Использованных покрышек всегда бывает много, а значит, из них можно изготовить большое количество крошки и пустить в дело. Процесс укладки такого покрытия со временем станет более дешевым, когда ученые найдут способ сделать это реальным, и тогда, возможно, резиновая крошка будет распространенным явлением на многих дорогах, пока же эта технология большей частью находится в стадии разработки.

Список литературы.

1. Н.В. Горелшев, Н.В. Быстров Совершенствование стандартизации асфальтобетона. Автомобильные дороги, 1994, №9, с. 11-14.
2. Н.В. Горелышев, Н.В. Быстров Новые принципы стандартизации асфальтобетона. Методы и средства повышения надежности материалов и сооружений на автодорогах с учетом транспортных воздействий. М., МАДИ, 1996, с. 155-156.
3. Н.В. Быстров Взаимосвязь подходов технического нормирования в странах ЕС и России в условиях технического регулирования. Наука и техника в дорожной отрасли, 2005, №2, с. 6-8.
4. EN 13108-1 Bituminous mixtures - Material specifications - Part 1: Asphalt Concrete.
5. EN 13108-2 Bituminous mixtures - Material specifications - Part 2: Asphalt Concrete for very thin layers.
6. EN 13108-3 Bituminous mixtures - Material specifications - Part 3: Soft Asphalt.
7. EN 13108-4 Bituminous mixtures - Material specifications - Part 4: Hot Rolled Asphalt.
8. EN 13108-5 Bituminous mixtures - Material specifications - Part 5: Stone Mastic Asphalt.

YUKLARNI TASHISHNI TASHKIL QILISHDA TRANSPORT-TERMINAL TIZIMINING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TAMOYILLARI

Qosimov Sunnat Hatamovich. dotsent (JizPI)

Iqtisodiy islohotlar sharoitida transport tizimining rivojlanishi va O‘zbekiston Respublikasi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u boshqa infratuzilma

tarmoqlari bilan birga jamiyat faoliyati uchun asosiy sharoitlarni ta’minlaydi, ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi siyosat maqsadlariga erishishda muhim element sifatida xizmat qiladi. Zero 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 93-maqsadida[6]: “Mamlakatning xalqaro hamjamiyatda teng huquqli sub’yekt sifatidagi rolini oshirish, hamkor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli tarzda muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish, yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni kelishish” belgilangan.

SHuningdek mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida yuklarni xalqaro tashish sohasida transport-terminal tizimini tashkil etish samaradorligini oshirish, rivojlangan xorij davlatlari bilan hamkorlik qilish asosida milliy tashuvchilarning katta yuk avtotransport vositalari parkini yangilash va modernizatsiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va transport xizmatlari xalqaro bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha salmoqli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Olib borilgan prognoz hisoblari shuni ko‘rsatmoqdaki, ya’ni mamlakatimiz iqtisodiy o‘sishining joriy sur’ati saqlangan holda (yillik o‘sish YAIM 8% atrofida) 2014-2030 yillar davrida yuk tashish hajmi taxminan yiliga 9,2 % ga yoki 4,4 martaga oshadi, 2013 yilda 1387,3 mln.tonnadan 2030 yilga kelib 6041,3 mln.tonnagacha ko‘payadi, jumladan: -avtomobil transporti bo‘yicha yiliga o‘rtacha 9,4 % yoki umumiy 4,6 marta, ya’ni 2013 yilda 1258,6 mln.tonnadan 2030 yilga 5811,6 mln.tonnagacha o‘sadi; -temiryo‘l transporti yiliga o‘rtacha 5% ga yoki umumiy 2,3 marta, ya’ni 67,7 mln.tonnadan 2030 yilga 146 mln.tonnagacha oshadi. Transport sektoriga jalb etilayotgan investitsiyalarni 1% ga oshirilganda yuk tashish hajmi 0,94% ga oshadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rsatib berganidek[7] “Transport sohasini rivojlantirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim zamin. Transportda yuk tashish tannarxi past bo‘lsa, ham eksport, ham investitsiya ko‘payadi”. Bu esa yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimining ahamiyatini yanada oshirish, xalqaro multimodal va intermodal

[6]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).

[7]https://president.uz/uz/lists/view/5415

tashuvlarining rivojlanishi uchun yangi infratuzilmalar ob'ektlarini barpo etishni, ya'ni tashish terminallarini shakllantirishni taqozo etadi.

YUk tashish xalqaro bozorida milliy transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va yuk tashishni tashkil qilish xizmatlarida transport-terminal tizimining ahamiyati quyidagi rasmda guruhlandi (1.1-rasm).



1.1-rasm. YUk tashishni tashkil qilish xizmatlarida transport-terminal tizimining ahamiyati

Bu borada xalqaro eksport-import yuklarni global logistik tizimlarda tashishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash masalalariga ahamiyat qaratish lozim, yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimining ahamiyati unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda rivojlanish tamoyillarini kengroq talqin etishda mazkur iqtisodiy tushunchaning mohiyatini ko'rib chiqish lozim.

Olimlarning fikricha[8] "Mamlakatimizda transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish va tranzit yuk tashuvlarini ko'paytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro integratsiya jarayonlarini faollashtirish, xususan, mintaqada savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishda mamlakatning transport-tranzit salohiyati muhim o'rin tutadi. Multimodal tashish-bir ob'ektni yagona shartnoma asosida kamida ikki transport turi bilan tashishlardir. Mazkur nostandart yondoshuv tashishni amalga oshiruvchi multimodal transport operatori (MTO) vazifasini bajaradi va transport vositalari soni va turidan qat'iy nazar barcha tashishlar uchun javobgardir".

[8]Qo'ziyev A.O'. Hududda istiqboldagi oqimlarni o'zlashtirishda logistik tamoyillarni qo'llash Transport-logistika: muammo va yechimlar" Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami.-Termiz: "TerDU NMM" nashriyoti, 2021. 15 b.

[4]Xo'jayev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari. Darslik qayta ishlangan, to'ldirilgan 3 -nashri .- T.: «O' zbekiston», 2002.— 36 b.

“Har qanday avtotransport korxonasining yuk tashish hajmi - bu tashishga mo‘ljallangan yoki ma’lum davr ichida tashilgan, tonnalarda o‘lchanuvchi yuk miqdoridir. Avtotransport korxonasining yuk ob’yomi deyilganda ma’lum davr ichida tashilgan yuk miqdorining tashish masofasiga ko‘paytmasi tushuniladi va u tonna va kilometrda o‘lchanadi[9].

Yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimi zamonaviy me’yorlardan samarali foydalanish asosida xalqaro bozorlarga chiqishni ta’minlovchi transport yo‘laklari infratuzilmalarini rivojlantirish, ko‘p tarmoqli transport tuzilmasini shakllantirish, tashish xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish orqali yuk tashish jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga erishish imkoniyatlaridir”.

Mamlakatimizda tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati doirasida zamonaviy transport tizimining yaratilishi tashkiliy-iqtisodiy, texnik-texnologik, huquqiy-me’yoriy tadbirlarning keng aholi va ishbilarmonlar doirasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga ham bog‘liqdir. Hozirgi paytda davlat transport siyosatining strategik maqsadi mamlakat, fuqarolar, yuk tashish va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish ehtiyojlarini to‘la qondirish, mamlakatimiz moddiy resurslaridan samarali foydalangan holda transport faoliyatini tashkil etishga qaratilgandir, shu o‘rinda yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimining rivojlanish tamoyillari quyidagi rasmda umumlashtirildi (1.1-jadval).

1.1-jadval

YUk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimining rivojlanish tamoyillari[10]

Tamoyillar	Tamoyillarni amalga oshirish yo‘nalishlari
1.YUklarni tashishni boshqarishning transport-terminal tizimini kengaytirish, takomillashtirish va uni baholashning ilmiy uslubiy asoslarini yaratish	– YUk tashishni rivojlantirishning zamonaviy jihatlarini hisobga olish va nazorat qilish. – YUklarni sug‘urtalash, saralash, qadoqlash, saqlash, qo‘riqlash va logistik operatsiyalarning bajarilishida tashish xizmatlarining qat’iy qoidalariga rioya qilish. -Mintaqaning tarnsport-tranzit salohiyatiga alohida e’tibor qaratish. – Xalqaro tashishlarda transport faoliyatini optimalashtirish, transport bozori faoliyatini baholash. – Logistik tizim sharoitlarida avtotransportda yuklarni tashishning optimal hajmini aniqlash.
2. YUk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimi xizmatlari samaradorligini oshirish	– YUk tashishda minimal xarjatlar bilan maksimal sinergetik samaradorlikka erishish. – Xizmat ko‘rsatish inshonchliligini oshirish uchun sifat darajasi va zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish.

[9]Muallif ishlanmasi.

	– Transport-logistik xizmatlar koʻrsatuvchi quvvatlarni rivojlantirish va optimal joylashtirish. – YUk tashish xizmatida raqobat muhitini shakllantirish va unga ta'sir koʻrsatuvchi iqtisodiy vositalarni rivojlantirish. – Hududlarda terminallarning mehmonxonalar, ovqatlanish punktlari, avtotransport uchun turish maydonlari, harakatlanuvchi qism va konteynerlarga texnik xizmat koʻrsatish va ta'mirlash zonalari bilan jihozlanishi hisobiga qoʻshimcha xarajatlarni kamaytirish.
3.Transport-terminal tizimida xizmatlar koʻrsatuvchi quvvatlarni rivojlantirish	- YUk tashishda transport egalari va xizmat koʻrsatiladigan mijozlar iqtisodiy manfaatlarining tengligiga erishish. - YAngi ish joylarini tashkil etish va investitsiyalarini jalb etish hisobiga trasnport sohalarida ish bilan bandlikni oshirish. - SHartnoma munosabatlari boʻyicha transport vositalarining egalari bilan xizmat koʻrsatiladigan mijozlar hamkorligining teng huquqliligiga erishish. - Transportdan foydalanishning maksimal darajada qulayligi, keng doirada xizmatlar koʻrsatish, mijozlarni ularga xos boʻlmagan funksiyalardan ozod qilish. - Transport-terminal xizmatlarning ishlab-chiqarish texnika bazasini rivojlantirish hisobiga yuk tashish xizmat koʻrsatishi sifatini jahon standartlari darajasiga yaqinlashtirish.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda yuk tashishni tashkil etishda transport-terminal tizimini rivojlantirish, mazkur xizmatda raqobat muhitini shakllantirish, kelgusida transport xizmatiga boʻlgan talabni yanada chuqurroq oʻrganish, bu borada innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish sohasidagi vazifalarni hal qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, halqaro yoʻnalishlarda yuk tashishni tashkil etishda transport-terminal tizimi samaradorligini oshirishning oʻziga xos xususiyatlari va tartibga solish usullarini transport sohasi shiddatli rivojlanayotgan iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarning ahamiyati tobora oshib borayotgan bir vaqtda tadqiq qilish, shubhasiz, dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
2. https://president.uz/uz/lists/view/5415
3. Qoʻziyev A.Oʻ. Hududda istiqboldagi oqimlarni oʻzlashtirishda logistik tamoyillarni qoʻllash Transport-logistika: muammo va yechimlar" Respublika

ilmiy-texnik anjumani materiallari to‘plami.-Termiz: “TerDU NMM” nashriyoti, 2021. 15.

4. Xo‘jayev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari. Darslik qayta ishlangan, to‘ldirilgan 3 -nashri .- T.: «O‘ zbekiston», 2002.— 36 b.

5. Qosimov, S. H. (2022). Yuklarni tashishni tashkil etish asosida hududlarda terminal texnologiyasini qo ‘llash logistik tizimini shakllantirish. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 214-217.

YUK OQIMLARINI QAYTA ISHLOVCHI TERMINALLAR VA OMBORXONA KOMPLEKSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Qosimov Sunnat Hatamovich, dotsent, (JizPI) “

YAngi O‘zbekistonda xalqaro yuklarni tashishda transport xizmatlariga bo‘lgan o‘sib borayotgan talabni qondirish maqsadida yuk tashishni ta’minlashda sarf-harajatlarni minimallashtirish, transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish asosida iste’molchilarning talablarini qondirishning zamonaviy kompleks uslubiyotini takomillashtirish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga etkazish, ularning tannarxini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur”[11]ligi ko‘rsatib o‘tildi.

Barcha hududlar uchun makrologistik savdo, transport va axborot tizimlarini shakllantirish va rivojlantirish birinchi darajali ahamiyatga ega, chunki u Yevropa iqtisodiy va axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvni tezlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Ko‘p sonli transport , savdo, ekspeditorlik, yuklarni qayta ishlovchi korxonalar, ishlab chiqaruvchi firmalar va mahsulot yetkazib beruvchilar ishini boshqarish va koordinatsiya qilish, iste’molchilarga samarali xizmat ko‘rsatish, o‘zagi logistik markazlar kompleksidan iborat bo‘lgan hududiy makrologistik tizimsiz umuman mumkin emas. Bu tizimning koordinatsiyalovchi va integratsiyalovchi potensiali ijroiya hokimiyati strukturalariga asoslanishi kerak va rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal etishga, transport-logistik xizmatlar tufayli iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishlar samaradorligini oshirishga, jahon standartlariga tobora yaqinlashishga, hududiy moddiy va unga doimiy yo‘ldosh (hamroh) bo‘lgan axborot va moliya oqimlarini boshqaruvning zamonaviy-logistik texnologiyalarni joriy etishga yo‘nalgan bo‘lishi kerak.

[11]https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly;http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649

Bu esa shuni koʻrsatmoqdaki shahar, hudud, mamlakat va xalqaro hamjamiyat manfaatlari masalalarini samarali hal etish uchun oʻz tarkibiga transportning barcha turlarini, transport tugunlarini, terminal komplekslarini, yuklarni qayta ishlovchi korxonalarni, bojxonalar va hokazolarni oluvchi hududning transport-logistik tizimini bunyod etish zarur.

Xususan, transport-logistik tizimining quyidagi kamchiliklarini aytib oʻtish kerak boʻladi:

-tashish hajmining kamayishi, tariflar darajasining yuqoriligi, chet el tashuvchilari bilan raqobatning kuchayishi hisobiga, transport, omborxona va boshqa ular bilan bogʻliq boʻlgan logistik xizmatlarga talabning pasayishi;

-kompleksning faoliyat koʻrsatishida marketing operatsiyalarining mavjud emasligi;

-logistik servis sifatining pastligi va jahon standartlariga javob bermasligi;

-ishlab-chiqarish-texnika bazasi, servis infrastrukturasi, transport-logistik jarayonini qoʻllovchi axborot tizimi rivojlanish darajasining pastligi;

-yagona innovasion va investision siyosatning yoʻqligi;

-amalda mavjud boʻlgan hujjatlarni rasmiylashtirish va bojxonalarda yuklarni hujjatlashtirish tartibining murakkabligi va mukammal emasligi;

-tashish jarayoni ishtirokchilari, terminallar, omborxonalar, bojxonalar, boshqa korxonalar va ular xizmatlarining isteʼmolchilari oʻzaro aloqalar va axborot almashuv aloqalari darajasining pastligi;

-transport-logistika xizmatiga qiziqishining bir-biridan anchagina farq qilishi;

-yagona normativ-huquq bazaning yoʻqligi;

-zamonaviy transport-ekspedision faoliyat logistik texnologiyalarining mavjud emasligi.

Bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib, respublikamiz transport tizimidan samarali foydalanish, multimodal va intermodal tashuvlarining rivojlanishi, yangi infratuzilma obʼektlarini barpo etishni, yaʼni tashish terminallarini shakllantirishni talab etadi. Xalqaro miqyosda ushbu multimodal tashish terminallarining kengayishi natijasida logistik markazlarga aylanishi, shu bilan birgalikda xalqaro tashuv va logistik jarayonlarini oʻziga qamrab olishiga asos boʻldi.

Tadqiqotlar natijasi shuni koʻrsatadiki, transport kompaniyalari, yuklarni joʻnatuvchilar va qabul qiluvchilar transport xizmatlari sifatini (yuklarni joʻnatish jadvallariga rioya qilish, qoʻshimcha xizmatlar koʻrsatish, er sharining istalgan nuqtasiga yuklarni etkazish) oshirish, xalqaro yuklarni tashishda transport-logistika tizimini takomillashtirish hamda transport vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga taʼsir etuvchi ilmiy texnikaviy, ijtimoiy va infratuzilma bilan bogʻliq omillarga alohida eʼtibor berishi zarur (1-rasm).



1-rasm. Xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashish tizimining tuzilishi[12]

Zamonaviy transport-logistik markazlarni tashkil etish va rivojlantirish doirasida infratuzilmaviy muammolarni echimini topish, shu bilan birga zamonaviy transport-logistik infratuzilma majmuasini barpo etish xalqaro talablardan biri hisoblanadi

“Mamlakat transport koridorlarining samaradorligini baholash maxsus mezonlar tizimi asosida amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda shartli ravishda transport koridorlarini baholash quyidagi ko‘rsatkichlar orqali amalga oshiriladi: koridorlarning yuk o‘tkazish qobiliyati (aniq koridor misolida), xalqaro ahamiyatdagi avtomobil– yo‘llarining sifat darajasi (1-toifali yo‘llar ulushi), xalqaro ahamiyatdagi temir yo‘llarning elektrlashtirilganlik darajasi, temir yo‘l relslarining eskirganlik darajasi, savdo munosabatlaridan kelib chiqib koridorga bo‘lgan extiyoj, xalqaro transport tizimi bilan bog‘langanlik darajasi, transport koridorlarining zichligi, koridorning muqobil yo‘llarga nisbatan raqobatbardoshligi tejamkorligi, koridorning rentabelligi, muqobil variantlarning mavjudligi”[13].

Yuklarni tashishning takomillashuvi transport tugunlari, saralash punktlari, yuk stansiyalari ishlarini yaxshilash, omborxonalar, port uskunalarini rekonstruksiya qilish, yangi tipdagi harakatlanuvchi qismlarni joriy qilish, transport-ekspedisiya xizmati ko‘rsatish bilan mijozlarni yanada kengroq qamrab olish, zamonaviy, yuqori darajada mexanizatsiyalashgan terminal komplekslarini (vujudga keltirish) yaratish, intermodal yuk tashuvni rivojlantirish, tashish jarayonini tashkil etishni takomillashtirish va boshqaruvning iqtisodiy uslublarini joriy etish zarurati bilan chambarchas bog‘liq.

[12]Muallif ishlanmasi.

[13]Ravshanov M.A. Yo‘l-transport majmuasi iqtisodiy salohiyati. Muammo va yechimlar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. – 196 b.

Mijozlarni kafolatlangan transport-ekspedisiya xizmati koʻrsatish, yuklarni qayta ishlash va yuklarning toʻplanishini ta'minlovchi, hamda zarur servis xizmatlari kompleksiga ega boʻlgan, zamonaviy va yuqori darajada mexanizatsiyalashgan terminal komplekslarining yoʻqligi, shaharlararo va xalqaro yoʻnalishlarda yuklarni tashish samaradorligini pasaytiradi, transport harakatlanuvchi qismidan foydalanishni yomonlashtiradi, avtotransportning, shu jumladan katta yuk koʻtarish qobiliyatiga ega boʻlgan avtomobillarning koʻchalarda, yoʻllarning qatnov qismida notashkiliy tarzda turib qolishlariga, yuklarning yoʻqolishi va ishdan chiqishiga, kriminogen holatning kuchayishiga, ekologiyaning keskin yomonlashuviga, harakat xavfsizligining pasayishiga va yoʻl tarmoqlarining yomonlashuviga olib keladi.

Yuklarni joʻnatishning jahon tajribasida qabul qilingan terminal texnologiyasiga asoslangan bir maromda ishlovchi transport-ekspedision xizmat koʻrsatish tizimining mavjud emasligi, tovarlar almashinuvi jarayonini qiyinlashtiradi, transportning harakatlanuvchi qismidan foydalanish samaradorligini pasaytiradi, umuman olganda barcha xoʻjalik kompleksining rivojlanishiga salbiy ta'sir koʻrsatadi.

Koʻp miqdordagi ogʻir yuk koʻtaruvchi avtomobillarning tashkillashtirilmagan turish joylarida uzoq vaqt bekor turib qolishlari huquqbuzarliklarning ortishiga, atrof-muhitni ifloslanishiga va avtomobil yoʻllarining oʻtkazuvchanlik qobiliyatining qisqarishiga olib keladi.

Keyingi paytlarda transport ekspedision va bojxona ombor xizmatlari bozori intensiv shakllanib bormoqda. Bojxona omborlari, omborxona, tashish transport ekspedisiya xizmatlari koʻrsatish boʻyicha qator oʻrtaliq va tijorat tuzilmalari tarmoqlari roʻyxatga olingan va faoliyat koʻrsatmoqdalar.

Oxirgi sakkiz yil ichida ayniqsa, transport ekspedisiya xizmatlari bozori intensiv tarzda rivojlandi.

Tovarlarning bemalol harakatlanishidan, ularning ishonchli saqlanishi va qayta ishlanishidan manfaatdor boʻlgan, chet el yoki yirik banklarning qoʻllab – quvvatlashlariga ega boʻlgan mamlakatimiz hamda chet el kompaniyalari terminallar qura boshladilar.

Transport-ekspedisiya va omborxona xizmatlari koʻrsatish bozorini tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, doimiy tarzda yuklarni qayta ishlash, birinchi navbatda tashqi savdo yuklarini qayta ishlash hajmlari ortib bormoqda.

Transport-ekspeditorlik va bojxona-omborxona tadbirkorligining bunchalik tez oʻsishi, uning yuqori darajadagi kommersiya samaradorligidadir. Daromad keltirish darajasi boʻyicha bojxona-ombor biznesi, faqat reklama ishi va turizmdangina orqada qoladi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly;http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649
2. Ravshanov M.A. Yo‘l-transport majmuasi iqtisodiy salohiyati. Muammo va yechimlar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. – 196 b.
3. Qosimov, S. H. (2022). Yuklarni tashishni tashkil etish asosida hududlarda terminal texnologiyasini qo ‘llash logistik tizimini shakllantirish. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 214-217.

MAMALAKATIMIZ KO`CHA YO`LLARINI OBODONLASHTIRISH VA KO‘KALAMZORLASHTIRISHDA INNOVATSION LANDSHAFT ARXITEKTURASI

Ro‘ziboboyev Azizbek Azamat o‘g‘li, assistant, (TDMAU)

Annotasiya. Mazkur maqolada Shahar landshaft dizayni maqsadlari va shahar landshaft dizayni shahar aholisining yashash muhitini sifat jihatidan o‘zgartirishi, uni yanada yoqimli va jozibali qilishi. Shaharning o‘ziga xos madaniyatini, uning aholisi orasida shahar ko‘chalarida o‘zini tutish uslubini shakllantiradi, shaharning estetik qiyofasini yaratishi va mikro iqlimni yaratish to‘g‘rida ma’kumot berilgan.

Kalit so‘z: Shahar landshaft dizayn, yashil hudud, ko‘ngilochar, metropol, obodonlashtirish, peyzaj, tabiiy element, badiiy usul, texnologiya, hudud, funktsional, o‘simlik, ekologik, kompozitsiya.

Megapolislarning o‘sishi bilan shahar ichida yashash muhitini tashkil etish, uni yashil hududlar bilan boyitish zarurati paydo bo‘ldi. Uyg‘unlikni fan sifatida o‘rganadigan landshaft dizayni bo‘yicha mutaxassislar dekorativ kompozitsiyalar, yashil maydonlar, shahar landshaft dizaynining turli elementlari orqali katta maydonlarda sanoat joylari, turar-joy massivlari, dam olish va ko‘ngilochar joylarni birlashtirishga tayyor holatga keltirish.

Shahar landshaft dizayni maqsadlari. Shahar landshaft dizayni shahar aholisining yashash muhitini sifat jihatidan o‘zgartirishi, uni yanada yoqimli va jozibali qilishi mumkin. Bu shahar ta'tilining o‘ziga xos madaniyatini, uning aholisi orasida shaharko‘chalarida o‘zini tutish uslubini shakllantiradi, shaharning estetik qiyofasini yaratadi va mikroiqlimni to‘g‘rilaydi. Zamonaviy Metropol uyg‘un, qulay, ekologik toza bo‘lishi kerak. Shahar ichida har bir hudud o‘z vazifasini bajaradi. Bu yo‘l, to‘xtash joyi, piyodalar yo‘li, dam olish maskani, tijorat yoki jamoat maydoni bo‘lishi mumkin. Peyzaj dizaynining maqsadi-qulaylik va

xavfsizlikni ta'minlash orqali hududning funksionalligi va obodonlashtirishini yaxshilash uchun yechimini toppish va taklif qirgizish. Shahar hududlarini obodonlashtirishning oʻziga xos xususiyatlari. Shahar landshaft dizayni-bu oʻsimliklarning tirik dunyosiga murojaat qilish orqali mavjud elementlarni hisobga olish va yangilariniyaratish san'ati.

Obodonlashtirish boʻyicha shahar dizayni loyihasi keng koʻlamli vazifadir, chunki u sun'iy relyefni, shu jumladan suv havzalarini yaratish, oʻsimliklar va materiallarni tanlashni oʻz ichiga oladi. Shahar boʻylab keng qamrovli ishlarsiz koʻchalarning goʻzal manzarasini tasavvur qilib boʻlmaydi. Shahar muhitini obodonlashtirish yondashuvlari. Sobiqvet va postsovet turar joylari hudud dizayniga toʻgʻri yondashuv yoʻqligi sababli zerikarli va zerikarli koʻrinadi. Yangi qurilgan turar-joy majmualari butunlay boshqacha koʻrinadi. Ishlab chiquvchilar hovlilarni, toʻxtash joylarini, maydonlarni obodonlashtirish smetasiga kiritish orqali landshaft dizaynerlarining yutuqlarini amalga oshirishga intilishadi.

Peyzaj goʻzalligini saqlab qolish uchun tajribali bogʻbonlar ishga jalb qilinadi Yirik landshaft studiyalari byudjetni taqsimlovchi davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish tajribasiga ega, shahar muhitida oʻz gʻoyalarini amalga oshirish orqali tanlovlarda muntazam ishtirok etadi Shahar hududini koʻkalamzorlashtirish inson, uning faoliyati, tabiat oʻrtasidagi munosabatlarda uygʻunlikni ta'minlaydi. U toʻrt yoʻnalishda amalga oshiriladi:

Ushbu yoʻnalish, birinchi navbatda, mavjud tabiiy elementlarni saqlab qoladi: oʻsimliklar, yer faunasi, havo boʻshliqlari, suv. Obodonlashtirish va obodonlashtirish ekologik maqom sifatini oshirish, tabiatni muhofaza qilish va tiklash, rayonlashtirish, shahar hududini ratsionalizatsiya qilishga qaratilgan. Texnologik yoʻnalish suvni, havoni tozalashning texnik vositalaridan foydalanishga, tabiiy energiya manbalaridan foydalanishga, chiqindisiz tsikllarga asoslangan.

Texnologik va operatsion yoʻnalish qoʻshimcha joylarni — suv osti, er osti, sun'iy sirtlarni yaratish va tartibga solishni oʻz ichiga oladi. Biz hududni vertikal ravishda obodonlashtirish haqida unutmasligimiz kerak-shahar landshaftining qavatlari, koʻpriklar, binolarning tomlari Kompozitsion. Bunday holda, biz shakllar bilan ishlash haqida gapiramiz. Kompozitsion qarorlar ulardagi odamlarning psixologik holatiga ta'sir qiladi. Toʻqimachilik, toʻqima, yorugʻlikni aks ettirish va yutish qobiliyati kabi materiallarning fazilatlari qoʻllaniladi. Ularning yordami bilan boʻshliqni vizual ravishda ajratish yoki ajratish mumkin, shu bilan uning funktsiyalarini aniqlash mumkin Badiiy usullar majoziy vositalardan foydalanadi, masalan, tabiiy shakllarga taqlid qilish: toʻgʻridantoʻgʻri yoki kontseptual. Samarali usul ekomorfizmdiroʻrmon, tog ' oqimi, qumli qirgʻoq va boshqa landshaftlarning fazoviy modelini shahar hududiga oʻtkazish zarur. Shahar hududini takomillashtirish masalasi nafaqat yovvoyi tabiat uchastkalarini saqlab qolish, balki

megapolislarning asfalt choʻllarini buzadigan yashil hududlarning keng tizimini yaratishdir.

Rivojlangan davlatlar tajribasini oʻrganayotganda, texnologiya sun'iy va tabiiy ekologik muvozanatni yaratish va saqlashga xizmat qilganda, oʻsib borayotgan sanoat vatabiat oʻrtasidagi ziddiyatni hal qilishning eng yaxshi usullarini olish kerak Shahar muhitini obodonlashtirish bosqichlari. Shahar landshaft dizayni bilan hamma narsa bir xilmutaxassislarni tanlash, obodonlashtirish guruhlari eng yaxshi natijaning kalitidir. Oʻsimliklardan foydalangan holda hajmli fazoviy echimlarni tanlashga qodir me'morlar. Oʻsimliklar hayotini joylashtirish va qoʻllab-quvvatlash uchun texnik imkoniyatni ta'minlaydigan muhandislar. Shuningdek, peyzaj dizaynerlari, ularning maqsadi va hududning funktsional imkoniyatlarini hisobga olgan holda oʻsimliklarning gamutini tanlash vazifasi berilgan.

Ushbu mutaxassislarsiz zamonaviy shaharda ekologik landshaft yaratish qiyin boʻladi Peyzaj ishlari izchillikni talab qiladi. Ish boshlanishidan oldin landshaft ma'lumotlari toʻplanadi. Geodezik tadqiqotlar olib boriladi, oʻlchamlari aniqlanadi, erning yuqori va past nuqtalari, suv havzalari qayd etiladi. Ushbu bosqichning natijasi kelajakdagi loyiha uchun eskiz va chizmalardir. Quyidagi kerakli ma'lumotlar quvurlar, kabellarning joylashishi. Kelajakdagi obodonlashtirishni rejalashtirishdan oldin, er osti suvlari chuqurligi uchun tuproqni oʻrganing Barcha ma'lumotlar yigʻilganda, mutaxassislar eskiz va ishchi hujjatlarni tayyorlaydilar: bosh reja, parchalanish chizmasi, muhandislik tizimlari loyihalari, dendroplan, smeta, ishlarni tashkil etish rejasi.

Peyzaj studiyalari loyihaning barcha bosqichlarini tayyorlaydi, hujjatlarni ishlab chiqadi, tayyorgarlik va ishlarning qoidalariga va ketma-ketligiga rioya qiladi Shahar muhitida landshaft dizayni texnikasi. Landshaft kompozitsiyasini yaratish uchun keng maydon shahar maydonlari va bogʻlardir. Sobiq fermer xoʻjaliklari — ilgari tashlab ketilgan sanoat maydonlari yoki qishloq xoʻjaligi hududlari koʻpincha ishga qabul qilinadi. Transportni rivojlantirish, shuningdek, oʻtish joylarining ishlashini oʻzgartirishni, transport yoʻllarini ajratishni, qulay toʻxtash joylarini va piyodalarni koʻchirish uchun joylarni talab qiladi. Masalan, Anjey vokzali maydoni mantiq va funksionallik qonunlariga toʻliq boʻysunadi. Avtomobillarning tranzit oqimi piyodalar hududlaridan yashil chiziq bilan samarali himoyalangan.

Shaharning kirish joylarida jonli landshaft kompozitsiyalarini yaratish-dam olish, ekologiya va koʻkalamzorlashtirishning muvaffaqiyatli yoʻnalishi. Metropoldan chiqishda katta miqdordagi avtoulovlar yoʻllarni ortiqcha yuklaydi, shahar havosini ifloslantiradi. Ushbu muammo Shanxayda uzoq muddatli obodonlashtirish orqali bartaraf etildi. Xuddi shu usul bilan gaz bilan ifloslanish muammosi hal qilindi. Shahar ichida siz keng hududlarni oqilona foydalanishga ishora qilmasdan koʻrishingiz mumkin va sun'iy ravishda qurilgan tabiat sanoat

ob'ektlarining shahar muhitiga zararli ta'sirini samarali ravishda kamaytiradiShahar hududlarini obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish muammolari. Afsuski, Markaziy bogʻlarni, maydonlarni obodonlashtirishga chekka hududlarga qaraganda koʻproq e'tibor qaratilmoqda.

Turar-joy massivlari va uxlash joylari koʻp narsani talab qiladi. Oyoq osti qilingan oʻtlar, singan asfalt, tiqilib qolgan drenajlar, singan oʻyin maydonchalari postsovet davridagi notinch hududlarning oʻziga xos belgilaridir. Agar hovlilarni obodonlashtirishga urinishlar amalga oshirilsa, unda faqat uning tashabbuskor aholisi kuchlari tomonidan gulzorlar, oz sonli butalar bilan cheklangan. Shaharni obodonlashtirishglobal shahar darajasida yaratilishi kerak boʻlgan loyiha-takliflarni ishlab chiqih.

Xulosa. Dunyoda oʻnlab yillar davomida shahar landshaft dizaynidan foydalanish amalda boʻlib kelgan, bizda esa bu soha e'tibordan chetda qolgan. Ushbu sohadagi mutaxassislarning roli xususiy uchastkalarda landshaftlarni yaratishga toʻgʻri keladi. Shaharlar landshaft dizaynini joriy etishni hisobga olmagan holda qurilishda davom etmoqda. Mamlakatimizda barqaror shahar insonlar turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan yashil iqtisodiyotni qoʻllabquvatlovchi sogʻlom turmush tarzini yoʻlga qoʻyish, innovatsion landshaft loyhalarini rivojlantirish va shaharsozlik tamoyillari asosida tadbiq etishdan iborat. Megapolislar ehtiyojlari uchun hududlarni rivojlantirish atrof-muhitni tiklash usuli va keng koʻlamli landshaft dizayni yordamida birlashtirilganda, dizaynerlar xususiy kichik qurilish sohasidan chiqib, toʻliq tabiiydizaynga ega zamonaviy shaharni oʻzlashtirish imkoniyatiga ega boʻlish.

Adabiyotlar

1. Markaziy Osiyoda dizaynni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy - nazariy anjumani materiallari toʻplami. Toshkent “Yangi nashr” nashriyoti 2007

2. THE CITY OF TERMEZ DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS (First name of Termez) Roʻziboboyev.A.A

3. Roʻziboboyev.A.A Shaharsozlikda shovqindan himoya qilishning choratadbirlari arxitekturaviy tarxiy uslublar

4. OLD TERMEZ IN HISTORICAL SOURCES (XIX-EARLY XX CENTURIES) Roʻziboboyev.A.A

5. Akilova K. “Oʻzbekistonda dizaynning rivojlanish istiqbollari” Toshkent. 2006 y. (Respublika ilmiy-nazariy anjumani tezislar toʻplami).

6. UMUM TA’LIM MAKTABLARNING INOVATSION TA’LIM TIZIMI ASOSIDA TASHKILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI (Oʻzbekiston miqyosida arxitekturaviy loyihalash asosida) Roʻziboboyev.A.A

SHAHAR AHOLISIGA JAMOAT TRANSPORTIDA XIZMAT KO‘RSATISH KO‘LAMINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISH

Usanov Abdulxakim Eshanqulovich, katta o‘qituvchi (TerDMAU)
Choriyev Bekzod Urazovich, magistrant, (TerDMAU)

Zamonaviy usullar va texnologiyalar - shahar aholisiga samarali, tezkor va qulay jamoat transporti xizmatlarini taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usullarni o‘rganib tahlil qilish, yangi imkoniyatlarni aniqlash va jamoat transport sohasini rivojlantirishga sezilarli darajada yordam beradi. Yo‘l va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish shahar aholisiga jamoat transportida ishonchli xizmat ko‘rsatishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Quyidagi usullar yo‘l va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishda foydalanilishi mumkin:

- Yo‘llar va yo‘lovchilar uchun texnologiyalar: Yo‘l va yo‘lovchilar uchun texnologik imkoniyatlardan foydalanish, trafik muammoalarini yechish hamda transport vositalarining tezligini oshirishga yordam beradi. Raqamli yo‘llar, avtomatik signalizatsiya tizimlari, yo‘l holatini ko‘rib chiqish sensorlari, trafik nazorati uchun CCTV kameralar kabi vositalar yo‘lni boshqarishda yordam beradi.

- Alohida transport vositalari uchun integratsiya: Shaharda bir nechta transport vositalari (avtobuslar, metro, tramvaylar, taksilar) kabi transport vositalari mavjud bo‘lishi mumkin. Bu transport vositalarini integratsiya qilish, ular o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va boshqa yordamchi xizmatlarni ta’minlashga imkon beradi. Bunga erishish uchun yagona to‘lov tizimi, bilet tizimi va ma’lumotlar almashinuvi tizimlarini yaratish kerak.

- Raqamli tizimlar va ilovalar: Raqamli tizimlar va ilovalar, aholi uchun transport xizmatlaridan oson foydalanish, jamoat transport harakati va yo‘l holati haqida ma’lumotlar olish, elektron chiptalar, yo‘l xaritalari va qatnov grafigini bilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ushbu tizim mobil ilovalar, onlayn platformalar va boshqa internet asosli xizmatlar orqali transport sohasida innovatsiyalarni taqdim etishga yordam beradi.

- Yagona to‘lov tizimi va raqamli chiptalar transport sohasida xizmat ko‘rsatishning zamonaviy usullaridan biridir. Mazkur tizimlar aholiga transportdan foydalanish uchun to‘lovlarni tez va ishonchli amalga oshirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, jamoat transporti xizmatining sifatini belgilovchi muhim parametrlar ham bor(1-rasm). Ushbu parametrlar imkon qadar to‘liq amaliyotga tadbiq etilsa, yo‘lovchilarning jamoat transportiga bo‘lgan ishonchi yanada ortadi.



1-rasm. Yo‘lovchilarga transport xizmati ko‘rsatish sifatini belgilovchi omillar

Qolaversa, transport xizmatini ko‘rsatuvchilar bilan yo‘lovchilar o‘rtasida bog‘lanishlarni yo‘lga qo‘yish ushbu sohani yanada rivojlanishiga olib keladi. Chunki, yo‘lovchilar o‘zlarining taklif va shikoyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat ko‘rsatuvchilarga yo‘llashi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, kengaytirilgan umumiy transport tizimi yaratish transport xizmat ko‘rsatuvchilari va aholi o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi va boshqaruvni osonlashtiradi. Ma’lumot almashinuvi tizimlari transport vositalari holatini, jadvalini, chegaralarini va trafik holatini aholiga taqdim etishga yordam beradi. Boshqaruv tizimlari esa transport vositalarini monitor qilish, jadvallarni rejalashtirish, biletlar va to‘lovlarni boshqarishni osonlashtiradi. Kengaytirilgan umumiy transport tizimi, multimodal transport tizimini ta’minlayadi. Bu tizimda yo‘lovchilar bir chipta orqali turli transport vositalaridan foydalanishi mumkin. Misol uchun, avtobusga chiqish, keyin esa metroga o‘tish va metrodan chiqib taksiga o‘tish uchun bir chiptadan foydalanishi mumkin bo‘ladi. Bu multimodal transport tizimi aholiga turli transport vositalarini birlashtirish va bir chipta orqali qulaylik va samaradorlik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sheraliyevich P. B., Urazovich C. B. Shahar Aholisini Jamoat Transportida Tashishda Harakat Muntazamligini Oshirish Yo ‘Llari (Termiz Shahar 15-Yo ‘Nalishli Avtobus Misolida) //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 35-38.
2. Abduraximovich Q. S., Urazovich C. B., Djurayevna S. N. TERMIZ SHAHRIDA MAVJUD BO ‘LGAN AVTOBUS BEKATLARINING

TAHLILI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 13-18.
3. Sheraliyevich P. B., Abduraximovich Q. S., Urazovich C. B. TERMIZ SHAHRIDA MAVJUD BO ‘LGAN JAMOAT TRANSPORTI YO ‘NALISHLARINING QAMROV KENGLIGINI OSHIRISH: Termiz davlat universiteti “Transport tizimlari va inshootlari” kafedrasi, DSc, dotsent, Qo‘ziyev Abdimurot O‘roqovich taqrizi ostida //IQRO INDEXING. – 2024. – T. 9. – №. 1. – C. 90-95.

YUK AVTOMOBILLAR HARAKAT XAVFSIZLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TORMOZLANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Shokirov Ozod G‘aybulla o‘g‘li, doktorant (TDTrU)

Hozirgi kunda transport infratuzilmasi rivojlanib borayorganligi sababli, jamoat, shaxsiy va ayniqsa, yuk tashuvchi transport vositalari o‘rtasida YTH toborko‘payib bormoqda. Avtomobillarning xavfsizlik bilan ta’minlangan barcha afzallik va qulayliklarni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun transport vositalarini xavfsiz boshqarishning eng muhim sharti bu - to‘xtash qobiliyati ya’ni ishonchli tormoz tizimi bilan ta’minlash zarur. Avtomobil transportida ishlatiladigan tormoz tizimlari haydovchi, yo‘lovchilar, tashilgan yuk va transport vositasining o‘zi xavfsizligini ta’minlashning eng muhim quyi tizimidir. An'anaviy (mexanik) tormoz tizimlari, juda samarali bo‘lsa ham, ayniqsa favqulodda vaziyatlarda samaradorlik darjasi pastroq. Ulardan biri tormozlash samaradorligining haydovchi tajribasiga bog‘liqligi. Shunday qilib, buning yo‘qligida bir vaqtning o‘zida harakat traektoriyasini, yo‘ldagi jismlarni, tezlikni va g‘ildiraklarning holatini kuzatish juda qiyin vazifa bo‘lib tuyuladi. Agar to‘satdan favqulodda vaziyat yuzaga kelsa, haydovchi qo‘rqib ketishi va tormoz pedalini to‘liq bosib qo‘yishi mumkin, bu esa o‘z navbatida maksimal tormozlash kuchini g‘ildirakka o‘tkazishga olib keladi va katta ehtimollik bilan uni to‘sib qo‘yadi. Hodisalarning bunday rivojlanishi vaziyatni yanada murakkablashtiradi, bu ayniqsa yuqori inertsiyaga ega bo‘lgan transport vositalarida ya’ni yuk avtomobillari uchun. Mexanik tormozlarning keyingi muammosi ularning ishqalanish materiallaridan cheklangan foydalanishidir. Masalan, pnevmatik tormoz tizimlari gidravliklarga qaraganda ko‘proq bosish kuchi bilan samarali tormozlashni ta’minlaydi [1], ammo ularning vaqti gidravlik tizimlarga qaraganda past.

Ushbu muammoni hal qilish elektron boshqaruv blokini ishlab chiqish bo‘lishi mumkin [2], u uzatish muhitini - havodan elektronga almashtirish orqali javob vaqtini sezilarli darajada tezlashtiradi. Bunda signal uzatish tezligi ancha yuqori.

Texnologik taraqqiyotning tez o‘zgarishi tormoz tizimining samaradorligini oshirish va xavfli vaziyatlar xavfini kamaytirish uchun mo‘ljallangan intellektual tizimlarning rivojlanishiga olib keldi.

Yaratilgan tizim tormoz kameralarida bosim, g‘ildirak tezligi, tormoz prokladkalarining eskirish darajasi, 10 km/soat dan yuqori tezlikda tormozlash jarayonlarini nazorat qiladi. O‘z-o‘zini diagnostika qilish amalga oshiriladi va agar kuzatilgan parametrlarning talab qilinadigan qiymatlaridan og‘ishlar aniqlansa, tizim tormozlash jarayonini boshqarishni to‘liq haydovchiga o‘tkazadi. CAN-Control Area Network ya’ni boshqaruv hudud tarmo‘g‘i “aqlli” kirish/chiqish qurilmalari, sensorlar va ba’zi mexanizmlardan tashkil topgan tizim hisoblanadi. CAN orqali elektron tormoz tizimining boshqaruv bloki va asboblar paneli boshqaruv bloki bilan aloqa qiladi.

O‘z funksiyalarini bajarish uchun tizim quyidagilarni ta’minlashi kerak:

1 Tashqi g‘ildirak tezligi sensorlaridan kirish signallarini qabul qilish va qayta ishlash.

2 O‘rnatilgan bosim sensorlari yordamida pnevmatik kanallarda bosimni o‘lchash.

3 Elektr zanjirini yopish uchun ishlaydigan tashqi tormoz padining eskirish datchiklaridan signallarni qabul qilish va qayta ishlash;

4 Elektromagnit klapanlarning sariqlariga to‘rtburchaklar impulslar shaklida nazorat harakatlarini berish.

5 SAE J1939 standartiga muvofiq CAN interfeys shinasi orqali ma’lumotlarni chiqarish va qabul qilish.

6 O‘rnatilgan solenoid klapanlar yordamida ulangan tormoz kameralarida bosimni nazorat qilish.

7 Uzluksiz monitoring rejimida tizim elementlarini diagnostikasi.

8 Elektr ta’minoti davrlarida o‘tkaziladigan shovqinlarga qarshilik va polaritning o‘zgarishi.

Ushbu funksiyalarni amalga oshirish uchun 1-rasmda ko‘rsatilgan o‘qni tormozlashni boshqarish tizimining blok diagrammasi ishlab chiqilgan.



1-rasm. Tizimning elektron sxemasi

.Tizimni ishga tushirish va o‘z-o‘zini diagnostika qilish jarayoni quyidagicha ta’riflanishi mumkin: haydovchi tomonidan kontaktni kalitini aylantirish tizimga 24V kuchlanish kuchlanishini beradi;

-tizim tomonidan iste'mol qilinadigan quvvatni kamaytirish uchun aylantirilgan kuchlanish boshqaruv blokiga etkazib beriladi va tizimni ishga tushirish boshlanadi;

- datchiklar va boshqariladigan qurilmalar diagnostikasi amalga oshiriladi;

- nosozliklar aniqlanganda, tizim endi o‘z funktsiyalarini bajara olmaydi, boshqaruvni to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydovchiga o‘tkazish rejimiga o‘tadi - u “orqali va orqali” ishlaydi va CAN avtobusi yoki displey yordamida nosozliklar mavjudligi haqida xabar beradi [3]. Agar o‘z-o‘zini tashxis qo‘yish muvaffaqiyatli bo‘lsa, boshqaruv bloki tizimni ish rejimiga o‘tkazadi va avtomobil harakatlanishini kutadi. Ishlash rejimida, belgilangan funktsiyalarni to‘g‘ri bajarish qobiliyatini tekshirish uchun vaqti-vaqti bilan barcha tizim komponentlarini takroriy diagnostika qilish amalga oshiriladi.

Boshqaruv bloki g‘ildirak tezligi sensorlaridan (WRS) keladigan signalni qayta ishlash orqali, shuningdek asboblar paneli boshqaruv blokidan va kerak bo‘lganda dvigateldan CAN avtobusi orqali avtomobil tezligi haqida ma’lumot oladi. Haydovchi soatiga 10 km dan oshganda, tizim tormozlashda haydovchiga faol yordam bera boshlaydi. 2-rasmda Ishqalanish koeffitsienti μ ning g‘ildirak sirpanishiga bog‘liqlik *grafigi ko‘rsatilgan.*



2-rasm. Ishqalanish koeffitsientining g‘ildirak sirpanishiga bog‘liqligi grafigi

Agar $\lambda = 0\%$ bo‘lsa, g‘ildiraklar ularga yo‘lning ishqalanish qarshiligining ta’sirisiz erkin aylanadi. Sirpanish koeffitsienti $\lambda = 100\%$ g‘ildirakning qulflangan holatga o‘tgandagi sirpanishiga (surushiga) to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, tormozlash paytida avtomobilning tormozlash samaradorligi, barqarorligi va boshqarilishi sezilarli darajada kamayadi [4].

Ko‘pgina yo‘l sirtlari uchun λ qiymatlari 10 dan 30% gacha, μ maksimal qiymatiga etadi, bu sizga tormozlash samaradorligi va g‘ildirakni qulflash o‘rtasidagi optimal muvozanatni saqlashga imkon beradi. Favqulodda tormozlash vaqtida tormoz pedalidagi sezilarli kuch g‘ildiraklarning qulflanishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, shinalarning yo‘l yuzasiga ishqalanish kuchi keskin zaiflashadi va haydovchi vaqti-vaqti bilan tormoz pedalini bo‘shatmasa, mashina boshqaruvini yo‘qotadi.

Boshqaruv bloki g‘ildirak tezligini o‘lchaydi, avtomobilning haqiqiy tezligini hisoblaydi, g‘ildirak sirpanishini hisoblaydi, g‘ildirak sirpanishi ortishi bilan mos keladigan tormoz bosimini cheklaydi yoki kamaytiradi va tormozlash jarayonini muvofiqlashtirish va qo‘shimcha ma’lumot olish uchun elektron tormoz tizimining boshqaruv bloki bilan bog‘lanadi, shu jumladan avtomobilning tezlashishi haqida.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, olib borilgan eksperiment tadqoqot ishida ko‘rib chiqilgan strukturaviy diagramma asosida uning elektr funktsional diagrammasi ishlab chiqildi, funktsional birliklarni tanlash amalga oshirildi [5] va elektr sxemasi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. ДрайвНН [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.drivenn.ru/journal/novosti/3-prichiny-pochemu-na-gruzovikah-tormoza- pnevmaticheskie-a-ne-gidravlicheskie-id31600. Дата доступа: 10.12.2023

2. Драйв ру [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.drive.ru/technic/4efb331400f11713001e38cb.html. Дата доступа: 10.12.2023
3. Shokirov O. G‘. (2023). Haydovchiga yordamchi innovatsion tizimlar uchun bosh harakati bilan ko‘z imoishoralarini tahlil qilish. MEXANIKA VA TEXNOLOGIYA ILMIY JURNALI, MAXSUS SON 2023, № 2 (5). 131-138. ttps://api.scienceweb.uz
4. O.G‘.Shokirov(2023). TO‘QNASHUVNING OLDINI OLISH UCHUN HAYDOVCHIGA INTELLEKTUAL O‘LCHOV ASBOBLARI BILAN YORDAM BERISH TIZIMI. 595-598. Sanoat va mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar” respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, I qism. https://www.academia.edu/113956308.
5. Shokirov O. G‘. (2023). Shahar aholisi o‘rtasidagi haydovchilarga yordam berish tizimini (ADAS) qo‘llash orqali yo‘l-transport hodisalarining oldini olish. MEXANIKA VA TEXNOLOGIYA ILMIY JURNALI, MAXSUS SON 2023, № 2 (5). 138-145. https://api.scienceweb.uz

RAQAMLI LOGISTIKA FUNKSIONAL SOHALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Shomirzayev E. assistent (TerDMAU)
Mamayusupov Sh. talaba (TerDMAU)

Hozirgi sharoitda zamonaviy logistika texnologik va yuk ko‘tarish, tashish asbob-uskunalariga bo‘lgan talablarni individuallashtirilayapti, bu har bir uskunalarni har bir aniq sharoitga to‘liq moslashtirishdir. Jumladan: - Logistika tizimlar tuzishda va ularning ayrim qismlarini loyihalashda texnologik jarayonlarning inson talablariga mos bo‘lishini ko‘zda tutishi kerak, ya’ni zamonaviy mehnat sharoitlari yaratilishi kerak, atrof-muhitga salbiy ta’sir qilmaslik kerak; - butun logistik tizim (sep) davomidagi xarajatlarni hisobga olish va bozorga moslashish (orientirovatsya). - servis xizmatlarini zamonaviy darajada rivojlantirish, uning yuqori sifati, ishonchliligi, tez moslashuvini ta’minlash. Odatda logistik tizimlar noaniq sharoitda ishlaydi. Bu bozor kon’yukturasida transportning ishlashi tasodifiy jarayonlar sodir bo‘lishi bilan bog‘liq. Shu tufayli logistik tizimlarning muhim xususiyatlaridan biri - moslashish xususiyati. Logistik tizimlar ishlashining asosiy tamoyillaridan biri - yuqori darajadagi ishonchliligi va mustahkamligi. Logistik tizimning ishlashi mustahkam bo‘lishida ishlab chiqarish, tarqatish va sotish jarayonlarining to‘g‘ri, aniq rejalashtirilishi katta ahamiyatga ega. Bu yerda

shuni ham xisobga olish kerakki, juda tezlik bilan bajariladigan (operativ) rejalarga nisbatan, qat’iy rejalarning roli kattaroq. Bunday strategik rejalarning yuqori darajada ishonchli bo‘lishi uchun atrof-muhit vaziyati, birinchi holatda bozordagi vaziyat har xil bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarni o‘rganish va tug‘ilgan savollarga strategik javoblar aniqlash zarur. G‘arb mutaxassislari fikricha, strategik rejalashtirish firmalarning o‘z raqiblari bilan kurashida eng qudratli qurol bo‘lib hisoblanadi. Strategik rejalashtirishning asosi - ilmiy darajada. Ilmiy darajani tayyorlashda tarixiy va ekstrapolyatsiya usullaridan foydalaniladi.

Strategik rejalar ko‘pincha aniq jarayonlarni emas, aniq maqsadlarni ko‘zda tutadi. U strategik rejani tez bajariladigan rejadan farqlaydi. Tez bajariladigan rejalar aniq faoliyatni ko‘zda tutadilar, masalan, taqsimlash yoki sotish jarayonlarini logistika xalq xo‘jaligiga sanoatlar nuqtai nazaridan emas, mintaqalar nuqtai nazaridan qaraydi.

Kichik va o‘rta korxonalarga tez-tez, davriy holda keng nomenklaturadagi material oqimlari yetkazib turiladi, shuning uchun hududiy ixtisoslashtirish (spesializatsiya) va ixchamlashtirish bu korxonalar uchun katta ahamiyatga ega. Shunday vaziyatlarda materiallar oqimiga samarali xizmat qilishda mintaqaviy taqsimlash bo‘yicha markazlar tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday markazlarda birinchi navbatda yuqori samarali servisga e’tibor beriladi. Bunday servis tufayli har xil xizmat turlari - taxlashdan boshlab, to yuk ortish-tushirish ishlarigacha ta’minlanadi.

Faqat zamonaviy texnika vositalaridan foydalangan holda, logistik tizim yuqori samarali va mustahkam bo‘lishi mumkin. Logistik tizim axborot oqimlarini qulay boshqarishning texnikaviy asosi - ko‘p darajali ABSdir. Shuning uchun logistika va kibernetika g‘oyalarining (idei) asosiy qismi - logistika tizimlarining yuqori samarali bo‘lishi shartidir.



Logistik tizimlar ishlashini tahlil qilishda umumiy xarajatlar ahamiyati katta. Ombor xo‘jaligi xarajatlari, zahiralar, transport, ishlab chiqarishni rejalashtirish, buyurtmani bajarish xarajatlari va boshqa xarajatlar bir-biriga bog‘liq. Ayrim xarajat turlarini kamaytirishga qaratilgan harakatlar butun tizimning ishlashidagi umumiy xarajatlarning ortib ketishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun logistikaning har

qanday faoliyatiga yangilik kiritishdan oldin, bu o‘zgartirish oqibatlarini har tomonlama tahlil qilish kerak. Tizim qismlarining proporsiyalari aniqlanishi, qiymat tavsiflarining samarasi ko‘rib chiqilishi, boshqarish siyosati tuzilishi kerak, yangi texnologiyalar, asbob-uskunalar hisobga olinishi kerak. Chunki tizimning tubdan (korennoy) o‘zgarishi, qaytadan tashkil qilinishi, xarajatlarning keskin ortib ketishga olib keladi. Shu bilan birga, ilgaridan logistik tizimlarning evolitsion yo‘llar orqali o‘zgarish hollari aniqlanib, hisobga olinadi. Bundan tashqari, sanoat menejmentining logistika muammolariga nisbatan e’tibori oshayotganining bir necha sabablari bor. Alohida olingan ta’minlash, ishlab chiqarish yoki taqsimlash jarayonlarining samarasini oshirish - umuman qaraganda - samarasi kam usuldir. Logistik tizimning qismlaridan har biri butun tizim muvozanatini buzishi mumkin. Amalda logistikaning ana’naviy maqsadlari ko‘pincha marketing yoki ishlab chiqarish maqsadlariga to‘g‘ri kelmaydi. Masalan, korxonalarning ishlab chiqarish bo‘limlari tayyor mahsulot zahiralarini ko‘paytirishga harakat qiladi, aks holda, sotish jarayonida mahsulot kam yoki umuman yo‘qligi sababli yo‘qotishlar ro‘y berishi mumkin. Boshqa misol, transport boshlig‘i faqat transport tizimiga javobgar bo‘lsa, u transportning qulay yo‘nalishini tashkil qilish, transport tizimidagi zahiralar miqdorining kamayishida, umuman, transport tizimining daromadi kamayishiga mutlaqo qiziqmaydi. Logistikaning maqsadlari - maqsadlarga teskari. Logistik tizimlar materiallar oqimini boshqarish bilan bir qatorda taqsimlanish jarayonini nazorat qilishda asosiy qurol bo‘lib qolayapti. Ilmiy texnika taraqqiyotining yutuqlari logistika tizimi qismlarining birlashib, mustahkam bo‘lishini tezlashtirdi. Asosiy yutuqlardan biri - kuchli kompyuterlar, rivojlangan ma’lumotlar bazasi va axborot etkazish tizimiga asoslangan buyurtmalar bilan ishlash tizimining rivojlanishi kerak.

Adabiyotlar

1. И.Д.Афанасенко, В.В.Борисова Цифровая логистика. Учебник для вузов. — СПб.: Питер, 2019, 272 с.

XALQARO TASHUVLARDA O‘ZBEKISTON TRANSPORT TIZIMINING AFG‘ONISTON - POKISTON ORQALI KARACHI PORTIGA CHIQISH IMKONIYATLARI TAHLILI

Yo‘ldoshev D.F. PhD., (TDTrU)
Maxsumov I.A. o‘qituvchi, (TDTrU)

Annotatsiya: Ushbu maqola transafg‘on xalqaro yuklarni tashishda koridorini yaratishda ishtirok etgan davlatlarning o‘rni, shuningdek, uning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Vaqt ,harajatlar, transafg‘on koridori, multimodal tashuvlar, export-import, port.

Kirish. Bugungi kunda jahonda iqtisodiyot va aholining ishonchli transport xizmatiga bo‘lgan ehtiyoji va talabini qondirish maqsadida halqaro tashuvlarda transport tizimi va uning infratuzilmasini takomillashtirish, halqaro tashuvlarda yuk oqimlarini oqilona boshqarish masalalarining muhimligini hisobga olib, birinchi navbatda halqaro yo‘nalishlarda transport aloqalarini mustaxkamlash shuningdek yangi transport koridorlarini tashkil etish muammolarini bartaraf etishga katta kuch va mablag‘ sarflanmoqda. Respublikamizda bugungi kunda mamlakat Prezidenti, Transport vazirligi hamda tizim tashkilotlari tomonidan halqaro miqyosda yuk tashish faoliyatida ishonchli transport xizmatlarini ko‘rsatish va yangi transport koridorlari faoliyatini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buni transport tizimini modernizatsiyalash, Transport turlari kesimida yuk tashish tizimini takomillashtirish hamda ularning faoliyatini halqaro darajadagi talablarga moslash kabi ko‘plab muammolar va uning yechimlarini o‘z ichiga olgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar Jumladan, Ўзбекистон Республикаси президентининг 2019 yil 7 iyundagi “Avtomobil transportida yuklarni xalqaro tashishni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4353-son karorida avtomobilda yuklarni xalqaro tashish sohasida xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish masalalarini tartibga solish bo‘yicha shartnomaviy-huquqiy bazani takomillashtirishga bog‘liq vazifalari alohida belgilab berilgan. Qolaversa tadqiqot obyekti bo‘lgan yo‘nalishda - 2021-yil iyun oyida O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida tranzit savdosi to‘g‘risidagi bitim imzolangan bo‘lib unda Afg‘oniston hududi orqali o‘tadigan yangi "Termiz - Mozori Sharif - Kobul - Peshovar" temir yo‘li Yevropa Ittifoqi davlatlarini Rossiya, O‘zbekiston, Pokiston, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan bog‘lash imkoniyatlari ko‘rib chiqilganligi mazkur yo‘nalishda O‘zbekistonning Afg‘oniston - Pokiston orqali Karachi portiga chiqish imkoniyatlarini tahlil qilish dolzarb vazifadir.

Natija va muhokamalar. O‘zbekistonning Afg‘oniston - Pokiston orqali Karachi portiga chiqish imkoniyatlarini tahlilI davomida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi o‘rganildi. So‘ngi yillarda O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi kundan kunga ortib bormoqda. Xycycан 2022-yilning mart-may oylarida Afg‘oniston orqali O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 245,2 ming tonnaga yetgan. Shundan Pokistondan import 214,9 ming tonna, eksport esa 30,3 ming tonnani tashkil etgan. Import tashuvlarida temir yo‘l transporti 59 foiz yoki 127,9 ming tonnani, eksportda esa 72 foiz yoki 21,8 ming tonnani tashkil etgan. Xozirda ushbu davlatlar savdo aloqalarida tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga

yetkazish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Transafg‘on yo‘lida multimodal xizmatlarni ko‘rsatish va infratuzilma holatini rivojlantirishda, mavjud koridorda harakatlanish imkoniyati bo‘lgan transport turlarining, yo‘nalishlar tarmog‘i va uning uzunligining, yuklarni yetkazib berish muddati va yetkazib berish xarajatlarining o‘zgarish ma’lumotlarini tahlil qilish muhim omillardan xisoblanadi.

1-jadval

Transafg‘on yo‘lida multimodal xizmatni rivojlanishda
muhim ko‘rsatkichlar tahlili

T/r	Mavjud koridorda harakatlanuvchi transport turlari	Marshrut	Tariflar (dollar)	Masofa (km)	Muddati
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**
1	Avtomobil	Toshkent – Qobul	3050	1153	3 – 4 kun
2	Avtomobil	Toshkent – Karachi	4450	2562	7 – 8 kun
3	Temir yo‘l+avtomobil	Toshkent – Mozori – Sharif – Karachi	4900	810+1892=2702 km	10 kun
4	Avtomobil	Hayratondan – G‘alabagacha	250	5	3 soat
5	Temir yo‘l	Termizdan – Hayratongacha	500	5	3 soat
6	Temir yo‘l	Hayratondan – Galaba yoki Termizga chiqib kelishi	8 mln	5	3 soat

Manba: Mualliflar tomonidan Surxondaryo viloyatida “Termiz cargo centre” MChJ ma’lumotlari tahlillari

O‘zbekiston – Afg‘oniston – Pokiston loyihaviy koridori orqali dastlab avtomobil transportida yuklarni Toshkent – Qobul yo‘nalishida tashish 3 – 4 kunda 1135 km masofani bosib o‘tadi. Agar portiga Toshkent – Karachi portiga jo‘natilsa tashish tarifi Afg‘oniston hududida 3050 $ dan 4450 $ gacha oshadi va muddati 7 – 8 kun bo‘lib, masofa 2562 kmga yetadi. Shu yo‘nalishida multimodal ya’ni temir yo‘l va avtomobil transportlari orqali tashilsa esa, Toshkent – Mozori – Sharif –

Karachi yo‘nalishida narx 4900 $, 2702 km masofada o‘rtacha 10 kun vaqt sarflanadi.



1-rasm. Transafg‘on yo‘lida multimodal tashish yo‘laklari

Afg‘onistonning Hayraton shaxridan – G‘alaba stansiyasigacha bo‘lgan 5 km masofada avtomobil transportida tashilsa, 250 $ dan 3 soatda amalga oshiriladi. Temir yo‘l transportida Termizdan – Hayratongacha 500 $ evaziga 5 km masofani 3 soatda yoki aksincha Hayratondan – G‘alaba yoki Termizga chiqib kelishi esa 5 km masofa 3 soatda 8 mln so‘mga to‘g‘ri keladi.

Xulosa. Tahlillar natijasiga ko‘ra mamlakatimizning janubiy koridori (Termiz) orqali eksport-import yuklari hajmi kundan kunga ortib bormoqda. Bu o‘z navbatida mazkur yo‘nalishdagi avtomobil va temir yo‘l tizim tarmoqlari hamda xalqaro aloqalarda mavjud bo‘lgan texnik, iqtisodiy, ijtomoiy va siyosiy muammolarning zamonaviy usullarr orqali qisqa muddatlarda bartaraf etishni taqozo etadi.

1. Transafg‘on yo‘lida multimodal xizmatni rivojlanishda aniqlangan muxim ko‘rsatkichlar tahlillariga ko‘ra ushbu yo‘nalishda tashishlar rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan tariflar siyosati va yetkazib berish muddatlari bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga alohida e’tibor berish lozim.

2. Multimodal tashish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida Transafg‘on yo‘lida (hamkor mamlakatlar hududida) logistik markazlar ishini tashkil etish loyihalarini qisqa muddatlarda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. А.В.Вельможин, В.А.Гудков, Л.Б.Миротин, А.В.Куликов. Грузовые автомобильные перевозки. М.: “Горячая линия – Телеком”, 2007- 559 стр.
2. Avtomobil va daryo transportini davlat tomonidan boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. T.: 2012

3. В.А.Топалиди, К.М.Сидикназаров, И.С. Садиков, Н.В.Чубенко, Н.В. Кузнецов. “Международные автомобилбные перевозки грузов” Учебное пособие /под редакцией В.А.Топалиди,-Ташкент.:2005.
4. Зоҳидов А.А. Марказий осиё транспорт тизимини самарали бошқариш
5. механизмини таккомиллаштириш. Ижт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2018.
6. Kuziyev A.U. Makhsumov I.,Eurasian Journal of Engineering and Technology. -Volume 12| November, 2022, pg. 40-46, 2022-yil. ISSN: 2795-7640
7. Kuziyev A.U. Makhsumov I., Planning For The Timely Delivery Of Cargo Flows On International Routes, International Journal of Formal Education Volume: 2 Issue: 6 | June – 2023 year Pg.234.-240. ISSN: 2720-6874
8. https://termezcargo.com/en/home/
9. surkhondaryodep@mintrans.uz

AVTOMOBIL TRANSPORTIDA NAVIGATSIYA TIZIMLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Suyunov Oltibek Do‘stmurodovich, o‘qituvchi (TerDMAU)
Karimov Abdulaziz, talaba, (TerDMAU)

Kalit so‘zlar. navigatsiya tizimlari, GPS, GLONASS, yonilg‘i sarfi sensori

Hozirgi vaqtda sun’iy yo‘ldosh radionavigatsiya tizimlari insoniyat jamiyatining ajralmas qismiga aylanib, uning faoliyatining barcha sohalarini qamrab oldi. Sun’iy yo‘ldosh joylashuvini aniqlash texnologiyalari turli xil texnik tizimlarda, har xil turdagi biznes jarayonlarida, kundalik hayotda, fan, ta’lim, iqtisodiyot va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy navigatsiya tizimlarini mobil aloqa tizimlari bilan birlashtiruvchi axborot texnologiyalariga bo‘lgan talabning ortib bormoqda. Harakatdagi tarkiblar bilan aloqani tashkil qilish xamda ularning makondagi koordinatalarini avtomat tarzda kuzatish va aks ettirish imkoniyatiga ega bo‘lgan xolda, korxonaning transport tarkibini boshqarish tizimlari buning yaqqol misoldir. Ko‘pgina davlatlarda turgan joyni aniqlash tizimlaridan maxsus vazifadagi (tez yordam mashinalari, xizmat avtomobillari va boshqalar) avtomobil transportining turgan joyini va xolatini nazorat qilishda keng foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda kosmosda bir nechta su’niy yo‘ldoshlar mavjud. GPS, GLONASS, GALILEO, BEIDOU, IRNSS, QZSS va boshqalar mavjud. GPS tizimida 31 ta, GLONASS tizimida esa 27 ta sun’iy yo‘ldosh mavjud.

GPS va GLONASS orbital guruhlari 24 ta kosmik apparatlardan iborat. GPS kosmik apparatlari 6 ta xar 60°da (1.a-rasm), GLONASS esa 3 ta xar 120° da (1.b-

rasm) yoyilgan orbital tekislikda joylashgan. Ma’lumotlarni uzatish uchun ketayotgan signal faza, chastota, amplituda bo‘yicha modullanadi. Shunga ko‘ra, modulatsiya fazaviy (FM), chastotaviy (ChM) yoki amplitudaviy (AM) deb ataladi. Har bir sun’iy yo‘ldoshning signal oqimi 1500 bitdan iborat 25 ta blokdan tashkil topgan. Har bir blok 300 bitdan iborat 5 ta kichik bloklarga bo‘lingan. Xabarlar oqimidagi eng muhim ma’lumotlar, odatda, xar 4 soatda yangilanadi. GPSda barcha sun’iy yo‘ldoshlar bir xil chastotada ishlaydi, lekin xar biri o‘z kodiga ega, signallar kod bo‘yicha ajratiladi.



a) *b)*

1-rasm. GPS va GLONASS orbital guruhlari fazoviy segmentlari

GLONASSda barcha signallar yuqori aniqlikdagi yoki standart aniqlikdagi bir xil kodlar bilan modullangan. Xar bir sun’iy yo‘ldosh xususiy chastotalarda ishlaydi (ya’ni, signallar chastota bo‘yicha ajratiladi).

Sun’iy yo‘ldoshlardagi yuqori barqaror tebranishli etalon generatorlar bir vaqtning uzida vaqtni saqlab turuvchi xisoblanadi. Uzatilayotgan radiosignallar uzida vaqt oni(belgi)ni aniq ko‘rsatadi. Bu onlar (belgilar) bo‘yicha yer stantsiyalarida vaqt xizmatlari yordamida vaqt shkalalari davlat etalonlari bilan solishtiriladi. Ularga ko‘ra foydalanuvchilarning apparaturasida xam o‘zgarishlar sinxronlanadi.

GPS (Global position System) - vaqt, masofa va transport vositasining joylashuvini aniqlab boruvchi sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimi. Deyarli xar

qanday xavoda, (shu jumladan, qutb hududida), sayyoramizning xar qanday nuqtasida, shuningdek, yaqin fazoda ob’ektlarini o‘rnini va tezligini aniqlab beradi.

Chet el amalyotida ma’lumki logistikada sun’iy yo‘ldosh monitoringi tizimlarining foydalanish yo‘nalishlari 2-rasmda ko‘rsatilgan.



2-rasm. Tashish jarayoni uchun sun’iy yo‘ldosh nazarot qilish tizimlari

Zamonaviy sun’iy yo‘ldosh transporti monitoringi tizimlari navigatsiya, yuk tashishni tashkil etish va tahlil qilishning o‘zaro bog‘liq elementlari hisoblanadi. Tashish jarayonini monitoring qilish maqsadlari majmuasi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Tashish jarayonining sun’iy yo‘ldosh monitoringining maqsadlari

Koʻpgina GPS tekshirgichlari va kuzatuvchilari oʻxshash funktsiyalarga ega:

✓ GPS sun’iy yoʻldoshlarining signallari asosida oʻzingizning joylashuvingizni, harakatlanish tezligini va yoʻnalishini hisoblash;

✓ tashqi sensorlarni analog yoki raqamli kirish orqali ulash;

✓ ketma-ket port yoki koʻproq ixtisoslashgan CAN interfeysi bilan jihozlangan uskunadagi ma’lumotlarni oʻqish;

✓ aloqa boʻlmagan davrda ma’lum hajmdagi ma’lumotlarni ichki xotirada saqlash;

✓ qabul qilingan ma’lumotlarni ular qayta ishlanadigan server markaziga uzatish.

Qoʻshimcha ma’lumot olish uchun transport vositasiga qoʻshimcha sensorlar oʻrnatiladi, masalan:

- yonilgʻi sarfi sensori;
- transport vositasining oʻqiga yuk sensori;
- bakdagi yonilgʻi sathining sensori;
- muzlatgichdagi harorat sensori;
- maxsus mexanizmlarning ishlashi yoki ishlamay qolishi (kran bumining aylanishi, beton aralashtirgichning ishlashi), eshik yoki kaputning ochilishi, yoʻlovchining borligi faktini qayd qiluvchi datchiklar.

Qabul qilingan ma’lumotlar mahalliy qurilmada toʻplanishi mumkin, soʻngra parkga qaytgandan soʻng markaziy bazaga oʻtkazilishi yoki real vaqtda, odatda uyali aloqa kanallari orqali markaziy serverga uzatilishi mumkin.

Bozorda sun’iy yoʻldosh orqali kuzatiladigan koʻplab tizimlarning eng muhim farqi server va mijoz dasturlarining funktsionalligi, ma’lumotlarni koʻp jihatdan qayta ishlash va hisobotlarni tayyorlash qobiliyatidir.

Server markazining funktsiyalari oddiy monitoringi tizimlari uchun oʻrnatilgan dasturiy ta’minotga ega oddiy kompyuter yoki turli xil vazifalarni bajaradigan bir nechta serverlardan foydalangan holda tarqatilgan server tizimi tomonidan bajarilishi mumkin, bir vaqtning oʻzida oʻn minglab transport vositalarini kuzatib borish va serverga ulanishni ta’minlash. bir vaqtning oʻzida bir necha ming foydalanuvchi (dispetcher) markazi.

Kartografik asos sun’iy yoʻldosh monitoringi dasturida muhim rol oʻynaydi. Tizimda xaritalar qanchalik batafsil va sifatli ishlatilsa, dispetcherlarga transport vositalarining joylashishini kuzatish va kuzatib borish shunchalik qulaydir.

Sun’iy yoʻldosh monitoringi dasturi odatda bir qator interfeyslarga ega. Foydalanuvchilarning monitoring tizimiga kirishi, koʻpincha ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishni oldini olish uchun parol bilan himoyalangan. Tizimlarda ma’lum bir ierarxik tuzilma mavjud boʻlib, unda monitoring tizimi ma’muri har xil foydalanuvchilarning turli xil monitoring ob’ektlari va turli dastur funktsiyalariga

kirish huquqlarini boshqaradi:

• harakatlanish (harakatlanish) marshruti;

• transport jadvallari va marshrutlarga rioya qilish;

• ish vaqti va haydovchilar va operatorlar tomonidan ish rejimlari va jadvallariga rioya qilish, transport vositalaridan samarali foydalanish;

• yoqilg‘idan foydalanish (iste’mol qilish);

• transportdan foydalanish, uning yurgan masofasi va harakat tezligi;

Tahlil qilish qobiliyati:

• ma’lum bir transport vositasidan tanlangan vaqt davomida foydalanishning turli parametrlari va shartlari. Shunday qilib, ma’lum bir transport vositasidan va butun avtoulov parkidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish mumkin;

• transport vositalarining butun parkini ekspluatatsiya qilish;

• transport haydovchilari ishining samaradorligi;

• transport yo‘nalishining maqbulligi va samaradorligi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, GPS sun’iy yo‘ldosh kuzatuv tizimidan foydalangan holda monitoringni GPS bo‘limi dispetcherlari tomonidan kecha-kunduz amalga oshiriladi. Dispetcher PBX haydovchisi bilan bog‘lanish va belgilangan marshrutdan to‘xtash yoki chetga chiqish sabablarini aniqlab olish imkoniyatiga ega, tezlik chegarasi bo‘lgan yo‘l uchastkalarida transport vositasi tezlikni oshirib, marshrut bo‘yicha harakatlarini to‘g‘rilaydi. Avtotransport vositasidan yoqilg‘ining qasddan tushirilishi qayd qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Генике А.А., Побединский Г.Г. Глобальные спутниковые системы определения местоположения и их применение в геодезии. – М.: Картгеоцентр, 2004. – 355 с.

2. Лурье И.К. Геоинформационное картографирование. Методы геоинформатики и цифровой обработки космических снимков. Учебник. – М.: КДУ, 2008. – 424 с.

3. Ражапова С.С. Соҳада ахборот технологиялари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТАЙЛҚЭИ, 2020. – 160 б.

4. Suyunov O., Oqnazarov J. YUK TASHISHDA GLONASS/GPS TIZIMLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 3. – С. 120-124.

5. Suyunov O., Oqnazarov J. AVTOMOBIL TRANSPORTIDA TASHISH JARAYONINI MONITORING QILISH UCHUN SUN’IY YO ‘LDOSH TIZIMLARI //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 45-49.

XALQARO YUKLARNI ISHONCHLI MUDDATLARDA O‘Z MANZILLARIGA YETKAZIB BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Samatov G.A., i.f.d.prof, (TDTrU)
Maxsumov I.A., assistent (TDTrU)

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro yuk tashish jarayoni, yuklarni ishonchli muddatlarda manzilga yetkazishning ahamiyati, bu jarayonni amalga oshirishda duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro yuk tashish, muddatlarda yetkazib berish, logistika, transport, bojxona rasmiylashtiruvi, monitoring, yetkazib berish strategiyalari, transport vositalari

Kirish. Globalizatsiya davrida xalqaro savdo va yuk tashish xizmatlariga talab sezilarli darajada ortdi. Tovar va mahsulotlarning turli davlatlar o‘rtasida harakatlanishi bugungi iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, bu jarayonni samarali va ishonchli amalga oshirish xalqaro logistika va transport kompaniyalaridan yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatishni talab qiladi. Xalqaro yuk tashish, ayniqsa, ishonchli muddatlarda yuklarni manzilga yetkazish, savdo va ishlab chiqarish zanjirlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, biznesning muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi. Bugungi kunda global iqtisodiyotning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan xalqaro yuk tashish kompaniyalari xalqaro savdo, ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiy faoliyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Mahsulotlarning turli mamlakatlar o‘rtasida ishonchli va belgilangan muddatlarda yetkazilishi, biznes va sanoat tarmoqlarining muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Xalqaro yuk tashish jarayonida tovarlarning ishonchli tarzda yetkazilishi logistika sohasidagi texnologik rivojlanish, transport tizimlari va bojxona tartibotlariga bog‘liq. Ushbu maqolada xalqaro yuk tashishning asosiy bosqichlari, kechikishlarning oldini olish usullari va yuklarni samarali boshqarish bo‘yicha asosiy omillar ko‘rib chiqiladi.

Natija va muhokamalar. Yuklarni tayyorlash va transportni rejalashtirish**.** Yuklarni to‘g‘ri qadoqlash va rejalashtirish xalqaro tashish jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Qadoqlash mahsulotning xavfsizligini ta'minlash bilan birga, bojxona talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, tashish yo‘nalishi va transport vositasi tanlanishi yukni ishonchli yetkazib berishga katta ta'sir ko‘rsatadi. Dengiz, avia, yo‘l va temir yo‘l transporti turlari turli yuklarni manzilga yetkazishda o‘ziga xos afzalliklarga ega. Katta hajmdagi yuklar uchun dengiz transporti iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lsa, tez yetkazib berish uchun avia transportdan foydalanish tavsiya etiladi.Xalqaro yuk tashishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda birinchi

bosqich – yuklarni tayyorlash va transport rejasini tuzish hisoblanadi. Yuklarni qadoqlashda ularning xalqaro standartlarga mos kelishi va transport jarayonida zarar koʻrmasligi taʼminlanishi kerak. Yuk turi va hajmiga qarab transport vositasi tanlanadi:

- Dengiz transporti katta va ogʻir yuklarni uzoq masofalarga tejamkorlik bilan yetkazishda eng samarali variant hisoblanadi.
- Avia transport esa tez yetkazib berishni talab qiladigan yoki qimmatbaho tovarlar uchun qulay.
- Yoʻl transporti qisqa masofalardagi yuk tashishlarda keng qoʻllaniladi.
- Temir yoʻl transporti esa katta hajmdagi yuklarni barqaror va ishonchli yetkazishda qoʻllaniladi.

Yuklarni oʻz vaqtida va muammosiz yetkazib berishning muhim bosqichlaridan biri bojxona rasmiylashtiruvi hisoblanadi. Eksport va import jarayonlari toʻgʻri hujjatlashtirilishi kerak, chunki bojxona nazorati vaqtni kechiktirishi mumkin. Tovarlarni tezroq va samarali rasmiylashtirish uchun hujjatlar, jumladan, yuk deklaratsiyasi, tijorat hisob-fakturasi va boshqa hujjatlarning tayyorlanishi muhimdir. Bojxona talablariga javob berish kechikishlarning oldini olishga yordam beradi. Bojxona rasmiylashtiruvi xalqaro yuk tashishdagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Toʻgʻri tayyorlangan hujjatlar yuklarni bojxona tekshiruvidan tezkor oʻtishini taʼminlaydi. Asosiy hujjatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Yuk deklaratsiyasi,
- Tijorat hisob-fakturasi,
- Yuk roʻyxati (packing list) va
- boshqa bojxona talablariga mos hujjatlar.

Bojxona jarayonlari vaqtida yuzaga keladigan toʻsiqlar, agar hujjatlar notoʻgʻri tayyorlangan boʻlsa, yukni kechiktirishga olib kelishi mumkin. Shu sababli yuk tashish kompaniyalari bojxona talablari boʻyicha puxta tayyorgarlik koʻrishi lozim.

3. Monitoring va kuzatish tizimlari. Yuklarni kuzatish tizimlari orqali ularning joylashuvi va holati haqidagi ma'lumotlarni real vaqtda olish xalqaro yuk tashishda katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy logistika kompaniyalari mijozlarga yuklarining harakatini kuzatish imkonini beradi, bu esa kechikishlar yoki boshqa muammolarni oldindan aniqlashga yordam beradi. GPS tizimlari, transport monitoringi va yuk kuzatuv dasturlari yukning harakatlanishini nazorat qilish imkoniyatini oshiradi. Yuklarning harakatini kuzatish va monitoring qilish zamonaviy xalqaro yuk tashishda muhim ahamiyatga ega. GPS va yuk monitoring tizimlari orqali yukning qayerda ekanligini aniqlash mumkin, bu esa mijozlarga yukning harakati toʻgʻrisida doimiy maʼlumot berish imkonini yaratadi. Monitoring

tizimlari transport jarayonida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan kechikishlar yoki xavflarni oldindan aniqlash imkoniyatini beradi.

4. Transportdagi qiyinchiliklar va xavflar. Xalqaro yuk tashish jarayonida koʻplab qiyinchiliklarga duch kelinadi. Transport vositalarining texnik nosozliklari, ob-havo sharoitlari, bojxona nazorati yoki xalqaro nizolar sababli kechikishlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun kompaniyalar har tomonlama puxta rejalashtirish, zaxira transport vositalari bilan ta'minlash va ehtiyot choralarini koʻrishlari lozim. Xalqaro yuk tashishda xavflarni kamaytirish uchun kompaniyalar sugʻurta xizmatlaridan ham foydalanishi kerak. Xalqaro yuk tashishda kechikishlar, texnik nosozliklar va ob-havo sharoitlari kabi qiyinchiliklar keng tarqalgan muammolardan hisoblanadi. Transport vositalarining toʻgʻri tanlanmasligi yoki texnik xizmat koʻrsatish jarayonida nosozliklar yuzaga kelishi yukning manzilga kech yetib borishiga sabab boʻlishi mumkin. Shuningdek, xalqaro yuk tashishda bojxona nazorati va hujjatlarni kechiktirish kabi xavflar ham mavjud. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun kompaniyalar:

- Transport vositalarining texnik xizmatlarini doimiy nazorat qilish,
- Alternativ yoʻnalishlar va transport turlarini qoʻllash,
- Sugʻurta xizmatlaridan foydalanish orqali xavflarni minimallashtirishi lozim.

Xulosa. Xalqaro yuklarni ishonchli muddatlarda yetkazib berish bugungi kunda logistika sohasida yuqori talab qilinadigan xizmatlardan biri boʻlib, samarali boshqarish va rejalashtirish orqali bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Bojxona rasmiylashtiruvi, monitoring va transport tanlash kabi muhim jarayonlar kechikishlarni oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, xalqaro yuk tashishdagi texnologik rivojlanish va logistika tizimlarining takomillashuvi yuklarni ishonchli va tez yetkazib berishni ta’minlaydi. Kompaniyalar oʻz jarayonlarini puxta rejalashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qoʻllash orqali mijozlar talablariga samarali javob bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Hylton, P. (2018). Global Logistics and Supply Chain Strategies. Cambridge University Press.

2.Rushton, A., Croucher, P., & Baker, P. (2017). The Handbook of Logistics and Distribution Management. Kogan Page Publishers.

3.Harrison, A., & Van Hoek, R. (2020). Logistics Management and Strategy. Pearson Education.

4.Chopra, S., & Meindl, P. (2019). Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. Pearson.

5.Waters, D. (2021). Global Logistics: New Directions in Supply Chain Management. Kogan Page Publishers.

6. Kuziyev A.U. Makhsumov I.,Eurasian Journal of Engineering and Technology. -Volume 12| November, 2022, pg. 40-46, 2022-yil. ISSN: 2795-7640
7. Kuziyev A.U. Makhsumov I., Planning For The Timely Delivery Of Cargo Flows On International Routes, International Journal of Formal Education Volume: 2 Issue: 6 | June – 2023 year Pg.234.-240. ISSN: 2720-6874

SHAHAR AVTOBUS YO‘NALISHLARI QATNOV JADVALINI TARTIBGA SOLISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH

Abruyev Sh.I, tayanch doktorant (TDTrU)
Hayitova G.E. magistrant, (TDTrU)

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hamda yuk va yo‘lovchilarni tashishda avtomobil transportining ahamiyati katta hisoblandi. Mamlakatimiz aholisining soni yildan-yilga ortib borishi bilan shaharlar hududi kengayib, aholining avtomobil transportiga bo‘lgan ehtiyoji ham oshib bormoqda. Bu esa tabiiy ravishda yo‘llarda, shahar ko‘chalarida harakat xavfsizligini ta’minlashda hamda aholiga transport xizmatini ko‘rsatishda muammolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Jamoat transporti odamlarning uzog‘ini yaqin qiladigan, aholi kayfiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadigan vosita. O‘tgan 10 oyda Xalq qabulxonalariga ushbu masalada 3 mingdan ziyod murojaat bo‘lgani ham sohada kamchiliklar ko‘pligini ko‘rsatadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatimiz bo‘yicha kuniga qariyb 20 million yo‘lovchidan bor-yo‘g‘i 4,4 millioni yoki 22 foizi jamoat transportidan foydalanmoqda. Bu ko‘rsatkich Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Xorazm, Samarqand, Farg‘ona, Buxoro va Toshkent viloyatlarida bundan ham past. 1 ming 200 ta qishloq tuman markazigacha bo‘lgan yo‘nalishda jamoat transporti bilan qamrab olinmagan. Jamoat transporti harakatlanuvchi tarkib parkining yetishmasligi yoki eskirganligi, ayrimlari xizmat muddatini o‘tab bo‘lganligi va harakat intervallari to‘g‘ri tashkil etilmaganligi bu borada hal qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘pligini anglatadi. Bu esa o‘z navbatida shahar jamoat transporti yo‘nalishlarini optimallashtirish zaruratiga alohida e’tibor qaratish lozimligini anglatadi. Bu masalada Prezidentimizning 2023-yilning 16- fevraldagi PQ-59 qarori tasdiqlandi. Qarorda Jamoat transportini isloh qilish chora-tadbirlari haqida. Yo‘lovchilarga samarali transport xizmati ko‘rsatishni tashkil etish uchun yo‘lovchilar oqimi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimli ravishda olib borish zarur. Axborot olishning asosiy maqsadlariga ko‘ra yo‘lovchilar harakatini o‘rganish ikki sinfga bo‘linadi. Birinchisi aholining transportga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlashga qaratilgan so‘rovlarni o‘z ichiga oladi, ikkinchisi mavjud transport xizmatlari tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq. Transportga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish

yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan talabning shakllanish qonuniyatlari haqida ma’lumot beradi, transport xizmati so‘rovi mavjud tizimi bilan aholining transport xizmatlariga bo‘lgan qondirish darajasi haqida ma’lumot beradi.

Asosiy yo‘llarimizning avtomobil zichligini ko‘tara oladigan darajada keng emasligi ham yana bir muammodir. Bunday tor yo‘llarda ko‘rilishi lozim bo‘lgan muhim ehtiyot choralaridan biri – transport vositalari yo‘l chetiga qo‘yib ketilishining oldini olish va buni nazorat qilishdir. Chorrahalarimizning turli yo‘nalishlardan keladigan avtomobillar oqimiga javob bera olmasligi ham jiddiy noqulaylik tug‘diradi. Shu bois, chorrahalarga yerosti yo‘llari yoki estakada (transport vositalari va piyodalar uchun mo‘ljallangan yo‘llar yer sirtidan ma’lum balandlikda o‘tkaziladigan inshoot; ko‘prik – tahr.) qurish orqali turli marshrutlardagi avtomobil yo‘llari kesishishining oldini olish mumkin.



1-rasm. Yer osti va yer usti o‘tish yo‘llari

Jamoat transportini rivojlantirish Bu – eng og‘riqli nuqtalarimizdan biri. Bu borada poytaxtdagi umumiy manzaraning naqadar ayanchli ekanini so‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan video va suratlardan ham payqash qiyin emas. Yo‘llar tirbandligidagi asosiy «ulush»ni shaxsiy transport vositalari tashkil qiladi. Buning oldini olish yo‘llaridan biri – jamoat transporti sonini ko‘paytirish va jamoat transportidan foydalanish foizini orttirishdir. Bu jarayonda, albatta, aholining mentaliteti, o‘ziga xosligi kabi ba’zi omillar hisobga olinishi lozim. Masalan, ijtimoiy odatlar o‘rganilgan bir tadqiqotda jamoat transportini afzal ko‘rish sabablari orasida quyidagi parametrlar oldingi planga chiqishi aytiladi:

- avtobus yo‘nalishida narx;
- mikroavtobus yo‘nalishida chiqish va tushish nuqtasi orasidagi yaqinlik;
- temir yo‘l transportida tezlik va narx;
- taksida tezlik va qulaylik. Jamoat transporti bilan bog‘liq muammolarni kamaytirishda quyidagilarni amalga oshirish muhim o‘rin tutadi:
- jamoat transporti sonini ko‘paytirish;

- jamoat transporti vositalarini eng gavjum soatlar – ishga borish va ishdan qaytish vaqtida koʻpaytirish;
- temir yoʻl transporti, xususan, metro liniyalarini jamoat transporti yetarli boʻlmagan hududlarga qadar uzaytirish;
- shaharning ichki avtobus yoʻnalishlarini, ularning qatnov oraliqlarini va masofalarini aholining zichlik darajasi va ehtiyojiga koʻra qaytadan rejalashtirib chiqish.

Shahar ichida turli markazlarni tashkil etish Yagona markazli shaharlarda aholining katta qismi ish, uy, jamoat ishlari, transport almashinuvi kabi bir qator sabablar tufayli markaz tomon oqadi. Bunday vaziyatda shahar markazi odamlar va transport vositalarining jiddiy bosimi ostida qoladi. Shaharning bosh rejasi tuzilayotganda ushbu bosimni kamaytirish maqsadida boshqa hududlarda ham barcha turdagi qulayliklarga ega, davlat muassasalari, yangi binolar, oliy oʻquv yurtlari va shu kabilarni oʻzida jamlagan kichik markazlarni yaratish va shu orqali shahar markazidagi tirbandlikni kamaytirib, shaharni koʻp markazli hududga aylantirish mumkin.

Ijtimoiy obyektlarning jamoat transportiga ta’siri Transport infrastrukturasi. Shahar transporting bemalol ishlashi uchun yordamchi inshootlar va qurilmalari turli xizmatlarining rivojlangan tarmogʻi kerak. Ommaviy yoʻlovchi transporti uchun yoʻl aloqa tarmogʻidan tashqari bularga: depo, avtopark, remzavod va ta’mirlash ustaxonalari kiradi. Ommaviy transport: yoʻllarida dispetcherlik punktlari, yakunlovchi punktlar, tayanch podstansiyalar quriladi. Bularning barchasi sanoat va kommunal hududlarda joylashtiriladi. Magistrallararo hududda transport. Transport xizmat koʻrsatish talablari hududning funksional vazifasi orqali aniqlanadi. Sanoat va kommunal qismlariga xizmat koʻrsatish hudud talablari asosida amalga oshiriladi. Kichik tumanlarda xohlagan binoga kirish, magistral koʻchalarga chiqishni (chorrahadan 100 m) ta’minlash, doimiy saqlash uchun garajlar, avtomobillami vaqtinchalik saqlashga toʻxtash joylari ajratiladi.



3-rasm Avtobus yoʻlagi.

Shahar ko‘chalarida avtobuslarning soni ortishi bilan ularning xavfsiz harakatlanishini taminlashga talab oshadi chunki jamoat transporti harakatlanuvchi birinchi yo‘l bo‘lagidagi aralash transport oqimi tufayli mashrut intervalida uzilishlar sodir bo‘ladi yani tirbandlik vujudga keladi. Bunday hollarda jamoat transporti uchun alohida ajratilgan bo‘laklarda harakatlanish ehtiyoji tug‘iladi. Avtobuslarning svetaforlardagi ustuvorligi, ustunlik oldindan belgilangan yoki dinamik tarzda berilishiga qarab odatda, passiv va faol tizimlarga bo‘linadi. Passiv tizimlarda avtobusning ustuvorligi oldindan belgilanadi va o‘rnatiladi, uni transport vositasining haqiqiy oqimiga qarab o‘zgartirish mumkin emas. Faol tizimlarda ustuvorlik, chorrahaga yaqinlashayotgan avtobuslar yuborgan signallarga javoban beriladi. Svetaforlarda avtobuslarning ustuvorlik tizimlari quyidagi uchta toifaga bo‘lingan a) Avtobusning adaptiv bo‘lmagan ustuvorligi: ustuvorlik passiv yo‘l bilan, avtobus yo‘llari va svetaforlar o‘rtasida oldindan belgilangan yashil to‘lqinlardan foydalanish orqali beriladi; b) Detektorga asoslangan avtobus ustuvorligi: ustuvorlik detektorlarga asoslangan holda faol ravishda ta’minlanadi; c) GPS asosidagi avtobus ustuvorligi: GPS texnologiyasidan foydalangan holda ustuvorlik faol tarzda beriladi. Adaptiv bo‘lmagan avtobus ustuvorlik tizimlari. Avtobuslarning adaptiv bo‘lmagan ustuvorligi tarmoqdagi ba’zi uchastkalarda, avtobuslarni birinchi o‘ringa qo‘yadigan passiv choralarni o‘z ichiga oladi. Bu avtobus yo‘laklari 34 hisoblanadi. Bunda avtobuslarning boshqa transport vositalari bilan konfliktlari yuzaga kelmaydi, natijada tezligi va xavfsizligi yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbegiston Respublikasi Prizidentining 2023-yilning 16- fevraldagi PQ-59 qarori.
2. Ларин О.Н. Организация пассажирских перевозок. Уч.пособие. Челябинск, Изд-во ЮУрГУ, 2005. – 104 с.
3. Миротин Л.Б. Логистика: общественный пассажирский транспорт. Л.Б.Миротин. М.: Экзамен, 2003. - 224 с.
4. Мун В.С. Пассажирские автомобильные перевозки.Т.: Ўқитувчи, 1990.- 208с.

AVTOMOBIL TRANSPORTIDA KONTEYNER TASHISHNI TASHKIL ETISHNING SWOT TAHLILI

Samatov Gaffor Allokulovich, i.f.d, professor, (TDTrU),
Yusufxonov Zokirxon Yusufxon o‘g‘li, katta o‘qituvchi, (TDTrU)

Hozirda mamlakatimizning transport logistika tizimi orqali butun dunyo bo‘ylab uzoq masofalarga, yuklarni tashish uchun qulay bo‘lgan konteynerlar orqali

intermodal tashuvlar amalga oshirilmoqda. Konteynerlarni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazishda asosan temir yo‘l va avtomobil transportlarining o‘zaro muvofiqlashuviga alohida e’tibor berilmoqda.

Konteynerlar turli xil transport vositalari orqali tovarlarning ko‘chirilishi uchun keng qo‘llaniladigan muhim vosita hisoblanadi. Bu esa transportni optimallashtirish, tezlikni oshirish, oqimni tezroq bajarish va umumiy ravishda logistika nazorati ostida iqtisodiyotni samarali tashkil etishga imkon beradi. Konteynerlarni yuk tashish uchun ishlatilishi ISO 668: 1995 (GOST R 53350-2009) xalqaro standartiga mos keladigan 20, 40 va 45 futli turlari yurtimizda keng foydalanilmoqda [1]. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7 – aprel 2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalariga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 277 – son qarorida avtomobil transport vositalarida yuklarni tashish masalalariga e’tibor qaratilgan [2].

Konteynerlarni avtomobil transportida tashish ichki, eksport, import va tranzit tashishlar orqali amalga oshiriladi. Konteynerlashgan yuk hajmining oshishi, odatda, tranzitning ko‘payishi hisobiga ham o‘sadi. O‘zbekistonda xalqaro tashilgan konteynerlarning asosiy qismi Toshkent shahri ichida joylashgan logistika markazlari va terminallar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu terminallarning barchasi yuk va konteyner tashuvchi avtomobillar sonining ko‘payishi shaharda noqulay transport vaziyatining yuzaga kelishiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, konteyner tashishda avtomobil transportidan foydalanishning SWOT tahlili amalga oshirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O‘zbekistonda konteynerlarni avtomobil transportida tashishning SWOT tahlili

Ichki omillar	
Afzalliklar	Zaifliklar
1. Transport vositalarini kerakli miqdorda va kerakli joyda tezda jamlash imkonini beradigan yuqori manevrchanlik va harakatchanligi; 2. Qo‘shimcha qayta yuklashlarsiz “eshikdan-eshikkacha” yetkazib berishni ta’minlash qobiliyati; 3. Tashishlarda, ayniqsa qisqa masofalarga tashishlarda konteynerli yuklarni yetkazib berish tezligining yuqoriligi va saqlanishining ta’minlanishi; 4. Konteyner turlari, tashish masofalari bo‘yicha keng qo‘llanilish sohasi;	1. Tashish tannarxininng yuqori (temir yo‘l transporti, suv transporti va transportning boshqa turlariga qaraganda o‘n martalab yuqori); 2. Ixtisoslashgan harakatlanuvchi tarkibning eskiligi; 3. Katta mehnattalablikni va energiyatalablikni yuqoriligi (konteyner fitinlarini mahkamlash jarayoni avtomatlashtirilmaganligi); 4. Avtomobillarning o‘rtacha yuk ko‘taruvchanligining kichikligi oqibatida mehnat unumdorligining pastligi; 5. Konteynerli yuklarga xizmat ko‘rsatishning darajasini qoniqarsizligi;

5. Kam xarajatli (arzonroq) va usti ochiq transport vositalari turidan foydalanish.	
Tashqi omillar	
Imkoniyatlar	Tahdidlar
1. Transport uzelini yaratish uchun qulay geografik joylashuv; 2. Multimodal yoki intermodal tashishga muvofiqlik darajasi yuqoriligi; 3. Transport koridorlari tizimiga integratsiyalashuv imkoniyati; 4. Terminal – mijoz yoki mijoz – terminal tizimida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish; 5. Xitoy, Rossiya va Yevropa o‘rtasidagi konteyner tashuvlar imkoniyatini oshishi.	1. Atrof-muhitni ifloslantirish darajasining yuqoriligi 2. Aksariyat harakatlanuvchi tarkibning Yevro-4 talablariga javob bermasligi shuningdek, ularning texnik jihozlarining rivojlanmaganligi; 3. Tashish hujjatlarini qayta ishlash uchun ko‘p vaqt sarflanishi; 4. Konteyner tashuvchi avtomobil tirkamalari uchun to‘xtash joylarining (parkovka) yetishmasligi; 5. Importning eksportga nisbatan ustunligi, bu esa yuksiz masofalarni ko‘payishiga olib keladi.

SWOT tahlili asosida konteyner tashuvchi avtomobil transportida tashuvchilar formati tasniflash mumkin bo‘ldi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Konteynerlarni avtomobil transportida tashuvchilarning tasnifi

Tashuvchilar toifasi	SWOT tahlili elementlardagi ishtiroki																			
	Afzalliklar					**Zaifliklar**					**Imkoniyatlar**					**Tahdid**				
	1	**2**	**3**	**4**	**5**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**
Umumfoydalanishdagi avtomobil transporti	-	+	+	+	-	+	-	+	-	-	+	+	+	+	+	+	+	-	+	+
Tashkilotlarning avtomobil transporti	+	+	-	+	-	+	+	+	+	-	-	+	+	+	+	+	-	+	-	+
Jismoniy shaxslarga tegishli avtomobil transporti	-	+	+	-	-	-	+	+	-	+	-	+	-	+	-	+	+	+	+	+

2–jadvalda konteynerlarni avtomobil transportida tashuvchi korxona, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning SWOT tahlili asosida har bir elementlar bilan funksional bog‘liqliklari keltirilgan.

Tadqiqotlar asosida konteyner tashuvchi avtomobil transporti harakatini tashkil etishda nomaqbul hodisalarning kelib chiqish sabablari aniqlandi, hamda muammolarni sabab-oqibatli tahlil qilish tartibi ishlab chiqildi. Ta’sir etuvchi sabablar va umumlashtirilgan toifalar tizimlashtirildi. Bular – texnik, iqtisodiy, texnologik, va ekologik omillardir.

Konteynerlarni avtomobil transportida tashishni tashkil etishdagi muammolarning sabab-oqibatli tahlili empirik tarzda tekshirilishi kerak bo‘lgan ehtimoliy sabablar bo‘yicha kelishuvni o‘rnatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. ГОСТ Р 53350-2009 Контейнеры грузовые серии 1. Классификация, размеры и масса. Москва 2018. Стр: 20.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.04.2018 yildagi 277-son.

GLOBAL KONTEYNER YETKAZIB BERISHNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA TENDENSIYALARI

Samatov Gaffor Allokulovich, i.f.d, professor, (TDTrU),
Yusufxonov Zokirxon Yusufxon o‘g‘li, katta o‘qituvchi, (TDTrU)

Yuk tashish xizmatlarining asosi bo‘lgan jahon transport va logistika bozori asosan konteyner tashuviga tayanadi, bu esa har xil turdagi quruqlik va quruqlik-dengiz kommunikatsiyalarida eng tejamli yuk tashish texnologiyasidir [1].

Tadqiqotlarga ko‘ra, global konteyner tashish tizimining faol rivojlanishi XX asrning 50-yillardan boshlanib, hozirgi vaqtgacha davom etib ke;moqda. Boshlang‘ich vaqtlarda jahon konteyner parkining hajmi qariyb 1 million dona 20 futlik konteynerlar mavjud bo‘lgan, hozirgi vaqtga kelib, barcha turdagi transport vositalarida tashish 170 million TEU (20 futlik ekvivalent birlikda)dan oshiqroq konteynerga yetdi[2].

Konteyner tashishning rivojlanishidagi har bir tarixiy bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularda konteynerlar ishlab chiqarishning ko‘payishi, asosiy tashqi savdo yo‘llarida konteyner texnologiyasidan foydalanish, konteyner kemalarining ixtisoslashtirilgan floti va ularni qabul qilish, qayta ishlash uchun tegishli terminallarning paydo bo‘lishi va boshqalar qayd etiladi. Transport sohasi olimlari tovarni jo‘natuvchidan iste’molchigacha (eshikdan-eshikkacha sxemasi bo‘yicha) yetkazib berish uchun dengiz, temir yo‘l va avtomobil transportining real integratsiyalashuv jarayonining paydo bo‘lishini bog‘laydilar (1-jadval).

Transport sohasi olimlari ta’kidlashadiki, konteyner tashishni modernizatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyati, yuk jo‘natuvchilar tomonidan tovarlarni yetkazib berishning butun yo‘nalishi bo‘ylab tobora takomillashtirilgan transport xizmatlarini taklif qilishdir.

1-jadval

Konteyner tashishni tashkil etishning rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Rivojlanish bosqichlari	Yillar	Amalga oshirilgan ishlar
1	2	3	4
I	Konteyner paydo bo‘lishi	1950-1960	Konteynerni patentlash, ishlab chiqarish; Dastlabki konteyner kompaniyasini yaratish
II	Konteynerlarni standartlashtirish, konteyner bozorini shakllantirish	1960-1990	ISO konteyner standartlarini paydo bo‘lishi; Konteyner terminallarini tashkil etilishi; Ixtisoslashgan konteyner tashuvchi transport vositalarini (kemalar, temir yo‘l transporti va avtomobil) ishlab chiqarilishi
III	Konteyner yetkazib berish sohasida transport xizmtlari bozorini rivjlantirish	1990-2010	Operatorlik, ekspeditorlik va terminal konteyner kompaniyalrning paydo bo‘lishi; Konteyner tashish xizmtlar bozorida raqobatning rivojlanishi; Konteyner kompaniyalarining integratsiyalashishi natijasida logistika zanjirini shakllanishi
IV	Tashish uchun transport turlari, uskunalar va texnologiyalarni takomillashtirish	2010 йилдан ҳозиргача	Katta nomeklaturadagi yuklarni tashishda maxsus konteynerlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi; Konteyner tashishda Smart texnologialarini ishlab chiqilishi; Tezlashtirlgan blok-poyezdlarda konteyner tashish

Ilmiy ishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Yevropada intermodal yuk tashishning asosiy qismi Xalqaro temir yo‘l va avtomobil transporti ittifoqiga (UIRR) kiruvchi kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi - 49%, Intercontainer-Interfrigo (ICF), 19%, 32% boshqa turli operatorlar tomonidan amalga oshiriladi. [3]

Konteynerlarda yuk tashish nafaqat eng zamonaviy yuk tashish shakli, balki eng tejamkor hisoblanadi. Ular mamlakatning ichki va xalqaro munosabatlarida qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda yuklarni konteynerlar bilan tashish usuli faol rivojlanmoqda. Ushbu turdagi transportning boshqalarga nisbatan afzalliklari ko‘p. Aynan shuning uchun ham konteynerlarda tashiladigan tovarlar nomenklaturasi kundan-kunga kengayib bormoqda.

Jahonda konteyner savdosi hajmi 2021 yildan buyon eng yuqori o‘sish sur’atiga ega bo‘lib va 7,2 foizni tashkil etdi. Bunga turli ijobiy tendensiyalar sabab bo‘ldi va 2023 yilda konteyner orqali tashilgan yuk aylanmasi 164 mln. TEUga erishdi. Bunday tendensiyalarga ta’sir qiluvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- AQShda iste’mol talabining o‘sishi;
- xom ashyo narxining oshishi;
- Xitoydan doimiy import talabi;
- mintaqaviy integratsiya natijasida Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlashning tez o‘sishi;

- Rossiya va Ukraina mojorolari sababli iqtisodiy tanazzulni to‘xtatish;

- jahon ishlab chiqarish zanjirlarida ishtirok etishni kengaytirish va boshqalar.

2022 yilda global konteyner savdo bozori ba’zi noaniq tendensiyalarga qarshi rivojlandi, jumladan:

- 2020 yilda yoqilg‘i bunkerlarida oltingugurt miqdori bo‘yicha IMO ekologik cheklovlarini joriy etilishi;

- mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro savdodagi joriy farqlar (masalan, Xitoy - AQSH);

- Xitoy iqtisodiyotidagi hozirgi tendensiyalar (masalan, Xitoydan import qilinadigan mahsulotlar narxining oshishi);

- iste’mol bozorlarining zaifligi va jahon iqtisodiyotining rivojlanishi uchun noqulay sharoitlar va boshqalar.

Bu omillar konteyner savdosining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda va buning natijasida, masalan, 2022 yilda 2021 yilga nisbatan konteyner yuklarini tashishda nisbatan past o‘sish sur’atlarini kuzatish mumkin. Biroq, 2023 yilda jahon konteyner savdosining o‘sish sur’atini 1,2 foizga oshirdi, bu esa 164 mln. TEUga erishildi [2].

2023 yilda konteyner tashish hajmi 164 million TEUga yetdi va so‘nggi yillarda yillik o‘sish -1 - 1,2 foizini tashkil etdi. Bundan tashqari, o‘tgan asrning 90-yillari oxiridan boshlab Yevropa – Osiyo – Yevropa yo‘nalishidagi transportlar 1995-yildagi 5 million TEUdan 2018-yilda 25 millionga yetgani yoki besh baravarga ko‘payganini ta’kidlash lozim. Shunday qilib, jahon savdosini konteynerlashtirish darajasining global o‘sish tendensiyasini, shuningdek, bozorning mutlaq o‘sish sur’ati kuzatilmoqda.



Manba: UNCTAD kotibiyati, MDS Transmodal (MDST) ma’lumotlari asosida, World Cargo Database, 1-iyun 2023-yil.

1.1-rasm. Global konteyner savdosi, 1996–2023 (million 20 fut ekvivalent birlik va yillik o‘zgarish foiz)

2022-yilda global konteynerli savdo hajmi -0,7 foizga kamayib, 163 million 20 fut ekvivalent birlik (TEU) ga yetdi, bu 2021 yildagi 164 million TEUdan kamaygan va 2021 yilda qayd etilgan hajmlarning o‘sishidan keskin farqli o‘laroq (8,1 foiz), 1.1-rasmda ko‘rsatilganidek. UNCTAD prognozlariga ko‘ra, 2024 yilda konteynerli xalqaro savdosi 1,2 foizga o‘sadi va makroiqtisodiy muammolar yengillashgani sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Container Trades Statistics Ltd, GU21, 6HR, UK, https://containerstatistics.com/free-data/
2. UNCTAD secretariat, based on data from MDS Transmodal (MDST), World Cargo Database, 1 June 2023.
3. World Bank (2023). Food Security Update. 9 March 2023. Available at https://thedocs.worldbank.org/ en/doc/40ebbf38f5a6b68bfc11e5273e1405d4-0090012022/related/Food-Security-Update-LXXXMarch- 09-2023.pdf.

BLOCKCHAIN TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA YUK VA YO‘LOVCHILAR TASHISH JARAYONLARINI BOSHQARISH

Sh.B.Rajabov, v.b dotsent, Xalqaro nordik universiteti

Tayanch iboralar: *Blockchain texnologiyasi, shaffoflik, o‘zgarmaslik, ta’minot zanjiri, smart-kontraktlar, tranzaksiya, IoT (Internet of Things), kuzatuvchanlik, logistika, decentralizatsiya, xavfsizlik, firibgarlik, ekologik ta’sir, avtonom transport vositalari, hujjatlar almashinuvi.*

Zamonaviy logistika va ta’minot zanjiri jarayonlari global miqyosda murakkablashib bormoqda. Keng miqyosli yuk tashish, yo‘lovchilar tashish, ko‘p bosqichli mahsulotlar ishlab chiqarish va turli davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalari logistika tizimlarini yangicha yechimlarni talab qiladigan kompleks jarayonlarga aylantirdi. Bunday murakkab tuzilishdagi jarayonlarni boshqarish va nazorat qilishda mavjud usullar yetarlicha samaradorlikni ta’minlamasligi sababli so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar paydo bo‘ldi. Misol sifatida **Blockchain texnologiyasi** logistika tizimida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Blockchain — bu markazlashmagan raqamli reestr bo‘lib, u orqali ma'lumotlar xavfsiz, shaffof va o‘zgartirilmaydigan tarzda saqlanishi mumkin. Logistika sohasida blockchain texnologiyasining qo‘llanilishi jarayonlarning optimallashtirilishi, ishonchlilikning oshishi va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya logistikadagi eng katta muammolar — jarayonlarni kuzatib borish, hujjatlar almashinuvi va o‘zaro ishonch masalalarini hal qilish imkonini beradi.

Bu texnologiya orqali yuklarni kuzatish, hujjatlarni avtomatlashtirish, kontraktlarni bajarish va barcha jarayonlarni real vaqt rejimida nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Shu sababli blockchain texnologiyasi logistika jarayonlarini yangicha darajaga olib chiqishga qodir bo‘lib, global ta’minot zanjirini ishonchli, samarali va shaffof qilish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Blockchain texnologiyasining asoslari

Blockchain texnologiyasi asosida ma'lumotlarning tarqatilgan reyestri (distributed ledger) yotadi. Har bir tranzaksiya bloklar ko‘rinishida reyestrga yoziladi va boshqa ishtirokchilar tomonidan tasdiqlanadi. Bunda barcha tranzaksiyalar umumiy reyestrda saqlanadi, bu esa ularni tahrirlash yoki o‘zgartirishni deyarli imkonsiz qiladi. Bu reyestrlarning shaffofligi va xavfsizligi sababli, blockchain texnologiyasi ko‘p sohalarda, jumladan logistikada ham qo‘llanilmoqda.

Logistika tizimlarida blockchain texnologiyasining afzalliklari

1. Tranzaktsiyalarning shaffofligi va kuzatilishi

Logistika jarayonida shaffoflik va kuzatuvchanlik katta muhim ahamiyatga ega. Blockchain texnologiyasi orqali har bir tranzaksiya, ya'ni mahsulotning qayerdan va qanday holatda yetkazilganini aniq va real vaqt rejimida kuzatib borish mumkin. Masalan, yukning qayerdaligi, qaysi punktlardan o‘tganligi va qanday sharoitlarda saqlanganligi haqida aniq ma'lumot olish uchun blockchain tizimida tranzaksiyalar yoziladi. Bu esa mijozlarga mahsulotlar haqida to‘liq axborot olish imkonini beradi va jarayonlardagi noaniqliklarni kamaytiradi.

Misol uchun, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berishda mahsulotning yangi va xavfsiz holatda bo‘lishi juda muhimdir. Blockchain orqali ushbu mahsulotlar qanday haroratda saqlanganligi va qancha vaqt davomida yetkazib berilganligi haqida barcha ma'lumotlar olinishi mumkin. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlashga yordam beradi va firibgarlikni oldini oladi.

2. Hujjatlar almashinuvi va avtomatlashtirilgan jarayonlar

Logistika jarayonlarida ko‘p miqdorda hujjatlar almashinuvi talab etiladi. Masalan, yetkazib berish hujjatlari, bojxona hujjatlari va boshqa ko‘plab ma’lumotlar ko‘plab manzillar bo‘ylab jo‘natilishi va tasdiqlanishi kerak. An'anaviy tizimlarda bu jarayonlar uzoq vaqt talab qiladi va ko‘plab insoniy xatolarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Blockchain texnologiyasi orqali ushbu jarayonlar avtomatlashtirilishi mumkin. **Smart-kontraktlar** deb ataladigan dasturiy kodlar yordamida hujjatlar avtomatik tarzda tuziladi, tasdiqlanadi va saqlanadi. Smart-kontraktlar shartlari bajarilganda avtomatik ravishda tranzaksiyalar amalga oshiriladi. Bu esa jarayonlarni tezlashtirish, hujjatlarni elektron shaklda almashish va hujjatlarda inson xatolarini kamaytirishga yordam beradi.

Misol uchun, mahsulot manzilga yetkazilganidan keyin smart-kontrakt orqali avtomatik to‘lovlar amalga oshishi yoki yukni qabul qilganlik haqida avtomatik ravishda tasdiqlovchi hujjat yaratish mumkin.

3. Ta’minot zanjirida ishonchlilik va xavfsizlik

Logistika jarayonlarida ishonchlilik juda katta ahamiyatga ega, chunki mahsulotning sifati va yetkazilish jarayoni ko‘pincha ta'minot zanjiridagi barcha ishtirokchilar ishonchliligiga bog‘liq bo‘ladi. Blockchain texnologiyasi orqali ishtirokchilar o‘rtasidagi ishonch kuchayadi, chunki har bir tranzaksiya aniq qayd etiladi va tahrirlanmasligi sababli har qanday noto‘g‘ri ma'lumotlar darhol aniqlanishi mumkin.

Xavfsizlik masalasida blockchain texnologiyasi hujumlardan himoyalangan bo‘lib, ma'lumotlarning o‘g‘irlanishi yoki buzilishi deyarli imkonsiz bo‘ladi. Shuningdek, tranzaksiyalar ishtirokchilarning kelishilgan shifrlash kalitlari orqali amalga oshiriladi, bu esa hujjatlarning xavfsizligini ta’minlaydi.

4. Xarajatlarni qisqartirish

An'anaviy logistika tizimlarida ko‘plab vositachilar va hujjatlar almashinuvi jarayonlari ko‘plab qo‘shimcha xarajatlarga olib keladi. Blockchain texnologiyasi yordamida bu jarayonlar avtomatlashtirilishi va o‘rta bo‘g‘inlar qisqartirilishi mumkin. Shuningdek, firibgarliklar va xatolar kamaygani sababli zararli xarajatlar ham yo‘q bo‘ladi.

Misol uchun, bojxona jarayonlarida blockchain texnologiyasi orqali yukning to‘liq hujjatlari avtomatik tarzda tayyorlanib, tranzaktsiyalar tezroq amalga oshirilishi mumkin. Bu esa bojxona jarayonlarining samaradorligini oshiradi va logistika xarajatlarini kamaytiradi.

5. Mijozlar tajribasini yaxshilash

Logistika sohasida mijozlar mahsulotning manzilga yetib kelishi, mahsulot sifati va yetkazib berish jarayonlari haqida to‘liq ma’lumot olishni xohlashadi. Blockchain texnologiyasi orqali mijozlar mahsulotning har bir bosqichini kuzatib borish imkoniga ega bo‘ladi. Shu orqali ular mahsulot sifatiga ishonch hosil qilib, ishonchlilik darajasini oshiradilar.

Shuningdek, blockchain orqali yukning yetib kelish vaqti va yetkazib berish holati haqida to‘liq va ishonchli ma'lumotlar olinadi, bu esa mijozlarga tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatishga yordam beradi.

Blockchain texnologiyasining muammolari va cheklovlari

Blockchain texnologiyasining afzalliklari juda ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, uning ba’zi kamchiliklari ham mavjud. Masalan:

- ✓ **Texnologik murakkablik**: Blockchain tizimlarini joriy etish va foydalanish texnologik jihatdan murakkab bo‘lishi mumkin. Yangi tizimlarga o‘tish katta dasturiy ta’minot va infratuzilma o‘zgarishlarini talab qiladi.

✓ **Xarajatlar**: Blockchain tizimlarini joriy etish dastlab katta mablag‘ talab qilishi mumkin. Ayniqsa, kichik korxonalar uchun bunday xarajatlar sezilarli bo‘lishi mumkin.

✓ **Qonuniylik va regulyatsiyalar**: Blockchain texnologiyasi hali ham ba'zi davlatlarda qonuniy jihatdan to‘liq tartibga solinmagan. Bu esa texnologiyaning keng miqyosda joriy etilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

XULOSA

✓ Blockchain texnologiyasi logistika tizimlarini yangi darajaga ko‘tarib, jarayonlarning samaradorligini oshirish, ishonchlilikni ta’minlash va xarajatlarni kamaytirishga katta hissa qo‘shmoqda. Har bir tranzaksiya shaffof, xavfsiz va o‘zgartirilmaydigan bo‘lishi sababli, bu texnologiya logistika sohasidagi ko‘plab muammolarni hal qilish imkonini beradi.

✓ Blockchain orqali ta’minot zanjiridagi barcha ishtirokchilar o‘zaro ishonchli, xavfsiz va samarali ishlay oladi. Garchi blockchain texnologiyasini to‘liq joriy etishda ba’zi to‘siqlar mavjud bo‘lsa ham, ushbu texnologiya kelajakda global miqyosda logistika tizimlarining muhim qismi bo‘lishiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qobilov A.U., Rajabov S.B. O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyasini rivojlantirishni boshqarish muammolari va istiqbollari //Ochiq kirish ombori. – 2024. – T. 10. – Yo‘q. 6. – 96-103-betlar.
2. Kobilov A. U. et al. Development of the digital economy in the Republic of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 402. – C. 08038.
3. Oybek o‘g‘li O. N., Urinovich K. A., Baxtiyorovich R. S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va boshqa majburiy tolovlarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 5. – №. 5.
4. Rajabov S. et al. Tasavvurli, umumiy-tasavvurli va raqamli-tasavvurli qoidalarni tahlil //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 5. – C. 262-268.
5. Abdulakhatov M. MODELS AND METHODOLOGIES SOFTWARE DEVELOPMENT. – 2024.
6. Abdulakhatov M. M., Avlokulova S. S. TECHNOLOGY OF SEARCH ORGANIZATION IN VIRTUAL E-SHOPS WITH IMAGE RECOGNITION //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

CHORRAHALARDA MAVJUD OQIMNI BOSHQARISH USULLARI

Sh.X.Shermatov, katta o‘qituvchisi,(TDTrU)
U.I.Isoxanov katta o‘qituvchisi (TDTrU)

Transport oqimi oqimini uchta asosiy usulda boshqarish mumkin – transport vositalarini harakatini cheklash, transport harakati ko‘rsatkichlarini, harakat yo‘nalishini va axborotlarni o‘zgartirish. Shahar sharoitida shahar transportini boshqarishning yuqorida aytib o‘tilgan barcha usullari qo‘llaniladi.



1-rasm. Svetofor yordamida boshqaruv.

Avtotransport vositalarinining harakatini cheklash orqali boshqarish. Avtotransport vositalarini to‘xtatish orqali transport vositalari oqimini boshqarishga yondashuv asosiy hisoblanadi va odatiy misol svetofor orqali boshqarishdir. Chorrahadan o‘tadigan har bir transport oqimiga uchta asosiy yorug‘lik signallari ta’sir qiladi – qizil, sariq va yashil.

Biroq, tashqi soddaligi bilan svetofor signalidagi boshqaruv harakatlari boshqaruv obyektining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli ancha murakkab tuzilishga ega. Ushbu ta’sirlarni ko‘p o‘lchovli vektor sifatida tavsiflash mumkin, ularning tarkibiy qismlari quyidagidar:

- harakat yo‘nalishlarini yopish va ochishga tayyorgarlik ko‘riladigan oraliq fazalarning davomiyligi (o‘tish oralig‘i);

- tartibga solish siklining davomiyligi – bu barcha ruxsat yetilgan oraliq sikllari o‘zgaradigan vaqti;

- samarali sikl davomiyligini nazorat bosqichlari o‘rtasida taqsimlash;

- yo‘l tarmog‘ida transport vositalarining to‘xtovsiz harakatlanish imkoniyatiga ta’sir qiluvchi qo‘shni chorrahalarda fazalarni yoqish orasidagi vaqt o‘zgarishi;

- chorrahada transport oqimini ochish tartibini belgilaydigan sikldagi fazalar ketma -ketligi.



2-rasm. Smart svetoforlar yordamida transport harakatini boshqarish.

Quyidagi taqdimotda signal rejasi har bir chorraha uchun alohida o‘rnatilgan ro‘yxatdagi parametrlardan iborat ko‘p o‘lchovli vektor sifatida tavsiflanadi. Ijro yetuvchi vositasi sifatida, svetoforlardan tashqari, transport vositalarini to‘xtatish uchun boshqariladigan yo‘l belgilaridan foydalanish mumkin, masalan, "Kirish taqiqlanadi", tanlangan harakat yo‘nalishi uchun svetoforlar yoki mexanik to‘siqlar - shlagbaumlar.



4-rasm. Chorrahada svetofor yordamida va 5.42 yo‘l belgisi orqali harakatni boshqarish.

Boshqaruv vaqtinchalik jadvalga muvofiq amalga oshiriladi. Usulni qo‘llash boshqaruv zonasidagi transport oqimlari holatining xususiyatlarini har tomonlama o‘rganishni talab qiladi. Ma’lumotlar transport tarmog‘ining xarakterli nuqtalarida o‘lchangan o‘tgan yillardagi transport oqimlarining xususiyatlari (transport oqimi intensivligi va tarkibi) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni statistik tahlil qilish orqali olinadi va ular asosida boshqaruv tizimining ish tartibi aniqlanadi.

Ushbu yondashuvning kamchiliklari, harakatni cheklash orqali nazorat qilishda to‘xtagandan keyin joyidan qo‘zg‘alish uchun yoqilg‘i sarfining oshishi natijasida yuzaga keladigan ekologik zararli gazlarning atrof muhitga chiqishi oshadi. Transport oqimlarining parametrlarini o‘zgartirish orqali boshqarish shundan iboratki, transport vositasi to‘xtamaydi, faqat uning harakat parametrlarini o‘rnatadi, masalan, "Maksimal tezlik cheklangan" belgisi yoki yo‘l chiziqlari orqali yordamida tezlik chegarasini o‘rnatish mumkin. Ushbu boshqarish usuli nafaqat avtomagistral yo‘llariga nisbatan harakatni boshqarishda transport oqimini uyg‘unlashtirish uchun ishlatiladi, balki yo‘lning xavfli uchastkalari oldida maksimal tezlik chegarasi

kiritilganda yoki haydovchini boshqa xavf haqida ogohlantirganda harakat xavfsizligi tizimlarida ham muhim ahamiyatga ega.

Chorrahada transport vositalarining oqimini boshqarishda yo‘l belgilari yoki infrostrukturani o‘zgartirish orqali boshqarish samarli usul hisoblanadi. Bunda 5.42 belgisini o‘rnatish mumkin, lekin bu usulda yo‘l belgilari va yo‘l chiziqlari yordamida boshqarish kerak. Belgining o‘zidan foydalanganda to‘g‘riga harakatlanuvchi transport vositasi orqasida turgan va o‘ngga burilmoqchi bo‘lgan transport vositalari yo‘lini to‘sib qo‘yadi. Agar shu harakatlanuvchi tasmaga 1.18 yotiq chizig‘idan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



5-rasm. 5.42 yo‘l belgisi va 1.18 yo‘l chizig‘i

Chorrahada harakatni boshqarishda uining ifrostrukturasini o‘zgartirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda asosiy kamchilik qo‘shimcha maydonlar va qo‘shimcha qurilish montaj ishlari olib borilishi kerak bo‘ladi. Shu sababli bunday joylarda infrostrukturani o‘zgartirish imkoni bo‘lmaydi. Bunday joylarda svetofor boshqaruvini yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi.

Agar chorrahalarda infrostrukturani o‘zgartirish imkoni bo‘lsa bu joylarda svetofor boshqaruvini va o‘ng tomonga burilish uchun alohida tasmalar o‘rnatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



6-rasm. Chorrahada alohida yo‘lak yordamida harakatni tashkil etish.

Svetofor yordamida tartibga solish shahar transport tarmoqlarida asosiy boshqaruv usuli hisoblanadi. Ko‘pgina shaharlarda transport oqimini boshqarishning hozirgi holati, odatda, boshqaruv moslamalari (tugunlari) belgilangan jadvalga muvofiq yoki transport oqimining holatiga (adaptiv boshqaruv) muvofiq boshqariladigan tarzda tavsiflanishi mumkin. Muhim farq shundaki, vaqt jadvalini boshqarish uchun detektorlar kerak yemas, ammo tizim transport oqimidagi har qanday o‘zgarishlarga javob bera olmaydi. Adaptiv boshqaruv holatida transport vositalarining mavjudligini aniqlaydigan detektorlar va tugun yoki

transport tarmog‘idagi oniy sharoitlarga javob beradigan boshqaruv moslamasi mavjud. Agar svetofor yordamida boshqaruv amalda foyda bermaydigan bo‘lsa yo‘l infrotuzilmalarini o‘zgartirish orqali oqimni tarqatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Клинковштейн Г. И., Афанасьев М. Б. Организация дорожного движе¬ния: Учеб. для вузов.– 5-е изд., перераб. и доп. – М: Транспорт, 2001 – 247 с.
2. Кременец Ю. А. Технические средства организации дорожного движения: Учеб. для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Транспорт, 1990. – 254 с.
3. Пугачѐв И.Н. Организация и безопасность дорожного движения: учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений / И.Н. Пугачѐв, А.Э. Горев, Е.М. Олещенко. - М.: Издательский центр «Академия», 2009. - 272 стр.

O‘ZBEKISTON YO`LLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA HOZIRGI HOLATINI YAXSHILASH DOLZARBLIGI

Xudoykulov Rustam Qo‘chqorovich, PhD (TerDMAU)
Tog`ayaliyev Sardor Abdurahmon o`g`li, assistenti, (TerDMAU)

Annotatsiya: Maqolada Samarqand shahridagi ko`chalar va yo`llarning qanday kelib chiqishi hamda ularning hozirgi kundagi muammolari yoritib o`tilgan.

Ma`lumki, Samarqand shahri qadimdan Buyuk Ipak Yo`lining markazida joylashgan hamda Yer yuzining sayqali degan nomi ham mavjud. Ushbu shahar qadimgi ko`chalar rivojlanishining asosiy sivilizatsiyalaridan biridir

***Kalit so`zlar:*** temir yo`llar, Buyuk Ipak Yo`li, Sovet ko`chalari, tarixiy ko`chalar, shahar transporti, suv transporti, havo transporti, quruqlik transporti.

O‘zbekiston Respublikasi tarixiy shaharlariga Samarqand shahri misolida ko‘rsatamiz. Samarqand shahri ko‘plab obidalari bilan dunyoga mashhurdir. Samarqand shahri O‘zbekiston Respublikasining durdonasi desak adashmaymiz. Shaharning bosh rejasiga kiritsak, ya’ni tarixiy obidalarga shikast yetkazmasdan ko‘cha va yo‘llarni loyihasini va yo‘l harakatini qayta ishlab chiqishga qaraymiz. Endilikda tarixiy obidalarga avtomobillardan chiqayotgan chiqindi gazlar, shovqinlar va silkinishlar ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mashinalarni tirbandlik tashkil etishi bu esa tarixiy obidalarni tomosha qilgani kelgan chet ellik mehmonlar hamda sayyohlar va yurtimiz aholisiga noqulaylik tug‘dirmoqda shu sababli tarixiy obidalar yoniga olib boruvchi ko‘cha va yo‘l tarmoqlariga faqatgina maxsus maqsad uchun mo‘ljallangan mashinalar ruxsat etish maqsadga muvofiqdir ularga o‘t

oʻchiruvchi mashinalar, tez yordam, militsiya xodimlari mashinalari ayrim hollarda istisno sifatida jamoat transportlarini ruxsat etsak maqsadga muvofiq boʻlar edi.
Mustaqillik yillarida mamlakat hududiy yaxlitligini taʼminlash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Qanchadan-qancha avtomobil yoʻllari barpo etildi, mavjudlari taʼmirlandi, zamonaviy talablar asosida rekonstruksiya qilindi. Koʻpdan-koʻp yoʻl oʻtkazgich va koʻpriklar bunyod etildi. Temir yoʻllar qurilishi boʻyicha mamlakatimizda misli koʻrilmagan yutuqlarga erishildi.

Yurtimiz, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi yildan yilga ochilib, tobora obod va goʻzal boʻlib borayotir. Jumladan, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar va infratuzilma tarmoqlarini barpo etish boʻyicha joriy etilayotgan dasturlar alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Endi istiqloldan oldingi yillardagi yoʻllarimiz, shahar va qishloqlarimiz ahvolini koʻz oldimizga keltiraylik. Respublikaning biror-bir yerida yoʻl qurish uchun ham, shaharlarimizda bundayroq imorat rostlash uchun ham sobiq markazning ijozati kerak edi. Bu ijozatni olish esa hech qachon oson kechmagan. Qanchadan-qancha “otangga bor, onangga bor”larni boshdan kechirishga, necha-necha idoralarning roziligini olishga toʻgʻri kelgan.

Koʻcha va yoʻllar qadimdan shakllanib, insoniyat tarixida ularning jamoa sifatida faoliyati bilan bogʻliq ravishda rivojlanib kelgan. Tabiiy va tarixiy shart sharoitlarning xususiyatiga qarab ularning hududiy mutanosibligi shakllanib borgan. Tarixdan maʼlumki, taxminan eramizdan 1000 yil oldin quruqlikdagi sunʼiy yoʻllar shakllana boshlangan. Bunga misol qilib qadimgi Xitoy bilan Evropani bogʻlagan «Buyuk ipak yoʻli» ni keltirish mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy shaharlarda koʻcha-yoʻl tarmogʻi shahar transport tizimining asosini tashkil qilib, yildan-yilga ularga qoʻyiladigan talablar ortib bormoqda.

Shaharsozlikda transport tizimi alohida oʻrin tutadi. Transport tizimi shahar aholisining aktiv hayotini taʼminlaydi va uning samardorligini oshiradi. Aks holda transport tizimisiz ayniqsa bugungi shahar hayotini tasavvur qilib boʻlmaydi. Transport va piyodalar harakatini loyihalash va uni tashkil etish - shaharning meʼmoriy - loyihaviy yechimida asosiy muammolardan biridir.

Shaharning loyihaviy tarkibida koʻcha-yoʻl tarmogʻini oqilona yechimini topish birlamchi masaladir.

Koʻcha tarmogʻining eski shakllari zamonaviy shaharsozlikka mos kelmaydi: kichik kvartallarni chegaralagan koʻchalarda chorrahalarning koʻpligi, transport oqimini oʻtkazishni kamaytiradi, qiyinlashtiradi. Markaziy tumanlarda maʼmuriy-jamoat va savdo binolarining haddan tashqari koʻpligi katta miqdordagi aholi va transportni u yerga kelishi sabab boʻlib, ularning harakatini tashkil etishni qiyinlashtiradi.

Shaharda transport tizimi yer osti va yer usti transport inshootlaridan iborat. Koʻchalar shaharlarning dastlabki paydo boʻlishi bilan shakllanib boshlagan.

Shaharda transport tizimini tashkillashtirish, shahardagi aholi zichligiga, har 1000 kishiga toʻgʻri keladigan avtomobillar soniga, tarixan shaharning shakllanishida koʻcha-yoʻl tarmogʻining qaysi sxema asosida shakllanganligiga bogʻliqdir.

Zamonaviy shaharsozlikda transport tizimini maqbul yechimini yaratish shaharni shakllantirishda asosiy rol oʻynaydi.

Shaharning transport infrastrukturasi, shahar tarkibi faoliyatini taʼminlovchi, bir-biri bilan uzviy bogʻlik boʻlgan yagona transport tizimini hosil qiluvchi tashqi va ichki transport tizimi elementlaridan iborat boʻladi.

Shaharning transport infrastrukturasi quyidagilardan iboratdir:

- aholini shaharning barcha rejaviy tarkiblariga borishini va zaruriy yuklarni tashishni taʼminlovchi koʻcha-yoʻl tarmogʻi (KYT);

- koʻcha-yoʻl tarmogʻidan tashqari (yer osti va yer usti) dagi transport tarmogʻi;

- shahar rejaviy tarkibiga bogʻlangan tashqi (shaharlararo) transport;

- transport xoʻjaligiga xizmat qiluvchi inshootlar (transportlarni saqlash harakat tarkibini taʼmirlash parklari va depolari, yuklarni qayta ishlash tayanchlari yoki yuk tushirish maydonlari, energetika xoʻjaligi, vokzallar va h.k.).

SHaharning transport infrastrukturasi oʻz tarkibiga quyidagilarni qabul qiladi:

1. Barcha turdagi tashqi (shaharlararo) transport: -avtomobil yoʻllari; - temiryoʻl; - suv transporti; - havo transporti; -tranzit quvur tarmoqlari.
2. Barcha turdagi shahar transporti:

a) shahar yoʻlovchi transporti: - avtomobil (avtobus, mikroavtobus, shaxsiy avtomobillar); - relsli (tramvay); - elektr tarmoqli koʻcha (trolleybus); - monorelsli yer usti; - relsli yer osti; -relsli yer usti (elektrpoezdlari); - suv transporti.

b) shahar yuk tashuvchi transporti: - avtomobil; - relsli elektr (maxsus poezdlar).

v) shahar maxsus transporti: - sanitar-texnik; - tibbiy; - yongʻinga qarshi va h.k.

Mikrorayon, turarjoy rayoni va sanoat rayonlaridagi ichki koʻcha va yoʻllar – binolar guruhiga yoki alohidagi bino va inshootlarga, madaniy- maishiy obʼektlarga, dukon, maktab, bogʻchalarga, xoʻjalik maydonlariga, yongʻinga qarshi gidrantlar va boshqa xoʻjalik va havfsizlik xizmatlari obʼektlariga xizmat qiladi.

Ichki yoʻllarni loyihalashning asosiy texnik meʼyorlari ularning ahamiyati va undagi tezlikni 30 km/s ga moʻljallanadi.



1- rasm. Turar joy tumanida transport va piyodalar harakati tarmog‘ini tashkillashtirish.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. ShNQ 2.07.01-03* “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish”. Toshkent 2009 y
2. Isamuxamedova D.U., Ismoilov A.T., Xotamov A.T. “Injenerlik obodonlashtirish va transport”. –Toshkent. “Aloqachi” 2009 y.
3. Xotamov A.T., Usmonov Q.T. “Shahar hududini kompleks obodonlashtirish”. – Toshkent 2014 y
4. Mirziyoev Sh.M-Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent-“O‘zbekiston”-2017

TRANSPORTDA YUK VA YO‘LOVCHILARNI TASHISHDA MAVJUD MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI

Sunatov Jo‘rabek Turg‘unbek o‘g‘li, o‘qituvchi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada transportda yuklarni va yo‘lovchilarni tashishda uchraydigan muammolar haqida ma’lumot berilgan. Mazkur muammolarni hal etishning amaliy yechimlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Transport, tayanch soha, tizim, empirik yondashuv, xalqaro tajriba, infratuzilma, xavfsizlik.

Kirish. Transport tizimi mamlakat iqtisodiyotining tayanch sohasi bo‘lib, yuk va yo‘lovchilarni tashish uning muhim jihatlaridan biridir. Biroq, transport xizmatlari sohasida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy samaradorlikka, ekologik holatga va aholining farovonligiga salbiy ta’sir

koʻrsatmoqda. Ushbu maqolada transportda yuk va yoʻlovchilarni tashish bilan bogʻliq dolzarb muammolar tahlil qilinadi va ularga samarali yechimlar taklif etiladi.

Yoʻlovchilarni avtomobil tashish sohasidagi davlat transport siyosatining strategik maqsadi ijtimoiy, ekologik va boshqa maxsus talablarga mutlaq rioya qilgan holda yoʻlovchi tashishga boʻlgan ehtiyojni kafolatlaydigan va samarali qondiradigan avtomobil transporti tizimini shakllantirishdan iborat. Shu maqsadda transportda amalga oshirilayotgan tarkibiy oʻzgartirishlar mulk shakili sub'yektlarini davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish, xizmatlar narxida transport xarajatlarini pasaytirish, iqtisodiy jihatdan asoslangan tariflarni belgilash, transport korxonalari oʻrtasida raqobatni kuchaytirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, sifat koʻrsatkichlarini bir vaqtning oʻzida yaxshilagan holda yoʻlovchi tashishda avtotransport jarayonini tashkil etish samaradorligi katta ahamiyatga ega. Buning sababi resurs zichligini kamaytirish, talab qilinadigan sifatda koʻrsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish, transport xavfsizligini ta'minlash va ekologik talablarni qondirishdir [1].

Metodlar. Tadqiqotda transport tizimining dolzarb muammolarini oʻrganish uchun analitik va empirik yondashuvlar qoʻllanildi. Transportda yuk va yoʻlovchilarni tashish boʻyicha statistika ma'lumotlari tahlil qilindi va mavjud muammolarni aniqlash uchun transport mutaxassislari bilan suhbatlar olib borildi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida muammolarning yechimiga oid metodologik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Transport infratuzilmasining yetishmovchiligi: Koʻplab mamlakatlarda yoʻllarning sifatsizligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani yuk va yoʻlovchilarni tashishning samaradorligini kamaytirmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarida transport vositalarining mavjudligi va texnik holati talabga javob bermaydi.

Ekologik muammolar: Transportdan foydalanish natijasida katta miqdorda chiqindilar havoga chiqariladi. Ayniqsa, yuk tashish xizmatlarida yuk avtomobillari atmosferaga koʻp miqdorda zararli gazlar chiqaradi.

Transportda xavfsizlik: Yoʻlovchilar tashish jarayonida xavfsizlik masalalari katta ahamiyatga ega. Yoʻllarda sodir boʻlayotgan avariyalar va ularning oqibatida hayotini yoʻqotayotganlar soni yuqori darajada qolmoqda.

Transport tarmoqlarining integratsiyasi yoʻqligi: Shahar va qishloq joylarida transport xizmatlari oʻrtasidagi aloqaning zaifligi yoʻlovchilar va yuklarni bir nuqtadan boshqasiga tashish jarayonini murakkablashtiradi.

Muhokama. Transportda yuk va yoʻlovchilarni tashishdagi dolzarb muammolarni yechish uchun quyidagi yechimlar taklif qilinmoqda:

Как указано выше, на дугах графа сети городского общественного транспорта создавались искусственные задержки автостанциях в диапазоне от 3 до 30 мин (от 3 до 15 мин с шагом 2 мин). Это позволило классифицировать станции по востребованности в зависимости от затрат времени на ожидание, чтобы выявить ряд станций, претендующих на роль транспортно-пересадочных узлов (таблица 1). Решив аналогичную задачу для транспортно-пересадочных узлов, с учётом задержек на вход, равных 10, 20, 40 и 110 мин., мы смогли определить приоритетные места формирования ТПУ на базе железнодорожных станций (см. таблицу 1).

Таблица 1

Сводная таблица потенциально значимых узлов для размещения транспортно-пересадочных узлов

№ п/п	Название узла распределения	K_{pass}		Виды транспорта, взаимодействующие в узле
		При задержке районных автобусов	При задержке личного транспорта	
1	*2*	*3*	*4*	*5*
1	Рынок «Кук бозор»	0,71	0,98	Частный транспорт-общественный транспорт
2	Рынок «Ором бозор»	0,71	0,90	Частный транспорт-общественный транспорт

Итак, с помощью предложенной методики было выявлено 2 потенциально значимых узлов (см. таблицу 1), в которых пассажиропоток значителен и постоянен («устойчивые» станции). Для выявления мест размещения транспортно-пересадочных узлов, нахождение «показателя устойчивости» в диапазоне от 0,7 до 0,9 показывает места слабо изменяющегося пассажиропотока (пассажирооборота), что является одной из основных характеристик мест размещения транспортно-пересадочных узлов, указывающих на стабильный востребованный спрос.

Введенное понятие «устойчивость» узла −это уровень востребованности станции при сложившемся расселении и размещении районов тяготения, слабо зависящий от временных задержек на вход, т.е. «устойчивые» узлы − узлы со значительным, практически постоянным потоком, на базе которых целесообразно формирование транспортно-пересадочных узлов. Основным показателем устойчивости станции принят коэффициент влияния величины задержки на размер пассажиропотока («показатель устойчивости») K_{pass}.

Сравнительные расчеты показывают, какие потери может нести тот или иной вид транспорта при неблагоприятных для населения условиях движения, обусловленных временными задержками. Проведенное натурное обследование ряда транспортных узлов показывает, какие потери времени наблюдаются у пассажиров на пересадках при нерациональной организации передвижений в узле.

Для проверки применимости разработанной методики и обоснования социально-экономической эффективности организации транспортно-пересадочного узла осенью 2023 года было проведено натурное хронометражное обследование затрат времени на пересадку выбранных пересадочных пунктов силами студентов Джизакского политехнического

института. В составе этой работы были выполнены натурные измерения затрат времени на пересадку в будние дни (кроме понедельника и пятницы) в утренний час-пик (8:00–9:00) для всех возможных путей пересадки между наземными видами городского общественного транспорта. Общие результаты проведенного обследования и сравнение затрат времени при пересадке с нормативными показателями представлены в таблице 2.

Из представленной выборки только две станции «попали» в вышеуказанный норматив. Однако, оптимизировав организацию передвижения в узле с помощью рационального устройства транспортно-пересадочного узла, можно повысить эффективность его использования (см. таблицу 2).

Таблица 2

Показатели экономической эффективности при оптимизации затрат времени на пересадку в узлах

№ п/п	Название узла	Нормативные затраты времени на пересадку tн, с	Средневзвешенные затраты времени на пересадку по обследованию t, с
1	Рынок «Кук бозор»	300	477
2	Рынок «Ором бозор»	300	426

Оценка социально-экономической эффективности предлагаемых мероприятий произведена на основании стоимостной оценки затрат времени населения.

Стоимость сэкономленного времени одного пассажира находится как:

$$P = \frac{t_n - t}{60} S$$

где t_n – нормативные затраты времени на пересадку [7], с;

t – средневзвешенные затраты времени на пересадку по обследованию, с; S – стоимость минуты рабочего времени, сум.

Стоимость сэкономленного времени всех пассажиров в узле находится путем умножения величины пассажиропотока на стоимость сэкономленного времени одного пассажира (см. таблицу 2).

Результаты хронометражного обследования затрат времени при пересадке позволяют говорить о целесообразности преобразования существующих пересадочных пунктов в полноценные транспортно-пересадочные узлы.

LOGISTIKANING SURXONDARYO TASHQI IQTISODIYOTI RIVOJIDAGI O‘RNI

Mirzayev Alisherjon Shamsutdin o‘g‘li, stajyor- o‘qituvchi, (TDMAU)
Himoydinov Maxmudjon Abdulhakim o‘g‘li, talaba (TDMAU)

Annotatsiya. Maqolada logistikaning iqtisodiy mohiyati, uni Surxondaryo iqtisodiy salohiyatining oshirishdagi o‘rni haqida fikir yuritildi, foyda ko‘lami va qo‘shimcha qiymatini oshirishdagi o‘rni o‘rganildi. Logistika xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlarga xaqida fikr yuritildi. Transport xizmati, saqlash, qadoqlash, hujjatlashtirish va boshqa vositachilik munosabatlari va harakatlarining samaradorlik ko‘rsatgichlariga tasiri tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: Tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport, import, tashqi savdo aylanmasi .

Kirish. Logistika kompaniyaning funksional muamolarining yechimlarini optimallashtirishga yordam beradi: u moddiy, axborot, moliyaviy va xizmat oqimlarini talab qilinadigan ko‘p qirrali faoliyatdir. Etkazib berish, ishlab chiqarish, tarqatish va sotish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirishdan va birlashtiradigan tizimdir. Logistikaning rivojlanishi umumiy iqtisodiyotning va viloyatning rivojlanish tendensiyalari va dinamikasi bilan belgilanadi.

Logistika tizimlari bir nechta tuzilmalarni tashkil etuvchi turli xil quyi tizimlarning interpenetratsiyasida ifodalanadigan yarim strukturalilik bilan tavsiflanadi. Ular statik emas: ular mehnat sharoitlariga nisbatan tashkil etilgan, tez qayta qurish xususiyatiga ega – bu ularning moslashuvchanligidir.

Tadqiqot metodologiyasi Surxondaryo viloyat Statistika boshqarmasining 2017-2024-yillar oralig‘ida Surxondaryoda tashqi iqtisodiy aloqalarida ro‘y bergan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, tahlil 2017-2024-yillar oralig‘ida viloyat tashqi savdo aylanmasida pasayish bo‘lganligini ko‘rsatdi.

(1-rasm). 2024-yilda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 279 852,5 ming AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 71 554,1 ming AQSH dollariga yoki 34,4% ga ko‘paydi.



	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y. yanvar-sentabr
	0							
Tashqi savdo aylanmasi	374,6	589,1	562,7	416,9	442,5	372,7	327,9	301,4
eksport	157,4	191,7	241,0	213,5	235,2	227,4	220,2	196,3
import	217,2	397,3	321,7	203,4	207,3	145,2	107,6	105,1

1-rasm. Surxondaryo viloyatida 2017-2024-yillarda tashqi savdosi ko‘rsatkichlari, mln dollar

Surxondaryo viloyati jahonning 65 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (26,3 %), Pokistonda (16,4 %), XXRda (14,0 %), Turkiyada (13,7 %), Afg‘onistonda (8,6 %), Qozog‘istonda (6,3 %), Germaniyada (4,3 %), Eron (1,4 %), Hindistonda (1,3 %), va Turkmaniston (1,0 %) qayd etilgan .TSAda eksport hajmi 182 797,8 ming AQSH dollariga (36,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 97 054,7 ming AQSH dollariga (30,0 % ko‘paydi). Hisobot davrida 85 743,1 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi

Surxondaryo viloyati 3 ta davlat bilan chegaradosh mamlakatimizdagi yagona viloyatdir, bu o‘z o‘rnida juda katta imkoniyatlar eshigidir . Yaqin kelajakda O‘zbekiston Termiz-Hirot-Karachi yo‘lagi orqali dengizga chiqishni rejalashtirmoqda. Agar ushbu yo‘lak ochilsa Surxondaryo juda tez sur’atlarda rivojlanadi va suv transporti negizida logistika ko‘rsatkichlari ham o‘sadi va mamlakat iqtisodiyotiga ulkan foyda keltiradi.



2-rasm. Surxondaryo viloyati tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan davlatlar (2024-yil yanvar-avgust, ming aqsh dollari).

Rasmda keltirilgan statistik m’lumotlarga e’tibor berib qaraydigaan bo‘lsak, viloyat tashqi iqtisodiyotida eksport hajmi import hajmiga qaraganda katta farq qiladi. Buning sababi esa ushbu rivojlangan chet davlatlarida logistika anchagi rivojlangan . Masalan Rossiya Federatsiyasining 2022-yilgi eksport hajmi 591,5 mlrd dollar, import hajmi esa 259,1 mlrd dollarga teng va bu holatda mamlakat iqtisodiyotida tarozining ikki pallasi deyarli teng turadi . Xo‘sh “bu yerda logistika qanday rol o‘ynaydi?” degan savol tug‘ulishi tabiiy hol .Logistik tashkil etilgan moddiy oqimlar zanjiridagi tovarning tannarxi an’anaviy usulga qaraganda ancha past bo‘ladi.Bundan tashqari logistikadan foydalanadigan jo‘natuvchilar kerakli hajmda va sifatga ega bo‘lgan tovarlami aniq belgilangan vaqtga yetkazib berishga kafolat bera oladilar. Shunday qilib logistikani qo‘llovchi subyektlaming raqobatbardoshligi :

- tovar tannarxining keskin kamayishi;
- yetkazib berish sifati va ishonchliligi hisobiga ta’minlanadi. Logistikaning asosiy maqsadi raqobat bozorida boshqa raqobatchilardan yaxshiroq holatda bo‘lish va ko‘proq foyda olishni ta’minlashdir. Bu maqsadga erishish moddiy oqimlarni boshqarish jarayonlarida quyidagi qoidalarga amal qilishni taqozo etadi (logistikaning yetti qoidasi):
- MAHSULOT yoki OBYEKT (SUBYEKT) - zarur mahsulot, mos obyekt (subyekt);
- SIFAT - mos keladigan sifat;
- MIQDOR - kerakli miqdorda;
- VAQT - kerakli vaqtda yetkazilishi kerak;

- JOY - kerakli joyga;
- XARAJATLAR - kam xarajatlar bilan;
- ISTE'MOLCHl - kerakli (mos) iste'molchiga.

Moddiy oqimlarni insonlar tomonidan boshqarish avval ko‘rsatib o‘tilganidek ishlab chiqarish, savdo va boshqa xo‘jalik faoliyatlar iqtisodiyotning boshlang‘ich davrida ham amalga oshirilib kelingan. Logistikaning yangiligi shundan iboratki, avvalo, u moddiy oqimlarni boshqarish foydasiga har xil xo‘jalik faoliyatidagi imtiyozlarning o‘rni almashinishiga olib keladi. Moddiy oqimlarni boshqarishni yaxshilash uchun xo‘jalik faoliyatini takomillashtirishdagi tizimli yondoshuv logistikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar Iqtisodiyot rivojlanib borayotgan davrda an'anaviy usullardan biroz chetga chiqib yangi sohalarga ham e'tibor berilsa nafaqat vaqtimizni balki pulimizni tejagan bo‘lamiz pirovardida yukimizni ham xafvsiz va ishonchli tarzda yetkazib boramiz . bunga misol qilib ati.su saytiga kirib bemalol transport muommosini hal qilishimiz mumkin . Sayt yordamizda nafaqat transportni balki, yo‘l marshrutini , yetkazish vaqti, yoqilg‘I sarfi , pullik yo‘llar va umumiy xarajatlar haqida ma'lumot olishimiz mumkin . Surxondaryo viloyati tashqi iqtisodiytotida katta burilish qila oladigan "Airtom free zone"markazi ham aynan shu yil ishga tushurilganligi ham viloyatda logistikaning rivoji tomon yana bir qadam yaqinlashdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi .

ADABIYOTLAR

1. J.R . QULMUXAMEDOV, M.M. ARIPJANOV, K.M. NAZAROV, F.R. MIRZAYEV, X.A. M IRGIYAZOV Logistika asoslari. -Toshkent: "Fan va texnologiya" M15, 11-14-bet

2. www.wikipediya.com

3. www.surxonstat.uz

4. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o‘g‘li, & Solimuhammadov Jamshidbek Sohibjon o‘g‘li. (2023). TRANSPORTDA LOGISTIKA XARAJATLARINI VATARIFLARNI SHAKLLANTIRISH. *BUTUN DUNYO ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI* , *2* (2), 106- 114.

RESPUBLIKAMIZDA TRANSPORT SOHASINI DOLZARBLIGI

Usanov Abdulhakim Eshonkulovich, katta o‘qituvchi, (TDMAU),
Himoydinov Maxmudjon Abdulhakim o‘g‘li, talaba (TDMAU)

Annotatsiya: Respublikamizda transport sohasini va ushbu sohadagi xizmatlar yildan-yilga rivojlanib boryatganligi sababli ushbu sohaga bo`lgan extiyojning oshib boryotganligini hisobga olgan holda biz ushbu sohadagi

xizmatlarni intensivlashtirish va sohadagi xizmatlarni optimallashtirishimiz kelgusida ham bu sohaning dolzarbligini saqlaydi.

Kalit so`zlar: eksport, import, investitsiyalar, tender tanlovi , brutto-shartnoma rekonstrutsiya ishlari.

Ma’lumki, O‘zbekiston qadim zamonlardan G‘arb va SHarqni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lida joylashgan davlat sifatida mashhur bo‘lgan. Endilikda ana shu qadimiy yo‘l yangicha sayqal topib, ellarni-ellarga bog‘lab kelmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish transport va kommunikasiya tizimini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi dunyo transport-kommunikasiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu hududda O‘zbekiston tomonidan transport majmuasini modernizasiya qilish va yangi xalqaro yo‘nalishlarni ochish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar bajarildi.Mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan integrasiyalashuvida, dunyodagi ko‘plab davlatlar bilan har tomonlama samarali hamkorlik o‘rnatish jarayonida fuqaro aviasiyasi o‘ziga xos alohida o‘ringa ega.

Vatanimiz fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish borasida mustaqillikning dastlabki yillaridayoq strategik yo‘nalishlar aniqlab olindi. Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, “Bizning jahon bozoriga chiqishimizda aviasiya ulkan imkoniyatlarga ega ekanini inobatga olib, o‘tish davrining muqarrar qiyinchiliklariga qaramay, ushbu soha rivojiga ustuvor ahamiyat berdik”.Tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yakuni bo‘yicha sohada ijobiy o‘sish dinamikasi saqlanib qoldi. Jumladan, Transport xizmatlari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan nominalda 20 foizga o‘sib, 58,9 trln so‘mni, respublikadagi jami xizmatlarda ulushi 22 foizni tashkil etdi . Statistika agentligi har bir transport xizmatlariga narxlarning o‘sishini hisobga olgan holda deflyator stavkasini qo‘llashi natijasida Transport xizmatlari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 foizga o‘sgan deb ko‘rsatilgan. Avtotransport (110,4%), temir yo‘l (81,7%), avia (110,7%). Yo‘lovchi tashish hajmi 3,3 mlrd nafarni yoki o‘sish surati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 foizni tashkil etdi;

Ma’lumot uchun: temir yo‘l 5,0 mln (103%), avia 3,3 mln (134 %), avtotransport 3,1 mlrd (105,1 %), metro 131,8 mln (162,8 %), tramvay 1,8 mln (101 %), trolleybus 321 ming (93,2 %). 703,6 mln tonna yuk tashildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan

105,8 foizni tashkil etdi.Ma’lumot uchun: temir yo‘l 36 mln tonna (100,5%), avia 6 ming tonna (117,2 %), avtotransport 667,5 mln tonna (106,1%). Xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashuvlari hajmi 29,1 mln tonnani (94,4 foiz), bunda, eksport yuklari – 7,9 mln tonna (100,6 foiz), import yuklari – 14,2 mln tonna (89,5 foiz)

va tranzit 7 mln tonnani (98,5 foiz) tashkil etdi. Transport xizmatlari eksporti 807,3 mln dollarni (117 foiz) tashkil etdi.

Ma’lumot uchun: avtotransport 275,6 mln doll (134,6 %), temir yo‘l 268,8 mln doll (121,7 %), avia 263,0 mln doll (99,4 %) . Transport va yo‘l xo‘jaligida 21 ta loyiha doirasida Xalqaro moliya institutlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hisobidan jami 212 mln dollar xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, yil yakuniga qadar 655 mln dollar xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilib o‘tgan yilga nisbatan 42 foizga o‘sishga erishiladi. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturi doirasida jami 263 ta loyiha doirasida 1,33 trln so‘m (yillik limitga nisbatan 45 %) o‘zlashtirildi.

Bugungi kunda avtomobil transportida yo‘lovchi tashuvchi jami 238 554 ta avtotransport vositalarida yo‘lovchi tashish xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda, shundan 39 572 tasi jamoat transportida harakatlanadi. Ma’lumot uchun: Jamoat transporti vositalari soni: 39 572 ta, shundan 7 826 tasi (19,8 foiz) avtobus, 4 020 tasi (10,2 foiz) mikroavtobus, 27 726 tasi (70,1 foiz) yengil mashina va “Damas” (27 062) rusumli avtotransportlar.

Shuningdek, 195 135 ta o‘zini o‘zi band qilgan va 3 847 ta YATT jami 198 982 ta yengil avtomashinalar yo‘nalishsiz taksi faoliyatida xizmat ko‘rsatmoqda. Joriy yilning yanvar-iyun oylari jamoat transportini rivojlantirish uchun 122 ta yangi avtobus hamda 259 ta mikroavtobus olib kelinib, yo‘lovchi tashish yo‘nalishlariga joylashtirildi. Ma’lumot uchun: Qashqadaryo 32 ta, Farg‘ona 28 ta, Namangan 16 ta, Samarqand 14 ta, Navoiy 8 ta, Sirdaryo 5 ta, Buxoro 16 ta, Andijon 2 ta, Toshkent viloyati 1 ta. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (ETTB) “Yashil shaharlar” dasturi doirasida, dastlabki 6 dona elektrobus xarid qilinib, Samarqand shahrini “Boqiy shahar” majmuasi bilan bog‘lovchi yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatmoqda. Respublikada 3 703 ta yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari, shundan 1 466 ta avtobus va 2 237 ta yo‘nalishli taksi (1 884 ta yengil va 353 ta mikroavtobus) mavjud. Yo‘nalishlar bo‘yicha 2 961 ta (1 024 ta avtobus hamda 1 937 ta yo‘nalishli taksi) tender kontraktlari mavjud bo‘lib, 38 114 ta (6 029 ta avtobus, 3 336 ta mikroavtobus va 28 749 ta yengil) avtotransport vositalari biriktirilgan.

Shu o‘rinda, 102 ta tender tanlovi o‘tkazilgan bo‘lib, shundan 1 776 ta yo‘nalish tender tanloviga (131 ta shahar ichi, 1324 ta shahar atrofi, 215 ta viloyat ichi shaharlararo hamda 106 ta viloyatlararo va shaharlararo) qo‘yilgan va 438 ta yo‘nalishda g‘olib aniqlandi.

“Yo‘lovchi tashishni monitoring va nazorat qilish” davlat muassasalari tashkil qilinib, 174 ta yo‘nalishlar dasturiy ta’minotga kiritilishi ta’minlandi. Ma’lumot uchun: Brutto-shartnoma asosida Andijonda 4 ta, Qarshida 1 ta, Samarqandda 7 ta, Buxoroda 2 ta va Urganchda 2 ta, jami 16 ta yo‘nalish bo‘yicha Brutto shartnomalari tuzilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak biz transport sohasidagi talab va ehtiyojlarnio‘rganib chiqib o‘tgan yilning mos davriga qaraganda deyarli 1 barobar oshganligini aniqladik. Darhaqiqat transport tizimi mamlakatimiz qon tomiridir . agar kelgusida ham ushbu qon tomirning rivojlanib chuqur ildiz otishni davom ettirsa mamlakatimizjahon bozoriga chiqishi uchun ulkan poydevor vazifasini o‘taydi . jahon bozoriga chiqa olgan mamlakatlar juda tez suratlarda rivojlanadi . biz transport sohasini bunday rivojlaninishini ta’minlashimiz uchun transport xizmatlarini doimiy rivojlantirib borishimiz talab va taklifni doimiy o‘rganib borishimiz va logistika sohasini rivojlantirib transport zanjirini optimallashtirishimiz kerak .shuningdek ushbu soha mamlakat import va eksport tizimida ham dolzarbligini saqlab keladi .

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o‘g‘li, & Solimuhammadov Jamshidbek Sohibjon o‘g‘li & Hoshimov O‘tkirbek Hakimjon o‘g‘li. (2023). LOGISTIKA TIZIMING TRANSPORT TASHKIL ETUVCHISI. TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI , 7 (7), 27–33. https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/546

2. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o‘g‘li, & Solimuhammadov Jamshidbek Sohibjon o‘g‘li. (2023). TRANSPORTDA LOGISTIKA XARAJATLARINI VATARIFLARNI SHAKLLANTIRISH. BUTUN DUNYO ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI , 2 (2), 106- 114.

3. Raximov, R., & Daminov, D. (2023). TRANSPORT VOSITALARI DETALLARI RESURSLARINI KOMPYUTERDA HISOBLASH. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 2(2), 75-82.

4. Raximov, R. (2023). AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO ‘RSATUVCHI USTAXONASINI JORIY ERISH AFZALIKLARI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 280-290.

5. ўғли Раҳимов, Р. Р. (2022). ТАШИШДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 656-663.

6. Rakhimov, R., & Saidahmedov, R. (2023, April). INTELLECTUAL DIAGNOSIS OF THE TECHNIL STATE OF DIRECTIONAL TAXIS. In InternationalConference On Higher Education Teaching (Vol. 1, No. 1, pp. 80-85).

7. Rakhimov, R., & Saidahmedov, R. (2023). INTELLECTUAL DIAGNOSIS OF THE TECHNIL STATE OF DIRECTIONAL TAXIS. International Conference On Higher Education Teaching, 1(1), 80–85. Retrieved from https://aidlix.com/index.php/de/article/view/89

YO‘L XO‘JALIGINI BOSHQARISHNI TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA TABIRLARI

Qulmamatova Barno Omonovna, o‘qituvchi, (TDMAU)
Sharifova Nargiza Djurayevna, o‘qituvchi, (TDMAU)
Aliqulova Madina Ural qizi, talaba (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo‘l qurish ishlarining sifati ko‘rib chiqildi, yo‘l xo‘jaligini yanada takomillashtirishda muhim masalalarni tahlil qilishmaqsadqilib olindi**.**

Kalit so‘zlar: Avtoyo‘l, yo‘l xo‘jaligi, me‘yoriy talablar,yo‘l qurilishi,

Kirish: Kadrlar masalasiga ham e’tibor qaratilib, sohadagi institutlarni yirik loyihalarga biriktirish, ular doirasida ilmiy xodimlar uchun sinov maydonlari va tadqiqot laboratoriyalari tashkil qilish, iqtidorli talabalarning xorijda malakasini oshirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-oktyabr kuni yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish va ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.Mamlakatimizda jami yuklarning 98foizi va yo‘lovchilarning 88 foizi avtomobil yo‘llari orqali tashiladi. Keyingi yillarda yurtimiz eksportida tayyor mahsulotlar ulushi ko‘payib bormoqda. Kelgusida uni yanada oshirish rejalashtirilgan.Yo‘llarni loyihalash me’yorlari eskirgan. Ularning katta-kichikligi yoki hududlarning iqlim sharoitiga qaramay, bir xil andoza qo‘llanmoqda. Loyihalarda yo‘l bo‘yi infratuzilmasi nazarda tutilmagani bois, aksariyat savdo va servis shoxobchalari tartibsiz joylashgan.

Sifat pastligining yana bir sababi – yo‘l nazoratining sustligi. Bu boradagi hozirgi talablar shundayki, texnik nazoratchilar asosiy vaqtini yo‘lning sifatini tekshirishga emas, pudratchining hujjatlarini o‘rganishga sarflaydi. Yo‘l qurilishida zamonaviy texnikalarni boshqara oladigan malakali kadrlar yetishmaydi.

Yo‘llarni monitoring qilishning avtomatlashgan tizimi yo‘qligi sababli qaysi yo‘ldan qanday hajmda yuk o‘tayotgani ma’lum emas. Yo‘llarda uning yuk ko‘tarish imkoniyatidan og‘ir bo‘lgan transportlar ham harakatlanmoqda.Ma’lumki, rivojlangan mamlakatlarda ham yo‘llarni qurish yoki ta’mirlash to‘liq davlat hisobidan amalga oshirilmaydi. Yurtimizda xususiy sheriklik bo‘yicha qonuniy asoslar yaratilgan bo‘lsa-da, yo‘l sohasida bu jarayon sust ketmoqda. Shu bois investorlarga qo‘yiladigan shartlar va davlatning majburiyatlarini aniq belgilab, yo‘l loyihalariga xususiy sheriklarni faol jalb qilish zarurligi qayd etildi.

Shuncha mablag‘ va mehnat bilan qurilayotgan yo‘llarni sifatli saqlash ham zarur. Masalan, chet ellarda yo‘llarda yuk transportlari vaznini o‘lchaydigan nazorat

tarozilari o‘rnatiladi. Bunday tarozilarni mamlakatimizda ham xususiy sheriklik asosida o‘rnatish taklifi bildirildi.

Shaharlardagi yo‘llarni saqlash va atrofini ko‘kalamzorlashtirish uchun obodonlashtirish boshqarmalari maxsus texnikalar bilan ta’minlanadi.Tovarlarni manzilga tez va sifatli yetkazish uchun esa rivojlangan yo‘l infratuzilmasi kerak.Yig‘ilishda ushbu sohani rivojlantirish, qurilish loyihalarini barqaror moliyaviy manba bilan ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

Avtomobil yo‘llarini qurish yoki ta’mirlash ishlariga xalqaro tashkilotlar va xususiy sheriklarni faol jalb qilish zarurligi ta’kidlandi.Jumladan, xalqaro va davlat ahamiyatiga molik 1 ming 600 kilometrlik yo‘llarga doir 18 ta yirik loyihani shunday hamkorlik asosida amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.Ichki yo‘llarni ta’mirlashda hududlarning ishtiroki sezilmayotgani qayd etildi. Moliya vazirligiga respublika byudjetidan faqat umumiy foydalanishdagi yo‘llargaichki yo‘llarga esa mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish tartibini joriy qilishvazifasi qo‘yildi.

Xorijiy davlatlarda yo‘l xo‘jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik yaxshi rivojlangani qayd etildi.Yo‘l bo‘yi infratuzilma obyektlarini berish orqali loyihalarga investorlarni jalb qilish mumkinligi ta’kidlandi.Mutasaddilarga davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar doirasida yo‘lbo‘yi obyektlarini joylashtirish va ularda Kadrlar masalasiga ham e’tibor qaratilib, sohadagi institutlarni yirik loyihalarga biriktirish, ular doirasida ilmiy xodimlar uchun sinov maydonlari va tadqiqot laboratoriyalari tashkil qilish, iqtidorli talabalarning xorijda malakasini oshirish zarurligi ta’kidlandi o‘tkazish taklif etildi.

Umuman, avtomobil yo‘llari sohasini tubdan isloh qilish uchun manfaatdor vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzib, 2020-2030 yillarda Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish strategiyasini ishlabchiqish zarurligi ta’kidlandi. Bu strategiyada, avvalo, avtomobil yo‘llarini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish choralari belgilanadi.Hozirgi paytda Avtomobil yo‘llari qo‘mitasida ham buyurtmachi, ham pudratchi, ham ekspluatatsiya qilish funksiyalari to‘planib qolgani oqibatida tizimda korxonalar xalqaro loyihalarda ishtirok eta olmayapti.Shu bois,qurilish tashkilotlarini qo‘mita tarkibidan chiqarib,ular negizida“O‘zavtoyo‘l aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek,xususiy sheriklar ishtirokida tezkor avtobanlar qurishga katta e’tiborqaratiladi.Davlatimiz rahbari yo‘llarsifatini oshirishishlarinil oyihalashtirishdan boshlash zarurligini ta’kidladi.Buning uchun loyiha tashkilotlarini ko‘paytirish, ularning moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini mustahkam lash bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Yo‘l-qurilish ishlarining sifati amaldagi me’yorlar talablariga qat’iy rioya etish va qurilish loyihalarini sifatli amalga oshirishdir.

Muhim nuqta – yo‘lda va uning bazasida mumkin bo‘lgan maksimal yuklarni aniqlash. Zero, yo‘l qurilishi katta moliyaviy va jismoniy xarajatlarni talab qiluvchi murakkab ko‘p bosqichli jarayondir.Birinchi vazifai shonchli pudratchi tanlashdir.Yana muhim vazifardan quyidagilar:yo‘l xo‘jaligida mablag‘larni boshqarish, moliyalashtirish va sarflashningsamaralitiziminiamalga oshirish; mavjud yo‘l tarmog‘ini saqlab turish bo‘yicha ishlarni birinchi navbatda amalga oshirgan holda yo‘l tarmog‘I xavfsizligini ta'minlash; eskirgan yo‘l qoplamasi va boshqa inshootlari tiklanishini ta'minlaydigan hajmlarda ta'mirlash ishlarini olib borish; yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, transport-yo‘l majmuasining atrof muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish;iqtisodiyot va aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib, avtoyo‘llar tarmog‘ini takomillashtirish va kengaytirish hamda davlatning strategik davlat yo‘l siyosatining va yo‘l qurilishi rivojlanishini tartibga solishning asosi sifatida yo‘l xo‘jaligining normativ-huquqiy va texnik bazasini yanada takomillashtirish; an'anaviy avtoyo‘l yo‘laklarini rivojlantirish, zamonaviy avtotransport vositalari yuqori darajada qulay va xavfsiz harakatlanishini ta'minlash uchun mavjud yo‘llarni modernizatsiyalash orqali ularning texnikdarajasini oshirish, yirik shaharlarga kirishda avtomagistrallarning eng serqatnov uchastkalarini rekonstruksiya qilish va aholi punktlaridagi tranzit oqimlarini bartaraf etish va atrof muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida aholi punktlarini aylanib o‘tadigan yo‘llar qurish;xalqaro transport yo‘laklari tarkibidagi eng yirik markazlar o‘rtasidagi aloqani ta'minlash va ularni Yevropa hamda Osiyo xalqaro avtomobil yo‘llari tizimiga birlashtirish uchun ko‘p bo‘lakli avtomagistrallar va tez yurish imkonini beradigan yo‘llar tarmog‘ini shakllantirish hamda rivojlantirish, muhim transport tugunlariga, dengiz portlariga, terminallar va transport infratuzilmasining boshqa obektlariga kirishni ta'minlash orqali mamlakat transport tizimi uyg‘un rivojlanishiga ko‘maklashish;avtotransport ortiqcha yo‘l bosishiga barham berish va tuman markazlari hamda yirik aholi punktlari o‘rtasida eng yaqin marshrutlar bo‘yicha aloqani ta'minlash uchun mintaqaviy avtomobi lyo‘llaritarmog‘i shakllanishini yakunlash,mintaqaviy yo‘l tarmog‘ining yuza kelgan tuzilmasini to‘ldiradigan yangi xordaliva bog‘lovchi yo‘llar qurish; Mutaxassislarning malakali jamoasi va maxsus texnikaga ega.

Mutaxassis tomonidan taqdim etilgan pudratchi vazifani bajarish uchun tadbirlar ro‘yxatini tuzadi va ishlarning narxini hisoblab chiqadi. Yo‘l qurilish ishlarida yuqori unumdorlik va ko‘p qirrali zamonaviy uskunalardan foydalanish ishlarni tez va sifatli bajarish imkonini beradi.Yo‘l qurilish uskunalari odatda ijara asosida qo‘llaniladi.Bu sizga hardoimxi ko‘rsatish va yuqori malakali operatorlar va mashinistlar bilan ishlash imkonini berdi. Avtomobil yo‘liga yo‘l belgilarini joylashtirish, ularning narxi nisbatan past.Engavvalo,avtomobilyo‘lida harakatlanishning yuqori xavfsizligi va undan foydalanish qulayligi

ta’minlangan.hududning gidrogeologik sharoitlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.Yo‘llarni qurish jarayonida qurilishning texnologik jarayonini ta’minlash imkoniyatlarini o‘rganish kerak.

Shuningdek, assortimentda va kerakli miqdorda kerakli qurilish materiallari.Magistralyo‘l bo‘ylab qurilishmateriallari karerlarini ishlatish yoki tashkil etish imkoniyatlarini o‘rganishmaqsadga muvofiqdir.Yaxshi qurilgan yo‘l talab qilinadigan standartlarga javob berishi kerak. Chunki bu nafaqat haydovchilar, balki piyodalar uchun ham xavfsizlik va qulaylik garovidir. Har qanday qurilish yoki rekonstruksiyaning birinchi bosqichi loyihalash bo‘lib, undan so‘ng yo‘l qurilishi rejasi ishlabchiqiladi. Yo‘lning yuqori qatlami eng katta aşınma va yirtiqqa duchor bo‘ladi,chunki u o‘tayotgan avtomobillarning katta massasidan kunlik bosimga duchor bo‘ladi. Shu sababli, yo‘lning ishonchliligi va mustahkamligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurilish ishlari qanchalik professional tarzda amalga oshirilganligi va qanday materiallardan foydalanilganiga bog‘liq.

Yo‘l xo‘jaligini takomilashtirish mamlakatning iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Sifatli yo‘l qurish mamlakatning yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.Yo‘l xo‘jaligining asosiy fondlari nisbatan mustaqilik kiqismdan tashkil topadi.Avtomobil yo‘llari va yo‘l tashkilotlarining asosiy fondlari. Yo‘llar va yo‘l inshootlarining qiymatlari, yo‘l tashkilotlaridagi asosiy fondlar qiymatidan birnechabarobar ko‘pdir.Yo‘l xo‘jaligining ekstensiv o‘sishidan intensiv rivojlanish yo‘liga o‘tishi, birinchidan, transportning asosiy fondlari bo‘lgan avtomobil yo‘llaridan samarali foydalanish hisobiga jamiyatning transportga bo‘lgan talablarini qondirishdir.

Yo‘l tashkilotlarining asosiy fondlari viloyatlarda yo‘llar qurilishi va tasarrufibilan shug‘ullanadigan sho‘ba korxonalarda mujassamlashgan bo‘lib, ularning 45 foizga yaqini yo‘l qurilishi bilan, 55 foizi esa yo‘llar tasarrufida faoliyat ko‘rsatadilar.Ulardan tashqari umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llarining tashkilotlari ham mavjud bo‘lib, ular asosan yo‘llarni ta’mirlash va yaroqli holda saqlashishlari bilan shug‘ullanadi.Asosiy ishlab chiqarish fondlari qurilish, rekonstruksiya, ta’mirlash va avtomobil yo‘llarini yaroqli holda saqlash uchun ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalarining tarkibiy qismidir. Ular ishlab chiqarishning moddiy-texnik sharoitlarini belgilab, ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat davomidpa ishtirok etadilarvao‘zlariningnaturalko‘rinishlarini o‘zgarishsiz saqlab qoladilar va o‘z qiymatlarini eskirgan sari asta-sekin yaratilayotgan mahsulot qiymatiga o‘tkazadilar.Yo‘l tashkilotlari maishiy, kommunal, madaniy, meditsina xizmatlari uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydigan asosiy vositalarga ham ega. Ular qatoriga uy-joy binolari, meditsina punktlari binolari,klublarni kiritish mumkin. Ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan asosiy fondlaruzoq xizmat muddatiga egadirlar va ularning qiymatlari ham eskirgan

sari asta-syokin tashkilotda ishlovchi xodimlar tomonidan yaratilayotgan mahsulot qiymatiga o‘tib boradi.

Yo‘l tashkilotlari asosiy fondlarining strukturasida yetakchi o‘rinni mashina va uskunalar,hamda transport vositalari egallab turadi.Yo‘l tashkilotlarining asosiy ishlab chiqarish sanoat ishlab chiqarish fondlarisanoat ishlab chiqarish fondlaridan va boshqa tarmoqlarning ishlab chiqarish fondlaridan,

Xulosa: Kadrlar masalasiga ham e’tibor qaratilib,sohadagi institutlarni yirik loyihalarga biriktirish,ular doirasida ilmiy xodimlar uchun sinov maydonlari va tadqiqot laboratoriyalari tashkil qilish,iqtidorli talabalarning xorijda malakasini oshirish zarur.Germaniyalik hamkorlar bilan birgalikda avtomobil yo‘llari qurilishi sohasida qo‘shma loyiha institutini tashkil etish, yurtimiz iqlimi va qatnov xususiyatlarini hisobga olib, yo‘l qurilishi sohasidagi normativ hujjatlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur.Masalan, mamlakatimizda yo‘l qurishda hanuzgacha asosan asfalt-beton ishlatiladi. Bunday yo‘llarning xizmat muddati 10-15 yil bo‘lib, 4-5 yildayoq ta’mirtalab ahvolga kelib qoladi. Sement-beton qoplamali yo‘llarni qurish 15-20 foizga qimmat bo‘lsa-da, ekspluatatsiya muddati 2-3 barobar ko‘p va saqlash xarajatlari 3 barobar kam.

Yurtimizda sement ishlab chiqarish hajmi ortayotganini inobatga olib, yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan davlat ahamiyatiga molik yo‘llarni bosqichma-bosqich sement-beton qoplamaga o‘tkazish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Yana bir muammo yo‘llarni monitoring qilish bo‘yicha avtomatlashgan tizim yo‘qligidir. Qaysi yo‘ldan qancha og‘irlikdagi yuk tashish mumkinligi hammaga ma’lum emas. Me’yordan ortiq og‘irlikda yuk tashuvchi avtotransport vositalarining harakati nazorat qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Yo’l xo‘jaligini 2.boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari”28.08.1998.y

”Ekonoma dorojnoga xozyaystva”YE.N.Garmonova.Transport1990.g247-*b*

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yana takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-1761 sonli qarori.

SURXONDARYO VILOYATI TEMIRYO‘L TRANSPORTIDA YO‘LOVCHILARNI TASHISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORA TADBIRLARI

Saitboboyev Ismoiljon Abdumalik o‘g‘li, talaba, (TDMAU)

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida temiryo‘l transportida yo‘lovchilarni tashishda yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning samardorligini oshirish yo‘llari, xususan, yo‘lovchichalarni tashishda ularga qulayliklar yaratish haqida so‘z yuritilgan. Bu borada yo‘lovchilarni tashishda yangicha va zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish, ushbu faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: transport, yo‘lovchilar, yo‘lovchi vagonlari, infratuzilma.

Kirish Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi soni va harakatchanligi ortib borayotganligi sababli yo‘lovchilarga sifatli, xavfsiz, ishonchli xizmat ko‘rsatish asosida jamoat transporti tizimini samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2024-yil 1-iyun holatiga ko‘ra Surxondaryo viloyati bo‘yicha jami doimiy aholi soni 2 million 907 ming kishini tashkil qilgan.Aholi soni ortib borgani sabali jamoat transportiga bo‘lgan ehtiyot oshib borishi kuzatiladi.Bu sohada temiryo‘l transportini viloyatimizda takomillashtirish va yangi yo‘lovchi vagonlarini xarid qilish va mavjud vagonlarni qayta tamirlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi Temiryo‘l taransporti jamoat transportining uzoq masofalarga yo‘lovchilarni tashishda eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ko‘pgina hollarda yo‘lovchilarni tashishda yo‘lovchi vagonlarining kamligi tufayli yo‘lovchilarga ko‘plab noqulayliklar tug‘dirib kelmoqda.

Tahlil va natijalar muhokamasi Tumanlararo yo‘lovchi poezdida yo‘lovchilarni manzillariga qulay va xavfsiz yetkazish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Sinov tadqiqoti sifatida Uzun-Termiz yo‘nalishidagi temiryo‘l transporti tanlandi. Bunda Uzun tumanidan yo‘lga chiqqan poezdda 5 ta vagon mavjud edi. Yo‘lovchilarning oqimi juda ko‘pligi tufayli Uzun tumanidan boshlab yo‘lovchilarning tirbandligi vujudga kela boshladi. Yo‘lovchi vagonida yo‘lovchilarning ko‘pligi sabab vagonda yo‘lovchilar yurish yo‘laklaridan yurib bo‘lmay qoldi. Ko‘plab yo‘lovchilar tik oyoqda manzillariga yetib olishdi.O‘rganishlar natijasida yo‘lovchilarni manzillariga xavfsiz yetkazish borasida tizimda kamchiliklar borligi ko‘zga yaqqol tashlanib turdi.



1.1-rasm Uzun-Termiz yo‘nalishidagi yo‘lovchi vagonidagi holat

1.1-jadval

Temiryo‘l transportidagi tadqiqotlar mobaynida olingan ma’lumotlar

Vagon turlari	**Mavjud o‘rindiqlar**	**Yo‘lovchi poezdidagi jami yo‘lovchilar (taxminan)**
Plaskartli 3ta	243	450
Kupe 1ta	57	140
Umumiy 1ta	81	130
Jami	**381**	**720**

Xulosa O‘rganishlar natijasida hozirgi vaqtda temiryo‘l transportidan foydalanishda yo‘lovchilar uchun ushbu ko‘rsatkich salbiy hisoblanadi. Yo‘lovchilarga qulay sharoitlar yaratish maqsadida viloyatimizning ichki temiryo‘lini hamda jamoat transportini rivojlantirish maqsadida yangi yo‘lovchi vagonlari harid qilsak temiryo‘l transportida yo‘lovchi oqimlari ko‘payadi. Buning natijasida avtomobil transportiga ehtiyojlar kamayadi va atrof muhit uchun ijobiy ta’sir qiladi

ADABIYOTLAR

1. Amonovich U. I., Kuziyev A. U., Shamsutdin o‘g‘li M. A. YO‘LOVCHILARNI SHAHARLARARO TASHISHNI TASHKIL ETISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 109-113.

2. Kuziev A.U, Mirzayev A.Sh., Xolboyev Sh.K. Improvement of quality indicators of publictransport services. International bulletin of engineering and technology.Volume 2, Issue 12 December Page 79-84

3. Abdullayev B.I., Luqmonov M.M., Karimov F.Z., Mirzayev A.Sh. Yo‘lovchilarning manzillariga o‘z vaqtida yetib borishlarini ta’minlash masalalari // “Barqaror transport tizimlari

YUKLARNI ORTISH-TUSHIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

Usanov Abdulxakim, katta o‘qituvchi, (TDMAU)
Xo‘shbboqov Husniddin, talaba, (TDMAU)

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda yuk tashish jarayonlari katta ahamiyatga ega. Yuklarni ortish-tushirish ishlarining samarali tashkil etilishi logistika tizimining muhim qismidir. Bu jarayon mahsulotlarni to‘g‘ri joylash, saqlash va o‘z vaqtida yetkazib berishni ta’minlaydi. Tezkor va xavfsiz yuk tashish, transport va omborlarni sinxron ishlashi korxona samaradorligini oshiradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — yuklarni ortish-tushirish ishlarini tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini tahlil qilishdir.

1. Yuklarni ortish-tushirish ishlarining nazariy asoslari.

Yuklarni ortish-tushirish ishlari — transport vositalariga mahsulotlarni yuklash va tushirish jarayonidir. Bu operatsiyalar yuklarning turi, miqdori va tashish sharoitiga qarab turli xil usullarda amalga oshiriladi. Ushbu jarayon korxonaning logistika jarayonida katta ahamiyatga ega, chunki ortish-tushirish ishlari mahsulot aylanishining muvofiqligini ta’minlaydi. Jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

-Yuklarning to‘g‘ri saralash va joylashtirilishi;

-Ishchilar va texnik uskunalar orasidagi muvofiqlik;

Yuklash va tushirish vaqtini optimallashtirish.

2. Ortish-tushirish ishlarida foydalaniladigan texnologiyalar va uskunalar.

Yuklarni ortish-tushirishda turli mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan uskunalardan foydalaniladi. Bularga forkliftlar, konveyerlar, kranlar va robotlashgan uskunalar kiradi. Texnologiyalarning qo‘llanilishi yuklarni tezkor va xavfsiz tarzda ortib-tushirish imkonini beradi. Transport vositalari (avtomobil, temiryo‘l, dengiz va havo transporti) bilan integratsiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu logistika jarayonlarini bir butun tizim sifatida boshqarishga yordam beradi. Zamonaviy omborlarda RFID texnologiyalari va WMS (Warehouse Management System) tizimlari keng qo‘llaniladi.

Ortish-tushirish ishlari transport jarayonining 25-30% qismini tashkil qiladi. Qo‘lda bajarilganda bu jarayon ko‘proq vaqt va resurslarni talab etadi. Ammo zamonaviy texnologiyalar — masalan, RFID va WMS tizimlari hamda avtomatlashtirilgan robotlar yordamida yuklash va tushirish vaqtini 40-50% gacha qisqartirish mumkin.

3. Ortish-tushirish ishlarining samaradorligini oshirish yo‘llari.

Yuklarni ortish-tushirish ishlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi mumkin:

1. Ishchi kuchini rejalashtirish: Malakali ishchilar va o‘qitilgan operatorlar ish sifatini oshiradi.

2. Jarayonlarni avtomatlashtirish: Avtomatik tizimlar yordamida inson xatolarini kamaytirish va vaqtni tejash mumkin.

3. Logistika operatsiyalarini optimallashtirish: Yuklarni to‘g‘ri joylashtirish va tartibga keltirish transport vositalarining samarali ishlashini ta’minlaydi.

4. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish: Ishchilar va uskunalar xavfsizligi uchun belgilangan qoidalarga qat’iy amal qilish kerak.

Xulosa va tavsiyalar. Yuklarni ortish-tushirish ishlarini samarali tashkil etish korxona logistika tizimining uzviy qismi hisoblanadi. Jarayonni avtomatlashtirish, malakali ishchilarni jalb qilish va xavfsizlik qoidalariga amal qilish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Shuningdek, texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullari bilan integratsiya qilinishi ortish-tushirish operatsiyalarining muvofiqligini ta’minlaydi. Natijada, yuklarni belgilangan vaqtda yetkazib berish, xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida yuklarni ortish-tushirish ishlarini tashkil etish bo‘yicha takliflar:

1. Mahalliy sharoitga mos texnologiyalarni qo‘llash: Energiya samarador texnikalar va mahalliy ehtiyojlarga mos uskunalarni tanlash zarur. Masalan, omborlarda qo‘llaniladigan avtomatlashtirilgan platformalarni kengaytirish.
2. Xalqaro tajribalardan foydalanish: Yetakchi logistika kompaniyalari tajribasini o‘rganib, RFID va WMS tizimlarini tatbiq etish.
3. Transport infratuzilmasini rivojlantirish: Temiryo‘l va avtomobil transporti o‘rtasida ko‘proq logistika markazlarini yaratish.
4. Ishchi kuchini rivojlantirish: Ortish-tushirish operatsiyalarini boshqaruvchi ishchilarga doimiy ravishda o‘quv kurslari tashkil etish.
5. Raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish: Yuklarni kuzatish va boshqarish uchun logistika tizimlarini raqamlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Axmedov M., Rajabov I. Logistika asoslari. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
2. Xolmirzayev S. Transport tizimlari va ularning boshqaruvi. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019.
3. Karimov U. Omborxona xo‘jaligi va yuklarni boshqarish texnologiyalari. Samarqand, 2021.

4. Nazarov A. Logistik tizimlarda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2018.

YUKLARNI TASHISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Mirzayev Alisherjon Shamsutdin o‘g‘li, stajyor-o‘qituvchi, (TDMAU)
Eshqobilov Elyor Eldor o‘g‘li, talaba, (TDMAU)
Shodiyev Ruslan Husan o‘g‘li, (TDMAU)

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida transportda yuklarni tashish, istemolchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning samaradorligini oshirish yo‘llari, xususan, ortiqcha vaqtlarni kamaytirish natijasida istemolchilarga qulayliklar yaratish kabi sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritilgan. Bu borada yuklarni tashishda yangicha va zamoviy texnologiyalarni ishlab chiqish, ushbu faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: transport, yuklar, innovatsiya, tashishni tashkil etish.

Logistika-iqtisodiyotning qon tomiri. Transport va logistikani yangi bosqichga olib chiqmasak, iqtisodiyotning barqaror rivojini ta’minlay olmaymiz.

Shavkat Mirziyoyev

Kirish. Barcha sohalar qatori transport tizimlari sohasi ham bugungi kunda yangi rivojlanish pallasiga kirmoqda. Ayniqsa, logistika tarmog‘ining jadal sur’atlar bilan sohaga integratsiyalanuv jarayoni dolzarb vazifalar qatorida e’tirof etilmoqda. Bu esa insoniyatga xizmat qiluvchi barcha tarmoqlardagi faoliyatlar bilan bog‘liq tadqiqot ishlarining nazariy ham amaliy tadbiqini nazarda tutmoqda. Transport logistikasi tarmog‘i butun dunyoda har doim ahamiyatli bo‘lgan va bu esa boshqa sohalarning taraqqiyotiga ham bevosita va bilvosita ta’sir etmay qolmaydi. Zero, bugungi davrdagi hayotning o‘zi buni ko‘rsatib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Surxondaryo viloyat Statistika boshqarmasining 2019-2023-yillar oralig‘ida Surxondaryoda yuklarni tashish sohasida ro‘y bergan

o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, tahlil 2019-2023-yillar oralig‘ida viloyatda yuklarni tashishda o‘sish bo‘lganligini ko‘rsatdi.



1.1-rasm. Surxondaryo viloyatida 2019-2023-yillarda avtotransportda tashilgan yuklar ko‘rsatkichlari, ming tonna

Xususan, 2021-yilda avtotransport vositalari orqali 68,3 ming tonna yuk o‘z manziliga yetkazilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 71,7 ming tonna yukdan oshiqroqni tashkil etdi. 2022-yilda yuk tashishda avtomobil transportining ulushi 97,5 foizni tashkil qilgan. Agar 2019-yilda 69,1 ming tonna yuk manzilga yetkazilgan bo‘lsa, 2023-yilda ularning soni 82,7 mingdan ortiq yukni tashkil qilgan.

Barcha sohalar qatori transport tizimlari sohasi ham bugungi kunda yangi rivojlanish pallasiga kirmoqda. Ayniqsa, logistika tarmog‘ining jadal sur’atlar bilan sohaga integratsiyalanuv jarayoni dolzarb vazifalar qatorida e’tirof etilmoqda. Bu esa insoniyatga xizmat qiluvchi barcha tarmoqlardagi faoliyatlar bilan bog‘liq tadqiqot ishlarining nazariy ham amaliy tadbiqini nazarda tutmoqda. Transport logistikasi tarmog‘i butun dunyoda har doim ahamiyatli bo‘lgan va bu esa boshqa sohalarning taraqqiyotiga ham bevosita va bilvosita ta’sir etmay qolmaydi. Zero, bugungi davrdagi hayotning o‘zi buni ko‘rsatib turibdi.

Yuk tashishga bo‘lgan ehtiyojni borgan sari oshib borayotganligini inobatga olib 2026-yilgacha yuk tashish xizmatlarini rivojlantirish maqsadida hududda qulay va tez yetkazib berish xizmatlarini takomillashtirib, yangi innovatsion xizmatlarni yo‘lga qo‘yish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI Natijalarga qaraydigan bo‘lsak, sohani rivojlantirish uchun hali juda ham ko‘p ishlar qilinishi kerakligini tushunish qiyin emas. Bunda asosan chegara va mamlakat hududiga bojxona jarayonlari samaradorligini oshirish, soha mutaxassislarini ko‘paytirish hamda tizimga innovatsion yondashuvni tatbiq qilish muhim.

Prezidentimiz 2023-yilning 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida hududda logistika sohasi rivojiga ham alohida e’tibor qaratdi. Surxondaryoda juda katta iqtisodiy salohiyat, yerosti va yerusti boyliklari borligi,

biroq hozircha bu salohiyatning yarmidan ham foydalanilmayotganligi ta’kidlab o‘tildi.

Shuningdek, Davlatimiz rahbarining e’tibor va tavsiyalari bilan Angor, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on hamda Oltinsoy tumanlarida 6 ta saqlash, quritish va saralash markazi, Termiz tumanida Janubiy Koreya bilan birga 50 million dollarlik logistika xabi tashkil etilishi belgilandi. Sariosiyodagi “O‘zbek-Tojik chegara posti” yonida 6 gektar bo‘sh yerda “Transport logistika markazi”ni barpo etish, Bandixondagi “Tangi-mush” stansiyasida eksport uchun yuk ortish-tushirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish topshirildi.

XULOSA Mazkur loyihalar amalga oshirilgach hududida markazlashgan mahsulotlar g‘aznasi, bojxona posti, bank, deklaratsiya to‘ldirish, sertifikatlashtirish va ko‘rikdan o‘tkazish bo‘limlari, logistika xizmatlarini ko‘rsatuvchi, tovar jo‘natish va qabul qilish kompaniyalari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Adabiyotlar

1. Kuziev A.U, Mirzayev A.Sh., Xolboyev Sh.K. Improvement of quality indicators of public transport services. International bulletin of engineering and technology. Volume 2, Issue 12 December Page 79-84

2. Amonovich U.I., Kuziyev A.U., Shamsutdin o‘g‘li M.A. YO‘LOVCHILARNI SHAHARLARARO TASHISHNI TASHKIL ETISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 109-113.

3. www.stat.uz

SURXONDARYO VILOYATIDA OCHILGAN YANGI LOGISTIKA MARKAZINING RESPUBLIKA IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

Ramazanov.B.O., talaba, (DTPI)
Mirzayev.A.Sh., o‘qituvchi, (TerDMAU)
Boymatov.O‘.T., o‘qituvchi, TerDMAU

Jahon savdosining uzluksiz o‘sishi logistika industriyasining tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalarning samaradorligiga bog‘liq[1]. Logistika qiymat zanjirining bir qismi sifatida tovarlar, xizmatlar va ma'lumotlarning kelib chiqish joyidan iste'mol joyigacha bo‘lgan oqimini rejalashtirish, amalga oshirish va samaradorligini nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Tegishli faoliyatlarga tashish, saqlash va qadoqlash kiradi. Logistika infratuzilmasiga katta sarmoya kiritish va logistika xizmatlarini yaxshilash hisobiga tovarlar va xizmatlarga talabning ortishi orqali logistikani takomillashtirish bir necha jihatdan iqtisodiy o‘sish va rivojlanish

uchun ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin[2]. Kompaniyalar va shu tariqa ular faoliyat koʻrsatayotgan iqtisodiyot oʻz faoliyatini aniq, samarali va oʻz vaqtida, ma'lum darajadagi xavfsizlik bilan amalga oshirsa, raqobatdosh ustunlikka erishishi uchun katta imkoniyat mavjud. Bundan tashqari, inson omili logistika sektori va shu tariqa butun iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda muhim rol oʻynashi mumkin[3].

Logistika sanoati mamlakat iqtisodiyotida hal qiluvchi rol oʻynaydi va iqtisodiy oʻsish, savdo va investitsiyalarning muhim omili sifatida ishlaydi. 2022 yildan 2024 yilgacha boʻlgan ma'lumotlar logistika sektori va yalpi ichki mahsulot, tashqi savdo aylanmasi va investitsiyalar hajmi kabi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar oʻrtasida sezilarli ijobiy bogʻliqlikni koʻrsatadi.

Qayd etish lozimki, qulay ishbilarmonlik muhiti va logistikani yaratish, maʼmuriy tartib-taomillarni soddalashtirish va tadbirkorlar uchun zarur sharoit yaratish maqsadida “Termiz xalqaro savdo markazi” barpo etildi. Mazkur Markaz mintaqamizda savdo aloqalarini kengaytirish va qoʻshma loyihalarni amalga oshirishda muhim platformaga aylanishi uchun shart-sharoitlar yaratish yaratilmoqda. Shuningdek, Markazda Afgʻoniston va boshqa qoʻshni respublika fuqarolariga savdo-sotiq qilishlari, taʼlim, tibbiyot hamda boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda logistika yoʻnalishi mamlakatimizning rivojlanishiga hamda iqtisodiyotining oʻsishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli Respublikamizning janubida joylashgan Surxondaryo viloyatida “Termiz xalqaro savdo markazi” ochildi, Markazning geografik joylashuv jihatdan qulayligi yaʼni Afgʻoniston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalari bilan chegaradoshligi hamda Termiz daryo portidan 17 km, Termiz xalqaro aeroportidan 15 km, Termiz temur yoʻl vakzalidan 12 kmni tashkil etishi bu albatta respublikamizning savdo aylanmasi hamda iqtisodiyotida katta ahamiyat kasb etadi[4].

Yangi ochilgan markazning rasmlari quyidagi 1-rasmlarda keltirilgan.












Iqtisodiy rivojlanishning G‘arbdagi andozalariga ko‘ra, "logistika" "marketing" va "menejment"dan ajralib chiqib, alohida ilmiy yo‘nalish olishi uchun qariyb yarim asr talab etilgan edi.

Logistika tizimi boshqarish vazifalari bilan uzviy bog‘liq. Lekin logistika tizimiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan vazifalardan biri - marketing siyosati va taktikasi. Logistika tizimining servis chegaralarini marketing talablari aniqlaydi.

Marketing taktikasi bevosita logistikaning xarajat ko‘rsatgichlariga ta’sir qiladi. Ishlab chiqarishning assortiment bo‘yicha ixtisoslashishi marketing yordamida sezilarli darajada rivojlanadi. Ayrim hollarda ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi ortishi, mehnatni tashkil qilishining yaxshilanishi mumkin, bular orqali anchagina mablag‘ va mehnat tejalishi mumkin.

Assortimentning kengayishini rejalashtirish, zahiralarni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish doiralarida korxonalar oldiga qo‘yilgan vazifalarni murakkablashtiradi.Amerika va yapon kompaniyalarining assortiment siyosatini solishtirsak, ancha farq qilishini ko‘ramiz. Yapon kompaniyalari modellarni cheklangan miqdorda ishlab chiqaradilar.

Logistika yo‘nalishlari va asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi.

1 Zaxiralar Kerakli zaxirani rejalashtirish, shakllantirish va saqlash 2 Ishlab chiqarish Moddiy tovarlar ishlab chiqarish va moddiy xizmatlarni ishlab chiqarish (ilgari yaratilgan tovarlar qiymatini oshiradigan ishlar) 3 Taqsimot Iste’molchilar talabini aniqlash, iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish, iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish, taqsimotning oqilona shakllarini tanlash va savdoni tashkil etish. 4 Mahsulotni tashish Transport turini, transport vositasini tanlash, mahsulotni yetkazib berishni rejalashtirish va nazorat qilish. 5 Omborxona va omborni qayta ishlash, Ombor

joylashgan joyni tanlash, omborni boshqarish, qadoqlash. 6 Axborot ta’minoti Moddiy oqimlar harakati to‘g‘risida ma’lumot to‘plash, logistika jarayonlarini komputer yordamida qo‘llab quvvatlash.



2-rasm. Logistik tizim ichida ishlab chiqarish vositalarining aylanishi keltirilgan

Logistika sanoati nafaqat qo‘llab-quvvatlash funktsiyasi, balki milliy iqtisodiyotning strategik tarkibiy qismidir. Uning o‘sishi va rivojlanishi YaIMni oshirish, savdoni osonlashtirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Logistika sohasini tan olish va unga sarmoya kiritish orqali mamlakat kelajakda mustahkam iqtisodiy ko‘rsatkichlar va barqaror rivojlanishni ta'minlashi mumkin.

Logistika infratuzilmasini optimallashtirish yuqori savdo hajmlarini samarali boshqarish uchun ushbu soha uchun investitsiya kiritishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunga yaxshi transport tarmoqlari, omborxonalar va texnologiyaga asoslangan logistika yechimlari kiradi. Kengaytirilgan tashqi savdo mamlakatni global ta'minot zanjirlariga integratsiya qiladi, bu esa xalqaro standartlar va muddatlarga javob beradigan ishonchli va keng ko‘lamli transport xizmatlarini talab qiladi.

Xulosa o‘rnida, logistika sohasiga doimiy e'tibor iqtisodiy o‘sishni ta'minlash va kuchaytirishi mumkin. Raqamli transformatsiyani qo‘llash, ta’minot zanjiri barqarorligini oshirish va logistika xizmatlarida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jadallikni saqlab qolish va uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun kalit bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. Maxmudov. Logistika industriyasining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati. https://insurance.tsue.uz/.

2. Andrade, R. P. et al. (2014) “Review of the Relationship between Reverse Logistics and Competitiveness”, Advanced Materials Research, Vol. 845, pp. 614–617, https://doi.org/10.4028/www.scientific.net/AMR.845.614.

3. World Economic Forum. Available at: <http://www3.weforum.org/docs/GCR2017-2018/05FullReport/TheGlobalCompetitivenessReport2017%E2%80%932018.pdf> [Accessed: June 15, 2023].

4. http://lex.uz//ru/docs/-5257472 “Termiz xalqaro savdo markazi” erkin savdo zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida qaror. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.02.2021 yildagi 47-son.

VILOYATIMIZ HUDUDLARIDA JAMOAT TRANSPORTINING YANGI YO‘NALISHLARI BO‘YICHA HOLATI VA TAHLILI

Abdivoidov Rustam Baxtiyor o‘g‘li, stajyor-o‘qituvchi, (TDMAU)
Mirzayev Alisherjon Shamsutdin o‘g‘li, stajyor-o‘qituvchi, (TDMAU)

Annotatsiya: Viloyatimiz markazi va hududlari bo‘ylab yangi yo‘nalishlar bo‘yicha aholiga qulay va sifatli jamoat transporti xizmatini ko‘rsatish ishlari izchil davom ettirilmoqda, bundan maqsad aholining shiddat bilan o‘sib borishini inobatga olgan holda, zamonaviy jamoat transportida shahar va tuman markazlarini olis hududlari bilan uzviy bog‘lash, aholining turmush darajasini oshirish va sifatli xizmat ko‘rsatish maqsadida avtobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Kalit so‘zlar: Jamoat transporti, yo‘lovchilar, qulaylik, yangi yo‘nalishdagi qatnovlar, aholi farovonligi, avtobus.

Kirish. So‘nggi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko‘rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo‘nalishlari tarmog‘ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Xorijiy ekspertlar ishtirokida yangicha yondashuvlar asosida Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatimiz markazlari jamoat transportining yangi yo‘nalishlari tarmog‘i ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, qatnov muntazamligiga, harakat xavfsizligi va sifat talablariga rioya etilmasligi, yo‘lkira haqining tabaqalashgan tariflari mavjud emasligi, jamoat transporti harakati ustuvorligi ta’minlanmasligi jamoat transporti jozibadorligini pasaytirmoqda.

Jamoat transportini moliyalashtirishning amaldagi tizimi harakat tarkibini tizimli ravishda yangilab borish va sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish imkonini bermayapti.

Aholining yuqori sifatli va qulay yo‘lovchi tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirish, sohada bozor tamoyillarini joriy etish, xususan moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish orqali xususiy sektor uchun jozibali biznes muhitini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq:

1. Transport vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining muntazam shahar avtobus yo‘nalishlarida cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida tashkil etish va moliyalashtirish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Muntazam shahar avtobus yo‘nalishlarida cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida tashkil etish va moliyalashtirish tizimi doirasida shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

avtobusda yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashuvchilar (keyingi o‘rinlarda — tashuvchilar) bilan hisob-kitoblar “bosib o‘tilgan yo‘l” va “sifat” mezonlari asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Yo‘lkira haqi tushumlari vakolatli esa davlat organi tasarrufiga o‘tkazilgan holda tashuvchilar uchun yo‘lkira haqini kunlik yig‘ish reja-topshirig‘ini belgilash amaliyoti bekor qilinishi belgilangan.



Asosiy qism: Jamoat transporti aholining uzog‘ini yaqin qilib, xarajati va vaqtini tejaydigan, hayot sifatini ko‘rsatadigan muhim ijtimoiy xizmat. Yurtimizda bu xizmatdan kuniga 10 milliondan ortiq yo‘lovchi foydalanadi.

Viloyatimiz aholisining yuqori sifatli va qulay yo‘lovchi tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirish, sohada bozor tamoyillarini joriy etish, xususan moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish orqali xususiy sektor uchun jozibali biznes muhitini yaratish maqsadida jamoat transporti tizimida izchil ishlar olib borilmoqda, xususan joriy yilning 8-aprel kuni Termiz va Sho‘rchi tumanida yangi yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashish yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, **Termiz** va **Sho‘rchi** tumanlarida ichki hududlar bo‘ylab yangi yo‘nalishlar bo‘yicha aholiga qulay va sifatli jamoat transporti xizmatini ko‘rsatish maqsadida avtobuslar qatnovi ish boshladi.

Jumladan, endilikda aholi quyidagi yo‘nalishlarda jamoat transportidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi:

Termiz tumani: SHAY 246-sonli yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadigan avtobuslar Termiz shahrining “Istiqlol” maydonidan Termiz tumanining “Yangiobod” mahallasi oralig‘idagi manzillarni bog‘laydi.

Ushbu yo‘nalish orqali Termiz tumanining “Yangiobod”, “Kelajak”, “Yangiyer” va “At-Termiziy” mahallalarida istiqomat qiluvchi yo‘lovchilarga transport xizmati ko‘rsatiladi.

Sho‘rchi tumani: SHAY 333-sonli yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadigan avtobuslar, “Sho‘rchi tibbiyot kolleji” va “Joyilma” mahallasi oralig‘idagi manzillarni bog‘laydi.

Ushbu avtobuslar Sho‘rchi tibbiyot kolleji, tuman hokimligi, Ichki ishlar bo‘limi, markaziy shifoxona va dehqon bozori yo‘nalishlari bo‘yicha aholiga transport xizmatini ko‘rsatadi.

Hududlarda jamoat transporti tizimini yaxshilash va infratuzilmani takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqda.





1-rasm. SHAY 246-sonli yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadigan avtobuslar Termiz shahrining “Istiqlol” maydonidan Termiz tumanining “Yangiobod” mahallasi oralig‘idagi manzillarni bog‘lash maqsadida topshirish marosimidan lavha.

Termiz shaharining jamoat transport tizimi raqamlarda:

- **Mavjud yo‘nalishlar soni — 11 ta;**
- **Uzunlik masofasi — 177,6 km;**
- **Avtoshoxbekatlar soni — 2 ta;**
- **Mavjud bekatlar — 98 ta;**
- **Avtobuslar soni — 140 ta;**
- **Avtobuslar orasidagi interval — 7-10 daqiqa;**
- **Yo‘nalishlar boshidan ohirgi bekatgacha — 30 daqiqa.**

Ushbu avtobuslar orqali bir kunda o‘rtacha 68 ming nafar yo‘lovchi, bir oyda esa 2,1 mln, bir yilda 24,3 mln nafar yo‘lovchilar jamoat transportidan foydalanishgan.

Jamoat transporti: Termiz shahri va uchta tumanda yangi yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashish yo‘lga qo‘yildi

Transport boshqarmasi aholidan kelib tushgan takliflarni inobatga olgan holda ichki hududlar bo‘ylab yangi yo‘nalishlar bo‘yicha qulay va sifatli jamoat transporti xizmatini ko‘rsatish maqsadida avtobuslar qatnovini yo‘lga qo‘ydi.

Jumladan, endilikda aholi quyidagi yo‘nalishlarda jamoat transportidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi:

Termiz shahri: SHAY 303-sonli yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadigan avtobuslar Termiz shahrining “Shimoliy avtoshoxbekati”dan Termiz tumani “Jayraxona” massivigacha bo‘lgan oraliqda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadi.

Angor tumani: SHAY 238-sonli yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadigan avtobuslar Termiz shahrining “Janubiy avtoshoxbekati”dan Angor tumani markazigacha bo‘lgan oraliqda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadi.

Jarqo‘rg‘on tumani: SHAY 202-sonli yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadigan avtobuslar Termiz shahri “Shimoliy avtoshoxbekati”dan Jarqo‘rg‘on tumani markazigacha bo‘lgan oraliqda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadi.

Sho‘rchi tumani (Sinov tariqasida): SHAY 211-sonli yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadigan avtobuslar Sho‘rchi tumani markazidan Oltinsoy tumani “Paxtakor chorrahasi”gacha bo‘lgan oraliqda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadi.

Hududlarda jamoat transporti tizimini yaxshilash va infratuzilmani takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqda.

XULOSA. Transport boshqarmasi huzurida “Surxondaryo yo‘lovchi tashishni monitoring va nazorat qilish" davlat muassasasi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu muassasada 2024-yilda avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmati ish boshlaydi**.**

Yo‘lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida avtomatlashtirilgan dispetcherlik boshqaruvi va nazorat tizimini saqlash, yo‘lkira haqi bo‘yicha tushumlarni jamlash va tashuvchilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish ishlarini tashkil etilsa, vaqt nuqtai nazaridan ancha tejalgan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizov Q.X. Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash. T.: 2019-94 b.

2. 2. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining “yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori. Toshkent 2022 yil 12 apreldagi 172-son

3. Azizov Q.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. - 244 b.

4. www.uzavtovul.uz — O‘zbekiston Respublikasi avtomohil yo‘llari qo‘mitasi portali.

MULTIMODALLI TASHISHNI OPTIMALLASHTIRISH MASALASIDA DINAMIK DASTURLASH

Kuziyev Abdimurot Urokovich, t.f.d., dotsent (TerDU)
Makhsumov Isroiljon Akhmedovich, tadqiqotchi, (TDTrU)

Global savdo va logistika muhim rol o‘ynaydigan zamonaviy dunyoda yuk oqimlarini transport tarmoqlariga optimal taqsimlash, transport tizimining samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini o‘zaro birgalikdagi ta’sirini jadallashtirish uchun transport sektorini doimiy tarzda oldindan rivojlantirish va yangilab borishni taqoza etadi. Bu borada, jahonning rivojlangan davlatlarida transport tarmog‘ida yuk oqimlarini optimal taqsimlash va ularni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda [1].

Zamonaviy sharoitida bozor munosabatlarining rivojlanishi tobora yangi bosqichlarda namoyan bo‘lib bomoqda. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ham, uning alohida tarmoqlarining ham raqobatbardoshligini har tomonlama ta'minlash zaruratini taqoza etmoqda.

Iqtisodiyot amaliyotida tovarlarni yetkazib berishda yangi usul va texnologiyalar, ya’ni logistika qo‘llanila boshlandi. Logistika rivoji uchun ob’ektiv imkoniyatlar yaratishda aloqa va aloqa sohasidagi texnologik taraqqiyot muhim rol o‘ynadi. Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlarini, shu jumladan transport xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini izlash bugungi kunda asta-sekin birinchi o‘ringa chiqdi.

Tadqiqotning maqsadi ta’minot zanjirini boshqarish jarayonlarini modellashtirishdir.

Tadqiqot ob'ekti - hududining logistika tizimlari.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi korxonalar uchun transport xarajatlarini kamaytirishga imkon beradigan yuk oqimlarini yetkazishning optimal sxemalarini topish va shu bilan bir qatorda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot usullari – dinamik dasturlash, matematik modellashtirish, tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi transport logistikasi muammolarini hal qilishda grafiklarga asoslangan optimallashtirishning turli modellardan foydalanish sintezi hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati transport xarajatlarini tejash hisobiga korxonaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatidan iborat.

Transport xarajatlarini optimallashtirish muammosi jo‘natish punktlaridagi yuklarni iste'mol nuqtalariga tashishning optimal rejasini topishdan iborat bo‘lib, bu - minimal xarajatlar bilan eng qisqa masofalarni topish zarurligini anglatadi [2].

Agar transport tarmoqlari zich joylashgan, yuk jo‘natish punktlari va iste’mol manzillar o‘rtasidagi transport aloqaning bir nechta variantlari mavjud bo‘lsa, bunday yo‘lni aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Qulay variantni topish uchun tovarlarni jo‘natish va ularni qabul qilish manzillari o‘rtasidagi transportli aloqalarni aks ettiruvchi transport tarmog‘i kabi dastlabki ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan matematik modellardan foydalaniladi. Bunday modellardan amaliyotda keng tarqalgani tarmoq graflari hisoblanadi. Graflar chekli sonli nuqtalar yig‘indisida iborat bo‘lib, ular graflarning cho‘qqilari va graflarning cho‘qqilarini bir-biri bilan bog‘laydigan yoylardan iborat bo‘ladi [3].

Optimallashtirish muammolarini hal qilishda grafikli modellardan foydalanish qo‘yilgan muammoni yechimini olish uchun algoritmlarni yaratishda qulay va yengil bo‘lib, aniqlikni ta’minlaydi va ularni yechishda kompyuter vositalaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Transport tarmog‘i tashishni tashkil etish mumkin bo‘lgan yo‘l tarmog‘i, ya'ni yo‘llar (ko‘chalar), ularning holati va ularga qo‘yilgan cheklovlar (harakatning tashkil etilganligi, yo‘lning o‘tkazish qobiliyati va b.q.)dan iborat bo‘ladi. Graflarni yoylar bilan bog‘lash orqali transport tarmog‘ini shakllantiriladi.

Transport tarmog‘ini modellashtirishda avvalo cho‘qqilari joylashtiriladi. Grafdagi cho‘qqilar sifatida yuk ishlab chiqaruvchi va yuk qabul qilish punktlari, yirik aholi punktlari markazlari, alohida aholi punktlari belgilanadi. Transport aloqalari mavjud bo‘lgan cho‘qqilar o‘zaro bir-biri bilan yo‘naltirilgan yoylar yordamida biriktiriladi.

Transport tarmog‘ida optimallashtirish muammosini hal qilishda erishish mumkin bo‘lgan maqsadga muvofiq optimallik mezonlari (kriteriyalari) tanlanadi. Optimallik mezoni sifatida tashish xarajati, yetkazib berish vaqti, bosib o‘tgan masofasi minimumi, rentabellik kabi ko‘rsatkichlarni qabul qilish mumkin [4, 5].

Tarmoq grafasini qurishda cho‘qqilarning ratsional soniga ahamiyat berish kerak. Cho‘qqilarning ko‘pligi transport tarmog‘ini murakkablashtiradi, bu bir tomondan aniqlikni ta’minlasa, boshqa tomondan esa masalani yechishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Masalaning hajmining kamaytirish va hisoblarni tezlashtirish uchun graflarlar sonini kamaytirish kerak. Buning uchun qaralayotgan hudud mikro va makro hududlashtiriladi. Mikrohududlashda transport tarmog‘i cho‘qilari sifatida ko‘chalarning (yo‘llarning) kesishma joylari, jo‘natish va qabul qilish punktlari, mikrorayon markazlari (tovarlarni qabul qilish yoki iste’mol joylar) olinadi.

Transport tarmog‘ini makrohududlashtirishda uni kichik tarmoqlar ko‘rinishda alohida qismlarga bo‘lib olinadi va ular uchun hisob-kitoblar alohida amalga oshiriladi, keyin umumiy natijani olish uchun bo‘lib olingan kichik tarmoqlar

birlashtiriladi. Tarmoqda tashish yo‘li o‘zgarganda butun transport tarmog‘i bo‘ylab hisob ishlari bajarilmaydi, lekin o‘zgarishlar sodir bo‘lgan mikrotarmoq holati alohida qayta hisoblab chiqiladi [6].

Tashish bir nechta transport turlarida amalga oshirilayotgan jarayon qaraladi, masalan, avtomobil, temir yo‘l va daryo transporti. Multimodal tashishdagi operatorda yukni ishlab chiqaruvchi yoki boshlang‘ich jo‘natuvchidan ularni iste’mol qiluvchilarga, ya’ni so‘ngi punktgacha yetkazib beruvchilarni tanlash imkoniyati mavjud. Yo‘nalishni kompleks rejalashtirishda tshish jarayonini tashkil etishdagi hamma jihatlar hisobga olinadi, jumladan:

-har bir tashuvchini xizmat ko‘rsatish tannarxini baholash;

-yuk jo‘natuvchi, temir yo‘l , daryo transportlari, yuk qabul qiluvchilarning transportli bog‘langanlik nuqtai nazaridan geografik joylashish imkoniyatlari va cheklanganliklari o‘rganiladi;

-yuklarni qayta yuklashdagi xarajatlar tahlili;

-yukni yetkazish muddatini hisobga olish.

Masalaning modelli sxemasida to‘rtta yo‘nalish uchastkasi rejalashtirilgan bo‘lib, unda uch marta qayta yuklash ishlari bajariladi (1-rasm): jo‘natuvchidan – B yoki C temir yo‘l stansiyasigacha boshlang‘ich AB yoki AC uchastkada avtomobil transporti xizmat ko‘rsatadi, keyingi uchastka – B yoki C temir yo‘l stansiyasidan D yoki E daryo portigacha temir yo‘l transporti, keyingi uchastka – B yoki C stansiyadan temir yo‘l transportida D yoki E daryo portigacha, keyin D yoki E portdan daryo transportida F yoki G portigacha, oxirgi uchastka –F yoki G portidan H iste’molchiga avtomobil transportida.



1-rasm. Har xil transport turlari ishtirokida tashish va qaror qabul qilishning ko‘p bosqichli jarayonining sxemasi.

Mazkur tashish sxemasida multimodal tashish operatorini B yoki C, D yoki E, F yoki G uzellardan birida tashkil tashkil etish mumkin bo‘lib, bunda tashishdagi umumiy xarajat minimumni ta’minlashi kerak. Optimallik mezoni sifatida boshqa ko‘rsatkichlarni, ya’ni yetkazish vaqti yoki sh.k. boshqalarni qabul qilish mumkin.

Dinamik dasturlashdan foydalanib, multimodal tashishning optimal yo‘nalishni izlash masalasini yechishni topishdagi matematik modelini shakllantirish uchun qaror qabul qilishning ko‘p bosqichli jarayonini tasvirlashni talab etadi (1-rasm).

Deylik tizim X_0 holatda bo‘lsin. Muammoni bajarishdagi U_0 yechim qarori qabul qilingandan keyin tizim X_1 holatga o‘tadi, bunda muammoning yechimi borasidagi qabul qilingan qaror tannarxi $C(X_0, U_0)$ga teng bo‘ladi. Har xil transport turlari ishtirokida tashish sxemasi (1-rasm) nuqtai nazardan, X_0 holati yukning jo‘natuvchi A punktda bo‘ladi, U_0 yechim – B yoki C punktgacha birinchi avtomobilli tashishdan foydalanish. Keyin tizim B yoki C stansiyada X_1 holatda bo‘ladi. U_1 yechim qarori natijasidan keyin tizim X_2 holatga o‘tadi (D yoki E stansiyagacha temir yo‘l transportida tashishga mos keladi), bunda muammoning yechimi borasidagi qabul qilingan qaror tannarxi $C(X_1, U_1)$ga teng bo‘ladi. Bu jarayon oxirgi X_4 holatgacha – yukni iste’molchilarga yetkazguncha davom etadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bu kabi ko‘p bosqichli muammolarni optimal yechimini ishlab chiqishda dinamik dasturlash usullaridan foydalaniladi. Mazkur usul va Bellmanning optimallik prinsipidan foydalanish har xil turdagi masalalarni va ko‘zda tutilmagan holatlar paydo bo‘lishini modelga kiritish imkoniyati mavjudligi nuqtai nazardan katta moslashuvchanlikni beradi. Bellman usulining asosiy goyasi murakkab masalani, avvalo, bir xil turdagi nisbatan oddiy vazifalarga keltiriladi.

Adabiyotlar

1. Kuziyev, A. U., & Makhsumov, I. (2023). Planning for the timely delivery of cargo flows on international routes. *International Journal*, *2*(6).

2. Kuziev, A. U. (2022). Methodology of development of the regional road network.

3. Kuziev, A.U., & Urokov, A.A. Development of Multimodal Transport Network in the Region. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, *1*(7), 42-46.

4. Kuziev, A., Juraev, M., Yusufkhonov, Z., & Akhmedov, D. (2023, March). Application of multimodal transportation in the development of future flows of the region. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing.

5. Kuziev, A.U., & Shermukhammedov, A. A. (2022). Methodology of regional road network development. Innovative Technologies, 3(3 (47)), 59-65.

6. Hlevnoj, I.I. (2006), Gruzovye perevozki [Freight transport], SPb., 2006, 290 p.

7. Завалищин Д.С., Попков А.Д.Динамическое программирование в задаче оптитмизации мультимодальных перевозок.

НАВИГАЦИОННАЯ СИСТЕМА КАК СОВРЕМЕННЫЙ ИНСТРУМЕНТ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОЙ РАБОТЫ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ РЕГИОНА

Суюнов О.Д, стажер-преподаватель (ТГУИА)
Мирзаев А.Ш, стажер-преподаватель (ТГУИА)
Ўрозов А.Д, студент (ТГУИА)

Аннотация. *В наше бурно развивающееся время количество транспортных средств также неуклонно растет. А это значит, что определенное систематическое планирование транспортных перевозок становится требованием времени. В данной статье изучен зарубежный опыт внедрения информационно-коммуникационных технологий на городских маршрутах и предложено их применение на автобусных маршрутах, курсирующих на городском общественном транспорте Термеза.*

Ключевые слова. *ГЛОНАСС/ГПС, ГПС-мониторинг, ГПС навигаторы, пассажирских перевозок, грузоперевозок.*

Введение. Социально-экономическое развитие любого города или региона страны невозможно без развития его транспортной системы. По мере увеличения объема пассажирских перевозок, грузоперевозок по транспортным коридорам и в пределах городов возрастают требования к скорости, надежности и безопасности перевозок. Внедрение региональных автоматизированных систем диспетчеризации транспортных средств позволяет повысить эффективность решения вышеперечисленных задач. В связи с этим нами был изучен зарубежный опыт использования навигационных систем, для того чтобы использовать его для внедрения данных систем управления транспортными потоками в г. Термезе.

Сложность вопроса и метод исследования. Развитие рынка пассажирских перевозок и автоперевозок объективно диктует нужду в системах позиционирования, использующих спутниковую навигацию, радиосвязь и электронные карты. Кроме американской системы ГПС развиваются российская система глобальной спутниковой навигации ГЛОНАСС и европейская система ГАЛИЛЕО. При помощи этих систем каждая компания, имеющая автопарк, может контролировать недобросовестных сотрудников, проверять маршруты движения транспорта, отслеживать заправки и сливы топлива, оптимизировать работу автопарка в целом и думать о защите транспорта от угона.

ГПС-мониторинг транспорта — это технология, применяемая в диспетчерских службах на транспорте, а также для решения задач транспортной логистики в системах управления перевозками и

автоматизированных системах управления автопарком для контроля фактических маршрутов транспортных средств при помощи спутников ГПС.

ГПС-навигаторы позволяют оперативно управлять пассажирским транспортом. Также автоматизированная система мониторинга позволяет следующее:

- накапливать информацию о местонахождении транспортного средства (ТС) и состоянии различных датчиков памяти бортового блока с последующей выдачей информации на монитор компьютера;
- управлять выпуском подвижного состава из парка, выявлять недовыпуск ТС, контролировать обеспеченность маршрутов ТС в течение рабочей смены;
- идентифицировать местоположение ТС на маршрутной сети, в том числе обнаруживать сход с маршрутов и самовольное изменение схемы движения;
- осуществлять контроль соблюдения графиков движения, скоростного режима ТС.

С целью отслеживания дальнейшего перемещения автомобиля и контроля его местоположения, на автомобиль устанавливается автомобильный трекер. Трекер определяет своё местоположение, принимая сигналы ГЛОНАСС/ГПС и отправляя их посредством мобильного Интернет-канала ГПРС на сервер в Интернете, на котором владелец прибора наблюдает его перемещения.

Система ГЛОНАСС может найти самое широкое применение в региональной и мировой экономике, в том числе для повышения эффективности использования транспорта, оперативности управления службами помощи в чрезвычайных ситуациях, улучшения качества обслуживания населения.

Для целого ряда применений только возможностей системы ГЛОНАСС недостаточно. Так, например, водителю транспортного средства, находящемуся в чрезвычайной ситуации, недостаточно точно определить свое местоположение, необходимо также передать эту информацию в службу спасения, сотрудники которой могли бы оперативно организовать и оказать помощь. Очевидно, что для этих целей необходимо использовать доступные средства связи, такие как сотовая подвижная связь и Интернет.

Система ГЛОНАСС, как и американская система глобального позиционирования ГПС, совместно с системами сотовой связи, дает возможность потребителям определять свое положение во времени и в пространстве с требуемой точностью, оперативностью и надежностью.

Внедрение навигационной системы актуально на любом предприятии, обладающим собственным парком транспорта и решает следующие задачи:

- экономия средств
- сокращение расходов на ГСМ до 50%;
- увеличение срока эксплуатации транспорта;
- увеличение оборачиваемости рейсов;
- сокращение расходов на диспетчерскую службу;

Контроль над транспортом

- сокращение простоев и несанкционированных рейсов;

- мониторинг местоположения транспорта в реальном времени;
- контроль рабочего времени техники;
- повышение дисциплины водителей;

Обеспечение безопасности транспорта и груза

- непрерывный мониторинг транспорта и груза;
- дистанционное управление узлами автомобиля;
- экстренное реагирование при срабатывании тревожной кнопки;
- возможность установки фотокамеры внутри салона автомобиля;

Оперативное управление

- оптимизация маршрутов;
- предоставление оперативной информации о местоположении транспорта, пробеге, скорости движения и расходе топлива.

Система состоит из следующих составных частей:

— Процессинговый центр – Сервера приема и обработки данных;

— Выделенный диспетчерский пункт – Рабочее место клиента;

— Мобильные терминальные устройства (УТП), оборудуемые на транспортные средства.

Для определения местоположения подвижного объекта используются системы спутниковой навигации ГЛОНАСС/ГПС. Передача данных, осуществляется по сетям ГСМ и Интернет.



Рис. 1 Схема работы «Навигатор-С»

Отличительные черты системы:

— Минимальные требования к персональным компьютерам для работы с программным обеспечением.

— Простой и удобный интерфейс программного обеспечения, позволяющий легко обучить работе с программой неквалифицированного пользователя ПК.

— Адаптация оборудования к Российским климатическим условиям и особенностям эксплуатации транспорта.

— Возможность подключения к мобильному терминалу практически любых узлов и агрегатов транспортных средств, для осуществления всестороннего

контроля за работой автотранспорта (кузов, кран, отвал, насос, гидравлика, двигатель, двери и т.д.)

— Постоянное совершенствование, обновление программного обеспечения и оборудования.

— Возможность интеграции с иным терминальным оборудованием и программным обеспечением.

Компании по внедрению данной системы предлагают ряд сопутствующих услуг, таких как:

— Бесплатную поставку программного обеспечения клиентских модулей рабочих мест операторов.

— Бесплатное обучение пользователей работе с системой.

— Ежедневную техническую поддержку клиентов по работе с системой.

— Замену вышедшего из строя оборудования на период устранения неисправностей.

«Навигатор – С» - автоматизированная система мониторинга мобильных и стационарных объектов. Осуществляет сбор и хранение информации поступающей от объектов мониторинга, производит анализ ситуации и выявляет отклонения от нормального функционирования объектов, отображает информацию о последнем местоположении объектов.

Вывод. В современных условиях для эффективного функционирования транспортной системы г.Термеза и Сурхандарьинской области необходимо изучение передового опыта внедрение инновационных технологий, в частности использование навигационных систем для успешной работы транспортной системы.

Список использованной литературы:

1. Ш.Мирзиёев. «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения безопасности дорожного движения в Республике Узбекистан» ПП № 377. г.Ташкент. 19.05.2018 год.

2. Жанказиев С.В. Интеллектуальные транспортные системы. Учебное пособие. М.: МАДИ. 2016 г. – 120 с.

3. Скалозуб В.В. и др. Интеллектуальные транспортные системы железнодорожного транспорта. Учебное пособие. Д.: Днепропетровский нац.университет, 2015 – 207 с.

4. Suyunov O., Oqnazarov J. YUK TASHISHDA GLONASS/GPS TIZIMLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 3. – С. 120-124.

5. Suyunov O., Oqnazarov J. AVTOMOBIL TRANSPORTIDA TASHISH JARAYONINI MONITORING QILISH UCHUN SUN'IY YO 'LDOSH TIZIMLARI //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 45-49.

2-SHO‘BA
TRANSPORT, AVTOMOBILSOZLIK, MASHINASOZLIK VA QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARIDA METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISHNING O‘RNI

HOZIRDA KUNDA MAVJUD KORXONA USTAXONALARIDA EKOLOGIK MUHITNI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Umirov Ilhom Iskandar o‘g‘li, p.f.f.d. (PhD), dotsent. (JizPI)
Suvanqulov Sherali Abdumannonovich, t.f.f.d. (PhD), dotsent. (JizPI)

Hozirgi kunda Respublikamiz avtotransport korxonalari transport vositalari harakatlanishi natijasida turli xil zararli moddalar miqdorining oshib ketishi, ustaxonalar faoliyatining me’yor bilan ishlamasligi natijasida ekologik xavfsizlikning yo‘qolishi yuzaga kelmoqda.

Avtotransport korxonasi ustaxonalarida ish jarayoni davrida ajralib chiqadigan zararli moddalar miqdorini tajriba yo‘llari bilan aniqlash, ekspluatatsiya davridagi faoliyatini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash.

Ma’suliyati cheklangan jamiyatlarining eng ko‘p zararli moddalar hosil qiluvchi mintaqalari va ustaxonalari quyidagilar hisoblanadi.

1) Bo‘yoqchilik mintaqasi
2) Payvandlash mintaqasi
3) Yuvish tozalash mintaqasi
4) Akkumulyator ustaxonasi
5) Shina ta’mirlash ustaxonasi
6) Diagnostika posti
7) Dvigatellarni sinash uchastkasi

Bo‘yoqchilik mintaqasida hosil bo‘ladigan zararli chiqindilar miqdorini hisoblash. Avtomobillarning kuzovi, agregatlari va detallarining yuzasini bo‘yoq va lak bilan qoplash va uni quritish jarayonida atmosferani ifloslantiruvchi bir qator zararli moddalar ajralib chiqadi, jumladan atseton, butil atsetat, ksilol, stirol, etilbenzol, amil spirt, uayt-spirt, etiltsellozol, amilatsetat, toluol, dioksan, metanol, propanol, etilmetilbenzol, S_1–S_{10} uglevodorodlar kabi 20 dan ortiq uchuvchan birikmalar bug‘ va gaz ko‘rinishida atmosfera havosiga chiqarib yuboriladi.

Lak va bo‘yoq materiallar tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar tashlamasining miqdori qoplamani surkash usuliga, qo‘llaniladigan jihozlarning ish unumdorligiga, qoplamaning qalinligiga, ifloslantiruvchi moddalarni ushlab

qoluvchi yoki neytrallovchi vositalarning mavjudligiga va boshqa bir qator subyektiv omillarga bog‘liq.

Dastlabki hisoblarda lak va bo‘yoq materiallarining yoki erituvchilarning uchuvchan birikmalari bo‘yash va quritish jarayonida to‘liq ravishda gazsimon holatga o‘tib ketadi deb qabul qilinadi.

Dastlabki ma’lumotlar sifatida lak va bo‘yoq materiallarining rejaviy yoki haqiqiy sarfi, ulardagi uchuvchan birikmalarning tarkibiy ulushi, uchuvchan birikmalarni tozalanish darajasi kabi ko‘rsatgichlar e’tiborga olinadi.

Manba orqali atmosferaga tashlanayotgan ifloslanishlarni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi.

Maxsus gaz tozalash qurilmalari qo‘llanilmagan hollarda, lak va bo‘yoq materiallari bilan avtomobil kuzovi va detallarini qoplash davomida ajralib chiqadigan va atmosfera havosiga qo‘shilib ketadiganaerozollar miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_a = M_K \cdot f_a \cdot f_T \cdot 10^{-4},\ m \qquad (1)$$

Bu yerda: M_K - qoplash uchun ishlatiladigan lak va bo‘yoq materiallari massasi, T; f_a - aerozol ko‘rinishida yo‘qotilgan lak va bo‘yoq materiallarining sarflanish ulushi, %.

f_T - lak va bo‘yoq materiallari qattiq tarkibining ulushi, %.

Gaz tozalash uskunalari qo‘llanilgan hollarda ajralib chiqadigan aerozollar miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$M_a = M_K \cdot f_a \cdot f_T(1-n)\cdot 10^{-4},\ T \qquad (2)$$

bu yerda: n – tozalash darajasining birlik usuli.

Maxsus gaz tozalash qurilmalari qo‘llanilmagan hollarda, lak va bo‘yoq materiallarining uchuvchan birikmalari tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$M_a = M_K \cdot f_\rho \cdot f_{p.o} \cdot 10^{-4},\quad m \qquad (3)$$

bu yerda: f_ρ - lak va bo‘yoq materiallarining umumiy massasiga nisbatan uchuvchan birikmalarning ulushi, %. $f_{p.o}$ - lak va bo‘yoq materiallaridagi erituvchilarning umumiy tarkibiga nisbatan uchuvchan birikmalarning ulushi, %.

Xuddi shu hol uchun qoplangan lak va bo‘yoq materiallarini quritish paytida uchuvchan birikmalardan ajralib chiqadigan ifloslanuvchi moddalarning umumiy miqdori quyidagicha aniqlanadi.

$$M_a = M_K \cdot f_\rho \cdot f_{p.c} \cdot 10^{-4},\ m \qquad (4)$$

bu yerda: $f_{p.c}$ - qoplangan lak va bo‘yoq materiallarini quritish paytida eritmalarning umumiy miqdoriga nisbatan uchuvchan birikmalarning ulushi, %

Agar lak va bo‘yoq materiallaridagi uchuvchan birikmalar tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori e’tiborga olinsa, u holda:

- qoplanish paytidagi yo‘qotishlar miqdori, T.

$$M_a = M_K \cdot f_\rho \cdot f_{p.o} \cdot f_K \cdot 10^{-6}, \; m \quad (5)$$

- quritish paytidagi yo‘qotishlar miqdori, T:

$$M_a = M_K \cdot f_\rho \cdot f_{p.c} \cdot f_K \cdot 10^{-6} \; m \quad (6)$$

bu yerda: f_K - lak va bo‘yoq materiallari uchuvchan birikmalari tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar miqdorining ulushi, %

Maxsus gaz tozalash qurilmalari qo‘llanilgan hollarda:

- qoplanish paytidagi yo‘qotishlar miqdori, T

$$M_{ок} = M_K \cdot f_\rho \cdot f_{p.o} \cdot f_K (1-n) \cdot 10^{-6} \; m \quad (7)$$

- kiritish paytidagi yo‘qotishlar miqdori, T

$$M_a = M_K \cdot f_\rho \cdot f_{p.c} \cdot f_K (1-n) \cdot 10^{-6} \; m \quad (8)$$

Lak va bo‘yoq materiallari uchuvchan birikmalari tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdori quyidagicha aniqlanadi;

$$M_{об} = M_{о.к} + M_{ск} \quad (9)$$

Agar bir qavat bo‘yoq qoplanish kerak bo‘lgan yuzaning umumiy maydoni va gaz tozalash qurilmasi bo‘lmagan holda atmosfera havosiga ajralib chiqadigan ifloslantiruvchi moddalarning solishtirma miqdori ma’lum bo‘lsa, u holda

$$M_{окр} = \sum_{i=1}^{n} g_{ig} \cdot F_{ij} \cdot 10^{-6} \; m \quad (10)$$

bu yerda: g_{ig} - *i* - turdagi lak va bo‘yoq materiallarini *j* – texnologik jarayon bilan yuzalarni qoplash paytida ajralib chiqadigan ifloslantiruvchi moddalarning solishtirma miqdori, g/m^2;

F_{ij} - lak va bo‘yoq materiallari bilan qoplanadigan yuza maydonining o‘lchami, mm^2.

Vaqt birligi ichida atmosferaga chiqarib tashlanadigan zararli moddalar miqdori quyidagicha hisoblanadi.

$$M_к = M_{C.T} \frac{1000}{60t}, \quad г/с \quad (11)$$

bu yerda: $M_{C.T}$ - OND – 86 tavsiyaga binoan 30 - minutdan ortiq bo‘lmagan o‘rtacha oraliqni hisobga olgan holda t – minut vaqt ichida qoplama hosil qilish texnologik jarayonida lak va bo‘yoq materiallarining sarflanish miqdori, kg;

t – texnologik jarayon uchun vaqt, minut;

Shunday qilib, vaqt birligi ichida atmosferaga chiqarib yuboriladigan bo‘yoq aerozollari miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$M_a = 0{,}56 \cdot M_к \cdot f_a \cdot f_T \cdot 10^{-4} \quad (12)$$

bu yerda: $M_к$ - bo‘yoq qoplamasini hosil qilish uchun 30 minutlik texnologik jarayon davomida foydalaniladigan lak va bo‘yoq materiallarining massasi, *kg*.

Avtotransport korxonalaridagi avtomobillarning yo‘lga chiqishida tartibsizlik va texnik nosoz transportlarning ekspluatatsiya qilinishda ekologik muommalarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda, avtomobillarning harakatlanishi uchun vaqtning asosiy qismidan foydalanilganligi sababli ushbu rejimda eng ko‘p zararli moddalar hosil bo‘lish va muhitning buzilishiga olib kelmoqda. Ishlatilgan gazlar tarkibining juda kichik miqdori ham kuchli zaharlovchi ta’sirga ega bo‘lgani uchun, asosiy faoliyatga ega bo‘lgan ustaxonalar muhitini ekologik talab bo‘yicha loyihalash tavsiya etiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ№4394-sonli qarori.
2. M. Z. Musajonov Avtoservis korxonalarini loyihalash asoslari. Toshkent. Tamaddun nashriyoti 2017 yil. 336 b.
3. Sh. E. Islomov “Jizzax shahrida avtomobillarga servis xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish muammolari”; Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini ta’minlovchi fan, ta’lim hamda modernizatsiyalagan energiya va resurs tejamkor texnologiyalar, texnika vositalari: muammolar, yechimlar, istiqbollar. Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman. Jizzax: JizPI, 17-18 aprel 2015 y. 407-409 b.
4. O.K.Adilov, Sh.E.Islomov, Sh.A.Suvonqulov. Transport vositalaridan ajralib chiqadigan zararli moddalar miqdorini aniqlash bo‘yicha boshqaruv tizimida monitor xizmati. TAYI axborotnomasi. 2015 y. 3-son.
5. https://www.autostat.ru/news/41081/.

GAZ-TURBINALI QURILMALARNI SIKLLARI

Suvanqulov Sherali Abdumannonovich, dotsent (JizPI)
Abdirashidov Aslidin Abdumuhammad o‘g‘li (TerDMAU)

Porshenli ichki yonuv dvigatelning asosiy kamchiligi uning quvvatini cheklanganligi va ishchi jismni atmosfera bosimigacha adiabatli kengayishiga imkon yo‘qligi. Bunday kamchilikka gaz turbinali qurilma ega emas, bu yerda ishchi jism sifatida suyuq va gaz simon yonilg‘ilarning yonish maxsullari hisoblanadi. Yuqori bosim va haroratga ega bo‘lgan ishchi jism yonish kamerasidan soploga yo‘naltiriladi, bu yerda ishchi jism kengayadi va katta tezlik bilan gaz turbinani kuraklariga keladi va uni kinetik energiyasi mexanik ish olish uchun foydalaniladi.

Gaz trubinali qurilmalar (GTQ) porshenli ichki yonuv dvigatellarga qaraganda bir muncha afzalliklarga ega. Gaz trubinalar nisbatan kam og‘irlikka ega, o‘lchamlari kichik, ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchi detallari yo‘q, ular yuqori aylanish chastotasi va katta birlik quvvat bilan tayyorlanishi mumkin.

Biroq katta qo‘zg‘almas GTQlarni yaratganda bir qator masalalarni hal qilish kerak. Qurilmaning siklini termik f.i.k.ni oshirish uchun gazni turbinaga kirishidagi boshlang‘ich haroratini oshirish kerak, eng yuqori haroratda barqaror va uzoq muddat ishlashini ta’minlash uchun o‘tga chidamli po‘latlarni yaratishni talab qiladi. Yuqori haroratda ishlayotgan gaz turbinalarining elementarini suvda va gazda sovitish yetarlicha ishonchli emas va konstruktiv nuqtai nazaridan murakkab.

Gaz turbina qurilmasining tejamkorligiga uning tizimiga kiruvchi kompressorning samaradorli f.i.k.ini oshirish katta ahamiyatga ega. Gaz turbinasining quvvatini taxminan 75% kompressorni harakatga keltirish uchun sarflanadi, shuning uchun GTQning umumiy f.i.k. kompressorning ishini takomillashganligi bilan aniqlanadi.

GTQ yonilg‘ining o‘zgarmas bosim va o‘zgarmas hajmdagi yonishida ishlashi mumkin. Unga mos keladigan ideal sikli issiqlikni o‘zgarmas bosimda va o‘zgarmas hajmda beriladigan sikllarga bo‘linadi.



1-rasm.Yoqilg‘i o‘zgarmas bosimda yonadigan GTQ va uning sikli

Umumiy valda gaz turbinasi - 1, kompressor-2, yonilg‘i nasosi- 3 va energiya iste’molchisi - 4 o‘rnatilgan. Kompressor atmosfera havosini so‘radi, uni kerakli bosimgacha siqadi va yonish kamerasi -5 ga yuboradi. Shu kameraga yonilg‘i nasosi vositasida bak-9 dan yoqilg‘i beriladi yoqilg‘i gazsimon bo‘lsa, nasos o‘rniga gazaviy kompressor ishlatiladi.

Yoqilg‘i yonish kamerasida 1 da yonadi. Yonish mahsulotlari gaz turbina soplolari-6 da kengayib, turbina kuraklari-7 ga kiradi, u yerda ish bajaradi va so‘ngra chiqarish patrubogi-8 orqali atmosferaga chiqarib yuboriladi. Ish bajargan gazlar bosimi atmosfera bosimidan bir oz yuqori bo‘ladi.

PV va TS- diagrammalarda GTQ ning P=const da issiqlik berilishi bilan boradigan ideal sikllari tasvirlangan. Bu siklda ishchi jismdan issiqlik olinishi o‘zgarmas bosimda amalga oshadi.



P_1 , V_1 , T_1 boshlang‘ich parametrli ishchi jism kompressorda 1-2 adiabata bo‘yicha siqiladi (izotermik yoki politropik bo‘lishi mumkin). 2-3 izobara bo‘yicha ishchi jismga q_1 issiqlik beriladi(bu protsess yoqilg‘ining yonish kamerasida yonishiga mos keladi). So‘ngra ishchi jism turbinaning soplo apparatida 3-4 adiabata bo‘yicha kengayadi va ishni turbina g‘ildiraklariga beradi. 4-1 izobarik protses ish bajargan gazlarning turbinadan chiqishi, bunda q_2 - issiqlik olinadi

O‘zgarmas bosimda issiqlik beriladigan GTQ termik f.i.k. qiymati bosim ortishi darajasi va adiabata ko‘rsatkichi K ga to‘g‘ri proporsional. Gaz trubinasidan chiqayotgan ishlatilgan gazni yonish kamerasiga kirayotgan havoni qizdiruvchi issiqlik almashinuv apparatiga yoki issiq suv, bug‘ olish uchun yuborish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Termik f.i.k. jihatidan biroz avfzalligiga qaramasdan yoqilg‘i V= const da yonadigan gaz turbinali qurilmalar yoqilg‘i P=const da yonadigan gaz turbinali qurilmalarga nisbatan kam qo‘llaniladi. Chunki bu qurilmada termik f.i.k. katta bo‘lishiga qaramasdan, uning absolyut samarali f.i.k. yoqilg‘i P=const da yonadigan gaz turbina qurilmasining absolyut samarali f.i.k.ga nisbatan kichik.

Bunga sabab turbinaga beriladigan yoqilg‘i parametrlarining vaqt ichida o‘zgaruvchan bo‘lishidir. Bundan tashqari, konstruktiv jihatdan, V=const bo‘lganda, ichki yonuv turbinasi yoqilg‘i P=const da yonadigan turbinaga nisbatan murakkabroq bo‘ladi. GTQ iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy usullari issiqlikni regeneratsiya qilish, ishchi jismni bosqichli siqish, kengaytirish va boshqalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov S.M., Avtotraktor dvigatellari - Toshkent, “Toshkent Tezkor bosmaxonasi”, 2010. - 572 b.

2. Xudoyberdiev T.S. Issiqlik texnikasi asoslari. – Toshkent.: Cho‘lpon, 2008. – 206 b.

3. Теплотехника. Учебник для Вузов В.Н. Луканин, М.Г. Шатров, Г.М. Камфер и др.–М.: Высшая школа, 2000. – 671 с.

4. Базаров Б.И. Экологическая безопасность автотранспортных средств – Ташкент, Chinor ENK, 2012. – 216 с.

BENZINNI PURKASH TIZIMLARINING (INJEKTOR) TURLARI VA ISHLASHI.

Barakayev Fazliddin Ismatovich, asiss. (TDMAU)
Shodiyev Asomiddin Nasriddin o‘g‘li, talaba (TDMAU)

Anotatsiya: Maqolada rivojlanib borayotgan benzinni purkash tizimlari, ya’ni injektorlarning turlari, ishlash prinsiplari, ularni ishlashi uchun o‘rnatiladigan qismlar va hozigi kunga qadar ishlab chiqarilgan turlari hamda ularning istiqbollari haqida qisqacha ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: markaziy bir nuqtali, taqsimlangan ko‘p nuqtali, elektron boshqarish tizimi, doimiy xotira qurilmasi, GDI

Hozirgi kunda benzinli dvigatellarda qo‘llanilayotgan yonilg‘i uzatilishini elektron boshqarishning ikki turi mavjud: elektron boshqariladigan karbyurator va benzinni purkash tizimlari. Benzinni purkash tizimlari yonilg‘ining uzatilish joyiga qarab 3 turga bo‘linadi:

- markaziy bir nuqtali, (single-point injection, SPI)
- taqsimlangan ko‘p nuqtali, (multi-point injection, MPI)
- bevosita yonish kamerasiga purkash tizimlari, (Gasoline direct injection, GDI)

Yonilg‘ini bevosita yonish kamerasiga purkash tizimi, ishlatilishi zarur bo‘lgan jihozlarning juda murakkabligi tufayli hozircha ishlatilish darajasi past. Zamonaviy avtomobil dvigateliarida asosan bir nuqtali va taqsimlangan ko‘p nuqtali purkash tizimlari ishlatiladi. Har ikkala tizimda ham yonilg‘i dvigatel silindrlarining kirish yo‘liga purkaladi.





1.1-rasm. Benzinni purkash tizimlarining prinspial sxemalari.

Benzinni purkashning elektron boshqarish tizimlari quyidagi prinsip bo‘yicha ishlaydi. Elektr yonilg‘i nasosi yonilg‘ini taqsimlash quvurida taxminan 0,2 MP bosim bilan o‘zgarmas holda ushlab turganligi sababli, silindrlarga purkaladigan yonilg‘ining miqdori elektromagnit forsunka (injektor)ning ochilib turish vaqti bilan belgilanadi. Elektron boshqarish tizimi (EBT) injektorlarni ochilib - yopilishining, ya’ni yonilg‘ini silindrlarga majburiy purkash impulsining davomiyligini drossel to‘siqchasining ochilish burchagi, tirsakli valning aylanish chastotasi, sovituvchi suyuqlik harorati va kiritish quvuridagi absolut bosimga bog‘liq ravishda boshqaradi. Purkalishi zarur bo‘lgan yonilg‘i miqdori haqidagi ma’lumot ikki raqamli kod ko‘rinishida doimiy xotira qurilmasida (DXQ) saqlanadi. Elektron boshqarish bloki datchiklardan kelayotgan ma’lumot asosida, DXQ dan zarur kodni tanlab olib, unga mos keladigan miqdordagi yonilg‘ining dvigatel kiritish klapanlari atrofiga purkalishini ta’minlaydi.

Benzinli dvigatellarda yonilg‘i purkalishini elektron boshqarish tizimining tarkibiy sxemasi 1.2-rasmda ko‘rsatilgan.

Maxovikning tishli g‘ildiragining tepasiga joylashtirilgan induktiv datchik dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi haqidagi ma’lumotlarni impuls signal sifatida shakllantiradi. Bu signal analog-raqamli o‘zgartirgich (ARO‘) 4 ga uzatiladi va raqamli kod ko‘rinishiga keltiriladi. Drossel to‘siqchasining holatini belgilovchi datchik 1 dan kelgan signal ham ARO‘ 4 yordamida raqamli kodga aylantiriladi. Takt generatori 3 ARO‘ ishlashi uchun zarur bo‘lgan doimiy chastotali impulslarni shakllantirib beradi.



1.2-rasm. Benzinli dvigatellarda yonilg‘i purkalishini elektron boshqarish tizimining tarkibiy sxemasi

Raqamli kod shaklidagi aylanishlar chastotasi va drossel to‘siqchasining holati haqidagi signallar EBTning doimiy xotira qurilmasi 5 ga uzatiladi. DXQda dvigatel aylanish chastotasi va drossel to‘siqchasining ochilish burchagiga bog‘liq ravishda elektromagnit klapan ochilish vaqtini belgilovchi raqamli signal hosil qilinadi va mikroprotsessor 6 ga uzatiladi.

Mikroprotsessor 6 DXQdan kelgan signalning zarur yonilg‘i miqdoriga proporsional bo‘lgan injektorlarning ochilib turish vaqtining davomiyligi ko‘rinishiga o‘zgartiradi. Datchik 2 bilan bog‘liq bo‘lgan sinxronizatsiya moslamasi 10, yonilg‘ini dvigatel ish jarayonining tegishli nuqtasida purkalishini ta’minlaydi va kiritish quvurining devorlarida o‘tirib qolayotgan yonilg‘i zarralarining miqdorini kamaytiradi.

Dvigatelning issiqlik holati va atrof-muhit sharoitlarini hisobga olib injektorlarni ochilib turish vaqtiga tuzatish kiritish uchun sovitish suyuqligi harorati 10, absolut bosim 11, so‘rilayotgan havo temperaturasi 12 datchiklaridan mikroprotsessorga qo‘shimcha ma’lumot uzatadi. Bundan keyin signal quvvat kuchaytirgich 7 da kuchaytiriladi va elektromagnit forsunkalar 8 ga uzatiladi.

Benzinni purkashning elektron boshqarish tizimi o‘t olish va yonish jarayoniga ta’sir qiluvchi ko‘p omillarni hisobga oladi va yonilg‘i uzatilishini murakkab bog‘lanishlar orqali amalga oshiradi. Bu dvigatelning ancha tejamli ishlashini ta’minlaydi. Shu bilan birga tuzilishining murakkabligi va unga xizmat ko‘rsatish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarurligi - bu tizimning kamchiligi hisoblanadi.

Benzinni purkash tizimi ishlatilganda esa, ya’ni injektorning kalibrlangan teshigidan yonilg‘i majburiy bosim ostida purkalganda yonilg‘i tomchilari ancha kichik bo‘ladi (markaziy forsunkadan 1,1 bar bosim bilan purkalganda, yonilg‘i tomchisining diametri 50...60 mkm dan oshmaydi). Ayniqsa, benzinning kattaroq bosim ostida tor dasta shaklida purkalishi yaxshi natija beradi (yopiq turdagi forsunkadan 5,2 bar bosim bilan purkalgan yonilg‘i tomchisining o‘lchami 20-30 mkm doirasida bo‘ladi).

Purkalgan yonilg‘i tomchilari diametri 10-15 mkm doirasida bo‘lsa, benzinni havo bilan aralashishi molekulyar darajada sodir bo‘ladi. Bunday aralashmaning dvigatelning barcha ish rejimlarida silindrlarga uzatilayotgan (ya’ni, purkalanayotgan) miqdorini juda katta aniqlik bilan ulushlash mumkin. Bu esa o‘z navbatida ichki yonuv dvigatellarining tejamkorligini oshirish, barcha aylanishlar chastotasida burovchi momentning barqarorligini ta’minlash, quvvatini oshirish, chiqindi gazlardagi kanserogen (zaharli) moddalar miqdorini kamaytirish imkonini beradi.

Ishlash prinsipiga ko‘ra benzinni purkash tizimlarini quyidagi 5 ta asosiy guruhga bo‘lish mumkin: «K », «Mono», «L», «M», «D».

D guruh, ya’ni bevosita purkash tizimi eng yangi avlod benzinli dvigatellarda ularning samaradorligini va quvvatni oshirish uchun qo‘llaniladi. GDI qisqartmasi «Gasoline Direct Injection» degan ma’noni anglatadi, bu so‘zma-so‘z «Benzinni bevosita purkash» deb tarjima qilinadi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Bevosita purkash tizimi sxemasi:

1-*Yuqori bosimli yonilg‘i nasosi; 2-yonilg‘i quvurlari; 3-taqsimlash vali; 4-o‘t oldirish svechasi; 5-yonilg‘i rampasi; 6-kiritish klapani; 7-forsunka; 8-porshenning maxsus chuqurchasi; 9-DXQ.*

Bu benzinni to‘g‘ridan-to‘g‘ri silindrlarning yonish kameralariga purkashni o‘z ichiga oladi, u erda havo bilan aralashib, yonilg‘i-havo aralashmasini hosil qiladi. Bunday qarshi tizimi bilan jihozlangan birinchi dvigatellar GDI dvigatellari (Mitsubishi 1996, Toyota, 2000-yildan) edi.

Yuqori bosimli yonilg‘i nasosisi (YuBYoN). Tizimning to‘g‘ri ishlashi (yonilg‘ini mayda zarralarga parchalash) uchun benzin yonish kamerasiga yuqori bosimda (dizel dvigatellarga o‘xshash) 5 ... 12 MPa ichida berilishi kerak.

Past bosimli elektr yonilg‘i nasosi. U yonilg‘ini bakdan 0,3 ... 0,5 MPa bosim ostida YuBYoN ga etkazib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘olib Nasimjonovich Mahmudov AVTOMOBILLARNING ELEKTR VA ELEKTRON JIHOZLARI Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik «Noshir» Toshkent – 2011.
2. https://www.youtube.com/watch?v=sz8cqygvPC4
3. https://www.spinny.com/blog/index.php/types-of-fuel-injection-systems/

BENZINNI PURKASH TIZIMLARINING DATCHIKLAR VA IJROCHI MEXANIZMLARI.

Barakayev Fazliddin Ismatovich. asiss. (TDMAU)
Berdinazarov Nurbek Qahramon o‘g‘li. talaba (TDMAU)
Boboqulov Mehroj Baxtiyor o‘g‘li. talaba (TDMAU)

Anotatsiya: Maqolada rivojlanib borayotgan benzinni purkash tizimlarining, asosiy tatchik turlari, ishlash prinsiplari, ularni ishlashi uchun o‘rnatiladigan qismlar va hozigi kunga qadar ishlab chiqarilgan turlari hamda ularning istiqbollari haqida qisqacha ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Harakatni boshqarish tizimi, havo sarfi datchigi, gaz to‘sma qopqog‘i holati datchigi, tirsakli valning holat datchigi, taqsimlash valining holat sensori, detonatsiya (titrash) datchigi, sovitish suyuqligi harorat datchigi, kislorod datchigi (λ-zond),

Ichki yonuv dvigateli va avtomobilning boshqa agregatlarini elektron boshqarishni amalga oshirish uchun transport vositasini ishlatish davrida yuzaga keladigan turli xil jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish va ularga tegishli ishlov berish zarur bo‘ladi. Bu ma’lumotlar asosida ijrochi mexanizmlar uchun boshqarish signallari ishlab chiqiladi.

Avtomobillarning elektron boshqarish tizimlarida quyidagi turdagi datchiklar tatbiq etilgan:

• IYODni boshqarish tizimida - sovitish suyuqligi harorati, moy bosimi, silindrlarga kiritilayotgan havo sarfi va harakati, drossel to‘siqchasining holati, detonatsiya, kislorod konsentratsiyasi, tirsakli valning aylanishlar chastotasi va burilish burchagi datchiklari;

• Transmissiyani boshqarish tizimida - ichki yonuv dvigateli tirsakli valining aylanishlar chastotasi, uzatmalar qutisining chiqish valini aylanishlar chastotasi, dvigatelning sovitish suyuqligining harorati; drossel to‘siqchasining holati; avtomobil tezligi datchiklari;

• Harakatni boshqarish tizimida - harakat tezligi, rul chambaragining burilish burchagi, drossel to‘siqchasining ochilish burchagi, tormoz pedalining holati, avtomobil g‘ildiragining burchak tezligi tezlanish datchiklari;

• Ma’lumot-diagnostika tizimida - yonilg‘i sarfi va sathi, harakat tezligi, tirsakli valning aylanish chastotasi, sovitish suyuqligi harorati, moylash tizimidagi moy bosimi, shinadagi bosim datchiklari;

• Servis-kompyuter tizimida - avtomobil salonidagi havo harorati, tashqi muhit harorati, sovitish suyuqligi harorati, konditsioner bug‘latgichidagi harorat, quyosh nurining kuchi, yoritilganlik, namlik darajasi datchiklari.



1.1-rasm. Injektorli dvigatellarda o‘rnatiladigan datchiklar va ularning joylashishi.

Bu yerda:

ДМРВ-датчик массового расхода воздуха-havo sarfi datchigi, ДПДЗ-датчик положения дросселный заслонка-gaz to‘sma qopqog‘i holati datchigi, ДПКВ-датчик положения каленчатного вала-tirsakli valning holat datchigi, ДПРВ-датчик положения распридительного вала- taqsimlash valining holat sensori, ДД-датчик детонатсия-detonatsiya (titrash) datchigi, ДТОЖ-датчик температура охлаждаюшего житкостя-sovitish suyuqligi harorat datchigi, ДК-датчик кислорода- kislorod datchigi (λ-zond), ДСА-датчик скорост автомобиля-avtomobilning tezlik datchigi, ДДМ-датчик давленя масло-moy bosimi datchigi, ДТВВ-датчик температура всасываемого воздуха-kiritiladigan havo harorat datchigi. EBB sensorlardan olgan ma’lumotlarni qayta ishlab injektorlarning ishlashini meyorlaydi.

Avtomobil datchiklari ancha murakkab sharoitlarda ishlaydi. Sovitish suyuqligi va silindrlarga kiritilayotgan havo harorati datchiklarining ishlash doirasi + 150...160 °C, chiqindi gazlarining tarkibini aniqlash datchiklariniki esa 1000 °C chegarasida bo‘ladi. Namlik juda keng doirada o ‘zgarib, ba’zi hollarda 100 %ni tashkil qiladi.

Yuqori namlik, o‘tkazgichlarning izolyatsiya qarshiligining kamayishi natijasida, elektr qisqa tutashuv sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Agressiv muhit (yonilg‘i, moy, antifriz, tuz, ishqor, kislota eritmalari va hokazo) ta’siridan himoya choralari ko‘rilmasa, datchiklarning elektr va mexanik elementlari korroziyaga uchrashi va yemirilishi mumkin.

Akkumulatorlar batareyasining razryadlanishi yoki yuklamaning o ‘zgarishi natijasida avtomobilning bortdagi elektr tarmog‘ida, 5 ms gacha davom etishi mumkin bo‘lgan 30 V gacha (tarmoqning nominal kuchlanishi 14 V bo‘lganda) bo‘lgan kuchlanish impulslari yuzaga kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan barcha sharoitlarda avtomobil datchiklari zarur metrologik tavsif va yuqori ishonchlilikni ta’minlashi kerak.

Temperatura datchiklari. Avtomobil turli tizimlarining ishini tavsiflovchi asosiy omillardan biri temperatura hisoblanadi. Sovitish suyuqligi, moy, silindrlarga kiritilayotgan havo, yonilg‘-havo aralashmasi, chiqindi gazlarning haroratini o‘lchash uchun datchik sifatida yarim o‘tkazgichli termorezistorlar keng ko‘lamda ishlatiladi.

Keyingi vaqtda avtomobilsozlikda metall temperatura datchiklarining yangi avlodi - yupqa plyonkali platina, iridiy va molibdendan tayyorlangan datchiklar ishlatila boshlanadi. Yuqori sifatli issiqlik sezuvchi materiallar, kimyoviy chidamli tagliklar, keramika va shishadan tayyorlangan himoya vositalari yuqori barqarorlikka ega bo‘lgan datchiklarni tayyorlash imkonini beradi.

Yupqa plyonkali texnologiya tannarxi nisbatan past bo‘lgan kichik o‘lchamli datchiklarni ishlab chiqarish uchun asos bo‘ladi. Yupqa plyonkali temperatura datchiklarini yaratish usullaridan biri - vakuum sharoitida alyumin oksididan tayyorlangan taglikga issiqlik sezuvchan materialni katodli purkash yo‘li bilan qoplashdir.

Qarshilikning zarur qiymati lazer yordamida moslash yo‘li bilan ta’minlanadi. Shundan keyin, sezuvchi element shishali himoya qatlami bilan qoplanadi, chiqish simlarining atrofi shisha bilan kavsharlab qo‘yiladi. Bu usul bilan platinali, iridiyli va molibdenli yassi temperatura datchiklari tayyorlanadi.

Platinali datchiklar uchun haroratni o‘lchash doirasi -50...+ 600 °C ni, iridiyli datchiklar uchun -200 ...+ 400 °C ni va molibdenli datchiklar uchun esa -200...+ 200 °C ni tashkil qiladi.

Yupqa plenkali temperatura datchiklari chiqindi gazlarning haroratini nazorat qilish uchun qulay, chunki tuzilishining yassi ko‘rinishida bo‘lishi datchikni gaz oqimining 120 km/soat tezligiga, 10 kHz chastotali vibratsiyaga va 20 g gacha bo‘lgan zo‘riqishga chidashini ta’minlaydi. Yuqorida keltirilgan yupqa plyonkali datchiklar tormoz suyuqligi temperaturasini va avtomobil salonidagi haroratni ham nazorat qilish uchun ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda avtomobil elektronikasida asosan tenzorezistorli (metall yoki yarimo‘tkazgichli tenzoelementli) sig‘im va pyezoelektr bosim datchiklari ishlatilmoqda. Tolali optik va boshqa istiqbolli datchiklarni yaratish borasida izchil ish olib borilmoqda.

O‘lchash doirasi 0...1,2 mPa bo‘lgan bosim datchiklari benzinli dvigatellarda yonilg‘ini purkash va o‘t oldirish jarayonlarining elektron boshqarish tizimlarida ishlatiladi. Ichki yonuv dvigatellarining elektron boshqarish tizimlarida pyezoelektr bosim datchiklari keng ko‘lamda ishlatilmoqda. Pyezoelektr hodisaning mohiyatini quyidagicha izohlasa bo‘ladi: pyezokristall (kvars, segnet tuzi va boshqa) plastinaga mexanik ta’sir ko‘rsatilganda, uning tok o‘lkazuvchan qatlamlarida elektr

potensiallar ayirmasi (elektr signal) hosil bo‘ladi. Elektr signalining kattaligi va shakli plastinaning egilish darajasiga proporsional bo‘ladi.

Pyezoelektr element chorqirrali tayoqcha, yassi plastina, doiraviy shayba, quvursimon silindr shakllarida bo‘lishi mumkin. Pyezoelem ent mexanik ta’sirni qabul qilish va uzatilishini ta’minlovchi moslama bilan birgalikda pyezoelektr datchikni hosil qiladi.

O‘lchamlarining kichikligi, o‘lchash inersiyasining yo‘qligi va aktiv tarzda ishlashi (ya’ni, ishlashi uchun tashqi tok manbayi talab qilinmaydi) pyezoelektr datchiklarining asosiy afzalligi hisoblanadi.

Avtomobilda pyezoelektr datchik benzinli dvigatellarining kiritish kollektoriga o‘rnatiladigan absolut bosim datchigi va detonatsiya datchigi sifatida ishlatiladi.

Dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi va holati datchiklari. Dvigatellarni avtomatik boshqarishning elektron tizimlarining zamonaviy turlarida aylanishlar chastotasi datchigi sifatida induktiv datchiklar ishlatiladi. Datchik, nazorat qilinayotgan valdan harakat olayotgan tishli g‘ildirak tepasiga 0,8...1,5 mm tirqish bilan qo‘zg‘almas holda joylashtiriladi. Datchik magnit yumshoq po‘latdan tayyorlangan, qutb uchligiga ega bo‘lgan doimiy magnitdan va induktiv g‘altakdan tashkil topgan.

Ferromagnitli tishli g‘ildirakning tishi, datchik o‘zagi oldidan o‘tganda g‘altakda o‘zgaruvchan tok hosil bo‘ladi. Havoli tirqish kattaligi va tishning o‘lchamlari signal amplitudasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Impulslarning o‘tish chastotasi g‘ildirakdagi tishlarning soniga bog‘liqligi aylanishlar chastotasini qiyinchiliksiz aniqlash imkoniyatini beradi.

Tirsakli valning holatini qayd qilish uchun tishli g‘ildirakka maxsus belgi «tish» qo‘yilgan. U, porshen l-silindrning yuqori chekka nuqtasidan o‘tganda impuls beradi. Tirsakli valning holati ikkita alohida (1.2-rasm) yoki bitta datchik yordamida aniqlanishi mumkin.



1.2-rasm. Aylanishlar chastotasi va tirsakli valning holati datchigi:

1 - doimiy magnit; 2 - aylanishlar chastotasi datchigi; 3 - dvigatel karteri; 4 - g‘altak: 5 - tishli g‘ildirak; 6 - tirsakli valning holati datchigi; 7 - tirsakli valning holatinini kosatuvch belgi.

Aylanishlar chastotasi va burchak holatini o‘lchash uchun avtomobil elektronikasida yarim o‘tkazgichli Xoll datchiklari ham keng ko‘lamda ishlatiladi. Masalan, fransuz olimlari tomonidan taklif qilingan burchak tezligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan Xoll datchigi samariy-kobaltdan tayyorlangan doimiy magnit va Xoll elementi orasidagi tirqishda aylanadigan tishli g‘ildirakdan iborat. Datchikning barqarorlik darajasi yuqori, o‘lchamlari kichik, o‘rnatishda havo tirqishining yuqori aniqligi talab etilmaydi.

Ferromagnit elementlarning qarshiligini tashqi magnit maydonning kattaligi va yo‘nalishiga bog‘liqligiga asoslangan magnit-rezistiv datchiklar istiqbolli o‘zgartichlar sirasiga kiradi. Bu datchiklar narxi pastligi, yuqori sezuvchanligi va kichik o‘lchamlari bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.G‘olib Nasimjonovich Mahmudov AVTOMOBILLARNING ELEKTR VA ELEKTRON JIHOZLARI Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik «Noshir» Toshkent – 2011.

2.https://www.spinny.com/blog/index.php/types-of-fuel-injection-systems/

TALABALARDA MUHANDISLIK KOMPETENTSIYALARINI SHAKLANTIRISH METODIKASI

Nurullayev Usmon Allakulovich, v.v.b.dotsent (JizPI)

Zamonaviy jamiyatning talablari mehnat bozorida raqobatbardoshli, bilimlarning turdosh sohalariga mo‘ljal ola biladigan, doimiy ravishda o‘sishga tayyor malakali kompetentli mutaxassisni tayyorlash zaruriyati bilan shartlashilgan.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi bo‘lajak mutaxassisni mustaqil ta’lim olishga va o‘zini o‘zi tashxis etishga, bilim va ko‘nikmalarni uzluksiz kengaytirish hamda chuqurlashtirishga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, u butun hayot davomida o‘qishni davom ettirishga tayanch hisoblanadi. Agar talaba oliy ta’lim muassasasida tahsil olish davomida o‘zining shaxsiy tajribasiga tayanib, bilimlarni tayyor holda egallamasdan unga mustaqil ravishda erishsa, u holda u o‘zining bo‘lajak faoliyatida ham xuddi shunday harakat qilishga intiladi.

Shuning uchun ham o‘quv - tarbiya jarayonida ilmiy-pedagogik eksperiment o‘tkazish texnologiyasini egallagan kompetentli o‘quvchi-talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika fani oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Har bir yangi ish oldingisidan qiyinlik darajasi va hajmining oshishi bilan farq qilishi kerak. Bitta ish mavjud ilmiy ishlarni tahlil qilish va tanqidiy baholashni koʻzda tutsa, boshqasi talaba tadqiqotchilik faoliyati natijasi boʻlib hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan barcha koʻrinishdagi ishlar talabaga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba'zi bir metodlarini oʻzlashtirishga, oʻzining pedagogik pozitsiyasini aniqlash, saqlab qolish va himoya qilish koʻnikmasini egallashga imkon beradi.

Bu esa oʻz navbatida, ta'limni kompetentsaviy yondoshuv asosida tashkil etishni talab etadi. Kompetentsaviy yondashuv "Kompetentlik" va "Kompetentsiya" kategoriyalari mavjudligini koʻzda tutadi.

Kompetentlilik tarkibiga sof bilim, koʻnikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Ta'limda kompetentsiyaviy yondoshuv deyilganda, oʻquvchilarning shaxsiy, va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qoʻllashga oʻrgatish tushuniladi.

Oʻquvchi-talabaning kompetentligi faoliyatda namoyon boʻladi. muhandislik kompetentsiyalari esa kompetentlikning tarkibiy qismi hisoblanadi va uning samaradorligini ta'minlaydi.

Muhandislik kompetentsiyasi bizning nuqtai nazarimizda oʻquvchi-talaba "Professionalizm" ning muhim tarkibiy qismi, shuningdek uni rivojlantirish va oʻquvchi-talabaning tayyorligini amalga oshirishning sharti boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari ta'lim yoʻnalishlarida oʻquvchi-talabalarini tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligi tasodifiy emas.

Muhandislik kompetentsiyalari intellektual, kommunikativ, loyihalovchilik koʻnikmalarni rivojlantirish uchun asos boʻlib hisoblanadi, talabalarning tanqidiy fikrlashi va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Muhandislik kompetentsiyasi mohiyatini aniqlashga oid turli xil yondashuvlarni umumlashtirib, biz uning mohiyatini aniqlashga bir qiymatli yondoshuv yoʻq degan xulosaga keldik.

Ba'zi tadqiqotchilar[1] muhandislik kompetentsiyalarini kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida qaragan boʻlsa, boshqa birlari [2,4] tadqiqotchilik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalar majmui sifatida aniqlagan.

Ana shularni e'tiborga olib biz oʻz tadqiqotimizda tadqiqotchilik faoliyati uchun quyidagi ishchi ta'rifni qabul qildik.

Muhandislik kompetentsiyasi – deganda biz muammoni echish, noma'lumni mustaqil bilishga yo‘naltirilgan tadqiqotchilik faoliyati jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko‘nikmalarni tushunamiz.

Davlat ta'lim standarti va zamon talablaridan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, talabaning ilmiy-tadqiqotchilik ishi ularda muhandislik kompetentsiyasini shakllantirishda eng asosiy komponentlardan biri hisoblanadi.

Quyi kurs talabalarining tadqiqotchilik faoliyati - deganda tadqiqotchilik ishining metod va usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasi tushuniladi. Bizning fikrimizcha, tadqiqotchilik faoliyati talabalarda muhandislik kompetentligini shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Muhandislik kompetentligi shakllanganligi indikatorlariga quyidagi qobiliyatlarda ifodalangan ettita asosiy elementni kiritish mumkin:

- faoliyat maqsadini ajratish;
- predmetni, faoliyat vositalarini aniqlash, belgilangan harakatlarni amalga oshirish;
- refleksiya, faoliyat natijalarini tahlil qilish (erishilgan natijalarni qo‘yilgan maqsadlar bilan taqqoslash);
- yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmasi;
- olingan bilimlarni yangi sharoitlarga o‘tkaza olish ko‘nikmasi;
- olingan bilimlarni qo‘llab o‘z harakatlarini rejalashtirish, fan yoki fanlararo o‘quv loyihasini ishlab chiqish, amalga oshirish ko‘nikmasi;
- axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini egallash, axborotni izlash, axborot – kommunikatsiya texnologiyalar vositalari va internet tarmog‘idan xavfsiz foydalanish ko‘nikmasi.

Bizning fikrimizcha, quyi kurs talabalari uchun tashkil etiladigan tadqiqotchilik ishlari muhandislik kompetentligini o‘zgartirish xarakteriga ega va tadqiqotchilik faoliyatining muhim natijasi, fan sohalaridagi olingan bilimlarni bo‘lajak kasb bilan moslashtirish hamda tadqiqotchilik ishi ko‘nikmalarini egallash hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, quyi kurs talabalarida muhandislik kompetentsiyalarini shakllantirish bo‘yicha ishlar tizimi quriladi.

Quyi kurs talabalarini tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishni bir necha misollar orqali qarab chiqamiz.

Ishning birinchi bosqichida (bu o‘quv yilining sentyabr oyiga to‘g‘ri keladi) talabalarning layoqatlarini aniqlanadi, ya'ni ular oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirgunga qadar akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida qanday tadqiqotchilik ishi bilan shug‘ullanganligi va ularda o‘qishga motivatsiya bor yoki yo‘qligi aniqlanadi. Shundan so‘ng ularga oliy ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan quyidagi tadqiqotchilik faoliyati turlari to‘g‘risida tushuntirish ishlari beriladi:

- tadqiqotchilik loyihasini tayyorlash;

- oliy ta’lim muassasasi doirasida o‘tkaziladigan konferentsiyada ishtirok etish;

- respublika miqyosida o‘tkaziladigan va xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etish;

- respublika va xorijiy jurnallarga maqola tayyorlash va chop etish;

- turli xil tanlovlarda ishtirok etish.

Tanlangan mavzular natijalariga ko‘ra har bir talaba uchun individual reja tuziladi. Ish rejada talabaga adabiyot tanlash, tahlilni tuzish, asosiy fikrlarni ajratish mahoratiga erishishda yordam ko‘rsatish ko‘zda tutiladi. Shuningdek, keyinchalik maqola yozishga, tadqiqotchilik ishiga o‘rgatish bo‘yicha ish olib boriladi. Har bir talaba bilan ularning individual rejalari asosida har haftalik uchrashuvlar o‘tadi. muhandislik ishini tashkil etish o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan talabaning mustaqil ish uchun ajratilgan o‘quv soatlari hisobiga amalga oshiriladi. Talabalar bilan turli xil tanlovlar geografiyasini ko‘rib chiqiladi va ularda ishtirok etish imkoniyatlari aniqlanadi.

Tajribamizdan shunday xulosa qilish mumkinki, turli tanlovlarda ishtirok etish, ta’lim faoliyatida motivatsiyaga imkon beradi, axborotni mustaqil izlash, to‘plash, qayta ishlash va undan foydalanishning metodini o‘zlashtirish, o‘z fikrini himoya qilishda etakchi omil hisoblanadi. Fikrimizcha, asosida axborotni mustaqil izlash, uni tahlil qilish, yangi bilimlarni olish maqsadida interpretatsiya qilish bo‘lgan yangi shakl – bu ma’lum kompetentsiyalarni yaratadigan tadqiqotchilik faoliyatining boshlanishidir.

Talabalarga o‘z ishlarini taqdimot qilish ko‘nikmasi, savollar berish, berilgan savollarga javob qaytarish ko‘nikmasi maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘rgatiladi. Tajriba ko‘rsatishicha, talabalarga professor-o‘qituvchilar bilan o‘z nuqtai nazarini himoya qilish uchun muloqotga kirishish murakkab, shuning uchun bu muhim ko‘nikmaga etarlicha ko‘p mashg‘ulotlar bag‘ishlanadi:

- birinchi bosqichda talaba etakchi professor-o‘qituvchi bilan birgalikda o‘z ishini tahlil qilish kerak;

- keyingi bosqich – o‘z ishining dastlabki himoyasi ko‘rinishida o‘tadigan talaba-kursdoshlar bilan muloqot;

- so‘ngra yuqori kurs talabalari oldida o‘z chiqishlarini taqdim etishadi.

Shunday qilib, o‘quv jarayonida ta’lim metodlaridan keng qo‘llash, shuningdek talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish, ularni yuqori kurslarda tadqiqotchilik ishlariga tayyorlash va o‘quvchi-talabada muhandislik kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik vositasi bo‘lib hisoblanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. –B.81.
2. Nurullaev U. A. O‘qitishning muammoli shakli va uning o‘quv joriy etishning nazariy-metodik jihatlari //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.
3. Umirov I. Ta’lim jarayonida elektron talim vositalarini qo‘llashning pedagogik-psixologik omillari //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.
4. Daniyarovna H. S., Istamovich K. D., Ilhom U. The Contents of Students’ Independent Education and Methods of Implementation //Psychology and Education Journal. – 2021. – T. 58. – №. 2. – S. 1445-1456.

SHAHAR KO‘CHALARIDA TIRBANDLIK KUZATILAYOTGAN MINTAQADAGI HARAKAT TEZLIGINING O‘ZGARISHINI O‘RGANISH

Umirov Ilhom Iskandar o‘g‘li, p.f.f.d. (PhD), dotsent. (JizPI)

Transport infratuzilmasini, birinchi navbatda avtomobil va temir yo‘llarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2007-2010 yillarda umumiy foydalanishda bo‘lgan avtomobil yo‘llarini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi bugungi kunda respublikamizning barcha mintaqalari o‘rtasida yil davomida ishonchli transport aloqasini ta’minlamoqda [1]. Biz yurtimizning ertangi rivoji yo‘lida qanday chuqur o‘ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko‘p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro‘yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo‘lsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan etuk mutaxassis yoshlarimizdir. Shuningdek, o‘quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatadigan o‘qituvchi va domlalarga e’tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor.

Ta’lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg‘or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlar, oliy o‘quv yurtlariga, balki har qaysi oila hayotida keng kirib borishi uchun zamin tug‘dirishning ahamiyatini chuqur

anglab olishimiz lozim. Oliy o‘quv yurtlarida yangi standartlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, hamda yangilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiq yangi avlod darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, elektron darsliklar va elektron o‘quv qo‘llanmalar nashr etish [2].

Avtomobillashtirishning keskin o‘sishi bilan yirik shaharlarda yo‘l harakati xavfsizligini tashkil etish eng asosiy vazifalardan bo‘lib, soha mutaxassislari uchun dolzarb mavzulardan biridir. Jahon miqyosida avtomobil yo‘llarida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari (YTH) oqibatida doimiy halok bo‘layotganlar va jarohatlanganlar sonini kamaytirish, halokatlilik darajasini ortishi asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Yo‘llarda aholiga xizmat ko‘rsatishda va harakat xavfsizligini ta’minlashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Yo‘l-transport hodisalari oqibatida iqtisodiy va ijtimoiy zararlar kelib chiqmoqda. O‘zbekistonning iqtisodiy hayotida transport va aloqalar tizimi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Respublikada yuk va yo‘lovchilarni tashishda avtomobil transportining ahamiyati katta bo‘lib, 80000 km dan uzunroq avtomobil yo‘llari qurilgan va ulardan foydalanilmoqda [3].

Harakat tezligi yo‘l harakatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u yo‘lda harakatlanishning asosiy maqsadi shaklida namoyon bo‘ladi. Yo‘lda eng ob’ektiv ko‘rsatkich sifatida harakat tezligining butun marshrut bo‘ylab o‘zgarishini ko‘rsatuvchi grafik hisoblanadi. Lekin bunday tezlikning o‘zgarish egri grafigini chizish marshrut bo‘ylab laboratoriya avtomobili yordamida amalga oshirilishi lozim. Bu esa amalda ma’lum kiyinchiliklar tug‘diradi va ko‘pchilik hollarda uni bajarib bo‘lmaydi. Shuning uchun harakatni tashkil qilishda yo‘lning harakterli bo‘laklarida transport vositalarining oniy tezligini o‘lchash orqali xulosa qilishga amaliyotda ko‘nikma hosil qilingan. Avtomobilning maksimal konstruktiv tezligi V_{max} uning dvigateli quvvatiga bog‘liq. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, V_{max} tezlik bilan haydovchilar ayrim hollardagina qisqa muddatda harakatlanishadi. Yaxshi yo‘l sharoitlarida transport vositalarining tezligi 0.7-0.85 V_{max} ni tashkil qiladi. Bunday tezlik asosan yakka holda gorizantal to‘g‘ri yo‘l bo‘laklarida kuzatiladi. Amalda yo‘l sharoiti ko‘tarilish, tushish, rejada kichik egriliklardan, ko‘rinish masofasi normadan past, vertikal egriliklardan tashkil topadi, shuningdek, harakat miqdori va tarkibi har xil bo‘lishi oniy tezlikning qiymatiga ta’sir ko‘rsatadi. Real yo‘l sharoitlarida yakka holda harakatlanayotgan avtomobillarning tezligi 150-120 km/soatdan 40-30 km/soatgacha o‘zgarishi mumkin. Avtomobil yo‘llarida tezlikni oddiy sekundomer, “Fara”, “Bar’er”, “To‘pponcha” kabi tezlik o‘lchovchi asboblar hamda har xil avtomatik datchiklar yordamida, shuningdek, kinos’yomka usuli bilan o‘lchanadi[5].

Harakat tezligi transport vositalarining oraliq masofasiga bog‘liq ravishda o‘sishini quyidagi (1–rasmda) [4] grafikda ko‘rishimiz mumkin. U oddiy sekundomer orqali aniqlangan. Grafikdan shuni aytish mumkinki, transport

vositalarining oraliq masofasi ortib borishi bilan harakat tezligining oshib borishini koʻrishimiz mumkin. Tezlik oʻzgarishini aniqlashning eng oddiy usullaridan biri sekundomer yordamida aniqlash usulidir. Bunda biz 100 m masofani tanlab olib, sekundomer yordamida har bir avtomobilning shu masofani qancha vaqt ichida oʻtganligini oʻlchab olamiz. Avtomobillarning tezligini esa masofani har bir avtomobilning bosib oʻtgan vaqtiga boʻlib topamiz.



1-rasm. Harakat tezligining oraliq masofaga nisbatan oʻzgarish grafigi

Tajribaning aniq chiqishi uchun har bir oʻlchash mintaqasida tezlikni 200 martadan oʻlchaymiz. Tajribani tirbandlik kuzatilayotgan chorrahaga, 100 m kirish va 100 m chorrahadan chiqish mintaqalarida aniqlaymiz. Olingan natijalarni tahlil qilish maqsadida grafiklarga joylashtiramiz. Grafiklarga joylashtirishimizning sababi, grafiklardagi natijalar yaqqol va aniq koʻrinishi bilan birga biz uchun zarur boʻlgan parametrlarni koʻrsatib beradi.

Mustaqillik koʻchasida harakat tezligining transport vositalarining tirbandligiga nisbatan oʻzgarish grafigini (2-rasm) aniqlaganimizda tirbandlikning oshishi bilan harakat tezligi kamaygan. Tirbandlikning uzunligi 50, 100, 150, 200 va 250 boʻlganda unga mos ravishda harakat tezligi 58, 52, 35, 22 va 14 km/soat ni tashkil etar ekan. Tirbandlik 250 m va undan yuqori boʻlganda harakat tezligi 14 km/soat va undan kam boʻladi.



2-rasm. Mustaqillik ko‘chasida harakat tezligining transport vositalarining tirbandligiga nisbatan o‘zgarish grafigi

Transport vositalarining tirbandligi kuzatilayotgan shahar ko‘chalarida transport oqimining asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: transport oqimida harakatlanayotgan transport vositalari harakat tezligi, transport oqimining harakat zichligi, transport vositalarining oraliq masofasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азизов Қ.Х., ва бошқалар. ЙҲҚ ва ХҲА маърузалар матни. Тошкент. II қисм, 2010 й., - 74 б.

2. Алимханов Х.А. Оптимизация программ жесткого светофорного регулирования дорожного движения на перекрестке. Автореферат диссертации на соискание уч. степени к.т.н. Москва. 2004-24 стр.

3. Umirov, I. I., & Mamayeva, L. M. (2022). Transport vositalari harakati davomida sodir bo’ladigan ythlarni oldini olish choralari. *Academic research in educational sciences*, *3*(2), 352-358.

4. Karimovich, A. A., & Abdukarimovich, U. B. (2021). Method of ensuring traffic safety on slippery roads. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(1), 89-96.

5. Адилов, О. К., Умиров, И. И., & Абдурахманов, М. М. (2021). Анализ существующих работ, посвященных проблемам экологии автомобильного транспорта. *Вестник науки*, *2*(2), 74-82.

6. Umirov, I. I. O. G. L., & Xushro‘Y, A. S. (2022). Avtobus va mikroavtobus yo‘nalishlarida harakat miqdori va tarkibini tadqiq qilish. Academic research in educational sciences, 3(2), 412-420.

7. Umirov, I. I., & Shukurov, S. A. O. G. L. (2022). Avtobus va mikroavtobus yo‘nalishlarida harakat xavfsizligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish. Academic research in educational sciences, 3(2), 274-279.
8. Umirov, I. I., Hojimuratov, N., & Shukurov, S. (2022). Harakat yo‘nalishlarida avtobuslarning harakat xavfsizligiga ta’sirini baholash. Academic research in educational sciences, 3(2), 268-273.

ТОЗАЛАГИЧ РОЛИКЛАРИ ДИАМЕТРИНИНГ ЧИГИТЛИ ПАХТА ҲАРАКАТИГА ТАЪСИРИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Абдуллаев Камолиддин Юсупович, Ассистент - (ТДМАУ)
Қаршиев Бахтиёр Эшқобилович, катта ўқитувчи (PhD) - (ТДМАУ)

Аннотация. Мақолада пахта хомашёсини ғарамлашда таркибидаги пассив ва актив ифлосликларнинг вақт ўтиши билан ўзгариши ўрганилган бўлиб, бунда пахтани қабул қилиш вақтида пассив ифлосликларнинг миқдори актив ифлосликлар миқдорига яқинроқлиги ва ғарамга босилгандан сўнг вақт ўтиши билан ифлосликларнинг зичлашишишидан пахта толаларининг ичига кириши оқибатида актив ифлосликларнинг ортиши аниқланган.

Калит сўзлар: Ролик, пахта хомашёси, майда ифлосликлар, актив, пассив, ғарам, зичлик, тозалаш.Роликлар диаметрининг ўзгаришидан пахтанинг роликлар юзасида ҳаракати давомида роликлар оралиқ бўшлиғига тушиб, ундан чиқиб кетиши учун юқоридан катта босим талаб этилади [1], бизнинг холатимизда пахтани майда ифлосликлардан тозалашни ва орасидаги майда тошларни ажратишни амалга ошириш учун роликлар устидаги пахта қатлами қалинлигини кичиклаштириш керак бўлади, шунинг учун роликлар диаметрини аниқлаш мухим хисобланади.



1-расм. Стендга тажриба учун пахтани жойлаштириш схемаси.
1-пахта хомашёси, 2-роликлар.

Тажрибалар учун 76, 88 ва 100 мм диаметрли роликлар тайёрланди ва бирма бир стендга ўрнатиб ишлатилди, стендга 12 та роликларни жойлаштирилди, [2-8] ишга кўра роликлар оралиқ масофасини 10 мм га, роликларнинг айланишлар сонини 14 айл/мин.га ўрнатилди. Тажрибаларни ўтказишда Бухоро-102 селекция навли I-саноат навли дастлабки ифлослиги 6,6 % ли, намлиги 8,8 % ли пахталардан ҳар бир тажриба учун стенднинг олди қисмига уюлган холда 25 кгдан солинди 1-расм. Тажриба натижалари қуйидаги 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Роликлар диаметрини ускуна кўрсаткичларига таъсири

Роликлар диаметри, мм	Дастлабки ифлослик, %	Платформадан чиқиш вақти, сек.	Платформани нечанчи ролигидан бошлаб қатлам текисланди, дона	Тозаланган пахта ифлослиги, %	Тозалаш самараси, %
76	6,6	5,2	8	6,0	9,0
88	6,6	5,0	7	6,0	9,0
100	6,6	5,4	10	6,2	6,0

Юқоридаги тажрибалардан кўринадики роликлар диаметри 76 мм да пахтанинг платформадан чиқиш вақти 5,2 сек.ни ташкил этди, тўп холатидаги пахта платформанинг 8 чи роликга келганда платформа устида тўшама сифатида ёйилиб текисланди, тозалаш самараси 9,0 % ни ташкил этди. Роликлар диаметри 88 мм да пахтанинг чиқиш вақти 5,0 сек.ни ташкил этиб, пахта 7 чи роликдан тўшамаси ёйила бошладинди, тозалаш самараси эса 9,0 % ни ташкил этди. Роликларнинг диаметрини катталаштириб, 100 мм да пахтани платформадан чиқиш вақти 5,4 сек.ни ташкил этиб, 10 чи роликдан пахта тўшама сифатида ёйила бошланди, тозалаш самараси эса 6,0 % ни ташкил этди.

Бундан кўринадики роликларнинг диаметрини катталаштиришдан пахтани роликлар орасига жойлашиш зонаси ортади ва орасидан чиқиб кетиши қийинлашиб, пахтани ҳаракатланиш вақтига салбий таъсир этади. Роликлар устидаги пахта миқдори кам бўлганида уларнинг диаметрини кичиклаштириш билан ёйилиб ҳаракатини таъминлаш мумкин.

Тажрибалардан айтишимиз мумкинки роликлар устидаги пахтани платформа юзаси бўйича кичикроқ тўшама қатламини хосил қилиниши пахта таркибидаги ифлосликларни тўкилишини яхшилашга олиб келади, ушбу

холатни пахтани силкитиш билан амалга ошириш ва платформада пахта қатламини тезроқ хосил қилиш учун роликлар айланишлар сонини ортиб борувчи этиб танланишидан, роликлар оралиқ масофасини аниқланишидан тозалаш самарадорликни янада оширишга эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Т.Н.Коробелникова. Разработка и обоснование параметров приёмоподающего устройства хлопка-сырца. Дисс.д.ф.(PhD) по техническим наукам. Ташкент 2022 г. С.95.

2. Джамолов Р.К., Корабельникова Т.Н. «Усовершенствование, обоснование параметров и внедрение устройства ХПП для приемки и передачи хлопка-сырца», отчет «Пахтасаноат илмий маркази» № 2004, заключительный, с.18.

3. Кулиев Т.М. Джамолов Р.К., Корабельникова Т.Н. патент на изобретение № IAP 06558 «Передвижное приёмоподающее устройство для хлопка сырца». Т-2023.

4. 4. Parpiyev A. P. et al. Tozalash jarayonida arrali seksiyalardan ajralib chiqqan chiqindi ulushlarini baholash natijalari taxlili //O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali. ISSN. – 2010. – Т. 6262. – №. 1. – С. 2022.

5. Каршиев Б.Э., Исматов С.С. Равномерность сушки компонентов хлопка-сырца //Экономика и социум. – 2023. – №. 9 (112). – С. 485-489.

6. Парпиев А. П., Каршиев Б. Э. Равномерность сушки компонентов хлопка-сырца //Universum: технические науки. – 2022. – №. 9-2 (102). – С. 51-54.

7. Каршиев Б. Э. и др. Пахтани тозалашга тайёрлаш технологиясининг таҳлили //RESULTS OF NATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 6.

8. Каршиев Б.Э., Парпиев А.П., Хушбаков А.Н. Анализ температуры, влажности волокна и семян в технологических процессах на хлопкоочистительных предприятиях// INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE: YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL

AVTOMOBILLARDA TASHISH XAVFSIZLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Yugayev Shavkat Mansunovich, katta o‘qituvchi, (TDMAU)

Annotatsiya: Bugungi kunda avtomobillar inson hayoti va turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan. Transport vositalari orqali shaxsiy va jamoaviy tashishlar muntazam amalga oshiriladi, biroq har qanday transport vositasidan

foydalanishda xavfsizlik masalasi ustuvor ahamiyatga ega. Ayniqsa, texnologiyalar rivojlanishi bilan xavfsizlikni ta'minlash bo‘yicha yangi va samarali usullar paydo bo‘lmoqda. Ushbu maqolada avtomobilda tashishda xavfsizlikni ta'minlash bo‘yicha zamonaviy usullarni ko‘rib chiqamiz.

Kalit so`zlar: ADAS tizimlari, IoT va bulut texnologiyalari, trafik sharoitlari, Telematika tizimlari, biometrik xavfsizlik

Kirish. Avtomobil sanoatidagi eng muhim yangiliklardan biri – bu avtonom haydash texnologiyalarining rivojlanishi. Ular inson omilini kamaytirish va yo‘lda sodir bo‘ladigan ko‘plab xatolarni oldini olishga xizmat qiladi. Avtonom transport vositalari yuqori darajada rivojlangan sun’iy intellekt tizimlari yordamida boshqariladi. Ushbu tizimlar quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

- **Yo‘nalishni belgilash va kuzatish:** Sun'iy intellekt kamera va sensorlar orqali yo‘lni doimiy nazorat qiladi.
- **To‘qnashuvlarni oldini olish:** Radar va lazerlar yordamida oldindan xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan to‘siqlar aniqlanadi.
- **Avtomatik tormoz tizimi:** Tormozlashning optimal vaqti sun'iy intellekt tomonidan hisoblanadi.

Avtonom haydash texnologiyalari hozircha to‘liq joriy etilmagan bo‘lsa-da, u kelajakda inson omilidan kelib chiqadigan avariyalarni kamaytirishda muhim rol o‘ynashi kutilmoqda.

Advanced Driver Assistance Systems (ADAS) ADAS tizimlari bugungi kun avtomobillarining standart jihozlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu tizimlar haydovchiga haydash jarayonida ko‘mak beradigan turli funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Masalan:

- **Lane Keeping Assist (LKA):** Bu tizim transport vositasining harakatlanish yo‘nalishini doimiy kuzatib boradi va avtomobil yo‘ldan chiqmoqchi bo‘lsa, uni to‘g‘rilaydi.
- **Adaptive Cruise Control (ACC):** Avtomobilni oldingi transport vositasiga masofani saqlab harakatlanishiga yordam beradi.
- **Blind Spot Detection:** Ko‘rinmas hududlarni kuzatadi va xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan ob’ektlar haqida ogohlantiradi.

ADAS tizimlari haydovchining e’tiborini oshirish va to‘qnashuvlarni oldini olish maqsadida joriy etilgan bo‘lib, xavfsizlikni sezilarli darajada yaxshilaydi.

IoT va Bulut Texnologiyalari Yordamida Monitoring Zamonaviy avtomobillar Internet tarmoqlariga ulanish imkoniyatiga ega bo‘lib, IoT (Internet of Things) va bulut texnologiyalari yordamida haydovchiga real vaqtda ma’lumotlarni taqdim etadi. Masalan:

- **Trafik sharoitlari haqida ma'lumotlar:** Yo‘ldagi tirbandliklar, avariyalar yoki yo‘l ta’mirlash ishlari haqida avtomatik tarzda ogohlantirishlar keladi.

- **Texnik xizmat ogohlantirishlari:** Avtomobilning turli komponentlari holati (dvigatel, tormozlar, shinalar bosimi) real vaqtda kuzatilib, foydalanuvchi kerakli vaqtda texnik xizmat koʻrsatish uchun ogohlantiriladi.
- **Telematika tizimlari:** Bu tizim yordamida nafaqat avtomobil texnik koʻrsatkichlari, balki haydovchining haydash uslubi ham kuzatilib boriladi.

Ushbu texnologiyalar transport xavfsizligini oshirishda katta ahamiyatga ega, chunki ular haydovchiga real vaqtda tegishli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Avtomatik Favqulodda To‘xtatish Tizimi yana bir zamonaviy xavfsizlik texnologiyasi bu – **avtomatik favqulodda to‘xtatish tizimi** (AEB - Automatic Emergency Braking). AEB tizimi radar va kameralar yordamida old tomondan xavf soluvchi transport vositasi yoki boshqa toʻsiqlarni aniqlaydi va agar haydovchi xavfni sezmasa, tizim avtomatik ravishda tormoz beradi. Ushbu tizim koʻplab davlatlarda yangi avtomobillar uchun majburiy komponent sifatida kiritilmoqda.

Kamera va Sensorlar Orqali Xavfsizlik Nazorati bugungi kunda koʻplab avtomobillar orqa koʻrish kameralaridan tashqari atrofni 360 daraja koʻrsatuvchi kameralar bilan jihozlanmoqda. Bu haydovchiga avtomobil atrofidagi barcha holatlarni aniq koʻrish imkonini beradi. Sensorlar esa avtomobil yaqinidagi toʻsiqlar va boshqa harakatlanuvchi obyektlar haqida haydovchini ogohlantirib turadi.

Biometrik Xavfsizlik Tizimlari yangi avlod avtomobillarida biometrik xavfsizlik tizimlari qoʻllanila boshladi. Bu tizimlar yordamida transport vositasini ishga tushirish uchun an'anaviy kalit oʻrniga haydovchining barmoq izi, koʻz qovogʻi yoki ovozi tan olinadi. Bu nafaqat avtomobilni oʻgʻirlashdan himoya qiladi, balki haydovchini aniqlash va u uchun xavfsiz sozlamalarni avtomatik tanlash imkoniyatini ham beradi.

Havo Yostiqlari va Passiv Xavfsizlik Tizimlari avtomobillarning passiv xavfsizlik tizimlari ham yangilanib borilmoqda. An'anaviy havo yostiqlaridan tashqari, bugungi kunda bosh, yon, tizza va hattoki piyodalarni himoya qiluvchi tashqi havo yostiqlari ham qoʻllanilmoqda. Passiv xavfsizlik tizimlari avariyani oldini olishdan koʻra, avariyaning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan boʻlib, haydovchi va yoʻlovchilar hayotini asrashda katta rol oʻynaydi.

Xulosa: Avtomobilda tashishda xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda nafaqat haydovchining mas'uliyatiga bogʻliq, balki zamonaviy texnologiyalar orqali ham ta'minlanadi. Avtonom haydash tizimlari, ADAS, IoT texnologiyalari, avtomatik tormozlash tizimlari kabi innovatsion yechimlar xavfsizlikni oshirishda asosiy rol oʻynamoqda. Shuningdek, biometrik va passiv xavfsizlik tizimlari ham avtomobil foydalanuvchilarini xavfdan himoya qilishga katta hissa qoʻshmoqda. Texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi yaqin kelajakda avtomobillarni yanada xavfsizroq qilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov, S., "Transportda xavfsizlikni ta'minlash: texnologik yondashuvlar", Moskva, 2019.
2. Petrov, A. N., "Transport logistikasidagi xavfsizlikka oid zamonaviy texnologiyalar", Peterburg, 2017.
3. Rahmatov, D., "Avtomobil tashish va logistika: Yangi yondashuvlar", Toshkent, 2020.
4. Ghosh, S., & Becker, P., "Risk va xavfsizlik boshqaruvi avtomobil transportida", 2021.
5. Kovalenko, I., "Xavfsizlik va avtomobil transportida me'yoriy hujjatlar", Kiev, 2020.

LOGISTIKA TIZIMIDA ZAHIRALARNI BOSHQARISH

Yo‘ldoshov Komron Qahramonjon o‘g‘li, doktorant (FarPI)

Tabiatdan olingan xomashyo oxirgi iste’molchiga tayyor mahsulot ko‘rinishida yetib borgunga qadar harakatlanadi, boshqa materiallar bilan aloqada bo‘ladi, unga qayta ishlov beriladi va h.k. Moddiy harakatlanuvchi zanjir bo‘yicha harakatlanib, xomashyo (keyinchalik yarim tayyor va tayyor mahsulot) doimo to‘xtab qoladi, u yoki bu ishlab chiqarish yoki logistika operatsiyasida o‘z navbatini kutadi. Zahiralar to‘g‘risidagi umumiy qabul qilingan ta’rif quyidagicha: moddiy zahira – ishlab chiqarish va muomalaning har xil bosqichida ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste’mol jarayoniga kirishni kutayotgan xalq iste’moli tovarlari, hamda boshqa tovarlardir [1].

Logistik tizimlarda zahiralar moddiy, axborot va moliyaviy turlarga bo‘linadi. Ammo, biznes-jarayonlarni boshqarish amaliyotida moddiy zahiralar nisbatan ko‘p uchraydi.

Moddiy zahiralar moddiy oqimlarning statik holatda bo‘lishini nazarda tutadi. Zahiralarni tashkil etish doimo xarajatlar bilan bog‘liq. Zahiralarni tashkil qilish va saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy xarajatlar quyidagicha:

- harakatsiz moliya mablag‘lari;
- maxsus jihozlangan xonalarni tashkil etish bo‘yicha xarajatlar;
- buzilish, yo‘qolish va h.k. bilan bog‘liq risklar xarajati.

Aslini olganda zahiralar mavjudligining o‘zi – xarajatdir. Ammo zahiralarning bo‘lmasligi ham xarajatlarga olib keladi. Zahiralarning mavjud emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy yo‘qotishlar quyidagicha:

- ishlab chiqarishning turib qolishidagi yo‘qotishlar;

- talab mavjud bo‘lgan vaqtda omborda tovar yo‘qligi natijasidagi yo‘qotishlar;
- kichik hajmdagi tovar to‘dalarini sotib olishning qimmatligi bilan bog‘liq xarajatlar va boshqalar.

Quyida moddiy zahiralarni tashkil etish uchun qanday asoslar borligi sanab o‘tilgan:

- qat’iy ta’minot jadvalining buzilishi ehtimoli. Bunda ishlab chiqarish jarayoni to‘xtab qolmasligi uchun zahira kerak. Bu, asosan uzluksiz ishlab chiqarish davriga ega bo‘lgan korxonalar uchun muhim;
- talab tebranishi ehtimoli. Ma’lum bir tovar guruhiga talabni oldindan ayta bilish mumkin, ammo aniq tovarga bo‘lgan talabni prognozlash qiyin. Shuning uchun tovarning yetarli zahirasiga ega bo‘linmasa, talabning qondirilmaslik ehtimoli bor, ya’ni mijoz orqaga xaridsiz va pul bilan qaytadi;
- ba’zi tovar turlarini ishlab chiqarishning mavsumiy xarakterga egaligi (asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga tegishli);
- yirik tovar to‘plamasini sotib olganlik uchun chegirmalarning mavjudligi ham zahiralarni tashkil etish sababi bo‘lib qolishi mumkin. Bu narx ko‘tarilishi natijasida foyda olish maqsadida tovarlar zahirasini tashkil etadi;
- buyurtma berish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning kattaligi (ta’minotchini qidirish, u bilan muzokaralar o‘tkazish, xizmat safarlari va boshqalar). Bu xarajatlarni buyurtmalar sonini kamaytirish, yangi buyurtirilgan to‘dalar xajmini oshirish natijasida kamaytirish mumkin;
- ishlab chiqarish va taqsimlash bo‘yicha jarayonlarni bir tekis tashkil etish imkoniyati. Faoliyatning bu ikki turi bir-biri bilan bog‘liq: ishlab chiqarilgan mahsulot taqsimlanadi. Zahiralar mavjud emasligida taqsimlash tizimidagi zahiralarning mavjudligi realizatsiya jarayonini ishlab chiqarishdagi shart-sharoitdan qat’i nazar, muntazam tashkil etishga imkoniyat yaratadi [2]. O‘z navbatida ishlab chiqarish zahirasining mavjudligi xomashyo va yarimtayyor mahsulotlarni yetkazib berishdagi uzilishlarni tekis borishini ta’minlaydi;
- xaridorlarga zudlik bilan xizmat ko‘rsatish imkoniyati. Xaridor buyurtmasini quyidagi usullarning biridan foydalanib, bajarish mumkin: - buyurtma qilingan tovarni ishlab chiqarish; -buyurtma qilingan tovarni sotib olish; -buyurtma qilingan tovarni mavjud bo‘lgan zahiradan olib berish. So‘nggi usul eng qimmat usul hisoblanadi, chunki u zahiralar saqlanishini talab etadi. Ammo raqobat sharoitida buyurtmani tezda bajarish xaridor uchun kurashda hal qiluvchi omil hisoblanishi mumkin;
- ehtiyot qismlari yo‘qligi natijasida ishlab chiqarishning turib qolishini minimumlashtirish;

- ishlab chiqarishning boshqarish jarayonini yengillashtirish. Korxona ichida ishlab chiqarish jarayonining har xil bosqichlarida yarim tayyor mahsulotlar zahiralarini yaratish.

Yuqorida sanab o‘tilgan sabablar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlar ishlab chiqarishda ham, savdoda ham zahiralarni tashkil etishi lozim, aks holda muomala xarajatlari ko‘payadi, ya’ni foyda kamayadi.

Aytib o‘tilganidek, «zahira» tushunchasi moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini qamrab oladi, chunki xomashyoning birinchi manbadan so‘nggi iste’molgacha bo‘lgan harakatida moddiy oqim barcha maydonchalarda zahira ko‘rinishida yig‘ilishi mumkin. Bunda har bir maydonchada moddiy zahiralarni boshqarish o‘z xususiyatiga ega. Xomashyoni mahsulotga aylantirish yo‘lida va bu mahsulotning so‘nggi iste’molchiga yetkazilishida zahiralarning ikki asosiy turi farqlanadi (1-chizma):

1. Ishlab chiqarish zahiralari. Bu turdagi zahiralar ishlab chiqarish korxonalariga xos bo‘lib, ishlab chiqarish iste’moliga mo‘ljallangan. Ular ishlab chiqarish jaraënining uzluksizligini ta’minlaydi.

2. Tovar zahiralari. Ishlab chiqaruvchi korxonalarning tayër mahsulotlar omborlarida, taqsimlash kanallarida mavjud bo‘lgan zahiralar shular jumlasiga kiradi. Tovar zahiralari iste’molchilarni turli mahsulotlar bilan ta’minlash uchun kerak.

O‘z navbatida bu zahiralardan har biri uch turga bo‘linadi:

A) joriy zahiralar; b) kafolatli zahiralar; v) mavsumiy zahiralar.



1-chizma. Moddiy zahiralarning asosiy turlari.

Taqsimot kanallaridagi zahiralar ikki turga bo‘linadi, bular:

- yo‘ldagi zahiralar;
- savdo korxonalaridagi zahiralar.

Yo‘ldagi zahiralarni yana tashishda bo‘lgan ёki tranzit zahiralar ham deb atashadi. Ular ta’minotchilardan iste’molchilarga yetkazish yo‘lida transportda bo‘lgan resurslardir.

Joriy zahiralar ishlab chiqarish jaraёni va taqsimotning uzluksizligini ta’minlaydi. Joriy zahiralar ishlab chiqarish va tovar zahiralarining asosiy qismini tashkil etadi. Ularning miqdori doimiy ravishda o‘zgarib turadi.

Kafolatli zahiralar kutilmagan holatlarning oldini olish uchun vujudga keltiriladi. Joriy zahiralardan farqli ravishda kafolatli zahiralarning miqdori o‘zgarmasdir. Me’ёrdagi ish sharoitlarida bu zahiralar ishaltilmaydi [2].

Tayyorlash xarakteriga ega bo‘lgan zahiralar materiallarni ishlab chiqarish yoki iste’molga chiqarish davrida vujudga keladi (ya’ni, materiallarni qabul qilish, quritish, ochish, saralash, iste’mol joyiga yetkazish va h.k.).

Mavsumiy zahiralar ishlab chiqarish, iste’mol va tashish mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan hollarda vujudga keltiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Logistika konsepsiyasining amaliyotda qo‘llanishi korxona va firmalarda yalpi zahiralar muvofiqligi bilan bog‘lanadi. Ishlab chiqarish va iste’mol uchun zarur bo‘lgan zahiralarga bog‘liq bo‘lgan barcha turdagi xarajatlarni kamaytirish zahiralarni optimallashtirish mezoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. ДрайвНН [Электронный ресурс].Режим доступа: https://www.drivenn.ru/journal/novosti/3-prichiny-pochemu-na-gruzovikah-tormoza- pnevmaticheskie-a-ne-gidravlicheskie-id31600. Дата доступа: 10.12.2023
2. Драйв ру [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://www.drive.ru/technic/4efb331400f11713001e38cb.html. Дата доступа: 10.12.2023
3. Shokirov O. G‘. (2023). Haydovchiga yordamchi innovatsion tizimlar uchun bosh harakati bilan ko‘z imoishoralarini tahlil qilish. MEXANIKA VA TEXNOLOGIYA ILMIY JURNALI, MAXSUS SON 2023, № 2 (5). 131-138. ttps://api.scienceweb.uz

WORKING OUT AND IMPLEMENTATION OF THE SAFFLOWER CLEANING MACHINE

M.R. Karimov, associate professor (TSEAU)
A.U. Abduxoliqov, assistant (TSEAU)

At present time the safflower crops are being harvested by such combine machines as Case – 2366, Dominator – 130, New Holland, TC – 5060, Don – 1500B,

Pnevmomexanik ipning xossa ko‘rsatkichlariga ustuvor ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Buning uchun yigirish kamerasi diametri 34 mm dan 66 mm gacha o‘zgartirilib, chiziqiy zichligi 30 teksli sof paxta ipining uzishdagi uzayishi ε_0 va ipdagi buramlar soni K_1 (pishitilganlik) aniqlandi. Pnevmomexanik ip yigirish bo‘yicha dastlabki tajribalar tahlillari shuni ko‘rsatdiki, kamera diametri kattalashgan sari ipning nisbiy uzayishi 7,7% dan 4,7% gacha (1-rasm, a) va ipdagi buramlarning nominal qiymati 840 b/m bo‘lishiga qaramay, amaliy buramlar soni (pishitilganlik) 754 b/m dan 683 b/m gacha (1-rasm, b) kamayadi. Buni izohlash va kengroq o‘rganish maqsadida

chirmashish koeffitsienti bilan yigirish kamerasi diametri orasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.



a) b)

1-rasm. Yigirish kamerasi diametrining ip uzayishi a) va buramlar b) kattaliklariga ta’siri

Mazkur ishda shuningdek yigirish kamerasining tezligi (aylanishlar chastotasi) oshishi bilan tolaga ta’sir etuvchi markazdan qochma kuchning kattaligi oshib, uni novda zichroq jipslanib joylashishiga olib kelishi aniqlandi (2-rasm, a). Tolalarning zichroq joylashishi ipning ham solishtirma zichligi oshishiga olib keladi. Natijada zichroq joylashgan tolalarning cho‘zishga, sirpanishga qarshiligi ortadi deb faraz qilish mumkin. Shu mulohazadan kelib chiqib, chiziqiy zichligi bir xil 50 teksli ip 5-I aralashmadan tayyorlangan piltadan yigirish kamerasining to‘rt xil tezlik (45000, 60000, 75000, 90000 min^{-1}) larida BD-330 yigirish mashinasida boshqa parametrlar o‘zgarmagan holda yigirildi.



A b

Olingan ip namunalarining fizik-mexanik xossalari o‘rganildi. Shuni ta’kidlash kerakki, sinov natijalarida yigirish kamerasi aylanishlar chastotasi o‘zgarishi bilan ipning uzish kuchi bir xil qonuniyatda o‘zgarmasligi aniqlandi (2-rasm, b).

Xulosa. Shunday qilib, pnevmomexanik yigirish mashinasi yigirish kamerasi geometrik va kinematik parametrlarining ip strukturaviy xossa ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganilib, kamera diametrining kichrayishi bilan ip buramlari yo‘qolishining pasayishi aniqlandi. Yigirish kamerasi aylanishlar chastotasining ortishi esa ip

zichligini kattalashtirib (diametrini kichiklashtiradi), boshlang‘ich Yung modulini ortishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Majumdar Abhijit (College of Textile Technology, Berhampore 742 101, India). Assessment of tensile properties of cotton yarns. Indian J. Fibre and Text. Res. 2001. 26, №4, 354-357 b.

2. J.Q.G‘ofurov. Pnevmomexanik yigirish mashinasi kamerasining ishchi parametrlarini takomillashtirish asosida ip sifatini oshirish yo‘llari. //Nomzodlik dissertatsiyasi aftoreferati. Toshkent 2007 yil.

3. Gafurov J.K., Maxkamova Sh.F., Gafurov K., Burxonov D.X., Ob udlenenii volokon v treugolnike krucheniya pryaji pnevmomexanicheskogo sposoba pryadeniya, Innovatsionnыe

ZIG‘IR TOLALARIGA BIRLAMCHI ISHLOV BERISH

O.Abdurahmonov t.f.f.d., v.v.b dotsent (TDMATU)
S.Eshquvvatov talaba (TDMATU)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada birlamchi ishlov berishdan maqsad lub o‘simliklari tolasidan tolalarni ajratib olish tahlil qilingan. Bunda zig‘ir tolalarga birlamchi ishlov berishdan maqsad zig‘ir o‘simliklari tolasidan tolalarni ajratib olish taxlil qilingan.*

Zig‘ir tolasi bu— zig‘ir poyasidan olinadigan mahsulot. Zig‘irdan olinadigan tolalar mayin, uzun (0,5-0,1 m), pishiq tola bo‘lib, olingan tolalar chiroyli tovlanib turadi. Zig‘ir poyasidan ajratib olish uchun poya ivitiladi. Ivitilgan poya ochiq havoda yoki maxsus quritgichda quritiladi. So‘ngra ezish mashinasining tishli jo‘valari (valetslari) orasidan o‘tkazilib, yog‘ochlik qismi sindiriladi. Savash mashinasida tola chiqindilar (kalta tola va yog‘ochlik)dan tozalanadi. So‘ngra tarash mashinalarida taralganda uzun va kalta (tarandi) tolaga ajraladi. Yigiruv mashinalarida uzun tolalardan yuqori raqamli ip, tarandi toladan past raqamli iplar olinadi va yigirib olingan ipdan turli xil to‘qimalar to‘qiladi.

Zig‘ir tolasi birlamchi ishlov berishdan maqsad lub o‘simliklari tolasidan tolalarni ajratib olishdir. Birlamchi ishlov berishning mohiyati lub o‘simliklaridan barcha tolalik xususiyati yo‘q bo‘lgan chiqindi - iflosliklarni biologik kimyoviy yoki fizik usullarni qo‘llab ajratib chiqarib tashlashdan iborat.

Zig‘ir tolasi birlamchi ishlov berish quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

1) tanadan tolalar qatlamini ajratish - tola tutamini tayyorlash;

2) oshiqcha namlikni juft vallar yordamida yoki quritish orqali bartaraf qilish;

3) tolalar tutamini yumshatish;

4) yumshagan tolalar tutamini savash va savalgan tola olish;

5) savash orqali chiqindilardan tozalash va tolalarni qayta olish.

Tolalar tutamini olish: Sanoatda tolalar tutamini olishning ikki: biologik va kimyoviy usuli qo‘llaniladi. Biologik usulda zig‘ir poyasini ivitish (namlash) davrida pektin moddasini yemirish uchun mikroorganizmning ta’siri katta. Namlash shudring, sovuq va issiq suv bilan amalga oshiriladi. Kimyoviy usul kichik hajmda zig‘ir somonlarini tayyorlashda hamda uni bug‘lashda qo‘llaniladi. Shudringlab namlash. 1950-yillarga qadar zig‘ir tolalari tutamini to‘shama usulida maydon va yaylovlarda tayyorlangan. Bu usul shudring yordamida namlash nomini oldi. Yumshatilgan poya yupqa qatlam ko‘rinishida maydon yoki yaylovlarga 2-3 haftaga, ob-havo sharoitiga qarab to‘shaladi. Bu vaqtda tolalarning ichiga shudring yoki yomg‘ir kirishi ta’minlanadi. Bunda tolalar tutami atrof to‘qimalardan ajralib qoladi.

Sovuq va issiq suv bilan namlash: Sovuq suv bilan namlash uchun har xil suv havzalari bo‘lishi kerak, ya’ni ko‘l, ko‘lmak, sun’iy hovuzcha. 2-3 hafta davomida zig‘ir tolalari suv havzalariga cho‘ktiriladi. Bu vaqt ichida poyalarda bakteriya rivojlanadi va pektin (parenxim) moddasining yemirilishiga olib keladi. Namlash jarayonini bir xil davom ettirishning iloji yo‘qligi bu usulning kamchiligi hisoblanadi.

Bu usul tola tutamlarini namlashda keng qo‘llaniladi. Zig‘ir namlash bakiga cho‘ktirilib, harorati 36-38°C li suv quyiladi. Issiq suv bilan namlashning davomiyligi 3-4 kun bo‘lib, u eng tejamkor hisoblanadi. Bu usulni jut va kanop uchun ham qo‘llash mumkin.

Tutamlarni siqish va yuvish: Tutamlarni shudringlab va sovuq suv bilan namlangandan so‘ng, zig‘irda ma’lum darajada namlik saqlanib qoladi. Tolalar talab etilgan namlik darajasigacha tabiiy holatda quritiladi. Buning uchun tutamlarni bog‘lab, tik holatda ochiq maydonga qator terib qo‘yiladi. Tutamlar 1-2 kun davomida (W=16-18 % gacha) quritiladi.

Zavod sharoitida tutamlarni tayyorlashda ОПЛ-2МС va ОПЛ-2МС-100 (1-rasm) siqish-yuvish mashinalaridan foydalaniladi. Tutamlar bir xil uzunlikdagi qatlam ko‘rinishida ustki qismiga sepish moslamasi 2 o‘rnatilgan ta’minlash konveyeri 1 ga joylashtiriladi. Tutamlar trubalardan bosim ostida kelayotgan suv bilan yuviladi. Ularda tutam namligi 300—350 % ni tashkil qiladi.



1-rasm. ОПЛ-2МС siqish-yuvish mashinasining texnologik sxemasi.

Ta’minlovchi konveyerdan tutamalar 1-juft siqish vallari 3 ga yo‘naltiriladi, so‘ng oraliq konveyer 4 orqali yuvish vannasi 9 ga botiriladi. Yuvish vannasi suvni isitish uchun moslama, lyuk va siqish barabani 10, tutamlarning qalqib chiqishining oldini oluvchi moslamalardan tashkil topgan. Suv bug‘i tortib oluvchi moslama 5 orqali chiqarib yuboriladi. Keyin yuvilgan tutamlar oraliq konveyer 4 ga hamda siqish juft vallari 6 va 7 ga yo‘naltiriladi. Bu yerda tutamlardagi yuvuvchi eritma siqib chiqariladi. Yuvilgan, siqilgan va jipslangan tutamlar, chiqarish konveyeri 8 ga uzatiladi.

Tutamlarni quritish: Tutamlarni quritish uchun uzluksiz ishlovchi bug‘li ko‘p zonali СКП-9-7ЛМ rusumli quritish mashinasidan foydalaniladi. Bunda har bir quritish zonasida havo isitiladi va resirkulatsiya (shabadalash) jarayoni bajariladi. Moslama tunnel, yuk ortish qismi, 15 ta quritish zonasi, davon kameralari, sovitish zonalari, 2 zona namlash va yuk tushirish qismidan tashkil topgan. Material mashinaga uch bo‘linmali konveyerlarda joylashtiriladi (1-rasm).

Zig‘ir tutamlari ustki konveyer 1 ga yuklanib, soploli puflagich va quritish zonalari orqali harakatlanadi. Tutamlar o‘rta konveyerning 2 davon qismiga uzatiladi. Uning harakati teskari yo‘naltirilgan bo‘lib, tutamlar pastki konveyer 3 ga beriladi. Barcha zonalardan o‘tgan tutamlar yumshatish-savash agregatiga uzatiladi.



2-rasm. Uch bo‘linmali quritish konveyerlari.

Ventilator yordamida havoning sirkulatsiyasi bajariladi va suv bug‘lari bartaraf etiladi. СКП-9-7ЛМ (3-rasm) mashinasi ventilatsiya majmuasidan iborat. 1-yetti zonada quritishda havo harakati I dan VII gacha bo‘linmalarda, keyingisi VIII dan XV gacha bo‘linmalarda davom etadi. XVI sovitish zonasi tutam temperaturasini pasaytirish uchun mo‘ljallangan. Bu jarayon quritish zonasi

chiqishida sodir bo‘ladi. Namlash zonalari XVII va XIX da nam havo sirkulatsiyasi yuqori bo‘ladi.



3-rasm. СКП-9-7ЛМ quritish mashinasining sxemasi.

Tutam qatlami yo‘g‘onligi bo‘yicha namlik bir xilda bo‘lishi uchun havo XVII zonada pastdan yuqoriga, XVIII zonada esa yuqoridan pastga harakatlanadi. Yumshatish savash agregatida erkin holatda ishlov berish uchun tutamlarni namlash zarur. Quritilgan tutamlarning namligi 9-10 %, namlangandan so‘ng esa 11-12 % ni tashkil qiladi. Mashinaning unumdorligi 915 kg/soatga teng.

Xulosa: Bugungi kunda tabiiy tolalrda olingan to‘qima maxsulotlariga bo‘lgan talab kundasn kunga ortib bormoqda. Bunga sabab tabiiy tolaladan olingan maxsulotlar inson salomatligiga nisbatan ancha foydali taraflari xisoblanadi, chunki bugungi kunda zig‘ir tolasini qayta ishlash va olingan maxsulotlar xorij davlatlarida inport asosida davlatimiz olib kelinadi. Maqolada asosan zig‘ir poyasidan tola olish va qayta ishlashni hamda olingan maxsulotlarni ichki va jaxon bozorlari talabiga mos ravishda ishlab chiqarish maqsad qilingan.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. R.Yangiboyev, B.Xasanov “Gigienik xususiyatlari yuqori bo‘lgan kiyimbop to‘qima ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va sifat ko‘rsatkichlarini tadqiq etish” nomli magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent 2016 yil. 72 b.

2. Р.Д.Дружининой “Льноткачества” справочник. Москва 1985 й. 212 с.

3. O.Sh.Abdurahmonov, D.N.Qodirova, N.Q.Safarov, S.N.Yarashov, I.N.Boltayevlar “Kiyimbop to‘qima tuzilishiga ta’sir etuvchi taxtlash omillarini tadqiq qilish” nomli monografiya “IRFON-PRINT” nashriyoti, Termiz 2022. 103 b.

4. O.Abdurahmonov, S.Q.Eshquvvatovlar “Ko‘ylakbop to‘qimalar klassifikatsiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasi” nomli Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida muhandislik-texnologiya sohasini rivojlantirish istiqbollari mavzusida xalqaro talabalar anjumani tezis. 2022-yil 30-noyabrdagi konferensiya. Termiz 2022.

KIYIMBOP TO‘QIMALARGA BO‘LGAN GIGIYENIK TALABLAR

A.Maxmatqulova, talaba, (TDMATU)
O.Abdurahmonov, t.f.f.d., v.v.b dotsent (TDMATU)

Annotatsiya: *Maqolada kiyimbop to‘qimalar gigiyenik jihatdan hamda estetik talablarga javob berishi, yaxshi kayfiyat uyg‘otishi bilan birga, ish qobiliyatini pasaytirmasligi talab qiladi shu bilan birgalikda kiyim kiygan kishi unda o‘zini erkin his qilishi lozim. Shu sababli, kiyimbosh qanday matodan tikilishi va kim kiyishidan qat’iiy nazar, hamisha yaxshi sifatli, davr talabiga va gigiyena talablariga javob berishi tahlil qilingan.*

Kiyim-kechak kishi organizmini tashqi muhitning har qanday ta’sirlari (issiq, sovuq, qor, yomg‘ir, shamol va h.k)dan muhofaza qilishi, shuningdek, har qanday ob-havo sharoitida ham tana haroratini bir me’yorda tutib turishiga yordam berishi zarur xisoblanadi. Kiyim tikiladigan matolarga nisbatan fizik va gigiyenik talablar qo‘yiladi. Uning og‘irligi, qalinligi, havo o‘tkazish hususiyati, namlikni o‘tkazish-o‘tkazmasligi kabi hususiyatlari e’tiborga olinadi. Bundan tashqari, kiyim tikiladigan matoning nurni o‘zidan qaytarishi, yumshoqligi, yuvganda va dazmollaganda dastlabki ko‘rinishini yo‘qotmasligi, tez kirdan tozalanishi, chang yutishini ham hisobga olish lozim. Kiyim organizmni yozda issiqdan, qishda sovuqdan va har xil tashqi ta’sirlardan asrashi lozim. Gigiyena jihatidan bekam-u ko‘st libos tanada o‘ziga xos mikroiqlim hosil qiladi. Bu esa kishining salomatligini yaxshilash bilan birga kayfiyatiga ham ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi. Kiyimlar issiqlik o‘tkazishiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. Hayvon terisi va parranda patlaridan tayyorlangan kiyim issiqlikni juda kam o‘tkazadi. Ip, zig‘ir tolasi va shohi matolar issiqlikni ko‘proq o‘tkazadi. Jun va ip-gazmollardan tikilgan kiyimlar issiqlik o‘tkazish jihatidan o‘rtacha hisoblanadi. Faslga qarab ham har-xil kiyimlar kiyiladi, ya’ni qishda bir necha kiyim ustma-ust kiyiladi. Bunda kiyimlar orasidagi havo issiqlikni kam o‘tkazadi. Ayni vaqtda organizmni tashqi muhit haroratining o‘zgarishidan himoya qiladi. Kiyimni faslga qarab to‘g‘ri tanlash salomatlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. O‘rta Osiyo iqlimi quruq va keskin kontinentalligi bilan farq qiladi. Yoz faslida kunlar juda isib ketadi, namlik juda kam bo‘ladi. Bahor va kuz faslida havo harorati ancha o‘zgaruvchan bo‘lib, kuchli shamol esadi, namlik yuqori bo‘ladi. Qish faslida esa havo harorati past va oqimi kuchli bo‘ladi. Shuning uchun havo haroratiga qarab kiyimlarning gigiyenik hususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash maqsadga muvofiqdir.

Ko‘ylakbop mato o‘zida elektrostatik zaryadlarni mumkin qadar kam saqlaydigan, organizmga ta’sir qiladigan mayda zarrachalarni (chang, bakteriya va

h.k) oʻtkazmaydigan boʻlishi kerak. Ichki kiyim (badanga tegib turadigan) namlikni, havoni yaxshi oʻtkazadigan hamda gigroskopik boʻlishi lozim. Bunday xususiyatga ega toʻqimadan toʻqilgan kiyimlar inson organizmdan chiqadigan karbonat angidrid, ter hamda teri orqali ajraladigan boshqa moddalarni, *jumladan*, suvda eruvchi vitaminlarni, moddalar almashinuvida hosil boʻladigan zaharli birikmalarni tashqi muhitga chiqarib yuborish xususiyatiga ega boʻladi. Shuningdek, kiyimlik matoni yuvish va tozalash oson boʻlishi lozim, chunki kiyim yil fasliga, kishining jinsi, yoshi, gavdasi, boʻyi va bajaradigan ishi hususiyatiga mos boʻlishi lozim. Kiyim quyidagi asosiy gigiyenik talablarga javob berishi lozim:

- quruqligida va namligida ham havoni yaxshi oʻtkazishi;
- issiqda namni-terni shimadigan va tez quriydigan;
- quyosh nurini qaytaradigan va teriga taʼsir qilishiga yoʻl qoʻymaydigan;
- badanga yopishib turmasligi (ter bugʻlanishiga halaqit bermasligi);
- elektrostatik zaryadlardan holi boʻlishi lozim xisoblanadi.

Qish mavsumda kiyiladigan kiyimning issiqlik oʻtkazish xususiyati kam boʻlishi kerak. Kuz va qish fasllarida, havo sovuq paytlarda, faqat bir qavat ichki kiyim kiyish kamlik qiladi. Sababi kiyim qavatlari orasida havo almashinib turadigan boʻlishi uchun uni sal kengroq tikish lozim. Quyosh yogʻdusini oʻzida yutadigan qora va jigarrang matodan tikilgan kiyimlar yilning sovuq fasllarida kiyiladi. Oq rang esa quyosh nurini qaytaradi, shu tufayli Oʻrta Osiyo sharoitida, asosan, ochiq rangli ip va ipakdan tikilgan kiyimlar kiyiladi. Kiyim har bir odamning oʻziga loyiq boʻlishi shart. Tor libosda odam erkin harakat qila olmaydi, bundan tashqari, organizmda qon aylanishi buziladi. Dagʻal gazmoldan tikilgan kiyim terini taʻsirlab har xil teri kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Kiyimbop toʻqimalarning gigiyenik hususiyatlari havo harorati qanday boʻlishidan qatiiy nazar, organizm haroratini muvozanatda saqlay olish hususiyati kiyimga qoʻyiladigan asosiy gigiyenik shart hisoblanadi. Kiyimbop toʻqimalarga asosan, tabiiy (paxta, zigʻir), hayvon (jun, ipak), suniiy (kapron, neylon, lavsan, shtapel va b.sh) tolalardan toʻqilgan matolardan tayyorlanadi. Matoning havo oʻtkazuvchanligi qancha yuqori boʻlsa, uning issiqni saqlash xususiyati shuncha past boʻladi. Bu xususiyat, asosan, matoning xossasiga, qalinligiga, tolasining yoʻgʻon-ingichkaligiga, toʻqilishi va gʻovakligiga bogʻliq. Namni yaxshi oʻtkazadigan matodan tayyorlangan kiyimlar terning bugʻlanishiga yordam beradi. Yupqa va silliq matolar namni tez bugʻlantiradi, jundan ipidan toʻqilgan kiyimlar esa paxta tolasidan toʻqilgan kiyimlarga nisbatan namni sekin bugʻlantiradi va organizm haroratini bir meʻyorda saqlaydi. Namgarchilikda bir necha qavat kiyim kiygan maʼqul, chunki kiymlar orasidagi havo hisobiga u yerda oʻziga xos „mikroiqlim“ hosil boʻladi. Mikroiqlim harorati ustki kiyimning oʻtkazuvchanlik hususiyatiga bogʻliq. Turmushda tabiiy, yaʼni oʻsimlik tolalari (paxta, zigʻir va h.k)dan toʻqilgan

matolarga ehtiyoj katta. Bir xil tolalardan har xil gigiyenik xossalarga (issiq, sovuq, qalin, dag‘al, g‘ovak va h.k.) ega bo‘lgan kiyim-boshlar tayyorlanadi. Junning issiqlik o‘tkazmaslik hususiyati yuqori bo‘lib, zig‘ir va ipak tolasi undan keyingi o‘rinda turadi. Ip gazlamadan to‘qilgan kiyim yuvilganda yoki nam tortganda o‘zining dastlabki ko‘rinishini yo‘qotadi. Issiqni saqlash hususiyati ham kamayadi. Jundan to‘qilgan gazlamalarning gigroskopik hususiyati yuqori bo‘lib, boshqa tabiiy tolalarga nisbatan namni yaxshi shimadi. Pishiq to‘qilgan, yumshoq va g‘ovak matolar gigiyena talablariga mos keladi. Suniiy tolalar. Suniiy tolalar o‘tgan asrda birinchi marta yog‘och sellyulozasidan olingan. Suniiy tolalardan tikilgan kiyimlarning asosiy kamchiligi nam tortganda uzoq vaqt quriydi va quriyotganda organizmdan issiqlikni ko‘p tortib oladi. Unda elektrostatik zaryadlar paydo bo‘ladi. Bu zaryadlar kishi badaniga noxush ta’sir qiladi: terini qichishtiradi, badanga va kiyimga yopishadi. Sintetik kiyimlar namni kam shimishi tufayli, ter va yog‘ bezlari faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Har xil teri kasalliklariga sabab bo‘lishi mumkin. Lavsan tolasi jun tolasidan 3 baravar mustahkam bo‘lib, issiqqa va kimyoviy ta’sirga, quyosh nuriga chidamli, yuvganda o‘zgarmaydi. Ko‘pincha tabiiy tolalar bilan sintetik tolalar qo‘shib to‘qiladi. Bunda mato pishiq, havo o‘tkazadigan, g‘ijimlanmaydigan va gigiyena talablarga javob beradi.

Bolalar kiyimiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar: Yosh bolalarning kiyimlari yozda yengil, yupqa va salqin, qishda issiq hamda yuvganda, dazmollaganda gigiyenik hususiyatini yo‘qotmaydigan bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun bolalar kiyimi iloji boricha tabiiy tolalardan to‘qilgan matodan tikiladi. Yosh bolalar uchun ikki qavat ich kiyim kiyish tavsiya qilinadi: ip gazlamadan tayyorlangan ko‘ylak va paxmoq matodan tikilgan kamzulcha tayyorlanadi. Bolalar kiyimi dazmollab, dezinfeksiya qilib turiladi. Yosh bola tanasining har bir kilogrammi 704 sm^2 sathga, 6 yashar bolada 426 sm^2, katta odamlarda esa bu ko‘rsatkich 291 sm^2 ga teng. Bir yashar bola har bir kg vazniga 91,3 kkal issiqlik ajratadi, 2,5 yoshli bola 71,5 kkal, katta odam esa bor-yo‘g‘i 42,2 kkal issiqlik ajratadi. Yosh bolalar organizmi xali yetarlicha takomillashmagani sababli, tashqi muhit sharoitiga (yuqori va past haroratga, yuqori namlikka, havo almashish tezligiga va h.k larga) kattalarga nisbatan chidamsiz bo‘ladi. Shuning uchun ham teri o‘z faoliyatini to‘g‘ri bajarishi uchun ichki kiyim qulay va ustki kiymlarni ifloslanishdan saqlashi lozim. 3 yoshdan 7 yoshgacha, ya‘ni maktabgacha yoshdagi bolalarni ustki kiyimi uchun movljallangan matolarga 50 foiz miqdorida sun‘iy va sintetik tolalar qovshish mumkin. 3 yoshdan kichik bolalarga sun‘iy tolali matolardan kiyim tikish mutlaqo mumkin emas. Maktab kiyimini 10 foizgacha sintetik tola aralashtirilgan jun matodan, bahor va kuz fasliga mo‘ljallanganini esa paxta va lavsandan tikkan ma’qul. Bolalar kiyimlari bo‘yicha sanitariya nazorati mutaxassisi bolalar kiyimining yangi nusxalarini yaratishda rassomlar kengashida ishtirok etishi hamda

kiyimga gigiyenik nuqtayi nazardan baho berishi, kiyimlarning tayyorlanishida zarur qoidalarning amaliyotini nazorat qilmog‘i lozim.

Ichki kiyimlar: Ich kiyimlarni haftada bir marta almashtirib turish kerak. Tekshiruvlardan ma‘lum bo‘lishicha, ich kiyimda 6 kundan keyin 4 – 5 %, 10 kunda esa 11 % gacha kir yig‘ilar ekan. Ip gazlamadan to‘qilgan ich kiyim qaynatib yuvilganda bir yo‘la ham kirdan, ham mikroblardan tozalanadi. Ko‘rpa va yostiq jildlar, choyshabning ip gazlamalardan tikilgani ma’qul. Bularni kraxmallash (oxarlash) tavsiya etilmaydi. Oharlangan matolar o‘zidan havoni kam o‘tkazishi bilan birga namlikni shimmaydi. Ko‘rpa, yostiq jild va choyshablarni har 7 – 10 kunda tozasiga almashtirib turish shart.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kiyimbop to‘qimalar asosan bugungi kundagi bozor talabi asosida kiyimlarga qo‘yilgan fizik mexanik xossalari yaxshi, gigroskopik xususiyatlari talabga javob beradigan maxsulot qilib ishlab chiqarilsa maqsadga muvofiq xisoblanadi. Bunda kiyimbop to‘qimalar asosan tabiiy va aralash tolaviy tarkibli iplardan ishlab chiqarilishi maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.Sh.Abdurahmonov, D.N.Qodirova, N.Q.Safarov, S.N.Yarashov va I.N.Boltayevlar “*Kiyimbop to‘qima tuzilishiga ta’sir etuvchi taxtlash omillarini tadqiq qilish*” nomli manografiya “IRFON-PRINT” nashriyoti, Termiz 2022. – 108 b.

2. O.Sh.Abdurahmonov va I.N.Boltayevlar “*Ko‘ylakbop to‘qimalar tuzilishi va iste’mol xossalari*” Soha korxonalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajribalar mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjuman to‘plami. Toshkent-2022.

3. O.Sh.Abdurahmonov va I.N.Boltaevlar “Kiyimbop to‘qima tuzilishi va fizik mehanik xossalariga ta’sir etuvchi taxtlash omillarini tadqiqi ” Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida muhandislik-texnologiya sohasini rivojlantirish istiqbollari mavzusida xalqaro talabalar anjumani 2022 yil 30-noyabrdagi konferensiya. Termiz 2022

4. O.Sh.Abdurahmonov., N.Q.Safarov., S.N. Yarashov, E.I.Ismatullayev. Ko‘ylakbop to‘qimaning taxtlash omillari va fizik-mexanik xususiyatlari tadqiqi. Respublika ilmiy-amaliy konferensi Farg‘ona-2022.

ISSIQLIK TARMOG‘IDAGI YO‘QOTILADIGAN ISSIQLIKNING IZOLYATSIYASI QILINGAN TURLI XIL QUVURLARDA TAHLIL QILISH.

Sodiqov Mirzoxid Ulug‘bek o‘g‘li Magistrant (FarPI)

Annotatsiya: Magistral quvurlarning issiqlik yo‘qotilishi asosan quvur materiali va izolyatsiya qoplamasiga bog‘liqligi. Energiyani tejash uchun to‘g‘ri quvur turini tanlash lozim.

Kalit so‘zlar: izolytasiya, bimetall, polietilen, izolyatsiya materiali, energiya tejamkor.

Hozirgi kunda isitish quvurlari va isitish tizimlari issiqlik izolatsiyasiz tasavvur qila olmaymiz. Izolyatsiyasiz quvurlar 30-40% issiqlikni yo‘qotadi. Issiqlik izolyatsiyasi nafaqat issiqlik tarmog‘ida belgilangan haroratni saqlab qoladi, balki quvurlarda yuzaga keladigan kondensatsiya paydo bo‘lishining oldini oladi, bu uning xizmat muddatini uzaytiradi. Har qanday maqsad va funksionallik uchun barcha turdagi issiqlik uzatish quvurlarga bir qator talablar qo‘yiladi, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Bosim va haroratning oshishi quvurlarning mustahkamligi va germetikligiga yo‘qotmasligi lozim;
- Issiqlik uzatish quvurlari issiqlik izolatsiyasining yuqori ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi kerak, bu issiqlik tashuvchining issiqlik yo‘qotilishini kamaytirishga sabab bo‘ladi;
- Tashqi va ichki korroziyaga chidamliligini oshirish;

Magistral va taqsimlovchi issiqlik tarmoqlarini o‘rnatish va yotqizish amaliyotida ular uchun barcha talablarga to‘liq javob beradigan, bozorda mavjud bo‘lgan va yuqori ishonchlilik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan bir nechta an'anaviy va zamonaviy turdagi quvurlar mavjud. Bular: uglerodli po‘lat quvurlar, sferik grafitli quyma temir (chugun) quvurlar, bimetall quvurlar hamda polietilen (polipropilen) quvurlar. Yuqoridagi quvurlarning energiya tejamkorligini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun diametri Ø=150 mm uzunligi L=10 m bo‘lgan quvur namunalarini isiqlik yo‘qotilishini hisoblab tahlil qilib ko‘ramiz.

Yo‘qotiladigan issiqlik asosiy formulasi:

$$Q=b\cdot l\cdot q \qquad 1.1)$$

b-yotqilizgan usuliga ko‘ra koeffitsent SHNQ 2.04.14 bo‘yicha qabul qilingan va DN<150mm b=1,2, DN>=150 b=1,15 va metall bo‘lmagan quvurlar uchun 1,7 qabul qilinadi.

l-bo‘lim uzunligi;

q- bir soat ichida bir metr quvurdan issiqlik yo‘qotilishi, Vt / m.

$$q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) \quad 1.2)$$

t_w – quvurdagi suv harorati, ° C;

t_a – quvurning atrof-muhit harorati, ° C;

k – chiziqli issiqlik uzatish koeffitsienti, Vt / m °C;

$$k=\frac{1}{(1/2\lambda p) \cdot \ln(Dop / Dip) + (1/2\lambda i) \cdot \ln(Doi / Dii) + 1/(\alpha i \cdot Doi)} \quad 1.3)$$

λ_p – quvur materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt/m²°C;
λ_i – issiqlik izolyatsiyasining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt/m²°C;
D_{ip}, D_{op} – mos ravishda quvurning ichki va tashqi diametrlari, m;
D_{ii}, D_{oi} - mos ravishda izolyatsiyaning ichki va tashqi diametrlari, m;
α_i - SHNQ 2.04.14 "Uskunalar va quvurlarni issiqlik izolatsiyasi" ning 11-ilovasiga muvofiq qabul qilingan issiqlik izolyatsiyasining tashqi yuzasida issiqlik uzatish koeffitsienti, Vt / m² ° C;

I. Issiqlik yo‘qotilishini po‘lat quvur uchun ko‘rib chiqamiz. Bunda Ø=150 mm uzunligi L=10 m va izolytasiya qoplamasi qalinligi δ=100 mm

$$Q=b\cdot l\cdot q =1,2 \cdot 10\cdot 49,495=593,94 \text{ Vt} \quad 1.1)$$

Bundan $q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) =0,19223 \cdot 3,14 \cdot (90 - 8)=49,495$ Vt/m 1.2)

$$k = \frac{1}{(1/2\lambda p) \cdot \ln(Dop / Dip) + (1/2\lambda i) \cdot \ln(Doi / Dii) + 1/(\alpha i \cdot Doi)} \quad 1.3)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2 \cdot 45,4}\right) \cdot \ln\left(\frac{0,165}{0,150}\right) + \left(\frac{1}{2 \cdot 0,05}\right) \cdot \ln\left(\frac{0,265}{0,165}\right) + \left(\frac{1}{8 \cdot 0,265}\right)\right)}$$

$$k=\frac{1}{0,011\cdot 0,095+10\cdot 0,473+0,471} = \frac{1}{5,202} = 0,19223 \text{ Vt / m °C;}$$

II. Issiqlik yo‘qotilishini cho‘yan quvur uchun ko‘rib chiqamiz. Bunda Ø=150 mm uzunligi L=10 m va izolytasiya qoplamasi qalinligi δ=100 mm

$$Q=b\cdot l\cdot q =1,2 \cdot 10\cdot 49,505=594,06 \text{ Vt} \quad 1.1)$$

Bundan $q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) =0,19227 \cdot 3,14 \cdot (90 - 8)=49,505$ Vt/m 1.2)

$$k = \frac{1}{((1/2\lambda p) \cdot \ln(Dop / Dip) + (1/2\lambda i) \cdot \ln(Doi / Dii) + 1/(\alpha i \cdot Doi))} \quad 1.3)$$

$$k = \frac{1}{(\left(\frac{1}{2 \cdot 56}\right) \cdot \ln\left(\frac{0,165}{0,150}\right) + \left(\frac{1}{2 \cdot 0,05}\right) \cdot \ln\left(\frac{0,265}{0,165}\right) + \left(\frac{1}{8 \cdot 0,265}\right))}$$

$$k=\frac{1}{0,0089\cdot 0,095+10\cdot 0,473+0,471} = \frac{1}{5,201} = 0,19227 \text{ Vt / m °C;}$$

III. Issiqlik yo‘qotilishini endi polietilen (polipropilen) quvurlar uchun ham ko‘rib chiqamiz. Bunda Ø=150 mm uzunligi L=10 m va izolytasiya qoplamasi qalinligi δ=100 mm

$$Q=b\cdot l\cdot q =1,2 \cdot 10\cdot 47,376=568,51 \text{ Vt} \quad 1.1)$$

Bundan $q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) =0,187 \cdot 3,14 \cdot (90 - 8)=47,376$ Vt/m 1.2)

$$k = \frac{1}{((1/2\lambda p) \cdot \ln(Dop / Dip) + (1/2\lambda i) \cdot \ln(Doi / Dii) + 1/(\alpha i \cdot Doi))} \quad 1.3)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2 \cdot 0{,}35}\right) \cdot \ln\left(\frac{0{,}165}{0{,}150}\right) + \left(\frac{1}{2 \cdot 0{,}05}\right) \cdot \ln\left(\frac{0{,}265}{0{,}165}\right) + \left(\frac{1}{8 \cdot 0{,}265}\right)\right)}$$

$$k = \frac{1}{1{,}428 \cdot 0{,}095 + 10 \cdot 0{,}473 + 0{,}471} = \frac{1}{5{,}336} = 0{,}187 \text{ Vt / m °C};$$

Xulosa qilib aytkanda, quvurlardagi issiqlik yo‘qolishi quvur material turiga, izolyatsiya qoplamasi qalinligi va material turiga hamda atrof-muhit haroratiga bog‘liq. Natijamizga ko‘ra po‘lat quvur Q=593,94 Vt, cho‘yan quvur Q=594,06 Vt, hamda polietilen quvur uchun Q=568,51 VT ni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaxarsozlik norma va qoidalari SHNQ 2.04.14-2022 “USKUNALAR VA QUVURO‘TKAZGICHLARNI ISSIQLIK IZOLYATSIYASI”
2. К.В.Тихомиров, Э.С.Сергеенко “ТЕПЛОТЕХНИКА-ГАЗОСНАБЖЕНИЯ И ВЕНТИЛЯЦИЯ” Москва Стройиздат 1991
3. Ю. Д. Сибикин “ОТОПЛЕНИЕ, ВЕНТИЛЯЦИЯ И КОНДИЦИОНИРОВАНИЕ ВОЗДУХА” Москва Издательский центр “Академия” 2015
4. Internet saytlar: www.google.com , www.probatum-est.ru ,

YO‘NALISHLARDA HARAKATLANUVCHI AVTOBUSLARNING HARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRINI BAHOLASH

Umirov Ilhom Iskandar o‘g‘li, p.f.f.d. (PhD), dotsent (JizPI)
Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovich, assistant (JizPI)

Hozirgi kunda dunyoning yirik shaharlarida avtomobillar soni kundan-kunga jadal sur’atlar bilan ortib bormoqda. Bunday holatni O‘zbekiston Respublikasida ham ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini oshirish maqsadida avtomobil sanoatini rivojlantirish keng yo‘lga qo‘yildi.

Avtomobillashtirish jamiyatning iqtisodiy yuksalishiga ijobiy ta’sir qilish bilan birga, bir qancha salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Avtomobillashtirishning salbiy oqibatlari natijasida ko‘plab yo‘l-transport hodisalari sodir etilmoqda. Bu esa bir qancha kishilarning halok bo‘lishlari yoki tan jarohatlari olishlari, shuningdek, yo‘l-transport hodisalari natijasida ko‘plab yetkazilayotgan moddiy zararlar, shahar ko‘chalari, aholi yashaydigan joylardan o‘tadigan yo‘llar mintaqasidagi yuqori darajadagi shovqin, ko‘chalarning to‘xtab turuvchi avtomobillar tomonidan to‘sib qo‘yilishlari va nihoyat, birinchi navbatda shahar yo‘lovchi transportlarining harakatlanishiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda [4]. Misol uchun, Jizzax shahrini olsak, aralash transport oqimida

harakatlanayotgan jamoat transporti uchun maxsus bo‘laklar yoki svetofor ob’ektida imtiyozli harakatlanish yo‘qligi ularning bir maromda ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Natijada transport vositalarining ushlanib qolishlari bilan birga yo‘lovchi transportlarining harakatlanish tezliklari pasayib ketishiga olib keladi.

Olib borilgan tadqiqotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, yo‘l tumanlashtirish ishlari Бабков В.Ф., Abduraxmanov R.A., Azizov S.Z. va boshqalar tadqiqotlarida uchraydi. O‘zbekiston Respublikasi tog‘li hududida yo‘llarni dengiz sathidan balandligi bo‘yicha tumanlashtirilgan. Tumanlashtirishlarda asosiy mezon sifatida avtomobillar harakat xavfsizligi ko‘rsatkichi olingan. Tadqiqotlarda harakat sharoitiga ta’sir etuvchi omillarga tizimli yondashilmagan va tizimli tahlil qilinmagan, harakat sharoiti nazariy asoslari takomillashtirilib, harakat sharoitini baholash mezonlari kiritilmagan[2, 3].

Shahar yo‘lovchi transportlarining imtiyozli harakatlanishini rivojlantirish va aholiga ko‘rsatilayotgan transport xizmati sifatini oshirish borasida bir qator hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar turibdi. Bular:

- bugungi kunda shahar yo‘lovchi transport vositalarining shaxsiy transport vositalariga nisbatan raqobatbardoshligi bir oz pasaygan. Buning sababi shundaki, shaxsiy transport vositalarining jamoat transport vositalariga qaraganda tezliklarining yuqoriligi, yo‘lovchilar uchun qulayligi, qatnov muntazamligi, tashish tan narxining yo‘lovchilarga ma’qulligi kabi sifatlarining ustunligi tufayli tanlaydilar. Bulardan tashqari kunning tig‘iz paytlarida, jamoat transport vositalarining ushlanib qolishlari, ayniqsa, avtobuslarning ushlanib qolishlari vaqtining ortishi, buning natijasida harakat tezligining pasayishi, qatnovlar muntazamligining buzilishlari natijasida yo‘lovchilarning kutib qolishlari oqibatida vaqt yo‘qotishlari yuqoridagi sabablarga olib kelmoqda. Bularning barchasi jamoat transport vositalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlariga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi:

- yo‘llarda tegishli yo‘l belgilari va yo‘l belgi chiziqlari bo‘lishiga qaramay, transport vositalari serqatnov bo‘lgan shahar markaziy ko‘chalaridagi qatnov qismining birinchi bo‘lagi, asosan jamoat transportlari harakatlanadigan bo‘lak hisoblanadi, shuningdek, avtobuslarning kirish va chiqish joylari transport vositalarining vaqtinchalik turar joylariga aylanib qolgan.

Yuqorida keltirilgan, shahar yo‘lovchi transporti harakatlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan muammolarni hal qilish maqsadida Jizzax shahrining markaziy ko‘chalarida transport vositalarining imtiyozli harakatlanishini tadqiq qilish lozim.

Transport vositalarining xavfsiz harakatlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan muammolarni hal qilish, transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta’minlash va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasida Jizzax shahar Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (IIB YHXB), Jizzax viloyat

transport boshqarmasi hamda barcha manfaatdor bo‘lgan tashkilotlar bilan birgalikda chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda hal etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi va o‘z yechimini topadi [5, 6].

Ushbu tadqiqotni o‘tkazish uchun Jizzax shahrining umumfoydalanadigan jamoat transportlari, ya’ni avtobuslar, mikroavtobuslar, va taksilar harakatlanadigan quyidagi markaziy ko‘p bo‘lakli yirik ko‘chalar tanlab olindi. Bu ko‘chalar: A.Navoiy, Sh.Rashidov, Mustaqillik, I.Karimov va O.Azimov ko‘chalaridir. Birinchi navbatda ko‘chalarning geometrik o‘lchamlarini o‘rganish maqsad qilib olindi. Bu ko‘chalarda umumfoydalanishdagi jamoat transportlari ko‘p miqdorda harakatlanadi.

Shahrimizdagi A.Navoiy ko‘chasi eng serqatnov ko‘chalardan biri hisoblanib, yo‘lning umumiy kengligi 22 metrni tashkil qiladi. Avtomobillar va jamoat transportlari harakatlanadigan qatnov qismi 3 bo‘lakli hisoblanib, Yo‘nalish bo‘yicha bo‘lakning kengligi 3,5 metrni tashkil qiladi. bekatlari chorrahaga nisbatan yaqin qurilgan hamda xavfsizlik jihatidan yerdan bir oz ko‘tarilgan. Umumiy qatnov qismini bo‘laklar ajratib turadi.

Jizzax shahrining avtomobillar va jamoat transportlari harakatlanadigan ko‘chalaridan yana biri Sh.Rashidov ko‘chasi hisoblanadi. Ko‘chaning umumiy kengligi 22 metr bo‘lib, 3 bo‘lakli qilib belgilangan. Har bir bo‘lakning kengligi 3,5 metrdan qilib olingan. Yo‘nalishlar bo‘yicha qatnov qismlari 10,5 metrdan belgilangan.

Shahrimizning markaziy ko‘chalaridan yana biri Mustaqillik ko‘chasi hisoblanadi. Ushbu ko‘chada avtomobillar harakati ancha tig‘iz hisoblanadi. Ko‘chaning umumiy kengligi 22 metrni tashkil etadi. Yo‘nalish bo‘yicha qatnov qismining kengligi 11 metr hamda 3 bo‘lakli qilib ajratilgan. Bo‘lakning kengligi 3,5 metr qilib belgilangan.

Aholi zichligi kam bo‘lgan joyda yo‘lovchi tashish qiyin bo‘lmaydi deb hisoblanadi. Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur shahrida (900 000 ta aholisiga) 400 ta mikroavtobuslar ishga tushgan bo‘lib, ular 250-300 oddiy avtobus o‘rnini bosmoqda. Mikroavtobuslarda yo‘lovchilar 8,2 km ga tashiladi. Mikroavtobuslar taksiga nisbatan arzonroq sharoitda xizmat ko‘rsatadi. Bir qator mamlakatlarda (AQSh, Germaniya va h.k.z) transport siyosat darajasiga yetdi. Masalan, AQShda transport yo‘laklari tuzilib, katta shaharlarga yo‘l ochilgan va bu yo‘llar federal hukumati tomonidan qo‘llab quvvatlanadi. Yo‘laklar chetida katta avtomobil to‘xtash joylari, avtobuslar haqidagi axborot markazlari qurilgan [2].

Yo‘lovchilarni yig‘ib, tashib olib borish tizimi avtomobillashtirish ko‘rsatkichi oshib borayotgan bizning mamlakatda ham foydali bo‘lishi mumkin:

- yo‘nalishli mikroavtobus, taksi, xizmatchi transport vositasi, maktab avtobuslari kabilarda yo‘lovchi tashish uchun qo‘shimcha sharoitlar;

- transport xizmatini mukammallashtirish, ayniqsa, shahar ichida, shahar atrofida, qishloq joylarda, aeroportlarda va boshqa ob'ektlarda yo'lovchi tashishga qaratilgan;

- jamoat transportlarining rivojlanishi uchun mavjud texnik-iqtisodiy baholash, yo'lovchilarni tashishga bog'liq mukammal harakatlar zarurdir.

Shaharda qatnovchi avtobuslar tuzilishi iloji boricha yo'lovchilarning o'tirib va turib ketishiga hamda tushishiga, tez-tez to'xtab, katta tezlanish bilan harakatlanishiga moslangan bo'lishi lozim. Shahar ichi yo'nalishlarida qatnovchi yo'lovchilar o'rtacha qatnov masofasi nisbatan kichik va sutka davomida yo'lovchilar oqimining o'zgaruvchan bo'lishi shahar ichi avtobuslarining kuzov saloni rejasi kam o'rindiqli, o'tish joylari, avtobusning old va orqa tomonida turib ketishga mo'ljallangan sath (maydoncha) keng bo'lishi taqozo etadi. Salonni aytilgandek, rejalashtirish bilan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini deyarli kamaytirmagan holda avtobus sig'imini oshiradi. Chiqish va tushish uchun eshiklari keng bo'lishi, yo'lovchilarning chiqish va tushish uchun zarur bo'lgan to'xtab turish vaqtini kamaytirish hisobiga avtobuslar ish unumini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda Jizzax shahrining magistral ko'chalarida shahar yo'lovchi transportlarining harakatlanish sharoiti va holatini belgilab o'lkan tahlilga asoslandi, bunda adabiyot manbalarga va chet el izlanishlari bo'yicha internet ma'lumotlaridan foydalanildi. Jamoat transportlari harakatlanadigan shahar magistral ko'chalarida harakat miqdori ertalabki «tig'iz vaqtlarda» 8^{00}-10^{00} soatlarida 2500-3000 avt/soat va kechki 17^{00} -18^{00} soatlarida 2520-3050 avt/soat miqdorda o'zgarishi, harakat tarkibi esa 94-97 % engil avtomobillar, 0,4-1,0 % yuk avtomobillar, 1,2 - 4% . avtobus, mikroavtobuslar, hamda 0,2-0,6 % va lar tashkil etishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Q.X.Azizov. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2009. - 244 bet.
2. Abduraxmanov R.A., Azizov S.Z. Shahar yo'lovchi transportlarining imtiyozli harakatlanishini tadqiq qilish (Jizzax shahri misolida) // TAYI "O'zbekiston avtomobil-yo'l kompleksining dolzarb vazifalari" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami II-qism. Jizzax-2008, 165-166 bet.
3. Бабков В.Ф. Дорожные условия и безопасност движения. М.: Транспорт. 1982. - 286 с.
4. Umirov, I., Turushev, S., & Ravshanov, F. (2021). Йўл бўлакларининг ҳаракатланиш хавфсизлигига таъсирини таҳлил қилиш. *Academic research in educational sciences*, *2*(2).
5. Karimovich, A. A., & Abdukarimovich, U. B. (2021). Method of ensuring traffic safety on slippery roads.

6. Адилов, О. К., Умиров, И. И., & Абдурахманов, М. М. (2021). Анализ существующих работ, посвященных проблемам экологии автомобильного транспорта. *Вестник науки*, *2*(2), 74-82.

SHAHAR JAMOAT TRANSPORTIDA YO‘LOVCHILAR OQIMINI HISOBLASHNI AVTOMATLASHTIRISH VA ILMIY YECHIMLAR BERISH.

Anvar Ortiqov Aliddin o‘g‘li (JizPI)

Kirish: Shahar transport infratuzilmasi aholining kundalik hayotida katta rol o‘ynaydi. Oziq-ovqat do‘konlariga borishdan tortib, ish joylariga qatnashgacha, jamoat transporti millionlab yo‘lovchilarni kunlik harakatini ta'minlaydi. Aholi sonining ortishi, shaharlar kengayishi, va shahar atrofidagi hududlar rivojlanishi natijasida jamoat transportiga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Shuning uchun shahar transport tizimini samarali boshqarish, ayniqsa, yo‘lovchilar oqimini to‘g‘ri hisoblash juda muhim. Ammo mavjud tizimlarning aksariyati qo‘lda boshqariladi yoki zamonaviy texnologiyalar yetarli darajada qo‘llanmaydi, bu esa transport vositalarining yuklanishida muvozanatning yo‘qligiga olib keladi.

Shu bilan birga, shaharlarda transport bilan bog‘liq ekologik muammolar, tiqilinch va yo‘lovchilarning transportdan foydalanishda duch keladigan qiyinchiliklari ko‘paymoqda. Ushbu tezis shahar jamoat transportida yo‘lovchilar oqimini hisoblashni avtomatlashtirish hamda ilmiy yechimlar ishlab chiqish masalasini yoritadi va bu borada aniq takliflar beradi.

Maqsad va vazifalar: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi shahar jamoat transport tizimini yanada samarali boshqarish uchun yo‘lovchilar oqimini avtomatlashtirish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishdir. Asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Yo‘lovchilar oqimini kuzatish va hisoblashda foydalanish mumkin bo‘lgan texnologiyalarni o‘rganish.
2. Ma’lumotlar asosida yo‘nalishlar va transport vositalari harakatini optimallashtirish.
3. Yo‘lovchilar oqimi va transport tizimidagi yuklanishni bashorat qilish uchun zamonaviy tahlil usullarini joriy etish.
4. Transport tizimini avtomatlashtirilgan boshqaruvga o‘tkazish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

1. Yo‘lovchilar oqimini hisoblashda muammolar va dolzarb jihatlar: Shahar jamoat transporti tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan yo‘lovchilar oqimi va

transport vositalari harakatini to‘g‘ri boshqarishga bog‘liq. Aksariyat hollarda yo‘lovchilar oqimi haqida aniq ma’lumotlar bo‘lmagani sababli transport vositalarining harakati to‘g‘ri rejalashtirilmaydi. Bu esa ayrim yo‘nalishlarda transport vositalarining haddan tashqari yuklanishiga yoki, aksincha, yengillashgan holatlarda harakatlanishiga olib keladi. Shuningdek, yo‘lovchilar oqimi haqida real vaqt rejimida to‘liq ma’lumotlarning mavjud emasligi transport tizimidagi muammolarni vaqtida bartaraf etish imkoniyatini cheklaydi.

Shu nuqtai nazardan, shahar jamoat transportida yo‘lovchilar oqimini avtomatlashtirish muammolarni hal etishda katta yutuqlar keltirishi mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida yo‘lovchilarning aniq soni, qayerdan qayerga borishi va qaysi vaqtda ko‘proq qatnov bo‘layotgani aniqlanishi mumkin. Bu ma’lumotlar esa transport qatnovlarini optimallashtirishga yordam beradi.

2. Yo‘lovchilar oqimini hisoblash texnologiyalari: Hozirgi kunda yo‘lovchilar oqimini hisoblashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bir nechta texnologiyalar mavjud. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- **IoT (Internet of Things)** qurilmalari va o‘rnatilgan sensorlar: Transport vositalariga o‘rnatilgan sensorlar va kameralar yordamida yo‘lovchilarning qayerga kirishi va chiqishini avtomatik ravishda aniqlash imkoniyati mavjud. Ushbu usul orqali transport vositasining harakat vaqti, yo‘lovchi oqimining zichligi, va eng ko‘p qatnov amalga oshadigan vaqtlarni kuzatish mumkin.
- **RFID (Radio Frequency Identification) va NFC (Near Field Communication)** texnologiyalari: Yo‘lovchilar o‘z kartalari orqali to‘lov amalga oshirganida yoki NFC imkoniyatidan foydalanganida, tizim avtomatik ravishda ularning kirishi va chiqishini ro‘yxatga oladi. Bu ma’lumotlar real vaqt rejimida tahlil qilinadi.
- **Mobil ilovalar**: Yo‘lovchilar maxsus mobil ilovalar yordamida transport vositalari haqida ma'lumot olishlari va o‘z harakatlarini rejalashtirishlari mumkin. Bu usul orqali yo‘lovchilar soni va ularning qayerdan qayerga harakatlanayotgani haqida aniq ma’lumotlar yig‘ish mumkin bo‘ladi.

3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish:

- **Bulutli hisoblash texnologiyalari**: Yo‘lovchilar oqimi haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida bulutli hisoblash tizimlariga uzatiladi va u yerda saqlanadi. Ushbu texnologiyalar transport ma'lumotlarini tezkor tahlil qilish va transport vositalarini samarali boshqarishga imkon beradi.
- **Sun'iy intellekt (AI) va Katta ma'lumotlar (Big Data)**: Transport vositalarining harakati haqidagi katta ma'lumotlar sun'iy intellekt orqali tahlil qilinadi. Bunday tizimlar yordamida yo‘lovchilar oqimining o‘zgarishlarini bashorat qilish va transport vositalarining yo‘nalishlarini optimallashtirish mumkin. Shuningdek, yo‘lovchilarning talablariga mos ravishda transport

vositalarini qayta taqsimlash orqali tizim samaradorligini oshirishga erishiladi.

4. Ilmiy yechimlar: Transport tizimini optimallashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar va texnologik yechimlar katta ahamiyatga ega. Quyidagi yechimlar shahar jamoat transport tizimini yaxshilashga qaratilgan:

- **Yo‘nalishlarni qayta rejalashtirish**: Yo‘lovchilar oqimining zichligini inobatga olgan holda, yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqish va transport vositalarini shu yo‘nalishlarga moslashtirish kerak bo‘ladi.
- **Qo‘shimcha transport vositalari kiritish**: Yo‘lovchilar oqimi juda yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda qo‘shimcha transport vositalari kiritish orqali ortiqcha yuklanishni kamaytirish mumkin.
- **Jamoat transportining vaqtini optimallashtirish**: Yo‘lovchilar oqimi haqida ma’lumotlar asosida transport vositalarining harakat jadvalini qayta tuzish va yuqori yuklanish soatlarida qatnovni ko‘paytirish mumkin.

Xulosa: Shahar jamoat transport tizimini avtomatlashtirish va yo‘lovchilar oqimini samarali hisoblash orqali transport vositalarining yuklanishini kamaytirish, qatnovni optimallashtirish va yo‘lovchilarga yanada qulay sharoit yaratish mumkin. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda yig‘ish va tahlil qilish orqali transport infratuzilmasini yanada samarali boshqarish imkoni tug‘iladi.

Takliflar:

1. IoT texnologiyalari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilini jamoat transport tizimida keng joriy qilish.
2. Yo‘lovchilar oqimiga oid ma’lumotlarni muntazam ravishda real vaqt rejimida kuzatish tizimini yaratish.
3. Transport vositalarining harakatini va yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish va qatnovlar jadvalini yo‘lovchilarning ehtiyojiga moslashtirish.
4. Ilmiy tadqiqotlarga asoslangan transport tizimini avtomatlashtirish rejasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

QISHLOQ XO‘JALIGI MASHINALARIDA METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISHNING O‘RNI.

Abdivoidov Rustam Baxtiyor o‘g‘li, stajyor-o‘qituvchi (TDMAU)
Absalomov Sardor Isoq o‘g‘li, talaba (TDMAU)

Kalit so‘zlar: O‘t o‘rish mashinalari, metrologiya, standartlashtirish va o‘zaroalmashinuvchanlik, texnik holati, chidamlilik, yeyilish, o‘lchashlar, aniqlilik.

Annotatsiya: Qayd etish joizki, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, aholini arzon va sifatli go‘sht hamda sut mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlash asosan, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun sug‘oriladigan va lalmi yerlarda oziqabop ekinlarni innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda ekin maydoniga nisbatan sifatli va ser-hosil to‘yimli oziqa birligi olish bugungi kunning chorvachilik sohasi uchun dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi, shunday ekan chorva mollari uchun ozuqabop o‘simliklarni sifatli, arzon va tezkor yig‘ishtirib olishda o‘rish mashinalarining o‘rni asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli, o‘t o‘rish mashinalarining texnik holati va ishlash qobiliyatini oshirishda mahsulot assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish, mahalliy xomashyo va imkoniyatlarimizga asoslangan innovatsion, chiqindisiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini va sertifikatsiyani boshqarish tiziminin‌ng o‘rni beqiyosdir.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha tarmoqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishda har bir soha mutaxassisining oldiga qo‘yilgan vazifalari alohida ahamiyatga egadir. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida tarkibiy tuzilish strategiyasini ishlab chiqarishda ixtiyorimizdagi g‘oyat boy tabiiy xomashyo, mehnat resurslariga mustahkam tayanib, ulardan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirib eksport imkoniyatlarini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Qayd etish joizki, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, aholini arzon va sifatli go‘sht hamda sut mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlash asosan, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun sug‘oriladigan va lalmi yerlarda oziqabop ekinlarni innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda ekin maydoniga nisbatan sifatli va ser-hosil to‘yimli oziqa birligi olish bugungi kunning chorvachilik sohasi uchun dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi, shunday ekan chorva mollari uchun ozuqabop o‘simliklarni sifatli, arzon va tezkor yig‘ishtirib olishda o‘rish mashinalarining o‘rni asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli, o‘t o‘rish mashinalarining texnik holati va ishlash qobiliyatini oshirishda mahsulot assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish, mahalliy xomashyo va imkoniyatlarimizga asoslangan innovatsion, chiqindisiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini va sertifikatsiyani boshqarish tiziminin‌ng o‘rni beqiyosdir.

Asosiy qism: Tevarak-atrofimizdagi biror bir obyekt (predmet, jarayon yoki hodisa) to‘g‘risida gap borganda, albatta, ularni tavsiflovchi muayyan xossa (xossalar)ni ko‘z oldimizga keltiramiz. Bu xossalar ko‘p yoki kam darajada namoyon bo‘lishi, boshqacharoq qilib aytganda, miqdoriy baholanishi mumkin.

Odatda miqdoriy baholash o‘lchash amali orqali bajariladi. Har bir ishda muayyan tartib-qoidalar mavjudligi kabi o‘lchashlarning ham o‘ziga xos bo‘lgan qoidalari, usullari va bu usullarni amalga oshirish uchun ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiluvchi uslublari mavjud. Bularning barchasi muayyan me’yoriy hujjatlar asosida bir tizimga keltirilgan. Mana shu yuqorida keltirilgan o‘lchashlar, hoh oddiy, hoh murakkab bo‘lsin, hoh bir oddiygina chizg‘ich vositasida, yoki juda katta o‘lchamli maxsus qurilmalarda o‘lchanadigan bo‘lsin, barchasi uchun taalluqli bo‘lgan va aynan shu masalalar bilan shug‘ullanadigan alohida fan mavjud bo‘lib, unga Metrologiya nomi berilgan.

Metrologiya, yunoncha so‘z bo‘lib, **«metros»** – o‘lchov, o‘lchash (miqdor), **«logos»** ya’ni o‘rganish (mantiq), fan ma’nosini anglatadi.

Metrologiya – o‘lchashlar, ularning birligini ta’minlash usullari va vositalari hamda kerakli talab etilgan aniqlikka erishish yo‘llari haqidagi fan hisoblanadi.

Detalni qanchalik aniq tayyorlash talab etilsa, u shunchalik qimmatga tushadi. Silindrik detal ishlab chiqarmoqchi bo‘lsak, ideal silindr ishlab chiqarish mumkin emas, u o‘q va ko‘ndalang kesimlar bo‘yicha to‘g‘ri shakldan og‘gan bo‘ladi.

Mashinasozlikda qo‘llaniladigan detallarning aksariyat qismining shakli, oddiy geometrik shaklda bo‘ladi.

Asosan bu silindr shaklidagi detallar - **70** foiz

Yassi shaklidagi detallar – **12** foiz

Tishli g‘ildiraklar - **3** foiz

Korpusli detallar **-4** foiz tashkil etadi.

Qo‘zg‘aluvchan birikmalarda (tirqishli) detallarning to‘g‘ri geometrik shakldan og‘ishlari cheklangan yuza bo‘yicha kontakda bo‘lishi sababli tez yeyilishiga va notekis harakat bo‘lishligiga olib keladi.

Qo‘zg‘almas birikmalarda shakldan og‘ish taranglik bir tekis bo‘lmasligiga bu esa mustahkamlik, germetiklik va markazlashtirish aniqligining pasayishiga olib keladi. Mutloq aniq o‘lchamlarga ega bo‘lgan detalni juda ko‘p sabablarga ko‘ra, ishlab chiqarish mumkin emas. Detalning o‘lchamlari chizmadagidan farq qilib, har xil joylarda har xil qiymatlarga ega bo‘ladi.

Mashina va asboblarning yuqori sifatli bo‘lishi ularning ishonchli va uzoq muddat ishlashini ta’minlaydi. Detalni yuqori sifatli tayyorlash xomashyoning sifati va mexanik ishlov berish usullariga bog‘liq.

Har qanday detalning aniqligi, asosan, quyidagi ko‘rsatkichlar bilan baholanadi:

1. Haqiqiy o‘lchamning nominal o‘lchamdan chetga chiqishi bilan.

2. Haqiqiy shaklning nominal shakldan chetga chiqishi bilan.

3. Detal o‘lchamlari va tekisliklarning nominal o‘qlardan, tekisliklarning o‘zaro joylashishdan chetga chiqishi bilan.

4.Detal yuzasining g‘adir- budurligi bilan.

Detallarni tayyorlashda geometrik xatoliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar quyidagilar:

a) Dastgohlarning holati va aniqligi. Detallarga ishlov beruvchi dastgohlar ko‘p hollarda o‘zining noaniqligini to‘la holda detalga o‘tkazadi. Masalan: charxning urish va tebranishi yuza notekisliklarini keltirib chiqaradi.

b) Texnologik jihozning holati va sifati dastgohga detalni o‘rnatuvchi markazlar buzilganligi.

c) ishlov berish rejimi

d) xomaki mahsulotning qattiqlik bo‘yicha turliligi va ishlov berishda joizlikning bir xil bo‘lmasligi. g) Harorat rejimi 20 °C dan yuqoriligi.

e) Dastgoh moslama, asbob, detal, deformatsiyasi, qayishqoqligi.

i) Ishchining malakasi va subyektiv xatolari.

k) O‘lchamni noaniq o‘lchash.

Sirtlarning belgilangan shaklidan va joylashishdan chetga chiqishi yigishni qiyinlashtiradi, o‘lchamlarning o‘lchash aniqligini kamaytiradi, bazalash aniqligiga ta’sir qiladi. Ishlov berish aniqligi - tayyorlangan detalning geometrik o‘lchamlaridagi haqiqiy qiymatlar. Berilgan chizma yoki texnik shartlardagi parametrlarga mosligi tushuniladi. Haqiqiy geometrik o‘lchamlarning nominaldan og‘ishi ishlov berish xatoligi deyiladi. **Detalga ishlov berish va ularni yig‘ish jarayonida paydo bo‘ladigan xatoliklar:**

a) Muntazam xatoliklar (ma’lum qonun bo‘yicha o‘zgaradi ya’ni asboblarning yeyilishi, harorat ta’sirida deformatsiyalanish, dastgohni o‘lchamga sozlash, texnologik tizim (detalga mexanik ishlov berish vaqtida kesish kuchi dastgohga, supportga, shpindelga, yonaltiruvchilarga, xomashyo mahkamlab qo‘yilgan moslamaga, kesuvchi asbobga va ishlov beriladigan detalga uzatiladi (DMAD)) davomida paydo bo‘ladi.



1-rasm.Silindrlikdan og‘ish.

Silindrni ko‘ndalang kesimdagi og‘ish doiraviymaslik (1-rasm) bilan harakterlanadi. Doiraviymaslik deyilganda ham nazorat qilinayotgan detal real nuqtalarining uni qamrab oladigan ideal doiradan eng katta og‘ishi tushuniladi.

Doiraviymaslikka shaklning doiradan har qanday og‘ishi kiradi. Biroq o‘lchash va detalni ishlash texnologiyasi bilan bog‘lanish oson bo‘lishi uchun ovallik va ko‘p qirralilik deb ataladigan og‘ishlarga ajratiladi (1-rasm).



a) b)

2-rasm. Yuzalarning doiraviylikdan chetga chiqishi a) ovallik; b) qirralik.

Mana shu o‘lchashlarni hisobga olgan holda, o‘t o‘rish mashinalarining ishlash samaradorligini oshirish maqsadida silosbop ekinlarni silosga yig‘ish va yem-xashak yig‘ish kombaynlari bilan yig‘ib olinadi. Poyalarni kesish balandligi 10-12 sm, silos massasi nobudgarchiligi 5% dan oshmasligi uchun bu agregatlarda detallarning o‘lcham og‘ishlari oshmasligi zarur, poyalarning namligi 60-70% bo‘lganda maydalangan massa uzunligi 2-3 sm, 75-80% bo‘lganda esa 4-5 sm. Tirkama silos yig‘ish kombaynlari KSS-2,6, KS-2,6, KS-1,8; yem-xashak yig‘ish kombaynlari – tirkama KPKU-75 va o‘ziyurar KSK-100 lar ishlatiladi.

Xulosa O‘t o‘rish mashinalarining o‘t o‘rish agregatlarning texnik holati ekspluatatsiya jarayonida, o‘z ish qobiliyatini yo‘qotmasligi uchun agregatning har bir elementlarining o‘lchamlaridagi aniqlik, o‘lchashlar birligini ta’minlash va talab etilgan aniqlikka erishish uchun zarur bo‘lgan texnikaviy vositalar, tartib va qoidalarning, me’yorlarining, ilmiy va tashkiliy asoslarning belgilanishi va tatbiq etilishi zarur. Qishloq xo‘jalik mashinalarida ishlatiladigan detal o‘lchamining qiymatini bilmoqchisiz. Tabiiyki, faqatgina his etish organlari orqali buni amalga oshirib bo‘lmaydi. Buning uchun bizga har xil aniqlikdagi o‘lchov vositalari chizg‘ich, shtangengsirkul, mikrometr yoki o‘ta aniqlikda o‘lchaydigan optimetrlar deb ataladigan vositalar kerak bo‘ladi. Shunday ekan metrologiya, standartlashtirish va o‘zaroalmashinuvchanlik qurilmalaridan foydalanish uchun mavjud tartib-qoidalarni ham bilish zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. F.X. Baxramov, Sh.Qosimov, U.Xodiyev, A. Qurbanov, A. Kiyomov- Metrologiya, standartlashtirish va o‘zaroalmashinuvchanlik. Darslik, “Nodirabegim” nashriyoti Toshkent–2021

2. F.M.Mamatov, I.G‘.Temirov- Qishloq xo‘jalik mashinalari. TOSHKENT “VORIS – NASHRIYOTI”

3. M. Shoumarova, T. Abdillayev- Qishloq xo‘jalik mashinalari. T.: «Fan va texnologiya», 2016, 288 bet.

ATROF-MUHIT IFLOSLANISHIDA AVTOMOBILLAR VA ULARDAN CHIQADIGAN ZAHARLI GAZLARNING TA'SIRI.

Djumayeva Go‘zal Baxtiyarovna (TDMAU)

Anotatsiya. Mazkur maqola avtomobillardan chiqadigan zaharli gazlarni atrof-muhitga salbiy ta'siri haqida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Avtotransport, is gazi, havo, azon, atrof-muhit, avtomobil, ifloslanish, muhit, ekologik xavfsizlik.

Kirish. O‘zbekiston milliy avtomobil tashuvchilarining asosiy harakat yo‘nalishlarida xalqaro avtomobil tashuvlari ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, Yevroosiyo va Yevropa Ittifoqida xalqaro yuk tashuvlari jaryonida kun tartibida turgan asosiy dolzarb masalalarni muhokama etish, O‘zbekistonning transport-tranzit salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ‘ib etish maqsadida Transport vaziriligi Xalqaro avtomobil transporti ittifoqi hamda O‘zbekiston Xalqaro avtomobilda yuk tashuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda "Xalqaro avtomobil tashuvlari: muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyani tashkil etdi.
Inson sivilizatsiyasining mavjudligi biosferada miqdoriy va sifatli o‘zgarishlarga olib keldi, sayyoramizda sun'iy ravishda yaratilgan ob'ektlarning ko‘p qatlamli to‘yingan sohasi – texnosfera shaklida yangi global moddiy tizimning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Insonning iqtisodiy faoliyati natijasi-mahsulot (materiallar, xizmatlar, uskunalar va boshqalar). Hayot aylanish jarayonining yoki ob'ekt yoki resurs siklining barcha bosqichlarida atrof-muhit ifloslanishi sodir bo‘ladi. Ifloslantiruvchi moddalarni shakllantirishning asosiy jarayonlari oksidlanish, tiklash, almashtirish, parchalanish, elektromexanik, jismoniy jarayonlar va boshqalar. Yo‘l-transport kompleksining atrof-muhitga ta'siri nazariy asoslari, avtomobil yo‘llarini qurish, ta'mirlash va ishlatishda atrof-muhitdagi salbiy ko‘rinishlarning tavsiflari berilgan. Ammo jamiyatni rivojlangan avtotransport kompleksi bilan ta'minlaydigan afzalliklar bilan bir qatorda, uning rivojlanishi, afsuski, atrof-muhit va insonga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunning ekologik muammolari faqat hozirgi rivojlanish bosqichining natijasi emas. Ular xuddi ko‘zgudagidek, iqtisodiy taraqqiyotga erishishga qaratilgan insoniyat taraqqiyotining butun yo‘lini aks ettiradi. Ko‘p yillar davomida iqtisodiy ishlab chiqarishning o‘sishi aholi manfaatlari va hayotiy ehtiyojlarini qondirishning yagona vositasi sifatida qaraldi. Amosfera ifloslanishida avtomobillar 40% energetika sanoati 20 % qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish 14% mayishiy komunal xo‘jalik va boshqalar 26% ga to‘g‘ri keladi.

Transport infratuzilmasini rivojlantirishdagi muammolardan biri xalqaro transport yo‘laklarining (XTK) yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rib chiqish kerak, ular turli transport turlarining o‘rnatilgan asosiy transportkommunikatsiyalari majmui (tegishli tartibga ega) sifatida tushuniladi. ishtirokchi davlatlar hududlarini bog‘lovchi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar va yuklar.

Yildan-yilga avtotransport vositalari soni ortib bormoqda. Transport vositalarining ekologik darajasi, foydalanilayotgan yoqilg‘i va yo‘l harakatini tashkil etish sifatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Jumladan,Respublika bo‘yicha avtomobillar soni 2021-yilda 3,14 mln donani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ularning soni 4,6 mln donaga yetdi. Bugungi kunda Toshkent shahrida bir kunda o‘rtacha 730 mingta avtotransport vositasi harakatlansa, qo‘shimcha ravishda hududlardan 160 mingdan 300 minggacha avtotransport vositasi kirib kelmoqda. Mutaxasislarning xisoblashicha 1 tak yengil avtomobil bir yilda 4 tonnadan ko‘proq kislarodni yondirib tashqariga tutunlari bilan 800kg SO, 40kg NOx,200 kg ga yaqin har xil uglivorodlarni chiqaradi.

Xalqaro standartlarga to‘g‘ri kelmaydigan A-80 markali benzindan foydalanayotgan texnika vositalari esa atmosferaga me’yoridan ortiq zararli tashlamalar chiqarmoqda.Jumladan quyosh nulari ta’sirida kislarod ozod oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo‘lgan ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni o‘ziga yutib tirik organizmlarni unuing salbiy ta’siridan himoya qiladi.Avtomobillar havoga chiqaradigan is gazi ozonni yemiilishiga sabab bo‘ladi 1 ta avtomobil bir kunda 10-12 litr benzin yoqilg‘isi ishlatib atmosfer havosiga 25 kg zaharli kimyoviy birikmalar chiqaradi.

Atmosfera havosidagi zararli moddalar me’yoriy konsentratsiyasining yuqori chegarasi, mg/m^3 da

Moddalar	PDK	PDK	PDK
Amiak	20	0,2	0,04
Benzol	5	1,5	0,1
Azot(II)-oksidi	5	0,085	0,04
Oltingugurt(II)-oksidi	10	0,5	0,05
Uglerod oksidi	20	5	3
Vodorod xlorid	2	0,2	0,2

Avtomobil transportining jadal rivojlanishi atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko‘rsatdi.Bunday ta'sir mexanizmi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- avtomobillashtirish jarayonining massivligi va tobora o‘sib borayotgan sur'ati;
- motorizatsiyani rivojlantirish jarayoniga hamroh bo‘lgan salbiy hodisalarning keng doirasi;
- mavjud ekologik xavfsizlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada

yaxshilashning murakkabligi;

- nisbatan cheklangan hududlarda (yirik shaharlarda) ko‘plab transport vositalarining kontsentratsiyasi va ularning selektiv hududlarga ommaviy kirib borishi, salbiy oqibatlarni lokalizatsiya qilish qiyinligi.

Avtomobil yo‘lining ekologik xavfsizligi (uning ekologik jihatdan xavfsiz holati) avtomobil yo‘lining muhandislik inshootlari va konstruktsiyalari tomonidan shakllantirilgan yo‘llar atrofidagi hududlarning tabiiy muhitining minimal zararli ta’sirini va ifloslanishini va ularning avtomobil transporti faoliyatiga ta’sirini ta’minlash qobiliyatini anglatadi. Avtomobil yo‘lining ekologik jihatdan qulay holati quyidagi ko‘rsatkichlar:

1. Avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlarining texnik holati.
2. Yo‘l bo‘yidagi tabiiy muhitning ifloslanish darajasi.
3. Avtomobil yo‘lining texnik holatini avtomobil transportida zararli moddalar chiqarilishiga ta’siri.

Xulosa. Avtomobil yo‘llarining ekologik xavfsizligi qurilish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan texnik yechimlarni saqlash uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va qo‘llash orqali erishiladi, bu esa aholi salomatligiga zararli ta’sir ko‘rsatmaydi, tabiiy muhitda qaytarilmas o‘zgarishlar, odamlarning ijtimoiy- iqtisodiy yashash sharoitlari yomonlashuvi. Ekologik barqaror transport shunday transportki, u inson salomatligini yoki ekotizmlarni xavf ostiga qo‘ymaydi,hamda ijtimoiy, iqtisodiy, va ekologik jihatdan optimal korsatgichlarga ega bolgan holda aholining biror joyga qulay sharoitda borib kelish talablarini qondiradi. Zamonaviy sharoitda avtomobil parki soni va u tomonidan olib o‘tilayotgan yuk va yo‘lovchilar soni ortib borayotgan sharoitda atrof-muhitning tozalik darajasini saqlab qolish eng muhim vazifadir. Avtomobil yo‘llari, boshqa texnik tuzilmalar singari, atrof-muhitga tabiiy tizimlar parametrlarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir qiladi. Yo‘llarni loyihalashtirish va ishlatish uchun ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan eng muhim tarkibiy transport ifloslanishi, yerlarni olib tashlash va hududlarni ajratish muhim ahamiyatga ega. Ekologik xavfsizlik avtomobil yo‘llarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Yu.Sh.Shadimetov Toshkent (2021) Atmosfera havosini himoya qilish texnologiyasi oliy oquv yurtlari talabalari uchun darslik.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonuni (yangi tahriri). Toshkent sh., 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-sonli.

3.Sapayev, M.S., Qodirov, F.M.(2019). Hayot faoliyati xavfsizligi va ekoloyiya. O‘quv qo‘llanma, T.: Aloqachi.

4. Леванчук, А. В. (2014). Загрязнение окружающей среды продуктами эксплуатационного износа автомобильно-дорожного комплекса. *Гигиена и санитария, 93 (6), 17-21.*
5.Домуладжанов, И.Х., Хол , Ю. М., Тешабаев, А. М., Бояринова, В.Г. (2020). Экология и охрана окружающей среды. Застройка города Кувасая. *Universum: технические науки*, (4-1 (73)), 5-8.

AVTOMOBIL KUCH UZATMALARI QIYMATINING AVTOMOBILLARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.

Kurbonova Buvrajab Kankelovna, v.v.b dotsent (JizPI)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yengil avtomobillarning uzatmalar qutisida sodir bo‘ladigan uzatishlar soni, maksimal tezligi, har bir o‘qqa tushgan og‘irlik kabi bir qancha ko‘rsatkichlar hisoblab chiqilgan. Ushbu hisoblashlar natijasiga ko‘ra pog‘onalar sonini ko‘paytirish dvigatel quvvatidan unumli foydalanish darajasini, yonilg‘i tejamkorligini, o‘rtacha harakat tezligini optimallashtiradi, natijada avtomobilning samaradorligini oshiradi, yuk tashish tannarxini pasaytiradi.Qo‘l bilan oddiy mexanik boshqarishda tez va xatosiz pog‘onalarni o‘zgartirish beshinchi pog‘onadan oshganda qiyinlashadi, shuning uchun pog‘onalar soni oltita va undan ko‘proq bo‘lganda murakkab maxsus boshqarish yuritmasi, yoki mustaqil yuritmaga ega bo‘lgan va ma’lum sharoitlarda ishlatiladigan qo‘shimcha uzatmalar qutisi o‘rnatiladi lozim.

Tayanch so‘z va iboralar: avtomobil, avtokorxona, uzatmalar qutisi, texnik xizmat ko‘rsatish, avtomobilning ekspluatatsiyaviy xususiyatlari, uzatishlar soni, og‘irlik markazi, dvigatel, minimal barqaror tezlik, yo‘l.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta`kidlaganidek, Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha jabhalarda ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi, O‘zbekiston dunyo hamjamiyatida o‘z munosib o‘rnini topdi, barcha sohalarda katta yutuqlarga erishmoqda. Istiqlol bergan ulkan imkoniyatlardan biri, shubhasiz, mamlakatimizda avtomobilsozlik sanoatiga asos solinganidir.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi jahondagi avtomobilsozlik sanoati rivojlangan nufuzli davlatlar qatoriga kiradi. Sababi, Respublikada turli xil rusumdagi avtomobillar ishlab chiqaruvchi bir qator zamonaviy avtokorxonalar barpo etilib, jahon andozalariga mos keluvchi, asosan yo‘lovchilar tashishga, qisman yuklarga mo‘ljallangan transport vositalari o‘z xaridorlariga ega bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, Respublikamiz o‘zining xususiy markasiga ega bo‘lgan va avtomobil rusumlari bilan ijobiy jihatlari orqali raqobatlasha oladigan harakat tarkibi tizimini yaratishga bel bog‘lagan. Shu bilan birga xalq xo‘jaligi va shaxsiy

foydalanishda bo‘lgan harakat tarkibi ma’lum yo‘l masofasini bosib o‘tgach, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va joriy ta’mirlash jarayoni samaradorligini oshirish, ularning ekspluatatsiyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini bir maromda ushlab turish ham muhandis konstruktorlar oldida turgan dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Ma’lumki avtomobillarning tuzilishi, ekspluatatsiyasi, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va joriy ta’mirlash va avtomobillarning ekspluatatsiyaviy xususiyatlar nazariyasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur tadqiqot ishida yengil avtomobillarninr uzatmalar qutisida sodir bo‘ladigan uzatishlar soni, maksimal tezligi, har bir o‘qqa tushgan og‘irlik kabi bir qancha ko‘rsatkichlar hisoblab chiqilgan.

Uzatmalar qutisi uzatmalar sonini oshirish yoki kamaytirish hisobiga avtomobilning yetakchi g‘ildiraklaridagi tortish kuchini va harakatlanish tezligini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari uzatmalar qutisi avtomobilning orqaga yurishini hamda u to‘xtab turgan paytda dvigatel ishlab turgan holda yoki salt yurish paytida dvigatel tirsakli valini yetakchi g‘ildiraklardan uzoq muddatga ajratib turishni ta’minlaydi.

Bugungi kunda 4-5 pog‘onali uzatmalar qutisi ko‘proq ishlatiladi. Katta yuk ko‘taruvchi va o‘tag‘on avtomobillarda 6-16 pog‘onali uzatmalar qutisi o‘rnatiladi. Pog‘onalar sonini ko‘paytirish dvigatel quvvatidan unumli foydalanish darajasini, yonilg‘i tejamkorligini, o‘rtacha harakat tezligini optimallashtiradi, natijada avtomobilning samaradorligini oshiradi, yuk tashish tannarxini pasaytiradi. Lekin pog‘onalar sonini ko‘paytirish konstruktsiyani murakkablashtiradi va og‘irlashtiradi, o‘lchamlarni, narxini oshiradi, boshqarishni qiyinlashtiradi. Qo‘l bilan oddiy mexanik boshqarishda tez va xatosiz pog‘onalarni o‘zgartirish beshinchi pog‘onadan oshganda qiyinlashadi, shuning uchun pog‘onalar soni oltita va undan ko‘proq bo‘lganda murakkab maxsus boshqarish yuritmasi, yoki mustaqil yuritmaga ega bo‘lgan va ma’lum sharoitlarda ishlatiladigan qo‘shimcha uzatmalar qutisi o‘rnatiladi.

Yengil avtomobil kuch uzatmasi parametrlarini aniqlash jarayonida asosiy uzatmaning uzatishlar soni i_o uzatmalar qutisining uzatishlar soni (agar mavjud bo‘lsa taqsimlash qutisining uzatishlar soni) hisoblab chiqiladi.

Yengil avtomobil maksimal tezligini ta’minlaydigan asosiy uzatmaning uzatishlar soni i_o quyidagi formula bilan topiladi:

$$i_o = 0{,}377\frac{n_{max}\cdot r_k}{i_{ou}\cdot v_{max}} = 0{,}377\frac{5000\cdot 0{,}327}{0{,}85\cdot 185} = 3{,}9$$

bu yerda i_{ou} −uzatmalar qutisi oxirgi uzatmasining uzatishlar soni.

Kichik va o‘rta yuk ko‘taruvchanlikka ega bo‘lgan karbyuratorli dvigatel bilan jihozlangan yengil avtomobillari uchun oxirgi uzatmaning uzatishlar soni $i_{ou} = 1$ dizel dvigatelli yuk avtomobillari uchun esa $i_{ou} = 0{,}7 - 0{,}88$ ga teng deb

olinadi. Yengil avtomobillar uchun agar to‘rt pog‘onali uzatmalar qutisi bilan jihozlangan bo‘lsa oxirgi uzatmaning uzatishlar soni $i_{ou} = 1$, agar besh pog‘onali uzatmalar qutisi bilan jihozlangan bo‘lsa $i_{ou} = 0{,}8 - 0{,}88$ ga teng deb olinadi.

Besh pog‘onali uzatmalar qutisi bilan jihozlangan yengil avtomobillarda, maksimal tezlikni ta’minlovchi to‘rtinchi pog‘onasida uzatishlar soni 1 ga teng. Asosiy uzatmaning uzatishlar sonini aniqlashda oxirgi uzatmaning uzatishlar sonini $i_{ou} = 1$ ga teng deb olish mumkin.

Zamonaviy yengil avtomobillarning asosiy uzatmasining uzatishlar soni 3,3-5,1; bitta asosiy uzatmali yengil avtomobillari uchun 5-7; ikkita asosiy uzatmali yuk avtomobillari uchun 6,5-9,0 oralig‘ida qabul qilinadi.

Uzatmalar qutisi birinchi uzatmasining uzatishlar soni quyidagi shartlar asosida tanlanadi:

1. Yengil avtomobilning maksimal yo‘l qarshiligi bo‘yicha uzatishlar sonini aniqlash:

$$i_1 = \frac{G_a \cdot \psi_{max} \cdot r_k}{M_{emax} \cdot \eta_{tr} \cdot i_o} = \frac{2304 \cdot 0{,}4 \cdot 0{,}327}{220 \cdot 0{,}95 \cdot 3{,}9} = 0{,}37$$

bu yerda ψ_{max} – yo‘lning maksimal umumiy qarshilik koeffitsienti (hisoblashlarda $\psi_{max} = 0{,}35 - 0{,}4$ yengil avtomobillar uchun, $\psi_{max} = 0{,}35 - 0{,}5$ yuk avtomobillari uchun qabul qilinadi);

G_a –yengil avtomobilning to‘la og‘irligi.

2. Yengil avtomobilning to‘la massasi taqsimlanishi bo‘yicha uzatishlar sonini aniqlash:

$$i_1 = \frac{G_m \cdot \varphi \cdot r_k}{M_{emax} \cdot \eta_{tr} \cdot i_o} = \frac{1612{,}8 \cdot 0{,}7 \cdot 0{,}327}{220 \cdot 0{,}95 \cdot 3{,}9} = 0.45$$

bu yerda φ ilashish koeffitsienti (quruq asfaltlarga yo‘l uchun $\varphi = 0{,}7 - 0{,}8$); G_m –yengil avtomobil o‘qqa tushgan og‘irligi, yengil avtomobil massasining etakchi o‘qqa tushgan og‘irligiga teng.

Yengil avtomobilning o‘qqa tushgan og‘irligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G_m = k_m \cdot G_a = 0{,}7 \cdot 2304 = 1612{,}8$$

bu yerda k_m yengil avtomobilning o‘qqa tushgan og‘irligi koeffitsienti.

Yuk avtomobillarida o‘qqa tushgan og‘irlik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G_m = k_m \cdot G_a = 0{,}75 \cdot 14300 = 10725$$

Yuk avtomobillari uchun o‘qqa tushgan og‘irlik koeffitsienti $k_m = 0{,}67 - 0{,}75$, zamonaviy kompanovkali yengil avtomobillar uchun (dvigatel oldinda joylashgan va oldingi o‘q etakchi) $k_m = 0{,}53 - 0{,}57$, klassik kompanovkali yengil avtomobillar uchun (dvigatel oldinda joylashgan orqa o‘q etakchi) $k_m = 0{,}50 -$

0,55yuqori o‘tag‘onlikka ega bo‘lgan yengil avtomobillar uchun $G_m = G_a$ qiymatlar qabul qilingan.

3. O‘rnatilgan yo‘l sharoitlarida minimal barqaror tezlikni v_{min} ta’minlash sharti bo‘yicha uzatishlar sonini aniqlash:

$$i_1 = 0{,}377\frac{n_{min}\cdot r_k}{i_{ou}\cdot v_{min}}$$

bu yerda $v_{min} = 4-5$ km/soat – o‘rtacha o‘tag‘onlikka ega yengil avtomobillar uchun;

$$i_1 = 0{,}377\frac{n_{min}\cdot r_k}{i_{ou}\cdot v_{min}} = 0.377\frac{4400\cdot 0.327}{0.85\cdot 5} = 127.6$$

$v_{min} = 3-4$ km/soat –yuqori o‘tag‘onlikka ega yengil avtomobillar uchun.

$$i_1 = 0{,}377\frac{n_{min}\cdot r_k}{i_{ou}\cdot v_{min}} = 0.377\frac{4400\cdot 0.327}{0.85\cdot 3} = 212.7$$

Yengil avtomobillar uzatmalar qutisi birinchi uzatmasining uzatishlar soni odatda $i_1 = 3{,}4-4{,}4$ yuk avtomobillarida $i_1 = 6{,}0-8{,}5$ oralig‘ida hisoblanadi.

Uzatmalar qutisi oraliq uzatmalarining uzatishlar soni geometrik progressiya yoki gormonik qator usullari yordamida aniqlanadi. Geometrik progressiya usuli yordamida uzatmalar qutisi oraliq pog‘onalarining uzatishlar soni quyidagi formula yordami aniqlanadi:

$$i_m = \sqrt[(n-1)]{i_1^{(n-m)}\cdot i_{ou}^{(m-1)}}$$

bu yerda m –aniqlanayotgan pog‘onaning tartib raqami;

n –uzatmalar qutisining pog‘onalar soni, orqaga yurish pog‘onasi hisobga olinmagan holdi.

Birinchi uzatmada:

$$m = 1; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_1 = \sqrt[(5-1)]{4^4\cdot 0.7^{(1-1)}} = 4$$

Ikkinchi uzatmada:

$$m = 2; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_2 = \sqrt[(5-1)]{4^3\cdot 0.7^{(2-1)}} = 2.5$$

Uchinchi uzatmada:

$$m = 3; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_3 = \sqrt[(5-1)]{4^2\cdot 0.7^{(3-1)}} = 1{,}6$$

To‘rtinchi uzatmada:

$$m = 4; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_4 = \sqrt[(5-1)]{4^1\cdot 0.7^{(4-1)}} = 1{,}08$$

Beshinchi pog‘onada:

$$m = 5; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_5 = \sqrt[(5-1)]{4^0\cdot 0.7^{(4-1)}} = 0{,}7$$

Yuk avtomobillar uzatmalar qutisi birinchi uzatmasining uzatishlar soni odatda $i_1 = 6{,}0-8{,}5$ oralig‘ida hisoblanadi.

Birinchi uzatmada:

$$m = 1; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_1 = \sqrt[(5-1)]{7^4 \cdot 0.8^{(1-1)}} = 7$$

Ikkinchi uzatmada:

$$m = 2; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_2 = \sqrt[(5-1)]{7^3 \cdot 0.8^{(2-1)}} = 4$$

Uchinchi uzatmada:

$$m = 3; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_3 = \sqrt[(5-1)]{7^2 \cdot 0.8^{(3-1)}} = 2.5$$

To‘rtinchi uzatmada:

$$m = 4; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_4 = \sqrt[(5-1)]{7^1 \cdot 0.8^{(4-1)}} = 1.37$$

Beshinchi pog‘onada:

$$m = 5; n = 5; \quad bo'lganda \quad i_5 = \sqrt[(5-1)]{7^0 \cdot 0.8^{(4-1)}} = 0.8$$

Uzatmalar qutisi oraliq pog‘onalarining uzatishlar sonini aniqlash jarayonida uzatishlar orasidagi farq past pog‘onadan yuqori pog‘onaga qarab 5-15 % dan ortadi, yuqori pog‘onadan past pog‘onaga qarab 5-15 % dan kamayadi.

Uzatmalar qutisi uzatishlar sonini aniqlaganda quyidagi ko‘rsatmalarga amal qilish zarur:

$$\frac{i_1}{i_2} \geq \frac{i_2}{i_3} \geq \frac{i_3}{i_4} \geq \frac{i_4}{i_5}$$

Ya’ni:

$$\frac{4}{2.5} \geq \frac{2.5}{1.6} \geq \frac{1.6}{1.08} \geq \frac{1.08}{0.7}$$

Demak, avtomobilning tezligi oshishi bilan uzatmalar qutisining uzatishlar soni kamayib borishi kerak. Ushbu talabni amalga oshirish uchun:

- ✓ pog‘onalar sonini ko‘paytirib, qo‘shni pog‘onalar uzatish sonlarini nisbatini iloji boricha kichiklashtirish, tezlatgich pog‘onalar ishlatish kerak;
- ✓ pog‘onalardagi uzatishlar soni to‘g‘ri tanlanishi kerak. Birinchi pog‘onaning uzatish soni avtomobil ekspluatatsiya sharoitida eng katta qarshiliklarni yenga oladigan etib tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda, uzatmalar qutisi uzatishlar sonini hisoblash yakunida talab qilingan oraliqni hisobga olish zarur, ya’ni uzatmalar qutisi birinchi pog‘onasi uzatishlar sonining oxirgi pog‘onasi uzatishlar soniga nisbati $D = \frac{i_1}{i_{ou}}$ Zamonaviy yengil avtomobillarda. $D = 3{,}5 - 4{,}5$ Kichik va o‘rta yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘lgan yengil avtomobillarda $D = 6{,}5 - 8{,}5$, ya’ni uzatmalar qutisining pog‘onalari soni 4 yoki 5 pog‘onali bo‘lganda. Zamonaviy yuk yengil avtomobillarida (uzatmalar qutisining pog‘onalari soni 20 tagacha bo‘lgan) $D = 25$ bo‘lishi mumkin, bu yengil avtomobillardan turli xil yo‘l sharoitlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Avtomobillarni texnik ekspluatatsiyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darsli.qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4-nashri. E.S.Kuznetsov, A.P.Boldin, V.M.Vlasov va boshqalar. Prof.Q.M.Siddiqnazarov tащriri ostida tarjima qilingan. T.: VORIS, 2006

2. Hamroqulov O., Magdiev SH. Avtomobillarni texnik ekspluatatsiyasi. T.: Toshkent, 2005

3. Musajonov M.Z. Avtotransport korxonalarini texnologik loyiщalash. T.: FAN, 2006.

4. Нуруллаев, У. А., & Умиров, И. И. У. (2020). Создание программных средств автоматизированной информационной системы транспортных предприятий. Academic research in educational sciences, (1).

5. Адилов, О. К., Умиров, И. И., & Уразов, Б. А. (2020). Методика определения деталей, критических по надежности автомобилей. Academic research in educational sciences, (1).

6. Адилов, А. К., Сувонкулов, Ш. А., Кулмурадов, Д. И., Умиров, И. И., & Бойжигитова, И. А. (2019). Причины изменения технического состояния автомобиля. Актуальные научные исследования в современном мире, (1-2), 116-118.

7. Умиров, И. И. Ў., & Ҳамрақулов, Ё. М. (2020). Автомобиллардан чиқаётган газсимон чиқиндиларнинг атмосферага аралашиши. Academic research in educational sciences, (1).

8. Нуруллаев, У. А., & Умиров, И. И. (2020). Улучшения эксплуатационных показателей двигателей газобаллонных автомобилей. Academic research in educational sciences, (3).

9. Адилов, О. К., Умиров, И. И. Ў., & Барноев, Л. (2020).Транспортни ҳавфсиз бошқариш кўрсаткичларини баҳолаш. Academic research in educational sciences, (1).

10. Умиров, И. (2021).Таълим жараёнида электрон таълим воситаларини қўллашнинг педагогик-психологик омиллари. Academic research in educational sciences, 2(2).

11 Iskandarovich, U. I. (2021). Theoretical Fundamentals of Introduction of Electronic Educational Tools to the Educational Process. Central asian journal of theoretical & Applied sciences, 2(1), 1-7.

12. Umirov, I., Turushev, S., & Ravshanov, F. (2021). Йўл бўлакларининг ҳаракатланиш хавфсизлигига таъсирини таҳлил қилиш.Academic research in educational sciences, 2(2).

ELEKTROMOBILLARGA SERVIS XIZMAT KO‘RSATISHNING TENDENTSIYALARI

Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich, assistant (JizPI)

Elektromobillarning tez o‘zlashtirilishi maqsadli bozorlarga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Elektr transport vositalari hukumat tashabbuslari va xom neft ya’ni yoqilg‘I maxsulotlariga bo‘lgan talablarni kamaytirish uchun atrof-muhitni yaxshilash bo‘yicha ko‘mak tufayli keng qo‘llanilmoqda. Elektromobillarini ta'mirlash va servis xizmat ko‘rsatish xarajatlari ichki yonuv dvigatelli avtomobillarga qaraganda nisbatan arzon bo‘lishi kutilmoqda. Qayta ishlangan materiallardan foydalanish orqali operatsiyalar va mahsulotlarni yanada barqaror qilish va elektromobillarining tarkibiy qismlari haqida texnik tushunchalarni rivojlantirish korxonalarga raqobatdosh ustunlik berishi mumkin bo‘ladi. Butun dunyo hukumatlari emissiyalarni qisqartirish bo‘yicha ulkan maqsadlarni qo‘yishmoqda va elektromobillarini targ‘ib qilish ularga erishish yo‘llaridan biridir. Masalan, Yevropa Ittifoqi 2030 yilga borib issiqxona gazlari chiqindilarini 55 foizga kamaytirishni maqsad qilgan. Xitoy 2025 yilga borib yangi avtomobillarning 25 foizini elektr bilan ta’minlashni maqsad qilib qo‘ygan.

Elektromobillariga servis xizmat ko‘rsatish bozori tahlil qilib olganimizda elektromobillariga servis xizmat ko‘rsatish xizmatlari bozori hajmi 2024 yilda 33,85 milliard dollarga baholanmoqda va 2029 yilga kelib 78,64 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Uzoq muddatda hukumatning turli tashabbuslari tufayli elektromobillarining savdosi oshishi kutilmoqda. Ushbu tashabbuslar bozor o‘sishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Misol uchun, rivojlanmagan davlatlar avtomobil bozorlarida elektromobillarining ishlab chiqarishi va mashhurligi elektromobillarining ulushini yanada oshirdi, bu esa o‘z navbatida bozorni kengaytirishga yordam beradi.

Barqaror transport va toza energiyaga global talab ortib borayotgani akkumulyatorli elektromobillariga talabni kuchaytirlishiga sabab bo‘lmoqda. Elektromobillarni ishlab chiqaruvchi davlatlar qonunchiligi transport vositalari oralig‘i, yaxshiroq oldindan narxlar, cheklangan model mavjudligi va bilim etishmasligi kabi iste'molchilar cheklovlarini hal qiladi. Ushbu o‘zgaruvchilar elektromobillarini ta'mirlash xizmatlari bozorini boshqaradigan elektromobillariga bo‘lgan talabga ta'sir qiladi.

Osiyo davlatlari mintaqasi tez sanoatlashuv va Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda elektromobillariga talab ortib borayotganligi sababli elektromobillarini ta'mirlash servis xizmatlari bozorida yetakchilik qilishi

kutilmoqda. Shimoliy Amerika va Evropa kabi boshqa mintaqalar ham bozorda sezilarli oʻsishga guvoh boʻlishimiz mumkun.

Elektr avtomobillarga texnik xizmat koʻrsatish bozori tendentsiyalari va elektromobillarining tez oʻzlashtirilishi maqsadli bozorlarga sezilarli ta'sir koʻrsatishi mumkin. Elektromobillari davlatlarning tashabbuslari va xom neftga qaramlikni kamaytirish uchun atrof-muhitni yaxshilash boʻyicha koʻmak tufayli keng qoʻllanilmoqda. Sof elektromobillarini ta'mirlash va servis xizmat koʻrsatish xarajatlari ichki yonuv dvigatelli avtomobillarga qaraganda nisbatan past boʻlishi anglash mumkun boʻladi. Qayta ishlangan materiallardan foydalanish orqali jarayonlar va mahsulotlarni yanada barqaror qilish va elektromobillarining tarkibiy qismlari haqida texnik servis tushunchalarni rivojlantirish korxonalarga raqobatdosh ustunlik berishi orqali bu ishlarni amalga oshirish mumkindir. Butun dunyo davlatlari emissiyalarni qisqartirish boʻyicha ulkan maqsadlarni qoʻyishmoqda va elektromobillarini targʻib qilish ularga erishish yoʻllaridan biridir. Masalan, Yevropa Ittifoqi 2030 yilga borib issiqxona gazlari chiqindilarini 55 foizga kamaytirishni maqsad qilgan. Xitoy 2025 yilga borib yangi avtomobillarning 25 foizini elektr bilan ta’minlashni maqsad qilib qoʻygan.

Aksariyat elektromobillarida ishlatiladigan lityum-ion batareyalar energiya zichligi, zaryadlash vaqti va umumiy ishlashda sezilarli yaxshilanishlarni koʻrish mumkun boʻladi. Bu elektromobillarini iste'molchilar uchun yanada qulayliklarni yaratadi. 2022-yilda elektromobillarining global savdosi 2021-yilga nisbatan qariyb 60 foizga oʻsdi va oʻtgan yilgi avtomobil savdosi umuman zaif boʻlishiga qaramay, birinchi marta 10 million donadan oshdi. Xalqaro energetika agentligi ma’lumotlariga koʻra, 2022-yilda dunyo boʻylab har yettita yengil avtomobildan biri elektromobil savdosiga toʻgri keladi.

elektromobillarining an'anaviy transport vositalaridan ustunligi va boshqa omillar prognoz davrida bozorni kengaytirishga yordam beradi. Avtomobil sanoati ishlab chiqaruvchilari uchun istiqbolli oʻsish istiqbollarini uchun qiladigan yana bir omil - bu batareya paketlari narxining pasayishi. Toza transport boʻyicha xalqaro kengash tomonidan e’lon qilingan tadqiqotga koʻra, Qoʻshma Shtatlardagi akkumulyatorlar toʻplami narxi 2025-yilga kelib 104 dollar/kVt/soatga, 2030-yilga kelib esa 72 dollar/kVt/soatgacha tushishi kutilmoqda. Bu jarayonlarni bizning mamlakatimizda ham amalga oshirish choralarini koʻrish hamda ishlab chiqarishni yoʻga quyish maqsadga muvofiq boʻladi.

Elektromobillar mexanik va elektr texnik tekshiruvlari va ta'mirlashlari hamda servis xizmatlari hammasi Auto Servicesda taqdim etiladi. Servis xizmat koʻrsatish korxonalarining rivojlatirishi va tashqi reklamalarni boyitish kabi odatiy va odatiy boʻlmagan xizmatlarni oʻz ichiga olini yoʻlga qoʻyish lozim boʻladi. Elektromobillarini ta'mirlash servis xizmatlari bozori elektromobillarining turi,

komponentlari, servis xizmat koʻrsatuvchi provayderi, transport vositasi turi va geografiyasi boʻyicha segmentlarga boʻlingan. Elektromobillarining turi boʻyicha bozor akkumulyatorli elektromobillariga, ulanadigan elektromobillariga va yonilgʻi xujayrasi elektromobillariga boʻlingan. Maqsadli bozor komponentlar turi boʻyicha mexanik, tashqi, strukturaviy va boshqa komponentlarga boʻlinadi. Bozor avtomobil turiga qarab yengil avtomobillar va tijorat avtomobillariga boʻlinadi. Bozor mintaqalar boʻyicha Shimoliy Amerika, Evropa, Osiyo Tinch okeani, Janubiy Amerika, Yaqin Sharq va Afrikaga boʻlingan. Elektromobillarni ishlab chiqarish bilan birga ularga servis xizmar koʻrsatish ishlarini ham amalga oshirishda servis xizmat koʻrsatish markazlarini ham shakillantirish lozim boʻladi. Elektromobillar sifatli va ishonchli servis xizmat koʻrsatish korxonalarni nufuzini oshiradi. Shu sababli mamlakatimizda bunday servis xizmat koʻrsatish markazlarini sonini koʻpaytirish raqobat bardoshlikni oshiradi hamda navbarsiz xizmar koʻrsarish ishlari amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Qurbonazarov Suhrob Erkin oʻgʻli “Elektromobillarning afzalliklari va kamchiliklari” “Transport tizimlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish istiqbollari” mavzusidagi respublika miqyosida ilmiy-texnik anjuman. Termiz 2023
2. Otanazarov M.M. OʻZBEKISTONDA ELEKTROMOBILLAR ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI" Экономика и социум" №2 2023
3. Элекромобили: мировые тренды, проблемы и перспективы, Денис ХИТРЫХ Директор центра исследований и разработок по маркетингу, MBA, научная статьяю Журнал: Электрическая политика №1
4. Қурбоназаров С. Э. - Исследование проблемы зарядки электромобилей - “Qishloq xoʻjaligi va transportda innovatsion texnika va texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani – Qarshi 2023.

OMBORXONA XOʻJALIGINI BOSHQARISHDA INNOVATSION LOGISTIKANI QOʻLLASH

Boymatov Oʻtkirbek, assistenti (TDMAU)

Annotatsiya: ushbu maqolada omborxona xoʻjaligini boshqarishda innovatsion logistikani qoʻllash, uning funksiyalari va uning ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: omborxona, ishlab chiqarish, logistika, loyiha, innovatsion logistika.

Ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalash, xom-ashyo, yarim tayyor va tayyor

mahsulotlarni logistik zanjirining u yoki bu bo‘g‘inida biror vaqtga jamlab turish sharoitida, optimal echimga ega bo‘ladi. Umumiy loyiha, jamlash joyida yukni nima qilish kerakligini ko‘rsatib beradi. Balki, kelib tushgan yuk birliklarini qayta shakllantirib, tovarlarni qayta qadoqlab, biror vaqt saqlab, keyinchalik yangi yuk birliklarini shakllantirib, lozim bo‘lgan vaqtda iste’molchiga etkazib berish talab qilinishi mumkin. Aynan shu maqsadda logistik tizimlarda omborlar tashkil etiladi. Omborlar - bu kelib tushgan tovarlarni qabul qilish, joylashtirish va saqlash, ularni iste’molga tayyorlash va iste’molchiga uzatish uchun mo‘ljallangan binolar, inshooatlar va turli xildagi uskunalar majmuidir. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga xom-ashyo va birlamchi materiallarning omborlari lozim bo‘ladi. Ularning yordamida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta’minlanadi. Tayyor mahsulot omborlari sotuv uzluksizligini ta’minlovchi zaxiralarni saqlab turishga imkon beradilar. Savdo omborlarida tayyor mahsulotlar jamlanib o‘z iste’molchisini kutib turadilar. To‘g‘ri tashkil etilgan logistik tizimni, omborlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Logistikada ombor faqatgina logistik jarayon ko‘rsatkichlarini yaxshilash mumkin bo‘lgan holdagina ishlatiladi. Shunday qilib, omborning asosiy roli bu moddiy oqimni optimallashtirish uchun sharoit yaratishdir. Logistika, ombor ichidagi jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etilishini, hamda texnik, texnologik va boshqa jarayonlarni iqtisodiy muhit jarayonlari bilan bog‘liqligini ta’minlashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Logistikada omborlarni tovar harakati tizimining unsurlari sifatida, va shu bilan birga, mustaqil tizim sifatida ko‘radilar. Bunga muvofiq masalalarning ikkita guruhini ajratadilar: -tovar harakati tizimini loyihalashda, omborlar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar; -omborlar bo‘yicha, mustaqil tizim sifatidagi, masalalar.

Omborlar logistik tizimlarning muhim unsurlaridan biri bo‘lib hisoblanadilar. Zaxiralarni saqlash uchun maxsus jihozlangan joylarga bo‘lgan ob’ektiv zaruriyat moddiy oqim harakatining barcha bosqichlarida kuzatiladi. Turli xildagi omborlar ko‘pligini aynan shu bilan izohlash mumkin. Omborlarning o‘lchamlari ham har xil bo‘lishi mumkin: kichkina xonalardan to bir necha yuz ming kvadrat metr maydonga ega bo‘lgan gigant omborlargacha. Omborlar yuklarni joylash balandligi bo‘yicha ham farqlanadilar. Bir omborlarda yuklar odam bo‘yidan baland bo‘lmagan joyda saqlansa, ikkinchi bir omborlarda maxsus uskunalar yukni 24m balandlikga joylashtiradilar. Omborlar tuzilishi (konstruksiyasi) ham turlicha bo‘lishi mumkin: ochiq va yopiq. Omborlarda, agarda lozim bo‘lsa, maxsus harorat, namlik va boshqa sharoitlar yaratilishi mumkin. Ombor bitta korxona tovarlarini saqlash uchun mo‘ljallangan bo‘lishi (individual foydalanish ombori) yoki lizing shartlarida yuridik yoki jismoniy shaxslarga ijaraga beriladigan bo‘lishi (jamoaviy foydalanish ombori) mumkin. Shuningdek omborlar, ombor operatsiyalarini mexanizatsiya darajasi bo‘yicha ham farqlanadilar: mexanizatsiyalashtirilmagan, majmuaviy-

mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan, avtomatik. Omborlarni moddiy oqimning umumiy harakat jarayonidagi joylashish belgisi bo‘yicha turkumlanishini mukammalroq ko‘rib chiqamiz. Omborlar turkumlanishining muhim belgisi bu yuklarni temir yo‘l yoki suv transporti orqali etkazish va olib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishdir. Bunga muvofiq stansiyalardagi yoki portlardagi omborlar (temir yo‘l stansiyasi yoki port hududida joylashgan), relsli omborlar (vagonlarni berish va olishga mo‘ljallangan relslarga ega) va chuqurdagi omborlar mavjud. Yukni stansiyadan yoki portdan chuqurdagi omborga olib borish uchun avtomobil transportidan foydalaniladi.

Turli omborlarda bajariladigan ish hajmi taxminan bir xil. Chunki omborlar turli logistik jarayonlarda quyidagi o‘xshash funksiyalarni bajaradilar: - moddiy zaxiralarni vaqtinchalik joylashishi va saqlanishi; - moddiy oqimlarni qayta shakllanishi; - xizmat ko‘rsatish tizimida logistik servisni ta’minlash. Har bir ombor kamida uch xil moddiy chiquvchi va ichki. Kiruvchi oqimning mavjudligi transportdagi yukni tushirish, uning miqdori va sifatini tekshirish lozimligini bildiradi. Chiquvchi oqim bo‘lsa yukni ortish, ichkida esa omborlar ichida yukni harakatlan Moddiy zaxiralarni vaqtinchalik saqlash funksiyasini amalga oshirilishi, yuklarni saqlashga joylashtirish, saqlash uchun zaruriy sharoitlarni ta’minlash, saqlash joylaridan yuklarni olish bo‘yicha ishlarni bajarish zaruriyatini bi Moddiy oqimlarning o‘zgarishi bir yuk partiyalari yoki yuk birliklari o‘rniga boshqalarini tashkil etish yo‘li bilan amalga oshadi. Bu yuklarni o‘z qadoqlaridan olib, yangi yuk birliklarini tashkil etish va ularni qadoqlash zarur ekanligini anglat Ammo bu omborlar to‘g‘risida umumiy tushunchadir xolos. Yuqorida sanab o‘tilgan funksiyalarning har biri keng miqyosda o‘zgarib turishi mumkin. Bu esa ayrim logistik operatsiyalarning amalga oshirilish intensivligiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bundan keyin, ombordagi logistik jarayonning ko‘rinishi umuman boshqacha tus oladi. Moddiy oqimni birlamchi xom bo‘lgan harakatida uchraydigan turli xil omborlarning funksiyalarini ko‘rib chiqamiz. Ishlab chiqaruvchi - omborga qo‘yish; - saqlash; - navlarga (turlarga) ajratish; - qo‘shimcha qayta ishlash (lozim bo‘lsa); - belgilash (markirovka); - ortishga tayyorlash; - ortish operatsiyalari. Iste’molchi korxonalarning xom - yukni qabul qilish; - tushirish; - navlarga ajratish; rasm. Moddiy oqimning, xom-ashyo manbasidan to so‘nggi iste’molchigacha bo‘lgan, yo‘lidagi omborlarni prinsipial chizmasi (sxemasi) Omborlarning funksiyalari Turli omborlarda bajariladigan ish hajmi taxminan bir xil. Chunki omborlar logistik jarayonlarda quyidagi o‘xshash funksiyalarni bajaradilar: moddiy zaxiralarni vaqtinchalik joylashishi va saqlanishi; moddiy oqimlarni qayta shakllanishi; xizmat ko‘rsatish tizimida logistik servisni ta’minlash.

Adabiyotlar:

1. Саркисов С.В. Управление логистикой. Учебное пособие. Москва ЗАО

«Бизнес-школа «Интел-Синтез» 2001.

2. Samatov G‘.A. Yo.K.Qoriyeva. B.Payziyev. Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchligi. Toshkent 2003

AVTOMOBILSOZLIKDA MUHANDISLIK DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Kulmuradov Dilshod Istamovich, p.f.f.d., (PhD) JizPI

Annotatsiya. Avtomobilsozlik sanoati texnologik taraqqiyot bilan birga rivojlanib, murakkab loyihalar va innovatsion mahsulotlar yaratishda ilg‘or muhandislik dasturlariga juda qattiq tayanmoqda. Ushbu dasturlar, avvalambor, avtomobil ergonomikasi, dinamikasi, energiya samaradorligi va xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda optimal texnologik yechimlar topishga yordam beradi. Maqolada quyida avtomobilsozlikda eng ko‘p qo‘llaniladigan muhandislik dasturlari va ularning imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz.

CAD (Computer-Aided Design) dasturlari. **AutoCAD, CATIA, SolidWorks, NX** kabi CAD dasturlari avtomobilsozlikda keng qo‘llaniladi. Ushbu dasturlar yordamida avtomobillarni loyihalashda turli qismlar va yig‘ma mexanizmlarning geometrik modellarini yaratish, ularning o‘lchamlarini aniq belgilash va uch o‘lchamli (3D) vizualizatsiyasini ko‘rish mumkin. Muhandislar CAD dasturlaridan foydalanib, avtomobilning tashqi ko‘rinishini yaratishdan tortib, dvigatel va shassi kabi murakkab tizimlarning detallarini optimallashtiradilar.

SolidWorks va **CATIA** ko‘p modulli tizimlar bo‘lib, ular mexanik komponentlarni modellashtirish, aerodinamik tahlil va issiqlik o‘tish jarayonlarini simulyatsiya qilish imkonini beradi. Shuningdek, bunday dasturlar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish va vaqtni tejash mumkin.

CAE (Computer-Aided Engineering) dasturlari. Muhandislikda kompyuter yordamida tahlil qilish (CAE) dasturlari avtomobilsozlikda materiallar, yuklamalar va dinamikaga oid tahlillarni o‘tkazishda ishlatiladi. **ANSYS**, **ABAQUS**, va **Nastran** kabi dasturlar orqali avtomobilning kuchlanish, deformatsiya, zarba va vibratsiyaga qanday ta'sir qilishini o‘rganish mumkin.

ANSYS va **ABAQUS** avtomobillarning turli qismlarida hosil bo‘ladigan yuklamalarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, avtomobilning zarba paytidagi kuchlanishlarini hisoblash orqali xavfsizlikni oshirish imkoniyatlari aniqlanadi. Bu dasturlar materiallarning chidamliligini baholashda ham yordam beradi, bu esa avtomobilning og‘irligi va strukturaviy mustahkamligini optimallashtirishga imkon beradi.

CFD (Computational Fluid Dynamics) dasturlari. Avtomobil aerodinamikasi avtomobil tezligi va yonilg‘i samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, aerodinamik tahlillar uchun **CFD (Computational Fluid Dynamics)** dasturlari, masalan, **Fluent**, **OpenFOAM** va **Star-CCM+** ishlatiladi. Ushbu dasturlar yordamida havo oqimlari, termodinamik jarayonlar va issiqlik o‘tkazish kabi omillarni tahlil qilish orqali avtomobil shakli va tashqi dizayni yaxshilanadi.

CFD dasturlari yordamida avtomobilning havo bilan aloqa qiluvchi qismlarida havo oqimi qarshiligi o‘lchanadi, bu esa yakuniy loyihalash va ishlab chiqarish jarayonida qimmatli axborot beradi. Dvigatel, radiator va boshqa haroratga bog‘liq qismlarda hosil bo‘ladigan issiqlik muvozanatini tahlil qilish orqali avtomobilning ish faoliyatini yaxshilash ham mumkin.

MBD (Multi-Body Dynamics) dasturlari. **ADAMS** kabi MBD dasturlari avtomobilning dinamik xatti-harakatlarini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Ushbu dasturlar orqali avtomobilning muvozanatini, yo‘l bilan aloqa qilishini, o‘tish va burilish paytidagi barqarorligini simulyatsiya qilish mumkin. Dinamik tahlillar avtomobilning xavfsizligini oshirish va qulaylik darajasini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega.

Elektron tizimlarni simulyatsiya qilish. Zamonaviy avtomobillarning aksariyati murakkab elektron boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan. Elektron tizimlarning samaradorligini oshirishda **MATLAB/Simulink** kabi dasturlar yordam beradi. Ushbu dasturlar orqali avtomobilning boshqaruv, stabilizatsiya va energiya ta’minoti tizimlarini modellashtirish mumkin. Elektr transport vositalarini ishlab chiqishda batareya tizimlarini, elektr motorlarni va ularning ishlash rejimlarini tahlil qilish uchun MATLAB dasturi juda keng qo‘llaniladi.

Avtomobilsozlikda muhandislik dasturlarining ahamiyati. Muhandislik dasturlari avtomobilsozlikda qator afzalliklarni taqdim etadi. Ular loyihalash jarayonini tezlashtirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va oxirgi mahsulot sifatini oshirishga yordam beradi. Yana bir muhim jihati — dasturiy vositalar orqali olib boriladigan tahlillar prototiplar yaratish zaruriyatini kamaytiradi, bu esa vaqt va mablag‘ni tejaydi.

Avtomobilsozlikda muhandislik dasturlari orqali nafaqat texnik parametrlar takomillashtiriladi, balki atrof-muhitga zarar yetkazmasdan energiya samaradorligini oshirish ham ta’minlanadi.

Xulosa

Muhandislik dasturlari avtomobilsozlik sohasida innovatsiyalarni amalga oshirishda, mahsulot sifatini yaxshilashda va ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. CAD, CAE, CFD va boshqa zamonaviy dasturlar avtomobilsozlik kompaniyalariga raqobatbardosh bo‘lishda, energiya tejamkor avtomobillar ishlab chiqarishda va xavfsizlik darajasini oshirishda muhim

koʻmakdosh vositalar hisoblanadi. Shu bilan birga, bu dasturlar orqali ishlab chiqaruvchilar yangi texnologiyalarni tezroq va ishonchli sinab koʻrish imkoniyatiga ega boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.I. Kulmuradov. Methodology for studying the development of digital design competencies and distance education in developed countries // SKILLS Scientific-theoretical and methodical magazine, 2021.

2. Kulmuradov, D. I. The role of automated design systems (CAD/CAE/CAM) in modern production. Innovative solutions to technical, engineering and technological problems of production (October 29-30, 2021).

3. Kulmuradov, D. I. (2022, August). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CONSTRUCTION DOCUMENTS IN THE AUTOMATED DESIGN SYSTEM. In E Conference Zone (pp. 19-22).

ELEKTR-SHLAK PAYVANDLASH MOHIYATI

Abdullayev J.X., assistant (TDMAU)
Abdiqaharov. N.O.

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektr -shlak payvandlash mohiyati va ullar toʻgʻrisida malumotlar chizmalar orqali toʻlliq bayon etilgan boʻlib shlakli vannaning qay tartibda turishi toʻgʻrisida koʻrsatmalar berib oʻtilgan shuningdek elektr -shlak payvandlash usullari va turlari toʻgʻrisida tushunchalar berib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar : Elektr-shlak payvandlash, payvandlash metallurgiyasi, payvandlash mohiyati, payvandlash usullari, payvandlash rejimlari.

Elektr-shlak payvandlash mohiyati

Elektr-shlak payvandlash – bu eritib payvandlash usuli boʻlib, bunda chokni qizdirish uchun issiqlik, erigan shlak orqali oʻtayotgan elektr tok yordamida qizdirladi.

Elektr-shlak payvandlash usuli XX asrning 50-yillarida Ukraina fanlar akademiyasining elektr payvandlash institutida ishlab chiqildi. 1949-yilda G.Z. Voloshkevich birinchi boʻlib elektrod simlari bilan elektr-shlak payvandlashni amalga oshirdi. 1955-yilda Novokramator mashinasozlik zavodida sanoat sharoitida yassi elektrodlar bilan elektr-shlak payvandlashni birinchi boʻlib Yu.A. Sterenbogen amalga oshira oldi.[14]

Elektr-shlak payvandlashda elektr toki shlakli vannadan oʻtayotib asosiy va qoʻshimcha metallni eritadi va eritmaning yuqori haroratini ushlab turadi.



1-rasm. *Elektr-shlak payvandlash chizmasi:*

1 – s qalinlikdagi payvandlanayotgan detal; 2 – elektrod uzatish uchun mundshtuk; 3 – elektrod; 4 – shlak vannaning h chuqurligi; 5 – metall vannaning h_m chuqurligi; 6 – qoliplaydigan polzun. Detallar b_{pay} oraliqda tanlangan; l_{pay} – elektrod chiqishi.



2-rasm. *100 mm qalinlikda bo‘lgan po‘latni elektrshlak usulda payvandlashda issiqlik balansi:*

1 – sim erishi; 2 – asosiy metall erishi; 3 – nurlanishga sarflanishi; 4 – qirralar nurlanish bilan qizdirilishi; 5 – metall vannasini qizib ketishi; 6 – polzunlarni shlak bilan qizdirish; 7 – pozunlarni metall bilan qizdirish.

Elektr-shlak jarayon, shlakli vannaning 35–60 mm chuqurligida turg‘indir, bu uchun esa chok o‘zagining joylashishi vertikal holatda bo‘lishi kerak. Chok yuzasini majburiy sovitish uchun misdan yasalgan suv qurilma yordamidan foydaliniladi. Elektr-shlak payvandlashda elektr quvvatning hammasi shlak vannasiga o‘tadi undan esa elektrodga va payvandlanayotgan qirralarga o‘tadi. Turg‘un jarayon faqat shlak vannasida doimiy harorat 1900–2000°C bo‘lishi kerak. Payvandlanayotgan metallar qalinliq diapazoni 20–3000 mm.

Elektr-shlak payvandlash usullari

Elektr-shlak payvandlashni uch usul bilan bajarish mumkin, har bir usul o‘z mohiyati va qo‘llanish sohasiga ega.

1) Simli elektrodlar bilan payvandlash, diametri 3...5 mm bo‘lib payvandlash tirqishiga tok uzatuvchi misli maxsus mundshtuklar uzatiladi (3- a rasm). Shu bilan birga shlak vannasiga uchtagacha elektrod simi uzatiladi, bu bilan uch fazali ta’minlash manbalarini ishlatish mumkin bo‘ladi. Shlak vannasida issiqlik ajralishi asosan elektrod atrofida bo‘lganligi hisobiga, bitta elektrod simini ishlatilganda payvandlanayotgan metallning maksimal qalinligi 60 mm ni tashkil etadi, uchta sim qo‘llanilganda – 200 mm gacha. Agar mundshtuklarga tirqishda v_k tezlik bilan qaytma-ilgarilanma harakat bilan ta’sir etsa, payvandlanayotgan qirralar qalinligi 2,5 baravar katta bo‘lishi mumkin.

2) **Katta kesimli elektrodlar bilan payvandlash**, payvandlash tirqishiga uzatib bajariladi (3- b rasm). Elektrod sifatida 1...1,2 mm qalinlikdagi tasmalar yoki 10...12 mm qalinlikdagi va uzunligi chok uzunligining uch baravariga teng bo‘lgan plastinalar qo‘llanilishi mumkin. Bitta plastinali elektrod bilan 200 mm gacha qalinlikda bo‘lgan metallar payvandlanadi, uchta elektrod bilan esa 800 mm gacha, v_e= 1,2...3,5m/soat bilan payvandlanadi.

Yuqoridagi ikki usul ham nisbatan uncha qalin bo‘lmagan metallarni payvandlashda ishlatiladi. Payvandlash tirqishida mavjud harakatdagi mundshtuklar yoki plastinalar detallar qirralarida qisqa tutashuvlarga olib kelishi mumkin, bu o‘z navbatida payvandlash jarayoni stabil kechishiga xalaqit beradi. Tok o‘tkazuvchi mundshtuklarning quvurchalari tez yeyilishi payvandlash qurilmalariga xizmat ko‘rsatish qiyinlashtiradi va narxi baland bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin hamda jarayon stabil kechishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Plastinali elektrodlarning uncha katta bo‘lmagan uzunligi payvand choklarni uzunligini cheklab qo‘yadi.



3-rasm. *Elektr-shlak payvandlash usullari:*

a - simli elektrodlar bilan; b - plastinali elektrodlar bilan; d – eriydigan mundshtuk bilan: 1 – elektrod simi; 2 – plastinali elektrod; 3 – eriydigan mundshtuk; 4 – uzatish mexanizmi; 5 – qoliplovchi qurilma; 6 – shlakli vanna; 7 – erigan metall vannasi; 8 – payvandlanayotgan metall.

3) **Eriydigan mundshtuklar bilan payvandlash.** Eriydigan mundshtuklarni payvandlash tirqishida harakatsiz joylashish holatida payvandlashni bajarilishi (3- d rasm) ko‘rsatilgan. Payvandlash uchun qo‘shimcha ashyo yetmay qolganda

payvandlash simidan tayyorlangan 3 mm diametrli elektrod simlarini ingichka quvurchali yoki spiralsimon o‘ralgan kanallar orqali uzatish natijasida qo‘shimcha ashyo yetkazib beriladi. Bitta mundshtuk orqali elektrod simini baravariga oltitagacha uzatish mumkin. Bunday mundshtuklar bilan metallarni 500 mm qalinligigacha payvandlash mumkin, ikkita mundshtuklar bilan – 1000 mm gacha, uchta mundshtuklar bilan – 1500 mm gacha bo‘lgan qalinlikda metallar payvandlanadi. Bu usul elektr-shlak payvandlashni oldingi ikki usulining kamchiliklarini bartaraf etib imkoniyatlarini kengaytiradi. Eriydigan mundshtuklar bilan elektr-shlak payvandlashni qo‘llash bilan turli qalinlikda va murakkab kesim shakllarda bo‘lgan metallarni biriktirish mumkin.

Adabiyotlar

1.Каршиев Фахридин Умарович, Н.Абдуқаҳоров ИЗУЧЕНИЕ МИКРОСТРУКТУРЫ СТАЛИ В МАТЕРИАЛОВЕДЕНИ// https://www.iupr.ru/6-121-2024 https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_15c4798c874a4ddab326a52bd3af34ea.pdf?index=true

2.. Ermatov Z.D., Dunyashin N.S. Eritib payvandlash texnologik mashinalari va jihozlari. O‘quv qullanma – T.: , 2017

3. Абралов М.А, Дуняшин Н.С., Эрматов З.Д., Абралов М.М. Технология и оборудование сварки плавлением. Учебник – Т.:Komron press, 2014 – 460 с.

4. Edward R. Bohard. Welding: Principles and Practces - American Welding Society - Connect Learn Success, 2012 – 1147 pp.

ИССЛЕДОВАНИЯ КАЧЕСТВА МОТОРНЫХ МАСЕЛ САМОСВАЛОВ ПРИ ЭКСПЛУАТАЦИИ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА И ПОВЫШЕННЫХ ЗАПЫЛЕННОСТИ ВОЗДУХА

Алимова Зебо Хамидуллаевна проф. (ТГТУ)
Баракаев Фазлиддин Исматович асисс. (ТГИАУ)

Аннотация. Целью данной работы является исследование качества моторных масел самосвалов при эксплуатации в условиях жаркого климата и повышенных запыленности воздуха. Исследования моторных масел работающих при эксплуатации в условиях жаркого климата (температура воздуха летом превышает +50°C) и повышенных запыленности воздуха показывают, что интенсивно загрязняются механическими примесями. Количество пыли увеличивается до 35–45 г/м3, т.е. на несколько порядков превышает запыленность воздуха. Высокая проникающая способность мелкой пыли, которая в большинстве случаев проникает через уплотнения

воздушного, масляного и топливного трактов, приводит к преждевременному старению масла. Для решения поставленной задачи проведено экспериментальное исследование на трех автомобилях-самосвалах (БелАЗ-7513, БелАЗ-75307, БелАЗ-75310), которые эксплуатировались в карьере на вывозке горной породы в условиях деятельности «Навоийский ГМК» и подвергались анализам по основным показателям качества.

Ключевые слова: моторное масло, окисление, загрязненность, долговечность, отложения, продукты окисления, запыленность воздуха.

Исследования смазочных масел работающих в двигателях тяжело нагруженном горнотранспортном оборудовании при эксплуатации в условиях жаркого климата (температура воздуха летом превышает +50°C) и повышенных запыленности воздуха показывают, что моторные масла интенсивно загрязняются механическими примесями.

Высокая тепловая напряженность деталей форсированных двигателей, с которыми приходится контактировать моторному маслу, и взаимодействие с прорывающимися в картер газами из камер сгорания резко ухудшают условия их работы. Масло при работе двигателя контактирует с продуктами сгорания топлива, имеющими высокую температуру 600–800°C, кислородом воздуха и поверхностями деталей, подвергаясь при этом механическому, термическому и химическому воздействию, которые приводят к образованию продуктов, которые откладываются на деталях двигателя, загрязняя и ухудшая их работу.

Абразивные свойства климатических пылей Центральноазиатского региона одной из основных характеристик отрицательно влияющих на работу двигателя внутреннего сгорания. Пыль, является определяющей причиной износа поршневых двигателей, поэтому ее количество в воздухе значительно влияет на их надежность. На высоте 0,65 м над уровнем земли 66% пыли является мутной и состоит из мелкодисперсных частиц размером до 10 мкм. Количество пыли увеличивается до 35–45 г/м3, т.е. на несколько порядков превышает запыленность воздуха. Высокая проникающая способность мелкой пыли, которая в большинстве случаев проникает через уплотнения воздушного, масляного и топливного трактов, приводит к преждевременному старению масла, нарушая при этом работу систем двигателя. Масло фильтрующими устройствами не удается полностью очистить масло от всех примесей, поэтому количество частиц в процессе работы двигателя постоянно увеличивается.

Исследования показали, что простои автосамосвалов БелАЗ-75310 из-за неисправностей двигателя составляют 29 % от общего баланса простоев, что

напрямую приводит к увеличению эксплуатационных расходов и снижению производительности.

Для решения поставленной задачи проведено экспериментальное исследование на трех автомобилях-самосвалах, которые эксплуатировались в карьере на вывозке горной породы в условиях деятельности «Навоийский ГМК» и подвергались анализам по основным показателям качества.

Из системы смазки каждого опытного двигателя автосамосвалов БелАЗ-7513, БелАЗ-75307, БелАЗ-75310 регулярно отбирали пробы масла G-Profi MSI Plus SAE15W-40, API CI-4 для анализа и было подвергнуто спектральному анализу (таблица 1).

Результаты спектрального анализа активных элементов работавшего моторного масла марки SAE15W-40, API CI-4

Таблица 1

Наработка масла, м/ч	Fe	Cr	Al	Si	Sn	Mo
0	0.13	0.16	0.52	2.38	0.14	75.30
50	2.47	0.15	0.73	3.12	0.17	48.33
100	3.40	0.25	1.06	5.23	0.19	41.14
150	4.55	0.32	1.87	6.97	0.21	35.79
200	5.89	0.63	2.06	7.02	0.21	34.83
250	6.91	0.94	2.26	7.08	0.25	32.77
300	8.20	2.29	2.53	7.65	0.28	30.09

По спектральному анализу можно увидеть увеличенные содержания Fe, Cr, Al, что свидетельствует об интенсификации процессов износа. С увеличением содержания железа в масле изменяются фрикционные, противоизносные, антиокислительные и моющие свойства масла. Это является следствием нарушения режима смазывания трущихся деталей, что в свою очередь вызывает рост нагрузки и температуры в сопряжениях. Таким образом, замена моторного масла по усредненному показателю зачастую не совпадает с его действительным состоянием, что ведет к использованию масла, отработавшего свой ресурс, приводящему к повышенному износу деталей двигателя.

В качестве основного свойства масла для определения срока замены масла в работе, также можно осудить по показателям кинематической вязкости, температуры вспышки и щелочного числа. Поэтому было проведено лабораторные анализы по изменениям этих показателей (таблица 2).

Экспериментальные данные показателей качества работавшего моторного масла SAE15W-40, API CI-4

Таблица 2

Наработка масла, м/ч	Температура вспышки, ^{0}C	Кинематич. вязкость при 100 ^{0}C, сСт	Сажа %	Окисление	Общее щелочное число, mg KOH/g
0	224	15.30	0.01	0.00	9.30
50	215	14.32	0.03	0.02	9.21
100	210	13.93	0.05	0.02	9.05
150	204	13.88	0.06	0.03	8.01
200	202	13.50	0.07	0.04	7.63
250	195	13.04	0.09	0.05	6.95
300	189	12.95	0.11	0.06	5.73

Как следует из таблицы отклонения качественных показателей (вязкость, щелочное число и температура вспышки) стали заметными при пробеге самосвала 200 м/ч и более. В процессе работы вязкость масла уменьшилось до 12,95. Связано это с изменениями структурно-группового состава и попаданием топлива.

Весьма важными показателями качества масла и его работоспособности является щелочность, обусловленная наличием щелочных присадок, расходуется на нейтрализацию кислот с разной скоростью. Пределом работоспособности масел очень часто считают равенство общего щелочного числа общему кислотному числу. Допустимое значение щелочного числа ограничивается 1,5…2,0 мг КОН/г, или 50 % щелочного числа свежего масла. Считается, что наиболее подходящей наработкой для замены масла является наступление предельного состояния, когда щелочное число снизилось до половины значения для свежего масла.

Моторное масло должно обладать определенной щелочностью для сохранения моющих свойств, способности к нейтрализации кислот и подавления процессов коррозии. Чем больше щелочное число, тем большее количество кислот, образующихся при окислении масла и сгорании топлива, может быть переведено в нейтральные соединения. В противном случае эти кислоты вызывают коррозионный износ деталей двигателя и усиливают процессы образования отложений. Из таблицы видно, что щелочное число в процессе работы снизилось с величины 9,31 до 5,73.

Температура вспышки масла является показателем наличия в нём фракций дистиллятных топлив. Она изменяется при попадании в него несгоревшего топлива, и утечках топлива. Для работающих масел предельное значение температуры вспышки составляет 170–180°С, а для высоковязких

масел с высокой температурой вспышки считают предельным снижение температуры вспышки на 40–50°С. При попадании в масло 1% бензина температура вспышки снижается с 200 до170°С, а наличие в масле 6 % бензина снижает её почти в 2 раза. Разжижение масла топливом вызывает резкое ухудшение его противоизносных свойств, ускоряет процессы нагаро- и лакообразования на поршнях. Как следует из таблицы температура вспышки – 189ºС приблизилась к браковочному значению, что свидетельствует о необходимости замены и невозможности дальнейшего применения этого масла без снижения эксплуатационной надежности двигателя.

Учитывая все полученные нами экспериментальные данные по изменению качественных показателей (щелочное число и температура вспышки), мы рекомендуем дополнительно ввести в моторное масло присадки.

Анализы показывают, молибден в сочетании с серой и фосфором обладают весьма эффективными против окислительными свойствами. Преимущество нами предлагающей присадки кроме молибдена имеются сера и фосфор. Данная присадка по сравнению с другими присадками достаточно эффективна и стабильна при относительно высоких температурах. Проверка нескольких десятков этих соединений в качестве присадок к маслам показала, что они весьма эффективны не только в свежих маслах, но в отработавших и регенерированных. В данной присадке содержание фосфора 4.5%, серы 14%, молибдена (в виде MoO_3) 10.6% масс. Присадка полностью растворима в масле, в воде она не растворяется.

Заключение

По результатам лабораторных исследований при введении присадки MoPS-14 3% в моторное масло SAE15W-40, API CI-4 физико-химические показатели дали положительный результат по сравнению с базовыми маслами SAE15W-40, API CI-4. Щелочное число повысилось с 9.3 до 12; а температура вспышки поднялась до 243^0С, что свидетельствует об эффективности добавленной присадки. При дальнейшим увеличении концентрации уменьшается вязкость до 11.5, что может привести к повышенным потерям на трение. При использовании такой присадки повысится ресурс работы моторного масла и которое может также привести к уменьшению износа поршневых колец. В дальнейшем эти масла могут быть допущены на следующий этап – к эксплуатационным испытаниям на специальной технике.

В настоящее время исследования продолжаются по эффективности влияния природы и концентрации присадок на эксплуатационные показателей моторных масел работающих в двигателях тяжелонагруженном горнотранспортном оборудовании в высокой запыленности воздуха.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Джерихов В.Б. Автомобильные эксплуатационные материалы: учеб. пособие. гос. архит.-строит. ун-т. –СПб., 2009. –256 с.2.Смирнов А. В. Автомобильные эксплутационные материалы: Учеб. пособие / НовГУ им. Ярослава Мудрого. –Великий Новгород, 2004. –348 с.
2. Алимова З. (2020). Пути улучшения свойств смазочных материалов применяемых в транспортных средствах. Монография, Vneshinvestprom.
3. Hamidullayevna, A. Z., Kabulovna, S. D., & Parpiyevna, N. G. (2022). Operability of the boundary layers of lubricants during operation.
4. Khamidullaevna, A. Z., Parpiena, N. G., & Kabulovna, S. D. (2022). Study of the Work of the Boundary Layers of Lubricants Materials.Academicia Globe: Inderscience Research,3(12), 119-122.
5. Hamidullayevna, A. Z., & Ismailovich, I. K. (2023). Causes of changes in the properties of motor oils in the high temperature zone of the engine.American Journal of Applied Science and Technology, 3(01), 1-5.
6. Hamidullayevna, A. Z., Parpiyevna, N. G., & Kabulovna, S. D. (2022). Causes of Contamination of Lubricants Used in Diesel Engines.Texas Journal of Engineering and Technology,13, 44-46.
7. Alimova, Z., Abdukhalilov, H., Kholmirzayev, B., & Samatayev, T. (2020). Ways to improve the performance of hydraulic oils for agricultural machinery.Industrial Technology and Engineering, 3(36), 17-22.
8. Khamidullaevna, A. Z., & Parpiyevna, N. G. (2022). Ways to Improve the Operational Properties of Hydraulic Oils for Agricultural Machinery.Texas Journal of Engineering and Technology,8, 20-22.
9. Khamidullaevna, A. Z., Kobulovna, S. D., & Buranovna, Y. G. (2021). Improve The Physico-Chemical Properties Of Hydraulic Oils Way Of Introduction Of Additives.The American Journal of Engineering and Technology,3(12), 1-5.
10. Xamidullayevna, A. Z., & Parpiyevna, N. G. (2022). Research of the mechanism of action of the protective properties of inhibited compositions. The American Journal of Engineering and Technology, 4(02), 19-22.
11. Алимова, З., Ниязова, Г., & Сабирова, Д. (2022). Исследование срабатывания присадок моторных масел в процессе эксплуатации двигателя. Академические исследования в современной науке,1(18), 269-275.
12. Alimova, Z. X., Ibragimov, K. I., & Turakulov, B. H. (2022). The influence of the operational properties of the working fluid on the reliability of hydromechanical transmissions of cars.The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research,4(03), 12-16.

ELEKTROMOBILNI EKSPLUATATSIYASIDAGI KAMCHILIK TOMONLARI

Kenjayev Xusniddin Bahodirjon o‘g‘li, assistant (FarPI)
Oribjonov Valixon Oribxon o‘g‘li, assistant (FarPI)

ANNOTATSIYA: Elektromobillardan foydalanish va ishlab chiqarish bugungi kunda juda tez suratlarda oshib bormoqda.Bugungi kunda dunyoda avtomobillar ishlab chiqarishni juda ko‘p kompaniyalari o‘zlarining elekromobillarini namoyish etmoqda, masalan:Tesla volkswagen, BYD, Changan, avtomobillarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ular bugungi hunda ko‘plab zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lsada, ekspluatatsiyasida qilish jarayonida ularning kamchiliklari ko‘zga tashlanadi, masalan:uzoq masofalarga yurishda buni yaqqol ko‘rish mumkin.

KALIT SO‘ZLAR: Quvvatlash vaqti, samaradorligi, yo‘llar infratuzilmasi, zaryadlashdagi zararlar, yong‘in xavfsizligi, ekologik zarari

KIRISH: Elektromobillari hozir, shunaqa ommalashmoqdaki, ko‘chalarimizda elektomobillar soni kundan kunga ko‘payib bormoqda. Elektromobillar O‘zbekiston ham elekromobillar bozorlarida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Bugungi kunda elekromobillar zamonaviy shaxarlar, ekalogik toza shaxarlar uchun keng foydalanilmoqda. Ularni ekologik jihatdan zararsiz va iqtisodiy jihatdan tejamkor transport vositasi sifatida bilamiz.

Qisqacha qilib aytganda, elekromobilda yurish qulay va yoqimli. Boshqarish oson va haydash o‘ziga xos. Ammo biz uning har doim ijobiy tomonlarini, afzalliklarini gapiramiz ammo kamchiliklarini kam eshitamiz, real olib qaraganda, salbiy tomonlarini ham tushunishimiz kerak. Hozirgi elektr transportining kamchiliklari nimalarda ekanligini ko‘rib chiqamiz.

Quvvatlash vaqti uzoqligi:

Zamonaviy elektromobillar, litiy-ion akkumulyatorlari tufayli bir quvvatlanishda 400 km dan ortiq masofani bosib o‘ta oladi. Ammo bu omilning ham salbiy tomoni bor - bunday mashinalar sig‘imi katta batareyalaridan foydalanadi. Natijada, AC (o‘zgaruvchan tok) stansiyalaridan zaryadlash ko‘p soatlar talab qilishi mumkin. Uyingizda quvvatlamoqchi bo‘lsangiz tuni bilan zaryad qilgandan keyin ham batareyaning to‘liq zaryadini ko‘rmasligingiz mumkin. Uyda 220 volt kuchlanishda kamida 8 soat, maxsus zaryadlash stansiyalarida minimum 40 minut turishi kerak.Bu esa haydovchilarga ancha noqulayliklar tug‘diradi.

Qishda samaradorlikning pasayishi

Elektromobilining yana bir haqiqiy kamchiligi qishda samaradorlikning pasayishi hisoblanadi. Bunga batareyalar ichidagi kimyoviy reaksiyalarning

sekinlashishi sabab bo‘ladi. Natijada, elektromobilning yurish masofasi qisqaradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 5 C° da batareya quvvati 12-20% ga, -5 C° da 30-40% ga va -12 C° da 43-50% ga kamayadi. Agar izolyatsiya qilingan issiq garaj bo‘lsa, unda bu yaxshi variant. Ya'ni, bu yer uylarda yashovchilar uchun imkoniyatdir.

Yo‘llarda elekromobillar uchun infratuzilma rivojlanmaganligi.

Safarlarga chiqqanda, Viloyatlar markazlari va Toshkentdan boshqa shaharlarda foydalanish noqulayliklar olib keladi. Aksariyat hollarda elektr transport vositalarini uyda o‘z elektr tarmoqlaridan zaryad qilish kerak. Zaryadlash stansiyalari soni kamligi.





Zaryadlashda sezilmagan zararlar.

Vaqt o‘tishi bilan har bir zaryadlash siklidan keyin u asta-sekin akkumulyator sig‘imi pasayib boradi, yiliga o‘rtacha 5% sig‘imini yo‘qotadi. Zaryadlash orasidagi yurish masofasi kamayadi, bu ma'lum bir zaryadlash siklidan keyin katta noqulaylik tug‘diradi. Zaryadlash qurilmasi quvvati qanchalik kuchli bo‘lsa, batareya tezroq eskiradi. Ikki-uch yildan so‘ng, savol sizni bezovta qiladi: bu mashina bilan nima qilish kerak?

Uni almashtirish narxi 5000 -12000 $ atrofida xarajat qilishga olib keladi. 1200 -2000 sikl zaryaddan keyin, batareya umuman zaryadlanmay ham qoladi,

shuning uchun siz boshida 430 km dan oxirida 0 gacha boʻlgan oʻrtacha masofani bosib oʻtishingiz kerak.

Koʻpgina elektr avtomobil egalari ularni toʻgʻridan-toʻgʻri uyda zaryad qilishadi, ammo hamma ham buni qila olmaydi, chunki ayrim insonlar koʻp qavatli uylarda istiqomat qiladi. Odatda pastki qavatlarda yashovchilar uchun muammo yoʻq. Uzaytirgich kabel bilan toʻgʻridan-toʻgʻri xonadoningizdan tortib chiqishingiz mumkin. Ammo agar xonadon, masalan, 4 qavatdan yuqori boʻlsa, vaziyat ancha murakkablashadi.

Yongʻin xavfsizligi

Elektromobilni akkumulyatori yonsa, mashina toʻliq yonib tugamaguncha oʻchirib boʻlmaydi. litiy-ion batareyalarni oʻchirish ularning tabiatiga koʻra qiyin vazifadir. Masalan, baxtsiz hodisa tufayli, yacheykalarning mexanik shikastlanishi, aniq yongʻinga olib keladi. Shuning uchun batareyalar elektr transport vositasining eng pastki qismiga joylashtirishga harakat qilishadi.

Kapot ostida siz ularni topa olmaysiz! Agar biron bir batareya yacheykasi yonadigan, boʻlsa nima boʻladi? Gap shundaki, litiy-ion batareyasi yonish paytida jarayonni qoʻllab-quvvatlovchi kislorod chiqara boshlaydi u benzinga qaraganda yaxshiroq yonadi. Shuning uchun, na qum, na koʻpik, na suv yordam bermaydi. Baxtsiz hodisa paytida, yongʻin ehtimoli yuqori boʻladi, bunga batareyalarni qisqa tutashuvi sabab boʻladi.

Birinchidan, batareyalarni zaryad qilish va keyinchalik energiyadan foydalanishda, elektr energiyasidan toʻgʻridan-toʻgʻri foydalanishdan koʻra koʻproq energiya sarflanadi. Ikkinchidan, xizmatini oʻtab boʻlgan batareyalarni (utilizasiya)yoʻq qilish yangi ekologik muammolardir. Akkumulyatorlarni maxsus yoʻq qilish kerak, siz ularni axlatga tashlay olmaysiz, mumkin emas.

Afsuski, hech qanday foyda yoʻq. Akkumulyatorlarni ishlab chiqarish juda koʻp energiya va koʻplab resurslarni talab qiladi. Ehtimol, shaharlarda toksinlar chiqishi kamroq boʻlar edi, ammo oʻsimliklar bundan hech qayerga qochib qutulmaydi, tabiat zarar koʻraveradi.

Ekologiya kamchiliklari :

Foydalanishda elekromobillar atrof-muhit uchun zararsizdir ammo ekektomobillar akkumulyatorlar batareyasini almashtirilgandan keyin uni yoʻq qilish muommosi paydo boʻladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi davrda elektromobillar shuncha kamchiligi boʻlsada uni bartaraf etish ustida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Masalan: Elektromobillarga yuqoridagi koʻplab kamchiliklarni bartaraf etish uchun ikki turdagi elektr va ichki yonuv dvigatellari qoʻllanilmoqda va bu uning infratuzilma rivojlanmagan joylarda juda foydali boʻladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. ‘‘Elektr avtomobil texnologiyasi tushuntirildi” – Jeyms Larminie va jon Louri Vaqt: 384b
2. “Elektr va gibrid transport vositalari, dizayn asoslari” – - Gianfranco Pistoia Vaqt: 512 b
3. “Elektromobil: akkumulyator, gibrid va yonilg‘i xujayrali avtomobillarning rivojlanishi va kelajagi” – - G. M. P. OLeary Vaqt: 384 varaq

Internet resurslari:

1.AQSh energetika vazirligi: Elektromobillar haqida ma'lumotlar va tadqiqotlar.
2.Xalqaro energetika agentligi(IEA): Elektromobillar bo‘yicha ma'lumotlar va statistika.
3.Elektr avtomobil Jahon: Elektromobillar sohasidagi yangiliklar va tahlillar.

TASMALI UZATMALARNING FOYDALI ISH KOEFFITSIYENTINI OSHIRISH

Kenjayev Xusniddin Bahodirjon o‘g‘li, assistant, (FarPI)
Oribjonov Valixon Oribxon o‘g‘li, assistant, (FarPI)

Annotatsiya: Ushbu maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad tasmali uzatmalarning turlaridan qaysi birining foydali ish koeffitsiyenti yuqori ekanligini tekshirish va foydali ish koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan tasmali uzatmadan foydalanish orqali uzatmalarni samarador ishlashiga erishish.

Kalit so‘zlar. Mexanik uzatma, tasmali uzatma, tishli uzatma, ponasimon tasma, yassi tasma, val.

Kirish. Mashinasozlikda va mexanik uzatmalar qo‘llaniladigan har bir sohada tasmali uzatmalarning o‘rni juda muhim hisoblanadi. Chunki bu uzatmalarni o‘rnini boshqa uzatmalar egallay olmaydi. Harakatni ishqalanish kuchi hisobiga uzatib beruvchi bu uzatmalar harakatni bir necha metr uzoqlikgacha uzatib bera olishi bilan ajralib turadi. O‘z o‘nida tasmali uzatmalar ham bir necha turlarga bo‘linadi bulardan asosiy turlari yassi tasmali uzatmalar va ponasimon tasmali uzatmalar hisoblanadi. Bu ikki uzatmalar ham turli xil foydali ish koeffitsiyentlariga ega hisoblanadi.

Metodlar. Tasmali uzatma vallarda o‘rnatilgan ikki shkiv (yetaklovchi va yetaklanuvchi) va ularni qamrab turuvchi elastik element tasmadan tashkil topgan. Tasmali uzatma harakatni shkivlar va tasma orasidagi, tasmani taranglash hisobiga paydo bo‘ladigan ishqalanish kuchi hisobiga uzatadi. Tasmali uzatma, 30 kVt dan bir necha yuz kVt gacha quvvat uzatishda qo‘llaniladi. Tasmali uzatma asosan avtomobillar, stanoklar, tikuv mashinalari va boshqalarda ishlatiladi.

Turlari. Tasma ko‘ndalang kesim shakliga qarab: yassi tasmali (1-rasm, *a*), ponasimon tasmali (1-rasm, *b*) uzatmalarga bo‘linadi.



1-rasm. Tasmali uatmaning sxematik ko‘rinishi

Yassi tasmali uzatmalar - odatda tasma tezligi va uzatish masofasi ancha katta (α_{max}= 12...15 m, V = 100 m/s gacha) bo‘ladi. Ponasimon tasmalar - esa masofa va tezlik kichikroq (α_{max} = 6 m; V = 30 m/s gacha) bo‘lganda va kattaroq quvvat uzatilganda, doiraviy tasmalar uzatiladigan quvvat kichik bo‘lganda, tishli tasmalar - uzatish nisbati o‘zgarmas bo‘lishi talab etilganida qo‘llaniladi.

Shu bilan bir qatorda bu tasmali uzatmalar uchun tasmaning qamrov burchagi ham turlicha qiymatga ega.

α_1 - tasmaning yetaklovchi shkivni qamrash burchagi, grad.

α_1 – yassi tasmali uzatmalar uchun $150° \geq \alpha_1$.

α_1 – ponasimon tasmalar uchun esa $80° \geq$ bo‘lishi kerak.

Tasmali uzatma mexanik uzatmalarning eng qadimiy turlaridan bo‘lib, bu uzatma hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Boshqa turdagi uzatmalarga qaraganda tasmali uzatma bir qator afzalliklarga ega. Shu sababli bu uzatmadan foydalanish maqsadga muvofiq. Tasmali uzatmaga baho berish uchun uni eng keng tarqalgan tishli uzatma bilan taqqoslaymiz.

Bunda tasmali uzatmani quyidagi afzalliklarini ta’kidlash mumkin:

- harakatni nisbatan katta masofalarga (15 *m* gacha va undan ko‘p) uzatadi;
- tasmaning elastiklik hususiyati ravon va shovqinsiz hamda katta tezlikda ishlash imkonini beradi;
- tasmaning elastikligi sababli yuklanishning keskin o‘zgarishlariga ta’sirchan emas;
- o‘ta yuklanish holatlarida tasmaning shkivdagi sirpanishi sababli mexanizmlarni ishdan chiqishdan saqlaydi;
- tuzilishi oddiy, ishlatilishi oson moylash talab etmaydi;
- FIK yetarli darajada yuqoriligi (μ = 0,91 ... 0,96); tayyorlash, ishlatish va xizmat ko‘rsatish nisbatan yengilligi;
- tannarxi nisbatan arzon.

Tasmali uzatmalarning asosiy kamchiliklari:

- tashqi o‘lchamlari katta (ba’zi sharoitlarda shkiv diametrlari tishli g‘ildiraklar diametridan taxminan besh marta katta);
- tasmaning yuklanishiga bog‘liq sirpanishidan uzatish nisbatining o‘zgaruvchanligi;
- tasmaning katta dastlabki tarangligidan val va ularning tayanchlariga tushadigan yuklanishning kattaligi (tishli uzatmaga nisbatan vallarga 2…3 bora ko‘p yuklanish tushadi);
- tasmalar chidamliligining pastligi (1000 soatdan 5000 soatgacha).

Tasmali uzatmalar asosan vallar bir-biridan ancha uzoqda (katta masofada) joylashgan hollarda ishlatiladi. Zamonaviy tasmali uzatmalarning quvvati odatda 50 kVt dan ortmaydi. Tasmali uzatmalar avtomobilsozlikda, stanoksozlikda va qishloq xo‘jalik mashinalarida keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Hozirgi kunda zamonaviy mashinasozlikda ponasimon tasmalar eng ko‘p tarqalgan, shu sababli eski konstruksiyali yassi tasmalarning ishlatilishi ancha kamaydi. Yangi konstruksiyali yassi tasmalar (plastmassalardan tayyorlangan qobiqli – plenkali tasmalar) tez yurar uzatmalarda qo‘llanilmoqda. Tasmali uzatmalar ishchanlik layoqatining asosiy mezonlari tasma bilan shkivlar orasidagi ishqalanish kuchi orqali aniqlanadigan tortish layoqati va tasmaning umrboqiyligi hisoblanadi. Tasma umrboqiyligi normal sharoitlarda foydalanishda tasmaning toliqishidan yemirilishi bilan chegaralanadi. Hozirgi davrda tasmali uzatmalarni tortish layoqati bo‘yicha hisoblash asosiy hisoblanadi. Tasmaning umrboqiyligini tanlash uchun, uzatmani hisoblashda asosiy parametrlarini amaliy tavsiyalar asosida qabul qilinadi.

Elelktrodvigateldan chiqayotgan P_1=18 kWt quvvatni bir valdan ikkinchi valga uzatish uchun tasmali uzatmadan foydalanilmoqda. Ikkinchi valdagi quvvat aniqlanadi. Hisobda podshipnikning foydali ish koeffitsiyentini $\eta_{pod} = 0,99$ teng deb olinadi.

1.Yassi tasmali uzatmadan foydalanamiz. P_1=18 kWt

$\eta_{pod} = 0,99$ va yassi tasmali uzatmaning foydali ish koeffitsiyenti η_{tas} =0,97 ga teng.

$P_2 = P_1 \times \eta_{pod} \times \eta_{tas}$ formuladan foydalangan holda hisoblaymiz.

$$P_2 = P_1 \times \eta_{pod} \times \eta_{tas} = 18 \times 0,99 \times 0,97 = 17,28 kWt$$

2. Ponasimon tasmali uzatmadan foydalanamiz.

Ponasimon tasmali uzatmaning foydali ish koeffitsiyenti η_{tas} = 0,98 ga teng.

$P_2' = P_1 \times \eta_{pod} \times \eta_{tas}$ =18×0,99×0,98=17,463 kWt.

Tadqiqot natijalari. Hisob kitoblar va ushbu hisob kitoblardan olingan natijalardan quyidagi natijalarni olishimiz mumkin:

$$P_2' - P_2 = 17,463 - 17,28 = 0,183 \text{ kWt.}$$

Ya’ni ushbu qiymatni kWtdan Wtga o‘tkazamiz. ΔP = 183 Wt ga teng qiymatni olamiz.

Xulosa. Olib borilgan tahlil va olingan natijalardan ma’lum bo‘ldiki, yassi tasmali uzatmalarga nisbatan ponasimon tasmali uzatmalardan foydalanadigan bo‘lsak energiya va quvvatning yo‘qotilishi ham nisbatan kamroq bo‘lar ekan va foydalanish davomida nisbatan kamroq quvvatli elektrodvigatellardan foydalanishimiz ham mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.N. NABIEV, B.T. KARIMOV TEXNIK MEXANIKA. MEXANIK UZATMALAR. TOSHKENT-2020
2. M. Kurganbekov, A. Moydinov. Mashina detallari. O`quv qo`llanma. I va II qismlar. –T.: “Fan va texnologiya”, 2015. - 384 б.
3. Решетов Д.Н. Детали машин – М.: Машиностроение, 1988.-642 с.
4. Сулаймонов И. Машина деталлари – Т.: Ўқитувчи, 1981.-303 б.
5. Shoobidov Sh.A. Mashina detallari: darslik –T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2014. - 444 b.
6. A.A. Androsov. Raschet i proektirovanie detaley mashin: Ucheb. posobie. /A.A. Androsovi dr. Pod obsh. red. A.A. Androsova. Rostov n/D. Feniks. 2006. 285 s

МОДЕЛИРОВАНИЕ ОЧАГА ДЕФОРМАЦИИ И ОСОБЕННОСТИ МИКРОРЕЗАНИЯ ПРИ АБРАЗИВОСТРУЙНОЙ ОБРАБОТКЕ ДЕТАЛЕЙ МАШИН

Искандарова Нигора Курванбековна, Phd, ассистент,
Шин Илларион Георгиевич, д.т.н., профессор, ТИТЛП,

Эффективность абразивоструйной обработки ответственных деталей рабочих органов технологических машин обусловлена прежде всего кинематикой процесса и простотой реализации, создавая регулируемый поток абразивных частиц за счет изменения давления сжатого воздуха, угла атаки абразивов, расстояния от сопла до обрабатываемой поверхности. При прочих равных условиях абразивоструйной обработки интенсивность съема металла должна зависеть от физико-механических свойств абразивных частиц, их размеров, от остроты кромок и углов режущего клина (переднего и заднего), образующихся при контакте с обрабатываемым материалом в процессе микрорезания.

Существенным резервом увеличения преимущества по качественным показателям волокна и семян при хлопкопереработка может быть абразивоструйная обработка частицами с высокими режущим свойствами, способными осуществить эффективное микрорезание металла с заусенцев в труднообрабатываемых местах (во впадине зубьев пильных дисков). Как

известно, процесс резания, осуществляемый режущим клином инструмента, сопровождается стружкообразованием вследствие обширной зоны пластической деформации, охватывающей плоскости сдвига и поверхностный слой под задней поверхностью режущего клина. Поэтому перспективность абразивоструйной обработки зубьев джинных пил состоит в процессе микрорезания заусенцев, сильно повреждающих целостность хлопковых волокон, и в эффекте деформационного упрочнения поверхностного слоя, как явления, характерного для процесса резания [1].

Таким образом, назначением абразивоструйной обработки зубьев джинных пил, основанной на ударном взаимодействии абразивов с обрабатываемой поверхностью с последующим микрорезанием и сглаживанием заусенцев на переходных поверхностях зубьев, является качественная подготовка пил, отличающихся повышенной долговечностью и обеспечивающих качественные показатели волокна и семян при волокноотделении. Решение этой комплексной проблемы требует всестороннего анализа сущности процесса, изучения основных закономерностей обработки свободными абразивами в потоке с сжатым воздухом, обоснования технологических и режимных параметров обработки.

Воздействие абразивной частицы с потоком воздуха на металлическую обрабатываемую поверхность сопровождается ударом с последующим образованием на ней лунки или царапины как след процесса микрорезания с образованием микростружек. Образование стружки – это основной признак царапания, что отличает его от простого пластического деформирования металлов. Поэтому царапание связано с пластической деформацией и разрушением, которые составляют фундаментальную основу процесса резания металлов.

Абразивные частицы являются многогранниками неправильной геометрической формы и имеют скругленные вершины. Несмотря на то, что скругленность невелика, ее необходимо учитывать, так как при микрорезании толщины снимаемых слоев соизмеримы с величиной радиуса скругления зерна ρ (мкм). Это обстоятельство очень важно и для любого металлического лезвийного инструмента (резца, фрезы, развертки и др.), работающего в условиях среза тончайших стружек.

Особенности геометрической формы абразивов являются предпосылкой установления основных закономерностей процесса микрорезания не только свободным абразивом, но и при работе любым абразивным инструментом. Вследствие скругленности абразивных частиц обеспечиваются большие отрицательные передние углы резания, приводящие к значительным углам

режущего клина зерна, что повышает их динамическую прочность и сопротивляемость силам, действующим на них.

Анализируя схемы очага деформации при резании остроконечным режущим клином и режущим клином с выраженной переходной (сопряженной) поверхностью с некоторым радиусом ρ, можно составить следующую картину очага деформации при обработке резанием со свободным единичным абразивом.



Рис. 1. Моделирование очага деформации при косом ударе ($\alpha \neq 90^0$) абразивной частицы 2 по плоской металлической поверхности 1 с последующим резанием с образованием микростружки 3

Данная абразивная частица при абразивоструйной обработке со скоростью υ ударяется по обрабатываемой поверхности и при достаточной кинетической энергии совершает работу по преодолению сопротивления металла упруго-пластическому внедрению на некоторую глубину *H*. Очаг деформации, формируемый при микрорезании свободным единичным зерном в процессе соударения под углом α к металлической поверхности, можно описать контуром *ABCDEFGA*, где *DEF* представляет активную контактную поверхность абразивной частицы. Линия *EF* является контактной поверхностью микростружки, линия (поверхность) *DE* не связана с металлом срезаемого слоя толщиной a_3 переходящего в стружку после достижения условной плоскости сдвига *EK*, находящейся под углом сдвига β. Слой металла a_3, подвергается только сжатию и попадает в зону пластических деформаций, поэтому суммарная толщина слоя металла, входящая в контакт с ударяющейся абразивной частицей при последующим движении составляет $a_0=a_1+a_3$.

Линия *FG* отражает граничную поверхность пластической деформации частиц металла, образующих микростружку толщиной a_2. *FG* – внеконтактная зона стружки. Левее линии *ABC* металл находится в упругом состоянии, правее - в пластическом. Точка *C* соответствует максимальной глубине проникновения пластической деформации, равной глубине упрочнения *h*.

Таким образом, предложена модель абразивоструйной обработки металлических поверхностей в виде очага деформации, развиваемой при микрорезании единичным свободным абразивом в процессе ударного взаимодействия. Данная модель является основополагающей для решения многих задач механики твердого деформируемого тела, в частности, определение напряженно- деформированного состояния в поверхностном слое обрабатываемой детали, расчет глубины деформационного упрочнения (наклепа), формирование сжимающих остаточных напряжений, оценка высотных параметров шероховатости и др.

Учитывая особенности абразивоструйной обработки металлических поверхностей и, прежде всего ее полидеформационный и вероятностный характер, будет вполне обоснованным использовать [2] для приближенного определения уровня возникающих сил микрорезания:

$$P_{\text{рез}} = e\tau A_{\text{ср}},\ \text{Н} \qquad (1)$$

где τ - касательное напряжение, действующее в плоскости скалывания (сдвига) по всей ее площади в тонком поверхностном слое пластически деформируемого металла, Н/мм^2;

$A_{\text{ср}}$ - площадь поперечного сечения срезаемого слоя, мм^2;

e - коэффициент, учитывающий влияние всех безразмерных величин (f_1 - коэффициент внешнего трения скольжения обрабатываемого и инструментального материалов;

f_2 – коэффициент внутреннего трения в пластически деформируемом металле), переднего угла γ и угла сдвига β, определяемый по формуле

$$e = \frac{(1 - f_1)^2 \cos\gamma + 2 f_1 \sin\gamma}{\sin\beta[(1 - f_1 f_2)\cos(\gamma - \beta) + (f_1 + f_2)\sin(\gamma - \beta)} \qquad (2)$$

Анализ зависимости (2) показывает, что в нее входят величины, определяемые экспериментально и требующие большой трудоемкости: коэффициент внутреннего трения f_2, угол сдвига β. Поэтому в соответствии с данным Г.И. Грановского произведение $e\tau$ в (1) заменим эквивалентным произведением $K_{\text{р}}\sigma_{\text{в}}$, где $\sigma_{\text{в}}$ - предел прочности обрабатываемого металла на растяжение; $K_{\text{р}} = 2{,}3...2{,}8$ - коэффициент, зависящий от химического состава, структурного состояния и механических свойств конструкционных сталей: $K_{\text{р}} \approx 2{,}5$ - для углеродистых конструкционных сталей. Таким образом, упрощенное уравнение силы резания принимает вид

$$P_{\text{рез}} = K_{\text{р}}\sigma_{\text{в}} A_{\text{ср}},\ \text{Н} \qquad (3)$$

где $K_{\text{р}}$ - коэффициент резания, выражающий удельное сопротивление резанию металла обрабатываемой заготовки.

Площадь поперечного сечения $A_{ср}$ срезаемого слоя в виде кругового сектора зависит от радиуса абразивной частицы R и центрального угла кругового сектора ($2\theta = 60 \div 120^0$). Так, для R=0,2 мм площадь поперечного сечения среза $A_2 = 0{,}0036 \div 0{,}025$ мм^2; для R=0,4 мм $A_2 = 0{,}0144 \div 0{,}0982$ мм^2.

С учетом приведенных значений площади поперечного сечения среза сила микрорезания (3) составила $P_{рез} = 10{,}4 \div 70{,}6$ Н при размере абразивной частицы D=0,4 мм.

Таким образом, рассмотренная модель очага деформации при косом ударе абразивной частицы по плоской металлической поверхности адекватно описывает взаимодействие ее режущей поверхности с обрабатываемым материалом и позволяет дать количественную оценку возникающим силам микрорезания и удара абразива.

Литература

1. Силин С.С. Метод подобия при резании материалов. М.: Машиностроение, 1979. 152 с.
2. Грановский Г.И., Грановский В.Г. Резание металлов. М.: Высшая школа, 1985. 304 с.

O‘ZGARUVCHAN TOK MANBAIDAN HOSIL QILINGAN PAYVANDLASH YOYINING XUSUSIYATLARI.

Abdullayev J.X. assistenti.(TDMAU)

Annotatsiya Ushbu maqolada o‘zgaruvchan tok manbalaridagi kuchlanishlar va ularning tasiri keltirilgan bo‘lib bir xil va turli xil materiallardagi xossalari aytib o‘tilgan shuningdek magnitaviy maydon va ferromagnit massalarning payvandlash yoyiga ta’siri shuningdek yoy og‘ishining tokning qanday kelishiga bog‘liqligi to‘g‘risida ko‘rsatmalar berilgan.

Kalit so‘zlar. VDG to‘g‘rilagichi, zanjiridagi kuchlanIshlar, katod, elektrod, musbat qutbi.

O‘zgaruvchan tok (sanoat chastotasi 50 Gs) yoyi bilan payvandlashda katod va anod dog‘lari sekundiga 100 marta o‘rin almashadi. Qutbligi o‘zgarganida tok qisman to‘g‘rilanadigan «ventil effekti» yuzaga keladi. Tok uzluksiz o‘zgaruvchi elektron emissiya tufayli to‘g‘rilanadi, chunki tok yo‘nalishi o‘zgarishida elektroddan va buyumdan emissiya toklarining chiqish sharoitlari bir xil bo‘lmaydi.

Bir xil materiallarda tok deyarli to‘g‘rilanmaydi, payvandlash yoyida tokning to‘g‘rilanishi o‘zgarmas tokning tashkil etuvchisi deb ataladi va argon yoyi vositasida alyuminiy payvandlashda jarayonga salbiy ta’sir qiladi. O‘zgaruvchan tokdan hosil qilinadigan payvandlash yoyi o‘zgarmas tokdan hosil qilinadigan

payvandlash yoyiga nisbatan turg‘unroq yonadi. Buning sababi shuki, tokning noldan o‘tish jarayonida va qutblilik o‘zgarayotganda har bir yarim davrning boshi va oxirida yoy so‘nadi. Yoy so‘nish paytida yoy oralig‘i harorati pasayadi va yoy ustunidagi gazlarning deionlanishini yuzaga keltiradi. Bu bilan bir vaqtda faol dog‘larning harorati ham pasayadi. Harorat, ayniqsa, payvandlash vannasining sirtidagi faol dog‘da pasayib ketadi, chunki bu yerda issiqlik buyumga o‘tib ketadi. Jarayonning issiqlik inersiyasi tufayli harorat pasayishi tokning noldan o‘tishida faza bo‘yicha bir muncha orqada qoladi. Har bir yarim davrning boshida ionlanishning past bo‘lgani tufayli yoy faqat elektrod bilan buyum orasida yuqori kuchlanish bo‘lganidagina yonadi, bu kuchlanish yonish piki deb ataladi. Agar katod dog‘i asosiy metallda bo‘lsa, u holda yonish cho‘qqisi kattaligi ancha balandroq bo‘ladi. Yonish cho‘qqisi kattaligiga ionlash effektiv potensiali ta’sir ko‘rsatadi: ionlash effektiv potensiali qancha katta bo‘lsa, yonish cho‘qqisi shuncha yuqori bo‘ladi. Agar payvandlash yoyida oson ionlanadigan elementlar bo‘lsa, yonish cho‘qqisi pasayadi va aksincha yoy atmosferasida musbat ionlar bilan osongina neytral molekulalar hosil qiladigan ftor ionlari bo‘lsa, yonish cho‘qqisi ortadi.

O‘zgaruvchan tok payvandlash yoyining asosiy afzalliklari – uskunalarning nisbatan oddiy bo‘lishi va arzon turishi, magnitaviy shamolning bo‘lmasligi, alyuminiyni argon yoyi bilan payvandlashda oksid pardasining katod changlanishi mavjudligidir. Katod changlanish deb buyum katod paytida payvandlash vannasining musbat ionlar bilan bombardimon qilinish jarayoniga aytiladi, bu jarayon hisobiga oksid pardasi yemiriladi.

Magnitaviy maydon va ferromagnit massalarning payvandlash yoyiga ta’siri

Payvandlash yoyida yoy ustuni elektr toki o‘tib turadigan va elektr magnitaviy maydon ta’sirida o‘z shaklini o‘zgartirib turadigan yumshoq o‘tkazgich deb qarash mumkin. Agar payvandlash yoyi atrofida hosil bo‘ladigan elektromagnitaviy maydon begona magnitaviy maydonlar bilan, payvandlash zanjirining xususiy maydoni bilan, shuningdek, ferromagnit materiallar bilan o‘zaro ta’sir qilishiga sharoit yaratilsa, u holda yoy zaryadsizlanishi o‘zining dastlabki xususiy o‘qidan og‘ishini kuzatish mumkin. Bunda ba’zida payvandlash jarayonining o‘zi ham buzilishi mumkin. Bu hodisa magnitaviy shamol deb nom olgan.

Tashqi magnitaviy maydonning payvandlash yoyiga ta’sirini ko‘rsatuvchi bir qancha misollarni ko‘raylik. 1. Agar yoy atrofida simmetrik magnitaviy maydon hosil qilinsa, yoy og‘maydi, chunki hosil qilingan maydon yoy ustuniga simmetrik ta’sir ko‘rsatadi (1 - rasm, a).

2. Payvandlash yoyiga buyum orqali o‘tayotgan tok hosil qilayotgan nosimmetrik magnitaviy maydon ta’sir qiladi, bu holda yoy ustuni tok o‘tayotgan simga qarama-qarshi tomonga og‘adi (1 - rasm, b).



1 – rasm. Yoy og‘ishining tokning qanday kelishiga bog‘liqligi.

Elektrodning qiyalik burchagi ham yoyning og‘ishiga katta ta’sir ko‘rsatadi (2.-rasm).



2 - rasm. Elektrod qiyaligining yoyning og‘ishiga ta’siri.

Yoyning og‘ishiga ta’sir qiluvchi kuchli faktor ferromagnitaviy massaladir: katta massali payvandlanuvchi buyumlar (ferromagnitaviy massalar) havoga nisbatan katta magnitaviy singdiruvchanlikka ega bo‘ladi, magnitaviy kuch chiziqlari esa hamma vaqt kam qarshilikli muhit orqali o‘tishga harakat qiladi, shuning uchun ferromagnitaviy massaga yaqin turgan yoy razryadi hamma vaqt uning tomoniga og‘adi (3-rasm).



3– rasm. Payvandlashda yoyning og‘ishiga ferromagnit massalarning ta’siri:
a – massiv detal tomonga; b – burchak chokini payvandalshda, v – uchma uch ajratib chokni payvandlashda; g – uchma-uch chokni payvandlashdagi og‘ishlar.

Magnitaviy maydonlar va ferromagnitaviy massalarning ta’sirini hamma vaqt tok keltiruvchi simlarning o‘rnini almashtirish, elektrod qiyaligini o‘zgartirish, simmetrik maydon hosil qilish uchun vaqtincha ferromagnitaviy materiallar qo‘yib turish va o‘zgarmas tokni o‘zgaruvchan tok bilan almashtirish yo‘li bilan bartaraf qilish mumkin.

Adabiyotlar

1.Abralov M.A., Ermatov Z.D., Dunyashin N. Qo‘lda yoyli payvandlash jihozlari.Darslik–O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiayti nashriyoti,Toshkent-2012.

2.Ermatov Z.D.Eritib payvandlash texnologik mashinalari va jihozlari.Darslik – “Fan va texnologiya” Toshkent-2018

3..Abralov M.A., Dunyashin N.S., Ermatov Z.D. Gaz alahgasi yordamida metallarga ishlov berish texnologiyasi va jihozlari. - T.: Ilm-Ziyo, 2007.

AVTOMOBIL ABS SISTEMASINI BAHOLASH METODLARI

M.R. Karimov, dots. (TerDMAU)
N.O. Abduqahorov, magistrant, (TerDMAU)

Transport vositalarida ABS tizimi g‘ildirak blokirovkasiga qarshi ishlash va sirpanchiq yo‘llarda boshqaruvni yo‘qotmaslik uchun mo‘ljallangan tizim. G‘ildiraklar g‘ildirak qotib qolishi ortidan kuzovga bo‘ysunmasligi va boshqa tomonga qarab harakatlanishi mumkin. ABS tizimining vazifasi g‘ildiraklardagi bosimni o‘zgartirish orqali tezlikni nazorat qilish. Soddaroq tushuntirganda, ABS odamga tormozni kuchliroq bosish shart emasligini ko‘rsatadi, shu sababli ham tormoz pedalida oyoqga nisbatan turtki seziladi. Buning ortidan mashina sekinlashadi, sekinlashish tezligi past bo‘lishi mumkin lekin mashina trayektoriyasi yo‘qotilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.



Avtomobillarda ABS tzimining ish jaryoni

1- Elektron boshqarish bloki; 2-tezlik datchigi sensori; 3-magistral; 4-gidravlik modulator.

G‘ildirak tezligi sensori (2) ABS elementi bo‘lib g‘ildirak aylanishi sharoitlari yoki avtomobilning dinamik haydash sharoitlari haqida malumotlarni aniqlash va elektron boshqarish bloki EBU(1)ga uzatish uchun mo‘ljallangan.Elektron Boshqaruv bloki g‘ildirak tezligi sensorlari tomonidan uzatilgan malumotlarni qayta ishlash va baholash va tegishli signalni gidravlik modulatorga(4)uzatish uchun mo‘ljallangan ABS elementidir. Gidromodulator EBU dan olingan signalga qarab tormoz kuchlarini o‘zgartirish uchun mo‘ljallangan.

Avtomobillarda ABS (Antiblokirovka tormozlari) tizimi avtomobil xavfsizligini oshirish va tormozlash jarayonini yaxshilash maqsadida ishlab chiqilgan muhim tizimdir. ABS tizimining samaradorligini baholash uchun bir qator metodlar va usullar mavjud. ABS tizimini baholashning quyidagi asosiy usullari va metodlari mavjud [1].

Tezlik va tormozlash testlari tezlikni oshirish va tormozlash: Tizimning samaradorligini baholash uchun avtomobil ma’lum bir tezlikda harakatlanayotganda tormozlanganida, tormozlarning to‘liq blokirovka qilinmasligini ta’minlaydigan testlar o‘tkaziladi. Bu testlar ABS tizimining qulaylik va boshqarish qobiliyatini ko‘rsatadi.

- Tormozlash masofasi: ABS tizimining samaradorligi tormozlash masofasi bilan o‘lchanadi. Testlar avtomobilning turli tezliklarida, quruq va nam yo‘llarda o‘tkazilib, tormozlash masofasi o‘lchanadi.

- Sensor va nazorat tizimlari. Sensorlar baholashi: ABS tizimining ishlashi sensorlar orqali nazorat qilinadi. Sensorlar g‘ildirak tezligini o‘lchaydi va tizimning javob berish vaqtini baholash uchun testlar o‘tkaziladi. Sensorlarning to‘g‘riligi va ishonchliligi tizimning umumiy samaradorligiga ta’sir qiladi.

- Nazorat algoritmlari: ABS tizimlarida ishlatiladigan algoritmlar va ularning samaradorligini baholash. Tizimning turli vaziyatlarda (masalan, qattiq tormozlash, burilishlar) qanday ishlashini aniqlash uchun simulyatsiya va eksperimental tadqiqotlar o‘tkaziladi.

- **Foydalanuvchi tajribasi.** Foydalanuvchi so‘rovlari: ABS tizimidan foydalanayotgan haydovchilarning fikr va tajribalarini o‘rganish. Foydalanuvchi tajribasi tizimning samaradorligi va qulayligi haqida muhim ma’lumot beradi.

- Boshqarish hissiyotlari: Haydovchilarning ABS tizimi ishlayotgan paytda his qiladigan boshqarish hissiyotlarini o‘rganish. Bu tormozlash jarayonida qulaylik va ishonchni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

- **Laboratoriya sinovlari**.ABS tizimining ishlashini o‘rganish uchun laboratoriyada turli sharoitlarda sinovlar o‘tkaziladi. Bu sharoitlar quruq, nam, muzlagan yo‘llar kabi har xil yo‘l sharoitlarini o‘z ichiga oladi.

- Uzluksiz monitoring: Tizimning doimiy ish holatini va nosozliklarini aniqlash uchun monitoring tizimlari ishlab chiqiladi. Bu tizimlar ABS ishlashini uzluksiz ravishda nazorat qiladi va ma’lumotlarni to‘playdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Avtomobil ABS tizimini baholash uchun bir necha usullar va metodlar mavjud bo‘lib, ular tizimning samaradorligi, qulayligi va xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Tezlik va tormozlash testlari, sensor va nazorat tizimlari, foydalanuvchi tajribasi va laboratoriya sinovlari orqali tizimning har tomonlama baholanishi amalga oshiriladi. Ushbu metodlar ABS tizimlarining rivojlanishi va takomillashuvini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Kelgusida Avtomobil ABS tizimlarining istiqbollari xavfsizlik, barqarorlik, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar sohalarida rivojlanishda davom etadi. Bu istiqbollar ABS tizimining kelajakda yanada samarali va xavfsiz bo‘lishini ta’minlaydi. Bu yangiliklar nafaqat haydovchilar uchun, balki umumiy transport xavfsizligi uchun ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Qarshiyev F.U., Abduqahorov N.O. ABS bilan jixozlangan M1 toifali avtomobillar tormoz tizimlarning ustivoligi. “Экономика и социум” №6(121) – 2024. 186-192-b.

2.https://www.norma.uz

3.https://sg.docworkspace.com/d/sIIzbqsi3Aa__q64G

AVTOMOBIL TEZLIGINI O‘LCHASH SENSORINI TAKOMILLASHTRISH USULLARI

M.R. Karimov, dots., (TerDMAU)
N.O. Abduqahorov, magistrant. (TerDMAU)

Avtomobil tezligini o‘lchash sensorlari, avtomobil mexanizmlarining samarali ishlashi uchun muhim ahamiyatga ega. Ular tezlikni aniq o‘lchash orqali haydovchini ogoh holda ushlab turadi va xavfsizlikni ta’minlaydi. Avtomobil tezligini, barqaror sekinlashuvini va tormozlash masofasini aniqlash uchun avtomobil tezligi sensori ishlab chiqilgan.

Avtomobil tezligini o‘lchash datchigi fotodetektor 2 ni o‘z ichiga oladi. Uning ko‘rish maydoni rastr 3 orqali hosil bo‘ladi. Fotodetektordan sim 5 orqali olingan ma’lumotlar yozib olish uskunasiga uzatiladi. Sensor avtomobil korpusiga so‘rg‘ich 4 yordamida biriktirilgan.

Sensor - bu avtomobil harakatlanayotganda statik elementlar bo‘lgan 1-ko‘rsatkichlar fotodetektorining ko‘rish sohasida ko‘rinishiga javob beradigan optik qurilma.



Avtomobil tezligini o‘lchash datchigi

Sensorning aniqligi mos yozuvlar nuqtalari orasidagi E masofasiga ro‘yxatga olish uskunasini yozish chastotasiga va avtomobil tezligiga bog‘liq. Statik elementlar orasidagi masofa 2-sim yordamida o‘rnatiladi, bu bizga sinov maydonchasida aniqlikni tez va aniq belgilash imkonini beradi. Sensor avtomobilga statik elementlar bir-biriga ulangan bir xil balandlikda o‘rnatiladi. Sensorni mashinaga o‘rnatayotganda, fotodetektorning ko‘rish maydoni avtomobil tanasiga perpendikulyar bo‘lishi kerak. Bunday holda, sensordan statik elementgacha bo‘lgan masofa minimal bo‘ladi, ya’ni fotodetektorning mos yozuvlarga javobi eng aniq bo‘ladi. Qurilmaning ishlash printsipi shundan iboratki, avtomobil ko‘rsatkichlarga parallel ravishda o‘tganda, ular fotodetektorning ko‘rish maydoniga tushadi. Uskunalar tomonidan qayd etilgan fototokning o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Yozilgan signal qo‘sh puls shakliga ega ko‘rinishda bo‘lib buning sababi, tashqi signal qaytarish sifatida rastrdan foydalaniladi. Har bir statik element fotodiodning ko‘rish maydoniga ikki marta tushadi [1-3].

Tezlik o‘lchash sensorlarining turlari. Avtomobillarda tezlik o‘lchash uchun bir nechta sensor turlari ishlatiladi:

Mexanik sensorlar: Ushbu sensorlar avtomobilning g‘ildirak aylanishini mexanik usulda o‘lchaydi. Ular kamdan-kam hollarda ishlatiladi, chunki aniqlik past darajada.

Magnit sensorlar: Ushbu sensorlar g‘ildirak aylanishini magnit maydon yordamida aniqlaydi. Ularning aniqlik darajasi yuqori lekin tashqi sharoitlar ta’sirida o‘zgarishi mumkin.

Optik sensorlar: Ushbu sensorlar, g‘ildirakning harakatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish orqali o‘lchaydi. Ular yuqori aniqlikka ega, ammo narxi yuqori bo‘lishi mumkin.

Sensor aniqligini oshirish. Tezlik o‘lchash sensorlarining aniqligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish mumkin. Masalan, raqamli signalni ishlov berish (DSP) texnologiyasi orqali sensor ma’lumotlarini yanada aniqroq va ishonchli ravishda olish mumkin.

Kalibrlash tizimlari. Sensorlarning to‘g‘ri kalibrlanishi ularning ishlashini yaxshilaydi. Avtomobil ishlab chiqaruvchilari o‘z sensorlarini doimiy ravishda kalibrlash tizimlari bilan ta’minlashlari kerak. Bu esa aniq natijalarga olib keladi va sensorning ishlash muddatini uzaytiradi.

Integratsiya va sinergiya. Sensorlarni birgalikda ishlashini ta’minlash uchun ularni avtomobilning boshqa tizimlari bilan integratsiya qilish mumkin. Masalan, tezlik o‘lchash sensorlarini ABS (antiblokirovka tizimi) va nazorat tizimlari bilan bog‘lash. Bu esa tezlikni o‘lchashda yanada aniqroq natijalarga olib keladi.

Sensorlarni zamonaviylashtirish. Yangi materiallar va texnologiyalarni qo‘llash orqali sensorlarning chidamliligini oshirish mumkin. Yuqori harorat va namlik sharoitlariga chidamli materiallar yordamida sensorlarning ishlash muddatini uzaytirish mumkin.

Avtomobil sanoati tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Kelajakda, tezlik o‘lchash sensorlari sun’iy intellekt (AI) va mashinani o‘rganish texnologiyalari bilan birlashtirilishi mumkin. Bu esa sensorlarning o‘zini-o‘zi o‘rganishiga, shuningdek, tashqi sharoitlarga moslashishiga yordam beradi.

Avtomobil tezligini o‘lchash sensorlarini takomillashtirish, xavfsizlikni oshirish va avtomobil mexanizmlarining samaradorligini yaxshilash uchun muhimdir. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida, tezlik o‘lchash sensorlarini yanada aniq o‘lchash usullarini o‘ylab topish va ishonchlilik darajasini oshirish imkoniyatlari yaratish lozim. Avtomobil sanoatida kelajakda bu yo‘nalishda yanada faol rivojlanish ishlari kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Faxriddin B., No‘monbek A. ABS Sistemasi bilan jihozlangan M1 toifali avtomobillarning tormoz samaradorligini matematik nazariy tahlili //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 333- 337.

2.Brylev IS 2015. Reconstruction of accidents on the parameters of the braking process of twowheeled motor vehicles: cand. thesis (St. Petersburg)https://sg.docworkspace.com/d/sIIzbqsi3Aa__q64G

3.Karshiev F. U., Abduqahorov N. ABS bilan jihozlанган M1 toifali avtomobillar tormoz tizimlarining ustivorligi //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. 5. – C. 787-791

SHAHAR SHAROITIDA YENGIL AVTOMOBILLARNING YONILG‘I SARFINI HARAKAT SIKLIDA ANIQLASH (MatLab dasturida)

Odilov O. Z., Otabayev N.I. Turg‘unov T.J. (FarPI)

Annotatsiya: Avtomobilning harakatlanish sharoiti parametrlarini uning yonilg‘i sarfiga ta’sirini aniqlash, ma’lum ekspluatatsiya sharoiti uchun avtomobil parametrlarini asosli tanlash, berilgan sharoitda avtomobilning yonilg‘i sarfi me’yorini aniqlash tadqiqotlari murakkab bo‘lgan uzoq muddatli sinov izlanishlarini talab qiladi. Hozirgi kundagi axborot texnologiyalari hamda bir qator hisoblash dasturiy ta’minotlarning holati mavjud jarayonlarni imitatsion modellashtirish usullari bilan baholash imkoniyatini bermoqda.

Kalit so‘zlar: harakat sikli, avtomobil, yoqilg‘i sarfi, me’yorlashtirish, tejamkorlik, resurs.

Abstract: Determination of the influence of vehicle driving conditions parameters on its fuel consumption, reasonable selection of vehicle parameters for certain operational conditions, researches to determine the fuel consumption rate of the vehicle in given conditions require complex long-term test research. Current state of information technologies and a number of computing software provides an opportunity to evaluate existing processes by means of simulation modeling.

Key words: traffic cycle, car, fuel consumption, moderation, economy, resource.

Аннотация: определение влияния параметров условий вождения автомобиля на его расход топлива, обоснованный выбор параметров автомобиля для определенных условий эксплуатации, исследования по определению нормы расхода топлива автомобиля в заданных условиях требуют комплексных многолетних тестовых исследований. Современное состояние информационных технологий и ряда вычислительных программ дает возможность оценивать существующие процессы с помощью имитационного моделирования.

Ключевые слова: транспортный цикл, автомобиль, расход топлива, умеренность, экономичность, ресурс.

O‘zbekiston Respublikasida 2017 — 2021 yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlariga doir qabul qilingan Dastur doirasida 42 ta yangi gidroelektrostansiya qurish va ishlab turgan 32 ta gidroelektrostansiyani modernizatsiya qilish hisobiga 2025 yilga qadar respublikamizning ekologik toza gidroenergiya ishlab chiqarish quvvatlarini 1,7 barobarga oshirish nazarda tutilmoqda [1].

Hozirgi kundagi axborot texnologiyalari hamda bir qator hisoblash dasturiy ta’minotlarning holati mavjud jarayonlarni imitatsion modellashtirish usullari bilan baholash imkoniyatini bermoqda.

Avtomobilning yonilg‘i sarfini aniqlashda MatLab dasturida Fuel Consumption deb nomlangan bo‘limidan foydalanamiz, bu bo‘limda biz avtomobil dvigatelidan kelgan ma’lumotlar asosida uning yonilg‘i sarfini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.



1.1-rasm. Nexia avtomobil dvigatelining tashqi tezlik xarakteristikasi

To‘liq quvatni aniqlash uchun fo‘rmula bo‘yicha tezlikdan signal chiqarib uni w_N ga bo‘lib, avtomobil pasportidagi maksimal quvatga Polynomial funksiasidan foydalanib ko‘paytiramiz. Natija wattda chiqadi uni 1000 ga bo‘lib kwatt ga o‘tkazib olamiz. Dvigateldan kelayotgan quvat bilan solishtirib kerakli quvatni olish uchun **Saturation Dynamic** funksiyasidan foydalanamiz.

$$\varpi = \frac{\omega_e}{\omega_N} \qquad U = \frac{N_r}{N_\partial \, \eta_{TP}} \qquad (1.1)$$

$$Pe=Pemax*(-1.815*\varpi^3+2.895*\varpi^2-0.1953*\varpi+0.1153)$$

Yonilg‘i sarfini aniqlash uchun kerakli bo‘lgan koeffitsientlar K_w va K_u ni aniqlash uchun formula bo‘yicha modelini quramiz.

K_u ni aniqlash uchun dvigateldan kelayotgan quvatni burchak tezlik bo‘yicha aniqlangan quvatga bo‘lib, Polynomial funksiadan foydalanib koeffitsentlarni qo‘yib natija olamiz.

$$K_U=a_U+b_UU+c_UU^2 \qquad (1.2)$$

K_w ni aniqlash uchun oldin aniqlab olgan w ni Polynomial funksiasiga qo‘yib olamiz. $K_\omega = a_\omega + b_\omega\varpi + c_\omega\varpi^2$

Yonilg‘i tejamkorligini aniqlash uchun G_T formulasini qo‘llaymiz, oldindan olingan natijalarni ko‘paytirib chiqamiz.

$$G_T = \frac{N_k g_{eN} K_U K_\omega}{1000\eta_{TP}} \qquad (1.3)$$

Olingan natijalarni birliklarini to‘g‘rilab chiqamiz. Soatdan sekuntga, gramdan klogramga, klogramdan / sekuntdan litr / sekuntga o‘tkazib olamiz. G_T dan teskari hosila olib Q ni aniqlaymiz.

Bu bo‘limimiz ham tayyor, endi yakuniy subsystemni yaratib uni ishimizni yakunlovchi modelni ko‘ramiz.

MatLab Simulink kompyuter dasturi yordamida shakllantirilgan model, ya’ni harakat siklida avtomobilning yonilg‘i sarfini baholash modelida Nexia yengil avtomobilini NEDC harakat sikli talablari bo‘yicha harakatlanganda sarflagan yonilg‘i qiymati 5,69 l/100km natijani qayd etish imkonini berdi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Nexia yengil avtomobilining NEDC harakat sikli talablari bo‘yicha harakatlanganda sarflagan yonilg‘i miqdori.

Dasturning afzalligi – yo‘l sinov tadqiqotlarining murakkabliklari va unda sarf bo‘ladigan vaqt hamda moliyaviy harajatlar bartaraf etiladi. Hozirgi kunda shakllantirilgan ushbu modelning ishonchliligini tasdiqlash maqadida sinov tadqiqod ishlari olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон республикаси президенти Ш. Мирзиёев Qарори 2017 — 2021 йилларда гидроэнергетикани янада ривожлантириш чора-тадбирлари дастури тўгрисида Тошкент ш., 2017 йил 2 май, Пк-2947-сон.

2. Мухитдинов А.А. Научные основы выбора параметров и режимов управления двигателем и трансмиссией автомобиля.: т.ф.д. диссертация. - Т.: 2004. - 321 б.

3. Ismadiyorov, A. A., & Sotvoldiyev, O. U. (2021). Model of assessment of fuel consumption in car operation in city conditions. *Academic research in educational sciences*, *2*(11), 1013-1019.

4. ГОСТ 20306-90. Автотранспортные средства. Топливная экономичность. Методы испытаний текст. - М.: Издательство стандартов, 1990.

MOSH DONINI FRAKTSIYALARGA AJRATIB TOZALAYDIGAN MASHINANI TAKOMILLASHTIRISH

Igamberdiyev Dilshod Xolmuratovich
tayanch doktorant (QXMITI)

Mosh O‘zbekistonda ichki iste’mol va eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli uni asosiy va g‘alladan so‘ng takroriy ekin sifatida yetishtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Yetishtirilgan hosil asosan g‘alla kombaynlari yordamida ikki fazali usulda, ya’ni avval yig‘ishtirilib uyumlarga uyulib, qurigandan so‘ng yanchilib, doni ajratib olinyapti. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, g‘alla kombaynlari yordamida yanchilib olingan mosh donining tozaligi 78,6-88,6 %, namligi 18-25 % ni tashkil etadi. Bazis me’yorlarga ko‘ra donlarni omborlarda saqlash uchun donlar dastlabki tozalash bosqichidan o‘tib, namlik darajasi 14-15 % gacha pasaytirilgan bo‘lishi lozim. Chunki donli aralashma tarkibidagi namlik asosan aralashma tarkibidagi begona qo‘shilmalar, ya’ni poya bo‘laklari, mayda aralashmalar, begona o‘t urug‘lari, ezilgan donlar namligi hisobiga yuqori bo‘lganligi bois, donli aralashmani tezda dastlabki tozalash orqali don tozaligi va namligini me’yorlashtirish mumkin [1].

Fermer va dehqon xo‘jaliklarida mosh donini tozalash va o‘lchamiga ko‘ra saralash primitiv usullar, ya’ni qo‘l kuchi bilan tabiiy shamol yoki ilmiy jihatdan asoslanmagan qo‘lbola tozalash qurilmalarida amalga oshirilyapti. Bu o‘z navbatida energiya va mehnat sarfi ko‘payib, mahsulot yetishtirish xarajatlarini keskin ortishiga olib kelmoqda. Shu boisdan mosh donini tozalash va o‘lchamiga ko‘ra fraksiyalarga ajratish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, zamon talablariga javob beradigan, tuzilishi jihatdan sodda, energiya va resurstejamkor, ish unumi, narxi jihatdan fermer, dehqon va boshqa foydalanuvchilarni qanoatlantiradigan mashinani ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi [2].

Shundan kelib chiqib, Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida mosh donini fraksiyalarga ajratib tozalaydigan fermer va dexqonbop, arzon, konstruksion tuzilishi sodda hamda energiya va resurstejamkor mashinani

ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotlar natijasida mosh donini eni bo‘yicha fraksiyalarga ajratib tozalaydigan silindrik g‘alvirli mashina ishlab chiqildi (1-rasm) [3].



1 – bunker; 2 – tasmali uzatma; 3 – reduktor; 4 – elektrodvigatel; 5 – rama; 6 – g‘alvir ko‘zini tozalovchi cho‘tka; 7 – vintsimon yo‘naltirgich; 8 – silindrik g‘alvir; 9 – yirik qo‘shilmalar tushadigan nov; 10 – yirik donlar tushadigan nov; 11 – mayda donlar tushadigan nov; 12 – mayda qo‘shilmalar tushadigan nov; 13 – tayanch; 14 – silindrik g‘alvir gorizontalligini belgilovchi adilak; 15 – g‘alvir qiyaligini sozlovchi vint; 16 – donli aralashmani g‘alvirga uzatuvchi quvur; 17 – zaslonka

I, *II*, *III* va *IV* ajratilgan fraksiyalar uchun idishlar

1-rasm. Mosh donini fraksiyalarga ajratib tozalaydigan mashinaning texnologik sxemasi

Mashinaning ish jarayoni quyidagicha kechadi: donli aralashma bunker 1 dan zaslonka 17 yordamida me’yorlanib, quvur 16 yordamida silindrik g‘alvir 8 ning bir boshidan uning ichiga uzatiladi. Silindrik g‘alvir 8 tasmali uzatma 2 yordamida reduktor 3 orqali elektrodvigatel 4 dan uzatilayotgan burovchi moment yordamida aylanma harakatga keltiriladi. G‘alvir ichiga tushgan donli aralashma g‘alvirning aylanishi, qiyaligi va asosan vintsimon yo‘naltirgich 7 ning ta’siri natijasida g‘alvirning ikkinchi boshi tomonga qarab harakatlanadi va yo‘l-yo‘lakay g‘alvirning ichki yuzasida elanib, mayda va yirik qo‘shilmalardan tozalanadi va donlar o‘lchami bo‘yicha ajratiladi.

Silindrik g‘alvir ko‘zlarining shakli va o‘lchamlari turlicha bo‘lgan uchta silindrik g‘alvirni birlashtirib yig‘ilgan. Bunker joylashgan tomonidan dastlabki 1/3 qismidagi g‘alvir o‘lchami 2,5x20 mm bo‘lgan cho‘zinchoq shaklli ko‘zlarga ega. Bu qismda donli aralashma tarkibidagi mayda qo‘shilmalar, ezilgan, singan va puch

donlar g‘alvir ko‘zidan o‘tib, mayda qo‘shilmalar tushadigan nov 12 orqali idish *I* ga yig‘iladi. G‘alvir ko‘zidan o‘tmay qolgan don va yirik qo‘shilmalar vintsimon yo‘naltirgich 7 ta’siri ostida harakatini davom etdirib, silindrik g‘alvirning ikkinchi 1/3 qismida elanishda davom etadi. G‘alvirning bu qismi diametri 3,8 mm bo‘lgan yumaloq ko‘zli teshiklarga ega bo‘lib, eni 3,5 mm gacha bo‘lgan donlarni ajratib oladi.

Ajratib olingan donlar nov 11 orqali idish *II* ga yig‘iladi. O‘lchami 3,5 mm dan katta bo‘lgan don va yirik qo‘shilmalar silindrik g‘alvirning so‘nggi 1/3 qismiga o‘tadi va elanishda davom etadi. Ushbu qism o‘lchami 5,5 mm bo‘lgan yumaloq ko‘zli g‘alvirdan iborat bo‘lib, barcha donlar uning ko‘zlaridan o‘tib nov 10 orqali yirik donlarga mo‘ljallangan idish *III* ga yig‘iladi. G‘alvir ko‘zidan o‘tmay qolgan yirik qo‘shilmalar silindrik g‘alvirning oxirida tashqariga chiqib, nov 9 orqali yirik qo‘shilmalar yig‘iladigan idish *IV* ga kelib tushadi.

Mashina tayanchlar 13 yordamida ish holatiga keltiriladi. Silindrik g‘alvirning qiyaligi vintli ko‘targich 15 yordamida rostlanadi, gorizontalligi esa ramaga o‘rnatilgan adilak 14 yordamida nazorat qilinadi. Tayanchlar 13 ko‘tarib qo‘yilsa mashina g‘ildiraklarga tayanib, transport holatiga o‘tadi.

Ishlab chiqilgan mashinani amaliyotda tekshirib ko‘rish uchun mashinaning tajriba nus’hasi tayyorlandi (2-rasm).

Ushbu mashinadan nafaqat mosh donini dastlabki tozalashda, balkiy ekish uchun mo‘ljallangan mosh urug‘larini o‘lchamiga ko‘ra saralashda ham foydalanish mumkin. Mosh urug‘lari saralanib, bir xil o‘lchamga keltirib ekilganda urug‘larning unuvchanligi ortib, maysalarning bir tekis va qiyg‘os unib chiqishiga erishiladi.



***a*)** ***b*)**



***c*)**

a) old tomondan ko‘rinishi; *b*) orqa tomondan ko‘rinishi; *c*) yon tomondan ko‘rinishi

2 - rasm. Mosh donini fraksiyalarga ajratib tozalash mashinasining tajriba nus’hasi

Hozirgi kunda mosh donini fraksiyalarga ajratib tozalaydigan mashinaning ish sifat ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash va mashinani takomillashtirish bo‘yicha mashinaning me’yorlagich-ta’minlagichini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash ustida ilmiy-tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Rasulov A.D. Mosh donini dastlabki tozalash mashinasining parametrlari va ish rejimlarini asoslash: PhD. diss. – Gulbahor, 2021. – 122 b.

2. Rasulov A.D. Keys va Klaas g‘alla kombaynlarida yig‘ishtirilgan mosh donining morfologik tarkibi. – Agrosanoat tarmoqlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – TIQXMMIk/, 2018 yil 28 noyabr. – B. 213-216.

3. Astanaqulov K.D., Rasulov A.D. Dukkakli ekinlar donini fraksiyalarga ajratish va tozalash qurilmasini ishlab chiqishga doir. – O‘zbekistonning janubiy hududlarida boshoqli don ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarining holati va rivojlantirish istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Qarshi, 2018 yil 14-15 may. – B 178-180.

КИНЕТИКА КОНТАКТНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ АБРАЗИВНЫХ ЧАСТИЦ ПРИ ФИНИШНОЙ ОБРАБОТКЕ ДЕТАЛЕЙ МАШИН

Искандарова Нигора Курванбековна, Phd, ассистент, (ТИТЛП)

В современном машиностроении основное влияние на качество поверхности и эксплуатационные характеристики деталей рабочих органов машин оказывают финишные операции механической обработки, среди которых одно из ведущих мест занимают методы обработки в абразивной среде.

Обработка свободным абразивом металлических поверхностей деталей, как и всякая механическая обработка со снятием стружки (лезвийным или абразивным инструментом) или без нее (поверхностно пластическим деформированием - ППД) характеризуется очагом деформации в тонком поверхностном слое, развиваемым под влиянием внешнего силового воздействия абразивной частицы. Работа пластической деформации металла в процессах механической обработки всегда сопровождается образованием тепла Q и изменением внутренней энергии поверхностного слоя ΔU всех элементов рассматриваемой термодинамической системы в соответствии с первым началом термодинамики [1-3].

Анализ силовых зависимостей при обработке свободным абразивом должен строиться с учетом кинематических особенностей абразивоструйной обработки, когда абразивная частица массой m с режущими кромками летит на обрабатываемую поверхность со скоростью υ при угле атаки α под действием давления сжатого воздуха p. Контактное взаимодействие ударяющейся абразивной частицы по металлической поверхности при условии достаточности ее кинетической энергии характеризуется упругопластическим внедрением и последующим скольжением в зависимости от угла атаки. По окончании этих процессов абразивная частица получает отскок от контактной поверхности вследствие проявления упругих сил, направленных на восстановление упруго деформированного слоя металла.

Описанные процессы контактного взаимодействия при ударе абразивной частицы (рис. 1) необходимо интерпретировать через силовые факторы. Так, свободная абразивная частица, приобретая кинетическую энергию за счет давления сжатого воздуха при абразивоструйной обработке, способна преодолеть сопротивление металла упругопластическому деформированию и совершить соответствующую работу через силу удара.



Рис. 1. Кинетика контактного взаимодействия:

а - при ударе абразивной частицы под углом атаки α и со скоростью *υ* по металлической поверхности: *б* – прямой удар ($\alpha=90^0$) с образованием пластического отпечатка с размерами *d, h* – соответственно диаметр и глубина; *в* – скольжение по образованной лунке и перемещение на расстояние *x* под действием силы $P_x=P\cos\alpha$; *г)* отрыв абразивной частицы от контактной поверхности со скоростью υ'; *д)* параметры риски (царапины) после контактного взаимодействия абразивной частицы с металлической преградой

Данную силу удара можно рассматривать как реакцию со стороны обрабатываемого материала с учетом его физико-механических свойств на внешнее воздействие абразивной частицы. Для анализа контактного взаимодействия удобно эту силу *P* приложить в центре абразивной частицы, представляемой в виде круга в процессе моделирования (рис. 1, а).

Вертикальная составляющая силы удара $P_y = P\sin\alpha$ вызывает вдавливание абразивной частицы в металлическую преграду, образуя пластический отпечаток (лунку) с параметрами: *d, h* - соответственно диаметр и глубина отпечатка (1, б).

Под действием горизонтальной составляющей силы удара $P_x = P\cos\alpha$ абразивная частица получает некоторое скольжение вдоль образованной

лунки, трансформируя круговую лунку в направлении движения по оси *x* (рис. 1, в). Так как абразивная частица имеет острые режущие кромки, то при ее относительном движение осуществляется микрорезание с образованием стружки, сходящейся по передней поверхности режушего клина абразивного зерна. Таким образом, выявлена существенная особенность обработки металлических поверхностей свободным абразивом, заключающаяся в том, что срезаемый слой при микрорезании определяется частью глубины вдавливания *h* абразива в материал при ударе. Как известно [4, 5], при обработке со связанным абразивом в виде круга в процессе шлифования толщина срезаемого слоя определяется как режимными, так и геометрическими параметрами инструмента.

На завершающем этапе контактного взаимодействия абразивной частицы и металлической поверхности при ударе происходит отскок (рис.1, г), когда она разрывает упругопластический контакт. При этом частица приобретает параметры отскока: скорость υ' и угол α', значения, которых меньше параметров удара (скорости υ и угла атаки α). В результате внешнесилового воздействия абразивной частицы после контакта с металлической поверхностью на последней остаются риски (царапины) (рис. 1, д), подтверждающие о прошедших процессах микрорезания и пластического деформирования в условиях абразивного изнашивания.

В соответствии с рис. 1, в при перемещении абразивной частицы под действием составляющей силы удара $P\cos\alpha$ в направлении оси *x* со скоростью $\upsilon_0\cos\alpha$ (рис.1) происходит “пропахивание” контактной поверхности металла на глубине внедрения *h*. Данный процесс состоит из микрорезания и пластического оттеснения металла в пределах контактной площадки. Дальнейший анализ контактного взаимодействия необходимо проводить с учетом силы трения *F* (фрикционного сопротивления). Для этого рассмотрим схему скольжения твердой частицы сферической формы по более мягкому металлическому основанию (рис. 2), т.е. трение между твердыми телами [6].



Рис. 2. Схема скольжения твердой сферической частицы по более мягкой металлической прегради: A_1 – площадь поверхности контакта; A_2 –площадь поперечного сечения канавки; d – диаметр отпечатка; 2θ – центральный угол кругового сектора

Из предположения, что подвергаемый пластической деформации металл изотропен и предел текучести равен $\sigma_т$, получим

$$P = \sigma_т A_1 \text{ и } F = \sigma_т A_2, \quad (1)$$

где P и F – соответственно приложенная нормальная сила и сила фрикционного сопротивления;

A_1 и A_2 – соответственно площадь контакта и площадь “пропахивания”, определяемые по зависимостям

$$A_1 = \frac{1}{8}\pi d^2; \; A_2 = \frac{1}{2}R^2(2\theta - \sin 2\theta). \quad (2)$$

Площадь контакта A_1 представляется как половина площади воображаемого круга с диаметром отпечатка d, а площадь “пропахивания” A_2 – разность площадей кругового сектора с углом 2θ и треугольника равнобедренного. По закону Амонтона нормальная сила создает силу трения и тогда коэффициент трения (механическая составляющая) составит

$$f_M = \frac{F}{P} = \frac{A_2}{A_1} = \frac{4R^2}{\pi d^2}(2\theta - \sin 2\theta) \quad (3)$$

С учетом максимальной глубины внедрения абразивной частицы получена формула для расчета коэффициента трения:

$$f_м = \frac{2\theta - \sin 2\theta}{2\upsilon_0 \sin\alpha \sqrt{\frac{2}{3}\frac{\rho}{c\sigma_т}}} \quad (4)$$

Получены некоторые закономерности характера изменения механической составляющей коэффициента трения $f_м$ (0,2…0,64) при ударе и последующим скольжении абразивной частицы по металлической поверхности в зависимости от скорости υ_0 соударения, предела текучести $\sigma_т$ и угла кругового сектора 2θ в зоне контакта.

Литература

1. Новиков И.И. Термодинамика. М.: Машиностроение, 1984. 592 с.

2. Кабалдин Ю.Г. Энергетические принципы управления процессами механообработки в автоматизированном производстве // Вестник машиностроения. 1993. №1. С. 37-42.

3. Федоров Ю.Г. Эргодинамика и синергетика деформационных тел // Физико-химическая механика материалов. 1988. №1. С. 32-36.

4. Грановский Г.И., Грановский В.Г. Резание металлов. М.: Высшая школа, 1985. 304 с.

5. Ящерицын П.И., Еременко М.Л., Жигалко Н.И. Основы резания материалов и режущий инструмент. Минск: Вышэйш. школа, 1975. 528 с.

6. Бауман В.А. Роторные дробилки. М.: Машиностроение, 1973. 142 с.

BASICS OF PHYSICAL MODELLING OF SOIL COMPACTION PROCESS IN CONFINED CONDITIONS BY SEGMENTED WORKING BODY OF AN EXCAVATOR

Xankelov T.K. professor, (Tashkent State University),
Norkuziev A.B. doctoral student, (Tashkent State University)

ABSTRACT: A method of physical modeling of the working process of a replaceable working body of an excavator during soil compaction in confined conditions was developed. A list of tasks necessary to implement the developed methodology was compiled. Based on the laws of mechanics and the theory of the limit state of a granular medium, it was possible to determine a set of similarity criteria that adequately describe the process of soil compaction with a segmented working body. This technique is based on the Voigt rheological model. In accordance with the rheological model of the soil compaction process, the method of integral analogs was used to obtain the main similarity criteria that adequately characterize the process of static compaction with elasto-viscous-plastic strain of soil. In addition, an equation describing the stress state of soil (Coulomb-Mohr equation) made it possible to determine additional similarity criteria.

KEYWORDS: segmented working body, physical model, similarity criterion, rheological model.

The segmented working body is designed for static compaction of backfill soils in hard-to-reach places and under confined construction conditions. A working body of this type can be used as replaceable working equipment for mobile hydraulic excavators; it presents a rigid cylindrical segment with a horizontal axis. Soil compaction is conducted using the positional method due to static pressure from the weight of the segmented working body and static vertical surcharge from the base machine during cyclic sign-alternating rotation of the segment, which is provided by the drive mechanism. The publications of such scientists as V.F. Babkov [1], V.I. Balovnev [2, 3, 4], G.V. Kustarev [5], N.Ya. Kharkhuta [6], V.V. Mikheev [7], S. Masayuki [8], K.R. Massarsch [9] are devoted to the study of soil compaction processes, justification of the design and technological parameters of roller machines, and their selection based on operating conditions.

These scientists successfully solved many theoretical problems concerning mechanical principles of compaction of elasto-viscous-plastic media and studied the basic patterns of interaction of the working bodies of compaction machines with a deformable medium, considered within the framework of various model approximations. However, issues related to the energy efficiency of the soil compaction process, and the cost of performing such work in confined conditions and hard-to-reach places, have not been sufficiently studied. It is advisable to select rational design parameters and operating modes of a segmented working body and evaluate its effectiveness using physical modeling methods, which can significantly reduce the labor intensity and cost of research [10, 11,]. It is necessary to add physical modeling methods to the above ones for a number of reasons: first, physical modeling methods make it possible to find a rational solution to this problem in the shortest possible time and with low material and time costs, second, the results obtained by physical modeling methods can be extended to similar systems that have the same criteria similarities. To conduct a set of measures related to the justification of the main parameters of the working body, it is necessary to develop an algorithm of operation to solve the above tasks. An algorithm was created based on an analysis of the structure of soil compaction in confined conditions. The algorithm for constructing a physical modeling technique and the stages of modeling "working body-soil" systems are presented in Fig. 1. The working process of a segmented compactor is characterized by three main parameters: a linear parameter (determining the linear dimension l, equivalent to the radius of curvature of the generatrix of the cylindrical surface of the segment), a kinematic parameter (compaction velocity, i.e. the derivative of the defining angular parameter - the angle of rotation φ of the segment over time t equal to the angular velocity of the segment, or the equivalent linear speed of the portable movement of the segment), and the static force parameter (pressure force of the segment on the compacted soil, equal to the sum of the weight force of the segmented working body and the vertical static surcharge load on the working body from the side of the base machine). The specified parameters determine the active influence of the segmented working body

on the compacted material. The vertical and horizontal responses of the compacted material, balancing the active influence of the working body, are determined by the rheological properties of the soil being compacted.



Fig. 1. Block diagram of the method of physical modeling of the interaction processes between the segmented working body of an excavator and the soil being compacted

The rheological model of the "rigid wheel propulsion – deformable soil" system, discussed in detail by Prof. V.I. Balovnev is the closest model to the process

of static soil compaction with a cylindrical working body. This rheological model applied to a segmented working body is shown in Fig. 2.



Fig. 2. Rheological model of the process of soil compaction with a rigid cylindrical segment

The total soil horizontal reaction R_g acting on the working body is determined from the direction of the linear velocity vector ϑ of the plane-parallel movement of rotary axis *O* of the segment by the resistance to viscoplastic soil extrusion in front of the working body in the process of compaction (combined Newton and Saint-Venant rheological model), and from the opposite to vector ϑ direction – by plastic resistance to soil shear under active cohesion force of the working body with soil, tangential relative to the cylindrical circumference of the segment (Saint-Venant rheological model). The vertical reaction R_v of soil to the working body is described by the Bingham elasto-viscous-plastic rheological model: the reversible elastic strain of soil as the stresses in the contact zone of the cylindrical generatrix of the working body surface increase, turns into an irreversible plastic compressive strain of soil, characterized by a decrease in the volume of the air phase inside the solid skeleton; it is accompanied by viscous-plastic extrusion of soil from the area of maximum stress inside the compacted core along the path of least resistance into a roller formed in front of the cylindrical surface of the working body from the side of the vector of translational motion of the working body, i.e. from the side of the daytime surface.

CONCLUSION

1. It is appropriate to study segmented working bodies for soil compaction using physical modeling methods. This allows for the evaluation of the adequacy of the theoretical model of soil compaction by such working bodies, confirming the reliability of the methodology for calculating rational design parameters and operating modes of segmented working bodies, and determining their effectiveness.
2. A characteristic feature of the scheme of interaction of the smooth cylindrical surface of the compacting working bodies with soil in comparison with the scheme of interaction of a rigid wheel propulsion device with a deformable base

is the location of the minimum size of the contact zone of the working body with the compacted soil in the radial plane; the minimum size of the contact zone and the depth of material compaction are determined by radius.

REFERENCES

1. Babkov, V.F. Fundamentals of soil science and soil mechanics: Teaching aid / V. F. Babkov, V. M. Bezruk. - M.: Higher School, 1976. - 328 p.
2. Balovnev, V.I. Determination of optimal parameters and selection of road construction machines using the fourth coordinate analysis method. / V.I.Balovnev. - M., 2014.
3. Balovnev, V.I. Determination of parameters of road rollers / V.I. Balovnev, R.G. Danilov, G.V. Kustarev //Mechanization of construction. - 2012. - No. 2. - P. 6-11.
4. Kustarev, G. V. Analysis of factors influencing the quality of the compaction process / G. V. Kustarev, S. A. Pavlov, P. E. Zhartsov // Mechanization of construction. - 2013. - No. 4 (826). - P. 6-10.
5. Kharkhuta, N. Ya. Influence of physical and mechanical properties of soils of natural foundations on their stability and compaction / N. Ya. Kharkhuta, Yu. M. Vasiliev, V. M. Ievlev // Proc. of the All-Union Conference on Consolidation and Compaction of Soils: Research Laboratory of Hydrogeological and Engineering-geological Problems -Tbilisi, 1964. - pp. 67 - 69.
7. Khankelov, T.K. A theory of sorting solid domestic waste. Stroitel'nyei Dorozhnye Mashiny, 2001, (5), pp. 34–36, doi: https://portal.issn.org/resource/ISSN/0039-2391

SEGMENTLI ISHChI JIHOZ YORDAMIDA GRUNTLARNI QAYTA KO‘MISH JARAYONINI FIZIK MODELLASHTIRISh MOHIYATI

Xankelov T.K. professor (TDTU)
Norqo‘ziyev A.B. doktorant (TDTU)

Annotasiya: maqolada tor joylarda gruntlarni qayta ko‘mish jarayonlarini fizik modellashtirish uchun muhim bo‘lgan dinamik o‘xshashlik mezonlarini ishlab chiqish masalasi ko‘rib chiqilgan.O‘xshashlik mezonlarini ishlab chiqishda integral analoglar usulidan foydalanilgan. Ishlab chiqilgan o‘xshashlik mezonlari yordamida gruntlarni qayta ko‘mish jarayonlarini fizik modellashtirish va ishlab chiqilgan geometrik, kinematik va dinamik o‘xshashlik mezonlari asosida segmentli ishchi jihoz fizik modelini yaratish mumkin.

Kalit so‘zlar:segmentli ishchi jihoz, dinamik o‘xshashlik mezoni, hisobiy sxema, vertikal yuklama.

Kirish Tor joylarda gruntlarni qayta ko‘mish jarayonlarini amalga oshirishda

bir cho‘michli ekskavatorga segmentli almashinuvchi ishchi jihozdan foydalanish, bu jarayonda katoklar yoki vibroplitalardan foydalanishga qaraganda bir qator afzalliklarga ega: birinchidan, segmentli ishchi jihoz massasi, shunday o‘lchamlarga ega bo‘lgan katok ishchi jihozi massasidan kamid ikki barobar kam; ikkinchidan, segmentli ishchi jihoz bilan grunt zichlanganda ta'sir yoyi uzunligi bo‘yicha bir xil qiymatdagi bosim beriladi, katoklarda esa teng ta'sir etuvchi kuch qo‘yilgan nuqtadan chetlashgan sari-bu kuch qiymati kamayib boradi va bu jarayon energiya sig‘imi ko‘rsatkichini sezilarli oshiradi; uchinchidan, segmentli ishchi jihozdan foydalanish gruntni qayta ko‘mishga va zichlashga bo‘lgan sarf-harajatlarni sezilarli kamaytiradi.

Turli materiallarni qayta ko‘mish va zichlash jarayonlarini tadqiq qilish va mashinalar parametrlarini optimizasiya qilish va ish sharoitlari va muhit xosslaridan kelib chiqqan holda mashinalar tarkibi va strukturasini tanlash bo‘yicha bir qator olimlar tomonidan salmoqli ishlar qilingan, xususan, V.I.Balovnev, N.Ya.Xarxuta, G.V.Kustarev, T.I.Asqarxo‘jaev, T.Q.Xankelovlarni bular jumlasiga kiritish mumkin.

V.I.Balovnev o‘z tadqiqotlarida g‘ildirakli yuritgichlar(pnevmoshinali katoklar) bilan gruntlarni zichlash masalalari bilan shug‘ullangan va zichlash jarayonini modellashtirish va mashina parametrlarini optimizasiya qilish bo‘yicha salmoqli natijalar olgan[1,2].

T.I.Asqarxo‘jaev va T.Q.Xankelov tadqiqotlari esa segmentli ishchi jihoz yordamida gruntlarni qayta ko‘mish jarayonlarining reologik modellarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan [5,6]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan tor joylarda segmentli ishchi jihoz yordamida gruntlarni qayta ko‘mish va jarayonni tadqiq qilish asosida ishchi asosiy parametrlarini asoslash dolzarb masala hisoblanadi.

Segmentli ishchi organ yordamida gruntni zichlash jarayoni o‘xshashlik mezonlarini va parametrlarini aniqlash sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Segmentli ishchi organ yordamida gruntni zichlash jarayoni o‘xshashlik mezonlari va parametrlarini aniqlash sxemasi

Segmentli ishchi organning gruntga bo‘lgan normal bosimini ta'minlovchi

vertikal P kuchni ikkita tashkil etuvchidan iborat yig‘indi sifatida tasvirlash mumkin.(1-rasm)

$$P = P_{yuk} + G_S \ , \tag{1}$$

bu erda P_{yuk} – bazaviy mashina yoki manipulyator tomonidan ishchi organga ta'sir qiladigan tashqi yuklama, H; G_s-cegment ishchi jihozining og‘irlik kuchi, H.

Bizga ma'lumki, ishchi organga ta'sir qiladigan tashqi vertikal kuch(yuklama) quyidagi formula yordamida aniqlanadi

$$P = \sigma l^2 \ , \tag{2}$$

bu erda σ-segmentli ishchi organining gruntga bo‘lgan normal bosimi, N/m^2; l-cegmentli ishchi organ chiziqli o‘lchami, m.

Yuqorida keltirilgan (2) formuladan integral analoglar usulidan foydalangan holda π_1 o‘xshashlik mezonini olamiz, buning uchun tenglamaning ikkala qismini σl^2 ga bo‘lamiz, ya'ni

$$\pi_1 = \frac{P}{\sigma l^2} \ , \tag{3}$$

Agar (1) tenglama o‘ng va chap qismlarini σl^2 ifodaga bo‘lsak, u holda yana ikkita o‘xshashlik mezoniga ega bo‘lamiz.

$$\pi_1 = \frac{P}{\sigma l^2} = \frac{P_{yuk}}{\sigma l^2} + \frac{G_S}{\sigma l^2} = \pi_2 + \pi_3 \tag{4}$$

$$\pi_2 = \frac{P_{yuk}}{\sigma l^2} \quad \pi_3 = \frac{G_S}{\sigma l^2} \tag{5}$$

Shunday qilib, π_2 va π_2 o‘xshashlik mezonlari shuni ko‘rsatadiki segment ishchi jihoziga ta'sir qiluvchi tashqi P_{yuk} yuklama va cegmentli ishchi organ og‘irlik kuchi G_s ishchi organning zichlanayotgan materialga ta'sir qilayotgan bosimi qiymatiga proporsional va modellashtirilayotgan tizim chiziqli o‘lchami l kvadratiga proporsional ravishda o‘zgagaradi.

Murakkab tizimlarni modellashtirish qoidalariga asosan, model parametrlaridan π_1 o‘xshashlik mezoni asosida natura parametrlariga o‘tish quyidagi formulalar yordamida amalga oshiriladi

$$P_n = P_m k_l^2 \ , \ P_{yuk} + G_{S.n} = \left(P_{yuk} + G_{s.m}\right)k_l^2 \ , \tag{6}$$

bu erda $k_l = \frac{l_n}{l_m}$ – natural o‘lchamdagi mashina chiziqli o‘lchamining fizik modelning mos o‘lchamiga bo‘lgan nisbatni aniqlovchi modellashtirishning chiziqli o‘lchami; n va m indekslar mos ravishda natura va model parametrlarini ifodalaydi.Agarda modellashtirish jarayonida ishchi organ massasini mustaqil kattalik sifatida qaraydigan bo‘lsak, u holda π_1 o‘xshashlik mezoni bajarilishi talab qilinadi va ishchi organga bo‘lgan yuklama kattaligi quyidagicha aniqlanadi

$$P_{yuk.n} = \left(P_{yuk} + G_{s.m}\right)k_l^2 - G_{s.m} \ , \ \frac{G_{s.m}}{\delta l^2} \neq idem \quad (7)$$

Agarda $G_{s.m} = G_{s.m}k_l^3$ bo‘ladigan bo‘lsa, u holda

$$P_{yuk.n} = \left[P_{yuk.m} - G_{s.m}\left(k_l - 1\right)\right]^1 \cdot k_l^2 \quad (8)$$

Agarda mashina ishchi organi tomonidan beriladigan P_{yuk} yuklama qiymati mustaqil deb olinadigan bo‘lsa, u holda natural o‘lchamdagi mashina ishchi organi massasi

$$G_{yuk.m} = \left(P_{yuk.m} + G_{s.m}\right)k_l^2 - P_{yuk.m} \ \frac{P_{yuk}}{\delta l^2} \neq idem \quad (9)$$

Natural o‘lchamdagi mashina xususiy og‘irligi kamligi yoki etarli darajada turg‘unlikka ega bo‘lmasligi oqibatida ishchi organ tomonidan beriladigan yuklama kuchi miqdori uncha katta bo‘lmasligi mumkin, π_1 mezon qiymatini saqlash mashinaga posangi yuk o‘rnatish va xizmat ko‘rsatiladigan yuzani korrektirovka orqali ta'minlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ekskavatorlar uchun almashinuvchi segmentli ishchi jihozlarni ishlab chiqish qurilish texnologiyalaridagi sezilarli rivojlanishga olib keladi. Ushbu innovasion yondashuv universallik, xizmat ko‘rsatish oddiyligi va xavfsizlikni ta'minlagan xolda tor joylarda gruntlarni qayta ko‘mish jarayonlarida paydo bo‘ladigan muammolarni echishga qaratilgan.Bundan tashqari, segment ishchi organining modul sifatida ishlab chiqarilishi unga xizmat ko‘rsatishni ancha soddalashtiradi va texnik xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Balovnev V.I. Modelirovanie prosessov vzaimodeystviya so sredoy rabochix organov dorojno-stroitelnix mashin. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov. 2-e izd., pererab. - M.: Mashinostroenie, 1994. - 432s.

2. Balovnev V.I. Optimizasiya i vibor innovasionnix sistem i prosessov transportno-texnologicheskix mashin: Uchebnoe posobie.- M.:TEXPOLIGRAFSENTR,2014.-392s.

3. N.Ya. Xarxuta, M.I. Kapustin, V.P. Semenov, I.M. Eventov. — Uchebnik dlya vuzov. — Izd. 2-e, dop. i pererabot. — L.: «Mashinostroenie» (Leningr. otd-nie), 2006. — 472 s.

4.Kustarev G.V.i dr. Kompaktori. Uplotniteli tverdix bitovix i promishlennix otxodov. Ustroystvo, osnovi rascheta: ucheb. posobie / pod obshey red. G.V. Kustareva. — M.: MADI, 2014. — 100 s.

5. Tavbay Khankelov, Tulkun Askarkhodzaev, Norqul Aslanov. (2023).Modeling of segmental excavator working tool for soil compaction.E3S Web of Conferences 401(826),1-11, doi: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340102052

6.Xankelov T.Q., Aslanov N.R., Mirholiqov S.M., Ermamatov X.Q.Bir cho‘michli ekskavator segmentli ishchi jihozi ish jarayonini fizik modellashtirish uchun

o‘xshashlik mezonlarini ishlab chiqish.Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. 2022,№1. 16-21 b.
7. Guxman A.A. Vvedeniya v teoriyu podobiya.-3-e izd.-M.: Izd-vo LKM, 2010.-396s.

THE CONTRIBUTION OF HARMFUL SUBSTANCES EMITTED BY THE CAR TO THE ENVIRONMENT

Nurillayev Usman Allaqulovich. t.d.h. dotsent (JizPI)

Currently, air pollution has exceeded the maximum permissible limit. In 2018, in Uzbekistan, 2 million 449 thousand tons of toxic gases were released into the atmosphere, 60% of them were contributed by motor vehicles, and this means 3 times more than the standards set in developed countries.

According to statistics, the main air pollutants are 6 types of dust and soot (more than 1/5 of all emissions), sulfur dioxide (44-45%), nitrogen oxide (1/10). emissions), carbon monoxide (18-19%), hydrocarbons [2].

There are several types of transport, but the most dangerous in terms of negative impact on the environment is the car, and if a few decades ago not everyone could afford a private car, today it is necessary and affordable for many people became a vehicle.



1-Figure. The percentage of pollutants emitted by cars into the atmosphere.

In this regard, the percentage of pollutants released into the atmosphere by cars is presented in Figure 1. In large cities and modern metropolises, this indicator is increasing (Fig. 1). In addition, emissions are increasing by 3 percent every year, which is a serious concern [3].

An interesting fact: road transport takes the leading place in environmental damage, it is the main source of air pollution.

Animals experience stress that causes them to behave unnaturally. The rate of reproduction is also significantly reduced, as a result of which some species began to decline, while others became rare and threatened with extinction. Flora also suffers a lot, because exhaust gases from motor vehicles immediately fall on plants, forming a dense coating on them and disrupting natural respiration processes.

There are about 300 harmful substances in the exhaust from cars. The main air pollutants are carbon monoxide, hydrocarbons, nitrogen oxides, soot, lead and sulfur dioxide. At present, the problem of atmospheric air pollution in large cities has become one of the most urgent problems.

Taking the air of the city of Tashkent as an example, motor vehicles pollute 395 tons of toxic gases every year, and these gases correspond to 90 percent of the gases released into the atmosphere.

The intensity of the traffic flow means the number of vehicles passing through the section of the road network during a certain period of time. The traffic flow is divided into five constructive groups of vehicles: passenger car (RLA); trucks with gasoline engines (RGABD); trucks with diesel engines (RGAD); gasoline engine buses (RAB); diesel engine buses (RAD) [1].

The study of the structure of traffic flows in large cities was carried out for the first time in 1995. Studies have shown that the total intensity of traffic in some streets of the city during "Tigiz" times is 2300 cars per hour. The intensity of movement has a clear intradiurnal dependence with two high values of the maximum intensity. The maximum level of general movement intensity was observed between (9-11) and (16-19). The main component of the transport flow is cars (RLA).

They make up 66.9 - 73.2 percent of the total volume of transport flows, and the composition of their constituent gases is presented in Figure 2.

From 2003 to 2006, repeated studies were conducted on the structure and intensity of vehicle traffic on city streets. As a result of the observations, they were conducted in 32 street sections in all districts of the city in different seasons, on working days and weekends, at different times of the day. Vehicle counts were performed for 60 minutes for five groups of counted vehicles. Then, taking into account all studied categories of transport, the average value of traffic intensity was calculated for all sections.



2-figure. Percentage of toxic substancesю

As a result of the statistical processing of the data, it is known that the first place in terms of the number of vehicles is RLA (79.67 - 81.21%), the second place

- RAB - 8.32 - 9.11 percent, the third - RAD - is occupied. 7.14 - 7.83%, and finally, a small part of freight (1.85 - 4.87%).

Intensity reaches the highest values (up to 4800 vehicles per hour) on highways connecting transit traffic flows and city districts. Average indicators are observed on the streets connecting the city's dwarf cities (up to 2900 per hour). The minimum values are observed in the streets located within microdistricts (up to 550 per hour). The dependence of the intensity on the day, season and time of the week was determined using the analysis. As it turned out, it was found that the intensity of traffic in all studied sections of the city's highways between 06:00 and 22:00 does not depend on the time of day. It was observed that the intensity of traffic flows on weekdays is 4.7% higher than on weekends. Minimum values of traffic intensity were observed on highways in the winter season (2175 - 3264 vehicles per hour). In the spring, the intensity increased by 32%, and the share of passenger cars increased sharply (up to 23%). In summer, the intensity of traffic flows decreases slightly (up to 5%), and in autumn, the intensity has the same parameters as in spring. The results of statistical processing of monitoring data made it possible to calculate the total emission of various pollutants by motor vehicles. Calculations were made for the following pollutants: CO, CH, NOx, C, Pb, SO2. Taking into account their emissions per kilometer while driving along the road, the priority substances emitted by motor vehicles were identified as carbon monoxide, hydrocarbons, and nitrogen oxides [4].

In addition, the leading place is CO , its daily emissions: in the fall. - 1298.8 kilograms / kilometer, in winter - 460.67 kilograms / kilometer, in spring - 1301.45 kilograms / kilometer.

Nitrogen oxides took the second place and hydrocarbons took the third place. Thus, comparing the data of the studies conducted in 2005, it was found that the composition of traffic flows in the city has changed over the past four years. A 10% increase in the main component of the flow (RLA) and a change in the ratio of trucks and buses in the traffic flow (the number of the former decreased and the latter increased). Currently, there is no dependence of the intensity of traffic flows on the time of day, and it was pronounced in 2005, but the dependence of the intensity on the season of the year remained. In addition, the maximum value of the intensity of traffic flows in the city area increased by 2.09 times [2,3].

The absorption property of the solution increases with the concentration of monovalent copper, increasing CO pressure, and decreasing the temperature of the absorption process. The ratio of free ions of ammonia and CO in the solution also affects the absorbability of the solution. The absorption capacity of the solution Vco is found by the following formula Vco=[Cu+]/1/22,4+k(C1/2/ p co) The method of

dust absorption cleaning in Venturi scrubbers is based on Bernoulli's law, which determines the dependence of the gas flow rate on the cross-section of the pipe through which it moves . Structurally, the apparatus consists of two cones interconnected by narrow sections using a short cylindrical branch pipe. When passing from the wide part of the cone to the narrow part, the speed of the contaminated flow increases. Due to the high turbulence, the liquid droplets provided by the nozzles are divided into the smallest particles, and the frequency of contact between the liquid and solid inclusions increases significantly. After entering the second cone, the flow slows down, the coagulation process takes place, and the pollutants in the form of pulp are washed to the bottom of the body, and then removed through the mud pipe. The absorption method of off-gas cleaning in venturi scrubbers is widely used in the metallurgical, chemical and energy industries to reduce the temperature of waste gases along with cleaning, if necessary.

To ensure the high efficiency of gas cleaning, the adsorbent must have certain properties:

- Increase in specific surface area;
- long-term action;
- selectivity;
- resistance to high temperature and mechanical stress;
- recovery ability;
- ease of production;
- small cost.

REFERENCES

1. Czmyr, S., Przegląd i porównanie systemów ograniczenia emisji szkodliwych substancji do atmosfery zgodnie z wymogami IMO Tier II, Uniwersytet Morski w Gdyni, 2019.

2. Stanisław Czmyr, Piotr Kaminski., Comparison of reduction systems of harmful substances into the atmosphere in accordance to requirements of imo tier III, Journal of KONES Powertrain and Transport, Vol. 26, No. 3 2019. htt://doi: 10.2478/kones-2019-0051.

3. Bartosz Ciupek, Optimization of the Retort Burner Construction to Reduce Emission of Harmful Substances (Optymalizacja konstrukcji palnika retortowego w aspekcie obniżenia emisji substancji szkodliwych)**,** Ciepłownictwo, Ogrzewnictwo, Wentylacja 49/12 (2018) 519÷524DOI: 10.15199/9.2018.12.8

4. Agnieszka Aleksandra Szokało., Reducing emission of harmful toxic substances by trucks in the aspect of analysis of selected vehicle operating parameters and human factor. Journal of kones Powertrain and Transport, Vol. 26, No. 3 2019. DOI: 10.2478/kones-2019-0077.

AVTOBUS YO‘NALISHLARIDA YO‘LOVCHILAR QATNOV VAQTINI BAHOLASHNING MATEMATIK MODELI

Odilov Nurmuhammad Eshpo‘lat o‘g‘li; v.b.dotsent(JizPI)

Shahar yo‘lovchi transporti uchun harakatlanuvchi tarkib turini barcha harakatlanuvchi tarkib parametrlarini va yo‘lovchilarni tashish jarayoniga qo‘yiladigan ko‘plab talablarni diqqat bilan taqqoslash va hisobga olish kerak. Yo‘nalish bo‘ylab harakatlanuvchi tarkibning ratsional parkini tanlash masalasini ko‘rib chiqishda tizimli yondashuvdan foydalanish kerak [1]. Buni amalga oshirish uchun turli sig‘imdagi avtobuslarni yo‘lovchilarning qatnovga sarflagan minimal umumiy vaqti mezoniga ko‘ra baholash imkonini beradigan matematik modelni ishlab chiqish kerak. Matematik model oldindan belgilangan, ma’lum parametrlar, ko‘rsatkichlar va noma’lum miqdorlarni o‘z ichiga olgan yo‘lovchi tashish jarayonining rasmiylashtirilgan tavsifini ifodalaydi, ular birgalikda matematik bog‘liqliklar va munosabatlar ko‘rinishidagi bog‘lanishlar bilan o‘zaro bog‘langan ob’ektning holatini, uning ishlashini tavsiflaydi [2].

Ko‘pgina matematik modellar yo‘nalishda harakatlanuvchi tarkibning faqat bitta markasi va modelidan foydalanishni nazarda tutadi va cheklangan miqdordagi omillarni hisobga oladi. Ushbu yondashuvning kamchiliklaridan biri shundaki, unda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rsatkichlari va xususan, qatnov vaqti aniq hisobga olinmaydi [2,5]. Muallif tomonidan taklif qilingan yangi yondashuv ma’lum bir avtobusdan tashqaridagi transport oqimi uning aloqa tezligiga ta’sir qilishi va bu ta’sir tashishga, avtobuslarning markalari va modellariga qarab farq qilishini o‘z ichiga oladi. Yuqoridagilarni, shuningdek, boshqa bir qator omillarni hisobga olishning maqsadga muvofiqligini miqdoriy jihatdan tekshirish uchun matematik model ishlab chiqildi. Ushbu model yo‘lovchilar tomonidan ma’lum vaqt oralig‘ida, masalan tig‘iz vaqtda qatnov uchun sarflagan minimal umumiy vaqt nuqtai nazaridan sig‘imi bo‘yicha eng samarali harakatlanuvchi tarkibni, shuningdek uning sonini aniqlaydi. Yo‘nalishda bir vaqtning o‘zida turli sig‘imdagi avtobuslar harakatlanishi taklif qilinmoqda [3]. Ushbu holat GOST 18716-73 bo‘yicha avtobus

tasnifiga tuzatish kiritishni talab qildi (1-jadval).

1-jadval

Nominal sig‘imi va o‘rindiqlar mavjudligiga qarab GOST 18716-73 bo‘yicha avtobuslarning tuzatilgan tasnifi (shahar sharoitlari uchun)

Sinf raqami	**Guruh**	**Sig‘imi bo‘yicha avtobus sinfi**	**Nominal sig‘im avtobuslar, yo‘lovchi.**	**O‘rindiqning mavjudligi**	**Shartli belgilash uchun hisob-kitoblar**
I	1	Juda kichik	9-15	faqat o‘tirish	A^{ma}
II-A		Kichik	16-25	faqat o‘tirish	A^{ma}
II-B	2	Kichik	26-49	o‘tirish va turish joylari	A^{avt}
III		O‘rtacha	50-79	o‘tirish va turish joylari	A^{avt}
IV		Katta	80-110	o‘tirish va turish joylari	A^{avt}
V		Juda katta	110 dan ortiq	o‘tirish va turish joylari	A^{avt}

1-jadvalni tahlil qilish barcha avtobuslarni ikki guruhga bo‘lish mumkinligini ko‘rsatadi: birinchisi - faqat o‘rindiqli harakatlanuvchi tarkib, ikkinchisi (qolgan barcha) - o‘tirish va turish joylari bo‘lgan harakatlanuvchi tarkib.

Ma’lumki birinchi guruh avtobuslari yuqori aloqa tezligini ta’minlaydi (kichik sig‘im va gabarit o‘lcham, yuqori manevrchanlik qobiliyati, tez tezlanish olish, tez tormozlanish va bekatlarda kamroq to‘xtash vaqti tufayli). Bunday avtobuslar, ayniqsa, uzoq yo‘nalishlarga va uzoq masofalarga qatnaydigan yo‘lovchilar uchun afzalroqdir, chunki ular qatnov vaqtini qisqartiradi [4].

O‘zbekistonda o‘z vaqtida “yo‘nalishli taksi” nomini olgan, ayniqsa kichik va kichik toifadagi avtobuslar qat’iy tarif va yo‘lovchilar oldidagi mas’uliyati bo‘lgan yo‘nalishlarda, oddiy jamoat transporti sifatida tasniflanishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, 1-jadvaldagi avtobus sinflari o‘rtasidagi farqlar faqat sig‘imi va o‘rindiqlarning mavjudligiga qarab belgilanadi [5].

Matematik simulyatsiya modelining mohiyati quyidagicha.

1. Quyidagi xususiyatlarga ega ma’lum qatnov yo‘nalishi: n – to‘xtash punktlari soni, shu jumladan dastlabki va yakuniy; $l_{i-(i+1)}$- to‘xtash nuqtalari orasidagi tashish uzunligi; $i = n - 1$-to‘xtash joylari orasidagi tashishlar soni;

Shunda yo‘nalishning uzunligi tashishlar uzunligi yig‘indisiga teng bo‘ladi:

$$L_m = \sum_{i=1}^{n-1} l_{i-(i+1)} \qquad (1)$$

2. Nol diagonali bo‘lgan to‘xtash joylariaro yo‘lovchi tashishlar matritsasi

ma’lum:

$$\begin{array}{ccccccc} 0 & x_{12} & x_{13} & \dots & x_{1i,n} & \dots & x_{1,n} \\ & 0 & x_{23} & \dots & x_{2i} & \dots & x_{2,n} \\ & & & \dots & & \dots & \\ & & & & 0 & \dots & x_{in} \\ & & & & & & 0 \end{array} \quad (2)$$

bu yerda: x - indeksning birinchi raqamiga mos keladigan bekatda transportga chiqqan va indeksning ikkinchi raqamiga mos keladigan bekatda transportdan tushgan yo‘lovchilar soni. Demak, har bir qator uchun barcha yo‘lovchilar yig‘indisi tegishli to‘xtash punktida chiqadigan yo‘lovchilar soni:

$$\boldsymbol{x_i^v = \sum_{i=i+1}^{n} x_{i-(i+1)}^c} \quad (3)$$

bu yerda: $\boldsymbol{x_i^v}$ - i-to‘xtash punktida chiqqan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi;

$\boldsymbol{x_{i-(i+1)}^c}$ - *i+1* to‘xtash punktida tushgan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi.

Har bir ustundagi barcha yo‘lovchilar yig‘indisi ma’lum bir bekatda tushgan barcha yo‘lovchilar soniga teng:

$$x_i^c = \sum_{i=1}^{i=i-1} \boldsymbol{x_{(i-1)-i}^c} \quad (4)$$

bu yerda: x_i^c - *i*-to‘xtash punktida tushgan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi;

$\boldsymbol{x_{(i-1)-i}^c}$ - har qanday *i=1* to‘xtash joyidan *i*-to‘xtash punktiga kelgan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi.

Chiqayotgan barcha yo‘lovchilar yig‘indisi barcha tushayotgan yo‘lovchilar yig‘indisiga teng va bu tashishning umumiy hajmini ifodalaydi:

$$\sum_{i=1}^{n-1} x_i^v = \sum_{i=2}^{n} x_i^c = Q \quad (5)$$

i - chi va *(i+l)* - chi to‘xtash punktlari oralig‘ida yo‘nalish bo‘ylab tashilgan yo‘lovchilar soni.

$$x_{i-(i+1)}^n = \sum_{i=1}^{i} x_i^v - \sum_{i=2}^{i} x_i^c = x_{(i-1)-i}^n - x_i^c + x_i^v \quad (6)$$

bu yerda: $x_{(i-1)-i}^n$ (i-1)-chi va i-chi to‘xtash punktlari orasidagi yo‘nalish bo‘ylab tashilgan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi.

3. To‘xtash nuqtalari orasidagi masofalarning ma’lum uzunliklari ular orasidagi masofalar matritsasini qurishga imkon beradi, ular tuzilishi jihatidan mos keladigan matritsaga (2) o‘xshash bo‘ladi. Ushbu matritsalarning tegishli qiymatlarini ko‘paytirish orqali yo‘lovchi aylanmasining o‘xshash matritsasini ham olish mumkin, undan yo‘lovchining o‘rtacha qatnov masofasini hisoblash mumkin.

4. Bundan tashqari, maqsad nuqtai nazaridan harakatlanishning texnik tezligini bilish kerak, bu to‘xtash punktlari orasidagi masofaga bog‘liq. Uni matritsa - qator bilan belgilash mumkin:

$$v_{1-2}, v_{2-3}, v_{3-4}, \dots v_{i-(i+1)}, \dots v_{(n-1)-n} \quad (7)$$

Harakatlanuvchi tarkibning texnik tezligi ko‘p jihatdan avtobus

harakatlanadigan transport oqimining xususiyatlariga bog‘liq [m]. Tezlik, intensivlik va zichlik o‘rtasida transport oqimining asosiy diagrammasi bilan tavsiflangan bog‘liqlik mavjud (1-rasm).



1-qator - *N=f(p);*	*N_{max} - o‘tkazish qobiliyati, avtomobil/soat*
	a - o‘rtacha oqim tezligini tavsiflovchi radial vektorning moyillik burchagi
2-qator - *v=f(p);*	*N - transport oqimining intensivligi, avtomobil/soat*
	p - transport oqimining zichligi, avto/km

1-rasm. Transport oqimining asosiy diagrammasi

Transport oqimining asosiy diagrammasi quyidagi bog‘liqliklarni taqdim etadi:

$$N=f(p),\ v=f(p), \qquad (8)$$

$$tg\alpha = \frac{N}{\rho} = v, \qquad (9)$$

bu yerda: *v* - transport vositalari oqimining tezligi, km/soat;

N - harakat intensivligi, avto/soat;

ρ - oqim zichligi, avtomobillar/km

Bunday holda, *1-qator* quyidagi bog‘liqlik bo‘yicha olinadi:

$$N = v\rho, \qquad (10)$$

Harakat intensivligi formulasi (11) asosida biz quyidagi formula yordamida transport oqimi tezligini aniqlaymiz:

$$v = N/\rho \qquad (11)$$

Transport vositalari oqimi tezligi aloqa tezligiga mos kelish uchun avtobuslarning bekatlarda turib qolish vaqtini qo‘shish kerak. Yo‘nalishdagi oqim tezligi texnik tezlikka tenglashtiriladi:

$$V=V_T, \qquad (2.12)$$

Yuqorida keltirilgan tizimda yo‘lovchilarni tashishni yo‘lovchilarning harakatga sarflagan umumiy vaqtini minimallashtiradigan tarzda tashkil qilish kerak:

$$\sum_{j=1}^{Q} T_j \rightarrow min, \qquad (13)$$

bu yerda: *j=1, Q* - joriy yo‘lovchi indeksi;

T_j- j-yo‘lovchini tashishga sarflangan vaqti, soat;

Q - tashilgan yo‘lovchilarning umumiy soni, yo‘lovchilar.

Faraz qilaylik, biz alohida shahar yo‘nalishi bo‘yicha ma’lum vaqt oralig‘ida - soatiga, kuniga va hokazolarda tashish kerak bo‘lgan yo‘lovchilar sonini bilamiz. Yo‘lovchilar turli guruhlardagi avtobuslarda harakatlanganligi sababli (1-jadval), u holda tashilgan yo‘lovchilarning umumiy soni quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$Q = Q^{avt} + Q^{ma}, \qquad (2.14)$$

Bu yerda: Q^{avt},Q^{ma} - 2 va 1-guruh avtobuslarida harakatlanadigan yo‘lovchilar soni, yo‘lovchi. Taxminlarga ko‘ra, yo‘lovchiga qatnov ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil imkoniyatlar taqdim etiladi, xususan, turli xil sig‘imdagi avtobuslar (avtobuslar va mikroavtobuslar) taklif etiladi. Shunda kerakli avtobuslar soni:

$$A = A^{avt} + A^{ma} \qquad (15)$$

Bu yerda: A^{avt}, A^{ma} - marshrutga xizmat ko‘rsatuvchi 2-guruh avtobuslari va 1-guruh mikroavtobuslari soni, dona (2.2-jadvalga qarang).

Belgilab olamiz j_1-1-guruh mikroavtobuslarida harakatlanuvchi yo‘lovchining joriy indeksi, j_2- 2-guruh avtobuslarida harakatlanuvchi yo‘lovchining joriy indeksi. i_1- 1-guruh mikroavtobusining joriy indeksi va i_2- 2-guruh avtobusining joriy indeksi.

(13) formula bo‘yicha barcha yo‘lovchilarning marshrutda o‘tkazgan umumiy vaqti minimal bo‘lishi kerak. Shunda:

$$\sum_{j=1}^{Q} T_j = \sum_{j_2=1}^{Q^{avt}} T_{j2}^{avt} + \sum_{j_1=1}^{Q^{ma}} T_{j1}^{ma}, \qquad (2.16)$$

Bu yerda: T_{j2}^{avt}, T_{j1}^{ma} 2 va 1-guruh avtobuslari yo‘lovchilarining umumiy qatnov vaqti, soat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qulmuhamedov J.R. va boshqalar, Avtotransport vositalarida yo‘lovchilar tashishni tashkil etish. T: «ILM ZIYO», 2016.

2. Butayev Sh.A. va boshqalar. Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish. T.: «Fan», 2009.

3. Karimov E. Avtomobillarda yo‘lovchilar tashish. T.: «Sharq» NMAK, 2002.

4. Xodjayev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari. T.: «O‘zbekiston», 2002.

6. https://www.elibrary.ru/

7. https://uz.wikipedia.org/wiki/

8. https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl

9. https://fayllar.org/

10. https://arxiv.uz/

QISHLOQ XO‘JALIGIDA TRAKTOR VA AVTOMOBILLAR, ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Po‘latov G`ofur Ergashovich, assistenti (TDMAU)
Rajabov Ramazon Shuhratovich, stajyor o`qituvchisi (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo`jaligi transport tizimlari haqida ma`lumotlar, ularga qo`yiladigan talablar hamda ularning standardlar bo`yicha turlari keltirib o`tilgan.

Ulardan foydalanish jarayonidagi afzallik, kamchiliklari va agrotexnik talablar haqida aniq ma`lumotlarkeltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: traktorlar, zararli komponentlar, agrotexnik talablar, zanjirli traktorlar, avtomobil-tayagachlar, tirkamalar.

Traktor va avtomobillar ilmiy asoslangan xossalar va ko`rsatkichlarga tayangan ma‘lum foydalanish talablarga javob berishi kerak. Eng muhim talablarga quyidagilar kiradi:

1. Yuqori unumdorlik va iqtisodni ta‘minlashi kerak.

2. Kompleks qishloq xo`jalik ishlarni eng qulay, yaxshi agrotexnik muddatlarda sifatli bajarishi kerak

3. Ekologik xarakterga ega bo`lishi, zararli komponentlar bo`lgan dvigatellardan chiqadigan gazlardan atmosferani ifloslanishiga yo`l qo`yilmasligi kerak.

4. Mashinalarning yurish qismlari yo`l va tuproqqa salbiy ta‘sir ko`rsatmasligi kerak.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan traktorlarga qo‘yiladigan agrotexnik talablar:

• Har qanday yuzali yo`llardan, ekin qator oralaridan o`tuvchan bo`lishi kerak

• Tortish kuchi va tezligi hamda manyovrchanligi bo`yicha ma‘lum o`zgaruvchan qiymatlar oralig`iga ega bo`lishi kerak

• Yurish qismi bilan tuproqqa eng kam zararli ta‘sir etishi kerak

• Texnologik jarayonni sifatli bajarishi kerak

• 4X4 va 4X2 sxemadagi traktorlarning dala va tuproqli yo`llarda shataksirashi 14 – 16 % dan oshmasligi kerak

• Traktor yurish qismining tuproqqa ta‘siri 110 kPa dan, zanjirli traktorlar uchun 45 kPa dan ortmasligi kerak

• G`ildirakli traktorlar uchun eng kam burilish radiusi 3…4,5 m, umumiy ishlarga mo`ljallangan chopiq traktorlar uchun 6,5…7,5 m va zanjirli traktorlar uchun 2…2,5 m atrofida bo`lishi kerak.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida avtomobil transportlari bilan bir qatorda barcha tortish klassi, tipi va vazifasiga ko`ra traktor transport agregatlari ham keng qo`llanilib kelmoqda. Traktorlarning dinamik ko`rsatkichlari avtomobil transport vositalari kabi tortish klassi, energo-sig`imligi, transport uzatmalarning soni va dipazoni, konstruktiv xususiyatlari, birinchi navbatda yurish qismi bo`yicha aniqlanadi.

Shuning uchun aniq yo`l sharoiti uchun transport vositasining tortish klassi qancha katta bo`lsa yuk ko`taruvchanligi ham shuncha katta bo`ladi. Traktor poyezdlarining spetsifik ish sharoitlaridan kelib chiqib traktorga mehnat muhofazasi va harakat havfsizlik bo`yicha maxsus va yuqori talablar qo`yiladi.

1-jadval

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan traktorlarning tortish sinfi bo‘yicha turlanishi

Tortish sinfi	Nominal tortish kuchi kN	Tortish sinfi	Nominal tortish kuchi kN
0.2	1.8 dan 5.4 gacha	3	27 dan 36 gacha
0.6	5.4 dan 8.1 gacha	4	36 dan 45 gacha
0.9	8.1 dan 12.6 gacha	5	45 dan 54 gacha
1.4	12.6 dan 18 gacha	6	54 dan 72 gacha
2	18 dan 27 gacha	8	72 dan 108 gacha

Ko`p hollarda traktor poezdlari avtomobillar qatnaydigan umumiy oqimdagi yo`larda ishlaydi, ularning marshrutlari aholi yashaydigan punktlardan o`tadi. SHuning uchun ularning tormozlash, yo`llarni yoritishi, signallar berish tizimlariga yuqori talablar qo`yiladi. Transport poezdlarining ish unumi ko`p darajada yuklash tushirishga ketadigan vaqtlarga, ya‘ni yuklash tushirish ishlarining mexanizatsiyalangan darajasiga bog`liqdir. Qishloq xo`jalik mashinasidan tuzilgan agregat bilan ishlaydigan traktorning ish unumi uning ish kengligi, traktor dvigateli quvvati, mashinaning tortish qarshiligi, mashina-traktor agregatining o`rtacha tezligi va boshqa omillarga bog`liq. SHuning uchun agregatning ish unumi traktorning energiyasig`imligi va tortish-ilashish hossalariga bog`liq bo`ladi. Avtomobillarning turkumlanishi deganda ularning konstruksiyasi yoki texnik xusussiyatlariga ko`ra guruxlarga, sinflarga yoki toifalarga ajratish tushuniladi.

• Vazifasiga ko`ra passajir, yuk va maxsus avtomobillarga bo`linadi.

• Yuk avtomobillari tarkibiga avtomobillar, avtomobil-tayagachlar, tirkamalar va yarim tirkamalar kiradi. Ular umumiy ishlarni bajaruvchi va maxsuslarga bo`linadi.

• Avtomobillar va avtomobil tyagachlar o`rnatilgan dvigatellar tipiga ko`ra: karbyuratorli, dizel dvigatelli, gazoballonli, gazoturbinali va elektrli bo`lishi mumkin.

Karbyurator dvigatelli avtomobil parklari asosan kichik va o`rta yuk ko`tara oladigan yuk avtomobillaridan tashkil topadi. Dizel dvigatellilari katta va o`ta katta yuk ko`taradigan avtomobillardan tashkil topadi. Bunday yuk avtomobillarining asosiy kamchiliklari, ular ning narxlarini qimmatligi, o`lchamlari va og`irligining kattaligi, shovqinligi hamda ko`p tutun chiqarishi hisoblanadi. Gaz ballonli avtomobillar arzon yonilg`ida ishlaydi. Ko`proq bunday vositalarni katta gaz bilan ta‘minlangan shaharlarda, yirik gaz ishlab chiqdigan sanoat ob‘ektlari bor joylarda ishlatish qo`l keladi.

Asosiy kamchiliklari – qo`shimcha apparatlarni yonilg`i ta‘minlash tizimiga o`rnatish, maxsus gaz bilan ta‘minlaydigan shoxobchalarni qurish, o`zoq masofagacha ishlatish imkonining chegaralanganligi hisoblanadi. Gazoturbinali avtomobillarda bir pog`onali uzatmalar qutisi mavjud bo`lib, tansmissiyasi sodda va moy sarfi oz bo`ladi. Bunday vositalar unchalik keng tarqalmagan. Kamchiliklari-dvigatelni yondirish qiyinligi, ish jarayonida shovqinning balandligi va yonilg`i sarfining ko`pligi hisoblanadi. Elektromobillarning asosiy yutug`i- bu shovqin va gaz chiqindisining yo`qligi hisoblanadi. Bunday vositalardan tog`li erlarda mayda yuklarni tashish katta samara berishi mumkin. Asosiy kamchiligi ularning kichik radiusda (70…100 km/s) foydalanishi va o`zining katta og`irligi hisoblanadi.

Avtomobil vositalari yo`llardan o`tuvchanligi bo`yicha:

• oddiy

• o`ta o`tuvchanlikga ega bo`lgan

• yuqori o`tuvchanlikga ega bo`lgan avtomobillarga bo`linadi.

Oddiy yuk avtomobilari asosan yo`llarda shuningdek tuproq yo`llarda ishlash uchun mo`ljallangan bo`ladi. O`ta va yuqori o`tuvchanlikka ega bo`lgan avtomobillar Har qanday sharoit uchun (og`ir yo`l sharoitlari, botqoqlik, qumlik yo`llar va yo`lsiz erlar) yo`llardan o`tish uchun.mo`ljallangan bo`ladi.

Harakatlantiruvchi qismining konstruksiyasiga nisbatan o`ta va yuqori o`tuvchanlikka ega bo`lgan transport vositalari:

• g`ildirakli

• yarim zanjirli

• g`ildirak-zanjirli

• amfibiya bo`lishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. ShNQ 2.07.01-03* “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish”. Toshkent 2009 y
2. Isamuxamedova D.U., Ismoilov A.T., Xotamov A.T. “Injenerlik obodonlashtirish va transport”. –Toshkent. “Aloqachi” 2009 y.
3. Xotamov A.T., Usmonov Q.T. “Shahar hududini kompleks obodonlashtirish”. – Toshkent 2014 y
4. Mirziyoev Sh.M-Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent-“O‘zbekiston”-2017

QISHLOQ XO‘JALIGI MASHINALARINI UNUMDORLIGINI ANIQLASH.

Kurbonova Buvrajab Kankelovna, v.v.b dotsent (JizPI)
Jumaboyev Valijon Zafarjon o‘g‘li, talaba (JizPI)

Annotatsiya: Ushbu maqolada g‘alla hosilini kombayn bilan yig‘ishtirish jarayonida qo‘llaniladigan yurituvchi qurilma krivoship-shatun mexanizm massalarining ta’sirida paydo bo‘ladigan inersiya kuchlarini muvozanatlash va muvozanatlanganlik darajasini aniqlash formulalari keltirib o‘tilgan. Keltirilgan hisoblashlar natijasiga ko‘ra kombayn o‘t o‘rgichlarining ish unumi krivoship-shatun mexanizmining muvozanatlik darajasi to‘g‘ri ta’minlanganligiga uzviy ravishda bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: g‘alla, kombayn, o‘t o‘rish krivoship, muvonat, mexanizm, aksial, dizaksial.

G‘alla hosilini kombayn bilan yig‘ishtirishdan maqsad, bu muhim ishni tez va albatta, don nobudgarchiligini me’yoridan oshirib yubormasdan bajarishdir.

G‘alla turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirilishi sababli, tabiiyki, uning hosildorligi har xil bo‘ladi. Don nobudgarchiligi minimal bo‘lishi uchun, har xil hosildorlik va dala relyefiga mos keladigan kombayn turlari ishlab chiqariladi.

Kombaynning asosiy ko‘rsatkichi sifatida uning ish unumi, ya’ni bir sekunddagi yanchish qobiliyati (sifatli yancha oladigan g‘alla miqdori, kg/s) yoki bir soatda boshoqlardan yanchib olinayotgan don miqdori (t/soat) qabul qilingan. Shu sababli, kombaynlar 5-6 kg/sekunddan 11-12 kg/sekundgacha toifalarga bo‘linadi. Kombayn yanchish apparatiga tushayotgan g‘allaning 40% don, 60% somon, ya’ni donning somonga nisbati 1:1,5 bo‘lishi qabul qilingan.

Ish jarayonida o‘rish apparatining yuritish mexanizmi segmentni ilgarilanma-qaytarma harakatini amalga oshiradi. Shu maqsadda fazoviy krivoship - shatunli, planetar, ba’zan esa yassi mexanizmlar ishlatiladi. Aksial va dezaksial krivoship-shatunli mexanizm val, krivoship va shatunlardan tashkil topgan. Aksial

mexanizmda pichoq va krivoship vali yerga nisbatan bir xil h_{sa} balandlikda o‘rnatiladi. Dala sharoitida ishlayotganda krivoship yer yuzasidagi kesaklarga tegmasligi uchun yerga nisbatan transport tirqishi h_{ta} qoldirilishi kerak.

O‘simlik poyalarini o‘rish apparatining ish unumi birinchi galda kesuvchi tig‘larning o‘tkirligi, o‘simlik poyalarining texnologik xususiyatlariga, ishlash muhitiga va bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Ilgarilanma-qaytma harakatdagi segmentli pichoq va uni harakatga keltiradigan KShM massalarining ta’sirida katta inertsiya kuchlari paydo bo‘ladi. Pichoqning tezlanishi:

$$j_p = r\,\omega^2\,cos\,\omega t$$

Pichoq chekka holatga kelganda $\omega t = 0^0$ yoki 180^0 va $\cos \omega t = 0$, tezlanish esa eng katta qiymatga erishadi. Pichoqning chekka holatlarida paydo bo‘ladigan inertsiya kuchlari gorizontal tashkil etuvchisining eng katta qiymati (J_{max}) ni aniqlaymiz.

KShM ning tashqi to‘liq muvozanatlanishi uchun harakat paytida mexanizm massasi markazining koordinatasi va markazdan qochirma inertsiya momentlari o‘zgarishsiz qolishi lozim. Lekin tashqi posongi yordamida KShM ni to‘liq muvozanatlash qiyin.



Segment-barmoqli pichoq va uning KShM li yuritmasiga ta’sir etuvchi inertsiya kuchlarini muvozanatlash sxemasi.

Ushbu rasmda simmetrik krivoship-shatunli mexanizm ko‘rsatilgan. Bunda *e*– krivoship massasining markazigacha bo‘lgan oraliq, b – shatun massasining markazigacha bo‘lgan masofa; $m_1, m_2, m_3\ va\ m_p$– krivoship, shatun, pichoq va posongi massalari.

KShM ga ta’sir etuvchi inertsiya kuchlari gorizontal tashkil etuvchisining muvozanatlanmagan eng katta qiymati (J_{max}) pichoqning chekka holatlarida quyidagicha ifodalanadi:

$$J_{max} = J_A + J_B$$

Segment-barmoqli pichoq va uning KShM li yuritmasiga ta’sir etuvchi inertsiya kuchlarini muvozanatlash sxemasi.

Bunda $J_A \; va \; J_B$ – KShM ning mos holda $A \; va \; B$ nuqtalariga ta’sir etuvchi inertsiya kuchlarining eng katta qiymatlari.

$$J_A = (m_1^A + m_2^A) \text{ r } \omega^2 ; \qquad J_B = (m_3 + m_2^B) \text{ r } \omega^2$$

bunda m_1^A – krivoshipning A nuqtaga keltirilgan massasi; m_2^A va m_2^B – shatunning A va B nuqtalarga keltirilgan massasi:

$$m_1^A = m_1 \frac{e}{r} ; \; m_2^A = m_2 \, (1 - \frac{b}{l}); \; m_2^B = m_2 \frac{b}{l} .$$

Demak, yuqorida massalar qiymatini tenglamaga qo‘yib chiqamiz va quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$J_{max} = \text{r}\omega^2 (m_1 \frac{e}{r} + m_2 + m_3).$$

Pichoqning chekka holatlarida bir posongi (m_p) yordamida aylanuvchi massalarning inertsiya kuchi (J_A) ni to‘liq va ilgarilanma harakatlanuvchi massalarning inertsiya kuchi (J_B) ni esa faqat qisman muvozanatlash mumkin. Pichoq o‘rta holatga kelganda J_B = 0, lekin posongi vertikal tekislikda har aylanishda o‘z yo‘nalishini o‘zgartiruvchi ($m_p \; r\omega^2$) inertsiya kuchini paydo qilib, mashina ramasini titratadi. Shuning uchun ilgarilanma harakatlanuvchi massalarning inertsiya kuchi (J_B) ni chala muvozanatlash lozim bo‘ladi. Bu maqsadda posongining massasi (m_p) ni aniqlash formulasiga k = 0,5…0,67 koeffitsient kiritiladi:

$$m_p = (m_1 \frac{e}{r} + m_2 - m_2 \frac{b}{l} + k(m_3 + m_2 \frac{b}{L})$$

KShM ning muvozanatlanganlik darajasi (%) ni aniqlaymiz:

$$\eta = m_p \, r \, \omega^2 \, 100 / [J_{max} - m_2 \frac{b}{L} \, r \, \omega^2]$$

Bundan kelib chiqadiki:

m_1 = 5,2 kg; m_2 = 3,1 kg; m_3 = 3,36 kg;

e = 0,01 m; *l = 20r =20·0,038 = 0,76 m*.

Shatun og‘irlik markazining koordinatasi

b ≈ L/3 = 0,76 / 3 = 0,25 m, k = 0,5.

$$m_p = \left(5{,}2 \frac{0{,}01}{0{,}038} + 3{,}1 - 3{,}1 \frac{0{,}25}{0{,}76}\right) + 0{,}5 \left(3{,}36 + 3{,}1 \frac{0{,}25}{0{,}76}\right) = 5{,}6 \; kg$$

$$J_{max} = (5{,}2 \frac{0{,}01}{0{,}038} + 3{,}1 + 3{,}36) \, \omega^2 \, r = 7{,}82 \, \omega^2 \, r$$

KShM li yuritmaning tashqi muvozanatlanganlik darajasi:

$$\eta = 5{,}6 \cdot 100 \; / \; (7{,}82 - 3{,}1 \cdot 0{,}25/0{,}76) \approx 82\%.$$

Xulosa qilib aytganda KShM ning tashqi to‘liq muvozanatlanishi uchun harakat paytida mexanizm massasi markazining koordinatasi va markazdan qochirma inertsiya momentlari o‘zgarishsiz qolishi, segment-barmoqli pichoq va uning KShM li yuritmasiga ta’sir etuvchi inertsiya kuchlarini muvozanatlash sxemasini tashkil etuvchilarini formulalar orqali aniqlanganda KShMni to‘liq muvozanatlash hisoblashlarda to‘g‘ri tashkil etilganligi va ish unumiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. – T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-son farmoni.
2. Qodirov S.M., va boshqalar. Avtotraktor texnikasiga oid lug‘at. Toshkent: 1, 2 va 3-tomlar, 2002. – 456 b.
3. Solihov I.S. Traktorlar va avtomobillar.-T.: “Cho‘lpon”, 2012.-512b.
4. Hamidov A. Yem-xashak, g‘alla yig‘ishtirish va charvochilik mashinalari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T.: ToshDU, 2014.-187b.
5. Шарипов В.М. Конструикование и расчёт тракторов. МГТУ “МАМИ”, 2004.-588с
6. Shoumarova M.Sh., Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari, Toshkent. O‘qituvchi. 2002.
7. Xamidov A. Qishloq xo‘jaligi mashinalarini loyihalash. Toshkent 1994.
8. Abdillayev T., Shoumarova M. G‘alla kombaynini va paxta terish mashinalari. Toshkent 2000.

KOMBINATSIYALASHGAN DISKLI BORONA TAKOMILLASHTIRILGAN G‘ALTAKMOLASINING ISH SHAROITINI O‘RGANISH

Soatov Sharof Anvarovich, tayanch doktorant (QXMITI)

Tuproqning turi, mexanik tarkibi va xossalari unga ishlov beradigan mashinalar ish organlarini tanlash ularning parametrlarini asoslash hamda ish ko‘rsatkichlarini baholashda asosiy omillar hisoblanadi.

Kombinatsiyalashgan diskli borona tarkibiga kiruvchi g‘altakmolaning ishlash sharoitini baholash imkonini beradigan ko‘rsatkichlarni o‘rgandik. Bular asosan g‘altakmola bilan ishlov berilmasdan oldin dala yuzasida mavjud bo‘lgan notekisliklarning balandliklari, tuproqning namligi, qattiqligi, zichligi va uvalanish sifati hisoblanadi.

Kombinatsiyalashgan borona g‘altakmolasining ishlash sharoitini o‘rganish uchun faqat diskli yumshatkichlar va tekislagich bilan jihozlangan qurilmadan



1–rasm. Qurilmani umumiy koʻrinishi

foydalanib (1-rasm), tuproqqa ishlov berildi. Agregat oʻtgandan keyin quyidagi koʻrsatkichlar aniqlandi:

- 0-5, 5-10 va 10-20 cm qatlamlardagi tuproqning namligi, qattiqligi va zichligi;
- ishlov berilgan dala yuzasida notekisliklarning balandligi;
- tuproqning uvalanish sifati.

Yuqorida takidlangan koʻrsatkichlar GOST 20915-2011. «Ispitaniya selskoxozyaystvennoy texniki. Metodi opredeleniya usloviy ispitaniy» va OʻzDSt 3412:2019 «Qishloq xoʻjaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari» [1, 2] boʻyicha aniqlandi.

Tajribalar 6 va 9 km/h harakat tezliklarida oʻtkazildi. Bunda diskli yumshatkichlar va tekislagich bilan jihozlangan qurilma TTZ 812 traktori bilan agregatlanadi.

Qurilma rama 1, osish qurilmasi 2, ramaga ikki qator oʻrnatilgan sferik diskli ish organlari (yumshatkichlar) 3 va 4, tekislagich 5 hamda dala gʻildirak 6 dan tashkil topgan.

Ilgari oʻtkazilgan tadqiqodlarga asosan [3,4] tajribalarni oʻtkazishda qurilmaning diskli ish organlari harakat yoʻnalishiga nisbatan 25º va tikka nisbattan 18º burchak ostida oʻrnatiladi, ular orasidagi koʻndalang masofa 30 cm ni, boʻylama masofa esa 90 cm ni tashkil etadi. Tekislagich esa bosim prujinasi bilan jihozlangan parallelogramm mexanizm vositasida ramaga biriktirildi va uning gorizontga nisbatan oʻrnatilish burchagi 60º qabul qilindi.

Tajribalar qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqod instituti (QXMITI) ning bugʻdoydan boʻshagan dalalarida ularni takroriy ekinlarni ekish uchun tayyorlash davrida olib borildi.

Tajribalarda ishlov berilgan dala yuzasidagi notekisliklarning balandligini aniqlash uchun olti takrorlikda koʻndalang profillar olindi va ular boʻyicha notekisliklarning oʻrtacha balandliklari va oʻrtacha kvadratik chetlanishlari aniqlandi.

Tuproqning namligi. Tuproq namligi sug‘oriladigan bo‘z tuproqlarda 16-18 %, o‘tloqli botqoq tuproqlarda esa 18-20 % atrofida bo‘lganda u yetilgan bo‘ladi va ishlov berilayotgan tuproq yaxshi uvalanadi hamda kam qarshilik ko‘rsatadi.

Tuproqning qattiqligi asosan uning namligi va mexanik tarkibi, undagi organik miqdor, yetishtirilgan ekin turi, oldingi ishlov berish chuqurligiga bog‘liq bo‘ladi. Namlikni kamayishi uning qattiqligi oshishiga olib keladi.

Tuproqning zichligi uning fizik biologik xususiyatlarini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Tuproq zichligi 1,1-1,3 g/cm^3 oralig‘ida bo‘lganda qishloq xo‘jalik ekinlarini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Tuproqning uvalanish sifatini aniqlash uchun olti takrorlikda 0,25 m^2 maydonchadan ishlov berish chuqurligi bo‘yicha namunalar olindi. Buning uchun tomonlari 0,5m x 0,5m bo‘lgan ost qismi ochiq qutidan foydalanildi. Olingan natijalar



2-rasm. Qurilmaning ish jarayonidagi ko‘rinishi

100, 50 va 25 mm teshiklari
gan elaklardan o‘tkazildi.
Dala yuzasidagi
kisliklar balandliklarining
cha kvadratik
anishini aniqlash uchun 5
lan shkalalarga bo‘lingan
sus reyka va chizg‘ich
amida ± 0,1 cm aniqlikda
0 takroriylikda bo‘ylama
o‘ndalang profillar olindi.
2-rasmda diskli
shatkichlar va tekislagich
bilan jihozlangan qurilmaning ish jarayonidagi ko‘rinishi keltirilgan. Diskli yumshatkichlar va tekislagich bilan jihozlangan qurilmada ishlov berilgan dala tuprog‘ining namligi 0-10 cm qatlamlarda o‘rtacha 13,9 foizni, qattiqligi 0,69 MPa ni, zichligi 0,95 g/cm^3 ni va 10-20 cm qatlamda esa namligi 16,0 % ni, qattiqligi 0,81 MPa ni, zichligi 1,00 g/cm^3 ni tashkil etgan. Dala yuzasi notekisliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi ± 4,1 cm, 100 mm katta o‘lchamdagi kesaklar miqdori 2,45 foiz, o‘lchami 100-50 mm bo‘lgan fraksiyalar miqdori 9,81 foiz, o‘lchami 50-25 mm fraksiyalar miqdori 11,31 foiz, o‘lchami 25 mm dan kichik fraksiyalar miqdori esa 76,43 foiz bo‘lgan.

Tajribalarda olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha dalaga g‘altakmolasiz kombinatsiyalashgan

diskli borona bilan ishlov berilganda tuproq zichligi, uvalanish sifati va dala yuzasining tekislanish darajasi bo‘yicha ekish foniga qo‘yilgan talablarga mos kelmaydi. Mavjud talablar bo‘yicha ekishga tayyorlangan tuproq tarkibida o‘lchami 25 mm dan kichik fraksiyalar kamida 80 foiz bo‘lishi, o‘lchami 100 mm dan katta fraksiyalar umuman bo‘lmasligi, tuproqning zichligi 1,1-1,2 g/cm^3 oralig‘ida bo‘lishi, dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi ±3 cm dan oshmasligi lozim.

1-jadval.

Diskli yumshatkichlar va tekislagich bilan jihozlangan qurilma bilan ishlov berilgan dalaning tavsifi

T/r	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymati
1	Tuproqning qatlamlar bo‘yicha (cm) namligi, %; 0 – 10 10 – 20 0 – 20	 13,9 16,0 16,9
2	Tuproqning qatlamlar bo‘yicha (cm) qattiqligi, MPa; 0 – 10 10 – 20 0 – 20	 0,69 0,81 0,75
3	Tuproqning qatlamlar bo‘yicha (cm) zichligi, g/cm^3; 0 – 10 10 – 20 0 – 20	 0,95 1,00 0,98
4	Dala yuzasidagi notekisliklar balandligining o‘rtacha kvadratik chetlanishi, ± cm.	4,1
5	Quyidagi o‘lchamdagi (mm) fraksiyalar miqdori, % >100 100 – 50 50 – 25 < 25	 2,45 9,81 11,31 76,43

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda ushbu ish yerlarni bug’doy va takroriy ekinlarni ekish uchun tayyorlash hamda serkesak yerlarga ekish oldidan ishlov berish uchun ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan diskli borona g’altakmolasining kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta’minlovchi parametrlarini asoslashga yo’naltirilgan.

Adabiyotlar

1. GOST 20915-11. “Ispitaniya selskoxozyaystvennoy texniki. Metodi opredeleniya usloviy ispitaniy”. – Moskva: Standartinform, 2013. – 23 s.

2. O‘z DSt 3412:2019 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar”. – Toshkent, 2019. – 54 b.

3.To‘xtaqo‘ziev A., Ergashev M.M. Kombinatsiyalashgan diskli borona // O‘zbekiston Qishloq Xo‘jaligi.–Toshkent, 2017. –№8. – B. 29-30.

4. Ergashev M.M., Turdiyeva M.Yo. Kombinatsiyalashgan diskli borona tishli tekislagichining parametrlarini asoslash // AGRO ILM. –Toshkent, 2021. –№78.

AVTOMOBILSOZLIK SANOATI YANGI TEXNOLOGIK TARAQQIYOT DAVRI OSTONASIDA

Suvanqulov Sherali Abdumannonovich dotsenti (JizPI)
Kulmuradov Dilshod Istamovich dotsenti v.b., p.f.f.d., (JizPI)

Annotatsiya. Transport tarmog‘ining eng ommabop va har kuni foydalaniladigan eng arzon turi bo‘lgan avtomobil transporti hozirgi kunda ham anchagina rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada avtomobil transportining vujudga kelish tarixi, rivojlanish istiqbollari, atrof-muhit ekologyaga yetkazayotgan zararli ta’siri, mamlakatimizda ushbu transport tizimini rivojlantirish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va chora tadbirlar haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mashinasozlik, texnika, sanoat, BYD, gibrid, avtomobil, avtomobilsozlik.

Mashinasozlik sanoati -xalq xo‘jaligi uchun mehnat qurollari, shuningdek, iste’mol buyumlari va mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og‘ir sanoat sohalari majmui. Mashinasozlik sanoati butun xalqxo‘jaligini texnika bilan ta’minlashda moddiy asos hisoblanadi, ijtimoiy mehnat unumdorligi, texnika progressi, xalqning moddiy farovonligi va mamlakatning mudofaa quvvati Mashinasozlik sanoatining taraqqiyot darajasiga bog‘liq. Mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi xalq xo‘jaligining hamma sohalarini yuqori unum bilan ishlaydigan mashina va asbob-uskunalar bilan ta’minlashdir. Bu soha o‘z navbatida, mashinasozlik va metallga ishlov berish, metall buyumlar, metall konstruksiyalar ishlab chiqarish hamda mashina va asbob-uskunalarni tuzatish tarmoqlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Mashinasozlik sanoatiga energetika mashinasozligi, elektrotexnika, stanoksozlik va as-bobsozlik, traktorsozlik va q. h. mashinasozligi kabi yirik tarmoqlar kiradi.

Bugun, O‘zbekiston avtomobilsozligi xalqaro maydonda o‘z mavqeyiga ega bo‘lish yo‘lida odimlayotgani, hali oldinda katta marralar borligidan dalolat. Tan olish kerak, muhandislarimizning ilmiy salohiyatini yuksaltirish hamda sohaga oid texnikalarni yanada rivojlantirishni bugungi davr taqozo etmoqda. Masalan, Janubiy

Koreyada har yili talabalarning 50 foizi muhandislik sohasida tahsil oladi va ularning avtomobilsozlik sohasi hamda iqtisodiyotning yuksalishida erishgan yutuqlaridan barchamiz xabardormiz. [1.56-bet].

Toshkentda jahon avtomobil bozorida yetakchilaridan biri BYD kompaniyasining DM-i super gibrid modellari va elektromobillarining taqdimoti boʻlib oʻtdi. Masalan, 2022 yilda dunyoda sotilgan har oʻninchi yengil avtomobil elektromobil hisoblanadi. Ahamiyatli jihati ular — faqat ilgʻor mamlakatlarda ishlab chiqarilmoqda. Oʻzbekiston avtomobil sanoati texnologik taraqqiyotning yangi davri arafasida turgani, endilikda eng koʻp sotiladigan NEV avtomobillari Oʻzbekiston bozoridan oʻrin olishiga zamin yaratadi.

Butun dunyo innovatsion yechimlar izlayotgan bir paytda Oʻzbekiston ilgʻor texnologiyalarni oʻzlashtirgan qator davlatlar qatoriga qoʻshilish yoʻlidan ishonch bilan bormoqda. Kelajak avlodni oʻylagan holda, Oʻzbekiston energiyada ishlovchi, zamonaviy avtomobillarni ishlab chiqarish boʻyicha kamida 10 yil oldinga chiqish imkonini beruvchi yangi davr ostonasida turmoqda. Bu Oʻzbekistonni MDHda birinchi va dunyoda 14 mamlakatga aylantirishda barcha imkoniyatlar mavjud ekanligining yana bir isboti.

“Avtomobilsozlik — fan va texnika taraqqiyotini oʻzida mujassam etgan jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan sanaladi. Ushbu yoʻnalish rivojlangan davlatlarda yetakchi, multiplikativ soha sifatida metallurgiya, neft-gaz va kimyo sanoati, elektrotexnika hamda boshqa turdosh sohalarda bitta ish oʻrnida 7−8 ta ish oʻrni yaratishga majbur qiladi. Ayni jihatlarni anglagan holda, rivojlangan davlatlar orasida eng yuqori pogʻonalarni egallash hamda ular darajasiga yetish uchun biz yangi milliy texnologiyalarni tadbiq etamiz, ilmiy salohiyatni yuksaltiramiz va yaratamiz.”

Bugun, Oʻzbekiston avtomobilsozligi xalqaro maydonda oʻz mavqeyiga ega boʻlish yoʻlida odimlayotgani, hali oldinda katta marralar borligidan dalolat. Oʻzbekiston muhandislarining ilmiy salohiyatini yuksaltirish hamda sohaga oid texnikalarni yanada rivojlantirishni bugungi davr taqozo etmoqda.

«Oʻzbekiston bozoriga muvaffaqiyatli kirib borish biz uchun ham ilmiy ham texnologik hamkorlikning yangi istiqbollarini ochadi. BYD va UzAuto oʻrtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish orqali ilmiy-texnik va innovatsion yoʻnalishlarda jipslashtirish mumkin. Bunda asosiy maqsad ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirishda koʻp tomonlama sheriklikni birgalikda mustahkamlashdan iborat boʻlib, bu, shubhasiz, Oʻzbekiston manfaatiga xizmat qiladi», — deya ta’kidladi BYD Auto So., Ltd. boshqaruvi raisi oʻrinbosari Ivan Sao.

Oʻzbekistonda yangi energiya manbalari asosida ishlaydigan avtomobillar bu nafaqat tejamkor va ekologik toza transport vositasidir, bu:

1. Yuqori muhandislik salohiyatiga ega lider mamlakatlar orasiga kirib borish, ilm-fan va ishlab chiqarish sohasida imkoniyatlarni yaratish hamda kengaytirish, umuman olganda, barcha sohalarda oldinga qadam tashlash imkoniyatini taqdim etuvchi texnologiyalardir.

2. O‘zbekistonda ilgari qo‘llanilmagan yangi yuqori texnologiyalarning rivojlanishi. Bu arzon xomashyodan million dollarlik mahsulotlar, hususan, akkumulyatorlar, elektrodvigatellar, elektron bloklar, mikrochiplar yaratish shuningdek, materiallarga ishlov berish, xomashyoni qayta ishlashni tashkil etish.

3. O‘zbekistonda muhandislik, mahsulot dizayni, avtomobillarni iqlim va yo‘l sharoitlariga moslashtirish, sinov laboratoriyalarni yaratish, zamonaviy standartlarni o‘rganish va joriy etish, elektroenergetika — sanoat hamda ilm-fan integratsiyasi kabi ilmga asoslangan yo‘nalishlarda fan va mutaxassislar salohiyatini oshirishdir.

4. Aqlli avtomobillar hamda robotlashtirilgan ishlab chiqarish uskunalari uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, shuningdek, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va markazlashtirilgan ma’lumotlar markazlarini yaratishga qodir bo‘lgan — IT-sohasida yuqori toifali yangi avlod mutaxassislarning yetishib chiqishidir. [3.34-bet].

5. Ilmga asoslangan texnologiyalarni qo‘llagan holda, yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etishdir. Dunyo ilg‘or tajribalarini O‘zbekiston amaliyotiga tadbiq etilishi, mamlakat uchun aqlli datchiklar, sun’iy intellekt, yangi avlod axborot tenologiyalari (IoT), sanoat dizayni, muhandislik loyihalash kabi yonalishlarda yangi bilimlarni olish va ilm-fanni rivojlantirishda rag‘bat beruvchi kerakli sharoitlarni yaratadi.

6. Yoqilg‘i taqchilligi va ekologik muammolar davrida energiya resurslarini tejashning navbatdagi qadamdir — elektr transport vositalarini quvvatlantirish stansiyalari uchun rivojlangan infratuzilma transport xarajatlarini kamaytirishga olib keladi. [2.71-bet].

Yangi transport turini ishlab chiqarishga o‘tish — kelajakka nazar solishni anglatadi. Kelajakda iqtisodiy rivojlangan, intellektual salohiyatga ega va raqobatbardosh davlatda nafaqat transport vositasiga ega bo‘lgan fuqarolarni ko‘paytirish, balki ko‘plab hali mavhum hamda kashf etilmagan yangiliklarni yaratuvchi ijodkor va olimlarni shakllantirish yo‘lidagi say’-harakatlarni davom ettishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кулмурадов Д.И., Перспективы внедрения инновационных технологии надземных транспортных средств: - Хотин-қизларнинг фан, таълим, маданият ва инновацион технологияларни ривожлантириш соҳасидаги ютуқлари мавзуидаги Халқаро илмий-амалий анжуман (2019

йил 17-18 май) I-TOM.

2. Адилов О.К, Кулмурадов Д.И, Адилов Ж.А, Абдурахманов М., Обеспечение экологической безопасности автотранспортных средств: - Актуальные научные исследования в современном. (71-73) 2019 г.

3. Kulmuradov D.I. The role of automated design systems (CAD/CAE/CAM) in modern production: - Innovative solutions to technical, engineering and technological problems of production (October 29-30, 2021)

INTERNET MA'LUMOTLAR:

4. www.kun.uz
5. www.gazeta.uz

SHAHAR YO'LLARINING O'TKAZISHINI ANIQLASH

Tojiyev Jamshid Zokir o'g'li, assistant (JizPI)

Annotatsiya. Maqolada avtomobil yo'llarining transport va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rnatish uchun avtomobil yo'lining imkoniyatlarini aniqlash muhokama qilinadi. Transport va ekspluatatsiya xususiyatlari aniqlanadigan ko'rsatkichlar taqdim etiladi va yo'lning o'tkazuvchanligiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar ham aniqlanadi. O'tkazuvchanlik doimiy emasligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: avtomobil yo'li, sig'im, ta'sir zonasi, chiziqli grafik, tezlik chegarasi, harakatni tartibga solish.

Avtomobil yo'llari O'zbekiston umumiy transport tizimining eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Avtomobil yo'llarisiz xalq xo'jaligining turli tarmoqlarining faoliyat yuritishi mumkin emas.

Yo'l harakati intensivligining ortishi, ayniqsa og'ir avtomobillar, avtopoezdlar va boshqa transport vositalarining ulushi yo'llarda transport vositalarining ishonchlilik darajasini oshirishga olib keldi. Ushbu harakatning natijasi - yo'l ishlarini ta'mirlash va tiklashga bo'lgan ehtiyoj va ularning hajmini oshishiga olib keladi.

Yo'llarning ishlashini tavsiflovchi muhim mezon ularning o'tkazuvchanligi hisoblanadi. O'tkazish qobiliyatining eng oddiy ta'rifi - bu vaqt birligida yo'lning bir qismi bo'ylab maksimal o'tishi mumkin bo'lgan avtomobillar soni.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, avtoulovlarning harakatini ko'rib chiqish va mumkin bo'lgan oqim intensivligi chegaralarini baholashda biz nafaqat ularni, balki HAYM ("haydovchi-avtomobil-yo'l-muhit")ning butun majmuasini ham tavsiflaymiz. Buni transport vositasi va haydovchining xususiyatlari parametrlar kabi o'tkazish qobiliyatiga bir xil ta'sir qilishi mumkinligi bilan izohlash mumkin. Atrof-muhit holati haqiqiy o'tkazish qiymatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oʻtkazuvchanlik, ayniqsa yomgʻir, tuman, qor yogʻishi va muzda pasayadi.

Yoʻl oʻtkazuvchanligini aniqlash tirbandlik yuzaga kelishi mumkin boʻlgan hududlarni aniqlash, transport vositalarining samaradorligi va yoʻl holatini baholash, shuningdek, barcha yoʻl harakati qatnashchilari uchun yoʻl holatini yaxshilash usullari va vositalarini tanlash uchun amalga oshirilishi kerak.

Avtomobil yoʻllarining yuqori transport va ekspluatatsion sifatlarini va ularda harakat xavfsizligini ta'minlash yoʻl tashkilotlarining ustuvor vazifasi sifatida qaralishi kerak [1-8].

Avtomobil yoʻllarining transport va ekspluatatsion xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tashish tannarxlari va tezliklari;
- yoʻlda harakat xavfsizligi va qulayligi;
- oʻtkazish qobiliyati;
- yuk darajasi.

Avtomobil yoʻllari, shahar koʻchalari va yoʻl inshootlarining asosiy transport va ekspluatatsion koʻrsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ta'minlangan tezlik va oʻtkazish qobiliyati;

– harakatning uzluksizligi, qulayligi va xavfsizligi;

- belgilangan standart oʻq yuki va umumiy ogʻirligi bilan barcha turdagi transport vositalaridan oʻtish qobiliyati.

Yoʻlning oʻtkazuvchanligi deganda yoʻl vaqt birligida oʻtishi mumkin boʻlgan eng koʻp transport vositalarini bildiradi. Oʻtkazish hajmi quyidagilarga bogʻliq:

- harakat boʻlaklari soni;
- transport vositalarining harakat tezligi;
- yoʻl qoplamasining holati.

Yoʻlning butun uzunligi boʻylab sigʻimi doimiy emas. Har xil sharoitlarga qarab oʻtkazuvchanlik farq qilishi mumkin:

- xarakterli murakkab hududlar;

– yoʻl rejasi va profilining normativlarga mos kelmaydigan parametrlari;

- yoʻl qoplamasining holati;
- yil davomida qiyin ob-havo sharoiti;
- Oqimdagi turli xil transport vositalari.

Magistral yoʻlning kesma va geometrik elementlarini loyihalash yoki rekonstruksiya qilishda oʻtkazuvchanlik muhim koʻrsatkichdir.

Agar kerak boʻlsa, bir nechta oʻtkazuvchanlik imkoniyatlarini aniqlash mumkin: butun yoʻl, bir qator, muayyan transport sharoitida. Hisob-kitoblarni soddalashtirish uchun bir hil transport oqimlari dastlabki ma'lumotlar sifatida koʻrib chiqilishi kerak (ustunlar harakati), ya'ni. bir qatorning oʻtkazuvchanligi.

Adabiyotda siz oʻtkazuvchanlik tushunchasining turli xil modifikatsiyalarini

topishingiz mumkin:

- nazariy o‘tkazish qobiliyati;
- nominal o‘tkazish qobiliyati;
- normal o‘tkazish qobiliyati;
- samarali o‘tkazish qobiliyati;
- o‘z o‘tkazish qobiliyati;
- amaliy o‘tkazish qobiliyati;
- haqiqiy o‘tkazuvchanlik va boshqalar.

Bunday xilma-xil atamalar tasodifiy emas. U ushbu mezonni aniqlashning turli yondashuvlarini, shuningdek, real transport sharoitida o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichiga ta'sir qiluvchi ko‘plab omillarni aks ettiradi. Shu sababli, hisobga olingan omillar soniga va ularning har birining ta'sirini baholashning to‘g‘riligiga qarab, o‘tkazish qobiliyati juda katta farq qilishi mumkin.

O‘tkazish qobiliyatini hisoblash iqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslanishi kerak va "minimal joriy xarajatlar" tushunchasidan foydalanish mumkin. Yo‘lning harakat qobiliyatini hisoblash usuli uni kamaytiradigan koeffitsientlardan foydalanishga asoslangan. Haqiqiy yo‘l sharoitlarini hisobga olishga bunday yondashuv amaliy ishda juda foydali [1, 2].

O‘tkazish qobiliyatini kamaytirishning yakuniy koeffitsientining qiymati formula bilan aniqlanadi [1, 2, 3, 4].

$$\beta_n = \beta_1 \cdot \beta_2 \cdot \ldots \cdot \beta_{15}\ , \qquad (4)$$

Bu yerda β_1, β_1, ... β_{15} – yo‘lning alohida elementlariga bog‘liq bo‘lgan yo‘lning mos yozuvlar qismiga nisbatan quvvatni qisqartirishning qisman koeffitsientlari.

Yo‘l o‘tkazuvchanligini tartibga solish masalasini e'tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Imkoniyatlarni tartibga solishning oddiy usuli - bu transport vositalarining tezligini tartibga solish.

transport samaradorligini, xavfsizligini va o‘tkazuvchanligini oshirishga yordam beradi, ularning taxminiy tezligi qiyin uchastkalarda IV toifadagi yo‘llar uchun 30 km / soat dan, tog‘li hududlardagi yo‘llar uchun va tekis joylarda I toifadagi yo‘llar uchun 150 km / soatgacha [2, 3].

Haqiqiy sharoitda yo‘lning turli uchastkalarida kutilganidan past bo‘lgan yagona avtomobillar va transport oqimlarining tezligi notekis ravishda o‘zgaradi. O‘rtacha, transport oqimining tezligi transport vositalarining hisoblangan yoki maksimal belgilangan tezligidan 0,6-0,8 ni tashkil qiladi.

Yo‘lning uzunligi bo‘ylab tezlikni oshirish va tenglashtirishga yo‘l sirtining silliqligi va yopishishini yaxshilash, belgilarni qo‘llash, yo‘l qismini kengaytirish, yo‘l chetini mustahkamlash, bo‘ylama qiyaliklarni yumshatish, rejadagi egri chiziqlar radiuslarini va ko‘rinishini oshirish orqali erishish mumkin. yo‘l,

shuningdek, yo‘l ishlari kompleksiga kiritilgan boshqa chora-tadbirlar .

Tezlik maksimal tezlikni cheklovchi yo‘l belgisi va cheklash sabablari to‘g‘risida ogohlantiruvchi belgini o‘rnatish orqali tartibga solinadi. Tezlikni sozlashda chegaralarni qat'iy oqlash kerak. Tezlikni pasaytirishdagi farq uzoq uchastkalarda 20 km/soat dan oshmasligi kerak, yo‘llarda esa minimal tezlik chegarasi 40 km/soat dan past bo‘lmasligi kerak, sirpanchiq, muzli va muzli joylarda ishlash hollari bundan mustasno. qor, shuningdek, ayniqsa xavfli hududlarda (masalan, maktab yaqinida). Bo‘limlar orasidagi masofa kamida 150-200 m bo‘lishi kerak, agar farq 20 km / soat dan ortiq bo‘lsa, tezlik ee 0,5 km / soat sekinlashmasdan tezlikni asta-sekin kamaytiradi. Cheklovlar faqat cheklovchi omilning davomiyligi uchun o‘rnatilishi kerak [2 – 4].

Imkoniyatlarni oshirish harakat tezligini cheklashni ham, oshirishni ham talab qilishi mumkin.

Quruq qoplama uchun eng yuqori o‘tkazuvchanlik 55 km / soat tezlikda kuzatiladi; nam qo‘pol yuzalar uchun - 50 km / soat; aralash prokat uchun - 35 - 40 km / soat, shuning uchun tezlik belgilangan darajadan past bo‘lgan joylarda o‘tkazuvchanlikni oshirish pozitsiyasidan yuqori harakat intensivligi davrida yuqori tezlikni ta'minlash choralarini ko‘rish kerak [2 – 4].

Shunday qilib, chiziqli grafikni qurish bilan avtomobil yo‘lining o‘tkazuvchanligini aniqlash transport va ekspluatatsion davlat yo‘llarining ob'ektiv tavsifini beradi. Shu sababli, yo‘llarning yuqori transport xususiyatlarini saqlab qolish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni asoslash uchun alohida elementlarning va butun yo‘l bo‘ylab o‘tish qobiliyatini hisoblashni amalga oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дрю Д.Р, Теория транспортных потоков и управление ими: Пер. с англ, Транспорт, Москва 1972.
2. Сильянов В.В. Транспортно-эксплуататsionные качества автомобильных дорог и городских улиц : учебник для студ. высш. учеб. заведений / В.В. Сильянов, Э.Р. Домке. – 3-е изд., стер. – М. : Издательский центр «Академия», 2009. – 352 с.
3. Пальчик А.Н, Неизвестная Н.В., Додух К.М., Пропускная способность автомобильных дорог. Автомобильные дороги и дорожное строительство, Вып. 2014/91, С. 42–47
4. Ashraf A. et al. Design of sub-arterial urban road using mxroad software //International Research Journal of Engineering and Technology (IRJET). – 2018. – Т. 5. – №. 05. – С. 2395-0056.
5. Gajjar R., Mohandas D. Critical assessment of road capacities on urban roads–a Mumbai case-study //Transportation Research Procedia. – 2016. – Т. 17. –

C. 685-692.

6. Elangovan K. et al. Traffic Planning and Major Intersection Re-design of an Existing Four-Armed Intersection at DB road, Coimbatore, India //International Journal of Applied Engineering Research. – 2021. – T. 16. – №. 5. – C. 423-440.

7. Marfani S. et al. Traffic Improvement for Urban Road Intersection, Surat //Traffic. – 2018. – T. 5. – №. 03. – C. 2966-2970.

8. Sharma V. K., Mondal S., Gupta A. Analysis of u-turning behaviour of vehicles at mid-block median opening in six lane urban road: A case study //International Journal for Traffic & Transport Engineering. – 2017. – T. 7. – №. 2.

SHAHAR TASHQARISI HAMDA MARKAZINI TRANSPORT BILAN TA'MINLASH VA MARKAZIY MAGISTRALLAR HUDUDLARINI LANDSHAFT TASHKIL ETISH.

Sharipov Baxodir Xolboyevich, o'qituvchi,(TDMAU)

Annotatsiya: Tashqi transport oqimi. Shahar markazini ommaviy yo'lovchi transporti bilan ta'minlash. Savdo va sport komplekslarini transport bilan ta'minlash. Temir yo'llar yuklarining hajmi, poezdlar soni va yo'llarning ahamiyati. Aerovokzal-yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish majmuasi. Shahar markazlarining magistrallari yaqinidagi hududlarni landshaft tashkil etish.

Kalit so'zlar: transport, yo'lovchi, shahar, tuman, landshaft, hudud, majmua, magistral, markaz.

Tashqi transport qismi tez rivojlanib borayotgan jahon transporti murakkab va o'ziga xos tarmoqlar tizimini tashkil qiladi. Havo transporti, - samolyot, vertolyot, quruqlik transporti - temir yo'l, avtomobil, quvur, suv transporti - dengiz va daryo kiradi.

Markazni transport bilan ta'minlash. Shaharning markaziy tumanida ko'pgina muassasalar: Savdo tashkilotlari ma'muriy binolar va boshqa ommaviy tashrif ob'ektlari joylashtiriladi. Shuning uchun shaharning markaziga qatnov, shaharning boshqa rayonlariga qaraganda yuqori bo'ladi.

Markazni transport bilan ta'minlash:

-shahar magistrallari tizimi shahar markazidan transport tranzit oqimlarini chetga olish lozim;

-ommaviy yo'lovchi transporti tarmoqlari boshqa tumanlarga qaraganda yuqori bo'lishi lozim;

-markaziy qism avtomobil to'xtash joylari bilan ta'minlanishi zarur.

To‘xtash joylaridan kerakli joygacha ommaviy yo‘lovchi transportida boriladi. Shaharning barcha rayonlaridan markazgacha ommaviy yo‘lovchi transportida borish 30-45 minutdan oshmasligi lozim. Ommaviy qatnov ob’ektlari transport bilan ta’minlanishi zarur.





Ma’muriy, savdo va sport komplekslarini transport bilan ta’minlash. Ular asosiy magistrallarda joshlashtirilishi, zarur majmualardan transportlargacha qulay piyoda yo‘llari bo‘lishi lozim. To‘xtash joylari 300 m dan oshmasligi kerak. Savdo tashkilotlari uchun alohida kirish, tovarni olib kelish va tushirish maydonchalari, platformalar, yer ostki maydonchalar joylashtiriladi.

Sport va ko‘rgazma majmualari odatda metro bekatlaridan chetroqda bo‘ladi. Shuning uchun ba’zi hollarda kelib-ketish ta’minlanadi. Keluvchilarni bir necha chiqish joylariga yoyish zarur, bunday hollarda ichki transportdan foydalaniladi. Mehmonxonalar markaz bilan yaqin bog‘lanishi kerak. To‘xtash joylari kelib ketuvchilar uchun alohida, xizmatchilar va xo‘jalik ehtiyojlar uchun alohida beriladi. Shaharning markaziy qismida shaharning passajirlar oqimi va qimmatli yerlari eng ko‘p to‘plangan markaziy qismdagi vokzal, port, bozorlarda to‘xtash joylariga alohida e’tibor berish kerak.

Havo transporti. Aeroportlar passajirlarni tashish soniga va uchishning intensivligiga asosan 5 ta texnik kategoriyaga bo‘linadi.

-Bir kunda 100 tadan ortiq uchish yoki bir yilda 4 milliondan ortiq yo‘lovchi tashilsa -sinfdan tashqari aeroport.

-Bir kunda 50-100 marotaba uchish va yiliga 2-4 million yo‘lovchi bo‘lsa -1 sinf aeroporti.



Aeroport majmuasiga quyidagilar kiradi: Aerodrom-samolyotlar uchish va qo‘nish maydoni; Aerovokzal-yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish majmuasi; uchishni tashkil qilishda texnik xizmat va samolyotlarga xizmat ko‘rsatish. Aerodrom-uchish maydoni, uchish va qo‘nish yo‘lagi (1-5 km), qayrilish yo‘laklari, samolyotlar to‘xtash joylari. VPP **(UQM)** soni: sinfdan tashqari 2ta asosiy, 1ta yordamchi, qolganlari 1 ta asosiy, 1 ta yordamchi.

Aerodromlar aholi punktlaridan tashqarida joylashtiriladi, sinfdan tashqarilari ularning chegarasidan kamida 30 km. Sanitar himoya chiziqlari qurilmalarigacha – 5 km, uylargacha 30 km. Shahar tomonga uchish va qo‘nish bo‘lmasligi kerak, uchish va qo‘nish yo‘nalishlari bo‘yicha koridorlar har bir tomondan 2 km, uzunligi 30 km.

Ushbu koridorga to‘g‘ri kelib qolgan qurilmalar maxsus qoidaga bo‘ysunadi. (400m gacha har qanday qurilish man etiladi, ularning balandligi chegaralanadi) aeroportlarni joylashuvidagi asosiy vazifani aholini shovqindan va noqulay ta’sirlardan himoyalash va vaqtni tejash. Vertolyotlar bilan tashish qimmat, shovqin-suroni ko‘p, alohida maydon ajratilishi lozim bo‘lgani uchun ko‘p tarqalmagan.

Temir yo‘l transporti. Temir yo‘llar yuklarining hajmi, poezdlar soni va yo‘llarning ahamiyatiga qarab 4 kategoriyaga bo‘linadi. Hisobiy tezlik 120 dan 500 km/soatgacha. Ajratish yo‘lagi temir yo‘l yoqasi bo‘ylab eni 50 m bo‘lgan, boshqa tashkilotlar joylashishi mumkin bo‘lmagan yo‘laklar ko‘kalamzorlashtiriladi yoki transport inshootlari uchun foydalaniladi.

Temir yo‘l stansiyalari: Raz’ezdlar (yo‘llar soni 1-2); Saralash stansiyalari-uzunligi 5,5 km, eni 0,9 km; Yuk tashuvchi (omborlar, kelish yo‘llari, yuklash qurilmalari); Yo‘lovchi; Sanoat (vagonlarni har bir korxonaga alohida bo‘lish);

Texnik stansiyalarning oralig‘i 30 km dan kam.



Qoidaga asosan bevosita shaharga yuk tashish bilan bog‘liq bo‘lmagan barcha stansiyalar shahar tashqarisida joylashtiriladi. Tranzit yuk oqimi olib o‘tilishi uchun aylanma yo‘llar quriladi. Yuk stansiyalari turar-joy qurilmalaridan chetroq joylashadi. Yo‘lovchi stansiyalar va to‘xtash punktlari ommaviy yo‘lovchi transporti tarmog‘i bilan bog‘lanishi lozim. Bu savollar shahar bosh tarxida hal qilinadi.

Avtomobil yo‘llari. Tashqi yo‘llarning muhimligi doim yuqori bo‘lgan. Avtomobil paydo bo‘lishi bilan yo‘llar birinchi darajali ahamiyat kasb etdilar. Avtomobilning konstruksiya va ekspluatatsiya sharoitlaridan kelib chiqib, yo‘l elementlarining texnik holatiga bo‘lgan talab paydo bo‘ldi. Hozirgi paytda yuqori texnik kategoriyali yo‘llar murakkab inshootlar qatorida sanaladi.

Aholi yashash punktlarini avtomobil yo‘llari kesib o‘tishi. Hozirgi vaqtda avtomobil yo‘llari aholi yashash punktlaridan o‘tayotib, transport oqimlarini o‘tkaza olmayotgan ko‘chalarga aylanmoqda.

1 va 2 kategoriyalarida avtomobil yo‘llari qurilmalar bo‘lmagan joydagina o‘tkazilishi mumkin, qurilmalar faqat bir tomonlama harakat qismi chetidan kamida 200 m uzoqlikda bo‘lishi mumkin. Yo‘l va qurilmalar orasidagi yo‘lak qishloq xo‘jalik texnik ekinlarini ekishga ishlatiladi.





Avtomobil yo‘llarning shaharga yondoshishi mumkin bo‘lgan sxemalar:

-avtomobil yo‘li aylanma yo‘lga yondoshadi;

-avtomobil yo‘li shahar ichiga kiritiladi va markaz yadrosiga urinma qilib o‘tkaziladi. Bunday holda u to‘xtovsiz harakatdagi magistral ko‘chalar me’yorlari bo‘yicha quriladi.

Avtomobil yo‘llar shahar tashqi qismidan o‘tkaziladi va u bilan 2 ta yo‘l orqali birlashtiriladi. Yondoshuv sxemalar aholi punkti kattaligi, harakat intensivligi va tranzit kattaligiga bog‘liq. Texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari, benzin kolonkalari shaharning chekka qismlarida joylashtiriladi, avtovokzallar shahar yo‘lovchi transportlari bilan yaxshi ta’minlanishi lozim.

Shahar markazlarining magistrallari yaqinidagi hududlarni landshaft tashkil etish. Shahar markazlarining magistrallari yaqinidagi hududlarni piyodalar uchun ajratilgan ochiq maydonlar orasidagi ko‘k himoya mintaqalarini ko‘zda tutish zarur. Magistralni landshaft tashkil etish uning eniga va transportning harakatlanish jadalligiga bog‘liq. Markazdagi magistral yaqinidagi hududlardan foydalanish tavsifiga ularni ko‘kalamzorlashtirish maqsadlari va uslublariga bog‘liq bo‘ladi.



Issiq iqlimli tumanlarda mikro muhitli va sanitariya gigiyenik rejimni optimallashtirish uchun ko‘kalamzorlashtirishni va landshaft elementlarini rejali va fazoviy tashkil etish tamoyillariga amal qilish zarur. Bunda magistralni mo‘ljallashni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Magistralni meridional orientatsiyalashda – qurilishdan janub tomondan, soyada qoladigan, maydonlarning ochiq qoladiganlarga qaraganda nisbati kamida 60:40 % ni tashkil etishi kerak.

Kenglikni oriyentatsiyalashda – 70:30 % nisbatda bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Aralash, diagonal oriyentatsiyada – 50:50 % nisbatda bo‘lish kerak.

Yo‘llarning keng ochiq fazolarida magistralning bosh o‘qida bulvarlar ko‘zda tutilishi kerak, u yerda hududning ayrim uchastkalaridan foydalanish tavsifiga ko‘ra funksional zonalashni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Prinsipial va loyiha modellarida janubiy va g‘arbiy orientatsiyada soyalanishni talab qiluvchi zonalar aks ettirilgan. Bunda ochiq va soyalanuvchi maydonlarning umumiy nisbati kun mobaynida hududlardan jadal foydalanishda insolirlangan va soyalashtirilgan fazolarning 50x50 % nisbati kattaligiga mos bo‘lishi kerak. Loyiha modellari shuningdek aytib o‘tilgan nisbatlarni va yuqori o‘simliklar landshaftining boshqa elementlariga va ochiq fazolariga nisbatan rejali joylashtirishni aks ettiradi.

Xulosa. Tashqi transport oqimi. Shahar markazini ommaviy yo‘lovchi transporti bilan ta’minlash. Jamiyatda urbanizatsiya darajasining o‘sishi, yangi shaharlar barpo etilishi, mavjud hamda tarixiy shaharlar rekonstruksiyasi, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish masalalarini hal etish borasida, iqlim o‘zgarishi va ruhiy va jismoniy salomatlik muammolarini bartaraf etish borasida kurashishda davom etar ekan, Shahar markazini va tashqarisini ommaviy yo‘lovchi transporti hamda yuk transporti bilan ta’minlash va tartibga solish, ushbu muammolar bilan kurashish uchun asosiy o‘rinda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Uralov A.S, Adilova L.A.“Landshaft arxitekturasi”,295-bet.2014.

2.Isamuhammedova D.U, Axmedov M.K, Talipov M.A.“Shaxarsozlik”,2019.

3. ЭБ Эшқуватов, БХ Шарипов “Аэродромларни лойиҳалаш, қуриш ва эксплуатация қилиш” "Innovatsiya-Ziyo" 1, 432 бет. 2023.
4. Шарипов Б.Х. (2020). Из истории древнего градостроительства и архитектуры средней азии. Экономика и социум, (10 (77)), 915-919.
5.Tulkinovich, A. E., & Kholboevich, S. B. (2021). In the network of roads application of the intelligent transport system. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(9), 415-418. Publisher Site | Google Scholar

YUK AVTOMOBILLAR HARAKAT XAVFSIZLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TORMOZLANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Shokirov Ozod G‘aybulla o‘g‘li, doktorant (TDTU)

Hozirgi kunda transport infratuzilmasi rivojlanib borayorganligi sababli, jamoat, shaxsiy va ayniqsa, yuk tashuvchi transport vositalari o‘rtasida YTH toborko‘payib bormoqda. Avtomobillarning xavfsizlik bilan ta’minlangan barcha afzallik va qulayliklarni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun transport vositalarini xavfsiz boshqarishning eng muhim sharti bu - to‘xtash qobiliyati ya’ni ishonchli tormoz tizimi bilan ta’minlash zarur. Avtomobil transportida ishlatiladigan tormoz tizimlari haydovchi, yo‘lovchilar, tashilgan yuk va transport vositasining o‘zi xavfsizligini ta’minlashning eng muhim quyi tizimidir. An'anaviy (mexanik) tormoz tizimlari, juda samarali bo‘lsa ham, ayniqsa favqulodda vaziyatlarda samaradorlik darjasi pastroq. Ulardan biri tormozlash samaradorligining haydovchi tajribasiga bog‘liqligi. Shunday qilib, buning yo‘qligida bir vaqtning o‘zida harakat traektoriyasini, yo‘ldagi jismlarni, tezlikni va g‘ildiraklarning holatini kuzatish juda qiyin vazifa bo‘lib tuyuladi. Agar to‘satdan favqulodda vaziyat yuzaga kelsa, haydovchi qo‘rqib ketishi va tormoz pedalini to‘liq bosib qo‘yishi mumkin, bu esa o‘z navbatida maksimal tormozlash kuchini g‘ildirakka o‘tkazishga olib keladi va katta ehtimollik bilan uni to‘sib qo‘yadi. Hodisalarning bunday rivojlanishi vaziyatni yanada murakkablashtiradi, bu ayniqsa yuqori inertsiyaga ega bo‘lgan transport vositalarida ya’ni yuk avtomobillari uchun. Mexanik tormozlarning keyingi muammosi ularning ishqalanish materiallaridan cheklangan foydalanishidir. Masalan, pnevmatik tormoz tizimlari gidravliklarga qaraganda ko‘proq bosish kuchi bilan samarali tormozlashni ta’minlaydi [1], ammo ularning vaqti gidravlik tizimlarga qaraganda past.

Ushbu muammoni hal qilish elektron boshqaruv blokini ishlab chiqish bo‘lishi mumkin [2], u uzatish muhitini - havodan elektronga almashtirish orqali

javob vaqtini sezilarli darajada tezlashtiradi. Bunda signal uzatish tezligi ancha yuqori.

Texnologik taraqqiyotning tez o‘zgarishi tormoz tizimining samaradorligini oshirish va xavfli vaziyatlar xavfini kamaytirish uchun mo‘ljallangan intellektual tizimlarning rivojlanishiga olib keldi.

Yaratilgan tizim tormoz kameralarida bosim, g‘ildirak tezligi, tormoz prokladkalarining eskirish darajasi, 10 km/soat dan yuqori tezlikda tormozlash jarayonlarini nazorat qiladi. O‘z-o‘zini diagnostika qilish amalga oshiriladi va agar kuzatilgan parametrlarning talab qilinadigan qiymatlaridan og‘ishlar aniqlansa, tizim tormozlash jarayonini boshqarishni to‘liq haydovchiga o‘tkazadi. CAN-Control Area Network ya’ni boshqaruv hudud tarmo‘g‘i “aqlli” kirish/chiqish qurilmalari, sensorlar va ba’zi mexanizmlardan tashkil topgan tizim hisoblanadi. CAN orqali elektron tormoz tizimining boshqaruv bloki va asboblar paneli boshqaruv bloki bilan aloqa qiladi.

O‘z funksiyalarini bajarish uchun tizim quyidagilarni ta’minlashi kerak:

1 Tashqi g‘ildirak tezligi sensorlaridan kirish signallarini qabul qilish va qayta ishlash.

2 O‘rnatilgan bosim sensorlari yordamida pnevmatik kanallarda bosimni o‘lchash.

3 Elektr zanjirini yopish uchun ishlaydigan tashqi tormoz padining eskirish datchiklaridan signallarni qabul qilish va qayta ishlash;

4 Elektromagnit klapanlarning sariqlariga to‘rtburchaklar impulslar shaklida nazorat harakatlarini berish.

5 SAE J1939 standartiga muvofiq CAN interfeys shinasi orqali ma’lumotlarni chiqarish va qabul qilish.

6 O‘rnatilgan solenoid klapanlar yordamida ulangan tormoz kameralarida bosimni nazorat qilish.

7 Uzluksiz monitoring rejimida tizim elementlarini diagnostikasi.

8 Elektr ta’minoti davrlarida o‘tkaziladigan shovqinlarga qarshilik va polaritning o‘zgarishi.

Ushbu funksiyalarni amalga oshirish uchun 1-rasmda ko‘rsatilgan o‘qni tormozlashni boshqarish tizimining blok diagrammasi ishlab chiqilgan.



1-rasm. Tizimning elektron sxemasi

Tizimni ishga tushirish va o‘z-o‘zini diagnostika qilish jarayoni quyidagicha ta’riflanishi mumkin: haydovchi tomonidan kontaktni kalitini aylantirish tizimga 24V kuchlanish kuchlanishini beradi;

-tizim tomonidan iste'mol qilinadigan quvvatni kamaytirish uchun aylantirilgan kuchlanish boshqaruv blokiga etkazib beriladi va tizimni ishga tushirish boshlanadi;

- datchiklar va boshqariladigan qurilmalar diagnostikasi amalga oshiriladi;

- nosozliklar aniqlanganda, tizim endi o‘z funktsiyalarini bajara olmaydi, boshqaruvni to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydovchiga o‘tkazish rejimiga o‘tadi - u “orqali va orqali” ishlaydi va CAN avtobusi yoki displey yordamida nosozliklar mavjudligi haqida xabar beradi [3]. Agar o‘z-o‘zini tashxis qo‘yish muvaffaqiyatli bo‘lsa, boshqaruv bloki tizimni ish rejimiga o‘tkazadi va avtomobil harakatlanishini kutadi. Ishlash rejimida, belgilangan funktsiyalarni to‘g‘ri bajarish qobiliyatini tekshirish uchun vaqti-vaqti bilan barcha tizim komponentlarini takroriy diagnostika qilish amalga oshiriladi.

Boshqaruv bloki g‘ildirak tezligi sensorlaridan (WRS) keladigan signalni qayta ishlash orqali, shuningdek asboblar paneli boshqaruv blokidan va kerak bo‘lganda dvigateldan CAN avtobusi orqali avtomobil tezligi haqida ma’lumot oladi. Haydovchi soatiga 10 km dan oshganda, tizim tormozlashda haydovchiga faol yordam bera boshlaydi. 2-rasmda Ishqalanish koeffitsienti μ ning g‘ildirak sirpanishiga bog‘liqlik *grafigi ko‘rsatilgan.*



2-rasm. Ishqalanish koeffitsientining g‘ildirak sirpanishiga bog‘liqligi grafigi

Agar $\lambda = 0\%$ bo‘lsa, g‘ildiraklar ularga yo‘lning ishqalanish qarshiligining ta’sirisiz erkin aylanadi. Sirpanish koeffitsienti $\lambda = 100\%$ g‘ildirakning qulflangan holatga o‘tgandagi sirpanishiga (surushiga) to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, tormozlash paytida avtomobilning tormozlash samaradorligi, barqarorligi va boshqarilishi sezilarli darajada kamayadi [4].

Ko‘pgina yo‘l sirtlari uchun λ qiymatlari 10 dan 30% gacha, μ maksimal qiymatiga etadi, bu sizga tormozlash samaradorligi va g‘ildirakni qulflash o‘rtasidagi optimal muvozanatni saqlashga imkon beradi. Favqulodda tormozlash vaqtida tormoz pedalidagi sezilarli kuch g‘ildiraklarning qulflanishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, shinalarning yo‘l yuzasiga ishqalanish kuchi keskin zaiflashadi va haydovchi vaqti-vaqti bilan tormoz pedalini bo‘shatmasa, mashina boshqaruvini yo‘qotadi.

Boshqaruv bloki g‘ildirak tezligini o‘lchaydi, avtomobilning haqiqiy tezligini hisoblaydi, g‘ildirak sirpanishini hisoblaydi, g‘ildirak sirpanishi ortishi bilan mos keladigan tormoz bosimini cheklaydi yoki kamaytiradi va tormozlash jarayonini muvofiqlashtirish va qo‘shimcha ma’lumot olish uchun elektron tormoz tizimining boshqaruv bloki bilan bog‘lanadi, shu jumladan avtomobilning tezlashishi haqida.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, olib borilgan eksperiment tadqoqot ishida ko‘rib chiqilgan strukturaviy diagramma asosida uning elektr funktsional diagrammasi ishlab chiqildi, funktsional birliklarni tanlash amalga oshirildi [5] va elektr sxemasi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.ДрайвНН [Электронный ресурс].Режим доступа: https://www.drivenn.ru/journal/novosti/3-prichiny-pochemu-na-gruzovikah-

tormoza- pnevmaticheskie-a-ne-gidravlicheskie-id31600. Дата доступа: 10.12.2023
2. Драйв ру [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.drive.ru/technic/4efb331400f11713001e38cb.html. Дата доступа: 10.12.2023
3. Shokirov O. G‘. (2023). Haydovchiga yordamchi innovatsion tizimlar uchun bosh harakati bilan ko‘z imoishoralarini tahlil qilish. MEXANIKA VA TEXNOLOGIYA ILMIY JURNALI, MAXSUS SON 2023, № 2 (5). 131-138. ttps://api.scienceweb.uz
4. O.G‘.Shokirov(2023). TO‘QNASHUVNING OLDINI OLISH UCHUN HAYDOVCHIGA INTELLEKTUAL O‘LCHOV ASBOBLARI BILAN YORDAM BERISH TIZIMI. 595-598. Sanoat va mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar” respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, I qism. https://www.academia.edu/113956308.
5. Shokirov O. G‘. (2023). Shahar aholisi o‘rtasidagi haydovchilarga yordam berish tizimini (ADAS) qo‘llash orqali yo‘l-transport hodisalarining oldini olish. MEXANIKA VA TEXNOLOGIYA ILMIY JURNALI, MAXSUS SON 2023, № 2 (5). 138-145. https://api.scienceweb.uz

QOZIQLI BARABANNING TEBRANUVCHI TO‘RLI YUZASINING KONSTRUKTIV PARAMETRLARINI TAJRIBAVIY TADQIQ QILISH

Abdurahmon Erdonov, t.f.f.d.,v.b. dotsent, (TerDMAU)
Nodir Ermatov., Bekzod G‘affarov., Shoxrux Omonov, No‘monbek Abduqahhorov, talabalar(TerDMAU)

Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash mashinalarida paxtani qayta ishlash, ishlab chiqarish liniyasida asosiy ishchi organlari qoziqli baraban va uning ostidagi to‘rli yuzasi hisoblanadi [1].

Paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinalarining qoziqli barabanlarining ostidagi tebranuvchi to‘rli yuzani ishlab chiqish va paxta xomashyosini qayta ishlash uchun yangi usullarni qo‘llash sanoatning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Paxta tozalash mashinalarida bunday usullarni qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan [2].

M.J.Koshakova [3] tozalash jarayonini tebranish yordamida amalga oshirishni ko‘rib chiqdi. Bu jarayon an’anaviy jarayon oldida tolaning sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolishi bilan ko‘p afzalliklarga ega bo‘lib, lekin, tozalash

samaradorligi va ish unumdorligi past bo‘lganligi sababli mazkur konstruksiya sanoatda qo‘llanilmadi.

Tajriba izlanishlarini o‘tkazishda tozalagichning ish unumdorligi, barabanning aylanish chastotasi, to‘rli yuzaning tebranish chastotasiga, to‘rli yuzaning tebranish amplitudasi, tozalagichning ish unumdorligi va boshqalarni o‘rganish amalga oshirildi. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita tozalagichning texnologik parametrlariga ta’sir qiladi.

Taklif etilayotgan tebranuvchi to‘rli yuza tozalagichning ish unumdorligining o‘zgarishini tozalagichning tozalash samaradorligiga ta’sirini o‘rganish maqsadida tajribalar o‘tkazildi.

Tajriba-laboratoriya va nazariy izlanishlarini o‘tkazish natijasida quyidagi asosiy omillar aniqlandi: barabanning aylanish chastotasi (min^{-1}), to‘rli yuzaning tebranish chastotasi (Gs), to‘rli yuzaning tebranish amplitudasi (mm).

Approksimasiya qilishda matematik modelning ko‘rinishi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi [4]:

$$\bar{\bar{u}} = b_0x_0 + b_1x_1 + b_2x_2 + b_3x_3 + b_{12}x_1x_2 + b_{13}x_1x_3 + b_{23}x_2x_3 + b_{123}x_2x_3 \quad (1)$$

Ma’lumki, xar bir kiruvchi parametrdan faqat ikkita – quyi va yuqori darajada o‘zgartirish (variasiya) mumkin, tajribalar soni N = 8 ga teng bo‘ladi:

$$N = 2^3 = 8$$

Tajribalarni qayta ishlash dispersiyasini aniqlash uchun xar bir reja nuqtasida uchtadan parallel tajriba o‘tkazamiz. Qayd qilingan parametrlar 1-jadvalda keltirilgan.

(1) formuladagi modelni qurish uchun kiruvchi parametrlarni kodlashni amalga oshiramiz, TOT ning 2^3 ko‘rinishdagi rejalashtirish matritsasini quramiz va tozalash samaradorligining matematik modelidan foydalanilgan holda tasodifiylashtirilgandan so‘ng 24 ta tajriba o‘tkazamiz.

1-jadval

№	Omillar nomlanishi	O‘lchov bir-ligi	Nom-lani-shi	Omillar miqdori			O‘zga-rish dara-jasi
				-1	0	+1	
1	Barabanning aylanish chastotasi	min^{-1}	X_1	380	400	420	20
2	To‘rli yuzaning tebranish chastotasi	Gs	x_2	40	60	80	20
3	To‘rli yuzaning amplitudasi	mm	X_3	4	6	8	2

Rejalashtirish matritsasi va hisoblangan tajriba natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Rejalashtirish matritsasi va hisoblangan tajriba natijalari

T/r	Kiruvchi parametrlarning kodlanishi				Chiquvchi parametr		
	x_0	x_1	x_2	x_3	y_1	y_1	y_1
1	+	-	-	-	78,6	79,1	79,7
2	+	+	-	-	80,1	80,6	81,2
3	+	-	+	-	86,4	86,9	87,4
4	+	+	+	-	84,1	84,5	84,9
5	+	-	-	+	85,7	86,0	86,4
6	+	+	-	+	84,2	84,9	85,6
7	+	-	+	+	89,6	90,0	90,5
8	+	+	+	+	88,3	88,8	89,4

TOT natijalarini qayta ishlagandan so‘ng, regressiya tenglamasiga ega bo‘ldik (birinchi darajali polinom).

$$\bar{u} = 85{,}1 - 0{,}40x_1 + 2{,}44x_2 + 2{,}33x_3 - 0{,}49x_1x_2 + 0{,}46x_2x_3 + 0{,}48x_1x_2x_3$$

Tozalagichning tozalash samaradorligi omillar miqdorining oshishiga olib keladi, tozalash samaradorligining kamayishiga x_1x_2 omillarning o‘zarota’siri bog‘liq bo‘ladi (x_1 – qoziqli barabanning aylanishlar chastotasi, x_2 – to‘rli yuzaning tebranish chstotasi).



Hisoblashlar natijalari qayta ishlangandan so‘ng grafik ko‘rinishida tasvirlangan. 1-rasmda qoziqli barabanlar aylanish chastotalarining tozalash samaradorligiga ta’siri keltirilgan. Keltirilgan egri chiziqlar shuni ko‘rsatadiki, qoziqli barabanlar aylanish chastotasining oshishi bilan tozalash samradorligi birinchi egri chiziqda x_1=380min^{-1}, x_2=4 Gs da tozalash samaradorligi 80,9 % dan 88,7 % gacha oshadi, ikkinchi egri chiziqda x_1=400 min^{-1}, x_2=6 Gs da 83,2 % dan 89,4 % gacha, uchinchi egri chiziqda x_1=420 min^{-1}; x_2=8 Gs da 85,5 % dan 90,1 % gacha oshadi.

1-rasm. Tozalash samaradorligining baraban aylanish chastotasiga bog‘liqlik grafigi



2-rasmda tozalash samaradorligining to‘rli yuzaning tebranish chastotasiga bog‘liqlik grafigi keltirilgan, bu yerda $y=y(x)$ ning uchta egri chizig‘i keltirilgan. Birinchi egri chiziq eng kam, ikkinchisi oraliq, uchinchisi esa $x_2$va x_3 omillarning miqdorining eng kattasiga mos keladi. Egri chiziqlardan ko‘rinadiki, to‘rli yuzaning chastotasi 40 Gs dan 80 Gs gacha oshganda birinchi egri chiziqqa, ya’ni, asosiy eng kichik miqdorning x_2=40 Gs, x_3=4 mm da tozalash samaradorligi 81,1 % dan 85,5 % gacha, eng katta miqdorda, ya’ni, x_2=80Gs, x_3=8 mm bo‘lganda 84,4% dan 87,8% gacha, ikkinchi egri chiziqda x_2=60 Gs, x_3=6 mm bo‘lganda 87,7% dan 90,1% gacha oshadi.

2-rasm. Tozalash samaradorligining to‘rli yuzaning tebranish chastotasiga bog‘liqlik grafigi



3-rasmda tozalash samaradorligining to‘rli yuzaning tebranish amplitudasiga bog‘liqlik grafigi keltirilgan. Keltirilgan egri chiziqlar shuni ko‘rsatadiki, x_1 va x_3 berilgan bog‘liqlikda masofa 380 min^{-1} dan 420 min^{-1} gacha oshishi bilan tozalash samaradorligi chiquvchi hisoblanadi. x_1=380 min^{-1} x_3=4 mm da birinchi egri chiziqda tozalash samaradorligi 82,7 % dan 87,7 % gacha, ikkinchi egri chiziqda x_1=400 min^{-1}, x_3=6 mm da 85,7 % dan 88,9 % gacha, uchinchi egri chiziqda x_1=420 min^{-1} mm, x_3=8 mm da 88,7 % dan 90,1 % gacha oshadi.

3-rasm. Tozalash samarador-ligining to‘rli yuzaning tebranish amplitudasiga bog‘liqlik grafigi

To‘la omilli tajribani o‘tkazishning asosiy vazifasi kiruvchi omillarning chiquvchi omillarga ta’sirini aniqlash hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan barcha parametrlar va ularning nisbati tozalash jarayoniga ta’sir etadi. Kiruvchi omillarning shunday parametrini tanlash kerakki, bunda tozalash jarayoni yaxshilanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik.M.T.Kulievning umumiy taxriri ostida, 2019y., 479bet.
2. Е.В.Тадаева, А.К.Хамракулов, Д.К.Бегматов. Разработка новой конструкции и технология вращающего четырехбарабанного очистителя хлопка от мелкого сора. Наука. Мысл: электронный периодический журнал. Научный журнал. Волжский, Россия, №4, 2016, стр.156-159.
3. М.Ж.Кошакова. Очистки хлопка с помощью вибрации: Дисс…канд. тех. наук. - Ташкент: ТИТЛП, 1985. - 236 с.
4. В.Н. Костин, Н.А. Тишина. Статистические методы и модели. Учебное пособие. Оренбург, 2004. с. 49-62

AVTOMOBILLAR VA ULARNING ZAMONAVIY AVLODLARI

Qurbonazarov S.E., Igamberdiyev A.A.,
Abdirasulov K.F., Qodirov J.U. assistentlari (TDMAU)

Annotatsiya: Bugungi kunda ichki yonuv dvigatelli avtomobillardan ko‘ra, energiyaning boshqa turlarida harakatlanadigan avtomobillarni yaratish va amaliyotga joriy etish energoresurslardan ratsional foydalanishning oqilona yechimi hisoblanadi. Hozirda ichki yonuv dvigatelli avtomobil bir chetda tursin, yangi elektromobil modelini yaratganlik bilan ham uncha-buncha odamni hayratlantirish qiyindir. Elektr energiya amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan muqobil energiyaning yagona turi emas. Chet ellik avtokonsernlar yangidan – yangi turdagi avtomobillar ishlab chiqarishda davom etmoqda. Ushbu maqola shu xususida.
Kalit so‘zlar: avtomobilsozlik, ichki yonuv dvigatelli avtomobillar, elektromobillar, vodorod yoqilg‘isi, muqobil energiya.

Bugun avtomobilsiz inson hayotini tasavvur qilish qiyin. Uzoq davrlar mobaynida ot, g‘ildirak, foytun (kareta), hatto odamning o‘zi yuk va yo‘lovchi tashish uchun xizmat qilib kelganligi tarixdan ma’lum. Har doim qulaylik yaratish payida bo‘lgan odamzot tarixning eng katta ixtirolaridan biri — avtomobilni yaratdi. Avtomobil grek tilidan tarjima qilganda «avto» − o‘zi, «mobil» − harakatlanuvchi degan ma’noni anglatadi. Inson yoki jonivor mushaklari mehnatidan foydalanmay, sof texnik asosga ega ulovni yaratishga bo‘lgan harakatlar XVIII asrga borib taqaladi.

Elektr tortish kuchiga ega ilk motorning prototip modeli esa 1828-yilda, deyarli 2 asr oldin vengriyalik Anyos Yedlik tomonidan ixtiro qilingan. Ha, uni to‘laqonli avtomashina deb bo‘lmaydi, albatta. Bu bosqichga o‘tilmagan ham. Lekin bu ixtiro elektrokarlar yaratilishidagi turtkilardan biri edi. Muhimi, ilk qadam tashlandi. 6 yil o‘tadi. 1834 yilda amerikalik Tomas Devenport o‘zining elektr

moslamasini yaratadi. Shu yili olim ishlanmasini aylanma yo‘lda elektrlashtirilgan poyezd maketiga joylashtiradi. Bu ixtironi hali tasavvuriga ham sig‘dira olmayotgan mutasaddilar unga patent berishda juda ikkilanishadi va bu jarayon biroz kechikadi. Devenport patentga uch yildan keyin erishadi. Bu dunyodagi birinchi elektr avtomobilning og‘irligi uch kilogrammdan oshmaydi. Batareya to‘liq zaryadlanganda u yigirma daqiqa yura oladi va 1,5 kilogramm yuk ko‘tara olgan, xolos. Albatta, bu 1835-yil uchun yomon dizayn va ixtiro emasdi. Bu paytda shotlandiyalik ixtirochisi Robert Anderson ot aravasiga elektr motorini o‘rnatish bo‘yicha tajriba o‘tkazdi. Uning hamyurti va adashi Robert Devidson esa 6 km/soat tezlikda 2,4 km masofaga harakatlanuvchi hamda 6 tonna yuk ko‘tara oladigan elektrovozni yaratdi. Bu esa odam tezligi bilan deyarli bir xil edi.

Yangi davr. 19-asr o‘rtalaridan Amerika va Yevropa mamlakatlarida elektromobilllar yaratish uchun kimo‘zarlik kayfiyati boshlanib ketdi. 1858 yilda Gaston Plantening qo‘rg‘oshinli akkumulyator ixtiro qilishi bu jarayonlarni yanada tezlashtirdi. 1881 yilda fransuz kimyo muhandisi Camiyel Alfonse For Gaston Plantening qo‘rg‘oshin-kislota akkumulyatori dizaynini yanada yaxshiladi va uning quvvati sezilari darajada oshirildi. Ana endi 1881 yildagi Parij xalqaro elektr ko‘rgazmasida fransuz ixtirochisi Gustav Truv elektr motorli uch g‘ildirakli velosipedni taqdim etdi. Xuddi shu yili uning hamyurti Sharl Janto aravani akkumulyatorli elektr dvigatel bilan jihozladi va 1884 yildan 1906 yilgacha Janto brendi ostida tijoriy elektr o‘ziyurar vagonlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Inglizlarning birinchi elektromobillari 1884-yilda Tomas Parker tomonidan ishlab chiqarilgan. O‘sha yillarda esa Londonda Uolter Burseyning bir martalik quvvati 48 km masofaga yetuvchi, 14,5 km/soat tezlikka ega akkumulyatorli elektr taksilari harakatlana boshladi. 1888 yilda Andreas Floken Germaniyada elektr motorli o‘ziyurar aravaga asoslangan ilk elektromobilni yaratdi.

Amerikalik birinchi elektromobil esa 1891-yilda Uilyam Morrison tomonidan ishlab chiqarilgan elektr batareyasi yordamida yasalgan. 6 o‘rinli vagon 23 km/soat tezlikka erisha oldi va u rul bilan jihozlangan birinchi avtomobil edi.

1894 yil. Muhandis-mexanik Genri Morris va kimyogar Pedro Salom tomonidan Filadelfiyada ishlab chiqilgan birinchi elektr taksilar Nyu-York ko‘chalarida paydo bo‘ldi. Bu avtomobillar bir marta quvvatlanganda 40 km masofani bosib o‘tgan. Maksimal tezlik esa soatiga 32 km. Hozirgi elektr samokatlardan sal tezroq. Ko‘p o‘tmay, Amerikada bir quvvat bilan 22,5 km/soat tezlikda 80–128 km masofani bosib o‘tuvchi va 32 km/soat tezlik bilan 130 kilometr yo‘l bosa oladigan boshqa-boshqa elektromobillar ko‘payishni boshladi.

Hozirgi kunda elektromobil ishlab chiqaruvchi yirik avtokonsernlardan biri bu Tesla kompaniyasidir. Teslaning hozirda ko‘plab modifikatsiyalari mavjud bo‘lib, ular Tesla Model Y, Model 3, Model S, Model X va Tesla Cybertruck.



Tesla Model Y



Tesla Model 3



Tesla Model X



Tesla Model S



Tesla Cybertruck

1-rasm. Tesla kompaniyasining elektromobillari modifikatsiyalari

Elektromobillarning ommalashib ketmayotganligiga sabablardan biri bu uning tannarxining yuqoriligidir. Tan narxining yuqoriligi esa uning zaryad saqlovchi akkumulyatorini tayyorlash texnologiyasining yuqori narxi bilan baholanadi.

Elektromobillardan tashqari hozirda vodorod yonilg‘isida harakatlanuvchi avtomobillar ham takomillashmoqda. Ko‘pgina davlatlar 2030-yilgacha ichki yonuv dvigatelli avtomobillardan butunlay voz kechishni rejalashtirmoqda. Benzinli transport vositalarini taqiqlovchi qonunlar Hindiston, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda allaqachon qabul qilingan yoki ko‘rib chiqilmoqda. Elektr transport vositalariga o‘tish jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Ammo elektromobillarning jiddiy raqobatchisi bor va bu vodorod avtomobillari hisoblanadi.

Vodorod avtomobilining qurilmasi ko‘p jihatdan elektr avtomobil qurilmasiga o‘xshaydi: bir xil elektr motor, faqat u akkumulyatordan quvvatlanmaydi, lekin vodorod ishtirokidagi kimyoviy reaksiya natijasida ishlaydi. Uning ishlash tizimi quyidagicha, vodorod bakda saqlanadi, keyin u tashqi havo bilan aralashtiriladi, yonilg‘i xujayrasidagi reaksiya natijasida elektr energiyasi olinadi, undan olingan elektr o‘zgaruvchan tok dvigatelini ishga tushiradi.

Dunyodagi eng mashhur vodorod avtomobili Toyota Mirai hisoblanadi. U birinchi marta 2013-yil noyabr oyida Tokio avtosalonida taqdim etilgan.

- ♦ Yoqilg‘i to‘ldirish vaqti 3-5 minut, quvvat zaxirasi esa 600 km.
- ♦ Maksimal tezlik — 170 km/soat
- ♦ Quvvat — 153 ot kuchi
- ♦ 90 km/s tezlanish — 9,4 soniya.

Bugungi kunda vodorodli avtomobillarning kamchiliklari ularning yuqori narxi va yonilg‘i quyish shoxobchalarining rivojlanmagan tarmog‘idir.







2-rasm. Rossiyaning ФГУП “НАМИ” kompaniyasining vodorodli avtomobili

Butun dunyoda ko‘plab avtokorporatsiyalar vodorodli avtomobillar ishlab chiqarishga katta qiziqish bildirmoqda. Shu jumladan, joriy yilning 23-aprel sanasida Toshkentda “Innoprom” Markaziy Osiyo xalqaro sanoat ko‘rgazmasida ham “AURUS” nomli dunyodagi yagona vodorodli lyuks avtomobil namoyishi bo‘lib o‘tdi. Ushbu avtomobil prototipi Rossiyaning ФГУП “НАМИ” kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, uning yoqilg‘isi 600 km masofaga yetadi va uni to‘ldirish uchun atigi besh daqiqa kerak. 100 km/gacha tezlashish - 4 soniya, ya’ni avtomobilning xususiyatlari juda yaxshi bo‘ladi”, - deydi kompaniyaning marketing va tijoratlashtirish bo‘yicha direktor o‘rinbosari Nikolay Shmidt.

Hyundai kompaniyasi ham 2030-yilgacha o‘zining vodorodli avtomobillarini ishlab chiqarishini ma’lum qilgan.

Xulosa. Butun dunyoda energoresurslarni zaxirasi kamayib borayotganligi sababli yangi turdagi energiya manbalarini va ulardan foydalanuvchi qurilmalarni yaratish bugungi kundagi aktual mavzu hisoblanadi. Shu sababli, hozirgi vodorodli avtomobillarni ko‘proq ishlab chiqarish energoresurslarni tejash va ekologik samaradorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li – “Elektromobillarning afzalliklari va kamchiliklari” “Transport tizimlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish istiqbollari” mavzusidagi respublika miqyosida ilmiy-texnik anjuman. -1, 2023-yil.
2. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li - Methods of researching the technology of wireless charging of electric cars in the parking lot - Scientific Impulse 2023/6/1
3. www.Tesla.com
4. https://sputniknews.uz

XARAKAT HAVFSIZLIGINI TAMINLASH BARCHAMIZNING BURCHIMIZDIR

Pardaboyev O‘tkir Abduraximovich, asisstent (JizPI)

Annotatsiya: Shahar ko‘chalarida va viloyat markazlarida avtobil tirbandligining oshib ketishi munosabati bilan muammoli vaziyatlarga duch kelinmoqda. Shu munosabat bilan xarakat havfsizligini taminlashga qaratilgan choralarga amal qilish barchamizni burchimiz.

Kalit so‘zlar: Chorraxa, piyoda, yo‘l va boshqa xarakat ishtirokchilar yuqori munosabatda harakar havfsizligini taminlashdan majburiyatlari.

Avtomobil yo‘llarida insonlar tomonidan boshqariladigan turli xildagi mexanik va mexanik bo‘lmagan transport vositalari, harakatlanayotgan (yoki harakatda bo‘lmagan) piyodalar majmuidan iborat murakkab dinamik tizim mavjuddir. Bu tizim yo‘l harakati deb ataladi.

Yo‘l harakatining muammolari va maxsus tomonlari, eng avvalo, “Avtomobil-haydovchi-yo‘l-piyoda” tizimi orqali belgilanadi. Ular o‘z navbatida atrof-muhitda faoliyat ko‘rsatadilar (1- rasm).

Tizimga quyidagi tashkiliy qismlar kiradi: A (avtomobil), H (haydovchi), Y (yo‘l), P (piyoda), M (muhit). Bu tashkiliy qismlar muhitda faoliyat ko‘rsatibgina qolmasdan, atrof-muhit bilan ularning har biri chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Muhit deb atrof-muhitning yo‘l harakati xavfsizligiga mujassamlashgan ta’siri tushuniladi va u quyidagi omillardan tashkil topadi: 1) ob-havo (metrologik ko‘rinish, yog‘ingarchilik, shamol, harorat); tabiiy landshaft (tekislik, qir-adirlar, tog‘lik, er osti-usti suvlari va h.k.); mexanik (shovqin, chang, tebranish, gaz chiqindilari bilan ifloslanganlik va h.k.) “A-H-Y-P-M” tizimida mexanik “Avtomobil-yo‘l” (A-Y) va biomexanik “Haydovchi avtomobil” (H-A), “Haydovchi-yo‘l” (H-Y), “Piyoda-Avtomobil” (P-A) va “Piyoda-yo‘l” (P-Y) hamda biologik “Haydovchi-piyoda” (H-P) tizimlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.



1-rasm “Avtomobil – haydovchi – yo‘l – piyoda - muhit” tizimi

“A-Y-H-P-M” tizimi optimal ravishda faoliyat ko‘rsatishda tizimdagi avtomobil, haydovchi, yo‘l, piyoda va muhit tashkil etuvchilarining alohida hamda ularning birgalikdagi A-H, H-Y, Y-P, A-P va boshqa tasniflari katta ahamiyatga ega.

Avtomobil transportining konstruktiv o‘lchamlari (parametrlari) yo‘l harakatining tasnifiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunda avtomobilning geometrik o‘lchamlari tortish va tormozlanish sifati, haydovchi ish joyining qulayligi va engil boshqarilishi muhim o‘rin egallaydi.

Avtomobil yo‘li “A-Y-H-P-M” tizimi faoliyatiga o‘zining geometrik elementlari o‘lchamlari va transport-ekspluatatsion sifatining o‘zgarishi orqali ta’sir etadi.

Yo‘l harakati xavfsizligi eng avvalo haydovchining ishonchliligiga, uning tayyorgarligiga va ishchi qobiliyatiga bog‘liq. Piyodalar yo‘l harakatida alohida o‘rin egallaydilar. Ular yo‘l harakati qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari real yo‘l sharoitlarida harakat xavfsizligini ta’minlashga imkon yaratadi.

Umumiy tomonlardan optimal ravishda kelib chiqqan holda, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda birinchi navbatda “A-H-Y-P-M” tizimdagi har bir tashkil etuvchilarning va birgalikda faoliyat qiluvchilarning tasniflarini optimallashtirish orqali erishish mumkin.

Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qabul qilingan:

Yo‘l – transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalanishga er mintaqasi yoxud sun’iy inshoot yuzasi;

Yo‘l harakati – odamlar va yuklarni transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo‘llar doirasida harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui;

Yo‘l harakati katnashchisi – yo‘l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo‘lovchisi yoki piyoda tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxs;

Yo‘l harakati xavfsizligi – yo‘l harakati katnashchilarning yo‘l–transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati holati;

Yo‘l-transport hodisasi – transport vositasining yo‘ldagi qatnovi jarayonida sodir bo‘lib, fuqarolarning o‘limi yoki ularning sog‘ligiga zarar etishiga, transport vositalariga, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar etkazilishiga sabab bo‘lgan hodisa:

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash - yo‘l-transport hodisa-larining yuzaga kelish sabablarining oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og‘irligini engillashtirishga qaratilgan faoliyat;

Transport vositasi – odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan qurilma.

O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish xavfsizligini ta’minlash yo‘l-transport hodisalarning oldini olish va bu borada yagona davlat siyosatini yuritish, yo‘l harakati qoidalarini xalqaro «Yo‘l harakati haqidagi» Konventsiya talablariga muvofiqlashtirish maqsadida hamda «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasiga asosan Vazirlar Mahkamasi muntazam ravishda «Yo‘l harakati qoidalari»ni ko‘rib chiqib, takomillashtirilgan variantini tasdiqlaydi. Hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 11 dekabr 472-sonli qaroriga asosan «Yo‘l harakati qoidalari» 2001 yil 1 martdan e’tiboran amalga kiritildi.

Sohalar me’yoriy hujjatlarda (instruktsiya, uslubiy ko‘rsatma) avtomobil transportida, yo‘l xo‘jaligida, yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlarida harakat xavfsizligini yaxshilash, yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish, transport vositalaridan foydalanishga ruxsat berish, yo‘llarning xavfli bo‘laklarni aniqlash, harakat xavfsizligini boshqarish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatiladi.

«Yo‘l harakati» haqidagi va «Yo‘l belgilari va signallari» haqidagi Konventsiyalar eng asosiy xalqaro me’yoriy hujjat hisoblanadi. Bu Konventsiyalar 1968 yilda Vena shahrida BMT «Yo‘l harakati» konferentsiyasida qabul qilingan. Konventsiyaga 1971 yil Jenevadagi Evropa kengashida to‘ldirishlar kiritilgan.
Yo‘l harakati to‘g‘risidagi Konventsiyada: yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha umumiy talablar; xalqaro harakatga qo‘yish uchun transport vositalariga qo‘yiladigan talablar; haydovchilar guvohnomasi namunasiga qo‘yiladigan talablar; haydovchilarga qo‘yiladigan talablar; davlatlarning konventsiyaga qo‘shilish tadbirlari; atamalarga qo‘yilgan talablar berilgan.

Hulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda respublikamiz miqyosida olib borilayotgan xarakat havfsizligiga qaratilayotgan etibor shularni ko‘rsatmoqdaki yo‘l transport hodisalarining oshishi insonlarning ogir tan jarohat olishi va halok

bo‘lish holatlarining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yaqqol namunasi desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, № PQ-3124, 11.07.2017 y.
2. Yangi Yo‘l harakati qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.04.2022 yildagi 172-son qarori.
3. Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, № 292, 09.04.2019 y.
4. Q.X. Azizov «Yo‘llarda xavfsiz harakatlanish asoslari», O‘quv qo‘llanma, T.: «Fan va texnologiya». 2009 - 242 b.
5. Q. H. Azizov “Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari”. O‘quv qo‘llanma T:. Fan va texnika 2009. 269 b.
6. Azizov Q.X. Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash. O‘quv qo‘llanma - 94 bet. (https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_ 1461_20210812.pdf).
7. Qarshiboyev Sh. E., Mamayev G‘.I., Xoshimova Sh.R., Azimov A. “Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari” (O‘quv qo‘llanma).-J.: 2021, 320 бет.
8. N.F.Muxitdinov, A.A.Hamidullaev, B.U.Umarov «Yo‘l harakati qoidalariga sharhlar va amaliy tavsiyalar». O‘quv qo‘llanma T.: 2010, 142 b.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.uzavtoyul.uz – O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari qo‘mitasi portali.www.doroga.ru., www.technormativ.ru., www.Informavtodor.ru.
3. https://green-way.com.ua/ru
4. http://pdd-uzbeki.narod.ru/main.htm
5. https://uzavtoyolbelgi.uz/uz/dorojnie/znaki
6. Traffic Rules and Regulations (https://transport.assam.gov.in/portlets/ traffic-rules-and-signals).
7. Road Safety (https://www.un.org/en/safety-and-security/road-safety)

AVTOMOBILLARDA QO‘LLANILADIGAN TURLI TORMOZ KUCHAYTIRGICHLARINI TAHLILI

Kenjayev Xusniddin Bahodirjon o‘g‘li assistant (FarPI)
Oribjonov Valixon Oribxon o‘g‘li assistant (FarPI)

Annotatsiya. Avtomobilning tormoz tizimi avtomobilni sekinlatish, tez to‘xtatish va to‘xtagan joyida qo‘zg‘almay turishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Shu sababli avtomobillarda qo‘llaniladigan tormoz tizimini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda avtomobillarga eng maqbul tormoz tizimlarini, yuritmalari va mexanizmlarini qo‘llash imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar. Tormoz boshqarmasi, tormoz mexanizmining turlari, diskli tormoz mexanizmlarining, barabanli tormoz mexanizmi, lentali tormoz mexanizmi.

Kirish. Bugungi zanonaviy dunyoda avtomobillar oqimi zichligi ko‘paygani sababdan avtomobillarda mavjud tormoz tizimlarini taxlil qilish va ularni zamonaviylashtirish murakkab masaladir. Shu sababdan doimiy ravishda avtomobillar tormoz tizimlarini taxlil qilib yangilarini o‘ylab avtomobilga mos tormoz tizimlarini qo‘llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tormoz mexanizmini baxolovchi mezonlar:

1.Tormoz mexanizmning samaradorlik koeffisiyenti - bu mexanizm xosil qilgan tormoz momentini shartli tormoz momentiga nisbati

$$K_Э = M_{TOP} /(\sum P \cdot r_{TP}), \qquad (1.1)$$

Bunda: M_{TOP} -tormozlanish momenti;

$\sum P$ -yuritma kuchlarining yig‘indisi;

r_{TP} -yuritma kuchi qo‘yilgan radius;

2. Tormoz mexanizmning barqarorligi - bu $K_Э = f(\mu)$. Agar grafikdagi bog‘lanish to‘g‘ri chiziq bo‘lsa tormoz mexanizmi barqaror.

3. Tormoz mexanizmning muvozanatlashganligi - bunday tormoz mexanizmi tormozlash vaqtida g‘ildirak podshipniklarida qo‘shimcha yuklanishlar xosil etmaydi.

4. Tormoz mexanizmning reversivligi – avtomobil oldinga va orqaga xarakatlanganda tor-moz mexanizmi bir xil samara bilan ishlasa tormoz mexnizmi reversiv xisoblanadi.

Diskli tormoz mexanizmlarining konstruksiyalari va taxlili

Diskli tormoz mexanizmlari asosan yengil avtomobillarda ishlatiladi: kichik va o‘rta sinfdagi yengil avtomobillarning old g‘ildiraklarida (orqa g‘ildiraklarda-barabanli tormoz mexanizmi); katta sinfdagi yengil avtomobillarning barcha g‘ildiraklarida diskli tormoz mexanizmi ishlatiladi.

Diskli tormoz mexanizmining tormoz momenti quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{mop} = 2 \cdot P_{nnp} \cdot \mu \cdot r_{ch} \qquad (1.2)$$

Tormoz mexanizmining samaradorlik koeffisiyenti:

$$K_э = \frac{M_{TP}}{2 \cdot P \cdot r_{cp}} = \frac{2 \cdot P \cdot r_б \cdot \mu}{2 \cdot P \cdot r_б} = \mu \qquad (1.3)$$

Diskli tormoz mexanizmining boshqa afzalliklari kuyidagilar:

-o‘lchamlari va inersiya momenti kichik;

-tormoz yuritmasining uzatish sonini porshenning kam yurishi xisobiga oshirish mumkin;
-tormoz diski va kolodkalar yaxshi sovutiladi, chunki tormoz mexanizmi ochiq va xavo yaxshi

Shu bilan birga diskli tormoz mexanizmlari bir qator kamchiliklardan xoli emas:
-kolodkalarda solishtirma bosim yuqoriligi sababli ular tez-tez almashtiriladi;
-diskli tormoz mexanizmlari muvazanatlashgan emas, tormozlash paytida g‘ildirakning podshipniklariga qo‘shimcha kuchlar ta’sir etadi.
-samaradorligi eng kichik tormoz mexanizmi.

Barabanli tormoz mexanizmlarining konstruksiyalari va taxlili

Taxlil o‘tkazish uchun quyidagi soddalashtirishlar kiritamiz:
-kolodkalar va ularning qoplamalari vertikal va gorizontal o‘qlarga nisbatan simmetrik joylashtirilgan.
-elementar normal kuchlarning teng ta’sir etuvchi kuchi tormoz mexanizmining markazidan o‘tadi.

Ishqalanish momenti xisobiga barabanga qo‘shimcha qisadigan tormoz kolodkasi aktiv, ishqalanish momenti hisobiga barabandan qochadigan kolodka passiv deb nomlanadi.
Ikkala kolodka birgalikda xosil qiladigan tormoz momenti:

$$M_{TP} = M_{TP}^{I} + M_{TP}^{I} = P \cdot r_{б}\left(\frac{\mu h}{K_a \cdot a - \mu r_{б}} + \frac{\mu h}{K_a \cdot a + \mu r_{б}} \right) \qquad (1.4)$$

Tormoz mexanizmining samaradorlik koeffisiyenti

$$K_{э} = \frac{2\mu}{\left(1-\mu^2\right)} = 0{,}8 \quad \text{bu yerda } a \approx r_{á}; K_{à} = 1; \mu = 0{,}35$$

Tormoz mexanizmining samaradorligi baraban ikkala tomonga aylanganda xam teng.
Tormoz mexanizmining statik tavsifi to‘g‘ri chiziqli emas, demak mexanizm yetarli darajada barqaror emas.
Ushbu tormoz mexanizmida oldinga xarakatlanganda ikkala kolodka xam aktiv. Shuning uchun ikkala kolodka xosil etadigan tormoz momentlari teng:

$$\mathrm{M}^{//}_{\mathrm{t}} = M_{TP}^{I} = \mathrm{Pr}_{б}\frac{\mu h}{k_0 a - \mu r_{б}}; \qquad (1.5)$$

Tormoz mexanizmning xususiyatlari:
-solishtirma bosim ikkala nakladkalar yuzasida teng, shuning uchun ular teng yeyiladi.
-samaradorlik koeffisiyenti qabul qilingan soddalashtirishlarni xisobga olganda $K_e = 2\mu /(1-\mu) = 1{,}08$, demak xosil bo‘ladigan tormoz momenti shartli tormoz momentidan bir muncha katta.

-avtomobil orqaga xarakatlanganda tormoz mexanizminig samaradorligi taxminan 2 barobarga kamayadi.

Tormoz mexanizmini baxolash:

-tormoz mexanizmining ikkala kolodkalarida solishtirma bosim teng, demak kolodka-lar bir xil yeyiladi;

-tormoz mexanizmining samaradorlik koeffisiyenti $K_e = 2 * \mu = 2 * 0{,}35 = 0{,}7$, shartli tormoz momentidan kichik, demak tormoz mexanizmi yetarli darajada samarador emas;

-tormoz mexanizmining samaradorligi oldga va ortga xarakatlarda teng;

-tormoz mexanizmning tavsifi to‘g‘ri chiziqli, demak tormoz mexanizmi yaxshi barqaror-likka ega;

- tormoz mexanizmi muvlzanatlashgan, demak tormozlash paytida g‘ildirak podshiknikla-riga qo‘shimcha yuklanishlar uyg‘otmaydi.

Kolodkalari teng suriladigan barabanli tormoz mexanizmlar pnevmo yuritmali tormoz tizimiga ega yuk avtomobillarda keng qo‘llaniladi.

Tormoz mexanizmlarining statik xarakteristikalari.



1-rasm. Tormoz mexanizmlarining statik xarakteristikalarining solishtirma grafigi: 1-diskli; 2-kolodkalari teng suriluvchi; 3-yuritma kuchlari teng va tayanchlari bir tomonlama joylashgan; 4- yuritma kuchlari teng va tayanchlari ikki tomonlama joylashgan; 5-o‘z-o‘zidan kuchayadigan.

Xulosa qilib aytganda bugungi zamonaviy dunyoda avtomobil boshqaruvida xavfsizlik birinchi o‘rinda turadi buning uchun tormoz tizimlarini doimiy taxlil qilib borilishi va olingan qiymatlar asosida mavjud konstruksiyaga o‘zgartirishlar kiritish kerakligi aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.A.Muxitdinov va boshqalar. Avtomobillar konstruksiya asoslari. “Istiqlol nuri” Toshkent- 2015,

2.Fayzullayev Ye.Z. va boshkalar. Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi. 1-qism Fayzullayev Ye.Z. taxriri ostida. Toshkent, Zarqalam, 2010,

3.Ivanov A.M. i dr. Osnovi konstruksiy avtomobilya, M.OOO. Knijnoye izdatelstvo Zarulem, 2005,

4.Mamatov X.M. Avtomobillar 2-qism. Toshkent “O‘zbekiston” 1998

ELEKTRON MANBALAR

1.autoustroistvo.ru
2. GM Uzbekiston.uz
3. MAN.uz

MARKAZDAN QOCHMA SIKLONDA CHANG BO‘LAKCHALARIGA TA’SIR ETUVCHI KUCHLARNING ANALITIK TAHLILI VA TADQIQOT YO‘NALISHINI ASOSLASH.

Nazirov Raxmatjon Rasulovich t.f.n., k.i.x.(TEITI)
Usanov Abdulxakim Eshanqulovich, katta o‘qituvchi (TDMAU)

Bugungi kunda Respublikamizda yetishtirilayotgan paxtalarning o‘rtacha 80 % qiyin tozalanuvchi seleksion navga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari qo‘l mehnatini yengillashtirish, qo‘shimcha harajatlarni kamaytirish maqsadida yildan-yilga paxtani mashina yordamida terib olish hajmi kengaytirilmoqda. Paxtani mashina yordamida terib olishda uning ifloslik darajasi qo‘l bilan terib olingan paxtaning ifloslik darajasiga qaraganda o‘rtacha 10-15 % ga yuqoridir.

Shu sababdan UXK paxta tozalash agregatining mayda iflosliklardan tozalash seksiyalaridan aspiratsiya tizimiga so‘rib olinadigan changli havodagi changning kontsentratsiyasi nisbatan yuqori bo‘lishi muqarrar. Natijada UXK paxta tozalash agregatining mavjud aspiratsiya tizimining changli havoni tozalash samarasi talabga javob bermasligi mumkin. Chunki, markazdan qochma siklonga kiritiladigan chang bo‘lakchasiga ta’sir etuvchi markazdan qochma kuch changli massaning diametrini xisobga olgan holda quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi [1]:

$$F_q = \frac{\pi d^3 \rho \omega^2 R}{6}, \qquad (1)$$

Bu yerda: d — chang bo‘lakchasining diametri, m;

ρ — changli massaning kontsentratsiyasi, kg/m^3;

ω — havo oqimining burchak tezligi, s^{-1};

R — amaldagi radius, m.

Yuqoridagi formuladan ko‘rinib turibdiki, chang bo‘lakchasiga ta’sir etuvchi markazdan qochma kuch chang bo‘lakchalarining diametri, changli massaning kontsentratsiyasiga bevosita bog‘liq ekan.

Ko‘pchilik man’balarda markazdan qochma siklonlarda ajraladigan changli massadagi chang bo‘lakchasining siklondagi egri chiziqli havo oqimidan yuz foiz ajraladigan eng kichik diametrini, ya’ni eng kichik o‘lchamdagi chang bo‘lagini siklonning geometrik shakli va havo oqimining tezligiga bog‘liq ravishda

aniqlaydigan formulalar keltiriladi. Bu keltirilgan formulalar yozilishi bo‘yicha bir-biridan farq qilsada, hammasi bir xil shartdan, ya’ni markazdan qochma kuchning changli massaning qarshilik kuchiga tengligi shartidan keltirib chiqarilgan [1]:

$$m\upsilon^2 / R = 3\pi\omega_p d\mu, \qquad (2)$$

Bu yerda: m — changning massasi, kg;

ν — siklonning kirish patrubogidagi havoning tezligi va havodagi chang massasining tezligiga teng qiymatda olinadigan havo oqimining tezligi, m/s;

R — changli havoning aylanish markazi (siklonning o‘qi) dan chang bo‘lakchasigacha bo‘lgan masofa, m;

ω_p — chang bo‘lakchasining siklon devoriga qarab radial yo‘nalishda harakatlanish tezligi, m/s;

d — chang bo‘lakchasining diametri, m;

μ — changli havoning yopishqoqligi, $N \cdot s/m^2$.

Yuqorida keltirilgan formulalarning tahlilidan ko‘rinib turibdiki, markazdan qochma siklonlarda UXK paxta tozalash agregatidan aspiratsiya tizimi orqali so‘rib olinadigan mayda ifloslikларni havo oqimidan ajratib olish samarasi, birinchidan, siklonning kirish patrubogidagi havoning tezligi va havodagi chang massasining tezligiga teng qiymatda olinadigan havo oqimining tezligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, aspiratsiya tizimidagi mayda ifloslikli chang bo‘lakchalarining diametri (yoki massasi) ga bog‘liq ekan.

Bizning holatimiz uchun, ya’ni UXK paxta tozalash agregatini aspiratsiya tizimi uchun uning har bir sektsiyasidan so‘ruvchi quvurning diametri, asosiy birlashtiruvchi katta quvurning UXK agregatining uzunligi bo‘yicha optimal o‘rnatish masofasi va changli havo massasining siklonga kirish patrubogidagi tezligining qiymati asoslab berilmagan.

Asosiy birlashtiruvchi katta quvurni UXK agregatining uzunligi bo‘yicha o‘rta qismiga simmetrik o‘rnatiladi, vaxolanki, UXK agregatining paxtani kirish qismidagi sektsiyalaridan nisbatan ko‘p miqdorda mayda ifloslikлар ajralib chiqadi. Bundan tashqari amaldagi tavsiyanomalarda changli havoning siklonning kirish patrubogidagi tezligi katta farq bilan 14 dan 20 m/s gacha tavsiya etilgan [2].



1-rasm. Diffuzorning ventilyator bilan birgalikdagi sxemasi

1-havo quvuri; 2-diffuzor; 3-ventilyator

Amaldagi UXK agregatini aspiratsiya tizimidagi so‘ruvchi ventilyatorning purkovchi quvuri to‘g‘ri burchakli F_0 ko‘ndalang kesimga ega bo‘lib, unga l uzunlikdagi va F_1 ga teng ko‘ndalang kesimdagi silindrik shakldagi diffuzor ulangan. Diffuzorning α burchakka kengayishi bilan havo oqimining tezligi havo quvuriga kirish oldidan V_0 qiymatdan V_1 qiymatgacha o‘zgarishi mumkin.

Diffuzorda uning kengayishi hisobiga dinamik bosim statik bosimga o‘zgaradi va natijada havo oqimining tezligi V_0 qiymatdan V_1 qiymatgacha kamayishi kuzatiladi. Buning natijasida qo‘shimcha hosil bo‘ladigan statik bosim H^1_{st} diffuzorning tor kesimidagi H^1_g va keng ko‘ndalang kesimidagi H^{11}_g dinamik bosimlarning yo‘qolishi ΔH ni hisobga olgan xoldagi farqi bilan aniqlanadi [3, 4, 5] (2-rasm).



2-rasm. UVTS-22 ventilyatorining aerodinamik tavsifi va bosimlarning o‘zgarishi.

Bosim: 1-to‘liq; 2-statik, 3-dinamik

Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz vazifalari siklonning tezlik rejimini hisobga olgan holda havo quvurining optimal diametrini aniqlash, dinamik bosimning minimal

yo‘qolishini ta’minlovchi diffuzorning optimal uzunligini tanlab olish va diffuzorning tor va kengaygan ko‘ndalang kesimlarini havo oqimining kerakli tezligidan kelib chiqib asoslab berishdan iborat bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://masters.donntu.ru/2014/fimm/mitina/library/article8.htm
2. Иванков, Д.И. Анализ работы циклонов для пылеулавливания /Д.И. Иванков, Р.Д.Гритчин, А.Н.Тюрин.-Текст: непосредственный // Молодой ученый.-2016.-№13(117).-С.165-168.-URL:https: //moluch.ru/archive/117/32043/
3. Ходжиев М.Х. Обоснование параметров диффузора для внецеховой пневмотранспортной установки. //Хлопковая промыщленност. Ташкент. 1991. №5. с. 11-13.
4. Methods of increasing the efficiency of dustladen air cleaning from the aspiration system of the uhk cleaning unit. Abdulkhakim Usanov* and Ergash Shomirzaev. Termez Engineering-Technological Institute, Termez, Uzbekistan 12 july 2024
5. М.П.Калинушкин. Насосы и вентиляторы. –М.Высшая школа. 1987 г

YO‘L-TRANSPORT HODISALARINING KELIB CHIQISH SABABLARI

Abdiqadirov Shavkat Abdixamidovich, dotsent (TDMAU)
Xudoyberdiyev Asliddin Chori O‘g‘li, o‘qituvchi (TDMAU)

Annotatsiya: Oxirgi yillarda mamlakatimizda yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasida ko‘plab chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Ammo shunga qaramay, bu borada ijobiy o‘zgarishlar yaxshi emas. Achinarlisi, ayrim haydovchilar, piyodalar yo‘l harakati qoidalarini buzishda davom etayapdi.

Kalit so‘zi: Yo‘l transport hodisasi, chorraha, yo‘lovchilar, havsizlik kamari, avtomobil.

Yildan yilga transport vositalarining soni ortgan sari yo‘llarda harakatlanish murakkablashib bormoqda, oxirgi yillarda mamlakatimizda yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasida ko‘plab chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Ammo shunga qaramay, bu borada ijobiy o‘zgarishlar yaxshi emas. Achinarlisi, ayrim haydovchilar, piyodalar yo‘l harakati qoidalarini buzishda davom etayapdi.

Bunday sharoitda ba’zi mutaxassis va ekspertlar jazoni yanada kuchaytirishni taklif qilayotir. Biroq bu bilan asosiy maqsadga erishish qiyin bo‘ladi. Demoqchimizki, barcha yo‘l harakati qatnashchilarida yuksak huquqiy ma’daniyatni shakllantirmasdan turib, yo‘l-transport hodisalarining oldini olib bo‘lmaydi.[1]

Mavjud vaziyat tahlili ham shunga ishora bermoqdaki. O‘zbekiston IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning yetti oy davomida respublika hududida 4772 ta YTH qayd

etilgan. Shundan 2453 tasi yoki 51,4 foizi subyektiv sabablarga koʻra sodir etilgan, ya’ni haydovchilar yoʻl harakati qoidalariga e’tibor bermasligi oqibatida kelib chiqqan.

Agar haydovchilar yoʻl harakati qoidalariga rioya qilganda yuqoridagi barcha YTH sodir boʻlmasligi mumkin edi. Oʻtgan yetti oyda Oʻzbekistonda yoʻl-transport hodisalari natijasida 1 115 kishi halok boʻlgan, 4 ming 564 nafari turli tan jarohatlari olgan.



1-rasm piyodalarning belgilanmagan joydan oʻtishlari

Bir raqamga e’tibor qaratish lozim – yoʻl-transport hodisalarida halok boʻlganlarning 1078 nafari yoki 96,7 foizi xavfsizlik kamarini taqmagan. Soha mutaxassislarining fikricha, agar orqada oʻtirgan yoʻlovchilar xavfsizlik kamarini taqqan boʻlganida oldingi oʻrindiqlarda oʻtirgan yoʻlovchilarning koʻpchiligi avtohalokatda omon qolishi mumkin edi. Ularning soʻzlariga koʻra, agar orqadagi yoʻlovchilar kamar taqmagan boʻlsa, YTH vaqtida oldingi oʻrindiqda oʻtirgan yoʻlovchining halok boʻlish ehtimoli besh barobar ortadi.[2]

Birgina Toshkent shahar IIB ma’lumotlarida aytilishicha, joriy yilning oʻtgan yetti oyida poytaxtda 675 ta yoʻl-transport hodisasi qayd etilgan. Hodisa oqibatida 71 kishi halok boʻlgan, 787 kishi turli tan jarohatlari olgan. Baxtsiz hodisalarning eng keng tarqalgan sababi tezlikni oshirish boʻlgan 199 ta holat. Haydovchilar tomonidan 90 ta holatda taqiqlovchi svetofor ishorasiga e’tibor bermaslik, mast holatda haydovchilar ishtirokida 8 ta YTH sodir etilgan.



2-rasm. Spark avtomobilining ariqqa tushib ketganligi

Yuqoridagi raqamlar yoʻl harakati qatnashchilarining koʻpchiligi yoʻl harakati qoidalariga rioya qilmasligi oqibati baxtsiz hodisalar soni ortib bormoqda.

Aslida, haydovchilar uydan chiqishlari bilanoq yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishlari, jumladan, xavfsizlik kamarlaridan foydalanish odatiy holga aylanishi kerak. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 125-moddasiga ko‘ra, haydovchilarning transport vositalarini boshqarish va yo‘lovchilar tashishda xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariga rioya etmaslik bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.[3]

Ko‘pincha haydovchilar havfsizlik kamarini yo‘l patirol hodimini ko‘rgan vaqtlarida havfsizlik kamarini taqishadilar. Aslida havfsizlik kamarini taqish o‘zining hayoti uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanini bir tafakkur qilishi kerak.

Dalillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik haydovchilar hanuzgacha xavfsizlik kamarlaridan muntazam foydalanmaydi, yo‘l harakatining asosiy qoidalariga amal qilmaydi.

2022-yil 4-aprelda **“Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi Prezident qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjatda haydovchi va piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish ma’daniyatini oshirish, har qanday qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligini ta’minlash hamda yo‘l harakati qoidalari asoslarini bolalikdan singdirishni yo‘lga qo‘yish, amaliyotni maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablarida joriy etish yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari etib belgilangan.[3]

O‘zbekistonda YTHning kelib chiqish sabablari O‘zbekistonda, shuningdek, boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqishiga bir qancha sabablari bor, ulardan ba’zilari quyida keltirilgan. Baxtsiz hodisalarning kelib chiqishining asosiy sabablari 2 turga bo‘linadi.

A. Harakatni tashkil etuvchi organlar tufayli.

B. Yo‘l harakati qatnashchilarining aybi tufayli.

Yo‘l transport hodisalarini kelib chiqishiga bir nechta omillar ta’sir qilmoqda:

A.(I)Kerakli yo‘l belgilarining yetishmasligi . Yo‘l belgilari haydovchilarni burilishlar, tezlik chegaralari va boshqalar haqida ogohlantirish uchun zarur bo‘lib, bular harakat vaqtida haydovchilarga yordam beradi. (II) Chorrahalar. O‘zbekiston yo‘llarida ko‘plab chorrahalar mavjud. Ko‘p xollarda O‘zbekiston yo‘llarida chorrahalar asosiy yo‘lga 90° burchak ostida qo‘shiladi va bu asosiy yo‘lga qo‘shilishda juda xavflidir.

B. Yo‘l harakati qatnashchilarining aybi tufayli. (I). Tezlik, Yo‘l-transport hodisalarining yana bir asosiy sababi - tezlikni oshirib yuborish. Ko‘pgina

haydovchilar tezlik chegarasidan oshirib harakatlanishadi. Yo‘l transport hodisalarining uchdan bir qismi tezlikni oshirib yuborish tufayli sodir bo‘ladi.
(II). Avtomobilni boshqarish vaqtida Chalg‘ish. Chalg‘igan haydovchi qizil chiroqdan o‘tib ketgan yoki mast holda avtomobil boshqargan odam emas. Chalg‘igan haydovchi - odatda uyali telefonda gaplashishi, yo‘lovchilar bilan gaplashishi, SMS yuborishi yoki ovqat iste'mol qilishi va hatto bo‘yanish uchun e'tiborini yo‘ldan chalg‘itgan avtomobil haydovchisidir.



3-rasm. Haydovchi havfsizlik kamarini taqishi

Avtomobilni xavfsiz boshqarish uchun haydovchi barcha e'tiborni yo‘lga qaratishi kerak. Uyali telefonda gaplashish yoki do‘stlariga sms jo‘natish bo‘lsin, o‘z e’tiborini boshqa narsalarqa qaratgan haydovchilar oxir-oqibat boshqa haydovchilar yoki piyodalarning hayotini xavf ostiga qo‘yishadi. Avtomobilni boshqarish vaqtida chalg‘ish xavflidir, chunki mast holda avtomobil boshqarish odatda kechasi sodir bo‘lsa, avtomobilni boshqarish vaqtida chalg‘igan haydovchilar tomonidan sodir bo‘lgan avtohalokatlar kun bo‘yi sodir bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha o‘smirlar avtomobilni boshqarish vaqtida ko‘p chalg‘ishadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar kattalarnikiga qaraganda avtomobilni boshqarish vaqtida ko‘proq uyali telefondan foydalanishadi. [4]

(III).Mast holda haydash. Ichimlik odamlarning diqqatini jamlash va to‘g‘ri ishlash qobiliyatini yo‘qotadi. Bu haydovchining transport vositasini boshqarishi uchun xavflidir. (IV). Avtotransport vositalariga o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatmaslik. Avtohalokatlar sodir bo‘lishining birinchi sababi haydovchilarning xatosi bo‘lsada, avtomobillarga o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatilmasligi har yili yo‘l-transport hodisalari soning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.[5]



4-rasm. Avtomilning gaz baloni portlagan holat.

Misol tariqasida 4-rasmda keltirilgan gaz zapiravkasida portlab ketgan NEXIA avtomolini ko‘rib turibsiz bunday hodisalarga asosan texnik ko‘rikdan o‘tkazishayotgan vaqtlarida e’tiborsizliklar bo‘lganligi uchun bunga o‘hshash hodisalar ko‘paymoqda. (V). Boshqa sabablar. Qarama-qarshi bo‘lakda avtomobilni boshqarish, noto‘g‘ri burilishlar, transport vositasidagi nuqsonlar, quvib o‘tishdagi xatolar, svetaforning qizil chiroq ishorasiga bo‘ysunmaslik kabi ko‘plab boshqa sabablar halokatli yo‘l-transport hodisalariga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, yo‘l harakati qatnashchilarining huquqiy ma’daniyatini oshirishda nafaqat ichki ishlar organlari xodimlari, balki ta’lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlari vakillari muhim rol o‘ynashi zarurligiga e’tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, huquqiy ongni yuksaltirish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash targ‘ibotini kuchaytirish har qachongidanda dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Yo‘l harakati qoidalari” rasmiy nashr Toshkent 2016 y

2. Q.X.Azizov “ Harakat xavfsizligini tashkril etish asoslari” Toshkent 2009 y.

3. “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 10.04.2013 №348.

4. A.A.Eshanbabayev “Yo‘l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari” Namangan 2017 y

5. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi.

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA XARAKAT XAVFSIZLIGINI TAMINLASH

Pardaboyev O‘tkir Abduraximovich, asisstent (JizPI)

Annotatsiya: Mamlakatimiz miqyosida bugungi kundagi muammoli vaziyatlardan biri butun hudud bo‘yicha temiryo‘l liniyalaridagi xarakat havfsizligini taminlash uchun olib borilayotgan keng qamrovli targibot ishlari va hukumat qarorlar ijrosini taminlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: Bu boradagi qilinayotgan xatti harakatlar va chora tadbirlar temiryo‘l sanotida va jamoat tartibi hamda xarakat havfsizligini taminlash yagona burchimiz ekanligini anglatib turadi.

Temir yo‘l transporti - malakatimiz transportining etakchi zvenosi hisoblanadi. Temir yo‘l transporti texnik jihozlarining asosiy elementlariga yo‘l qurilmalari (izlar), sun‘iy inshootlar, stansiyalar, harakatlanuvchi sostavlar, elektr ta‘minoti qurilmalari, poezd harakatini tartibga solish va undan foydalanish ishlarini

bajaruvchi maxsus vositalar kiradi. Respublikamiz temir yo‘l transportining izlari kengligi (koleya kengligi) 1520…1524 mm ga teng. Boshqa davlatlarning temir yo‘l transporti izlari kenligi 1435-1676 mm oralig‘ida qabul qilingan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari temir yo‘llarining uzunligi 22 ming kilometrga tengdir.(1-rasm).



1-rasm.Yuklarni temir yo‘l transporti bilan tashish.

Qozog‘iston eng yirik va eng ko‘p foydalaniladigan temir yo‘llar tizimiga ega, uning hissasiga mintaqadagi temir yo‘llarning 66 foizi va barcha yuk tashishlarning 84 foizi to‘g_ri keladi. Mintaqadagi temir yo‘llarning qariyb 18 foizi O‘zbekiston hududidan o‘tadi va barcha tashishlarning qariyb 11 foizi mamlakatimiz hissasiga to‘g‘ri keladi. Turkmaniston taxminan 12 foiz mintaqaviy temir yo‘llarga egalik qiladi va barcha tashishlarning 4 foizini ta‘minlaydi. 2016 yil 22 iyun kuni Angren – Pop temir yo‘li ochildi. Ushbu yo‘nalish Xitoy – Markaziy Osiyo – Evropa temir yo‘lining muhim bo‘g‘ini sifatida Xitoydan Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mamlakatlariga eng qisqa yo‘l orqali chiqishni ta‘minlaydi va O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. 2017 yil fevral oyida Toshkent va Dushanbe o‘rtasida 1992 yilda to‘xtatilgan aviaqatnovlar qayta tiklandi. 2017 yilda Amudaryo orqali o‘tadigan Turkmanobod – Forob yangi temir yo‘l va avtomobil ko‘priklari ochildi. Bu yuk tashish hajmini 2,5 barobar oshirish imkonini berdi. O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Xitoy temir yo‘li qurilishi ham faollashgan.

Mustaqil Hamdo‘stlik Davlatlarining (MHD) Evropa qismida temir yo‘l shahobchalari qalin va sertarmoqli hisoblanib bunda barcha temir yo‘llarning 70 % ni tashkil qiladi. Butun MHD bo‘yicha temir yo‘llarning o‘rtacha zichligi 100 km2 ga 6,5 km bo‘lsa, Ukrainada 36,0, Moldovada 134,1, Rossiya federasiyasining markaziy rayonlarida (Markaziy Qoratuproq rayonlarida 26,6, Markaziy rayonlarda 23,3, Belorussiyada 26,7 tashkil qiladi. MDH Markaziy rayonlarida temir yo‘l 28 shohobchalari radial-halqa shakliga ega bo‘lib, Moskvadan temir yo‘llar o‘n ikki yo‘nalishda nurga o‘xshab taralgan bo‘lib unga halqasimon yo‘nalishlar (liniyalar) birlashgan.

MDHning Turkmanboshi shahridan Toshkentgacha O‘rta Osiyoni kesib o‘tadigan temir yo‘ldan Qozog‘iston orqali MDHni Evropa qismigicha (Toshkent Orenburg va CHorjo‘y-Astraxan liniyasi bo‘ylab) va Sibirga magistral yo‘llar chiqadi. Eng ko‘p yuklar tashiladigan temir yo‘llar muhim yo‘nalishlarga ega: Donbas Dneprbo‘yi, Kavkaz, Janubi-G‘arb, SHimoliy-G‘arb, Ural-Sibir va Qozog‘iston, Sibir-Qozog‘iston, O‘rta Osiyo va Uzoq sharq yo‘nalishlari shular jumlasiga kiradi. Turli yo‘nalishlar bo‘yicha yuk tashish tarkibi xilma-xildir. Neft mahsulotlarining 80% ga yaqini xususan, Sibir, Uzoq Sharq, O‘rta Osiyo temir yo‘llarida tashiladi. Xom neftning assiy yuk oqimlari neft qazib chiqariladigan rayonlarda, Volga-Ural, G‘arbiy-Sibir va Kaspiy bo‘yi rayonlarida tarkib topadi. Bunday yuklarning hajmi, uzoq yaqinligiga, aksari, neftni qayta ishlaydigan zavodlarining joylashishiga bog‘liq.

Temir yo‘llarda tashiladigan yog‘och-paxta yuklarining salmog‘i u qadar katta emas (4%dan kam), biroq ularning masofasi barcha yuk turlari asosida eng kattasi hisoblanadi (1650 kilometrdan ortiq), shuning uchun temir yo‘l tarnsportining yuk oborotida yog‘och-paxta yuklarining salmog‘i 7 % ortig‘ini tashkil qiladi. Barcha yog‘och-paxta yuklarining 60% dan ko‘prog‘i temir yo‘l tarnsportiga to‘g‘ri eladi. Yog‘och-paxtalar asosiy yirik stansiyalardan jo‘natiladi, bunday yuklar deyarli barcha temir yo‘llar bo‘ylab tashiladi. Mineral qurilish materiallari tashish hajmi ancha katta (25% dan ortiq). Bunday yuklar uzoq masofalarga tashilmaydi, shuning uchun bunday yuklar temir yo‘lning yuk oborotida 13 % ni tashkil qiladi. G‘alla yuklari asosan temir yo‘llarda tashiladi (barcha yuklarning 85% dan ko‘prog_i). G‘alla yuklari territoriya bo‘ylab katta maydonda ortiladi va tushiriladi. MDH hududida 2 mingdan ortiq g‘alla jo‘natadigan va 3 mingdan ortiq g‘alla qabul qiladigan stansiyalar mavjud.

Temiryo‘l transporti quruqlikda yuk tashish oborotiga ko‘ra eng yirik tarmoqdir. Bunda uning salmog‘i rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, yuqoridir. Hozirgi vaqtda jahon temiryo‘llarining umumiy uzunligi 1,2 mln. km ni tashkil qiladi. Ammo temiryo‘llar jahon mamlakatlarining atigi 140 tasida bo‘lib, yo‘llar umumiy uzunligining yarmi AQSH, Kanada, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Germaniya, 29 Argentina, Avstraliya, Fransiya, Braziliyadan iborat «birinchi o‘nlik» mamlakatlari hissasiga to‘gri keladi. Temiryo‘llar Yevropada eng zich, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa u juda siyrakdir. Bundan tashqari, temiryo‘l transportining rivojlanganlik darajasini ularning elektrlashtirilgan va yangi texnika (havo yostig‘i, magnit va elektrodinamika) vositalaridan foydalana olish imkoniyatlari ham belgilaydi. G‘arbiy Yevropa, Vaponiya, AQSHda temiryo‘lar fan-texnika inqilobining so‘nggi yutuqlari asosida qurilgan. Fransiya, Yaponiyada poyezdlar soatiga 280-300 km tezlikkacha harakat qilmoqda. Ayrim Afrika mamlakatlarida esa haligacha paravozlar xizmatidan foydalanib kelinadi.

Xulosa. Bugungi kunda mamlakatimiz hududida temityo‘l tizimida xarakat havfsizligini taminlash maqsadida qator hukumat qarorlari va ularning ijrosini taminlash bo‘yicha topshiriqlar berib kelinmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri bu mamlakatimiz bo‘ylab temiryo‘llarda xarakat havfsizligini taminlash fuqarolar, moddiy boyliklar va ularning osoyishtaligini taminlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublika Prezidentining Oliy majlisga murojaatnomasi. 22 yanvar 2020, 11:52 Siyosat.

2. geographyofrussia.com › vozdushnyj-transport.

3. ru.wikipedia.org › wiki › Узбекистанская_железная_дорога.

4. nrm.uz › products › folder=179677 vodiyyo‘ltransport.

5. M.S.Xodosh Gruzovыe avtomobilnыe perevozki. Moskva, Transport. 1980.

6. X.Ko_shnazarov. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash. Toshkent, Mehnat 1985.

7. Афанасьев Л.Л. Единая транспортная система и автомобильные перевозки / Л.Л. Афанасьев, Н.Б. Островский, С.М. Цукерберг. – Москва, Транспорт, 1984.

8. Грузовые автомобильные перевозки: учебник для вузов / А.В. Вельможин, В.А. Гуд-ков, Л.Б. Миротин, А.В. Куликов. – 2-е изд., стер. – Москва, Горячая линия – Телеком, 2007. – 560 с.

Internet havolalar

9. http://www.transnet.spb.ru.

10. http://www.citylines.ru.

11. http://viamobile.ru.

12. info@harleytou

TEXNIK VAQT NORMALARI TOKARLIK ISHLARIDA TAQSIMLANISH JARAYONI

Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li assestent (JizPI)
Dilmurodov Begali Mirali o‘g‘li talaba (JizPI)

Annotatsiya: Mazkur maqolada tokarlik ishlari texnik vaqt normalari hisobi va unga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: texnik vaqt me’yori, asosiy vaqt, yordamchi vaqt, kalkulyatsiya vaqti, tayyorlash vaqti, donali ishlab chiqarish, yalpi ishlab chiqarish.

Texnik me'yorlash deganda ma’lum bir ishni bajarish uchun sarflangan vaqt me’yorini aniqlash tushiniladi. Vaqt me’yorini to‘g‘ri belgilash ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyaitga ega.

Ishni bajarish uchun sarflangan vaqt birligi texnologik jarayon qanday darajada takomillashganligini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biridir.

Vaqt me’yorini texnik hisoblar va tahlillar asosida dastgohlarni, kesuvchi asboblarni imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishni, ishlov berilayotgan detalga qo‘yilgan texnikaviy shartlarni inobatga olib aniqlanadi. Mashinasozlikda vaqt me’yori belgilash metal kesish dastgohlarida bajariladigan alohida amal uchun sarflangan vaqt yoki vaqt birligi ichida tayyorlanadigan detallar miqdorini aniqlash demakdir. Shunday qilib texnik asoslangan vaqt me’yori deganda ma’lum bir tashkiliy-texnikaviy sharoitlarda ishlab chiqarish vositalaridan ilg‘or usullar yordamida unumli foydalanibl texnologik jarayon amallarini bajarish uchun sarflangan vaqt tushiniladi [1].

Vaqt me’yorini o‘rnatishda quyidagi shartlarni inobatga olish zarur:

1 .Ish ma’lum toifali ishchi tomonidan bajarilishi zarur;

2. Ishni bajarish uchun eng unumdor moslama va asboblar qollanilishi zarur;

3.Optimal kesish ma’romlari tanlanishi kerak, ko‘p keskich dastgohlar va shu kabi yuqori unumdorlikka ega usullardan foydalanish zarur;

4.Mexanik ishlov berish uchun qo‘yimlar miqdori to‘g‘ri belgilanishi kerak;

5.Vaqt me’yoriga dastgoh ishlab turgan paytda qo‘lda bajariladigan ishlar kiritilmasligi kerak;

6.Vaqt me’yoriga nuqsonli detallami to‘g‘rilashga va ularni o‘miga boshqasini tayyorlash uchun sarfiangan vaqt kiritilmaydi;

7.1shni to‘g‘ri tashkil qilish maqsadida ish o‘rniga chizmalar, materiallar, moslamalar, kesuvchi va boshqa asbob-uskunalar avvaldan keltirib qo‘yilishi zarur;

8.Kesuvchi asboblarni charxlash markazlashgan bo‘lishi zarur; Charxlangan kesuvchi asbobni ish o‘miga tayyor holda uzatiladi;

9.Vaqt me’yoriga hal qilinmagan tashkiliy masalalar bo‘yicha to‘xtashlar uchun va boshqa ko‘rinishdagi uzilishlar uchun sarfiangan vaqt kirmaydi;

10. Vaqt me’yori normal ish sharoitidan kelib chiqib belgilanishi zarur.

Texnik vaqt me’yori ishchining ish xaqini belgilashda va mahsulotni tannarhini kalkulyatsiya tuzilishda asosiy omillardan biri.

Texnik vaqt me’yorini aniqlash alohida amalni bajarishni tahlil qilib, har bir ish uchun sarfiangan vaqtni hisoblash asosida olib beriladi. Bu usul hisobiy analitik usul deb yuritiladi. Texnik vaqt me’yorini hisoblash usuli ishlab-chiqarish xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Yalpi ishlab-chiqarish sharoitida vaqt me’yorini aniqlashda har bir xatti-harakat inobatga olinsa, seriyali ishlab-chiqarish sharoitida xatti-harakatlar guruhi inobatga olingan holda hisob olib boriladi. Donali va kichik

seriyali ishlab chiqarish sharoitida namunaviy texnologik jaravonlar va amallar bilan taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi. Bu usullarga ko‘ra, qo‘lda bajariladigan harakatlar va harakatlar guruhi uchun sarfiangan vaqt xronometraj asosida ishlab chiqarilgan vaqt me’yoriga (me’yorlash bo‘yicha jadvallarda keltirilgan) ko‘ra aniqlanadi. Bu holda harakatlarni bajarsh unumli ketma-ketlik asosida bo‘lib asosiy vaqt davomida ayrim harakatlarni bajarilishi nazarda tutiladi [2].

Asosiy vaqt (asosiy-texnologik yoki mashina vaqt) tenglamalar asosida nazariy hisoblanadi. Bu tenglamalar (formulalar) dastgohning kinematik sxemasiga ko‘ra kesish ma’romlarini inobatga olib tuzilgan.

Xronometraj usul. Bu usulda vaqtni me’yorlovchi xodim (normirovshik) bajariladigan ishlar bilan to‘liq tanishib chiqadi.

Amalni bajarish uchun harakatlar guruhini tuzadi. Ilg‘or ishchi tomonidan bajariladigan harakatlar uchun sarflangan vaqt ham o‘lchanadi. har bir harakatlar guruhi uchun sarflangan vaqt 10- 100 marta takroran o‘lchanadi va o‘rtacha miqdori qabul qilinadi. natijada bir dona detal tayyorlash uchun sarflangan vaqt aniqlanadi. Shu vaqtga ko‘ra ishchining ish xaqi bajarilgan ishiga qarab va rag‘batlantirishni hisobga olib tayinianadi, Agarda ushbu ishni bajaruvchi ishchilarni ko‘p qismi vaqt me’yorini 120 % bajarsa, u holda vaqt me’yori qayta ко‘rib chiqiladi. Xuddi shu usulda bajarilgan ishlar yozib borilsa sarflangan vaqt aniqlansa, bu usulni ish joyini suratga olish usuli deb ham yuritiladi.

Mexanik ishlov berish uchun sarflangan vaqt me 'yorining tarkibi

Bir dona detal tayyorlash uchun sarflangan donaviy vaqtning tarkibi quvidagicha bo‘ladi:

a) asosiy yoki texnologik vaqt;

b) yordamchi vaqt;

c) ish joyiga xizmat ko‘rsatish uchun sarflangan vaqt.

Agarda vaqt sarfi bitta detal uchun aniqlansa, u donaviy vaqt deb yuritiladi.

Bundan tashqari**,** tayyorlash vaqti *ham* mavjud bo‘lib, u bitta partiyadagi detallar uchun hisoblanadi. Bu vaqtning miqdori partiyadagi detallar soniga bog‘liq bo‘lmaydi.

Shunday qilib, donaviy - kalkulyatsiya vaqti asosiy va tayyorlash vaqtlarini yi.g‘mdisiga teng bo‘ladi.

Asosiy (texnologik) vaqt bu bevosita metallni kesib ishlash uchun sarfiangan vaqt bo‘lib ma’lum bir metall qatlamini olib tashlash bilan bog‘liqdir.

Yordamchi vaqt quyidagilami o‘z ichiga oladi:

a) dastgohni boshqarish uchun sarfiangan vaqt, bu dastgohni yurgizish, to‘xtatish, tezlik va uzatishlar miqdorini o‘zgartirish va h.k.;

b) kesuvchi asbobni yordamchi yurishi;

c) xomashyoni moslamaga oʻmatish, mahkamlash, ishlov berilgandan soʻng olib qoʻyish, xuddi shuningdek, kesuvchi asbobni va moslamani dastgohga oʻmatish va olib qoʻyish;

d) Detaining oʻlchamlarmi nazorat qilish: oʻlchov asbobini olish, oʻichash, joyiga qoʻyish.

Yordamchi vaqt qoʻlda, mashina va mexanizmlar yordamida bajarilishi mumkin.

Ish joyiga xizmat koʻrsatish texnik va tashkiliy xizmat koʻrsatishlarga boʻlinadi.

Ish joyiga texnik xizmat koʻrsatishga quyidagilar kiradi:

a) dastgohni sozlash va moslash;

b) oʻtmaslashga kesuvchi asbobni almashtirish;

c) kesuvchi asbobni toʻgʻrilash (olmos yordamida);

d) qirindidan (ish jarayonida) tozalash.

Ish joyiga tashkiliy xizmat ко ʻrsathhga quyidagilar kiradi:

a) ish smenasini boshlanishida va yakunida kesuvchi asboblami saranjomlash;

b) dastgohni moylash va tozalash;

c) dastgohni koʻzdan kechirtsh va sinab koʻrish.

Ish joyiga xizmat koʻrsatish vaqti asosiy texnologik vaqtga bogʻliq boiadi. Shuning uchun ushbu vaqtni miqdorini asosiy va yordamchi vaqtlar yigʻindisi operativ vaqtga nisbatan foizlarda aniqlanadi (koʻp seriyali va yalpi ishlab chiqarish) va 3-5 % atrofida boʻladi.

Tanaffuslar, dam olish va ishchining jismoniy ehtiyojlarini qondirish uchun sarfiangan vaqt. Bu vaqt ishlab-chiqarish va dastgoh xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlandi. Ogʻir va tez toliqtiruvchi ishlarda tanaffuslar va dam olish uchun vaqt koʻzda tutiladi. Ishchining jismoniy ehtiyojni qondirish uchur. sarflangan vaqt operativ vaqtga nisbatan foizlarda aniqlanib 2-3% ni tashkil etadi.

Tayyorlash vaqti. Bu vaqt seriyalab ishlab chiqarisb sharoitida qoilaniladi va yangi partiya detallami chizmasini texnologik jarayonni oʻrganish uchun ajratiladi. Bundan tashqari dastgohni sozlab , moslama va kesuvchi asboblami almashtirisl ishdan soʻng esa (partiya detallariga ishlov berilgandan soʻiig; ulami yana qayta almashtirish kabi ishlar ham shu vaqt doirasig: kiradi.

Yuqoridagilami inobatga olib donaviy vaqt quyidagicha koʻrinishda boʻladi:

$$\mathbf{t_d = t_a + t_{yor} + t_{xiz} + t_j}\ ;\ \text{min} \qquad (1)$$

bu yerda: t_a - asosiy vaqt, min; t_{yor} - yordamchi vaqt, min; t_{xiz} -ish joyiga xizmat koʻrsatish vaqti, min; t_j - ishchining jismoniy ehtiyojini qondirish uchun sarflangan vaqt, min.

Donaviy-kalkulyatsiya vaqti esa:

$$\mathbf{t_{d\text{-}k} = t_a + t_{yor} + t_{xiz} + t_j + (t_{tay}/n)};\ \text{min} \qquad (2)$$

bu yerda: t_{tay} - tayyorlash vaqti, min; n - partiyadagi detallar soni.

Vaqt me’yorlarini aniqlashda ishchining malakasi ham belgilanadi. Ishchining malakasini belgilashda ishlab chiqarish tarmog‘idaga malakaviy-tarif ma’lumotlariga asoslaniladi.

Ishni bajarish uchun qancha boy tajriba va bilim talab qilinsa ishchining malakasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Donali ishlab chiqarishda dastgohni sozlash, kesuvchi asbobni o‘matish, oichov asboblaridan foydalanish talab etilganligi sababli yuqori malakali ishchi ishlaydi.

Yalpi ishlab chiqarish sharoitida aksariyat ishlar mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilganligi sababli hamda dastgohni va kesuvchi asbobni sozlovchi ishchi tomonidan sozlanishi, yuqori malakali ishni talab etilmaydi. Shuningdek, quyidagi omillarni ham texnik vaqt normasini hisoblashda e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) TXK va ta’mirlashlar turi, xamda tizimi.

2) Ishonchlilik — mashinaning berilgan vazifalarni belgilangan ish ko‘rsatkichlari qiymatlarini saqlagan holda texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlashva tashish tartibotlari (rejimlari) shartlariga mos kelgan holda bajarish xususiyati.

3) Chidamlilik — mashina, agregat, uzel, tutashmaning o‘zining ishlash qobiliyatini oxirgi holatgacha saqlash xususiyati.

4) Ta’mirlashga yaroqlilik — mashina (agregat, uzel)ning texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash yo‘li bilan ishlamay qolishi hamda nuqsonlarining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga moslashganligidan iborat bo‘lgan xususiyati.

5**)** Bajargan ishi**,** ob’ektning ishlash davomliligi yoki xajmi. Ob’ektning bajargan ishi vaqt, uzunlik, maydon (gektarda), xajm, massa va boshqa birliklarda o‘lchanishi mumkin.

6) Ishlamay qolgunga qadar bajargan ishi — ta’mirlanayotgan buyumning ishlamay qolishlar oralig‘ida bajargan ishining o‘rtacha qiymati. Mazqur atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

7) Nosozlik — buyumning shunday holatiki, bunda u texnik xujjatlardagi talablarning loaqal bittasiga ham mos kelmaydi.

8) Ishlamay qolish — ob’ektning ishlash qobiliyati buzilishidan iborat bo‘lgan hodisa. Ishlamay qolish mezonlari me’yor belgilovchi — texnik xujjatlarda keltiriladi.

9) Xizmat muddati — ob’ekt ishlatila boshlangandan yoki kapital ta’mirlashlangandan to texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holatga kelgunga yoki hisobdan chiqarilgunga qadar kalendar ishlash davomliligi.

10) Resurs — buyumning texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holatga qadar bajaradigan ishi.

11) Ta’mirlashlararo xizmat muddati yoki resursi — ta’mirlashlangan mashinaning texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holat yuzaga kelgunga qadar bajaradigan ishi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, texnik vaqt normasini hisolash yetarlicha murakkab jarayon sanaladi shu bilan birga ta’mir sifatiga, mahsulot sifati, mustahkamligi va detallar va ehtiyot qismlar tannarxiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu vazifani bajarishda doim ilmiy jihatdan yondashish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1.Avtomobillar xarakat xavfsizligiga faol ta’sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko‘rsatkichlari.// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li, //Механика и технология,// 123-128

2.Road traffic safety and its impact on the development of modern road-transport expertise// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 7,// 157-164

3.Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li //Eurasian Research Bulletin 18,// 114-132

4.Jamoat transportlari yo‘nalishlarida harakat miqdori va tarkibini tadqiq qilish// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li, //Scientific Impulse 1 (7),// 793-798

5.Dvigatel konstruktsiyasi va ishchi jarayonlarini boshqarishni mukammallashtirish// SA Ismoiljon o‘g‘li, Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li //Scientific Impulse 1 (4)//, 536-542

6.Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li //Eurasian Research Bulletin //8, 114-13210. Sarimsaqov AM. Nazirov N. Organization of the management of the activities of the Shakhrikhan bus station with information technologies // Universum: technical sciences: electron. Scientific. Journal. 2022. 2(95). URL: https://.

TRANSPORTDA MULTIMODAL RAQAMLI PLATFORMATEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANISHI.

Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li, assestent (JizPI)
Dilmurodov Begali Mirali o‘g‘li, talaba (JizPI)

Anatatsiya: Multimodal transportda raqamli platforma texnologiyalari ishlab chiqilgan va modellashtirilgan bo‘lib, bir nechta ulanish variantlari tufayli tashvishlarni ajratish katta ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, muayyan

muammolarga aniq echimlar, ma'lumotlarni tahlil qilish va aniqroq biznes qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Multimodal transport, texnologiyalar, raqamli platforma, innovatsion xizmatlar, Bulut, Infratuzilma, boshqaruv to‘siqlari.

Kirish. Platforma texnologiyalari - bu tizimni mavhumlikning turli darajalarida taqsimlovchi platforma arxitekturasiga asoslangan tizimlar. Bu funksiyalar yoki xizmatlarning ma'lum darajalarini farqlash uchun amalga oshiriladi. Har bir abstraksiya qatlami quyi qatlamlarning asosiy xizmatlariga asoslanadi. Eng yuqori qatlamlar ilovalar qurilgan xizmatlarni taqdim etadi. Pastki qatlamlar (ulangan) infratuzilma va (xom) ma'lumotlar bilan shug‘ullanadi.[1-2]



1-rasm: Raqamli platformaning tasviri

Platforma texnologiyalari rivojlanmoqda, lekin ulanishning ortishi va aloqa texnologiyalarining ko‘plab imkoniyatlari tufayli muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega. Ilovalar ma'lumotlarning qayerdaligini yoki qanday protokol kerakligini bilishlari shart emas, ularga kerakli ma'lumotlarga kirish uchun xizmatlar kerak.

Ushbu xizmatlarni qo‘llab-quvvatlash platformadagi pastki qatlamlarning mas'uliyati hisoblanadi. Hozirgi vaqtda transport va mobillik sohasida bir nechta platformalar ishlab chiqilgan va ular mavjud. Masalan, PlanIT LivingPlanIT operatsion tizimi, IBM® Intelligent Operations Center, Oracle Smart City Platform Solution, MOBINET, In-Time, I-Travel yoki TNO Urban Strategy platformasi.

Shuningdek, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini monitoring qilish va real vaqt rejimidagi talab va taklif ma’lumotlari asosida adolatli narx belgilash mexanizmlarini o‘rnatish mumkin.

Ishchi kuchini talab qiladigan operatsion faoliyat maxsus ta'limni/o‘qitishni talab qilmaydi, shuning uchun mos ishchilarni osongina topish mumkin. Potentsial aktivlarga egalik qilishning oldini olish va shunday tashkil qilish mumkinki, foydalanilmagan quvvatlar xavfi minimallashtiriladi va tashkilot talabning

oʻzgarishiga chidamli boʻladi. Haqiqiy vaqtda va integratsiyalashgan ma'lumotlarning mavjudligi asosiy talabdir.

Agar butun jarayon bitta tashkilot qoʻlida boʻlsa, buni aniqlash osonroq. Talab va taklifning mos kelishi ehtimoli yuqori va shuning uchun koʻproq odamlar bir xil xizmatdan foydalansa, xizmat koʻrsatish darajasi yuqori boʻladi; Bu bozor raqobatining pasayishiga olib keladi, natijada bozorda bir nechta yirik oʻyinchilar hukmronlik qiladi.

Axborotning mavjudligi va mavjudligi tez sur'atlar bilan oʻsib bormoqda. Platforma texnologiyasi hali ham katta hajmdagi (real vaqtda) ma'lumotlarni qayta ishlash va qayta ishlash imkoniyatiga ega boʻlishi kerak. Bulutli texnologiyalar, HPC klasterlari (yuqori samarali hisoblash klasterlari) yoki grid hisoblashlar (ya'ni, geografik jihatdan taqsimlangan, lekin tarmoqlar orqali ulangan bir nechta kompyuterlar) va sun'iy intellekt tahlilining integratsiyasi zamonaviy platforma texnologiyalari bilan qoʻllab-quvvatlanishi kerak.[5 -6]

Qiyinchiliklar. Raqamli platformalar muayyan muammolarga aniq echimlar beradi. Ammo, umuman olganda, quyidagi muammolar hal qilinadi.

• Agar blokcheynlar ochiq boʻlmasa, sotuvchi bloklanishi mumkin, ya'ni xizmat koʻrsatuvchi provayderlar oʻziga xos boshqaruv va biznes modellari bilan xususiy platforma xizmatlarini taklif qiladi. Ular bunga rozi boʻlishni istagan har bir kishi uchun ochiq. Shunday qilib, sotuvchidan maslahat xizmatisiz, yangi xizmatlarni taqdim etish uchun platformani kengaytirish oson emas. Boshqa xizmatlarga qurilish bloklarini osongina qoʻshish uchun oʻzaro muvofiqlik va standartlashtirish kerak.

• Koʻpgina platformalar muayyan domenlardan xizmatlarni integratsiyalashga qaratilgan.

• Xizmatlar platforma uchun ishlab chiqilgan va faqat shu platformada ishlaydi.

• Joriy platformalarda ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari mavjud. Har bir platforma bu bilan shugʻullanishning oʻziga xos usuliga ega va oʻrtacha texnologiya ma'lumotlar maxfiyligi va egasining jihatlarini va ushbu ma'lumotlardan qayerda foydalanilayotganini kuzatish qobiliyatini samarali hal qilish uchun etarlicha moslashuvchan emas.

Usullari

Gartner ta'rifiga koʻra (2001 yil holatiga koʻra, hali ham ta'rifi) katta ma'lumotlar hajmi katta va tobora yuqori tezlikda boʻlgan ma'lumotlardir. Bu uchta va oddiy qilib aytganda, katta ma'lumotlar kattaroq, murakkabroq ma'lumotlar toʻplamidir, ayniqsa yangi ma'lumotlar manbalaridan olingan ma'lumotlar shunchalik kattaki, an'anaviy ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlari ularni boshqara olmaydi. Ammo bu katta ma'lumotlardan ilgari hal qilib boʻlmaydigan biznes

muammolarini hal qilish uchun foydalanish mumkin. Katta ma'lumotlarning uchta qarshiligi:

• Hajmi: Ma'lumotlar miqdori muhim. Katta ma'lumotlar - bu past zichlikdagi, tuzilmagan ma'lumotlarning katta hajmlari haqida. Bu Twitter ma'lumotlari, veb-sahifa yoki mobil ilovadagi klik oqimi yoki sensor apparati kabi noma'lum qiymatdagi ma'lumotlar boʻlishi mumkin.

• Tezlik: Tezlik - bu ma'lumotlarni qabul qilish va (ehtimol) koʻchirish tezligi. Internetga ulangan ba'zi aqlli mahsulotlar real vaqtda yoki real vaqtda ishlaydi va real vaqtda baholash va harakatni talab qiladi.

• Turli xillik: Bu mavjud ma'lumotlarning koʻp turlariga ishora qiladi. Ma'lumotlarning an'anaviy turlari tuzilgan va tegishli ma'lumotlar bazasida joylashtirilgan. Katta ma'lumotlarning tarqalishi bilan ma'lumotlar tuzilmagan ma'lumotlarning yangi turlarini kiritmoqda. Matn, audio va video kabi tuzilmagan va yarim tizimli ma'lumotlar turlari ma'noni ajratib olish va metama'lumotlarni qoʻllab-quvvatlash uchun qoʻshimcha qayta ishlashni talab qiladi.

Soʻnggi bir necha yil ichida yana ikkita V paydo boʻldi: qiymat va haqiqiylik. Ma'lumotlar ichki qiymatga ega. Ammo bu qiymat aniqlanmaguncha, u hech qanday foyda keltirmaydi. Xuddi shunday muhim: ma'lumot qanchalik haqiqat, qanchalik ishonchli?[7-8]

Bugungi kunda katta ma'lumotlar kapitalga aylandi. Yirik texnologiya kompaniyalari takliflari qiymatining katta qismi samaradorlik va yangi mahsulotlarni oshirish uchun doimiy ravishda tahlil qiladigan ma'lumotlardan kelib chiqadi. Soʻnggi texnologik yutuqlar ma'lumotlarni saqlash va hisoblash xarajatlarini eksponent ravishda pasaytirdi, bu har qachongidan ham koʻproq ma'lumotlarni saqlashni oson va arzonlashtirdi.

Katta ma'lumotlarning keng tarqalishi bilan endi arzonroq va qulayroq biznes qarorlarini yanada aniqlik va aniqlik bilan qabul qilish mumkin. Katta ma'lumotlarda qiymat topish shunchaki uni tahlil qilish emas (bu yana bir afzallik). Bu aniq tahlilchilar, biznes foydalanuvchilari va menejerlardan toʻgʻri savollar berish, naqshlarni tan olish, asosli taxminlar qilish va xatti-harakatlarni bashorat qilishni talab qiladigan butun kashfiyot jarayoni. Yana bir rivojlanayotgan texnologiya bu erda hal qiluvchi ahamiyatga ega va bu sun'iy intellektdir

Natijalar va muhokama

Shuningdek, mobillik va multimodal transportda ma'lumotlar miqdori tez sur'atlar bilan oʻsib bormoqda va transport vositalarini, transport zanjirlarini yoki transport tarmoqlarini boshqarishning murakkabligi kutilmoqda. Natijada, qoʻlda rejalashtirish yoki oddiy ma'lumotlarni tahlil qilish usullari yordamida optimal variantlarni tanlash mumkin boʻlmaydi. Shunday qilib, sun'iy intellekt echimlari katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash va (real vaqtda) vaziyatlarda

murakkablikni boshqarish uchun odamlarni qo‘llab-quvvatlashi yoki hatto nazorat qilishi mumkin.

TNO va TKI Dinalog (2020) da tushuntirilganidek, AI dasturlari quyidagilarga e'tibor qaratishi mumkin:

• odamlar va ob'ektlar, shu jumladan yo‘l harakati qatnashchilari, transport vositalari, yuklar, saralash kamarlari va infratuzilma;

• jarayonlar va tizimlar, jumladan ta'minot zanjirlari, transport markazlari, transport, siyosat va qoidalar.

O‘z-o‘zini boshqaradigan transport vositalari (avtomobillar, yuk mashinalari, poezdlar, barjalar), aqlli elektr zaryadlash, bashoratli texnik xizmat ko‘rsatish, o‘z-o‘zini o‘rganish energiya va chiqindilarni boshqarish, kooperativ harakatchanlik, birgalikda iqtisod va o‘z-o‘zini tashkil qilish kabi mobillik va logistika sohasidagi aqlli ilovalar. logistika.

Sun'iy intellektning bunday ilovalari hali amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, ular kelgusi yillarda odamlarni o‘z faoliyatida qo‘llab-quvvatlash uchun yanada takomillashtiriladi va sinovdan o‘tkaziladi.

Asosiy maqsad - bu sekin qabul qilishning mumkin bo‘lgan sabablarini o‘rganish va so‘nggi texnologik yutuqlar landshaftni qanday o‘zgartirganini baholash va shu bilan bu to‘siqlarni engib o‘tishga yordam beradi. Shunday qilib, ushbu sharhning hissasi ikki xil: u multimodal transport sohasida mavjud va paydo bo‘layotgan AKT ilovalari va mavjud elektron multimodal transport to‘siqlari haqida zamonaviy umumiy ko‘rinishni taqdim etish orqali mavjud bilimlarni rivojlantiradi.

Tanlangan loyihalar multimodal transport oldida turgan muayyan muammolarni hal qilishga qaratilgan raqamli platformalardir. Ma'lumotlar CORDIS va TRIP loyiha arxivlari va loyihalarning shaxsiy veb-saytlari orqali to‘plangan.

Multimodal transport operatorlari o‘rtasida umumiy samaradorlik, ko‘rinish va aloqani yaxshilashda AKTning ijobiy roli ko‘plab manfaatdor tomonlar tomonidan e’tirof etiladi, biroq turli rejimlarda farq qiluvchi AKTni o‘zlashtirishda ko‘plab to‘siqlar mavjud bo‘lganidan keyin u uch toifaga bo‘linadi. Ta'sir doirasiga ko‘ra AKTni qabul qilishning bir qancha omillari aniqlangan: foydalanuvchi bilan bog‘liq, texnologiya bilan bog‘liq va siyosat bilan bog‘liq to‘siqlar. Ushbu bo‘limda AKTni o‘zlashtirishdagi to‘siqlar va tegishli omillar chuqur o‘rganilib, uning multimodal transportga ta'siriga e'tibor qaratiladi. Bu yerda foydalanuvchilar multimodal operatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi transport bilan bog‘liq tashkilotlar, o‘zlarining kundalik operatsiyalari va boshqaruvida AKT ilovalaridan foydalanadigan organlar va kompaniyalardir.

Bulutli hisoblash. IT infratuzilmasiga sarmoya kiritish va qimmatbaho apparat va dasturiy yechimlarni sotib olish zarurati samarali biznes amaliyotiga xalaqit

berishi mumkin. Bulutli hisoblash IT-mutaxassislari tomonidan taqdim etilgan AT resurslari va boshqaruviga sarmoyalarning yuqori narxiga muqobil bo‘lib, texnologiya va, xususan, foydalanuvchilar bilan bog‘liq to‘siqlarni minimallashtiradi. Mavjud ma'lumotlar markazlariga kirish, ilovalarni qayta ishlash va talab bo‘yicha echimlar (infratuzilma sifatida dasturiy ta'minot, platforma sifatida dasturiy ta'minot va xizmat sifatida dasturiy ta'minot) axborot xizmatlarini taqdim etish uchun ularni birlashtirish uchun eng yangi tarmoq va ma'lumotlar bazasi texnologiyalaridan moslashuvchan va qulay foydalanadi.

Bulutli hisoblashdan foydalanadigan kompaniyalar faqat talab bo‘yicha ma'lum hisoblash resurslari uchun haq to‘laydilar, ularga smartfonlar, kompyuterlar va boshqa qurilmalar yordamida veb-interfeys orqali kirish mumkin. Xizmat sifatida dasturiy ta'minot (SaaS) qat'iy yoki bir martalik abonent to‘lovi evaziga Internet-brauzer orqali ma'lum dasturiy ta'minotga kirishning mashhur usuliga aylandi (O ch Sullivan, 2007).

Bulutli texnologiyalardan xizmat sifatida foydalanish orqali tashkilotlar AKT dasturlari murakkabligini boshqarish yukidan xalos bo‘ladi va asosiy biznes strategiyalariga e'tibor qaratishi mumkin. Bu kichik va o‘rta korxonalar uchun strategik ahamiyatga ega, ular aks holda o‘zlarining biznes ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash uchun etarli AKT yechimlarini joylashtira olmaydilar yoki ichki salohiyat va tajribaga ega emaslar. Boshqa tomondan, talab bo‘yicha xizmatlardan foydalanuvchilar ham ushbu xususiyatlardan foydalanishdan oldin xavfsizlik oqibatlaridan xabardor bo‘lishlari kerak, bu esa ko‘tarilgan xarajatlar bilan qoplanishi mumkin.[9-10]

Multimodal transport muhitida bulutli hisoblashdan foydalanadigan odatiy misol bulutga asoslangan elektron logistika bozoridir. ELMlar transport xizmatlarini spot sotish (ochiq ELM sifatida tanilgan) yoki ma'lumot almashish va uzoq muddatli hamkorlik (yopiq ELM sifatida tanilgan) uchun jo‘natuvchilar va mijozlarni bog‘laydigan veb-ga asoslangan AKT tizimlaridir (Vang va boshq., 2007).

Yuboruvchilar va tashuvchilar o‘rtasidagi va ularning mijozlari (qabul qiluvchilar) o‘rtasidagi aloqaning an'anaviy usuli xarakterlanadi va parchalanadi. Misol uchun, agar mijoz ma'lum bir jo‘natishni qidirmoqchi bo‘lsa, ular jo‘natuvchiga murojaat qilishlari kerak, so‘ngra yangilanish uchun tegishli tashuvchiga murojaat qilishlari kerak. Agar ekspeditor ishtirok etgan bo‘lsa, bu jarayon yanada murakkabroq bo‘lar edi.

3-rasmda buyurtmani bajarish jarayonini boshqarish va ta'minot zanjiri bo‘ylab aloqani tezlashtirish uchun yopiq ELM qanday ishlatilishi ko‘rsatilgan. Jarayon mijozning ELMga buyurtma berishidan boshlanadi va buyurtma avtomatik ravishda jo‘natuvchiga o‘tkaziladi. Shundan so‘ng, tashishni rejalashtirish va bajarish tashuvchi o‘rtasida amalga oshiriladi.

Tranzit yuklarni yetkazib berish jarayonida tizim ushbu partiyaning holati haqida doimiy ravishda yangilanadi (masalan, GPS yordamida real vaqt rejimida kuzatish orqali). Yopiq ELMni mahalliy yoki bulutli hisoblashga asoslangan uchinchi tomon texnologiya xizmat koʻrsatuvchi provayderi joylashtirishi mumkin. Ikkinchisi koʻpincha bulutga asoslangan ELM deb ataladi. Bulutga asoslangan ELM dan foydalanishning eng katta afzalliklaridan biri shundaki, u ma'lum bir yuk bilan bogʻliq barcha ma'lumotlarni markazlashtirilgan holda boshqarish imkonini beradi.

Shu sababli, har qanday oʻzgarishlar bir vaqtning oʻzida barcha ishtirokchi tomonlarga etkazilishi mumkin. Koʻrinishning oshishi kompaniyalarga ta'minot zanjiri ustidan koʻproq nazorat qilish va favqulodda vaziyatlarga proaktiv javob berish qobiliyatini beradi. Tizim, shuningdek, moliyaviy hisob-kitoblarni va etkazib berishning umumiy qiymati va oʻz vaqtida yetkazib berish kabi ish faoliyatini baholashni osonlashtirishi mumkin. ELM yuk joʻnatuvchilar oʻrtasidagi aloqa tizimini oʻzgartiradi, turli xil transport turlarini oʻzaro bogʻlangan, soddalashtirilgan ta'minot zanjiriga birlashtiradi va bir qator afzalliklarni, jumladan, arzonroq xarajatlar va mijozlarga xizmat koʻrsatishni yaxshilaydi.

Simsiz / mobil aloqa texnologiyalari va Internet materiallari. Operatorlarga multimodal yuk operatsiyalari paytida individual aktivlarni/konteynerlarni kuzatish va muzlatilgan yoki suyuq mahsulotlarning harorati va namligi yoki transport vositasining mexanik holati kabi qoʻshimcha yuk ma'lumotlarini olish imkonini berish uchun radiochastotani identifikatsiyalash (RFID) teglari ruxsat beruvchi mikrochiplardan foydalaniladi (Vang. va Potter, 2007, ENABLE, 2010a, ENABLE, 2010b, Ferrer va boshqalar, 2010).

Jonsning ta'kidlashicha, RFID texnologiyasi biznesdan biznesga (B2B) bozorida identifikatsiya va xavfsizlik uchun keng qoʻllaniladi, NFC esa Business to Consumer (B2C) bozorida keng qoʻllanilishiga ega.

Ta'minot zanjiri va/yoki multimodal transportda NFC texnologiyasidan foydalangan holda qoʻshimcha ilovalarni ishlab chiqish salohiyati juda katta. Integratsiya va yaratishga xalaqit beradigan maxsus qoʻl asboblarini sotib olish yoki ishlab chiqish zarurati NFC tizimi va har kuni arzonroq mobil qurilmalardan foydalangan holda aqlli mobil ilovalarni ishlab chiqish bilan uzluksiz mahsulot oqimi bilan almashtirilishi mumkin.



Shakl 3. Yopiq ELM operatsion modelining umumiy nuqtasi.

Masalan, terminalga yetib kelgan haydovchi oʻrnatilgan ilova yordamida operatorni kelgani haqida xabardor qilish uchun mobil telefonini skanerlashi, soʻngra mobil qurilmada tovarlarni qayerga tushirish kerakligi haqida zudlik bilan fikr bildirishi mumkin. Agar mobil qurilmada GPS yoqilgan boʻlsa, u avtomatik ravishda haydovchiga keyingi vazifa haqida xabar berishi mumkin. Ilova tezroq bojxona rasmiylashtiruvi, tovarlarni istalgan vaqtda kuzatish va xavfli tovarlar boʻyicha koʻrsatmalar uchun kengaytirilishi mumkin. Texnologiyalar AKTni oʻzlashtirish yoʻlidagi bir qator toʻsiqlarni, jumladan kompaniya hajmi, integratsiyaning koʻrinishi muammolari va moliyaviy cheklovlarni engib oʻtishi mumkin.

Konteynerlarni kuzatish - Internet of Things dasturining yana bir sohasi. Konteynerlarni kuzatish odatda yuk tashish konteynerlari, qutilari va palletlariga biriktirilgan RFID teglariga tayanadi, ular keyinchalik yoʻl davomida turli nuqtalarda oʻqiladi. RFID-dan faqat konteynerni kuzatish uchun foydalanishning cheklanishi shundan iboratki, ma'lumotlarni faqat RFID oʻquvchilari kabi tegishli infratuzilma mavjud boʻlganda olish mumkin.

Multimodal transport jarayonini tashkil qilish uchun axborotni qayta ishlash tizimlari kerak. Axborotni tashish tizimlari axborotni yigʻish, saqlash va uzatishni oʻz ichiga oladi. Axborotning katta oqimi va turli parametrlar mavjudligi sababli, axborot va aloqa tizimlari talab qilinadi. Multimodal jarayonda transport va axborot tizimlari quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

• Tizim integral boʻlishi kerak, ya'ni logistika xizmatining barcha pozitsiyalarini bogʻlaydi;

• Tizimning koʻp funksiyaliligi va mosligi til, matn va video aloqalarning boʻlinishini oldini oladi;

• tizim moslashuvchan boʻlishi kerak, kompyuterlar markaziy va individual echimlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlaydi;

• Tizim samarali ishlashi - iqtisodiy foyda keltirishi kerak; ammo, ma'lumotlarni uzatish qimmat boʻlmasligi kerak;

• Tizim maksimal darajada portativ boʻlishi kerak, lekin zamonaviy tizimlarga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak;

• Tizim uzatishning yuqori tezligini ta'minlashi kerak (Batarlinnė 2011).

Multimodal tashishda AT dan samarali foydalanish uchun yuklarni qayta yuklash operatsiyalarini rejalashtirish birinchi navbatda terminalni talab qiladi. Multimodal tashishni amalga oshiruvchi korxonalar yuk tashishning texnik masalalarini hal qiladi va bir vaqtning oʻzida tashilayotgan yuk haqida ma'lumot beradi. Terminalda ishni tashkil etishning asosiy vazifasi - har bir qayta yuklash operatsiyasi va oʻzaro ta'sirni optimallashtirish;

transport turlaridan samarali foydalanish. Axborot tizimlari - bu yuklarni boshqarish oqimini osonlashtiradigan faoliyat, xususan, terminallarni boshqarishda qo‘llaniladigan uzluksiz axborot.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi kontseptsiyasiga muvofiq, terminalda quyidagi funktsiyalarni bajaradigan axborot tizimi bo‘lishi kerak:

• terminal va logistika markazlari dasturlarini rejalashtirish;
• uskunadan foydalanishni rejalashtirish;
• yuklash operatsiyalarini qayta ishlashni rejalashtirish;
• konteynerlarni boshqarish;
• maqbul avtomatlashtirilgan uskunalarni boshqarish;
• zarur o‘zgarishlarni boshqarish va amalga oshirish qobiliyati;
• uskunalar bilan ishlash bo‘yicha ma'lumotlar va statistik ma'lumotlarni olish.

Multimodal transport haqida gap ketganda, transport konteyner tashish turli rejimlarda tahlil qilinishi mumkin. The cheap way to ship a container temiryo‘l va dengiz transporti orqali amalga oshirish.

Adabiyotlar:

1. Avtomobillar xarakat xavfsizligiga faol ta’sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko‘rsatkichlari.// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li, //Механика и технология,// 123-128

2. Road traffic safety and its impact on the development of modern road-transport expertise// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 7,// 157-164

3. Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li //Eurasian Research Bulletin 18,// 114-132

4. Jamoat transportlari yo‘nalishlarida harakat miqdori va tarkibini tadqiq qilish// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li, //Scientific Impulse 1 (7),// 793-798

5. Dvigatel konstruktsiyasi va ishchi jarayonlarini boshqarishni mukammallashtirish// SA Ismoiljon o‘g‘li, Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li //Scientific Impulse 1 (4)//, 536-542

6. Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport Directions// Mizrabov Ulug‘bek Boliqul o‘g‘li //Eurasian Research Bulletin //8, 114-13210. Sarimsaqov AM. Nazirov N. Organization of the management of the activities of the Shakhrikhan bus station with information technologies // Universum: technical sciences: electron. Scientific. Journal. 2022. 2(95). URL: https://.

ДИЗЕЛ ДВИГАТЕЛЛИ АВТОМОБИЛЛАР ПРЕЦИЗИОН ДЕТАЛЛАРИНИ БУЗИЛИШИ ВА БУЗИЛМАЙ ИШЛАШ АНИҚЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ

Абдуллаев А.И. эркин тадқиқотчи; (ТерДУ)
Муратов А.Х. PhD (ТерДУ)

Аннотация. Ушбу мақолада дизел двигателли автомобилларни иссиқ иқлим шароитида эксплуатация қилиш жараёнида унинг ишончлилигига таъсир этувчи омиллар ҳамда ёнилғи аппарати плунжер жуфтлик деталини бузилиши ва бузилмай ишлаш эхтимоллик кўрсаткичлари таҳлили келтирилган.

Калит сўзлар: плунжер жуфтлик детали, эксплуатация, ишончлилик, бузилиш, ейилиш, юза аниқлиги**,** вариацион қатор.

Кириш. Мамлакатимизда саноат ва қишлоқ хўжалигининг йилдан йилга ривожланиб келаётганлиги сабабли автотранспорт воситаларининг роли ва аҳамияти ортиб бормокда. Шу билан биргаликда автотранспорт воситаларининг тежамкорлиги, хавфсизлиги, қулайлиги ва бошқа эксплуататсион кўрсаткичлари ҳамда агрегат, узел, деталларини турли шароитларда ишончли ишлашини таъминлаш масалаларига катта эътибир қаратилмоқда. Шунингдек, мамлакатимизда автомобиллар сонининг кескин ошиб бораётгани табиий-иқлимий ва йўл шароитлари таъсирини ҳисобга олиб, уларни тўғри эксплуататсия қилиш орқали ишончлилик кўрсаткичларини ошириш масалалари муҳим ҳисобланади [1].

Транспорт воситасининг эксплуатация муддати ошган сари деталларнинг ейилиши ва носозликлар натижасида унинг техник ҳолати аста-секин ёмонлашиб боради: двигател қуввати ва ҳаракат техник тезлиги пасаяди, ёнилғи сарфи ва ейилиш жадаллиги ошади, бошқарув қулайлиги ёмонлашади, техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш ҳажми ортади, ишончлилиги пасаяди. Транспорт воситасининг техник ҳолатига қуйидаги эксплуатацион омиллар таъсир этади.

- эксплуатацион материаллар сифати (бензин, дизель ёнилғиси, газ ёнилғиси, мойлаш материаллари, махсус суюқликлар, антифриз, тормоз суюқлиги ва бошқалар);
- иқлим шароитлари;
- йўл шароитлари;
- транспорт воситасидан техник фойдаланиш (қувватдан фойдаланиш тартиботлари, автомобилни ҳайдаш сифати);
- техник хизмат кўрсатишнинг сифати;

[2]

Ёнилғи–мойлаш материалларига қўйиладиган асосий талаб – уларнинг Давлат стандартларига ва автомобил двигатели конструкциясига ҳамда иқлим шароитлари ва автомобил эксплуатациясининг тартиботларига мос келишидадир. Шунинг учун ёнилғилар дизел двигателлари учун, ёзги ва қишки мавсумларга мулжалланган ҳамда сифати бўйича (цетан сонлари) турларга бўлинади.

Ёнилғининг таркибида механик аралашмаларнинг бўлиши ёнилғи етказиб бериш аппаратурасидаги прецизион жуфтлик деталларини ейилишига сабаб бўлади. Дизель двигателларининг ёнилғи таминот тизимидаги юқори босимли ёқилғи насосининг плунжер жуфтлик детали двигателнинг барча иш режимларида унга ёқилғинининг бир маромда узатилишини таъминловчи асосий деталлардан бири бўлиб ҳисобланади.

Плунжер жуфтлик деталлари ишлаши мабойнида ейилади. Плунжер жуфтларнинг ишлаш шароити уларнинг ейилиш хусусиятини аниқлаб беради. Иссиқ об-ҳаво, юқори даражада чангланиши бўлган шароитида плунжер жуфтларнинг ишлаш муддати сезиларли даражада камаяди. Ёнилғида абразив заррачаларнинг мавжудлиги ишчи юзада тирқишлар ҳосил бўлишига сабаб бўлиб, бу ўлчамларнинг кескин ўзгаришига ва деталларининг қисилиб қолишига олиб келади. Бу ўз навбатида ёнилги аппаратини ишдан чиқишига олиб келади [3]. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида плунжер жуфтлик деталини юза ғадир-будирлик қиймати мкм (микрометр) катталик аниқлигида олинди. Юқори босимли ёнилғи насоси плунжер жуфтлик деталини эксплуатациядан сўнг ейилганлик қийматлари аниқланиб вариация қатори тузилди (1-расм).



Плунжер жуфтлик деталини юза аниқлик қийматлари	Вариацион қаторнинг тасодифий қийматлари (микронда)							
	1	2	3	4	5	6	7	8
	0.0560	0.0630	0.0640	0.0640	0.0710	0.0950	0.1020	0.180
	9	10	11	12	13	14	15	16
	0.1100	0.1110	0.1130	0.1150	0.1170	0.1170	0.1310	0.1470
	17	18	19	20	21	22	23	24
	0.1500	0.1950	0.1990	0.2270	0.2030	0.2120	0.2270	0.2270
	25	26	27	28	29	30	31	32
	0.2510	0.2510	0.2550	0.2700	0.2700	0.2980	0.2980	0.3680

1-расм. Юқори босимли ёнилғи насоси плунжер жуфтлик деталини эксплуатациядан сўнг ейилганлик қийматларининг вариация қатори

Вариацион қаторнинг тасодифий қийматлари асосида плунжер жуфтлик деталини бузилиши ва бузилмай ишлаш кўрсаткичланири аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Синов натижалари							
Ейилиш чегаралари, mkm			частота	частота	зичлик	Буз. Ф-я	Б.И.Э
№	бошланиши	охири	m(L)	P(L)	f(L)	F(L)	R(L)
1	0.06	0.11	7	0.2188	4.2067	0.2188	0.7813
2	0.11	0.16	11	0.3438	6.6106	0.5625	0.4375
3	0.16	0.21	3	0.0938	1.8029	0.6563	0.3438
4	0.21	0.26	6	0.1875	3.6058	0.8438	0.1563
5	0.26	0.32	4	0.1250	2.4038	0.9688	0.0313
6	0.32	0.37	1	0.0313	0.6010	1.0000	0.0000
			32	1.0000			

Хулоса. Юқори босимли ёнилғи насосининг плунжер жуфтлик деталини эксплуатация даврида аниқланган носозликлар таҳлил қилинди. Таҳлилларга кўра ёнилғи таркибидаги образив заррачаларнинг мавжудлиги детал юзасида ишқаланиш ва ейилиш даражасини меъёридан ортиб кетишига олиб келиши аниқланди. Олинган натижалар асосида бузилишларни нормал тақсимланиш конуни орқали деталнинг бузилиши ва бузилмай ишлаш эхтимоллик курсаткичлари олинди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ж.Ф.Исматов., А.И.Абдуллаев. Ёнилғи узатиш аппаратининг прецизион деталлари ишчи юзалари орасидаги образив доначанинг ўзаро тасир механизими. Фарғона политехника институти. Илмий техника журнали 2022 й.Том 26. №6 сон

2. Тожибоев А.А., Қ.М.Сидиқназаров Ишончлилик назаряси ва диагностика асослари. Тошкент. 2015 й.

3. Тошпўлатов М.М. Химмотология. Тошкент 2011 й.

4. Н.И. Бахтиаров. Повышение надежности работы прецизионных пар топливной аппаратуры дезелей / Н.И. Бахтиаров, В.Е. Логинов, Н.И. Лихачев. – М.: Машиностроение, 1972.-286с

AYRIM BOSHQA OMILLARNING ISSIQ YORIQLARNING PAYDO BO‘LISHIGA TA’SIRI.

Turdiyev A. X. Assistant (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada real sharoitda payvandlashning payvand choki kiristallanuvchi detallariga cho‘ziluvchi kuchlarning ta’siri va ularning bartaraf etish

yo‘llari keltirib o‘tilgan bo‘lib ularga oid tushunchalar anniq ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib shuningdek chok metalliga kimyoviy tasir etadigan elementlar to‘g‘risida malumotlar berilgan

Kalit so‘zlar: payvand choki kristallari, uglerodning kritik miqdori, Marganets, konstruktsiya, marganets sulfidi.

Texnik payvandlashni ishlab chiqishda chok metallni issiq yoriqqa qarshi qo‘yish quyidagilarga bog‘liq: 1. kuchlanishlarni cho‘zuvchi kristallanish davrida ta’sir qiluvchi ortib boruvchi kattaliklar va tezliklarga; 2. chok metallining kimyoviy tarkibiga, bu tarkib uning xossalarini kristallanish davrida aniqlaydi va pasaytirilgan tekislik bilan tavsiflanuvchi xolatda turishining davomiyligi bilan aniqlanadi; 3. payvand vannasining shakllari ustunli kristallarning o‘sish yo‘nalishini, ularning o‘zaro krishishi xususiyatini aniqlaydi; 4. birlamchi kristallitlar kattaliklari.

Cho‘zuvchi kuchlanishlarning ta’siri. Payvandlanishning real sharoitlarida payvand choki kristallanuvchi metallga cho‘zuvchi kuchlanishning ta’sirini to‘liq bartaraf etib bo‘lmaydi. Bu kuchlanishlar kattaligini kamaytirish masalasi qo‘yiladi. Misol. Payvandlanadigan metallni qizdirib keyin payvandlash. Isitish bu kuchlanishlarning kattaligini kamaytiradi.



5-1 rasm. Qizdirish xaroratining cho‘zuvchi kuchlanishlariga ta’siri.

Chok metalli kimyoviy tarkibining ta’siri. Kimyoviy tarkib uning issiq yoriqlarga bardoshliligiga birinchi darajalita’sir ko‘rsatadi, chunki kristallararo qatlamlarning tarkibi, xossalari va miqdorini xamda past darajadagi mustaxkamlik bilan tavsiflanuvchi xolatda bo‘lishi davomiyligini aniqlaydi. Chok metalli tarkibiga kiruvchi barcha elementlar uch guruxga kiritilishi mumkin.

Birinchi gurux-ishtirok etishi issiq yoriqqa qarshi mustaxkamlikni doim kamaytiruvchi elementlar. Bu elementlar doim zararli deb aytiladi. (S, P, Pb, C va boshqa).

Ikkinchi guruh - mavjud bo‘lishi mazkur elementlar bilan qo‘shilishi natijasidagi ma’lum bir kontsentratsiyalarda ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi elementlar, ya’ni mustaxkamlik ortadi, boshqa kontsentratsiyalarda esa yoki boshqa elementlar bilan birgalikda salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni issiq yori qlarga moyillik ortadi. (Mn, B, P) Uchinchi gurux - mavjudligi issiq yoriqqa qarshi chok metallining

mustaxkamligiga ta’sir ko‘rsatmaydigan elementlar. (Sr, H va boshqa kam uglerodli po‘latlarda).

Uglerod chok metallining xam tuzilmasini, xam xossalarini aniqlab beruvchi eng muxim element xisoblanadi. Uglerod chok metallining issiq yoriqqa qarshi mustaxkamligiga kesein salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uglerodning salbiy ta’sir ko‘rsatish mexanizmi xozircha aniq emas.

Uglerodning kritik miqdori, ya’ni miqdori bundan yuqori bo‘lganda yoriqlar kuzatilishi bo‘g‘inning (uzel) konstruktsiyasiga, dastlabki isitish mavjudligiga yoki bo‘lmaganligiga, chok shakliga va chok metallida boshqa elementlar miqdoriga bog‘liq.



5-2 rasm. S, Mn va S elementlarni issiq darzlar xosil bo‘lishiga ta’siri.

CHok metallida uglerodning kritik miqdori, S (oltingugurt) va Mn ning (marganets) miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqamiz. Erish shakli koeffitsienti to‘rtga teng (D.A. Rabkin va I.I. Frumin)

Keltirilgan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, S miqdorining kamayishi uglerodning zararli ta’sirini kamaytirishga olib keladi. (uglerodning kritik miqdori ortadi).Marganets ma’lum bir chegaralarda oltingugurtning zararli ta’sirini kamaytiradi. Fe-C qotishmalarida S miqdorining orttirilishi bilan past erish temperaturasi bilan (988 °C) farq qiluvchi Fe-FeS evtektika xosil bo‘ladi.Marganets sulfidi (MnS) yuqori eritish temperaturasiga ega (1620 °C). Nikel sulfidi NiS past eritish temperaturasiga ega (644 °C).

Adabiyotlar

1. Abralov M.A.,Abralov M.M.Payvandlash jarayonlarning nazariyasi.Darslik– T.:Noshirlik yog‘dusi 2015

2. Абралов М.А, Дуняшин Н.С., Эрматов З.Д., Абралов М.М. Технология и оборудование сварки плавлением. Учебник Т.: Komron press, 2014

3. Abralov M.A., Abralov M.M. Payvand birikmalarning defektoskopiyasi. O‘quv qo‘llanma – T.: Talqin, 2013

GRUNTNI MEXANIK ZICHLOVCHI MASHINALARNING TURLARI VA ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Xo‘janazarov Bobir Farmonovich, katta o‘qituvchi (JizPI)
Mirzaqulova Iroda Qodir qizi, talaba (JizPI)

Kirish. Yopiq gorizontal drenajlarni to‘g‘ri ishlatish va himoyalash yerlarni meliorativ holatini yaxshilashning garovidir. Yopiq gorizontal drenajlarni yaxshi ishlashi va ularni himoyalashda qayta ko‘milgan gruntni yaxshi zichlash bilan bir qatorda ularni transheya devorlari bilan bog‘lanishini ta’minlash ham zarur. Chunki ko‘p cho‘michli ekskovatorlar yordamida qazilgan transheya devorlari ish jihozining aylanma harakati natijasida transheya devorlari silliqlanib, shibbalangan qatlam hosil qiladi. Bu qatlam qayta ko‘milgan va zichlangan grunt bilan tabiiy (ona) gruntni yaxshi birlashishiga (qovushishiga) imkoniyat bermaydi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, qayta ko‘milgan gruntni zichlash natijasida uning zichligini tabiiy (ona) grunt zichligiga etkazish kerak. Shunda drenajlar himoyalangan bo‘lib, ularni yaxshi ishlashiga sharoit yaratiladi. Amalda esa yuqoridagi o‘ta zarur bo‘lgan talablarga javob bermagan holda drenajlar ishlatilmoqda. Odatda drenaj mashinasi transheyadan chiqqan gruntni o‘z yo‘nalishining biror tomoniga, ya’ni transheya qirg‘og‘iga tashlab ketadi. Sizdirgich va quvurlar yotqizilganligini aniqlovchi maxsus komissiya tomonidan tekshirilgach, transheyani ko‘mishga ruxsat beriladi. Bu ish bul’dozerlar yordamida amalga oshiriladi. Biroq bul’dozerlar bilan transheyani qayta ko‘mishning quyidagi kamchiliklari mavjud: - bul’dozerning ish unumdorligidan to‘g‘ri foydalanilmaydi ya’ni, bul’dozer harakati transheya o‘qiga perpendikulyar bo‘lib, u tuproqni surishda ish bajarilsada orqaga qaytishida esa ish bajarilmaydi; - bul’dozer harakati uchun imkoniyatdan ortiq maydon talab qilinadi, bu ayniqsa drenajni qayta ko‘mish jarayonida ekilgan ekin maydonlarini payhon bo‘lishiga olib keladi;

- bul’dozer transheyaga yaqinlashganda u surib kelayotgan gruntning og‘irligi va ish jihozining surish kuchlari ta’sirida transheya devorlari buzilib, o‘piriladi. Natijada sizdirgichning ustki qatlamida bo‘shliq hosil bo‘lib, grunt transheyada bir tekis joylashmaydi;
- grunt transheyaga surilayotgan paytda uning og‘irlik kuchi hisobiga bajarilgan ish qurilgan drenajning buzilishiga sabab bo‘ladi. Shunday bo‘lsada hozirda drenaj transheyalari bul’dozerlar yordamida grunt zichlanmasdan ko‘milib, tabiiy ya’ni qor yomg‘irlarning ta’sirida 3…4 yil davomida shibbalanishi uchun maxsus chellar

orqali himoyalanadi. Drenaj transheyalarida gruntni mexanik zichlash asosan gruntning namligi optimal bo‘lgan sharoitda yaxshi natijalar beradi va uni ikki xil jarayonga bo‘lish mumkin: birinchi jarayon qayta ko‘milgan gruntni zichlash bo‘lsa, ikkinchi jarayon qayta ko‘mish bilan birgalikda zichlash. Transheyalarda gruntni mexanik zichlashning titratma, statik va dinamik turlari mavjud. Drenaj transheyalarida qayta ko‘milgan gruntni yuqoridagi turlar bilan zichlash yaxshi natija bermasligiga quyidagi sabablarni ko‘rsatish mumkin:

- zichlovchi ish jihozlarini transheya markazida ushlashni imkoniyati yo‘qligi transheya devorlarini buzishga olib keladi;
- zichlash asosan transheyaning yuqori qismida (0,5…1,0m) amalga oshirilib drenaj quvuri va uni o‘rab olgan sizdirgich (fil’tr) ustki qatlamiga ta’siri yo‘q;
- transheya devorlari bilan qayta ko‘milgan gruntni yaxshi bog‘lash imkoniyati yaratilmagan. Drenaj transheyalarida gruntni qayta ko‘mishda shibbalash uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak deb hisoblaydilar:
- drenaj transheyalarini maxsus nazoratdan so‘ng qayta ko‘mishga ruxsat berish;
- qayta ko‘mishni uzluksiz bir tekisda amalga oshirishni ta’minlash;
- qayta ko‘mish va shibbalash jarayonlarini bir vaqtda birgalikda olib borish;
- qayta ko‘miladigan gruntning bo‘laklari va namligini aralashtirib dastlabki shibbalash jarayonini amalga oshirish;
- transheya devorlari bilan qayta ko‘milgan gruntni o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash;
- shibbalanadigan gruntning zichligini tabiiy (ona) grunt zichligiga etqazish;
- shibbalangan grunt qatlami (0,6…1,2 m) drenaj qatlami ustida (yuqorisida) bo‘lishini ta’minlash.

Yuqoridagi talablar bajarilganda gorizontal yopiq drenajlar himoyalangan bo‘lib, ularning ishonchli ishlashiga imkoniyat yaratiladi.

Gruntni statik zichlovchi mashinalarning turlari, tuzilishi va ishlatish jarayonlari. Gruntni statik zichlash maxsus g‘ildirakli g‘altaklar yordamida, transheyani to‘la yoki qatlam – qatlam qilib ko‘mish jarayonida olib boriladi. G‘altakli ish jihozi maxsus mashinaga o‘rnatilgan bo‘lib, uning tishli va tishsiz turlari mavjud. Transheyadagi tuproqni statik usulda zichlash uning namligi optimal hamda zichlanadigan grunt qatlami qalinligi 0,40…0,50 m bo‘lganda yuqori natija berishini e’tiborga olib, shunday sharoit bo‘lgan hollarda ularni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Grunt qatlami hosil qilib, uni zichlovchi mashinaning umumiy ko‘rinishi 1 - chizmada ifodalangan. Bu mashina quyidagi asosiy qismlar: drenaj mashinasiga o‘rnatilgan drenaj quttisi 1, drenaj quttisi ramasi 2, tayanch g‘ildiragi 3, ramaga o‘rnatilgan maxsus transheya yuqori qismidagi gruntni qirquvchi pichoqlar 4, grunt zichlovchi g‘altak 6, drenaj quttisi bilan g‘altakni bog‘lovchi po‘lat arqon 5 dan tashkil topgan. Drenaj mashinasi drenajni qurish jarayonida drenaj qutisi ramasining oxiriga o‘rnatilgan maxsus pichoqlar yordamida transheya

devorlarining yuqori qismidagi grunt qirqilib drenaj qatlami sirtiga tushiriladi. Bu qirqilgan grunt (tuproq) qatlamining qalinligi o‘rtacha 0,4 m ni tashkil qiladi. Qirqib tushirilgan grunt qatlami sirtida, drenaj qutisi bilan po‘lat arqon orqali bog‘langan maxsus g‘altak drenaj mashinasining harakati tufayli dumalanib, gruntni zichlaydi.



1- chizma. Grunt qatlamini g‘altak yordamida zichlovchi mashinaning umumiy ko‘rinishi.

Bu mashina yordamida gruntni zichlash, bir qancha qulayliklarga ega jumladan: gruntni zichlash drenaj qurilishi jarayonida olib boriladi; maxsus pichoqlar yordamida transheya devorlaridagi grunt qirqilib, sizdirgich materiali, sirtida zichlash uchun grunt qatlami hosil qilinadi; g‘altakli ish jihozi yordamida grunt kerakli zichlikka etqaziladi; ortiqcha texnika, texnologiyalar talab qilinmaydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan gruntni bu usulda zichlashning quyidagi kamchiliklari mavjud:

- gruntning namligi 8…10 % bo‘lganda yaxshi natija bermasligi;
- zichlanadigan grunt qatlami drenajni himoyalashga etarli emasligi;
- drenaj quvuri va sizdirgich materiallarini nazorat qilish imkoniyati yo‘qligi;
- zichlangan grunt bilan transheya devorlarini yaxshi bog‘lanmaganligi;
- transheyadan chiqqan gruntni ko‘mish uchun qo‘shimcha texnika talab qilinishi.

Drenaj transheyasiga gruntni to‘liq qayta ko‘mishda zichlovchi mashinaning umumiy ko‘rinishi. 2– chizmada ifodalangan. Bu mashina quyidagi asosiy qismlar: mashina bazasi traktor 1, gruntni qayta ko‘muvchi shnekli ish jihozi 2, gruntni suruvchi ag‘dargich 4, g‘altakli tirsakli val bilan bog‘lovchi po‘lat arqon 5 dan tashkil topgan. Transheyadan qazib chiqarilgan grunt 3 shnekli ish jihozi yordamida transheyaga qayta ko‘mish uchun yo‘naltiriladi. Shnekli ish jihozi maxsus gidromotor – reduktor orqali harakatlanadi. Shnekli ish jihozi maxsus qismlar yordamida ag‘dargichga o‘rnatilgan. Shnekli ish jihozining oxirgi qismiga tirsakli val o‘rnatilgan bo‘lib, u po‘lat arqon orqali g‘altakni harakatga keltiradi. Mashinaga perpendikulyar qilib o‘rnatilgan shnekli ish jihoziga harakat berilib, yerga tekkuncha tushiriladi va transheyadan chiqqan tuproqqa yaqinlashtirib tuproqni surish jarayoni

boshlanadi. Drenaj transheyasi gruntga to‘lgandan so‘ng, gruntning tabiiy nishabligi sirtiga g‘altakli zichlovchi ish jihozi tushirilib, po‘lat arqon tirsakli valga ulanadi. Mashinaga ish tezligi berilib gruntni ko‘mish va zichlash jarayoni boshlanadi.



2 - chizma. Gruntni qayta ko‘mishda g‘altakli ish jihoziga ega bo‘lgan mashinaning umumiy ko‘rinishi.

G‘altak transheya tubida bo‘lganida shnek orqali yo‘naltirilgan grunt qatlami hosil bo‘lib, shu qatlamda g‘altakning dumalanishi orqali zichlash jarayoni amalga oshiriladi. Boshqa usullarga nisbatan bu usulda gruntni zichlash bir qancha afzalliklarga ega bo‘lib, ular jumlasiga: transheyani grunt bilan to‘la qayta ko‘mishni; gruntni zichlash uni qayta ko‘mish jarayonida olib borishni; mashinadan boshqa turdagi ishlarni bajarishda foydalanishni kiritishimiz mumkin. Ushbu usulning kamchiliklariga quyidagilarni keltirish mumkin; - zichlangan gruntni transheya devorlari bilan yaxshi bog‘lanmasligi; - grunt namligi 6…10 % bo‘lganda yaxshi natija bermasligi; - zichlanadigan grunt qatlamida tuproq zichligining bir xil emasligi. Drenaj transheyasini to‘liq ko‘mishda gruntni ko‘p qatlamli qilib zichlovchi mashinasining umumiy ko‘rinishi 3 - chizmada keltirilgan. Bu mashina quyidagi asosiy qismlar: drenaj qutisi 1, tasmali tuproq yuklagich 3, tasmali yuklagichni mahkamlovchi maxsus rama 2, grunt qatlamlarini zichlovchi g‘altaklar 4, tuproqni saqlab, tarqatuvchi tusiq 5 dan tashkil topgan. Bu usulda ham gruntni zichlash drenaj qurilishi jarayonida olib boriladi. Drenaj mashinasining ko‘p cho‘michli ish jihozi transheyani qazib, gruntni ko‘tarib, ko‘ndalang tasmali yuklagichga uzatadi. Ko‘ndalang tasmali yuklagich gruntni bo‘ylama, ya’ni drenaj qutisi bo‘ylab transheyaga qayta ko‘mishga mo‘ljallangan tasmali yuklagichga yo‘naltiriladi. Bo‘ylama tasmali yuklagich orqali grunt drenaj quttisining orqa qismida joylashgan gruntni saqlab tarqatuvchi moslamaga tushadi. Bu moslamada maxsus grunt qatlamini hosil qiluvchi tuynuklar ochilgan bo‘lib, moslamaning gorizontga nisbatan ma’lum burchakka og‘ganligi hisobiga pog‘onali grunt qatlamlari hosil qilinadi. Har bir tuynukka mos tuproqni zichlovchi g‘altaklar grunt tarqatuvchi moslamaga o‘rnatilgan. Tuynuk va g‘altaklarning sonini drenaj

transheyasidagi gruntni zichlash qatlamiga qarab, o‘zgartirish mumkin. Demak bu usul bilan drenaj transheyasidagi qayta ko‘milgan gruntni to‘liq zichlash imkonini beradi.



3- chizma. Gruntni transheyada qatlam hosil qilib, statik zichlovchi mashinaning umumiy ko‘rinishi.

Bu usulning kamchiliklariga quyidagilarni keltirish mumkin:

-mashina konstrukцiyasining murakkabligi;

- katta tortish kuchini talab qilishi;

- zichlangan gruntning transheya devorlari bilan yaxshi bog‘lanmasligi;

- namligi 6…10% bo‘lgan gruntlarda yaxshi natija bermasligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Raxmatullaev, M. X., Xujanazarov, B. F., & Tagaev, X. S. (2016). Ustoychivost’ i raspad strui vыxlopnыx otrabotavshix gazov v atmosfernoy srede. Molodoy uchenыy, (7-2), 67-70.

2. SHukurov, R. U., SHukurov, N. R., & Xujanazarov, B. F. (2020). Energeticheskiy podxod v izuchenii proцessa iznashivaniya rabochix organov zemleroynыx mashin. Molodoy uchenыy, (16), 168-171.

3. Asqarxo‘jaev T.E., SHukurov R.U. Yo‘l qurilish mashinalaridan foydalanish. Toshkent, SHarq, 2007y., 327b.

4. SHukurov, R., SHukurov, N., & Xujanazarov, B. (2020). K voprosu povыsheniya iznosostoykosti rabochix organov zemleroynыx mashin. Obrazovanie, nauka i texnologii: aktual’nыe voprosы, innovaцii i dostijeniya, 241-245.

5. Xujanazarov, B. F. (2022). Povыshenie effektivnosti rabotы bul’dozera pri razrabotke grunta. Innovaцion texnologiyalar, 1(1 (45)), 32-35.

6. Xo‘janazarov, B. (2022). Xalq xo‘jaligida ishlatilayotgan buldozerlarini kesuvchi ishchi jihozlarining chidamliligini oshirish usullari. Involta Scientific Journal, 1(3), 1-5.

SHAHAR YO‘NALISHLI AVTOBUSLARI ORALIQ BEKATLARINING O‘TKAZUVCHANLIK QOBILIYATINI OSHIRISH TADBIRLARI

Yo‘ldoshev D.F. (TDTU),
Mo‘minov T.Sh. (TDTU),

Annotatsiya: Jamoat transportlarida hizmat sifatini oshirishning muhim omillardan biri bu yo‘lovchilar oqimi, oraliq bekatlarda avtobuslar harakat vaqtlari va ularni tashkil etuvchilarini tadqiq etishdir. Maqolada mualliflar tomonidan yo‘lovchilar oqimi, oraliq bekatlarda avtobuslar harakat vaqtlarining shakillanishini xisoblash usullari tahlil qilingan bo‘lib harakat vaqtlari va ularni tashkil etuvchilarining taqsimlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.Kalit so‘zlar: Imitatsion model, transport-o‘tish bog‘lamasi, muvofiqlashtirish, AnyLogic, matematik model, komfortabellik, avtobus, temir yo‘l.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi transport tizimidagi asosiy vazifalardan biri transport infratuzilmasini rivojlantirish xisoblanadi. Infratuzilmaning muhim elementlaridan biri shahar yo‘nalishli avtobuslarning oraliq bekatlari bo‘lib, yo‘lovchilarga ishonchli transport xizmatlarini ko‘rsatish, yo‘llarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish va yo‘l harakati ishtirokchilarining xavfsizligiga ijobiy ta’sirini oshirish hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri xisoblanadi.

Shahar yo‘nalishli avtobuslar oraliq bekatlaridagi texnologik jarayonlarni samarali tashkil etishning asosiy maqsadi - transportning ekologiyaga zararini, yo‘lovchilarni bekatlarda avtobuslarni kutish vaqtlarini, ko‘cha yo‘l tarmoqlaridagi vujudga kelayotgan ziddiyatli vaziyatlar, tirbandliklar va yo‘l transport hodisalarini kamaytirish, shuningdek yo‘lovchilar xavfsizligi va komfortabillikni yuqori darajada ta’minlashdan iboratdir.

2.Tadqiqot metodikasi

Rivojlangan mamlakatlar transport sohasi olimlarinining izlanishlari kesimida, shahar yo‘nalishli avtobuslar oraliq bekatlarining o‘tkazuvchanlik qobiliyati va uni aniqlashning ko‘plab usullari ishlab chiqilgan.

Mazkur olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yo‘nalishli avtobuslar bekatlarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatiga asosan quyidagi omillar salbiy tasir etishi aniqlashgan:

- transport vositasining to‘lganlik darajasi, yo‘lovchi oqimi sust vaqtlarda yo‘nalishli avtobuslar bekatda kam vaqt turishi, tig‘iz paytlarda esa aksincha ko‘p turishi;
- avtobus bekatlariga y o‘lovchilarni kelish intensivligi;
- yo‘nalishli avtobuslar harakat intervali, avtobus bekatlarning o‘tkazuvchalik qobiliyatini cheklab qo‘yishi;

- yo‘nalishli avtobuslar haydovchilarning individual xususiyatlari bilan bog‘liq inson omili;
- avtobus salonidagi chiptachilar harakati;
- avtobus bekatlarida yo‘nalishsiz taksi yoki aholining shaxsiy transport vositalarini avtobus bekati hududida qoldirishi kabi bir qancha tasir etuvchi omillar.

Bekatlarning o‘tkazuvchaligini shahar ichi muntazam avtobus yo‘nalishlarida quydagicha aniqlash mumkin. (Semchugova G)

$$B_{o'tkaz} = \frac{60}{t_{to'x\ turish}} \cdot A \quad (1)$$

bu yerda:

$B_{o'tkaz}$- bekatning o‘tkazuvchalik qobiliyati;

$t_{to'x\ turish}$- transport vositasining o‘rtacha to‘xtash vaqti (yo‘lovchilarni chiqishi tushishi)minut;

A - bekatga bir vaqtning o‘zida joylashtirilishi mumkin bo‘lgan o‘rtacha transport vositalar soni.

Bekatning tirbandliklarsiz yo‘nalishli avtobuslar bir biriga xalaqit bermasdan harakat vaqtida o‘tkazuvchanlik qobiliyati inobatga olgan holda umumiy avtobus bekatning o‘tkazuvchalik qobiliyatini quydagicha aniqlash mumkin. (Dimova I.P.)

$$P = P_{bek} \cdot k_{ishonch} \cdot \gamma \cdot k_{o'zgar} \quad (2)$$

bu yerda:

$P_{bek} = \frac{3600}{t_{xizm}}$ bekatning tirbandliklarsiz yo‘nalishli avtobuslar bir biriga xalaqit bermasdan harakat vaqtida o‘tkazuvchanlik qobiliyati.

t_{xizm} −avtobus bekatida avtobusga xizmat ko‘rsatish vaqti

$$t_{xizm} = t_{bek.kelish} + t_{\frac{yo'l}{chiq}.tush} + t_{bek.chiqish} \quad (3)$$

$$t_{bek.kelish} = S_{o'rt} + N_{Yo'.A} + L_b + B_{ch} \quad (4)$$

bu yerda:

$S_{o'rt}$- Yo‘nalishli avtobus o‘rtacha yo‘lovchi sig‘imi

$N_{Yo'.A}$- Yo‘nalishli avtobus harakat intensivligi

L_b- bekatlar orasidagi masofa

B_{ch}- avtobus bekati chuntak kengligi

Yo′lovchilarni transport vositasiga chiqish va tushish vaqtini quydagicha aniqlash mumkin aniqlash

$$t_{\frac{yo'l}{chiq}.tush} = S_{o'rt} - S_{o'rt}^2 + A_{chiq} - A_{chiq}^2 + A_{kirish} - A_{kirish}^2 \quad (5)$$

A_{chiq} A_{kirish}- transport vositasiga chiqgan va kirgan yo‘lovchilar soni.

Transport vositasini bekatdan chiqib ketishi vaqtini quydagicha aniqlash mumkin

$$t_{bek.chiqish} = S_{o'rt} + N_{Yo'.A} + N_{boshqa} + B_{ch} + B_{qat.qism.eni}$$

N_{boshqa} – Boshqa transport vositalar harakat intensevligi

$B_{qat.qism.eni}$ – qatnov qismi eni



1-rasm. Avtobus bekatining geometrik ko‘rsatkichlari (Dimova I.P.)

L_{umumiy}- bekatning umumiy uzunligi, L_{x1},L_{x2}bekatga kirish chiqishda xavfsiz boshqarish (manyovur) masofasi, $L_{cho‘ntak}$- cho‘ntak uzunligi, L_{bekat}-bekatning asosiy qism uzunligi, L_{joy}-bitta transport vositasi uchun ajratilgan joy uzunligi, $L_{xavfsiz}$-bekatda yo‘nalishli avtobuslar orasidagi xavfsiz masofa, h- cho‘ntak chuqurligi.

Yo‘lovchilar tashish marshrutidagi manzillarda avtomobilni turib qolish vaqtlarini shakllanishi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Marshrutning boshlang‘ich va oxirgi bekatlarida avtobusni turib qolish vaqti asosan uning uchun belgilangan harakatlanish jadvalida ko‘rsatilgan vaqt doirasida bo‘ladi. Boshlang‘ich yoki oxirgi bekatlarda i- tipdagi avtobusni turib qolish vaqti (t_T^{bosh} yoki t_T^{ox}) mobaynida haydovchi ma’lum qatnov-reys bajarilganini dispetcherlik jurnalida va boshqa hujjatlarda qayd etadi (t_{hujj}^{bosh} yoki t_{hujj}^{ox}), avtobus salonidan yo‘lovchilarni tushirish ($t_{yo'lovtush}^{bosh}$, $t_{yo'lovtush}^{ox}$) va salonni yo‘lovchilar bilan ma’lum darajada to‘lguncha kutib turadi, ($t_{yo'lovchiq}^{bosh}$, $t_{yo'lovchiq}^{ox}$), ma’lum bir muddat davomida o‘ziga dam beradi, ovqatlanadi ($t_{damovqat}^{bosh}$, $t_{damovqat}^{ox}$), avtobusni bekat maydonida harakatlanishiga ham ma’lum vaqt sarf bo‘ladi (t_{har}^{bosh}, t_{har}^{ox}). Shunday qilib, avtobusning marshrutni boshlang‘ich va oxirgi bekatida turib qolish vaqti quyidagicha ifodalanadi:

$$t_T^{bosh} = t_{yo'lovtush}^{bosh} + t_{hujj}^{bosh} + t_{yo'lovchiq}^{bosh} + t_{damovqat}^{bosh} + t_{har}^{bosh}; \quad (6)$$

$$t_T^{ox} = t_{yo'lovtush}^{ox} + t_{hujj}^{ox} + t_{yo'lovchiq}^{ox} + t_{damovqat}^{ox} + t_{har}^{ox}; \quad (7)$$

Ta’kidlash lozimki yuqorida keltirilgan tenglamadagi ayrim elementlar avtobusni bekatda turib qolish vaqti mobaynida o‘zaro parallel ravishda (bir vaqtda) bajarilishi va shu tufayli ularni har biri alohida element sifatida vaqt egallamasligi mumkin. Masalan, haydovchi bekatda ma’lum muddat davomida dam oladi va ovqatlanadi, bu vaqtda yo‘lovchilar esa avtobusga chiqib, salonni to‘ldira boshlaydilar. Ammo boshqa bir holatlarda esa har bir element alohida bajariladi. Masalan, oldin haydovchi dam oladi va ovqatlanadi, keyin esa avtobusni yo‘lovchilar chiqishi uchun bekatga qo‘yadi.

Tadqiqot obyektida avtobuslar sarflaydigan vaqtining o‘rtachalashgan hisobiни aniqlanib, quyida keltirildi. Avtobusni bekatga kirgandan chiqib ketguncha harakatlanish vaqtlari (t_{bh}) 12.79 soniya deb qabul qilindi:

$$t_o^i = t_{бкк}^i + t_{бк}^i + t_{эо}^i + t_{йт}^i + t_{йч}^i + t_{эё}^i + t_{бчх}^i + t_{аоу}^i \text{ soniya}$$

$$t_{ob} = 25{,}34 + 22{,}9 + 24{,}1 + 12{,}79 \approx 85$$

Jamoat transportlari harakatining har bir xisobga olinmagan ushlanib qolishlari avtobusning yo‘nalishdagi harakat vaqtiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Xulosa va takliflar

1. Avtobus bekatining yo‘l qatnov qismidan ajratilgan (cho‘ntak) ko‘rinishda bo‘lishi jamoat transportlarining marshrut davomidagi oraliq bekatlarida to‘xtashlarining boshqa harakat qatnashchilariga salbiy ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa jamoat transportlari bilan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan YTH larining oldini olishga, bekatdagi yo‘lovchilarning havfsizligi ta’minlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay umumiy bekatda sarflanadagan vaqtlarni optimallashtirish orqali marshrutdagi avtobuslarning oraliq intervallari ta’minlanishiga erishiladi.

1. Toshkent shahridagi yo‘nalishli avtobuslar harakat vaqtlarining tqsimlanishi bo‘yicha sinov tadqiqot ishlari olib borildi. Olib borilgan sinov tadqiqot ishlari natijasi bo‘yicha, avtobuslarning umumiy harakat vaqtining o‘rtacha 35 % oraliq bekatlarda turishga sarflanishi ma’lum bo‘ldi. Sinov tadqiqot natijalarida yo‘lovchilarning oraliq bekatlardagi tartibsiz harakatlari sababli mavjud holat 40 soniyadan 153 soniyagacha yetmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar/ References

[1] А. А. Ерофеев, А. Ю. Рибиченок. Моделирование пассажиропотоков в транспортно-пересадочных узлах. ISSN 2227-1120. Вестник Белорусского государственного университета транспорта: Наука и транспорт. 2019. № 2

[2] Afaq Khattak, Arshad Hussain. Hybrid DES-PSO framework for the design of commuters circulation space at multimodal transport interchange. Mathematics and Computers in Simulation 180 (2021) 205–229

[3] Козлов Павел Игоревич. Методика формирования комплексного критерия оценки условий движения пассажиров в пространстве закрытых коммуникационных элементов интермодальных транспортно-пересадочных узлов. Вестник Евразийской науки The Eurasian Scientific Journal. ISSN 2588-0101 https://esj.today.

[4] А.И. Фадеев, Е.В. Фомин. Методика решения задачи определения оптимальной структуры подвижного состава пассажирского общественного транспорта. Вестник Иркутского государственного технического университета 1, 218-27.

[5] scholar.google.com

[6] Elibrary.ru

DIZEL YOQILG‘ISIGA BRAUN GAZINI QO‘SHIMCHA BERISHNING DVIGATEL KO‘RSATKICHLARIGI TA’SIRI

J.F. Ismatov (TDTU)
X.A. Qurbonov., J.X.Djalilov (TDTU)

Annotatsiya: Dizel dvigatelli transport vositalari yoqilg‘i-havo aralashmasiga vodoroddan qo‘shimcha sifatida foydalanib majburiy yonishi, gaz va elektr stantsiyalari bilan taqqoslaganda yanada ishonchli, tejamkor, ekologik toza va turli xil iqlim sharoitlariga moslashtirilgan sharoitlar ko‘rib chiqiladi. Dizel yoqilg‘isiga vodorod qo‘shilishi yonish davrlarini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish chiqindi gazlar tarkibidagi zararli tarkibiy qismlarni kamaytirishga, dvigatel shovqinini kamaytirishga va ichki yonuv dvigatelining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: dizel dvigatel, tizimlarni tahlil qilish, atrof-muhit xavfsizligi, yonish jarayoni, vodoroddan qo‘shimcha foydalanish, yonish davrlari, vodorodning kuyikishlarga ta’siri.

Hozirgi vaqtda dizel dvigatellari yuqori samaradorligi, ishonchliligi, ishlab chiqarish qobiliyati va tejamkorligi tufayli qishloq xo‘jaligida, transportda va sanoatda keng qo‘llaniladi. Shunga qaramay, dizel yoqilg‘isi parkining ko‘payishi atrof-muhitning ifloslanishi va neftni dvigatel yoqilg‘isi sifatida iste‘mol qilinishi asosiy kamchilik deb ko‘riladi.

Yoqilg‘idan foydalanish muammolarini yumshatish uchun bir nechta yechimlar mavjud, ammo ularning aksariyati ko‘p yillik rivojlanish va qo‘shimcha infratuzilmani talab qiladi.

Ichki yonuv dvigatelida ekologik toza muqobil yoqilg‘ilardan foydalanish ushbu muammolarni hal qilishga imkon beradi va bunday yoqilg‘ilarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- agregat holatiga ko‘ra: gazsimon, suyuq, qattiq;
- tarkibi bo‘yicha: spirtlar, efirlar, o‘simlik moylari, vodorod;
- xom ashyo manbalariga ko‘ra: ko‘mir, torf, slanets, biomassadan;
- foydalanish hajmi bo‘yicha: to‘liq, qo‘shimcha sifatida.

Dizel dvigatellarda vodoroddan foydalanish uning yuqori o‘z-o‘zidan yonish harorati bilan to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun vodorodning barqaror yonishini tashkil qilish uchun dizellar shamdan yoki suyuq yoqilg‘ining alangalanish dozasidan majburiy o‘t oldirish bilan amalga oshiriladi. Bunday holda, vodorod havo bilan birgalikda ham, silindrlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri in'ektsiya yo‘li bilan ham berilishi mumkin. Shu bilan birga, dizelning vodorod bilan barqaror ishlashi faqat yonilg‘i aralashmalarining tor diapazonida ta’minlanadi, bu alangalanish va portlash bilan cheklangan.

Dizel dvigatelda chiqindi gazlarni tozalash va shovqinni bostirish asosan dvigatelning o‘zida, ya’ni yoqilg‘ining yonish jarayonini boshqarish orqali amalga oshiriladi [3]. Yonish jarayonining o‘zi bir nechta elementlar – yoqilg‘i, kerakli hajmdagi kislorod, ichki yonish dvigatelining mexanizmlari va tizimlari o‘zaro ta’sirlashganda sodir bo‘ladi.

Yonish jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, yonish kamerasiga kiradigan yoqilg‘i (1-grafikda) to‘liq bug‘lanishi va kislorod bilan oksidlanishi uchun ma’lum vaqt talab etiladi. Bu vaqt qancha ko‘p bo‘lsa, dvigatelning nazariy parametrlari va yoqilg‘i sifatidan og‘ish shunchalik katta bo‘ladi. Yonishning kechikish davri odatda tirsakli valining burilish burchagi 12-25° yoki 0,001-0,003 C ni tashkil qiladi, 1-jadvalda dizel dvigatelining silindridagi yonish davrlari va xususiyatlari ko‘rsatilgan.

Silindrga kiritilganda yoqilg‘i qanchalik yaxshi purkalsa, siqish oxirida havo bosimi va harorati qanchalik yuqori bo‘lsa, yoqilg‘ining yonishini kechiktirish davri shunchalik kichik bo‘ladi va shuning uchun yonish jarayonining parametrlari yaxshiroq bo‘ladi [7].

Yonishning kechikish davri reaktivlarning tomchilarga parchalanishi uchun zarur bo‘lgan vaqtni, yonish kamerasi hajmida tomchilarning bir oz harakatlanishini, isitishni, qisman bug‘lanishni va yonilg‘i bug‘larini havo bilan aralashtirishni va kimyoviy reaktsiyalarning o‘z-o‘zidan tarqalish vaqtini o‘z ichiga oladi.

1-Jadval

Dizel dvigatel tsilindrida yonish davrlari va xususiyatlari

Yonish davrlari	Tirsakli valning burilishi ϕ^o	Davr vaqti, mks	Tomchilar diametri, mkm	Porshenning harakat yo‘nalishlari	Bosim R,Pa	Temperatura T, °C
Yoqilg‘i yonishini kechiktirish (1-nuqta)	12-25	0,001-0,003	30,40	yuqoriga	2,5-5	750-1000
Tez yonish (2-nuqta)	10-20	0,008-0,0015	10,20	yuqoriga	6-9	1600-1800
Nazorat ostida yonish (3-nuqta)	15-25	0,0012	Bug‘ ko‘rinishda	pastga	5,5-8	1800-2200
Yonish (4-Nuqta)	50-60	0,0035-0,005	kuygan yoqilg‘i	pastga	3-4	630-930

Dvigatelning samaradorligini oshirish va zararli chiqindilar darajasini pasaytirish uchun in’eksiya tizimini aniqroq boshqarish va yoqilg‘ini yoqish kerak. Xususan, silindrda joylashgan yoqilg‘ining to‘liq yonishi nazariy jihatdan talab qilinganidan ko‘proq havo bilan ta’minlanishi mumkin.

Vodorod-havo aralashmasining yuqori yonish tezligi va dvigatel tsilindrlarida bosimning yuqori tezligi dvigatelning indikator samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Uglevodorodlarga qaraganda deyarli kattaroq olov tezligiga ega bo‘lgan vodorod o‘ziga xos “oldindan yonish” katalizatori vazifasini bajarib, ishchi aralashmani yoqib yuboradi va qisqa vaqt ichida to‘liq yonish, ko‘proq bosim va issiqlik energiyasini ta’minlaydi, bu esa momentning oshishiga yordam beradi [5-7]. Yoqilg‘ining to‘liq yonishi bilan chiqindi gazlardagi zararli moddalar chiqindilari kamayadi.

Vodorodning pastki tutashuv chegarasi neft yoqilg‘isidan bir necha baravar yuqori, bu esa neft yoqilg‘isida ishlaydigan ichki yonuv dvigatellariga nisbatan yuqori samaradorlikga erishish imkonini beradi.

Yoqilg‘i sarfini quyidagicha aniqlaymiz:

$$g_t = \frac{G_b + G_{H_2} \cdot G_H H_2 \,/\, G_{H_b}}{N_e} \qquad (8)$$

bu erda G_b, G_{H_2} – mos ravishda dizel va vodorod iste'moli, g/soat; $G_H H_2$, G_{H_b} – mos ravishda vodorod va dizelning pastki yonish issiqliklari; N_e-dvigatelning samarali quvvati [8].

2-Jadval

Dizel va vodorodning asosiy xususiyatlari

Xususiyatlari	Dizel	Vodorod
Yoqilg'i zichligi, kg/m^3	860	0,0899
Minimal energiya harorati, MJ	0,23	0,02
Sof kaloriyali qiymat, MJ/kg	43,76	120
1 kg yoqilg'i uchun stixiometrik havo miqdori, kg/kg	14,3	34,3
Maksimal lominar yonish tezligi, m/s	0,20	2,75
Diffuziya koeffisiyenti, sm^2 /s	0,078	0,63
Olov tarqalishining konsentratsiya chegarasi, α	α_{max} –0,9; α_{min} –5,0	α_{max} –0,22; α_{min} –4,0

Xulosa

Ichki yonuv dvigatelining ish rejimiga muvofiq kerakli miqdordagi vodorod hosil bo'lishini ta'minlash uchun dizaynda elektron boshqaruv bloki mavjud bo'lib, u yonilg'i injektoridan impulslarni o'qish orqali tirsakli valning aylanish tezligiga qarab hosil bo'lgan gaz hajmini o'zgartirishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Jumaniyoz Ismatov, Jamshid Khakimov, Ravshanbek Dadaboyev, Javlon Djalilov "Increasing engine power by adding hydrogen to the gasoline-air mixture" "transasia-2023: Asian Conference on Advances in Transportation Systems Research: Technology, Infrastructure and Logistics". "TRANSASIA-2023: Asian Conference on Advances in Transportation Systems Research: Technology, Infrastructure and Logistics", 2023-yil.

2. Jumaniyoz Ismatov, Farhod Matmurodov, Mirgani Fayziev and Javlon Djalilov "Provision of carbon-free emission of exhaust gases on vehicles" международный научный форум по компьютерным и энергетическим наукам (wfces 2023). -v международный научный форум по компьютерным и энергетическим наукам (wfces 2023), 2023-yil.

3. J .F. Ismatov, F. M . Matmurodov , J. O. Khakimov, J, X, Djalilov “Analytical modeling of mass transfer dynamics, velocity, heat transfer and enthalpy in a gas-liquid combustible mixture” Conference Series: Earth and Environmental Science. -IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2022-yil.

4. Jumaniyoz Ismatov; Javlon Djalilov “Formalization of the Concepts of "Adiabatization" and Reduction of Heat Losses in the Operating Cycle of Diesel Engines” AIP Conference Proceedings. -2022, 2022-yil.

5. J.F. Ismatov, S.M. Qodirov, X.A. Qurbonov “Dizel dvigatellariga kompozision yonilg‘i (dizel yonilg‘isiga vodorod qo‘shish) ko‘rsatkichlarining tahlili” Kompozitsion materiallar Ilmiytexnikaviy va amaliy jurnali №2/2023. 188-192 bet

AVTOMOBILLAR AERODINAMIKASINI YAXSHILASH

M.R. Karimov, Dots. (TerDMAU)
F.SH. Shavkatov, Magistrant. (TerDMAU)

Aerodinamika avtomobilning havo bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganadi va transport vositasining tejamkorligi, tezligi va boshqaruvchanligi bilan bevosita bog‘liq. Avtomobillar aerodinamikasi, ayniqsa, yuqori tezlikda harakatlanayotgan transport vositalari uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, samarali havo oqimini yaratish orqali yonilg‘i sarfini kamaytirish, tezlikni oshirish va stabillikni ta’minlashga yordam beradi.



Avtomobilga shamolning qarshiligi

Avtomobil harakatlanayotganda unga qarshi yo‘nalishda havo qarshiligi paydo bo‘ladi. Havo qarshiligi avtomobilning aerodinamik shakliga bog‘liq. Pastroq qarshilikka ega bo‘lgan avtomobillar kamroq yoqilg‘i sarf qiladi va tezroq harakatlana oladi. Aerodinamik jihatdan optimallashtirilgan avtomobillar orasida pastga tushirilgan tom qismi va silliq shakllar mavjud bo‘ladi [1].



Avtomobil harakatlanayotganda ta’sir etuvchi kuchlar

Avtomobilning yuqori tezlikda stabilligini ta’minlash uchun aerodinamik elementlar, masalan, spoylerlar qo‘llaniladi. Ular "downforce" (pastga itaruvchi kuch) yaratib, avtomobilni yo‘lga yanada yaxshiroq bosib turadi va burilishlarda qulaylik beradi. Lift esa aksincha, avtomobilni ko‘tarishga harakat qiladi va bu tezlik oshganda xavf tug‘dirishi mumkin.

Ko‘prik effekti, ayniqsa, sport avtomobillarida qo‘llaniladi. Bu havo oqimini avtomobilning pastki qismining toraygan qismiga yo‘naltirish orqali past bosim yaratish va avtomobilni yo‘lga yanada zichroq yopishtirish bilan bog‘liq.

Xozirgi kunlarda avtomobilsozlik sanoati shiddat bilan rivojlanayotgan vaqtda Respublikamiz avtomobilsozlik sanoatida muhim muamolardan biri avtomobilning aerodinamikasini yaxshilashga e’tibor qaratilmoqda. Avtomobilning aerodinamikasi nafaqat harakatlanish samaradorligiga, balki shovqin va tebranishlarga ham ta’sir qiladi. Shamolning transport vositasi tanasiga urilishi natijasida paydo bo‘lgan ovoz aerodinamik optimallashtirish bilan kamaytiriladi.

Avtomobil dinamikasini yaxshilash deganda, transport vositasining harakatlanish, tezlanish, tormozlanish va boshqaruv xususiyatlarini optimallashtirish tushuniladi. Bu nafaqat avtomobilning umumiy ishlash samaradorligini oshirishga yordam beradi, balki haydovchi uchun xavfsiz va qulay boshqaruvni ham ta’minlaydi. Dinamikani yaxshilash jarayonida bir nechta muhim omillarni ko‘rib chiqish kerak [2]:

- **Silliq dizayn**: Avtomobilning shakli silliq va kam burilishlarga ega bo‘lishi kerak. Bu havo oqimini boshqarib, havo qarshiligini kamaytiradi.
- **Spoylerlar va difuzorlar**: Ular avtomobilning yuqori tezlikda stabilligini saqlashga yordam beradi.
- **Og‘irlik markazini tushirish**: Avtomobilning og‘irlik markazining pastda joylashishi yo‘l bilan yaxshiroq aloqa qiladi va boshqaruvni yaxshilaydi.

2. Сверление и расточка технологических баз, что позволяет обеспечить точное позиционирование детали при дальнейшей обработке.

3. Комплексная обработка детали на обрабатывающем центре с ЧПУ, что позволяет максимально сконцентрировать операции и минимизировать количество установов детали.

4. Нарезание резьбы вручную в тех местах, где это необходимо и не может быть выполнено на станке с ЧПУ.

5. Проведение гидравлических испытаний для проверки герметичности и работоспособности изделия.

6. Выполнение слесарных операций, включающих удаление заусенцев и притупление острых кромок.

7. Проведение контрольных операций с использованием специального измерительного оборудования для обеспечения соответствия детали всем требованиям чертежа.

Особое внимание в разработанном технологическом маршруте уделено вопросам обеспечения точности обработки. Для этого предусмотрено использование высокоточного оборудования с ЧПУ, а также применение специальных установочно-зажимных приспособлений, позволяющих минимизировать погрешности базирования и закрепления детали [3].

Важным аспектом оптимизации является также выбор режущего инструмента и режимов резания. В разработанном технологическом маршруте предусмотрено использование современного высокопроизводительного инструмента с износостойкими покрытиями, что позволяет значительно повысить скорость обработки и стойкость инструмента.

Применение предложенного оптимизированного технологического маршрута позволяет достичь существенного экономического эффекта. По предварительным расчетам, экономия материала составляет до 6 кг на одну деталь. Кроме того, уменьшение припусков и оптимизация последовательности операций позволяют сократить общее время обработки, снизить трудоемкость и энергозатраты.

В заключение можно отметить, что разработанный оптимизированный технологический маршрут обработки корпуса гидрораспределителя позволяет значительно повысить эффективность производства. Достигается это за счет комплексного подхода, включающего оптимизацию выбора заготовки, рациональное построение последовательности операций, применение современного оборудования и инструмента, а также тщательный контроль на всех этапах производства. Проведенный экономический анализ показал, что годовой экономический эффект от внедрения предложенной технологии может составить 135%, что подтверждает целесообразность ее применения в производстве.

Литература:

1. Горохов В.А. Проектирование и расчет приспособлений: учебное пособие для студентов вузов. Минск: «Высшая школа», 1986. 237 с.
2. Балашов А.В., Жидецкая А. С., Потапов И.С., Светлова Т.Г. Технологическое обеспечение точности фрезерования нежестких деталей. «Вестник Приамурского государственного университета им. Шолом-Алейхема». № 2(19)2015. С. 18-22.
3. Схиртладзе А.Г., Новиков В.Ю. Технологическое оборудование машиностроительных производств. М.: Высшая школа, 2001. 407 с.

МОДИФИКАЦИИ ИЗОЛИРОВАННЫХ ГЕРМЕТИЧНЫХ ГИЛЬЗ

Ж.Н.Ёдгоров, ассистент (ТДМАУ)
А.Р.Эшпулатов магистрант (ТДМАУ)

Французские производители отмечают, что их гильзы данного типа испытаны на герметичность в воде под напряжением 6 кВ. Изолированные герметичные гильзы имеют модификации для трех случаев (рис. 1):

1. СИП с изолированной несущей нейтралью и фазных проводов (рис. 1, поз. 1);

2. нейтральных проводов (рис. 1, поз. 2);

3. СИП в абонентских ответвлениях (рис. 1, поз. 3);

4. самонесущей системы изолированных проводов (ССИП);

5. Рассмотрим особенности гильз для каждого из этих случаев;

6. Изолированные гильзы для СИП с изолированной несущей нейтралью

Изолированные гильзы для фазных проводов и для нейтральных проводов СИП с изолированной несущей нейтралью конструктивно отличаются. Это обусловлено тем, что они рассчитаны для соединения СИП в пролете между опорами. В этом случае, когда нейтральный провод является несущим и выдерживает всю механическую нагрузку, гильза, соединяющая нейтральный провод, должна быть не менее прочной, чем сам провод, и при монтаже не должна снижать его прочность. Поэтому гильзы для нейтрали длиннее, чем для фазного провода, и точек прессования у них больше.

С помощью гильз можно соединять фазные провода СИП2А как одинаковых, так и разных сечений: 16, 25, 25–16, 35, 35–16, 35–25, 50, 50–25, 50–35, 70, 70–35, 70–50, 95, 95–35, 95–50, 95–70, 120, 150, 150–70, 150–95 мм2.

У французских производителей номенклатура изолированных гильз для фазных проводов значительно шире. Так, у Niled (пример обозначения – MJPT 50) из указанных соединяемых сечений отсутствуют только гильзы для 95–35 и 120 мм2, у Sicame (MJPT 50 SF) нет гильза для 95–35 и 95–70 мм2, у Simel (MJPT 50) – для 25–16, 35–16 и 35–25 мм2. Ensto (например, SJ8.50) производит гильзы для соединения проводов только сечений 16,25,35,50,70,95 и 120 мм2 .

Лишь Simel указывает предельную прочность изолированных гильз для фазных проводов – 60% от прочности фазного провода.

Изолированные гильзы для проводов нейтрали СИП2А производятся для сечений 25; 35; 50; 54,6; 70; 70–54,6; 95 и 120 мм2. Ensto (например, гильзы SJ8.701) и Simel (MJPT 70N) поставляют изолированные гильзы для нейтрали для наиболее часто применяемых конструкций СИП (Ensto – 50; 54,6; 70; 95

мм2, Simel – 54,6; 70; 70–54,6 мм2), в то время как у двух других компаний имеется более широкий ряд таких гильз: Sicame (MJPT 70N SF) «закрывает» весь ряд сечений, а у Niled (MJPT 70N) отсутствуют гильзы только для сечения 120 мм2.

При этом опять же лишь Simel указывает предельную прочность своих изолированных гильз для нейтрали – 100% прочности провода.

Изолированные гильзы для СИП в абонентских ответвлениях

Так как СИП для абонентских ответвлений имеют малые сечения, погонный вес и прочность, то и изолированные гильзы для них имеют меньшие размеры, чем гильзы для магистральных проводов.

В номенклатуре изолированных гильз для проводов СИП и других изолированных проводов, имеющих многопроволочную жилу, применяемых в абонентских линиях (рис. 1, поз. 3 и рис. 2, поз. 4), присутствуют гильзы для сечений: 4, 6, 6–4, 16, 16–6, 16–10, 25, 25–6, 25–10, 25–16, 35, 35–6, 35–10, 35–16, 35–25, 50, 50–16, 50–25 мм2.

Французские производители имеют больший ряд изолированных гильз для абонентских ответвлений. У Niled (пример обозначения – MJPB 16–25) отсутствуют гильзы для сечений 4 и 50–16 мм2, Sicame (MJPB 25–16) не производит гильзы для проводов сечений 50–16 мм2, а Simel (MJPB 16–25) – для 4 и 6–4 мм2. Ensto (SJ8.25) выпускает гильзы только для сечений проводов 16 и 25 мм2.

Sicame и Simel указывают прочность своих гильз этой группы, и она составляет 60% от прочности соединяемых проводов.

На рис. 2 показаны срезы на двух смонтированных изолированных гильзах. Кроме изолированных гильз для многопроволочных жил в абонентских ответвлениях, имеются также изолированные гильзы для соединения в ответвлениях многопроволочных жил с однопроволочными. Их предлагает лишь Simel. Они объединены в серию MJPBAS и имеют обозначения: MJPBAS 10–35M, MJPBAS 16–16M, MJPBAS 25–35M, где первое число в обозначении – это сечение многопроволочной жилы, а второе – однопроволочной в мм2. Типоразмерный ряд этих гильз перекрывает следующие комбинации сечений соединяемых проводов (правое число – сечение однопроволочной жилы): 10–25, 10–35, 16–16, 16–25, 16–35, 25–16, 25–25, 25–35, 35–35 мм2, с прочностью 60% от прочности проводов.



Рис. 1. Модификации изолированных герметичных гильз

1 – для СИП с изолированной несущей нейтралью для фазных проводов;

2 – для нейтральных проводов;

3 – для СИП в абонентских ответвлениях



Рис. 2. Срезы двух смонтированных изолированных гильз

1 – изолированная гильза для фазных проводов;

2 – край оболочки, срезанной с конца СИП;

3 – алюминиевые провода СИП;

4 – изолированная гильза для абонентских ответвлений;

5 – герметизирующая цветная заглушка;

6 – медная многопроволочная изолированная жила



Рис. 3. Неизолированная болтовая гильза со срывными головками

Таблица 1. Неизолированные болтовые гильзы со срывными головками

Производитель	Сечения соединяемых жил		Тип набора гильз	Тип применяемой гильзы	Масса набора (г)
	Провод СИП (мм²)	Провод СИП или кабель (мм²)			
Ensto	6–25	6–25	SJK 0.47	SJ 0.47	240
	10–50	10–50	SJK 1.47	SJ 1.47	750
	50–95	50–95	SJK 2.47	SJ 2.47	1250
	95–185	95–185	SJK 3.47	SJ 3.47	1600
	150–300	150–300	SJK 4.47	SJ 4.47	3100
Simel	16–70	16–70	SMOE-81974	HEL-4896ZAK	272
	25–150	35–120	SMOE-81975	HEL-6893ZAK	376
	50–185	50–185	SMOE-81976	HEL-4893ZAK	672

Изолированные гильзы для ССИП

У фирмы Simel имеется отдельная группа изолированных гильз, которые предназначены для соединения отдельных жил самонесущей системы изолированных проводов (СИП4). В обозначении этих гильз присутствует приставка Alus, и по сравнению с фазными гильзами для СИП2А они более прочные – до 80% от прочности провода. Представители Simel рекомендуют использовать эти гильзы только в петлях опор, но, на мой взгляд, в абонентских ответвлениях, а также при малых длинах пролета (до 20 м) можно использовать изолированные гильзы Simel для соединения жил провода СИП4 в пролете между опорами.

Гильзы Simel группы Alus имеют обозначение MJPT 25 Alus …MJPT 150 Alus и охватывают следующие сечения соединяемых проводов СИП4: 16, 25, 35, 50, 70, 95 120 и 150 мм2.

Достоинством герметичных изолированных гильз является обеспечение полной герметичности и изолированности места соединения двух проводов средствами элементов, входящих в конструкцию этих гильз.

Основной недостаток этой группы гильз – постоянная необходимость иметь на месте монтажа ВЛ с СИП специальный инструмент, т.е. ручной механический или гидравлический пресс с набором шестигранных матриц для опрессовки.

Заметно большие значения массы у наборов болтовых гильз Ensto можно объяснить тем, что в один набор, кроме самих четырех гильз и четырех ТУТ, как у Simel, еще входят одна внешняя ТУТ и одиндержатель гильз. Кроме того, трубки SJ более массивные в сравнении с трубками HEL, так как в них вкручиваются 4 прижимных болта, в то время как у HEL – только 2.

Как видно из табл. 1, болтовые гильзы обоих производителей полностью перекрывают диапазон сечений отечественных СИП (от 16 до 120 мм2). Кроме того, у гильз Ensto диапазон применимости составляет от 6 до 300 мм2, где, возможно, верхняя граница будет востребована для силовых кабелей больших сечений.

Достоинством болтовых гильз является высокое качество механических и электрических соединений проводов без специального инструмента.

Основные их недостатки связаны с затратами по обеспечению герметичности и изолированности соединения проводов, выполненного такими гильзами: необходимость наличия на месте монтажа ТУТ, нагревательного прибора (паяльной лампы или газовой горелки), строгое соблюдение технологии термоусаживания.

Список литературы

1. Черноиванов, В.И. Восстановление деталей машин (состояние и перспективы) / В.И. Черноиванов, И.Г. Голубев. – М.: ФГНУ «Росинформагротех», 2010. – 376 с.

2. Kadirov S.M., Lebedev O.V., Khakimov A.M. Restoration technology of the machine part. T.: Uzbekistan, 2003 – 284 p.

3. Tim G. Automotive Service: Inspection, Maintenance, Repair. USA: Delmar Cengage Learning: 5 editions, 2015. – 1760 p.

4. А.В.Дехтеренский. Ремонт автомобилей. М.: “Транспорт”, 1992

5. Канарчук В.С. и др. «Восстановление автомобильных деталей, технология и оборудование»: учебник для вузов, - М.:Транспорт, 1995, 303 с.

SIQILGAN GAZ BALLONLARINI QAYTA TEKSHIRISH UCHUN STENDNI ISHLAB CHIQISH

Eshimov Sodiq Saydulla o‘g‘li, magistrant (TDMAU)

Siqilgan tabiiy gaz (STG) ko‘plab mamlakatlarda keng qo‘llaniladigan avtomobil yonilg‘isidir. Agar avtomobil yong‘ini yuz bersa va xavfsizlik qurilmasi ishlamay qolsa, STG avtomobil ballonining buzilishi mumkin. Bunday ballonning buzilishi atrof-muhit uchun jiddiy xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Avvalo, STG avtomobil ballonlari bilan bog‘liq turli hodisalar va ularning oqibatlarini umumlashtirgan keng qamrovli tahlil keltirilgan. Keng ko‘lamli eksperimental dasturda xavfsizlik qurilmasiga ega bo‘lmagan 21 ta STG avtomobil balloni sinovdan o‘tkazildi. Ulardan 5 ta III turdagi va 5 ta IV turdagi ballonlarda portlash sinovlari o‘tkazildi. Shuningdek, 8 ta III turdagi va 3 ta IV turdagi ballonlarda yong‘in sinovlari ham o‘tkazildi. Ballondagi bosim, ichki harorat va ballonning mantiyasi haroratidan tashqari, yaqin atrofdagi portlash bosimi va bo‘laklarning parchalanishi kabi oqibatlar ham hujjatlashtirilgan. III turdagi ballonning buzilishi natijasida kuzatilgan maksimal ortiqcha bosim p = 0,41 barni tashkil etdi. Kuzatilgan har bir parcha geografik nuqtalar bilan bog‘langan. Umuman olganda, 300 m dan ortiq masofaga uloqtirilgan parchalar qayd etildi. Muhim natijalardan biri shuki, sinovdan o‘tgan IV turdagi STG ballonlari yong‘in ta'sirida III turdagilarga qaraganda kamroq xavfli buzilish xatti-harakatini namoyon etdi.[1]

Avtomobil dvigatellarini asbob-uskunalar yordamida diagnostika qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sinov diagnostikasi hisoblanadi. Bunday sinovning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: diagnostika qilinayotgan dvigatel tizimlarining keng qamrovda qamrab olinishini ta’minlaydi; diagnostika jarayonining umumiy soddalashtirilishi bilan birga yuqori axborot beruvchi va ishonchli bo‘ladi; diagnostika parametrlari sonining kamayishi. Bundan tashqari,

diagnostika jarayoni amallarini yuqori darajada avtomatlashtirish, diagnostika interfeyslarini moslashtirish va ishlash algoritmlarining yuqori intuitiv darajasiga erishish mumkin. Mualliflar tomonidan benzinli dvigatellar uchun diagnostika vositasi - LGE-3 yuklagichi, shuningdek, gaz klapini holatini belgilovchi qurilma ishlab chiqildi. Benzinli dvigatelning LGE-3 yuklagichi bizga istalgan yuk va tezlik rejimini yaratish imkonini beradi. Silindrga yuk yoqilg‘ining har qanday silindrda to‘liq o‘chirilishi va tanlangan silindrdagi alohida yonilg‘i sikllarini o‘chirish orqali ta’minlanadi. Elektromagnit injektorlar misolida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar sinov diagnostikasining yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Gaz klapini ochilishining 25 va 70% darajasida diagnostika rejimlari ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan.[2]

Gaz yoqilg‘isi tizimlaridan foydalanish avtomobilsozlik sanoati oldida turgan bir qator ekologik muammolarni hal qilish, yoqilg‘i uchun iste’molchi xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish va dvigatelning ishlash muddatini oshirish imkonini beradi. Bunday modernizatsiyaning asosini siqilgan yoki suyultirilgan gaz uchun idishlar sifatida bosimli silindrlarni ishlab chiqarish, hisoblash, loyihalash va texnologik ta’minlash ko‘rib chiqilishi kerak. [1;151-b.].

Tabiiy gaz bugungi kunda qiziqish uyg‘otmoqda, chunki u atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytirish imkonini beradi. Chiqindilarni gaz dvigatellari yoqilg‘isida yig‘ish avtomobillari atmosferaga zararli chiqindilarni va ertalab avtomobillardan shovqin darajasini kamaytiradi. Siqilgan tabiiy gazda transport vositalarining xavfsizligi bo‘yicha tadqiqotlar ushbu transport vositalarining yuqori darajasini tasdiqladi, ammo uning ishonchliligi masalalari dolzarbligicha qolmoqda. [11;153-b.].

Gaz ballonlarini qayta tekshirish uchun stendni ishlab chiqish. Stendning dizayni quyidagi operatsiyalarni bajarishi kerak: balon yuzasini tashqi tekshirish; gazsizlantirish (tsilindrlar gazdan chiqarilishi va puflanishi kerak inert gaz); vintelni burish va ichki sirtni tekshirish; suv sinovlari (tashqi suv ta’minoti manbasidan), suvni yuvish va to‘kish; silindrning ichki yuzasini iliq havo oqimi bilan quritish (dan tashqi manba); yangi vintelni o‘rnatish.

Ushbu stendning dizaynini loyihalashda qiyinchilik mijozning talabi mexanik qurilmani haydovchi sifatida ishlatish (elektr haydovchisiz) bilan bog‘liq. Shuningdek, birlashtirilgan avtomobil qismlari va yig‘ilishlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shubhasiz, bu qaror stend va ishlab chiqarish narxini pasaytirish maqsadidan kelib chiqadi. Endi prototip (sob-40r) sifatida tanlangan stendning barcha kamchiliklari va afzalliklarini aniqlash va ularni texnik topshiriqda ko‘rsatilgan talablar va tavsiyalar bilan birlashtirish kerak. Afzalliklari: dizaynning soddaligi va ma’lum bir ko‘p qirraliligi (silindrlarning har xil o‘lchamlari uchun), qimmat elektr quvvat mexanizmlarining yo‘qligi. Kamchiliklari: yuqori narxni o‘z ichiga oladi – samarali va samarali texnologiyadan foydalanish tufayli, lekin qimmat va ehtiyotkorlik bilan

parvarish qilish, sozlash va parvarish qilishni talab qiladi, shuningdek, ushbu oʻrnatish silindrlarga texnik xizmat koʻrsatish uchun katta dastur uchun moʻljallanganligi aniq – bu ham talablarga javob bermaydi. Texnik topshiriq. Texnik topshiriqda koʻrsatilgan talablarni hisobga olgan holda, shuningdek, stend dizaynini yuqorida tahlil qilishni hisobga olgan holda, stendni joylashtirishning quyidagi varianti taklif etiladi.

1-stend ramkasining qoʻllab-quvvatlovchi tuzilishi poʻlat plitalardan yasalgan boʻlib, unda barcha asosiy elementlar payvandlangan profillar va choyshablardan joylashtirilgan. Poʻlat varaqda gidravlik sinovlardan soʻng suvni toʻkish uchun moʻljallangan 2-idish mavjud. Bundan tashqari, poʻlat varaqda vertikal ustun joylashgan boʻlib, u bir-biri bilan payvandlangan ikkita kanaldir. Ushbu echim minimal metall iste'moli bilan strukturaning maksimal qattiqligiga erishishga imkon beradi.

Vertikal tokchada gaz ballonini ishonchli mahkamlash uchun ushlab turuvchi moslama oʻrnatilgan aylanadigan qulflash gʻildiragi mavjud. Ushbu qurilmadan foydalanib, stendni gaz ballonining kerakli diametri uchun sozlash mumkin. Silindrni osongina mahkamlash uchun tutqich moslamasida tutqich tipidagi koʻtarish moslamasi mavjud.

Taklif etilgan tartib sxemasini koʻrib chiqib, biz stendlarning tartib sxemalari oʻxshash degan xulosaga kelishimiz mumkin, ammo taklif qilingan sxema bir qator muhim farqlarga ega:

1) suvni toʻkish uchun idish kiritildi, unda begona narsalar va boshqa qoldiqlarning suv idishiga kirishiga yoʻl qoʻymaslik uchun tutqich va ilmoqli qopqoq mavjud, shuningdek, idish suvni toʻkish uchun kran bilan jihozlangan; 2) siqish burilish moslamasining dizayni soddalashtirilgan. Texnik topshiriqning tavsiyalariga muvofiq, ZIL130 ichki yonuv dvigateli asosiy quvvat platformasi sifatida ishlatilgan (bunday sxema bilan VAZ-2108 rusumli avtomashinaning orqa gʻildiragi uyasi konsol podshipnikining oʻrni uchun mos keladi).;

3) Val va uyadan foydalanganda, Dvigatellarda aylantiradigan starterdan tirsakli val va valdan foydalangan holda sob-40r stendining quvvat reduktorini echimga oʻzgartirish kerak. Uning aylanishi Tok kaliti yordamida dastani aylanishi tufayli amalga oshiriladi. Bunday echim stend narxini pasaytirishga imkon beradi;

4) stendning koʻp qirraliligini ta'minlash uchun (turli uzunlik va diametrli tsilindrlarga texnik xizmat koʻrsatish), ramka taglik plitasiga oʻrnatilgan relslar boʻylab rulmanli tayanchlarda harakatlanadigan harakatlanuvchi platformani joriy etish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi.

Platformaning ramka qoʻllanmalaridan oʻzboshimchalik bilan "aylanishini " istisno qilish uchun biz burchakdan foydalanamiz, bu ham qoʻllanmalarning qattiqligini oshirish uchun zarurdir; Silindrning tishli val teshigidan burab qoʻyishni

ta’minlash uchun mo‘ljallangan dizayn elementi sifatida oddiy dizayn moslamasi ishlab chiqilgan. Tishli valining dastagiga o‘rnatilgan tok kaliti yordamida tishli tojga ta’sir ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, momentni o‘tkazish uchun qurilmaga uzatiladi. Keyinchalik, aylanadigan platformaning fiksatorining dizaynini ko‘rib chiqing (8-rasm).Ushbu stend gaz ballonlarini qayta tekshirish bo‘yicha bir nechta operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek, olib borilayotgan ishlarning xavfsizligini ta’minlash uchun mo‘ljallanganligi sababli, avtomatik fiksatorni ta’minlash zarurati aniq.

Shunday qilib, fiksator prujinasi tufayli doimiy ravishda berk holatda bo‘ladi, shuning uchun birinchi vazifa muvaffaqiyatli hal qilindi – fiksator avtomatik ravishda platformaning balonida diametri bo‘ylab burg‘ulangan eng yaqin teshikka tushadi. Ikkinchi muammoni hal qilish uchun, o‘z navbatida, vint bilan bosilgan simi yordamida balondagi teshikdan qulfni vaqtincha majburiy ravishda siqib turish imkoniyati mavjud. Operator, oyog‘ini simi bilan bog‘langan o‘qga bosib, balon teshigidan qulfni siqib turadi va shu bilan vaqtincha (oyoqni o‘qga bosganda) aylanadigan platformani keyinchalik kerakli holatga aylantirish uchun qattiq mahkamlashdan ozod qiladi. Shunday qilib, taklif qilingan stend dizayni tartibga solinadigan ishlarning to‘liq bajarilishini ta’minlashga qodir, bu berilgan texnik topshiriqqa to‘liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Tschirschwitz R. et al. Hazards from failure of CNG automotive cylinders in fire //Journal of hazardous materials. – 2019. – T. 367. – C. 1-7.

2.Gritsenko A. et al. Test Diagnostics of Engine Systems in Passenger Cars //FME Transactions. – 2020. – T. 48. – №. 1.

3.Sh. M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” 14.01.2017 y.

4.Makarova I. et al. Ways to improve sustainability of the city transport system in the municipal gas-engine vehicles’ fleet growth //Smart and Green Solutions for Transport Systems: 16th Scientific and Technical Conference" Transport Systems. Theory and Practice 2019" Selected Papers 16. – Springer International Publishing, 2020. – C. 153-168.

AGREGATNING HAQIQIY ISH UNUMINI FOYDALANISH KOEFFITSIENTLARINI TO‘G‘RI BAHOLASH- SAMARADORLIK GAROVI

Odinayev Akmal Ko‘charovich, katta o‘qituvchi (TDMAU)
Ismaylov Haliq Shadmanovich, katta o‘qituvchi (TDMAU)
Xolmatov Baxtiyor Begmatovich, katta o‘qituvchi (TDMAU)

Tayanch iboralar: mehnat unumdorligi, mehnatni ilmiy tashkillashtirish, ushlarni mexanizatsiyalashtirish, mehnatni oqilona tashkillashtirish va jadallashtirish, agregatlarning nazariy ish unumlari

Mehnat unumdorligi va uni oshirish usullari. Ma‘lumki, mehnat unumdorligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligining eng muhim ko‘rsatgichilaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi va vazifasi – kam mehnat sarflagan holda insonning mehnatidan ko‘proq foyda olishdir.

Mehnat unumdorligi sarflangan mehnat birligiga (1 kishi-kun, 1kishi-soat) to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Har qanday mehnat qo‘l kuchi bilan yoki turli ko‘rinishdagi qurollar yordamida amalga oshiriladi. Mehnat unumdorligini oshirishda uni ilmiy asosda tashkil etish muhim rol o‘ynaydi. Mehnatni ilmiy tashkillashtirish – bu ishlab chiqarishni davomli, ketma-ket va og‘ishmasdan yaxshilash hamda yangi usullar, qurollar, mehnat sharoitlarini va boshqaruvni yuqori saviyada tashkillashtirish demakdir.

Mehnat samaradorligini oshiruvchi chora-tadbirlarni uchta asosiy yo‘nalishda: ishlarni mexanizatsiyalashtirish, mehnatni oqilona tashkillashtirish va jadallashtirish yo‘nalishlarida olib borish mumkin.

Ishlarni mexnizatsiyalashtirish - qo‘l mehnatini mashina bilan almashtirish, mehnatni engillashtiruvchi turli moslamalarni va kichik mexanizatsiyalarni qo‘llash hisobiga mahsulot ishlab chiqarishda mehnat sarfini keskin kamaytirishdan iborat.

Mehnatni oqilona tashkillashtirish - eng qulay ish sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini oldindan hisoblash, odamlar va texnikani to‘g‘ri taqsimlash, soatbay grafiklar, asboblar sifatini yaxshilash, materiallarni ish uchun qulay joylashtirish, ya‘ni ish joyini eng yaxshi tartibda tashkillashtirishdan iborat.

Mehnatini jadallashtirish - har bir ishchining vazifalarni aniq taqsimlash, ish vaqtidan unumli foydalanish, ya‘ni ish vaqtini yo‘qotmaslik, ishchilarning malakasini oshirish va umumiy madaniy saviyasini ko‘tarish, shuningdek boshqa imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga aytiladi.

Qishloq xo‘jaligida mehnatni tashkillashtirishga ilmiy yondoshish, uning texnik jihozlanganlik darajasini oshirish muhim kasb etgan holda uni tashkillashtirish ancha murakkab bo‘ladi. Bunda kadrlar bilan ta‘minlash va ularni kasbiy tayyorlash; korxona ichida ishlab chiqarish sohasiga qarab mehnatni taqsimlash, o‘rindoshlik qilish, shuningdek, jamoa ichida ham mehnatni taqsimlash, ish joylarini tashkillashtirish, mehnat jarayonlarini boshqarish talab etiladi. Shu bilan birga mehnatni me‘yorlash va haq to‘lash masalalari ham mehnatni tashkillashtirish masalalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Mehnat unumdorligini oshirish - jamiyatimizning iqtisodiy qonunlaridan biridir.Mehnat unumdorligini o‘sishi ishchilar sonini oshirmasdan ko‘proq mahsulot etishtirish imkonini yaratadi.

Agregatning nazariy ish unumini aniqlash. Mehnat unumdorligini belgilaydigan asosiy omillardan biri qishloq xo‘jalik agregatlarining ish unumi hisoblanadi, agregatning ish unumi qanchalik yuqori bo‘lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Agregatning vaqt birligi ichida belgilangan sifatdagi bajargan ish miqdoriga qishloq xo‘jalik agregatining ish unumi deyiladi.Agregat ish unumi qishloq xo‘jaligida texnika vositalaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar qatoriga kiradi.

Qishloq xo‘jalik agregati bajargan foydali ish miqdori gektarda (yer haydash, chigit ekish, qator orasiga ishlov berish va b.), tonnada (paxta terish, g‘alla o‘rish va boshqalar), tonna-kilometrda (yuk tashish ishlari), m.kubda (ariq va kanallarni tozalash), metrda (o‘qariqlar olish va tekislash) o‘lchanadi.

Agregatning bir soat, smena, kunlik va mavsumda bajargan ishi yuza (ga, m^2), hajm (l, m^3) va massaviy (kg, s, t) birliklarda ifodalanadi.

Agregatning nazariy ish unumi - uning konstruktiv qamrash kengligi (V_k), nazariy harakat tezligi (υ, t) va vaqtdan to‘liq foydalanilganda, ya‘ni to‘xtovsiz ishlagandagi erishilgan ish unumiga aytiladi.

Agar konstruktiv qamrash kengligi V_k bo‘lgan agregat (1-rasm) bir soatda $υ_t$ nazariy tezlik bilan beto‘xtov harakatlansa, ishlov berilgan to‘g‘ri to‘rtburchak maydon (B_k υ, t) agregatning bir soatlik nazariy ish unumini belgilaydi.



1-rasm. Agregatning ish unumini aniqlash

Agregatning bir soatdagi nazariy ish unumi, agar B_k metr va υ t km/soatda olinsa, quyidagicha topiladi: Agregatning nazariy ish unumi quyidagicha topiladi:

$$\mathbf{Wn = 0,1\ V_k\ V_n\ T_{sm}, ga/smena}$$

Shu bilan birga 1 gektar = 10000 m^2ligi hisobga olinsa, u holda W = 0,1 ga/soat

bu yerda: V_k – agregatning konstruktiv qamrash kengligi, m; (ilovadan). V_n - traktorning ma'lum uzatmadagi tezligi, km/soat; T_{sm} – smena vaqti, soat: Tsm 7 soat.

Agregatning haqiqiy ish unumi bevosita ish sharoitlarida aniqlanadi va u ko'pgina omillarga, birinchi navbatda mexanizatorning malakasiga, ishlarni to'g'ri tashkil qilinishiga, agregatning texnik tayyorgarligiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun agregatning haqiqiy ish unumini aniqlashda uning haqiqiy qamrash kengligini nazariy qamrash kengligiga (β), haqiqiy tezligini nazariy tezligiga (ε) va toza ishga ketgan vaqtni smena vaqtiga nisbati (τ)

bilan aniqlanadigan foydalanish koeffitsientlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. 2. Agregatning haqiqiy ish unumi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{Wh = 0,1\ V_i\ V_i\ T_i = 0,1\ \beta\ V_k\ \varepsilon\ V_n\ \tau\ T_{sm}, ga/smena}$$

Bu yerda: V_i - agregatning ishchi qamrash kengligi, m:

$V_i = \beta\ V_k$; V_i - agregatning ishchi tezligi, km/soat:

$V_i = \varepsilon\ V_n$; T_i - agregatning ish vaqti, soat:

$T_i = \tau\ T_{sm}$

β - agregatning konstruktiv kengligidan foydalanish koeffitsienti; ε – agregatning nazariy tezligidan foydalanish koeffitsienti: τ – smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti.

β - koeffitsientning miqdorlari turli agregatlarning ish unumini hisoblashda quyidagicha qabul qilish tavsiya etiladi: tirkalma pluglar uchun 1,10, osma pluglar uchun -1,03-1,07, tishli tirmalar uchun -0,98, diskali tirmalar uchun -0,96, yoppasiga ishlov berish kultivatorlari uchun - 0,98, barcha turdagi seyalkalar, qator orasiga ishlov beradigan kultivatorlar uchun – 1,0, yoppasiga mineral va mahalliy o'g'it sepgichlar uchun - 0,96. ε – koeffitsienti asosan traktorning shataksirashiga bog'lik bo'lib, uning miqdori g'ildirakli traktorlar uchun 0,6…0,9, zanjirli traktorlar uchun 0,85…0,98 tashkil etadi. τ – smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti miqdori ilovaga asosan olinadi.

Xulosa. «Inson mashina-muxit»tizimi texnikalar to'g'risidagi ma'lumotlarni mobil qurilma, smartfon, planshet kompyuterlar hamda agregatlarni boshqarish bloklari orqali olish, tahlil qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini masofadan turib boshqarish imkonini beradi. Mehnat samaradorligini oshiruvchi chora-tadbi ishlarni mexanizatsiyalashtirish hamda texnikalardan samarali foydalanish, mehnatni oqilona tashkillashtirish va jadallashtirish yo'nalishlarida olib borish mumkin. Qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan ishchi xodimlar agregat haqiqiy ish

unumning foydalanish koeffitsientlaridani to‘g‘ri foydalansa, yuqori samaradorlik erishiladi.

INNOVATSION USULLAR BILAN MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH

Boboxonov Oltiboy Raxmonovich, assistent (TDMAU)
Sultonov Safan Nabiyevich, assistent (TDMAU).

Annotatsiya: Ushbu maqolada arxitektura sohasining davlat va jamiyat istiqbolida tutgan o‘rni va turli soha vakillarining kasbiy-malakaviy yetukligini oshirishda arxitekturaviy-badiiy yechimlarni amalda tadbiq etilishi nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: arxitekturaviy obraz, ruhiy omil, komfortlik, sun'iy muhit, funksional qonun qoidalar, qurilish industriasi, badiiy-estetik.

Bugun rivojlanishning innovatsion modellari va "aqlli" texnologiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqaror hisoblanadi. Bunday mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarga asoslanadi.

O‘zbekistonda innovatsiyalarni rag‘batlantirishning institutsional bazasi yaratish ham muhim vazifalardan biri. Bu o‘rinda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, keng ko‘lamli soliq imtiyozlarini taqdim etish, qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish kabi boshqa mexanizmlarga e'tibor qaratish lozimligi alohida ta'kidlandi.

Global innovatsiyalar indeksi (The Global Innovation Index) - bu dunyo mamlakatlarining innovatsion rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi global tadqiqotlar va uning reytingi hisoblanadi. Tadqiqotlar INSEAD xalqaro biznes maktabi, Kornel universiteti (Cornell University) va Jahon intellektual mulk tashkiloti (World Intellectual Property Organization, WIPO) qo‘shma loyihasi doirasida 2007-yildan buyon o‘tkazib kelinadi hamda u bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlarining keng qamrovli majmuini ifodalaydi.

Global innovatsiyalar indeksi 82 xil parametrlardan tashkil topgan bo‘lib, unda dunyoning iqtisodiy rivojlanishi turli darajalarda bo‘lgan mamlakatlarida innovatsion rivojlanish holati batafsil ifoda etilgan. Tadqiqot mualliflari iqtisodiyotning muvaffaqiyatli bo‘lishi innovatsion salohiyat va uni amalga oshirish uchun yaratilgan sharoitlar bilan bog‘liq deb hisoblaydilar. Shu bois, indeks ikki guruhdan iborat o‘lchovlar bilan baholanadi:

Innovatsiya uchun mavjud resurslar va sharoitlar (Innovation Input): institutlar;inson kapitali va tadqiqotlar; infratuzilma; ichki bozorni rivojlantirish; biznesni rivojlantirish. Innovatsiyalarni amalga oshirishda erishilgan amaliy natijalar (Innovation Output): texnologiyalar va iqtisodiyot bilimlarini rivojlantirish; ijodiy faoliyat natijalari. Shu tarzda, yakuniy indeks u yoki bu mamlakatda

innovatsiyalarni rivojlantirish boʻyicha sa'y-harakatlar samaradorligini ob'yektiv baholash imkonini beradigan xarajatlar va samaradorlik koʻrish mumkin.

Ushbu mamlakatlarda innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish boʻyicha davlat strategiyasining ijrosi shartli ravishda "kelajak vazirliklari" deb nomlanuvchi maxsus idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

Innovatsion rivojlanish uchun mas'ul idoralarning asosiy vazifasi innovatsiya va fan yutuqlarini keng joriy etish hisobiga mamlakatning iqtisodiy oʻsishi va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash hamda iqtisodiyotda intellektual ulushning koʻpayishi hisoblanadi.

Mavjud muammolarni hal qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash, innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, ilmiy yutuqlarni joriy etishni ragʻbatlantirishning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish toʻgʻrisida"gi Farmon qabul qilindi.

Oʻzbekiston 2030 yilda dunyodagi 50ta innovatsion iqtisodiyot qatoridan oʻrin olishni rejalashtirmoqda - ushbu vazifa yaqinda qabul qilingan va ishlab chiqilishi jarayonida BMTTD ishtirok etgan mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasida qayd etilgan. Xususan, Toshkentda boʻlib oʻtgan "Oʻzbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish: xorijiy tajriba, trendlar va istiqbollar" nomli ilmiy-amaliy anjumandagi muhokamalarda ham strategiyaning asosiy vazifalari va Oʻzbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish yoʻllari asosiy mavzuga aylandi.

"Innovatsiyalar darajasi qancha yuqori boʻlsa, YaIM koʻrsatkichlari ham shuncha baland boʻladi".

Oʻzbekiston pozitsiyalarini oʻrganish asosida takomillashtirish zarur boʻlgan sohalar aniqlandi. Ularning orasidan ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish; fan, ixtirolar va texnologiyalari transferini rivojlantirish; innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish; raqobatni rivojlantirish va ma'muriy toʻsiqlarni qisqartirish; infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish kabi yoʻnalishlar joy olgan.

Olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan Innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy yoʻnalishlari tadbir chogʻida taqdim etildi. Strategiyaning vazifasi - keng koʻlamli boʻlib, mamlakatning jahon maydonidagi raqobatbardoshligini va innovatsion taraqqiyoti darajasini belgilab beradigan inson kapitalini rivojlantirishdan iboratdir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. " Jahon iqtisodiyoti tarkibiy innovatsion islohotlarga yuz tutmoqda" - Ravshan Soliyev, Toshkent - 2017.
2. "Zamonaviy rivojlanish omili". Nurislom Toʻxliyev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent - 2018.
3. Kun.uz rasmiy kanali.

3-SHO‘BA
TEXNIKA FANLARI TA’LIMIDA INNOVASION YONDASHUVLAR, MUAMOLAR VA YECHIMLARI.

TA’LIM BERISH JARAYONIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY SIFATLARINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISH

Qulmamatov Romazon Juma o‘g‘li (TDMAU)

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak muhandislarga ta’lim berishda jarayonida ularni kasbiy sifatlariga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirish uchun raqamli kompitensiyasi, o‘ziga bo‘lagan tashabbuskorlik, kasbiy sifatlarini ilgari sura olish uchun qobiliyatlarini takomillashtirishda ularga mavjud belgilovchi metodlardan samarali foydalanish orqali ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarni kasbiy sifatlarini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Raqamlashtirish, kasbiy sifat, muhandis, pedagogik tajriba, o‘z ustida ishlash, ta’lim-tarbiya, takomillashtirish, natija.

Hozirgi vaqtda vujudga kelgan va muhim bo‘lgan dolzarb bo‘lgan muommalaredan biri bo‘lib bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda va ularni malakasini oshirishda amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Bu borada shu kunlarda oliy ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun pedagoglarining malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni[1], 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4391-sonli qarori[2], 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarorlari[3] ijrosini taminlash orqali oliy ta’lim muassasalari talabalarining hamda pedagoglarning malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy sifatlarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. Raqamlashtirish ta’lim muhitida afzalliklari samaradorlikni oshirish, o‘qituvchilar tomonida berilgan vazifalarni bajarishda talabalar faolligini oshirish va yangi o‘qitish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish oliy ta’lim muassasalaridagi, o‘quv dasturlarini, professor-o‘qituvchilar, xodimlarni va resurslarni boshqarish ta’lim muhitida osonlashtiradi. Raqamlashtirish ta’lim muhitining asosiy

afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda talabalarni motivatsiya va interaktiv hamda qiziqarli ta’lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish orqali o‘yin va virtual haqiqat kabi yangi o‘qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi[4]. Shu bilan birga bo‘lajak muhandislarni kasbiy sifatlarini bilishida talabalar muhandislik fanlarini yuqori bilim egallashlari kerak bo‘ladi, yo‘l muhandisligini ta’lim yo‘nalishi bo‘lajak muhandislarini olib qaraydigan bo‘lsak mutaxasislik fan sifatida “Avtomobil yo‘llaridagi sun’iy inshootlar” fanini bilim va ko‘nikmalarini oshirishda fanning juda qiyin va murakkab ekanligini hisobga olib bu fanni qismlarga ajratib bo‘lajak muhandislarni fanni o‘rganishda osonlashtirish maqsadli bo‘ladi. Qo‘shimcha qilib aytadigan bo‘lsak ta’lim muhitida AKTdan foydalanish masalalarini yetarlicha nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqish bilan masofaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak muhandisning asosiy kasbiy sifatlarini shakllantirish muammosi bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borishga to‘g‘ri keladi.

Raqamlashtirish ta’lim muhitining rivojlanishi o‘qituvchi va talabalarga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartiradi, yangi tashkiliy ta’lim tuzilmalarini shakllantirishni rag‘batlantiradi. Raqamli ta’lim formatlarini joriy etish, shuningdek, ta'lim arxitekturasida murakkab o‘zgarishlarni, o‘qitishning odatiy shakllari va usullarida muqarrar o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Hozirgi raqamlashtirish ta’lim muhitini rivojlantirishning yaqin istiqbollari belgilovchi yo‘nalishlari etib[5]

- ta’lim muassasalarini yuqori sifatli dasturiy ta’minot bilan taminlash
- ta’lim resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimlari bilan jihozlash
- talaba bilan o‘qituvchining bilvosita o‘zaro hamkorligini nazarda tutuvchi axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish
- ta’lim faoliyatini tashkil etish va talabalar va o‘qituvchi o‘rtasidagi onlayn muloqotni tashkil etish imkonini beruvchi onlayn ta’lim

Xulosa sohani o‘ganish uchun o‘ziga xos qiyinchiliklar olib keladi albatta. Shu bois ham hozirga vaqtda nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda egallagan mutaxassisliklari bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, mavjud vaziyat yuzasidan ijodiy yondashgan holda muammoli holatlarni to‘g‘ri talqin qilib, tahlil qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta’lim muassasalari raqamlashtirish ta’lim muhitiga kirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4391-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarorlari.

4. Eshquvvatov, Ulug‘bek. “Talabalarni muhandislik kasbiga yo‘naltirishning dolzarbligi”, “Педагогическая Акмеология” международный научно-методический журнал 1.3 (2023).

5. Qulmamatov R.J. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portal. DGU 20236510. Avtomobil yo‘llarini yo‘l o‘qi trassasini gorizantal ergrilikda loyihalashni EHM dasturini ishlab chiqish (DASTUR NOMI). DGU 20236510/1.20.09.2023

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (AutoCAD DASTURI) DAN FOYDALANIB MUHANDISLIK GRAFIKASINI O‘QITISH METODIK TAHLILI

Qulmamatov Romazon Juma o‘g‘li (TDMAU)

ANNOTATSIYA: Bu maqola yordamida muhandis talabalar AutoCAD dasturi bilan ishlash, uni buyruqlaridan foydalanish, chizmalarni bo‘yash, qirqim yuzasini shtrixlash, chiziq turlarini, rangini, qalinligini o‘zgartirish va shu kabi amallarni bajarishni o‘rganadi.

KALIT SO‘ZLAR. AutoCAD, proyeksion, buyum, ko‘rinishlar, o‘lcham, shtrixlash, bo‘yash, fazo, qirqim, yuza, kesma.

KIRISH. Proyeksion chizmachilikda buyumning har tomondan ko‘rinishlari umumiy oltita bo‘lib, ular quyidagilar: oldidan, orqasidan, ustidan, ostidan, chap va o‘ng yon tomonlardan ko‘rinishlari. Lekin bu ko‘rinishlarning uchtasini, ya’ni, oldidan (bosh ko‘rinish), ustidan va chap yondan ko‘rinishlari chizilsa yetarli hisoblanadi. Sababi, har qanday buyumning asosiy 3 ta gabarit o‘lchamlari, uzunlik, eni va balandligi aniqlansa, uning yaqqol tasviri, hayotdagi ko‘rinishi hosil bo‘ladi. Buyumning uchta ko‘rinishi orqali yaqqol tasvirini topish mumkin. Fazodagi nuqtani uning proyeksiyalariga tayanib topganimizdek, buyumni ham haqiqiy ko‘rinishini 2D o‘lchamli tekislikdagi epyur ko‘rinishlariga qarab topiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Chizmachilik darslarini proyeksion chizmachilik qismida talabalarga buyumni old va ustidan ko‘rinishi variant sifatida tarqatiladi. Buyumni bosh ko‘rinishi V-proyeksiya tekisligiga, ustidan ko‘rinishi H-proyeksiya tekisligiga berilgan o‘lcham bilan chizib olinadi. Buyumni mavhum

(chap koʻrinishi) qismini topish uchun H,V,W-proyeksiya tekisliklari qolip vazifasini bajaradi. V-frontal proyeksiya tekisligiga buyumni oldidan koʻrinishi, H-gorizontal proyeksiya tekisligiga buyumni ustdan koʻrinishi, W-profil proyeksiya tekisligiga buyumni mavhum qismi, chap yondan koʻrinishi topiladi. Bu chizmani chizishda koordinata oʻqlari yoʻnalish vazifasini bajaradi. Ox-oʻqi boʻylab buyumni uzunlik oʻlchamlari, Oy-oʻqi boʻylab buyumni eni, Oz-oʻqi boʻylab buyumni balandlik oʻlchamlari chizib olinadi. Buyumni uchinchi koʻrinishini topish uchun bosh koʻrinishidan balandlik, ust koʻrinishdan enini oʻlchamlari olinadi va mavhum koʻrinish topiladi. Bu **Рисование** panelini  **“Отрезок”**-kesma,  **“Круг”**-aylana chizish buyruqlari yordamida, klaviaturadan qiymatlari kiritilib chiziladi. Buyumni uchta koʻrinishi orqali buyumni yaqqol tasvirini topish yanada osonlashadi.



1-rasm. Variant. Buyumni ikki koʻrinishi va uning yaqqol tasviri



2-rasm. Buyumning ikki koʻrinishiga qarab uchinchi koʻrinishini topish.

TAHLIL VA NATIJALAR. Buyumni uchta ko‘rinishi aniq bo‘lgandan so‘ng yaqqol tasviri bo‘yicha mavhum ma’lumotlar yanada aniqlashadi. Buyumni yaqqol tasviri 2D ko‘rinishlariga qarab quyidagi ketma-ketlikda yasaladi.

1. Buyumning uch tomondan ko‘rinishlari aniq bo‘lgandan so‘ng, **Рисование** panelini **“Прямоугольник”**-to‘rtburchak buyrug‘i **LM** yordamida belgilanadi va grafik maydonni ixtiyoriy qismidan **A** nuqta tanlanadi. Klaviaturadan **@80,50** kiritiladi va **Enter** tugma bosiladi. Buyumni umumiy hajmi (uzunlik va eni) hosil bo‘ladi. Holatlar qatoridan **3D моделирование** fazosiga almashtiriladi.

2. 3D моделирование ishchi fazosi tanlab ochilgandan so‘ng, **Главная** bo‘limining **Вид** panelida joylashgan **Несохраненный вид** strelkasi **LM** yordamida belgilanadi. Hosil bo‘lgan buyruqlar qatoridan **ЮЗ изометрия** buyrug‘i **LM** yordamida tanlanadi (3-rasm) va grafik maydonda joylashgan ob’ekt gorizontal tekislikka o‘tkaziladi.



3-rasm. Ob’ektni **ЮЗ изометрия** holatiga keltirish.

3. Ob’ekt izometriya holatiga o‘tkazilgandan so‘ng, **Тело** bo‘limida joylashgan **-Вытягивание** buyrug‘i **LM** yordamida tanlanadi, ob’ekt belgilanadi va klaviaturadan balandlik o‘lchami (60 mm) kiritiladi, hamda **Enter** bosiladi (3-rasm). **2D каркас** holatidan **Концептуальный** holatiga o‘tkaziladi.



4-rasm. Ob’ektning balandlik o‘lchamini **Вытягивание** buyrug‘i yordamida kiritish.

4. Рисование panelini  **“Отрезок”**-kesma buyrug‘i yordamida ob’ektni uzunlik va balandlik tomoniga buyumni old tomoni chizib olinadi (5-rasm). Ob’ektning ortiqcha kesiladigan yuzasi chiziladi va  **“Область”**-Hudud ya’ni 3D ob’ektida soha ochish buyrug‘i orqali o‘yiq chiziqlari bir butun holatga keltiriladi.



5-rasm. Buyumni old ko‘rinishi chizish.

5. Ob’ektning o‘yiq chiziqlari bir butun holatga keltirilgandan so‘ng, **Главная** bo‘limida joylashgan **Выдавить** buyrug‘i **LM** yordamida belgilanadi. O‘yiq chiziqlari tanlanadi, Enter tugmasi bosiladi va ob’ekt enidan tashqariga chiqariladi (6-rasm).



6-rasm. Выдавить buyrug‘idan foydalanish

6. Тело bo‘limidan **“Вычитание”**-“Ayiruv” buyrug‘i **LM** yordamida belgilanadi va ob’ekt qoladigan qismi **LM** yordamida tanlanadi, hamda **RM** bosiladi. Keyin ob’ektni o‘chiriladigan qismi **LM** yordamida tanlanadi va **RM** bosiladi. Shu ketma-ketlikda ob’ektni ortiqcha qismi olib tashlanadi (7-rasm).

7. Ob’ektni old ko‘rinishi tayyor bo‘lgandan so‘ng, asosiga o‘yiladigan qismi Рисование paneli buyruqlaridan foydalanib chizib olinadi. **“Область”**-hudud buyrug‘i orqali o‘yiq chiziqlari bir butun holatga keltiriladi.



7-rasm. “Вычитание”-“Ayiruv” buyrug‘i

8. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, **Главная** bo‘limida joylashgan **Выдавить** buyrug‘i yordamida ob’ektning o‘yiq chiziqlari buyumdan chiqariladi. **Тело** bo‘limidan **“Вычитание”**-“Ayiruv” buyrug‘i yordamida buyumni o‘yiq chiziqlari olib tashlanadi (8-rasm).



8-rasm. “Вычитание”-“Ayiruv” buyrug‘i

9. Berilgan variantda buyumning ikki yoni asosidan 25 mm balandlikda, buyumdan 5 mm tashqariga chiqarilgan. Bu qismi ham **“Отрезок”**- kesma buyrug‘i yordamida chiziladi, **-“Область”**- hudud buyrug‘i yordamida bir butun holatga keltiriladi. **Главная** bo‘limida joylashgan **Выдавить** buyrug‘i yordamida buyumni ikki yoni 5 mmdan tashqi tomonga chiqariladi.

10. Тело bo‘limidan **Объединение – birlashtirish** buyrug‘i **LM** yordamida kiritiladi. Ob’ekt qismlari ketma-ket **LM** yordamida tanlanadi va **RM** bosiladi (9-rasm).



9-rasm. Объединение – birlashtirish buyrug‘i

11. Buyumni yaqqol tasviri shu jarayon bilan tayyor holatga keladi. Unga kerakli rang berish uchun buyum ustiga **LM** tugmasi ketma-ket ikki marta bosiladi. Natijada xususiyat oynasi hosil bo‘ladi. Oynaning **Цвет** qismidan kerakli rang tanlanadi, **OK** belgilanadi va **Esc** tugma bosiladi (10-rasm).



10-rasm. Ob’ektga rang berish.

Buyumni yaqqol tasviriga chorak qirqim berish.

1. Buyumni yaqqol tasviri yasalgandan so‘ng, unga chorak qirqim berish uchun **Рисование** panelini  **“Прямоугольник”**- to‘rtburchak buyrug‘i yordamida buyumni chorak qismidan katta bo‘lgan o‘lchamda to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi va **Вытягивание** buyrug‘i yordamida balandligi chiziladi (buyum balandligidan katta bo‘lishi shart). **2D каркас** holatidan **Концептуальный** holatiga o‘tkaziladi (11-rasm).



11-rasm. Buyumga chorak qirqim berish.

2. Главная bo‘limini **Редактирование** panelida joylashgan **– перенесети** – **surish** buyrug‘i **LM** yordamida belgilanadi va to‘rtburchak ob’ekt burchagi tanlanadi. Buyum markaziy o‘qiga ko‘chirib kelib, joylashtiriladi (12a-rasm).



a) **Перенесети** – **surish** buyrug‘i

b) **“Вычитание”**-“Ayiruv” buyrug‘i

12-rasm. Buyumni chorak qismini olib tashlash.

3. Ikki ob’ekt ustma-ust joylashgandan so‘ng, **Тело** bo‘limidagi **“Вычитание”**- Ayiruv buyrug‘i **LM** yordamida belgilanadi va buyumni qoladigan qismi tanlanadi, **RM** bosiladi. Keyin o‘chadigan qismi **LM** yordamida tanlanadi va **RM** bosiladi (12b-rasm). Natijada buyum quyidagi ko‘rinishga keladi (13-rasmga qarang!).



Buyumni yaqqol tasviriga qirqim berish Natija

13-rasm. Buyumni yaqqol tasviriga chorak qirqim berish

XULOSA: Auditoriyadagi raqamli texnologiya o‘quvchilarga alohida ehtiyojlarga ega bo‘lganlarga yordam berish uchun mo‘ljallangan turli xil dasturiy ta’minot va dasturlarga ishora qiladi. O‘qituvchining takroriy, ko‘p vaqt talab qiladigan vazifalar sonini kamaytirishning eng samarali yo‘li darsda texnologiyadan foydalanishdir. Ta’lim texnologiyalari ilovalari davomatni kuzatish va ishlash monitoringi kabi kundalik operatsiyalarni avtomatlashtirish yoki qisman avtomatlashtirish orqali ko‘p vaqt va energiyani tejash imkonini beradi. Talabalarga texnologiyadan mas’uliyatli va strategik foydalanishni o‘rgatadi, bu ularga qaror qabul qilishda va o‘z-o‘zini intizomni rivojlantirishda yordam beradi. Ta’limdagi texnologiya o‘quvchilarni umrbod ta’lim olishga tayyorlashga yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga virtual dunyo va o‘z ta’lim uslublariga ko‘ra raqamli bilimlardan foydalanish erkinligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. D.Jo‘rayev “Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturi yordamida proyeksion chizmalarni bajarish ” Metodik o‘quv qo‘llanma. “Vneshinvestprom” Toshkent-2023 y. 210 bet.
2. Qulmamatov Romazon Juma o‘g‘li Bo‘lajak muhandislarga ta’lim berishda ularni kasbiy sifatlarini oshirish metodikasi. france international scientific-online conference: “SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM" PART 20, 5th DECEMBER// 115-119 bet.
3. Qulmamatov Romazon Juma o‘g‘li. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy sifatlarini raqamlashtirishni ta’lim muhitida rivojlantirish// ILM SARCHASHMALARI// Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 111-114 bet.
4. Qulmamatov R.J. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portal. DGU 20236510. Avtomobil yo‘llarini yo‘l o‘qi trassasini gorizantal ergrilikda loyihalashni EHM dasturini ishlab chiqish (DASTUR NOMI). DGU 20236510/1.20.09.2023

5. Juraev Davron Amir o‘glu, Safarov Davron Isayevich and Berdimuratov Javli Abdinazarovich. "Saw in the cleaner of raw cotton from large contaminants cleaning the distance between the chimneys in the working part of the drum analysis to study the effect on effectiveness." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 659-665.
6. www.ziyonet.uz
7. www.autocad.ru
8. www.autocad.com

ХОНАҚОҲ-ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИГА ТАСАВВУФ ЗИЁСИНИ ТАРАТИШ ВА РУҲИЙ ПОКЛАНИШ МАСКАНЛАРИ

Умедуллоев М.М. (ТДМАУ)

Аннотация: *Мақолада Ўрта Осиёда тасаввуф институтининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари ва унга тегишли бинолар - "ҳонакох", унинг меъморчилиги, меъморчиликдаги ўрни ва ўрни ҳақида сўз боради.*

Хонақоҳ сўзи форсча бўлиб, “хона-ўй” маъносини англатади. Дастлаб тақводор суфийлар ва дарвешлар яшайдиган бошпаналар хонақоҳ деб аталган (баъзида улар “такя” ёки “зовия” ҳам дейилган). Хонақоҳлар Ўрта Осиёда IX асрдан эътиборан шакллана бошлаган. Тарихий манбаларда бу даврдаги Термиз, Самарқанд, Фарғона, Хуттал, Журжон ва Марв шаҳарларидаги хонақоҳлар қайд этилган [1, б.24].

XI асрда Жанубий Туркманистоннинг Майхона шаҳри (ҳозирги Миён)да яшаган суфий Абу Сайд хонақоҳларнинг шаҳар тизимидаги ўрни, суфийларнинг хонақоҳда бўлиш ва яшаш тартиб-қоидаларини ишлаб чиқади [1,б.24]. Уларга кўра хонақоҳлар шаҳарнинг хилватроқ, ҳаётий ташвишлардан ҳоли, чекка мавзеларида ички ҳовлили оддий иморатлар тарзида қурилмоғи, хонақоҳда суфийларнинг яшашидан ташқари, махсус диний маросим-зикру само рақсига қатнашишлари ҳамда мутасаввуфчиликдаги шогирд-устозлик шартлари ҳам белгилаб берилади. Устоз суфийлар, яъни шайхлар вафот этгач ўз хонақоҳлари қошига дафн этилади. Натижада шогирдлар ва кейинчалик тасаввуфга ихлос қўйган халқ оммаси томонидан бундай машҳур устоз шайхларнинг хонақоҳлари ўзига хос зиёратгоҳларга айлантирилади [2, б.99].

Бундай хонақоҳларда суфийларнинг ҳужраларидан ташқари зиёратчилар учун ҳам махсус хоналар ташкил этилади. Термиздаги Ҳаким ат-Термизий, Миёндаги Абу Сайид ва бошқа хонақоҳ-зиёратгоҳлар шулар жумласидандир.

XII аср ўрталарида суфийлар биродарлигининг ривожланиши ва тасаввуф тариқатида турли оқимларнинг вужудга келиши билан хонақоҳларнинг меъморий кўриниши ва вазифалари ҳам ўзгара боради. Бу давр хонақоҳлари меъморий жиҳатдан анча шаклланган, ички ҳовли атрофига бириккан бир неча ҳужралар, суфийлар жамоасининг йиғилиш ва зикр тушиш зали (самоъхона), устоз суфий, яъни шайхнинг ўз муридларига тасаввуф илмидан дарс бериш,, етимларга Қуръонни ўқитиш ҳамда шайх ва муридларнинг яшаш хоналари, дарвешхоналар, чиллахона, омбор ва ошхона, матраб (самоъ вақтида наът ва илоҳий қўшиқ куйловчилар ўтирадиган жой)дан тузилган. Тожикистоннинг жанубида харобалари бизгача сақланган Хожа Машад хонақосининг меъморий тузулиши бунга мисолдир.

Ўрта Осиёда турли даврларда қурилиб бизгача этиб келган хонақоҳлар ва улар ҳақидаги ёзма манбалар ушбу биноларнинг ўтмишда халқ ижтимоий ҳаётида тутган ўрни ва мавқеини, таркибий тузилишини, меъморий таснифи ва ечимларининг то XVII асргача муфассал тарзда такомиллашиб келганини кўрсатади. Бироқ, хонақоҳлар архитектураси ва ижтимоий вазифаларининг ривожланиш чўққилари асосан Темурийлар (XIV-XV асрлар) ва Шайбонийлар (XVI аср) даврига тўғри келади. Темурийлар ва кейинчалик Шайбонийлар ҳам тасаввуф (суфийлик) жамоаси фаолиятининг назоратини буткул ўз қўлларига оладилар ва ўзлари ҳам тасаввуф аҳлига хайрихоҳ ҳолда янги хонақоҳлар қурадилар. Бунинг сабаби шулки, тасаввуф таълимоти ўша даврларда ва ундан олдинроқ ҳам ҳалқ оммаси учун Ислом Шарқи дунёсининг маънавий-ахлоқий меъзонларига, тасаввуф тариқатларининг асосчилари эса халқ орасида катта обрў қозониб пиру-устозларга айланган эди.

Ҳужвирийнинг “Кашфул маҳжуб” асарида халқ орасида кенг тарқалган ва машҳур мутасаввуфчилар атрофида шаклланган тариқатлар ҳақида мукаммал маълумотлар келтирилган. Жумладан, Қодирия тариқати (асосчиси ва пири Абдуқодир Ғилоний, 1160. й.), Яссавия тариқати (асосчиси ва пири Хожа Аҳмад Яссавий), Нақшбандия тариқати (асосчиси Баҳоуддин Нақшбанд 1389 й.) ҳамда Хилватия, Рифоия, Мавлавия, Шозалия, Саъдия, Дасукия, Бадавия, Акбария, Сухравардия, Кубровия, Мадяния, Чиштия, Байрамия ва ҳакозо тариқатлар [3, б. 34-35].

Тасаввуф аҳли орасидан Абу Али Ибн Сино, Фаробий сингари дунёга машҳур олимлар; Жамолиддин Румий, Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий каби буюк шоирлар; Зуннун Ал-Мисрий, Шохин Ал-Хилватий каби кимё илми билимдонлари; Имом Ғаззолий,

Абдурахмон ас-Суфий, Иброҳим Ҳаққий сингари фалаккиёт илмининг буюк номоёндалари ва фанларнинг бошқа тармоқлари бўйича қанчадан-қанча мутафаккир олимлар етишиб чиқади.

Тасаввуф бу инсоннинг руҳиятини ва маънавий оламидаги жараён бўлиб, инсонни руҳий ва аҳлоқий камолотга етказувчи илмдир [3, б.46].

Тасаввуф мусулмончилик деган буюк бир қадриятни кенг халқ оммаси орасига ёйишга, унинг ҳамма учун баробар бўлишлигига, эл-улус осойишталиги, ҳамжиҳатлик, бир-бирига ёрдам қўлини чўзиш, биродарлик ва футувватчилик қадриятларини тарғиб қилишга ҳаракат қилади. Бу саъй-ҳаракатларга мутафаккир суфий шайхлар ва мутасаввуф шоирлар бош-қош бўладилар. Улар энди ўзларининг суфийлик институтлари-хонақоҳларини аввалгидек тақводор зоҳид дарвишларнинг макони эмас, балки ўз даврининг маънавий-маърифий марказларига айлантира бориб, айнан шу марказларда тасаввуф ва адаб илмининг амалий ва фалсафий асосларини яратадилар ва халққа тарғиб қиладилар.

Айнан шунинг учун ҳам Темурийлар ва Шайбонийлар даврида қурилган хонақоҳлар, XI-XII асрлардаги шаҳар чеккалари ва қишлоқларда хилват жойлашган оддий хонақоҳлардан фарқ қилиб, олдингиларидан муҳташамроқ, салобатлироқ, алоҳида қурилган меъморий бинолар тарзида, шаҳар ичкарисида ислом қадамжолари қошида ёки бошқа жамоат бинолари, масалан мадраса ва масжидлар билан меъморий мажмуалар ташкил қилган ҳолда шакллантирилади (3-расм). Бундай хонақоҳларнинг таркиби ва ижтимоий вазифалари ҳам ўзгара бориб, улар ўз даврининг тасаввуфчилик йўналишидаги йирик маърифий мактабларига айланади. Бу даврдаги баъзи хонақоҳлар қошида ҳаммом, масжид, қабристон, молхона ва баъзан тегирмон ҳам жойлашган [3, б.48].

Агар мадрасаларда дунёвий, ҳуқуқий ва диний илмлар ўрганилган бўлса, улар қошида қурилган хонақоҳларда (Самарқанддаги Муҳаммад Султон, Мирзо Улуғбек, Анаудаги Анау, Бухородаги Нодир-Девонбеги, Ҳиротдаги Ҳусайн Бойқаро ва Алишер Навоий мадраса ва хонақоҳларида) талабаларнинг тасаввуф бобидаги мушоҳада ва мунозаралари, улуғ машоҳийлар, пиру-устозлари билан маънавий-маърифий учрашувлари, илмий суҳбатлари ва бахслари ўтказилиб турилади. Бундай жонли суҳбатларга мутасаввуфчиларга эътиқод қилган ҳукмдорлар, улуғ шоирлар, нуфузли меҳмонлар ва сайёҳлар ҳам ташриф буюриб туради. Шунинг учун ҳам бундай хонақоҳлар архитектураси бу даврда нафақат тантанавор меъморий кўринишга, балки шаҳарнинг энг нуфузли жойларига жойлашиш ва қуриштартиботига эга бўлади. Бундай хонақоҳларни бошқариш ва иш юритиш учун уларни таъсис этган ҳомийлар ўз даврининг энг иқтидорли мударрисларини тайин этади. Мударрислар хонақоҳларни бошқаришдан ташқари тасаввуф илмига интилганларга дарс бериш билан машғул бўлади [2, б.99].

Хонақоҳлар фаолиятини моддий таъминлашга жуда катта вақфлар белгиланади. Жумладан, Бухородаги Сайфиддин Бохарзий хонақоси нафақат Зарафшон воҳасида, балки бутун Марказий Осиёда ҳам суфийликнинг энг йирик маданий-маърифий ва билим марказларидан бири ҳисобланган ва бу ерда XIV аср ўрталарида юзлаб кишилар, ҳатто чет эллардан ҳам ташриф буюриб, тасаввуф илми ва маърифатидан баҳраманд бўлганлар. XV аср бошларида Самарқандда Мирзо Улуғбек бино этган Регистон ансамблидаги Улуғбек хонақоси, шаҳардаги Абу Лайс хонақоси, Карманадаги Қосим Шайх, Бухородаги Файзобод, Ҳиротдаги Шоҳрух Мирзо, Ҳусайн Бойқаро ва Алишер Навоий, Ромитондаги Мулло-Мир, Термиздаги Кокилдор хонақоҳлари XV-XVII асрларда Марказий Осиёнинг ана шундай атоқли маданий-маърифий мутасаввуфчилик илмий марказларидан ҳисобланган [5, б.39-40].

Термиздаги Ҳаким ат-Термизий, Хуросондаги Сухравардия, Бухородаги Хўжагон, Ғиждивонний, Сайфиддин Бохарзий ва Нақшбандий (1-расм), Туркистондаги Яссавия, Хоразмдаги Кубровия, Фарғонадаги Қодирия, Карманадаги Қосим-Шайх ва ниҳоят Ҳиротдага Халосия хонақоҳлари ана шундай тасаввуф таълим масканлари ҳисобланган. Тасаввуф илмининг аксарият акобирлари айнан хонақоҳларда яшаб авом халққа тасаввуф зиёсини таратганлар, сувийлик илми ва таълим тарбияси билан шуғулланганлар. Хонақоҳларда истиқомат қилувчилар сони баъзан 100 киши ва ундан ҳам кўп бўлган [4, б.64].

Шундай қилиб, Ўрта Осиёда хонақоҳлар мактаблар ва мадрасалар билан ёнма-ён тарзда суфийлик илмининг маънавий-маърифий марказлари тизимини ташкил қилиб, кенг халқ оммасига нафақат мутасаввуфчилик зиёсини сингдириш, балки халқ маънавий ҳаёти, тафаккури ва эътиқодини бойитишда тутган муносиб роли ва ўрни билан ҳам ажралиб турган.

Фойдаланиган адабиётлар:

1. Пугаченкова Г.А. Ханака Бахауддина. –Маскан, № 7-8, 1993.
2. Уралов А.С. Архитектура ханака эпохи Темуридов. //”Амир Темур ва унинг

дунё тарихидаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий конференция маърузалари баёни. -Самарқанд, 1996.

3. Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии

(IX-начало XX в.).-Т.,1980.

4. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. –Т., Истиқлол, 1996.
5. Уралов А., Юсупов Р. Ўрта Осиёнинг ўтмишдаги таълим-тарбия ва илм-фан

масканлари. - Самарқанд, 2005.

SOPLOLI GIDROTURBINANI TAJRIBA O‘TKAZISH NATIJALARI TEXNOLOGIK YUTUQLARI.

Uzbekov Mirsoli Odiljonovich, PhD, dotsent (FarPI)
O‘rmonov Sanjarbek Raxmonjon o‘g‘li, doktorant (FarPI)

Annotatsiya: Ushbu maqolada gidroenergetik tizimlarni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot va tajribalar natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot kichik o‘lchamdagi gidroturbinalar samaradorligini oshirishga qaratilgan. Sinovlar davomida gidroturbinalarning dizayn va strukturaviy o‘zgarishlar natijasida samaradorlik 9% gacha oshishi mumkinligi aniqlangan. Optimal shaklga ega soplo bilan jihozlangan gidroturbinalar boshqa turlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlangan. Shu bilan birga, gidroenergetika nafaqat energiya ishlab chiqarishda, balki iqlim o‘zgarishining oldini olishda ham muhim rol o‘ynashi qayd etiladi. Maqolada O‘zbekiston va jahon miqyosida mikro va kichik GES larni sinflash mezonlari ham muhokama qilinadi. Kichik o‘lchamdagi gidroturbina modellarining sinov natijalariga ko‘ra, turli soplo shakllariga ega gidroturbinalarning samaradorlik darajalari taqqoslangan va bu texnologik yutuqlar energiya manbalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Gidroenergetika, gidroturbina, mikro GES, mini GES, kichik GES, samaradorlik, qayta tiklanadigan energiya, sinov natijalari, optimal soplo, strukturaviy o‘zgarishlar, iqlim o‘zgarishi.

Hozirgi kunda global miqyosda iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish muhim masala sifatida ko‘tarilmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalari orasida gidroenergetika eng maqbul va barqaror yechimlardan biri hisoblanadi. Gidroenergetika nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, balki iqtisodiy jihatdan ham samarador hisoblanadi. Xalqaro gidroenergetika assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko‘ra, har yili gidroelektr stansiyalarining quvvatlari o‘sishda davom etmoqda va kelajakda bu tendensiya yanada kuchayadi.

Jahon miqyosida gidroenergetikaning o‘rni tobora ortib borayotgani kuzatilmoqda. Hisobotlarga ko‘ra, so‘nggi 20 yil ichida gidroelektr stansiyalari va nasosli akkumulyatsiyali elektr stansiyalarining quvvatlari yiliga o‘rtacha 26 GVt ga oshgan. Prognozlarga ko‘ra, 2030-yilga kelib bu raqam 1555 GVt ga yetishi kutilmoqda. Buning asosiy sababi sifatida Xitoy, Hindiston, Turkiya va Efiopiya kabi davlatlarning gidroenergetik inshootlarga katta e’tibor qaratayotganini keltirish mumkin.

Yaqinda gidroenergetik tizimlarni yanada takomillashtirish maqsadida turli tadqiqotlar va tajribalar o‘tkazildi. Jumladan, kichik o‘lchamdagi gidroturbinalarni sinovdan o‘tkazish natijalari ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini

koʻrsatdi. Tadqiqot natijalariga koʻra, turbinaning dizayni va strukturaviy oʻzgarishlar samaradorlikni 9% gacha oshirish imkonini beradi. Optimal shaklga keltirilgan soplo (nozul) bilan jihozlangan gidroturbinalar boshqa modellarga nisbatan koʻproq energiya ishlab chiqaradi. Gidroenergetika faqat energiya ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmay, balki iqlim oʻzgarishining oldini olishda ham muhim rol oʻynaydi. Gidroelektr stansiyalari tabiiy suv oqimidan foydalanib, qayta tiklanadigan energiya manbai sifatida ishlaydi va bu jarayonda issiqxona gazlarini chiqarish darajasi minimal boʻladi. Shu bilan birga, bu turdagi energiya manbai uzoq muddatda iqtisodiy jihatdan ham arzonroq boʻlishi mumkin.

Gidroelektrostansiyalar ishlab chiqaradigan elektr energiyasi quvvatiga qarab sinflarga ajratiladi. Jahon miqyosida GES larni biror kattalikga nisbatan sinflarga ajratish borasida hech qanday kelishuv yoʻq. Shuning uchun barcha davlatlarda quvvatlariga bogʻliq holda sinflashda turli chegaralar qoʻyilgan.

Hozirgi vaqtda Oʻzbekiston Respubdikasida 30 kVt quvvatgacha boʻlgan gidroelektrostansiyalarni mikro GES sinfiga kiritilishi qabul etilgan. Jahon miqyosida esa ularni klassifikatsiyalash aksariyat mamlakatlarda quyidagicha qabul qilingan:

-mikro-GES - quvvati 0,1 MVt gacha boʻlgan qurilmalar;

-mini-GES - 0,1 dan 1 MVt gacha boʻlgan qurilmalar;

-kichik GES - 1 dan 10 MVt gacha boʻlgan qurilmalar.

Kichik oʻlchamdagi gidroturbina modellarini tajriba-sinovdan oʻtkazish stendida, suv nasosiga chastota oʻzgartirgich 220 V kuchlanishli 50Hz chastotali tok manbaiga ulandi. Chastota oʻzgartirgich yordamida nasosning rotori aylanishlar chastotasini *5000 ayl/min* qiymatiga mos keldi. Bunda $P_1=0,2$ *atm*. bosim hosil qilinib, bosimning shu qiymatidagi Q suv sarfi, suv hisoblagichidan aniqlab olindi. Sekundomer yordamida gidroturbinaning dinamik muvozanatda ishlash vaqti yozib olindi.

Tajriba gidroturbina ishchi gʻildiragining soplolar shakli turlicha boʻlgan ikkita holati uchun har birida 10 marta bajarildi.

Har bir tajriba natijalari uchun chastotnik, ampermetr, voltmeter koʻrsatkichlari yozib olindi.

Taxometr orqali soploli gidroturbina ishchi gʻildiragi aylanishlari sonini har bir tajriba uchun 5 marta oʻlchab olindi va uning oʻrtacha qiymati hisoblandi. Gidroturbina kichik modelini tajriba sinovida olingan natijalariga asosan yuqorida keltirib oʻtilgan kattaliklarning oʻrtacha qiymatlari aniqlandi. Oʻrtacha qiymatlariga asoslanib, gidroturbina kichik modelini tajriba sinovidan oʻtkazish natijalariga koʻra gidroturbina ishchi gʻildiragining soplolar shakli turlicha boʻlgan ikkita holati uchun energetik parametrlar jadval ishlab chiqildi.

Quyidagi 1-rasm grafigida soplosi optimal shaklga keltirilgan gidroturbina va soplosi to‘rtburchak shaklga ega bo‘lgan gidroturbinalarning tajriba natijasida olingan samaradorliklari taqqoslangan.



1-rasm. Soplosi optimal shaklga keltirilgan va to‘rtburchak shaklidagi gidroturbinalarning tajriba natijasida olingan samaradorliklari

Yuqoridagi grafikdagi soplosi optimal shaklga keltirilgan gidroturbina o‘zining soplosi to‘rtburchak shaklga ega analogi bilan taqqoslashdan ko‘rinadiki, soplosini optimal shaklga keltirish orqali gidroturbina samaradorligi o‘rtacha 9% ga ortishi aniqlandi.

Suv bosimi va sarfi ortgan sari soploning geometrik shakliga mos holda suv oqimi chiqish xarakteristikasi (tezligi, kinetik energiya dissipatsiyasi, bosim taqsimoti, ...) keskin o‘zgaradi, natijada turli shakldagi soplolarga ega bo‘lgan gidroturbinaning samaradorlik qiymati keskin farq qiladi. Shuning uchun har bir suv sarfi va bosimiga mos geometrik shaklni aniqlash samaradorlikni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http://www.hydropower.ru/hydropower/development.php Assotsiatsiya «Gidroenergetika Rossii»

2. https://www.hydropower.org/publications/2021-hydropower-status-report

3. O.O.Bozarov, X.O‘sarov, Piko gidroturbinalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish mikro stendi. Buxoro muhandislik-texnalogiya instituti “Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitlarida energiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2022. 222-225 b.

4. Aliev R.U., Bozarov O.O., Chiqish soploli reaktiv gidroturbinali mikro-gesning asosiy energetik parametrlari, // Andijan sh., ADU, Ilmiy xabarnoma, 2019, № 1. S. 414-416 b.

KIYIMBOP TO‘QIMALARGA BO‘LGAN GIGIYENIK TALABLAR

O.Abdurahmonov t.f.f.d., v.v.b dotsent (TDMAU)
A.Maxmatqulova, talaba, (TDMAU)

Annotatsiya: *Maqolada kiyimbop to‘qimalar gigiyenik jihatdan hamda estetik talablarga javob berishi, yaxshi kayfiyat uyg‘otishi bilan birga, ish qobiliyatini pasaytirmasligi talab qiladi shu bilan birgalikda kiyim kiygan kishi unda o‘zini erkin his qilishi lozim. Shu sababli, kiyimbosh qanday matodan tikilishi va kim kiyishidan qat’iiy nazar, hamisha yaxshi sifatli, davr talabiga va gigiyena talablariga javob berishi tahlil qilingan.*

Kiyim-kechak kishi organizmini tashqi muhitning har qanday ta’sirlari (issiq, sovuq, qor, yomg‘ir, shamol va h.k)dan muhofaza qilishi, shuningdek, har qanday ob-havo sharoitida ham tana haroratini bir me’yorda tutib turishiga yordam berishi zarur xisoblanadi. Kiyim tikiladigan matolarga nisbatan fizik va gigiyenik talablar qo‘yiladi. Uning og‘irligi, qalinligi, havo o‘tkazish hususiyati, namlikni o‘tkazish-o‘tkazmasligi kabi hususiyatlari e’tiborga olinadi. Bundan tashqari, kiyim tikiladigan matoning nurni o‘zidan qaytarishi, yumshoqligi, yuvganda va dazmollaganda dastlabki ko‘rinishini yo‘qotmasligi, tez kirdan tozalanishi, chang yutishini ham hisobga olish lozim. Kiyim organizmni yozda issiqdan, qishda sovuqdan va har xil tashqi ta’sirlardan asrashi lozim. Gigiyena jihatidan bekam-u ko‘st libos tanada o‘ziga xos mikroiqlim hosil qiladi. Bu esa kishining salomatligini yaxshilash bilan birga kayfiyatiga ham ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi. Kiyimlar issiqlik o‘tkazishiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. Hayvon terisi va parranda patlaridan tayyorlangan kiyim issiqlikni juda kam o‘tkazadi. Ip, zig‘ir tolasi va shohi matolar issiqlikni ko‘proq o‘tkazadi. Jun va ip-gazmollardan tikilgan kiyimlar issiqlik o‘tkazish jihatidan o‘rtacha hisoblanadi. Faslga qarab ham har-xil kiyimlar kiyiladi, ya’ni qishda bir necha kiyim ustma-ust kiyiladi. Bunda kiyimlar orasidagi havo issiqlikni kam o‘tkazadi. Ayni vaqtda organizmni tashqi muhit haroratining o‘zgarishidan himoya qiladi. Kiyimni faslga qarab to‘g‘ri tanlash salomatlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. O‘rta Osiyo iqlimi quruq va keskin kontinentalligi bilan farq qiladi. Yoz faslida kunlar juda isib ketadi, namlik juda kam bo‘ladi. Bahor va kuz faslida havo harorati ancha o‘zgaruvchan bo‘lib, kuchli shamol esadi, namlik yuqori bo‘ladi. Qish faslida esa havo harorati past va oqimi kuchli bo‘ladi. Shuning uchun havo haroratiga qarab kiyimlarning gigiyenik hususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash maqsadga muvofiqdir.

Ko‘ylakbop mato o‘zida elektrostatik zaryadlarni mumkin qadar kam saqlaydigan, organizmga ta’sir qiladigan mayda zarrachalarni (chang, bakteriya va h.k) o‘tkazmaydigan bo‘lishi kerak. Ichki kiyim (badanga tegib turadigan) namlikni,

havoni yaxshi oʻtkazadigan hamda gigroskopik boʻlishi lozim. Bunday xususiyatga ega toʻqimadan toʻqilgan kiyimlar inson organizmdan chiqadigan karbonat angidrid, ter hamda teri orqali ajraladigan boshqa moddalarni, *jumladan*, suvda eruvchi vitaminlarni, moddalar almashinuvida hosil boʻladigan zaharli birikmalarni tashqi muhitga chiqarib yuborish xususiyatiga ega boʻladi. Shuningdek, kiyimlik matoni yuvish va tozalash oson boʻlishi lozim, chunki kiyim yil fasliga, kishining jinsi, yoshi, gavdasi, boʻyi va bajaradigan ishi hususiyatiga mos boʻlishi lozim. Kiyim quyidagi asosiy gigiyenik talablarga javob berishi lozim:

- quruqligida va namligida ham havoni yaxshi oʻtkazishi;
- issiqda namni-terni shimadigan va tez quriydigan;
- quyosh nurini qaytaradigan va teriga ta'sir qilishiga yoʻl qoʻymaydigan;
- badanga yopishib turmasligi (ter bugʻlanishiga halaqit bermasligi);
- elektrostatik zaryadlardan holi boʻlishi lozim xisoblanadi.

Qish mavsumda kiyiladigan kiyimning issiqlik oʻtkazish xususiyati kam boʻlishi kerak. Kuz va qish fasllarida, havo sovuq paytlarda, faqat bir qavat ichki kiyim kiyish kamlik qiladi. Sababi kiyim qavatlari orasida havo almashinib turadigan boʻlishi uchun uni sal kengroq tikish lozim. Quyosh yogʻdusini oʻzida yutadigan qora va jigarrang matodan tikilgan kiyimlar yilning sovuq fasllarida kiyiladi. Oq rang esa quyosh nurini qaytaradi, shu tufayli Oʻrta Osiyo sharoitida, asosan, ochiq rangli ip va ipakdan tikilgan kiyimlar kiyiladi. Kiyim har bir odamning oʻziga loyiq boʻlishi shart. Tor libosda odam erkin harakat qila olmaydi, bundan tashqari, organizmda qon aylanishi buziladi. Dagʻal gazmoldan tikilgan kiyim terini taʻsirlab har xil teri kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Kiyimbop toʻqimalarning gigiyenik hususiyatlari havo harorati qanday boʻlishidan qatiiy nazar, organizm haroratini muvozanatda saqlay olish hususiyati kiyimga qoʻyiladigan asosiy gigiyenik shart hisoblanadi. Kiyimbop toʻqimalarga asosan, tabiiy (paxta, zigʻir), hayvon (jun, ipak), suniiy (kapron, neylon, lavsan, shtapel va b.sh) tolalardan toʻqilgan matolardan tayyorlanadi. Matoning havo oʻtkazuvchanligi qancha yuqori boʻlsa, uning issiqni saqlash xususiyati shuncha past boʻladi. Bu xususiyat, asosan, matoning xossasiga, qalinligiga, tolasining yoʻgʻon-ingichkaligiga, toʻqilishi va gʻovakligiga bogʻliq. Namni yaxshi oʻtkazadigan matodan tayyorlangan kiyimlar terning bugʻlanishiga yordam beradi. Yupqa va silliq matolar namni tez bugʻlantiradi, jundan ipidan toʻqilgan kiyimlar esa paxta tolasidan toʻqilgan kiyimlarga nisbatan namni sekin bugʻlantiradi va organizm haroratini bir meʻyorda saqlaydi. Namgarchilikda bir necha qavat kiyim kiygan maʼqul, chunki kiymlar orasidagi havo hisobiga u yerda oʻziga xos „mikroiqlim" hosil boʻladi. Mikroiqlim harorati ustki kiyimning oʻtkazuvchanlik hususiyatiga bogʻliq. Turmushda tabiiy, yaʼni oʻsimlik tolalari (paxta, zigʻir va h.k)dan toʻqilgan matolarga ehtiyoj katta. Bir xil tolalardan har xil gigiyenik xossalarga (issiq, sovuq,

qalin, dagʻal, gʻovak va h.k.) ega boʻlgan kiyim-boshlar tayyorlanadi. Junning issiqlik oʻtkazmaslik hususiyati yuqori boʻlib, zigʻir va ipak tolasi undan keyingi oʻrinda turadi. Ip gazlamadan toʻqilgan kiyim yuvilganda yoki nam tortganda oʻzining dastlabki koʻrinishini yoʻqotadi. Issiqni saqlash hususiyati ham kamayadi. Jundan toʻqilgan gazlamalarning gigroskopik hususiyati yuqori boʻlib, boshqa tabiiy tolalarga nisbatan namni yaxshi shimadi. Pishiq toʻqilgan, yumshoq va gʻovak matolar gigiyena talablariga mos keladi. Suniiy tolalar. Suniiy tolalar oʻtgan asrda birinchi marta yogʻoch sellyulozasidan olingan. Suniiy tolalardan tikilgan kiyimlarning asosiy kamchiligi nam tortganda uzoq vaqt quriydi va quriyotganda organizmdan issiqlikni koʻp tortib oladi. Unda elektrostatik zaryadlar paydo boʻladi. Bu zaryadlar kishi badaniga noxush taʼsir qiladi: terini qichishtiradi, badanga va kiyimga yopishadi. Sintetik kiyimlar namni kam shimishi tufayli, ter va yogʻ bezlari faoliyatiga salbiy taʼsir qiladi. Har xil teri kasalliklariga sabab boʻlishi mumkin. Lavsan tolasi jun tolasidan 3 baravar mustahkam boʻlib, issiqqa va kimyoviy taʼsirga, quyosh nuriga chidamli, yuvganda oʻzgarmaydi. Koʻpincha tabiiy tolalar bilan sintetik tolalar qoʻshib toʻqiladi. Bunda mato pishiq, havo oʻtkazadigan, gʻijimlanmaydigan va gigiyena talablarga javob beradi.

Bolalar kiyimiga qoʻyiladigan gigiyenik talablar: Yosh bolalarning kiyimlari yozda yengil, yupqa va salqin, qishda issiq hamda yuvganda, dazmollaganda gigiyenik hususiyatini yoʻqotmaydigan boʻlmogʻi lozim. Shuning uchun bolalar kiyimi iloji boricha tabiiy tolalardan toʻqilgan matodan tikiladi. Yosh bolalar uchun ikki qavat ich kiyim kiyish tavsiya qilinadi: ip gazlamadan tayyorlangan koʻylak va paxmoq matodan tikilgan kamzulcha tayyorlanadi. Bolalar kiyimi dazmollab, dezinfeksiya qilib turiladi. Yosh bola tanasining har bir kilogrammi 704 sm^2 sathga, 6 yashar bolada 426 sm^2, katta odamlarda esa bu koʻrsatkich 291 sm^2 ga teng. Bir yashar bola har bir kg vazniga 91,3 kkal issiqlik ajratadi, 2,5 yoshli bola 71,5 kkal, katta odam esa bor-yoʻgʻi 42,2 kkal issiqlik ajratadi. Yosh bolalar organizmi xali yetarlicha takomillashmagani sababli, tashqi muhit sharoitiga (yuqori va past haroratga, yuqori namlikka, havo almashish tezligiga va h.k larga) kattalarga nisbatan chidamsiz boʻladi. Shuning uchun ham teri oʻz faoliyatini toʻgʻri bajarishi uchun ichki kiyim qulay va ustki kiymlarni ifloslanishdan saqlashi lozim. 3 yoshdan 7 yoshgacha, yaʻni maktabgacha yoshdagi bolalarni ustki kiyimi uchun movljallangan matolarga 50 foiz miqdorida sunʻiy va sintetik tolalar qovshish mumkin. 3 yoshdan kichik bolalarga sunʻiy tolali matolardan kiyim tikish mutlaqo mumkin emas. Maktab kiyimini 10 foizgacha sintetik tola aralashtirilgan jun matodan, bahor va kuz fasliga moʻljallanganini esa paxta va lavsandan tikkan maʼqul. Bolalar kiyimlari boʻyicha sanitariya nazorati mutaxassisi bolalar kiyimining yangi nusxalarini yaratishda rassomlar kengashida ishtirok etishi hamda

kiyimga gigiyenik nuqtayi nazardan baho berishi, kiyimlarning tayyorlanishida zarur qoidalarning amaliyotini nazorat qilmog‘i lozim.

Ichki kiyimlar: Ich kiyimlarni haftada bir marta almashtirib turish kerak. Tekshiruvlardan ma‘lum bo‘lishicha, ich kiyimda 6 kundan keyin 4 – 5 %, 10 kunda esa 11 % gacha kir yig‘ilar ekan. Ip gazlamadan to‘qilgan ich kiyim qaynatib yuvilganda bir yo‘la ham kirdan, ham mikroblardan tozalanadi. Ko‘rpa va yostiq jildlar, choyshabning ip gazlamalardan tikilgani ma’qul. Bularni kraxmallash (oxarlash) tavsiya etilmaydi. Oharlangan matolar o‘zidan havoni kam o‘tkazishi bilan birga namlikni shimmaydi. Ko‘rpa, yostiq jild va choyshablarni har 7 – 10 kunda tozasiga almashtirib turish shart.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kiyimbop to‘qimalar asosan bugungi kundagi bozor talabi asosida kiyimlarga qo‘yilgan fizik mexanik xossalari yaxshi, gigroskopik xususiyatlari talabga javob beradigan maxsulot qilib ishlab chiqarilsa maqsadga muvofiq xisoblanadi. Bunda kiyimbop to‘qimalar asosan tabiiy va aralash tolaviy tarkibli iplardan ishlab chiqarilishi maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.Sh.Abdurahmonov, D.N.Qodirova, N.Q.Safarov, S.N.Yarashov va I.N.Boltayevlar “*Kiyimbop to‘qima tuzilishiga ta’sir etuvchi taxtlash omillarini tadqiq qilish*” nomli manografiya “IRFON-PRINT” nashriyoti, Termiz 2022. – 108 b.

2. O.Sh.Abdurahmonov va I.N.Boltayevlar “*Ko‘ylakbop to‘qimalar tuzilishi va iste’mol xossalari*” Soha korxonalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajribalar mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjuman to‘plami. Toshkent-2022.

3. O.Sh.Abdurahmonov va I.N.Boltaevlar “Kiyimbop to‘qima tuzilishi va fizik mehanik xossalariga ta’sir etuvchi taxtlash omillarini tadqiqi ” Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida muhandislik-texnologiya sohasini rivojlantirish istiqbollari mavzusida xalqaro talabalar anjumani 2022 yil 30-noyabrdagi konferensiya. Termiz 2022

4. O.Sh.Abdurahmonov., N.Q.Safarov., S.N. Yarashov, E.I.Ismatullayev. Ko‘ylakbop to‘qimaning taxtlash omillari va fizik-mexanik xususiyatlari tadqiqi. Respublika ilmiy-amaliy konferensi Farg‘ona-2022.

PNEVMOMEXANIK USULDA IP YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI

O.Abdurahmonov t.f.f.d., v.v.b dotsent, (TDMAU)
A.Murtozayev magistrant. (TDMAU)

Annotatsiya: *Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlarining sifatiga talab ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatiga ip yigiruv sanoatiga ham yuqori talablar qo‘yadi. Ip-kalava mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish va ip sifat ko‘rsatkichlarini oshirishda texnika va texnogiyalarni yangi turlarini yaratishni taqozo etadi.*

To‘qimachilikning barcha tarmoqlarini yangi ilg‘or mashinalar bilan ta’minlash mashinasozlik sanoati zimmasiga mas’uliyatli vazifani yuklaydi.

Pnevmomexanik yigirish mashinalarining yaratilishi paxtadan ip yigirish taraqqiyotining takomillashishiga sabab bo‘ladi. Pnevmomexanik yigirish mashinalari yigirish kameralarining yuqori aylanish chastotasiga egaligi, to‘liq avtomatlashtirilganligi, keng imkoniyatliligi, ya’ni turli uzunlikdagi va har xil turdagi tolani qayta ishlash qobiliyati, turli chiziqli zichlikdagi iplarni ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Zamonaviy ip yigiruv korxonalarida o‘rnatilgan pnevmomexanik yigirish mashinalarining yigirish kamerasi aylanishlar chastotasi oshirilgan. Riter firmasining R60 pnevmomexanik yigirish mashinasi 540 tagacha yigirish kamerasi o‘rnatish mumkin. Mashina to‘rtta yuqori tezlikga ega bo‘lgan robotlar bilan jihozlanganligi va yigirish chastotasining maksimal aylanishlar chastotasi 170000 min^{-1} ga teng [1].

Schlafhorst Autocoro 8, Riter R60 pnevmomexanik yigirish mashinalari kameraning aylanishlar chastotasi 180000 min^{-1}gacha etkazilgan. Ushbu mashinalardagi yigirish kameralari soni 600 taga etkazilgan [2].

Saurer Schlafhorts firmasining Autocoro 8 mashinasining yigirish kamerasi 23 mm, kameraning aylanishlar chastotasi 200000 min^{-1} ga teng. Mashinada kameralar soni 480 ta [3].

Bundan tashqari yigirish Rieter (Shveysariya) firmasining R10, R20, R40, R66 Schlafhorst (Germaniya) firmasining BD-330, BD-360, BD -380, Oerlikon (Chexiya) firmasining Autocoro 288, 312, S 360 i 480 mashinalari oldin ishlab chiqarilganlariga nisbatan konstruktiv jihatdan takomillashtirilgan.

Pnevmomexanik yigirish mashinasida asosiy ishchi organlardan hisoblangan diskretlovchi barabanlar oxirgi yillarda ishlab chiqarilgan yigiruv mashinalarida optimal profilining garnituralar bilan jihozlanganligi va ishqalanishga bardoshli

bo‘lgan qoplama o‘rnatilgan. Mashinaga xizmat ko‘rsatuvchi robotlar bilan jihozlanganligi yigiruv mashinalarining ish samaradorligi oshishi va xom ashyodan to‘g‘ri foydalanish va mahsulot sifat ko‘rsatkichlarini oshishiga xizmat qilmoqda.

Mashinasozlik kompaniyalari ilg‘or texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yigiruv mashinalarini tavsiya qilmoqda. Yigirish kamaralarining optimat varianlari yaratildi. Turli o‘zgaruvchan yigirish kameralarida turli yo‘g‘onlikdagi piltalardan kerakli chiziqli zichlikdagi iplarni olish mumkin. Yigirish kamerasining diametri kattalashgan ipning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Pnevmomexanik yigiruv mashinasining dastlabki robot mexanizmlarini 1975 yilda Suyessen (Germaniya) tomonidan ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi kunga kelib pnevmomexanik yigiruv mashinalari to‘liq avtomatlashtirilgan.

Rieter firmasining BT 903 pnevmomexanik yigirish mashinalari qisman avtomatlashgan. Yarim avtomatlashgan pnevmomexanik yigirish mashinalari uzulgan iplarni ulash, to‘lgan bobinalarni avtomatik almashtirish va tashish kabi operatsiyalarni bajarish imkoniyatlarigi ega. Mashinaning yigirish kameralari aylanishlar chastotasi 75000–95000 min^{-1} ga tezlashish imkoniyatlariga ega [4].

Ta’minlanayotgan piltani to‘rt yuz marta cho‘zish imkoniyatiga ega bo‘lgan Ri-QBOX yigiruv bloki bilan R1, R20, R40 markali mashinalar jihozlangan bo‘lib, 10 teksdan 125 teksgacha bo‘lgan yo‘g‘onlikdagi sifatli iplarni ishlab chiqaruvchi imkoniyatiga ega.

Jahonning rivojlangan pnevmomexanik yigirish mashinalari ishlab chiqaruvchi firmalari ishlatilayotgan hom ashyo turi va ishlab chiqariladigan mahsulotga qarab har xil diskretlovchi barabanlar bilan jihozlanmoqda. Oerlikon (Chexiya) firmasining Autocoro 8 mashinalarda yigirish kamerasi (1-rasm), bu esa yigirish kamerasining aylanish tezligini 200000 min^{-1} gacha oshirilgan va kameraning diametri 23 mm ni tashkil etadi. Lekin shunga qaramasdan ipning xossa ko‘rsatkichlari, ya’ni uzish kuchi yaxshilanishiga erishilgan.



1-rasm Diskret barabanchalari-ning aylanish o‘qlari

Ushbu yigiruv mashinalarning hammasi katta tezlikda ishlovchi, energiya tejamkor hamda kopyuterlashgan hisoblanadi. Bundan tashqari, mashinaning ma’lumotlarini yig‘uvchi va qayta ishlovchi elektron tizimi har bir yigiruv qurilmalarining ishlash jarayoni to‘g‘risida alohida ma’lumotlar to‘plash va qayta ishlash imkoniyatiga ega. a - Schlafhorst firmasining Autocoro 8 yigirish mashinasiga hizmat ko‘rsatuvchi

avtomat robot. b – Savio S.P.A. FlexiRotor S 3000 pnevmomexanik yigirish mashinasi.



a) b)

2-rasm. Pnevmomexanik yigirish mashinasi avtomatik roboti.

Autocoro firmasining pnevmomexanik yigirish mashinalarida Corolab 7 optik-elektron monitoring tizimi orqali ishlab chiqarilayotgan ipning sifat koʻrsatkichlari boʻyicha spektrogrammalar va boshqa maʼlumotlar berish orqali mahsulot sifatini nazorat qilishni taʼminlaydi.



3- rasm. Qoʻsh diskli yuritma.

Savio S.P.A. FlexiRotor S 3000 pnevmomexanik yigirish mashinasi yigirish kameralarini harakatga keltirish uchun qoʻshaloq disklar qoʻllaniladi.

Yigirish kamerasi aylanishlar chastotasi keskin oshganligi natijasida tolalarning ipda zichlashib joylashishi ortib, ipning xossa koʻrsatkichlari yaxshilanishiga olib keladi. Shu sababli kalta tolalardan yuqori talablarga javob beruvchi ip yigirish imkoniyati ortib bormoqda.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pnevmomexanik yigirish mashinalarini va ishchi qismlarni takomillashtirish yigirilgan ip sifat koʻrsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Respublikamizda toʻqimachilik mahsulotlari sifatini taʼminlash, assortimentini oshirishda yigirilgan iplarning fizik-mexanik va sifat koʻrsatkichlarni yaxshilash boʻyicha tadqiqotlar olib borish lozimligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. R. Huber. Faktor in OE-performance. Textill. Asis. -1981. –v.12. Nr.6 – p.41-47.

2. Меркулов Т.А. Изыскания оптимальных параметров гарнитур для чесальных машин нормального габарита. Дисс. Канд.тех.наук. Иванова. 1992.

3. G‘ofurov J.Q., Jumaniyozov J.Q., G‘ofurov Q.G‘. Pnevmomexanik ip srukturasining shakllanishi” “To‘qimachilik muammolari” 2007 yil 1-soni 44-45 betlar.

4. К.Ж.Жуманиязов,А.Д.Джураев и др. Сороотводящий воздуховод с переменными параметрами пневмомеханической прядильной машины. «Тўқимачилик муаммолари» №2 сон 2008й.

PNEVMOMEXANIK USULDA IP ISHLAB CHIQARISH STRUKTURASI VA XOSSALARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARI TAHLILI

O.Abdurahmonov t.f.f.d., v.v.b dotsent, (TDMAU)
A.Murtozayev, Magistranti. (TDMAU)

Pnevmomexanik ipning xossa ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish bo‘yicha juda ko‘p tadqiqot ishlari bajarilgan. Paxta ipining xossalariga (uzish kuchi) ta’sir etuvchi omillarni o‘rganib, natijalar ko‘p jihatdan uzish kuchini aniqlash metodikasiga ham bog‘liqligi tekshirilgan ishlar bajarilgan [1]. Uster Tensorapid -3 asbobi hamda Tensojed asbobidagi sinovlar natijalari qiyoslangan. Turli ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlik koeffitsientlari keltirilsa-da, amaliy tavsiyalar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilmagan.

Ikkita o‘lchamdagi (diametrlari 36 va 45 mm) yigirish kameralari ishi solishtirilganda diametri 45 mmli kamera ingichka iplarga yaramasligi ta’kidlanib, diametrlari 36 va 40 mmlilari tavsiya etilgan.

Yigirish kameralari aylanishlar chastotasining ip xossalariga ta’sirini o‘rganib, diametri 28-29 mmli kameralarning aylanishlar chastotasini 150000 min^{-1} gacha oshirish mumkinligi ko‘rsatilgan. Tajribada chiziqiy zichligi 14,5 teks bo‘lgan ipning notekisligi kamera diametri kichiklashgan sari pasayishi aniqlangan [2].

Yigirish tezligini ip notekisligi va jarayon barqarorligiga qarab prognoz qilish ham muhim ahamiyatga egaligi uchun tadqiqot ishlari olib borilgan [3]. Ipning uzish kuchi ehtimoliy taqsimotga asoslangan matematik model ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘rtacha ip tarangligini inobatga olib yigirish tezligi (yigirish kamerasi aylanishlar chastotasi)ni aniqlash mumkinligi ta’kidlanadi.

Pnevmomexanik yigirishda yigirish kamerasi tezligining ip fizik-mexanik xossalariga ta’siri chiziqiy zichligi 20 teksli paxta ipida o‘rganilgan. Unda Kono matritsasi bo‘yicha tajribalar yigirish kamerasining 45000, 55000 va 65000 min^{-1} aylanishlar chastotasida o‘tkazilgan. Eng yaxshi ko‘rsatkich ipuzish kuchi 10,2 sN/teksga teng bo‘lgan. Tajribalar natijasida regression modellar olingan va ulardan foydalanib, sakkizta parametrlarni baholash mumkinligi ta’kidlanadi. Mazkur ishda kamera diametrlari va yigirish tezliklari orasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida gapirilmaydi.

Yigirish kamerasi diametri kichiklashtirilsa, ip sifati yomonlashishi kamayadi deyilib, yigirish mashinasi unumdorligini oshirish uchun pishitishni kamaytirish tavsiya etiladi.

Pnevmomexanik ipning xossa ko‘rsatkichlariga ustuvor ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Buning uchun yigirish kamerasi diametri 34 mm dan 66 mm gacha o‘zgartirilib, chiziqiy zichligi 30 teksli sof paxta ipining uzishdagi uzayishi ε_0 va ipdagi buramlar soni K_1 (pishitilganlik) aniqlandi. Pnevmomexanik ip yigirish bo‘yicha dastlabki tajribalar tahlillari shuni ko‘rsatdiki, kamera diametri kattalashgan sari ipning nisbiy uzayishi 7,7% dan 4,7% gacha (1-rasm, a) va ipdagi buramlarning nominal qiymati 840 b/m bo‘lishiga qaramay, amaliy buramlar soni (pishitilganlik) 754 b/m dan 683 b/m gacha (1-rasm, b) kamayadi. Buni izohlash va kengroq o‘rganish maqsadida chirmashish koeffitsienti bilan yigirish kamerasi diametri orasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.



a) b)

1-rasm. Yigirish kamerasi diametrining ip uzayishi a) va buramlar b) kattaliklariga ta’siri

Mazkur ishda shuningdek yigirish kamerasining tezligi (aylanishlar chastotasi) oshishi bilan tolaga ta’sir etuvchi markazdan qochma kuchning kattaligi oshib, uni novda zichroq jipslanib joylashishiga olib kelishi aniqlandi (2-rasm, a). Tolalarning zichroq joylashishi ipning ham solishtirma zichligi oshishiga olib keladi. Natijada zichroq joylashgan tolalarning cho‘zishga, sirpanishga qarshiligi ortadi deb faraz qilish mumkin. Shu mulohazadan kelib chiqib, chiziqiy zichligi bir xil 50 teksli ip 5-I aralashmadan tayyorlangan piltadan yigirish kamerasining to‘rt xil tezlik (45000, 60000, 75000, 90000 min^{-1}) larida BD-330 yigirish mashinasida boshqa parametrlar o‘zgarmagan holda yigirildi.



A



B

Olingan ip namunalarining fizik-mexanik xossalari o‘rganildi. Shuni ta’kidlash kerakki, sinov natijalarida yigirish kamerasi aylanishlar chastotasi o‘zgarishi bilan ipning uzish kuchi bir xil qonuniyatda o‘zgarmasligi aniqlandi (2-rasm, b).

Xulosa. Shunday qilib, pnevmomexanik yigirish mashinasi yigirish kamerasi geometrik va kinematik parametrlarining ip strukturaviy xossa ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganilib, kamera diametrining kichrayishi bilan ip buramlari yo‘qolishining pasayishi aniqlandi. Yigirish kamerasi aylanishlar chastotasining ortishi esa ip zichligini kattalashtirib (diametrini kichiklashtiradi), boshlang‘ich Yung modulini ortishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Majumdar Abhijit (College of Textile Technology, Berhampore 742 101, India). Assessment of tensile properties of cotton yarns. Indian J. Fibre and Text. Res. 2001. 26, №4, 354-357 b.

2. J.Q.G‘ofurov. Pnevmomexanik yigirish mashinasi kamerasining ishchi parametrlarini takomillashtirish asosida ip sifatini oshirish yo‘llari. //Nomzodlik dissertatsiyasi aftoreferati. Toshkent 2007 yil.

3. Gafurov J.K., Maxkamova Sh.F., Gafurov K., Burxonov D.X., Ob udlenenii volokon v treugolnike krucheniya pryaji pnevmomexanicheskogo sposoba pryadeniya, Innovatsionnыe

ISSIQLIK TARMOG‘IDAGI YO‘QOTILADIGAN ISSIQLIKNING IZOLYATSIYASI QILINGAN TURLI XIL QUVURLARDA TAHLIL QILISH

Maqsudov Rustamjon Ismoilovich katta o‘qituvchi (FarPI)
Sodiqov Mirzoxid Ulug‘bek o‘g‘li magistr (FarPI)

Annotatsiya: Magistral quvurlarning issiqlik yo‘qotilishi asosan quvur materiali va izolyatsiya qoplamasiga bog‘liqligi. Energiyani tejash uchun to‘g‘ri quvur turini tanlash lozim.

Kalit so‘zlar: izolytasiya, bimetall, polietilen, izolyatsiya materiali, energiya tejamkor.

Hozirgi kunda isitish quvurlari va isitish tizimlari issiqlik izolatsiyasiz tasavvur qila olmaymiz. Izolyatsiyasiz quvurlar 30-40% issiqlikni yo‘qotadi. Issiqlik izolyatsiyasi nafaqat issiqlik tarmog‘ida belgilangan haroratni saqlab qoladi, balki quvurlarda yuzaga keladigan kondensatsiya paydo bo‘lishining oldini oladi, bu uning xizmat muddatini uzaytiradi. Har qanday maqsad va funksionallik uchun barcha turdagi issiqlik uzatish quvurlarga bir qator talablar qo‘yiladi, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Bosim va haroratning oshishi quvurlarning mustahkamligi va germetikligiga yo‘qotmasligi lozim;
- Issiqlik uzatish quvurlari issiqlik izolatsiyasining yuqori ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi kerak, bu issiqlik tashuvchining issiqlik yo‘qotilishini kamaytirishga sabab bo‘ladi;
- Tashqi va ichki korroziyaga chidamliligini oshirish;

Magistral va taqsimlovchi issiqlik tarmoqlarini o‘rnatish va yotqizish amaliyotida ular uchun barcha talablarga to‘liq javob beradigan, bozorda mavjud bo‘lgan va yuqori ishonchlilik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan bir nechta an'anaviy va zamonaviy turdagi quvurlar mavjud. Bular: *uglerodli po‘lat quvurlar, sferik grafitli quyma temir (chugun) quvurlar, bimetall quvurlar hamda polietilen (polipropilen) quvurlar*.

Yuqoridagi quvurlarning energiya tejamkorligini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun diametri Ø=150 mm uzunligi L=10 m bo‘lgan quvur namunalarini isiqlik yo‘qotilishini hisoblab tahlil qilib ko‘ramiz.

Yo‘qotiladigan issiqlik asosiy formulasi:

$$Q=b\cdot l\cdot q \qquad 1.1)$$

b-yotqilizgan usuliga ko‘ra koeffitsent SHNQ 2.04.14 bo‘yicha qabul qilingan va DN<150mm b=1,2, DN>=150 b=1,15 va metall bo‘lmagan quvurlar uchun 1,7 qabul qilinadi.

l-bo‘lim uzunligi;

q- bir soat ichida bir metr quvurdan issiqlik yo‘qotilishi, Vt / m.

$$q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) \qquad 1.2)$$

t_w – quvurdagi suv harorati, ° C;

t_a – quvurning atrof-muhit harorati, ° C;

k – chiziqli issiqlik uzatish koeffitsienti, Vt / m °C;

$$k=\frac{1}{(1/2\lambda p) \cdot \ln(Dop / Dip) + (1/2\lambda i) \cdot \ln(Doi / Dii) + 1/(\alpha i \cdot Doi)} \qquad 1.3)$$

λ_p – quvur materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt/m²°C;
λ_i – issiqlik izolyatsiyasining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt/m²°C;
D_{ip}, D_{op} – mos ravishda quvurning ichki va tashqi diametrlari, m;
D_{ii}, D_{oi} - mos ravishda izolyatsiyaning ichki va tashqi diametrlari, m;
α_i - SHNQ 2.04.14 "Uskunalar va quvurlarni issiqlik izolatsiyasi" ning 11-ilovasiga muvofiq qabul qilingan issiqlik izolyatsiyasining tashqi yuzasida issiqlik uzatish koeffitsienti, Vt / m² ° C;

IV. Issiqlik yo‘qotilishini po‘lat quvur uchun ko‘rib chiqamiz. Bunda Ø=150 mm uzunligi L=10 m va izolytasiya qoplamasi qalinligi δ=100 mm

$$Q=b\cdot l\cdot q = 1{,}2 \cdot 10 \cdot 49{,}495 = 593{,}94 \text{ Vt} \quad (1.1)$$

Bundan $q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) = 0{,}19223 \cdot 3{,}14 \cdot (90 - 8) = 49{,}495$ Vt/m (1.2)

$$k = \frac{1}{(1/2\lambda p)\cdot \ln(Dop/Dip) + (1/2\lambda i)\cdot \ln(Doi/Dii) + 1/(\alpha i \cdot Doi)} \quad (1.3)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2\cdot 45{,}4}\right)\cdot \ln\left(\frac{0{,}165}{0{,}150}\right) + \left(\frac{1}{2\cdot 0{,}05}\right)\cdot \ln\left(\frac{0{,}265}{0{,}165}\right) + \left(\frac{1}{8\cdot 0{,}265}\right)\right)}$$

$$k=\frac{1}{0{,}011\cdot 0{,}095 + 10\cdot 0{,}473 + 0{,}471} = \frac{1}{5{,}202} = 0{,}19223 \text{ Vt / m °C};$$

V. Issiqlik yo‘qotilishini cho‘yan quvur uchun ko‘rib chiqamiz. Bunda Ø=150 mm uzunligi L=10 m va izolytasiya qoplamasi qalinligi δ=100 mm

$$Q=b\cdot l\cdot q = 1{,}2 \cdot 10 \cdot 49{,}505 = 594{,}06 \text{ Vt} \quad (1.1)$$

Bundan $q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) = 0{,}19227 \cdot 3{,}14 \cdot (90 - 8) = 49{,}505$ Vt/m (1.2)

$$k = \frac{1}{((1/2\lambda p)\cdot \ln(Dop/Dip) + (1/2\lambda i)\cdot \ln(Doi/Dii) + 1/(\alpha i \cdot Doi))} \quad (1.3)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2\cdot 56}\right)\cdot \ln\left(\frac{0{,}165}{0{,}150}\right) + \left(\frac{1}{2\cdot 0{,}05}\right)\cdot \ln\left(\frac{0{,}265}{0{,}165}\right) + \left(\frac{1}{8\cdot 0{,}265}\right)\right)}$$

$$k=\frac{1}{0{,}0089\cdot 0{,}095 + 10\cdot 0{,}473 + 0{,}471} = \frac{1}{5{,}201} = 0{,}19227 \text{ Vt / m °C};$$

VI. Issiqlik yo‘qotilishini endi polietilen (polipropilen) quvurlar uchun ham ko‘rib chiqamiz. Bunda Ø=150 mm uzunligi L=10 m va izolytasiya qoplamasi qalinligi δ=100 mm

$$Q=b\cdot l\cdot q = 1{,}2 \cdot 10 \cdot 47{,}376 = 568{,}51 \text{ Vt} \quad (1.1)$$

Bundan $q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) = 0{,}187 \cdot 3{,}14 \cdot (90 - 8) = 47{,}376$ Vt/m (1.2)

$$k = \frac{1}{((1/2\lambda p)\cdot \ln(Dop/Dip) + (1/2\lambda i)\cdot \ln(Doi/Dii) + 1/(\alpha i \cdot Doi))} \quad (1.3)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2\cdot 0{,}35}\right)\cdot \ln\left(\frac{0{,}165}{0{,}150}\right) + \left(\frac{1}{2\cdot 0{,}05}\right)\cdot \ln\left(\frac{0{,}265}{0{,}165}\right) + \left(\frac{1}{8\cdot 0{,}265}\right)\right)}$$

$$k=\frac{1}{1{,}428\cdot 0{,}095 + 10\cdot 0{,}473 + 0{,}471} = \frac{1}{5{,}336} = 0{,}187 \text{ Vt / m °C};$$

Xulosa qilib aytkanda, quvurlardagi issiqlik yo‘qolishi quvur material turiga, izolyatsiya qoplamasi qalinligi va material turiga hamda atrof-muhit haroratiga bog‘liq. Natijamizga ko‘ra po‘lat quvur Q=593,94 Vt, cho‘yan quvur Q=594,06 Vt, hamda polietilen quvur uchun Q=568,51 VT ni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaxarsozlik norma va qoidalari SHNQ 2.04.14-2022 “USKUNALAR VA QUVURO‘TKAZGICHLARNI ISSIQLIK IZOLYATSIYASI”

2. К.В.Тихомиров, Э.С.Сергеенко “ТЕПЛОТЕХНИКА-ГАЗОСНАБЖЕНИЯ И ВЕНТИЛЯЦИЯ” Москва Стройиздат 1991
3. Ю. Д. Сибикин “ОТОПЛЕНИЕ, ВЕНТИЛЯЦИЯ И КОНДИЦИОНИРОВАНИЕ ВОЗДУХА” Москва Издательский центр “Академия” 2015
4. Internet saytlar: www.google.com , www.probatum-est.ru ,

SHAHARLARDA INTELLEKTUAL AVTOTURARGOHLAR TASHKIL ETISH

Usanov Abdulxakim, katta o‘qituvchi (TDMAU)
Aliyev Og‘abek, talabasi (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ITTning o‘rni, shaharlarda avtotransportlar oshib borishi munosabati bilan transport tizimi va avtoturargohlarning innovatsion yechimlari masalasi ko‘tariladi. Transport vositalari turargohlarini tashkil etishda ITT bo‘linmalari, transport vositalari turargohlarini tashkil etish tizimining turli sektorlarda telematik xizmatlarini qo‘llash, EFC (Electronic Fee Collection) – elektron to‘lov tizimi, avturargohlardan foydalanishda to‘lovlarni amalga oshirish tizimi, naqd pul to‘lovlari tizimi, elektron to‘lov tizimi, P+P (Park and Ride) – turargohlar tizimi, avtomobillarni turargohlarda yo‘naltiruvchi statistik va dinamik tizimlarini qo‘llash haqida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, Global innovatsion indeksi reytingi, avtotransport, to‘xtash joylari, avtoturargoh, EFC (Electronic Fee Collection) – elektron to‘lov tizimi, P+P (Park and Ride) – turargohlar tizimi, sensorlar, LA Express Park dasturi.

KIRISH

“2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. 2019-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, ta’lim, sog‘liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanishni ta’minlash va rag‘batlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan:

- respublikamiz 81 ta indikator bo‘yicha baholanadigan Global innovatsion indeksi reytingida 2015 yilga nisbatan 36 ta pog‘onaga ko‘tarildi;

- innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat byudjetidan ajratiladigan yillik mablag‘lar hajmi 2018 yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va 1,5 trillion so‘mga yetkazildi;

- yosh olimlar 2018 yilda 6,5 ming nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda ularning soni 10,8 ming nafarni tashkil etdi, ya’ni bir yarim baravarga o‘sdi;

- oxirgi 4 yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus institutlar (innovatsion jamg‘armalar, venchur tashkilotlar va boshqalar) soni 28 taga yetkazildi;

- katta shaharlarning rivojlanishi va ularning o‘sishi bilan bog‘liq atrof-muhitning sezilarli darajada yomonlashishi bilan insonning ekologik ustuvorliklardan xabardorligi tobora zarur bo‘lib bormoqda.

Inson faoliyatining har xil turlarining yuqori konsentratsiyasi bir qator so‘zsiz afzalliklarni yaratgan holda, shunga qaramay, shahar atrof muhitining tabiiy va sun’iy tarkibiy qismlari o‘rtasidagi optimal muvozanatning buzilishiga olib keldi.

Biosferaning yomonlashuvi jarayoni nazorat qilib bo‘lmaydigan bo‘lib qoladigan muhim nuqtaga tobora yaqinlashib kelayotgan shaharlar butun dunyo bo‘ylab parvarish qilish va atrof muhitning tabiiy komponentini maksimal darajada oshirish zaruriyatini boshdan kechirmoqda.

Termiz shahri misolida o‘rganilgan yechimlar shaharlar kattalashib borishi va transport texnologiyasining o‘zgarishi bilan mashinalar garajining roli va funktsiyasini qayta belgilash kerak. Bugungi kunda poytaxtimiz Toshkent shahrida transport tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni Termiz shahrimiz misolida ham qo‘llashimiz, shahrimiz ko‘chalaridagi avtotransport harakati noqulayliklarini bartaraf etish bo‘yicha yechimini topishi mumkin.

TAKLIF VA YECHIMLAR.

Toshkent shahar transport boshqarmasi tomonidan 2021 yil 20 yanvardan 30 yanvarga qadar “Toshkent shahrida avtotransport vositalari to‘xtash joylari va muammolari to‘g‘risida” aholi o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. “Toshkent shahrida avtotransport vositalari to‘xtash joylari va muammolari to‘g‘risida” aholi o‘rtasida so‘rovnoma bo‘yicha ma’lumoti bilan tanishamiz. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirok etgan 8368 nafar qatnashchilardan 8117 nafari, yani 97 foizi yo‘l bo‘yida noto‘g‘ri to‘xtash tufayli harakatlanishda qiyinchiliklarga duch kelganligini ma’lum qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi “Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-111-sonli qaroriga muvofiq, 2022 yilda 10 ta markaziy ko‘chalarda, ya’ni Glinka, Bratislava, Mirobod, Avliyo ota, Taras Shevchenko, Said Baraka, Moshtabib, Fidokor, Sodiq Azimov va Yakub Kolas ko‘chalarida davlat-xususiy sheriklik asosida avtomobillarning avtomatlashtirilgan yo‘l bo‘yi pullik to‘xtash joylarini tashkil etish belgilangan. Bugungi kunda Termiz shahrida ham avtotransport vositalari sonining o‘sib borishi bilan birga, avtoturargohlarga, jumladan, yo‘l bo‘yidagi to‘xtash joylariga talab kun sayin ortib bormoqda. Yo‘l bo‘yi to‘xtash joylari tizimli ravishda tashkil etilmayotganligi sababli shahrimiz

koʻchalarida toʻxtash joylari harakat qismidan koʻra koʻproq joy egallagan koʻchalar soni oshganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Shuni ta'kidlab oʻtish joizki, avtomobil haydovchilarni taqiqlovchi belgilar bilan toʻxtatib boʻlmaydi. Koʻp hollarda koʻchalarda avtotransport vositalarini toʻxtab turish va toʻxtashini tartibga soluvchi shaxslar noqonuniy ravishda ishlayotganiga guvoh boʻlamiz va bu esa ularni kimgadir mashinani qoʻyishga koʻrsatayotgan xizmatlar boshqa harakat ishtirokchilarining koʻchalarda oʻtishini murakkablashtirishiga guvoh boʻlamiz.

Termiz shahrining bozor hududi atrofi "Iste'dod" koʻchasi va "Alisher Navoiy" koʻchasi kesishmalarida bugungi kunda tirbandliklar ertalab soat 8-00 dan 10-00 gacha, kunduzi 12-00 dan 14-00 gacha, kechgi payt 17-00 dan 19-00 gacha boʻladigan tirbandliklarni oldini olish maqsadida aqlli avtoturargohlarni tashkil etish zarurligini yana tasdiqlaydi. Bu oʻz navbatida yoʻldagi tirbandliklarni qisman kamaytirishga olib keladi. Bundan tashqari, insonlarni ertalab tirbandliklarda kamroq vaqt oʻtkazishi va boʻsh avtomobil toʻxtash joyini topish ortiqcha qiyinchiliklarsiz sodir boʻlsa, insonlarni kun davomida ish joyidagi unumdorligi oshishi va bu orqali butun iqtisodiyotdagi samaradorlik darajasi ham yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlarga koʻra yirik shaharlar koʻchalarida avtomobillarning yoʻl boʻyi pullik toʻxtash joylari tashkil etilishi natijasida tirbandliklarning 10 foizga kamaytirilishiga va buning natijasida mamlakat ichki yalpi mahsulotini 2 foizga oshishiga erishish mumkin boʻladi. Shu bilan bir qatorda 60 foiz iste'molchilar agar avtomobillarning toʻxtash joylari muammosi boʻlsa, yiliga kamida bir marotaba savdo majmualariga va boshqa joylarga borishdan voz kechishi mumkinligi oʻtkazilgan soʻrovnomalar natijalari koʻrsatgan. Aqlli shaharlarda buni haydovchilarga qulay mashinalar joylarini tez va oson topishga yordam beradigan IoT qurilmalari yordamida osonlashtirish mumkin.

Avtoturargohlarning innovatsion yechimlari provayderlari dinamik avtoturargoh ma'lumot tizimlarini taqdim etadi. Bunga misol qilib, avtoturargohda mavjud boʻlgan joylar haqida haydovchilarga real vaqt rejimida ma'lumot beruvchi toʻxtash joyi boʻyicha koʻrsatma va axborot tizimidan foydalangan holda yechim boʻlishi mumkin. Buning uchun qabul qiluvchilar va server bilan bir qatorda ma'lumotlarni uzatish uchun qurilmalardan foydalanish kerak. Bunday keng qamrovli yechimlar ma'murlarga tizim haqida umumiy ma'lumot berishi va avtoturargohlar, infratuzilma va boshqalarning bandligini optimallashtirish uchun mobil elementni joylashtirishi kerak. Yoʻl ichidagi yoki yoʻl ustidagi magnit sensorlar avtoturargohning bandligini tekshirish uchun ishlatilishi mumkin, har safar avtomobil ularning ustidan oʻtganda va magnit maydonni bezovta qilganda qolgan boʻsh joylar sonini aniqlaydi. Koʻcha chiroqlariga oʻrnatilgan va toʻxtash joylariga yoʻnaltirilgan videokameralar kabi optik sensorlar muqobil, ilgʻor yechim hisoblanadi. Ular tasvirlarni metama'lumotlarga qayta ishlash uchun analitik modullar bilan jihozlanishi, infratuzilmaga zarar

yetkazmasligi, ehtiyojga qarab qayta kalibrlanishi va kengroq shahar xavfsizligi dasturlari elementi sifatida foydalanish afzalligiga ega bo‘lishi mumkin.

Aqlli shaharlar hozirgi kunga kelib, LOTli bir nechta sensorlar, kameralar, avtomobillar va binolar kabi ulangan ob’yektlar va displeylar bilan qamrab oladigan shaharlar odatiy avtoturargohlar orqali yo‘qotilgan vaqt va joyni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Los-Anjelos, Kaliforniya, o‘zining LA Express Park dasturi bilan umumiy tirbandlikni (va bu sabab bo‘lgan keraksiz ifloslanishni) kamaytiradi. Ekspress Park - bu butun shahar hududi uchun innovatsion mashinalar strategiyasidir. U talabga asoslangan narxlarni ta’minlash uchun integratsiyalashgan to‘xtash joyini boshqarish tizimiga ega bo‘lgan real vaqt rejimida to‘xtash joyini boshqarish tizimidan foydalanadi. Bu butun dastur hududida mashinalar va tirbandlikni bir tekisda tarqatadi, dunyodagi eng tirband shaharda tirbandlik va ifloslanishni kamaytiradi.

XULOSA

Hozirgi kunda transport xizmatlari sifatiga bo‘lgan talab doimiy ravishda o‘sib bormoqda, shuning uchun ham avtomobillar turargohlarini tashkil etishda keng ko‘lamda telematik transport tizimlari ishlatilmoqda va natijada ular xizmat ko‘rsatish darajasini o‘sishiga sababchi bo‘lmoqda. Turargohlar tizimini tashkil etuvchi har xil sektorlarida telematik xizmatlardan foydalanish ko‘lami kengaymoqda. Xususan, so‘z turargohlarning barcha turlariga (P+P (Park and Ride), qo‘riqlanadigan turargohlar, garaj kabi qurilmalar va hokazolar) avtomobillarni yo‘naltirish tizimlari to‘g‘risida ketmoqda, ular boshqarish markazi, turargohlardagi elektron avtomatlar va yirik garajlardagi axborot tizimlari bilan uzviy bog‘liq. Eng muhimi shundaki, yuqoridagi barcha transport tizimlari shahar transportini boshqarish tizimi bilan ham bog‘liq.

ADABIYOTLAR

1. PF-165-сон 06.07.2022. 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida (lex.uz).

2. С.В. Жанказиев. Интеллектуальные транспортные системы. Учебное пособие. Москва, МАДИ, 2016.

3. Байджанов И.С. Самандаров М.И. “Шаҳар муҳитида инновацион биноларни шакллантириш асослари” (ўқув қўлланма).

4. И.А.Евстигнеев. Интеллектуальные транспортные системы на автомобильных дорогах федерального значения России. Учебник. М.: Изд-во «Перо», 2015. – 164 стр

5. Asier Perallos. Intelligent Transport Systems: Technologies and Applications. USA. John Wiley & Sons, 2015.

TEXNIKA TA’LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARGA XX ASRNING 60-80-YILLARIDA SURXON VOHASI AHOLISINING MAMLAKAT QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIDAGI ULISHIGA OID MA’LUMOTLARNI ZAMONAVIY VA INTERFAOL METODLAR ORQALI O‘QITISH

Amirqulov Muhiddin G‘ulomovich (TDMAU)

Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda viloyatda xalq xo‘jaligini izga solish, qishloq xo‘jaligini har tomonlama taraqqiy ettirish, mavjud muammolarni tezroq tugatish, moddiy-texnikaviy ahvolni yaxshilash kabi vazifalar turgan edi. Ishchi kuchining yetishmasligi, malakali mutaxassislar ko‘pchiligining urushda halok bo‘lganligi, davlat tomonidan yetarli darajada yordamning yo‘qligi natijasida rivojlantirish imkoniyati ancha chegaralangan edi. Achinarlisi shundaki, og‘ir ahvolga qaramay, Markazdan berilayotgan ketma-ket ko‘rsatmalar, imkoniyatni hisobga olmay rejalashtirish, qo‘shimcha mahsulotlarni yetkazib berish to‘g‘risidagi buyruqlar xalqning turmush tarzini qiynlashtirib qo‘ydi. Shunday sharoitda viloyat mehnatkashlari o‘z zimmasidagi reja va topshiriqlarni bajarishga ishonch bilan kirishdilar. Uzun tumanidagi mavjud 32 ta xo‘jalikdan 28 tasi rejani oshig‘i bilan bajarib, shundan 11 tasi har gektardan 15-20 sentnerdan hosil oldi. O‘rinboy Yo‘ldoshev yetakchiligidagi “Yangi kuch” jamoa xo‘jaligi a’zolari 21 sentnerdan, shu jamoa xo‘jaligidagi Yoqubjon Hojimatov boshliq zveno a’zolari har gektar yerdan 35 sentnerdan hosil olgan. Bundan ko‘rish mumkinki, voha mehnatkashlari berilgan rejalarni ortig‘i bilan bajarishgan.

1965-yilda Sherobod tumani hududida atiga 4 ta xo‘jalik – Lelin, “Partiya XXII syezdi” Kirov nomli kolxozlar va “Kommunizm” nomli sovxozlar bor edi. Kolxozlar faqat Sherobod daryosi suvidan, sovxoz esa tog‘ etaklaridagi buloq suvlaridan foydalanar edi. Bu vaqtda xo‘jaliklarda dehqonchilik ekinlarini, shu jumladan, paxtachilikni rivojlantirish to‘g‘risida gap so‘z ham qilib bo‘lmagan. Chunki ekilgan ekinlarning anchagina qismi yoz oylarida suv nihoyatda kamayib qolganligi natijasida qurib ketgan. Rayondagi xo‘jaliklarda yetishtiriladigan paxta 9600-9700 tonnadan oshmagan. O‘sha yili ilg‘or xo‘jaliklardan hisoblangan “Partiya XXII syezdi” kolxozi davlatga 2714 tonna, Kirov nomli kolxoz esa 2450 tonna paxta topshirgan. Lelin nomli kolxoz boshqa xo‘jaliklarga nisbatan ko‘proq – 3230 tonnaga yaqin paxta yetishtirgan. “Kommunizm” sovxozi esa chorvachilik xo‘jaligi hisoblanib, ozroq paxtachilik bilan ham shug‘illangan va davlatga 1220-1230 tonna atrofida paxta topshirgan.

Q.Rahimov nomli sovxoz Sherobod dashtlarida tashkil etilgan yangi xo‘jaliklarning biri bo‘lib, u o‘zi tashkil etilgandan buyon o‘tgan 4 yil mobaynida

progressiv texnologiyasi, kompleks mexanizatsiyani hamda ishlab chiqarishni keng joriy etib, paxta va boshqa dehqonchilik mahsulotlarini ko‘paytirishga erishgan. Sovxoz mehnatkashlari 1973-yilda 5500 gektar yer maydonining har gektaridan 23,2 sentnerdan hosil yetishtirib, davlatga 12746 tonna paxta topshirgan. Yetishtirilgan hosilning 8500 tonnasi ya’ni 68 foizi mashinalarda terib olinadi. Va bu orqali davlatga 1 million 82 ming so‘m sof foyda keltiradi. Shuningdek, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish rejasi 100, savzavot 100, 216 foizga bajariladi. 1974-yilda 3680 gektar yer maydoning har gektaridan 35 sentnerdan hosil yetishtirib, davlatga 12000 tonna paxta yetkazib beradi. Barcha xo‘jaliklarda paxta maydonlari kam bo‘lgan, qishloq xo‘jaligi texnikalari yetishmaganligi sababli asosiy ishlar qo‘l mehnati orqali bajarilgan. 1960-yillarning o‘rtalariga kelib viloyat qishloq xo‘jaligida ma’lum ijobiy siljishlar bo‘ldi, iqtisodiy yutuqlar qo‘lga kiritib borildi. 1965-yili 61 ming gektar yerga ekin ekilib, shundan 45 ming gektari shartli sug‘oriladigan va lalmi yerlarda yetishtirlidi. Donni yig‘ishtirib olishda 210 ta g‘alla kombayni ishlab, ularning har biri bilan o‘rta hisobda kuniga 8-10 gektar maydondagi hosil o‘rib-yig‘ib olindi. Bunda Sariosiyo tumanidagi “Kommunizm” jamoa xo‘jaligining Ochildi Jabborov, Sherabod tumanidagi “Partiya XXII s’ezdi” jamoa xo‘jaligining Xudoymurod Rasulov kabi dehqonlarining xizmati katta bo‘ldi. Biroq qishloq xo‘jaligida qayta qurish jarayonlarining kam samara berganligiga amalga oshirilgan tadbirlar bilan qishloq xo‘jalik mehnatkashlarining o‘z mehnatlari natijalaridan iqtisodiy mafaatdorligi o‘rtasida chuqur bog‘liqlik yo‘qligi ma’lum darajada sabab bo‘ldi. Avval bo‘lganidek, agrar ishlab chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar ko‘pincha qishloq mehnatkashlarining mehnati bilan yopilib ketardi. Mehnatni moddiy rag‘batlantirish tizimi butunlay oqsayotgan edi. U, bir tomondan, ma’muriy cheklovlar sababli tobora ortib borayotgan buyruqbozlik bilan almashtirish vositasida to‘xtatib turilsa, ikkinchi tomondan, moddiy rag‘batlantirishni zarur iqtisodiy shart-sharoitlar bilan qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi to‘xtatib turardi. Bu davrda bozor molar bilan kam ta’minlangan edi, natijada mahsulot ishlab chiqargan dehqon ko‘pincha o‘z puliga sotib oladigan narsalarni topolmasdi. Bu esa dala va fermerlar mehnatkashlarining yuqori unumli mehnatga intilishini bo‘g‘ib qo‘yardi.

1949-1974-yillarda viloyatda ekin maydonlari 64 ming gektarga kengaydi, paxta maydoni 53 ming gektardan 106 ming gektarga yetdi, paxta yetishtirish 117 ming tonnadan 236 ming tonnaga o‘sdi. 1965-yilda viloyat 305 ming tonnadan ko‘proq paxta yetkazib berdi. 1949-1964-yillar mobaynida suv xo‘jaligi va qishloq qurilishi ishlariga 163,4 million so‘m mablag‘ sarflandi. 1966-yilda viloyatda paxta hosildorligi 1943 yilga nisbatan 4 barobarga oshdi va 28,2 sentnerni tashkil etdi. Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, ushbu yillarda viloyatda unumdorlik oshgan. Bunga yorqin misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin, jumladan, davlatga

306 ming tonna paxta, 4,0 ming tonna makkajo‘xori, 8,8 ming tonna sholi, 20,9 ming tonna sabzovat, 3,6 tonna kartoshka, 31,9 ming tonna uzum sotildi. Kolxozlarning iqtisodiy quvvati oshdi. Jarqo‘rg‘on tumanidagi Norali Boymurodov jamoa xo‘jaligi 1966-yilda 194 tonna sabzavot, 115 tonna meva va uzum, 1967-yilda 497 tonna turli meva-sabzavot mahsulotlari toshirdi. 1960-yillarda dehqon yetishtirgan mahsulotga past nazar bilan qarash, uning mehnati natijalariga to‘g‘ri haq to‘lamaslik, dehqon oilasi, uning kundalik ozuqa, kiyinish ehtiyojlarini o‘rganmaslik ayanchli iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Xarid narxlarining mutanosibsizligi 1960-yillar va 1970-yillardagi agrar siyosatning jiddiy kamchiliklaridan biri bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligini keskin ravishda yuksaltirish vazifalarini hal qilishda xarid narxlaridan foydalanishga muayyan tarzda itilishlar bo‘lganligiga qaramay xarid narxlarining xo‘jaliklar iqtisodiy xayotini jonlantirishga ta’sirini kuchaytirish muammosi hal qilinmadi. Xarid narxlari davlat, korxona, ishlab chiqaruvchi va iste’molchining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olmasdi. Natijada kolxoz va sovxozlar davlatga mahsulotni bir xilda past narx bilan topshirgandan keyin ayni shu mahsulotni xo‘jaliklar anchagina qimmatga xarid qilishga majbur bo‘lishgan. Daromadlarning qishloqdan hosil narxlari orqali qishloq xo‘jalik texnikasiga, ta’mirlashga, kimyoviy dorilarga va shu kabilarga ko‘chib yurishi sodir bo‘ldi. Muqobil ayrboshlash uchun sog‘lom, normal shart-sharoitlarning yo‘qligi qishloq mehnatkashlari mehnat faolligining namoyon bo‘lishini cheklab qo‘yardi. Biroq zahmatkash o‘zbek dehqoni sobiq sovet davrida shunday qiyinchiliklarga qaramay dehqonchilikni rivojlantirib hosildorlikni oshirib bordi.

Ushbu mavzuni “Mavzuga zamin” usuli orqali o‘qitish talabalarning mavzuni tez va oson o‘zlashtirishiga yordam beradi. Mazkur usuldan ko‘zlangan maqsad talabalarni o‘tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo‘yicha talabalarni darsga tayyorlash hisoblanadi. Yaxshi dars o‘tilishi, talabalarning yaxshi o‘zlashtira olishi, eng birinchi navbatda, o‘qituvchi o‘quv talabalarni o‘ziga jalb qilishi, o‘tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o‘tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha talabalarni o‘tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog‘liq. Bu usul ko‘proq talabalarni darsga tayyorlab olishi, o‘tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlatiladi. Guruhlar belgilanadi. Talabalar guruhlarga 5-7 kishidan bo‘linishlari kerak. Guruhlarga bo‘lish chog‘ida guruhlarning kuchlari teng bo‘lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o‘zlashtira oladigan o‘quvchilarni va unga yaxshi o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarni joylashtirib bo‘lish kerak. Har bir guruh o‘ziga nom qo‘yish kerak. Buning uchun o‘qituvchi guruhlarga quyidagicha murojaat qiladi: “Siz guruhga nom qo‘yayotganda quyidagilarga e’tibor bering?”. Siz guruhingizga o‘tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so‘zlar yoki o‘tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so‘zlar

orqali nom qo‘ying. Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo‘yganligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi). Har bir guruh nom qo‘yib bo‘lgandan so‘ng, u guruhlardan bu nomni nima uchun qo‘yganligi so‘ralishi kerak. Bu ham talabalarning yuqoridagi mavzuga oud atamalarni qay darajada egallaganliklarini namoyon qiladi. Yuqoridagilarni o‘tkazib bo‘lgandan so‘ng, talabalar o‘tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib, talabalar mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi. Keyin o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlarga savollar, topshiriqlar berish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, talabalarga mavzuni turli xil zamonaviy va interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘tish fanni talabalar uchun yanada qiziqarli qilibgina qolmasdan ularning mavzularni o‘zlashtirishi hamda mustahkamlab borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

UY JOY QURILISHIDA MODELINI YARATISHDA AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANISH

Mengatova Xurshida Toshmuxamatovna (TDMAU)
Amirqulov Quvonchbek, talaba (TDMAU)

Kalit so`z: AutoCAD, Math, CAD, arxitektura, muhandis, Tredimax, 2D va 3D o‘lchamli chizmalar,.

Anotatsiya: Muhandislik soha vakillariga IT-texnologiya sohasinida CAD dasturlari va AvtoCAD dasturida ishlash haqida ma`lumot berilganayrim. Yo`l qurilishiga doir masala yechish misolida jarayonlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kompyuterlar yordamida loyihalash uchun CAD dasturlaridan foydalanamiz. CAD dasturi bu kompyuterda dasturlar yordamida elektron chizmalarni yaratish va ularni o‘zgartirish jarayonlarini bajarishni tushunishimiz mumkin. CAD dasturlaridan mashina-sozlikda, arxitekturasi va boshqa shu kabi har xil sohalarda keng foydalanamiz. CAD dasturlari yaratmoqchi bo‘layotgan mahsulotlarimizni 2D va 3D modellarini yaratib beradi. Biz muhandislarga esa ishlab chiqarmoqchi bo‘lgan mahsulotlarimizni ishlab chiqarishdan oldin uning tuzilishini tasavvur qilishimizga yordam beradi. Qurilishda CAD dasturlari juda keng qo‘llaniladi. AutoCAD, Math CAD, Tredimax va shu kabi dasturlarni misol keltirishimiz mumkin. MathCAD 2006-yilda Allen Razdov tomonidan yaratilgan bo‘lib, bizga matematik hisob kitob ishlarini bajarishda yordam beradi. AutoCAD dusturi 1994-yilda Autodesk tomonidan ishlab chiqarilgan. AutoCAD dasturida asosan 2D va 3D o‘lchamli chizmalarni tuzishimiz mumkin.Hozirgi kunda uy joy qurilishi rivojlanib bormoqda.

Kundan kunga yangi bino inshootlar barpo qilinmoqda. Bularni modelini tuzishda AutoCAD dasturidan foydalanamiz.Harbir bino va inshootni qurishdan oldin bu binoni modeli tuzib chiqiladi.

Masalan: Uzunligi 10km eni 20m bulgan yulni kurilishini loyixalash Avto00CAD dasturida

AvtoCAD dasturida 10 km uzunligi va 20 m enidagi yulni loyixalash uchun quyidagi qadamlarni amalga oshiring

1. Fayl yaratish: AvtoCAD dasturini oching va yangi fayl yarating.
2. Yeplanish parametrlarini belgilash: Loyiha uchun mos masshtabni tanlang. Masalan, 1:1000.
3. Sizigini chizish: "Line" instrumentidan foydalanib, yulning uzunligini chizing. 10 km (10000 m) uzunligini belgilash uchun, birinchi nuqtani (0,0) dan boshlang va ikkinchi nuqtani (10000, 0) ga olib boring. 20 m enini hisobga olib, yulning o‘ng va chap tomonlariga 10 m (uzunlikdan 20 m) uzunlikda qo‘shimcha chiziqlar chizing.
4. Yo‘lni yakunlash: Kichik to‘g‘ri burchaklar yoki tunnellarga zarur bo‘lsa, ularni chizing.
5. Ajratish va detallashtirish: Yulning qurilishi uchun belgilangan konturlarni kiriting (sharoitlar, borliqlarni belgilash).
6. Kadrni tayyorlash: Loyihani joriy etish uchun kadrlarni tayyorlang va hujjatlashtirishni amalga oshiring.
7. Saqlash va eksport qilish: Loyihani saqlang va kerak bo‘lsa, PDF yoki boshqa formatlarda eksport qiling.

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARADOR VA RAQOBATBARDOSH QILISHNING TARIXIY TAHLILLARI

N.X.Begamova, katta o‘qituvchi (TDMAU)

O‘zbekiston janubiy hududlarida mustaqillikning dastlabki o‘n yilliklarida fermer xo‘jaliklari va klaster tizimini rivojlantirish va uni malakali mutaxassislar bilan ta’minlash maqsadida muhim davlat dasturlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, agrar tarmoqlarda ko‘pgina muammolar yuzaga keldi. Bu eng avvalo, fermer xo‘jaliklari va klaster tizimi mutaxassislarining qo‘nimsizligi, ishsizlik, yangi bilim ko‘nikmalarining bo‘lmasligi, ish haqining pastligi, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilinmasligida namoyon bo‘ldi. Bunday holat Respublikamiz Surxondaryo viloyatida ham yaqqol kuzatildi. Shu bois O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklari va klaster tizimi mutaxassislarida zamonaviy

bilim koʻnikmalarini shakllantirish, qishloq xoʻjaligida yangi texnologiyalarni joriy etish va ulardan unumli foydalanish masalasini yoritish mavzuning zaruriyatini belgilaydi. Oʻzbekiston YAIMning 32 foizini tashkil qilib, mehnatga layoqatli aholining 27sharoitida mamlakat iqtisodiy oʻsishining asosiy omillaridan biri boʻlishi mumkin.Mazkur siyosatning samarali amalga oshirilishi natijasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari eksporti hajmi hamda fermerlar va agrotashkilotlar daromadlari oshadi, qishloq joylarda minglab yangi ish oʻrinlari yaratiladi. Bu yerlarda yashash darajasi koʻtariladi, bir qator oziq-ovqat mahsulotlari aholi uchun arzonroq boʻladi va mamlakat ishonchli oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlay oladi.

Biroq qishloq xoʻjaligini raqobatbardosh, shuningdek xususiy sektor, aholi va davlat manfaatlari uchun xizmat qiladigan sohaga aylantirish yoʻlidagi toʻsiqlarni bartaraf qilish kerak. Jahon banki tahlillari hozirgi kunda mazkur maqsadga erishishning besh asosiy muammosi mavjud ekanligini koʻrsatadi. Bu maqolada mazkur muammolar va ularni bartaraf qilish yoʻlida davlat tomonidan olib borilishi mumkin boʻlgan ehtimoliy chora-tadbirlarni koʻrsatishga harakat qildi.2018 yilda Oʻzbekistonning 70 foiz ekin maydonlari paxta va bugʻdoy yetishtirish uchun ishlatilgan. Oxirgi bir necha yillarda baʼzi yer maydonlari paxta va bugʻdoy yetishtirishdan chiqarildi. Lekin qishloq xoʻjaligini rivojlantirishda unumdorlikni oshirish uchun hozirgi kunda mazkur ikki mahsulot ekish uchun ishlatilayotgan qoʻshimcha maydonlardan keyinchalik boshqa yanada foydali ekinlarga, xususan, meva va sabzavotlar ekish uchun foydalanish lozim.Jahon banki hisob-kitoblariga koʻra, Oʻzbekiston paxta va bugʻdoy maydonlarini qisqartirish, masalan ularni 50 foizgacha kamaytirish qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotining 51 foizga, qishloq xoʻjaligida bandlikning 16 foizga, suv tejamkorligining 11 foizga oshishiga olib keladi.Mazkur yerlarni yanada daromadli ekinlar ekishga qanchalik tez oʻtkazish kerak? Bu jarayon bosqichma-bosqich boʻlishi va qoʻshni tarmoqlardagi oʻzgarishlar bilan uygʻunlashtirilishi lozim. Masalan, **meva va sabzavot yetishtirish uchun yerni qayta taqsimlash davlatning ichida va uning bojxona chegaralarida agrologistikani takomillashtirish bilan bir vaqtda sodir boʻlishi zarur.** Bu, oʻz navbatida, tez ayniydigan meva-sabzavot mahsulotlarini fermerlardan mahalliy isteʼmolchilarga va xalqaro bozorga tezkor ravishda yetkazishni taʼminlaydi.Aks holda meva va sabzavotlarni qayta ishlab chiqarishdan olingan foyda bugʻdoy va paxta sotishdan olingan foydadan kam boʻlib qoladi. Oʻzbekistonda paxta, bugʻdoy, pomidor, kartoshka, sut va boshqa mahsulotlarning oʻrtacha hosildorligi ularning real imkoniyatlaridan ancha past. Bu koʻrsatkichni oshirish nafaqat fermer xoʻjaligi va agrotashkilotlar foyda va eksportlarini oshiradi, balki hozirgi kunda bugʻdoy va paxta bilan band qilingan maydonlarni yanada foydali ekinlar uchun foydalanishga topshirish imkoniyatini ham yaratadi. Oʻn yillar

davomida ilmiy tadqiqotlar va xizmatlar taqdim etilishining yetarlicha moliyalashtirilmasligi hamda sekторni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni yetarlicha ko‘rsatilmaganligi kabi masalalar hal qilinishi lozim. 2018 yilda O‘zbekiston yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti daromadining **faqatgina 0,02 foizini qishloq xo‘jaligi sohasidagi izlanishlarga sarflnadi.** Shu bilan birga, hozirgi kunda mahalliy fermerlar uchun axborot-konsultativ xizmatlar mutlaqo mavjud emas.Taqqoslash uchun, muvaffaqiyatli qishloq xo‘jaligiga ega bo‘lgan o‘rta daromadli mamlakatlar qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 1 foizini qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadqiqotlarga uchun sarflaydi, ko‘p daromadli mamlakatlar esa o‘rtacha 2,5 foiz sarflaydi.2018 yilda O‘zbekiston agro oziq-ovqat mahsulotlari eksport qiymati bor-yo‘g‘i 1,3 mlrd dollarni yoki har gektar mahsuldor yerga nisbatan 330 dollarni tashkil qildi. Taqqoslash uchun, o‘sha yili Vetnam 40 mlrd dollarlik qishloq xo‘jalik mahsulotini eksport qilgan. Bu davlatning eksportdan olgan foydasi har bir gektar mahsuldor yerga 6100 dollarni tashkil qiladi. Jahon savdo tashkiloti tarkibiga kirish uchun hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohot va chora-tadbirlar O‘zbekiston uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlari, xususan meva-sabzavotlarni jahonning ko‘pchilik mamlakatlariga eksport qilish imkonini beradi. Mamlakat qishloq xo‘jaligining asosiy masalalardan yana biri — eksport tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlarni amalga oshirishda mehnat resurslarining keng miqyosda ishtirok etishini ta’minlash zaruriyatidir. Hozirgi kunda meva-sabzavot mahsulotlarining 60 foizi katta bo‘lmagan dehqonchilik xo‘jaliklari va uy-joy uchastkalarida yetishtirilmoqda. Lekin ularning eksportga yo‘naltirilgan qo‘shimcha daromadli mahsulot ishlab chiqarish zanjiridagi ishtiroki hozircha past bo‘lib qolmoqda. Qishloq xo‘jalik kooperativlarining agrobiznes va eksportchilar bilan kooperatsiyasi va hamkorligini rag‘batlantirish bo‘yicha davlat dasturlari yordamida yuqorida ko‘rsatilgan ishlab chiqaruvchilarning mazkur zanjirlar bilan integratsiyalashuvi ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda kichik dehqon va xususiy mulkdorlar biznesining rentabelligini oshirishga yordam bergan bo‘lar edi. Agar dehqon xo‘jaliklarining ehtiyojlariga e’tibor qaratilmasa, qishloq xo‘jaligi eksporti faqat kichik fermerlar va agrotashkilot guruhlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi va mazkur fermerlar guruhining inklyuziv iqtisodiy rivojlanishi uchun ajoyib imkoniyat qo‘ldan boy beriladi.2018 yilda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi uchun davlat xarajatlari YAIMga nisbatan 1,8 foizni tashkil etdi (2016 va 2017 yillarda YAIMning 2 foizini tashkil etgan edi).Boshqa davlatlar qishloq xo‘jaligiga YAIMning nisbatan kichikroq ulushini ajratadilar. O‘rta daromadli mamlakatlar YAIMning o‘rtacha 0,6 foizini sarflaydi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) yuqori daromadga ega mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz miqdorida mablag‘ ajratiladi. 2018 yilda Qozog‘iston qishloq xo‘jaligiga YAIMning 0,8 foizini,

Vetnam esa 0,5 foizini sarfladi. Xatto yigirma yil avval ham o‘rta daromadli mamlakatlar kambag‘al bo‘lganida, ularning qishloq xo‘jalik byudjetlari YAIMga nisbatan 1,3 foiz ni tashkil qilar edi.Davlat xarajatlari yuqori darajali bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekistondagi qishloq xo‘jaligi hali yuqori samaradorlikni namoyish eta olmaydi. Misol uchun, 2018 yilda qishloq xo‘jaligi noldan biroz yuqori o‘sishni ko‘rsatdi.Mazkur rukndagi davlatga qaratilgan chaqiriq shundan iboratki, uzoq muddatli istiqbolga ega tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan byudjet harajatlarini kamaytirish uchun qisqa va o‘rta muddatli istiqbolga ega qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan moliyalashtirish hajmini oshirish kerak. Bunda asosiy e’tiborni byudjet mablag‘larini o‘zlashtirish va ulardan foydalanish samaradorligiga qaratish zarur.Masalan, hozirgi kunda byudjet mablag‘larining katta qismi yerlarga sug‘orish suvlarini chiqarib berish uchun talab etiladigan elektr energiyasiga, suvni paxta va bug‘doy ishlab chiqaruvchilariga yetkizadigan irrigatsiya tizimini boshqarish va ekspluatatsiya qilishga sarflanadi. Shu bilan birga, sug‘orish va melioratsiya infratuzilmalarini modernizatsiya qilish uchun juda oz mablag‘ sarflanadi. Bu shuni anglatadiki, qisqa muddatda hukumatning diversifikatsiyalangan qishloq xo‘jaligi ehtiyojlariga xizmat qilish uchun ushbu infratuzilmalarni modernizatsiya qilishga ko‘proq mablag‘ ajratilishi talab qilinadi.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun **o‘ta muhim bo‘lgan ko‘plab davlat dasturlari har doim mablag‘ bilan to‘liq ta’minlanmay kelgan.** Mazkur dasturlarga qishloq xo‘jaligining amaliy tadqiqotlari, bilimlarni tarqatish, qishloq xo‘jalik fanlaridan ta’lim olish, tuproq unumdorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligi tizimini rivojlantirish, veterinariya va fitosanitariya xizmatlari, tadbirkorlik faoliyatiga ko‘maklashish (qishloq xo‘jaligi kooperativlari, klasterlar, samarali sherikchilik munosabatlari), statistik va bozor ma’lumotlarini yig‘ish va tahlil qilish, bozor infratuzilmasi va agrologistikasini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, siyosatni tahlil qilish, xodimlar malakasini har qanday darajaga oshirish va monitoring qilish kabilar kiradi. Kelgusida ushbu dasturlar davlat mablag‘larining katta miqdorini talab etishi mumkin.

Dehqon xo‘jaliklari (kichik dehqonlar) ning yerga egalik qilish huquqlari qonuniy himoyalngan. Bu moddiy-texnik resurslarga ko‘proq pul to‘lashlari, o‘zlarining kichik yer maydonlarida ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash qiyin bo‘lsa ham, nima sababdan kichik dehqon xo‘jaliklarida yirik fermer xo‘jaliklaridagiga nisbatan hosildorlik o‘rtachadan yuqori ekanligining asosiy sabablaridan biridir. Shu bilan birga, bir qator sabablar bilan va istalgan vaqtda yirik fermerlar davlatdan ijaraga olingan yerlarni yo‘qotishi mumkin. Bu fermer xo‘jaliklarini qayta tashkil etish, ekinlarni joylashtirish rejasini bajarmaslik yoki paxta va g‘alla hosilini davlat rejasiga rioya qilmasligi tufayli sodir bo‘lishi mumkin, bu mas’uliyat mahalliy hokimiyat organlariga yuklangan.

Fermer xo‘jalikлari faoliyatini nazorat qilishning ushbu eskirgan tizimi ularning rivojlanishlari uchun halokatli darajada zararli bo‘lib, fermerlarning mahalliy hokimiyatlardan foydalanish uchun olgan yerlarga sarmoya kiritishga bo‘lgan rag‘batini so‘ndiradi. Bugungi kunda davlat tomonidan mahsuldorlikka qarshi xizmat qilayotgan mazkur amaliyotdan voz kechish zarur. Ushbu choralar sobiq Sovet Ittifoqining butun hududida, shuningdek, ko‘p yillar oldin Xitoy va Vetnamda amalga oshirilar edi.

Xitoy va Vetnam tajribasi fermerlarni rag‘batlantirishga yondashuvni qanday isloh qilish kerakligini ko‘rsatmoqda. Ushbu mamlakatlarda davlat buyurtmasi tizimi allaqachon bekor qilingan, biroq bu qishloq xo‘jaligining barbod bo‘lishiga olib kelmadi. Bu yerda strategik ekinlarning bir qismini ishlab chiqarish ekinlarni joylashtirish tizimlari, fermerlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri byudjet to‘lovlari hamda hosildorlikni oshirish, mahsulotlar sifatini yaxshilash, shuningdek ularni zararkunanda va kasalliklardan himoyalashga qaratilgan tegishli davlat dasturlari hisobidan rag‘batlantiriladi. Mazkur yondashuv O‘zbekistondagi mavjud paxta va bug‘doy tayyorlash bo‘yicha davlat rejasini qo‘llab-quvvatlash tizimlaridan farq qiladi.

Ayni vaqtda ishlab chiqilayotgan 2019−2030 yillarda Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish milliy strategiyasi mazkur sohada Jahon banki Guruhi hamda boshqa xalqaro hamkorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga tayyor bo‘lgan islohotlarni amalga oshirish uchun asosiy hujjatga aylanishi lozim. Uning qabul qilinishi va keyinchalik hukumat tomonidan amalga oshirilishi yuqorida tilga olingan chaqiriqlarni mamlakatni rivojlantirish va O‘zbekiston xalqi farovonligini oshirish uchun iqtisodiy imkoniyatlarga aylantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. — Toshkent : O‘zbekiston, 2016. — 56 b.

2.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: „O‘zbekiston“, 2017. — 48 b.

3.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: : „O‘zbekiston“, 2017. — 488 b[47].

4. Mustaqil O‘zbeкiston tarixining dastlabкi saxifalari. - Toshкent, 2000.
5. Erкayev A. O‘zbeкiston yo‘li. - Toshкent: Ma’naviyat, 2011.
6. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullayev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshкent: Sharq, 2006.
7. 2017-2021 yillarda O‘zbeкiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Haraкatlar strategiyasi. – Toshкent: Ma’naviyat, 2017.
8. O‘zbeкiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbeкistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
9. Mustaqil O‘zbeкiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshкent: Aкademiya, 2013.
10.O‘zbeкistonning eng yangi tarixi:/N.X.Begamova.-Termiz:”Surxon ilm nashri”,09.11.2024 y,228 bet.
11. O‘zbeкistonda fermer xo‘jaliklarini tashкil topishi va кlaster tizimi:tarix va tahlil (1991-2022 yillar Surxondaryo viloyati misolida)

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O‘QUVCHI YOSHLARDA TEXNIK IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

Berdiyeva S., o‘qituvchi (IPU)
Lutfullayeva M., Qutfidinova F., Mahmudova Z. talabalar (IPU)

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish mavzusi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Texnologiya fani, intellektual loyihalar, ijodkorlik, ratsionalizatorlik, ixtiro.

Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo‘lg‘usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko‘zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lish talab etilmoqda. Qadim zamonlardan beri ulug‘ ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bo‘lib kelganlari va sharqda renesans davrini boshlab berganliklarini dunyo hamjamiyati tan olgan. Xususan, ilm olishga, hunar o‘rganishga, biror bir kasb egasi bolishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo‘lgan va bu o‘z navbatida diyorimizda juda ko‘p dunyo ilm-fani rivojida katta hissa qo‘shgan allomalar etishib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Bugungi kunda yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek,

mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo‘lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda. XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi loyihalar kirib kelayotgani mamlakatimiz rivoji va ta‟lim sohasida o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib kelmoqda. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizing boy madaniy merosi, tarixiy an‟analarini to‘liqligicha saqlab qolish, hunarmandchilikni keng targ‘ib qilish maqsadida 2017- yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni va texnologiyalarni rivojlantirish to‘g‘risidagi” farmoni Davlat Ta'lim Standartlariga to‘laligicha mos kelgan holatda uning sifatini oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda.[1]

Umumta’lim maktablarida texnologiya fani o‘qituvchilari o‘zlarini ikkinchi darajali fan o‘qituvchisi deb his qilmasliklari va ushbi fanni chuqur egallagan holda o‘quvchilarda ham fanga qiziqish uyg‘ota olishlari kerak. Texnologiya fani o‘qituvchilari dars o‘tish jarayonida ushbu fanning jamiyatdagi o‘rni va mazmun-mohiyati, fanning o‘qitilishdagi maqsadlarini o‘zlari teran his etishlari va shu bilan birga o‘quvchilarga mehnatsevarlikni, ijodkorlikni va qaysidir ma’noda tadbirkorlikni o‘rgatishlari lozim.

“Ma’lumki o‘qituvchilik kasbi o‘ta ma’suliyatli kasb bo‘lib, turli integratsion bilim va ko‘nikmalarni talab etadi. Texnologiya fani o‘qituvchisi kelajakda o‘quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma’lum kasb-hunarga oid ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o‘qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo‘lmog‘i kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko‘nikmalardan tashqari o‘qituvchining o‘z sinalgan uslubi, ta’lim va tarbiya orqali o‘quvchilarga ta’sir o‘tkaza olish qobiliyati bo‘lishi lozim. Dars jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talabalarga oliy ta’lim muassasalarida shakllantirish lozimdir.[2]

“O‘quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirish borasida “Texnologiya” fani muhim o‘rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o‘z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta’lim bilan qo‘shib olib borish, o‘quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo‘llasada, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O‘quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug‘ullanadilar. Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish obyekti sifatida

emas, balki oʻquvchilar ishlarini faollashtiruvchi koʻrsatmalilik vositasi, didaktik material, taʻlimning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Texnologiya fani oʻquv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini oʻrgatadi.”[3]

Texnologiya fanini oʻrganish materiallar, ularning xossalarini oʻrganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat boʻladi. Ushbu jarayon oʻqituvchilardan texnologik bilimlarni qoʻllash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va oʻquvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat.

Oʻquvchilarni yoshligidan mehnatga oʻrgatish kelajak hayotlaida juda katta samara beradi. Bunda mehnat koʻnikmalari bilan birga oʻquvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur.

Mashhur idealist faylasuf E.L. Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obroʻli falsafiy lugʻatlardan birida ijodkorlik biror narsaning yaratilishi bilan bogʻliqligi, yaratilish qobiliyati xudoga eng xos boʻlganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin ... Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qaratildi. Keyinchalik, ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy oʻrganish oʻzgargani sari, umuman unga boʻlgan munosabat ham, ijodga berilgan ta'riflar ham oʻzgardi. Soʻnggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari boʻlmagan ijodkorlik bilan bogʻliqligiga e’tibor qaratildi; ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon boʻladi.

Ijodkorlik - bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma’lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qoʻshadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat koʻlami bilan bogʻliq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan oʻlchanadi. Soʻnggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bogʻliq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida koʻp narsa aytildi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin.

Ratsionalizatsiya - mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun (biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bogʻliq jihatni olamiz). Shunday qilib, biz buni aytishimiz mumkin: ixtirochi, birinchi navbatda, yakuniy effekt, funksiya, dizayner - funktsiyani bajaruvchi qurilma va ratsionalizator bilan qiziqadi - tugallangan qurilmadan ba'zi shaxsiy maqsadlar uchun yanada oqilona foydalanish. **Ratsionalizatorlik taklifi** - bu ma’lum bir muammoning mahalliy (umumiy ahamiyatga ega boʻlgan ixtirodan farqli oʻlaroq) yangi oʻziga xos muhitda (masalan, zavodning ba'zi ustaxonalarida) ishlashini yaxshilash uchun ma'lum bir muammoning echimi. lekin butun zavod miqyosida emas, balki eng koʻp ishlab chiqarish). Ma'lum hollarda ratsionalizatorlik taklifi ixtiro boʻlishi mumkin.

Dizaynni ixtirochi va ratsionalizatorlik faoliyatiga "bog‘lab qo‘yish" mumkin, agar ularni amalga oshirish uchun ma'lum dizaynlarni yaratish zarur bo‘lsa. Ixtiro, dizayn va ratsionalizatsiya o‘rtasidagi amaliy farqni har bir faoliyatning maqsadlari xarakteridan izlash kerak. Ixtiro texnik muammoni, umuman muammoni hal qilishga qaratilgan; dizayn - tuzilmani yaratish;

Loyiha - bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan intellektual va amaliy xarakterdagi ijodiy yechim. O‘qituvchi rahbarligida bajariladigan talabalarning mustaqil ishlari. Agar biz ijodkorlikning ishchi ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo‘lsak, uni yangi muammolarni hal qilish yoki ilgari hal qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turli xil muammolarni, vaziyatli qiyinchiliklarni hal qilish bilan bog‘lash maqsadga muvofiq ko‘rinadi. va kundalik hayot. Yangi muammoning ijodiy echimining tuzilishini ko‘rib chiqishdan oldin, texnik ijodiyot turlari haqida umumiy ma'lumotga to‘xtalib o‘tamiz. Kasbiy ijod turlariga ixtiro, qurilish, ratsionalizatsiya, dizayn kiradi. Texnik ijodkorlikning barcha turlari o‘rtasida yaqin munosabatlar mavjud. Texnologiyaning jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo‘linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so‘z yuritildi. Hozirgi vaqtda kashfiyot, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo‘linmasi mavjud bo‘lib, ular nafaqat texnik ob’ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyot deganda, ilgari noma'lum bo‘lgan ob’ektiv mavjud bo‘lgan mulk yoki hodisani o‘rnatish tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammoning yangi echimi deb nomlangan ixtiro. Ixtirolar konstruktiv (qurilmalar), texnologik (usullar) va yangi moddalarni yaratish bilan bog‘liq bo‘linadi. [4]

Texnologiya fani bizga talim tizimining yangi sohalariga qadam qo‘yishga bo‘lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o‘zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi mehnat so‘zi keng ma‟no va tushunchaga ega bo‘lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to‘g‘ri kelmaydi. Texnologiya ta‟limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim.Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-umumiy o‘rta ta‟lim maktablarida o‘qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;

-texnologiya fanini o‘qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog‘liqlikning kamligi;

-texnologiya fani me‟yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o‘qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;

-texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O‘zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo‘ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo‘lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta‟sir ko‘rsatmoqda;

-o‘quvchilarda ta‟lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o‘quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktil kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi;

-texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag‘ bilan ta‟minlash bo‘yicha yetarli choralar ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganli;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2. Maxbuba Aslanovna Xalmuxamedova «NAQSHBANDIYA TARIQATIDA KASB-HUNAR EGALLASHGA DA’VAT.» Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal

3.Texnologiya ta’limini rivojlantirish strategiyalari moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent-2021

4. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Ta‟limda innovatsion texnologiyalar” T.: 2008. – 128 b.

TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI

Berdiyeva S., o‘qituvchi (IPU)
Lutfullayeva M., Qutfidinova F., Mahmudova Z. talabalar (IPU)

Annotatsiya: *Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o‘zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o‘ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Mazkur*

maqolada ta’lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati xususida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuv, strategik yo‘nalish, metodologik prinsip, xalqaro aloqalar.*

Sir emaski, XXI asr - texnika va texnologiya asri. Ha, bu nom bejizga berilmadi. Atrof-muhitda sodir bo‘ladigan hodisalar uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko‘rilmagan kashfiyotlar paydo bo‘ldi va paydo bo‘lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda. Darhaqiqat, farovon kelajak poydevori hozirda unib-o‘sib kelayotgan yoshlar hisoblanadi. Shu sababli, ularning yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib voyaga yetmoqlari muhim omildir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar ta’lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta’lim tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab-yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta’limda eng muhim strategik yo‘nalish ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta’lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim maskanlarida innovatsion texnologiya ko‘rinishida faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Xususan, hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kuchaygan.

Ma’lumki, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “...ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o‘quv-tarbiya jarayonini yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta’minlash” vazifalari belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi uchun aholi ta’limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg‘or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda.

Bugungi kun shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda boshqa sohalar kabi ilm-fan sohasi ham rivojlanishlarni, bidimlarni yangicha qarashlar bilan o‘rganishni talab etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, har bir fanga doir yangicha metodologik prinsiplarni, yangicha ta’lim texnologiyalarini kashf etish, rivojlantirishni taqozo qilmoqda

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo‘liga qadam qo‘yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o‘tishni ta’minlar

ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarni egallagan insonlargina o‘z oldimizga qo‘ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o‘zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz”

Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonida ma’lum o‘zgarishlarga, ta’lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo‘ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo‘ladi. Ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo‘llanilishi o‘qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O‘qituvchilarning faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo‘naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo‘ladi.

Hozirgi kunda jahon andozalari talablariga mos keladigan yetuk mutaxasis kadrlar tayyorlashga bo‘lgan talab va extiyoj oshib bormoqda. Bu esa har bir ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar va pedagog xodimlar oldiga zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini, ilg‘or metod va usullarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishni va yosh kadrlar amaliyot bilan yuzlashganda egallagan nazariy bilimlarini kamchiliksiz namoyish qilish ko‘nikmasi shakllantirishni talab etadi.

Ta’lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta’lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo‘shilishini taqozo etmoqda, o‘zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko‘rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o‘zlashtirishdan iborat.

Bugungi kunda maktab va oliy ta’lim tizimidagi an’anaviy va ommaviy ko‘rinishdagi ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘rniga ta’lim muassasalari rivojlanishida o‘ziga xos yangilik bo‘lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Innovatsiya (in - “lik”, novus -“yangi”) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni anglatadi. Ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirish, xususiy tadbirkorlar va davlat o‘rtasidagi hamkorlik, kichik va o‘rta innovatsion biznesning xalqaro aloqalarini qo‘llab-quvvatlash innovatsion faoliyatni keng rivojlantirishning muhim shartlaridir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, dunyoning rivojlangan davlatlarida yangiliklarning qariyb yarmi tashkilotlar, kichik va o‘rta biznes firmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Chunonchi, AQSH Milliy ilm-fan fondi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik firmalarda hayotga tatbiq etilayotgan yangiliklar soni sarf-xarajatlar birligi bo‘yicha o‘rta va yirik firmalarga qaraganda ancha ko‘pdir. Bundan tashqari, kichik firmalar yangiliklarni jadal o‘zlashtirish va iste’molchilarga yetkazib berishda ham yirik firmalarga qaraganda taxminan uchdan bir barobar ilgarilab ketgan. Universitet va

texnika institutlari ishlab chiqarish kompaniyalari va firmalar bilan birgalikda patentlangan ishlanmada o‘z ishtiroki ulushini belgilab tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirgandagina ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuv jarayoni katta samara beradi. Yevropa patent idorasi tomonidan berilgan barcha xalqaro patentlarning 85 foizi aynan shunday hamkorlikdagi ishlanmalar ulushiga to‘g‘ri kelishi ham bejiz emas.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizimga ega mamlakatlardagina innovatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilib, texnologiyalar va boshqa ilmtalab mahsulotlar tijoratlashtirilmoqda. Bu jarayonda davlatning ishtiroki, iqtisodiyotning real sektori va yetakchi kompaniyalarning innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga egadir. Zero, ilm-fan davlatning texnik taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan ushbu integratsiya mexanizmining asosini tashkil qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kun innovatsion texnologiyalarini ilm-fan va ta’lim sohasida muvaffaqiyatli qo‘llanilsa, yangi yosh avlod ana shu jahon tajribasi asosida saboq olib, ulg‘aysa, davlatimizning ertangi istiqboli, kelajagi yorqin bo‘lishiga shak-shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turg‘unpo‘latov D.R. Neologizmlar (yangi paydo bo‘lgan so‘zlar) mavzusini ilg‘or pedagogik texnolgiyalar asosida o‘rgatish. Academic Research in Educational Sciences. 3(5), b-495.

2. Xaydarova O.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.

3. Xaydarova O.Q. Oliy pedagogik ta’limga texnologik yondashuv asoslari. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2006.

4. G‘afforova va boshqalar. Ta’limning ilg‘or texnologiyalari. Qarshi, 2013.

5. Turg‘unpo‘latov D.R. Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda yechimlar. Namangan. (konf.). 2021, b-156-158.

TALABALARDA TA’LIM TIZIMI HAQIDA BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH

Dusyarov X.Ch. dotsenti, p.f.n. (TDPI)
Qurbonazarova G.X magistrant (TDPI)

Annotatsiya: Shaxsning kognitiv yo‘nalishi kognitiv ehtiyojlar tomonidan yaratilgan motivlar tizimiga asoslanadi. Psixikaning ushbu jihatlari faoliyatida bilimga bo‘lgan obyektiv ehtiyojning subyektiv aksidir, buning natijasida kognitiv

faoliyatni ta’minlaydigan organlar va tizimlarning hayotiy faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoj haqidagi bilimlar amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy istiqbol, kognitiv ehtiyojlar, psixologik-pedagogik bilimlar, kommunikativ faoliyat,

O‘quvchilarning ta’lim faoliyati motivlari turli xil ong darajalarida yuzaga keladi va juda xilma-xildir. Ular orasida ijobiy va salbiy, doimiy va vaqtinchalik, yetakchi va bo‘ysunuvchi, faol va passiv mavjud. Tashqi stimullarning ta’limning ijobiy motivlariga aylanishi murakkab va qarama-qarshi jarayon bo‘lib, inson hayotidagi ijtimoiy va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarning murakkabligi va nomuvofiqligi, shaxsning qadriyat yo‘nalishlari, uning manfaatlari va ideallari bilan izohlanadi.

Vazifa - ta’limga subyektiv munosabatni uning obyektiv ma’nosiga muvofiqlashtirish, ijtimoiy zaruriy burch sifatida ta’lim faoliyatiga psixologik munosabatni shakllantirish. O‘quv va kognitiv faoliyat natijalari nafaqat aqlga, balki shaxsiyatning boshqa ko‘plab xususiyatlariga, xususan, motivatsion va tartibga soluvchi omillarga ham bog‘liq. L.S.Vygotskiy fikr boshqa fikrdan emas, balki bizning intilishlarimiz va ehtiyojlarimizni, qiziqishlarimiz va motivatsiyalarimizni, ta’sir va his-tuyg‘ularimizni qamrab oluvchi ongning turtki beruvchi sohasidan tuo‘iladi, deb yozganida aynan shuni ta’kidlashga intilgan.

Motivatsion sohada sezilarli o‘zgarishlar pedagogik amaliyot bilan bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Suhbat va insholarda ko‘plab talabalar bilan ishlashda umumiy va psixologik-pedagogik bilimlarning “taqchilligi” ni, shuningdek, tanlagan kasbiga qiziqish ortib borayotganini his qilishgan. Umuman olganda, shuni ta’kidlash mumkinki, o‘quvchilarning o‘qishi ortib borishi bilan ularning fuqarolik va kasbiy motivlari o‘sib boradi, maxsus va psixologik-pedagogik bilimlarga bo‘lgan qiziqishlari dolzarb bo‘lib, o‘qishi va bo‘lajak pedagogik faoliyati uchun mas’uliyati ortadi. Talabaning ijtimoiy va kasbiy istiqbollarini belgilaydigan bunday uzoq motivlar bilan boshqa, shuningdek, bilvosita motivlar har xil va dinamik ravishda bog‘langan. Ikkinchisi talabalarning ma’lum bir universitetda, ma’lum bir talabalar jamoasidagi o‘quv faoliyatining o‘ziga xos holati bilan yuzaga keladi va kelajakka intilishlar singari, ular kollektivistik yoki egosentrik yo‘nalishga, ijobiy yoki salbiy hissiy belgilarga ega bo‘lishi mumkin.

Birinchi kurs talabalari uchun maxsus tashkil etilgan muhit yaratilib, uni yangi, tobora qiyinlashib borayotgan madaniy materiallar bilan to‘ldiradi. Bu muhit talabalarga amaliy harakatlar uchun indikativ asoslar berish, mustaqil ishlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi faoliyat seminarlar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar, amaliy mashg‘ulotlar va talabalarning mustaqil ishlarida amalga oshiriladi. Ushbu konstruktiv, amaliy va kommunikativ faoliyat turlarining barchasi o‘quv jarayonida,

har bir fan boʻyicha ish dasturlarida qayd etilgan. Zamonaviy ta'lim rejasi quyidagilar bilan ajralib turadi:

- umumiy ta'limning invariantini izolyatsiya qilish;
- orttirilgan madaniyatni muammolarni hal qilishda qoʻllashga urgʻu berish;
- madaniy yoʻnaltirilgan komponentlarni bogʻlash va maxsus qobiliyat komponentlarini chuqurlashtirish, aniqlashtirish va oʻrgatish bilan umumlashtiruvchi komponentlar.

Har bir institut uchun barcha pedagogik va psixologik fanlar oʻquv rejasida kompetensiyalar va pedagogik faoliyatga muvofiq rejalashtirilgan: maʼruza, amaliy va seminarlardan tortib yuqori sinflarda tadqiqot va maxsus trening kurslarigacha. Materialning mazmuni mantiqqa va fanlarning oʻzaro bogʻlanishiga qaratilgan boʻlib, har qanday psixologik mutaxassislik talabalarida barqaror kognitiv motivlar va pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarga qiziqish paydo boʻladi. Bularning barchasi pedagogik jarayonning natijalarini bashorat qilish va eng muhimi, boʻlajak mutaxassisni tayyorlash uchun ta'lim maydonini tashkil qilish imkonini beradi. Biz amaliy pedagogika asosida kunduzgi va sirtqi boʻlim talabalarining oʻz-oʻzini ta'limini kuchaytirish uchun materiallarni taqdim etishga harakat qildik. Bu jihat talabani maʼruza, seminar va laboratoriya amaliy mashgʻulotlariga, soʻngra oʻquv amaliyotiga tayyorlashda ochiladi, yaʼni pedagogika fanini oʻrganish va amaliyotda qoʻllash normativ (majburiy) asosida ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, biz ushbu yoʻnalishni modulli deb belgiladik, chunki u pedagogik bilimlarning axborot oʻtkazuvchanligini yaratish, talabalarning pedagogik tafakkurini shakllantirishni oʻz ichiga oladi. Boshqa fanlar va fanlararo aloqalarni qoʻllash, shuningdek, talabalarning mustaqil ishi uchun umumiy metodologiyani aniqlash yangi pedagogik modelni yaratishga yordam beradi, shuningdek, kelgusida ishlaydigan kunduzgi va sirtqi boʻlimlar uchun oʻzgaruvchan kurslar egri chiziqning yoki aksincha, dasturdan orqada qolishi. Talabalarning oʻz-oʻzini tarbiyalashda amaliy tajribasini shakllantirishda maqsad va vazifalarning murakkabligini oshirish, uzluksizlik tamoyilini hisobga olgan holda barcha ishlarni taqsimlanadi.

Birinchi kurs talabalarining aksariyati semestr davomida ham, oʻquv yili davomida ham oʻquv ishlari tizimi haqida aniq tasavvurga ega boʻlolmaydi. Deyarli birinchi kurs talabalari semestrning birinchi yarmida faqat oʻqituvchilarning joriy oʻquv topshiriqlarini bajaradilar va testdan oldingi va imtihon davrida ular haddan tashqari yuklanadi. Institutlarda birinchi kurs talabalariga yordam berish maqsadida “Oʻquv topshiriqlari” ishlab chiqiladi va koʻpaytiriladi, ular quyidagicha konstruksiyaga ega boʻladi: oʻquv yilining tuzilishi, oʻquv rejasidan har bir oʻquv faniga ajratilgan vaqt miqdori (semestrlar boʻyicha), ilmiy fanlarning qisqacha dastur mazmuni va boshqalar. Bu yerda tavsiya etilgan adabiyotlar ham taqdim etiladi, har bir oʻquv kursini oʻrganish jarayonida egallangan bilim, koʻnikma va

malakalarga qoʻyiladigan asosiy talablar shakllantiriladi, oʻquv nazorati faoliyatini oʻtkazish shakllari va muddatlari belgilanadi. Ushbu vazifalar joriy oʻquv materialiga zid emas va qoʻshimcha yuk emas boʻlishi kerak, chunki uy vazifalari va testlarni rejalashtirishda ularning “birgalikda mavjudligi” hisobga olinadi.

Tabiiyki, dastlabki bosqichda talabalar oldiga oʻquv adabiyotlari bilan ishlash shakllari va kognitiv faoliyat elementlarini oʻzlashtirishni maqsad qilib qoʻyiladi (oʻrganilayotgan materialni tahlil qilish va tezislar tuzish qobiliyatini rivojlantirish, boshlangʻich manbalar bilan ishlash koʻnikma va koʻnikmalarini rivojlantirish, shunga asoslanib eslatma yozing; oʻz fikrini isbotlang va ishonchliroq ifoda eting). Shakl va metodlarga amaliy mashgʻulotlar, pedagogik adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, tabaqalashtirilgan topshiriqlarni bajarish kiradi.

Asosiy bosqich - bu yerda asosiy maqsad - fikrlashni rivojlantirish boʻyicha mustaqil, faol ish koʻnikmalari va koʻnikmalarini rivojlantirish: pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish; pedagogik vaziyatlarni tuzish; maxsus seminar va amaliy mashgʻulotlarda ularni hal qilish uchun pedagogik vazifalarni ishlab chiqish; oʻqitish amaliyoti; pedagogik tadqiqot muammolarini hal qilish.

Didaktik vositalar - seminarlar, laboratoriya va amaliy mashgʻulotlar, talabalar eksperimental va ilmiy ijodiy ishlarni bajaradilar va qatnashadilar.

Yakuniy bosqichda maqsad mustaqil amaliy oʻquv va kognitiv faoliyatni sozlash va tayyorlash, faol ijodiy faoliyat elementlarini shakllantirish: pedagogik muammolarni hal qilishning samarali koʻnikmalari va variantlarini aniqlash, oddiy tadqiqotlarni amalga oshirish, turli xil variantlarni topish. hal qilinmagan muammolar uchun. Ushbu yoʻnalish talabalarning oʻquv amaliy mashgʻulotlarida faol ishtirok etishini va eksperimental tadqiqotlarni oʻtkazishni nazarda tutadi. Amaliy, mustaqil ishlarni olib borish uchun ishlab chiqilgan ta'lim texnologiyalari kasbiy yoʻnalishni, pedagogik faoliyatga aksiologik yoʻnalishni shakllantiradi. Shunga mos ravishda oʻquvchilarning olgan bilimlari kengayadi, chuqurlashadi va mustaqil boʻlib boradi. Talabalarning mustaqil bilish faoliyati, ham kunduzgi, ham sirtqi boʻlim talabalari, birinchi navbatda, oʻquv dasturini sifatli amalga oshirishga qaratilgan. Birinchi va ikkinchi kursdagi oʻquv yuklamalarining turlari orasida kirish va umumiy ma'ruzalar talaba uchun ayniqsa muhimdir. Nazorat va test ishi (test va imtihonlar, oʻz-oʻzini tekshirish va boshqalar). Seminar va seminarlarga tayyorgarlik mustaqil ishning faol shakllari sifatida. Oʻz-oʻzini tayyorlash jarayonida talabalar oʻz-oʻzini tarbiyalash koʻnikmalarini egallaydilar, masalan: birlamchi manbalar bilan ishlash; ma'lumotnoma adabiyotlari bilan ishlash; asosiy oʻquv va qoʻshimcha adabiyotlarni tahlil qilish (qayd qilish, qiyosiy tahlil qilish); oʻquvchi, ensiklopedik lugʻat, jurnallar bilan ishlash; muammoli vaziyatlarda kognitiv vazifalarni bajarish; muayyan mavzular boʻyicha taqdimotlar qilish. Insholar, referatlar, kurs ishlari yozish va elektron test materiallarini yechish. Shu

tariqa talabalarda o‘quv jarayoniga oid tasavvurlar, fikr-mulohazalar shakllana boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li, To‘rayeva Gulyuz Xushboqovna “Ta’limdagi innovatsiyalar: muammolar va ularning yechimlari” Ijtimoiy muhit va ta’lim jarayonida xulq-atvor shakllanishining pedagogik va psixologik jihatlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Yoshlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish markazi 2023

2. p.f.n., dotsent X.Ch. Dusyarov (Ter. D.P.I.) magistrant. G.X. To‘rayeva (Ter. D.P.I.) “Xalq hunarmandchiligi texnoligiyasi” modulini kreativ yondashuv asosida o‘qitishning nazariy masalalari Zamonaviy inshootlarni barpo etishda samaradorligi yuqori va intellektual texnologiyalardan foydalanish respublika ilmiy-texnik anjumani, Termiz 2023

3. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li, To‘rayeva Gulyuz Xushboqovna “Pedagogik ijodkorlik modulida kreativ yondashuv asosida o‘qitish masalalari” International Journal of Science and Technology ISSN 3030-3443 Volume 1, Issue 06, February. 2024

4. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li – “Ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha” – “Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz 2023

5. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li, To‘rayeva Gulyuz Xushboqovna - “Aqliy hujum” metodi orqali ta’lim sifatini oshirish – Fan, ishlab chiqarish integratsiyasi asosida muhandislik-texnologiya sohasini rivojlantirish istiqbollari mavzusidagi xalqaro talabalar anjumani – Termiz 2022.

OLIY VA PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI BITIRUVCHI VA TALABALARINI BANDLIGINI TA’MINLASHNI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TARTIBGA SOLISH MEXANIZIMLARI

Xalikov T.T, assistent (TDMAU)
Hasanov D.Sh, talabas (TDMAU)

Annotatsiya. Maqolada, Ozbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini bandligini ta’minlashda olib borilayotga chora-tadbirlar va tartibga solish tizimini tahlil qilingan

Kalit so‘zlari. Oliy ta’lim, bitiruvchilar, bandlik, ish bilan ta’minlash, tartibga solish.

Abstract. The article analyzes the measures and regulatory system to ensure the employment of graduates of higher education institutions in the Republic of Uzbekistan.

Keywords. Higher education, graduates, employment, regulation.

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtsodiyoti jadal o‘sishi davrida, mehnat bozorining iqtisodiyoti rivojlanishini o‘rni ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari so‘nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti, yuqori texnologiyalar, kompyuterlar va hisoblash tizimlarining global qo‘llanilishi jadal rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy kompleks yuqori malakali mehnat resurslari ishtirokisiz barqaror faoliyat ko‘rsata olmaydi. ishlab chiqarishning zamonaviy texnik va texnologik darajasiga javob beradigan.

1-jadvalda 2017 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida ishsizlarning umumiy soni va ishsizlik darajasi ko‘rsatilgan. Ma'lumotlar ko‘ra mehnat bozoridagi vaziyatni qulay deb tavsiflaydi, 2018 yil dan 2022 yilgacha ishsizlar soni qariyb bir xil ko‘rsatgichni ko‘rsatmoqda, biroq ayni paytda ushbu ko‘rsatkichda ishsiz yosh mutaxassislarning ulushi ortib bormoqda, bu esa davlat tomonidan yechimga katta e'tibor qaratilmoqda.Maqsad bitiruvchilarni muvaffaqiyatli ishga joylashtirish.

1-jadval

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	**5,8**	**9,3**	**9,0**	**10,5**	**9,6**	**8,9**



1-rasm. O’zbekiston Respublikasida ish sizlar ko‘rsatgich (%)

Oxirgi bir necha yil ichida mamlakatdagi universitetlar soni oshib borayotganligi kuzatildi, bunga asosiy sabab oliy ta’lim muassasalarini soha vazirlik va idoralarga integratsiyalashishdir, biroq oliy talim muassasalari qisqarishi kuzatilmoqda va mutaxasislik oliy ta’lim muassasalari biriktirilmoqda,bunga misol O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 07-fevraldagi 62-son “Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga asosan 3 ta davlat oliy ta’lim muassasalari: Toshkent davlat iqtsodiyot universiteti, Toshkent davlat moliya instituti, Fiskal institutlar

birlashtirildi.Bunga sabab davlat tamonidan amalga oshirilayotgan ishlar, davlat tomonidan qo‘yilgan talablar asosida sifatli ta’lim bermayotganligi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Oliy talim muasaslar son koofitsenti

2-jadval. Oliy ta’lim tashkilotlarda o‘qayotgan va bitirgan talabalar soni[15]

Oliy talim tashkilotlarida talabalar soni					
Hudud	**2018/2019**	**2019/2020**	**2020/2021**	**2021/2022**	**2022/2023**
O‘zbekiston Respublikasi	**360204**	**440991**	**571512**	**808439**	**1042100**
Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari soni					
Hudud	**20/2019**	**2019/2020**	**2020/2021**	**2021/2022**	**2022/2023**
O‘zbekiston Respublikasi	**70325**	**70793**	**83905**	**103898**	**102381**

2-jadvalda ko‘rinib turibdiki, oliy ta’lim muasasalarda o‘qishga kiruvchi va bitiruvchi talabalar soni keskin oshib bormoqda

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.06.2019 yildagi 467-sonli “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori asosida tuzilgan nizomida oliy va professional ta’lim muassalarining milliy reytingini aniqlash asosiy maqsad va vazifalar quyidagilar:

- oliy ta’lim muassasalari orasida sog‘lom raqobat muhitini shakillantirish, ularning faoliyati darajasi va sifatini oshirishni rag‘batlantirish, professor-oqituvchilarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish, o‘qitish sifati bo‘yicha xalqaro mezon va standartlariga muvofiq yuqori ko‘rsatkichlarga

erishishga hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari uchun yuqiri malakali kadrlarni tayorlashga zamin yaratish reytingni aniqlashning maqsadi hisoblanadi;

- oliy ta’limni mantazam takomillashtirib borish asosida mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash;
- oliy ta’lim massasalarida ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari sifati, ulardagi ilmiy va o‘quv-tarbiya jarayonlari hamda ta’limni boshqarish bo‘ycha vakolatli organlar, kadrlar buyurtmachilar va keng jamoatchilikni xolis axborotlar bilan ta’minlash.

Ushbu buyruq maqsad va vasifalariga ko‘ra nafaqat oliy va professional ta’lim muassasalirini reytingini aniqlash, balki bitiruvchilarni raqobatbardosh qilib tayyorlashdir.

Milliy reyting indikatorlarni tahlil qilinganda:



3-rasm. Oliy ta’lim muassasalarni milliy reyting indikatorlari

3-rasmda talabarni bilimi va bitiruvchilarni sifatida keltirilgan reyting indikatorlar ballari, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlashga 27 % tashkil etadi, bundan xulosa qilsak, bitiruvchilarni sifatli kadr bo‘lib yetishiga nafaqat talabaning harakati, balki oliy va professional ta’lim professor-o‘qituvchilarni sifatli ta’lim berishi hamda ta’lim muassasa ish beruvchilar talabi bo‘yicha fan va texnika, moddiy texnika bazasi, yuqori sifatli kadrlar bilan taminlashi lozim.

Ta’lim muassasalari bitiruvchilari va talabalarni bandligini ta’minlash, ta’lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Bu jarayonni tartibga solish uchun bir qator tizimlar va mexanizmlar mavjud. Quyida bu tizimlarning ba'zilari haqida ma'lumot beraman:

1. Kasb-hunar ta'limi va yo‘naltirish

- Kasb-hunar kollejlarida o‘qitish: Talabalarga amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish orqali ularning ishga joylashish imkoniyatlarini oshirish.
- Yo‘naltirish dasturlari: Talabalarni to‘g‘ri kasb tanlashga yordam beruvchi dasturlar orqali ularni bo‘sh ish o‘rinlariga yo‘naltirish.

2. Ish bilan ta'minlash markazlari

- Ta'lim muassasalarida ish bilan ta'minlash markazlari tashkil etilib, bitiruvchilarga ishga joylashishga oid maslahatlar va yordamlar koʻrsatiladi.

- Ushbu markazlar orqali ish beruvchilar bilan hamkorlik oʻrnatilib, talabalar uchun stajirovkalar va amaliyotlarni tashkil etiladi.

3. Ish beruvchilar bilan hamkorlik

- Ta'lim muassasalari ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlik qilib, ular ehtiyojlariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlaydi.

- Ish beruvchilar talabalarning malakasini baholashda ishtirok etishlari uchun seminarlar, treninglar va tadbirlar oʻtkaziladi.

4. Malaka oshirish kurslari

- Bitiruvchilarga malaka oshirish kurslarini taklif etish orqali ularning kompetensiyalarini yanada kengaytirish.

- Ushbu kurslar orqali talabalar yangi texnologiyalar va tendentsiyalar haqida ma'lumot olishadi.

5. Statistika va monitoring

- Ta'lim muassasalari bitiruvchilarning bandligini kuzatib boradilar va statistik ma'lumotlar toʻplaydilar.

- Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda ta'lim dasturlarini takomillashtirib boradilar.

6. Davlat dasturlari

- Davlat tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar orqali talabalarning bandligini ta'minlashga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi.

- Masalan, yoshlarni ishga joylashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha dasturlar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni https://lex.uz/docs/-6600413
2. Avdeeva E.A. Modern employee values // Scientific Bulletin of Voronezh State University of Architecture and Civil Engineering. Economics and entrepreneurship.- 2015. No. 1 (12). P.28-31.
3. Volkov V.R. Secondary employment of students: problems and development trends / V.R.Volkov // Bulletin of Economics, Law and Sociology. – 2018. – No.1. – P. 181-185.
4. Журавлева Т. Б. Механизмы регулирования процессов подготовки и трудоустройства выпускников вузов: дис. … д-ра экон. наук.- Москва, 2004.
5. Бабушкина Т., Гарсия-Исер М. Молодежь на рынках труда и образовательных услуг // Человек и труд. –2004. – №6.

6. Новиков Д. А. Модели и механизмы управления развитием региональных образовательных систем (концептуальные положения). М.: ИПУ РАН, 2001.
7. Олимпиева Е. Диплом на руках. Что дальше? / Е. Олимпиева // Служба кадров и персонал. – 2010. – № 2. – С.11.

TEXNIKA OLIYGOHLARIDA INNOVATSION USUL VA YONDASHUVLARNING TADBIQI

Qurbonali J, Assistant, (TerDMAU),
Tojiboyev B, Katta o‘q. (FarPI),

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot har qachongidan ham tezroq. So‘nggi o‘n yilliklarda texnologiya dunyoni tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada o‘zgartirdi; Sanoat 4.0 deb ham ataladigan to‘rtinchi sanoat inqilobi nafaqat zavod va ishlab chiqarishda, balki butun jamiyatda barcha segmentlarda o‘z aksini topmoqda. Biroq, agar bizda ularni tushunadigan, boshqara oladigan, foydalana oladigan va o‘z manfaatlari yo‘lida foydalana oladigan, nihoyat, yangilab, takomillashtiradigan insonlar bo‘lmasa, yuqori va murakkab texnologiyalar ham yetarli emas [1]. Ta’limdagi innovatsiyalar - bu ta’lim evolyutsiyasi uchun istiqbolli bo‘lgan, ta’limning barcha shakllari va usullarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan turli tashabbuslar va innovatsiyalar asosida yuzaga keladigan dolzarb va tizimli ravishda o‘zini o‘zi tashkil etuvchi yangiliklar. Zamonaviy ta’limni rivojlantirish bilan bog‘liq "innovatsion faoliyat" kontseptsiyasini ta’lim mazmuni va ta’lim jarayonining tashkiliy-texnologik asoslarini maqsadli ravishda o‘zgartirish, ta’lim xizmatlari sifatini oshirishga, ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. ta’lim muassasalari va ularning bitiruvchilari, o‘quvchilarning har tomonlama shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlash [2] .Innovatsion yondashuvlar ta’limni takomillashtirish, yangi imkoniyatlar yaratish va an’anaviy o‘qitish usullarini o‘zgartirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiyalar ta’limni yaxshilashga yordam beradigan ba’zi asosiy yo‘nalishlar:

1. Shaxsiylashtirilgan ta’lim: Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonini har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirish imkonini beradi. Bunga moslashuvchan ta’lim dasturlari, o‘z-o‘zidan ishlaydigan onlayn o‘quv platformalaridan foydalanish va o‘quvchilarning rivojlanishini individual monitoring qilish kiradi.

2. Moslashuvchan ta’lim: Ta’lim innovatsiyalari o‘quvchilarga o‘rganish vaqtini, joyini va sur’atini tanlash imkonini beruvchi moslashuvchan ta’lim formatlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Bunga masofaviy ta’lim, onlayn kurslar, virtual sinflar va moslashuvchan o‘quv dasturlari kiradi.

3. Raqamli texnologiyalardan foydalanish: Innovatsiya o‘quv jarayonini boyitish uchun kompyuterlar, planshetlar, interfaol doskalar va dasturiy ta‟minot kabi raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu sizga interaktiv va multimediali o‘quv materiallarini yaratish, virtual sayohatlar, simulyatsiya va tajribalar o‘tkazish imkonini beradi, bu esa bilimlarni yanada samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

4. Hamkorlikda o‘rganish: Innovatsion yondashuvlar talabalar va professor-o‘qituvchilar o„rtasida hamkorlik va bilim almashishni rag‘batlantiradi. Bu loyiha ishi, guruh topshiriqlari, onlayn forumlar va ma’lumot va g‘oyalar almashish uchun platformalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

5. Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish: Ta’limdagi innovatsiyalar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bularga talabalarning avtonomiyasi va o‘zini o‘zi boshqarishni rag‘batlantirish, tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish, loyihaga asoslangan usullardan foydalanish va muammoli ta’lim kiradi.

Amaliy yo‘nalish	Texnik universitetlar talablarga rioya qilishga tobora ko‘proq amaliy yondashmoqda. Talabalarga laboratoriya ishlari, loyiha topshiriqlari, stajirovka va yirik korxonalarda amaliyot o‘tash orqali ko‘proq amaliy tajriba orttirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu talabalarga olgan bilimlarini amalda qo‘llash va zarur ko‘nikmalardan foydalanishga yordam beradi.
Interfaol ta’lim Usullari	Ma’ruzaga asoslangan ta’lim modeli tugagandan so‘ng, texnik imkoniyatlar guruh loyihalari, muhokamalar, amaliy tadqiqotlar va real vaqtda o‘rganish uchun texnologiyadan foydalanish kabi interfaol usullardan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Bu o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi, o‘zaro fikr almashishi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Fanlararolik	Zamonaviy texnologiyalar murakkab bilim va koʻnikmalarni talab qiladi. Texnik ishlanmalar turli sohalarni, masalan, kompyuter fanlari, muhandislik, iqtisod, dizayn va boshqalarni birlashtirgan fanlararo oʻquv dasturlarini joriy qiladi. Bu fikrlashning moslashuvchanligini va oʻyinda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
Onlayn ta'lim va texnologiyadan foydalanish	Potentsial onlayn texnologiyalar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari, texnik imkoniyatlar onlayn platformalar, video ma'ruzalar, vebinarlar va boshqa oʻquv vositalaridan faol foydalanilmoqda. Bu talabalarga oʻz vaqtlarini erkin rejalashtirish va dunyoning istalgan nuqtai nazaridan ta'lim olish imkonini beradi.
Kelajak uchun koʻnikmalarga e'tibor	Texnologiya va mehnat bozori talablari doimo rivojlanib bormoqda, shuning uchun texnik ehtiyojlar kelajakda talab qilinadigan koʻnikmalarni rivojlantirishga koʻproq e'tibor berishni talab qiladi, masalan, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik, robototexnika va boshqalar.

Yangicha ta'lim yondashuvlari

Innovatsion yondashuvlar nafaqat ta'limning qulayligi va sifatini oshiradi, balki talabalarda tez oʻzgaruvchan dunyo va mehnat bozoriga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur boʻlgan koʻnikmalarni rivojlantiradi. Ular zamonaviy jamiyatning asosiy kompetensiyalari boʻlgan tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot koʻnikmalari va raqamli savodxonlikni shakllantirishga hissa qoʻshadi [3-5]. Soʻnggi yillarda texnik universitetlarda texnologiya va mehnat bozori talablaridagi oʻzgarishlarni aks ettiruvchi ta'limga bir qator yangi yondashuvlar paydo boʻldi.

Biroq, har bir universitetning oʻziga xos xususiyatlari bor va talabalar tomonidan koʻrsatilgan maqsadlarga muvofiq turli usullar va strategiyalardan foydalanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari. Yosh muhandis kadrlarni tayyorlash zamonaviy sanoatning oʻzgaruvchan talablari va ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi [6, 7]. Yosh muhandislarni tayyorlashda qoʻllaniladigan ba'zi yangi yondashuvlar:

1. Integratsiyalashgan kurslar va fanlararo treninglar: Yosh muhandislarga turli fanlar va tajriba sohalarini birlashtirgan integratsiyalashgan kurslar taklif etiladi. Bu talabalarga turli texnik fanlar oʻrtasidagi munosabatlar va oʻzaro

ta’sirlarni tushunishga va keng ko‘lamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Amaliy yo‘naltirish: Ta’lim jarayonida bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llashga urg‘u beriladi. Bunga laboratoriya ishlarini olib borish, loyihalash ishlari, haqiqiy korxonalarda amaliyot o‘tash va muhandislik tanlovlarida qatnashish kiradi. Amaliy tajriba yosh muhandislarga o‘z bilimlarini amalda qo‘llash va real muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Jamoada ishlash va hamkorlik: Yosh muhandislarga jamoalarda ishlash va boshqa talabalar va professor-o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish imkoniyati beriladi. Jamoa bilan ishlash bugungi muhandislik jamiyatida muhim bo‘lgan muloqot, yetakchilik, loyihalarni boshqarish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Sanoat kooperatsiyasi: Sanoat korxonalari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilish yosh muhandislarni tayyorlashning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bunga hamkorlikdagi loyihalar, amaliyotlar, o‘quv hamkorlik dasturlari va sanoat bilan tadqiqot ishlari kiradi. Sanoat sohasidagi hamkorlik talabalarga amaliy ish tajribasiga ega bo‘lish va sanoatning haqiqiy muammolarini tushunishga yordam beradi.

5. Raqamli texnologiyalar va virtual ta’lim [8-11]: Raqamli texnologiyalar va virtual ta‘limdan foydalanish yosh muhandislarga keng ko‘lamli ta’lim resurslari, onlayn kurslar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish imkonini beradi. Bu o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi, o‘quv jarayonini individuallashtirish va istalgan joyda va istalgan vaqtda o‘qish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi ta’lim sifatini oshirish, talabalarni faollashtirish va ularni zamonaviy texnologik soha talablariga tayyorlashda ilg‘or texnologiya va usullardan foydalanishdan iborat. Tinglovchining psixologik holatiga alohida e’tibor berish, uning e’tiborini tushuntirishning eng qiziqarli usullarini ishlab chiqish, belgilar, chizmalar, grafiklar va formulalarni batafsil o‘rganish bilan jalb qilish kerak. Bilimni kengaytirish va esdalik darajasini oshirish uchun ishlab chiqilgan usullar hayotdan va atrof-muhitdan olingan misollarga asoslanishi kerak. Bunday muhandis kadrlarni tayyorlash mamlakat iqtisodiyotining yuksalishiga, mehnat unumdorligining oshishiga, texnika va texnologiyaning rivojlanishiga, eng muhimi, bozor iqtisodiyoti sharoitida muhandislik maktablari bitiruvchilarining ishsizlar sonining kamayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рапацевич Е.В. Инновации в образовании: роль информационно-технологической среды//Успехи современного естествознания. – 2013. – № 10 – С. 86-88

2. Dewey J. The School and Society [Электронный ресурс]. URL: http://www.brocku.ca/MeadProject/ Dewey/Dewey -1907/ Dewey-1907-toc.html (дата обращения: 30.04.2016)
3. Siemens, G., and Matheos, K. (2010) „Systemic changes in higher education.“ In Education [online] 16 (1) Available from [19 September 2011]

OLIY TA’LIM TALABALARIGA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ORQALI MATERIALLAR QARSHILIGI FANINI O‘RGATISH

Tojiboyev Bobir Tolibjonovich, katta o‘qituvchi, (FarPI)
Jo‘rayev Qurbonali Chori o‘g‘li, assistant, (TDMAU)

Talabalar bilan yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘qituvchini oldida bitta savol turishi kerak, bugungi darsga qaysi metoddan foydalanaman? Qo‘yilgan vazifaga qaysi usullar bilan samarali yechim topaman. Yangi mashg‘ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o‘qituvchi o‘zining intellektual salohiyatini ishga solishi, ilg‘or pedagogik tajribadan foydalanishi va imkon qadar dars davomida interfaol metodlardan foydalanib o‘tish darsning sifatini belgilaydi. Xo‘sh interfaol tushunchasi nima? U bizga nima uchun kerak? Shu va shu kabi savollarga to‘xtalib o‘tamiz.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Interfaol tushunchasi ingliz tilida “interakt” so‘zidan olingan bo‘lib uning lug‘aviy ma’nosi “inter”-o‘zaro ikki taraflama, “akt”-harakat qilmoq yani dars mashg‘uloti paytida o‘zaro ikki taraflama ishlash degan ma’noni anglatadi. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b. [1]

Keling bugungi materiallar qarshiligi fanimizni biror bir metodga bog‘lab o‘rganaylik. Metodni qo‘llashdan avval dars mavzusi yuzasidan ozgina tushuncha beramiz:

“Materiallar qarshiligi” fani umummuhandislik fani hisoblanib, konstruksiyalar (tuzilmalar), inshootlar, mashina va mexanizmlar qismlarini mustahkamlikka, bikrlikka va ustvorlikka hisoblash usullarini o‘rgatadi. [2]

Brus - ko‘ndalang kesimining ikki o‘lchamlari uchinchi o‘lchami (uzunligi) ga nisbatan ancha yuqori tartibda katta jism. Bruslar to‘gri va egri o‘qli bo‘ladilar. Ko‘ndalang kesimlar ogirlik markazlarining brus uzunligi bo‘ylab geometrik o‘rni brus o‘qini tashkil qiladi.

Agar brus choʻzilish yoki siqilishga ishlasa - sterjen, buralishga ishlasa - val, egilishga ishlasa – balka toʻsin deb yuritiladi. (1-Rasm, *a* shakl)

Plastinka - ikkita tekis sirt bilan chegaralangan jism boʻlib, tekis sirtlar orasidagi masofa, ya'ni jism qalinligi, boshqa ikki oʻlchamlariga nisbatan koʻp marta kichikdir. (1-Rasm, *b* shakl)

Qobiq - ikkita egri sirt bilan chegaralangan jism boʻlib, uning qalinligi, ya'ni sirtlar orasidagi masofa qolgan ikki oʻlchamiga nisbatan koʻp marta kichikdir. (1-Rasm, *v* shakl)

Massiv (vazmin jism) - uchala oʻlchami bir xil tartibda boʻlgan jism. (1-Rasm, *g* shakl)

Ushbu fanni talabalarga aniq va ravshan qilib yetkazishda avvalo talabalarni



diqqatini jamlash va xozirgi kunda mavjud boʻlgan metodlardan birini qoʻllash orqali darsga qiziqtirishimiz kerak. Dars mashgʻulotlarida turli yangi metodlardan foydalanishni xatto XIX asr oxiri XX asr boshidagi oʻzbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy xam qoʻllagan. [1] Darsimizni "Aqliy xujum" metodini qoʻllash orqali boshlaymiz.

Dastlab mavzu va mavzuga oid kalit soʻzlarni doskaga yozib, qaysi mavzuni yoritmoqchi ekanligimizni bildiramiz va talabalarga ushbu kalit soʻzlar xaqida qanday tushuncha va tasavvurga ega ekanligini soʻrab chiqamiz. Xar bir talaba kalit soʻzlardan kelib chiqib tushunchasini aytadi, avvaliga darsni tinglab turgan talabalar mavzu xaqida gapiradi va boshqa talabalar xam qoʻshiladi. Bu yerda oʻqituvchidan kasbiy maxorati xam katta roʻl oʻynaydi ya'ni talabalar toʻgʻri yoki notoʻgʻri gapirsa xam ularda dalda berib albatta toʻgʻri, barakalla, qoyil kabi soʻzlar bilan ularni ruxlantirib soʻngra ularga shu mavzu boʻyicha ozgina toʻldirish qilaman deb mavzuni toʻliq yoritiladi. Bunga qoʻshimcha ravishda proyektor, koʻrgazmali qurollar va shu mavzuga oid jixozlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak bugungi kunda texnika fanlarni oʻqitishda, boʻlajak mutaxassislarni tayyorlashda innovatsiyasion yondoshuv beqiyosdir chunki

zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Talabalarga bilim berishdagi muammolardan biri laboratoriya jixozlarini yetishmayotganidir, bu masalani yechish uchun amaliyotni va xaftasiga kamida bir kunlik dars mashg‘ulotini zavod va ishlab chiqarish korxonalari bilan uzviy bog‘lashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Internetdan olingan ma’lumotlar
2. I.H.Hamzayev, E.S.Umarov MATERIALLAR QARSHILIGI, texnika o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHLARINING INSONIYATGA IJTIMOIY TA’SIRINI O‘RGANISH VA TEXNIKA SOHASIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI ISHLAB CHIQISHNING DOLZARB MASALALARI.

Mamatraimov Komil Mamatmurod o‘g‘li
assistant-o‘qituvchi (TDMAU)

Iqlim o‘zgarishi muammosi yildan-yilga dolzarblashib bormoqda. Global isish, iqlim o‘zgarishi muammosi qatoriga yog‘ingarchiliklarning bir maromda emasligi, gohida quruqchilik bo‘lishi, gohida esa birdan yog‘ingarchiliklar ko‘paydi. Aslida iqlim o‘zgarishlarining sababi nimada? Keling, bir boshdan, hozirgi davrdagi holatni tahlil qilishdan boshlaymiz.

1980 yildan, ya’ni ma’lumotlar global darajada qayd etilish boshlangandan beri va 2017 yil holatiga ko‘ra, solishtiradigan bo‘lsak, Yer sayyorasining harorati 1 °C ga oshgan. Bu raqam sezilarli emasdek ko‘rinishi mumkin, ammo unga sayyora yuzasidagi o‘rtacha ko‘rsatkich sifatida qaraydigan bo‘lsak, o‘zgarish katta ekanligini, oqibatda muzliklar eriyotganini va dengizlar darajasining keskin ko‘tarilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Agar issiqxona gazlarining tarqalishi to‘xtamasa, olimlar Yer sayyorasi o‘rtacha haroratining 4 °C ga oshishini prognoz qilishmoqda. Bu esa quruqlikning katta qismini inson hayoti uchun yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi.

Insoniyat issiqxona effekti haqida bir asrdan ko‘proq vaqt davomida xabardor. XIX asrda olimlar ayrim gazlarning Yerdan chiqadigan issiqlikni ushlab turishini va ularning yordamisiz bu issiqlik koinotga chiqib ketishini aniqlashdi. Bu jarayonda asosiy rolni karbonat angidrid o‘ynaydi: usiz sayyora muzlagan cho‘lga aylangan bo‘lar edi. 1896 yilda issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi sababli sayyoradagi haroratning oshishi haqida ilk bor bashorat qilingan. Bugungi kunda ularning atmosferadagi soni sanoat inqilobidan oldingi davrga nisbatan 43% ga oshdi va Yerning o‘rtacha harorati olimlar bashorat qilgan

qiymatgacha oshdi. Sanoat issiqxona gazlari tarqalishining ulushini aniqlash uchun radioaktiv nurlanishdan foydalanilgan tadqiqotlar kabi ishonchli dalillar mavjud. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ortiqcha gaz inson faoliyatining natijasidir. Karbonat angidrid darajasi har doim tabiiy ravishda koʻtarilgan va tushib ketgan, ammo bu oʻzgarishlar minglab yillar davom etgan. Geologlarning ta'kidlashicha, odamlar iqtisodiy faoliyat davomida karbonat angidridni atmosferaga tabiatdan koʻra koʻproq intensiv ravishda chiqaradi.

Nima sababdan bugungi jamiyat iqlim oʻzgarishi faktini rad etishmoqda?

Asosiy sabablardan biri — ideologik qarashlardan biri boʻlib ba'zi konservatorlar bozorga asoslangan iqlim oʻzgarishi siyosatini muhokama qilish oʻrniga, ilmiy dalillarga qarshi chiqish orqali global isishni inkor qilmoqdalar.AQShning sobiq prezidenti Tramp bir necha bor olimlar jamoatchilikni aldash uchun butun dunyo boʻylab yolgʻon oʻylab topilayotganini yoki global isish Amerika sanoatini beqarorlashtirish uchun Xitoy tomonidan oʻylab topilganini ta'kidlagan. Skeptiklarning argumentlari shu qadar shubhali boʻlib qoldiki, hatto neft va koʻmir ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ham bunday munozaralardan oʻzlarini chetlab oʻtishdi, vaholanki, ularning ba'zilari hali ham shunday qarashdagi siyosatchilarning saylov kampaniyasini moliyalashtirmoqda.

Biz duch kelgan muammo qanchalik katta?

Olimlarning ta'kidlashicha, yaqin 25−30 yil ichida iqlim yanada issiqlashadi va ob-havo sharoiti keskinlashadi. Marjon qoyalari va boshqa zaif yashash joylari allaqachon yoʻq boʻlib keta boshladi. Atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilari nazoratsiz ravishda tarqalishda davom etsa, olimlar buning uzoq muddatli jiddiy oqibatlarga olib kelishidan qoʻrqishmoqda: bular, dunyo tartibining buzilishi, keng koʻlamli migratsiya, Yer tarixidagi oʻsimliklar va hayvonlarning oltinchi ommaviy yoʻq boʻlib ketishining tezlashishi, muzliklar erishi, dengiz sathining koʻtarilishi va dunyoning qirgʻoqboʻyi shaharlarining koʻp qismini suv bosishi kabi oqibatlardir.

Ushbu xavflarni keltirib chiqaradigan gazlar hozirdan oʻz ta'sirini koʻrsatmoqda va bu bizning avlodimiz uchun oldimizda turgan chuqur axloqiy savollar borasida bosh qotirish uchun bir imkoniyatdir. Achchiq haqiqat shundan iboratki, odamlar, ba'zida buni sezmagan holda, allaqachon iqlim oʻzgarishi oqibatlarini boshdan kechirishmoqda. Misol uchun, dengiz sathining koʻtarilishi sababli «Sendi» toʻfoni vaqtida Nyu-York va Nyu-Jersining 83 000 ga yaqin aholisi zarar koʻrdi, olimlarning fikricha, barqaror iqlim sharoitida bu holat sodir boʻlmagan boʻlar edi. Oʻn minglab odamlar allaqachon global isish tufayli kuchaygan issiqlik toʻlqinlari oqibatida nobud boʻlmoqda. Dunyo boʻylab siyosiy vaziyatni beqarorlashtirgan qochqinlar oqimi — qisman iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq.

Albatta, boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarda bo‘lgani kabi birinchi va eng og‘ir zarbani kambag‘allar qabul qilib oladi.

Dengiz sathi keskin sur’atlarda ko‘tarilmoqda va hozirda har 100 yilda 0,3 metr tezlik bilan ko‘tarilmoqda, bu hukumatlar va mulk egalarini qirg‘oq eroziyasiga qarshi kurashish uchun o‘nlab milliard dollar sarflashga majbur qilmoqda. Ammo bu tendensiya o‘zgarmasa, bunday o‘sish oqibatlarini nazorat qilish mumkin, deydi ekspertlar.Biroq, xavf shundaki, dengiz sathining ko‘tarilishi davom etaveradi. Yer tarixini o‘rganuvchi olimlar, eng yomon holatda, garchi bu ehtimoldan yiroq bo‘lsa-da, o‘n yil ichida suv yarim metrga ko‘tarilishiga ishonishadi. Ko‘pgina ekspertlarning fikricha, ertaga issiqxona gazlari chiqindilari to‘xtagan taqdirda ham, dengiz sathining 4−6 metrga ko‘tarilishi muqarrar va bu ko‘plab shaharlarni suv bosishi uchun yetarli. Albatta, agar ularni himoya qilish uchun trillionlab dollar sarflanmasa. Bu qancha davom etishi noma’lum. Ammo agar bu shunday davom etsa, u oxir-oqibat 24−30 metrgacha ko‘tarilishi mumkin.

limlar issiqlik to‘lqinlarining sababi global isish ekanligi haqida ishonchli dalillarni e’lon qilishdi. Inson chiqindilari tufayli global dengiz sathi ko‘tarilgach, tropik yomg‘irlar va toshqinlar kuchayadi. Global isish Yaqin Sharqdagi qurg‘oqchilikni kuchaytirdi va yaqinda Kaliforniyadagi qurg‘oqchilikka hissa qo‘shgan bo‘lishi mumkin.Ko‘pgina boshqa holatlarda, bo‘ron kabi tabiat hodisalarining global isish bilan bog‘liqligi aniq yoki bahsli emas. Ammo iqlim tahlilining zamonaviy usullari olimlarga tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini doimiy ravishda yaxshilash imkonini beradi.

Nima qilishimiz mumkin?

2015 yil dekabr oyida Parij yaqinida muhim kelishuvga erishildi. Kelishuvga ko‘ra, chiqindilarni kamaytirish majburiy emas, va jiddiy oqibatlarning oldini olish uchun va’dalarning o‘zigina yetarli emas. Mamlakatlar umumiy e’lon qilingan maqsadga erishishda o‘z hissalarini oshirishlari uchun shartnoma bir necha yilda bir marta ko‘rib chiqilishi kerak. Donald Tramp 2017 yilda AQSh Parij kelishuvidagi ishtirokini to‘xtatayotganini e’lon qildi. Boshqa davlatlar, AQSh niyatidan qat’i nazar, o‘z maqsadlariga erishish uchun oldinga siljishlarini aytishdi. Freking yoki toza ko‘mir texnologiyalari energiyani toza qilishga yordam beradi.

Freking — burg‘ulash texnologiyasi bo‘lib, odatdagi gaz qazib olish uchun ortiq yaroqli bo‘lmagan yoki foyda keltirmaydigan bo‘sh turgan quduqlarni «jonlantirish» imkonini berdi. Elektr stansiyalarida ko‘mir o‘rniga gazni yoqish qisqa muddatda chiqindilarni kamaytiradi, garchi gaz hali ham qazib olinadigan yoqilg‘i bo‘lib, uni bosqichma-bosqich to‘xtatish kerak bo‘ladi. Freking ham mahalliy ifloslanishni yuzaga keltirishi mumkin.«Toza ko‘mir» — bu pechlarda yonish paytida chiqariladigan karbonat angidridni ushlash va uni tuproqqa olib tashlash imkonini beruvchi texnologiyalar to‘plami. «Toza ko‘mir» iqtisodiy jihatdan foydali ekanligi

hali isbotlanmagan, biroq ba’zi ekspertlarning fikricha, bu texnologiyalar uzoq muddatli istiqbolda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, muammoni faqat keng ko‘lamli kollektiv harakatlar bilan hal qilish mumkin. Butun shtatlar va davlatlar energiya sanoatini toza, mavjud bo‘lgan barcha usullardan foydalangan holda va juda tez ishlashga qaror qilishlari kerak. Shunday ekan, siz o‘z qonuniy huquqingizdan foydalangan holda qilishingiz mumkin bo‘lgan eng muhim ish: muammo haqida ochiq-oydin gapirish va o‘zgarishlarni talab qilishdir.

O‘zingiz sababli yuzaga kelayotgan uglerod zararini kamaytirishning oddiy usullari mavjud, bu sizga, shuningdek, pulni tejash imkonini ham beradi. Kundalik hayotda elektr energiyasidan oqilona foydalanish mumkin: buning uchun inttelektual termostat o‘rnatish lozim, yorug‘lik lampalarini energiyani tejaydigan lampalar bilan almashtiring, xonadan chiqayotganda chiroqlarni o‘chiring. Bundan tashqari, boshqa odamlarga qo‘shilib, jamoat transportidan foydalanish orqali ham qisqaroq masofalarga yetib borishingiz va shu bilan mashinangizdan chiqadigan zararni kamaytirishingiz mumkin. Bu qadamlar kichik bo‘lib tuyulishi mumkin, ammo bular sizning muammo haqidagi xabardorligingizni oshiradi va atrofingizdagilarni bundan xabardor bo‘lishga undaydi.

KREMNIY ASOSLI QUYOSH ELEEMTALRINI PYHTON DASTURI ORQALI P-N KONTAKT HOSIL QILISH.

R. Ravshanbek magistr (AndDU).

Quyosh energiyasi, yangi energiya manbai sifatida, global energiya muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Kremniy asosli quyosh elementlari, ulardan biri, yuqori samaradorligi bilan e'tiborni tortadi. Ushbu tadqiqotda p-n kontaktlarining kremniy asosli quyosh elementlaridagi o‘rni va energiya ishlab chiqarishga ta’siri o‘rganiladi.

p-n kontaktlar, yarimo‘tkazgichlarda eng muhim komponentlar hisoblanadi. Ular elektron va teshiklar uchun yo‘l ochib, energiya ishlab chiqarishda juda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, p-n kontaktlarining geometrik joylashuvi va materiallar xususiyatlari energiya ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda kremniy asosli quyosh elementining geometrik modeli yaratildi. p-n kontaktlarni ko‘rsatish uchun Python dasturlash tilida kod yozildi. Quyidagi kod yordamida quyosh elementining geometrik tuzilishi chizildi:

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
width = 1.0  # kenglik
```

```
height = 1.5  # balandlik
x = [0, width, width, 0, 0]
y = [0, 0, height, height, 0]
p_contact_x = [0, width / 2, width / 2, 0]
p_contact_y = [0, 0, height, height]
n_contact_x = [width / 2, width, width, width / 2]
n_contact_y = [0, 0, height, height]
plt.figure(figsize=(6, 8))
plt.fill(p_contact_x, p_contact_y, color='red', alpha=0.5, label='P Kontakt')
plt.fill(n_contact_x, n_contact_y, color='blue', alpha=0.5, label='N Kontakt')
plt.plot(x, y, color='orange', lw=2, label='Quyosh elementi')
plt.title('Kremniy asosli quyosh elementi (P-N kontaktlar)')
plt.xlabel('Kenglik')
plt.ylabel('Balandlik')  plt.xlim(-0.5, 1.5)
plt.ylim(-0.5, 2.0)
plt.axhline(0, color='black', lw=0.5)  plt.axvline(0, color='black', lw=0.5)
plt.grid()  plt.legend()  plt.show()
```

Yuqoridagi kod yordamida quyosh elementining geometrik tuzilishi grafikda holatda hosil qilishimiz mumkin.



Qizil rangda p kontakt, ko‘k rangda esa n kontakt ko‘rinadi. Bu chizma p-n kontaktlarining joylashishi va ularning energiya ishlab chiqarish jarayonidagi roli haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Olingan natijalar, p-n kontaktlarining energiya ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini ko‘rsatadi. p kontaktlaridagi yuqori samaradorlik energiya ishlab chiqarishda sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Kelajakda bu tadqiqotlar yanada rivojlantirilishi, yangi materiallar va texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish zarur. p-n kontaktlar kremniy asosli quyosh elementlarining asosiy komponentlaridir. Ular energiya ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari, p-n kontaktlarning energiya ishlab chiqarish

jarayonidagi ahamiyatini koʻrsatadi va kelajakda yangi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Python for Data Analysis – Wes McKinney
2. NumPy 1.5 – Ivan Irdis
3.Васильев А.Н., “Python на примерах. Практический курс по программированию”, Наука и техника, Санкт-Петербург, 2016, 235-243стр.
4. Gabor Szabo, “1000 Python Examples”, 2020, 140-165 pages
5. Sh.A. Mengliyev, O.A. Abdugʻaniev, S.Q. Shonazarov, D. Sh. Toʻrayev “Python dasturlash tili”, Termiz-2021

O‘ZBEKISTONDA LOGISTIKA VA TRANSPORT INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Usanov Abdulxakim katta oʻqituvchisi (TDMAU)
Avazov Obidjon talabasi (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda logistika va transport infratuzilmalarini rivojlantirish yoʻnalishlari yangicha ma’lumotlar bilan tanishtirib chiqilgan. Logistikani, transport infratuzilmalarini rivojlantirish va xalqaro aloqalarini mustahkamlash uchun bir qator koʻrsatmalar berilgan.

Kalit soʻzlar: logistika, transport infratuzilmalari, harakatlar strategiyasi, iqtisodiyot, yoʻl-transport, modernizatsiya, raqamli rivojlanish, innovatsion logistika

KIRISH

Oʻzbekistonda logistika va transport infratuzilmalarini rivojlantirish bir qator muhim yoʻnalishlarga asoslangan . Ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Transport infratuzilmalarini modernizatsiya qilish

• Temir yoʻl va avtomobil yoʻllari: Mavjud transport infratuzilmalarini yangilash va kengaytirish , ayniqsa temir yoʻl va avtomobil yoʻllarini.

• Logistika markazlari: Yangi logistika markazlar va transport terminallari qurish va modernizatsiya qilish.

2. Xalqaro transport yoʻlaklarini rivojlantirish

• Tranzit imkoniyatlari: Oʻzbekistonni tranzit mamlakat sifatida rivojlantirish, “Yevroosiyo” transport yoʻlagini kengaytirish.

• Hamkorlik va integratsiya: Mintaqaviy va xalqaro darajada transport yoʻlaklarini va logistika markazlari oʻrtasida hamkorlikni kuchaytirish.

3.Innovatsion texnologiyalarni joriy etish

• Raqamli transformatsiya: Smart logistika tizimlari, raqamli platformalar va innovatsion yechimlarni joriy etish.
• Al va IoT: Transport va logistika sohasida sun’iy intellekt va Internet of Things (IoT) texnologiyalardan foydalanish.

4.Transport xizmatlarini optimallashtirish

• Samaradorlikni oshirish: Mavjud transport xizmatlarni yanada samarali va qulay qilish.
• Ta’rif siyosati: Transport tariflarini takomillashtirish va narxlarni barqarorlashtirish.

5. Ekologik barqarorlikni ta’minlash

• Ekologik transport: Ekologik transport vositalarini rivojlantirish va ularni joriy etish.
• Atrof-muhitni muhofaza qilish: Transport faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan loyihalar.

Ushbu yo‘nalishlar O‘zbekistonning transport va logistika sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va xalqaro savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Jarayonlarni tashkil etishning logistik konsepsiyasini faqatgina logistika sohasida mutaxassislar tomonidangina amalga oshirib bo‘lmaydi. Jarayonlarni tizimli tashkil etish falsafasi biznesning tayanch falsafasi bo‘lishi lozim. Tijoratchilar, iqtisodchilar, turli larmoq menejerlari logistika konsepsiyasini tushunishlari va qabul qilishlari, jarayonlarni logistik tashkil etishning asosiy usullarini bilishlari hamda erishiladigan samarani ko‘zda tutadigan bo‘lishlari kerak. Shuning uchun ham bugungi kunda logistika sohasidagi keng qamrovdagi oliy ta’lim vazifasi nihoyatda muhim hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, transport va logistika klasterlar tizimida yuklarni tashishda raqamlashtirishdan, ya’ni axborot kommunikasion texnologiyadardan, innovatsion logistikadan foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Logistikani boshqarishning mohiyati va vazifalari. Tovarlar harakatini boshqarish tizimi eng kam xarajatlar bilan ko‘ngildagidek ko‘rsatish darajasiga erishishga xizmat qiladi. Bunda boshqaruv mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning aniq maqsadli ko‘rsatmalarini amalga oshiradi. Masalan, eng kam harajatlar bilan kerakli muddatda mahsulotni yetkazib berishni ta’ininlash, xizmat ko‘rsatishni tegishli darajada ushlab turish kabi ko‘rsatmalar bo‘lishi mumkin. Bunday holda boshqaruv, mahsulot islilab chiqarish va sotish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan barcha bo‘limlarni ma’lum darajada muvofiqlashtirishga yo‘naltiriladi. Tovarlar harakatini tashkil etishda marketing va ta’minot ma’lumotlari, ishlab chiqarish bo‘limlari, transport, ombor xo‘jaligi, ortish-tushirish

xizmati ishtirok etadi. Mazkur bo‘limlar ishida kelishmovchiliklar va ziddiyatlar yuzaga keladi. Boshqaruv tizimi ziddiyatlarini bartaraf etilishini va tovarlar harakatiga sharoit yaratilishini ta’minlovchi qarorlarni qabul qilishdadir. Logistikani boshqarish, boshqaruv vazifalari tizimi orqali amalga oshiriladi.

Logistik boshqaruvning vazifalari. Logistik boshqaruv vazifalari, logistik jarayon ishtirokchilari faoliyatini rejalashtirish va muvofiqlashtirish, olingan buyurtmalarni bajarish, olib borilayotgan ishlarni tartibga solish, transport yo‘laklarini rivojlantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy vazifasi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari duch keladigan tashqi savdo yuklarini tashishni rivojlantirishda mavjud muammolarning hal etilishiga bog‘liqdir.

Akademik V. Bartol’d ta’kidlaganidek, “Turkistonning kelajagi jahon savdosida unga qanday o‘rin tegishli bo‘lishi bilan belgilanadi. Uning savdo ahamiyati temir yo‘llari, quruqlik va dengizda savdo olib borilishining rivojlanishiga tamoman bog‘langandir”. Sobiq Sovet lttifoqi parchalanganidan so‘ng dengizga chiqish yo‘llariga ega bo‘lmagan mamlakatlarning soni 29 taga yetdi va O‘zbekiston dunyo okeanidan kamida ikki mamlakat hududi bilan ajratilgan davlatlardan bolgani bois, bu ro‘yxatdan alohida o‘rinni egalladi.

Mustaqillikka erishgunga qadar O‘zbekiston o‘zining tashqi savdo aloqalarini uch yo‘nalish — Il’ichevsk shahridagi (Qora dengizga chiquvchi), Sankt-Peterburgdagi (Boltiq dengiziga chiquvchi), Vladivostokdagi (Uzoq Sharqqa chiquvchi) dengiz portlari orqali amalga oshirar edi. Respublikadan mazkur portlargacha bolgan masofa 3000, 4300 va 8000 km.ni tashkil etgan va bu holat yuklarni tashishni nihoyatda qimmatlashtirgan. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining faol chora-tadbirlari hamda tegishli vazirlik va tashkilotlarning tashqi savdo yuklarini tashishga moljallangan muqobil transport yo‘laklarini izlash va samarali foydalanishga doir muvofiqlashtirilgan ishi natijasida, xalqaro transport yo‘laklarining keng tarmog‘i yaratildi va takomillashib borilmoqda.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan radikal iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati, ko‘p jihatdan, muomala sohasining samarali faoliyati, ishlab chiqarish vositalari bilan ulgurji savdoning keng rivojlanishi, ishlab chiqarish texnikasiga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi to‘g‘ri aloqalar, hududlarning xalq xo‘jalik tarmoqlari, aksiyadorlar birlashmalari, turli mulk shakllaridagi ishlab chiqarish va tijorat sub’yektlariga xizmat ko‘rsatuvchi transportning sifati bilan ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Bu maqsadlarga erishish uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o‘rganish bilan birga vatanimizda logistika sohasida bozor iqtisodiyotida turli mulkchilik shakllarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish munosabatlari sohasida mahsulot harakatlarini

optimallashtirishning ilg‘or yo‘nalishlaridan foydalanish ham ma’lum bir ahamiyatga ega bo‘ladi. Logistika bo‘yicha mutaxassislar moddiy-texnika ta’minoti, transport va tovar harakati haqidagi axborotlarni yagona tizimga integratsiyalashuvini ta’minlashga intilishmoqda. Bu esa ushbu sohalarning har birini ish faoliyatining samarasi va tarmoqlararo samarasining ortishiga olib kelishi kerak. Chet ellarda nazariya sifatida logistika mustaqil fan bo‘lib ajralib, oliy o‘quv yurtlarida, izlanishlar sohasi hamda ilmiy ishlab chiqarishda o‘rganilmoqda. Ko‘pgina oliy o‘quv yurtlarida boshqaruv xodimlarini tayyorlash uchun informatika va marketing bilan birga “logistika” mutaxassisligi mavjud va bitiruvchilarga mos mutaxassislik berilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kengaygan ishlab chiqarish va muomala sohalari uchun mutaxassis tayyorlashdagi o‘quv jarayonlarini tashkil qilishga ta’sir o‘tkazdi.

“Tijorat logistikasi” - tijorat faoliyati sohasidagi logistik faoliyat. Ammo “tijorat” bizning ongimizga keng tarqalgan, bu katta darajadagi savdo, savdo muammolari majmuasidir. Savdo sohasi - tijorat keng xaridorlar ommasi bilan bevosita munosabat o‘rnatish, faqat bizda emas, balki g‘arbda ham ishlab chiqarishdan mohirona ajratilgan bo‘lib, buning sababi va oqibatlari turlicha. Bu holda logistikadagi “tijorat” sifat mazmuni bo‘yicha ko‘proq mos kelishi mumkin. Masalan, Savdo institutining iqtisodiyot fakultetiga, qaysiki faqat savdo-tijorat sohalari uchun iqtisodchi tijoratchilar o‘rtasidagi dallollik muomalalarini amalga oshirish uchun tayyorlanadi. Shunga qaramay ishlab chiqarish-texnik maqsadlarga atalgan mahsulotni realizatsiya qilish va sotish, ishlab chiqarish va qurilish sohasida moddiy texnikaning iste’mol oqimi hajmining 90 % ini tashkil etib kelish bilan, g‘arbda va zamonaviy sharoitlarda bizda ham ishlab chiqaruvchilarning o‘z vazifalari va tijorat faoliyatlarining asosi bo‘lib qolmoqda. Bunday hollarda ishlab chiqarish, ta’minot hamda sotish bo‘yicha tijorat faoliyatini ishlab chiqarish - tijorat faoliyati bu sohadagi logistikani “ishlab chiqarish-tijorat logistikasi”, deb nomlash mantiqlidir.

Unda bu soha mutaxassislarini tayyorlash shubhasiz iqtisodiyot va moliya universitetining vazifasiga kiradi. Bunday o‘qilayotgan kurs “tijorat logistikasi”ga xuddi shunday mazmunni beradi. Mazkur kursning maqsadi, tijorat (ishbilarmonlik) logistikasi asoslarini bizda ham, chet ellarda ham bu yo‘nalishni tashkil qilish va iqtisodiy faoliyatning nazariy va amaliy aspektlari rivojlanishi hamda rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim o‘quv yurtlarida maxsus fan sifatida o‘qitish amaliyotini o‘sha davrning haqiqiy axborotlar imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘rganishdan iborat.

Bizning mamlakatda 1991 yilgacha aniq logistikani ilmiy ifodalashda hamda logistika faoliyatini tashkil etishni o‘qitish amaliyotining yo‘qligi, shu bilan mavjud chet el axborotlarini o‘rganish jarayonida izlanishlarni amalga oshirib, chet ellarning

logistika va vatanimizning xalq xo‘jaligi faoliyatini tashkil qilish - iqtisodiy sohalari dinamikasi tezda o‘zgaruvchan bozorning ishlab-chiqarish tijorat sharoitlariga hamda barcha muammolarni tamoman yangicha konseptual holda qo‘yilishi va o‘rganilishi lozim.

XULOSA

Logistikani fan sifatida, bilimlar tizimi, tamoyillari va usullari sifatida bilmaslik xodimning kasbiy kamchiliklarini tavsiflaydi, bu esa sub’yektning ishida (biznesda) ma’lum bir harajatlarning qo‘shimcha sarflanishiga olib keladi. Shuning uchun bozor iqtisodiyotining markaziy ishtirokchisi - tijoratchini tayyorlashda logistikani o‘qitish ahamiyatli o‘rin egallaydi. Logistikani bilish iqtisodchilar uchun muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyatini olib borishga asos sifatida zarurdir.

Adabiyotlar

1.Bo‘tayev.Sh.A, Sidiqnazarov.Q.M, Murodov.A.S, Qo‘ziyev.A.O‘. “Logistika” (yetkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish) -Toshkent, 2012

2.D.M. Umarov. M.A. Bo‘ronov. “Logistika”. Cho‘lpon-2016.

3.A.Qo‘ziyev, S.To‘lashev “Transport tarmog‘ini rivojlantirish, yuk oqimlarini samarali o‘zlashtirish masalasining modeli // Jurnal TAYI XABARNOMASI – Toshkent, 2016

4.https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/logistics.html

OLIY O‘QUV YURTLARIDA TA'LIM JARAYONING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ELEKTRON DARSLIKNING AHAMIYATI

Raximov S.I., o‘qituvchi (UrDU)
Xayitov A.N., (UrDU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda elektron darslikning roli, elektron darslik turlari va ularni yaratish tamoyillari va talablari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta'lim, elektron darslik, o‘quv qo‘llanma, taqdimot, kompyuter, muloqat, operatsion tizim, dasturlash tili, grafika, multimedia elementlari.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olibgina qolmay, davlat, fan, texnika va iqtisodiyotning barcha sohalar taraqqiyotiga o‘z ta'sirini ko‘rsatmoqda.

Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini birinchi navbatda aks ettiradigan eng muhim sohalardan biri – bu ta'lim sohasi hisoblanib, aynan ta'lim insoniyatning

kelajagini ta'minlaydigan omil bo‘lib, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi, ilgari boshlovchi kuchlardan biridir.

Ma'lumki, bosma nashrlar asosida yaratilgan an'anaviy darsliklar ta'limga axborot texnologiyalarini tatbiq etish bilan bog‘liq axborotlashtirish maqsadlariga erishish uchun etarli bo‘lmay qoldi. Shu bois yangi elektron resurslarni yaratish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ta'limni axborotlashtirishning dolzarb muammosiga aylandi. Bu borada elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta'lim jarayonida qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi [2].

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning bosma adabiyotlar bilan bir qatorda elektron dasturlar, test tizimlari, ma'lumotlar bazalari va boshqa elektron resurslar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Barcha elektron nashrlar talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda tayanch vazifasini bajarishi mumkin bo‘lishiga qaramasdan, bular ichida multimedialilar eng samarali hisoblanadi. Talabalar mustaqil ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ko‘p jihatdan material mazmuni va avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlaridan foydalanish usuli bilan metodik xarakterdagi vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishiga bog‘liq.

Shuning uchun ta'limda o‘quv dasturi mazmuni bo‘yicha yaratilgan dasturiy-uslubiy majmualar ko‘rinishidagi avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizimlar tarkibiga turli elektron kitoblar, o‘tilgan materialni takrorlash yoki bilimlarni tizimlashtirish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturlar, masofadagi axborot resurslariga murojaat qilish dasturlari, bilimlarni nazorat qilish, malaka va ko‘nikmalarni baholashning avtomatlashtirilgan tizimlari va boshqalar kiritilishi mumkin.



1-rasm. Elektron darslik

Elektron darslik an'anaviy darsliklarga qaraganda, o‘quv materiallarini namoyish qilish uchun keng imkoniyatlar yaratibgina qolmay balki o‘quvchilarning ko‘proq mustaqil ishlashlari uchun mo‘ljallangan didaktik funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o‘quv jarayoniga qo‘yilgan barcha talablarga javob berishi kerak.

Shunday ekan, elektron darsliklarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ularning pedagogik tomonlaridan tashqari, psixologik va gigienik tomonlarini ham e'tiborga olish, talaba va o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birgalikda ularning o‘quv jarayonda faol ishtirokini ta'minlashi lozim.

Elektron darsliklar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish, fanning o‘quv materiallarini so‘nggi yutuqlari asosida tezkor yangilab borish afzalligini yaratib, an'anaviy darslikdan elektron darslikning ustunligi uning «intellektual» kuchga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, ma'lumotlarni o‘z vaqtida va kerakli joyda taqdim etish imkoniyatiga ega ekanligida yaqqol seziladi.

Elektron darslik ma'lum bir predmet bo‘yicha barcha tegishli o‘quv materiallarini o‘zida ifoda etib, uning intellektual darajada bo‘lishi oddiy darslikka nisbatan bir qator afzalliklarni tug‘diradi. Masalan, ma'lumotlarni tez izlab topish, mavzularni o‘zlashtirish darajasini multimedia va grafika elementlari yordamida amalga oshirish va hokazo [1] .

Har bir elektron darslik alohida ko‘rinishga ega bo‘lib va ma'lum bir standart talabiga javob berishi lozim. Elektron darslik kompyuterli o‘quv uslubini qo‘llashga va fanga oid o‘quv materialining har tomonlama samaradorligi, o‘zlashtirilishiga asoslangan o‘quv adabiyoti bo‘lib, 1-ilovada turlari keltirilgan.

1-ilova



Barcha toifadagi elektron darsliklar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning mustaqil bilim olishlarini taminlash, masofadan o‘qitishni tashkil qilish imkoniyatlarni yaratadi.

Elektron darslikdan foydalanishdan asosiy maqsad – yangi axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali, ta'lim uslubini shakllantirish va ta'lim jarayonining samaradorligi hamda unumdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o‘quv manbalari, elektron-o‘quv darsliklarini keng qo‘llash, ularning

ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan oʻqitish usullarini amalda joriy etish iborat.

Yuqorida toʻxtalib oʻtilgan pedagogik maqsadlarga erishish uchun elektron darslik ma'lum didaktik, pedagogik va psixologik talablarga javob berishi kerak.

Didaktik talablarga ilmiylik, oʻzlashtirishning yengilligi, muammoni qoʻyish va har tomonlama asosli tarzda bilim olishlik, oʻqish jarayonida oʻquvchining faol va ongli ishtiroki, bilim olishning tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, bilimni mustahkam oʻzlashtirishning ta'minlanishi, ta'lim tizimida bilimni oʻzlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, mutaxassis-xodim va tarbiyalovchilar vazifalarining yaxlitligi, oʻrganuvchi uchun oʻqish mustaqil holda boʻlishining ta'minlanishi, oʻquv materialini taqdim etishda tizimli yondashishlar kiradi.

Psixologik talablarga elektron darslikning estetik, gigienik va tibbiy-psixologik tomonlarini aks ettiruvchi talablar kiradi. Buning sababi, inson organizmi elektron koʻrinishdagi ma'lumotlarni qabul qilishning oʻziga xos xususiyatlarini talab qiladi. Shuning uchun elektron darslikning matni oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlishi kerak. Oʻquvchilarning ma'lumotlarni tez qabul qilishida elektron darslikdagi bunday xususiyatlar, ya'ni, oʻchib-yonish, rangni ajratib koʻrsatish, tagiga chizib qoʻyish, ovoz kabi vositalar kuchli ta'sir etadi.

Bu muammolarni yechish uchun berilayotgan ma'lumotlarning sifatini oshirish va elektron darslikda bir qator imkoniyatlar yaratish lozimki, ular yordamida koʻpgina parametrlarni oʻzgartirish mumkin boʻlsin [3].

Ta'lim jarayonida oʻllaniluvchi elektron darslik qaysi darajaga taalluqli boʻlishidan qat'i nazar, uning aratilishi asosiy tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Elektron darslik yaratishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ✓ elektron darsliklar mualliflari, elektron darsliklarni oʻquv jarayoniga tatbiq qiluvchi professor-oʻqituvchilar, mutaxassis xodimlarni moddiy ragʻbatlantirish mexanizmlarini yaratish;
- ✓ elektron darsliklarni standartlash va sertifikatsiyalashning tashkiliy-huquqiy asoslarini barpo etish;
- ✓ eng yaxshi elektron darsliklarni yaratish va qoʻllash boʻyicha tanlovlar uyushtirish, mavjud muammolar boʻyicha ilmiy-amaliy seminar, konferensiya va boshqa anjumanlar uyushtirish;
- ✓ oliy oʻquv yurtlarida va oliy oʻquv yurtlariaro elektron darsliklar jamgʻarma kutubxonasini barpo qilish;
- ✓ elektron darsliklarni yaratishda rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish [5].

O‘quv jarayonida animatsiyalardan foydalanishda foydalanuvchilarning materiallarni tez o‘zlashtirib olishlari uchun sodda va pedtexnalogiyalar qo‘llash orqali tayyorlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Elektron darslikning samaradorligi talabalarning kompyuter bilan o‘zaro muloqotini hisobga olish asosida yaratiladi, o‘quv materiallarini taqdim etish orqali, axborotni qabul qiluvchining mavzu yuzasidan bilimini oshiradi, fikrlash va tasavvurini rivojlantirib, fanni o‘zlashtirishga va mustahkamlashga katta yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, elektron darsliklar pedagog xodimlar va o‘quvchitalabalar uchun keng miqyosda imkoniyatlar yaratadi. Elektron darsliklar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish o‘quv materiallarini fanning so‘nggi yutuqlari asosida tezkor tarzda yangilab borish va shunga o‘xshash bir qator afzalliklar tug‘diradi. Ta'limda o‘qitishning elektron vositalaridan foydalanish natijasida o‘qitish jarayonining individuallashuvi sodir bo‘ladi. Har bir talaba o‘quv materialini reja asosida, o‘z individual qobiliyatlariga tayanib o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu yaxshi o‘zlashtiradigan talabalarning sust o‘zlashtiradigan talabalarga nisbatan ancha ilgarilab borishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Taylaqov N.I. Elektron darslik yaratishga qo‘yiladigan talablar. «Xalq ta'limi» jurnali, 2005, 2-son. 17-20 b.
2. Taylaqov N.I., Usmonov M. Uzluksiz ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. «Uzluksiz ta'lim» jurnali, 2013,5-son. 67-70 b.
3. Usmonov M. Interaktiv elektron o‘quv kurslar – o‘qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. «Xalq ta'limi» jurnali, 2011, 6-son. 22-23 b.
4. Djuraev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. -T.: «Sano-standart», 2010. – 87 b.
5. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. – T.: «Fan», 2007.
6. Begimqulov U.SH. va b. Ta'limda axborot texnologiyalari: metodik qo‘llanma.T.: «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi», 2010.

YO‘L-TRANSPORT HODISALARI HAQIDA O‘Z VAQTIDA MA’LUMOT BERUVCHI INTELLEKTUAL QURILMA

Usanov Abdulhakim, katta o‘qituvchi (TDMAU)
Itolmasov Hasan, talaba(TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi paytda eng dolzarb muammolardan biri transport vositalari harakatlanishi davomida uchrayotgan yo‘l-transport hodisalarining , o‘z vaqtida harakatlanish xavfsizligi hamda davolash muasasalari

xodimlariga axborotni yetkazish uchun xizmat qiladigan zamonaviy intelektual sensor qurilma haqida ,uning o‘rnatilishi va ishlash tizimi haqida ma’lumot berilgan

Kalit so‘zlar: Navigatsiya , tizimlari radioaloq, masofadan turib kuzatish , sensor , Crash Sensor , ikki diapazonli GPS-GSM antenasi , elektron qurilma , mikrafon , GPS kuzatuv qurilmalari .

Yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘lgandan keyin qutqaruv guruhlari xavfli vaziyatlarda yordam ko‘rsatish uchun ,hodisa joyinii aniqlashda hamda uning oqibatlarini bartaraf etishh uchun ko‘pincha sun’iy yo‘ldoshga asoslangan nevigatsiya tizimlari va radioaloqadan foydalanadilar. Signalni faollashtirish haydovchi tomonidan qo‘lda signal tugmachasini bosish orqali yoki avtomatik ravishda (Crash Sensor) sensori orqali xavfsizlik yostig‘i ochilishi natijasida amalga oshiriladi.



Crash Sensor qurilmasi

Bu qurilmadan jamoat transportlarida ham unumli foydalanish tavsiya etiladi. Qurilma tugmasi haydovchining yonida joylashgan bo‘lib , u yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lganda , hodisa sodir bo‘lgan joyni bildirishi hamda jarohatlanganlarga yordan chaqirishi mumkin .

Bundan tashqari ushbu tugmalar , videokameralar bilan birga jamoat transporti bekatlariga ham o‘rnatilishi mumkin. Bekatdagi yo‘lovchi ham ushbu qurilma tugmachasini bosishi orqali yo‘l transport hodisasi haqida harakatlanish xavfsizligi xodimlariga axborot bera oladi .

Buning uchun har bir haydovchi transport vositasiga ikki dipazonli GPS-GSM antennasi va oddiy elektron antennadan va elektron qurilmadan iborat

,,Erkin qo‘llar “ to‘plamini o‘rnatishi lozim. GSM antennasi GPS kuzatuvchisi va uyali aloqa minoralari o‘rtasidagi aloqani amalga oshirish uchun ishlatiladi. GSM xizmati mintaqalar foydalanadigan tenalogiyaga qarab bir qancha radiochastotalarni o‘z ichiga oladi. Qurilma transport vositasi ichiga yoki tashqarisiga istalgan joyga qulay qilib joylashtirish mumkin. GSP kuzatuv qurilmalari butun dunyo bo‘ylab ishlaydi.





GPS-GSM antennasi

Ushbu electron qurilma zamonaviy avtomobillarni himoya qilish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lish jarayonini aniqroq aniqlash uchun ,ma’lumotlarni saqlaydi. Ular bir nechta sensorlar bilan jihozlangan bo‘lib ,ma’lumotlar yozish moslamasiga ulangan bo‘ladi. Hodisa sodir bo‘lgan taqdirda ,sodir bo‘lganidan taxminan 30 soniya oldin va hodisa sodr bo‘lganidan keyin taxminan 15 soniya davom etgan yozuv saqlanadi . Ya’ni , qurilmada avtomobil tezligi , bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishlardagi tezlashuv , transport vositasining yo‘nalishi qayd etiladi .

Bundan tashqari transport vositasining ish rejimi , uning tezligi, boshqarish tizimi holati va boshqa ko‘rsatgichlar holatini yozib oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda yol-transport tizimlarida intellektual qurilmalardan foydalanish, mamlakat va shaxarlar uchun iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishga katta yordam beardi. Shuningdek transport infratuzilmasi va xizmatlarnin yanada barqaror xavfsiz va samarali qilishda xizmat qiladi.

Shu bilan birga yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lish jarayonini kamaytirishga, transport vositalarining shkastlanish darajasini va jabrlanuvchilarning holati haqida qutqaruv tashkilotlariga o‘z vaqtida axborot berishni ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. С. В. Жанказиев. Интеллектуальные транспортные системы. Учебное пособие. Москва МАДИ 2016-51 стр.
2. А.Б.Николаев С.В.Алексахин Автоматизированные системы обработки информации и управления на автомобилном транспорте. Учебник М.А. Акедемия 2003 224 стр.
3. Asier Perallos . Intelligent transport systems: Technologist and Applications. USA John Wiley Sons 2015-368 pages.
4. Mike McDonald . Intelligent Transport Systems in Europe: Opportunities for Future Research . World Scientific Publishing Company 2006-338 pages.

BARMOQLI-HALQASIMON XASKASHNING BARMOQ UZUNLIGI ANIQLASH

Mamatov F.M., (QarMI)
Karimov R.R., (TDMAU)
Musurmonov I.E. (TDMAU)

Annotatsiya. *Maqolada boshoqli ekinlar donsiz qismini sifatli yig‘ib olish hajmini oshirishda somon yig‘uvchi barmoqli halqasimon xaskashning barmoq uzunligini aniqlash hisobiga amalga oshirildi.*

Аннотация.

В статье повышение качества уборки незерновой части зерновых культур осуществлялось путем определения длины пальца кольцеобразной граблы с соломосборником.

Abstract.In the article, improving the quality of harvesting the non-grain part of grain crops was carried out by determining the length of the finger of a ring-shaped rake with a straw collector

Xaskashli o‘rgichdagi o‘rgichning chap qismiga nisbatan burchak ostida xaskash o‘rnatildi va ularning orasiga yarim doirasimon burish elementi joylashtirildi hamda rostlovchi element sifatida xaskash ramasidan foydalanilgan, ya’ni yarim doirasimon burish elementi o‘zgarish imkoniyatida sozlanadi hamda boltlar yordamida mahkamlanadi. Yarim doirasimon burish elementining uzunligi bo‘yicha teshiklar hosil qilingan. Bunda o‘rgich harakat yo‘nalishi bo‘yicha dala jo‘yagiga nisbatan o‘rish apparati burchak ostida o‘rnatildi hamda u pichoq, yassi rotor va harakat uzatish mexanizmlaridan tuzilgan.

Shuningdek, xaskash ramasi koʻndalang kesim yuziga disk oʻrnatilgan hamda barmoqli halqa uni rostlovchi element sifatida foydalanilgan, ya'ni disk oʻzgarish imkoniyatida sozlanadi hamda boltlar yordamida mahkamlanadi. Diskning aylana uzunligi boʻyicha teshiklar hosil qilingan. Bunda dala joʻyagining sirtiga koʻra, qiyshiq - qiya koʻrinishidagi burchak ostida barmoqli halqasimon xaskash oʻrnatildi hamda u rama, barmoq, halqa, tayanch halqa, ichki barmoq, ichki tayanch halqa va ichki halqalardan tuzilgan.

Xaskashli oʻrgich oʻrish apparatiga burchak ostida xaskash ramasi oʻrnatilgan, ular orasi yarim doirasimon rostlagich bilan ta'minlangan, xaskash ramasi rostlovchi element sifatida foydalanildi, yarim doirasimon rostlagichga boltlar yordamida mahkamlangan va rostlash imkoniyatida sozlangan, uni uzunligi boʻyicha teshiklar hosil qilingan.

Shuningdek, xaskash ramasi koʻndalang koʻrinishda disk bilan ta'minlangan, rostlovchi element sifatida disk ga oʻrnatilgan xaskash barmoqli tayanch xalqasidan foydalanildi, disk qoʻshimcha boltlar yordamida mahkamlangan va sozlash imkoniyatida mahkamlangan. Unga radial yoʻnalishda qoʻshimcha teshiklar hosil qilingan. Bunda dala joʻyagining sirtida oʻrgichli xaskash xarakat yoʻnalishiga koʻra barmoq tayanch xalqa oʻrnatildi, unda xar bir xalqa barmoq , halqa, tayanch halqa, ichki barmoq, ichki tayanch halqa va ichki halqalardan tuzilgan.

Xaskashli oʻrgich quyidagicha ishlaydi.

Xaskashli oʻrgich dala joʻyaklaridan xarakatlanishida oʻrish apparati pichoqlar bilan zarba berib somon oʻrish balandligini qayta oʻrib barmoqlar oʻrish jarayonini hosil qildi natijada ularda kesilish yuz berdi. Xaskash barmogʻi harakat yoʻnalishi tekisligi bilan bitta tekislikda joylashdi va somonni uloqtirilishini osonlashtirdi. Xar bir xalqa prujina bilan ta'minlandi, u yordamida xaskash barmoqlari ortiqcha yuklanishini dalada kamaytirdi, xalqani dala joʻyaklarida aylanib xarakatlanishi uchun ilashish kuchi aylanma xarakatni hosil qildi.

Uyumlovchi barmoqli- halqasimon ishchi qismli xaskash halqasining diametri 0,4 m dan 0,8 m gacha har 0,1 m interval oraliqda eksperimental tadqiqot oʻtkazildi va natijasi quyida keltirildi.

Barmoqli - halqasimon ishchi qismli xaskash ishchi qismi diametrining oʻzgarishidan toʻliq ifloslanishi 1,8 % ga oshadi va uyumning ifloslanishi 8,8 % ga kamayadi. Halqa diametriga asosan, ishchi qismdagi barmoqning uzunligi eksperimental tadqiqotda oʻrganiladi.

Somon uyumlovchi barmoqli - halqasimon ishchi qismli barmoqning uzunligi 0,5 m dan 0,9 m gacha har 0,1 m interval oraliqda eksperimental tadqiqot oʻtkazildi va natijasi quyida keltirildi Xaskash ishchi qism barmogʻining l_{bx} uzunligining oʻzgarishidan toʻliq uyumlanish 5,3 % ga va uyumning ifloslanishi esa 1,5 % ga oshadi. Bunga koʻra, ishchi qismdagi barmoqning shakli eksperimental tadqiqotda

oʻrganildi.Dastlabki tajribani oʻtkazishda maʼlum boʻldiki,ish sifatiga ishchi tajriba quyidagi oʻlchamlar asosida oʻtkazildi: barmoqning oʻzunligi – 0,7 m, ishchi qism halqasining diametrlari mos ravishda 0,6 hamda 0,8 m teng.

Tajribalarni oʻtkazish davomida shu narsa maʼlum boʻldiki, uyumlanish sifatiga barmoq shakli va ishchi qismning diametri taʼsir qiladi. Ishchi qismning diametri oshishi bilan toʻliq uyumlanish barcha barmoqlarning shaklida kamayadi Demak, ishchi qismning diametri 0,9 m dan 1,5 m gacha oshganda toʻliq uyumlanish 6,5 % kamayadi va uyumning ifloslanishi 4,6 % ga oshadi.Bunda toʻliq uyumlanish paraboloik koʻrinishda kamayadi, shuningdek, uyumning ifloslanishi toʻgʻri chiziqli koʻrinishda oshdi

1-barmoqning egilishi orqali yoʻnalgan;

2-barmoq toʻgʻri chiziqli;

3-barmoqning egilishi oldinga yoʻnalgan

Traktor orqasida oʻrnatilgan uch nuqtali ulagich (navesnoy)ga ulanib somon poyasini joʻyakdan uyumlab yigʻishtirishga moʻljallangan va shu bilan birga oʻrilgan oʻtlarni quritishda agʻdarib quritish va uymlab yigʻish uchun ishlatiladi. Ular har qanday turdagi orqada uch nuqtali ulagich bilan jihozlangan traktor bilan birgalikda harakatlanad. Operator oʻrindigʻida oʻtirgan holda ulangan blokni boshqaradi. Pastga tushirilgan barmoq tishlari bilan harakatlanib, somon va oʻtlarni uyumlab bir joyga yigʻadi.

Uch nuqtali ulagich ustundagi rostlagich xaskash ramasini koʻtarilgan transport va ishchi holatida ushlab turish uchun xizmat qiladi. Ramadagi rostlagich ishlash paytida xaskash ramasini gorizontal holatda ushlab turadi. Somon va oʻtlarni uyumlab yigish paytida, dala topografiyasiga rioya qilish uchun uch nuqtali ulagich bilan xaskash ramasini trnsport holatida qattiq trgak oʻrniga prujinali tortgich bilan ulab ishatish kerak. Xalqasimon-barmoqli xaskash ramasi balandligini rostlash uchun gʻildirak oʻnatildi.

Xulosa

Takomillashgan barmoqli-xalqasimon xaskashning konstruksiyasi ishlab chiqildi, ishchi organ diametri 1,4-2,8 m, xaskashdagi halqalar soni 2-4 dona, xalqaning aylanish tezligi orasidagiburchak 34°, xaskashning burchak tezligi 0,9-1,9 r/sek, qamrash kengligi 0,9 m, Barmoqning uzunligi 0,2-03 m nazariy va tadqiqot yoʻli bilan aniqlandi.

Adabiyotlar

1. .Mamatov F.M., Karimov R.R., Karshiev F.U. Somon ajratgichning baʼzi oʻlchamlarini asoslash// OʻzA Ilm-fan boʻlimi jurnali.Toshkent. 2022. – №7 (33). – B.222-228.

2. Mamatov F.M., Qarshiev F.U.,Gʻaybullaev B.SH, Karimov R.R.Somon maydalagich qurilmasining oʻlchamlari va ish rejimini asoslash.//”Yuqori samarali

qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnik vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy - texnik konfirentsiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. QXMITI.Toshkent.2022.-B.296-300.

3. .Mamatov F. M., Karimov R. R., Gappparov Sh. H., Musurmonov I.E.Study of fhe parameters of the cone-shaped working body straw chopper.//

Annual international snientific conference on Agricultural Engineering and Green Infrastructioture Solutions (AEGIS-2022)./National Research University “Tashkent institute of Irrgation and Agricultural Mechanization Engineers”(NRU “TIIAME”). Tashkent.2022. -pp 31-37

PLUG KORPUSI ISHLOV BERAYOTGAN TUPROQNING SOLISHTIRMA QARSHILIGINI ANIQLASH

S.Majitov, Assistent,
A.Boboyev, talaba (TDMAU)

Sarflanadigan energiya miqdori (kVt), birinchi navbatda muayyan tuproq sharoitida ishlayotgan plugning sudrashga qarshiligi (R) hamda, agregatlash tezligi V ga bog‘liq. Plug energiya tejamkorligiga erishish uchun, uning ishchi qismlarining parametrlari ishlov berilayotgan tuproq xossalariga mos tanlangan bo‘lishi darkor. Energiya tejamkorlikka erishish uchun plugni sudrashga qarshiligining mohiyatini bilish kerak bo‘ladi.

Plugning sudrashga qarshiligini iborasi bilan hisoblab aniqlash mumkin:

$$P=q\alpha bn \quad (1)$$

bu yerda: α-yerga ishlov berish chuqurligi, sm;

b-korpus qamrov kengligi, sm;

n-plugdagi korpuslar soni

q-plugning solishtirma qarshiligi, n/sm^2 .

Plugning solishtirma qarshiligi q miqdori α*b o‘lchamdagi tuproq qatlamining har bir sm^2 yuzasiga ishlov berishda sarflanadigan kuch (H) miqdorini bildiradi. q – ning miqdorini aniqlash uchun dalada plug dinamometrlanib P kuchi, amaldagi α va b o‘lchanib, q= P/abn, n/sm^2 ko‘rinishda topiladi.

q – ning miqdori birinchi navbatda tuproq xossalari (tarkibi, namligi, qattiqligi)ga, ya’ni tuproqning solishtirma qarshiligi K ga hamda plug parametrlari (korpus ishchi sirtini shakli va jilvirlanganligiga, tirak taxta holatiga, g‘ildirakning tuzilishiga, plug og‘irligiga, traktorga to‘g‘ri ulanganligiga va b.)ga bog‘liqdir.

Mavzuni chuqurroq anglash uchun ishlayotgan korpusga tuproq tamonidan ta’sir qiladigan kuchlar sxemasini o‘rganish kerak (5-rasm). Vertikal ZOX tekisligida egrilik darajasi uzluksiz o‘zgaradigan murakkab shakldagi korpus

sirtining har bir nuqtasiga ta’sir qiladigan elementar mikroqarshiliklarning yo‘nalishlari turlicha bo‘lib, ularni yagona fazoviy teng ta’sir etuvchiga aniq keltirib bo‘lmaydi. Tajribalar o‘tkazish hisobiga olimlar mikroqarshiliklarning gorizontal XOY, bo‘ylama vertikal ZOX, ko‘ndalang vertikal ZOY tekisliklardagi proeksiyalarining yig‘indisi bo‘lgan R_{zx}, R_{zy} va R_{zy} lar ta’sir qiladigan joyi, miqdori va yo‘nalishlarini aniqlashganligini o‘qituvchi talabalarga tushuntiradi. 1-a rasmdagidek ZOX tekisligida madaniy korpusga teng ta’sir etuvchi R_{zx} kuchi ishlov berish chuqurligini taxminan o‘rtasida ($\rho \approx 0{,}5\alpha$) $\psi \approx \pm 12^0$ burchagi ostida ta’sir qilishi aniqlangan. R_{zx} vektorini OX va OZ o‘qlariga proeksiyalari bo‘lgan R_x va R_z kuchlarini mohiyatini o‘qituvchi talabalarga o‘rgatadi.

R_z kuchi, ya’ni tuproq qatlamini bosimi korpusni pastka tushishiga, ishlov berish chuqurligini har doim oshirishga majburlaydi. Shu sababli, korpusning yerga botishini ma’lum *a* chuqurligida cheklab turish uchun plugga tayanch g‘ildiragi o‘rnatiladi.

R_x kuchi esa tuproq palaxsasini ag‘darayotib deformatsiyalash uchun korpusni sudrashga qarshiligini bildiradi. R_x yo‘nalishi doimo gorizontal tekislikda bo‘ladi. Maxsus dinamometrik plugda korpusning R_x qarshiligini gorizontal va shudgor devoriga parallel yo‘nalishda o‘lchash imkoni paydo bo‘ladi.



1-rasm. Ishlayotgan korpusga vertikal ZOX (a) va XOY tekisliklarda ta’sir qiladigan kuchlar sxemasi

Gorizontal tekislikda korpusga uning ishchi sirtiga ko‘rsatiladigan mikroqarshiliklarning gorizontal proeksiyalarining teng ta’sir etuvchisi R_{xu} ta’sir etadi.

R_{xu} kuchining ta’sir chizig‘i davomi tirak taxtani uchratadigan bo‘lishi lozim, aks holda u tirak taxtaning oxiriga nisbatan korpusni soat millari yo‘nalishida yon tomonga burilishga majbur qiladi. YA’ni korpus γ_0 sxemada burchagi yo‘q. X_u bilan qamrov kengligi b ni kamaytirishga intilgan holda ishlaydigan bo‘ladi. Natijada,

korpus ishchi sirtini shakli go‘yoki o‘zgargandek bo‘lib, palaxsani kerakli darajada ag‘dara olmaydi, deformatsiyalamaydi.

R_{xu} kuchini OX va OY o‘qlariga tushirilgan proeksiyalari R_u va R_x ni beradi. R_u kuchi korpusni haydalmagan dala tomonga surishga intiladi. Natijada, korpusni shudgor devoriga qisilib, sirpanib yurishiga majbur etadi. R_u normal bosimi tirak taxtaning ilgarilanib sirpanib yurishiga qarshilik ko‘rsatadigan ishqalanish kuchi $F_x=f\ R_y$ ni paydo qiladi. Bu yerdagi R_x vertikal tekislikdagi R_x ning o‘zi bo‘lib, ular o‘zaro tengdir. R_x kuchini miqdori albatta ishlov berilayotgan palaxsa ko‘ndalang kesimini yuzasi (a*b) bilan tuproqning xossalarini ifodalovchi uning shudgorlashdagi solishtirma qarshiligi k ga bog‘liq bo‘lganligi sababli R_x=kab deb aniqlash lozim. Solishtirma qarshilik k ni aniqlash uchun ishlayotgan korpusni sudrash uchun ko‘rsatiladigan qarshilik kuchi R_x ni o‘lchab, k= R_x/ab (N/sm^2 o‘lchov birligida) topish mumkin. Tabiiyki, har xil tuproqqa ishlov berishda k ham turli miqdorda bo‘ladi. Tuproqning shudgorlashdagi solishtirma qarshiligi buldozer pichog‘i bilan tuproq qirindisini olishdagi, solishtirma qarshiligidan boshqa miqdorda bo‘ladi. R_x kuchini dinamometr bilan o‘lchashda korpus to‘g‘ri yo‘nalishda (tirak taxtalarga deyarli parallel holatda) bir xil chuqurlikda yurishni ta’minlash talab etiladi.

Plugni sudrashda ko‘rsatiladigan qarshilik kuchining mohiyatini to‘liq ochib beradigan Goryachkin formulasining birinchi bo‘lagi, ya’ni $P_1 = mgf$ kuchi tuproqqa ishlov bermayotgan plugni sudrashga bo‘ladigan qarshilikdir, ya’ni P_1 kuchi tuproqqa ishlov berish texnologiyasiga sarflanmaydi. Formulaning uchinchi bo‘lagi, ya’ni $P_3 = eabv^2n$ kuchi korpusdan tuproqni irg‘itishga sarflanib, bevosita tuproqni ag‘darishda ishtirok etmaydi. Goryachkin formulasining faqat ikkinchi bo‘lagi, ya’ni P_2=*kabn* kuchi bevosita tuproqqa ishlov berishga, deformatsiyalashga sarflanadi. Bu erdagi k – tuproqning shudgorlashdagi solishtirma qarshiligidir.

Bitta korpusning ishiga tuproq tomonidan ko‘rsatiladigan solishtirma qarshilikni aniqlab, uning mohiyatini tushuntirish maqsad qilingan. Buning uchun bitta korpus ishlov berishini namoyish qiladigan maxsus mini stenddan foydalaniladi. Stend o‘lchamlari mavjud bo‘lgan korpus o‘lchamlariga moslangan bo‘ladi.

Stend sxemasi 2-rasmda ko‘rsatilgan. Uning tashqi devorchalari orasi, ya’ni eni V korpus qamrov kengligi b_t ga moslantirilgan bo‘ladi: V≥2b, uzunligi $10b_t$-$12b_t$ bo‘lgani ma’qul.

Tashqi devorlari orasi ya’ni stend eni ishlatiladigan korpus qamrov kengligi b_t ga moslashtirilgan bo‘lib, B≥ 2,5 b qilinadi. Stendning uzunasiga ikkiga bo‘ladigan ichki devori EG‘ yechib olinadigan qilinadi. Ichki devor V ni b_t va b_v kengliklardagi bo‘laklarga bo‘ladi: $b_t \le b_v$; bu erdagi b_t stendda ishlatiladigan

korpusning ishchi qamrov kengligiga teng qilinadi. Tajriba o‘tkazishdan oldin korpus stend ichida sxemadagidek joylashtiriladi va uning oldidagi bo‘shliqqa N-N devorigacha optimal namlikdagi tuproq qatlamlab solinadi va qatlamlar bir xil darajada zichlanadi. Tuproq qalinligi *a* korpus qamrov kengligini 70-75 % dan oshmasligi kerak, demak $a \geq 0{,}75\ b$ bo‘lishi kerak, aks holda korpus tuproq palaxsasini sifatli ag‘darolmaydigan bo‘ladi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, ag‘darilayotgan palaxsa yon tomoniga α ga teng masofaga surilganidan so‘ng ag‘dariladi. Stenddagi korpus tuproqni uning EFNDE bo‘sh turgan qismga surib ag‘daradi, yumshatadi. Yumshatilgan tuproq hajmi ortib ketishini e’tiborga olib EFNDE qismini kengligi 1,3 b dan ortiqroq bo‘lishi darkor. Aks holda ag‘darilayotgan tuproq DN devoriga suyanib qolishi mumkin. Stend oxiridagi NBKCNEN bo‘shlig‘iga qo‘lda aylantiriladigan baraban o‘rnatiladi. Stend devorlarining balandligi korpus ag‘dargichini balandligiga teng yoki birmuncha kattaroq bo‘lishi kerak. Korpus ishchi sirtining qarshilik markazi QM ga (1-a rasm) cho‘zilmaydigan materialdan tayyorlangan tros bog‘lanadi. Tros NFN devoridagi teshikdan o‘tkazilib, baraban sirtining pastki yasovchisiga urunma etib o‘raladi. Tros o‘rtasiga dinamometr ulanib, qarshilik kuchi R_x o‘lchanadi. Baraban bilan korpusni ulaydigan tros uzunasiga gorizontal hamda AV devoriga parallel qo‘yilishi kerak, aks holda o‘lchash natijalari birmuncha noaniqlashadi.

Tuproqning shudgorlashdagi solishtirma qarshiligi k tuproq tarkibi, namligi, zichligi, qattiqligi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lganligi sababli, har safar mazkur mashg‘ulotni takroran o‘tkazishda ushbu ko‘rsatkichlarni bir xil bo‘lishini ta’minlash qiyin. Demak, topiladigan k koeffitsientini miqdorlari bir-biridan farqlanadigan bo‘ladi. Misol qilib o‘tish mumkinki, tarkibi bir xil tuproqni har xil namlikda foydalanib, bir nechta variantdagi namlikdagi tuproqni sinab, talabalarga minimal k miqdori qanday namlikda bo‘lishini ko‘rsatish foydali bo‘ladi. k minimal bo‘ladigan namlikda yer shudgorlansa energiya tejamkorligiga erishish mumkin.



2-rasm. Korpus bilan ishlov berilayotgan tuproqning solishtirma qarshiligini aniqlash stendini sxemasi:

1-korpus; 2-tuproq qatlami; 3-tros;
4-dinomometr; 5-baraban; 6-yechib olinadigan to‘siq-devor;
7-ag‘darilgan tuproq uchun bo‘sh joy

Stend yechib olinadigan EG‘ devori hamda korpus o‘z o‘rinlariga qo‘yiladi. Korpusga dinamometrli tros ulanib, taranglashtirilganidan keyin ANFEA bo‘shlig‘ining korpus oldidagi bo‘lagiga oldindan belgilangan qalinlikda tuproq solinadi va iloji boricha bir xil zichlanadi. Korpusni sudraydigan tros gorizontal va qisman taranglashtirilgan holda tuproq ichida qoldiriladi. EG‘ devori asta-sekin yechib olinadi (zichlangan tuproq o‘ng tomonga to‘kilmasin). Barabanni bir tekis tezlikda aylantirib tros yordamida ilgarilatib sudralayotgan korpus tuproqni o‘ng tomonga ag‘darib EFND bo‘sh joyga surib ketayotganida dinamometr ko‘rsatayotgan qarshilik R_x kuchini miqdori 3-4 marta o‘lchanib, ularning o‘rtacha miqdori topiladi. Ishlov berilgan tuproq palaxsasining chuqurligi α va kengligi b lar ma’lum bo‘lganligi sababli topiladi:

$$k= R_x /\alpha b \ \ N /sm^2 \qquad (2)$$

Yerni plug bilan shudgorlash energotejamkor bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni talabalar chuqurroq tushunishlari uchun mazkur mashg‘ulotni tuproqning shudgorlashdagi solishtirma qarshiligini aniqlash bilan cheklanmasdan plugni sudrashga qarshiligini aniqlaydigan V.P.Goryachkin formulasi bilan ushbu qarshilikni aniqlashning soddalashtirilgan formulasini mohiyatini tushuntirib ketish ma’qul bo‘ladi. Plugni dinamometrlab, uning traktor bilan sudrashga qarshiligi R o‘lchanib topilgan bo‘lsa, Goryachkin formulasi yordamida k ni hisoblab topish mumkin bo‘ladi:

$$k = \frac{P-(mgf+\varepsilon abv^2n)}{abn}, \text{ N/sm}^2 \qquad (3)$$

Amaliyotda murakkab bo‘lgan Goryachkin formulasi o‘rniga soddalashtirilgan formuladan foydalaniladi. Plugning sudrashga qarshiligi (1) ifodada keltirilgan $R= qabn$(4) ko‘rinishda hisoblanib topiladi. Agar dinamometrlab, R o‘lchansa, ma’lum a, b va n larni e’tiborga olib q quyidagacha bo‘ladi:

$$q=\frac{P}{abn} \qquad (4)$$

(3) va (4) formulalar o‘zaro taqqoslansa, ularning maxrajlari bir xil, ammo (4) ning surati butun R bo‘lsa, (4) formula surati undan

$mgf + \varepsilon abv^2n$ ga kamligi ko‘rib o‘tish mumkin. Demak, doimo k< q bo‘lishini lozim. k faqat tuproq xossalariga bog‘liq deb hisoblash joiz bo‘lsa, q esa $kabn$ ga qo‘shimcha $mgf + \varepsilon abv^2n$ ga ham bog‘liqdir. Demak, k miqdori bir xil bo‘lgan dalada bir necha turdagi plug ishlatilsa, ularning q ko‘rsatkichi turlicha bo‘ladi, chunki ular konstruksiyasi bo‘yicha bir-biridan farqlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Plug solishtirma qarshiligi va tuproqning shudgorlashdagi solishtirma qarshiligining mohiyati va farqli jihatlarini, ularni aniqlash ko‘nikmasini o‘rgatish jarayonida turli jihozlardan foydalanish maqsadga muvfoiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.D Astanaqulov Aniq qishloq xo‘jaligi tizimlari Darslik.-T.: “TIQXMMI” MTU, 2022. 175 bet.

2. K.D.Astanaqulov, V.I.Balabanov. Osnovi tochnogo zemledeliya Uchebnik.-T.:TIIIMSX, 2021.-321c.

3. Mamatov F. M., Temirov I.G‘ Qishloq xo‘jalik mashinalari. Darslik. – T.: «Voris-nashriyot», 2019. – 631 b.

4. Shoumarova M. va Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalaridan /praktikum/darslik/.-Toshkent: “NIFMSH”, 2022, 402 bet.

ICHKI YONUV DVIGATELI SHATUN PARAMETRLARINI O‘LCHASHNING MUHIMLIGI

R.M.CHoriyev o‘qituvchi (TDMAU),
Raxmonov B.P talaba (TDMAU),
Mamarasulov J.R (Toshkent metropoliten xodimi),

Maqolada ichki yonuv dvigateli shatuning texnik holatiga baho berish ko‘rib chiqilgan,dvigatel shatun texnik holatini baholashda kerakli parametrlar aniqlangan.Bu parametrlar qanday hisoblanadi va nima bilan o‘lchanishi ,hamda parametrlarni hisoblash usullari to‘liqligicha keltirilgan.Shatun kallagi teshiklarining yeyilishini o‘lchash metodikasi va sxemasi ko‘rib o‘tilgan va bundan tashqari shatuning asosiy defektlari, ichki yonuv dvigateli texnik holatiga ta’siri o‘rganilgan.

Kirish.

Shatun porshen va tirsakli valni biriktirib, u porshenning ilgarilanma-qaytar harakatini tirsakli valning aylanma harakatiga aylantirishda qatnashadi (1-rasm).



1-rasm. Shatun guruhi. 1-vtulka; 2-shatun; 3-vkladish; 3-bolt; 5-shatun qopqog‘i.

Shatun murakkab harakat qiladi yuqorgi kallagi ilgarilanma-qaytar, pastki kallagi tirsakli val shatun bo‘yini bilan birga aylanadi, sterjeni tebranuvchi harakat qiladi. Shatunlarning pastki kallagi asosan shatun o‘qiga perpendikulyar tekislikda ajraladi. Ba'zan shatun o‘qiga burchak ostida ajraladi. Shatunlarning pastki kallagiga qopqog‘i bilan birga ishlov beriladi, shuning uchun qopqoqni almashtirish mumkin emas. Shatunning pastki kallagiga vkladishlar qo‘yiladi (pastki va ustki). Vkladshlar 1,3-1,8 mmli po‘lat tasmadan (karbyuratorli dvigatellarda) va 2-3-6 mm antifriktsion qotishmadan (dizellarda) tayyorlanadi.Vkladishlarni o`q bo`yicha siljimasligini pazlar ta'minlaydi. Silindr devorlarini va taqsimlash valini moylash uchun shatunning pastki kallagida moy teshigi bor. Pastki va ustki vkladishlarning o‘zaro almashuvchanligini ta'minlash uchun har ikkala vkladishlarda ham moy teshiklari bor. Yuqori vkladishlarga gazlar bosimi, porshen va shatun inertsiyasi ta'sir qiladi, shuning uchun pastki vkladishga nisbatan tez yeyiladi.
Ichki yonuv dvigatelini ekshluatasiya jarayonida shatunda ko‘p sabablarga quyidagi defektlar uchraydi: shatun moy kanallarini tiqilib qolishi (moyni kuchli ifloslanisi va moylash tizimiga qattiq jismlarni tushib qolishi hisobiga). Shatun pastki va yuqori qismini kuchli yeyilishi,moyni ifloslanishi,suyiqlanishi, mavsumga qarab moydan foydalanmaslik,shatun pastki, yuqori kallagidagi va qobirgi sterjinda sodir bo‘ladigan deformatsiya (yeyilishi , buralishi va egilishi)

Shatunning asosiy parametrlari.

Shatunning holatini tekshirish bir qancha bosqicglarda amalga oshiriladi. Hammasidan oldin geometrik teshiklarini tekshirishdan boshlanadi. Buning uchun shatun ajratib olinib yuviladi.Shatun qopqog‘i bolt va gaykalar yordamida shatunga mahkamlab qotirilib yig‘iladi.Shundan so‘ng shatun pastki kallagi teshigi nutromer yordamida tekshiriladi. U zavod tayyorlovchi tomonidan ruxsat etilgan o‘lchamga mos kelishi, hamda teshik shakli (ellipsligi) 0,015 mm oshib ketmasligi kerak.Huddi shu tartibda shatun kallagi yuqori teshigi tekshiriladi.Bu yerda teshik shakli chetga chiqishi nazorat qilinadi. Shakl ellipsligi 0,01mm oshib ketmasligi kerak,hamda teshik diametri qiymati,bormoq bilan presslab brikkanda ,minimal taranglik (0,02-0,025mm) bilan brikishini kafolatlashi kerak.



2-rasm. shatundagi asosiy nuqsonlar.

Shatunni pastki va yuqori kallagi ichki qismida turli xil tirnalishlar, eyulishlar hamda shakl o‘zgarishlarga ruxsat etilmaydi.Shatun vkladishi ishchi yuzasining yeyilishi va tirnalishi natijasida hosil bo‘lgan tirqish(vklaish va sha tun bo‘yini orasi) o‘lchami 0,1 mm dan oshib ketmasligi kerak.



3-rasm.Shatun pastki kallagi diametrini nutrametr bilan o‘lchash.

O‘lchash tartiblari va parametrlarni hisoblash.

1. Shatunning asosiy konstruktiv elementlarini aniqlanadi va ularga ta'sir etuvchi kuch va yuklamaning turi, ko‘rinishi, ta'sir doirasini, hamda ushbu konstruktiv elementlarda sodir bo‘layotgan noxush jarayon va nuqsonlarni tahlil etiladi.
2. Tashqi qarov yo‘li bilan shatunlarni yaroqsiz holda olib keluvchi har qanday turdagi va ko‘rinishdagi darz va siniq nuqsonlarni aniqlang hamda ularni to‘liq tasnifini hisobotda keltiriladi.
3. Shatunning pastki kallak holatini aniqlaniladi. Buning uchun pastki kallak diametrini indikatorli nutromer bilan o‘lchalaniladi. O‘lchamni A-A (ajralish tekisligiga perpendikulyar), Б-Б va В-В (А-А tekislikka ikki tomonlama 45^0 burchak ostida) tekislikda kallak enining $l_1 = 1/4$ ва $l_2 = 3/4$ masofada kesayotgan I-I va II-II kesim bo‘yicha o‘lchanadi. (2-rasmga qarang)



2-rasm. Shatunning pastki (а) va yuqori (б) kallaklarining diametrlarini o‘lchash sxemasi.

4.Shatun pastki kallagining nosilindrikligini (ovalsimonlik va konussimonlik) aniqlaniladi. $\Delta_{ов} = Д_{А-А} - Д_{Б-Б}$

$$\Delta_{кон} = Д_{I-I} - Д_{II-II}$$

Olingan natijalarini hisobot shaklida jadvalga kiritiladi. Pastki kallak uchun ovallikning ikkita va konussimonlikning uchta qiymati olinadi. Bulardan eng katta qiymatlarni hisobot shakldagi jadvalga kiritiladi.

5.Shatun pastki kallak diametrining umumiy yeyilishi– $U_{ум}$

$$U_{ум} - Д_{б} - Д_{и}$$

bu yerda: $Д_{б}$ -foydalanish boshlanishidan oldingi kallak diametri, mm

$Д_{и}$ - yeyilgan kallak diametri (eng katta qiymati), mm.

6.Shatunning yuqori kallak holatini aniqlang. Buning uchun kallak diametrini indikatorli nutromer bilan o‘zaro perpendikulyar bo‘lgan Г-Г va Д-Д tekisliklarda kallak enining $l_1 = 1/4$ va $l_2 = 3/4$ masofada kesayotgan I-I va II-II kesim bo‘yicha o‘lchanadi. (rasmga qarang).

7.Shatun yuqori kallagining nosilindrikligini (ovalsimonlik va konussimonlik) aniqlanadi.

$$\Delta_{ов} = Д_{А-А} - Д_{Б-Б}$$

$$\Delta_{кон} = Д_{I-I} - Д_{II-II}$$

Olingan natijalarini hisobot shaklida jadvalga kiritiladi.

8.Shatun yuqori kallak diametrining umumiy yeyilishi– $U_{ум}$

$$U_{ум} - Д_{б} - Д_{и}$$

bu yerda: $Д_{б}$ - foydalanish boshlanishidan oldingi kallak diametri, mm.

$Д_{и}$ - yeyilgan kallak diametri (eng katta qiymati), mm.

9.Shtangensirkul yordamida kallaklar orasidagi masofani o‘lchanadi.

$$L = l + 0{,}5(D_{в} + D_{н})$$

bu yerda: l - kallaklar orasidagi masofa, mm

$Д_{б}$, $Д_{и}$ -yuqori va pastki kallak diametrlari, mm.

10. Shatunning xaqiqiy holatini texnologik talablar bilan solishtirib, uning har bir defektatsiyalanuvchi konstruktiv elementiga hulosa beriladi.

1-jadval. Shatunning pastki va yuqori kallak teshiklarini o‘lchash natijalari.

№	Shatunning konstruktiv elementlari	O‘lchov kesimlari	O‘lchov tekisliklari			Ovalsimonlik	O‘lchov tekisliklari		Ovalsimonlik
			А-А	Б-Б	В-В		Г-Г	Д-Д	
	Pastki kallak	I-I							
		II-II							
		Konussimonlik							

	Yuqori kallak	I-II I-II Konussimonlik							Ni texbik
	Kallaklar orasidagi masofa	$L = l + 0{,}5(D_в + D_н)$							

Xulosa

Bu metodikada ichki yonuv dvigateli shatunini texnik holatini tahlil qilish mumkin. Kerakli parametrlarni o‘lchash,hisoblash va me’yoridagi qiymatlarga solishtiriladi, hamda ta’mirbop o‘lchamlari hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1.Qodirov S.M, Lebedov O.B, Xakimov A,M.“Transport vositalari detallarini tiklash texnplpgiyasi” oliy oliy o‘quv yurtlari uchun darslik , T.O‘zbekiston , 2001 - 284 б.

2.Дехтеринский Л.В. Ремонт автомобилей. М.: “Транспорт”, 1992

3.Канарчук В.С. и др. “Востановление автомобильных деталей, технология и оборудование”. Учебник для Вузов- М.: Транспорт, 1995 – 303 с.

4.Боднев А.Г., Шаверин Н.Н. Лабораторный практикум по ремонту автомобилей. М.: Транспорт, 1989 - 140 с.

ADABIYOT O‘QITISHDA VIRTUAL TA’LIM TEXNOLOGIYASI

Shukurova B.B., katta o‘qituvchi (TDMAU)

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan e‘tibor dolzarb mavzu hisoblanadi. Ushbu maqolada, asosan, ta‘limni texnologiyalashtirish, adabiyot darslarida innovatsion ta’lim texnologiyalari, vertual ta’lim texnologiyasining o‘rni va ahamiyati hamda haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari, Virtual ta’lim texnologiyasi, multimedia vositalari, App Store, Google Play .

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga etkazish, xususan, bu ulug‘ vazifani amalga oshirishning asosiy sharti va garovi bo‘lgan zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga ulkan e’tibor qaratilayotgani ahamiyatlidir. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri – ***ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir*.** Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy

bilimlarni talabalarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan davlat ta’lim tizimidagi e’tiborli jihatlardan biri – bu ularning ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan informatsion texnologiyalar omillaridir. Ayniqsa, bugungi kunga kelib, qo‘llanilayotgan informatsion virtual ta’lim ta’lim jarayonining sifat xususiyatini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, virtual ta’lim texnologiyasi mazmuni oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

“Virtual ta’lim texnologiyasi” modulining vazifalari:

- multimedia tushunchasi, multimedia vositalari, multimedianing dasturiy vositalari va mahsulotlari, virtual ta’lim muhiti vositalari haqida;
- virtual ta’lim muhiti haqida;
- virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar haqida ;
- on-line muhitida 3D texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkillashtirish;
- mobil ta’lim texnologiyalari;
- internet va ijtimoiy tarmoqlar, ularning imkoniyatlari va xavfsizlik;
- ochiq ta’lim resurslari va ularning imkoniyatlari haqida bilimlarni hosil qilish. Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Virtual ta’lim tizimi bevosita multemidion vositalar bilan chambarchas bog‘liq. Multimedia o‘zi nima degan savol tug‘iladi? Multimedia bu

informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishni mujassamlangan holdagi ko‘rinishidir. ***Multimedia (***multimedia - ko‘p muhitlilik***) –*** *bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko‘rinishiga ega bo‘lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k.) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo‘lgan (magnit va optik disklar, audio- va video-lentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog‘liq sohasidir.*

Multimedia foydalanuvchiga fantastik (virtual haqiqiy) dunyoni yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki u erda avj olayotgan hodisalarda faol ishtirok etadi; shu bilan birga muloqat foydalanuvchi uchun odatlangan tilda – birinchi navbatda tovushli va videoobrazlar tilida bo‘lib o‘tadi. Multimedia – kompyuterda axborotning turli xil ko‘rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, annimatsiya, shuningdek to‘laqonli videokliplar, hatto videofilmlar bilan ishlashdir. Multimedia– bu zamonaviy kompyuterli axborot texnologiyalari bo‘lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animatsiyani (multiplekatsiyani) yaxlit kompyuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi. Multimedia amaliyotdagi ish tartibi – bu apparat-dasturiy muhit bo‘lib, kompyuterga axborotni kiritish, ishlov berish, saqlash, uzatish va matn, chizmalar, videotasvir, tovush hamda nutqlarni insonga zarur va qulay holatda yetkazishdir.

“Virtual borliq” vositalari: Virtual borliqqa kirishning eng oddiy yo‘li kompyuter ekrani hisoblanadi va bu borliqda sichqoncha, klaviatura, djoystik yordamida ishlash mumkin. Adabiyot darslarida ulardan foydalanish o‘quvchi ko‘z o‘ngida asarning jonli gavdalanishiga va xotirada oson qolishiga yordam beradi. Jahon miqyosida nazar soladigan bo‘lsak, kompyuter grafikasi va dizayn juda ham keng darajada rivojlangan. Ularni amalda anchadan buyon qo‘llab kelishmoqda. Lekin bu yaratilayotgan barcha dasturlar, roliklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, multfilmlar, web-saytlar uchun yaratilmoqda. Maxsus saytlarda fanlarga mavzulashtirilgan multimediali darsliklarning kamligi, borlarini ham aniq bir fanni mavzularini to‘la yoritib bera olmasligi ta’lim sohasiga yanada ko‘proq e’tibor berish lozimligini e’tirof etadi. Lekin elektron darsliklar ichiga kiritilgan matnli yozuvlar, rasmlardan hozirda grafikaning eng zamonaviy yo‘nalishi bo‘lgan roliklarning yaratilishi saytlarga va shunga tegishli bo‘lgan narsalarga qiziqishni oshiradi.

To‘g‘ri bu sohada ko‘p ishlar amalga oshirilgan. Darslarning multimedia imkoniyatlaridan foydalantib o‘tilishi o‘qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug‘diradi. Chunki, shu fanga mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmli ishlanmalar, harakatli yozuvlar (prezentatsiyalar), multiplikatsiya ko‘rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar bir tomondan o‘qituvchi uchun yangillik bo‘lsa, ikkinchi tomondan

ta’lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Va mavzuni yaxshi o‘zlashtirilishiga turtki bo‘ladi.

Virtual ta’lim bugungi kunga kelib barcha ta’lim muassasalariga kirib bormoqda. Ta’limning virtual makon mazmunini endi turli xil manbalarda topish mumkin, masalan:

App Store, Google Play yoki Steam kataloglarida virtual makonilovalari. Ushbu xizmatlar o‘rganish va yangi ko‘nikmalarni egallashga qaratilgan bir necha o‘nlab turli xil dasturlarni o‘z ichiga oladi;

Virtual makonuchun maxsus yaratilgan YouTube videolari. 360 daraja video har kuni ommalashib bormoqda va YouTube buni juda yaxshi bajaradi;

ta’lim sohasida ishlaydigan ishlab chiquvchilarning maxsus dasturlari. Odatda, ular buyurtma asosida tayyorlangan va aniq vazifalar uchun yaratilgan.

Ko‘pgina takliflar to‘liq bepul taqdim etiladi. Bundan tashqari, ushbu texnologiyani sinab ko‘rishga imkon beradigan va ma’lum bir taklif uchun pul to‘lashga tayyorligingizni hal qilishga imkon beradigan demolar mavjud.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlamoqdaki, xorijda kashf qilingan har qanday usulni o‘z hududiga qo‘llanganda, shu usulning tamoyillaridan tonmagan holda, uni qayta ishlab, hududga moslashtirish kerak ekan. Adabiyot ta’limida xorijning ta’lim jarayonidagi o‘qitish usullari, yangi pedagogik ta’lim texnologiyasidan foydalanib, bilim va ta’lim – tarbiya berish yildan-yilga takomillashib, ma’lumotlilik- ma’rifat asosini tashkil etuvchi bosh g‘oya, tabiat va jamiyat aloqadorligini anglab yetish, avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechish, sabr-bardosh, adolat, qanoat, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash kabi sifatlarni shakllantirmoqda.

Haqli ravishda ta’kidlash o‘rinliki, ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshishida xorij investitsiyalarining alohida o‘rni bor. Qisqa muddatda islohotlarning tadbig`i, zamonaviy o‘quv binolarining bunyod bo‘lishi va ulaning eng yangi o‘quv jihozlari bilan ta’minlanishi xorij davlatlarining moliyaviy ko‘maklashuvi natijasida takomillashib, ko‘rkam qiyofa kasb etmoqda.

O‘quv jarayoniga ta’lim texnologiyasini tadbig‘i, xorij ta’lim tajribasining, ayniqsa, adabiyot ta’limida qo‘llanishi ijobiy natija bermoqda. Respublikamizda bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va Internet tarmog‘ini rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti. Shunga ko‘ra, ta’lim tizimidagi o‘quv yurtlarida informatika va axborot texnologiyalari fanlarining o‘qilitishi - davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta‘‘lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. -232 b.

2. D.E.Toshtemirov., Niyozov M.B, Yuldashev U.A., Sherali's, S. I. (2020). Resource support of distance course information educational environment. Journal of Critical Reviews, 7(5),399-400.

3. Turayev, J. A. (2023). Ta’limda virtual texnologiyalarini qo‘llash. Educational Research in Universal Sciences, 2(16 special), 760–767. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5090

4. Astlyayner, G. masofadan o„qitish WWW orqali: Ijtimoiy va hissiy jihatlar G.Astlyayner //Internetda gumanitar tadqiqotlar; tomonidan. A.E. Voyskunsky. - M.: Mozhaisk-Terra, 2000. - S. 333-367. 5. Atanov,G

5. Niyozmetova R.X. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rgatish metodikasi. –T.: Фан, 2007.

6. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. –T.: Низомий номидаги ТДПУ, 2003

TEXNIKA FANLARI TA’LIMIDA INNOVASION YONDASHUVLAR, MUAMOLAR VA YECHIMLARI.

Yormatov Doston, assistant, (TDMAU)
Ochilov Doston, talaba, (TDMAU)
Shodiyev Ramshid, talaba, (TDMAU)

Anatatsiya: Bugungi kunda tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan texnologik dunyoda texnik ta’lim kelajakka tayyor bo‘lgan mutaxassislarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, ushbu sektor ko‘plab muammolarga duch kelmoqda, jumladan eskirgan o‘quv dasturlari, amaliy tajribaning etishmasligi va resurslardan tengsiz foydalanish. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun innovatsion yondashuvlar global miqyosda joriy etilmoqda, ular o‘rganish tajribasini oshirishga va uni sanoat talablariga ko‘proq moslashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, innovatsiyalar, ta’limga innovatsion usullarni joriy etish sohasidagi tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar, o‘qitish usullari.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot har qachongidan ham tezroq. So‘nggi o‘n yilliklarda texnologiya dunyoni tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada o‘zgartirdi. To‘rtinchi sanoat inqilobi nafaqat zavod va ishlab chiqarishda, balki butun jamiyatda barcha segmentlarda o‘z aksini topmoqda. Biroq, agar bizda ularni tushunadigan, boshqara oladigan, foydalana oladigan va o‘z manfaatlari yo‘lida foydalana oladigan, nihoyat, yangilab, takomillashtiradigan insonlar bo‘lmasa, yuqori va murakkab texnologiyalar ham yetarli emas. Ta’limdagi innovatsiyalar - bu ta’lim evolyutsiyasi uchun istiqbolli bo‘lgan, ta’limning barcha shakllari va usullarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan turli tashabbuslar va

innovatsiyalar asosida yuzaga keladigan dolzarb va tizimli ravishda o‘zini o‘zi tashkil etuvchi yangiliklar.

Texnik ta’limda innovatsion g‘oyalar

1. **Aralashtirilgan ta’lim modellari**

Aralashtirilgan ta’lim an’anaviy sinf usullarini onlayn ta’lim bilan birlashtirib, o‘quvchilarga o‘z tezligida o‘rganish imkonini beradi. Ushbu moslashuvchanlik nazariy tushunchalarni amaliy qo‘llanmalar bilan yanada samarali birlashtirish imkonini beradi.

Misol : Texnik muassasalarda talabalar o‘quv qo‘llanmalarini yoki to‘liq simulyatsiyalarni onlayn tomosha qilishlari mumkin, dars vaqti esa amaliy laboratoriya ishlariga yoki hamkorlikdagi loyihalarga bag‘ishlangan.

2. **Sanoat sohasidagi hamkorlik va shogirdlik**

Sohalar bilan hamkorlik qilish o‘quv rejasini joriy bozor ehtiyojlariga mos kelishini ta’minlaydi. O‘quv modeliga shogirdlik yoki stajirovkani qo‘shish orqali talabalar bitiruvdan oldin amaliy, haqiqiy tajribaga ega bo‘lishadi.

Misol: IBM va Siemens kabi kompaniyalar talabalarni muayyan ish rollariga tayyorlaydigan maxsus texnik ta’lim dasturlarini taqdim etish uchun ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi.

3. **Micro-credentialing and modulary Learning**

Micro-credentialing talabalarga ko‘pincha qisqa muddatli kurslar orqali maxsus ko‘nikmalar bo‘yicha sertifikatlar olish imkonini beradi. Ushbu modulli ta’lim yondashuvi mutaxassislarga uzoq muddatli diplom dasturlariga yozilmasdan tez malaka oshirish va yangi texnologiyalarga moslashishga yordam beradi.

Misol : Coursera yoki Udemy kabi platformalar talabalar bir necha hafta ichida egallashi mumkin bo‘lgan sun’iy intellekt, mashinani o‘rganish va ma’lumotlar tahlili kabi maxsus ko‘nikmalar bo‘yicha sertifikatlarni taklif qiladi.

Texnik ta’limdagi muammolar

1. **Eskirgan o‘quv dasturlari**

Ko‘pgina texnik muassasalar hanuzgacha eng so‘nggi texnologik yutuqlarni aks ettirmaydigan o‘quv dasturlarini qo‘llamoqda, bu esa talabalarni hozirgi mehnat bozoriga tayyorlanmasligiga olib keladi.

2. **Amaliy ta’sirning etishmasligi**

Nazariy bilim juda muhim bo‘lsa-da, talabalar ko‘pincha zamonaviy texnologiyalar, asboblar yoki jihozlar bilan amaliy tajribaga ega emaslar, bu esa akademik ta’lim va real hayotda qo‘llash o‘rtasida ko‘nikma bo‘shlig‘iga olib keladi.

3. **Texnologiyaga kirish**

Kompyuterlar, dasturiy ta’minot va internetga ulanish kabi zamonaviy ta’lim vositalaridan tengsiz foydalanish, ayniqsa, rivojlanayotgan hududlarda raqamli

tafovutni keltirib chiqaradi. Bu talabalarning zamonaviy texnik ta’lim bilan to‘liq shug‘ullanish imkoniyatlarini cheklaydi.

4. **Bitiruvchilar va sanoat ehtiyojlari o‘rtasidagi ko‘nikmalar farqi**

Ish beruvchilar tez-tez bitiruvchilar ega bo‘lgan ko‘nikmalar va ishchi kuchida, xususan, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik va avtomatlashtirish kabi tez rivojlanayotgan sohalarda zarur bo‘lgan ko‘nikmalar o‘rtasidagi nomuvofiqlik haqida xabar berishadi.

Qiyinchiliklarni yengish uchun yechimlar

1. **O‘quv dasturlarini doimiy yangilash**

Ta’lim muassasalari o‘z o‘quv dasturlarini doimiy ravishda yangilash uchun sanoat bilan yaqindan hamkorlik qilishlari kerak. Bu kontentning dolzarbligini ta’minlaydi va talabalarni zamonaviy ishchi kuchida zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan jihozlaydi.

2. **Amaliy ta’lim imkoniyatlarini oshirish**

Laboratoriyalar, seminarlar va amaliyotlarni texnik dasturlarga integratsiyalash orqali talabalar nazariy tushunchalarni amaliy sharoitlarda qo‘llashlari mumkin. Universitetlar qimmatli amaliy tajribani taklif qiluvchi real loyihalarni taqdim etish uchun kompaniyalar bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

3. **Texnik ko‘nikmalar bilan bir qatorda yumshoq ko‘nikmalarni rivojlantirish**

Texnik ta’lim, shuningdek, ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan yumshoq ko‘nikmalarni, jumladan, muloqot qilish, jamoada ishlash va muammolarni hal qilishni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Etakchilik, loyihalarni boshqarish va innovatsiyalar bo‘yicha kurslar texnik ta’limni to‘ldirishi mumkin.

Xulosa

Texnik ta’limning kelajagi innovatsiyalar, hamkorlik va moslashuvchanlikni qabul qilishda yotadi. Mavjud muammolarni hal qilish va ushbu istiqbolli g‘oyalarni amalga oshirish orqali biz talabalarni tez rivojlanayotgan texnologik landshaftda rivojlanishga tayyorlaydigan tizimni yaratishimiz mumkin. Sanoat hamkorliklari, ilg‘or o‘qitish texnologiyalari va amaliy tajribalar orqali texnik ta’lim haqiqatan ham akademik ta’lim va ishchi kuchi talab qiladigan ko‘nikmalar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atajonova S.B. The development of professional training of students as a result of the improvement of new pedagogical technologies and teaching methods// Scientific Bullettin of NamSU 2022 №7, PP.416-423

2. Atajonova S.B. Methodology of teaching general educational disciplines with a professional focus in technical universities // Scientific and technical journal machine building STJ AndMI. 25.12.2022 № 5. Issue 2. pp. 509-515.

3. Puentedura, R. (2014). SAMR: A Model for Understanding the Integration of Technology. Available at: http://www.hippasus.com/rrpweblog/

4. OECD (2015). Students, Computers and Learning: Making the Connection. OECD Publishing.

TEXNIKA FANLARI TA’LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Sunatov J.T (IPI) NTM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnika fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan yangi innovatsion yondashuvlar haqida ma’lumot berilgan. Yangi usullar va metodlar to‘g‘risida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Texnika, iqtisodiy taraqqiyot, texnologik taraqqiyot, global raqobat, innovatsion metod, STEAM.

Kirish.

Texnika fanlari ta’limi zamonaviy iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning asosiy tayanchi hisoblanadi. Global raqobat sharoitida texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanmoqda va ta’lim jarayonlarida innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilish zaruratga aylanmoqda. Bu maqola texnika fanlari ta’limida innovatsion metodlar va texnologiyalarning ahamiyatini, ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Maqsad texnika fanlari ta’limida innovatsion yondashuvlarni ko‘rib chiqish, ularning ta’lim jarayoniga kiritilishi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Hozirgi kunda deyarli barcha fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan keng qo‘llanilib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalar ta’lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosat darajasiga ko‘tarildi [1].

Materiallar va usullar.

Ushbu tadqiqot texnika fanlari ta’limidagi innovatsion yondashuvlarni o‘rganishda asosan quyidagi metodologiyalardan foydalandi:

Adabiyotlar tahlili: Global va mahalliy manbalardan texnika fanlarida qo‘llanilayotgan innovatsion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha adabiyotlar o‘rganildi.

Amaliy tajribalar: Texnika fanlari bo‘yicha bir nechta o‘quv muassasalarida kiritilgan innovatsion yondashuvlar kuzatildi va tahlil qilindi.

So‘rov va testlar: O‘qituvchilar va talabalardan o‘quv jarayonidagi innovatsion metodlarga bo‘lgan munosabatni o‘rganish uchun so‘rovnomalar va testlar o‘tkazildi.

Natijalar.

Texnika fanlari ta’limida qo‘llaniladigan asosiy innovatsion yondashuvlar:

STEM va STEAM ta’limi: Texnika, fan, muhandislik va matematika (STEM) fanlarini birgalikda o‘rgatish modeli amaliyotda samaradorlik ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston va xalqaro tajribada STEAM (San’at qo‘shilgan) modeli ham keng ommalashmoqda.

Loyiha asosidagi o‘qitish (PBL): Talabalarni real loyihalar orqali ta’lim jarayoniga jalb qilish texnika fanlari bo‘yicha o‘quvchilarni ko‘nikma hosil qilishini oshiradi.

Virtual va aralash reallik (VR/AR): Talabalarni haqiqiy yoki yaratilgan texnik jarayonlarga immersiv qo‘llab-quvvatlov bilan tanishtirish ularga bilimlarni ancha oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlari: Sun’iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilar bilan samarali muloqotga imkon beradi va ta’lim mazmunini avtomatlashtiradi.

Texnika fanlarida innovatsion yondashuvlarning samaradorligi:

Akademik ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi: Innovatsion yondashuvlar, ayniqsa VR/AR texnologiyalaridan foydalanish va loyiha asosidagi ta’lim, talabalar o‘quv natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Kreativ va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi: PBL va interaktiv metodlar talabalarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini oshiradi.

O‘quvchilarning qiziqish darajasi oshishi: STEM va VR kabi innovatsiyalar talabalarning ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirib, ta’limni yanada jonlantirishga xizmat qilmoqda.

Muhokama.

Innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar texnika fanlari ta’limida talabalar ko‘nikmalarini yanada oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ma’lum bo‘ldiki, loyiha asosidagi ta’lim modeli talabalarning texnik ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashiga yordam beradi. Biroq, ushbu metodlarning keng tatbiq qilinishi uchun ta’lim muassasalarida malakali o‘qituvchilarning yetishmasligi va texnologik resurslarning cheklanganligi ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa texnika fanlari bo‘yicha innovatsion metodlarni to‘liq joriy qilish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqishni talab qiladi.

Texnika fanlari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va ularni innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan tanishtirish kurslarini o‘tkazish. Texnik jihozlar va

resurslar bilan ta’minlash, VR/AR texnologiyalari kabi vositalarni kengroq tatbiq etish uchun mablag‘ ajratish. O‘quv dasturlariga loyiha asosida ta’lim va muhandislik ko‘nikmalarini kengroq jalb qilish.

Xulosa.

Texnika fanlari ta’limida innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilish o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshiradi, kreativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi va real amaliyot bilan bog‘liq bilimlarni chuqurlashtiradi. Biroq, bu yondashuvlarning muvaffaqiyati uchun ta’lim muassasalarida texnik resurslarni rivojlantirish va o‘qituvchilarni malaka oshirish yo‘nalishida kuchli qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu maqola ta’lim sohasidagi ilg‘or texnologik yondashuvlar va metodlarni joriy qilish orqali texnika fanlarida ta’lim sifatini oshirishning innovatsion yo‘llarini yoritishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Erekeeva, J.Aleuatdinova. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish haqida. Synergy: Journal of ethics and governance.

2. SH.K. SHayakubov, R.X. Ayupov «TAFAKKUR-BO‘STONI» Toshkent-2012.

3. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.

4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2016.

5. Norov, I. (2021). METHODS Of Teaching Phonetics In Other Language Groups. Barqarorlik va Etakchi Tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 1(5), 306-309.

TEXNIKA FANLARI TA’LIMIDA KREATIV YONDOSHUVNI QO‘LLASHNING ZARURATI

Islomov Sh.E, dotsent, JizPI
Islomov D.E, o‘qituvchi

2024-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida “Muhandislik kadrlarini tayyorlash tizimidagi ustuvor vazifalar” yuzasidan 36 ta oliygoh rektorlari bilan videosekeltor yig‘ilishi o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari bugungi murakkab vaziyatda barcha davlatlar ichki resurslarga tayanib, innovatsiyaga intilayotganini qayd etdi. Iqtisodiyotimizni jadal o‘sishini ta’minlashda bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur ekani ta’kidlandi. Muhandislik kadrlarini tayyorlash tizimida “har bir vazir, tarmoq

rahbari, rektor va professor-o‘qituvchi mas’uliyatni chuqur his qilib, qattiq ishlasa, izlansa, bu vazifani albatta uddalashi”ga ishonch bildirildi.

O‘zbekiston Respublikasida texnika oliy ta’lim muassasalarida muhandislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar o‘rinda ta’lim muasasasalarining yangi rivojlanish bosqichida yangilanayotlgan tuzilmaga kreativ yondashish zarur.

Kreativlik (lot., ing. “sreate”–yaratish, “sreative ” yaratuvchi, ijodkor)– individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi [1].

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi [2].

V.G.Razumovskiy esa ijodkorlikni quyidagicha ta’riflaydi: “Kreativlik - bu insonning borliqni bilishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo‘lib, uning natijasida yangi, o‘xshashi bo‘lmagan, ilgari mavjud bo‘lmagan, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar, asarlar va boshqa shu kabilar yaratiladi” [3].

A.T.Shumilin “Kreativlik mohiyatini aniqlash bo‘yicha olib borgan tadqiqot natijalarini umumlashtirib, ijodkorlik yangi moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish jarayoni” ekanligini ta’kidlaydi [4].

N.Muslimov kreativlikda o‘z - o‘zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o‘tgan: birinchisi - « ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo‘ladi», «ikkinchisi - ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz ta’lim, kamolotga intiluvchanlik» . N.Muslimov kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko‘radi, ya’ni barcha insonlardagi tug‘ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma’lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketadi deb hisoblaydi. Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari quyidagilardan iborat [5].

Y. Nissim va boshqalar Oliy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha mutaxassislar kreativlikni bakalavriat va aspirantura darajasida samarali o‘rganishning kaliti sifatida ta’kidlaydilar [6].

L.Livingston yuqoridagi dalilni tasdiqladi va kreativlikni insonga butun hayoti davomida foyda keltiradigan va oliy ta’lim talabalari uchun ham dolzarb bo‘lgan asosiy mahorat deb hisobladi [7].

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo‘lib hisoblanadi:

- ijodiy masalalarning ko‘p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish;
- o‘z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish;
- uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch.

Kreativlik bu - ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish, fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkin.

Pedagogning kreativlik potensiali. Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi.

O‘qituvchining kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur. Mashg‘ulotlarda o‘qituvchi “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

1) kreativ fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
2) talabalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
4) kutiladigan natija

Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namotyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Respublikamiz va xorijiy olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilgan holda aytishimiz mumkinki, o‘quv jarayonini kreativ yondoshuvni joriy qilish talaba, o‘qituvchi va ta’lim muassasasida ta’limning yuqori ko‘rsatgichlariga erishish, soha va jamiyat uchun yuqori muhandislik kompetentligiga ega mutaxassisni tayyorlash borasidagi zarurati quyidagilardan iborat (1-rasm):



1-rasm. Ta’lim jarayonida kreativ yondoshuvni joriy etishning zarurati

Ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvni qo‘llash asosida talabalarda muhandislik kompetentliklarni rivojlantirishning zarurligi o‘zaro faol munosabatlar ta’sirida rivojlanadigan ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Ta’lim jarayonida kreativ yondoshuvni joriy qilishning zarurati asoslab olinganligi sababli tadqiqot ishimizning keyingi paragraflarda “muhandislik kompetentligi” atamasini tahlil qilish va uni rivojlantirish tizimini ishlab chiqish borasida izlanishlar olib boramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
2. Baer, J. (2015). The importance of domain-specific expertise in creativity. Roeper Review, 37(3), 165–178. https://doi.org/10.1080/02783193.2015.1047480
3. Разумовский В. Г. Рабоджийская Р. К. Обучение школьников и развитие их способностей // Физика в школе. –Т.: 2004. -№ 2.

4. Шумилин А.Т. Вопросы становления теории творчества // Проблемы философии. Сб. научных трудов. - Киев: Высщ. школа. Голов. Изд-во, 2005. – вып. 44. - С. 12-15.
5. N. Muslimov, M. Usmonboyeva “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” Toshkent – 2015
6. Nissim Y, Weissblueth E, ScottWebber L, Amar S. The effect of a stimulating learning environment on pre-service teachers’ motivation and 21st century skills. Journal of Education and Learning. 2016;5(3):29-39. DOI: 10.5539/ jel.v5n3p29
7. Livingston L. Teaching creativity in higher education. Arts Education Policy Review. 2010;111(2):59-62

TEXNIKA UNIVERSITETLARIDA CHET TILI O‘QITUVCHILARIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Botirov Sh.S. assistant, (TDMAU)
Shodiyev R.M. talaba, (TDMAU)

Annotatsiya: *Maqolada chet tili o‘qituvchilarida multimediya texnologiyalaridan foydalanish malakalarini shakllantrishning samaralari, bularni o‘quvchilar BKMlarini rivojlantirishdagi ahamiyati kabi ma’lumotlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: multimediya, muammoli ta’lim, slayd, proyektor, kompyuter dastur.*

Xalqning boy, zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o‘ta muhim ahamiyat kasb etayotganligi bois chet tili o‘qitish tizimini ham isloh etish, ta’lim jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishni ilg‘or usullarini chet tili o‘qitish amalyotida qo‘llashni ta’lim tizimidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shuningdek mustaqil respublikamizning jahon hamjamyatida tutgan o‘rni tobora o‘sib, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar keng quloch yozayotganligi kelajagimiz bo‘lgan yosh avloddan chet tilini mukammal bilish zaruriyatini tobora oshirmoqda. Texnik taraqqiyot qanchalik ilgarilab ketgani sayin yangi-yangi texnik vositalar yaratilib amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta’limga oid texnik vositalar ham shular jumlasidan. Bu esa zamonaviy o‘qituvchida ushbu texnik o‘quv vositalaridan o‘quv jarayonida shunchaki foydalanib qo‘yishi emas, balki o‘quv maqsadiga ko‘ra yani ma’lum bir mavzuni o‘rganishdan ko‘zlangan

maqsadga mos foydalanish kerakligini taqazo etadi. Bu deganimiz foydalanilayotgan o‘quv texnik vositalarni qo‘llash vaqti soni [ya’ni bir martali yoki takroriyli] xamda metodlarini to‘g‘ri tanlay bilish va qo‘llashni ham nazarda tutadi . Bulardan tashqari ulardanfoydalanish bilan bog‘liq psixologik, pedagogik omillarni ham hisobga olish talab etiladi. Ilgari darslarda slayd va magnitafon tasmalaridan foydalanilsa bu dars multimediyalik hisoblangan bo‘lsa, hozirgi kunda bu dars multimediyalik hisoblanishi uchun unga maxsus kompyuter dastur, proyektor, video va boshqa interaktiv vositalardan foydalanishni o‘z ichiga olish kerak bo‘ladi. Multimediya ta’lim oluvchilar uchun eng samarali usullardan hisoblanadi. U ta’lim jarayonini boyitib uning samaradorligini oshiradi, til o‘rganuvchilarning faolyatini oshiradi, yangi ma’lumot olishni bir necha bor tezlashtiradi. Hozirgi kunga kelib, o‘qituvchi dars jarayonini bu vositasiz tasavvur qilolmaydi. Dars shakli ham bu texnalogiya ta’sirida o‘zgarib ketadi. Ilgari dars jarayonida o‘qituvchi faol rolni o‘ynagan bo‘lsa, hozirgi kunda o‘quvchi o‘qituvchi bilan bir qatorda hatto ba’zi holatlarda o‘qituvchi passiv rolni o‘ynovchi shaxs bo‘lib hisoblanmoqda. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi bo‘lib hisoblangan bo‘lsa, hozirda u yo‘l ko‘rsatuvchi, yo‘nalish beruvchi kishi sifatida faoliyat yurutmoqda xalos. Multimediya darsining asosiy vazifalariga barcha o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish, ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish, berilgan yangi darsni o‘quvchilarga turli xil vositalar orqali chuqur singdirish va ularda tilga bo‘lgan ko‘nikmalarini shakllantirish sanaladi. Chet til o‘qitishda texnika vositalaridan foydalanishdan asosiy maqsad:

* Ko‘rgazmalilikni kuchaytirish;
* Problemali ta’limni amalga oshirish;
* O‘quvchilarni turli kishilar nutqini eshitishga va tushunishga o‘rgatish;
* Og‘zaki nutq tezligini o‘stirish;
* O‘rganilayotgan til materiallarini hayotga bog‘lash;
* O‘quvchilarni g‘oyaviy siyosiy va axloqiy tarbiyalash;
* O‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishdan iborat.

Bugungi kunda yangi elektron darsliklar, o‘quv va o‘quv–uslubiy qo‘llanmalar yaratilmoqda. Ular o‘quvchilar savodxonligini oshirish, nutqini o‘stirish aqliy qobiliyatini o‘stirish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrni takomillashtirish, ijodiy fikrlay olish hamda ta’lim tizimlari orasidagi uzviylikni ta’minlashga qaratilmoqda. Ma’lumki ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish nafaqat ta’limiy axborotlarni yaxshilash balki, yangi axborot texnologiyalari elementlarini ham o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa chet tillarini o‘rganishda kompyuterlar o‘qituvchining mehnatini onsonlashtirib, dars jarayoni samaradorligini oshirishini alohida ta’kidlash zarur. Yaxshi multimediyali dasturlarni to‘g‘ri maqsadga

yo‘naltirilishi zarur, chunki o‘quv materiali aniq bir mavzuni yorita olishi, dastur o‘quv jarayonining barcha komponentlarini qamrab olishi shart. Zamonaviy texnik vositalarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi ta’lim jarayonini zamonaviylashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchilar qaysi sohada o‘qimasinlar chet tillarni zamonaviy texnik vositalar orqali o‘rganish ularning oldiga qo‘ygan maqsadlariga yetishda intensiv vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yetuk pedagogik mahorat va keng ilmiy saviyaga ega bo‘lish yangilikni his qila olish, davr bilan teng hamnafas bo‘la bilish hozirgi zamon o‘qituvchisining eng asosiy vazifasidir. Mana shu fikrlarimizdan kelib chiqib, biz o‘quvchilarimizni chet til o‘qitishda eng ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘qitishni amalga oshirishimiz zarur. Zamonaviy kompyuter auditoriya mashg‘ulotlari eng qulay texnik vosita hisoblanadi. Chet tillarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar umumiy madanyatini rivojlantirishda yanada sifatli darajaga ko‘tarish hamda ularning kompyuter texnikasi va chet tillarini sifatli o‘zlashtirish imkonini beradi. Chet tili darslari jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, o‘quvchining tilga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish va ularning tildan egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarini yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Shuning uchun chet tillar ta’limida quyida turli xil yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan;

* Kompyuter texnalogiyasi [internet resurslari]

* Test topshiriqlarini kompyuter orqali amalga oshirish, elektron habarlar, elektron darslik, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlar yaratish.

* Chet tillarni o‘qitishda internet yordamida bevosita masofaviy ta’limdan foydalanish.

* Talabalarning o‘quv faolyatini, mustaqil ishlarini tabaqali tashkil etish hamda kompyuterli nazorat tashkil etish.

* Texnik vositalardan [video, audiomagnitafon, proektorlar]dan foydalanish

* Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish [mavzular sxemasi, mavzular bo‘yicha rasmlar]. Texnik vositalar yordamida dars mavzulari bo‘yicha taqdimotnomalarni yoritish kabilardir.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish joizki ingliz tili hozirda butun dunyoda qo‘llanilayotgan tillardan biridir. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi chuqur va ko‘p bosqichli tarixga ega. Bu vaqt mobaynida tilni o‘qitishning ko‘plab metodlari yaratildi va vositalari amalda bo‘ldi. Shular qatoriga til o‘qitish bo‘yicha qo‘llaniladigan texnik vositarni ham kiritishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimov SH. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noan’anaviy dars o‘tish usullari, didaktik o‘yinlar. Andijon 2009.

2. S. Saidaliyev ’’Chet tili o‘qitish metodikasidan ocherklar’’. Namangan 2004. 3.www.ziyonet.uz

KOMPYUTER FANLARINI O‘TISHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O‘TISHNING DARS SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Xolmirzayeva N.A, assistenti, (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bulutli texnologiyalarning xizmat turlari va ulardan foydalanib dars o‘tilishining dars o‘tish jarayonidagi qulayliklari, afzalliklari va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida misollardan ko‘proq foydalanildi. Maqoladan olingan natijalarda asosan bulutli tehnologiyalarning ta’lim tizimizdagi afzalliklari aks etgan.

Kalit so‘zlar: Bulutli texnologiya,bulutli xizmat, raqamli hayot, ma’lumot, saqlash, texnologiya, resurs, ta’limda afzalligi, istiqbolli ta’lim, raqamli ta’lim.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida texnologiyalar roli ortib bormoqda, ayniqsa kompyuter fanlarida. Bulutli texnologiyalar (cloud technologies) ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishda muhim ahamiyatga ega. Bulutli texnologiyalar yordamida dars o‘tish uslublarini takomillashtirish, o‘quvchilarni yanada jalb qilish va o‘qituvchilarga darslarni boshqarishni osonlashtirish mumkin.

Bulutli texnologiyalar - bu internet orqali ma'lumotlarni saqlash, boshqarish va qayta ishlash imkonini beruvchi tizimlar. Ular dasturlar, ma'lumotlar va resurslarni bulutda saqlash orqali foydalanuvchilarga istalgan joydan va istalgan vaqtda ulardan foydalanish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar turlari:

- **IaaS (Infrastructure as a Service)**: Infratuzilmani bulutda taqdim etadi (masalan, serverlar, saqlash joyi).
- **PaaS (Platform as a Service)**: Dasturchilar uchun platforma va vositalar taqdim etadi.
- **SaaS (Software as a Service)**: Internet orqali dasturlarni taqdim etadi (masalan, Google Docs, Microsoft Office 365).
- **Oson Ma'lumotlarga Kirish.** Bulutli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar dars materiallariga istalgan joydan va istalgan vaqtda kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. O‘quvchilar dars materiallarini bulutda saqlash orqali o‘z vaqtida va qulay sharoitda o‘rganishlari mumkin. Bu, ayniqsa, masofaviy ta'limda muhimdir,
- chunki o‘quvchilar darsga qattiq
- bog‘lanmaydi va o‘zlarining qulay vaqtida materiallarni o‘zlashtirishlari mumkin.

Misol.Oʻqituvchi dars materiallarini Google Drive yoki Microsoft OneDrive ga joylashtirsa, oʻquvchilar ularni mobil telefon yoki kompyuter orqali istalgan vaqtda koʻrishlari va yuklab olishlari mumkin.

Hamkorlik va oʻzaro ta'sir. Bulutli texnologiyalar oʻquvchilar oʻrtasida hamkorlikni va oʻzaro ta'sirni oshirishga yordam beradi. Ular birgalikda loyihalar ustida ishlash, fikr almashish va muammolarni hal qilish jarayonida bulutli platformalardan foydalanishi mumkin.

Misol. Google Docs orqali bir nechta oʻquvchi bir vaqtning oʻzida hujjatni tahrirlash, izohlar qoldirish va fikr almashish imkoniyatiga ega. Bu, oʻquvchilarning jamoaviy ish koʻnikmalarini rivojlantiradi va mustaqil fikrlashga yordam beradi.

Darslarni shaxsiylashtirish. Bulutli texnologiyalar yordamida oʻqituvchilar darslarni shaxsiylashtirish va oʻquvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatiga ega. Oʻqituvchilar dars materiallarini oʻquvchilarning bilim darajasiga qarab moslashtirishi, oʻzlashtirish darajasini kuzatishi va oʻz vaqtida qoʻshimcha yordam koʻrsatishi mumkin.

Misol.Oʻqituvchi har bir oʻquvchi uchun alohida ta'lim dasturini yaratishi mumkin, shunda u oʻz ehtiyojlariga mos ravishda oʻqishi va rivojlanishi mumkin. Bulutli platformalar orqali oʻqituvchilar oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini kuzatib borishlari va kerakli hollarda qoʻshimcha materiallar taklif qilishlari mumkin.

3. *Кузиев, Б. (2023). ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАНИИ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.*
4. *Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Экономика и социум, (5-2 (108)), 786-789.*
5. *Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. Электронное обучение как часть образовательного процесса. Ученый XXI века, 1, 43.*
6. *Муртазина, Д. Р. (2023). МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 139-145.*
7. *Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. ПРИМЕНЕНИЕ АУДИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ. УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА, 77.*
8. *Эмиль, М. (2023). ОБЛАСТИ ЗНАНИЙ ДЛЯ РОБОТОТЕХНИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 18-20.*
9. *Якименко, И. В., Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2023). СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЕ МАШИННОЕ ОБУЧЕНИЕ ДЛЯ РАДИОЧАСТОТ. Экономика и социум, (11 (114)-1), 1196-1199.*

UXK PAXTA TOZALASH AGREGATI ASPIRATSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA DASTLABKI TADQIQOTLAR NATIJALARI

Usanov A., (TDMAU) katta o‘qituvchisi

Paxta tozalash korxonalari maxsus texnologik uskunalar: (quritish moslamalari, paxta xom ashyosini tozalash mashinalari, jin, linter, tola, momiq va paxta chigitini tozalash vositalari, separatorlar, kondensorlar va boshqalar), paxta va tayyor mahsulotlarni sexlarda va sexlararo tashish uchun mexanizatsiyalash vositalari (pnevmatik tashish tizimlari, vintli va lentali konveyerlari, elevatorlar va

boshqalar), tolali chiqindilarni qayta ishlash mashinalari va tolali, tolani, momiqni va tolali chiqindilarni presslash uchun gidropress uskunalari bilan jihozlangan.

Texnologik jarayon ma'lum sxemalar bo'yicha o'rnatilgan mashinalar majmuasidan foydalanishni va ularning dastlabki paxta xom ashyosi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning holati va sifatiga qarab qat'iy belgilangan rejimlarga muvofiq ishlashini ta'minlaydi.

Paxtani dastlabki ishlash jarayonida atrof-muhit uchun zararli chiqindilar ajralib chiqadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish choralari tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, paxta tozalash korxonasining iqtisodiy faoliyati natijalarining tabiat va inson salomatligiga zararli ta'sirining oldini olishga qaratilgan.

Oddiy sanitariya-gigiena sharoitlarini yaratish uchun sanoat binolarini va individual chang chiqaradigan qurilmalarni changdan tozalash amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda olingan changli havo atmosferaga chiqarilishidan oldin u ham changdan tozalanadi.

Paxta xom ashyosidan chiqarilgan chang organik va mineral fraktsiyalardan iborat. Organik fraktsiya paxta shoxining maydalangan zarralari yoki paxta chig'anoqlari va mayda kalta tolalar massasidan iborat.

Changning mineral qismi tuproq, qum va boshqa begona aralashmalardan iborat bo'lib, ular paxta yig'im-terimi paytida va uni tashish va saqlash paytida paxta tarkibiga qo'shilib qoladi.

Texnologik jarayonning boshida, paxta xom ashyosini begona iflos aralashmalaridan tashish va tozalash paytida, asosan, undan mineral chang ajralib chiqadi va havoni ifloslantiradi va texnologik jarayon oxirida, ayniqsa linterlash va presslash paytida, organik chang ajralib chiqadi.

Paxta xom ashyosining pnevmatik transport tizimining chiqindi havosining tarkibida chang 10% dan 20 % gacha organik va 80-90 % mineral zarralar mavjud. Texnologik jarayon oxirida linterlar, kondensorlardan chiqindi havo chiqarilganda, organik chang fraktsiyasining tarkibi 80-90 % ga yetadi [1].

Texnologik uskunalarni ishlab chiqarish sexlarida qoldiradigan havoning changliligi paxta xom ashyosining naviga, namligiga va ifloslanganlik darajasiga bog'liq; past navli paxtani qayta ishlashda chang ajralishi eng kuchli bo'ladi.

Markazdan qochma chang yig'uvchilar. Markazdan qochma siklon-chang yig'uvchilarda changli havo yirik changdan tozalanadi (50 μ dan katta o'lchamdagi). Havo oqimi siklon ichida aylanganda markazdan qochma kuch paydo bo'ladi, uning ta'siri ostida chang zarralari havodan ajralib, tashqi devorga tashlanadi. Konusli siklonlar paxta sanoatida keng qo'llaniladi [2].

To'g'ri oqimli markazdan qochma siklonlarni takomillashtirish bo'yicha nazariy va tajribaviy tadqiqotlarni olib borgan olimlardan: Rusanov A.A., Kirpichev Ye.F.,

Idelchik I.Ye., Aleksandrov V.P., Kogan E.I., Shilyaev M.I , Shilyaev A. M., Straus V., Vasilevskiy M.V. va boshqalarni ishlarini sanab o‘tish mumkin [3].

Ammo paxta tozalash korxonalaridagi UXK paxtani tozalash agregatini aspiratsiya tizimini, bu aspiratsiya tizimidan pnevmoquvur orqali markazdan qochma siklonlarga yuboriladigan changli havoni tarkibini, umuman olganda aspiratsiya tizimini changli havoni tozalash samarasini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli o‘tkazilmagan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda paxta tozalash korxonalarida keng qo‘llaniladigan UXK paxta tozalash agregatini aspiratsiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [4].

Avvalo, Surxondaryo viloyatidagi “Zamin Angor Cluster” M.Ch.J paxta tozalash korxonasidagi UXK paxta tozalash agregatining seksiyalaridan aspiratsiya tizimiga uzatiladigan mayda iflosliklarni miqdori tajribalarni o‘tkazish natijasida aniqlandi.

Tajribalarni o‘tkazish vaqtida Buxoro-102 selektsiya navi, 2-sanoat navli, iflosligi 6,8 %, namligi 9,2 % ga teng bo‘lgan paxta xom ashyosini dastlabki miqdori ishlandi. UXK agregatini paxtani agregatga kirish tomonidan hisoblanganda birinchi, ikkinchi, uchinchi va xakozo seksiyalaridan ajraladigan mayda iflosliklarni miqdori aniqlandi. Buning uchun UXK agregatini mayda iflosliklardan tozalash seksiyalari aspiratsiya quvurlaridan uzilib, paxtani tozalash vaqtida ajraladigan iflosliklar agregatning tag qismidan yig‘ib olindi. UXK agregatining paxtani tozalash bo‘yicha ish unumdorligi 6800 kg/soatni tashkil etdi. Tajribalarning davomiyligi 20 daqiqaga teng qilib olindi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

UXK agregatining mayda iflosliklardan tozalash sektsiyalaridan ajratib olingan iflosliklarning miqdori

Tajribalarni takrorlanishi	UXK agregatini sektsiyalarida ajralgan iflosliklar miqdori, kg/foiz				Umumiy miqdori, kg/foiz
	Birinchi	ikkinchi	uchinchi	to‘rtinchi	
1	22/38,6	16/28,1	11/19,3	8/14,0	57/100
2	24/43,6	14/25,4	10/18,2	7/12,8	55/100
3	20/35,7	15/26,8	12/21,4	9/16,1	56/100
O‘rtacha	**22/39,3**	**15/26,8**	**11/19,6**	**8/14,3**	**56/100**

1-jadvaldagi tajriba natijalaridan ko‘rinib turibdiki, UXK paxta tozalash agregatining paxtani mayda iflosliklardan tozalash seksiyalaridan ajratib olinadigan mayda iflosliklarning miqdori agregatning paxtani kirish qismida eng ko‘p, keyin esa 1-jadvalda ko‘rsatilganidek kamayib borar ekan. Demak, UXK agregatining bosh tomonidagi seksiyalarida mayda iflosliklar intensiv ajralishi natijasida ularni

miqdori umumiy ajraladigan iflosliklarni miqdoriga nisbatan 39,3 % ni tashkil etganligi aniqlandi. Bu olingan ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, UXK paxta tozalash agregatining paxtani kirish qismidagi sektsiyalaridan aspiratsiya tizimiga so‘rib olinadigan changli havodagi changning kontsentratsiyasi qolgan seksiyalariga nisbatan yuqori ekan.

Lekin afsuski, mavjud UXK agregatlarini aspiratsiya tizimi agregatning uzunligi bo‘yicha simmetrik joylashtirish qo‘llanilishini tavsiya etilgan. Shu sababdan xam mavjud UXK agregatlarining aspiratsiya tizimini changli havoni tozalash samarasi past bo‘lib, ko‘pgina paxta tozalash korxonalaridagi markazdan qochma siklonlarni atmosferaga chiqish quvuridan changli havoni yuqoriga ko‘tarilishini kuzatishimiz mumkin. Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari yo‘nalishi tanlab olindi va natijada UXK agregatining aspiratsiya tizimini takomillashtirish evaziga changli havoni tozalash samarasini oshirishga erishish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иванков, Д.И. Анализ работы циклонов для пылеулавливания /Д.И. Иванков, Р.Д.Гритчин, А.Н.Тюрин.-Текст: непосредственный // Молодой ученый.-2016.-№13(117).-С.165-168.-URL: https: //moluch.ru/archive/117/32043/
2. https://www.chem21.info/info/1584359/
3. https://tekhnosfera.com/issledovanie-effektivnosti-pyleulavlivaniya-i-gidravlicheskogo-soprotivleniya-pryamotochnyh-tsiklonov-v-edinichnom-i-kask https://masters.donntu.ru/2014/fimm/mitina/library/article8.htm
4. Methods of increasing the efficiency of dustladen air cleaning from the aspiration system of the uhk cleaning unit. Abdulkhakim Usanov* and Ergash Shomirzaev. Termez Engineering-Technological Institute, Termez, Uzbekistan 12 july 2024

ПРЕОДОЛЕНИЕ БАРЬЕРОВ: КАК СОЗДАТЬ ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Каршибоев Шароф Абдураупович, доцент, (ЖизПИ)
Касимов Анвар Мусурманович, студент (ЖизПИ)

Аннотация: Статья рассматривает проблемы, связанные с созданием инклюзивного образования, и предлагает пути их решения. Инклюзивное образование стремится обеспечить равные возможности обучения для всех детей, вне зависимости от их индивидуальных особенностей и потребностей. Однако, вопреки этому принципу, многие дети с особыми образовательными

потребностями продолжают сталкиваться с барьерами при получении образования. В статье рассматриваются основные проблемы, такие как недостаточное финансирование, отсутствие обученных кадров, а также отсутствие адаптированных учебных материалов и методик.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, равные возможности, обучение, преподаватели, финансирование, индивидуализированные учебные планы, технологии, доступность.

Annotatsiya: Maqola inklyuziv ta'limni yaratish bilan bog‘liq muammolarni ko‘rib chiqadi va ularni hal qilish yo‘llarini taklif qiladi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalar uchun o‘qish imkoniyatlarini ta'minlashni maqsad qilmoqda, ularning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlaridan qat'i nazar. Biroq, bu tamoyilga qaramasdan, ko‘plab maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar ta'lim olishda to‘siqlarga duch kelishda davom etmoqda. Maqolada moliyalashtirishning yetishmasligi, malakali kadrlarning yo‘qligi, shuningdek, moslashtirilgan o‘quv materiallari va metodikalarining yo‘qligi kabi asosiy muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim ehtiyojlari, teng imkoniyatlar, o‘qitish, o‘qituvchilar, moliyalashtirish, individual o‘quv rejalari, texnologiyalar, mavjudlik.

Введение:

Создание инклюзивной образовательной среды является важным этапом в обеспечении равных возможностей для всех детей, вне зависимости от их индивидуальных особенностей и потребностей. Инклюзивное образование подразумевает не только физическое присутствие детей с различными специальными потребностями в школьной среде, но и гарантирует им полноценное участие в учебном процессе и общественной жизни. Однако, несмотря на усилия многих стран по внедрению принципов инклюзивного образования, ряд проблем все еще существует, создавая препятствия на пути к достижению этой цели [1].

В данной статье мы рассмотрим основные проблемы, с которыми сталкиваются системы образования при создании инклюзивной среды, а также предложим пути их решения. Основное внимание будет уделено недостаточному финансированию, отсутствию квалифицированных педагогических кадров, а также необходимости адаптации учебных программ и методик под потребности разнообразных учащихся.

Проблема:

1. Отсутствие доступности: Многие ученики с ограниченными возможностями сталкиваются с физическими, когнитивными или

социальными барьерами, которые препятствуют им получать качественное образование [2].

2. Недостаточное обучение педагогов: Не все учителя обладают навыками, необходимыми для работы с разнообразными потребностями учеников. Это приводит к недостаточной поддержке для студентов с особыми образовательными потребностями [3].

3. Отсутствие адаптированных программ и материалов: Недостаток специализированных учебных материалов и программ делает обучение более сложным для учеников с различными потребностями.

Пути решения:

1. Обеспечение доступности: Создание физически доступной среды в учебных заведениях, а также использование технологий, таких как аудиокниги или скринридеры для студентов с нарушениями зрения или слуха, позволит ученикам с ограниченными возможностями эффективнее учиться.

2. Обучение и поддержка педагогов: Регулярное обучение учителей по методам инклюзивного обучения и педагогической адаптации поможет им лучше понимать и удовлетворять потребности всех учеников в своих классах [4].

3. Разработка индивидуализированных программ: Создание индивидуализированных учебных программ и материалов, а также использование разнообразных методов обучения позволит каждому ученику достичь своего потенциала.

4. Пропаганда инклюзивности: Важно проводить общественные кампании, направленные на создание позитивного отношения к инклюзивному образованию и развитие культуры взаимопонимания и уважения в образовательной среде [5].

5. Сотрудничество с родителями и обществом: Вовлечение родителей, общественных организаций и работодателей в поддержку инклюзивного образования поможет создать благоприятную среду для учебы всех детей.

Заключение:

В современном обществе создание инклюзивной образовательной среды становится все более актуальной задачей, направленной на обеспечение равных возможностей для всех детей. Несмотря на значительные усилия и достижения в этой области, остаются проблемы, которые мешают полноценной реализации принципов инклюзивного образования [6].

Одной из основных проблем является недостаточное финансирование, которое часто приводит к ограничениям в доступе к необходимым ресурсам и услугам для детей с особыми образовательными потребностями. Другой

важной проблемой является недостаток квалифицированных педагогических кадров, способных адаптировать учебный процесс под индивидуальные потребности каждого учащегося. Кроме того, существует необходимость в разработке и использовании специальных методик и технологий, способствующих эффективному обучению разнообразных учеников.

Однако несмотря на эти вызовы, есть определенные шаги, которые могут быть предприняты для улучшения ситуации. Важно увеличить финансирование образования и направить его на поддержку инклюзивных программ и услуг. Также необходимо инвестировать в подготовку и поддержку педагогов, обеспечивая им необходимые знания и навыки для работы с разнообразными учениками [7]. Кроме того, разработка и использование индивидуализированных учебных планов, а также внедрение инновационных технологий в образовательный процесс могут значительно улучшить доступность и качество образования для всех.

В целом, создание инклюзивной образовательной среды требует совместных усилий со стороны правительств, образовательных учреждений, педагогов, родителей и общества в целом [8]. Реализация этих мер позволит создать более справедливую и равноправную образовательную среду, где каждый ребенок имеет возможность развиваться и достигать своего потенциала.

Литература

1. Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 26-28.

2. Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2021). Изменения в цифровой коммуникации во время глобальной пандемии COVID-19. Молодой ученый, (21), 90-92.

3. Кузиев, Б. (2023). ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАНИИ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.

4. Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Экономика и социум, (5-2 (108)), 786-789.

5. Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. Электронное обучение как часть образовательного процесса. Ученый XXI века, 1, 43.

6. Муртазина, Д. Р. (2023). МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 139-145.

7. Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. ПРИМЕНЕНИЕ АУДИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ. УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА, 77.

8. Эмиль, М. (2023). ОБЛАСТИ ЗНАНИЙ ДЛЯ РОБОТОТЕХНИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 18-20.

9. Якименко, И. В., Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2023). СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЕ МАШИННОЕ ОБУЧЕНИЕ ДЛЯ РАДИОЧАСТОТ. Экономика и социум, (11 (114)-1), 1196-1199.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI

Xudoyorova N.N., o‘qituvchisi (TDMAU)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari keng tahlil qilinadi. O‘zbek tilining rivojlanish bosqichlari, grammatik tuzilishi, leksikologik o‘zgarishlari va fonetik xususiyatlari ilmiy asoslangan holda yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada tilning zamonaviy ijtimoiy hayotdagi o‘rni, til o‘zgarishining ijtimoiy omillari va tilning boshqa tillar bilan munosabatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Tilshunoslik nazariyasining asosiy tamoyillari, til tizimining ichki va tashqi qonuniyatlari hamda o‘zbek tilining grammatik va stilistik jihatlari haqida batafsil fikrlar bildirilgan. Ushbu maqola o‘zbek tilshunosligi sohasida izlanish olib borayotgan mutaxassislar, talaba va tadqiqotchilar uchun muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, tilshunoslik, nazariy masalalar, grammatika, leksikologiya, fonetika, stilistika, til tizimi, ijtimoiy tilshunoslik, o‘zbek tilining rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются теоретические вопросы узбекского языкознания. На научной основе объясняются этапы развития, грамматический строй, лексикологические изменения и фонетические особенности узбекского языка. В статье также уделяется внимание роли языка в современной общественной жизни, социальным факторам языковых изменений, взаимосвязи языка с другими языками. Подробно рассмотрены основные принципы теории языкознания, внутренние и внешние закономерности языковой системы, грамматические и стилистические аспекты узбекского языка. Данная статья является важным ресурсом для специалистов, студентов и исследователей, проводящих исследования в области узбекского языкознания.

Ключевые слова: узбекский язык, лингвистика, теоретические вопросы, грамматика, лексикология, фонетика, стилистика, языковая система, социолингвистика, развитие узбекского языка.

Tilshunoslik fani, xususan, oʻzbek tilshunosligi soʻnggi yillarda jadal rivojlanib, til tizimi, uning grammatik, leksik va fonetik xususiyatlari chuqur tahlil qilinmoqda. Tilshunoslikning nazariy masalalari tilning umumiy qonuniyatlarini oʻrganish, tildagi oʻzgarishlarni kuzatish va ularni ilmiy asoslashga qaratilgan. Ushbu maqolada oʻzbek tilshunosligining asosiy nazariy masalalari koʻrib chiqiladi. Til tizimining ichki va tashqi omillari, grammatik va stilistik oʻzgarishlar, shuningdek, zamonaviy tilning ijtimoiy hayotdagi oʻrni keng tahlil qilinadi.

Oʻzbek tili uzoq tarixga ega boʻlib, u turli davrlarda oʻziga xos rivojlanish yoʻlini bosib oʻtgan. Tilshunoslar oʻzbek tilining qadimgi, oʻrta va yangi davrlarini ajratib koʻrsatishadi. Qadimgi oʻzbek tili deb ataluvchi davr turkiy tillar bilan yaqin bogʻliq boʻlgan boʻlsa, oʻrta asrlarda Alisher Navoiy davrida tilning adabiy va grammatik jihatlari yuksak darajada rivojlandi. Hozirgi zamon oʻzbek tilining rivojlanishida esa ijtimoiy omillar katta rol oʻynaydi, bu tilning yanada takomillashuvi va zamonaviy texnologiyalarga moslashishiga imkon yaratmoqda.
Grammatika har qanday tilning asosiy unsurlaridan biri boʻlib, oʻzbek tilshunosligida ham muhim oʻrin tutadi. Oʻzbek tilining grammatik tuzilishi boshqa turkiy tillar bilan yaqinlikka ega boʻlsa-da, u oʻziga xos xususiyatlarga ham ega. Masalan, oʻzbek tilidagi fe’l, ot, sifat va boshqa soʻz turkumlari oʻzlarining morfologik tuzilishi va sintaktik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Tilshunoslar grammatik tuzilishni nafaqat tuzilish jihatidan, balki ularning funksional jihatlarini ham oʻrganadi. Bu esa tilning amaliy qoʻllanishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Leksikologiya oʻzbek tilidagi soʻz boyligini oʻrganadi. Soʻzlarning kelib chiqishi, ularning maʼno jihatidan kengayishi yoki torayishi, yangi soʻzlarning paydo boʻlishi bu fan sohasining asosiy masalalari hisoblanadi. Oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirgan soʻzlar ham leksikologik tahlilning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, bu tillararo aloqalarni hamda madaniy va ijtimoiy omillarni oʻrganishga yordam beradi. Leksikografiya esa lugʻatlarni tuzish, soʻzlarning maʼnosini toʻgʻri belgilash va ularni tizimlashtirish bilan shugʻullanadi.

Oʻzbek tilining tovush tizimi – fonetikasi, tilshunoslikning asosiy tadqiqot sohalaridan biridir. Fonetika oʻzbek tilidagi tovushlarning hosil boʻlishi, ularning akustik xususiyatlari va talaffuzi bilan shugʻullanadi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa, oʻzbek tili va uning shevalarida uchraydigan fonetik oʻzgarishlarni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Fonologiya esa tovushlarning til tizimida qanday rol oʻynashini va ularning til strukturasidagi funktsiyasini oʻrganadi. Oʻzbek tilida urgʻu, boʻgʻin va tovush almashinuvi kabi hodisalar fonologik jihatdan chuqur tahlil qilinadi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida inson hayoti va jamiyat bilan chambarchas bogʻliq. Oʻzbek tilining zamonaviy davrdagi rivoji ijtimoiy omillar bilan bogʻliq boʻlib,

globalizatsiya jarayonlari, zamonaviy texnologiyalar va yangi kommunikatsion vositalar tilga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, tilning zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga moslashuvi va bu jarayondagi o‘zgarishlarni o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbek tili tarixan boshqa tillar bilan faol aloqada bo‘lib kelgan. Bu jarayon davomida o‘zbek tiliga arab, fors, rus va boshqa tillardan ko‘plab so‘zlar kirib kelgan va bu leksik tarkibning boyishiga sabab bo‘lgan. Til o‘zaro aloqalari natijasida o‘zbek tilining grammatik tuzilishida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Zamonaviy davrda ingliz tilining ta’siri sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu jarayon tilshunoslar tomonidan doimiy kuzatib borilmoqda.

O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari – bu tilni chuqurroq o‘rganish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish jarayonidir. O‘zbek tilining grammatik, leksik va fonetik tuzilmalari, uning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o‘rni o‘zbek tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu nazariy masalalarni chuqur o‘rganish tilshunoslik fanining yanada rivojlanishiga va o‘zbek tilining yanada mukammal o‘rganilishiga katta hissa qo‘shadi.

O‘zbek tilshunosligi milliy tilning tuzilishi, rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini o‘rganish uchun muhim nazariy asoslarni taqdim etadi. O‘zbek tili fanida fonetika, morfologiya, sintaksis, leksikologiya va stilistika kabi asosiy yo‘nalishlar orqali tilning nazariy masalalari chuqur o‘rganiladi. Ushbu maqola O‘zbek tilshunosligining asosiy nazariy yo‘nalishlarini yoritishga, til tizimiga oid dolzarb muammolarni ko‘rsatishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda tilshunoslikning nazariy aspektlariga oid ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Fonetika, morfologiya, sintaksis va leksikologiyaga oid nazariy yondashuvlar bir-biri bilan taqqoslandi. Asosiy metod sifatida lingvistik tahlil va izohlash usullari qo‘llanildi. Shuningdek, mavjud manbalar asosida O‘zbek tilshunosligida ilgari surilgan asosiy nazariy yondashuvlar tahlili va baholash amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida O‘zbek tilshunosligining nazariy yo‘nalishlari o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘langanligi aniqlandi. O‘zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi nazariy asoslar orqali yanada chuqur o‘rganilgan va bu yo‘nalishlar til tizimini tushunish uchun zarur bo‘lgan asosiy omillar ekanligi ko‘rsatildi. Xususan, fonetik tadqiqotlar orqali O‘zbek tilining tovush tizimi va undagi o‘ziga xosliklar aniqlangan bo‘lsa, morfologik tahlillar so‘z tuzilishi va o‘zbekcha so‘zlarning turkumlanishida muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek, sintaksis masalalari ham O‘zbek tilidagi gap tuzilishini va uning tarkibiy qismlarini nazariy jihatdan izohlashda asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbek tilshunosligining nazariy jihatlari o‘z ichiga bir necha dolzarb masalalarni oladi. Masalan, fonetik tahlilda O‘zbek tilining undosh va unli tovushlari tizimi va ularning ijtimoiy-psixologik omillar ta’siri haqida bahs yuritish mumkin. Morfologiya sohasida esa so‘zlarning turkumlanishi va yangi so‘zlar yasalishiga oid masalalar muhim. Shuningdek, O‘zbek tili sintaksisidagi gap tuzilishi, gap bo‘laklarining o‘zaro bog‘lanishi kabi masalalar nazariy tadqiqotlarda alohida e’tiborga loyiqdir. Leksikologiya va semantika masalalarida tilning ma’no jihatidan boyligi va turli xil nutqiy vaziyatlarda so‘zlarning o‘zgarishi tahlil qilinadi. Tilshunoslikning bu masalalari O‘zbek tilining rivojlanish bosqichlarida muhim ilmiy yutuqlarni ta’minlagan. Shuningdek, O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi ahamiyati oshib borishi bilan bu nazariy masalalarning tadqiqot doirasi kengaymoqda. O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari tilning tuzilishi va uning ijtimoiy funksiyalari haqida chuqur ilmiy bilimlarni taqdim etadi. Fonetika, morfologiya, sintaksis va leksikologiya sohalaridagi tadqiqotlar tilning yanada mukammal o‘rganilishini ta’minlaydi. Ushbu yo‘nalishlarda olib borilayotgan nazariy izlanishlar milliy tilning yanada rivojlanishi va xalqaro miqyosda o‘z o‘rnini mustahkamlashiga yordam beradi. Shu bilan birga, O‘zbek tilshunosligi kelgusida yana yangi yutuqlarga erishishi uchun ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarurdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Abduazizov, A. (2015). O‘zbek tilshunosligi masalalari. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
[2] G‘ulomov, A. (2008). O‘zbek tili sintaksisi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
[3] Yusupov, O. (2003). O‘zbek tili morfologiyasi. Toshkent: Sharq nashriyoti.
[4] Rahmatullayev, Sh. (2010). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Akademnashr.
[5] Karimov, E. (1995). O‘zbek tilining fonetikasi. Toshkent: Fan nashriyoti.\
[6] Nurmonov, A. (2005). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
[7] Vohidov, I. (2001). O‘zbek tili uslubiyati. Toshkent: Universitet nashriyoti.

INNOVATSION TA‘LIMNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xudoyorova N.N., asistenti, (TDMAU)

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan e‘tibor dolzarb mavzu hisoblanadi.Ushbu maqolada, asosan, ta‘limni texnologiyalashtirish, oliy ta`lim tizimida innovatsion ta`lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati hamda PLICKERS texnologiyasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari, ta`limni texnologiyalashtirish, interfaol uslub, mustaqil ta’lim ,PLICKERS texnologiyasi.

Yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar ta’lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta’lim tizimi respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab- yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan qilib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan e‘tibor dolzarb mavzuga aylangan. Bunga asosiy sabablaridan biri an‘anaviy ta‘limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim texnologiyalari ular egallayotgan bilimlarni o‘zlari mustaqil o‘rganib, qidirib topishlariga, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. “Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foylalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoiniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shunga ko‘ra , umumkasbiy fanlarni axborot komunikatsion texnologiyalar orqali tayyorlab, yoshlarning yanada bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga harakat qilish bugungi kunning dolzarb muammosi desak, xato qilmagan bo‘lamiz”[1]

O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati benihoya kattadir. Shuning uchun oliy ta‘lim jarayonini amalga oshirish, ta‘lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish, jamoatchilik asosida ta‘lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish, uni mustahkamlash asosiy masalalardan hisoblanadi.

Ta‘limni texnologiyalashtirish – bu mustaqil o‘rganib o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta‘lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Ta‘lim texnologiyasi – bu mavjud sharoit va o‘rnatilgan vaqtda belgilangan ta‘limiy maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta‘minlovchi, muloqot, axborot, boshqaruv va o‘qitishning eng qulay yo‘l va vositalarining tartibli yig‘indisi (ta‘lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati); bu mavjud yuzaga kelgan ta‘limiy jarayon sub‘yektlarining hamkoriy

harakatlari, haqiqiy jarayon (ta‘lim berish texnologiyasining amaliyjarayon jihati) tartibi. [2]

Innovatsiya – yangilanishni, o‘zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati (inglizcha innovatsiya – kiritilgan yangilik, ixtiro). Ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek ularning turli sohalari va doiralarda qo‘llanishini aks ettiradi.

Innovatsion (yangilik kiritish) ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlari:

1. Oldindan ko‘ra bilish, ya‘ni, talabani avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o‘qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo‘ljallashga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, talaba ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko‘zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.

2. Talabalarning hamkorlikda ta‘lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta‘minlash.[3]

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda mustaqil o‘rganib, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish uni amalga oshirishda, asosan, interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol texnologiyalar - bu o‘qituvchi va o‘quvchilarga joyni almashtirishga yordam beradigan usullar. Guruhlarda muloqot qilish, ma'lumotlar ustida ishlash, talabalar o‘z-o‘zini o‘rganish uchun yangi imkoniyatlarni kashf etadilar. Bu talabalar bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladigan, umumiy muammoni hal qilishda ishlaydigan faoliyatni yaratishga qaratilgan ish uslublari va usullarining butun majmuasidir.[3]

Interfaol texnologiyalar maktablarda seminarlar, bahs-munozaralar, muammoli ma’ruzalar, munozaralar orqali amalga oshiriladi, bunda o‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirishlari, o‘z fikrini bahslashishni o‘rganishlari mumkin.

Bugungi kun o‘qituvchisi mustaqil o‘rganib universal mutaxassis, ham o mustaqil o‘rganib o‘rgatuvchi, ham mustaqil o‘rganib o‘rganuvchi bo‘lishi, ya`ni o‘mustaqil o‘rganib z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak. O mustaqil o‘rganib qituvchilar zimmasidagi mas`uliyatli vazifani to‘laqonli uddalash uchun ta`lim va tarbiyaning zamonaviy usullaridan keng foydalanishga harakat qilish zarur.

Dars jarayonlariga axborot komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish talabalarning fan sirlarini puxta egallashlariga keng yo‘l ochadi.Ularning dunyoqarashini kengaytirib,intellectual salohiyatini oshiradi. Ana shunday innovatsion texnologiyalardan biri bu PLICKERS dasturidir.[4]

Xorijiy davlatlarda ta’lim tizimiga mazkur dasturning tadbiq etila boshlanganiga ancha bo‘ldi. Mazkur dastur talabaning o‘tilgan mashg‘ulotlar va

uyga berilgan vazifalarni chuqur o‘zlashtirishiga keng imkoniyat yaratadi.Bu dasturning ta`lim jarayoniga tadbiq etilishi har bir talabaning bilim darajasini sezilarli oshirish barobarida ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

E`tiborli tomoni shundaki, dastur nihoyatda sodda va qulay. Undan foydalangan o‘qituvchi talabalar auditoriyasi bilan tezkor aloqani amalga oshirishga ega bo‘ladi. PLICKERS dasturini dars jarayoniga tadbiq etish alohida kompyuter sinfi yoki talabalarni boshqa jihozlar bilan ta`minlashga ehtiyoj tug‘dirmaydi.Mashg‘ulot o‘qituvchining plansheti yoki mobil telefoni orqali boshqariladi. Bu o‘quvchilar uchun ham juda qiziqarli. Chunki dars jarayonida berilgan savollarga kim tez va to‘g‘ri javob topishi kabi o‘yin elementlari paydo bo‘ladi.

Mazkur dastur bo‘yicha dars o‘tmoqchi bo‘lgan o‘qituvchi smartfon yoki telefoniga internet tarmog‘idan PLICKERS mobil ilovasini yuklab olishi kerak.Ushbu ilovaning afzalligi shundaki, o‘qituvchining planshetiga o‘rnatilgan mobil ilova o‘quvchilarga tarqatilgan qog‘oz kartalaridagi QR (Quisk Response-inglizcha tezkor javob mazmunini anglatadi) kodlarni o‘qiydi.O‘qituvchi proyektori bo‘lgan kompyuter orqali o‘quvchilarga savol yo‘llaydi. So‘rov oxirida uning natijasi ekranda paydo bo‘ladi.[5]

PLICKERS texnologiyasidan foydalangan holda darslarni tashkil etish samarali natijalar beradi. Mazkur dastur bir vaqtning o‘zida butun guruh talabalarining bilim darajasini aniqlab, guruhning umumiy o‘zlashtirishini shaffof tarzda, o‘sha daqiqaning o‘zida ekranda namoyon etadi. Bu usul talabalrda katta taassurot qoldirib,dars jarayonida ularning faolligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turanova Iroda Oliy ta‘lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish 217-bet
2. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollar (zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari).Mualliflar uruhi./T.OOMQHTRM, 320-bet;
3. Ergashev R.N,Ergasheva G.M, Eshonqulova M.X. Boshlang‗ich ta`lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi.-T.:Toshkent,2021.-119bet;
4. Ibragimov X.Abdullayeva Sh.Pedagogika nazariyasi.-T. ‖Fan va texnologiya‖, 2008.-225-bet.
5. G.Dj.Tosheva, B.B.Toirov Innovatsion texnologiyalar ta’lim taraqqiyotining asosiy kuchi va tutgan o‘rni.

YER OSTI NAMLIGINING BINO VA INSHOOTLAR DEVORLARIGA TA’SIRI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Do‘sbekov T.M., o‘qituvchi, (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada grunt namligidan bino poydevor va devorlarini an’anaviy himoya qilish usullari, grunt namligining poydevorga va u orqali devor tanasiga kirib borishiga ishonchli to‘siq bo‘la olmasligi, unga yangicha qarash masalasi ko‘tarilgan. Mazkur masalani hal etish uchun bino-inshootlar poydevorlari va devorlarini yer osti suvlarining hamda grunt namligidan saqlash bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tartibi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: gidroizolyatsiya, grunt suvlarining agressivligi, bosimsiz gidroizolyatsiya, bosimga qarshi gidroizolyatsiya, kapillyarga qarshi gidroizolyatsiya.

Sokol - devorning birinchi qavat poli sathidan pastda joylashgan, bino atrofidagi yer sathigacha kamida 0,45-0,5 m bo‘lgan qismi bo‘lib, devorni grunt namligi, atmosfera namligi va boshqa mexanik ta’sirlardan, polda zaxlik paydo bo‘lishidan saqlaydi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri poydevor ustida yotadi yoki poydevorning davomiy qismi hisoblanadi. Devorni gruntdan ko‘tarilishi mumkin bo‘lgan kapillyar namlikdan saqlash uchun sokolda otmostkadan kamida 150-200 mm balandlikda, poldagi gidroizolyatsiya qatlami sathida pol, ruberoid kabi rulonli materiallardan gorizontal gidroizolyatsiya qatlami yotqiziladi. Seysmik hududlarda esa bu gorizontal gidroizolyatsiya qatlami, qalinligi 30 mm dan kam bo‘lmagan 1:2 nisbatdagi sement-qum qorishmasidan bajariladi .

GIDROIZOLYATSIYA MATERIALLARI-qurilish konstruksiyalari va inshootlarini, binoni, suv va kimyoviy agressiv suyuqliklarning zararli ta’sirlaridan himoya qilinadigan materiallar. Vazifasiga kura, Gidroizolyatsiya materiallarining filtralanishga qarshi, korroziyaga qarshi va germetiklaydigan xillarga; asosiy materialining turiga ko‘ra bitumli, plastmassali, mineral, metall va boshqa xillari bor.

Bitumli Gidroizolyatsiya materiallari eritkichlarda suyuqlantirilgan bitumlar (bitum laklari va emallari) dan yoki suvda eriydigan bitumlar (bitumli emulsiyalar, pastalar) dan foydalaniladi va bevosita himoya qilinadigan materiallarga surkaladi.

Keyingi vaqtlarda elastikligi yuqori va yorilmaydigan bitumli-polimer Gidroizolyatsiya materiallari keng ishlatiladi. Plastmassali Gidroizolyatsiya materiallari epoksid, poliefir, polivinil va boshqa lak-bo‘yoqlar, polimer eritmalar va betonlar, polietilen, polivinilxlorid pardalar, kauchukli germetiklar, rezina lentalar, shishaplastlar tarzida ishlab chiqariladi va ular himoya qilinadigan materiallarga surkaladi, suvaladi, yelimlanadi va qoplanadi. Mineral

gidroizolyatsiya materiallari sement, loy va boshqa qovushoq minerallar asosida tayyorlanib, sement va silikat bo‘yoqlar, gidrofob to‘kmalar, loy-beton tuldirgichlar tarzida ishlab chiqariladi. Ular himoya qilinadigan materiallarni bo‘yashda, suvashda filtrlanishga qarshi tuldirgichlar sifatida ishlatiladi. Metall gidroizolyatsiya materiallari jez, mis, qurg‘oshin, pulat listlar tarzida ishlab chiqariladi, himoya qilinadigan materiallar uraladi. Hozirda metall Gidroizolyatsiya materiallarining o‘rnini plastmassali, shishaplastikali Gidroizolyatsiya materiallariga olinmoqda.



Devorlarni poydevor orqali gruntdan ko‘tarilishi mumkin bo‘lgan kapillyar namlikdan saqlash usuli (usullari)dan foydalangan holda ham, devorlarda namlikning yuqoriligi-bu juda ko‘p foydalanilayotgan (ekspluatatsiya qilinayotgan) binolar uchun muammodir. Ayniqsa bu muammo, 96 grunt namligi bilan bevosita aloqada bo‘lgan eng noqulay sharoitlarda ishlaydigan yerto‘la va sokol devorlari uchun juda muhimdir. Binolarni ekspluatatsiya qilish amaliyoti shuni ko‘rsatdiki, grunt bilan poydevor, devorlar bilan poydevor orasidagi gorizontal va vertikal gidroizolyatsiya o‘zining himoya xususiyatlarini yo‘qotishi tufayli, tashqi devor grunt namligi bilan namlanganda, binolarning ekspluatatsiya sifati, ularning mustahkamligi va uzoqqa chidamliligi sezilarli darajada kamayadi. Keng tarqalgan vertikal gidroizolyatsiya usullari (bo‘yoq, yopishtiriladigan, suvoq) ham 10-12 yildan keyin namlikni poydevor tanasiga kirishining oldini olish xususiyatini

yo‘qotadi. Gruntlar namligidan namlangan poydevordan tashqi devorlarni himoya qilish sifatida turli gidrofob qo‘shimchalarga ega sement-qum qorishmali gorizontal gidroizolyatsiya qatlamlar qo‘llaniladi va bu qatlam ham vaqt o‘tishi bilan o‘z (gidroizolyatsiya) xususiyatlarini yo‘qotadi (1-rasm).



1-rasm. Grunt namligidan namlangan tashqi devor

Binolarning ekspluatatsiya qilish davrida gorizontal va vertikal gidroizolyatsiya qatlamlarning o‘z xususiyatini yo‘qotishi yoki shikastlanishi, grunt namligining poydevor tanasiga shimilishiga va namlikning kapillyar naychalar orqali devorlarning pastki qismlarini namlanishiga olib keladi.

Amalda, poydevor to‘liq namlanadi va bu namlik kapillyar naychalar orqali g‘isht devorlarda 0,5 m balandlikkacha ko‘tariladi. Agar devor materialida yuqori gigroskopiklikka ega bo‘lgan xlorid tuzlari mavjud bo‘lsa, bu namlik 3-4 metr balandlikga, ba’zan esa 5-6 metr balandlikgacha ko‘tariladi. Bunday namlanishning oqibatlari tashqi devorlarning issiqlik muhofazasi sifatlarining pasayishiga, xona pardozining buzilishiga va ifloslanishiga, bino fasadida tuz dog‘larining hamda namlangan tashqi devor ichki sirtida mog‘or va qo‘ziqorinlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi (2-rasm). Ushbu holat, bunday binolarda yashashga va ishlashga majbur bo‘lgan odamlarni bir qator jiddiy kasalliklar bilan kasallanishiga olib kelishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, xorijda (xususan Germaniya, Norvegiya va Finlyandiya) olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu hodisalar sababli kelib chiqadigan kasalliklar tufayli o‘lim darajasi, yo‘ltransport hodisalari natijasida yuzaga kelgan o‘lim darajasidan ortib ketgan.

Noqulay gigienik sharoitlardan tashqari, tashqi to‘siq konstruksiyalarida namlikning ortishi tashqi to‘siq konstruksiyalarning buzilishini tezlashishiga olib keladi. Bu esa ekspluatatsiya xarajatlarning sezilarli o‘sishiga sabab bo‘ladi.



2-rasm. Namlangan tashqi devor ichki sirtidagi mog‘or va qo‘ziqorinlar

Hozirgi vaqtda qurilishga bo‘lgan talab va munosabat o‘zgarmoqda, ko‘plab yangi texnologiyalar va qurilish ashyolari qo‘llanilmoqda. Biroq, bino va inshootlar qurilishi sifatiga, uning uzoqqa chidamliligiga, ishonchlilik darajasiga, bino va inshootlarning ichki va tashqi muhitiga, tashqi devordan issiqlikning intensiv yo‘qotilishiga sezilarli ta’sir etuvchi omil-kapillyar namlikning sokol devorlari orqali devor qalinligiga kirib borishidan saqlash muammosini hal etishga oqsamoqda. Buning asosiy sabablariga quyidagilarni keltirish mumkin:

-masalaga yetarlicha ahamiyat bermaslik, ayniqsa aholi turar-joylari qurilishida mutaxassislarning jalb etilmasligi;

-binoni qurish va boshlang‘ich foydalanish davrida tashqi devor namligi sezilmasdan, ma’lum vaqt o‘tgach undagi namlikning sekinlik bilan oshgani uchun, unga yetarlicha e’tibor bermaslik;

-konstruksiyalardagi assimilyatsiya hodisasi tufayli, poydevorni grunt namligidan himoyalovchi aniq va keng tarqalgan, amaliyotda vaqt sinovidan o‘tgan usul (yoki usullar) ning mavjud emasligi;

-tashqi devorlarni, sokol devorlari-poydevor orqali o‘tadigan kapillyar namlikdan himoyalovchi gorizontal gidroizolyatsiya qatlamining aniq va keng tarqalgan, amaliyotda vaqt sinovidan o‘tgan usul (yoki usullar)ning mavjud emasligi;

-ushbu masalaga tegishli adabiyotlarda, shu jumladan, amaldagi me’yoriy hujjatlarda ham, aniq talablarning mavjud emasligi;

-qo‘llanilayotgan namlikdan himoyalovchi (gidroizolyatsiya) ashyolarning xizmat davri, ularning doimiy namlanishi tufayli, atrofidagi namlanmagan ashyolardan (beton, g‘isht) sezilarli kamligi;

-poydevorlarni yer osti suvlarining agressiv ta’siridan himoya qilishga yetarlicha e’tibor qaratmaslik, ya’ni poydevorlarni ostki qismidan gidroizolyatsiya qilishga alohida e’tibor bermaslik;

-muammoga oid ilmiy izlanishlar va tavsiyalarning nisbatan kamligi, zamonaviy namlikdan himoyalovchi (gidroizolyatsiya) ashyolarni o‘rganmaslik, targ‘ibot etmaslik, ularning qimmatligi yoki bajarish texnologiyalarining o‘zlashtirilmaganligidir.

Ekspluatatsiyadagi bino va inshootlar umrboqiyligini ta’minlash uchun, birinchi navbatda ularning asos va poydevorlarini o‘rganib, haqiqiy texnik holatini baholash, zarur bo‘lgan hollarda esa poydevor usti gidroizolyatsiyasini tiklab, asos gruntini mustahkamlash yoki poydevorni kuchaytirish lozim bo‘ladi. Tadqiqot doirasida namlikning kapillyar ko‘tarilishiga gidroizolyatsiya konstruksiyasining ta’sirini o‘rganish maqsadida, bino va inshootlar devorlarini namlikdan muhofaza etish muammosiga bag‘ishlangan maxsus ilmiy tajriba sinov ishlari bajarilishi rejalashtirildi. Bu tajriba sinov ishlari ikkita holatda olib boriladi:

a) birinchi holatda - poydevor tovoni grunt namligidan himoya qilingan holda, poydevor va devor o‘rtasida turli qatlamli gorizontal gidroizolyatsiyalar hosil qilinib, poydevor ustki qismida barpo etilgan devorlarda namlikning kapillyar ko‘tarilishi hamda o‘zgarishi vaqt mobaynida kuzatib boriladi;

b) ikkinchi holatda-poydevor tovoni grunt namligidan himoya qilinmagan holda, poydevor va devor o‘rtasida turli qatlamli gorizontal gidroizolyatsiyalar hosil qilinib, poydevor ustki qismida barpo etilgan. Devorlarda namlikning kapillyar ko‘tarilishi hamda o‘zgarishi vaqt mobaynida kuzatib boriladi.







Barcha tajribalarda foydalanilgan suv turli agressiv tarkibli qilinib, uning sathi poydevor tovoni sathidan bir xil balandlikkacha ushlab turiladi. Tadqiqotning bosh mezoni etib, binolarni ekspluatatsiya qilish davrida gruntdagi namlikni, bosimsiz yuza suvlaridan hosil bo‘ladigan grunt namligini, yer osti suvlari sathining ko‘tarilishidan hosil bo‘ladigan grunt namligini assimilyatsiya tufayli poydevor konstruksiyasi tanasiga shimilishiga va undagi namlikni devor tanasiga o‘tkazmaydigan, qurilish jarayoni jadalligiga sezilarli ta’sir etmaydigan, uni qo‘llashda maxsus sharoit, qo‘shimcha asbob-uskunalar talab qilmaydigan, Respublikamizda ishlab chiqariladigan xom-ashyolardan tanlab, sinovdan o‘tkazib, amaliyotda qo‘llash uchun samarali usul ishlab chiqish va tavsiya etish belgilangan.

Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish maqsadida, poydevor va devor namligini vaqt bo‘yicha o‘zgarishini aniqlovchi MEGEON 20501-rusumli (qattiq materiallarning namligini o‘lchagich-Vlagomer) zarur asbob-uskuna bilan ta’minlandi. Shu bilan birga qalinligi 3 mm li po‘lat listlardan, eni 62 sm, uzunligi 100 sm, balandligi 25 sm etib, 6 dona maxsus qutilar yasaldi.

Tajriba-tadqiqotlardan olingan ma’lumotlar davriy ravishda, turli jadvallarda qayd etilib, statistik tahlil qilinib, umumlashtirilib borildi. Kuzatuvlar hamda tajriba-tadqiqot sinov ishlari kamida bir yilga, ya’ni to‘rt mavsumga mo‘ljallangan.

Xozirgi kunda yangi qurilayotgan binolar soni ortib bormoqda. Ushbu binolarda xam bino-inshootlar poydevorlari va devorlarini ichki va tashqi yomgir, qor, yer osti suvlarining hamda grunt namligidan turli mexanik ta’sirlardan saqlash bo‘yicha turli gidroizolyatsiya konstruksiyalari ishlatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.E.S.Tulakov. Binolarning energiya samaradorlik injeneringi. O‘quv qo‘llanma. 2020 y. 114, 128-betlar.

2.Tulakov E. S., Inoyatov D. T., Kurbonov A. S. Waterproofing And Calculation Of The Thickness Of The Insulation Of The Basement Wall Of A Low-Rise EnergyEfficient House In Accordance With Domestic And Foreign Standards And Norms //International Journal of Scientific and Technology Research.-2019. -T. 8. -№. 11. -S. 3311-3314.

3.Dusbekov T.M. LINKING A MODERN INTERACTIVE METHOD TO THE METHOD OF AUDIO SLIDE PEDAGOGICAL TECHNOLOGY "Ekonomika i sotsium" №12(91) 2021 www.iupr.ru
https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_fc5cd1ee91e4482890598bb1ea9cfe1b.pdf?index=true
4. Do‘sbekov T M. Tarmoq texnologiyasi asosida masofaviy ta’lim shartlari va ta’lim jarayonini tashkil etish xususiyatlari. "Ekonomika i sotsium" №11(90) 2021 www.iupr.ru
https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_51b31efcb4674ca9bdee672781ad2a1b.pdf?index=true
5.Dusbekov T.M. DISTANCE EDUCATION AND METHODS OF ITS ORGANIZATION GALAXY In Volume 9, Issue 8, Aug, 2021 ISSN (E): 2347-6915
https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/229/219
6.Do‘sbekov T M O‘zaro bog‘liqlik metodi, o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi tarmog‘i "Ekonomika i sotsium" №12(91) 2021 www.iupr.ru
https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_fc5cd1ee91e4482890598bb1ea9cfe1b.pdf?index=true

YERNI MASOFADAN ZONDLASH TIZIMLARI SAMMARADORLIGI

S.B.Majitov, A.E.Abrayev assistentlar (TDMAU)

Odamlar har doim biror obyektni yaxshiroq ko`rish uchun unga biror qulay nuqtadan yoki yuqoridan qarashgan. Insoniyat ilgari qush kabi uchib yerni “Qushni ko‘zlari orqali ko‘rish”ni orzu qilishgan. Ma’lum vaqt o‘tib fan-texnika taraqqiyoti natijasida aviatsiya fotografiyasi orqali “katta surat”ni ko`rish, suniiy yo`ldosh orqali esa yerni yuqoridan ko`rish imkoniga ega bo‘ladi.

Masofadan turib zondlash (MZ) yer yuzasini turli xildagi tasvirga olish apparaturlari bilan jihozlangan aviatsion va kosmik vositalardan turib kuzatish uslubi hisoblanadi. Bunda foydalaniluvchi tasvirga olish apparatlarida qo‘llaniluvchi to‘lqin uzunliklarining ishchi holatdagi diapazoni mikrometrning ulushlaridan (ko‘rinuvchi optik nurlanish spektri qiymatiga mos keladi) metrgacha (radioto‘lqinlar spektriga mos tushadi) oraliqni tashkil qiladi (1-rasm).



1. Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 26-28.
2. Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2021). Изменения в цифровой коммуникации во время глобальной пандемии COVID-19. Молодой ученый, (21), 90-92.
3. Кузиев, Б. (2023). ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАНИИ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.
4. Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Экономика и социум, (5-2 (108)), 786-789.
5. Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. Электронное обучение как часть образовательного процесса. Ученый XXI века, 1, 43.
6. Муртазина, Д. Р. (2023). МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 139-145.
7. Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. ПРИМЕНЕНИЕ АУДИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ. УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА, 77.
8. Эмиль, М. (2023). ОБЛАСТИ ЗНАНИЙ ДЛЯ РОБОТОТЕХНИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 18-20.
9. Якименко, И. В., Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2023). СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЕ МАШИННОЕ ОБУЧЕНИЕ ДЛЯ РАДИОЧАСТОТ. Экономика и социум, (11 (114)-1), 1196-1199.

TEXNIKA FANLARI O‘QUV-MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Xudaykulov Rustam Zakirovich (TDMAU)
Xudaykulova Saida Zakirovna (TDPI)

Fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini intensifikatsiyalash, ya’ni qisqa muddatda yuqori samaradorlikka erishish yo‘llarini ishlab chiqish vazifasi ko‘ndalang qo‘yilmoqda. Bu vazifani ta’limda eng ilg‘or innovatsion texnika vositalaridan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Ayniqsa, talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ana shunday innovatsion ta’lim vositalaridan o‘quv-mashqlantiruvchi trenajyorlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Muhandislik ta’limi jarayonida mashqlardan foydalanish favqulotda muhim hisoblanadi. Mashqlar-mehnat ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishni muhim sharti hisoblanib,innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatni oshirilishini ta’minlaydi.

O‘quv mashqlantiruvchi trenajyorlar mehnat ko‘nikma va malakalarini egallashda muhim ahamiyat kasb etuvchi mashqlarni mukammal egallashga xizmat qiluvchi texnika vositasi bo‘lib, undan laboratoriya mashg‘ulotlarida, mustaqil topshiriqlarni bajarishda va uning natijalarini nazorat qilishda foydalanish mumkin[1].

O‘quv ustaxonalarida mehnat-ko‘nikma malakalarini shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi.Amaliy mashg‘ulotlar 3 xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

1) Yangi mehnat usul va operatsiyalarni o‘zlashtirish.

2) O‘zlashtirilgan usul va operatsiyalarni mustahkamlash.

3) Nazorat va baholash uchun amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish.

Amaliy mashg‘ulotlarni asosini instruktaj (yo‘riqnoma) mashqlar va labaratoriya tajribalari tashkil etadi.

Instruktaj (yo‘riqnoma). Bu ish jarayonini boshlashda, ish vaqtida va ish yakunida beriladigan ma’lumotlar, ko‘rsatmalar va yangiliklar haqida tushunchalar berib o‘tiladi.

Mashqlar. Har doim mehnat harakati usullari va operatsiyalari qisqa muddatli mashqlardan boshlanadi. Shuning uchun ham bu mashqlarni shartli ravishda ta’limiy mashqlar deyiladi.

Mashqlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar mehnat harakatlarini, usullarini va operatsiyalarini o‘zlashtiradilar. Bularga ish o‘rnini tashkil etish, bo‘ldigan ishlarni rejalshtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Mashqlarga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi.

1) Mashqlar talabalarning ongli faoliyatiga asoslanishi kerak.

2) Mashqlar va ularning qismlari (elementlari)ortirib boriladigan tartibda joylashtirilishi lozm.

3) Mashqlar jarayonida o‘quvchi o‘z harakatlarini nazorat qilib, borish darajasiga erishib borishi lozim.

4) Mashqlar davomida texnika vositalari (trenajyorlardan) foydalanish maqsadga muvofiq.

„Trenajyor’’ tushunchasining lug‘aviy ma’nosi (inglizcha „train’’ so‘zidan olingan) „o‘qimoq’’, „mashq qilmoq’’ demakdir. Trenajyor o‘quv mashqlantiruvchi qurilma bo‘lib, uning yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (masalan: mashina mexanizmini) boshqarish, murakkab stanokda ish boshqarish yoki murakkab texnika sirlarini o‘rganish ko‘nikmalari shakllantiriladi, ko‘nikmalar malakalarga aylantiriladi va hosil qilingan malakalar takomillashtiriladi[2].

O‘quv-mashqlantiruvchi trenajyorlar vazifalarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

-muayyan uskuna, mexanizm va mashinalarda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi vazifaviy trenajyorlar;

-individual faoliyat ko‘nikmalarni shakllantirishga aniq innovatsion jarayonni bohqarishga, shtatli va shtatsiz yoki avariyali holatlarga mo‘ljallangan trenajyorlar;

-murakkab holatlarda ko‘nikma hosil qilishga mo‘ljallangan tizimli trenajyorlar;

-turli xil holatlarda bir necha guruhlar birgalikda ishlab chiqishiga mo‘ljallangan guruhli trenajyorlar;

O‘quv mashqlantiruvchi trenajyorlarni ta’lim jarayoniga tadbiqi majmuaviy harakterga ega bo‘lib, ularni o‘quv vositasi sifatida qo‘llash jarayonini chuqur tahlil qilish, ijobiy taraflarini hamda didaktik imkoniyatlarini aniqlash talab etiladi.

Trenajyorlarning asosiy didaktik imkoniyatlariga quyidagilar kiradi.

-talabalarda nazariy bilimlar asosida innovatsion faoliyatni bajarishga oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;

-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tashxislash va kasbga yo‘llash;

-aqliy, matorli va sensamatorli ko‘nikmalarni shakllantirish;

-ish jarayonini bajarish, ritmlash va ta’limning ketma-ketligini ta’minlash;

-ko‘nikmalar majmuini hosil qilish;

-tajriba sharoitida shu ish malakasiga o‘rgatish;

-hosil bo‘lgan ko‘nikmalarni malakaga aylantirish;

-talabalarni muayyan faoliyatni mustaqil bajarishga tayyorlash;

Demak, o‘quv-mashqlantiruvchi trenajyorlar talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularni mustaqil ish boshqarishini amalga oshirishda yaqindan yordam beradi[3].

Labaratoriya tajribalari mehnat ta’limi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Labaratoriya tajribalari orqali diagnostikaning ba’zi muammolarni hal etishga ularning mazmun mohiyatini tushunib yetishga erishiladi.

Labaratoriya tajribalarini tashkil etishga quyidagi talablar qo‘yiladi.

1.Labaratoriya tajribalari,o‘quv materialining mazmunini to‘la aks ettirishi lozim.

2.Labaratoriya tajribalarining o‘quv maqsadlari aniq va ra shan belgilanishi lozim.

3.O‘tkaziladigan labaratoriya tajribalari talabalarning yosh xususiyatiga va saviyasiga mos bo‘lishi kerak.

4.Labaratoriya tajribalari tushunarli va talabalarni qiziqtiradigan darajada tashkil etilishi lozim.

5.Labaratoriya tajribalarini frontal va zveno shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bunda frontal-jamoaviy va kichik guruhlardan tashkil etilishi mumkin. Zveno esa faqat kichik guruhlardan tashkil topadi.

Innovatsion ta’lim vositalari talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini reja va maxsus metodika asosida tashkil qilish hamda ko‘zlangan maqsadga erishishni va o‘qitilgan natijani qo‘lga kiritishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.N.Saidaxmedov. Pedagogik amalyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari-Toshkent: RTM,2000

2.Sh.Sharipov va Pedagogik amalyot. Metodik qo‘llanma.-Toshkent: TDPU,2006

3.D.A.Txorjevskiy.Mehnat ta’limi metodikasi.-Toshkent.O‘qituvchi,1987.

AVTOMOBIL YO‘LLARIDA OG‘IR YUK AVTOMOBILLARNING TA’SIRINI TADQIQ QILISH BO‘YICHA MAVJUD USLUBLAR

Ashurov Elyor To‘lqinovich assistent., TDMAU
Narzullayev Xurshid Saydullayevich assistent., TDMAU
Abdusalomov Sherxon Rustam o‘g‘li student., TDMAU

Annotatsiya. *Hozirgi holatidagi taxlilar shuni ko‘rsatadiki, yo‘l qoplamasiga tashqi temperatura tasirida asfaltbeton qoplamasining temperaturasi natijasida deformatsiya buzilishlar, qoplamaning yuk ko‘tarish qobiliyatidagi bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar mavjud bo‘lib yo‘l qoplamasida deformatsiya nuqsonlari paydo bo‘lishida natijasida deformatsiyaning vujudga kelishini tahlil qilish.*

Kalit so‘zlar: *iqlim sharoiti, qoplama harorati, og‘ir yuk, transport, g‘ildirak izi, deformatsiyalar*

Avtomobil yo‘llari mamlakatning muhim boyligi bo‘lib, iqtisodiyotning o‘sishida asosiy omillardan hisoblanadi. Transport vositalari ishining samaradorligini, yuklarni yetkazib berish va yo‘lovchilarni tashish tezligini, harakat xavfsizligini va qulayligini oshirish, shuningdek, yuk tashish tannarxini pasaytirish uchun avvalo avtomobil yo‘llarining transport-ekspluatasion ko‘rsatkichlarini oshirish, yo‘llarni ta’mirlash va saqlash ishlarini tubdan yaxshilash zarurdir.

Avtomobil yo‘llaridagi qoplamalar keyingi yillarda jadal deformatsiyalanishi va buzilishning sabablaridan biri - ularning ishlash sharoitlari uzgarishidir. Transport oqim miqdori va sifat jixatdan uzgaradi, xarakat jadalligi, og‘ir yuk transport vositalarining yukka tushadigan yuklama, xisobiy xarakat tezligi, yengil va yuk avtomobillarining dinamik imkoniyatlari oshadi.

Iqlim va ob-havo tabiat faktorlarining asosiy qismi bo‘lib, yo‘lning transport-ekspluatasion ko‘rsatkichlariga, avtomobillarning harakat rejimi va harakat xavfsizligiga hamda ularning ishlash qobiliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Avtomobil yo‘lari turli xil ta’sirlar va tabiiy omillar ostida ishlaydi.

Bu ta’sir etuvchilar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

1. Yo‘l poyi va to‘shamasini mustahkamlik va xizmat qilish muddatiga ta’siri;
2. Yo‘lning qoplama yuzasida bo‘ladigan o‘zgarishlari g‘ildirak izi va qoplamani siljish xususiyatlari ta’siri.

O‘zbekistonda 9 oyda ortiqcha yuk bilan harakatlangan 3572 nafar haydovchi jazolandi. Respublikaning janubiy hududlari yani Surxondaryo viloyatidagi xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan M39 “Olmata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1395-1400 km va 1410-1426 km (21 km) qismlarini

rekonstruktsiya qilish loyihasi doirasida xalqaro (Islom taraqqiyot banki) mablag‘lari tomonidan – 18,0 mln.$ (AQSH dillori) miqdoridagi pul mablag‘lari evaziga 1330-1395 km, 1400-1410 km va 1426-1451 km (jami 100 km) qismini rekonstruktsiya qilish ob‘ekti doirasida iqtisod qilingan mablag‘lar hisobiga mazkur ob’ekt qurilishi belgilab berilgan. Hozirgi kunda ushbu hududdan transport oqimi tarkibida yuqori dinamik xususiyatlariga ega bulgan xorij avtomobillari xarakatlanishi ortib borayapti. Ushbu xududlarda joylashgan Sherobodsement zavodi hamda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi karerlar joylashgan bo‘lib ularda tashilayotgan yuk miqdorlarining belgilangan o‘qga tushadigan yuklama me’yoridan katta. Asfaltbeton qoplamali avtomobil yo‘llarida g‘ildirak izi deformatsiyasini hosil bo‘lmasligiga katta e’tibor qaratish lozim.

Chunki Surxondaryo viloyati iqlim sharoitda asfaltbetonda g‘ildirak izi deformatsiyasi tez rivojlanadi. Tahlil natijalari asosida quyidagi M39 “Olmata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1400-1426 km uchaskalaridagi o‘rganish natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

Respublikaning janubiy hududlarida issiq quruq iqlim sharoiti bo‘lib viloyatning gidrometeorologiya markazi tomonidan berilgan ma’lumotga asosan viloyatda issiq havo-iqlim sharoiti o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, quruq o‘zgaruvchan, maksimal 44 C ÷ 46.5 C ni tashkil qiladi. Bunday issiq iqlim sharoitida qoplama haroratini aniqlash muhimdir.



	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
2021 y.	22	28,9	26,5	37,9	42,5	44,9	44,5	41,9	38,5	27,9	26,6	25,5
2022 y.	18,8	22,2	25,7	36,9	38,7	43,9	46,5	39,5	38,1	31,5	24,4	17,9
2023 y.	17,9	23,6	20,5	35,1	38,7	44,1	42,9	42,3	41,5	34	26,7	23,7

1-rasm Sherobod tumani yuqori iqlim harorat ko‘rsatgichi

M39 “Olmata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1400-1426 km rekonstruksiya qilingan uchaskalarda yo‘lning holati ekspluatatsiya

davrida borgan sari yomonlashib bormoqda. Asfaltbeton qoplamadagi harorat avtomobil yo‘lining konstruksiyasini o‘zgarishiga olib kelishi aniqlandi;

Asfaltbeton qoplamaga harorat ta’sirida g‘ildirak izi paydo bo‘lishi 2–rasmda aks etgan.



2– rasm: M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1398-1420 kmlarda qoplama g‘ildirak izi va siljish deformatsiyalar

Ushbu buzulishlar sababini tadqiq qilish maqsadida 2024 yil yoz oyida xalqaro ahamiyatga molik M39 «Olmati-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz» avtomobil yo‘lining 1402-1426 kilometrlarida “Sherabod-Termiz” yo‘nalishida og‘ir yuk transport vositalari yo‘l qoplamasiga bo‘lgan deformatsiyani vujudga kelish tadqiqotlarda aks etgan bo‘lib g‘ildirak izi 5-7 smlarni tashkil qilmoqda.

Avtomobil yo‘llari qoplamalarining konstruksiyasiga harorat sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu holat har bir qatlamning mustahkamlik darajasini yomonlashuviga olib keladi. Ma’lumki, asfaltbetonning elastiklik modulining mustahkamligi harorat oshishi bilan kamayadi.

Qo‘shimcha ma’lumotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, transport vositalari va qaplamadagi harorat bir paytda ta’sir ko‘rsatishi oqibatida g‘ildirak izi deformatsiyasi yanada tezroq rivojlanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida harorat o‘lchandi. Yo‘l qoplamasiga tushgan zo‘riqish parametrlarining haroratga bog‘liqligi o‘rganildi.



3–rasm: Asfaltbeton qoplamaning harorati

Bugungi kunda og‘ir yuk avtomobillarini ko‘payib ketishi me’yordan ortiq yuk ortishi oqibatida qoplamaga jiddiy zarar yetkazmoqda. Yo‘l qoplamalarida g‘ildirak izini paydo bo‘lishi hamda ko‘prik qoplamalarini siljishi ortidan foydalanishga topshirilmasdan (qoplama yotqizilganiga 3 yil bo‘lgan), bugungi kunga kelib yo‘l bo‘lagi qoplamasi qayta ta’mirlanmoqda.

Ushbu buzulishlar sababini tadqiq qilish maqsadida «Sherabod yo‘llardan foidalanish» unitar korxonasi mutaxassislari 2023 yil sentabr oyida xalqaro ahamiyatga molik M39 «Olmati-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz» avtomobil yo‘lining 1402 kilometrida “Sherabod-Termiz” yo‘nalishida og‘ir yuk transport vositalarining vazn va hajm o‘lchamlarini nazorat qilish mobil tarozi ishga tushirildi.



4–rasm: M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining
1402 kmda og‘ir yuk transport vositalarining vaznini TENZO mobil tarozida o‘lchov ishlari.

Og‘ir yuk transport vositalari nazorat qilinganda ortiqcha vazn yuk bilan harakatlanayotgan transport vositalari aniqlandi.

Avtomobil yullarini ekspluatasiya qilishning dunyo tajribalarini tahlil qilishdan ma’lum bo‘ladiki, qoplamalarning deformasiyalanishi va buzilishiga va bu nuqsonlarning rivojlanishiga ekspluatasiya davridagi talablarga rioya qilmaslik va o‘z vaqtida ta’mirlanmaslik jiddiy ta’sir qiladi. Qoplamalarga xavo xarorati yuqori bo‘lganda surilib ketishga, yeyilishga, plastik deformasiyalarga qarshilik qila oladigan materiallarni topish masalasi fan oldida turgan muxim muammo xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.X.O‘roqov Avtomobil yo‘llarini ta’mirlash va saqlash texnologiyalari. Darslik T.-TAYLQEI. – 2019.
2. O‘roqov A.X., Narmanov A.Q. Egrashev Q.X. “Asfaltbeton qoplamalaridagi g‘ildirak izi deformatsiyalarining hosil bo‘lishiga og‘ir transport vositalaridan tushadigan kuchlarning ta’siri”. Transport sohasidagi xalqaro mutaxassislarni tayyorlash. 926- 929 b T: 22.04.2022 y.
3. I.S. Sodiqov “Avtomobil yo‘llarining transport ekspluatatsion ko‘rsatkichlari” Darslik/ Toshkent-TAYLQEI. – 2019.
4. MKN 52-2008 Nobikr yo‘l to‘shamalari mustahkamligini baholash va uni kuchaytirishni hisoblash bo‘yicha ko‘rsatmalar.
5. **Katta hajimli va og‘ir vazinli yuklarni avtomobil transportida tashish xarakat havfsizligini ta’minlash** Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.12.2011 yildagi 342-son qarori.

KOLOSNIKLI PANJARANING SAMARALI KONSTRUKSIYASI

Berdimuratov U.T., t.f.f.d., dotsent, TerDMAU,
Qilichev A.SH., TerDMAU talabasi

Jahonda paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasi, paxtani tozalash jarayoni, paxtani tozalash jarayoni samaradorligini oshirish, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, fan-texnikaning eng oxirgi yutuqlarini sanoatga keng joriy etish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada paxtani tozalash jarayonida tola va chigitning dastlabki sifat koʻrsatkichlarini saqlash va mahsulot sifatini boshqarish imkonini beradigan ixcham texnologiyalar hamda uskunalarning sodda, kam material va energiya sarflaydigan konstruksiyalarini yaratish, modellashtirish boʻyicha tadqiqotlar ustivor hisoblanadi. SHu bilan birga chigit shikastlanishining oldini olish, sifatli tola olish uchun tozalash mashinalarini takomillashtirish samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Paxta xomashyosini ifloslikdardan tozalash jarayoni uning ifloslanish xususiyati va tozalash mashinalarining ishchi organlarining samaradorligi bilan belgilanadi. Tozalash mashinalari paxta xom ashyosidan yirik ifloslikdardan (gʻoʻza poyasi, gʻoʻza, barg va boshqalar) tozalash mashinalarga va mayda ifloslikdardan (barg, koʻchat, gul, chang va boshqalar zarralari) tozalash mashinalarga boʻlinadi.

Paxta xom ashyosidan ifloslikdardan tozalash samaradorligi koʻp jihatdan maʼlum bir paxta naviga xos sifat xususiyatlariga, paxtaning sanoat naviga va namligiga, tola uzunligiga, paxta xom ashyosida ifloslikdar turish vaqtiga, ifloslikning yopishish xususiyatiga va boshqa koʻplab koʻrsatkichlar bogʻliq.

Paxta xomashyosini yirik ifloslikdardan paxta tozalagichining yangi konstruksiyasida kolosnikli panjaralar koʻp qirrali va ularning panjaralarlari egri chiziqli, panjaraning bir uchi chetlarining burilish burchagi boshqa uchiga nisbatan. 45^0, besh qirrali panjara bilan 36^0 va olti burchakli panjara bilan 30^0, qarama-qarshi qoʻshni panjaralar yuzlarining aylanish yoʻnalishi boʻyicha tayyorlangan [1].

Bir qator ishlarda rezinali vtulka koʻrinishdagi qayishqoq tayanchli kolosniklar oʻrganildi. Mualliflar nazariy va tajribaviy tadqiqotlar va rezinali vtulkaning qayishqoq dissipativ xususiyatini aniqladilar. [2].

Muallif tomonidan bajarilgan ishlarida paxtani yirik ifloslikdardan tozalagichni arrali-kolosnikli sistemasini yangicha joylashtirish taklif qilingan kolosniklarini uchtadan kolosnikli guruxda oʻrnatish taklif qilingan, bunda arrali baraban bilan birinchi kolosnik oraligi 16 mm, ikkinchi kolosnik bilan 12 mm [3].

Panjaraning boshqa konstruksiyasida bir juft yon devorlari teshiklari bo‘lgan va panjaraning yon devorlari orasiga joylashtiriladi, uning o‘qining oxirgi qismida yon devorlarning teshiklarida joylashgan elastik vtulkalar o‘rnatiladi [4].

Tozalagichda paxtani mayda iflosliklardan tozalash zonasi, qoziqli barabanlar va ularning ostidagi to‘r, ular bilan almashinadigan katta iflosliklardan paxta tozalash uchun maydon, tishli barabanlar va ularning ostida panjara, mahkamlangan cho‘tka mavjud [5].

Kombinatsiyalangan paxta tozalash mashinasining konstruksiyasining kamchiliklari shundaki, u mayda iflosliklarni tozalaydi. Bundan tashqari, paxta xom ashyosi tozalagichi, ham kichik, ham katta iflosliklar uchun yetarlicha yuqori tozalash samaradorligiga ega emas [6,7].

Paxta tozalash korxonalarida paxta xomashyosini mayda va yirik iflosliklardan tozalashda UXK paxta tozalash agregati qo‘llaniladi (1-rasm).



1- rasm. UXK paxta tozalash agregatining sxemasi

1- UXK. 01. boshlang‘ich ta’minlovchi valikli bo‘lim; 2- UXK. 02. ikkita oraliq bo‘lim; 3- UXK. 03. yakuniy bo‘lim.

Paxtani mayda iflosliklartdan tozalash zonasini o‘z ichiga olgan paxta tozalash mashinasi qoziqli barabanlar va ularning ostidagi to‘r, paxtani katta iflosliklartdan tozalash zonasi uni almashtirib turadigan, arrachali barabanlar va kolosnikli panjara bilan jihozlangan. SHu bilan birga, yirik iflosliklardan tozalash zonasining panjaralari ko‘p qirrali va o‘z o‘qiga nisbatan aylanadi, birinchi tozalash zonasining panjaralari o‘z o‘qiga nisbatan $\alpha_1=12^0$ (2-rasm), ikkinchi zona $\alpha_2=9^0$ (3-rasm), 2=90, uchinchisi. zona $\alpha_3=6^0$ (4-rasm). SHuni ta’kidlash kerakki, qo‘shni kolosniklarning burilish burchaklari qarama-qarshi amalga oshiriladi. Tozalash boshida paxta xomashyosi kamroq tozalanadi va shuning uchun katta aylanish burchagi $\alpha_1=12^0$ bo‘lgan kolosniklar orqali paxtani samarali bo‘shatish muhim ahamiyatga ega. YAkuniy tozalash zonasida paxta ko‘proq tozalanadi va shuning uchun uni samarali tashish uchun panjaralar o‘z o‘qi bo‘ylab 6^0 ga aylantiriladi.



2-rasm. 3-rasm. 4-rasm.

Paxtani iflosliklardan tozalagichning samarali konstruksiyasi ishlab chiqildi va tavsiya etildi. Izlanishlar asosida paxtani ifloslilardan tozalagichning asosiy parametrlari asoslandi, bunda paxatni iflosliklardan tozalagichning to‘xtovsiz ishlashini ta’minlovchi zarur tozalash samaradorligini va ish unumdorligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.Zikriyoyev. Paxtani dastlabki qayta ishlash. Toshkent, “Mehnat”, 2002, 408 bet.

2. Djurayev A., Rosulov R.X., Berdimuratov U.T., Xolmirzayev J.Z. Tolali material tozalagich. № IAP 07077. 30.09.2022. Byull., № 9.

3. Djuraev A., Rosulov R., Kholmirzaev J., Diyorov N., Berdimuratov U. Development of effective construction and justification of parameters of the cleaner of fibrous material // E3S Web of Conferences 304, 03031 (2021) ICECAE 2021. 1-9 rr.

4. A.Djurayev i dr. Kolosnikovaya reshetka ochistitelya voloknistogo materiala. Patent UZ.NIAP 05853, Byul.№6, 2019.

5. (Avtorskoye svidetel’stvo №1801998, kl. D 01V9 / 14, 1993).

6. U.T. Berdimuratov, A. Djurayev, R.X. Rosulov, J.Z. Xolmirzayev. Razrabotka effektivnoy konstruksii xlopkoochistitel’nogo agregata i metodika rascheta obshey zoni melkoy ochistki**.** «Tendensii razvitiya tekstil’noy promishlennosti: problemi i puti resheniya» 1-Mejdunarodnaya nauchno prakticheskaya konferensiya. 23-34 aprelya 2021goda. 335-340str.

7. Djurayev A. Dinamika rabochix mexanizmov xlopko-pererabotivayushix mashin. Tashkent: Izd-vo Fan UzSSR, 1987, s.168.

TOLALI MATERIAL TOZALAGICHNING ARRACHALI BARABANI

Djurayev A., t.f.d., prof., TTESI,
Rosulov R.X., t.f.d., prof., TTESI,
Berdimuratov U. t.f.f.d., dots., TerDMAU,
Norboyeva D., t.f.f.d., dots. NamMQI,
Imomnazarov M. magistr, TTESI,

Paxta tozalash korxonalarida jinlarning me’yorda ishlashini ta’minlash va tola tarkibida iflos aralashmalarni kamaytirish uchun paxta, toshlar, metall buyumlar, organik iflos aralashmalar va ulyukdan tozalanadi.

Paxtani mayda iflos aralashmalardan, ulyukdan tozalash uchun qoziqchali barabanlar, to‘rli yuzalar, chigitli paxtani hamma ko‘rinishdagi iflos aralashma va

ulyukdan tozalash uchun esa arrachali barabanlar, ildiruvchi choʻtka, kolosnikli panjaralar va choʻtkali ajratuvchi barabanlar bilan jihozlangan paxta tozalash mashinalari qoʻllaniladi [1].

Paxtani yirik iflosliklardan tozalashda UXK paxta tozalash agregati (1- rasm) qoʻllanilib, u toʻrtta tozalash boʻlimiga ega, boshlanishida UXK.01 ikkita oraliqdagi UXK.02 va oxirida UXK.03 kiradi va ular bilan birgalashtirilgan boʻlimlar oʻrnatilgan boʻladi. Tozalash boʻlimlari har biri qoziqchali, ikkita choʻtkali ajratuvchi barabanga ega boʻlgan choʻtkali boʻlimga va arrachali seksiyaga ega. Uning asosiy ishchi organlari arrachali baraban va kolosnikli panjaradan tashkil topgan. Qiyin tozalanuvi paxta seleksiyalarini tozalash uchun boshlangʻich va soʻnggi seksiyalariga bittadan 1XK paxta tozalash mashinalarini birlashtirish tavsiya etiladi. UXK paxta tozalash agregati quyidagi tartibda ishlaydi: paxta xomashyosi taʼminlash valiklari orqali qoziqli barabanlarga uzatiladi, toʻrli yuzalarda tashib oʻtilgan paxta xomashyosi arrachali baraban yuzasiga jipslashtiruvchi choʻtkalar yordamida ildirilib, kolosniklarga borib uriladi. Paxta xomashyosi arrachali baraban yuzasiga bir tekisda taqsimlanmasdan, uning asosiy qismi arrachali baraban oʻrtasiga uzatiladi [2]. SHuning hisobiga tozalagichning samaradorligi pasayib ketadi. Yirik iflosliklar markazdan qochma kuch hisobiga kolosniklar orasidan tushib ketadi. Tozalangan paxta xomashyosi keyingi texnologik mashinalarga uzatiladi.



4.3- rasm. UXK paxta tozalash agregatining sxemasi

1- UXK. 01. boshlangʻich taʼminlovchi valikli boʻlim; 2- UXK. 02. ikkita oraliq boʻlim; 3- UXK. 03. yakuniy boʻlim.

Paxtani yirik iflosliklardan tozalashda arrachali barabanlarda arrachali segmentlarning koʻndalang kesimi U – simon koʻrinishda boʻlib, baraban qoplamasiga maxsus moslamalar yordamida qotiriladi [3].

SHuningdek, tolali materialni tozalash uchun arrachali segmentni baraban qoplamasiga mahkamlashning yechimi mavjud [4].

Taklif etilayotgan konstruksiyaning asosiy maqsadi uskunaning tozalash samaradorligini oshirish maqsadida paxta xomashyosining arrachali baraban butun uzunligi bo‘yicha bir tekisda taqsimlashdan iborat.

Tolali materialni tozalash uchun arrachali barabani konstruksiyasining mohiyati shundan iboratki, arrachali baraban qoplamasiga ko‘ndalang keismi U - simon shaklidagi qotirilgan segmentlarni o‘z ichiga oladi, arrachali segmentlar (lenta) tishlarining qadami boshqacha, tishlarning eng katta qadami o‘rta segmentlarda, eng kichik pog‘ona esa chekka segmentlarda, ya’ni segmentlar tishlarining qadami barabanning o‘rta segmentlaridan chekka segmentlariga (lenta) kamaygan holda amalga oshiriladi. .

Bu quyidagi munosabatlarga ega: $t_c=2t_k$

bu yerda t_c,t_k – mos ravishda o‘rta va chekka tishlarining qadami.

Baraban yuzasining atrofi bo‘ylab to‘rtta bir xil segment o‘rnatilgan.

Segmentlarni barabanda o‘rtadan chekka bo‘laklarga kamayib boruvchi bosqichlarda bajarish paxtaning baraban uzunligi bo‘ylab bir tekisda tashib o‘tish va tozalanishini ta’minlaydi.

2-rasmda arrachali barabanningumumiy ko‘rinishi, 3-rasmda A-A qirqimi, 4-rasmda barabanning chekka qismiga, 5-rasmda barabanning o‘rta qismiga o‘rnatilgan arrachali segmentlar keltirilgan.



2-rasm barabnning umumiy ko‘rinishi

1-baraban; 2-arrachali segment; 3-qotrish vinti; 4-val.



3-rasm.
A-A qirqimi



4-rasm.Baraban chekka qismiga o‘rnatilgan arrachali segmentlar



5-rasm. Baraban o‘rta qismiga o‘rnatilgan arrachali segmentlar

Konstruksiya quyidagicha ishlaydi. yetkazib berilgan paxta segmentlarning 2 tishlari bilan ushlanib, kolosnikli panjaralari bo‘ylab tashib o‘tadi (chizmada ko‘rsatilmagan). Paxtaning kolosnikli panjara bilan o‘zaro ta’sirida ajralib chiqadigan iflosliklar chiqindi oli chiqib ketish moslamasiga tushadi. Paxta xomashyosi arrachali baraban yuzasiga bir tekisda taqsimlanmasdan, uning asosiy qismi arrachali baraban o‘rtasiga uzatib berilishini hsiobga olgan holda [2] arrachali barabanning 1 segmentlar 2 tishlarining ko‘paygan (ikki marta) soni paxta qismlarini kerakli ushlashni ta’minlaydi. Bu arrachali barabanning butun uzunligi bo‘ylab paxtani jipslashishini, tashib o‘tishini va tozalashning zaruriy bir xilligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik.M.T.Kuliyevning umumiy taxriri ostida, 2019y., 479bet.

2. Miroshnichenko G.I. Osnovi proyektirovaniye mashin pervichnoy obrabotki xlopka. M.: Mashinostroyeniye, Izd. Legkaya promishlennost’, 1972, 472 str.

3. Avtorskoye svidetel’stvo SSSR, №1567660. kl D01 G9/14. 1998.

4. Fedorov V.S. Texnologiya pervichnoy obrabotki xlopka. 1937, s.208-209.

DAVLAT STANDARTLARI VA UNDAGI SHARTLI BELGILAR

Turayev Xumoyuddin (TerDU) professori, (PhD)
Abdiraxmanov S.N (TDMAU)

Chizma chizishdagi aniqlik shartlari. Har qanday chizma aniq va mukammal darajada chizilishi talab qilinadi. Mukammal chizilmagan chizma orqali buyumni yasab bo‘lmaydi. Shunday ekan, chizma chizishda asosan, O‘zbekiston Davlat standartlari, O‘zbekiston Respublikasi konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi

(KHYAT) asosiy qoidalari (O‘z.DSt 2.001:2003) talablari to‘liq bajarilishi shart.

Barcha geometrik yasashlar aniq amalga oshirilishi zarur. Bu erda chizmadagi jism tomonlarining o‘zaro parallelligi va perpendikularligi, markaziy va simmetrik o‘qlaming to‘g‘ri va aniq tasvirlanishi, aylanalar va ularning yoylari, ularga o‘tkazilgan urinmalar qoidalarga amal qilingan holda aniq bajarilishi lozim.

Chizmalarni chizish uchun qo‘llaniladigan chizma asboblari ham to‘g‘ri sozlangan bo‘lishi zarur, aks holda chizmalar aniq chizilmaydi. Chizmalarni aniq chizish bo‘yicha juda ko‘p maslahatlar berish mumkin. Quyidagi mavzular orqali ular to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalaringizni boyitib olasizlar degan umiddamiz.

Standartlashtirish texnika taraqqiyotini tezlashtirish, kompleks mexanizatsiya va avtomatlashtirishni ishlab chiqarishda joriy qilish, korxonalarni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va uning tannarxini arzonlashtirishda muhim ahamyatga egadir. Standartlar texnik hujjatlar bo‘lib, ular buyumlarning o‘lchash, shakli, og‘irlik va boshqa sifatlarini ko‘rsatadi. Chizma standartlari esa chizmalarni va eskiziarni bajarishda qabul qilingan qoida va shakl (forma)larni belgilaydi. Chizma standartlari qonun kuchiga ega. Ular mashinalar va apparatlar ishlab chiqaradigan korxonalarda, sanoat bilan bog‘liq bo‘lgan loyiha idoralarida, barcha o‘quv yurtlarida majburan joriy etiladi.

Buyumlar ishlab chiqaradigan korxonalar o‘z mahsulotlarini, shu mahsulotlar bo‘yicha qabul qilingan standartlarga muvofiq tayyorlab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining konstruktorlik hujjatlari yagona tizimi (O‘zKHYT) 2003-yil 17-noyabrda qabul qilindi va O‘zDSt 2.001:2003 deb belgilandi.

O‘zDSt standart nomeri O‘zKHYT standartlar klassiga berilgan 2 raqam bilan tuzila boshlanadi (quyidagi jadvalga qaralsin):

Klassifikatsion guruhlarning tarkibi:

1-jadval:

Guruhlar shifri	**Standartlar bo‘limi**	**Standartlar guruhlarining nomlari**
0	O‘zDSt 2.001	Asosiy qoidalar
1	O‘zDSt 2.100 dan O‘zDS t 2.199 gacha	Umumiy qoidalar
2	O‘z DSt 2.201 dan O‘z DSt 2.299 gacha	Konstruktorlik hujjatlarida buyumlar klassifikatsiyasi va belgilari
3	O‘z DS t 2.301 dan O‘z DSt 2.399 gacha	Chizmalarni chizish bo‘yicha umumiy qoidalar
4	O‘z DSt 2.401 dan O‘z DSt 2.499 gacha	Mashinasozlik va asbobsozlik chizmalarini bajarish qoidalari

5	O‘z DSt 2.501 dan O‘z DSt 2.599 gacha	Konstruktorlik hujjatlarini hisobga olish, saqlash, dublikatlarini olish, o‘zgarishlar kiritish qoidalari
6	O‘z DSt 2.601 dan O‘z DSt 2.699 gacha	Ekspluatatsio n va ta’mirlash hujjatlarini bajarish qoidalarini
7	O‘z DSt 2.701 dan O‘zDSt 2.799 gacha	Sxemalarni bajarish qoidalari va sxemalarda qo‘llaniladigan grafik belgilar
8	O‘zDSt 2.801 dan O‘z DS t 2.899 gacha	Qurilish va kemasozlik hujjatlarini bajarish qoidalari
9	O‘zDSt 2.901 dan O‘zDSt 2.999 gacha	Qolgan standartlar

O‘zDSt — O‘zbekiston davlat standartining belgisi (indeksi)

2 - O‘zKHYT standartining klassi

0 - Standart guruhining klassifikatsiya shifri

01 - Guruhdagi standartning tartib raqami

2003 - Standart ro‘yxatga olingan yil

O‘zKHYT standartning belgilanishiga misol: O‘zDSt 2.001:2003

Formatlar

O‘zDSt2.301:2003 ko‘rsatmasiga binoan hamma chizmalar ma’lum formatdagi qog‘ozga chiziladi. Standart asosiy beshta - A4, A3, A2. Al va AO formatlarni tasdiqlagan. Barcha formatlar uchun o‘lcham birligi sifatida o‘lchamlari 210x297 mm bo‘Igan A4 format qabul qilingan. Qolgan formatlar A4 ning bir tomonini ikkiga, ikkala tomonini ham ikkiga va hokazo ko‘paytirishdan hosil qilinadi.



1.1-rasm

Chizma formati ramkasi va asosiy yozuvi. O‘zDSt 2.104:2003 ko‘rsatmasiga muvofiq mashinasozlik ishlab chiqarish chizmalarida asosiy yozuvlar

chizma qog‘oz ramkasining pastki o‘ng tomoni burchagida joylashtiriladi. Asosiy yozuvga chizmada tasvirlangan jismning nomi, kim tomonidan chizilgan, qachon chizilgan, kim tomonidan tekshirilgan va qabul qilinadi, chizilgan jismning materiali, mashtabi kabilar yoziladi.

Chizmani albom yoki kitob qilib tikish maqsadida uning ramkasi chizma qog‘ozining chap tomonidan 20 mm, qolgan uchala tomonidan 5 mm dan joy qoldiriladi.Chizmada o‘quv chizmasining asosiy yozuvining shakli va o‘lchamlari ko‘rsatilgan.Chizmada asosiy yozuvining grafalarini yozib to‘ldirish berilgan.



1.2-rasm

Chiziq turlari

Har qanday chizma shartli tasvir hisoblanadi va u turli yo‘g‘onlikdagi chiziqlardan foydalanib chiziladi. O‘zDSt 2.303:2003 chizma chiziqlarining quyidagi ko‘rinishlarini tasdiqlagan:

l. Asosiy tutash yo‘g‘on kontur chiziq;

2. Shtrix ko‘rinmas kontur chiziq;

3. Ingichka tutash chiziq;

4. Shtrix-punktir chiziq;

5. Tutash to‘lqin chiziq;

6. Ikki nuqtali shtrix-punktir chiziq;

7. Uzuq yo‘g‘on chiziqlar. Bu chiziqlarning grafik tasvirlanishi va tatbiq etilishi quyidagi chizma, a, b larda ko‘rsatilgan.



1.3-rasm

1. Asosiy yo‘g‘on tutash chiziq - u bilan detallning ko‘rinib turadigan kontur chizig‘i, kesim va qirqim tarkibiga kiruvchi konturlari chiziladi.

2. Shtrix chiziq - detallning ko‘zga ko‘rinmaydigan konturlarini tasvirlash uchun qoilaniladi.

3. Ingichka tutash chiziq - undan detallga o‘lchamlar qo‘yishda kesim yuzalarini shtrixlashda, o‘chamlar qo‘yishda, shuningdek, chizmalarni chizishda yordamchi chiziq sifatida foydalaniladi.

4. Ingichka shtrix-punktir chiziq - aylana markaz chiziqlari, simmetriya o‘q chiziqlarini tasvirlashda qo‘llaniladi.

5. Tutash to‘lqinsimon chiziq - undan detaining tasviridagi qismini qirqimda ajratib ko‘rsatishda, detal to‘liq tasvirlanmaganda, uni uzib tasvirlashda foydalaniladi.

6. Ikki nuqtali ingichka shtrix-punktir chiziq detal yoyilmalarini bajarganda bukiladigan joylarini tasvirlash uchun qo‘llaniladi.

7. Uzuq yo‘g‘on chiziqlar - kesuvchi tekislik yo‘nalishining boshi va oxirgi, shuningdek, sinish joylarini tasvirlashda tatbiq qilinadi.

Asosiy tutash chiziq yo‘g‘onligi **S** harfi bilan belgilanadi va qolgan chiziqlar yo‘g‘onliklari asosiy yo‘g‘on tutash chiziqqa nisbatan aniqlanadi, ya’ni uning tanlab olingan yo‘g‘onligiga bog‘liq bo‘ladi. Chizmadagi tasvirning kattaligi va murakkabligiga qarab asosiy yo‘g‘on tutash chiziq orqali tasvirlanayotgan kontur chiziqning yo‘g‘onligi s = 0,6 mm dan 1,5 mm gacha olinadi. Qabul qilingan kontur chiziqning yo‘g‘onligiga qarab, ko‘rinmas kontur chiziq shtrixlarining uzunligi 2 mm dan 6 mm gacha borishi lozim. Shtrixlar oralig‘i 2 mm gacha olinib undan oshib ketmasligi kerak. Qabul qilingan shtrixlar uzunligi va ular orasidagi masofa shu chizmaning barcha joyida bir xilda bo‘lishi ta’minlanishi lozim. Shtrix-punktir chiziqlarda shtrixlarning uzunligi taxminan 15 mm dan 30 mm gacha, shtrixlar

orasidagi masofa 3 mm dan 5 mm gacha bo‘lishi mumkin. Shtrixlar orasidagi nuqta biroz cho‘zilgan, ya’ni ikki-uch nuqta birlashtirilgandagi kabi cho‘zilgan nuqta tarzida tasvirlanishi lozim. Shtrix-punktir chiziqlar aylana markazida nuqta bilan emas, balki, shtrixlarning o‘zaro kesishishi bilan, oxirida ham shtrix bilan tugallanishi lozim. Aylana diametri 12 mm dan kichikroq bo‘lsa, ulardagi markaz chiziqlar tutash qilib chiziladi.

Masshtablar

O‘zDSt 2.302:2003 ga binoan chizma hujjatlarining barcha turlari uchun uch xil masshtablar mavjud: Kichraytirish masshtablari - *1:2, 1:2,5, 1:4, 1:5, 1:10, 1:15, 1:20, 1:25, 1:40, 1:50, 1:75, 1:100, 1:200, 1:400, 1:500, 1:800, 1:1000;*
Haqiqiy kattalik (natural) masshtabi - *1:1;* Kattalashtirish masshtabi- *2:1 , 2,5:1, 4:1, 5:1, 10:1, 20:1, 40:1, 50:1, 100:1.*

Buyum tasvirining chizmada asliga nisbatan qancha kattalashtirilib yoki kichiklashtirilib yoxud o‘zining haqiqiy (natural) kattaligida chizilganligini ko‘rsatuvchi son masshtab deyiladi.

Tasvirlaming masshtablari va ularning belgilanishi standart tomonidan belgilangan. Masshtab so‘zi to‘liq yozilmasdan, uning o‘rniga bosh harfi M yoziladi, masalan , M l : 2 yoki Ml : l yoki M2 :l kabi.

Asosiy yozuvning masshtab yoziladigan katagiga M harfi qo‘yilmaydi va u joyga 1:2 yoki 1:1 yoki 2:1 ko‘rinishda yoziladi.

Tasvir qanday masshtabda chizilmasin, chizmaga detaining haqiqy kattalikdagi (natural) o‘chamlari qo‘yiladi



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talaba egallagan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayangan holda berilgan muammoni ongida tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. «O‘qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta’rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O‘qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri

bo‘lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi. Bugungi kunda kompyuter grafikasi fani barcha texnika institutlarida o‘tib borilmoqda va bu fan orqali talabalar kopyuter dasturlaridan o‘qiyotgan sohasiga oid bilim ko‘nikmalarga ega bo‘lishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov.J.A “Muhandislik grafikasi” Darslik «Voris-nashriyot», «Voris-nashriyot» Toshkent-2020 233-bet.
2. Rahmonov.I, N.Qirg‘izboyeva, A. Valiyev “Darslik” «Voris-nashriyot» Toshkent-2016 33-bet
3. Turayev, X. (2020). Chizmachilik fanining nazariyasi va amaliyoti. Termiz: Termiz davlat universiteti nashri.
4. Turayev, X. (2018). Chizmachilik fanini o‘qitish metodikasi. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.

YO‘L SHAROITIDA ABS BILAN JIHOZLANGAN M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNING TORMOZ TIZIMINING ISHLASHINI BAHOLASH

Baxramov Faxridin Xuzriddinovich t.f.n., dots. (**TerDMAU)**
Abduqahorov No‘monbek Oybek o‘g‘li, magistrant, (TerDMAU)

Avtomobillar, ya’ni yengil avtomobillar yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada yo‘l sharoitida ABS bilan jihozlangan transport vositalarining davriy diagnostikasida avtomobilni sinovdan o‘tkazishni talab qiladigan bir qancha parametrlar o‘rganilib, avtotransport korxonalarida transport vositalarini sinovdan o‘tkazish har doim ham usul va vositalarning yetishmasligi tufayli amalga oshirilmasligini ko‘rsatadi. Shu bois bu masalani yechimi bugungi kunning dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda.

Yo‘l sharoitida ABS bilan jihozlangan M1 toifali avtomobillarning tormoz tizimining ishga yaroqlilik deganda transport vositasining texnik holati tushuniladi. Unda u me’yoriy-texnik hujjatlar talablariga javob beradi, ob’ektdan maqsadli foydalanishni ta’minlaydi. Ishlash samaradorligini baholash avtomobilni diagnostika nuqsonlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Diagnostika - bu ob’ektning texnik holatini uning holatini tavsiflovchi qiymatlarni o‘lchash va ularni standart qiymatlar bilan taqqoslash orqali qismlarga ajratmasdan aniqlash jarayoni hisoblanadi. Diagnostik maxsus asboblar yordamida amalga oshiriladi.



1-rasm. Avtomobilning ABS va ABS siz harakat holati

Yo‘l sharoitida ABS bilan jihozlangan M1 toifali avtomobillarning tormoz tizimining ishlashini baholash quydagi texnik reglament va GOST R 51709-2001 shartlariga muvofiq amalga oshiriladi;

- tormoz tizimini tekshirish sement-beton yoki asfalt-beton qoplamali tekis, gorizontal, quruq, toza yo‘llarda amalga oshiriladi;
- boshqaruv organlariga bir marta ta’sir etish favqulodda to‘liq tormozlash rejimida ishchi tormoz tizimining tormozlanishi orqali amalga oshiriladi;
- tormozlashning dastlabki tezligi kamida 40 km/soat bo‘lishi;
- avtomashina erkin va tormozlangan holatda;
- tormoz tizimini boshqarishni to‘liq ishga tushirish vaqti 0,2 s dan oshmasligi kerak bo‘lganda;
- jarayon davomida transport vositasining traektoriyasini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi;
- tekshirish yo‘l sharoit paytida foydalaniladigan texnik diagnostika vositalarining umumiy og‘irligi 25 kg dan oshmasligi kerak.

Texnik reglamentlarga muvofiq xizmat ko‘rsatish tormoz tizimining standart parametrlari quydagilar inobatga olinadi:

- ishlaydigan tormoz tizimi tormozlash samaradorligi va tormozlash vaqtida avtomobil barqarorligi nuqtai nazaridan tekshiriladi;
- transport vositasi o‘zining biron bir qismini kengligi 3 m bo‘lgan standart harakat yo‘lagidan tashqarida qoldirmasligi kerak;
- boshqaruv elementidagi kuch 490 N dan oshmasligi kerak;
- yo‘l qoplamasida qulflangan g‘ildiraklarning izi bo‘lmasligi kerak;

O‘lchov tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Avtomobil tezligini o‘lchash uchun sensor (avtomobilning barqaror sekinlashishini va dastlabki tormozlash tezligini aniqlash), g‘ildiraklarning burchak tezligini o‘lchash uchun to‘rtta moslama old g‘ildirak qulfining mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlash uchun foydalaniladi.

ABS tizimining samaradorligini baholash uchun turli yo‘l sharoitlarida tajribalar o‘tkazilgan bo‘lib, tajribalar natijasi shuni ko‘rsatdiki quruq yo‘lda tormoz masofasi ho‘l yo‘ldagiga nisbatan tormozlanish masofasining qisqa bo‘lishi kabi xolatlar yuzaga keladi. Biroq, muzli sharoitda ABS tizimi yordamida avtomobillarda to‘qnashuv ehtimoli kamaygan bo‘lsada, lekin to‘xtash masofasi uzun bo‘lib qolmoqda.

Xulosa.Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yo‘l sharoitida ABS bilan jihozlangan M1 toifali avtomobillar tormoz tizimining ishlashi texnik reglamentlarga muvofiq tormoz tizimining standart parametrlarini o‘rganib GOST R 51709-2001 standartlariga muvofiq aniqlab amalga oshirish samarali bo‘lib, bu haydovchining xavfsizligini ta’minlaydi. Biroq, har qanday yo‘l sharoitida haydovchilar ehtiyotkor bo‘lishlari va avtomobilning imkoniyatlarini yaxshi tushunishlari zarur. ABS tizimi kuchli bir yordamchi bo‘lsa-da, haydovchining qarorlari va harakatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Kelajakda ABS tizimini yanada takomillashtirish va boshqa zamonaviy xavfsizlik texnologiyalari bilan birlashtirish orqali yo‘l harakati xavfsizligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Faxriddin B., No‘monbek A. ABS SISTEMASI BILAN JIHOZLANGAN M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNING TORMOZ SAMARADORLIGINI MATEMATIK NAZARIY TAHLILI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 1. – С. 333- 337.

2.Технический регламент «О безопасности колесных транспортных средств», утвержденный постановлением Правительства РФ №720 от 23 сентября2009 г.

3. Xuzriddinovich B. F. et al. ABS BILAN JIHOZLANGAN AVTOMOBILNI TORMOZ PAYTIDA O‘Z O‘ZIDAN VA MAJBURIY TEBRANISHLARINI TORMOZ SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI TAHLIL QILISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 4. – С. 81-87.

MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA TA’LIM MUASSASALARIDA BITIRUVCHILARNI BANDLIGINI TA’MINLASH TIZIMI TAHLIL QILISH

Xalikov Timur Tulkinovich (TDMAU)

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini bandligini ta’milash tizimi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari. Bandlik, oliy ta’lim, bitiruvchilar,Karyera markazi, ish bilan ta’minlash.

Abstract. The article analyzes the system of ensuring the employment of graduates of higher education institutions in the Republic of Uzbekistan.

Keywords. Employment, higher education, graduates, Career Center, employment.

Hozirgi kunda, “Karyera markaz”lari (Marketing va talabalar amaliyot bo‘limi) issh faoliyti bitiruvchi talabalar va bitiruvchilar ishlash tizimi, bitiruvchi talabalar va bitiruvchilar ni ish ga joylashtirishga ko‘maklashi, suhbatdatdan o‘tish yo‘lari, ish toppish, mutaxassislik kaferdalar orqali ishlab chiqarish korxonalar bilan sharnomalar tuzish, amalyot va stajirovkalarni tashkil etish kabi vazifalarni bajaradi.

Bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash tizimi “Marketing va talabalar amaliyoti” bo‘limi mutaxasislik kafedralar yordamida asosan yo‘nalishi to‘gri keladigan korxonalar bilan aloqa asosida bo‘sh ish o‘rinlarini shakillantirishadi va bitiruvchilarga taqdim etishadi, aksariyat xolarda ko‘pkina korxonalar yangi bitirgan talablarni ishga olishshini xoxlashmaydi, bu kamchiliklarni yuqorida takidlab o‘tilgan asosiy sabablarini.

Bitiruvchi va korxonalar bilan vositachi sifatida Marketing va talabalar amaliyoti bo‘ilimi shugulanishadi. Shu tariqada bo‘lim xodimlari oliy ta’lim o‘ziga tegishli mutaxasislik korxonalar bilan yaqinda aloqa qilishi zarur.

Tatqiqot o‘tqazilayotgan oliy ta’lim “Termiz muhandislik-texnologiya instituti” asosiy bitiruvchilari muhandis-texnologlarni tayorlaydi. Surxondaryo viloyatida sa’noat ishlab chiqarish korxonalar etarli, lekin aksariyat korxonalar xusuylashtirilgan va davlatga katta soliq to‘lashadi. Shuni etiborga olinsa, har bir xususiy sektorda faoliyat yurutadidan korxona birinchi o‘rinda ishlab chiqarishda foydasini o‘ylaydi, va tayor bo‘magan kadrlarni olishni istashmaydilar. Bu xolat tadqiqot ishimizda bir necha marta ko‘rilib chiqilgan, va uning eychimi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi ““Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079 sonli farmoniga asosan oliy ta’lim muassasalarida bitiruvchi talabalar va bitiruvchilarni ish bilan ta’minlat axborot tizimini joriy etish dur.

Bugunki kunda, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi ““Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079 sonli farmoniga asosan yurtimizda fuqarolarni ish bilan ta’minlash axborot tizimlari

mavjud. Ushbu faoliyat yuritadigan ish qidirish axborot tizimlari tahlil qilinsa, ularni ikki guruhga ajratish munkun, bular davlat va nodavlat axborot tizimlari.

5-Jadval

Davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan yaratilgan axborot tizimlari

Davlat tomonidan yaratilgan axborot tizimi	Nodavlat (xususiy) tashkilot tomonidan yaratilga tizim
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI	olx Profi 24

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05 dekabr 2019 yildagi 971-sonli ““Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi joriy qilinishini va uning ishlashining ta’minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorida “Yagona milliy mehnat tizimi” raqamli platformasi faoliyat yurutadi. Yagona milliy mehnat tizimi raqamli platformasi O‘zbekiston Respublikasining 20.10.2020 yildagi O‘RQ-642-sonli qonunidagi 13-moddasida keltirilgan bandida “Har bir tashkilot, har oyda bo‘sh vakant o‘rinlarni elinqilish va ishdan bo‘shagan lavozimlarni ni ham elon qilinishi lozimligi aytib o‘tilga”. Shu munasabat bilan barcha davlat va nodavlat tashkilotlari bo‘sh vakant lavozimlarni elon qilib borishmoqda.

Ushbu tizimning avzaliklari shundaki, fuqarolar ish qidirishda qoqozbozlik va koorupsiya dan eroqda bolishadi, bunda har qanday tashkilot bo‘shagan vakant lavozim avtomatik ravishda Yagona milliy mahnat tizimiga va O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish ba bandlik vazirligining hududiy boshqarmasiga hisobot ravishda e’lon qilib borishlari zarur.

Ish qidirayotga fuqarolar tizim orqali quydagi imkoniyatlarga ega:

- O‘ziga tegishli ma’lumotlarni to‘ldirish (Rezyume);
- O‘z mutaxasislik mansub vakant lavozimlarni qidirsh.

Ish beruvchilar esa o‘ziga kerak bo‘lgan talabgorlarni qidib toppish.

Albatta,tizim har tamonlama o‘ylanib va davlat qonunlar hamda hukumat qaror va farmanlariga mos ravishda ishlab chiqilgan, lekin ming afsuski, tizimdagi

aksariyat bo‘sh vakant lavozimlar bu davlat va ijro organlari hamda korxonalar bo‘sh vakant lavozimlarni e’lon qilishadi.

Yagona milliy mahnat tizimi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonida nazorat qilinadi, va vazirli hamda oliy va professional ta’lim muassasalari bilan yaqindan xar tomonlama xamkorlik qilinib kelmoqda.

Nodavlat tizimlar bular OLX.uz va profi.uz. OLX.uz va profi.uz tizimlarini YMMT tizimi kabi fuqarolar o‘zlarini ma’lumotlari yuklash va ish qidirish imkoniyatlari mavjud, ish beruvchilar da xam shunaqa imkoniyat mavjud. Davlat va nodavlat tizimlarning asosiy farqi bu davlat korxonalarini bo‘sh vakansiyalarini elon qilinishi. Masalan YMMT tizimi orqali davlat idoralari bo‘sh vakansiyalarini elon qilishi, fuqarolar ish qidirishda davlat korxonalarini ko‘proq tanalshadi, buning asosiy sababi davlat korxonalari doyimiy oylik maosh taklif qilinishi, mehnat daftarchasiga esa mehnat faoliyati kiritilib borilishi. Nodavlat tizimlarida ish beruvchilar asosiy korxonalar nodavlat xisoblanadi, yoki kunlik ishchilarga muxtoj korxonalar ish taklif qilinadi. Albatta nodavlat tizimlari aksariyat fuqarolarga asqotadi, yaniy oliy va professional ta’limga ega bo‘lamagan fuqarolar kunlik ishlar yoki mavsumiy ishlarga ehtiyojga ega. Bu tizimlar o‘qayotga talabalarga ham maqul bo‘ladi, ular kunlik yoki mavsumiy ish qidirishiga qulay bo‘ladi. YMMT tizimida bu funksiyalar mavjudligiga qaramay, ko‘pkina fuqarolar foydalanmasligi bu soliq to‘lovlari.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari raqamli transformatsiyadan o‘tkanidek, oliy ta’lim muassasalari ham shu yo‘ldan borishi zarur. Bitiruvchilarning yangi avlod texnologiyalarga moslashuvchanligini inobatga olgan holda , bitiruvchilarni ishga joylashtirish tizimi ham raqamli transformatsiya bosqichidan o‘tishi zarur.

Raqamli transformatsiya uchun, axborot tizimini yaratib uni bitiruvchilarni ish bilan ta’nalshda joriy qilinishda qanday shartlarni hisobga olish kerak:

- Tizim talabalarni bandligiga ko‘maklashish, ish qidirish, stajirovka va amaliyot o‘tash bilan shug‘ullanuvchi oliy ta’lim xodimlari va malakali kadrlarga muhtoj ish beruvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qouish imkonini berishi kerak;
- Oliy ta’lim xodimlari uchun tizim 6bir qator jarayonlarni avtomatlashtirilish imkonini berishi kerak, masalan, bitiruvchilarni qidiruv so‘rovlariga qaram ish takliflarini shakillantirish. Bundan tashqari, oliy ta’lim xodimlariga bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni olish imkonini berish kerak;
- Tizim ish beruvchilarga oliy ta’lim muassasaliri bitiruvchilari va talabalar o‘rtasida kadrlar izlash, shunungdek, bo‘sh ish o‘rinlarni tezkorlik bilan

yangilash uchun onlayn ishga yollash imkoniyatlaridan foydalanish imkonini berish kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni https://lex.uz/docs/-6600413
2. Avdeeva E.A. Modern employee values // Scientific Bulletin of Voronezh State University of Architecture and Civil Engineering. Economics and entrepreneurship.- 2015. No. 1 (12). P.28-31.
3. Volkov V.R. Secondary employment of students: problems and development trends / V.R.Volkov // Bulletin of Economics, Law and Sociology. – 2018. – No.1. – P. 181-185.
4. Журавлева Т. Б. Механизмы регулирования процессов подготовки и трудоустройства выпускников вузов: дис. … д-ра экон. наук.- Москва, 2004.
5. Бабушкина Т., Гарсия-Исер М. Молодежь на рынках труда и образовательных услуг // Человек и труд. –2004. – №6.
6. Новиков Д. А. Модели и механизмы управления развитием региональных образовательных систем (концептуальные положения). М.: ИПУ РАН, 2001.

AMALIY MASHG‘ULOTLARNI O‘TKAZISHDA INNOVASION TRENAJYORLARDAN FOYDALANISHNING METODIK TIZIMI

Tashpulatov Boyburi Baymuratovich, o‘qituvchi (TDMAU)

Annatatsiya Talabalarning o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida kompyuter vositalari yordamida (Kompyuter virtual texnologiyalari) innovatsion trenajyorlardan foydalanish tashkil etish.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlashga bo‘lgan talab-ehtiyojlar hamda o‘quv muassasalaridagi mavjud imkoniyatlari zamonaviy, murakkab va tezkor o‘zgarib boruvchi texnikalarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishga qobil bo‘lgan zamon talabi darajasidagi malakali kadrlarga ehtiyoj o‘sib bormoqda.

Bu sohada mamlakatimiz va jahon mehnat bozorida raqobatbardosh, transversal kompetensiyalarni egallagan oliy ma’lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash kabi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha bir qancha ishlarni amalga oshirilgan.

Shuningdek Respublikada ta’lim-tarbiyaga doir muammolarni hal qilishga qaratilgan ilmiy, amaliy va innovasion tadqiqotlarni rivojlantirish hamda ilmiy maktablarni shakllantirish, ishlab chiqarishdagi yangicha texnik yechimlarni

mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatini ta’minlaydigan fundamental bilimlarni shakllantirish, ularning uzluksiz mustaqil ta’lim olishga va umumkasbiy bilimlardan maxsus o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida hamda kasbiy faoliyatda simulyator va trenajyorlarni amaliy jihatdan qo‘llash Germaniya akademik almashinuv xizmati (SES), KOIKA, ERASMUS+ kabi xalqaro tashkilotlar ko‘magida kasbiy ta’limga xorij professor-o‘qituvchilarini jalb qilish va o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash borasida amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”giqarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda o‘quv mashg‘ulotlari mavzusini yoritishda kompyuter o‘quv dasturlarining ahamiyati tobora oshmoqda. Zero, kompyuter texnikasi ta’lim vositasi sifatida katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, uning xizmatidan foydalanish har qanday mavzuni o‘quvchilar tomonidan puxta o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Biroq, ayni o‘rinda shuni qayd etish kerakki, ta’lim amaliyotida kompyuterlar xizmatidan foydalanishda ma’lum to‘siqlar mavjud. Jumladan: ta’lim dasturlari ta’limotining mavjud talabni qondira olmasligi (barcha predmet va mavzular bo‘yicha dasturlarning to‘liq ishlab chiqilmaganligi, mavjud dasturlar sifatining talabga javob bermasligi); kompyuter qurilmasi va ularni ta’mirlash borasidagi xizmat tannarxining yuqoriligi; eski model kompyuterlarining inson, ayniqsa kichik maktab yoshi o‘quvchilarining organizmiga zararli ta’siri.

Shunday bo‘lsa-da, cheklangan vaqt bo‘yicha o‘quv jarayonlarida kompyuter dasturlaridan foydalanish keng ommalashmoqda.

Biz tomonimizdan tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda ham o‘quv vositalarni guruhlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu o‘rinda muallif ularni quyidagi guruhlarga ajratadi:

1) o‘quv hujjatlari majmui, o‘quv rejasi, o‘quv dasturi, istiqbolli mavzuiy reja, tajriba-amaliy mashg‘ulot rejasi, texnologik xarita;

2) o‘quv-metodik vositalar majmui, modulli o‘quv axboroti, yo‘riqnoma, xarita, ish daftari, kundalik daftar, topshiriqlar majmui;

3) o‘qitishning vositalari majmui, plakatlar, stendlar, o‘quv-ko‘rgazmali qurollar, mashina va jihozlar, asbob va moslamalar, texnik vositalar.

Ta’lim vositasi sifatida kompyuterlardan quyidagi vazifalarni bajarishda foydalanish mumkin: o‘quvchilarga individual ta’lim berish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini baholash, o‘quvchilarga o‘z-o‘zini baholash imkoniyatini yaratish, o‘quv materiallarini mazmunan boyitish, o‘quvchilarni ijodiy

faoliyatlarga yo‘naltirish, didaktik o‘yinlarni tashkil qilish; zarur axborotlarni olish.

Tadqiqot uchun innovasion virtual trenajyorlar asos qilib olingan. Shu sababli dastlab “innovasion virtual trenajyorlar” tushunchasining mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Trenajyor deb-bu tinglovchilarning haqiqiy ob’ektni boshqarishga xos bo‘lgan harakatlarini takroran bajarish orqali moddiy ob’ektni boshqarish uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat va ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun mo‘ljallangan tinglovchini kasbiy tayyorlashning texnik vositasiga aytiladi.

Sanoatda ishlab chiqarilgan, kasb-hunar maktablarida, texnikumlarda, oliy o‘quv yurtlarida yaratilgan ko‘plab trenajyorlar mavjud.

Trenajyorlar vositasida shakllantiriladigan kasb va mutaxassisliklarning o‘z ko‘lami bo‘lib, bularga transport vositalari haydovchilari, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari, turli ishlab-chiqarish jarayonlari operatorlari, ekskvator mashinistlari, kranovщik-mashinistlar, metallga ishlov beruvchi ishchilar, elektropayvandchilar, po‘lat quyuvchi ishchilar va boshqa mutaxassislarni tayyorlashni misol qilish mumkin. Bu esa trenajyorlar kasb faoliyatga tayyorlash vositalarining eng keng tarqalgan turi ekanligidan dalolat beradi.

Trenajyorlar talabalarning lozim bo‘lgan faoliyat turiga bog‘liq ravishda bir-biridan jiddiy farq qiladi. Vazifasiga ko‘ra ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- alohida jarayonlarni amalga oshirish malakalarini hosil qiluvchi trenajyorlar (metall qirqish va egovlash, bolg‘ada zarb berish borasidagi ko‘nikmalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi, qo‘lda elektropayvandlash ishlarini oshirishda ko‘nikmalarni shakllantiruvchi va boshqalar);
- ish jarayonida zarur ketma-ketlik va ish maromini o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan trenajyorlar (stanoklarda, mashinalar, qurilmalar va boshqa texnik jihozlar);
- o‘zgaruvchan sharoitlarni baholash va tegishli harakatlarni amalga oshirish malakasini hosil qilishga mo‘ljallangan trenajyorlar (murakkab ishlab-chiqarish jarayonlarini boshqarish, avtomobilni boshqarish, yo‘l transport xodisasining oldini olish va boshqalar);
- texnik ob’ektlarning ishlash me’yorining buzilish sabablarini aniqlashga mo‘ljallangan trenajyorlar (zamonaviy ishlab chiqarish jihozlarini, radiotexnik asboblarni va boshqalarni ta’mirlash).

Trenajyorlarda turli ob’ekt va jarayonlarni modellashtirishning fizik va matematik usullaridan foydalanish mumkin. Trenajerlar haqidagi tushuncha, ularning tavsifi va tuzilishini struktura yoki sxemalar darajasida o‘rganish imkonini beruvchi o‘quv kurslari maxsus adabiyotlar mazmunini o‘rganish, universitet, institut, kasb-hunar maktablari va texnikumlarda talaba va o‘quvchilarida faoliyat jarayonida trenajyorlarni qo‘llash tajribasining hosil qilinganligini aniqlash,

shuningdek, bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayoniga tuzatishlar kiritish, ularni joriy qilish borasidagi tajriba ishlari mazmunini tahlil qilish imkonini beradi.

O‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab kompyuter texnologiyalari tez sur’atda rivojlana boshladi va ular jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bordi. Natijada real, mavjud hayotiy jarayonlarni ularning texnik va psixologik fenomenlariga asoslangan holda kompyuter grafikasi yordamida aks etish harakati boshlandi.

“Virtual hayot” (“virtuallik”) ilk bor 1980 yillarda musiqashi, kompyuter texnikasi bo‘yicha mutaxassis J.Laner tomonidan qo‘llanilgan. “Virtual” atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, “yashirin holatda bo‘lib, namoyon, sodir bo‘luvchi; ayrim vaqtlarda zarur shart-sharoitlarda namoyon bo‘lish imkoniyatiga egalik” deya tarjima qilinadi. Mazmuniga ko‘ra “reallik” (“hayot”) tushunchasi “borliqning anglangan qismi” ma’nosini anglatadi. “Virtual reallik” (boshqacha aytganda “virtual hayot”) “anglangan imkoniyat” yoki “anglash imkoniyati” demakdir. “Virtual” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “haqiqatda mavjud bo‘lmagan ayrim narsalarning mohiyatini o‘z ishiga oluvchi” degan ma’noni beradi. Rus tilida esa bu tushunchani “reallik mohiyatiga ega, biroq amalda mavjud bo‘lmagan qandaydir narsa” deb talqin etish takliflari ilgari surilgan. Virtuallik muayyan ijtimoiy holatlarni kompyuterda “jonlantirish” va kompyuterdan foydalanuvchining bu jarayonda bevosita ishtirok etishini ta’minlaydi.

Ayrim manbalarda “virtual hayot” tushunchasiga shunday ta’rif berilgan: virtual hayot-bu inson va kompyuterning majmuaviy multimedia-operativ vositalar yordamida amalga oshiriluvchi ush o‘lchamli o‘zaro harakati texnologiyasi.

Qator tushunchalarni nazariy jihatdan sharhlash tadqiqotni ilmiy-pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishiga imkon beradi. Ya’ni:

Virtual texnologiyalar-virtual obrazlar va muhit bilan yoki ularning orasida o‘zaro faol harakat qilish uchun ularni yaratish hamda amaliyotga tadbiq etish metod, vositalarini qo‘llash jarayonining modeli.

Bu o‘rinda “model” tushunchasining mohiyatini tushunib olish talab etiladi. O‘qitish vositasi sifatida qo‘llaniluvchi model tasavvurdagi (xayoliy) model emas. Zero, o‘qitish vositasi sifatida modellashtiriluvchi predmet, holat yoki jarayonga xos xususiyatlardan garshi ta’lim oluvchilar xabardor bo‘lmasalar-da, biroq o‘qituvchi yaxshi xabardor. Shuningdek, bu holatda modellashtirish ob’ektiv jihatdan yangi axborot olish va belgilangan didaktik masalalarni yechish uchun amalga oshiriladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotda “innovasion trenajyor va simulyator” tushunchasining mohiyatini ochib berishga bo‘lgan intilish ko‘zga tashlanadi. Muallifning fikricha, innovasion model qurilmalari-bu ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ma’lum bir belgilangan o‘quv vazifalarini yechish imkonini beruvchi va asosiy o‘quv axborotlari sifatida o‘rganish ob’ektlarining mexanik o‘xshashligi nazariyasi asosida yaratiladigan innovasion

modeldan iborat bo‘lgan majmua texnik vositalaridir.

Virtual texnologiyalarga xos bo‘lgan asosiy xususiyat ularning ush o‘lchamli xususiyatga, ya’ni tasvir, ovoz va ma’lumotga egalik sanaladi.

Kompyuter virtual texnologiyalari (KVT) – virtual texnologiyalarni kompyuter yordamida amaliyotga joriy etish. Virtual ta’lim-kompyuter virtual texnologiyalar yordamida tashkil etiluvchi ta’lim. Virtual ta’lim ko‘p hollarda masofaviy ta’limning muqobili sifatida qabul qilinadi. Quyidagilar kompyuter virtual texnologiyalarning asosiy elementlari hisoblanadi:

1. Lokal tarmoq va Internet.
2. Kompyuter innovasion modellar.
3. Kompyuter vositasida amalga oshiriluvchi ta’limiy nazorat tizimlar.
4. Trenejyorlar.
5. Kompyuter o‘yinlari.
6. Elektron o‘quv mashg‘ulotlariliklar.

Buning uchun avvalo, kasbiy ta’lim jarayonida “Innovasiya”, “Novasiya” va “Innovasion faoliyat” kabi tushunchalarining ta’riflari, kelib chiqishi va qo‘llanishi hamda mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar va manbalar tahlilini keltiramiz.

“Innovasiya”larni ishlab chiqish va qo‘llanish to‘g‘risida ma’lumotlar birinchi marta XIXasrning nashr etilgan ilmiy iqtisodiy adabiyotlarda berilgan va bu atama fanga “an’ana”(yo‘nalish) atamasining antonimi tarzida kirdi. Mazkur tushuncha antropologiya va etnografiya doirasida shakllandi, biroq keyinchalik bir qator ijtimoiy fanlarning predmeti sohalariga tarqaldi.

Innovasion virtual trenajyorlarni qo‘llash qamrovi juda ham keng bo‘lib, o‘z ishiga quyidagilarni oladi: o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish; ularning kirish tashxisi; o‘rganilayotgan jarayon yoki asbob-uskunalar harakatlarining umumiy tamoyillarini o‘rganish; aqliy, motorli va sensomotorli ko‘nikmalarni shakllantirish; majmuaviy ko‘nikmalarni hosil qilish; innovasion virtual trenajyorlardan samarali foydalanish ko‘nikma hamda malakalarini o‘zlashtirish; innovasion virtual trenajyorlar vositasida o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikma va malakalari shakllanganligi darajasini baholash.

Innovasion virtual trenajyorlar ham xuddi shu jihatiga ko‘ra alohida didaktik ahamiyatga ega. Zero, ular yordamida o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilishlari zarur bo‘lgan jarayonlar mohiyatini to‘la o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ko‘pshilik olim-pedagoglar ishlarida pedagogik innovasiyalar quyidagicha guruxlanadi: Innovasiyalar ob’ekti bo‘yicha ta’lim mazmunida innovasiyalarga; ta’lim va tarbiyalashning texnologiyasida innovasiyalarga; ta’lim muassasalarini boshqarish tizimida innovasiyalarga; ta’lim muhitida innovasiyalarga bo‘linadi.

Kelib chiqish xususiyatiga koʻra esa tashqi va ichki innovasiyalarga ajratiladi. Shu bilan birga tashqi innovasiyalar yuqori tashkilotning buyrugʻi yoki yoʻriqnomasi boʻyicha qabul qilinadi va amalda joriy qilinadi. Pedagogik tizimga ichki innovasiyalarni joriy qilish amaliyotga nisbatan pedagogik refleksiyalar natijasida yuz beradi.

Talabalarning kasbiy tayyogarligini shakllantirish kasb-hunar ta'limining muhim tarkibiy qismi boʻlib, bu jarayonning samarali keshishida amaliy-kasbiy koʻnikmalarni hosil qilish va ularning malakalarga aylanishlarini ta'minlashda maxsus kompyuter vositalari-innovasion virtual trenajyorlar alohida oʻrin tutadi.

Virtual sharoitlarni hosil qilish muayyan voqea-hodisa yoki jarayonlarni kompyuter yordamida yaratilgan sxema, tasvir yoki modellar orqali aks ettirilishini anglatadi. Bunday virtual holatlar "shartli" deb nomlanadi. Kompyuter imkoniyatlariga koʻra virtual holatda barcha real hodisalar mohiyati ochib berilishi mumkin. Bunda tasavvur, fantaziya yoki aniq ilmiy bilimlarga asoslangan gʻoyalar asos boʻlib xizmat qiladi.

Innovasion virtual trenejyorlar boʻlajak mutaxassis, shu jumladan, kasb-hunar kollejlari oʻquvchilarining ongini boyitish, nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliy koʻnikma va malakalarni hosil qilishga yordam beradi. Ularning didaktik imkoniyatlari mutaxassis sifatida oʻzlashtirilishi zarur boʻlgan, biroq, yuzaga kelgan muayyan qiyinchiliklar tufayli etarli darajada oʻzlashtirish imkoniyati boʻlmagan bilim, koʻnikma hamda malakalar oʻzlashtiriladi.

Innovasion virtual trenajyorlar qisqa vaqt va real sharoitlarda mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga unda koʻrish, eshitish hamda his qilish kabi qobiliyatlarni yanada rivojlantiradi. Innovasion virtual trenajyorlarning afzalliklari quyidagilar bilan tavsiflanadi: yangi aloqa imkoniyatlarini ochib beradi; masofadan turib boshqarishning yangi usullarini yaratadi; psixologik nuqtai nazardan shaxs virtual hayotga tez moslashadi; mashq jarayonining oʻzidagina boʻlajak mutaxassis ishlab chiqarish jarayonining borishini nazorat qilish imkoniyatiga ega boʻladi; ishlab chiqarish jarayonida oʻzining jismoniy va psixologik kuchini taqsimlay olish malakasini oʻzlashtiradi; yangi bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish jarayonida toʻla erkinlikka erishadi; oʻz xatolarini tan olgan holda ularni innovasion virtual holatni qayta takrorlash orqali bartaraf qila oladi.

Trenajerli oʻqitishni tashkil qilishning asosiy shakli amaliy mashgʻulot boʻlib, bu jarayonda talabalarning frontal, guruhli va individual faoliyati amalga oshiriladi.

Frontal shaklda barcha talablar umumiy vazifani amalga oshiradilar. Bu tahlitda tashkil etilgan faoliyat jarayonida kirish, joriy va yakunlovchi yoʻriqnomalardan foydalanish bir qancha afzalliklarga ega. Oʻqituvchi materialni butun guruhga bir vaqtning oʻzida namoyish qilish, tipik xatolarni aniqlash va

ularning oldini olish imkoniyatini tug‘diradi. Talabada Shaxsiy harakatlarni o‘rtoqlari tomonidan tashkil etilayotgan harakat bilan solishtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va berilgan topshiriqni tezroq bajarish imkoniyati tug‘iladi.

Shu bilan birgalikda ishni frontal tashkil qilishda ba’zi muammolar yuzaga keladi. Birinchi navbatda, bir tur shuningdek, katta miqdordagi jihozlarning mavjud bo‘lishi talab qilinadi, aksariyat hollarda esa o‘quv muassasasi jihozlarining kamyobligi yoki ular narxining qimmatligi tufayli ularni xarid qilish imkoniyati cheklanadi. Bunday xollarda o‘quv-ta’lim jarayoni talabalarning guruhli faoliyat yuritishlari yo‘lga qo‘yiladi.

Trenajyorli o‘qitishni tashkil qilishda talabalar o‘quv-bilish faoliyatining xuddi mana shu shakli keng qo‘llaniladi.

Avtomobilni boshqarish. Xaydovchi faoliyati shunisi bilan ajralib turadiki, u qatnashadigan jarayon aralash tipda bo‘lib, bunda qo‘l mehnati, mexanizatsiyalashgan mehnat va boshqa elementlar mavjud. Birinchidan u faqatgina axborot asosida bajariladi. Axborot turli analizatorlar orqali qabul qilinadi, harakatlanayotgan ob’ektni boshqarishdagi butun faoliyat juda katta tezlik, axborotning uzluksiz uzatilishi bilan xarakterlanadi va insondan qabul qilinayotgan axborotni saqlash, holatni uzluksiz nazorat qilish ba’zida kutilmagan holda uzatiladigan signallarni aniq va tez baholashni talab qiladi.

Harakat xavfsizligini ta’minlashning psixologik jihatlari avariya holatlarida inson omilini hisobga olish bilan bog‘liq. Ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanib borishi bu masalalarni yanada chuqurlashtirmoqda, chunki mashina va agregatlar kuchi inson tomonidan boshqarish imkoni bo‘lmay qoladigan avariya holatlarida nafaqat katta iqtisodiy talofat yetkazishi, balki inson hayotiga ham xavf solishi mumkin.

Shunday qilib, bunday hollarda yo‘l qo‘yiladigan xatolar joriy o‘z-o‘zini nazorat qilishning qiyinlashuvi, ayni hollarda o‘rganuvchi old g‘ildiraklarning avtomobilning ko‘ndalang o‘qiga nisbatan holatini ko‘ra olmasligi, avtomobilning yo‘lga nisbatan og‘ishini baholay olmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday malakalarni hosil qilish avtomobilni boshqarishga o‘rgatishning dastlabki bosqichi muhim elementi hisoblanadi. Bunday hollarda o‘qitishning texnik vositalari, ya’ni, trenajyorlarni qo‘llash darajasida samarali o‘z-o‘zini nazorat tashkil qilinsa, o‘rganish jarayonini takomillashtirish imkoniyati ortadi.

Bizning tahlilimizda ularning yangicha funksional imkoniyatlarini ko‘rsatish muhimdir.

“**Trenajyorlarni qo‘llash texnologiyalari**” majmuasi o‘z ishiga quyidagilarni oladi:



1-rasm. Trenajyorlarni qo‘llash texnologiyalari

Darajalar bo‘yicha davom etish ikkita ko‘rsatkichlarga tayanadi:



2-rasm. Darajalar bo‘yicha davom etish ikkita ko‘rsatkishlarga

“**Trenajyorlarni qo‘llashdagi umumiy ko‘nikmalar**” qo‘llanilishining sakkizta sohasi ajratib ko‘rsatiladi:



2.1.3-rasm. Trenajyorlarni qo‘llashdagi umumiy ko‘nikmalar

“Umumiy koʻnikmalar”ni barcha sohalar boʻyicha pishitib olish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligidagi barcha jihatlarga integrasiyalanadi. Ular kasbiy majmualar boʻyicha oʻquv topshiriqlari va metodik qoʻllanmalarning ishlab chiqilishidagi qobirgʻa boʻlib sanaladi.

Kasbiy malakaga ega boʻlish uchun nomzod ishonarli tarzda barcha asosiy koʻnikmalari muvaffaqiyat bilan oʻzlashtirganligini isbotlashi zarur. “Umumiy koʻnikmalar”ning barcha sohalari uchun “chiqish koʻrsatkishlari” tizimi ishlab chiqilgan. “Chiqish koʻrsatkishlari”ni tasdiqlash uchun vosita boʻlib “guvohnoma” hisoblanadi. umumiy holda bu muhrga va imzoga ega boʻlgan hujjat emas, balki oʻquv materialini oʻragnish davomida bajarilgan ishlarning natijasidir. Bu quyidagilardan iborat boʻlishi mumkin:

- qoʻlyozma materiallar: laboratoriya ishlari boʻyicha hisobotlar, hisob-kitob algoritmlari, xarajatlar smetasi va shu kabi boshqa materiallar;
- audio va videoyozuvlar: nutqlar, muhokamalar, taqdimotlar va axborot berishning boshqa shakllari;
- grafik materiallar: chizmalar, rasmlar, fotorasmlar, albomlar;
- ijodkorlik predmetlari: tajriba natijalari, modellar, buyumlar.

Rahbar (muvofiqlashtiruvchi) tomonidan baholangan va imzolangan guvohnoma hujjatlar portfeliga qoʻshib kiritiladigan isbot boʻlib sanaladi.

Attestasiya butun oʻquv jarayonining asosiy lahzasi boʻlib hisoblanadi. Nomzodlar ichki va tashqi attestasiyadan oʻtadilar. Ichki xususiyatdagi attestasiya majburiy, fakultativ va tayansh majmualarning bajarilishi bilan bogʻliq boʻladi. bunda hujjatlar portfelida taqdim etilgan isbotlar tahlil qilinadi.

Tashqi testlar savollarga qisqa javoblar yoki javoblar toʻplamida keraklisini tanlab olish shakliga ega boʻladi. Oʻtish balli - 80 % dan kam boʻlmagan toʻgʻri javoblardan iborat boʻladi. Tashqi testlar natijalari hujjatlar potrfelini toʻldiradi.

Korxonaning innovasion modeli sifatida oʻquv firmasi faoliyatining mazmuni tahlilini tugata turib, mana shunday tarzdagi ta’lim texnologiyasining asosiy afzalliklarini shakllantirish mumkin boʻladi:

- oʻqitishning klassik shakllari, metodikalarining va oʻz ishiga turli xildagi darajalarni oluvchi innovasion modellardan iborat innovasion metodikalarning izchilligi;
- kollejlarning moddiy-texnik asosi va talabalaring qobiliyatlariga bogʻliq holda oʻqitish metodikalarini erkin tanlab olish huquqi;
- oʻz kabiy darajasini oshirishning ommabopligi;
- oʻqitishning yuqori motivasiyaga egaligi, yoki yanada yuqoriroq darajadagi sertifikatni olish – xizmat pillapoyalari boʻylab olgʻa silijishning yagona yoʻli va uslubidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-sonli Farmoni

2. 2020 yil 6 noyabrdagi «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4884-sonli qaror.

3. Qosimov Sh. U. Amaliy kasbiy ta’lim metodlari // Kasb-hunar ta’limi. – T.: 2009. 2-son. – B. 27-28

4. Kasbiy ta’lim tizimi va uning tarkibiy qismlarini didaktik modellashtirish. B.B. Tashpulatov. KASB-HUNAR TA’LIMI ilmiy-uslubiy, amaliy ma’rifiy jurnal №3 2019 y 31-35

5. O‘qitishni modulli tashkil etishning afzalliklari va unda trenajyorlarning o‘rni B.B. Tashpulatov. Муғаллим ҳем билимлендириу № 4. 2021 120-125 б.

TRANSPORT OQIMINI MODELLASHTIRISHDA ZAMONAVIY DASTURLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING TA’LIM JARAYONIDAGI O‘RNI

Suyunov Oltibek Do‘stmurodovich, stajyor-o‘qituvchi (TerDMAU)
Jalilov Bekzod Jo‘raqulovich, magistrant, (TerDU)

Kalit so‘zlar. Chorraha, svetofor, transport oqimi, modellashtirish, PTV Vissim

Mamlakatimizda transport sohasi rivojlanishining hozirgi bosqichi transport oqimlarini boshqarishda yangicha yondashuvlarni amalga oshirish, makro va mikro darajada samarali boshqaruv siyosatni yuritish hamda transport va logistika tarmoqlarida uning zamonaviy mexanizmlarini tadbiq etib borish va sohada intellektual transport tizimlarini qo‘llash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O‘z navbatida ta’kidlash joizki, yo‘l harakati bo‘yicha mutaxassislar avtomobil yo‘llarida sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalarini atroflicha o‘rganishlari uchun ularning turlari, miqdorlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi hamda ularni hisobga olish tartiblarini va ularni tahlil etish usullarini mukammal bilishlari zarur.

Shuningdek, avtomobillar sonining ortib ketayoganligi sababli ko‘chalarda avtomobil harakatlanishi qiyinlashib borayotganligi, sodir etilayotgan yo‘l transport-hodisalarining tobara ortib, ular oqibatida halok bo‘layotganlar, har xil darajada tan jarohatini olayotgan odamlar sonini va avtomobillarning atrof muhitga salbiy ta’siri darajasining ortib ketishi kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda transport tizimlarini tartibga solish, boshqarish va nazorat qilish maqsadida koʻplab zamonaviy dasturlardan foydalanilmoqda. Bulardan keng tarqalgan turlaridan biri PTV dasturlar toʻplami hisoblanib, misol taqriqasida "PTV Map&Guide Internet Route Planner", “PTV Aimsun Traffic Simulation”, "PTV Visum", "PTV Vissim" kabi dasturlarni keltirish mumkin. "PTV Vissim" dasturi tartibga solingan va tartibga solinmagan chorrahalarning modelini yaratishda eng qulay dasturlardan bir hisoblanadi [2, 4].

PTV Vissim dasturi bazasi yordamida quyidagilarni oʻzaro modellashtirish mumkin:

Transport vositalari - avtobuslar, avtomobillar va yuk avtomobillari; jamoat transportlari - avtobus, tramvay; velosipedlar - velosiped, motosikillar; piyodalar oqimi.

PTV Vissimda transport vositalarining ziddiyatli nuqtalari toʻqnashuv zonalari va signallarni modellashtirish mumkin. Dasturda signallarni reja boʻyicha modellashtirish hamda talablar asosida oʻzgartirish ham mumkin.

Misol tariqasida, Termiz shahrining A.Navoiy va at-Termiziy koʻchalari kesishmasini "PTV Vissim" dasturi orqali chorrahaning modelini yaratish tartibini koʻrib chiqamiz. Buning uchun bizga dastlab chorrahaning geometrik parametrlari lozim boʻladi. Mazkur chorraha davlat standartlariga (SHNK) mos ravishda yotiq chiziqlar, yoʻl belgilari tungi chiroq ustunlari hamda svetoforlar bilan jihozlangan.

Dastlab ishchi oynaga modellashtirmoqchi boʻlgan chorrahani kesishmasini topiladi. Avtomobil yoʻlni modellashtirish uchun, dasturning “network objects” uskunalar panelidan “Links” boʻlimi tanlab olinadi va ishchi oynada chorrahaning A.Navoiy koʻchasi ustiga sichqonchaning oʻng tugmasini bosib turgan holda avtomobil yoʻlini chizib olinadi. Sichqonchaning oʻng tugmasini qoʻyib yuborganda avtomobil yoʻli toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi oyna hosil boʻladi. Ushbu oynada avtomobil yoʻlining tasmalar soni, yoʻlning uzunligi, kengligi kabi maʼlumotlar kiritiladi. Yuqoridagilarni takrorlagan holda modellashtirayotgan chorrahaning qolgan koʻchalarini ham ushbu tartibda amalga oshiriladi. Natijada, chorrahaga kirib keluvchi yoʻllari hosil boʻladi (2-rasm).



2-rasm. PTV Vissim dasturida yoʻllarni chizilishi



3-rasm. Yoʻl kesishmalarini modellashtirish

Yo‘l kesishmalarini modellashtirish. Bizga ma’lumki, chorrahalarda avtomobillar har bir yo‘ldan 3 tomonga harakatlanishi mumkin, Buning uchun, chorrahagacha kelgan yo‘lning so‘nggi nuqtasiga sichqonchaning o‘ng tugmasini bosib turib, uni qo‘yib yubormasdan boshqa yo‘l tarmog‘ining eng yaqin ichki qismi bilan tutashtirib olinadi. Natijada, ekranda “lane” (polosa)larni tutashtiruvchi oyna hosil bo‘ladi. Yo‘l tarmoqlari bir-biri bilan bog‘lanuvchi oynaga ma’lumotlar kiritilib, “OK” tugmasi bosiladi. Ushbu tartibni takrorlagan holda barcha yo‘llar bir-biri bilan bog‘lanadi. Bu orqali tartibga solinmagan chorrahaning avtomobil harakatlanuvchi yo‘l kesishmasi hosil qilinadi (3-rasm).

Ziddiyatli nuqtalar ustida ishlash. Yo‘l harakati qoidalariga ko‘ra asosiy va ikkinchi darajali yo‘llar ajratilishi va yo‘l transport-hodisalarining oldini olish zarur. Buning uchun “Network objects” uskunalar panelidagi “Conflict areas” bo‘limi tanlab olinadi.



4-rasm. Ziddiyatli vaziyatlar ustida ishlash

Ushbu ziddiyatlarni asosiy va ikkinchi darajali yo‘llarga ajratish uchun har bir ziddiyatning ustida sichqonchaning o‘ng tugmasini bir marta bosib kerakli rang tanlab olinadi. Ranglarning ma’nolari 1-jadvalda keltirilgan. Shu tartibda barcha ziddiyatli nuqtalar ustida ishlanadi. Natijada, tartibga solinmagan chorraha hosil bo‘ladi (4-rasm).

1-jadval

Ziddiyatli nuqtalarning ma’nolar jadvali

Rang	Ma’nosi	Ko‘rinish
Sariq rangda	Ushbu rang passiv ziddiyatli nuqtani anglatib, ushbu rangda transport oqimi bir birini inobatga olmaydi va bir biriga ta’sir o‘tkazmaydi, har bir avtomobil belgilangan marshrut bo‘yicha harakatlanadi. Bu tartibsiz harakatlanishni anglatadi.	
Yashil rang (ikkinchi yo‘nalish qizil)	Yashil rangdagi yo‘nalish asosiy hisoblanadi va imtiyozga ega. Pastki qizil rangdagi yo‘nalish esa yo‘l berishi lozimligini bildiradi.	
Qizil rang	Ushbu rangda avtomobillar bir birlarini “ko‘rishadi” va hisoblashishadi. Ya’ni avtomobillarning qaysi biri birinchi bo‘lib ziddiyatli nuqtaga kirib kelgan bo‘lsa, o‘sha avtomobil birinchi bo‘lib o‘tadi. Ikkinchi avtomobil esa uni o‘tkazib yuborib keyin harakatlanadi.	

Avtomobil transportini kiritish. Avtomobil yo‘lida harakatlanuvchi avtomobil transportlari kiritilishi uchun Vissim dasturining “Network objects” uskunalar panelidagi “Vehicle Inputs” bo‘limi tanlab olinadi va har bir yo‘lning ustida sichqonchaning o‘ng tugmasini bir marta bosiladi. Natijada, yo‘llarga avtomobil transporti soni kiritiladi. Albatta, avtomobillar soni real sharoitda mazkur chorrahada harakatlanuvchi transport vositalari soni kuzatishlar natijasi kiritish lozim.

Kiritilgan avtomobillar real sharoitdagidek chorahada to‘g‘ri taqsimlanib harakatlanishi uchun har bir avtomobil yo‘lining harakat marshruti kitilishi lozim. Buning uchun dasturning “Network objects” uskunalar panelining “Vehicle Routes” bo‘limi tanlab olinadi.

Misol tariqasida A.Navoiy ko‘chasining harakat boshlanadigan nuqtasiga sichqonchaning o‘ng tugmasini bir marta bosib va harakat yo‘nalishlari bo‘yicha to‘g‘riga, o‘ngga va chapga harakatlanuvchi yo‘llarning so‘nggi nuqtalariga bir martadan sichqonchaning o‘ng tugmasini bosib chiqiladi. Natijada ishchi oynaning quyi qismida jadval hosil bo‘ladi. Ushbu jadvalga har bir ko‘chaga taqsimlanib harakatlangan transport vositalari soni kiritiladi. Ushbu harakatni har bir kiruvchi oqimlarni har bir ko‘chaga avtomobillarni marshrutlar bo‘yicha taqsimlab chiqiladi (6-rasm).



5-rasm. PTV Vissim dasturiga avtomobil transportini kiritish



6-rasm. Chorrahada transport vositalarini kiritish

Yuqorida yaratilgan chorrahani svetafor orqali tartibga solish mumkin.

Dastlab svetafor chiroqlarining sikl, takt va faza parametrlarni rostlab olish lozim. Buning uchun PTV Vissim dasturining menyular panelidagi “Signal Control” bo‘limi orqali amalga oshirish mumkin.



a) *b)*

7-rasm. PTV Vissim dasturida svetafor sikli va fazalarini rostlash

Svetofor qurilmalarini avtomobil yo‘llari yoki shahar chorrahalariga o‘rnatish uchun Network Objects oynasidan Signal Heads aktivlashtiriladi. So‘ng, belgalangan xususdda alt+sichqonchaning o‘ng tugmasini bosib, svetofor qurilmasi o‘rnatiladi. Natijada, svetafor orqali harakatlanish ketma-ketligini belgilovchi tartibga solingan chorrahaning modeli hosil bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Dasturning Evaluation menyusi orqali modellashtirilgan chorrahaning transport halokatlari, avtomobil tirbandliklari va yoqilg‘ining isrofi, tabiatga ortiqcha chiqindi gazlari chiqarilishi kabi analiz ma’lumotlarini olish imkoniyati mavjud. Olingan natijalar asosida mavjud muammolar o‘rganilib, u asosida “Intellektual yechimlar” berish mumkin. Bu esa o‘z navbatida tirbandliklar va ushlanib qolish vaqtlarning oldini olishi mumkin. Natijasida davlatimiz va insoniyat uchun katta miqdordagi iqtisodiy zararlarni va atrof muhitga salbiy oqibatlarning oldini olishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida mazkur dasturlardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Amaliy mashg‘ulotlarda dasturdan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, talabalarda zamonaviy dasturiy vositalar yordamida masalalarni yechishga qiziqish ortib bormoqda. Shunday qilib, axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quv jarayoni sifati yaxshilanadi. Hozirgi vaqtda PTV Vissim dasturiy mahsuloti transport modellashtirish sohasida mutaxassislar tomonidan keng qo‘llanilmoqda, shuning uchun talabalar o‘qish davomida olgan ko‘nikmalarini kelajakdagi kasbiy faoliyatida qo‘llashlari mumkin.

Shunday qilib, PTV Visum dasturidan ta’lim jarayonida foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Suyunov, O., & Sherboyev, A. (2022). Ptv vissim dasturi yordamida avtomobil yo‘llari va shahar ko ‘chalarining harakat oqimini modellashtirish. *Евразийский журнал академических исследований*, *2*(13), 261-266.

2. Valiyevich, D. S., Do‘stmurodovich, S. O., & Jo‘raqulovich, D. B. (2023). MODELING AND EVALUATION OF INTERSECTIONS IN TERMEZ USING MODERN SOFTWARE. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(6), 856-862.

3. Do‘stmurodovich, S. O., & Jo‘raqulovich, D. B. (2024). DETERMINATION OF THE QUANTITY OF EXHAUST GASES EMITTED FROM TRANSPORTATION VEHICLES AT THE INTERSECTION USING THE PTV VISSIM PROGRAM.

ROSTLOVCHI TAROQ TA’SIRIDAGI CHIGITLARNING HARAKAT TAHLILI

R.K.Djamolov, “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ,
N.U.Abdixamidov, (TDMAU)
B.E.Qarshiyev, (TDMAU)

Annotatsiya. *Maqolada chigitlarni saralashda taroqni vertikal devorga nisbatan taroq qoziqlari orasidagi masofasi qiymatlarini saralash samaradorligi oshishi aniqlangan.*

Tarnovga yoyilgan holda uzatishni ta’minlash uchun tarnov yuzasiga taqsimlovchi yo‘naltiruvchi burchaklar orqali chigitlarni saralash masalasi ko‘rilgan. Tarnovda to‘p-to‘p tashlanayotgan chigitlarni ajratib titilgan xolda saralash kamerasiga uzatiladi, bu yerda chigitlarning donadorligini oshirish bilan fraksiyalarga ajratishda, urug‘lik fraksiyaning 1000 dona chigit massasining ortishi tajribalar asosida aniqlangan [1-3].

Saralash kamerasiga o‘rnatilgan rostlovchi taroq moslamasida chigitlar donalashib ajratiladi, shunda bir-biri bilan ilashib, to‘p holatdagi chigitlar ajralishi bilan og‘ir chigitlar pastga va yengil chigitlar yuqoriga qarab yo‘nalishda davom etadi. Shu orqali texnik fraksiyaga urug‘likni, urug‘lik fraksiyaga texnikni aralashib ketishini kamaytirishga erishiladi.



1-yo‘naltirgich,
2-rostlanuvchi taroq, 3-chigit.

2.7-rasm. Rostlanuvchi taroq sirtidagi chigitlarning harakat sxemasi.



2.8-rasm. Rostlanuvchi taroq sirtidagi chigitlarning harakat sxemasi

1-rasmda β – chigitni donalovchi taroqni vertikal devorga nisbatan o‘rnatish burchagi, h – taroq qoziqlari orasidagi masofalarni L – taroq qoziqlarining uzunligi.

Donalangan tukli chigitlarni rostlanuvchi taroqga ta’siri natijasidagi saralash jarayondagi tashqi kuchlar ta’siridagi ajralishini taroqning oraliq masofalariga, taroq uzunligiga va vertikal xolatda joylashgan og‘ish burchaklariga bog‘liqlik ifodasini aniqlaymiz. Buning uchun dastavval tukli chigitlarga rostlanuvchi taroq ta’sirini o‘rganib chiqamiz.

2-rasmda F_0 – tukli chigitlarni taroq sirtidagi sudrash kuchi, $P_o = \mathrm{c} \cdot \vartheta^2$ – havo oqimining aerodinamik kuchi, $m \cdot g$ – tukli chigitning og‘irlik kuchi, $F_{ишк} = \mathrm{f} \cdot R_n$ – tukli chigitni rostlovchi taroq sirtidagi ishqalanish kuchi.

Tukli chigilarni saralashda rostlanuvchi taroq sirtidagi harakatini va chigitlarning ajralishini ta’minlashdagi tashqi kuchlarni ta’sirini nazariy tahlili keltiramiz.

$$F_0 = F_{ишк} + m \cdot g \cdot \cos\beta - P_0 \cdot \cos\beta;\ R = P_0 \cdot \sin\beta;\ F_{ишк} = f \cdot P_0 \cdot \sin\beta \qquad (1)$$

Saralovchi taroq ta’sirida yaroqli tukli chigitlarni saralashda taroq tishlari orasidagi masofalarni $h = 8 \div 24$ мм o‘zgartirish orqali tukli chigitlarga ta’sir qiluvchi tashqi kuchlar ta’siridagi differensial tenglamasini ifodalaymiz.

$$m \cdot \ddot{x} = F_0 \cdot \cos(90^0 - \beta) + R \cdot \cos\beta - F_{ишк} \cdot \cos(90^0 - \beta) \qquad (2)$$

Bu yerda $R = \mathrm{P}_0 \cdot \sin\beta = c \cdot \vartheta^2 \cdot \sin\beta$; $F_0 = F_{ишк} - \mathrm{P}_0 \cdot \cos\beta = f \cdot c \cdot \vartheta^2 \cdot \sin\beta - c \cdot \vartheta^2 \cdot \cos\beta$; qiymatlarni (2) differensial tenglamaga qo‘yib soddalashtiramiz va differensial tenglamani integrallaymiz.

$$m \cdot \ddot{x} = c \cdot \vartheta^2 \cdot (\mathrm{f} \cdot \sin\beta - \cos\beta) \cdot \sin\beta - c \cdot \vartheta^2 \cdot \sin\beta \cdot \cos\beta - f \cdot c \cdot \vartheta^2 \cdot \sin^2\beta \qquad (3)$$

Bu ifodani soddalashtirib ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglama ko‘rinishga keladi

$$\ddot{x} = -\frac{2 \cdot c \cdot \vartheta^2}{\mathrm{m}} \cdot \sin\beta \cdot \cos\beta \qquad (4)$$

(4) differensial tenglamada $\vartheta^2 = \dot{\mathrm{x}}^2$ ekanligidan

$$\ddot{x} + \frac{c}{\mathrm{m}} \cdot \dot{x}^2 \cdot \sin 2\beta = 0 \qquad (5)$$

(5) bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamaga quyidagi belgilash kiritamiz $\frac{c}{\mathrm{m}} \cdot \sin 2\beta = \mathrm{k}^2$

$$\ddot{x} + k^2 \cdot \dot{x}^2 = 0 \qquad (6)$$

(6) differensial tenglamani $\dot{x} = \mathrm{z}$; $\ddot{x} = \dot{\mathrm{z}} \cdot \mathrm{z}$ bu differensial belgilashlardan

$$\dot{z} \cdot z + k^2 \cdot z^2 = 0 \qquad (7)$$

(7) tenglamani vaqt bo‘yicha ikki marta integrallab rostlavchi taroq sirtidagi tukli chigitlarni saralashdagi OX o‘qi bo‘yicha harakat tenglamasini aniqlaymiz.

$$\mathrm{x} = -\frac{\mathrm{c}_1}{\mathrm{k}^2} \cdot e^{-k^2 \cdot t} + c_2 \qquad (8)$$

(8) tenglamadagi c_1 va c_2 integral doimiylarini boshlang‘ich shartlardan foydalanib aniqlaymiz. $(\frac{dx}{dt})_{t=0} = \vartheta_0 \Rightarrow c_1 = \vartheta_0$; $(x)_{t=0} = 0 \Rightarrow c_2 = \frac{\vartheta_0}{k^2}$ aniqlangan integral doimiylarini (8) tenglamaga qo‘yamiz.

$$x = \frac{\vartheta_0}{k^2} \cdot (1 - e^{-k^2 \cdot t}) \qquad (9)$$

(9) harakat tenglamasini Maple dasturidan foydalanib rostlavchi taroq sirtidagi chigitlarni saralashdagi traektoriyalarini β – chigitni donalovchi taroqni vertikal devorga nisbatan o‘rnatish burchagiga, taroq tishlari orasidagi masofalarni $h = 8 \div 24$ мм o‘zgartirishiga bog‘liqlik grafiklarini keltiramiz.



2.9-rasm. Rostlovchi taroq sirtida chigitlarning saralashdagi harakatini qiyalik burchagining turli xil $\beta_1 = 15^0$, $\beta_2 = 30^0$, $\beta_3 = 45^0$ qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi



2.10-rasm. Rostlovchi taroq sirtida chigitlarning saralashdagi harakatini taroq qoziqlari orasidagi masofasini turli xil $h_1 = 24\,мм$, $h_2 = 16\,мм$, $h_3 = 8\,мм$ qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi

Xulosa: Yuqoridagi grafiklar tahlilidan chigitlarni saralashda taroqni vertikal devorga nisbatan o‘rnatish burchagi $\beta_3 = 45^0$ bo‘lganda va taroq qoziqlari orasidagi masofasini $h_2 = 16\,мм$ oraliqdagi qiymatlarida saralash samaradorligi oshishini ko‘rishimiz mumkin. Buni chigitlarning massasidan kelib chiqqan holda yaroqsiz chigitlarni saralashda taroq sirtidagi chigitlarning grafikdagi traektoriyalaridan ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Р.К.Джамолов. “Тукли уруғлик чигит саралаш агрегатини такомиллаштириш ва конструктив параметрларини асослаш”. Илмий-амалий агроиқтисодий журнал, маҳсус сон-2, 2019 й. -87 б.

2. Р.К.Джамолов ва бошқалар, “ЧСА агрегатини такомиллаштириш ва уни ихтисослаштирилган уруғлик чигит тайёрлаш цехларида жорий этиш”. Илмий-тадқиқот иши бўйича ҳисобот №0909. “Пахтасаноат илмий маркази” АЖ Тошкент 2010 й. -32 в.

3. Р.К.Джамолов, Э.Т.Мақсудов, К.Джамолов. Тукли уруғлик чигитнинг саралаш технологик жараёнини такомиллаштириш натижалари. Ирригация ва мелиорация журнали, №2.(20), 2020 й. -57 б.

CHIZMA GEOMETRIYA FANINI VIZUAL ANIMATSIYA ORQALI SAMARALI O‘QITISH USULLARI

Turayev Xumoyuddin, professor (PhD) (TerDU)
Muhammadiyev Elyor assistant (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada chizma geometriya fanini o‘qitishda vizual animatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Animatsion video resurslar murakkab geometrik tushunchalarni o‘quvchilarga osonroq tushuntirish imkoniyatini yaratadi. Maqolada zamonaviy o‘qitish usullari, interaktiv ta’lim jarayonlari va ularning o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Vizual animatsiyadan foydalanish ta’limni innovatsion bosqichga ko‘tarib, o‘quvchilarni yanada qiziqtiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida ko‘riladi.

Kalit so‘zlar: Chizma geometriya, Animatsion video, Interaktiv ta’lim, Vizual animatsiya, AutoCAD, Blender, Murakkab geometrik shakllar, Innovatsion ta’lim texnologiyalari, Virtual haqiqat (VR), Kengaytirilgan haqiqat (AR), Ijodiy fikrlash.

Kirish:

Chizma geometriya muhandislik va texnik ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu fan talabalarga fazoviy tasavvurni shakllantirish, murakkab shakllarni ifodalash va ularni amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi. Ammo an'anaviy o‘qitish usullari bu jarayonda yetarli darajada samarali bo‘lmasligi mumkin. O‘quvchilar ko‘pincha nazariyani tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki murakkab fazoviy tushunchalarni oddiy statik rasm va matn orqali tushuntirish qiyin. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi esa bu muammolarni bartaraf etish imkonini yaratdi. Xususan, animatsion video resurslar orqali geometrik shakllarni dinamik tarzda tasvirlash va ularni o‘rganish o‘quv jarayonini sezilarli darajada samaraliroq va qiziqarliroq qiladi.

Animatsiyaning chizma geometriyadagi ahamiyati:

Animatsion resurslar, xususan, 3D animatsiyalar, geometrik shakllarning hosil bo‘lish jarayonini, ularning kesishishlari, aylanishlari va turli nuqtai nazarlardan ko‘rinishlarini jonli tarzda tushuntirishda yordam beradi. Bu usul nafaqat o‘quvchilarni mavzu bilan chuqurroq tanishtiradi, balki ularning fazoviy fikrlash qobiliyatini ham kuchaytiradi. Misol tariqasida, AutoCAD va Blender kabi dasturlar

yordamida chizma geometriya fanining murakkab elementlarini jonlantirish, ularga hayot bag‘ishlash mumkin.

Animatsiyalarning o‘quv jarayonidagi yana bir muhim afzalligi - interaktivlikni ta’minlash. O‘quvchilar animatsion resurslar bilan faol ishtirokchi sifatida ishlaydilar, bu esa ularning diqqatini oshiradi va ta’lim samaradorligini kuchaytiradi. Shuningdek, o‘quvchilar har bir jarayonni ko‘rib, uning qanday amalga oshirilganini tushunish imkoniga ega bo‘ladilar, bu esa an'anaviy darslarda ko‘pincha sezilmay qoladigan jarayonlarni aniq ko‘rsatadi.

Vizual animatsiyaning ta'limdagi o‘rni:

Animatsiyalar geometrik shakllarning turli fazoviy tasvirlari va ularning o‘zaro bog‘lanishlarini ko‘rsatadi. Masalan, kesishmalarni yoki aylanishlarni real vaqt rejimida ko‘rsatish orqali o‘quvchilarga amaliy jihatlarni to‘liq anglash imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa, geometrik ko‘rinishlarni boshqacha yo‘nalishdan ko‘rish, ularni uch o‘lchamda tekshirish, chizmalarni haqiqiy hayotdagi o‘lchamlar bilan taqqoslash imkoniyati paydo bo‘ladi.

- Chizma geometriyada vizual animatsiyadan foydalanishning afzalliklari talim jarayonida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish an'anaviy o‘qitish usullariga nisbatan samaraliroq va qiziqarliroq ekanligi ko‘plab tadqiqotlar va amaliyotlar orqali tasdiqlangan. Quyida bu usulning bir nechta muhim afzalliklari keltirilgan:

- 1. **Murakkab tushunchalarni oson tushuntirish**

Chizma geometriya ko‘pincha murakkab geometrik shakllar va fazoviy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘ladi. An'anaviy o‘qitish usullarida bu tushunchalarni tushuntirish uchun qog‘ozda statik chizmalar va diagrammalar qo‘llaniladi. Biroq, bu usul ba'zida talabalarning fazoviy tasavvurini shakllantirishda yetarli bo‘lmaydi. Animatsiya yordamida esa geometrik shakllar harakatda ko‘rsatilib, ularning qanday hosil bo‘lishi, aylanishlari va o‘zaro bog‘lanishlari jonli tarzda tushuntiriladi. Bu jarayon talabalarning qiyin mavzularni osongina tushunishiga yordam beradi.

- 2. **O‘quvchilarni qiziqtirish va motivatsiyasini oshirish**

Animatsiyalar tabiiy ravishda vizual jihatdan qiziqarli bo‘lib, o‘quvchilar diqqatini jalb qiladi. O‘quv jarayonida qiziqarli va dinamik vizual taqdimotlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu, ayniqsa, geometriya kabi murakkab va ba'zan talabalarga tushunish qiyin bo‘ladigan fanlar uchun juda muhim. Animatsion resurslar o‘quvchilarda fanga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirib, ularni darsga faolroq jalb qiladi.

- 3. **Fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish**

Chizma geometriya fanida fazoviy fikrlash qobiliyati juda muhimdir. Animatsiyalar murakkab shakllarning harakatini va ularning o‘zaro aloqalarini ko‘rsatib, o‘quvchilarga fazoviy tuzilmalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

3D modellar va animatsiyalar orqali oʻquvchilar shakllarni turli burchaklardan kuzatib, ularni haqiqiy oʻlchamlarda tushunish imkoniyatiga ega boʻladilar. Bu esa oʻz navbatida ularning fazoviy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

- 4. **Oʻqitish usullarini interaktiv qilish**

Animatsion video resurslardan foydalanish darslarni interaktiv qilish imkonini beradi. Oʻquvchilar animatsion modellar bilan faol ishlashlari, ularni boshqarishlari va turli variantlarni sinab koʻrishlari mumkin. Bu usul an'anaviy yondashuvga nisbatan oʻquvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga imkon beradi. Interaktiv ta'lim vositalari oʻquvchilarni koʻproq jalb qiladi va ularga mavzuni yanada chuqurroq oʻrganish imkoniyatini yaratadi.

- 5. **Tez va samarali oʻrganish jarayoni**

An'anaviy darslar koʻpincha geometrik tushunchalarni qoʻlda chizish va tushuntirishni talab qiladi, bu esa koʻp vaqt oladi. Animatsiyalar yordamida bu jarayonlarni avtomatlashtirish va tezlashtirish mumkin. Oʻquvchilar bir necha soniya ichida murakkab jarayonlarning qanday sodir boʻlishini koʻrishlari va ularni takroran koʻrib chiqish imkoniga ega boʻladilar. Bu esa nafaqat oʻquv jarayonini samarali qiladi, balki vaqtni ham tejaydi.

- 6. **Ijodiy fikrlash va amaliy koʻnikmalarni rivojlantirish**

Animatsiyalar oʻquvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Dinamik modellar va ularning oʻzgarishi orqali oʻquvchilar yangi yechimlar va tasavvurlar yaratishga undaydilar. Chizma geometriyada murakkab shakllarni tushunish, ularning harakatlarini kuzatish oʻquvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, animatsiyalar yordamida amaliy koʻnikmalarni shakllantirish va ularni kuchaytirish jarayoni ham osonlashadi.

- 7. **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish**

Vizual animatsiyalardan foydalanish chizma geometriya fanini oʻqitishda zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishiga olib keladi. AutoCAD, Blender va boshqa dasturlar orqali yaratilgan animatsiyalar ta’lim jarayonini yangicha darajaga koʻtaradi. Bu texnologiyalar yordamida oʻquvchilar faqat nazariy bilimlarni oʻzlashtirmasdan, balki amaliy jihatdan ham muhandislikda qoʻllanadigan chizmalar bilan ishlash tajribasini oladilar.

- 8. **Oʻquvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish**

Animatsion videolar talabalarga darsdan tashqari vaqtda mustaqil oʻrganish imkoniyatini yaratadi. Talabalar oʻzlari qiziqqan mavzular boʻyicha animatsiyalarni takroran koʻrib, ularni chuqurroq tushunishga erishadilar. Bu esa oʻquvchilarni ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashga, oʻz oʻrganish surʼatlarini nazorat qilishga oʻrgatadi.

Chizma geometriyada animatsiyaning amaliy qoʻllanishi:

Chizma geometriya fanida oʻquvchilar koʻpincha murakkab figuralar bilan ishlashadi: silindrlar, konuslar, prizmalar va ularning kesishishlari. Ushbu shakllar oʻrtasidagi murakkab bogʻlanishlarni an'anaviy qogʻoz va qalam yordamida tushuntirish uzoq vaqt talab qilishi mumkin, va oʻquvchilar uchun qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. Animatsion resurslar orqali esa bu jarayonlarni bosqichma-bosqich koʻrsatib, ularning qanday hosil boʻlishini tushuntirish osonroq boʻladi.

AutoCAD, Blender kabi dasturlar yordamida chizma geometriyada murakkab shakllarni 3D formatda yaratib, ularni jonli tarzda tahlil qilish mumkin. Masalan, shakllarni oʻzaro kesishishini animatsion tarzda koʻrsatish va har bir qadamda ularning oʻzgarishini kuzatish orqali oʻquvchilarga yanada chuqurroq tushunchalar berish mumkin.

Xulosa:

Chizma geometriya fanida vizual animatsiyadan foydalanish zamonaviy ta'lim usullari orasida eng samarali va qiziqarli yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat murakkab geometrik shakllarni tushunishni osonlashtiradi, balki oʻquvchilarni fan bilan chuqurroq shugʻullanishga undaydi. Animatsion video resurslar yordamida ta'lim jarayonini innovatsion usullar bilan boyitish mumkin, bu esa oʻquvchilarning motivatsiyasini oshirib, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kelajakda virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarini ham joriy etish orqali chizma geometriya fanini oʻqitishni yanada rivojlantirish mumkin. Bu esa oʻquvchilarning interaktiv ishtirokini oshirib, ularga ta'limning haqiqiy jarayonini sinovdan oʻtkazish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar

Turayev, X. (2020). Chizmachilik fanining nazariyasi va amaliyoti. Termiz: Termiz davlat universiteti nashri.

Turayev, X. (2018). Chizmachilik fanini oʻqitish metodikasi. Tashkent: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi.Friedman, A. (2019). *Visual Learning and Teaching Geometry*. Journal of Educational Technology, 12(3), 45-58.

Khan, S. (2022). *The Impact of Animation on Learning Geometry*. International Journal of STEM Education, 8(2), 100-112.

Higgins, K., & Schubert, D. (2020). *Using Animation in the Classroom: A New Approach to Learning*. Journal of Research in Education and Technology, 34(1), 15-25.

NOTO‘QIMA MATOLARNING XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Мустафо Урозов,
Термиз давлат муҳандислик ва агротехнологиялар университети
Ортиқ Омонтурдиев,
Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти
Тохир Жўраев
Ўзагроинспекция” нинг Жарқўрғон туман бўлими

Аннотация Noto’qima materiallarning mexanik xususiyatlarini aniqlashdagi murakkablik shundan iboratki, noto’qima materiallar har xil turdagi ko‘p yo‘nalishli tolalardan iborat bo‘lib, ko‘rib chiqilayotgan materiallar bir turli bo‘lmagan materiallarning turli qatlamlarini ham o‘z ichiga oladi.

Кириш To‘qimachilik sanoatida ishlab chiqariladigan matolarning turlari juda ko‘p bo‘lib, to‘qimachilik texnologiyasi- noto‘qima matolar ishlab chiqarish va sanoatda foydalanish ko‘lami ortib bormoqda. Noto‘qima mahsulotlar ishlab chiqarish to‘qimachilik sanoatining nisbatan yangi sohasi hisoblanib, bu turdagi mahsulotlar arzonligi, sifatining o‘ziga xosligi, ishlab chiqarish usullarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Matolarning ko‘plab turlari texnika va tibbiyotda qimmatbaho hisoblangan, qisqa muddatli gazlamalar o‘rnida foydalanish imkoniyati mavjud. Noto‘qima matolar ishlab chiqarish texnologiyasi kompleksi uchta asosiy guruhga: mexanik, fizik-kimyoviy va murakkab texnologiyaga bo‘linadi. Har bir texnologiya-mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan qayta ishlash, tayyorlash usullari, xom ashyoning holatini, xossalarini, ko‘rinishini o‘zgartirish jarayonlarining o‘ziga xos yig‘indisidan iborat bo‘lib, tayyorlanish usuliga ko‘ra tikib-to‘qish, igna sanchish, shimdirish, yuqori haroratda presslash kabilarga bo‘linadi.

Tarkibidagi xomashyo, ishlatilishi maqsadiga ko‘ra assortimenti, ko‘lami juda keng bo‘lib, eng katta ulush (umumiy hajmning 22%) tibbiy va gigienik maqsadlarda foydalanuvchi turlarga tegishli. Bundan tashqari umumiy ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra polimer qoplamalar, filtrlash, geotekstil (yo‘l qoplamalari, tuproqni mustahkamlash), agrotexnik va qurilish (issiqlik, tom yopish), engil sanoat tarmoqlarida turli maqsadlarda qo‘llaniladi. Mexanik xususiyatlar ko‘rib chiqilayotgan materiallarning tashqi kuchlar ta’siriga munosabatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Noto’qima materiallarning mexanik xususiyatlarini aniqlashdagi murakkablik shundan iboratki, noto’qima materiallar har xil turdagi ko‘p yo‘nalishli tolalardan

iborat bo‘lib, ko‘rib chiqilayotgan materiallar bir turli bo‘lmagan materiallarning turli qatlamlarini ham o‘z ichiga oladi.

Noto’qima materiallarning mexanik xususiyatlarini tavsiflovchi omillarga quyidagilar kiradi: ko‘rib chiqilayotgan materiallarning uzunligi va eni bo’yicha uzilish kuchi va uzilishgacha cho’zilishi, noto‘qima materiallar komponentlarini parchalovchi yuk va ajralishi.

Bundan tashqari, namunalarning uzunligi va eni bo’yicha uzilishgacha cho’zilishidagi tafovut yuqori emas, uzilish kuchi bo’yicha 4, 6-namunalar bundan mustasno. 1-rasmda noto’qima materiallarning uzilishgacha cho‘zilishi qiymatlari diagrammasi ko‘rsatilgan.



1-rasm. Noto’qima materiallarning uzilishgacha cho’zilishi

Qavatlarga ajralish mustahkamligi ko’p qavatli noto’qima materialni tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichdir. Sinovlarni o‘tkazish uchun GOST R 29104 da keltirilgan usuldan foydalanilgan[2]. 1-jadvalda noto’qima materiallar (N) namunalarini qavatlarga ajralish yuklari qiymatlari ko‘rsatilgan.

1-jadval

Tadqiq qilinayotgan namunalarning yirtilish yuki, N

№	Nomlanishi	Uzunligi bo’yicha			Eni bo’yicha		
		Xo’rt, N	S, N	Cv, %	Xo’rt, N	S, N	Cv, %
1	1-namuna	62,18	8,65	9,13	62,18	6,15	14,98
2	2-namuna	30,78	3,74	13,82	53,72	1,24	6,73
3	3-namuna	33,18	4,15	5,47	56,16	1,65	5,3
4	4-namuna	25,74	5,42	14,39	37,94	2,92	32,26
5	5-namuna	25,64	6,14	13,31	38,04	3,64	10,56
6	6-namuna	205,16	13,86	8,04	220,02	16,36	6,13
7	7-namuna	114,36	12,33	13,26	110,78	14,83	4,46

Noto‘qima mato ishlab chiqarish jihozlarining unumdorligi va ishchi kengliklarini ortib borishi, tolalarni bo‘ylamasiga yoki ikki yo‘nalishda bo‘lishini talab etilgan hollarda tarash uskunalarini turli tartibda joylashtiriladi.

Bir nechta tarash uskunasining (2-3 ta) ketma-ket o‘rnatilganda har bir uskunadan chiqayotgan taram uning ostidan yoki ustidan o‘tib, umumiy panjaraga taxtlanadi. Hosil bo‘lgan qatlamda tolalar bo‘ylamasiga yo‘nalgan bo‘ladi. Uskunalarni parallel o‘rnatilganda chiqayotgan taram 900 ga burab, umumiy panjaraga taxtlash mumkin.

Хулоса Tolalari bo‘ylama-ko‘ndalang yo‘nalgan qatlam tayyorlash uchun bir necha tarash uskunalari belgilangan tartibda o‘rnatiladi. Masalan ostki va ustki qatlamlarda tolalar bo‘ylamasiga, o‘rta qatlamda ko‘ndalangiga yo‘nalgan uch qatlamli qatlam tayyorlash uchun uchta tarash uskunasi o‘rnatiladi. Bunda qatlamning har bir qatlami uchun turli xususiyatli yoki ranglardagi tolalar ishlatilishi mumkin. Tolalari yo‘nalgan qatlam tayyorlashda randomizator o‘rnatilgan tarash uskunalaridan foydalaniladi.

Фойдланилган адабиётлар

1. Юсупов С. Состояние производства и переработка шерсти в Икарда // Узниикеп, Узбекистане. 2012. 1-10 б.

2. Vėjelis S., Skulskis V., Kremensas A., Vaitkus S., Kairyte A. Raw Sheep Wool Management for Thermal Insulation Materials: The Case of Lithuania // Journal of Natural Fibers. 2022. С 1-12.

3. Абдукаримова М.З., Набиева И.А., Исмоилова Г.Х. Тўқимачилик маҳсулотларини пардозлаш кимёвий технологияси фанидан лаборатория ва амалий машғулотлар учун ўқув қўлланма // ТТЕСИ босмахонаси. Тошкент. 2015. 8-10, 45-51 б.

4. Russell I.M. Sustainable wool production and processing // Textiles Sustainable Textiles, Woodhead Publishing. 2009. P 63-87.

5. Тошбеков О.А., Урозов М.К., Аллабердиева А.А., Очилдиев Б.Б. Иккиламчи хомашёни қайта ишлаш орқали ип ишлаб чиқариш технологиясини яратиш // Илмий ва инноватция фаолиятни ривожлантириш бўйича давлат бошқаруви тизими такомиллаштириш-давр талаби. IV - Халқаро конференция. 18-декабир. 2020. 166-168 б.

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANINI O‘QITISHDA VIDEO DARSLAR ORQALI O‘TISH USULLARI

Turayev Xumoyuddin, **professor (PhD) (TerDU)**
Muhammadiyev Elyor assistant (TDMAU)

Annotatsiya: Ushbu maqola muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda video darslar orqali o‘tish usullarini chuqur tahlil qiladi. Video darslar talabalarga murakkab grafik tushunchalarini osonroq tushunishga, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga va o‘z-o‘zini o‘rganishga yordam beradi. Maqola video darslar tayyorlash, amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv elementlar, darsni nazorat qilish va qo‘shimcha resurslar kabi bir qator tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kirish

Muhandislik grafikasi — bu muhandislik va dizayn sohalarida muhim rol o‘ynaydigan fanni anglatadi. Talabalar bu fanda grafik tasvirlar, chizmalar va modellarni yaratish, o‘qish va tahlil qilishni o‘rganishadi. Zamonaviy ta'limda video darslar ko‘proq qiziqarli va interaktiv shaklda o‘qitish imkonini beradi. Ushbu maqolada muhandislik grafikasi fanini video darslar orqali o‘qitishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Video Darslarni Tayyorlash

1. Mavzuni Tanlash

Mavzularni tanlashda, talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Har bir video dars uchun quyidagi mezonlarga amal qilish tavsiya etiladi:

- **Mavzularni aniqlik bilan belgilash**: Mavzular aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Masalan, "2D va 3D grafikalar", "Geometrik chizmalar" yoki "Kompyuterda chizish texnikalari".
- **O‘zaro bog‘liq mavzular**: Mavzular o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lishi, talabalarga o‘rgangan bilimlarini bir joyda qo‘llashga yordam beradi.

2. Video Dars Formatlari

Video darslar turli formatlarda bo‘lishi mumkin:

- **Taqdimot**: Slaydlar orqali ma'lumot taqdim etish. Ushbu format, muhim grafikalar va diagrammalarni ko‘rsatish imkonini beradi.
- **Animatsiyalar**: Murakkab tushunchalarni animatsiyalar orqali tushuntirish. Bu talabalar uchun vizual tushunishni yaxshilaydi.
- **Amaliy mashg‘ulotlar**: Video darslarda amaliy mashg‘ulotlar ko‘rsatilishi, talabalar o‘z bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun muhimdir.

Vizuallik va Grafikalar

1. Grafiklar va Diagrammalar

Video darslarda grafik va diagrammalardan foydalanish talabalar uchun tushunishni osonlashtiradi. Vizuallik:

- **Murakkab tushunchalarni soddalashtiradi**: Grafikalar yordamida muhim tushunchalarni koʻrsatish, talabalarning qiziqishini oshiradi.
- **Qisqa va aniq tushuntirish**: Grafikalar va diagrammalar koʻrsatilganda, ma'lumotlarni qabul qilish jarayoni tezlashadi.

2. 3D Modellar

3D modellarni yaratish va tushuntirish jarayonlarini video darslarda koʻrsatish, talabalar uchun muhandislik grafikasi fanining muhim jihatlaridan biridir. 3D modellar yordamida:

- **Grafik tushunchalarni yanada aniqroq tushuntirish**: 3D koʻrinishlar talabalar uchun murakkab geometrik shakllarni osonroq anglash imkonini beradi.
- **Interaktivlikni oshirish**: Talabalar 3D modellar bilan ishlash orqali amaliy koʻnikmalarini rivojlantirishadi.

Amaliy Mashgʻulotlar

1. Nazariyadan Amaliyotga

Amaliy mashgʻulotlar video darslardan soʻng talabalarni oʻz oʻrgangan bilimlarini amalda qoʻllashga undaydi. Bunga misollar keltiramiz:

- **Chizma chizish**: Talabalar video darslar davomida oʻrgangan nazariyalarni amalda qoʻllash orqali oʻz chizmalarini yaratadilar.
- **Loyihalar**: Real muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalar tayyorlash, talabalarni qiziqtiradi va ijodkorlikni rivojlantiradi.

2. Oʻzaro Hamkorlik

Talabalar oʻrtasida oʻzaro hamkorlikni rivojlantirish muhimdir. Guruh mashgʻulotlari va muhokamalar orqali talabalar birgalikda ishlash imkoniyatiga ega boʻladilar:

- **Guruh mashgʻulotlari**: Talabalar birga loyihalar yaratib, oʻz gʻoyalarini bir-birlari bilan almashishadi.
- **Muhokama sessiyalari**: Olingan bilimlarni muhokama qilish va fikr almashish uchun muhokama sessiyalarini oʻtkazish.

Interaktiv Elementlar

1. Savol-Javob Sessiyalari

Video darslardan soʻng savol-javob sessiyalarini oʻtkazish, talabalar uchun oʻz fikrlarini bildirish va muammolarni hal qilish imkonini beradi. Bu, oʻzaro muloqotni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Oʻyinlar va Viktorinalar

Interaktiv oʻyinlar va viktorinalar video darslardan soʻng tashkil etish, talabalar oʻrtasida qiziqishni oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu oʻyinlar orqali talabalar oʻz bilimlarini amalda qoʻllash imkoniyatiga ega boʻlishadi.

Darsni O‘zlashtirishni Nazorat Qilish

1. Onlayn Testlar

Video darslardan so‘ng, talabalar uchun onlayn testlar tayyorlash. Bu talabalarni darsni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganini aniqlashga yordam beradi. Testlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- **Nazariy savollar**: Dars davomida o‘rgangan nazariy tushunchalar.
- **Amaliy masalalar**: Talabalar amaliy ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazishlari uchun masalalar.

2. Feedback

Talabalardan video darslar haqida fikr-mulohazalar to‘plash va ularni yaxshilash uchun foydalanish muhimdir. Bu o‘qituvchilarga talabalarning qaysi joylarda qiyinchilikka duch kelayotganini tushunishga yordam beradi.

Qo‘shimcha Resurslar va Materiallar

1. Qo‘shimcha O‘qish Materiallari

Video darslarda muhokama qilingan mavzularga oid qo‘shimcha materiallar (kitoblar, maqolalar, video materiallar) taqdim etish talabalar uchun foydali bo‘ladi. Bu resurslar orqali talabalar mavzuni yanada chuqurroq o‘rganishlari mumkin.

2. Forumlar va Muhokamalar

Talabalar o‘rtasida forumlar yoki onlayn muhokama guruhlarini tashkil etish, ularning o‘rgangan bilimlarini almashishga yordam beradi. Bu talabalarga o‘zaro tajriba almashish va muammolarni birga hal qilish imkonini beradi.

Xulosa

Muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda video darslar zamonaviy ta'lim metodlarini qo‘llash imkonini beradi. Interaktiv va vizuallikka asoslangan yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlar va o‘zaro hamkorlik talabalarning qiziqishini oshiradi va ularning bilimlarini mustahkamlaydi. Ushbu usullarni amalga oshirish orqali muhandislik grafikasi ta'limini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin. Video darslar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi, bu esa talabalarni kelajakdagi muhandislik faoliyatlariga tayyorlaydi

Adabiyotlar

1. Giese, H., & Hartmann, H. (2013). *Engineering Graphics: A Comprehensive Guide for Students and Professionals.* Springer.

2. **Shah, J. J., & Mantyla, M. (2010).** *Parametric Modeling with SolidWorks.* SDC Publications.

3. Stine, J. (2007). *Technical Drawing with Engineering Graphics.* Pearson.

4. Sadykova, R. M. *Zamonaviy ta’limda kompyuter grafikasi* (O‘quv qo‘llanma). Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2021.

5. Qodirov, F. T. *Innovatsion ta’lim usullari* (O‘quv qo‘llanma). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2019.

6. Ergashov, E. *Chizmachilik va kompyuter grafikasi: o‘qitish metodikasi* (O‘quv qo‘llanma). Toshkent: O‘zbekiston davlat texnika universiteti, 2020.

7. Akhmedov, A. M. "Zamonaviy ta’lim usullarining chizmachilikda qo‘llanilishi." *O‘zbekiston ta’limi va innovatsiyalari* jurnali, 2021 yil, 2-son.

8. Samatov, I. "An’anaviy va zamonaviy ta’lim usullarining ta’siri." *Ta’lim va innovatsiyalar* jurnali, 2020 yil, 3-son.

9. Hoshimov, M. M. *Ta’limda virtual haqiqatning o‘rni* (O‘quv qo‘llanma). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2021.

10. Turayev. X.A . Chizmachilik va texnik chizma (Darslik). Termiz: Termiz davlat universiteti, 2017.

11. Turayev. X. A. Chizmachilik fanidan o‘quv qo‘llanma. Termiz: Termiz davlat universiteti, 2018.

12. Turayev. X. A. Muhandislik chizmalari: nazariy asoslar va amaliy ko‘nikmalar. Termiz: Termiz davlat universiteti, 2020.

13. Turayev. X. A. Chizmachilikda innovatsion texnologiyalar (O‘quv qo‘llanma). Termiz: Termiz davlat universiteti, 2021.

KOMBAYNNI SAMARALI ISHLATISHDAGI IQTISODIY SAMARANI ANIQLASH

Shamayev Yigitali Jumayevich assistent, TerDMAU
Shoimqulov Asror Abdunabiyevich PhD, TerDMAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida sug‘oriladigan erlardagi g‘alla hosildorligi o‘rtacha bo‘lganligi sababli, sekundiga 7...8 kg g‘allani sifatli yanchib beraoladigan kombayndan foydalanish ma’qul bo‘ladi. Shunda o‘rim-yig‘imning tan narhi pastroq bo‘ladi. Bug‘doy poyalarini iloji boricha past o‘rishga (15 sm dan pastroq) intilish kerak. Chunki past bo‘yli poyalarning kesib olingan boshoq qismi qisqa bo‘lib, ularni shnek parraklari birdaniga ilintirib olaolmaydi, boshoqlar uyumlanib qoladi. Ularning ayrim qismlari erga tushib ketadigan bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Keys-2366, Enisey-1200, Dominator-130 kombaynlari.

Kirish: Har qanday kombayndan foydalanishda, birinchi navbatda, don nobutgarchiligi joiz hisoblanadigan me’yorlardan oshib ketmasligini ta’minlash talab qilinadi. 2006 yildan boshlab Respublikamizda ko‘plab Germaniyaning “Claas” firmasida tayyorlanadigan “Dominator 130” kombaynlari sotib olinmoqda. Chunki bu kombaynlarning ko‘rsatkichlari Respublikamiz g‘allachiligi sharoitlariga

to‘liq javob beradi. Bir sekundda yanchib bera oladigan g‘alla miqdori bo‘yicha, yoqilg‘i sarfi bo‘yicha, narxi bo‘yicha bu kombaynlar bizlardagi sharoitga to‘g‘ri keladi. Mazkur “Claas” Dominator 130 kombayni qisimlarini mahalliy sharoitlarga moslab ishlatish bo‘ycha tavsiyalar keltirdik. Tabiiyki, kombaynning hamma qisimlari bo‘yicha tavsiyalarni kichik hajmda keltirishni iloji bo‘lmaydi. Shu ma’lumotlar, asosan, bevosita don nobutgarchiligi ta’sir qiladigan qismlarga bag‘ishladik.

Asosiy qism: Ma’lumki bugungi kunda xo‘jaliklarda g‘allani kombaynlarda o‘rib-yig‘ishtirish texnologiyasidan foydalanilmoqda. Bu texnologiyada g‘alla asosan Keys firmasining Keys-2366, Rossiyaning Enisey-1200 va Klaas firmasining Dominator-130 kombaynlari yordamida o‘rilib donni yig‘ib olinmoqda, somon esa alohida yig‘ishtirilyapti. Somonni yig‘ishtirish ikki usulda, ya’ni KIR-1,5 yoki KPI-2,4 mashinalari yordamida maydalab va PPL-F-1,6 yig‘gich-presslagich mashinasi yordamida toylab yig‘ishtirilayotganligi sababli har ikkala usul taqqoslash uchun qabul qilindi (1-rasm).



1-rasm. G‘allani to‘g‘ridan-to‘g‘ri kombaynda yig‘ishtirish texnologiyalari

Qishloq xo‘jaligida ham yangi texnika vositalarini joriy etish orqali moddiy va mehnat sarfining kamayishiga, olinayotgan mahsulotning ortishi hamda sifatining yaxshilanishiga va buning natijasida iqtisodiy samaraga erishilinadi.

Biz ishlab chiqqan tavsiyalar asosida Dominator-130 kombayni qismlarini mahalliy sharoitlarga moslab, so‘ngra g‘alla yig‘ishtirib olinsa ish jarayonida don nobudgarchiligining kamayishi va kombayndan foydalanish samaradorligining oshishi natijasida qo‘shimcha 10-12 foiz don olinadi. Shunga ko‘ra biz iqtisodiy samarani qo‘shimcha olinadigan don miqdori bo‘yicha hisobladik hamda shartli

ravishda kombaynni odatdagi yo‘l bilan va tavsiyalar asosida ishlatishni texnologiyalar sifatida taqqoslab bordik.

Aniqlangan iqtisodiy samaradorlik xisobiy bo‘lib, texnologiyalar sinovdan o‘tkazilib taqqoslanish imkoni bo‘lmaganligi sababli, undagi ma’lumotlar mavjud manbalardan olindi va shu asosda xisob-kitob ishlari amalga oshirildi. Xisob-kitob ishlarida ishlab chiqarishda yangi texnika, texnologiya, ixtiro va foydali takliflarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qo‘llaniladigan uslubiy qo‘llanma va me’yoriy xujjatlardan Texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ifoda orqali topildi:

$$E_g = (P_b - P_n) \cdot A_n, \qquad (1)$$

bu erda P_b i P_n - mavjud va yangi texnologiyalar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar, sum/ga;

A_n - yangi texnologiyaning yillik me’yori, ga.

Ish birligiga to‘g‘ri keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar ushbu ifoda bo‘yicha topildi:

$$I_{ud} = Z_r + A_m + R_r + G_e + X_m \qquad (2)$$

bu erda Z_r – ishchilarning ish haqi, sum/ga;

A_m – amortizatsiya ajratmalari, sum/ga;

R_r – ta’mirlash xarajatlari, sum/ga;

$G_{e(gsm)}$ – yonilg‘i-moylash materiallari va elektr energiya xarajatlari, sum/ga;

$$Z_r = \frac{1}{W_{sm}} \sum_{i=1}^{n} N_m f_r \qquad (3)$$

bu erda W_{sm} – texnologiyalar bo‘yicha 1 soatdagi mashinalarning ish unumdorligi, ga/ch;

N_m – xizmat ko‘rsatuvchi ishchilar soni, kishi;

f_r – VI razryad bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchilarning soatlik tarif stavkasi to‘lovi, sum/ch.

$$A_m = \sum_{i=1}^{n} \frac{B_m \cdot a_m}{T_n \cdot W_{ek}} \qquad (4)$$

bu erda a_m – amortizatsiya ajratmasi koeffitsienti;

B_m – mashinalarning balans bahosi, so‘m;

T_n – yillik yuklanish, soat;

W_{ek} – ekspluatatsion ish unumdorligi, ga/soat.

$$P_m = \sum_{i=1}^{n} \frac{Б_m \cdot a_r}{T_n \cdot W_{ek}} \qquad (5)$$

gde a_r – ta’mirlashga ajratma koeffitsienti.

$$G_{e(gsm)} = S_{e(gsm)} \cdot \sum_{i=1}^{n} Q_{e'(gsm)} \qquad (6)$$

gde $S_{e(gsm)}$ - 1 birlik yonilg‘i-moylash materiali va elektr energiya narxi, kg/sum;

$Q_{e(gsm)}$ – ish birligiga sarflanadigan yonilg‘i-moylash materiali va elektr energiya, kg/ga.

P_{ud}, va I_{ud} ko‘rsatkichlarni aniqlash bo‘yicha qabul qilingan boshlang‘ich ma’lumotlar va texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini xisoblash natijalari keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, mavjud va taklif etilayotgan g‘alla o‘rish usullarida ish haqi xarajatlari 360900,9 so‘m/ga ni tashkil etsada, ammo to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarf-harajatlarning boshqa turlari bo‘yicha taklif etilayotgan texnologiya mavjud texnologiyaga nisbatan bir muncha tejamliroq bo‘lib, sarf-xarajatlar 15 foizga kam bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Xisob-kitob natijalari shuni ko‘rsatdiki, g‘allani kombaynlar yordamida uni ish rejimlarini mahalliy sharoitlarga moslab yig‘ishtirib olinganda hosilni yig‘ib olishga ketadigan sarf-xarajatlar gektariga 273460,4 so‘mni, amaldagi tartibda yig‘ishtirib olinganda esa sarf-xarajatlar gektariga 319060,5 so‘mni tashkil etib, 45600,1 so‘mga yuqori bo‘lar ekan. Bunda bitta g‘alla kombayni bilan mavsum davomida 400 gektar g‘alla yig‘ishtirib olinishini hisobga olsak, u holda iqtisodiy samara 18240400 so‘mni tashkil etishi ma’lum bo‘ladi.

Xulosa: Respublikamizda dunyodagi eng sifatli ishlaydigan kombaynlar foydalanilayotgan bo‘lsa, ham ularni mahalliy sharoitlarga moslab ishlatish ko‘p samara beradi. Har bir rusumli kombaynni O‘zbekiston sharoitiga moslab ishlatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Shoumarova, T.Abdullaev, Qishloq xo‘jaligi mashinalaridan praktikum, Toshkent-2010.
2. M.Shoumarova, T.Abdillaev Qishloq xojaligi mashinalari.Toshkent, “Oqituvchi” 2009.
3. Тошболтаев М.Пахтачилик ва ғаллачилик машиналарини ростлаш ва самарали ишлатиш. Тошкент ,”Фан”2009.

ЭЛЕКТРОВОЗЛАР ТОРТУВЧИ АСИНХРОН МОТОРЛАРИНИ ДИАГНОСТИКА ҚИЛИШ

Шоимқулов Асрор Абдунабиевич PhD, (ТерДМАУ)
Шамаев Йигитали Жумаевич ассистент, (ТерДМАУ)

Аннотация: Техник диагностиканинг мавжуд тест ва функционал усуларининг қиёсий таҳлилидан келиб чиқиб, тортувчи асинхрон моторлар (ТАМ) техник ҳолатини баҳолашда функционал диагностика усулларидан

фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Иссиқлик, электр, виброакустик ва магнит функционал диагностикалаш усулларининг қисқача қиёсий таҳлилидан ҳар бир усул ўзига хос хусусиятларга, афзаллик ва камчиликларга эга бўлиб, уларнинг алоҳида биттаси билан ТАМ техник ҳолатини етарлича аниқликда ва тўла диагностикалаш имконияти бўлмайди. Шунинг учун ҳам ушбу усулларни такомиллаштиришдан ташқари, ТАМ техник ҳолатини етарлича аниқликда ва тўла диагностикалашда уларни биргаликда қўллаш мақсадга мувофиқ бўлади.

Калит сўзлар: асинхрон мотор, статор, ротор, функционал диагностика, электромагнит усул, виброакустика, ташқи магнит майдон.

“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ локомотив парки замонавий локомотивлар билан янгиланиб, бойитиб борилмоқда. “O‘zbekiston”, “O‘zbekiston”-Y, O‘z-EL, O‘z-ELR, 2O‘z-UY серияли электровозларда асинхрон моторлар ўрнатилган бўлиб, улар катта тортув кучини ҳосил қилишга ёрдам беради. Тортувчи асинхрон мотор(ТАМ)лар ўзгармас тортувчи электр моторларига нисбатан жуда ишончли ва хизмат муддатининг узоқлиги билан фарқланишига қарамай, турли нуқсонлар ва носозликлардан ҳоли эмас. ТАМларда нуқсонлар ва носозликлар пайдо бўлишига таъсир қилувчи омилларга атроф-муҳит таъсири, ишлаб чиқариш ва таъмирлашда йўл қўйилган хотоликлар, турли динамик таъсирлар ва нотўғри фойдаланиш ҳолатлари киради. Маҳаллий ва хорижий тажриба шуни кўрсатадики, диагностика воситаларини жорий этиш локомотивлардан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлигини оширишнинг энг муҳим омилларидан биридир. Диагностиканинг мақсади нуқсонлар ва носозликларни аниқлаш ва уларнинг олдини олиш, белгиланган чегараларда операцион кўрсаткичларни сақлаш, ресурсдан тўлиқ фойдаланиш учун ҳолатни башорат қилишдир [1].

ТАМларни диагностикалашнинг замонавий тизимлари ва усулларини икки гуруҳга бўлиш мумкин [2]. Биринчи гуруҳга тест асосида диагностикалаш усуллари киради. Бу усулларда изоляция қаршилиги, ундаги диэлектрик йўқотиш тангенси бурчаги, изоляциядан корпусга сирқиб ўтувчи токлар, чулғамлар ички қаршилиги ва бошқаларни ўлчаш ишлари амалга оширилади. Аммо бундай диагностикалаш нафақат турли нуқсонлар ривожланишининг олдини олишга, балки уларнинг пайдо бўлишига ҳам сабабчи бўлади. Масалан, ТАМларини режали таъмирлаш вақтида, тўлиқ йиғилгандан сўнг, мотор юқори кучланиш остида синовлардан ўтказилади, бу эса мотор изоляциясига зарарли таъсир кўрсатади. Шунингдек, ортиқча юкланишлар, тез-тез ишга тушириш ва тўхташлар таъсирида ТАМнинг ишлаши пайтида чулғамларда ривожланадиган микродефектларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Бундан ташқари, тест асосида диагностикалашнинг

камчиликларига ТАМнинг ишлашини вақтинча тўхтатиб туриш, унинг тўлиқ ишдан чиқишига йўл қўймаслик учун унинг ишлаши пайтида моторни ҳимоя ўчириш имкониятининг йўқлиги, ушбу ускунанинг нормал бўлмаган иш режимларини назорат қилиш имкони йўқлигини ва бошқа ҳолатларни келтириш мумкин [3].

Иккинчи гуруҳга функционал диагностикалаш усуллари киради. Улар иқтисодий жиҳатдан энг мақбул ҳисобланади, чунки улар электр жиҳозларини вақтинча ўчиришни талаб қилмайди. Таъмирлашга тайёргарлик кўриш учун, бузилишдан анча олдин ресурсга таъсир қиладиган барча нуқсонларни аниқлаш лозим бўлади. Шу муносабат билан, нафақат функционал тоифага кирувчи, балки ТАМларнинг маълум бир қисмидаги нуқсонни аниқлашга имкон берадиган диагностикалаш усулларидан фойдаланиш керак [4].

Ҳозирги вақтда асинхрон моторларни функционал диагностикалашнинг қуйидаги усуллари кенг тарқалган: иссиқлик; электр; виброакустик; магнит.

Иссиқлик усулида электромагнит жараёнлар туфайли ТАМларда юзага келувчи термик жараёнлар параметрларини, масалан, статор пази, ротор стерженлари, магнит ўтказгич ва бошқа қисмлардаги ҳарорат ёки улардан тарқалаётган иссиқлик нурланиши аниқланади. Ўлчаш учун характерли нуқталар ТАМ элементларининг конструктив хусусиятлари ва улардаги иссиқлик генерацияси соҳаларининг жойлашишидан келиб чиққан ҳолда танлади [5]. Мазкур усулнинг камчиликларига ТАМ ҳаракатланувчи қисмларининг техник ҳолатини диагностикалаш ва иссиқликни назорат қилишнинг оптимал режимини танлаш мураккаблиги ва ТАМлар изоляциясининг ички шикастланишини кузатиш учун мос эмаслигидир.

Электр усули ТАМ статор токларининг ўзгариши; кучланишларининг амплитуда ва частотасини номинал қийматларидан оғиши; токлар, кучланишлар ва бошқалар спектрида юқори гармоникаларнинг пайдо бўлишини аниқлашва таҳлил этишга асосланган [6]. Усул статор ўрамларида оралиқ қисқа туташувлар мавжудлигини ва роторнинг шикастланишини (синган стерженлар, стерженларнинг контакт ҳалқаларига маҳкамланишининг заифлашиши, қуймадаги яширин нуқсонлар), мотор валининг нотўғри ўрнашиши, эксентриситети, маҳкамлаш элементларининг бўшаши, ТАМнинг механик қисми билан боғлиқ нуқсонларни аниқлаш имконини беради.

Виброакустик диагностикалаш усулида ТАМнинг вибрацион параметрлари аниқланади. Диагностика объектининг ўзига хос хусусиятлари эталон сифатида ишлатилади ва эксплуатациянинг дастлабки босқичида ўлчанади. Бу усул ёрдамида паст частотали спектрларни таҳлил қилиш ва ротор тезлиги билан боғлиқ бўлган когерентлик функцияси ва уларни спектрлар билан таққослаш асосида корпус қисмларининг эгилиши, ротор

мувозанатининг бузилиши, подшипниклардаги нуқсонларни ва бошқа нуқсонларни аниқлаш аниқлаш мумкин. Махсус виброакустик датчиклардан фойдаланиш зарурати, уларни ўрнатишнинг мураккаблиги ва натижаларни таҳлил қилишнинг қийинлиги шунингдек, паст кучланишли моторларнинг электр шикастланишига етарлича сезгир эмаслиги виброакустик диагностикалаш усулининг асосий камчиликларига киради [8].

Магнит функционал диагностикалаш усули ТАМ ишчи ҳаво оралиғидаги ишчи магнит майдони ва/ёки унинг ташқи томони орқали бирлашадиган сочилган (ташқи) магнит майдони параметрларини назорат ва таҳлил қилишга асосланган [9].

ТАМ ташқи магнит майдони параметрларини назорат қилишга асосланган усулининг моҳияти шундан иборатки, ишлаб турган моторнинг ташқи қисмига сочилган магнит майдонининг оқими ёки индукцияси) тегиш ўлчов асбоблари ёрдамида ўлчанади. Ўлчаш асбобидан олинган сигнал компьютерга узатилиб, рақамли кўринишга келтирилади ва қайд этилади. Олинган сигналларни анализатор ёрдамида спектрал таҳлили ўтказилади ва олинган натижага қараб носозлик тури ва жойи аниқланади [10].

Бу усул ёрдамида статор чулғамидаги ўрамлараро туташишлар, фаза узилиб қолиши, подшипниклардаги носозликлар, ротордаги статик ва динамик эксцентриситетлар диагностикаланиши мумкин [11]. Ташқи магнит майдони таҳлилига асосланган ушбу магнит усули ёрдамида олинган натижаларнинг аниқлилиги 92 % ни ташкил этади [12].

Хулоса

Техник диагностиканинг мавжуд тест ва функционал усулларининг қиёсий таҳлилидан келиб чиқиб, тортувчи асинхрон моторлар техник ҳолатини баҳолашда функционал диагностика усулларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Иссиқлик, электр, виброакустик ва магнит функционал диагностикалаш усулларининг қисқача қиёсий таҳлилидан ҳар бир усул ўзига хос хусусиятларга, афзаллик ва камчиликларга эга бўлиб, уларнинг алоҳида биттаси билан ТАМ техник ҳолатини етарлича аниқликда ва тўла диагностикалаш имконияти бўлмайди. Шунинг учун ҳам ушбу усулларни такомиллаштиришдан ташқари, ТАМ техник ҳолатини етарлича аниқликда ва тўла диагностикалашда уларни биргаликда қўллаш мақсадга мувофиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ширман А.Р., Соловьев А.Б. Практическая вибродиагностика и мониторинг состояния механического оборудования. – М., 1996. – 276 с.

2. Бигус Г. А. и др. Основы диагностики технических устройств и сооружений. – 2015.

3. Сидельников Л. Г., Афанасьев Д. О. Обзор методов контроля технического состояния асинхронных двигателей в процессе эксплуатации //Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Геология, нефтегазовое и горное дело. – 2013. – №. 7. – С. 127-137.

4. Пономарев В.А., Суворов И.Ф. Комплексный метод диагностики асинхронных электродвигателей на основе использования искусственных нейронных сетей // Новости электротехники. – 2011. – № 2 (68).

5. Исмагилов Ф.Р., Хайруллин И.Х., Пашали Д.Ю., Бойкова О.А. Обзор современных методов и средств оперативной диагностики электромеханических преобразователей энергии // Вестник УГАТУ: «Энергетика, электрификация и энергетическое машиностроение», Уфа, 2010. – Т. 14, № 4 (39). – С. 73–79.

6. Петухов В. С. Диагностика состояния электродвигателей. Спектральный анализ модулей векторов Парка напряжения и тока // Новости электротехники. 2008. № 49. С. 50–52

7. Лопатин А. С. Обоснование диагностических признаков дисбаланса роторов // Вибродиагностика для начинающих и специалистов: [2007] URL: http://www.vibration.ru/disb_rot.shtml (дата обращения 20.12.2009).

8. Тонких В.Г. Метод диагностики асинхронных электродвигателей в сельском хозяйстве на основе анализа их внешнего магнитного поля. – Барнаул, 2009. – 181 с.

9. Амиров С., Авезова Н., Файзуллаев Ж. Диагностические-математические модели тяговых асинхронных двигателей //Транспорт Шёлкового Пути. – С. 49.

10. Yakubov M. S. et al. Methodological aspects of continuous controlling and diagnostics traction electrical equipments using methods of spectral analysis //Chemical Technology, Control and Management. – 2018. – Т. 2018. – №. 1. – С. 85-90.

11. Бойкова О.А. Функциональная диагноистика неисправностей электромеханических элементов электротехнических комплексов по внешему электромагнитному полю дис. ... канд. техн. наук: 05.09.03. Уфа, УГАТУ, 2009. - 150 с.

12. Пашали Д.Ю. Диагностика электромеханических преобразователей по внешнему магнитному полю: дисс. ... к.т.н., Уфа, УГАТУ, 2004. -182 с.

ПАХТА ТОЗАЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ЭЛЕВАТОРЛАР ТАХЛИЛИ

Турдиев Бахтиёр Эргашович (ТДМАУ)

Пахта тозалаш корхоналарида пахта чигитини, чиқиндиларни ва бошқаларни вертикал ва оғма кўринишда ишлайдиган элеватордан фойдаланилади.

ЭХС русумли элеватор (1-расм) пахта, чигит ва чиқиндиларни вертикал йўналишда ташишга мўлжалланган. Мазкур элеватор шунга ўхшаш механизмларнинг энг яхши модификацияси ҳисобланади. Элеватор тароқли лента (пахтани ташишда) ёки чўмичли лента (чигит ёки чиқиндиларни ташишда) билан комплектланади. Элеватор бош қисм, бошмоқ, ҳаракатлантирувчи мослама, қувурлар тўплами, тароқли лента (пахта ташишда) ёки чигит ва чиқиндилар ташишда чўмичли лентадан иборат [1].

2-жадвалда ЭХС русумли элеваторнинг техник кўрсаткичлари келтирилган.

1- жадвал

ЭХС элеваторининг техник характеристикаси

Кўрсаткичлар	Кўрсаткич миқдори
Иш унумдорлиги, t/h: а) тасманинг ҳаракати йўналиши бўйича юк ортилганда: -пахта бўйича -чигит бўйича б) тасма ҳаракатланишига қарши юк ортилганда: - пахта бўйича -чигит бўйича	 20 35 12 25
Ўрнатилган қуввати, kWt	3,0
Барабаннинг айланиш частотаси, r/min	112
Тасманинг эни, mm	500
Габарит ўлчамлари, mm: -узунлиги -эни -баландлиги, mm: -энг ками -энг кўпи	 1836 1557 5259 15259



1-расм. ЭХС русумли элеватор схемаси

1-элеватор боши; 2- тушириш тешиги; 3,4,5, 6-қувурлар; 7-бошмоқ; 8-чўмичли ёки
тароқли лента; 9-мотор-редуктор; 10-бетонли асос; 11-элеваторни қотирувчи болтлар

Элеватор қуйидагича ишлайди: аррали жин ва линтерлардан чиққан чигитларни кейинги технологик жаранга узатади. Элеватор чўмичларига 8 шнеклар орқали чигитлар узатилади. Юқорига кўтарилган чигитлар тушириш тешиги 2 орқали чиқариб юборилади. Чўмичлардан отилиб чиққан чигитлар таъсир этувчи пластинага бориб урилади ва натижада чигитларнинг шикастланишига олиб келади. Чигитланинг шикастданишини камайтириш мақсадида пластина ўрнига лентали конвейер ўрнатилган бўлиб, ўтказилган тажрибалар натижасида чигитларнинг шикастланишини 0,8-1,0% гача камайишга олиб келди.

Тажриба Сурхондарё вилоятининг Қумқўрғон, Жарқўрғон, Денов ва Музработ туман пахта тозалаш корхоналарида чигитларни ташишда қўлланиладиган элеваторларда ўтказилди. Тажриба ўтказишда чигитларнинг шикастланганлигини аниқлаш учун элеваторгача ва элеватордан кейинги чигитлардан намуналар олиниб, лаборатория шароитида текширилди.

Тажриба натижалари 2-жадвалда келтирилган..

2-жадвал

№ т/р	Пахтанинг селекцион нави	Пахта-нинг саноат нави	Чигит-нинг намлиги, %	Чигитнинг ифлос-лиги, %	Чигитнинг элеватор-гача шикаст-ланиши , %	Элеватор-дан кейинги шикаст-ланиши , %
Жарқўрғон ПТЗ						
1.	Беш қахрамон	1/1	7,7	0,3	2,4	2,2
Қумқўрғон ПТЗ						
2.	Султон	3/1	9,5	0,8	3,3	3,1
Денов ПТЗ						
3.	Султон	1/1	7,6	0,5	2,3	2,1
Музработ ПТЗ						
4.	Султон	1/1	7,5	0,4	2,1	1,9

Ўтказилган тажрибалардан кўринадики, чигитларнинг лентали конвейерга бориб урилгандан кейин шикастланишнинг камайишига олиб келди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Пахтани дастлабки ишлаш бўйича справочник. М.Т.Кулиев тахрири остида. 2019й, 479 бет.

2. Турдиев Б.Э., Росулов Р.Х., Усманов Х.С., Райимкулов Ж.К. Теоретический анализ потока семян на ковшовом элеваторе.// Журнал UNIVERSUM Выпуск: 9(126), Сентябрь 2024, Часть 2, 58-64 стр.

МАҲАЛЛИЙ ҚЎЙ ЗОТЛАРИ ЖУНЛАРИНИНГ ФИЗИК КИМЁВИЙ ХОССАЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Мустафо Урозов,
Термиз давлат муҳандислик ва агротехнологиялар университети
Тохир Жўраев ,
Ўзагроинспекция" нинг Жарқўрғон туман бўлими
Ортиқ Омонтурдиев
Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти

Аннотация Республикада маҳаллий хомашёни қайта ишлаш ва ундан тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш орқали иқтисодий ривожланишнинг янги босқичини эгаллаш, маҳсулот ва иш сифатини янада юқори даражаларга кўтариш ғоят зарур бўлган масалалардан биридир.

Кириш Республикада маҳаллий хомашёни қайта ишлаш ва ундан тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш орқали иқтисодий ривожланишнинг янги босқичини эгаллаш, маҳсулот ва иш сифатини янада юқори даражаларга кўтариш ғоят зарур бўлган масалалардан биридир. Сўнгги йилларда томонидан тўқимачилик саноатида юқори сифатли, рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқарувчи замонавий тўқимачилик корхоналари ташкил этилди. Натижада тармоқда ишлаб чиқариш ҳажми ва халқаро стандартларга жавоб берадиган тўқимачилик маҳсулотлари экспорти барқарор ўсиб бормоқда. Хорижий мамлакатлар билан алоқалари тобора ривожланиб бораётган бир вақтда мамлакатимиз иқтисодиётига киритилаётган сармоя ҳажми ошиб, хорижий ва хусусий корхоналар сони кўпаймоқда.

Олинаётган жунлардан сифатли нотўқима матолар ишлаб чиқариш шу билан бир қаторда толанинг сирт кўринишини яхшилаш муҳим тармоқларидан бири ҳисобланади унинг асосида газламалар, трикотаж, одеял, гилам, техник матолар ип ва бошқа маҳсулотлар олинади. Жун саноати олдида турган асосий вазифалардан бири маҳсулот ҳажмини ошириш, маҳсулот сифатини яхшилаш, меҳнат унумдорлигини ошириш, хомашё ва матолардан имкон борича самарали фойдаланиш, илм-фан ютуқларини саноатга тадбиқ этиш ҳамда мавжуд корхоналарни реконструкция қилишдир.

Маҳаллий жун толаси билан ишлаш бироз мураккаб бўлиб, ўзига бўёвчи моддани олмайди, асосан ўлик ва қуруқ кўринишда бўлади. Ишлов бериш жараёнида йўқотиш кўпроқ бўлади, республикамизда қўй жуни (95-97%), эчки (2-3%) қолган қисми эса туялар ташкил этади.

1-жадвал

Қўй жунининг кўрсаткичлари

Қуй зотлари	Жун тури	Оғирлиги, кг	Узунлиги	Ранги	Ишлатилиш соҳаси
Қора кўл	Ярим майин дағал	1,8-2,0 кг	8-16	оқ қора жигаранг	гилам кигиз
Жайдари	Дағал	2,0-2,5 кг	8-15	оқ қора жигаранг, қизил, кўк	нотўқима матолар бошқалар
Хисори жуни	Дағал	0,8-1,2 кг	6-8	ҳар хил	нотўқима матолар

Тадқиқот материаллари ва услуби. Жун толасининг асосини оқсил, кератиндан ташкил топган бўлиб мураккаб тузишга эга. Жун толаси икки қатламдан сиртқи тангачасимон қобиқ ва ички қатламдан иборат. Тола массасининг асосий қисмини ташкил этувчи қобиқ қатлам таркиби ўзининг хоссалари билан фарқ қилувчи икки қисмдан тузилган. Қатлам тола ўқи бўйича тартибли тузилишга эга бўлган урчуқсимон хўжайралардан тузилган. Умумий олганда, толанинг ҳамма қатламлари асосан хужайрасининг таркиби шакли ва ўлчамлари билан фарқланувчи кератиндан ташкил топган. Жун толалари оқсил ва тасодифий ифлосликлар, целлюлоза, мумсимон моддалар ва туз аралашмаларидан иборатдир.

Жун толалари илдиз ва тана қисмлардан иборат бўлиб толаси ўзига намликни яхши сингдиради ва узоқ вақтда ўз таркибида тутиб туради. Буғ, ҳарорат ва босим таъсирида жун толасидаги оқсил моддалари ва толанинг ўзи ҳам ўз шаклини ўзгартириши аниқланган.

Узунлик жун толасининг асосий кўрсаткичларидан биридир. Жонивор танасининг турли жойларида жун узунлиги турлича бўлади, кўкрак, ён томон, оёқ, қорин ва умуртқага нисбатан жун узун бўлади. Жун толасининг турига қараб, унинг ўртача пишиқлиги тивит учун 6-9 см, ярим дағал жун учун 15-18 см, дағал жун учун эса 16-19 см бўлади. Жун толасининг нисбий чўзилувчанлиги қуруқ ҳолда 25-35%, нам ҳолатда 50 % гача этади. Жун толасининг зичлиги 1,28-1,32 г/см. Қўй жуни бир тоифадаги ва турли тоифадаги жунларга бўлинади. Бир тоифадаги жунлар асосан тивит ва оралиқ

толалардан иборат бўлади. Турли тоифадаги жун эса тивит, дағал тўқ, оралиқ тола ва ўлик толадан иборат бўлади. Иссиқлиқ сақлаш қобилияти жуннинг энг муҳим хусусиятларидан бири бўлиб, юқори иссиқлик ҳимоялаш хусусиятларига эга. Толанинг таркибий қисмини иссиққа боғлаб, толалар орасида ушлаб туриши туфайли содир бўлади. Жун гигроскопик тола бўлиб 100-105°С ҳароратда қуритилганда, таркибидаги намликни йўқотади ва тола дағаллашиб механик хоссаси ёмонлашади. Қайта намлаш эса жун толасига аста-секин бошланғич холатга тиклашга олиб келади. Лекин 105°С ҳароратдан юқорида узоқ вақт қиздириш жун толасининг физик-механик хоссасини ёмонлаштиради. Жун толасига органик кислоталар деярли таъсир кўрсатмайди. Ишқорлар таъсирида жун физик-механик хоссасини ёмонлаштиради. Масалан 3% ли ўювчи натрий эритмасида жун қайнатилганда унинг тўлиқ эриши кузатилади. Баъзи тузлар таъсирида эса жун толасининг сарғайиши ва кератиннинг қисман парчаланиши кузатилади.

Жун толаси оксидловчи ва қайтарувчилар таъсирига чидамсиз. Қайтарувчилар таъсирида кератин макромолекулалари орасида ҳосил бўладиган кўндаланг цистин боғланишлар қайтарилади ва узилади натижада жун толасининг физик-механик хоссалари сусаяди. Жун толаларининг момиқ, оралиқ қил, тук, қил турлари мавжуд. Момиқ энг қиммат, ингичка, эластик, майин жингалак тола ҳисобланади. Оралиқ қил хоссалари бўйича момиқ ва тўқ орасидаги ҳолатни эгаллайди. Тўқ дағал ва қалин тола ҳисобланади. Ўлик қил тола эса унчалик пишиқ эмас, лекин жуда дағал бўлади.



1-расм. Жун толасининг морфологик кўриниши.

1-расмда кўрсатилганидек жун толаларида жуда ҳам мураккаб структурага эгадир. Бу мураккаблик тола ипининг йўналишида ташқи тангача бўйлаб фарқланишидир. Тангачалар структураси тола юзасига унинг калавадаги толалар ўртасида ишқаланишни пайдо қилувчи ва шу сабабли унинг мустаҳкамлигига ҳисса қўшувчи дағаллик хусусиятини беради.

Тузилишига кўра 3 та қават:

тангача қатлам

мағиз

ўзакдан ташкил топган.

Тангача қатлам (кутикўла) ташқи қобиқ вазифасини бажаради. Ташқи таъсирдан ҳимоя қилади. Тангача қатлам 3 қисмдан иборат. эндокутикула, экзокутикула ва эпикутикула. Тангачалар йўналиши туфайли, ишқаланиш илдизидан учига қараганда учидан илдизга бўйлаб каттароқ бўлади. Бу эса йўналувчи ишқаланиш таъсири деб номланади ва муҳим ишлов бериш кетма кетлигига таъсир этиши аниқланган. Тўқимачилик толалари ва матоларининг сифат кўрсаткичлари физик-механик, гигиеник хусусиятлари билан баҳоланади. Жаҳон олимлари томонидан дағал жун толасини турли силиконли бирикмалар, сирт актив моддалар, ёғ эмулциялари, ёғ кислоталарнинг конденсация маҳсулотлари билан кимёвий модификациялаш орқали майинлаштириш борасида тадқиқот ишларини олиб боришган. Жун маҳсулотларига хўл усулда ишлов беришда айрим моддаларниинг толадан чиқиб кетиши натижасида тола яна дағаллашиб қолиш ҳолатлари кузатилган. Бундан ташқари турли оксидловчиларни қўллаш орқали жун толасининг кутикуласини парчалаш ва ишқор ёрдамида ишлов бериш жараёнлари бўйича ҳам илмий тадқиқотлар олиб борилган. Лекин жун толаси юмшаши билан тангачасимон қатламга зарар етиши оқибатида толанинг физик-механик хоссалари ёмонлашига олиб келади.

